O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O‘ZBEK VA RUS FILOLOGIYASI FAKULTETI

O‘ZBEK TILI KAFEDRASI

“FILOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

Qo‘qon – 2024

Mazkur “FILOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI” mavzusidagi to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Qo‘qon davlat pedagogika instituti, O‘zbek tili kafedrasi tomonidan 2024-yil 21-oktabrda tashkil etilgan anjuman materiallaridan tashkil topgan.

Tahrir hay’ati:
XODJAYEVA D.Sh. – institut rektori, bosh muharrir.
TO‘XTASINOVA O.Y. – o‘zbek tili kafedrasi mudiri, dotsent.
USMONOVA S.A. – o‘zbek tili kafedrasi dotsenti.
RAXIMOVA M.O. – o‘zbek tili kafedrasi dotsenti.
HASANOVA D.O. – o‘zbek tili kafedrasi dotsenti.
JO‘RAYEVA R.A. – o‘zbek tili kafedrasi dotsenti.
TOSHXO‘JAYEVA Sh.G‘. – o‘zbek tili kafedrasi dotsenti.
MAHMUDOVA N.T. – o‘zbek tili kafedrasi katta o‘qituvchisi.
MAMAMAJONOVA M.N. – o‘zbek tili kafedrasi katta o‘qituvchisi.
AHMEDOVA H.T. – o‘zbek tili kafedrasi katta o‘qituvchisi.
RAHMONOV H.A. –o‘zbek tili kafedrasi o‘qituvchisi.

Nashrga tayyorlovchi:
NASIROV M.M. – o‘zbek tili kafedrasi o‘qituvchisi

Taqrizchilar:
JAMOLIDDINOVA D.M. – filologiya fanlari doktori, professor.
I.MADRAXIMOV – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

To‘plam Qo‘qon davlat pedagogika instituti ilmiy Kengashining oktabr oyidagi 3-sonli yig‘ilish bayoni bilan nashrga tavsiya etildi.

Eslatma: ***To‘plamga kiritilgan maqolalar shakli va mazmuniga mualliflarning shaxsan o‘zlari javobgardirlar***

1-SHO‘BA:

TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI

RASMIY MINNATDORCHILIK BILDIRISH EPIDEYKTIK NUTQIY JANR SIFATIDA

Xodjayeva Dilnoza Shavkatovna
Qo‘qon DPI rektori

Annotatsiya. Mazkur maqolada rasmiy minnatdorchilik bildirish epideyktik nutqiy janr sifatidagi hususiyatlari talqin etiladi. Rasmiy minnatdorchilik bildirish deyarli barcha rasmiy nutqlarning kirish va yakuniy qismlarida ishtirok etishi, kirish qismda ishtirok etganda ko‘p hollarda *avvalambor* so‘zi ishtirok etishi maqolada yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Rasmiy nutq, konferentsiya, festival, anjuman, prezident nutqlari, adresat, pragmaritorik maqsadlar.

Abstract. This article explains the features of formal gratitude as an epideictic speech genre. The article highlights that formal gratitude is present in the introductory and final parts of almost all official speeches, and in most cases, the word "first" is present in the introductory part.

Keywords: Formal speech, conference, festival, convention, presidential speeches, addressee, pragmatic purposes.

Til tizimida rasmiy nutqning epideyktik xarakterdagi, ya’ni adresatni maqtashga yo‘naltirilgan turlari ham mavjud. Bunday nutqlarga odatda, turli xil respublika va xalqaro darajadagi konferentsiya, festival, anjumanlarning ochilish marosimidagi so‘zlanadigan nutq sifatida shakllanadi. Masalan, prezident nutqlari ichida epideyktik xususiyatli nutqlar alohida ahamiyatga ega. Ularda tantanavorlilik, jamoaviylik, rasmiylik, rituallik kabi nutqiy vaziyatga xos xususiyatlar to‘la ishtirok etadi. Ularning ko‘tarinki ruhda tashkillanishi va uning mazmunida adresatlarni maqtash pragmaritorik maqsadlarining yotishi ularni epideyktik rasmiy nutqiy janrlar sifatida tadqiq etishga asos bo‘ladi. Rasmiy epideyktik nutqiy janrlar tarkibida rasmiy minnatdorchilik bildirish o‘ziga xos epideyktik nutqiy janrdir. Rasmiy minnatdorchilik bildirish deyarli barcha rasmiy nutqlarning kirish va yakuniy qismlarida ishtirok etadi. Kirish qismda ishtirok etganda ko‘p hollarda *avvalambor* so‘zi ishtirok etadi. Masalan,

1-misol:[1]

Avvalambor, YuNESKO shafeligida o‘tkazilayotgan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivaliga tashrif buyurgan siz, muhtaram san’at namoyandalariga, nufuzli faxriy mehmonlarimizga, xorijiy davlatlarning elchilari va xalqaro tashkilotlar vakillariga, ommaviy axborot vositalari xodimlariga chuqur minnatdorchilik izhor etaman.

Ba’zan minnatdorchilik bildirish kirish qismda tabrik nutqiy janridan so‘ng ifodalanadi. Masalan:

2-misol:[1] Avvalambor, siz, azizlarni betakror qadriyat va an’analar yurti bo‘lgan O‘zbekiston zaminida ikkinchi marotaba o‘tkazilayotgan Xalqaro maqom san’ati anjumanining ochilishi bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Rasmiy minnatdorchilik bildirishda ko‘pincha bevosita ishtirok etayotgan adresatlarga yo‘naltirilayotganligi bois “siz” hurmat ifodalovchi ko‘rsatish olmoshi orqali murojaat qilinadi. Minnatdorchilik adresatlarining isi-sharifining keltirilishi ularga bo‘lgan yuksak hurmatni ifodalaydi. Masalan, *Bugungi tantanamizda YuNESKO Bosh konferentsiyasi 42-sessiyasi prezidenti Simona Mikulesku, AYSESKO Bosh direktori Salim Muhammad al-Malik, TURKSOY Bosh kotibi Sulton Raev, Turkiy madaniyat va meros fondi prezidenti Aktoti Raimkulova, Turkiy davlatlar Parlament Assambleyasi Bosh kotibi Mehmet Sureyya Er, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Bosh kotibi o‘rinbosari Nurlan Seytimov, Turkiya Respublikasi Prezidentining bosh maslahatchisi Yalchin Topchu, Qozog‘iston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Malik Otarbaev, Tojikiston Respublikasi Prezidentining ijtimoiy rivojlanish, madaniyat va jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha yordamchisi Abdullo Rahmonzoda, Qirg‘iz Respublikasi madaniyat, axborot, sport va yoshlar siyosati vaziri Oltinbek Maksutov, Ozarbayjon madaniyat vaziri Adil Gabil o‘g‘li Karimli va boshqa muhtaram mehmonlarimiz ishtirok etayotgani uchun alohida minnatdorlik bildiraman.*

Rasmiy minnatdorchilik bildirish rasmiy nutqning asosiy qismlarida ham ba’zan uchraydi. Masalan, 3-misol:

Barcha-barchangizga fidokorona mehnatingiz uchun o‘z nomimdan, butun xalqimiz nomidan samimiy minnatdorlik bildiraman!

Ba’zan minnatdorchilik bildirish rahmat aytish, tashakkur aytish jumlalari bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan,

Sizlarning “Janob Prezident, shuncha sharoit yaratib beryapsiz, biz ham yangi-yangi ish o‘rinlari yaratib, odamlarni daromadli qilishga, kambag‘allikni qisqartirishga qattiq bel bog‘laymiz” degan gaplaringiz meni quvontirdi.

Buning uchun barchangizga chin qalbimdan rahmat aytaman.

Minnatdorchilik bildirish rasmiy nutqning yakuniy qismida qo‘llanilganda, *fursatdan foydalanib* jumlasi ishtirok etadi. Masalan, 4-misol:[2] *Fursatdan foydalanib, Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanish va taraqqiyotni ta’minlashga qaratilgan tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlab kelayotgan xorijiy do‘stlarimiz va hamkorlarimizga, bugungi tantanamizda ishtirok etayotgan diplomatik korpus vakillariga samimiy minnatdorlik izhor etaman.*

5-misol:[3] Fursatdan foydalanib, XXXIII yozgi Olimpiya o‘yinlarida qatnashib, Vatanimiz sharafini munosib himoya qilgan sportchilarimizga, ularning ustoz va murabbiylariga, O‘zbekiston sport delegatsiyasining barcha a’zolari va rahbarlariga chin dildan minnatdorlik bildiraman!

Tashakkur aytish: *Bugungi tantanamizda g‘olib sportchilarimizning hurmatli ota-onalari ham ishtirok etmoqda. Shunday pahlavon, vatanparvar farzandlarni el-yurtimizga tarbiyalab bergan siz, azizlarga alohida tashakkur aytmoqchiman.*

Tilak, rahmat aytish: *Hech qachon kam bo‘lmanglar, katta rahmat sizlarga!*

Rasmiy nutqning mazmuniy tuzilishi yuzasidan olib borilgan tahlillarga tayanib shuni aytish mumkinki, rasmiy nutqning kirish, asosiy va yakuniy qismlari uchun moslashgan nutqiy janrlar mavjud. Deyarli tilak, minnatdorchilik bildirish, rahmat aytish, tashakkur bildirish, duo, sharaflash, olqishlash kabilar rasmiy nutqlarning kirish va yakuniy qismlarida ishtirok etishi mumkin. Masalan, 6-misol:[1]

Yakuniy qism:

Tilak nutqiy janri: *Fursatdan foydalanib, anjuman doirasida o‘tkaziladigan “Sharq xalqlari musiqa madaniyati: globallashuv jarayonlarida ijodiy uyg‘unlashuv tamoyillari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya ishiga muvaffaqiyat tilayman.*

Tashakkur aytish: *Bugungi san’at bayramini yuqori saviyada tashkil etishga hissa qo‘shgan, o‘z kasbining ustasi va fidoyisi bo‘lgan barcha insonlarga, mehnatkash va olijanob, mehridaryo Samarqand ahliga chin yurakdan tashakkur bildiraman.*

Olqishlash: *Dillarni dillarga, ellarni ellarga bog‘laydigan “Sharq taronalari” olam uzra hamisha baralla yangrasin!*

Tilak nutqiy janri: *Festivalning barcha ishtirokchilariga omad va yutuqlar yor bo‘lsin!*

Yuqoridagilarga xulosa qilib aytish mumkinki, minnatdorchilik bildirish rasmiy nutqlarning kirish, asosiy va yakuniy qismlarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan rasmiy epideyktik nutqiy janrdir. Kirish qismda ishtirok etgan avvalambor, yakuniy qismda ishtirok etganda fursatdan foydalanib jumlalari yordamida shakllantirilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Шарқ тароналари” ўн учинчи халқаро мусиқа фестивалининг очилиш маросимидаги нутқи // https://president.uz/uz/lists/category/5?menu_id=12

2. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг ўттиз уч йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи// https://president.uz/uz/lists/category/5?menu_id=12

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Парижда бўлиб ўтган XXXIII ёзги Олимпия ўйинларида иштирок этган Ўзбекистон спорт делегацияси вакиллари билан учрашувдаги нутқи// https://president.uz/uz/lists/category/5?menu_id=12

TILSHUNOSLIKDA KONTSEPT, TUSHUNCHA VA MA’NO ATAMALARI XUSUSIDA

Ziyayev Avazjon
Qo‘qon DPI professori, filologiya fanlari doktori
Ziyayeva Niluzarxon
Qo‘qon DPI talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kognitiv tilshunoslikning tayanch atamasi sanalmish konsept va uni tuchuncha atamasiga munosabati xususida fikr yuritiladi. Muallif konseptni uzaga kelishi uni tushunchadan farqli va o‘xshash tomonlarini tahlilga tortadi.

Kalit so‘zlar: tasavvur, obraz, tushuncha,mano, til qonunlari, tafakkur qonunlari,til birligi, tafakkur birligi.

Ma’lumki, kognitiv tilshunoslikning tayanch tushunchalaridan biri – bu kontseptdir. Bu atama XX asrning 90 yillariga kelib keng qo‘llanila boshladi. *Kontsept* so‘zi aslida lotincha **conceptus** bo‘lib, “**tushuncha**” ma’nosini ifodalaydi. Hozir ham ko‘pincha “**kontsept**” terminidan “**tushuncha**” so‘zining sinonimi sifatida foydalanilmoqda. Shuningdek, kontsept termini matematik logika, madaniyatshunoslik, psixologiya kabi fanlarda ham faol qo‘llanilmoqda.

Ye.S.Kubryakova ta’kidlaganidek, “**kontsept**” termini tafakkur, anglash, ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash kabi muammolar bilan shug’ullanuvchi kognitiv psixologiya hamda kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya fanlari uchun “**soyabon**” vazifasini o‘taydi [4; 34-47].

Til inson ongida kontseptni ifodalovchi va shakllantiruvchi vositalardan biridir. Kontsept inson aqliy dunyosidagi madaniyatning asosiy yacheykasidir [6; 68]. Kontseptlar inson ongida nafaqat so‘zning lug’aviy ma’nolari asosida, balki shaxsiy hamda butun bir xalqning madaniy-tarixiy tajribasidan kelib chiqib paydo bo‘ladi. Tajriba qancha boy bo‘lsa, kontseptning chegarasi shunchalik keng bo‘ladi. Aynan shunday holatda kontsept o‘zini har tomonlama namoyon eta oladi. Zotan, kontsept dunyoni bilish va u haqda o‘z tasavvuriga ega bo‘lish demakdir.

Professor Sh.Safarov, kontsept shakllanishining boshlang’ich nuqtasi voqelik bo‘lagi (narsa) haqidagi tasavvur – obrazning yuzaga kelishi ekanligini qayd etadi. Chunki bu obraz oddiy bir shakl emas, balki chuqur mazmunga ega bo‘lib, lisoniy belgi bilan bog’lanadi va bu voqelik – kontsept – ong – belgi o‘rtasidagi uzviylikni tashkil qiladi. Belgini qanday tasavvur etish va nomlash ongli bilish yordamida amalga oshiriladi. Bunda lisoniy xotira insonning “**ichki leksikoni**”, ya’ni lug’ati, u qo‘llaydigan so‘zlar majmuining asosini tashkil etadi va bu miyada saqlanadi [5; 16]. Kontseptlar xalqning ongida jamoa merosi sifatida, uning ma’naviy mulki, madaniyati sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan jamoa ongi (fikri) kontseptning yashovchanligini ta’minlovchi muhim vositalardan biri sanaladi.

Oddiy tushuncha va kontsept o‘zining farqli hamda o‘xshash tomonlariga ega. Tushuncha moddiy borliqdagi narsa-hodisalarning eng muhim belgilarini ifodalasa, kontsept ularning yuzaki (o‘ta muhim bo‘lmagan) tomonlarini ham ifodalay oladi. Tushuncha so‘z orqali ifodalanadi. Lekin tushuncha va so‘z aynan bir narsa emas. Tushuncha biror bir sinfga kiruvchi predmetlarni umumlashtirish va bu predmetning umumiy va farqlovchi belgilari majmuasi asosida shakllanadi. Bir umumiy tushuncha turli tillarda turli so‘zlar orqali ifodalanadi. Masalan, ingliz tilida – *water,* nemis tilida *wasser*, o‘zbek tilida *suv*, rus tilida вода kabi. Ushbu misollar so‘z ma’nosi va tushunchaning bir-biri bilan zich aloqada ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli turli millatlar tillaridagi so‘zlar o‘z ma’nosiga ko‘ra bir-

biriga qisman yoki aynan mos kelishi mumkin. Shuningdek, so‘z tushunchaning ifodalovchisi hisoblanadi va shu asosda bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish imkoniyati tug’iladi. Ba’zi olimlar tushuncha va so‘z ma’nosining bir-biriga mos kelishini ta’kidlaydilar hamda shu asosda tushuncha va so‘z ma’nosini mohiyatan bir narsa deb qaraydilar [6; 17]. Bu masala munozaraligicha qolmoqda. Tushuncha va so‘z ma’nosining birligi nimada ko‘rinadi, degan savol tug’ilishi mumkin. Har ikkalasi ham bir xil predmet yoki hodisani ifodalaydi, umumlashtiradi. Bu tarzda ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Tushuncha so‘z va uning ma’nosisiz mavjud bo‘lmaydi va, aksincha, so‘z tushunchaning, fikrning ifodalovchisi hisoblanadi. So‘z ma’nosi til kategoriyasi, tushuncha esa tafakkur kategoriyasi bo‘lishi sababli ular bir-biridan farq qiladi.

Ma’lumki, tafakkur qonunlari ob’ektiv olam bilan bog’liq. Tushuncha mazmuni millatga bog’liq emas, u umuminsoniy xarakterga ega. Shuning uchun ham turli millat vakillari bir-birlarini oson tushunadi, fikr almasha oladi. So‘z esa milliy xarakterga ega bo‘lib, mazkur xalq tilining o‘ziga hos qonun-qoidalari asosida shakllanadi. Shu bois ham bir so‘zning ma’nosi boshqa tildagi so‘z ma’nosi bilan har doim ham mos kelavermaydi. B.Ismoilov o‘z tadqiqotida rus tilidagi “**stol**” tushunchasi ingliz va rus kishisi uchun bir xil bo‘lsa-da, uni leksik ma’nosiga ko‘ra ingliz tilidagi “**table**” so‘zi bilan bir xil ma’noda qo‘llab bo‘lmasligini to‘g’ri ta’kidlaydi [3; 72]. Lug’aviy ma’nosiga ko‘ra kontsept va tushuncha bir-biriga umuman yaqin, lekin kontsept tushunchaga nisbatan keng ko‘lamga ega. Masalan “**stol**” so‘zining ma’nosini tushuntirishda biz “**to‘rt oyoqli**, ust qismi silliq, yozish yoki ovqatlanish uchun foydalaniladigan mebel turi” deb izohlaymiz. Tushunchada stolning eng muhim tomonlari aks etadi, xolos. Kontsept lingvistik kategoriya sifatida tushuncha kategoriyasini til tizimida namoyon etuvchisidir.

Akademik I.I.Meshchaninov tushuncha kategoriyasiga oydinlik kiritadi. Uning fikricha, tilda ifodalanayotgan har qanday narsani tushuncha kategoriyasi deb bo‘lmaydi. Tushuncha kategoriyalari tilning turli sathlarida, turli vositalar orqali ifodalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan tushunchalardir.

I.I.Meshchaninov tushuncha kategoriyalari jumlasiga turli tillar uchun umumiy bo‘lgan predmetlik, predikativlik, subyekt, obyekt, atributivlik, modallik, shuningdek, sifat va miqdor ifodalari bilan bog’liq til hodisalarini kiritadi. Bulardan ko‘rinib turibdiki, tushuncha kategoriyalari grammatik sath birliklari bilan ham bog’liq. I.I.Meshchaninov yozishicha, “*Alohida-alohida tillarni o‘rganishda so‘z turkumlarini sharhlashda, ularni tillararo qiyoslashda asosiy e’tiborni grammatik kategoriyalarga qaratish kerak*” [2; 3-12].

I.I.Meshchaninovning tushuncha kategoriyasi g’oyasi asosida keyinchalik tilshunoslikda *“mazmuniy maydon”, “funktsional-semantik maydon”, “paradigmatik yoki sintagmatik maydon”, “leksik-semantik maydon”, “leksik-semantik guruh”, “mikromaydon”, “makromaydon”* kabi tushunchalar vujudga keldi.

Kontsept til vositalari, leksik-semantik paradigmalar orqali namoyon bo‘ladi, ya’ni kontseptning umumiy mazmunini bir markazga birlashgan semantik maydon hosil qiluvchi leksik birliklar tashkil etadi. Bu maydonga kiruvchi leksik birliklar ma’nosiga ko‘ra bir-biri bilan uzviy aloqada bo‘ladi.

Xullas, kontsept tushunchasi o‘zida mantiqshunoslik, psixologiya, tilshunoslik va bilish nazariyasi fanlarining o‘zaro bog’liqligi, hamkorligini aks ettiradi. Aniqrog’i, kontsept ko‘p qirrali, integrativ, ya’ni logik – lingvistik – gnoseologik termin hamdir. Kontsept tafakkur birligi hisoblanib, uning asosida tushuncha, ma’no va obraz yotadi hamda u bilim umumlashmasi yoki “**kvanti**” deb ataladi. U yuksak darajadagi mazmuniy umumiylikka ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Голубина К.В. Когнитивные основания эпитета в художественном тексте (на материале англоязычной художественной прозы): Автореф. дис. … канд. филол. наук. – М., 1998. - 22 с.

2. Гухман М.М. Понятийные категории, языковые универсалии типологии. // Вопросы языкознания – М., 1985. - №3 - С. 3-12.

3. Исмоилов Б. Язык и познание мира. – Ташкент: Фан, 1969. - 145 с.

4. Кубрякова Е.С. Начальные этапы становления когнитивизма: лингвистика-психология-когнитивная наука // Вопросы языкознания. – М., 1994. - № 4. - С. 34 - 47.

5. Сафаров Ш.С. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. - 90 б.

6. Степанов Ю.С. Константы: словарь русской культуры. 2-е изд., и доп. – – М.: Академический проект, 2001. – 990 с.

O‘ZBEK TILIDA QO‘SHMA GAPLARDA PARADIGMATIK MUNOSABATLAR

Saodat Muxamedova
Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti unversiteti professori filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada qo‘shma gap ichki tizimlari va tagtizimlari (qavatlari) bilan bog‘liq bunday munosabatlarni bir model doirasidagi paradigmalar va ularning aloqalari deyish mumkin. Qo‘shma gapning qaysi tagtizimi (qavati) bo‘lishidan qat’iy nazar, uning birliklari ўziga xos paradigmatik bosqichlarda parchalana olishi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Sintaktik, qo‘shma gap, tizim, model, paradigma, aloqa, sodda gap, sxema.

Annotation. In this article, such relations related to the internal systems and substructures (layers) of the compound sentence can be called paradigms and their connections within the framework of one model. Regardless of the sub-system (layer) of a compound sentence, it is revealed that its units can be decomposed into specific paradigmatic stages.

Key words: Syntactic, conjunction, system, model, paradigm, communication, simple sentence, scheme.

Sintaktik paradigmatika, xususan, gap paradigmatikasi bo‘yicha aytilgan yuqoridagi fikrlar asosan sodda gaplar sathi hodisalari paradigmatikasiga daxldor edi. Sintaktik paradigma qo‘shma gaplar sathi hodisalari uchun ham xosdir. Sodda gaplar sathiga xos paradigmatik tizimda bo‘lgani kabi, qo‘shma gaplar sathiga xos paradigmatik tizimda ham qo‘shma gaplarning paradigmatik aloqalari sintaktik paradigmatikaning T.P.Lomtev tomonidan paradigmatik seriya va paradigmatik qator deya e’tirof etilgan tushunchalar doirasida amalga oshadi. Qo‘shma gaplar paradigmatikasi paradigmatik seriyalar nuqtai nazaridan qaralganda, qo‘shma gaplar struktur sxemasi(modeli)ning turg‘un elementlari mushtarakligi belgisi asosga olinadi. Bunday paradigmalar qatorida ishtirok etgan paradigmatik juftlarning, ya’ni qo‘shma gaplar struktur sxemasining o‘zgaruvchan elementlari har xil bo‘ladi. Qo‘shma gap struktur sxemalarining turg‘un elementlari umumiy prinsipga ko‘ra sodda gaplar struktur sxemalari(modellari)ning turg‘un elementlari bilan bir xil bo‘lsa-da, ular, xarakteriga ko‘ra, sodda gaplar struktur sxemasi turg‘un elementlaridan farq qiladi. Sodda gaplarda sintaktik va semantik aktantlar (gap bo‘laklari) pozisiyasi ular modelining turg‘un elementlari vazifasini bajarsa, qo‘shma gaplarda predikativ xarakterdagi funksional-vazifaviy qismlarning xarakteri, ularning sintaktik aloqasi, bu aloqalarning shakliy-grammatik markerlari(bog‘lovchi va bog‘lovchi vositalari), funksional qismlarning joylashish tartibi kabi bir qator grammatik xususiyatlar ular struktur sxemasi—modelining turg‘un elementlari maqomida ish ko‘radi. Qo‘shma gaplar struktur sxemasining o‘zgaruvchan elementlari vazifasini esa, sodda gaplar strukturasida bo‘lganidek, funksional, ya’ni predikativ qismlarning konkret lug‘aviy tarkibi bajaradi. *Bahor keldi va dala ishlari boshlandi – O‘qituvchi keldi va dars boshlandi – Qushlar uchib keldi va zararkunanda hashoratlar qirila boshladi* polipredikativ gaplarining o‘zaro paradigmatik aloqasi paradigmatik seriyaga to‘g‘ri keladi. Bu seriyada o‘zaro paradigmatik munosabatga kirishgan polipredikativ birliklarning modellari bir xil turg‘un elementlardan tarkib topgan. Ular modelining o‘zgaruvchan elementlari o‘zaro farqli, ya’ni har xil lug‘aviy birliklardan iborat.

Kimki halol ishlasa, u e’tibor qozonadi – Kimki halol ishlar ekan, u e’tibor qozonadi – Har kimsa halol ishlarkan, o‘sha e’tiborli bo‘ladi – Kishi halol ishlasa, u e’tibor qozonadi singari bog‘lanishlarda ham uch ega ergash gapli qo‘shma gap bir paradigmatik uyani tashkil qilgan. Bu paradigmatik uyada o‘zaro munosabatdosh qo‘shma gaplar modelining o‘zgaruvchan elementlari bir xil, lekin ular modelining turg‘un elementlari har xil. Shuning uchun bunday to‘dalarlarda ularning qarama-qarshi, muqobil, a’zolari eshelonsimon tartibdagi paradigma tarkibida birlashgan.

Qo‘shma gaplar dastlab sintaktik aloqaning xarakteriga ko‘ra paradigmalar hosil qiladi va bu paradigmalarning binar a’zolari sifatida parataktik(bog‘langan) va gipotaktik(ergash gapli) qo‘shma gaplar ajratiladi. Masalan, *Havo sovudi va yerlar muzladi – Havo sovugach, yerlar muzladi* qo‘shma gaplari tashkil qilgan

paradigmada bu xususiyat mavjud. Keltirilgan qo‘shma gaplar paradigmasida uning (paradigmaning) birinchi a’zosi – bog‘langan qo‘shma gap, «*predikativ qism+predikativ qism*» modeliga ega; ikkinchi a’zosi—ergash gapli qo‘shma gap, u *«ergash gap*-gach+ *bosh gap*» modeliga ega. Ko‘rinadiki, qo‘shma gaplar sathining dastlabki bosqich paradigmasida paradigma a’zolari tavsifidagi muqobil birliklarning turg‘un elementlari har xil, o‘zgaruvchan elementlari esa, bir xildir. Shuningdek, bu bosqich paradigmada har xil noo‘xshash modelli birliklar o‘zaro lisoniy munosabatda bo‘lgan. Bunday bog‘lanishni qo‘shma gaplarning modellariaro bog‘lanish, ularning modellariaro paradigmasi deyish mumkin.

Qo‘shma gaplar paradigmatik tizimining keyingi bosqichlari bir model doirasida, ya’ni yo paradigmatik, yo gipotaktik xarakterdagi mikrotizimlarning ichki qavatlarida vujudga keladi. Masalan, parataktik mikrotizimdagi qo‘shma gaplarning va, xam, hamda; ammo, lekin, biroq bog‘lovchilariga ko‘ra farqlanuvchi ko‘rinishlari va ular struktur sxemasi-modelining paradigmatik bog‘lanishlari qo‘shma gaplarning ayni bir modeli doirasidagi ko‘rinishlaridir.: *Havo sovudi va yerlar muzladi – Havo sovudi hamda yerlar muzladi; Qish keldi, ammo havo sovuq emas—Qish keldi, lekin havo sovuq emas – Qish keldi, biroq havo sovuq emas* (parataktik—bog‘langan qo‘shma gaplarning ichki paradigmasi); *Har kim halol ishlasa, u e’tiborli bo‘ladi – Kimda-kim halol ishlar ekan, o‘sha e’tiborli bo‘ladi* (gipotaktik4—ergash gapli qȳshma gaplar ichki paradigmasi).

Qo‘shma gap ichki tizimlari va tagtizimlari (qavatlari) bilan bog‘liq bunday munosabatlarni bir model doirasidagi paradigmalar va ularning aloqalari deyish mumkin. Qo‘shma gapning qaysi tagtizimi (qavati) bo‘lishidan qat’iy nazar, uning birliklari o‘ziga xos paradigmatik bosqichlarda parchalana oladi. Masalan, parataktik tizimda qo‘shma gapning struktur tipiga ko‘ra yopiq qurilishli(konstruksiyali) va ochiq qurilishli (konstruksiyali) bog‘langan qo‘shma gaplar paradigmasi shu tagtizimning dastlabki bosqichi sanaladi. Keyingi etap paradigmatik parchalanish har ikki mikrotizimning ichki doirasida vujudga keladi. Gipotaktik tizimda ham paradigmatik bog‘lanishlarning o‘ziga xos bosqichlari mavjud. Mazkur tizimda ham dastlabki bosqich paradigmatik munosabatlar qo‘shma gap struktur tipiga ko‘ra vujudga keladi: sintetik tip va analitik tip deb ajratiluvchi ko‘rinishlar o‘zaro, biri boshqasiga nisbatan, paradigmatik munosabatda bo‘ladi. Qo‘shma gaplarning parataktik tizimida bo‘lgani kabi, gipotaktik tizimning keyingi etap paradigmatik munosabatlari har bir tipning ichki doirasida yana tegishli bosqichlarda davom etadi.

Polipredikativ xarakterdagi murakkab sintaktik qurilmalar ham, matn (tekst) xarakteridagi yaxlit kommunikativ butunliklar ham o‘z paradigmatik tizimlari qamrovida yashaydi. Bulardan shunday xulosalarga kelish mumkinki, til sintaktik sathi, uning to‘liq mundarijasi o‘ziga xos paradigmalar mikrotizimi va ularning tagtizimlari majmuasidan iborat bo‘ladi. Shuning uchun ham gap sintaktik paradigmatikasida kommunikativ maqsad, tasdiq-inkor, mazmunning voqelikka munosabati, his-hayajonning ishtiroki, predikativlik kategoriyalari doirasidagina qarash gap sintaktik paradigmatikasining to‘liq va baqamti xarakteristikasini aks

ettira olmaydi. Negaki sintaksis mohiyatan paradigmalar tizimidir. Shu o‘rinda paradigma va klassifikatsiya (tasnif) tushunchalari o‘zaro tutashadi, uyg‘unlashadi: paradigma va klassifikatsiya atamalari sinonimik xarakter kasb etadi. Darhaqiqat, paradigma atamasi klassifikatsiya atamasi ifoda etgan tushuncha sifatida qaralsa, tildagi, shu jumladan, sintaktik tizimdagi har bir hodisa o‘z tasnifi, klassifikatsiyasi, asosiga ega bo‘ladi. Chunki sintaksis qamrovidagi har bir birlik o‘z mikrotizimidan iborat. Mikrotizim o‘z navbatida o‘ziga xos sistema hamdir. Sistemani mushtarak belgi-xususiyatlari bilan uyg‘unlashib, ma’lum bir farqli qirralari bilan chegaralanuvchi hodisalar summasisiz tasavvur etish qiyin. Lisoniy hodisalarning umumiy va farqli tomonlari ularni o‘ziga xos muayyan paradigmalar doirasida tutashtiradi.

Ayrim olingan konkret gapning struktur sxemasi—modeli ayni o‘rinda bir necha paradigmalar ixtiyorida bo‘ladi. Masalan, *Yaqinda o‘quvchilar yozgi ta’tilga chiqadi* gapi kommunikativ maqsadga ko‘ra (darak gap, muqobili: so‘roq gap, buyruq gap); mazmunning voqelikka munosabatiga ko‘ra (real gap, muqobili: noreal, irreal, gap); modalliik xususiyatiga ko‘ra (tasdiq gap, muqobili: inkor gap); his-hayajonning ishtirokiga ko‘ra (his-hayajonsiz-emosional bo‘lmagan gap, muqobili: his-hayajon-emosional gap); grammatik asosiga ko‘ra (sodda gap, muqobili: qo‘shma gap); bosh bo‘laklarining ishtirokiga ko‘ra (ikki bosh bo‘lakli gap, muqobili: bir bosh bo‘lakli gap); ikkinchi darajali bo‘laklarining ishtirokiga ko‘ra (yoyiq gap, muqobili: yig‘iq gap); kesimlik xususiyatiga ko‘ra (fe’lli gap, muqobili: otli gap); zarur bo‘lagining mavjud-mavjud emasligiga ko‘ra (to‘liq gap, muqobili: to‘liqsiz gap); fikr qamroviga ko‘ra (murakkablashmagan sodda gap, muqobili: murakkablashgan sodda gap); funksional qismlarga ajralish-ajralmaslik xususiyatiga ko‘ra (funksional qismlarga-gap bo‘laklariga ajraladigan gap, muqobili: funksional qismlarga,gap bo‘laklariga, ajralmaydigan gap) singari paradigmatik qatorlarda ularning qonuniy lisoniy muqobil a’zosi sifatida ishtirok etadi. Shu gap ishtirok etgan boshqa paradigmalar paradigmatik tizimning yirik bosqichlari sanaladi. Har bir bosqich paradigmaning yana ichki tagtizimlari—qavatlari ham borki, yuqorida keltirilgan gap ana shu paradigmalar tarkibida ham ularning munosib rasmiy muqobil a’zosi sifatida ishtirok etadi. Bu lisoniy holat Ye.A. Sedelnikovning «*har qanday gap bir necha paradigmatik qatorlar a’zosidir»* degan yuqoridagi xulosasining to‘g‘ri va asosli ekanligini o‘zbek tili lisoniy ashyolari misolida ham tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sedelnikov Ye.A. Struktura prostogo predlojeniya s tochki zreniya sintagmaticheskix i paradigmaticheskix otnosheniy // NDVSH FN, 1961. № 3.
2. Strukturniy sintaksis angliyskogo yazika, -B. 29.
3. Yurchenko Yu.S. Predlojeniye, yego osnovnoy tip i paradigma…-B. 80.
4. Shutova Ye.I. O‘sha asar. –B. 70.
5. Martinov V.V. O‘sha asar. –B.53-56
6. Berdialiyev A. Koordinativ aloqa va uning xususiyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti . 1984, № 3. –B. 20-24.

7. Berdialiyev A. Ergash gapli qo‘shma gap konstruksiyalarida semantik-signifikativ paradigmatika. Toshkent: Fan, 1989. –B.15

MATN KOGNITIV STRUKTURA SIFATIDA

D.A.Nabiyeva
Andijon davlat universiteti professori
Pirnazarova Dilbarxon
Qo‘qon DPI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida matn tahlilining yo‘nalishlari, tadqiqotchilarning matnga oid nazariy qarashlari qayd etilgan. Kogeziya va uning uyushish harakteriga ko‘ra turlari hamda intertekstuallik hodisasiga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: matn, reprezentativ tahlil, kogeziya, implikatsiya, mental model va freymlar, intertekstuallik, konseptual metafora.

Annotation. In this article, directions of text analysis in Uzbek linguistics, theoretical views of researcherson the text are noted. Cohesion and its typs according to the nature of association and the phenomenon of intertextuality are specifically addressed.

Key words: text, representational analysis, cohesion, implication, mental model and frames, intertextuality, conceptual metaphor.

Matnga mustaqil lingvistik struktura sifatida qarash o‘tgan asrning 40-yillaridan boshlandi. 60-70-yillarga kelib matnni va uning struktur elementlarini o‘rganish lingvistik tadqiqotlarning markaziy masalalaridan biriga aylanib, tilshunoslikning maxsus yo‘nalishi – matn lingvistikasining maydonga kelishiga asos bo‘ldi.

Tilshunoslikda matn tahlili bilan bog‘liq ikki xil yo‘nalishni ajratish mumkin: immanent tahlil yo‘nalishi va reprezentativ tahlil yo‘nalishi. Immanent tahlilda matn falsafiy yuk olgan keng ma’nodagi avtonom reallik sifatida baholanadi. Ta’kidlash lozimki, hozirga qadar tilshunoslikda matn va uning tahliliga oid mavjud aksariyat ishlar immanent yo‘nalishdagi tadqiqotlar bo‘lib, asosiy e’tibor matn komponentlarini hamda uning semantik strukturasini o‘rganishga qaratilgan. Bunda matn murakkab tuzilishga ega bo‘lgan, lisoniy belgilarning chiziqli tartiblangan ketma-ketligidan tashkil topgan butunlik, yoki mazmuniy va grammatik jihatdan bog‘langan og‘zaki yoki yozma shakldagi jumlalar yig‘indisi sifatida baholanadi. Butunlik va bog‘lilik uning asosiy belgilari hisoblanib, matn tarkibidagi gaplarning o‘zaro muayyan tartibda joylashuvi natijasida uning bog‘liligi, mazmuniy yaxlitlik natijasida esa uning butunligi ta’minlanishi e’tirof etiladi.

Ma’lumki, til strukturasida quyi sath birliklari yuqori sath birliklari uchun “qurilish materiali” vazifasini bajaradi va ular o‘zaro pog‘onali munosabatda bo‘ladi. Lekin shuni ham ta’kidlash lozimki, yuqori sath birliklari quyi sath birliklarining oddiy birikuvidan tashkil topmaydi, balki ularning sintagmatik munosabatidan tashkil topgan, tamomila yangi sifat belgisiga ega bo‘lgan mustaqil

birlikka aylanadi. Matn ham lisoniy birlik sifatida muayyan ma’no atrofida birlashib, mazmuniy yaxlitlikni hosil qiluvchi tarkibiy elementlar – gaplarning ma’lum tartibdagi birikuvidan hosil bo‘lgan butunlikdir.

Matn tadqiqiga bag‘ishlangan ayrim tadqiqotlarda matnning real borliqning modeli hisoblanishi ta’kidlanadi [1.89] Chunki matn makon va zamonga bog‘liq holda borliqning muayyan chegaralangan bo‘lagini aks ettiradi. Ayniqsa, “Badiiy matnda voqealar rivoji, personajlar, makon va zamon qay tarzda ifolalanganligi kuzatuvchining individual qarashlari va tanlagan pozitsiyasiga bog‘liq bo‘ladi. Inson yozuvchi, shoir, rassom yoki haykaltarosh bo‘lib yetishguncha dastlab kuzatuvchi vazifasini bajaradi, keyinchalik esa ma’lum bir asar muallifi bo‘ladi. Turli qarashlar natijasida asar muallifiga biron bir obyekt yoki hodisani uni bir butunligi bo‘yicha idrok qilishga imkoniyat tug‘diradi. Ijodiy jarayonining dastlabki bosqichi optimal variant, kuzatuv va olamning bir bo‘lagini aks ettirish yo‘llarini izlashdan iborat bo‘ladi. Kuzatuvchi qanday pozitsiya tanlasa, asar to‘g‘risidagi tasavvurlari ham shunday ko‘rinishda bo‘ladi”[1.89].

Darhaqiqat, reprezentativ tahlilga ko‘ra, matn borliq, voqelik haqidagi tasavvurning alohida ko‘rinishidir. Bu nuqtayi nazardan, inson tafakkurida hosil bo‘lgan borliq – bizni o‘rab turgan olam haqidagi tasavvurlarning har qanday reprezentatsiyasi matndir. Bunga ko‘ra, o‘qib, ko‘rib, eshitib his qilishimiz, ma’lumot olishimiz va tushunishimiz mumkin bo‘lgan har qanday ijod mahsuli, ya’ni rasmlar, sxemalar, chizmalar va musiqiy kompozitsiyalar ham matn sifatida baholanadi. Bunday yondashuvga ko‘ra, matn lingvistik belgi emas, balki u muayan madaniyat belgisini tashuvchi, shu madaniyat haqida, uning o‘tmishi va buguni haqida ma’lumot beruvchi madaniy belgi deb e’tirof etiladi. Masalan, matnni sinergetik tamoyillar asosida tahlil etish jarayonida K.I.Belousov M.A.Dimarskiyning “matn o‘z holicha, butunlik sifatida hech bir ma’noda – na lisoniy, na nutqiy ma’noda belgi bo‘la olmaydi. Matn nutqiy faoliyat hosilasi voqelanishining alohida, kengaytirilgan verbal shaklidir” [2.36] degan fikrlariga qo‘shilgan holda, u yoki bu madaniyatda belgi sifatida funksiyalashuvchi matnlar mavjudligini e’tirof etadi. Bunday matnlarni ajratishga ularning chegaralangan miqdori asos bo‘lishini aytib, “bu matnlarning lisoniy belgi emas, balki madaniy belgi ekanligidan dalolat beradi va aynan chegaralanganlik belgisi bunday matnlarni boshqa semiotik sistemadan joy olishiga imkon beradi”[3.12], - deb ta’kidlaydi.

Qayd etish lozimki, borliq elementlari san’atning qaysi turi vositasida ifodalanishidan qat’i nazar, voqelik haqida muayan his-tuyg‘ularning to‘laqonli yetkazilishi so‘z vositasida amalga oshadi. Insonlar so‘z vositasida fikr almashadilar. Shuning uchun benazir yozuvchi va adabiyotshunos olim P.Qodirov adabiy asarning boshqa san’at asarlaridan ustun jihatini ko‘rsatish uchun shunday yozadi:“Adabiy asarning musiqa, rassomlik va boshqa ijod sohalaridan farqi uning ohanglar, chiziqlar, bo‘yoqlar vositasi bilan emas, so‘zlar vositasida yaratilishida ko‘rinadi. Demak, badiiy til har qanday badiiy asarning spetsifikasini belgilaydigan eng asosiy ko‘rsatkichlardan hisoblanadi”[4.312]. Shuning uchun lingvistik

strukturalar tarkibida axborot yetkazishning mukammal vositasi sifatida matn alohida o‘rin egallaydi.

Ko‘rinadiki, sof lingvistik nuqtayi nazardan, matn ham mazmuniy, ham shakliy avtonomlikka ega strukturalarning muayan tartibda joylashuvi, xolos. Lekin unga ma’lum bir madaniy, falsafiy, pragmatik, kognitiv yuk tushganda, u lingvistika maydonidan chiqadi va kognitologiyaning, pragmatikaning, madaniyatshunoslikning obyektiga aylanadi. Reprezentativ tahlil esa matnga keltirib o‘tilgan barcha sohalarning uyg‘unligida baho berish imkonini beradi. Shuning uchun Yu.M.Lotman “matn yagona matniy ma’noga ega bo‘ladi va shu ma’noda u bo‘laklarga bo‘linmaydigan signal sifatida baholanishi mumkin. “Roman bo‘lish”, “hujjat bo‘lish”, “ibodat bo‘lish” – bu uning muayan madaniy vazifani voqelantirishi hamda ma’lum bir yaxlit mazmunni ifodalashi demakdir”[5.62], - deb ta’kidlaydi. Demak, matn nafaqat mazmuniy yaxlitlikka ega bo‘lgan jumlalar ketma-ketligi, balki idrok etish, tushunish va mazmun hosil qilish bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab mental jarayonlar natijasi hamdir. Bu esa matnni murakkab kognitiv struktura sifatida baholash mumkinligini ko‘rsatadi. Matnga bunday yondashuvda u muallif va tinglovchi ongida mavjud bo‘lgan kognitiv modellar va strukturalarni aks ettiruvchi ko‘pqatlamli qurilma (konstruksiya) sifatida tushuniladi.

Matnga kognitiv struktura sifatida yondashuv uning quyidagi aspektlariga alohida e’tibor qaratishni talab qiladi:

1. Mazmuniy aloqalar va kogeziya. Bunda matn qismlari o‘rtasidagi mazmuniy va mantiqiy aloqalar tahlil predmetiga aylanadi. Bu esa matn tarkibidagi gap va abzaslarni bog‘lash uchun xizmat qiluvchi anafora, katafora, mantiqiy bog‘lanish kabi elementlardan foydalanishni taqozo qiladi. Mazmuniy aloqalar matnning turli qismlari o‘rtasidagi mantiqiy va mazmuniy munosabatlar bo‘lib, ular matnning yaxlitligini, o‘quvchi uchun tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi. Ular ochiq va yashirin ifodalangan bo‘lishi mumkin. Mazmuniy aloqalarga quyidagilarni kiritsh mumkin:

- mantiqiy aloqa – hodisalar o‘rtasidagi sabab va natijani aniqlashga qaratilgan sabab-natija munosabati; faktlar yoki fikrlar o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni ko‘rsatuvchi qiyoslash va zidlash; umumlashtirish va detallashtirish, ya’ni umumiy fikrdan aniq misollarga borish yoki aksincha;

- mavzuyiy aloqa – asos so‘zlarning takrorlanishi (mavzu yaxlitligini ta’minlash uchun asosiy tushuncha va terminlarning takrorlanishi); nutq rang-barangligi va mazmunni aniqlashtirish uchun sinonim va antitezislardan foydalanish;

- referensial aloqa (anafora, katafora). “Matn referensiyasi voqelik bayonining uzluksizligini va davomiyligini ta’minlab, uning qismlari o‘rtasidagi anaforik va kataforik munosabatlarni hamda ularning retrospektiv va prospektiv bog‘liqliklarini namoyon qiladi. Matn mavzusiga oid axborot bayoni jarayonida oldinroq ma’lum qilingan yoki xabar qilinishi kutilayotgan axborot, ma’lumotlarga murojaat qilishga majbur bo‘linadi”. Matn referensiyasi axborotni umumlashtirish

va qayta to‘plash, retrospektiv tahlil etish imkonini yaratib, yangi ma’lumotlarni oldindan tahlil qilish, anglash sharoitini hosil qiladi”[6.50].

Kogeziya – (lot. cohaesus – “bog‘langan”, “biriktirilgan”) matn/diskursni xarakterlovchi hamda tekstuallikning asosiy shartlaridan biri bo‘lib, matnning leksik va grammatik jihatdan uyushishi hisoblanadi. Bunday uyushish matn yaxlitligini ta’minlaydi va unga umumiy mazmun yuklash uchun xizmat qiladi. Uyushish xarakteriga ko‘ra leksik va grammatik kogeziya ajratiladi. Leksik kogeziya quyidagilar bilan izohlanadi:

- takrorlar: mazmuniy yaxlitlikni saqlash maqsadida muayan bir so‘z yoki jumlaning takror qo‘llanilishi;
- sinonimiya: matn monotonligidan qochish va mavzuyiy umumiylikka erishish uchun ma’nodosh so‘zlardan foydalanish;
- antonimiya: aniqlik va kontrastlikka erishish maqsadida zid ma’noli birliklardan foydalanish.

Grammatik kogeziya quyidagilarda ko‘rinadi:

- bog‘lovchilar: matn tarkibidagi gaplarni o‘zaro bog‘laydi va ular o‘rtasidagi mazmuniy munosabatlarni ko‘rsatadi;
- ishora birliklari (olmoshlar, ravishlar, modal so‘zlar): matn qismlarini bog‘lash uchun, fikrlar ketma-ketligini ta’minlash uchun ishora so‘zlardan foydalanish. Matn tarkibidagi bunday ishora birliklar umumiy deyksis nomi bilan atalib, ilmiy adabiyotlarda til tizimi va kontekst o‘rtasidagi bog‘liqlikning lisoniy strukturalarda aks etishini yaqqol ko‘rsatuvchi yagona hodisa sifatida e’tirof etiladi[7.153];
- ellipsis: informatsion kompressiya va uni tilda lakonik ifodalash maqsadida qo‘llanuvchi bu hodisa matn mazmuniga putur yetkazmaydigan, shakliy ifodalanishi shart bo‘lmagan ayrim elementlarning tushirilishi bilan izohlanadi. Bu holat fikrni ixcham va aniq ifodalash uchun muhim hisoblanadi[8.67.78].

Mazmuniy aloqa va kogeziya o‘zaro bir-birini taqozo etuvchi hodisalar bo‘lib, ular birgalikda matnning bog‘liqligini ta’minlaydi. Bunda mazmuniy aloqalar matn tarkibidagi elementlar o‘rtasidagi mantiqiy va konseptual munosabatlarni ta’minlasa, kogeziya ushbu munosabatlarning til boqichida amalga oshishini nazorat qiladi. Ikkisi birgalikda matnning mantiqiyligini, uzviyligini ta’minlagan holda o‘quvchiga muallif fikrini nazorat qilish imkonini yaratadi va uning tushunilishini yengillashtiradi.

2. Presuppozitsiya va implikatsiya. Matn mazmuniy strukturasida aksariyat hollarda yashirin ma’no yoki xulosalar mavjud bo‘ladi. Bularni anglab olish uchun esa o‘quvchidan (tinglovchidan) muayyan bilim va mental xarakat talab qilinadi. Ochiq ifodalanmagan va o‘quvchiga qo‘shimcha axborot berish uchun xizmat qiluvchi bunday ifodalar matnning mazmuniy strukturasida muhim rol o‘ynaydi va ilmiy muomalada “implitsit ifodalar”, “yashirish grammatik kategoriyalar”[9.42.45] deb yuritiladi. Prof.M.Hakimov ta’kidlaganidek, “Ifodaning yashirin bayoni, jumlaning tagma’nosi kommunikatsiya ishtirokchilarining fikrlash faoliyati bilan va IIIularning olam haqidagi tasavvurlari

bilan uzviy bog‘lanadi. So‘zlovchining tashqi olam haqidagi tasavvurlari qancha keng bo‘lsa, u nutqiy vaziyat darajasini shuncha tez fahmlaydi. Shuning uchun ifoda semantik strukturasidagi axborot ko‘rinishlarini oshkora yoki yashirin bayon qilish, oshkora ifodalab bo‘lmaydigan axborot ko‘rinishini tagma’no shaklida berish so‘zlovchining ichki maqsadi bilan bog‘liqdir” [10.93] tadqiqotchi M.Gaziyeva har qanday matn mazmuni propozitiv va presuppozitiv fikrlar asosiga qurilishini, bu esa matn mazmunini anglashda kommunikatsiya ishtirokchilaridan implitsit bilimlarni talab qilishini ta’kidlagan holda, yashirin ifodalar sirasiga “implikatsiya (fikrning yashirin, implitsit ifodalanishi), tagbilim yoki presuppozitsiya (biroor lisoniy vosita orqali tagbilimga ishora qilish), tagma’no (kommunikatsiya ishtirokchilariningayrimlariga tegishli bo‘lgan fikrlar ishorasi), inferensiya (inson tafakkurining eng muhim kognitiv qismi sifatida matndagi ma’lumotlarga asoslanib, tinglovchida yangi fikrning hosil bo‘lishi), allyuziya kabi hodisalarni kiritish mukin”[11.143]ligini qayd etadi.

3. Mental modellar va freymlar. Matn orqali ifodalangan axborot asosida o‘quvchi (tinglovchi) mental modellarni hosil qiladi. modelllar tilda invariantlilik bilan bog‘lanadi. Tilning invariant strukturalari uning mohitini aniqlashga imkon berishi barchaga ma’lum. Shu jihatdan olib qaralganda, matn sathida invariantlilik matn yaratilishi va idroki jarayonlarining uzluksizligini, davomiyligini ta’minlagan holda, uning kodlashtirilishi va dekodlashtirilishi bilan bog‘liq mexanizmlar asosida tafakkur va lisoniy faoliyatni bir-biriga bog‘laydi. Zotan, bilish jarayonida voqeliklarga xos bo‘lgan xususiy va umumiy belgilarning ajratilishi, umumiy belgilar asosida invariantning, modelning hosil qilinishi kabi mental amallarning negizida kognitiv strukturalar majmuasi turadi[12.65] Kognitiv strukturalar Sh.Safarov qayd etganidek, mohiyatan voqelikni idrok etish va shu idrok jarayonida yuzaga kelgan axborotni lisoniy voqelantirishning ramziy sxemasidir. Shunga ko‘ra lisoniy tafakkur faoliyatida til tizimining rolini aniq tasavvur qilish imkonini beradigan kognitiv strukturalar – freym, skript, ssenariy, propozitsiya kabilarning ajratilishi muhim hisoblanadi [13,35-53]. Matnning antropotsentrik tadqiqi bilan shug‘ullangan D.Xudoyberganova ham konseptning lisoniy voqelanishini ta’minlovchi mental tuzilmalar sifatida freym, skript, ssenariy, obraz, sxema, ramz kabilar qatorida lingvistik geshtaltni alohida e’tirof etadi. Chunki lingvistik geshtalt nafaqat matn yaratilishi bilan, balki uning tushunilishi, idrokiy jihatlariga xos kognitiv holatlar mohiyatini ochib berish uchun ham muhimdir. Olimaning fikricha, “Muayan obyektni (shu jumladan matnni ham) yaxlit tuzilma sifatida idrok etish bu obyektni uni tashkil etgan qismlarning oddiy yig‘indisi sifatida emas, balki ularning o‘zaro munosabatlari birligi sifatida tushunish va tasavvur etishga olib keladi. Bu esa real voqelikka oid biror predmetning ichki tuzilishi va mohiyatini chuqurroq anglash imkonini yaratadi”[14.51]. Inson ongida shakllangan geshtalt struktura tarkibiga kiruvchi freym, ssenariy, obraz, sxema, ramz kabi mental birliklar matnning mazmuniy idrokida bo‘lakdan – butunga jarayonini ko‘rsatadi va yaxlit holda matn makropropozitsiyasini hosil qilib, uni

yangi olingan bilimlarga mavjud bilimlarni taqqoslagan holda talqin qilish imkonini beradi.

4. Intertekstuallik. Ko‘p hollarda matn tarkibida boshqa bir matnga yoki madaniy kontekstlarga ishoralar mavjud bo‘ladi. Bunday ishoralar o‘quvchidan ularni tanib olish va tushunishni talab qiladiki, bu o‘ziga xos kognitiv jarayon hisoblanadi. Adabiyotshunos olim D.Quronov boshchiligida yaratilgan “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da intertekstuallik terminining fanga fransuz filologi Yu.Kristeva tomonidan kiritilgani, unga ko‘ra, har qanday matn avval mavjud bo‘lgan matnlarni transformatsiya qilgan holda o‘ziga singdirgan sitatalar majmui ekanligi qayd etiladi. Olim intertekstuallikka oid qarashlarni tahlil qilib, “adabiy asar o‘zidan oldingi va joriy zamondosh adabiyot bilan dialogik aloqada ekan, unda boshqa matnlarning izlari sezilishi tabiiy”[15.119]ligini ta’kidlaydi. Masalan,

Demak, intertekstuallik o‘quvchidan nafaqat badiiy asar va uning personajlari haqida, balki xalqning madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlari haqida ham bilimlarini tartiblash va konseptlashtirish zaruratini tug‘diradi.

5. Konseptual metaforalar. Matn chuqur kognitiv strukturalarni aks ettiruvchi va murakkab g‘oyalarni oddiy va tushunish qulay bo‘lgan obrazlar orqali veqelantiruvchi kognitiv metaforalarni o‘z ichiga olishi mumkin. Metaforalar kognitiv sxema sifatida konsepsiyasi metaforalarning nafaqat til va adabiyotdagi badiiy vosita sifatida, balki inson tafakkuri va bilimlarini tuzish va tashkil etish vositasi sifatidagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Bu konsepsiyani Jorj Lakoff va Mark Jonson o‘zining mashhur "Metaphors We Live By" (1980) asarida keng yoritgan [16.387-415]. Prof.D.Xudoyberganova kognitiv (konseptual) metaforalar haqidagi nazariyalarga asoslangan holda, “kognitiv metafora – shaxs kognitiv faoliyatiga xos hodisa bo‘lib, bir tushuncha yoki hukm haqidagi bilim strukturalari asosida ikkinchi tushuncha yoki hukmni kategoriyalashtirishdir”[17.49], -deb ta’rif beradi va fikrini P.Qodirovning “Humoyun va akbar” romanidan olingan quyidagi misol bilan isbotlaydi: “Matvey Semonovich yal-al yonayotgan qip-qizil, yirik yoqutni ta’zim bilan olar ekan, uning qiymati juda baland ekanini sezdi gapidagi baland so‘zining metaforik ma’noda qo‘llanishiga matn tuzuvchining tezaurisidauzual holatda mavjud bo‘lgan NARX – BU VERTIKAL UZUNLIK tuzilishidagi kognitiv metafora asos bo‘lgan”[18.49]

Metaforalarning kognitiv sxema sifatidagi roli quyidagilarda ko‘rinadi:

- abstrakt tushunchalarni tushunib olish. Bunda metaforalar insonga abstrakt tushunchalarni aniq va ko‘rinishli tuzilmalar orqali tushunib olishga yordam beradi. Misol uchun, vaqtini pulga tenglashtiruvchi “Vaqt — bu pul” metaforasi vaqtni moddiy resurs sifatida tushunishimizga imkon beradi. Bu metafora vaqtni qimmatbaho resurs sifatida tasvirlaydi. Bu orqali odamlar vaqtini samarali ishlatishga, uni “isrof qilmaslikka” intilishadi. Masalan, “U vaqtini yo‘qotdi”, “U vaqtini tejaydi”. Bunday metaforik qo‘llanishni vaqtni “sarflash”, “tejash” yoki “isrof qilish” tushunchalari orqali bilish mumkin;

- dunyoni idrok qilish. Kognitiv sxemalar sifatida metaforalar insonning atrofidagi dunyoni qanday idrok qilishini belgilaydi. Masalan, “Turmush – bu

sayohat” metaforasi inson hayotini bir yo‘l yoki sayohat sifatida tasvirlaydi, bu esa o‘z navbatida turli hayotiy voqealar va ularning mazmunini yaxshiroq anglab olishga yordam beradi;

- tildagi tizimlilikni ta’minlash. Kognitiv sxema sifatida metaforalar tilda tizimlilikni ta’minlaydi. Masalan, “Muammo – bu tog‘” metaforasi muammoni qiyin va yengish murakkab bo‘lgan jarayon sifatida ko‘rsatadi. Shu sababli, biz muammoni “yengib o‘tish”, “to‘siqni olish” kabi tushunchalar bilan izohlaymiz.

Metaforalarning kognitiv sxema sifatidagi ahamiyati shundaki, ular murakkab va abstrakt tushunchalarning tushunilishini yengillashtiradi. Ular orqali odamlar mushkul tushunchalarni oddiy va aniq tuzilmalar orqali idrok qila oladilar; metaforalar orqali shakllanadigan kognitiv sxemalar insonning dunyoqarashini belgilaydi. Ularning ko‘magida insonlar dunyoni qanday idrok qilishini va unga qanday munosabatda bo‘lishini aniqlaydi; turli madaniyatlar o‘rtasidagi idrok va tushunchalardagi farqlarni keltirib chiqaradi.

Demak, metaforalarning kognitiv sxema sifatidagi ahamiyatini tushunish insonning tafakkuri va tilini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Metaforalar faqatgina tildagi badiiy vosita bo‘lib qolmasdan, balki ular tafakkurni shakllantirish vositasi hamdir. Ular insonning dunyoni tushunishi, idrok qilishi va uni tartibga solishi uchun kuchli kognitiv vosita hisoblanadi.

Ko‘rinadiki, matnga kognitiv struktura sifatida yondashuv ma’lumotni qabul qilish va uning talqini bilan bog‘liq muammolarni, bilim va tajribalarning matn mazmunini tushunishga ta’sirini hamda matnni hosil qilish va talqin etishda faoliyat ko‘rsatuvchi kognitiv jarayonlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Keltirilgan fikrlar shuni ko‘rsatadiki, muayan til egalarining lingvistik hotirasida “dunyoning sodda tasviri”ni shakllantirish va uning matn vositasida ifodalash uchun subyektiv kuzatuv muhim rol o‘ynaydi. Negaki, olam elementlari subyektiv jihatdan “yaqin” va “uzoq” pozitsiyasidan baholanadi. Bu pozitsiyalar ko‘pincha obyektlarning turlicha idrok etilishini ta’minlaydi. Inson ongida dunyo manzarasi kuzatuvchining subyektiv zamon va makondagi turli pozitsiyasi tufayli ma’lum darajada soddalashadi. Bu subyektivlik dunyoning sodda manzarasining shakllanishiga o‘z “hissa”sini qo‘shadi va dunyoni soddalashtirilgan yaxlit butunlik sifatida ko‘rish imkonini beradi. shu bilan birga, shu kungacha “matn” deb baholanib kelinayotgan strukturalarning chegarasi lingvokognitiv, lingvopragmatik, lingvomadaniy, umuman, reprezentativ nuqtayi nazardan qaralganda, biz o‘ylagandan ko‘ra kengroq ekanligidan dalolat beradi hamda tadqiqotchilarga matnga yangicha nigoh bilan qarab baho berish lozimligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдураҳмонова Р. Турли тизимли тилларда дейктик бирликларнинг текст ҳосил қилиш функциялари. Филол.фан докт....дисс. Фарғона, 2021. – Б.89.

2. Дымарский М.Я. Проблемы текстообразования и художественный текст. На материале русской прозы XIX-XX вв. –М.: URSS, 2001. С.36

3. Белоусов К.И. Синергетика текста. От структуры к форме. –М.: Книжный дом «ЛИБРИКОМ», 2008. С.12.
4. Адабиёт назарияси. 2 томлик. 1-том. Адабий асар. –Тошкент: Фан, 1978. 312-бет.
5. Лотман Ю.М. Об искусстве. –СПб.: Искусство-СПБ, 2000. С. 62.
6. Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар. Филол.фан.докт...дисс.автореф. –Тошкент, 2010. –Б.18
7. Қаранг: Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. –Б.153.
8. Қаранг: Виноградов В.В. Некоторые задачи изучения синтаксиса простого предложения // Вопросы языкознания. 1954. №1. –С.3-12; Ордынская С.Н. Языковая компрессия: её онтология, сущность и функции// III международные Бодуэновские чтения: И.А.Бодуэн де Куртенэ и современные проблемы теоритического и прикладного языкознания. –Казань, 2006. –С.67-78; https://cyberleninka.ru/article/n/suschnost-rol-i-funktsii-ellipsisa-v-yazyke-na-materiale-raznostrukturnyh-yazykov/viewer.
9. Қаранг: Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гап // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1986. -№6. –Б.28-32; Нурмонов А. Кўмакчи конструкциялар пресуппозицияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1986. –№6. –Б.42-45.
10. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. –Тошкент: академнашр, 2013. –Б.93.
11. Gaziyeva M. Badiiy matnning implikativ-pragmatik xususiyatlari. –Farg‘ona, 2023. –B.143.
12. Бу ҳақида қаранг: Алифиренко Н. Спорные проблемы семантики. +М.:Гнозис, 2005; Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику. –М.:Филинта, 2006; Сафароф Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах:65 Б
13. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. –Жиззах: Сангзор, 2006. –Б.35-53.
14. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2013. –Б.51
15. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Қайта нашр. –Тошкент: Akademnashr, 2013. –Б.119.
16. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живём (перевод Н.В.Перцова) // Теория метафоры. –М.: , 1990. –С.387-415.
17. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. –Тошкент:Фан, 2013. –Б.49.
18. Худойберганова Д. Кўрсатилган асар. –Б.49.

ПРИМЕНЕНИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ УПРАЖНЕНИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Алимсаидова Сайёра Амидьеевна,
доктор педагогических наук, профессор
кафедры методики русского языка и литературы,
Кокандский госпединститут имени Мукими
Коканд, Узбекистан

Аннотация. В статье рассматриваются место и роль коммуникативной компетенции в структуре и содержании коммуникативных упражнений в обучении русскому языку**.**

Ключевые слова: компетенция, коммуникативная компетенция, социокультурная компетенция, коммуникация**.**

Обучение устной речи - одна из наиболее важных практических целей обучения неродному (русскому) языку. Учащиеся должны научиться овладевать навыками ведения беседы на русском языке, понимать на слух русскую речь, выражать правильно свои мысли, давать свою оценку прочитанному материалу.

В настоящее время в организации процесса обучения устной речи имеется ряд недостатков. Содержание речи бывает подсказано учителем в виде наводящего вопроса, наглядного материала и даже предложения на русском языке. Это ведет к тому, что ученик, имеющий достаточно большой запас языкового материала, становится совершенно беспомощным вне урока, когда к нему обращаются на неродном (русском) языке вне урока.

Всё это требует использования коммуникативных упражнений на уроках русского языка. Для стиля устной речи типично употребление вводных слов, междометий. (*Ах,ох*!). Стиль устной речи отличается от стиля письменной речи большей краткостью выражения. Устная речь, в которой воплощаются не только суждения, но и различные настроения, чувства и эмоции характеризуется богатством интонационных красок.

Устная речь

Диалог — *Цепь реплик или высказываний, которые возникают одно за другим в условиях непосредственного общения двух или более лиц*.

Монолог — *Речь одного лица, выражающего свои мысли, намерения.*

На характер монологической и диалогической речи влияет тематика и содержание разговора, род деятельности и возраст участников и другие факторы.

При обучении неродному (русскому) языке в образовательных учреждениях целью является неподготовленная устная речь. Учащимся необходимо научиться использовать усвоенный языковой материал для выражения своих мыслей в соответствии с речевой ситуацией.

Принципы обучения устной речи:

- Принцип коммуникативной направленности.
- Учет дифференцированности устной речи.
- Моделирование типичных коммуникативных ситуаций.
- Обучение устной речи как коммуникативной деятельности.
- Интенсивная речевая практика.
- Поэтапность формирования речевых умений.

Коммуникативные упражнения

1. Вопросно-ответные упражнения. Форма вопрос-ответ является довольно частым диалогическим единством в реальных актах общения. Вопросы - всегда коммуникативны. Они нацелены на собеседника и требуют от него отклика (это может быть даже кивок или жест).

2. Репликовые упражнения. В репликовых упражнениях реакция обучаемых не программируется. Однако эти упражнения сами по себе не могут сформировать у обучаемых умения вести беседу, участвовать в диалоге.

3.Условная беседа. Возникает в условиях непринужденности. Виды речевых стимулов к беседе:

- Запрос информации об интересующем лице, объекте, событии.
- Информирование кого-либо о чем-либо.
- Выражение своего отношения к чему-либо.
- Обмен мнениями, впечатлениями.
- Установление контакта.
- Поддержание разговора.

Все виды коммуникативных упражнений полезны в плане подготовки обучаемых к ведению беседы. Также необходимо проработать формулы, выражающие положительное или отрицательное отношение собеседника к услышанному. (*Прекрасно!Конечно!* и т.п.).

Репродуктивные упражнения

1. ***Пересказ.*** В процессе подготовки к пересказу следует использовать следующие приемы: *постановка выяснительных вопросов, перевод трудных мест, проработка новых лексических единиц*.

2. ***Сокращенно-выборочное изложение.*** Задания могут быть следующими: *пересказ текста в 5 предложениях, сжатая передача содержания текста, передача текста так, как если бы пересказывающий был участником описываемых событий, пересказ от лица героя.*

3. ***Пересказ-перевод.*** Следует ориентировать учащихся не на дословный перевод, а на передачу смысла речевого произведения.

Описательные упражнения

В основе этих упражнений лежит воспринимаемый зрительно и имеющий определенное содержание материал, который подлежит словесному описанию. Это может быть: *простые изображения в виде иллюстраций, картинок; изображения, созданные с использованием ИКТ*.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Скалкин В.Л., Коммуникативные упражнения на английском языке М., «Просвещение» 1983.

2. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация (Классический университетский учебник). – М.: Изд-во МГУ, 2004. – 352 с.

Хомский Н. Язык и мышление М.: Изд-во Московского университета, 1972. — 126

MORFOLOGIK SHAKLLARDA DUALIZM BILAN BOG‘LIQ NOMUTANOSIBLIKLAR

Uralov Azamat Begnarovich
Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
filologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Dualizm holati, ko‘pincha, belgilar o‘rtasida yuz beradi: belgi va uning ma’nosi to‘liq mos kelmay qoladi. Ularning qamrovi ham bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi, chunki bitta belgi har doim bir nechta semantik vazifalarni bajaradi va bitta ma’no har doim bir nechta belgilar orqali ifodalanadi. Birinchidan, til ma’no anglash jihatidan umumiy va individual, aniqlik va mavhumlik sifatida tavsiflanishi mumkin bo‘lgan ikki tomon o‘rtasida harakatlanadi. Ikkinchidan, til lingvistik jamiyatning barcha a’zolari uchun aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Biroq boshqa tomondan, jamiyatdagi har bir shaxs uchun o‘zini namoyon qilish, anglash, tushunish vositasi bo‘lib xizmat qilishi kerak. Maqolada ana shu masalalar misollar asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: asimmetrik dualism, nomutanosiblik, lingvistik belgi, shakl va mazmun, sema, morfema, ko‘p ma’nolilik, shakldoshlik, zid ma’nolilik.

Abstract. A state of dualism often occurs between symbols: the symbol and its meaning do not completely match. Their scope also does not coincide, since one sign always performs several semantic functions, and one meaning is always expressed by several signs. First, language moves between two sides of meaning, which can be characterized as general and individual, concreteness and abstraction. Secondly, language serves as a means of communication for all members of the linguistic community. However, on the other hand, it should serve as a means of self-expression, awareness, and understanding for every person in society. These issues are explained in the article based on examples.

Key words: asymmetric dualism, asymmetry, linguistic sign, form and content, sema, morpheme, polysemy, similitude, contradictory meaning.

Ayrim adabiyotlarda asimmetrik dualizm masalasi sintaksis va mantiq ilmida ko‘proq qayd etilgan, lekin uning tub mohiyati morfologiyada fundamental tadqiqot sifatida to‘laligicha ochib berilmagan. Bu xususida S.O. Karsevskiy tomonidan 1929-yilda e’lon qilingan “Lingvistik belgining asimmetrik dualizmi” nomli maqolasida kengroq to‘xtalib o‘tilgan. Ba’zi adabiyotlarda lingvistik belgi – shakl va ma’noning asimmetrik nisbati sifatida e’tirof etiladi. Asimmetrik dualizm ong va tafakkur mahsuli bo‘lganidek, I.N. Kaygorodova, I.N. Krutovalar “Ong va

tafakkurdagi oqilona va emotsional sohalarning o‘zaro ta’siri odamga atrofdagi voqelikka hissiy munosabat bildirishga imkon beradi, – deb baholaydi. – Bu tajriba tilshunoslikning nutq mavzusiga emotsional munosabatda namoyon bo‘ladi. Unda lisoniy shaxsning o‘zini namoyon qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladigan predikativ birliklar tahlil qilinadi. Inson ongining faol namoyon bo‘lishi lingvistik belgining asimmetrik dualizmi tufayli sintaktik idiomalarni yaratadi. Ifoda tekisligi va mazmun tekisligi o‘rtasida siljish bilan lingvistik belgi harakatsiz, ya’ni idiomatik bo‘lib qoladi”[1].

Dualizm (lot. dualis – ikki yoqlama) – bir-biri bilan birlashtirib bo‘lmaydigan holatlar, tamoyillar, fikrlash tarzi, dunyoqarash, intilish va gnoseologik tamoyillarni yonma-yon tarzda targ‘ib qiluvchi ta’limot. Dualizm terminini fanga nemis faylasufi X. Volf (1679 – 1754) kiritgan[2].

Dualizm holati ko‘pincha, belgilar o‘rtasida yuz beradi: belgi va uning ma’nosi to‘liq mos kelmay qoladi. Ularning qamrovi ham bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi, chunki bitta belgi har doim bir nechta semantik vazifalarni bajaradi va bitta ma’no har doim bir nechta belgilar orqali ifodalanadi. Birinchidan, til ma’no anglash jihatidan umumiy va individual, aniqlik va mavhumlik sifatida tavsiflanishi mumkin bo‘lgan ikki tomon o‘rtasida harakatlanadi. Ikkinchidan, til lingvistik jamiyatning barcha a’zolari uchun aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Biroq boshqa tomondan, jamiyatdagi har bir shaxs uchun o‘zini namoyon qilish, anglash, tushunish vositasi bo‘lib xizmat qilishi kerak. Morfologiyada tilning semantik mavqeyi ma’lum bir ko‘rsatkichga ega va til shaxsning xohish-istagidan ustun turadi. Shu bilan birga, ma’lum shakldagi belgilar doimo o‘zgarib turadigan aniq voqelikka nisbatan qo‘llanilishi shart. Oqibatda esa, ma’no anglatadigan til belgilari har bir davr uchun ma’lum shaklni o‘zida namoyon etadi. Bunday ko‘rinish har bir voqelikda turlicha tus olishi mumkin va natijada til belgilari o‘rtasida ko‘p ma’nolilik, shakldoshlik, ma’nodoshliklarni keltirib chiqaradi. Bir shaklning bu ko‘rinishda nomutanosib holatda harakatlanishi vaziyat taqozosi bilan ro‘y berishi mumkin. Boshqa bir tomondan, yangi leksema tilda o‘rinlashganida dastlabki ma’nosi saqlanib qoladi, vaziyat taqozosi bilan boshqa ma’nolar ham kasb etadi. Bunda ayni ma’no qisman saqlanib qolishi yoki yo‘qolishi mumkin. Saqlanib qolingan ma’no asimmetrik dualizmni yuzaga chiqaradi.


S.O. Karsevskiy lingvistik belgilarda asimmetrik dualizmning umumiy tamoyilini shakllantirdi: “... belgi (tovush) va vazifa (funksiya) haqiqatning moyil tekisligi bo‘ylab doimo siljiydi. Har biri o‘z sherigi tomonidan tayinlangan doiradan “chiqib ketadi”. Ishora qiluvchi o‘z vazifasidan boshqa vazifalarni bajarishga intiladi, ishora qiluvchi o‘z belgisidan boshqa vositalar bilan o‘zini ifoda etishga urinadi. Ular asimmetrik holatda juft bo‘lib, beqaror muvozanat holatiga tushib qoladilar ...”[3].

---

[1] https://cyberleninka.ru/article/n/asimmetrichnyy-dualizm-v-sfere-predikativnyh-edinits


[2] https://qomus.info/oz/encyclopedia/d/dualizm/

[3] Карцевский С. Об асимметричном дуализме лингвистического знака // В. А. Звегинцев (сост.). История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях. Ч. II. –М.: Просвещение, 1965. –С. 90.



1-rasm. Asimmetrik dualizmning ifodalanishi.

Asimmetrik dualizmning mohiyatida o‘z shaklini boshqa shaklga yoki o‘z shaklini bir necha mazmunga berish holati bilan ifodalanar ekan, morfologik shakllar tizimidagi erkalash-kichraytirish shakllarida bu holatni kuzatish mumkin. *-chak* shakli bilan ifodalanayotgan *kelinchak* so‘zining mohiyati va mazmuniga e’tibor qaratamiz. Dastlab, *kelin + chak* morfemalaridagi *-chak* shakli kichraytirish, so‘ngra erkalash mazmuniga xizmat qiladi, keyinchalik bu shakl hurmatlashni ham ifodalaydi. Tilimizning hozirgi taraqqiyotida erkalash va kichraytirish bir shaklga yuklanmoqda. Sizga endi bir kelin***chak*** olib bersak. Ko‘ngliga qarab, kelin***chag***ingizni yoningizda olib yurasiz-da. Misoldan ko‘rinadiki, bir shaklning turli ma’nolar ifodalay olishi yoki ifodalashi – asimmetrik dualizm morfologik shakllar tizimidagi erkalash va kichraytirish shakllarida ham kuzatiladi. Buni chizmada quyidagicha ko‘rsatish mumkin (2-rasm):



2-rasm. Bir shaklning turli ma’nolarda ifodalanishi.

V.B. Kashkin “S.O. Karsevskiy maxsus ishida – lingvistik belgining asimmetrik dualizmi haqidagi ta’limotga asoslangan lingvistik konsepsiyaning ajralmas tomonini yaratish haqida o‘yladi. Afsuski, bu reja bajarilmay qoldi. S.Karsevskiyning lingvistik belgining asimmetrik dualizmi haqidagi ta’limoti F. de Sossyurning tilning belgilar nomenklaturasi emasligi haqidagi pozitsiyasining yorqin tasdig‘idir. Sossyur bu faktga bir necha bor ishora qilgan”[4] ekanligini ta’kidlaydi.

Xuddi S.O. Karsevskiyning o‘zi kabi V.B. Kashkin ham: “...til – bu yorliqlar ro‘yxati emas va biz kuzatgan dalillarning guruhlanishi bu yorliqlarning alohida

[4] Асимметричност знака и межъязыковые различия / Теоретические проблемы современного языкознания. –Воронеж, 2009. –С. 32-37.

hujayralarga joylashishiga mos kelmaydi”[5], – deydi. Bu fikr Karsevskiyning “Lingvistik belgining asimmetrik dualizmi” to‘g‘risida maqolasida juda aniq ifodalangan: “Agar belgilar harakatsiz bo‘lsa va ularning har biri faqat bitta vazifani bajarganida edi, til oddiy belgilar to‘plamiga aylangan bo‘lar edi. Biroq ishoralari ma’lum vaziyatlardan tashqarida hech narsani anglatmaydigan darajada harakatchan bo‘ladigan tilni ham tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bundan kelib chiqadiki, lingvistik belgining tabiati bir vaqtning o‘zida doimiy va harakatchan bo‘lishi kerak”[6]. Agar biz bir so‘z ichida sema va morfemalar orasidagi chegaraning siljishiga guvoh bo‘lsak, … bu o‘z navbatida koordinatalarning bunday siljishidan ta’sirlangan. Hatto “ixtiro qilingan” vaqtda ham koordinata individual emas, umumiy bo‘lishi kerak, ya’ni bitta hodisa uchun maxsus yaratilmagan. Hatto bitta so‘zni yaratish imkonsiz, bir vaqtning o‘zida kamida ikkitasini yaratish kerak, deb da’vo qilish mumkin[7]. Har qanday semiotik tizim umumiy va individual subyekt sifatida emas, balki ikkita oraliq yoki ikkita semiotik qiymatlar o‘rtasidagi munosabatlar sifatida mavjud bo‘lib, ularning har biri boshqasini farqlashga xizmat qiladi. Lingvistik belgining bu farqlash xarakteriga juda ko‘p talabning qo‘yilishi to‘g‘ri bo‘lmaydi: *bola – farzand (kuyov bola), bola – nasl (mushukning bolasi).*

So‘zning aniq mantiqiy qiymatini faqat aniq vaziyatning vazifasi sifatida aniqlash mumkin. Aks holda har qanday so‘z bir ma’no uchun xizmat qilgan bo‘lar edi. Faqat ilmiy terminlarning qiymati bir marta va umumiy fikrlar tizimiga kiritilishi bilan belgilanadi. Ammo kundalik hayotiy so‘zlarimiz sema anglatish nuqtayi nazardan asimmetrik dualizm uchun xizmat qilsa, ajabmas. Shuning uchun morfologik birliklar fikrlar to‘plamini o‘z ichiga olgan holda, bir tizimda shakllanadi.

Biz har safar so‘zni aniq voqelikka semantik qiymat sifatida qo‘llaganimizda, ozmi-ko‘pmi yangi tasavvurlarga ega bo‘laveramiz. Boshqacha qilib aytganda, biz doimo belgining semantik qiymatini uslub tarafdan o‘zgartiramiz. Agar belgining odatiy qiymati, mazmuni biz anglash uchun yetarlicha bo‘lmasa, biz buni sezmaymiz: *bola**qovun** tushirmoqda* (frazalogik) – *bolalar **qovun** tushirmoqda* (leksik). Birinchi navbatda, belgining o‘ziga xosligi saqlanib qoladi, chunki bizning fikrimiz integratsiyaga intiladi va tasavvurlar to‘plamidagi har qanday o‘zgarishlarni qayd etishdan bosh tortadi; ikkinchidan, biz eski belgining yangi qiymatiga turtki beradigan taqqoslashni ongimizda joriy qilamiz. Bu jarayon so‘zning ko‘chishi va ma’noning kengayishiga olib keladi: *sovuq havo – sovuq xabar.* Bir so‘z nutq uslublarining so‘zlashuv uslubida turli sema maydonlari hosil qilsa, rasmiy uslubda aniq bir maydonda harakatlanadi.

Til tizimida bunday birliklarning vujudga kelishi, o‘z-o‘zidan ko‘p ma’nolilik, shakldoshlik, zid ma’nolilikni keltirib chiqaradi. Bunday tushunchalarning vujudga

---

5 Кашкин В. Б. Основы теории коммуникации: краткий курс. –М.: АСТ: Восток – Запад, 2007. –С. 256.

[6]Карцевский С. Об асимметричном дуализме лингвистического знака // В. А. Звегинцев (сост.). История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях. Ч. II. –М.: Просвещение, 1965. –С. 85.

[7]https://www.researchgate.net/publication/361934902_S_Karcevskij_on_the_asymmetrical_dualism_of_the_linguistic_sign1 (Sergej Karcevskij. Du dualisme asymetrique du sign linguistique / *Travaux du Cercle linguistique de Prague*, I (1929), 88-92).

kelishi tilning tarixiy ildizlari bilan bog‘lansa-da, bugungi kun nuqtayi nazaridan ham yangi birliklarning paydo bo‘lishi tabiiy holat.

Morfologik shakllar tizimidagi *-(i)sh, -(u)v* fe’lning harakat nomi shakli mazmunan boshqa ma’nolarni ham ifodalashi fanda ko‘p kuzatiladi. Chunonchi, *-(i)sh* (borish, kelish, turish, o‘qish) harakat nomidan tashqari otlashuv asosida otlar yasaydi. Shakllanish va vazifa nuqtayi nazaridan otlarga moyillik kuchayib, funksional transpozitsiya holatida vaqtincha otlik xususiyati ortadi. Aslida harakat nomi otlarga tortilgan fe’l bo‘lib, bir shaklning ikki mazmunga xizmat qilishi asimmetrik dualizmni yuzaga keltirmoqda. Bu yuzaga chiqish holati funksional transpozitsiya orqali amalga oshadi. M: *o‘qi**sh** kitobi, o‘qi**sh** fani, o‘qi**sh** darsi*…

-(u)v harakat nomi shakli ham (kechuv, boruv, ishlov, keluv, biluv) otlashishga moyil. Bu shaklning ham funksional transpozitsiya yo‘li bilan otlarga o‘tishi kuzatiladi, ayrim holatlarda ot yasovchi maqomini oladi. Dastlab otlashuv yo‘li bilan *eshittir**uv*** (eshittiruvga chaqirmoq), *o‘qu**v*** (o‘quv quroli, o‘quv yili), *uchrash**uv*** (uchrashuv joyi, uchrashuvga chiqmoq, Uchrashuv kafesi), *kech**uv*** (kechuv joyi, kechuvdan o‘tmoq), *yoz**uv*** (yozuv daftari, yozuvi chiroyli / chiroyli yozuv) kabi misollarda transpozitsiyani kuzatsak, *saylov, o‘quv, qidiruv, ko‘rsatuv, qurshov, yozuv* kabi so‘zlarda batamom otga o‘tgan shaklini ko‘rishimiz mumkin.

Demak, harakat nomining funksional transpozitsiya yo‘li bilan yasovchiga aylanishi nomutanosiblikning dualizm ko‘rinishini isbotlaydi.

Tildagi nomutanosiblikning odatda shakl va mazmun munosabati doirasida sodir bo‘lishi tilshunoslikda ko‘p tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan.Yuqorida qayd etganimiz kabi so‘z o‘zi ifodalayotgan ma’nodan tashqari matn tarkibida qo‘shimcha ma’nolarni ham, morfologik shakl o‘zi ifodalashi lozim bo‘lgan ma’nodan tashqari (yoki o‘sha ma’noning ichida) boshqa ma’noni ham ifodalaydi. Bu holat so‘zlar bilan bir qatorda affikslar o‘rtasida ham sodir bo‘ladi. A.G‘ulomovning ishlarida *-lar* affiksining ko‘plik shaklidan tashqari matn tarkibida ifodalaydigan o‘nlab ma’nolarini ham ko‘rsatib berilganiga guvoh bo‘lamiz. Bu boshqa olimlarning ishlarida ham kuzatiladi. Shunday ekan, tilshunoslikda so‘z tarkibida shakl va mazmun nomutanosibligi masalasini diaxronik hamda sinxron jihatdan A.Berdialiyevning ishida[8]alohida tadqiq qilinganligi diqqatga sazovor.

Morfologik shakllar ham umumiy mohiyatini saqlagan holda tarixiy-semasiologik, lingvosemiotik, funksional jihatdan o‘zgarib, qayta bo‘linish va o‘rinlashish jarayonlariga ham tortilib turadi. Bunday tortilishlar, tildagi qayta bo‘linishlar til tizimida turli holatda va davrda ro‘y beradi. Morfologik shakllarning bunday usulda kengayishi yoki torayishi tildagi yangi morfemalarning ortib borishiga, leksemalar miqdorining ko‘payishi va boyishiga olib kelishi mumkin.

Shakl va mazmun orasidagi munosabat har doim bir xil bo‘lavermaydi. Bir shaklning mazmun ifodalashi turlicha bo‘lishi mumkin yoki, aksincha, bir

[8]Бердиалиев А. Сўз таркиби ва шакл-маъно номутаносиблиги. –Бишкек, 2013. –Б.153.

mazmunni ifodalash uchun bir necha shakllardan foydalaniladi. Busiz mumkin emasligi esa hammaga ma’lum. Aks holda tilshunoslik yo‘q bo‘lardi. Demak, o‘z-o‘zidan ko‘rinadiki, tilshunoslik tarixida ikki tomonlama birliklar tarkibida ma’no-mazmunga e’tibor berilmasdan ish tutilgan, degan fikrning paydo bo‘lishi, aytilishining o‘zi ortiqcha.

Tildagi birliklarning ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlari bir vaqtning o‘zida sodir bo‘lmaydi. Har bir shaklning anglatayotgan ma’nosi til tizimida o‘ziga xos o‘zgarishlarni taqozo qiladi. Shu sababli shaklni mazmundan ajratib ko‘rsatish noto‘g‘ri, ularni bir-biriga bog‘lagan holda, qiyoslagan holatda tadqiq etish o‘z samarasini beradi.

A. G‘ulomov o‘z asarlarida o‘zbek tili va turkiy tillar misolida tilning turli sathlarida nomutanosiblikni tarixiy-diaxron jihatdan ham, sinxron nuqtayi nazardan ham tadqiq etgan olimlardan hisoblanadi. A. G‘ulomov so‘zning morfem qurilishida semantik va asemantik birliklar nisbatiga, ularning yuz berishi sabablariga katta e’tibor qaratib, shunday yozadi: “Tovush o‘zgarishlarining sabablari har xil (tejamkorlik tamoyili, nutq a’zolarining harakatiga, aytishga qulaylik, farqlash talabi), shuningdek, har birboshqalikning o‘z fonetik sharoiti bor: so‘zning qaysi o‘rinda kelishi, qaysi bo‘g‘inda va bo‘g‘inning qayerida kelishi, ochiq yoki yopiq bo‘g‘inda bo‘lishi, qaysi tovushlar bilan qo‘shni bo‘lishi, birikishi; qanday tovushlar orasida kelishi (masalan, intervokal pozitsiyada); urg‘uli va urg‘usiz bo‘lishi.Tovush o‘zgarishlari xilma-xil, bunda tarixiy o‘zgarishlar va bu hozirgi regulyar xarakterdagi o‘zgarishlar boshqa-boshqa xususiyatlarga ega bo‘ladi”[9].

Demak, nomutanosiblik har bir tilda tabiiy ravishda amal qiladigan, shakl va mazmunning turlicha bog‘lanishi, ular orasidagi uzviy aloqadorlik, shakl va ma’noning o‘zgarishi, ko‘chishi, o‘zaro o‘tishi jarayonlarini aks ettiradigan muhim qonuniyatning nomi hisoblanadi. Sinxroniya diaxroniyaning qonuniy davomchisi, vorisi bo‘lar ekan, har bir sinxron bosqichdagi shakldoshlik, ma’nodoshlik, ko‘p ma’nolilik, ko‘p vazifalilikning ham o‘z izohi, sabablari bor. Ana shu jarayon va hodisalar tufayli til jamiyat ehtiyojlariga hozirjavob tizim qobiliyatini to‘liq namoyon qiladi hamda o‘zida aks ettiradi.

MAQOLLAR VA ULARNING QO‘LLANILISHI BORASIDA

G.N.Isakova,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti dotsenti
filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. Lotin tilidan dunyo xalqlariga juda boy madaniy meros qolgan. Hozirda nutqimizda faol qo‘llanayotgan terminlar, iboralar, aforizmlar, qanotli iboralar va maqollar shular jumlasidandir. Quyidagi maqolada lotin tilidan o‘zlashgan tibbiyotga oid maqollar va ularning qo‘llanilishi borasida fikr yuritiladi.

[9]Ўзбек тили грамматикаси. I жилд. –Тошкент, 1975. –Б.117.

Kalit so‘zlar: tibbiyot, tibbiy ta’lim, lotin tili, maqol, ma’nodor va obrazli ifodalar.

Abstract. The Latin language has left a rich cultural heritage to the peoples of the world. These are the terms, expressions, aphorisms, catchphrases and proverbs that are actively used in our speech. The following article discusses medical proverbs borrowed from the Latin language and their application.

Key words: medicine, medical education, Latin language, proverb, meaningful and figurative expressions.

Lotin tilining tibbiyotdagi o‘rni alohida ko‘rinish kasb etadi. Ushbu tilni tibbiyot tili deb bemalol ayta olamiz, chunki barcha xalqlar tibbiy bilimni ushbu tildan o‘zlashgan atamalar orqali o‘zlashtiradilar. Tibbiyot sohasidagi lotin tilida olib borilgan samarali tadqiqotlar, yangiliklar ushbu tilda yaratilgan tibbiy atamalarni barcha xalqlar tillariga olib kirdi va ularni boyitdi.

Invia est in medicina via sine lingua Latina (lot.)

- Lotin tilisiz tibbiyotga yo‘l yo‘q (o‘zb.)

Darhaqiqat, lotin tilini dunyo miqyosidagi o‘rnini ko‘rsatuvchi soha tibbiyot sohasidir. Tibbiyot o‘quv yurtlarida, qaysi davlatda bo‘lishidan qat’iy nazar, sohaga oid deyarli barcha atamalar lotin (ma’lum qismi yunon tilida) tilida o‘rganiladi: *caput - bosh, collum - bo‘yin, cavitas - bo‘shliq, occiput - ensa, truncus - gavda, facies - yuza, caecus - ko‘r, cerebrum – bosh miya, scapula - kurak, musculus - muskul, skeleton - skelet, cartilago - tog‘ay, biceps – ikki boshli, cella (cellula) - hujayra, corpus - tana, intestinum - ichak, bucca - lunj,* va boshqalar. [1, 13-14]

Bo‘lajak tibbiyot xodimlari kurs davomida lotin tilida mustaqil o‘qish va lug‘at orqali tibbiy matnlarni tushunish, soha bo‘yicha ilmiy adabiyotlardan olingan ma’lumotlarni o‘zlashtirish va mutaxassislik doirasida yozish, tashxis qo‘yish, dorilar retseptni grammatik jihatdan to‘g‘ri yozish kabi ko‘nikmalarni o‘zlashtirishadi.

Tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida lotin tilni o‘zlashtirishga bo‘lgan talab kuchli. Talabalar ta’limning boshlang‘ich qismida, ya’ni 1-bosqichda lotin tili fan mutaxassislari tomonidan puxta o‘qitiladi. Chunki talabaning mutaxassislik fanlarini qay darajada o‘zlashtirishi lotin tili faniga bog‘liq va ushbu fan tibbiy bilimga asos sanaladi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, lotin tili bo‘yicha darslik va qo‘llanmalarida maqol va aforizmlar alohida o‘rin tutadi. Bu esa ta’lim va tarbiyani qo‘shib olib borishda, shuningdek, talabalarda kasbga bo‘lgan ishtiyoqni, mehrni shakllantirish borasida juda qo‘l keladi.

Bilamizki, nutq jarayonida maqollardan o‘rinli foydalanish nutqimizning ta’sirchanligini, shiraliligini oshirishga xizmat qiladi. Maqol manbalarda hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda, pand-nasihat mazmuniga ega bo‘lgan ixcham, obrazli, tugal ma’noli va hikmatli ibora, gap sifatida ko‘rsatiladi. [2, 2-jild, 569]

Bunday hikmatli ibora yoki gaplar ixchamlilik, mazmundorlik xususiyatiga ega. Ular avloddan avlodga o‘tib, boyib kelmoqda. Shunday hollar kuzatiladiki,

soatlab gapirish, tushuntirish o‘rnida, o‘nlab savollarga javob tariqasida aytilgan birgina maqol yoki ibratli fikr yetarli bo‘ladi.

1) Omnium atrium medicina nobilissima (est) (lot.)

- Barcha san’atlar ichida tibbiyot eng olijanobidir (o‘zb.)

2) Summum bonum medicinae sanitas (lot.)

- Salomatlik tibbiyotning oliy maqsadidir (o‘zb.)

Tibbiyot sohasini o‘rganish uchun endigina bel bog‘lagan talaba ushbu maqollarni o‘zlashtirishi davomida o‘z tanlagan kasbiga yanada mehri oshishi, uning naqadar foydali kasb ekanligiga o‘zida ishonch sezishi aniq. Bu kabi maqollar talabada sohani o‘zlashtirishga bo‘lgan ishtiyoqni oshirishga xizmat qiladi desak adashmaymiz.

Ma’lumki, shifokorlik kasbi fidoyilikni talab qiladi. Insonlar o‘z hayotlarini ularga ishonib topshirishar ekan, ular bor bilim va imkoniyatlardan foydalanib bemorlarga yordam bera olishlari muhimdir. Buni albatta, har bir bo‘lajak kasb egasi anglab yetishi lozim. Mutaxassislik fanlarini chuqur o‘zlashtirish bilan birga ba’zi maqollar ularni ruhan tayyorlashga ham yordam beradi. Masalan:

Medicus amicus et servus aegrotorum (lot.)

- Shifokor bemorning ham do‘sti ham qulidir (o‘zb.)

Shifokorni *bemorning do‘sti* sifatida belgilovchi jihatlarni quyidagilar orqali anglash mumkin: u bemorning dardini sabr bilan tinglaydi, bemorga samimiy maslahatlarini beradi, bor kuch-g‘ayratini bemorning sog‘likdagi muammolarini bartaraf qilishga sarflaydi. Ma’lumki, bemorning ruhiy xolati turlicha bo‘lishi mumkin. Ba’zi hollarda bemorning o‘z yaqinlari chiday olmagan injiqliklarga fidoyi shifokorlarimiz sabr bilan yechim topadilar. Yoki jismonan chegaralangan bemorlarning har qanday muammosi uchun shifokor doimo tayyor. Shunga ko‘ra, kerakli o‘rinlarda shifokor bemorning *quli* sifatida ham namoyon bo‘lishi kuzatiladi.

Ma’lumki, tibbiyotda kasallikni to‘g‘ri aniqlash, to‘g‘ri tashhis qo‘yish muhim sanaladi. Aks holda bemorning dardi kuchayishi yoki boshqa yomon holatlar kelib chiqishi mumkin. Buni oldini olish uchun quyidagi lotin maqolini o‘zlashtirish lozim deb hisoblaymiz.

Bene dignoscitur, bene curatur (lot.)

- To‘g‘ri aniqlangan kasallik to‘g‘ri davolanadi (o‘zb.)

Tibbiy oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak kasb egalari kasallikni bartaraf qilish yo‘llarini o‘rganish bilan bir qatorda, uni oldini olish sirlarini ham o‘zlashtira boradilar. Bunda ham lotin tilidan qolgan ma’nodor ifodalar qo‘l keladi:

1) Hygiena amica valetudinis (lot.)

- Tozalik sog‘likning garovidir (o‘zb.)

2) Medicus curat, natura sanat (lot.)

- Tabiat sog‘lomlashtiradi, shifokor davolaydi (o‘zb.)

Shuningdek, lotin olimlari tomonidan shifokorlarning kasbiy faoliyatlari davomida duch kelishi mumkin bo‘lgan noto‘g‘ri ayblov yoki o‘zlari yo‘l

qo‘yishlari mumkin bo‘lgan turli noqonuniy holatlardan saqlanish uchun quyidagi maqollarni singdirish lozim:

1) Praemia cum poscit medicus satana est (lot.)

- Agar vrach kasaldan mukofot talab qilsa, u iblisdir (o‘zb.)

2) Si juvatur natura laudatur, si non juvatur medicus accusatur (lot.)

- Foyda bersa, tabiatni maqtashadi, foyda bermasa, vrachni ayblashadi (o‘zb.)

Yuqorida keltirilgan maqollardan ko‘rinib turibdiki, tibbiyotga, soha vakillariga qadimdan e’tibor kuchli bo‘lgan. Bo‘lajak shifokorlarga bu kabi ibratli, ma’nodor ifodalar singdirib borilsa, ularni kasbga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, maqollarni o‘rinli qo‘llash orqali dars mashg‘ulotlarini samaradorligini oshirishga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xo‘jayeva L.U. Lotin tili. – Toshkent: O‘ME Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: "O‘zbekiston ME” Davlat ilmiy nashriyoti, 1-5 jildlar, 2006-2008.

3. O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981.

4. Чернявский М.Н. Латинский язык и основы медицинской терминологии. Издание третье, исправленное и дополненное. – Москва: ШИКО, 2007.

SO‘Z O‘YINLARI VA ULARNING TADQIQIGA DOIR

Dusmatov Xikmatullo Xaitboyevich
FarDU dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)
Komilova Shaxrizoda Sherzod qizi
FarDU magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek milliy so‘z o‘yinlarining o‘rganilishiga oid fikr-mulohazalar beriladi. So‘z o‘yinlarida qo‘llanadigan lingvostilistik usul va vositalarning ayrimlari tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: So‘z o‘yini, lisoniy o‘yin, kategoriya, xalq og‘zaki ijodi, lingvistik ijod.

“Til - bu o‘yin”[10] o‘xshatishidan qadimgi zamonlardan buyon tilshunoslikda keng foydalanilib kelinmoqda. Ferdinand de Sossyur lisonning asosiy kategoriyalarini shaxmat o‘yiniga muqobillikda ta’riflaydi (tizimlilik, ahamiyatlilik, qoida va boshqalar). Biroq “lisoniy o‘yin” termini nisbatan yaqin yillarda, faylasuf L.Vitgenshteyn ishlarida paydo bo‘lib, unga ko‘ra, til “o‘z qoidalariga ega bo‘lgan o‘yin” sifatida talqin etildi. Lisoniy o‘yinlar - o‘z ichki qoidalari va kelishuvlarga bo‘ysunuvchi yaxlit va tugal kommunikasiya tizimlari hisoblanadi. Olimning fikricha, lisoniy o‘yin til birliklarining tizimli munosabatlarini maqsadli, ongli ravishda buzishga asoslangan so‘zlovchi nutqiy xatti-harakatining muayyan bir turidir. U, asosan, so‘zlashuv, ommabop va badiiy

[10] Соссюр Ф. де Труды по языкознанию. - М.: Прогресс, 1977. - 206 с.

nutq uslublariga xosdir[11]. Olimning konsepsiyasida ijodiy yondashuv, nutqiy faoliyatdan iborat lisoniy o‘yin subektiv tarzda shakllantirilgan kognitiv jarayonlar sifatida izohlanadi.

Rus tili stilistikasiga oid ensiklopedik lug‘atda “lingvistik ijod sifatida, asosan, jamiyatning madaniy qatlamlariga bo‘ysunadi va nutq ifoda etishning asosiy qoidalarini bilmaslikdan kelib chiqqan nutq xatosining teskarisidir”[12] deya izohlangan lisoniy o‘yin hodisasi jahon tilshunosligida atroflicha o‘rganilgan. Bu o‘rganishlar til rivojining barcha davrlariga xos bo‘lib, o‘zaro o‘yinli munosabatlar turli sohalarda namoyon bo‘lib kelgan. Xususan, “o‘yin” termini ko‘plab ilmiy sohalar qatori falsafa, pedagogika, psixologiya va fiziologiya kabi sohalarda namoyon bo‘lib, turli aspektda o‘zining funsional xususiyatlariga ega bo‘lishi ta’kidlangan. Tilshunoslik sohasida so‘z o‘yinlarining lingvostilistik tabiati bir qator olimlar, xususan, O.Y.Konovalova[13], K.S.Baranov[14], T.V.Pervak[15], A.Z.Sannikov[16], O.Y.Voronichev[17], A.A.Tereshenkova[18], O.V.Gladkova[19], Y.M.Fedorova[20], Y.S.Lavrenteva[21] kabi tilshunoslar tomonidan turli tillar misolida ochib berildi. Tadqiqotchilar tomonidan til o‘yiniga matnni shakllantirish omili sifatida qaraldi.

So‘z o‘yini jahon tilshunosligining tadqiqot obekti sifatida XX asming ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslarning diqqat markazidagi lingvostilistik muammoga aylandi. Buning natijasida, ayniqsa, rus tilshunosligida ko‘plab ilmiy ishlar maydonga keldi[22]. Amalga oshirilgan aksariyat tadqiqotlarda so‘z

---

[11] Витгенштейн Л. Философские исследования//Новое в зарубежной лингвистике. Вып.16.- М., 1985. -С. - 34.

[12] Стилистический энциклопедический словарь русского языка. [электронный ресурс] / под ред. М.Н.Кожиной; члены редколлегии: Е.А.Баженова, М.П.Котюрова, А.П.С коворолников. - 2-е изд., стереотип. — М.: Флинта: Наука, 2011. -С. 696.

[13] Коновалова О.Ю. Лингвостилистические особенности игра слов в современном английском языке: Автореф. дисс. канд. филол. наук. Москва: Изд-во МГУ, 2001. -С. 22.

[14] Баранов К.С. Языковае игра в немецко язычниых рекламных текстах: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Москва, 2011. -С. 26.

[15] Первак Т.В. Языковая игра в теледискурсе: лексической и стилистической аспекты (на материале немецкого комедийного телесериала «Штромберг»): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. -Мытищи, 2018. - С. 26.

[16] Санников В.З. Русский язык в зеркале языковой игры. Москва: Языки славян, культуры, 2002. -С. 547.

[17] Вороничев О. Е. О лингвостилистических особенностях каламбура и каламбурной рифмы // Начальная школа плюс До и После. - 2010. № 2. с. 36-40.

[18] Терещенкова А.А. Лингвостилистическая и семиотическая природа каламбура. Сборник «Риторика. Лингвистика». Смоленский государственный университет. 2016, №12. -С. 60-64.

[19] Гладкова О.В., Блинова М.П. Лингвостилистические особенности английского каламбура и анализ способов его воссоздания при переводе. Современные тенденции развития науки и технологий. Кубанский государственный университет. 2016, №5-4. -С.38-41.

[20] Федорова Ю.М., Чиликина О.Н. Лингвостилистические особенности французского каламбура и способы его воссоздания при переводе. Актуальные вопросы филологии и переводоведения в свете современных исследований. Калужский государственный университет. 2017, -С.332-337.

[21] Лаврентьева Е.С. Трудности перевода лингвостилистических особенностей художественных текстов в рамках игровой концепции языка. Языки. Культуры. Перевод. 2013, №1, -С.169-179.

[22] Сковородников А.П. О понятии и термине «языковая игра» / А.П. Сковородников// Филологические науки. - 2004. - №2. - С. 79-87; Норман Б.Ю. Игра на гранях языка/ Б.Ю. Норман. - М.: Флинта: Наука, 2006. -С. 344; Гордиевская М.Л. Каламбур в живом диалоге / М.Л. Гордиевская // Русский язык в школе. - 1994. - №3. - С. 71-75; Джанумов А.С. Каламбур и его функционирование в двуязычной ситуации (англорусские со-ответствия): Автореф. дис. ... канд. филол. наук: 10.02.20 / Джанумов Артемий Сейранович. - М.: МГПУ,

o‘yinlarining muayyan turlari, ulardan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari, shu jumladan, so‘z o‘yinlarining nutq uslublari va turli janrlarda qo‘llanishini yoritishga alohida e’tibor qaratildi[23]. Shuningdek, so‘z o‘yinlari ma’lum bir davr manbalari[24] hamda maxsus bir janrlar misolida[25] yoki biror bir nutq ko‘rinishi doirasida[26] ham o‘rganildi.

O‘zbek adabiyotshunosligida olib borilgan bu boradagi izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, so‘z o‘yinlari nafaqat hajviy-yumoristik fikrlar ifodasi, balki tinglovchida ma’naviy-estetik zavqni shakllantiruvchi, so‘zlovchi nutqining ta’sirchanligini oshiruvchi badiiy san’at darajasiga ham ko‘tarilgan. So‘z o‘yinlarining ushbu jihatlari o‘zbek adabiyotshunosligiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarida nisbatan kengroq yoritilgan[27].

O‘zbek tilshunosligida keyingi yillarda so‘z o‘yinlari tadqiqiga bag‘ishlangan ayrim ishlar maydonga keldi[28]. So‘z o‘yinlari turli nutq uslublari misolida, xususan, o‘zbek milliy so‘z san’ati hisoblangan askiya matni misolida[29], latifalar kontekstida[30] hamda badiiy nutq ko‘rinishida[31] tadqiq etildi. Biroq so‘zlovchining yashirin maqsadi, subektiv munosabati bilan aloqadorlikda yuzaga chiquvchi

---

1997. -С. 20; Арсентьева Е.Ф. Роль фразеологического каламбура в создании юмористического эффекта / Е.Ф. Арсентьева// II Международные Бодуэновские чтения: Казанская лингвистическая школа: традиции и современность (Казань, 11-13 декабря2003 г.): Труды и материалы: В2 т. / Под ред. К.Р. Галиуллина, Г.А. Николаева. - Казань: Изд-во Казан. ун-та, 2003.- Т. 1. - С. 115-116; Добродомов И.Г. Историко-этимологические каламбуры и филологическая достоверность лексикофразеологического материала/ И.Г. Добродомов// Вопр. языкознания. - 2009. - С. 92-109; Пономарева Г.В. Каламбур как форма реализации языковой игры в англоязычной персуазивной коммуникации в аспекте перевода: дис. ... канд. филол. наук: 10.02.19 / Пономарева Галина Владимировна. - Краснодар: Кубанский гос. ун-т, 2009. -С. 151.

[23] https://www.litdic.ru/kalambur/

[24] Ходакова Е.П. Каламбур в русской литературе XVIII в. / Е.П. Ходакова// Русская литературная речь в XVIII в.: Фразеологизмы. Неологизмы. Каламбуры. - М.: Наука, 1968. - С. 201-254; Земская Е.А. Речевые приемы комического в советской литературе // Исследования по языку советских писателей/ Е.А. Земская. - М.: Изд-во АН СССР, 1959. - С. 215-278; Земская Е.А. Языковая игра/ Е.А. Земская, М.А. Китайгородская, Н.Н. Розанова // Русская разговорная речь: Фонетика. Морфология. Лексика. Жест. - М.: Наука, 1983. - С. 172-214.

[25] Голев Н.Д. Русский анекдот как игровой текст: внутренняя форма и содержание/ Н.Д. Голев// Человек-коммуникация - текст. Вып. 4 / под ред. А.А. Чувакина. - Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2000. - С. 2733.

[26] Сопова Т.Г. Языковая игра в контексте демократизации художественной речи в последние десятилетия XX века: Автореф. дисс... кан. филол. наук. - Санкт-Петербург, 2007. -С. 22.

[27] Дожиахмедов А. Мумтоз бадиият малохати. - Тошкент: Шарц, 1999. -Б.75.; Исходов Ё. Суз санъати сузлиги. - Тошкент: O‘zbekiston, 2014. -Б. 320.

[28] Узбеков Т. Тил уйинининг семантик, функционал-услубий ва лингвостатистик хусусиятлари: Филол.фан. буйича фал. док. (PhD) ... дисс. автореф. -Куцон, 2022. -Б. 22; Рустамов И. Суз ясаш сатхидаги лисоний уйин. Халцаро илмий-амалий конференция материаллари. -Жиззах, 2017. -Б. 69-70. Эшонцулов Л. Бадиий-эстетик тафаккурда суз уйини ёшларнинг когнитив билимини устирувчи механизм сифатида. International Journal of Intellectual and Cultural Heritage. Volume: 1,Issue: 03111 2021. -Б. 70-78; Кубаева Ш. Уйин ва инновацион тафаккур. Монография. -Самарканд: СамДУ, 2019. -Б.18.

[29] Дусматов Х. Аския матнининг лингвостилистик тадцици: Филол. фан. буйича фал. док. (PhD) ... дисс. автореф. - Фаргона, 2018. -Б. 24.; Дусматов Х. Узбек миллий суз уйинларининг лингвостилистик тадцици. Филол.фан.док. дисс. автореф. - Фаргона, 2022. - Б. 31.

[30] Рустамов И. Кичик жанр матнларнинг прагматик когнитив ва миллий маданий мохияти (узбек ва инглиз латифалари мисолида): Филол.фан. буйича фал. док. (PhD) ... дисс. автореф. -Тошкент, 2019. -Б. 20.; Мадалиев Я. Туркий халцлар огзаки ижодида латифа жанри (узбек ва цозоц латифалари мисолида). Филол.фан.фал.док. (PhD) дисс. автореф. -Тошкент, 2021. -Б. 24.

[31] Абдурахмонов Ш. Узбек бадиий нутцида кулги цузгатувчи лисоний воситалар: Филол. фан. номз... дисс. автореф. - Тошкент, 1997. -Б. 23.

kengqamrovli lingvostilistik hodisa hisoblangan so‘z o‘yinlarining qiziqchilar ijodida qo‘llanilishi maxsus tadqiq etilmadi. Shu bois biz ushbu faslda o‘zbek milliy so‘z o‘yinlarining qiziqchilar nutqida ifodalanishini yoritishga harakat qildik.

Lingvistik adabiyotlarda lisoniy o‘yinning asosiy ko‘rinishi sanalgan so‘z o‘yini (ayn. kalambur, fran.calembour) so‘zlarning ko‘p ma’noligiga, fonetik strnkturasi bir xilligiga asoslanadigan so‘z o‘yini, so‘zlarni shunday qo‘llashdan iborat nutq ko‘rinishi[32] sifatida ta’riflanadi.

Tilshunos olim X.Dusmatovning fikricha, so‘z o‘yini o‘zida implisit axborot ko‘lamini tajassum etadi va quyidagi jihatlari bilan boshqa nutq ko‘rinishlaridan farq qiladi: 1. Nutq so‘z o‘yinlari asosida shakllantiriladi. 2. So‘z o‘yini kontekstida birdan ortiq implisit axborot ifodalanadi. 3. So‘z o‘yinining semantik strukturasida *koptalqinlilik; murakkablik; sinkretizm; polisemantik va polifunksionallik; ma’noviy va mazmuniy siljishlar; me’yordan chekinish; lisoniy anomaliyalar* voqelanadi[33].

So‘z o‘yinlari o‘zbek xalq og‘zaki ijodi ko‘rinishlarida keng istifoda etiladi: latifalar, askiyachi va qiziqchilar nutqlarida, payrov va chandishlar, qo‘shiq va dostonlar, ertak va hikoyalar, xalq dramalarida ishlatiladi.

To‘plangan lisoniy dalillarimiz tahlili shundan dalolat beradiki, qiziqchilar nutqida so‘z o‘yinlari hazil-mutoyiba, qochiriq, kulgi qo‘zg‘atuvchi xarakterda bo‘ladi. Ushbu fikrlarimizni asoslash uchun ayrim so‘z ustalarimizning so‘z qo‘llash jihatlariga e’tibor qaratamiz. O‘zbek so‘z ustalari orasida Hojiboy Tojiboyev alohida ajralib turadi. Uning boshqa bir so‘z ustalarimiz, qiziqchi va askiyachilarimizda uchramaydigan o‘ziga xos so‘z qo‘llash uslubi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- *orttirma darajani ifodalovchi* -roq *shaklini takror qo‘llash:* “Mana men o ‘zim ham bir necha bor borib, konsert qo ‘yganman. Navoiy viloyatida ruslar ko‘p *roq- roq* xizmat qiladigan bir harbiy qismga bordim...”
- tilimizda tasdiqni ifodalovchi *“xuddi shunaqa”* so‘zini kesatiq va inkor mazmunida qo‘llash. Qiziqchi ushbu so‘zlarni o‘zgacha bir kinoyaviy ohangda aytadiki, kontekstda “aslida unday emas” degan qarama-qarshi mazmun anglashiladi: *“Yevropada molga e’tirom, e’zozlash o‘ta yuqori. Bizda-chi? Bizda ham xuddi shunaqa”.*
- pragmatik-kinoyaviy mazmundagi okkazional hosiladan foydalanish: “hho‘-hho‘-hho‘, hho‘-hho‘-hho‘”.

So‘z o‘yinlarining keng tarqalgan usullaridan biri - bu nutqiy vaziyatda so‘zlarni o‘z va ko‘chma ma’noda baravar qo‘llash hisoblanadi. Buning uchun qiziqchilar ko‘pma’noli so‘zlarga, ko‘chma ma’noli so‘zlarga hamda iboralarga e’tiborli bo‘lishlari talab etiladi. Masalan:

- Hojiboy aka, mana shu kitobimga *qo 4 qo‘yib bersangiz.*

---

[32] Хржиев А. Тилшунослик терминларининг изошли лугати. - Тошкент, 2002. -Б. 41.

[33] Дусматов Х. Узбек миллий суз уйинларининг лингвостилистик таджики. Филол.фан.док. диссертацияси. - Фаргона, 2022. - Б. 31.

- *Tap etib qoTimni kitobining ustiga qo'ydim. (Hojiboy Tojiboyev)*

Yuqoridagi misolda qo‘l qo‘ymoq ifodasi leksik omonimiyaga misol bo‘ladi. Ya’ni:

1) qo‘l qo‘ymoq - biror narsa ustiga qo‘lini qo‘ymoq;
2) qo‘l qo‘ymoq - imzo chekmoq kabi ma’nolarni ifodalab kelgan.

Qiziqchilar o‘z nutqida sinkretik so‘z o‘yinidan ham foydalanadilar. Ushbu so‘z o‘yinida birdan ortiq lingvistik hodisalar qorishib ketadi. Quyidagi misolda polisemantik va polifunksional so‘zning kontekstda turli ma’no va vazifada kelib, ularning qorishib ketganligini ko‘rishimiz mumkin:

Men deputat bo‘lsam, rohat-farog‘atda yashaysizlar, deb va’da bergan deputat obrazida qiziqchi G‘ayrat Ahmedov choyxonada dam olib turganida bir saylovchi kelib norizolik ohangida:

- Sizdan bita narsa so‘rab olsam maylimi, - deydi.
- Mayli so ‘rayvering.
- Siz o-o saylanayotganingizda meni saylasanglar, rohat-farog‘atda yashaysizlar degandindiz. To ‘g‘rimi?
- To ‘g‘ri.
- Endi-chi? Hozir nima bo ‘lyapti?
- Hah, aytingchi, men deputat bo‘lib saylanmasdan oldin, ular qaysi ko‘chadayashar edi?
- Mexanizatorlar ko‘chasida.
- O‘lmang, o‘lmang! Ha, hozir-chi? Ko‘chalaringizning nomi nima?
- Hozirmi? “Rohat-farog‘at”.
- Xo‘sh, qayerda yashayapsizlar ekan?!

Matnda qo‘llangan *rohat-farog‘at* juft so‘zi *to‘kin-sochinlik, farovonlik* ma’nosida va ko‘chaning nomi ma’nosida qo‘llangan bo‘lib, bir paytning o‘zida ravish holi va o‘rin holi vazifasini bajarmoqda. Boshqa nutq ko‘rinishida biron bir so‘z kontekstda faqat bir gap bo‘lagi vazifasida kelsa, so‘z o‘yinlarini hosil qilishda ayrim til birliklari birdan ortiq gap bo‘lagi vazifasida qo‘llanishi e’tiborlidir. Chunki so‘z o‘yinini hosil qilishda me’yoriylikdan chekinish, so‘zlarni ataylab ko‘ptalqinli tarzda qo‘llash lozim bo‘ladi. Mana shu jihati bilan so‘z o‘yinlari matni boshqa nutq ko‘rinishlaridan keskin farq qiladi. So‘z o‘yinining ushbu semantik-sintaktik- stilistik xususiyatlari, ayniqsa, askiya san’atiga xosdir.

Qiziqchilar o‘z nutqida kulgi qo‘zg‘atuvchi usullar orasida uslubiy sintagmalash usulidan ko‘proq foydalanadilar. Uslubiy sintagmalash, poetik sintagmalash atamalari tadqiqotchi X.Dusmatov tomonidan o‘zbek askiyachilik, qiziqchilik san’atida, shuningdek, poetik va publisistik nutq ko‘rinishlarida qo‘llanishi isbotlangan[34]. Ayniqsa, askiya va qiziqchilikda so‘z o‘yinining keng tarqalgan turi hisoblanadigan ushbu usul so‘zlarni maqsadli biriktirish yoki so‘zni komponentlarga bo‘lishdan iborat bo‘lib, bunda so‘zlarni bo‘lib talaffuz qilish hamda to‘xtam (pauza) alohida stilistik qimmatga ega bo‘ladi hamda sintaktik-

[34] Бу хакда каранг: Дусматов Х. Узбек миллий суз уйинларининг лингвостилистик таджики. Филол.фан.док. дисс. автореф. - Фаргона, 2022. - Б. 28.

stilistik aloqa natijasida birdan ortiq axborot ifodalanadi:

Xalqdan pul olsa-chi?

- *Ho-o-o kiml*igini aytmayman.
- Daraxt kessa-chi?
- *Ho-o-o kim*ligini aytmayman.
- Uy buzza-chi?
- *Ho-o-o kim*ligini aytmayman.
- E-e, bo‘ldi qiling-e. Nimaga aytmaysiz, xojayin? Ayting unda, tushuntirib bering-chi.
- Jinnimisan, qamalib ketaman-ku. (“Aristokratlar” jamoasi)

Ushbu hajviy matnda so‘z o‘yini katta ijtimoiy-lisoniy vazifa bajargan. Dialogik nutqda asosiy maqsad hokimlarning jamiyatdagi qing‘ir ishlarini fosh qilishga qaratilgan: “Hooo kimligini aytmayman” gapining asosiy mazmuni “hokimligini aytmayman” (hokim ekanligini aytmayman) bo‘lib, fikr alyuziv tarzda so‘z o‘yini vositasida yuzaga chiqarilganligi o‘ziga xos tarzda bir kulgi qo‘zg‘atishga xizmat qilgan.

Xullas, o‘zbek milliy qiziqchiligi san’atida so‘z o‘yinlari hajv yaratish uchun asosiy uslubiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Qiziqchilar nutqida so‘z o‘yinlaridan foydalanish tinglovchilarga emotsional-estetik zavq bag‘ishlab, fikrning ta’sir kuchini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Дусматов Х. Аския матнининг лингвостилистик тадцици: Филол. фан.буйича фал. док. (PhD) ... дисс. автореф. - Фаргона, 2018.

2. Дусматов Х. Узбек миллий суз уйинларининг лингвостилистик тадцици. Филол.фан.док. дисс. автореф. - Фаргона, 2022.

3. Рустамов И. Кичик жанр матнларнинг прагматик когнитив ва миллий маданий мохияти (узбек ва инглиз латифалари мисолида): Филол.фан. буйича фал. док. (PhD) ... дисс. автореф. -Тошкент, 2019.

4. Мадалиев Я. Туркий халцлар огзаки ижодида латифа жанри (узбек ва цозоц латифалари мисолида). Филол.фан.фал.док. (PhD) дисс. автореф. - Тошкент, 2021.

5. Абдурахмонов Ш. Узбек бадиий нутцида кулги цузгатувчи лисоний воситалар: Филол. фан. номз... дисс. автореф. - Тошкент, 1997.

6. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изошли лугати. - Тошкент, 2002.

GAP BO‘LAKLARINING SINTAKTIK POZITSIYASI

Usmonova Huriniso Sharapovna,
Namangan davlat universiteti professori
Iminjonova Husnida
Qo‘qon DPI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilida gap bo‘laklarining sintaktik pozitsiyasi masalasi tahlil qilinadi. Gap bo‘laklarining shakliy va mazmuniy xususiyatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: gap, gap bo‘laklari, sintaktik pozitsiya, shakl va mazmun dilaektikasi, lisoniy birlik.

Hozirda o‘zbek tilini an’anaviy metodlar orqali o‘rganish bilan birga, jahon tilshunosligida keng qo‘llanayotgan sistem-struktur metodlar asosida o‘rganish tobora kengayib bormoqda. Tilga va uning birliklariga sistema sifatida yondashuv shu kunga qadar tilshunoslik uchun qorong‘i bo‘lib kelayotgan jihatlarni aniqlashga yordam beradi. Ana shundan kelib chiqib, o‘zbek tilidagi sintaktik birliklarni shakl va mazmun qarama-qarshiligi va birligi qonuniyatini hisobga olgan holda sistem tadqiq qilish zaruriyati tug‘iladi.

Lisoniy birliklarni sistema sifatida tadqiq etish, uni tashkil etgan ichki uzvlarning o‘zaro munosabatini belgilash hozirgi o‘zbek nazariy tilshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardandir. Shuni hisobga olgan holda, sintaktik birliklarning, xususan, «propozitiv nomlanish» deb yuritiladigan birliklarning gap tuzilishidagi o‘rni, ularning ichki uzvlariga xos butun ichidagi o‘zaro mazmuniy va shakliy munosabatini belgilash hamda xarakterli xususiyatlarini ochish muhimdir.

80-yillardan boshlab o‘zbek tilshunosligi oldida o‘rganilayotgan obyektni tavsifiy bosqichdan tadqiqot bosqichiga ko‘tarish o‘zbek tilining barcha sath birliklarini sistem-struktur o‘rganish metodikasi nuqtayi nazaridan tadqiq qilish vazifasi ko‘ndalang qilib qo‘yildi. Shu yillardan boshlab gapga sistema sifatida yondashuv gapning eng muhim struktur markazi sifatida kesim e’tirof etila boshlandi va gapning boshqa bo‘laklari kesimning kengaytiruvchilari sifatida izohlana boshlandi. Bunday g‘oya A.Nurmonov, N.Mahmudov, H.Ne’matovlar tomonidan olg‘a tashlangan bo‘lsa, keyinchalik R.Sayfullayeva, M.Qurbonova, M.Boshmonov, L.Raupova va boshqalar tomonidan rivojlantirildi.

Muammoni Gap tarkibida mazmuniy va grammatik tayanch nuqta predikativlik shaklidagi predikat, ya’ni kesim hisoblanadi. Boshqa barcha bo‘laklar kesimning «bo‘sh o‘rinlari»ni to‘ldirib, unga nisbatan ma’lum vaziyatda keladi. Kesimning «bo‘sh o‘rinlari»ni to‘ldirib, ma’lum sintaktik vaziyatda (ega, to‘ldiruvchi, hol) kelgan sintaktik birliklar moddiy jihatdan bir yoki bir necha morfologik shakllardan tashkil topadi.

Bir necha morfologik shakllardan ifodalangan, kesimga nisbatan biror sintaktik vaziyatda kelgan sintaktik butunlik yaxlit holda funksiyalashadi. Bunday sintaktik butunliklarda bir uzv boshqa uzvlarni birlashtiruvchi yetakchi vosita sanaladi. Ayni paytda bu yetakchi qism o‘zi ergashtirib kelgan boshqa qismlar bilan birgalikda bir butun holda kesimga nisbatan tobe vaziyatda keladi.

“Sintaktik pozitsiya” deganda, gapning markaziy birligi bo‘lgan kesimning bo‘sh o‘rinlarini tushunamiz. Uning bo‘sh o‘rinlarini to‘ldiruvchi sintaktik birliklar kesimga nisbatan muayyan vazifani bajaradi. Masalan, ***Dalalarda qushlar sayramoqda*** gapida grammatik va mazmuniy markaz hisoblanuvchi ***sayramoqda*** kesimi subyekt, lokal hamda payt valentliklariga ega bo‘lib, dastlabki ikki valentlik ***qushlar*** va ***dalala*****r** sintaktik birliklari bilan to‘ldirilmoqda. Subyekt valentligini to‘ldiruvchi sintaktik birlik bosh kelishikdagi ot orqali ifodalanib, ega pozitsiyasida, lokal valentligini to‘ldiruvchi ***dalalarda*** sintaktik birligi o‘rin payt kelishigidagi ot orqali ifodalanib, hol pozitsiyasida kelmoqda. Demak, sintaktik pozitsiya kesimning bo‘sh o‘rinlariga (valentliklariga) qarab belgilanadi. Ayrim hollarda kesimga argument bo‘lib kelgan bo‘laklar ham o‘zlarining bo‘sh o‘rinlariga ega bo‘lib, ma’lum argumentlar bilan to‘ldirilishi mumkin. Bunday vaqtda sintaktik pozitsiya tushunchasi faqat kesimga nisbatan emas, kesim argumentlarining argumentlariga nisbatan ham qo‘llanadi. Ana shu holatlar e’tiborga olinsa, muayyan so‘z shaklining boshqa so‘z shakliga nisbatan holati uning vaziyati sanaladi. Ayni bir so‘z shakli turli xil sintaktik vaziyatda turli gap bo‘lagi vazifasida kelishi mumkin. Tobe aloqaga kirishayotgan so‘z shakllari juftligida tobe qism hokim qism talab etgan vaziyatda keladi. Ko‘rinadiki, tobe qismning vaziyati aniq, hokim qismning vaziyati esa noaniq bo‘ladi. Uning qaysi vaziyatda kelayotganligi nutq zanjirining keyingi halqasida aniqlanadi. Masalan, gap qurilishi ***a, b, c*** va boshqa so‘z shakllaridan tashkil topgan bo‘lsin. Agar biz ***a*** so‘z shaklining vaziyatini ***b*** so‘z shakliga munosabatiga ko‘ra belgilasak, ***b*** so‘z shaklining vaziyatini **a** shakliga qarab belgilab bo‘lmaydi. Uning vaziyati c so‘z shakli munosabatiga ko‘ra, o‘z navbatida, ***c*** so‘z shaklining vaziyati esa ***d*** shakliga ko‘ra belgilanadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, ayrim hollarda kesimga argument bo‘lib kelgan birliklar o‘zlarining argumentlari bilan kengayib, u bilan birgalikda yaxlit holda kesimga nisbatan bitta sintaktik pozitsiyada kelishi mumkin. Bu haqda B.Mengliyev nutq jarayonida o‘zaro munosabatga kirishuvchi bo‘laklarning bog‘lanishi xususida to‘xtalib: «... qaratqich kelishigida «otni otga aniqlovchi vazifasida bog‘lash», «tushum kelishigida otni fe’lga to‘ldiruvchi vazifasida bog‘lash» kabi xususiy ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi», – deb ta’kidlaydi.

Gap tarkibidagi ayrim sintaktik birliklarning kesim bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lana olmasligi, uning boshqa sintaktik birlik bilan qo‘shilib, bir butun holda bog‘lanishi mumkinligi shu kunga qadar boshqa mualliflar tomonidan ham olg‘a surilgan edi. Xususan, prof. Sh.Rahmatullayev qaratqich aniqlovchilar haqida shunday deydi: «... boshqa barcha kelishiklardan farqli holda qaratqich kelishigidagi so‘z o‘zi yolg‘iz ishlatilmaydi, u doim qaralmish bilan birga yuradi». Shu sababli qaratqich kelishigidagi so‘z doim birikma tarkibida turadi, birikmaning bo‘lagi (ichki bo‘lak) holatida bo‘ladi.

O‘zbek tilida murakkablashgan sodda gaplarning uslubiy xususiyatlari borasida tadqiqot olib borgan H.Holiqov aniqlovchilarning gap qurilishini

kengaytirish imkoniyatlari ularning mazmuniga ham ta’sir etishini ko‘rsatib o‘tgan edi.

Sintaktik birliklarning ichki tuzilish uzvlarining o‘zaro munosabatini belgilashda tadqiqotchi qaysi tuzilish birligining qaysi tuzilish birligiga munosabatini belgilashiga ko‘ra sintaksisda ham ikki yo‘nalish maydonga keladi: mazmuniy tuzilish unsurlarining qanday shakliy tuzilish unsurlari bilan ifodalanishini o‘rganish, ya’ni mazmun planidan ifoda planiga qarab yo‘nalish. Bunday yo‘nalish “onomasiologik yo‘nalish” ham deyiladi. Shuningdek, shakliy tuzilish unsurlarining ongimizda aks etgan qanday borliq unsurlarini ifodalashini o‘rganish.

Gapning sintaktik tuzilishi shu kunga qadar gap bo‘laklari rukni ostida o‘rganib kelindi. Gap bo‘laklari esa tobe bog‘lanish tarkibida, hokim bo‘lakka nisbatan belgilanadi. Bunga ko‘ra, gap bo‘laklari ikki darajaga – bosh va ikkinchi darajalarga ajratildi.

Bugungi kunda gap bo‘laklarining bunday ajratilishida qator kamchiliklarning mavjudligi ma’lum bo‘lib qoldi. Shuning uchun ham gapni bo‘laklarga ajratishning yangi-yangi tamoyillari vujudga kelmoqda.

Hozir fanimizda gapning tarkibiy (struktur) qismlarini ajratishda: a) bosh bo‘laklar, ikkinchi darajali bo‘laklar, bog‘lanmagan bo‘laklar; b) bosh bo‘laklar, ikkinchi darajali bo‘laklar, uchinchi darajali bo‘laklar; d) gap bo‘laklari va bo‘lakning bo‘laklari; e) funksional va nofunksional (amaliy va noamaliy) bo‘laklar; f) gapning markazi, gap kengaytiruvchilari va so‘z kengaytiruvchilari kabilarni farqlash nazariyalari keng ommalashgan. Fanda shakllangan va ma’lum davr yashagan har bir ilmiy yondashuv va yo‘nalishning, har bir talqinning o‘ziga xos durdonasi, samarali urug‘i mavjudligi fanlar tarixidan ma’lum. Shuning uchun fanda ko‘p yo‘nalishlilik shakllangan va rivojlangan davrda turli xil talqin va tavsiflarni qiyosiy o‘rganish, har bir yo‘nalishdan unumdor talqinlarni saralash va ulardan sohaning chigal masalalari yechimini berishda oqilona va tadbirkorona foydalanish alohida ahamiyat va mohiyat kashf etadi va ilmiy taraqqiyotning keskin ilgarilashiga va yuksalishiga turtki bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Т., 1996.
2. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1995.
3. Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. – Т., 1988.
4. Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. – Т.: Фан, 1970.
5. Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. –М., 1988. –С 653.
6. Ҳолиқов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тилида мураккаблашган содда гаплар услубияти (А.Қаҳҳор асарлари материаллари асосида): Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Т., 1993. - Б. 9.

“SAB’AI SAYYOR” DOSTONIDA RANGLAR JILOSI

O. To‘xtasinova
Qo‘qon DPI dotsenti
M. Xrojiddinova
Qo‘qon DPI o‘qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Xamsa”sidan o‘rin olgan “Sab’ai sayyor” dostonidagi rang bildiruvchi sifatlarning konnotatsiyasi hamda ranglarning garmoniyasi haqida so‘z boradi.

Abstract. In this article the reason of Alisher Navoi’s “Xamsa” is the cannotation of color-representing qualities in the epic of the “Sabbai sayyor” and the harmony of colors are described.

Kalit so‘zlar: lingvopoetika, lingivistika, rang bildiruvchi so‘zlar, denotatsiya, konnotatsiya, o‘z ma’no, ko‘chma ma’no, ta’sirchanlik, baholash, ijobiy, salbiy, ruhiyat.

Key words: lingoepics, linguistics, color representing words, denotation, cannotation, own meaning, extra meaning, marking, positive, negative, psyche.

Alisher Navoiy “Xamsa”sining to‘rtinchi dostoni “Sab’ai sayyor”da yetti xil rangni doston mazmuni va qahramonlar ruhiyatini yoritishda bag‘oyat unumli foydalangan. To‘g‘ri, bunday usul, ya’ni ranglarni denotativ va ko‘proq konnotativ ma’noda asar syujetining ishonarli va rango-rang chiqishida istifoda etish xamsachilik otasi Nizomiy va Amir Xusravdan o‘tgan. Biroq ularda ranglar ko‘proq zohiriy ma’no kasb etib, asarning umummazmuni bilan chambarchas bog‘lanib ketmaydiki, bundan ranglarni ifodalovchi so‘zlarga yuklatilgan alohida ma’nolarni tafakkur qilish birmuncha murakkab. Qolaversa, zikr qilingan asarlar fors-tojik adabiyotining mevasi bo‘lganidan ulardagi ranglarning konnotatsiyasini (ikkilamchi, uchlamchi va hokazo ma’nolarini) ilg‘ab olish ham birmuncha qiyinchilik tug‘diradi. [1, 59]

Alisher Navoiy ranglar galereyasini shu tarzda izchil tizimga soladiki, bu izchillik asarning barcha hujayralariga ta’sir qilib, bir tomondan, o‘z malikasini yo‘qotib, ikki yil davomida bemor yotgan Bahromda sog‘ayib ketishga umid uchqunlarini alangalatadi. Ikkinchi tomondan, qoliplovchi hikoyalarning har birida rang bildiruvchi sifatlar ham bir doru kabi Bahromni davolab boradi. Uchinchidan esa, Bahrom ruhiyatini to‘laqonli ochishga xizmat qiladi. Va nihoyat, malikalarning liboslari, qasrlar rangi (Nizomiyda ham bor), ichimligu qadahlar jilvasi, uylarga tutilgan pardalar rang-tusi ham qoliplovchi hikoyalar mazmun-ruhiga mos tushadi. Ayni chog‘da, topoxronos (makon va zamon) rangining mutanosibligini ta’minlab beradi. Shuningdek, dostonda yetti sayyora rangi bilan kunlar, qasrlar, aytimchining qaysi manzildan kelganligi (masalan, qora qasrda hikoya aytgan sayyoh hind (bu so‘zning qora ma’nosi ham bor), sariq qasrda hikoya aytgan sayyoh rumlik (ovro‘palik) – ovropaliklar sarg‘ish tusda bo‘ladi va hokazo.) uchun tanlangan ranglar yaqinligidagi ma’nolar silsilasi doston va undagi

yetti hikoyat syujetining ishonarli chiqishini ta’min etganini ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi.

Gap avvali, ranglarning tizmasi va ularning silsilasi haqida. Bahrom haftaning yetti kunida yetti hikoya tinglaydi. “Shanba kuni uchun shu kunning xomiysi Zuhal (Saturn) sayyorasining rangiga mos qora qasr, yakshanba uchun uning xomiysi Quyosh sayyorasining rangiga mos sariq rang, dushanba uchunshu kun xomiysi Oy sayyorasining rangiga mos keluvchiyashil qasr, xomiysi Mirrih (Mars) bo‘lgan seshanba kuni uchun Mirrih rangini ifodalovchi qizil qasr (shunisi taajjubki, bugungi kun falakshunoslari bu sayyorani “Qizil sayyora” deb ataydilar. Buning sababi shundaki, eng ulkan teleskoplar va Mars atrofiga uchirilgan sun’iy yo‘ldoshlar uning rangi qizil ekanligini yaqin vaqtlar ichida isbotlab, fanga ma’lum qilgan. - M.X.), chorshanba kuni uchun uning homiysi Utorud (Merkuriy) rangiga mos moviy qasr, payshanba uchun Mushtariy (Yupiter) rangiga mos keluvchi sandal qasr va juma uchun uning xomiysi Zuhra (Venera) rangiga mos oq qasr barpo qilingan edi”. [2,140]

Shuni alohida ta’kidlash o‘rinliki, muallif ana shu ranglarning silsilaviy konnatatsiyasini chuqur his etgan holda, qoradan oqqa qarab pog‘onama-pog‘ona boradi. Hatto ularning o‘rnini almashtirish ham asar markaziga qo‘yilgan voqelik va Bahrom ruhiyatini to‘laqonli ochib bermasligi mumkin edi. Navoiy Alloh taolo ato etgan buyuk zakovat bilan ranglar uyg‘unligini bir-biriga payvandlab, muntazamlik, marom va muvozanatni ta’min eta bilgan. Zero har bir rangning jilvalanishi butun bir asarga singdirilgan muammo mohiyatini ochishga, undagi musibatning yaxshilik tomon siljishiga xizmat qila olgan. Qora rang – musibat. Qora rangni oq rangga aylanishi esa, o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Qora rang birdaniga oq rangga aylanib qolmaydi. Tasavvur qilaylikki, matokash qora rangli matoni oq rangga bo‘yamoqda. Avval sariq, keyin yashil, so‘ng qizg‘ish, sandaliy, yashil, va nihoyat, oq tusga kiradi. Lekin gap bunda ham emas.

Shoir dastlabki hikoyada musibat va qayg‘uda dard chekib yotgan Bahrom ruhiyatini ifodalash uchun qora rangni tanlaydi. Zohiran qaraganda, qora rang ko‘proq salbiy baho ottenkasiga ega. Lekin bu degani qora rang faqat kishi hayotidagi qayg‘uli holatlarni aks ettiradi, degan xulosani bermaydi. Qora rangning ijobiy ma’nolari ham mavjud. Mumtoz she’riyatda qo‘llanib kelingan “qora soch”, “qora ko‘z”, “qora qosh” singai birikmalarda mazkur bo‘lgan so‘z ijobiy baho berish vazifasini o‘taydi. Bulardan tashqari, tasavvuf she’riyatida “qora” so‘zining “sir”, “Allohning siru asrori”, “Alloh ma’rifatining siri” kabi ma’no qirralari ham ijobiy ma’no anglatadi. Ijtimoiyotda “qora” o‘zagi (asosi)dan hosil bo‘lgan “qoraxoniylar”, og‘zaki ijodda ko‘p uchraydigan Avliyoyi Qoraxon, Qoraxon podsho singari ijobiy timsollar, bu so‘zning “ulug‘”, “buyuk”, “katta” singari ma’nolari, toponimlarda ko‘p uchrashi (Qoratepa, Qorabuloq, Qoraqamish kabi) shunday xulosa chiqarishga izn beradi. Yana shuni qo‘shimcha qilish darkorki, Navoiygacha ham “qora” so‘zi yakka holda yoxud qo‘shma otlar, birikmalar tarkibida neytral, ijobiy va ba’zan salbiy ottenkalar bilan ishlatilib kelingan. B.Bafoevning yozishicha, “qora” so‘zi M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk”

kitobida alloma yashagan davrda “qora” so‘zining qora rang ma’nosidagi “qara” [3,46], har bir qora narsa ma’nosida ham “qara”[3, 240] shakli ishlatilganini ko‘rsatib o‘tgan. SHu bilan birga, Xoqoniy shohlar “Bug‘ro Qara Xaqan” [3,III,240] deyilgan ekan. O‘rxun-Enasoy bitiklarida ham shunday. Yusuf Boloso‘g‘uniyning “Qutadg‘u bilig” ida ham xoqon “Tavg‘och Ulug‘ Bug‘ro Qoraxon” shaklida keladi. Qoraxoniylar davrining yana bir yodgorligi “Hibat ul-haqoyiq” (Adib Ahmad Yugnakiy) asarida, Lutfiy, Gadoiy, Sayfi Saroyi, Atoyi, Sakkokiy asarlarida ham bu so‘z turli xil ma’nolarda istifoda etilganini kuzatish mumkin [4,187-188]. “qora” so‘zining (va barcha rang-tus bildiruvchi sifatlarning – M.X.) iste’mol koeffitsenti Navoiydan keyin ham o‘z mavqeini yo‘qotmagan. Bunga misol qilib ushbu fikrni havola etishimiz ham mumkin. Sifat so‘z turkumini chuqur tahlil etib, bu yuzasidan “Hozigi o‘zbek tilida sifat” nomli monografiya bitgan M.Sodiqova rang-tus bildiruvchi sifatlar haqida so‘z yuritar ekan “...ulardagi muhim tomonlardan yana biri frazeologik ifodalar, maqol-matal, idioma, qo‘shiq, topishmoqlar, aforizmlar tarkibida juda ko‘p qo‘llanishidir”, degan xulosaga keladi va M.Ismoiliyning “Farg‘ona tong otguncha” romanida “qora” so‘zi (Qorabuloq toponimidan tashqari) 163 o‘rinda kelganligini ham ko‘rsatib o‘tgan [5, 9].

Muddaoga o‘taylik. Birinchi hikoyatda shoir qayg‘uga g‘arq bo‘lgan Bahromning ruhiy holatini tasvirlash niyatida barcha voqea hamda hodisalarni qora rangga bo‘yaydi. Ayni shu o‘rinda she’riyatda ko‘proq ijobiy ma’noda qo‘llanib kelingan “qora gesu” (“qora soch”) so‘z birikmasi salbiy mazmunda istifoda qilinadi:

Boshig‘a solib ul qora gesu,
Har tuki soyu bir qora qayg‘u. [4, 83]

Ayni o‘rinda Bahrom uchun qora rang motam va qayg‘u nishonasi bo‘lib ko‘zga tashlanadi. Biroq boshqalar uchun bunday emas. SHoir buni ushbubayt orqali alohida ta’kidlab o‘tadi:

Qora rang elga toji torakdur,
Kim bu rang ichradur – muborakdur. [4, 83]

Barchaga ma’lum bo‘lgan ov voqeasi va Diloromdan ayrilgan kundan e’tiboran qora rang Bahromning qayg‘uli hamda musibatli kunlarining ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Ammo dastlabki hikoyadagi Axiy hamda Farruh uchun bu rang yoshlik, sog‘lomlik, baxt-saodat ramzi sifatida voqelikka o‘zgacha ruh bag‘ishlaydi. Eslansa, Farruh ayni qora libos kiyib, darveshvash yurgan kunlarning birida tushida ko‘rgan nozaninni topadi. Jonu jahonini Farruhdan ayamagan Axiy ham ayni qora libos kiyib, qalandar qiyofasida (Farruhdan olib qolgan qora libos) Xalabga borib qoladi va Farruhdan o‘zi kutmagan ajrlarni topadi. Qisqasi, qora rang ikki do‘stga baxtu saodat keltiradi. Go‘yoki qora rang ikkovining baxt nishonasi sifatida hikoya g‘oyasini ochi berishga xizmat qiladi.

Navoiy nazdida sariq rang tiniqlik, bebaholik, olijanoblik va quvonch ramzi ekanligi borasida ko‘p yozilgan. Sariq (oltin) rang tufayli uning sohiblari ham ulug‘ martabalarga erishadi. Biroq oltin rangning bir oz o‘zgarishi kishini

sharmandalik va nafrat uyg‘otuvchi rangga aylantiradi. Ikkinchi hikoyatda sariq rangga aldov va hiyonat aralashgani bois Zayd Zahhob (Zayd zargar) boshidan ko‘p mashaqqqatlar kechadi. Bu rang Bahromning betobligini anglatish uchun qo‘llangan. Bemorlik ramzi ma’nosida shoirning ko‘p she’rlarida bu rang konnototiv ma’noda istifoda qilingan:

Furqatingdin za’faron uzra to‘karmen lolalar,
Lolalar ermaski, bag‘rimdin erur pargolalar. [2, 448]

Baytda istiora vazifasini bajargan “za’faron” (sariq) so‘zi ayni kasal, bemor yuzining rangi ma’nosida ishlatilgan. Ayni choqda, Rum shohining saroyida ro‘y berayotgan munofiqlik, o‘g‘rilik, bevafolik ma’nolarini ham ifodalab keladi.

Yashil rang tasavvufda ulug‘ ranglardan biri sanaladi. Sharq xalqlarining tasavvurida bu rang hayot ramzi hisoblanadi, u samoviy mavjudotlar bilan bog‘lanadi. SHuningdek, yashil rang o‘tmish va kelajakni, umrboqiylikning timsoli vazifasini ham bajaradi (Xizr alahissalomni Yashil payg‘ambar deb ulug‘lanishining sababi ham shundan. – M.X.). Uchinchi hikoya yashil qasrda aytiladi. Barcha ashyolar yashil rangda. Hikoyat qahramoni Sa’dning kurashlar tufayli qo‘lga kiritgan baxt-iqbolini shoir ana shu rang vositasida yoritib beradi. Yashil rang Bahromda Diloromni topish uchun umid uchqunlarini alangalatadi.

Keyingi hikoyat gulgun qasrda aytiladi. Gulgun qizil, demakdir. Qizil rang Bahrom betobligining haddi a’losi sifatida namoyon bo‘ladi. So‘ngi ko‘k, sandaliy (qo‘ng‘irga moyil) va oq ranglar Bahromning betoblikdan xalos bo‘lish davrini ifodalaydi. Ayni paytda ranglarning yorqinlikdan so‘na borishi Bahrom hayotining so‘nggi damlari yaqinlashganini ham ifodalashga xizmat qiladi [4, 84]. Qizil rang asos bo‘lgan hikoyatlarda qo‘nli kurashlar oldingi rejaga chiqsa, ko‘k (moviy) rang asos bo‘lgan hikoyatda ezgulik xiyla-nayrangu bosqinchilik ustidan erishilgan g‘alabani tasvirlash barobarida bosh qahramonlar Mehr va Suhaylning otalari Navdar hamda Nu’monlarning vafotlari tufayli ko‘k (aza) libosini kiyganligiga ham ishora qiladi. Sandal rangi orqali shoir doston qahramonlari ruhiy holatidagi noqisliklarni ifodalaydi. Bu nuqsonlar batamom yo‘qotilmas ekan muammo muammoligicha qolaveradi. Buning uchun kuchli iroda kerak. SHoir qahramonlar ruhiyatidagi o‘zgarishni, ayniqsa Bahromning tuzalishga bo‘lgan ishtiyoq, umid va quvonchning yuzaga kelishida asosiy vosita bo‘lgan kuchli irodani ko‘rsatish uchun ayni shu rangni tanlaydi. Navoiy yana sandal rangi orqali Bahromning sog‘ayganligiga ishora qiladi hamda oq rangga – poklik, soflik, shaffoflik ramziga beradi. Ayni shu rang asos bo‘lgan hikoyatda Bahrom ruhan ham, jismonan ham sog‘ayadi va Diloromni topadi.

Bir so‘z bilan aytganda, Alisher Navoiy asarda istifoda qilingan yetti xil rangning nomini tilga olish bilangina kifoyalanib qolmaydi. Balki har bir rang o‘z o‘rnida shoir niyatini ro‘yobga chiqarishga to‘laqonli xizmat qiladi. To‘g‘rirog‘i, dostonda ranglarning bu tariqa ramziy xususiyatlar kasb etishi, asl ma’nosidan tashqari konnotativ ma’nolarda qo‘llanilishi Sharq adabiyotiga xos bo‘lgan bosh mezon - zulma’naynlikni ta’minlagan. Ushbu holat esa mumtoz adabiyotda rang bildiruvchi sifatlarning turli timsollar yaratish, ularning o‘z va ko‘chma

ma’nolaridan samarali foydalanish, ularning garmoniyasini bera bilish muvaffaqiyatlarga olib borishi mumkinligini ko‘rsatib berganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy, To‘la asarlar to‘plami. 10-jildlik. 7-jild. – T.: Tamaddun, 2011.

2. Sirojiddinov SH., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. –T.: Tamaddun, 2018. – B.132-149.

3. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘atit turk. I-III tomlar. – T.1963.

4. Bafoyev B. Navoiyning so‘z qo‘llashdagi mahoratining yana bir qirrasi. // Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari. –T.: Fan,1993. – B.184-207.

5. Hasanov S. “Sab’ai sayyor”ning badiiyatiga doir.// Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari. – T: Fan, 1993. – B. 67-84.

6. Sodiqova M. Hozirgi o‘zbek tilida sifat. – T.: Fan, 1974. – B.9-10.

SINTAKTIK ALOQA VA SINTAKTIK ZANJIR

Shukurjon Akramov
Qo‘qon DPI dotsenti
Akbarjon Hasanov
Qo‘qon DPI dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada gap bo‘laklarining nazariy tahlil etishga e’tibor qaratiladi va gapdagi bo‘laklar masalasi [WPm] valentligi doirasidagi mavqeiga ko‘ra belgilanishi borasida fikr yuritiladi. Ayniqsa so‘z kengaytiruvchisi mavqeida keluvchi birliklarning gapda mustaqil mavqega ega emasligi, ular asosiy markaz bilan o‘zi birikib kelgan so‘z orqali bog‘lashuv hosil qilishi misollar orqali izohlanadi.

Kalit so‘zlar: gap markazi, verbotsentrik nazariya, valentlik, funktsional to‘ldiruvchi, nofunktsional to‘ldiruvchi, so‘z kengaytiruvchisi, gap kengaytiruvchisi.

Annotation. This article focuses on the theoretical analysis of parts of speech and discusses how the question of parts of speech is defined according to their position in the valency [WPm]. In particular, the fact that units in the expander position do not have an independent position in the sentence is explained by examples by the fact that they form a connection with the main center through the word to which it is attached.

Keyword: Sentence propagation, valence, word distribution, supplement status, circumstance status, highlighting of minor members of the sentence.

So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida barcha til hodisalarida bo‘lgani kabi gap ta’rifida ham turkiy tillarning ichki tabiatidan kelib chiqib yondashildi hamda asosiy darslik va qo‘llanmalarda gapning quyidagi milliy tavsifi yuzaga keldi: “Kesimlik belgisiga ega bo‘lib, tugallangan ohang bilan talaffuz qilinuvchi va ma’lum bir fikr ifodalovchi sintaktik birlik gap deyiladi”[2, 160]. Uzluksiz ta’limning asosiy bo‘g‘inlarida gapga berilgan ta’riflarning barchasini “kesimlik belgisiga egalik” tushunchasi umumlashtiradi. Ko‘rinib turibdiki, ayni paytda

o‘zbek tilshunosligida gapni ta’riflashda gap bo‘laklari – xususan, kesimga ta’kid berilyapti. Demak, kesim – gapning tavsifiy belgisi, fikriy mundarijasi.

Ammo nutq shu qadar cheksiz va rang-barang ko‘rinishlarga egaki, ularning barcha ko‘rinishlarini mavjud qoidalarda jamlab olishning imkoni yo‘q. O‘qitish jarayonida shunday nutq parchalariga duch kelamizki, ularni gap bo‘laklariga ajratishda darsliklardangina o‘zlashtirilgan bilimlar bilan qanoatlanib bo‘lmaydi. “Gapda so‘zlar o‘zaro grammatik munosabatga kirishib, gap bo‘laklarini hosil qiladi. Gap bo‘laklari vazifasini mustaqil so‘zlargina bajaradi”[3, 56]. Ushbu hukmga tayangan o‘quvchi ***Va*** *– teng bog‘lovchi.* ***Bilan*** *ko‘makchisi bog‘lovchi vazifasida kelishi mumkin.* ***Albatta*** *modal so‘zi tasdiqni bildiradi.* ***Zarur*** *ishlarim* ***bor****.* ***Yo‘q*** *gapni qayerdan olding.* ***Lekini*** *ham bor* kabi gaplarni bo‘laklarga ajratishda *va, bilan, albatta, zarur, bor, lekini, yo‘q* so‘zlarining mustaqil so‘z emasligi o‘quvchining ularni ega, aniqlovchi yoki kesim sifatida ajratishiga, shuningdek, ***O‘qimaymaning*** *nimasi.* ***Boramandan*** *gapir.* ***Bordim*** *– nima,* ***bormadim*** *– nima* tipidagi gaplarda esa so‘zning shakli “*boramandan*”ni to‘ldiruvchi, “*o‘qimaymaning*”, “*bordim*” va “*bormadim*”ni ega sifatida belgilashiga monelik qiladi. Darslikdagi “Ega, asosan, kim? nima? so‘roqlariga javob bo‘lib keladi. Ega doimo bosh kelishik shaklida bo‘ladi” ta’rifi “*Bu kitobdan menda ham bor*”[4, 116] tipidagi gaplarda “*kitobdan*”ni ega deb ajratishga, tilshunoslikda kesimning grammatik shakli xususida yetakchilik qiladigan qarashlar poetik nutqda uchrovchi *Man saningman, san manim* (Iqbol Mirzo), *Aytgum, bu kun, u manim, manim* (A.Oripov), *Falak amri: men – sening, sening* (“Yevgeniy Onegin”dan) tipidagi gaplarda *saningman, manim, manim, sening* so‘zlarini kesim deb qarashga to‘sqinlik qiladi. Tilshunoslikda, xususan, o‘zbek tilshunosligida ham mavjud bo‘lgan sintaktik nazariyalarda gap bo‘laklarini tasniflashga yondashuv turlicha bo‘lgani kuzatiladi. Yaqinga qadar mavjud darslik va qo‘llanmalarda gap bo‘laklari bosh bo‘laklar (ega, kesim) va ikkinchi darajali bo‘laklar (aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol) sifatida o‘rganilib[5, 70-71] , tilshunosligimizda gap bo‘laklarining ega – kesim – to‘ldiruvchi – aniqlovchi – hol tartibi hamda “Ega o‘z sostavidagi bo‘laklarga hokim (shu sostavning bosh elementi) bo‘lganidek, kesim ustidan ham hokimdir. Kesim egaga nisbatan tobe, o‘z sostavidagi bo‘laklarga nisbatan hokimdir”[6,160] degan nazariya yetakchilik qilib keldi. So‘nggi tadqiqotlarda gapni bo‘laklarga ajratishning yangi-yangi tamoyillari ilgari surilmoqda. “Ega va kesimni asosiy, qolgan bo‘laklarni esa fakultativ (ikkinchi darajali) bo‘lak deb hisoblash gapning struktur sxemasini va struktur tiplarini belgilashda asosiy mezon rolini o‘ynadi. Gap strukturasiga bunday qarash uning tarkibiy qismlari bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarga bo‘linishini taqozo etdi. Gapning struktur sxemasini tashkil etuvchi predikativ minimum ifodalovchi ega va kesim shu gapning konstuyentlari sifatida bosh bo‘laklar; ega yoki kesimga tobe bog‘lanib, ularni kengaytirib kelgan bo‘laklar ikkinchi darajali hisoblanadi”[7, 131].

Tilshunos H.Usmonovaning ta’kidlashicha, gap tarkibida mazmuniy va grammatik tayanch nuqta – predikativlik shaklidagi predikat, ya’ni kesim.

Boshqa barcha bo‘laklar kesimning “bo‘sh o‘rinlari”ni to‘ldirib, unga nisbatan ma’lum vaziyatda keladi. Bir necha morfologik shakllardan ifodalangan, kesimga nisbatan biror sintaktik vaziyatda kelgan sintaktik butunlik bir butun holda funksiyalashadi. Bunday sintaktik butunliklarda bir uzv boshqa uzvlarni birlashtiruvchi yetakchi vosita sanaladi. Ayni paytda, bu yetakchi qism o‘zi ergashtirib kelgan boshqa qismlar bilan birgalikda bir butun holda kesimga nisbatan tobe vaziyatda keladi1[7, 39].

Kesim gapning fikriy markazi ekan, gapdagi barcha bo‘laklar bilvosita yoki bevosita unga tobelanadi. Gap kesimini shakllantiruvchi vosita kesimlik kategoriyasi bo‘lganligi sababli o‘zbek nutqidagi gapning tarkibiy qismini shu gap tarkibiga kiruvchi so‘zning va kesimlik kategoriyasi shaklining valentligi belgilaydi. Gap tarkibidagi bo‘laklar ana shu markaziy bo‘lakni to‘ldirishdagi roliga ko‘ra ayni paytda gap kengaytiruvchilari (gap markazini tashkil etuvchi so‘zdagi kesimlik kategoriyasi shakllariga bog‘lanuvchi bo‘laklar), so‘z kengaytiruvchilari (gapda ishtirok etayotgan ma’lum bir so‘zning ma’noviy valentligini to‘ldiruvchi bo‘laklar)ga bo‘linadi. Gapdagi barcha bo‘laklarning o‘rni, maqomi kesimga nisbatan aniqlanadi. Gap bitta markaziy bo‘lak (yadro) – kesim, kesimlik belgisini kengaytiruvchi bo‘laklar – ega, hol (ega kesim tarkibidagi shaxs-son, hol zamonni aniqlashtiradi) va kesimni ifodalagan so‘zning ma’nosini kengaytiruvchi bo‘laklar - to‘ldiruvchi, aniqlovchilardan tashkil topadi. H.Usmonova gapning markaziy birligi bo‘lgan kesimning bo‘sh o‘rinlariga nisbatan “sintaktik pozitsiya” terminini qo‘llaydi. Uning bo‘sh o‘rinlarini to‘ldiruvchi sintaktik birliklar kesimga nisbatan muayyan vazifani bajaradi. Bu vazifa kesimning bo‘sh o‘rinlariga (valentliklariga) qarab belgilanadi. Pozitsiyaga ko‘ra gapni bo‘laklarga ajratish masalasi o‘zbek tilshunosligida o‘tgan asr oxirlarida ham ilgari surilgan edi.

Gap bo‘laklarini, ularning turlarini belgilashda, bir qancha hodisalar hisobga olinishi, jumladan, sintaktik munosabatdagi holat va mazmun, grammatik aloqaga kirishgan so‘zlarning qaysi turkumga kirishi va formasi, gapdagi o‘rni, intonatsion xususiyati muhimligi; mazmun jihatdan kesim birinchi o‘rinda turishi, boshqa bo‘laklarning darajasi uning kesimga yaqin turishi bilan ham bog‘liqligi A.G‘ulomov va M.Asqarovalar, gap bo‘laklarini belgilashda, ularni gap strukturasida to‘g‘ri va obyektiv tayin etishda gapni pozitsion struktura ekanligidan kelib chiqishi maqsadga muvofiqligi A.Hojiyev va N.Mahmudovlar tomonidan kun tartibiga qo‘yilgan.

Xususan, taniqli tilshunos J.Omonturdiyev gap bo‘laklari tipologiyasi xususida to‘xtalar ekan, gap bo‘laklarini to‘g‘ri tahlil qilish va ajratish sintaktik qayta bo‘linish hodisasi bilan ham bog‘liqligiga urg‘u beradi. Ya’ni, so‘zlarning biror bo‘lak bo‘lishga xoslangan funksiyasi doimiy emas, gapda biror bo‘lak deb qaraladigan so‘z davr o‘tishi bilan forma tomondan o‘zgarib, oldingi vazifasini bajarmaydigan bo‘lib qolishi mumkinligi ta’kidlanadi. Olim ma’lum bir bo‘lakning qayta funksiyalanish natijasida gapda boshqa bo‘lak vazifasida kelishiga nisbatan sintaktik qayta bo‘linish terminini qo‘llaydi.

Shuni ham aytish kerakki, sintaktik qurilmada ishtirok etayotgan a’zolarning qurilmadagi vazifasini aniqlash, gap bo‘laklari tahlilida bo‘lakning qanday so‘zlar bilan ifodalanishi, so‘rog‘i yoki grammatik shakligina emas, balki uning gap yadrosi bo‘lgan markaz, ya’ni kesimning qaysi bo‘shlig‘ini to‘ldirayotganligi, kesimga nisbatan joylashuv o‘rni ham muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek nutqining turli uslubiy shakllarida uchraydigan har qanday qo‘llanishlarning sintaktik qurilishi tahlilida mavjud mezonlarga qo‘shimcha sintaktik pozitsiya tushunchasidan kelib chiqib yondashish gap bo‘laklari tahlilida bo‘shliq qolishiga yo‘l qo‘ymaydi. Shu sababli gap bo‘laklari masalasiga an’anaviy talqinlar bilan emas sistem nazariy talqin asosida yondashish zarur. Bu vaziyatda gapning sintaktik tahlili gap yadrosi va uning qurshovini aniqlash bilan, hamda qurshovni tashkil etuvchilarining o‘zini aniqlashtirib qo‘yish bilan kifoyalanadi. Bu holat o‘quvchi va uni tushtiruvchi o‘qituvchi uchun ham birmuncha qulay hamda tushunarli bo‘lar edi deb hisoblaymiz. Ya’ni gapning sintaktik tahlilida gapning asosiy markazi bosh bo‘lak(kesim) va uni kengaytirishga xizmat qiluvchi so‘z va gap kengaytiruvchilarini farqlash va izoh berish zarurligidir.

Shunday qilib, gap bo‘laklari gap tarkibida nechta so‘z bo‘lishi bilan emas, gapda nechta mustaqil bog‘lashuv markazi borligi bilan belgilansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. So‘z bog‘lashuvi haqidagi ta’limotning kurtaklari an’anaviy tilshunosligimizda aslida avvaldan mavjud. Xususan, ko‘pincha aniqlovchilar o‘z aniqlanmishidan mustaqil gap bo‘lagi sifatida ajratilmaydi (masalan, ba’zi qaratqichli va murakkab aniqlovchilar), ular o‘zi ergashib kelgan hokim bo‘lak doirasida ko‘riladi. Masalan, *Bepoyon dalalarda oltin boshoqlar jilvalanadi* gapida bepoyon, oltin kabi aniqlovchilar holning aniqlovchisi(bepoyon), eganing" aniqlovchisi (oltin) deb qaraladiki, bizning tahlilimiz shunday talqin kurtaklarini mantiqiy nihoyasiga yetkazishga qaratilgan. Gap tarkibidagi bog‘lashuv markazini gap qurilishiga bevosita aloqador bo‘lmagan kengayish sifatida tahlil etish so‘z kengaytiruvchilari tushunchasining shakllanishiga olib keldi. So‘z kengaytiruvchilari so‘z ma’noviy valentlik(bog‘lashuv) imkoniyatlarining nutqdagi voqelanishi bo‘lib, ular gapning sintaktik qurilishida mustaqil o‘rin egallamaydi va gap tarkibiga o‘zining markazi orqali bog‘lanadi. Boshqacha aytganda, so‘z kengaytiruvchilari o‘z kengayuvchi so‘zi bilangina bog‘liq bo‘lib, gap qurilishida hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Ular gap tarkibidagi so‘zlarning markaziy bo‘lakka(muayyan so‘zga) ma’noviy bog‘liqligini aks ettiradi va shu asosda uning mohiyati belgilanadi[1, 45].

Anglashiladiki, so‘z kengaytiruvchilari so‘zning semantik valentligi bilan uzviy aloqada bo‘lganligi sababli hamrohlari yoki soyalari sifatida qaraladi. Hokim so‘z(semantik valentlik) imkoniyati asosida kengaytiriluvchi so‘z qo‘llangan barcha holatlarda(o‘rinlarda) uning so‘z kengaytiruvchilari doimiy erashib keluvchi hamrohlar sifatida so‘z bilan birga qo‘llana oladi.

Gapdagi bo‘laklar masalasiga (WPm) valentligi doirasida yondashish ularning mohiyatan ikki turini farqlash imkonini berar ekan, yuqorida tavsiflangan so‘z kengaytiruvchilari gap bo‘laklari bo‘la olmasligi yanada oydinlashadi. Biroq bu

o‘rinda yana bir hodisani talqin etish zarurati paydo bo‘ladi, ya’ni sintaktik aloqa so‘zlarni o‘zaro bog‘lanish imkoniyati sifatida ikki xil holatni namoyon etishi mumkin: 1.Uyushiq bo‘laklarning bir markazga bog‘lanishi. 2. Gap tarkibidagi turli bo‘laklarning asosiy markazga bog‘lanishi. Buni sintaktik zanjir sifatida e’tirof etadigan bo‘lsak, bir tipli sintaktik zanjir va turli tipli sintaktik zanjirni hosil qiladi. Sintaktik aloqa tarkibidagi o‘zaro bog‘lanishlarni shu tarzda talqin etish gapdagi so‘lararo bog‘lanishlarni yanada chuqurroq valentlik imkoniyatini ochib berilishiga xizmat qiladi deb hisoblaymiz. Bunday sintaktik aloqa va sintaktik zanjir masalasini maktab ta’limiga joriy qilish orqali sintaktik yondashuvlarning takomillashtirilishiga yordam berishi, o‘quvchilarda so‘zlarning ma’noviy imkoniyatlarini chuqurroq anlashiga yordam bo‘lishini ta’kidlash kerak.

Bu masalada sintaktik tahlilning nazariy asosi sifatida valentlik imkoniyatlaridan keng foydalanish hamda uni amaliyotga joriy etish katta samara berishini alohida unutmaslik zarur deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akramov Sh.T. O‘zbek tilining gap qurilishida to‘ldiruvchi va hol ([WPm] valentlik aspektida).Toshkent. 1997-y.
2. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining 3-kurs talabalari uchun darslik. A.Nurmonov va boshq.– T.: “ILM ZIYO”, 2010.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Darslik. –Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2010.
4. Usmonova H. “O‘zbek tilidagi gap bo‘laklarining pozitsion strukturasi” Filol.fan. dok. dis.. avtoref. T., 2009.
5. Ғуломов А., М.Асқарова. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Т.: Ўқитувчи, 1987.
6. Она тили 8-синф учун дарслик. М.Қодиров ва бошқ. – Т.: Чўлпон, 2014.
7. Ўзбек тили грамматикаси. II-том. Синтаксис. Ғ.Абдураҳмонов ва бошқ. Т.: Фан, 1976.

GAPNI KOMPLEKS TAHLIL QILISHGA O‘RGATISH

Shukurjon Akramov
Qo‘qon DPI dotsenti

XX asr boshlarida sistemaviy tilshunoslikning rivojlanshi va uning kun sayin taraqqiy etishi gap qurilish haqidagi yangicha qarashlarga asos bo‘lmoqda.

Sistemaviy tilshunoslikning eng asosiy tushunchalaridan va tahlil asoslaridan biri nutq faoliyatini lisoniy va nutqiy bosqichlarga ajratishdir. Tilshunos professorlar H.Ne’matov va O.Bozorovlar tomonidan yaratilgan “TIL va NUTQ” nomli uslubiy qo‘llanma orqali bu boradagi bilimlarni yanada boyitish mumkin. Ayniqsa til va nutqning imkoniyat va voqelik sifatidagi talqinlari ushbu qo‘llanmada yorqin misollar bilan dalillanadiki, bu lisoniy valentlikning sintaktik sathga bevosita aloqadorligini namoyon qiladi. Umuman, sistemaviy tahlilda

hodisaning lison va nutq asosiga diqqat qaratiladi. Chunki lisoniy hodisalarning o‘rganish usuli nutqiy hodisalarning tadqiq usuli va yo‘llaridan tubdan farq qiladi. Nutqiy hodisalar jonli mushohada etilsa, lisoniy hodisalar idrok, mavhum aqliy tahlil, o‘zaro munosabatlarni va aloqadorliklarni ochish va tavsiflash yo‘llari bilan tahlil qilinadi. SHuning uchun ham sistemaviy tilshunoslik avvalo gap va uning qurilishi, gapda bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning o‘rni masalasini o‘rganishga bevosita kirishar ekan, avval an’anaviy tilshunosligimizdagi gap va uning ostida yashiringan mohiyatining lison - nutq, bo‘linishidagi dixotomik o‘rnini aniqlashga katta e’tibor berdi. Natijada shunday xulosaga kelindiki, rus tilshunosligidagi Peshkovskiy - Vinogradov, o‘zbek tilshunosligidagi Borovkov-G‘ulomov ta’limotlarida tavsiflangan gap asosan nutqiy hodisadir. Ushbu masalalar R. Sayfullaeva, M.Abuzalova, M.Qurbonova, SH.Akramovlarning maxsus ishlarida va bir guruh tilshunoslarning jamoaviy formal-funktsional tadqiqot tezislari"da atroflicha muhokama etilganligi uchun bular haqida unga batafsil to‘xtalmasak ham bo‘ladi. O‘zbek tilshunosligida H.Ne’matov, R.Sayfullaeva, M.Abuzalova, rus tilshunosligida N.Yu.SHvedova, V.A.Beloshapkova izdoshlari yakdillik bilan ta’kidlaganlaridek Peshkovskiy - Vinogradov - G‘ulomovlar ta’limotidagi «ega» tushunchasi asosan nutq jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, «lisoniy gap» undan farq qiladi. Chunki lisoniy gap millionlab nutqiy gaplar uchun zaruriy va doimiy tarkibiy qismlar va ularning o‘zaro munosabatlari haqida mavhum chizma, qolip (model) shakliga ega bo‘lishi va u o‘zida nutqiy gaplarning barchasi uchun umumiy, zaruriy bo‘lgan tarkibiy qismlarni aks ettirishi bilan ajralib turadi. SHunday qarash asosida rus tilshunosligida N.Yu.Shvedova va uning izdoshlari tomonidan "sodda gapning struktur sxemalari" o‘zbek tilshunosligida esa"gapning eng kichik qurilish qolipi" tushunchalari paydo bo‘ldi. Sistem tilshunoslik namoyandalari tomonidan ajratilgan «gapning eng kichik qurilish qolipi» tarkibiga o‘zbekcha gapning ikkinchi darajali bo‘laklari umuman kiritilmaydi. Rus tilshunosligida ajratilgan «sodda gapning struktur sxemalari» bir tarkibli(odnokomponentniy) va ikki tarkibli (dvuxkomponentniy) sifatida berilgan bo‘lsa, o‘zbek tilshunosligidagi "gapning eng kichik qurilish qoliplari" (GKk) faqat bir tarkibli, mohiyatan kesim qismdan iborat. SHuning uchun bu qolip jaxon tilshunosligida (WPm) ramzi bilan beriladi. Bu qolipdagi (WPm) kesimlik kategoriyasi ko‘rsatkichlari va gap lisoniy qolipining eng kichik nutqiy ko‘rinishi, "Bordim", "O‘qituvchiman" kabi potentsial gaplar shaklida voqelanadi. Gapning eng kichik qurilish qolipidan ikkinchi darajali bo‘laklarni chetlashtirish tilshunosligimizga asrimizning 30-yillarida kirib kelgan valentlik nazariyasi asosida amalga oshiriladi.

Gap qurilishiga bunday yondashilganda gap qurilishining tarkibiy qismi, ya’ni an’anaviy gap bo‘laklari lug‘aviy ma’nolar (mazmunlar) munosabatiga (bog‘lanishiga) asoslangan so‘zlarning o‘zaro vazifadoshligiga emas, balki gap markazi va kengaytiruvchilari munosabatiga ko‘chadi. Demak, bunda gap bo‘laklari gap markazi bilan bevosita yoki bilvosita aloqada turganligiga ko‘ra darajalanadi. Gapning tarkibiy qurilish bo‘lagi(yadro) bilan bog‘lashuvli

munosabatda bo‘lgan bo‘lak gap kengaytiruvchilaridir. Bu bo‘laklarning kengaytiruvchi bo‘laklari esa so‘z kengaytiruvchilari hisoblanadi. Xususan, to‘ldiruvchining gap qurilishidagi mavqei uning gap tarkibida so‘z kengaytiruvchisi vazifasida kelishidir.To‘ldiruvchi(hoh vositali, hoh vositasiz) gapning lisoniy abstrakt, mavhum qurilish andazasi bilan emas, nutqiy gapda voqelangan so‘zning ma’noviy xususiyatlari bilan bog‘liq. SHuning uchun to‘ldiruvchilar, asosan, markazdagi [WPm] fe’l-leksemalar bilan ifodalangan nutqiy gaplarda keng qo‘llanadi. Demak, to‘ldiruvchi markazdagi kesimdan ko‘ra uning bir qismi bo‘lib gavdalangan: otlar, fe’llar bilan bog‘lashuv munosabatiga kirishadi. Jumladan, Men kitobni o‘qidim gapida "kitobni" to‘ldiruvchisini gapga kirituvchi vosita "o‘qi" leksemasi hisoblanadi. Bunday talqinlardan chiqariladigan muhim xulosalardan biri shuki, bu yondashish tilshunosligimizda keng tarqalib borayotgan "nofunktsional(noamaliy) to‘ldiruvchilar", "funktsional to‘ldiruvchilar" tushunchalarining tor ko‘lamliligini ko‘rsatadi. Zero, "kitobni o‘qimoq" birikmasidagi "o‘qimoq" gapda qaysi o‘rinda kelmasin "kitobni" so‘zi bir xil mavqega ega. To‘ldirilmish(o‘qimoq) gapda kesim bo‘lib kelganda "kitobni" - funktsional, boshqaruvchi so‘z ega yoki ikkinchi darajali bo‘lak bo‘lib kelganda uning kengaytiruvchisini-nofunktsional deb baholanishi mantiqan so‘z va gap kengaytiruvchilarining aralashtirilishi mahsulidir. Biroq shunday bo‘lsa hamki, gap bo‘laklarini, ayniqsa to‘ldiruvchini funktsional va nofunktsionallik nuqtai nazaridan farqlashning professor N.Mahmudov tomonidan va keyinchalik boshqa tilshunoslar tomonidan tadqiq etilishi, sistem nazariy tilshunoslikning shakllanishiga turtki berdi.

To‘ldiruvchining gap qurilishi bilan emas, so‘z ma’nosini oydinlashtirish bilan bevosita aloqadorligi uni mohiyatan aniqlovchilarga yaqinlashtiradi. Chunki an’anaviy tilshunosligimiz ham aniqlovchini gap qurilishiga o‘z aniqlanmishi orqali kiritilishi haqidagi qarashni yoqlaydi. Aniqlovchi aniqlanmishni miqdor, sifat va munosabat jihatlardan izohlab kelsa to‘ldiruvchi to‘ldirilmishga manba, qurol-vosita ma’nolarini beradi.

Gap markazining tarkibiy qismida mayl, modallik, zamon, makon ma’nolari borki, ularning nutqda voqelanishi hol bilan bevosita bog‘liq. Shuning uchun hollarni gap qurilishidagi mavqeiga ko‘ra uch turga ajratish mumkin[35]:

1. O‘rin, payt hollari (gap kengaytiruvchilari mavqeidagi hollar).
2. Lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra hol yoki to‘ldiruvchi sifatida baholanishi mumkin bo‘lgan o‘rin, payt, yo‘nalish, sabab, maqsad natija hollari (hol-to‘ldiruvchilar).
3. Ravish va unga yaqin ma’noli hollar guruhi. Umumlashtirishimizni ravish va unga o‘xshash hollar guruhidan boshlaymiz.

Ravish va unga o‘xshash hollar guruhi mohiyat e’tibori bilan fe’l aniqlovchilaridir. Ularning aniqlovchilardan kam farqlanishini "keskin kurash" birikmasi asosida isbotlash mumkin.CHunki bu birikmada "keskin" ravish holi

[35] Ш.Акрамов. Гап бўлакларининг [WPm] қолипли валентлик аспектидаги талқини. Монграфия. Т.2018 йил. 128 б.

sifatida talqin qilinadi. Demak, ravish hollari gap qurilishida aniqlovchilar bilan teng mavqega ega bo‘ladi va shuning uchun ularni so‘z kengaytiruvchilari tarzida baholash mumkin. Bu esa tilshunosligimizda sifatlovchi, qaratuvchi aniqlovchilardan tashqari ravish aniqlovchi ham mavjud bo‘la olishi haqida hukm chiqarishga imkon beradi.

O‘rin, payt, joylashish hollari gap kengaytiruvchilari mavqeida zamon, makon ma’nolarining oydinlashtiruvchilari bo‘lib xizmat qiladi.

Hol-to‘ldiruvchilarning gapda tutgan o‘rni murakkab. Ular hol tizimining o‘zida ham hol - to‘ldiruvchi ziddiyatida turadi, mohiyati esa muayyan nutq sharoitida oydinlashadi. SHuning uchun ham o‘zbek tilshunosligida hol bilan to‘ldiruvchini keskin farqlashga intilish samarali natija bermaydi va pirovard natijada tahlil asosi matn va nutqiy ma’no kabi omillarga tayanadi. Yukorida qayd etilganidek, hol-to‘ldiruvchilar gap kengaytiruvchilari bilan lisoniy bosqichda chatishib ketadi. Buning sababi gapning tayanch tarkibiy qismlaridan biri tasdiq yo inkorni ifodalashi, bu esa qo‘shimcha kengaytiruvchiga ega bo‘lishi mumkinligidir. SHuning uchun sabab, maqsad, natija hol-to‘ldiruvchilari gap tarkibidagi ayrim so‘zlarning ma’nosi bilan ham, butun gap mazmuni bilan ham aloqador bo‘lishi mumkin. Bu paytda hol-to‘ldiruvchilar tilshunosligimizda qayd etib kelinayotgan yana bir bo‘lak, ya’ni gapning umumiy ma’nosi bilan aloqador bo‘lgan determinantlik bilan duch keladi.

Determinantlik o‘z xususiyatiga ko‘ra hokim komponent bilan nisbatan kuchsiz aloqada va vazifasiga ko‘ra butun gapni kengaytiruvchi sifatida namoyon bo‘ladi: Men uchun o‘qituvchilik sharafli vazifa .

Determinantlik bilan funktsional va nofunktsional gap bo‘laklari orasida katta bog‘lanish bo‘lmasligi mumkin, lekin ularning hokim mavqedagi bo‘lakka tobelanish yoki tobelanmasligi xususiyatlari ularni bir-biriga qiyoslanishini ham taqozo qiladi. Bu borada o‘zbek tilshunosligida filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.Boshmonovning ilmiy izlanishlari katta ahamiyatga molik ekanligini ta’kidlash kerak. Bunga muvofiq aytiladigan bo‘lsa, to‘ldiruvchi va hollarning markazda keluvchi so‘z lug‘aviy ma’nosi bilan aloqadorligi noderminantlikni vujudga keltirib, o‘zi bilan birga kelayotgan so‘z bilan birikma hosil qilishi mumkin. Bu esa funksional gap bo‘lagi bo‘lishi deganidir. Gap bu tarzda tahlil etilsa bo‘laklar so‘z birikmasi bilan birga o‘rganilish zarurati paydo bo‘ladi. Bu gap sintaksisini kompleks tahlil etish masalasini oydinlashtiradi. Gapda ishtirok etgan lisoniy birliklardan birortasi e’tibordan chetda qolmaydi. Ko‘rinadiki, determinantlik gap kengaytiruvchisiga nodeterminantlik esa so‘z kengaytiruvchiligiga aloqadorligi asosida belgilanadi. Lekin umuman gapning asosiy markaziga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘lanish xarakteridagi bo‘laklar(ega, to‘ldiruvchi, hol bo‘lmasin) funksional gap bo‘laklari bo‘lib qolaveradi.

Umuman, umumlisoniy darajada aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol kabi uch bo‘lakning gapdagi mavqeini kompleks o‘rganish zanjirini quyidagicha ko‘rsatish mumkin: aniqlovchilar - to‘ldiruvchilar hol-to‘ldiruvchilar - hollar. Holning bir turi o‘rin, payt (yo‘nalish ma’nolisi) gap qurilishida egadan quyiroq, to‘ldiruvchi

va aniqlovchidan yuqoriroq mavqega ega bo‘lganligi sababli hol birinchi darajali zaruriy gap kengaytiruvchisi bo‘lgan ega bilan so‘z kengaytiruvchilari o‘rtasida oraliq uchinchi mavqega ega bo‘ladi. Shuning uchun ham uning an’anaviy tilshunosligimizdagi talqinini ziddiyatli hamda muayyan grammatik omillar bilangina belgilanadi deyish mumkin.

To‘ldiruvchi va hollarning gap qurilishidagi mavqelari yuqorida keltirilgan tavsiflarimiz asosida bir qadar aniqlashtirildi. Ammo ushbu ishning so‘nggi bo‘limida to‘ldiruvchi va hollarning gapdagi ayrim mavqelari xususida fikr yuritilar ekan, ularning determinantlikka aloqador ba’zi jixatlariga ham bir oz aniqliklar kiritib o‘tishimizga to‘g‘ri keladi. Ya’ni, butun gap mazmunini kengaytirishga xizmat qiluvchi determinantlarni aniqlashda ba’zan munozarali o‘rinlarga duch kelinadi. Masalan, bu frazema bilan gapni aralashtirilishi natijasida ham yuz beradi. Masalan, Kuyovdan toleing baland chiqdi (O). gapidagi kuyovdan so‘zi determinant sifatida baholanadi. Haqiqatan ham, bu gapda "kuyovdan" so‘z shakli gapdagi biror so‘zga(bo‘lakka) bevosita aloqador emasday. Yuqoridagi gap "tolei baland", "tolei baland kelmoq" frazemasi bilan ifodalangan. Bu o‘rinda ma’lumki, frazema kimdan? yoki nimadan? so‘rog‘iga javob bo‘luvchi ma’noviy kengaytiruvchini(bog‘lashuvni) talab etadi. Shuning uchun, mazkur gapdagi "kuyovdan" so‘z shakli frazema kengaytiruvchisi yoki oddiy so‘z kengaytiruvchisi sifatida baholansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Gap bo‘laklarining shu kunga qadar o‘rganilgan ta’rif va tavsiflari uning o‘rganilishi to‘xtaganligini anglatmaydi. Bu masala yangidan yangi qarash va imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Bu esa tilshunosligimizning sintaksis sathini yangi masalalari kutilayotganidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akramov Sh. O‘zbek tilining gap qurilishida to‘ldiruvchi va hol[WPm] valentlik aspektida Toshkent.1997.

2. Akramov Sh.. Problems of Studying Speech Parts in Linguistics. International Journal on Integrated Education. Volume 4, Issue 3, March 2021.

3. Ahmedov A. Nominativ gaplarnnng alohida bir turi//O‘zbek tili va adabiyoti, - 1978. - № 2, - B, 40-43.

4. Амирова А.Л. Обстоятельства причини и цели в современном узбекском литературном языке; Автореф. дис. канд. филол. Наук. - Самарканд, - 1967, - 20 с. предложения в каракалпакском языке// Сб. ИСГГД. ИИИ, Синтаксис. М.: Наука, - 1978,

5. Boshmonov M. O‘zbek tilida determinant bo‘laklar//O‘zbek tili va adabiyoti, - 1982, - № 2, - B. 41-43

6. Hayitmetov K. Determinantlar gapning aktual bo‘linish nazariyasi aspektida//O‘zbek tili va adabiyoti, - 1981. - № 2,- B. 27 -31.

LEKSIK- SEMANTIK SATHNING FUNKSIONAL TOMONIDA “SHAXS” LINGVISTIK ZARRASINING IFODALANISH KO‘LAMLARI

Umidjon Yigitaliyev
Qo‘qon DPI dotsenti,
Xumoyunbek Umidjonov
Qo‘qon universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy axborotda o‘zbek tili leksik-semantik sathining funksional tomonida “shaxs” lingvistik zarrasining ifodalansh ko‘lamlari tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: shaxs, lingvistik zarra, leksik sath, grammatik sath, stahlar integratsiaysi.

Abstract. This scientific information studies the sphere of expression of the linguistic atom “person” from the functional side of the lexical-semantic level of the Uzbek language.

Key words: person, language atom, lexical level, grammatical level, class integration.

Olam-odam tizimida dunyoni idrok etish va uni til orqali aks ettirish, boshqacha aytganda, tilning gnoseologik va ontologik tabiatini tadqiq etish tilshunoslikning markaziy muammolaridan biridir. A.Nurmonovning fikricha, til falsafiy jihatdan gnoseologik va ontologik tabiatga ega, tilga gnoseologik nuqtai nazardan yondashilganda, birinchidan, insonning til orqali olamni bilishi, tilning ob’ektiv borliq uzvlarini nomlash vazifasi, ikkinchidan, tilning shu til egalarining olam haqidagi bilimlari to‘plami ekani yoritiladi (*adabiyotlar ro‘yxatida ilova qilnadi*).

Anglashiladiki, tilning gnoseologik tabiatini belgilashda insonning olamni idrok etishi va uni tilda aks ettirishi mexanizmini tadqiq etish muhim.

Borliq inson ongida aks etar ekan, uning aksi ko‘zgudek toza bo‘lishi shart emas. Borliqning aks etishi jarayoni sub’ektning ob’ektga munosabati ta’sirida bo‘ladi. Borliqning inson tomonidan idrok etilishi doimo sub’ektivdir. Lekin bu bilan biz bilayotganimiz voqelik bo‘lmasdan, faqat his-tuyg‘u, sezish natijasidir degan xulosaga kelish noto‘g‘ridir. Voqelikni sub’ektiv bilish jarayoni tajriba nazoratidadir va ushbu jarayon natijasida biz voqelik haqidagi ob’ektiv bilimga ega bo‘lamiz. Inson voqelikni idrok etar ekan, uni tilda aks ettirishga harakat qiladi. Borliqni idrok etish tilsiz amalga oshmaydi. Bu jarayonda *borliq – inson – til* munosabati masalasini o‘rganish muhim o‘rin tutadi.

Hozirgi kunda o‘zbek tilshunosligida leksemalar guruhida “shaxs” tushunchasi xususida ayrim fikrlar bayon qilinayotgan bo‘lishiga qaramay, “shaxs” lingvstk zarrasi o‘zining to‘liq lisoniy-falsafiy hamda kontseptual-atomar tavsifiga ega bo‘lganicha yo‘q. Nutqda mazkur lingvistik zarraning voqelanishi leksema va frazemalarda keng tarqalgan.Shuningdek, leksik birliklarning ma’no ko‘chishi hodisasida ham uning reallashuvini kuzatish mumkin.

Gnoseologik va ontologik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, til odamning muhim atributlaridan biridir.Bu inson o‘zini anglagandan beri tilni odamning hayvondan farqlovchi belgilaridan biri sifatida uqqanligi bilan isbotlanadi.

Mir Alisher Navoiy bu holatni “Muhokamatul-lug‘atayn” asarida shunday sharhlaydi:

Ey so‘z ila qilgan ofarinish og‘oz
Insonni aroda aylagay mahrami roz
Chun kun faya kun sahfasiga bo‘ldi tiroz
Qilg‘on ani nutq ila baridin mumtoz. (ML., 130-b.)

“Shaxs” lingvistk zarrasi o‘zbek tilida maxsus tadqiqot manbai sifatida o‘rganilgan emas, biroq boshqa tillarda “shaxs” va unga yondosh tushunchalar ostida kontseptual tadqiqotlar qilingan.

O‘zbek tilining leksik sathida ***shaxs*** lingvistik zarrasining lug‘aviy tizimda voqelanishi, asosan, leksema va frazemalarning semantik qurilishlariga xos bo‘lib, ularning turli-tuman LSGlar hosil qilishda etakchi “lisoniy-kontseptual zarra” hisoblanadi. Chunonchi, “yashash” joyini ifodalovchi leksemalar *-uy, qasr, koshona* kabilar semantikasi tarkibida, shuningdek, shaxs otlari leksemalari − *ota, ona, qiz, o‘g‘il, aka, opa, uka, singil* kabilar tarkibida ham; tafakkur leksemalaridan: *esli, dono, aqlli, axmoq* kabilar tarkibida ham; ilmiy faoliyat bilan bog‘liq leksemalar – *aspirant, doktorant, dotsent, professor* kabilar tarkibida ham; himmat belgisini ifodalovchi leksemalar – *xotamtoy, sahovatli*; xushyorlik belgisi leksemalari – *sezgir,ziyrak*, kabilar tarkibida ham; shuningdek, *do‘st-dushman,mazmun-sermazmun* kabi so‘zlar juftida ham; harakat anglatuvchi leksemalar – *tinglamoq, gapirmoq, saqlamoq, urishmoq, xidlamoq, mizgimoq, tanovul kilmoq, kasal bo‘lmoq, farzand kurmoq, kiyinmoq, yechinmoq, achchiklanmoq, ranjimoq, keksaymoq,* va yana shuningdek, ishora leksemalari − *men, sen, u, biz, siz, ular, hamma , barcha, allakim, hech kim, kimdir*, kabilar tarkibida ham “shaxs*”* zarrasi so‘z ma’nolarini farqlashga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, “shaxs*”* *LZsi* undovlar va taqlidiy leksemalar tarkibida ham takrorlanib, yetakchi mavqeni egallab keladi. Chunonchi, *xoy-hoy, allo-allo, ey-ey, uf, qoyil, ofarin, balli, tasanno* kabi undov leksemalar semantik-funktsional tomonida yoki *xur-xur, qult-qult, kah-kah, qasira-qusur, gungira-gungir* kabi taqlidiy leksemalar mazmun sathida ham “shaxs*”* zarrasi yaqqol takrorlanib, leksemalar ma’nolarini farqlab kelmoqda.

Yana shuningdek, *mumkin, lozim , shart, tabiiyki, shubhasiz, ehtimol* kabi modal ma’noli leksemalar tarkibida ham; *uchun, singari* kabi ko‘makchi (yordamchi) li leksemalar mazmun sathida ham; *axir, hatto, faqat* kabi yuklama (yordamchi) leksemalar tarkibida ham “shaxs*”* LZsi takrorlanganligini va nisbatan alohidalik mavqeidagi hodisa sifatida gavdalanishi kuzatiladi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, “shaxs*”* lingvistik zarrasi leksemalar semantik-funktsional mazmun sathida – lug‘aviy tizim (leksik mikrosistema)da ham lisoniy birliklar singari tilning bir necha LMGlarini hosil

qilib, “shaxs” LZ semantik yadroviy butunligiga birlashtirib, ular tarkibida takrorlanib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдиев М.Б. Аффиксальный способ образования названий лиц в узбекском языке: Автореф.дис. … канд.филол.наук. –Т.,1991. −25 с.

2.Nurmonov A.N. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B.14.

3. Iskandarova Sh. O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o‘rganish (shaxs mikromaydoni): Filol.fan.dokt … diss.avtoref.–Toshkent,1999. −59 b.

4. Yigitaliyev U. O‘zbek tilida konseptning assotsiativ-verbal tadqiqi. (Monografiya). –Toshkent: Lesson-press, 2023. – 130 b.

5.Yigitaliyev U., *Umidjonov Sh.* THE ROLE OF SYNONYMY AND ANTONYMY PHENOMENA IN THE CHAIN OF GRADUAL RELATIONS WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL. ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issie 3, Mar., 2023. –P.894-896.

FONETIK VOSITALARNING BADIIY-ESTETIK VAZIFALARI

Shoiraxon Toshxujayeva
Qo‘qonDPI dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada fonetik birliklarning Erkin A’zam asarlarida estetik namoyon bo‘lishi masalalari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: fonopoetika, poetik matn, she’riy intonatsiya,alliteratsiya, assonans, geminatsiya.

Fonopoetika fonetik birliklarning poetik matnda estetik namoyon bo‘lishi masalalari bilan shug‘ullanadi. Ijodkorlar tafakkurida paydo bo‘lgan g‘oyalar, tasavvurlarni nutqiy jarayonda rang-barang, jilolangan, she’riy intonatsiya, ritmlarni o‘zining strukturasiga qamrab olgan, talaffuzi va aytilishida ohangdoshlik, qofiyadoshlik kabi hodisalarni singdirgan tovush va tovushlar birikmasi orqali ham ifodalaydi. Bunday fonopoetik uslub ularda tabiatan shakllanadi. Ba’zan nasriy asarlarda fonetik vositalar uslubiy bo‘yoqdorlikni yuzaga chiqarishi mumkin. Nasriy matn lingvopoetikasi bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar fonopoetika muammolarini ham tadqiqot muammolari qatoriga qo‘shishlari kerak. Ma’lumki, «..she’riyatda alliteratsiya, assonans, geminatsiya kabi fonetik usullardan samarali foydalaniladi. Nasrda esa unlilarni cho‘zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, tovush orttirish yoki tovush tushishi kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta’minlanadi» . Fonetik uslubiy vositalar og‘zaki nutqda to‘laroq yuzaga chiqadi, yozma nutqda esa uning ayrim xususiyatlarinigina ifodalash mumkin, xolos.

Tovushlar tovlanishi Erkin A’zam asarlarida ma’lum bir uslubiy vazifa bajarib, matnning hissiy-ta’sirchanligini oshirishda sezilarli ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi asarlaridagi nutq tovushlar tizimida ekspressiv-emosionallikni ifodalash jihatidan unli tovushlarning imkoniyati ko‘proq.

Unlilar tarkibida yuz beruvchi fonetik hodisalar (tovushlarni cho‘zish, qavatlash, orttirish, tushirish)ning yozuvchi poetik maqsadiga ko‘ra tanlanishi quyidagi misollar tahlilida ko‘rinadi.

Unlilarni cho‘zish. Unli tovushlarni cho‘zib talaffuz qilish orqali qahramonning voqelikka turli munosabati oydinlashadi. Yozuvchi mazkur usul orqali belgining me’yordan kuchsiz yoki ortiq ekanligini ifodalashda foydalanadi. Masalan, a) belgining ortiqligi: – Iye, ishonmasangiz, ana otam o‘tiribdi, jo‘ralarim, so‘rang.

Ka-atta olmazorimiz bor! («Anoyining jaydari olmasi») Parchada *a* unlisini cho‘zib talaffuz qilish natijasida belgining me’yordan ortiq ekanligi ma’nosi anglashiladi. Ushbu tasvir usuli asar qahramoni Ramazondagi soddalik, do‘lvori, bolalarcha tabiatni ifodalashda muhim o‘rin tutadi. Odatda bolalar nutqida unlilarni cho‘zish ko‘p uchraydi. Bu bola nigohi bilan anglangan borliq, voqelikning ayricha ifodasidir. Bolalar nutqida unlilarning cho‘zilishi, belgining, miqdorning ortiqligini ifodalash barobarida, faxr, g‘urur, maqtanish ma’nolarini ham anglanishiga xizmat qiladi. «Anoyining jaydari olmasi» asarining asosiy g‘oyasi ham o‘zlikni saqlash, elning o‘z ruhiyatini asrab qolishdir. Buni esa bolalarcha sodda, chapani, hotamtoy, umuman, jaydari olma singari ko‘rimsiz, oddiy, biroq mohiyatan tengsiz Ramazon nutqi orqali ifodalaydi.

b) vaqtning davomiyligi, cho‘ziqligi: *Ji-im o‘tirsayam, gapirmasayam, yonidan ketging kelmaydi-ya! Bunday bir yoshrog‘ini topsang-chi, o‘rtoqjon!* («Zabarjad»)

Erkin A’zam uslubiga xos jihatlardan biri oddiy insonlar obrazini yaratish jarayonida ularning nutqiga xos individuallikni ko‘rsatish maqsadida unlilarni cho‘zib talaffuz etilishiga alohida e’tibor qaratishida ko‘rinadi. Bu usul o‘rni bilan qahramonning taajjub to‘la nigohi hamda hayrat, achinish, zerikish yohud baxtiyorlik aks etgan holatlarini kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalantiradi. Yuqoridagi parchada yoshi o‘tib borayotgan, otasining o‘limiga, oilaning fojeasiga sababchi sifatida ko‘rilgan, o‘g‘il boladek shartaki Zabarjadning «do‘stim» deb atagan insoni portretiga xos chizgilar aks etgan. Yozuvchi asar davomida ushbu obraz bilan bog‘liq tafsilotlarga ko‘p to‘xtalmaydi. Ismi sir, yuzi ham aniq aks etmagan o‘ttizdan oshgan, sochiga oq oralagan kamgap inson Zabarjadni faqat ji-im tinglaydi. Zabarjad esa dardini eshitguchiga muhtoj edi. Yozuvchi ushbu usul orqali qahramon xarakteriga xos o‘ta bosiqlik, «qoni quyuq»likni ifodalagan.

v) taajjub-hayrat: *– Sochi xuddi yelkasiga tushgan-a, yopira-ay! Jamalak taq endi, dedim*. («Fayzining amakisi»). *– Shunday de-yeng! Ho-o Turobov muallimingizga kim iltimos qilgan ekan darsni qo‘yib somsa yeyishni? – Hojiqulov nimanidir sinayotganga o‘xshab qiya qaraydi.* («Kechirasiz, o‘rtoq muallim»)

d) ma’no kuchaytirish: *Tur endi, ko‘cha aylanaylik, – deydi «yangiliklari»ni aytib tugatgach. – Seni bi-ir lag‘monga to‘ydiray, to‘rt tiyinlik ‘‘dumba-jigar’’ somsadan yeyaverib oshqozoning kalla-pochchaga to‘lib ketgandir. Menga qara, to‘rt tiyin - to‘rt tiyin yig‘ib, shu somsachiga bir haykal qo‘ysalaring-chi, a?*

Maslahatda buyam. Beshyog‘ochning o‘-o‘rtasiga! Tatigan tuzingga tovonda. («Anoyining jaydari olmasi»)

Hikoya bosh qahramoni Ramazon tabiatan kuch-g‘ayrat, shijoatga to‘la inson. Shunga ko‘ra uning tasavvurida yuqori daraja, yuqori miqdor mezoni bor. Do‘stini mehmon qilsa, astoydil, «bi-ir» to‘ydirishni o‘ylaydi. «Haykalni ham shunchaki emas, Beshyog‘ochning o‘-o‘rtasiga» ko‘rk bo‘lgulik darajada qurishni maslahat beradi. Chunki Ramazon tabiatan hech bir narsani shunchaki qilmaydi, astoydil, qoyilmaqom bajaradi. Buni esa qamoq bilan yakun topgan sud jarayonidan ham anglash mumkin.

e) e’tiroz: *Haydarov... avval ham qilganmisiz shu ishni?*

– *Qanaqa ishni?*

– *Uff, chayqovchilikda*

– *Yo‘-o‘q...E, qilganman, qilganman.* («Anoyining jaydari olmasi»)

«Qip-qizil hangoma» bo‘lgan sud jarayonida sudya «g‘alati sudlanuvchi» ishini qancha yengillashtirishga urinmasin, Ramazon «bergan so‘zi»da turib, yo‘q aybiga iqror bo‘ladi va jazolanadi. Bir yoqda begunohlik, bir yoqda «berilgan so‘z» vajidan aybdorlik, bir yoqda do‘stu yorlar, yaqinlar oldidagi hijolatpazlik o‘rtasida qiynalayotgan insonning ruhiy holati qahramonning e’tirozli nutqi, tutilib, duduqlanib, taraddudlanib ifodalagan tovushlaridan ham anglash mumkin: Demak, ular boshqa shaxsga tegishli bo‘lgan... u sizga tashlab qochgan, shundaymi?

– *Shunday... E, yo‘q-yo‘q, meniki edi, meniki!* («Anoyining jaydari olmasi»)

Yozuvchi fonetik tasvir usullari bilan to‘yintirilgan nutq orqali sud jarayonini yumoristik pafosda ifodalaydi. Muallif o‘zi ta’kidlaganidek, sud jarayoni komediya, tragikomediyaga xos xususiyat kasb etadi. Chunki Ramazon va u yashayotgan jamiyat munosabatlari shunday edi.

Erkin A’zam asarlarida fonografik vositalar, asosan, intensivlikni orttirish va bu orqali kitobxon ko‘z oldida voqea-hodisa, holatni yaqqol ifodalash, asar g‘oyasi, qahramonlar dunyoqarashi va ruhiyatidagi ichki hayajon, quvonch, xafa bo‘lish, masxaralash, hayratlanish, kinoya, ta’kid, norizolik kabi holatlarni aynan berish maqsadida qo‘llangan. Ayrim o‘rinlarda mazkur vositalar suhbatdoshning gapirishi lozim bo‘lgan vaziyatdagi so‘zsizligi, nutq oqimidagi uzilishlar, duduqlanishlar, qahramonning murakkab hissiy holatlarini ham ifodalaydi.

SINTAKTIK SATHDA EVFEMIK SO‘Z BIRIKMALARINING O‘RNI

Turdimurodov Sirojiddin Eshqobilovich
Termiz davlat universiteti dotsenti (PhD)

Annotatsiya. Nutqiy madaniyatni ta’minlash,suhbatdoshga odob-axloq doirasida muomalada bo‘lish, o‘zaro nizoli, noqulay va qo‘pol vaziyatni yumshatish evfemik birliklar orqali amalga oshiriladi. Ushbu maqolada evfemik so‘z birikmalarining ayrim nazariy va amaliy xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: so‘z birikmasi, evfema, grammatik, bitishuv, moslashuv, boshqaruv, lison, nutq.

Abstract. Ensuring speech culture, dealing with the interlocutor within the framework of etiquette, mitigating a mutually conflicting, awkward and rude situation is carried out through euphemistic units. In this article, opinions are expressed about some theoretical and practical features of euphemistic phrases.

Key words: word combination, euphemism, grammar, agreement, adaptation, management, language, speech.

Ma’lumki, sintaksis so‘zlarning har qanday birikuvi emas, balki hokim-tobelik munosabatiga kirishgan erkin nutqiy birikuv jarayonini qamrab oladi. Axborot va ma’lumot almashish gap orgali amalga oshar ekan, gap fikrning yuzaga chiqishida mihim ahamiyat kasb etadi. Bilamizki, SB ma’lum tushuncha anglatadi. Shuni ham aytish kerakki, SB anglatgan tushuncha so‘z anglatgan tushunchadan albatta katta farq qiladi. Nutqda so‘zlar o‘zaro sintaktik aloqaga kirishib, ma’lum qo‘pollik yoki salbiy holat va voqelikni yumshoq tarzda ifodalovchi tushuncha va birlik – evfemik so‘z birikmasining yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Demak, so‘z o‘z ma’noviy imkoniyatini to‘laroq va ravshanroq namoyon qilishi uchun boshqa bir mustaqil so‘zga ehtiyoj sezadi. Bu so‘z uning ma’noviy ehtiyojini qondirmog‘i uchun ham ma’noviy, ham grammatik jihatdan unga muvofiq bo‘lmog‘i lozim[36]. Bundan shunday deyish mumkinki, tobe so‘z ma’noviy ehtiyojni qondirmasa, ular orasida muvofiqlik yuzaga kelmasa bu holatni so‘z birikmasiga tenglashtirib bo‘lmaydi. Evfemik so‘z birikmalarida ham xuddi shunday holni kuzatish mumkin. Masalan, ersiz ayol yoki qizga nisbatan *boshi ochiq* evfemik so‘z birikmasi qo‘llanilganda ham (*boshi yopiq* degani erli (oilali) yoki unashtirilgan yigiti bor degani) mazmuniy yaqinlik uning bosh va unga yopinib yuradigan ro‘moli bilan bog‘liqlik mavjudligini sezish qiyin emas, albatta. Shuni nazarda tutish kerakki, an’anaga ko‘ra erli ayollar boshiga doimo ro‘mol yopinishgan.

Evfemik vositalarning so‘z shaklidagi turlaridan tashqari so‘z birikmasi shaklidagi turlari ham nutqimizda juda ko‘p qo‘llaniladi. So‘z birikmasi shaklidagi evfemik vosita ham [tobe so‘z + hokim so‘z] qolipiga ega bo‘ladi. Bunday evfemizmlar nutqiy tabiatliligi va barqaror emasligi bilan iboralardan farqlanadi: *jilovi qo‘lida, yolg‘iz bosh* (beva, tul), *madaniy millatlar, vaqtsizroq yaratilgan* (chala tug‘ilgan) va hokozo.

O‘zbek tilidagi so‘z birikmalari bitishuv, boshqauv, moslashuv yo‘li bilan birikishi ma’lum. Biz ham evfemik so‘z birikmalarini quyidagi:

1) Bitishuvli evfemik birliklar;
2) Boshqaruvli evfemik birliklar;
3) Moslashuvli evfemik birliklar kabi turlarga ajratdik.

Bitishuvli evfemik birliklar. Sevmoq o‘rnida *ipsiz bog‘lanmoq*. O‘zim ham hayronman… Nargizaga qanday qilib *ipsiz bog'landim* ekan-a? (“Saodat”, 1995.

[36]Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2010. – 286 б.

№2, 17-b.). **Uylantirmoq** o‘rnida *beshikkerti qilinmoq, fotiha qilmoq*. Ular tug‘ilishlari bilanoq *beshikkerti qilingan* edilar (“Yosh kuch”, 1997, №5 41-b.). Otang yotib qolmaganda allaqachonlar *fotiha qilar* edik, balki to‘ylaraing ham bo‘lardi (A.Q.,3-t., 31-b.). **Qiz (qiz bola)** o‘rnida *onasi o‘pmagan, toza gul, yovvoyi qush* kabi birikmalar qo‘llanilishi kuzatiladi. Ko‘zimning nuri kel, *toza gulim,* kel (I.Sulton. “Navoiy”, 83-b.). Sen uni bilmas ekansan, *onasi o‘pmagan* qiz-da… (N.A., “Qitig‘i o‘lmagan qiz”, 218-b.). *Yovvoyi qushni* asta-sekin aldab-aldab o‘rgatadilar. Qo‘rqitsangiz “pir” etib uchib ketadi. (Ch., “Kecha va kunduz”. 125-b.). **Xotin** o‘rnida *jufti halol, zavjayi halol*. Nargisxon endi bizning *jufti halolimiz* (O‘.H., “Ikki karra ikki – besh”, 142-b.). *Zavjayi halolingiz* bo‘lar-bo‘lmasga kulaversa, to‘tiqush salang (“Mushtum”, 1997, №3, 22-b.)kabi o‘rinlarda qo‘llanilgan evfemik so‘z birikmalari biron bir grammatik vositalarsiz mazmun va ohang nuqtayi nazaridan birikkan bitishuvli evfemik so‘z birikmalaridir.

Boshqaruvli evfemik birliklar. Qiz bola voyaga yetib kuyovga chiqishdan oldin ko‘zga tashlanadigan bo‘lganda ularga nisbatan “**yetilib qolmoq”** qo‘pol jumlasi o‘rnida *balog‘atga yetmoq, ko‘zga tashlanib qolmoq* evfemik so‘z birikmalari qo‘llaniladi. Qizimiz *balog‘atga yetib qolgan*. Uning ertasini o‘ylayman (“Saodat”, 1990, №4б 25-b.). …endi bu qiz *ko‘zga tashlanib qolgan* edi (Ch., “Yorqinoy”, 54-b.). **Sevmoq** o‘rnida *ko‘ngil bermoq* (ko‘nglini bermoq). *Ko‘ngil berma* qaro qoshdan o‘zgaga (qo‘shiqdan). **Uylantirmoq** o‘rnida *boshini bog‘lamoq*. O‘g‘lim bugunoq *boshingni bog‘lab* kelamiz (E.Turon, “Bu tog‘lar ulug‘ tog‘lar”, 112-b.). **Jinsiy aloqa qilmoq** o‘rnida *ishini bitirmoq, don olishmoq*. O‘sha kecha yigit qizning *ishini bitirgan* edi (S.Ahm., “Jimjitlik”, 287-b.), Niso buvi ilgariyam usta Abdurahmon bilan *don olishib* yurar ekan… (A.Q., 3-t., 258-b.). **Er(im)** o‘rnida *ko‘z ochib ko‘rganim*. *Ko‘z ochib ko‘rganim*, to o‘lguncha shu bilan birga bo‘laman (N.A.,”Yelvizak”, 59-b.) kabi o‘rinlarda qo‘llanilgan evfemik so‘z birikmalari o‘zaro ma’lum grammatik vositalar orqali mazmunan yaxlit holda birikkan boshqaruvli evfemik so‘z birikmalaridir.

Moslashuvli evfemik birliklar. Unashtirmoq o‘rnida *el ma’lumi qilmoq (elning ma’lumi qilmoq)*. Hozircha *el ma’lumi qilib* qo‘ysak, biroz yig‘inib olgach, to‘ylarini qilib berardik (“Oila va jamiyat”, 1996, 21 dek). **Qizlik** o‘rnida *iffat pardasi (iffatining)*. Bu metoddan …*iffat pardasi* yirtilmaganda qin bitovi yoki keskin stenozani tekshirishda foydalaniladi (I.M.Gryaznova, “Yengiltaklik oqibatlari”, 27-b.). **Uylanmoq** o‘rnida *turmush tashvishi tushmoq (turmushning)*. Endigina *turmush tashvishini* bo‘yniga olgan yigitlarning boshi berk ko‘chaga kirib qolishidan yomoni yo‘q (A.Q., 3-t., 261-b.). **Er(-i, -im)** o‘rnida *umr yo‘ldosh (umrning)*. Shunda onaxonimiz ham *umr yo‘ldoshlariga* muloyimgina mayin tovushda so‘zladilar (“FT”, 1997, №3, 18-b.). **Aroq** (spirtli ichimliklar) o‘rnida *uzum suvi, shayton suvi (uzumning, shaytonning)*. Rais bulturgi *uzumning suvi* bilan mehmon qildi. (S.S., “Qadah tutgan qo‘l”, 113-b.). Anavi “*shayton suvi*”ga qandoq qarashini bilmayman (“O‘zAS”, 1992, 5-yanv.). **Uyat a’zolar**dan biri ko‘krak, siyna (shv. emchak) o‘rnida *sut bezi*. *Sut bezi* tekshirilganda,

dag‘allashganligi kuzatiladi (I.M.Gryaznova, “Yengiltaklik oqibatlari”, 13-b.) kabi o‘rinlarda qo‘llanilgan evfemik so‘z birikmalari o‘zaro qaratqich kelishigi yardamida shaxs va sonda mazmunan moslashib yaxlit holda birikkan moslashuvli evfemik so‘z birikmalariga misol bo'lmoqda.

Aytilishi yoqimsiz bo‘lgan voqelikni nomlash maqsadida klimaks o‘rnida ***hayzning to‘xtash davri,*** masalan: Menopauza – ayollarda *hayz to‘xtashi davri* osteoporoz rivojlanishini kuchaytiradi (“Tashxis”, 2015, №37. 4-b.)[37]. Ushbu ishda bundan tashqari hezalak qo‘pol birligi o‘rnida ***jinsiy faollikning pasayishi,erkaklik quvvatining yo‘qolishi*** kabi birikma evfemalari qo‘llanilishi haqida so‘z boradi. Tadqiqotchi ana shu birliklarni aynan evfemik so‘z birikmasi tariqasida tahlilga tortmagan bo‘lsada, mana shu qo‘llanilishning o‘ziyoq so‘z birikmasi shaklida ekanligi ko‘rsatib turibdi. So‘z birikmasi shaklidagi evfemik birliklarning qo‘llanilishini deyarli barcha soha vakillari nutqida kuzatishimiz mumkin.

Evfemik birliklarni nutqda qo‘llashning yana bir ehtiyoji o‘zaro fikrlar “to‘qnashuvi”, qarama-qarshiligining oldini olish, suhbatdoshda noqulaylik hissini paydo qilmaslikdir. Buni esa yuqori madaniyatlilik belgisi deb baholashimiz mumkin. Ushbu fikrimizni quyidagi jumlalar orqali isbotlashga harakat qilamiz. “Nutqiy muloqotda buni tasdiqlovchi ko‘plab dalillar mavjud. Masalan, invalidlar ***imkoniyati cheklanganlar***, invalidlar olimpiadasi esa ***paralimpiada o‘yinlari*** singari birliklar bilan evfemalashtiriladi[38]”, – deydi N.G‘aybullayeva. Agarda muloqot jarayonida ushbu birliklarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash bu imkoniyati cheklangan kishilarga juda ham og‘ir botadi. Bizning tahlillarimiz ushbu so‘z birikmasi shaklidagi evfemik birliklarning birikish usuli mazmunan moslashuvli evfemik birlik ekanligini ko‘rsatmoqda.

Tilda ikki yoki undan ortiq so‘zning bog‘lanishidan hosil bo‘lgan birikmalar ko‘p. Masalan, so‘z birikmasi, so‘z qo‘shilmasi, gap, qo‘shma so‘z, tasviriy ifoda, maqol, matal va b. Shuning uchun dastlab, turg‘un bog‘lanish va erkin bog‘lanishni bir-biridan farqlash kerak. Ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zning bir grammatik butunlik, ma’noviy yaxlitlik tashkil etib, murakkab tushuncha yoki tugal fikrni ifodalaydigan so‘z bog‘lanishi erkin bog‘lanish deyiladi. SB va gap erkin bog‘lanishga kiradi. Chunki SB va gap nutq jarayonida hosil qilinadi, ikki yoki undan ortiq so‘zning qotib qolib, nutqda tayyor holda ishlatiladigan bog‘lanishi barqaror, turg‘un bog‘lanishni tashkil qiladi[39].

Evfemik so‘z birikmalari ham shu jihatdan erkin bog‘lanish asosida nutqda hosil bo‘lib, ma’lum vaqtdan so‘ng frazemalarga o‘xshash nutqda tayyor holda qo‘llaniladi. Mana shu jihati bilan frazemalarga o‘xshab ketadi. Masalan, **go‘r,go‘riston,qabr** tushunchasi o‘rnida qo‘llaniladigan *“so‘ngi uy”* evfemik so‘z birikmasini olsak, ushbu evfemik so‘z birikmasi *so‘ngi* (*keyingi, oxirgi)*

[37]Ғайбуллаева Н. Ўзбек тилида тиббий эвфемизмлар (тиббий даврий нашр материаллари мисолида). Ф.ф.ф.д. дисс. – Бухоро. 2019. 19 б.

[38]Ғайбуллаева Н. Ўзбек тилида тиббий эвфемизмлар (тиббий даврий нашр материаллари мисолида). Ф.ф.ф.д. дисс. – Бухоро. 2019. 18 б.

[39]Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек тили (кириш, фонетик сатҳ, лексик-семантик сатҳ). – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2018. - 190 б.

tushunchasi va *uy* tushunchasi birikib alohida yangi tushuncha (**go‘r**, **qabr**)ni hosil qilganligini kuzatish mumkin. *So‘ngi uy* birikmasi yuqoridagi ma’lum vaziyatda qo‘pol birlikni nisbatan yumshatish uchun qo‘llanilganligi bois evfema, ikki leksemaning birikib ma’lum tushuncha ifodalashi jihatdan evfemik so‘z birikmasi hisoblanadi.

Evfemik so‘z birikmalarida ham birikayotgan elementlar o‘rtasida semantik yaqinlik juda ham muhim hisoblanadi. Tog‘ri ta’kidlanganidek, semantik yaqinliksiz ma’lum birikma birikma bo‘laolmaydi. Haqiqatan ham nutqda leksik-grammatik qoidalarga bo‘ysungan holda, cheksiz miqdorda so‘z birikmalarini yaratish imkoniyati mavjud. Bu degani evfemik so‘z birikmalarini ham shu tarzda ko‘plab yaratish mumkin degani emas. U evfemik so‘z birikmalarining xarakteri bundan biroz mustasno. Ularning aksariyati nutqda tayyor holda shakllangan bo‘ladi. Chunki shu jihati bilan frazeologik birikmalarga o‘xshab ketadi. Bu degani, ya’ni nutqda tayyor holda shakllangan bo‘ladi degani evfemizmlar va frazeologizmlar bir xil hodisa degani emas.

Tilshunos olim N.Mahmudov va A.Nurmonovlar to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “So‘zlarning har qanday nopredikativ bog‘lanishi SBni hosil qilavermaydi. So‘zlarning bog‘lanishi erkin bo‘lishi, nutq jarayonida kengayuvchi bo‘lakning bog‘lanish modeli asosida hosil qilinishi yoki bu bog‘lanish barqaror bo‘lib, nutqqa tayyor holda olib kirilishi mumkin. Shuning uchun ham so‘zlarning nopredikativ bog‘lanishi ikkiga bo‘linadi: 1) erkin bog‘lanish; 2) turg‘un bog‘lanish”[40]. Evfemik so‘z birikmalarida ham yuqoridagi ikki turga doir bog‘lanishlarni uchratish mumkin. Masalan, **uylanmoq** va **uylantirmoq** o‘rnida *nikohiga olmoq* erkin bog‘lanishga misol bo‘lsa, *oyog‘ini to‘rtta qilmoq, boshini ikiita qilmoq* kabilar turg‘un bog‘lanish (ya’ni nutqqa tayyor holda olib kirilmoqda)ga misol bo‘ladi. Ularni quyidagi misol tahlili asosida izohlashga harakat qilamiz. Bu o‘g‘limizning *oyog‘ini to‘rtta qilmasak*, … (“Ayol va zamon”, 1999, 18-noyabr). Yuqoridagi fikrdan anglashilmoqdaki, *oyog‘ini to‘tta qilmoq* uylantirmoq o‘rnida uning evfemik yumshatuvchisi bo‘lib qo‘llanilmoqda.

M.Bushiy, R.D.Jo‘rakulovlar “o‘lim, o‘lmoq” ma’nosini ifodalovchi *jon bermoq, tuproqqa topshirmoq, oxirgi yo‘lga uzatmoq, tuz nasibasi (non-nasibasi) uzilmoq, vaqti-kuni bitmoq, jonini jabborga topshirmoq, juvonmarg bo‘lmoq* singari SBlarining xalq ertaklarida qo‘llanilish doirasini yoritib, *kulini ko‘kka sovurmoq, tuproq bilan baravar qilmoq, terisiga somon tiqmoq, o‘n jonidan bir jonini ham qo‘ymaslik, toshbo‘ron qilmoq* kabi “*o‘ldirmoq, yo‘qotmoq”* ma’noli SBlari ham yuqorida keltirilgan SBlariga semantik jihatdan juda yaqin turishini qayd qilganlar[41]. Albatta bu yerda nafaqat xalq ertaklarida balki nutqimizda doimiy qo‘llaniladigan evfemik so‘z birikmalarining qayd qilinganligini e’tirof etish mumkin.

[40]Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. - 20 б.

[41]Дониева М. Сўз бирикмалари деривацион ва прагматик-дискурсив имкониятларининг воқеланиши. Ф.ф.д. дисс. –Бухоро 2022. –Б. 37

Evfemik so‘z birikmalarining yana bir xususiyati shundaki, ularning axborot almashish vazifasi boshqa til birliklaridan farq qiladi. Agar so‘z sintaktik tuzilmalarning oldindan ma’lum va tayyor elementi bo‘lsa, evfemik so‘z birikmasining murakkab tuzilma ekanligi faqat axborot almashish jarayonida nutqda oldindan tayyor bo‘lak sifatida yuzaga kelishi va qo‘llanilishi bilan xarakterlanadi.

Evfemik so‘z birikmasi kommunikativ vazifasining bu taxlit voqelanishi uning mavqe jihatidan sintaksis sathidagi boshqa birliklar bilan tenglashishini ifodalaydi. Har bir birlikning sintaktik tuzilishi, albatta tilning umumiy tuzilishi, tizimiga xos bo‘lgan xususiyat, ya’ni uning har bir birligi asosiy vazifa – kommunikatsiyani ta’minlash bilan bog‘liqdir. Shunday qilib, evfemik SBning kommunikativ vazifa bajarish imkoniyati uning so‘zdan farqli jihatlarini namoyon qiladi.

Nihoyat, evfemik SBning nutqiy faoliyat jarayonidagi ishtiroki yana bir vazifani aniqlashtiradi, bu uning estetik vazifasidir. Ushbu funksiyaning voqelanish holatlarini lisoniy va nutqiy faoliyatning ikki kesimida kuzatish mumkin:

a) nutqiy muloqot jarayonida fikrni ekspressiv ifodalash vositasi sifatida;

b) yozma va og‘zaki nutqiy estetik va axloqiy me’yorlar uyg‘unligini ta’minlovchi vosita sifatida.

Evfemik SBlari tarkibida nafaqat baholash, balki ijobiy his-hayajon, shuningdek, emotsional bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan konnotativ qismlar ishtirok etib, ular muloqot jarayonida fikrni bo‘yoqdor va ijobiy mazmunli ifodalash vositasi sifatida ham qo‘llaniladi. Evfemik SBlaridagi baholovchi konnotatsiya lisoniy jamoaning tasavvurida ob’yektning ijobiy-salbiy diapazonda idrok qilinishigayordam beradi, ular orqali so‘zlovchi va tinglovchilar, shuningdek, jamiyatning u yoki bu darajadagi muloqot ehtiyojlari qondiriladi.Bu ehtiyojlar estetik, axloqiy-etik, ijtimoiy xarakterda bo‘lib, insoniyat ongida shakllangan estetik va axloqiy me’yorlarga mos qo‘llaniladigan tushunchalarni ifodalaydi, ya’ni tinglovchiga evfemik birlik orqali estetik jihatdan ta’sir qilish vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2010. – 286 б.
2. Ғайбуллаева Н. Ўзбек тилида тиббий эвфемизмлар (тиббий даврий нашр материаллари мисолида). Ф.ф.ф.д. дисс. – Бухоро. 2019. –19 б.
3. Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек тили (кириш, фонетик сатҳ, лексик-семантик сатҳ). – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2018. – 190 б.
4. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. –20 б.
5. Дониева М. Сўз бирикмалари деривацион ва прагматик-дискурсив имкониятларининг воқеланиши. Ф.ф.д. дисс. –Бухоро 2022. –37б.
6. Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси (чорвадорлар нутқи мисолида): Филол. фан.док. дисс. –Т., 2009. – 47 б.

7. Qodirova X. O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm. –Toshkent.: “Bookmany print” nashriyoti. 2022. 3-bet.
8. Turdimurodov S. O‘zbek tilida evfemik ma’no. T.: “Lesson press” nashr. 2023. – 112-b.

TILSHUNOSLIK NAZARIYASI. TILNING MUHIM KOMMUNIKATIV VAZIFASI

Akmal Tursunov Raxmatullayevich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti

Annotatsiya. Til jamiyat tarixini o‘zida aks ettiruvchi vosita bo‘lib, insonning ma’naviy va ma’rifiy shakllanishi, rivojlanishida belgilovchi ahamiyatga ega. Nazariy tilshunoslik sohaning nazariy masalalari, til va nutq birliklariga doir qarashlar, til birliklari o‘rtasidagi munosabatlar haqida bahs yuritadi. Til boshqa kishilar bilan muomala qilish ehtiyoji tufayli paydo bo‘lgan. Tilning paydo bo‘lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq ekan, inson kamoloti haqida fikr yurituvchi barcha fanlarning o‘rganish manbai tilga aloqador hisoblanadi.

Abstract. Language is a tool that reflects the history of society, and it has a decisive significance in its spiritual and educational formation and development. Theoretical linguistics discusses theoretical issues of the field, views on language and speech units, relations between language units. Language arose out of the need to communicate with other people. Since the emergence and development of language is related to the development of society, the source of study of all sciences that think about human development is related to language.

Kalit so‘zlar: Tilshunoslik, taraqqiyot, ahamiyat, til, tafakkur, jarayoni, madaniyat, jarayonida.

Keywords: Linguistics, development, meaning, language, thinking, process, culture, process.

Kirish (Introduction). Tilshunoslik (lingvistika: grekcha lingua – «**til**», logos – «fan») murakkab va ko‘p qirrali, tilni boshqa ijtimoiy fanlar bilan uzviy aloqadorlikda ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganuvchi, tilshunoslikning asosiy masalalarini, tilning paydo bo‘lishi va til taraqqiyotidagi umumiy qonuniyatlarni, til va nutq xususiyatlarini tahlil etuvchi fandir. Til jamiyat uchun xizmat qiladi, jamiyat a’zolari muloqotini ta’minlaydi. Til jamiyat tarixini o‘zida aks ettiruvchi vosita bo‘lib, insonning ma’naviy va ma’rifiy shakllanishi, rivojlanishida belgilovchi ahamiyatga ega. Til, uning amaliy ifodasi bo‘lgan nutq inson tafakkuri, ruhiyati, madaniyati, urf-odati va shaxsiy kamoloti bilan bog‘liqdir.

Tilshunoslik fani umumiy va xususiy xarakterga egadir. Tilshunoslikning umumiy va xususiy tilshunoslik, nazariy tilshunoslik, amaliy tilshunoslik kabi qator ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, til va nutqni turli aspektlarda talqin qiladi. Umumiy tilshunoslik jahon tillaridagi fonetik, fonologik, grammatik (morfologik va sintaktik), leksik-semantik, stilistik jihatlarni ilmiy asosda o‘rganadi. Bu xususiyatlarning muayyan bir tildagi izohi (masalan, o‘zbek tili yoki boshqa tillarning belgilari)ni xususiy tilshunoslik o‘rganadi. Nazariy tilshunoslik sohaning

nazariy masalalari, til va nutq birliklariga doir qarashlar, til birliklari o‘rtasidagi munosabatlar haqida bahs yuritadi. Jamiyatning amaliy ehtiyojlarini qondiradigan tilshunoslik sohasi amaliy tilshunoslik deb ataladi va til haqidagi fanning tarqalish doirasini kengaytiradi. Tilni har tomonlama chuqur o‘rganish nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. Shu sababli tilshunoslikni faqat nazariy fan deb emas, balki tatbiqiy va amaliyot uchun kerakli, ya’ni insonlar muloqoti uchun zarur sifatida baholash lozim.[1] “Tilshunoslik nazariyasi” quyidagilardan iborat: - til va jamiyat, til va tafakkur, til va madaniyat, til va psixologiya, til va semiotika masalalarini, tilning semiotik tabiatini yoritish; - nutq va nutq faoliyati munosabatini o‘rganish.

Tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri tilning ushbu fan predmeti sifatidagi ta’rifidir. Ma’lumki, tabiiy til faqat tilshunoslikda emas, balki yana bir qator fanlar tomonidan o‘rganiladigan murakkab obyekt bo‘lib, har bir fanning tilga bergan ta’rifi ham turlichadir. Tilning ta’rifi masalasi tilshunoslik fani tarixidagi eng muhim masalalardan biridir, fan tarixida turlicha talqin qilingan va hozirgi kunda ham turli ilmiy maktablar va oqimlar orasida keskin bahslarga sabab bo‘lmoqda.

Til umumiy qonuniyatga bo‘ysunadigan o‘ziga xos ramzlar tizimi bo‘lib, kishilik jamiyatidagi aloqa-munosabatning eng muhim quroli, fikr ifodasi hamda fikr yuritish asosi, voqelikni ajdoddan avlodga yetkazadigan, ichki kechinmalarni, his-tuyg‘ularni aks ettiradigan, insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan barcha madaniy, ilmiy boyliklarini ifodalaydigan muhim kommunikativ vositadir. Darhaqiqat, tilshunoslikda mavjud bo‘lgan har bir nazariya, avvalo, tilni qanday tushunishga asoslanadi.

Tilshunoslik tarixida tilni turlicha ta’riflash predmetini ham turlicha tasavvur qilishga sabab bo‘ldi. Shuning uchun bu masalaning tilshunoslik tarixi asosiy bosqichlarida qanday hal etilganligini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Tilga bo‘lgan qiziqish eramizdan avvalgi V asrlarda paydo bo‘lgan. Tilshunoslik qadimgi Hindiston, Yunoniston, Rim, Misr, Xitoy, Movarounnahr, va mintaqalarda rivojlangan.

Tilshunoslik taraqqiyoti jarayonida alohida tillar yoki til guruhlari empirik nuqtayi nazardan o‘rganilgan. Ba’zi bosqichlarda muayyan tillar namuna, etalon sifatida qaralgan. Til – murakkab ramzlar tizimi sifatida baholandi.[2] Til hodisalarini nazariy o‘rganish jarayonida G‘arb lingvistika maktablari tilning kommunikativ, kognitiv, nominativ va akkumulyativ funksiyalariga e’tibor qaratdi, shu bois G‘arb olamida sotsiolingvistika, psixolingvistika, etnolingvistika, antropolingvistika kabi sohalar rivojlandi.

Tilshunoslikda «natural» maktab oqimi paydo bo‘ldi. Uning asoschisi nemis olimi A.Shleyxer edi. U birinchi bo‘lib biologiya qonunlarini «inson organizmi»ga ko‘chirish kerakligini aytdi va tilshunoslikni tabiiy fanlar safiga qo‘shdi. Jamiyatning eng muhim aloqa vositasi bo‘lgan tilning bir butunligiga asoslanib, uni tirik organizmga o‘xshatish noto‘g‘ridir. Til ijtimoiy hodisa sifatida tabiiy hodisalardan ajralib turadi. Masalan, kishilarning tabiiy-biologik va fiziologik xususiyatlari (ovqat yeyishi, nafas olishi, rivojlanishi va hokazo) tabiat qonunlariga

muvofiq jamiyatga bog‘liq bo‘lmagan holda rivojlanib boradi. Ammo tilda so‘zlashish va fikrlash uchun kishilik jamiyati bo‘lishi shart. Chunki, til kishilarning bir-biri bilan aloqa qilish va fikr almashish ehtiyojlari natijasida paydo bo‘lgan. Shuning uchun ham til tabiiy hodisalardan farqli o‘laroq, kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan va unga xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir. Til boshqa kishilar bilan muomala qilish ehtiyoji tufayli paydo bo‘lgan. Shuning uchun til qonunlari, uning taraqqiyot yo‘llari jamiyat tarixi bilan va shu tilni yaratgan xalq tarixi bilan bog‘liq holda o‘rganilgandagina masalani to‘g‘ri hal qilish mumkin.

Demak, aytilgan fikrlardan shunday xulosa chiqarish mumkin: birinchidan, til tabiiy biologik hodisa emas; ikkinchidan, tilning mavjud bo‘lishi va uning taraqqiy qilishi tabiat qonunlariga bo‘ysunmaydi; uchinchidan, til kishilarning tabiiy belgilariga bog‘liq emas; to‘rtinchidan, faqat jamiyat bo‘lib uyushgan insonlargina aloqa vositasi bo‘lgan tilga ega. Binobarin, til tabiiy-biologik hodisa bo‘lmay, kishilik jamiyatining eng muhim aloqa vositasi sifatida jamiyatga xizmat qiladigan, subyektga bog‘liq bo‘lmagan murakkab ijtimoiy hodisadir. Jamiyatdagi turli guruhga mansub shaxslar bir-biri bilan aloqada bo‘ladilar, til esa ishlab chiqarishni uyushtirishda jamiyat sohalari rivojlanishida muhim aloqa vositasi.

Tilning boshqa ijtimoiy hodisalardan ajralib turadigan eng asosiy xususiyati shundan iboratki, til ijtimoiy faoliyatning barcha sohalariga xizmat qiladi.[3] U kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan konkret-tarixiy me’yor sifatida jamiyat a’zolarining barchasiga teng xizmat qiladigan asosiy aloqa vositasidir. Til tabiatiga xos asosiy antinomiyalar quyidagilardir:

Birinchi antinomiya: til bilan tafakkurning ajralmas birligi va ichki qarama-qarshiligidir. Til bilan tafakkur bir-birini taqozo etadigan ajralmas hodisadir. Tilsiz tafakkur bo‘lmaganidek, til ham tafakkurdan ajratilishi mumkin emas**.**

Ikkinchi antinomiya: til har doim rivojlanib turadigan dinamik hodisadir. Bir tomondan, til faoliyat bo‘lsa, ikkinchi tomondan, faoliyat mahsulidir. Muloqot vositasidan foydalanuvchi har bir til sohibi nutqiy faoliyat davomida til taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatadi, uni me’yorlashtirishi, keng yoyishi, boyitishi mumkin. Shu bilan birga, til jamiyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan barcha tarixiy boyliklarini mujassamlantirgan va ajdoddan avlodga o‘tib boradigan aniq tarixiy me’yordir.

Uchinchi antinomiya: nutq va tushunish antinomiyasidir. V. Gumboldt ta’rifiga ko‘ra nutq va nutqni tushunish inson nutq faoliyatining ikki tomonini tashkil etadi.

To‘rtinchi antinomiya: nutqning obyektiv va subyektiv xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. V. Gumboldt fikricha, har bir individ insoniyat jamoasi tomonidan yaratilgan tildan foydalanadi va ushbu tilning qonun-qoidalariga rioya qiladi. Subyektiv hodisa sifatida esa har bir so‘zlovchi o‘zining nutqiy faoliyati jarayonida til rivojiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Beshinchi antinomiya: tildagi jamoaviy va individual xususiyatlardir. Ma’lumki shaxs o‘zidan oldingi avlod tomonidan yaratilgan jamoa mahsulotidan foydalanadi, individual xususiyatini namoyon etadi. Nutq faoliyati, o‘z navbatida,

so‘zlovchi va tinglovchini taqozo qiladi. Shuning uchun nutqning jamoaviy va alohida xususiyatlarini o‘rganish zarur.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan masalalar tilshunoslik fanining predmeti masalasi bilan bevosita aloqadordir. Tilning ijtimoiy tabiatini talqin qilishda jahon tilshunosligi dialektik taraqqiyot prinsiplariga asoslanadi. Xususan, tilni jamiyat taraqqiyotining mahsuli deb tushunish tilshunoslik faniga qo‘shilgan eng buyuk hissalardan biridir.

Tilshunoslik tilning o‘ziga xos tabiatini, tilning o‘zgarish sabablarini ham ijtimoiy taraqqiyot negizida tahlil qiladi. Ular til va tafakkur, tillarning grammatik qurilishi turlicha bo‘lishi sabablari, tilning ijtimoiy tabiati kabi masalalar bilan qiziqmadilar, ular o‘sha davrda hukm surgan psixologik nazariyalarning ta’sirida bo‘lib, tildagi barcha hodisalarni individual psixologiya prinsiplari asosida hal qilishga intildilar.

Til, avvalambor, kommunikativ vositadir. Bu uning kommunikatsiyaga asoslangan tizim ekanligini ko‘rsatadi. Kishilar o‘zaro aloqa-munosabatda bo‘lish, fikrlashishda tildan boshqa vositalardan ham foydalanadilar. Bular ovozli va grafik shaklda bo‘lgan so‘zlashuv nutqidan boshqa turli tovush signallari: qo‘ng‘iroq, gudok kabilardir. Kommunikatsiyani ta’minlashda simvolika, turli ramzlar hamda paralingvistik vositalardan ham foydalaniladi. Til murakkab ijtimoiy hodisa, belgilar tizimi sifatida insonlar muloqoti uchun xizmat qiladi. Bu o‘rinda til va nutqni farqlash zarur. Nutq bu tilning va undagi belgilarning barcha qo‘llanish holatlarini qamrab oladi.

Tilning paydo bo‘lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq ekan, inson kamoloti haqida fikr yurituvchi barcha fanlarning o‘rganish manbai tilga aloqador hisoblanadi. Tilshunoslikning fanlar sistemasidagi o‘rnini tahlil qilish, boshqa fanlar bilan munosabatini yoritish uning qimmatini belgilashda, bir qator lingvistik tushunchalarning kelib chiqish ildizlarini yoritishda, umuman, tilshunoslikning ko‘pgina nazariy muammolariga oydinlik kiritishda muhim ahamiyatga egaligi ta’kidlangan [4].

Tilning muhim kommunikativ funksiya bajarishi uning murakkab tizim ekanligi, nutqda voqelanishi ham muayyan qonuniyat asosida yuz berishini ko‘rsatadi. Kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida tilning jamiyatga bo‘lgan munosabati turlicha izohlangan. Har xil fikrlar, turli nazariyalar vujudga kelgan. Til birliklarining mazmun qiymatiga, semantik mohiyatga ega ekanligi ta’kidlangan.

Tilshunoslik til tadqiqiga bag‘ishlangan yozma manbalarga tayanadi. Ma’lumotlarning mukammal bo‘lishi uchun shuning o‘zi yetarli emas. Shu bois ko‘p hollarda kishilik jamiyatida nutqning shakllanishi va rivojlanish xususiyatlarini yoritish uchun bola nutqining shakllanishi, rivojlanishiga doir kuzatishlardan foydalaniladi. Tilshunoslik ham barcha fanlar qatori o‘zining tadqiqot doirasiga ega. Tilning tuzilishi, kelib chiqishi, rivojlanishi va boshqa masalalar uning tahlil doirasini tashkil qiladi, bunda boshqa fanlarning ilmiy xulosalariga tayanadi. Bir qator ichki lisoniy masalalar masalan, tilning kelib

chiqishi, rivojlanishi, tarqalishi va hokazolar boshqa ijodiy fanlar yordamida ham hal qilinadi.[5]

Tilshunoslik nazariyasi til qurilishi, til tabiati, tilning insoniyat ijtimoiy turmush tarzidagi o‘rni, til va tillarni tadqiq etish metodlari xususida umumiy, tizimli xulosalar beradi. Tilning asosiy sathlari sifatida fonetik-fonologik, leksik, grammatik sath tahlil etiladi.

Tilshunoslikning nazariy masalalari mohiyati dialektologiya, frazeologiya, stilistika, etimologiya kabi bo‘limlar orqali yoritiladi. Bu masalalarni o‘rganishda diaxron va sinxron tahlil usullaridan foydalanib kelinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi, darslik. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – 256 b

2. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent, 1996.

3. Abduazizov A. Tilshunoslikka kirish. I-qism. Fonetika va fonologiya. – Toshkent,1999.

4. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. –Toshkent, 2010.

5. Abduazizov A.A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi.–Toshkent: Universitet, 2010.

6. Abdurasulov Y. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi.-Toshkent: Fan, 2009.

PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Fayzullayeva Dilnoza Narimovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada paremiologik birikmalarning, lingvopoetik xususiyatlari, madaniyat, mentalitet tushunchalari til bilan uzviy bog‘liqligi va ular tilda turli janrlar paremalar tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Linvopoetika, maqol, tilshunos, borliq, til, falsafa, jahon, birlik, tarix, xalq, ibora, afarizm.

Annotation. In this article, paremiological compounds, linguopoetic features, concepts of culture, mentality are inextricably linked with language, and they are analyzed in different genres of language.

Key words: Linvopoetics, proverb, linguist, existence, language, philosophy, world, unity, history, people, phrase, aphorism.

Jahon tilshunosligida, jumladan, o‘zbek tilshunosligida ham maqol, matal, hikmatli so‘z va iboralar, aforizmlar paremiologik birliklar (keyingi o‘rinlarda PB deb yuritiladi) deb qaralib, shu nom ostida o‘rganilmoqda. Bizga ma’lumki, hikmatli so‘z va iboralar (aforizmlar deb ham yuritiladi) ma’lum bir xalqning uzoq tarixi, kuzatishlari natijasida yuzaga keladigan til birliklaridir. Xalq maqol va matallarida o‘zi mansub bo‘lgan xalqning hayoti, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, o‘zi va o‘zligi to‘liq namoyon

bo‘lgandir. Shunday ekan, paremiologik birliklar mazmun-mohiyatiga ko‘ra inson tafakkurining, shu xalq ma’naviyatining eng sara ijod mahsulidan biridir.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, maqollar, aforistik iboralar ma’lum bir xalqning ko‘p asrlik, tajribalari, kundalik doimiy kuzatishlari xulosasini tugal fikr tarzida qat’iy qutbiylikda tugal ifodalar ekan, ularda har bir so‘zning ma’no xilma-xilligi, iboralarning turg‘unligi, shakliy barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qo‘llanish o‘rniga qarab ularning ma’no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Shuning uchun maqoldagi har bir so‘zga, uning qo‘llanish shakli va o‘rniga alohida e’tibor berish kerak.

O‘zbek xalqining ma’naviy meroslaridan biri bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi asarlari eng qadimiy va bitmas-tugunmas xazinadir. Xalqimiz yaratgan og‘zaki ijod namunalari shuning uchun ham muhimki, bunda xalqning qadim ijtimoiy – maishiy hayoti, uning mashg‘uloti, etnografiyasi, shuningdek uning hokim tabaqaga, manfaatparastlar, amalparastlar, dangasa, yalqov, qo‘rqoq va ta’magirlarga qarshi kurashlari ifoda etiladi. Shu bilan birga xalq og‘zaki ijodi xalqning yangi ozod, farovon hayot haqidagi orzu-istaklari aks etadi. Shu nuqtai nazardan “Tomaris”, “Shiroq”, “Uch og‘a-ini botirlar”, “Malikai Husnobod” kabi ertaklar, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Kuntug‘mish”, “Oysuluv”, “Xoldorxon” kabi dostonlar, maqol, iboralar, topishmoq ijtimoiy-tarixiy zaminga egadir. Shuningdek xalq og‘zaki ijodi janr e’tibori bilan ham xilma-xildir: doston, ertak, qo‘shiq, ashula, lapar, ibora, maqol, matal, topishmoq va hikmatli so‘zlar. Albatta, bularning barchasi o‘z o‘rnida g‘oyat muhim ahamiyatga egadir.

Biz bu o‘rinda shuni aytmoqchimizki, xalq og‘zaki ijodi namunalarining har bir turi ahamiyatli bo‘lishi bilan birga, ular alohida xususiyatlarga ham ega bo‘ladi. Masalan, turg‘un iboralar bilan maqol va hikmatli iboralar tuzilishi jihatidan, ba’zan mazmun jihatidan ham bir-biriga o‘xshab ketadi. Lekin ular ayrim tomonlari bilan bir-biridan farqlanadi. Albatta, har ikkala janr ham (maqol, ibora) xalqning tarixini, maishiy hayotini, unda mavjud bo‘lgan voqea-hodisalarni, jamiyatdagi ayrim shaxslarning fe’l-atvorlarini aks etiradi. Iboralarda ham, maqollarda ham umumlashgan xulosalar ifoda etiladi, ya’ni turmushdagi voqealarga, ayrim shaxslarning xulqi-atvoriga nisbatan munosabatlar bildiriladi. Lekin ular o‘rtasida ayrim o‘zgaliklar mavjud.

Maqollarda xalqning hayotiy tajribalari, tarixiy, ijtimoiy voqealar qanday ixcham, aniq va ravshan qilib ifoda etilsa, iboralarda ham xuddi shu holat bo‘ladi.

Albatta, ibora bilan maqol orasiga keskin chegara qo‘yib bo‘lmaydi. Lekin shunga qaramay, bu ikki janr orasida ayrim farqlar mavjud. Jumladan, maqollarning hammasi ham majoziy ma’noda bo‘lavermaydi (asragan ko‘zga cho‘p tushar, bekordan hamma bezor, boylikning kaliti – ilm, daromadga qarab buromad, yomon ko‘z toshni yoradi, it og‘zidan suyak olib bo‘lmas, kishi berganga qush to‘ymas va boshqalar). Ammo iboralarning barchasi majoziy ma’noda ishlatiladi: halvo degan bilan og‘iz chuchimaydi, ilonning yog‘ini yalagan, asfala sofilinga ketdi, baland oxurdan suv ichgan, bir ko‘rpada tepalashib o‘smoq, yelkamning chuquri ko‘rsin, ikki oyog‘ini bir etikka tiqmoq, katta og‘iz va

boshqalar. Demak, iboralar obrazli ifodalar bo‘lib, ularda muhokamali fikrlar aks etmaydi, bir so‘z ifodalagan tushunchaga teng keladi. Lekin shunga qaramasdan, iboralar xalq tilida, suhbatida, nutqida maqolga nisbatan ko‘proq qo‘llanadi hatto yozuvchilar ham iboralardan o‘z asarlarida unumli qo‘llaydilar.

Maqollar qanchalik tarixiy-maishiy hayot bilan, ijtimoiy muammolar bilan paydo bo‘lgan bo‘lsalar, iboralar ham xuddi shunday hayotiy voqealar, tarixiy, ijtimoiy-maishiy hayot bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan.

Maqollar mavzu jihatidan juda boy va turfa xilda bo‘lib, Vatan, mehnat, til va nutq, sevgi-muhabbat, mardlik, pand-nasihat, yaxshilik va yomonlik, elga va yurtga sodiqlik kabi ezgu mavzularda, shuningdek, salbiy hislatlar xususida ham bo‘lib kishilarni, yaxshilikka, to‘g‘rilikka, olijanoblikka, mardlikka chorlaydi. Maqollarda aks etgan mazmun hatto bir kichik asarga teng keladi. Ular asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham, lo‘nda va sodda poetik shaklga tushgan.

Maqollar tarixiga e’tibor beradigan bo‘lsak, turkiy xalqlarning maqollaridan ilk namunalar Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida keltirilgan. Asarda “Kishi olasi ichtin, yilqi olasi tashtin” kabi hozirda ham qisman fonetik o‘zgarishlar bilan qo‘llanayotgan maqollar mavjud.

Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘atit turk” asarida 400 dan ortiq xalq maqollarini qo‘llagan va izohini bergan. Ular qanday o‘rinlarda qanday ma’nolarda qo‘llanilishini izohlab bergan. Olimlarimizning tekshirishlaricha, devonda qo‘llanilgan aforizmlardan 250 dan ortiqrog‘i ham mazmun ham shakl jihatidan hozirgi kunda ham tilimizda faol qo‘llanib kelinmoqda. Masalan, Besh barmoq barobar emas. Ko‘kka tupursa, yerga tushar. Suv ko‘rmaguncha etik yechmas. Arslon qarisa, sichqon inini poylar va boshqalar.

XIX asrning boshlarida o‘zbek masalchiligining asoschisi Gulxaniy 200 ga yaqin hikmatli iboralarni o‘zida birlashtirgan va unda qo‘llanilgan PBlarni ma’naviy guruhlarga ajratilgan “Zarbulmasal” asarini yaratadi. Ikki asar – “Devoni lug‘atit turk” va “Zarbulmasal” ikki davrda (farq 8 asr) yaratilgan. Gulxaniy Qoshg‘ariy haqida va uning asari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lmagan. Lekin shunga qaramasdan, Gulxaniy asarida qo‘llanilgan maqollar tuzilishi va mazmun jihatidan bir-biriga yaqin va o‘xshash: Teshik inju yerda qolmas (Qoshg‘ariy), Teshik munchoq yerda qolmas (Gulxaniy). Bunday o‘xshashliklar PBlarning juda qadimiyligidan dalolat beradi.

Demak, maqollar tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi va ular turli nomlar bilan – maqol, matal, masal, hikmatli so‘z donolar hikmati, mashoyixlar, donishmandlar so‘zi, otalar so‘zi, naql, bobolar naqli, qayroqi so‘zlar, hikmat guldastalari deb atalib kelgan.

O‘zbek maqollarini ilmiy o‘rganish 19 asrlardan boshlangan. Ma’lumki, 19-asrning ikkinchi yarmida (1863) vengriyalik tarixchi, sayyoh Herman Vomberi O‘rta Osiyoga hoji niqobida kelib ketgan. U ketishida 19 yoshlik mullavachchani o‘zi bilan olib ketgan. U Mulla Isoq bo‘lib, voyaga yetgach Vengriya Fanlar Akademisida ishlagan. 1865 yilda esa vengriya Fanlar Akademiyasining filologiya

bo‘limi “Tilshunoslik axboroti”da o‘zbek maqollarini nashr ettirgan. O‘z ichiga 44 ta maqol, matal, ertak va topishmoqlar kiritilgan ushbu to‘plam Yevropa ilmiy jamoatchiligida katta shov-shuv uyg‘otadi. Chunki shu davrgacha o‘zbek xalq maqollari haqida Yevropa ahli bexabar edi.

Agar Mulla Isoh chop ettirgan maqollar tarkibiga nazar soladigan bo‘lsak, unda qadimda qo‘llanib kelingan, shuncha davrlar o‘tgandan so‘ng ham o‘z shakli, mazmuni va ahamiyatini yo‘qotmay kelayotgan qator aforistik birliklar o‘rin topgan. Jumladan: Enasini ko‘rib qizini ol; Asal tutgan barmog‘in yalar; Davogaring podsho bo‘lsa, arzingni Olloh eshitsin; Ochlik neni yedirmas, to‘qlik neni dedirmas; Arpa bug‘doy osh bo‘lur, oltin-kumush tosh bo‘lur; Qorani yuvsang, oq bo‘lmas; Ot oriqlikda, yigit g‘ariblikda bilinar va boshqalar.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘zbek maqollarini ilmiy asosda o‘rganish vengriyalik olim Herman Vamberi va Rossiyalik olim A.Samaylovichilar tomonidan 19-asrning ikkinchi yarmi 20-asrning boshlarida boshlangan. Ulardan so‘ng rus olimlari N.V.Ostroumov, V.Davayevlar ham bu borada ancha tadqiqotlar olib borishgan. XX asrning 30-yillaridan so‘ng o‘zbek folklorshunosligining shakllanishi va taraqqiy etishi natijasida qator folklorshunos olimlar yetishib chiqdi va xalq og‘zaki ijodi asarlarining barcha janrlari bo‘yicha qator tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Bu borada G‘ozi Olim Yunusov, Hodi Zarif, Mansur Afzalov, Muzayyana Aloviya, Buyuk Karimov, S.Ibraximov, M.Saidov M.Murodov, Z.Husanova, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, A.Musoqulov va boshqa folklorshunos olimlar yetishib chiqdi sohaning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha qator tadqiqotlarni amalga oshirishdi. Jumladan, o‘zbek maqolalariga bag‘ishlangan “Dengizdan qatralar”, “Qonotli so‘zlar”, “Qayroqli so‘zlar”, “O‘zbek xalq maqollari”, “O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati” kabi nomlar bilan bir necha bor nashr qilingan paremalar yuzasidan qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Adabiyotshunoslik va tilshunoslikda quyma fikrni ifodalovchi eng mayda birlik parema deb ataladi. Parema bilan shug‘ullanuvchi soha esa paremiologiya deb yuritilib, u tildagi maqol, matal, hikmatli so‘z va iboralar, frazema, aforizm kabi quyma iboralarni o‘rganadi. Uning o‘rganish ob’yekti ikki ko‘rinishda bo‘ladi.

1. Maqollar og‘izdan-og‘izga, avloddan-avlodga o‘tib kelgan xalq og‘zaki ijodi mahsuli sifatida adabiyotshunoslik fani ob’yekti hisoblanadi. Chunki maqollarning ko‘pchiligi she’riy formada bo‘lib, ularda she’riyatga xos badiiy tasvir vositalari – o‘xshatish, taqqoslash (antiteza), parallelizm, qofiyalash, kinoya, piching kabilar qo‘llangan bo‘ladi.

2. Maqollar so‘zlardan tashkil topib, ma’lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo‘lganligi uchun tilshunoslik fanining ham o‘rganish ob’yektidir, chunki ular so‘zlardan hosil bo‘lishiga ko‘ra oddiy gaplarga o‘xshasa ham, mazmuni, tuzilishi, tarkibi, intonatsiya va boshqa o‘ziga xos xususiyatlari bilan gaplardan biroz farqlanib turadi.

3. O‘zbek tilida paremiologik birliklarni umumlashtirgan holda maqol deb atashadi ammo bu tushunchani ifodalash yigirmadan ko‘p atamalar qo‘llanadi:

maqol, matal, masal, naql, hikmat, tanbeh, zarbul-masal, hikmatli maqol, xalq iborasi, xalq so‘zi, qadimgilar so‘zi, donishmandlar so‘zi, donolar so‘zi, yaxshilar so‘zi, burungilar so‘zi, otalar so‘zi, bobolar naqli, xalq naqli, hikmatli so‘z, hikmatli ibora va boshqalar. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda ular idiomatik ibora, qayroqi ibora, qayroqi so‘zlar, aforizm, ko‘chma ma’noli turg‘un birikma, turg‘un birikmalar, frazeologik birliklar, frazemalar kabi atamalar bilan yuritiladi.

Paremiologik birliklarning yuzaga kelishi uzoq tarixga borib taqaladi va qachon tilga kirib kelganligini aniqlash qiyin. Lekin shu narsa ayonki, ular qadim zamonlarda xalq turmush faoliyati jarayonida yuzaga kelib, shu kunlargacha qo‘llanib kelinmoqda, o‘z ijodkori bo‘lmish xalq bilan birga yashamoqda. Albatta, ayrim maqollar xalqning ma’lum davr bosqichida qo‘llanilib, keyin iste’moldan chiqib ketishi ham bog‘liq bo‘lib, hayotiy voqelikni aks ettirgan maqollar ommalashib, tildan-tilga, davrdan-davrga o‘tib, yashovchan turg‘un paremiologik birliklarga aylanadi. Chunki har bir maqol va matalda xalq hukmi, uning umumiylashgan xulosalari aks etadiki, ular barcha davrlar uchun tegishlidir: Bola – yoshidan, Xotin-boshidan; Odamga-libos, eshakka-to‘qim; Nima eksang, shuni o‘rasan; Yiroqdagi quyruqdan yaqindagi o‘pka yaxshi; Obro‘yni yoshlikda saqla; Til-aql tarozisi; Qor yog‘di-don yog‘di. Yuqoridagi maqollar mazmuniga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ular ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma ma’nodagi hukm ifodalashga xizmat qilmoqda. Paremiologik birliklar ma’lum bir davrning hayotiy xuslosalari natijasi sifatida yuzaga keladi va tildan-tilga o‘tib sayqallashib boradi. Ma’lum bir o‘tkinchi davr uchun xos bo‘lgan ayrim maqol va matallar eskirishi va iste’moldan chiqib ketishi mumkin. Lekin maqol va matallarning ko‘pchiligi davrlar o‘tishi bilan ma’lum qolipga tushib, quyma holatda qo‘llanadigan bo‘ladi, ya’ni tayyor holdagi til birligiga aylanadi. Shu sababli PBlar ham tilning boshqa birliklari singari tildagi ma’lum unsurlari kabi, so‘zlardan tashkil topadi va ma’lum fikr ifodalashga (ko‘chma yoki to‘g‘ri) xizmat qiladi. Demak PBlardan anglashilgan mazmun shu tilda so‘zlashuvchilar uchun tushunarli bo‘ladi. Bu quyma so‘zlar yig‘indisi o‘sha xalq uchun uzoq davrlar xizmat qilishi mumkin. Shunday ekan PBlar nutqda emas tilda tayyor holda mavjud bo‘ladi. Faqat so‘zlar ma’lum bir tushuncha ifodalasa, PBlar umumlashgan (ko‘chma yoki to‘g‘ri ma’noda) fikr ifodalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Berdiyorov X., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. – Toshkent, O‘qituvchi, 1984;

2. Abdurahmonov M. Folklornaya aforistika i slovar. –Toshkent, Fan, 1989;

3. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov D. Nega shunday deymiz (o‘zbek maqollarining izohli lug‘ati), -Toshkent, G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987;

4. Yana shu mualliflar. Hikmatnoma (o‘zbek xalq maqollarining izohli lug‘ati), O‘ME, 1990;

5. O‘zbek xalq maqollari (narshga tayyorlovchilar: T.Mirzaev, A.Musaqulov, B.Sarimsoqov), -Toshkent, Sharq, 2013;

6. Abduraxmonov X. Sintaksicheskie osobennosti uzbekskix narodnыx poslovis. AKD -Toshkent,;

7. Usmonov N. Maqollarda ta’limga oid atamalar. //O‘TA, 1992, 8-son, 35-bet;

8. O‘rinboev B. O‘zbek xalq maqollarida transformatsiyalash. O‘zbek tilshunosligi masalalari. –Samarqand, 2001, 38-42-betlar;

9. Xoliqov A. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ulishi” dostonida maqollarning o‘rni //O‘TA, Toshkent, 2002, 4-son, 76-77-betlar;

10. Jo‘raeva B. Maqol, matal tipidagi paremalar // O‘TA. –Toshkent, 2005, 5-son, 88-bet.

11. Bokirov T. O‘zbek tilida ikki bo‘lakli sodda gap shaklida nominasentrik maqollar // O‘TA, 2004, 4-son, 78-bet;

12. Jo‘raeva B. Maqol v matal tipidagi paremalar // O‘TA, 2005, 5-son, 88-bet.

SODDA VA MURAKKAB PAREMIOLOGIK BIRLIKLAR TASNIFI

Fayzullayeva Dilnoza Narimovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsent (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada sodda va murakkab paremiologik frazeologik birikmalar, milliylik, madaniyat, mentalitet tushunchalari til bilan uzviy bog‘liqligi va ular tilda turli janrlar paremalar tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Xalq, madaniyat, obraz, jamiyat, davr, til, ibora, maqol, tarix, nutq, asar, lug‘at.

Annotation. In this article, simple and complex paremiological phraseological combinations, concepts of nationality, culture, mentality are inextricably linked with language, and they are analyzed in different genres of paremiological language.

Key words: People, culture, image, society, era, language, phrase, proverb, history, speech, work, dictionary.

Sodda paremiologik birliklar tarkiban bir komponentdan tashkil topgan bo‘ladi. Bunday “komponent” deganda qo‘shma gap tarkibidagi nisbiy sodda gaplar nazarda tutiladi va “komponent” atamasi bilan yuritiladi. Shuningdek, har bir komponentni tashkil etgan qismlar [gap bo‘laklari]ga nisbatan, shartli ravishda “element” atamasi qo‘llanadi. Shu nuqtai nazardan yondashadigan bo‘lsak, bir komponentdan tuzilgan paremiologik birliklarning o‘zi ham necha elementdan tuzilganligiga qarab bir necha turlarga bo‘linadi: ikki elementli, uch elementli, to‘rt elementli, besh elementli. Besh va undan ortiq elementlardan tuzilgan sodda paremalar nutqda juda kamdan-kam uchraydi.

Lekin ular ohang jihatdan, albatta, ikki intonatsion markazga ega bo‘lishi shart. Masalan: *“Axmoqniki – og‘izda”.* Paremiologik birlikda ega ham, kesim ham ifodalangan, shunga qaramasdan, har bir paremada ikki element [gap bo‘lagi] bo‘ladi va ular ikki oxang markazga ega bo‘ladi. Bu markazlar nutqda ohang bilan ajralib turadi. Masalan, yuqoridagi maqolni to‘liq shakllantiradigan bo‘lsak,

quyidagi gap shakli hosil bo‘ladi: *“Axmoq odamning aqli og‘zida bo‘ladi”*. Demak, ushbu to‘liq gapning shakllanishida intonatsiya muhim o‘rin tutib, u tushirilgan bo‘laklar o‘rnini to‘ldirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari Paremiologik birliklarda ega yoki kesim sostavi ifodalanmagan taqdirda ham, ohang jihatdan ikki qismga ajralish hodisasi ro‘y beradi: *“Objuvoz - navbati bilan”, “Taom – tuzi bilan, tuz – o‘lchov bilan [yaxshi]”* kabilar. Bu o‘rinda oxang muhim o‘rin tutib, parema tarkibidagi “navbati bilan” [keladi], “tuz bilan”, “o‘lchov bilan” aniqlovchi va to‘ldiruvchi bo‘laklari kesimlilik intonatsiyasi bilan talaffuz etilishi tugallangan fikrni hosil qilmoqda. Shu holatning aksi ham bo‘lishi mumkin. Ya’ni paremada ega sostavi qo‘llanmagan taqdirda ham yuqoridagidek oxang ikki qismga ajralish sodir bo‘ladi. Masalan: *“Do‘st izlama, do‘stingning do‘stini izla”, “Ish yoqmasa osh berma”, “Oltin izlama, hunar izla”, “Bo‘lmaganga bo‘lishma, suymaganga suykalma”* va boshqalar.

Paremiologik birliklar eng kami ikki mantiqiy markazdan tashkil topgan bo‘ladi. Paremaning asosiy mazmunini ifodalovchi so‘zlar bosh bo‘lak vazifasida kelishi ham, kelmasligi ham mumkin. Misollarga e’tibor qaratsak, *“Do‘st – jon ozig‘i”, “Yotgan – yovga yoqar”, “Oltin zanglamas”, “Adashgan aqldan ozar”, “Baraka – birlikda”, “Baxil baxtiyor bo‘lmas”* va boshqalar. Yuqoridagi paremalar ikki sostavdan – ega va kesimdan tashkil topgan. Ikki mantiqiy markazni tashkil qilgan PBlar bir bosh bo‘lakdan, ya’ni faqat kesim sostavidan tashkil topishi ham mumkin, ammo ularda ham ikki mantiqiy markaz borligi sezilib turadi. *“Otingni qamchilab qol”, “Tegirmondan butun chiqar”, “To‘yda to‘ningni qistama”, “To‘g‘riga balo yo‘q”, “Tanimasni siylamas”*. Paremalarning yana shunday bir turi mavjud bo‘ladiki, ularda na ega sostavi, na kesim sostavi ifodalangan bo‘ladi. SHunga qaramasdan ham ikki mantiqiy markaz mavjudligi sezilib turadi. Masalan, “axmoqqa/ to‘qmoq”, “donoga/ ishorat”, “cho‘pga/ libos”, “eshimchaga/ qo‘shimcha”. Bularda ikki markazning shakllanishida intonatsiya muhim rol o‘ynaydi. Sodda paremiologik birliklarning o‘zi tarkibi necha elementdan tashkil topganligiga ko‘ra bir elementli sodda paremalardan olti-etti elementli sodda paremalargacha bo‘linadi.

Doston tilining tahlili unda qo‘llanilgan paremiologik birliklar sodda va murakkabga bo‘linganligini tasdiqlaydi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bir komponentdan tashkil topgan paremalar sodda Paremiologik birliklar deb yuritiladi. Doston tilida qo‘llanilgan sodda Paremiologik birliklarning tarkibida mavjud bo‘lgan elementlarning [bo‘laklarning] miqdoriga qarab quyidagi turlarga ajratdik:

1) uch elementli Paremiologik birliklar: “*Omonatga qilmaysan xiyonat*” [*“Kuntug‘mish”, 185-bet*]

2) to‘rt elementli Paremiologik birliklar: “*Qochgan yovda qoruv yo‘q*” [*“Kuntug‘mish”,* 250]; “*G‘aribning ko‘nglini ovlamoq savob*” [*“Kuntug‘mish”,* 137]

3) besh elementli PBlar: “*Bulbul oshno bo‘lar bog‘ning guliga*” [*Kuntug‘mish”,* 137]; “*Do‘st-dushmanga bu so‘z shoyon bo‘lmasin*”

[*Kuntug‘mish”,* 156]; “*Musofirchilikda yo zar yarar, yo zo‘r yarar*” [*“Kuntug‘mish”,* 139]

Murakkab Paremiologik birliklarning bu turi ikki yoki undan ortiq kmponentlardan tashkil topgan bo‘ladi. O‘zbek tilida iste’molda bo‘lgan Paremiologik birliklarning asosiy qismi ikkitadan to‘rt komponentgacha bo‘ladi. Besh va undan ortiq komponentlardan tuzilgan paremalar tilda juda kam uchraydi. Shunisi xarakterliki, murakkab Paremiologik birliklarning har bir komponenti tuzilishi va semantik tomoniga ko‘ra sodda gaplarga o‘xshaydi. Bu qo‘shma va murakkab qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar xarakteriga juda o‘xshashdir. Shuningdek, murakkab Paremiologik birliklar tarkibidagi komponentlarning har biri ham bir necha elementlar ishtirokida tuziladi. Lekin elementlarning soni ko‘proq: ikki, uch, to‘rttadan iborat bo‘ladi. Beshta va undan ortiq elementlardan tashkil topgani juda kam uchraydi. Murakkab Paremiologik birliklar necha komponentdan tuzilishiga ko‘ra ham olti turga ega bo‘ladi.

Doston tilida qo‘llanilgan murakkab Paremiologik birliklar ikki, uch va to‘rt komponentdan iboratliligi kuzatildi. Dostonda besh, olti va undan ortiq komponentdan iborat paremalar uchramadi. Doston tilida qo‘llanilgan murakkab Paremiologik birliklarni komponentlar miqdoriga qarab quyidagilarga bo‘lish mumkin:

1) ikki komponentdan tuzilgan Paremiologik birliklar: “*Gavharni ne bilsin ushalgan sopol, Zarning qadrin zargar bilar har erda*” [*“Kuntug‘mish”,* 170]; “*Befarzandning ko‘rgan kuni zoyama, Yo‘qchilik jo‘mardning ko‘zin o‘yama?*”[*“Kuntug‘mish”,* 170]; “*Mard o‘g‘longa davlat ikki kelmasdi, Mard o‘lmay haqini dushman emasdi”* [*“Kuntug‘mish”,* 154]; “*Kamlikning kamoli bordir, Manmanning zavoli bordir*” [*“Kuntug‘mish”,* 190]; *“Omonat, sanamjon, odamning joni, Qilichdan seskanmas botirning tani”[“Kuntug‘mish”,* 160]; “Dono edim, soman bo‘ldim, Oltin edim, cho‘yan”[*“Kuntug‘mish”,* 186]; “*O‘limdan qo‘rqmoqlik nomardning ishi, O‘laman, deb mard qaytarmas tilini*” [*“Kuntug‘mish”,* 256];

2) uch komponentdan tuzilgan PBlar: Du*shman bilan bo‘lma biror dam yo‘ldosh, Uyquda qop, sirim bo‘ldi elga fosh, Maydonga mard izlab tanho kirmadim”* [*“Kuntug‘mish”,* 252]; “*Yaxshilarning yuzin ko‘rsang – jannatdir, YOmon odam qilgan ishi – minnatdir, Ot so‘ramoq, zot so‘ramoq sunnatdir”* [*“Kuntug‘mish”,* 219]; “*Po‘lat nayza qor ostida yotarmi, Temir nayzang egovlasang o‘tarmi, Mard o‘g‘lon sevdigin tashlab ketarmi*” [*“Kuntug‘mish”,* 177];

3) to‘rt va undan ortiq komponentlardan tuzilgan Paremiologik birliklar: “*Savdo tushar mard o‘g‘lonning boshiga,* “*Aytmasang, kim biladi, ochmasang, kim ko‘radi*”[*“Kuntug‘mish”,* 187]; “*Haq saqlasa, balo yo‘q, Haq qarg‘asa, davo yo‘q*” [*“Kuntug‘mish”,* 168]; “*O‘zingdan pastlarman har yo‘lga ketma, Bolam, aytgan nasihatim unutma, Oldingdan kim o‘tsa, salomsiz o‘tma, Bir g‘aribni ko‘rsang zinhor og‘irtma*” [*“Kuntug‘mish”,* 240]; “*Savdo tushar mard o‘g‘lonning boshiga, Do‘sti-dushman kelar mardning qoshiga, Gohi tush shaytoniy, gohi*

rahmoniy, Chap chiqar sipoyi bo‘lgan kishiga”[*“Kuntug‘mish”,* 193]; “*Dono edim, somon bo‘ldim, Oltin edim, cho‘yan bo‘ldim*” [*“Kuntug‘mish”,* 170] va boshqalar.

Paremiologik birliklar ma’lum bir davrning hayotiy xulosalari natijasi sifatida yuzaga keladi va tildan-tilga o‘tib sayqallashib boradi. Ma’lum bir o‘tkinchi davr uchun xos bo‘lgan ayrim maqol va matallar eskirishi va iste’moldan chiqib ketishi mumkin. Lekin maqol va matallarning ko‘pchiligi davrlar o‘tishi bilan ma’lum qolipga tushib, quyma holatda qo‘llanadigan bo‘ladi, ya’ni tayyor holdagi til birligiga aylanadi. Shu sababli Paremiologik birliklar ham tilning boshqa birliklari singari tildagi ma’lum unsurlari kabi so‘zlardan tashkil topadi va ma’lum fikr ifodalashga [ko‘chma yoki to‘g‘ri] xizmat qiladi. Misol uchun, “Alpomish” dostonida: “*To‘qson qari bo‘zdan bo‘lgan kissasi, Shundoq qalmoq aylanadi maydonda”* jumlalari mavjud. Ushbu o‘xshatish ancha bo‘rttirishlar orqali amalga oshirilganiga guvoh bo‘lamiz. Milliy qahramonlarning kuch-qudratini bo‘rttirish asnosida aslida, etnik stereotiplar vujudga keladi. C*tereotiplar* –muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan, sxemalashgan, emosional bo‘yoqdor va favqulotda barqaror bo‘lgan obrazi, turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o‘ziga xosligidir. Ular u yoki bu xalqning milliy xarakteri haqida obyektiv ma’lumot beradi. M.Korduelning fikriga ko‘ra, *stereotip* – kishilar haqidagi keskin, ko‘pincha, yuzaki tasavvur. Biz umumiyatda yuzakilikka moyil bo‘lganimiz uchun ham boshqa insonlarning xulq-atvorini oldindan ko‘rish uchun stereotiplarni shakllantiramiz. Yuqoridagi misolda esa Alpomishning birgina qissasi haqidagi tasavvurimiz orqali uning nechog‘lik ulkan ko‘rinishga egaligini bilishimiz uchun badiiy to‘qima zarurat bo‘lgan. V.Xinsning “Musulmanskie merы vesa perevodom mitricheskuyu sistemu” asariga tayanib, *qari* so‘ziga bergan ma’lumoti quyidagicha: *qari* – uzunlik o‘lchovi birligi, o‘tmishda turli erlarda turlicha bo‘lib, XIX asrda Xorazmda bir qari 148 santimetrga, Buxoroda 320 santimetrga, Toshkentda bozor “qari”si 177 santimetrga, xon “qari”si 213 santimetrga, Farg‘onada “quloch qari” yoxud “uzun qari” 164 santimetrga, “kalta qari” 57 santimetrga, O‘rta Osiyoning eng uzun “qari”si 365 santimetrga teng bo‘lgan bo‘lsa, ushbu so‘zning O‘TIL [o‘zbek tilining izohli lug‘ati] dagi ma’nosiga ko‘ra esa unda bu uzunlik o‘lchov birligi, asosan, ip, ipakdan tayyorlangan gazlamalarni, ba’zan esa masofa o‘lchov birligi hisoblanib, hududlarga nisbatan hisobi birmuncha boshqacharoq tarzda keltirilgan, ya’ni Xorazmda 149 sm, Toshkentda 189 smga teng. Umuman olganda, turli xil adabiyotlarda qadimgi o‘lchov birliklari turlicha farazlarga ko‘ra nisbatlab berilgan. Bu esa tadqiqotchilarni *qari* o‘lchov birligi haqidagi fikrini birmuncha chalg‘itadi va ikkilanishlarga sabab bo‘ladi deb o‘ylaymiz.

Paremiologiya tilda turli xarakterdagi qator iboralarni o‘rganadi. Frazeologiya ham paremalar tarkibiga kiradi. Lekin ular o‘rtasida ma’lum farq mavjud. Frazeologiya ko‘chma ma’nodagi turg‘un birikmalarni o‘rganish bilan chegaralanadi. Paremiologiya esa quyma birikmalarni ham to‘g‘ri, ham ko‘chma ma’noda o‘rganishi bilan frazeologiyadan farqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Korduell. Psixologiya A-Ya.Slovar-spravochnik.-Moskva: Fair-press.2000.S.-448.
2. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma'nolar mahzani. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001. –B.63.
3. Berdiyorov H. Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. –Toshkent: O'qituvchi, 1984, 16-bet. Abdiyev M. Soha leksikasining sistem tahlili muammolari: Monografiya. – Toshkent: Xalq merosi, 2004. – 118 b.
4. Abdurahmonov X. O'zbek xalq og'zaki ijodi asarlarining sintaktik xususiyatlari bo'yicha kuzatishlar. –Toshkent: Fan, 1971. – 184 b.
5. Abdurahmonov G'. Atamaologiya muammolari // O'zbek tili atamaologiyasi va uning taraqqiyot perespektivalari. –Toshkent: Fan, 1984.– 160 b.
6. Abdurahimov M. Qisqacha o'zbekcha-ruscha frazeologik lug'at. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. –184 b.

TIL KORPUSIDA SINTAKTIK IZOHLASH NAZARIYALARI

Xidirov Otabek Jo'raboyevich
Jizzah davlat pedagogika universiteti dotsenti (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy korpusni yaratishda sintaktik teglashning o'rni haqida jahon tilshunos olimlarining ilk qarashlari, nazariyalari va sintaktik teglashning usullari hamda ularni hosil qilishda parsing dasturining ahamiyati tahlil markaziga olingan.

Annotation. This article is syntactic in the creation of a national body world – wide linguistic scholars about the role of tagging first glance theories and methods of syntactic labeling and their creation. The significance of the parsing program is centred on the analysis center.

Kalit so'zlar: Korpus, milliy korpus, korpus lingvistikasi, parsing dasturi, sintaktik qurilma, sintaktik aloqa, teglash, morfologik teglash, sintaktik teglash, teglash usullari.

Key words: Corpus syntactic contact, tapping, morphological tapping:Actual touching, touch modes., national corpus,corpus linguistics, parsing tire, syntactic device,

Til korpusida sintaktik razmetka masalalari jahon, xususan, rus tilshunosligida atroflicha tadqiq etilgan. Xususan, M.V.Kopotev, G.B.Gurin [1, 280-284] , J.Lich [2, 275] asarlaridagi nazariy ma'lumotlar o'zbek tili korpusida sintaktik tahlil dasturini ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lishi bilan ahamiyatli. J.Lich tomonidan yaratilgan sintaktik annotatsiyalash prinsipini kuzatish shuni ko'rsatdiki, sintaktik annotatsiyasi mavjud korpusning foydalanuvchilar auditoriyasi keng bo'ladi; bunday korpusning axborot tizimlari bilan aloqa o'rnatish imkoniyati kengroq bo'ladi. Shu bilan birga, mualliflarni markirovkaning izchilligi uchun barcha javobgarlikni zimmasiga yuklamaydigan, lekin mavjud tasniflarga asoslanib, korpusni yaratishga yondashuv tilning tavsiflaridagi

bo‘shliqlarni aniqlashga, tilga bo‘lgan har xil yondoshuvdagi nuqson va qarama-qarshiliklarni aniqlashga imkon beradi. J.Lichning so‘nggi postulatida aynan shu masalaga e’tibor qaratiladi: “There can be no claim that the annotation scheme represents ‘God’s truth’. Rather, the annotated corpus is made available to a research community on a caveat emptor principle. It is offered as a matter of convenience only, on the assumption that many users will find it useful to use a corpus with annotations already built in, rather than to devise and apply their own annotation schemes from scratch (a task which could take them years to accomplish)”[3, 275].

M.V.Kopotev, G.B.Gurinning fikriga ko‘ra, sintaktik razmetkalash haqida gap ketganda, bugungi kunda rus tili korpusini to‘liq razmetkalashda sintaktik tahlil dasturi uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan uchta nazariya mavjud:

1. Tobe-hokimlik munosabati grammatikasi (I.A.Melchuk, I.M.Boguslav skiy, L.L.Iomdin va b.).

2. Tizimli sxema grammatikasi (N.Yu.Shvedova, V.A.Beloshapkova va b.);

3. An’anaviy sintaktik ta’limotlar (A.A.Shaxmatov, V.V.Vinogradov, N.S.Valgina va b.).

Ko‘rinyaptiki, sintaktik tahlil dasturi tuzish prinsiplarini ishlab chiqish dastur uchun nazariy asos vazifasini o‘taydigan nazariyalar farqlanadi; asoslanishi kutilayotgan nazariya tanlab olinadi. Demak, o‘zbek tili korpusi uchun sintaktik razmetka yaratishda ham o‘zbek tili sintaksisiga bo‘lgan yondashuvlarni farqlash talab etiladi.

Bundan tashqari, turli xil nazariyalar doirasida tavsif darajasi har xil bo‘ladi. Tobe-hokimlik grammatikasi sintaktik munosabat turlariga ko‘proq e’tibor qaratadi (masalan, ETAP-3 tizimida, u asosida yaratilgan korpusda nomlangan munosabatlar soni 80 ga yaqin), boshqa tomondan, gap bo‘laklari haqidagi an’anaviy ta’limot tadqiqotchiga sintaktik aloqalarni batafsil tasniflashni taklif qiladi. Shu ma’noda, 1980 yilgi rus grammatikasining sintaksisi eng noaniq bo‘lib tuyuladi [4, 280].

Bundan xulosa qilish mumkinki, noaniq sintaktik nazariya bilan muvaffaqiyatli sintaktik tahlil dasturi hamda razmetka tizimini yaratib bo‘lmaydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, rus olimlari barcha yondashuvlarni bir xil darajada qabul qilishmaydi. “Nazariy jihatdan eng neytral” sintaksis sifatida, shubhasiz, gap bo‘laklari tasnifiga asoslangan an’anaviy grammatika tan olinishi kerak. Rus tili tinish belgilari qoidalari maktab o‘qituvchisi uchun ham, professional tilshunos ham bir xil terminologik tizimga ega. Boshqa tomondan, uzoq vaqt davomida Rossiyaning ko‘plab universitetida asosiy hisoblanib kelgan V.A.Beloshapkova tahriridagi darslikning tarqalishi ko‘p o‘qituvchilarni, asosan, tarkibiy sxemalar sintaksisiga tayanishiga olib keldi. Shu bilan birga, tobe-hokimlik grammatikasi tilshunoslarga nisbatan kam ma’lum, chunki undan, odatda, amaliy muammolarni hal qilishda faol ishlatiladi. Shunday qilib, “nazariy neytrallik postulati”ni qondiradigan, etarlicha mukammal sintaktik nazariyani tanlash eng mas’uliyatli vazifa sanaladi.

Barcha ommalashgan yondashuvlarni muhokama qilgandan so‘ng, **XANKO** yaratuvchilari sintaktik annotatsiyalash uchun ikkita alternativ sintaktik belgilash sxemadan foydalanishga qaror qilishgan: tobe-hokimlik munosabati hamda gap bo‘laklari an’anaviy sintaksisi. Ushbu yondashuvning aniq eklektikasi bilan, ikkita sxemani birlashtirish quyidagi muammolarni hal qiladi:

1) sintaktik tuzilishning ikki tomoni, bog‘lanishni batafsil tavsiflash;

2) rus tili o‘qituvchisi hamda professional tilshunos ehtiyojlarini qondirish;

3) foydalanuvchining muqobil tartib natijalarini mustaqil ravishda yoki birgalikda taqdim etish talabini bajarish.

Ushbu turdagi izohni yaratish bo‘yicha ishlar mantiqan ikki qismga bo‘linadi.

Ma’lumki, an’anaviy yondoshuv asoslari XIX asrda rus tilshunoslari tadqiqotlarida mukammal ishlangan. Rus tili sintaksisining eng to‘liq tavsifini 1960 yillarning akademik grammatikasi deb hisoblash mumkin. Zamonaviy tasniflar hozirgi rus tili universitet darsliklarida biroz o‘zgarish, farq bilan aks ettirilgan [5,170] . Ushbu yondashuvning afzalliklari quyidagilar:

1) umumiylik va soddalik;

2) boshqa sintaktik yondashuvlar asosida (birinchi navbatda, struktur sintaksis), tadqiqot uchun materialni bilvosita izlash imkoniyatining mavjudligi;An’anaviy sintaksisning kamchiliklari quyidagilarda ko‘rinadi:

1) sintaktik tuzilmalar tabiati to‘g‘risidagi zamonaviy g‘oyalar bilan nomuvofiqlik;

2) sintaktik birliklar tavsifi hamda sintaktik aloqani e’tiborsiz qoldirish;

3) tavsifdagi nomuvofiqlik, muqarrar qarama-qarshiliklar (predpozitsion guruhning yo‘qligi, turli bo‘lak ichidagi bo‘lakni aniq ajratib olmaslik);

4) avtomatik ishlov berishning murakkabligi.

Biroq yondashuvning ko‘rsatilgan afzallik va kamchiliklari ish natijasini oqlamaydi; aksincha, ular potensial foydalanuvchining taxminlarini yanada chigallashtiradi.

XANKO (Xelsinskiy annotirovannыy korpus qisqartmasi) yaratuvchilari oddiy foydalanuvchiga tushunarli bo‘lgan razmetka darajasini saqlab qolish uchun umumqabul qilingan nazariyalardan foydalanishni ma’qul ko‘rishgan. Quyida XANKOni ishlab chiqilgan tamoyillarni keltirishni ma’qul ko‘rdik, zero, o‘zbek tili korpusi sintaktik teglar tizimini ishlab chiqishda shu va shunga o‘xshash holatlarda ushbu tamoyillarga tayanish mumkin.

1. Muayyan muammoni hal qilishda XANKO yaratuvchilari doim bu yoki boshqa sintaktik ma’lumot qanchalik muhimligi, ma’lumotlarni qayta ishlashni avtomatlashtirishda qanchalik muhimligiga e’tibor berishgan. Qo‘lda bajariladigan ishlarning kutilgan hajmi va natija qiymati ko‘pincha bir-biriga zid keladi: masalan, determinantni birlik sifatida ajratib ko‘rsatish qo‘lda qilinadigan ishlarning sezilarli darajada ko‘payishiga olib keladi (determinantni qidirishni avtomatlashtirish mumkin emas), ammo bu ishni ketma-ket bajarish qiyin bo‘ladi, chunki konsepsiyaning ko‘lami “determinant”ni turli matnda turlicha aniqlaydi.

2. Interfeysning qulayligini hisobga olish ham diqqat-e’tibordagi masala sanaladi. Sintaktik ma’lumotlar turli xil birlikka, jumladan morfologik ma’lumotni o‘z ichiga olgan matn shakliga, ikki marta belgi qo‘yilgan hollarda kiritiladi.

Rus tili milliy korpusi morfosintaktik razmetka bilan ta’minlangan matnlar to‘plamidan iborat. Demak, har bir so‘zshaklga morfologik izoh biriktirilishi bilan birga so‘z (gap bo‘laklari)ga uning qaysi gap bo‘lakligi ekanligini bildiruvchi izoh (teg) ham yozilgan; ham bir gap uchun uning sintaktik strukturasi ko‘rsatib berilgan. Ushbu korpusning razmetkasi yarimavtomat rejimda ishlaydi. Dastlab, har bir matn ETAP-3 dasturi asosida morfologik va sintaktik tahlildan o‘tadi, olingan natija mutaxassis tomonidan tahrirlanadi. Ushbu korpus razmetkasi shunday aniq ishlanganki, korpus materiali morfologik, sintaktik omonimiyadan xoli. Morfosintaktik razmetka bilan birga, leksik tavsif ham mavjud bo‘lib, ushbu funksiya idiomatik birliklarni izohlash (teglash)da qo‘l keladi, chunki turg‘un birikmalar ham semantik munosabatlar asosida tahlildan o‘tkaziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1 Kopotev M.V., Gurin G.B. Prinsipы sintaksicheskoy razmetki xelsinkskogo annotirovannogo korpusa russkix tekstov XANKO //Trudы mejdunarodnoy konferensii «Dialog 2006» // B.280-284

2 Leech G. Corpus annotation schemes // Literary and Linguistic Computing, 1993, № 8/4. Pp. 275.

3 Leech G. Corpus annotation schemes // Literary and Linguistic Computing, 1993, № 8/4. Pp. 275.

4 Kopotev M.V., Gurin G.B. Prinsipы sintaksicheskoy razmetki xelsinkskogo annotirovannogo korpusa russkix tekstov XANKO //Trudы mejdunarodnoy konferensii «Dialog 2006» // B. 280.

5 Valgina N.S., Sovremennыy russkiy yazыk. Sintaksis. M.: Vыsshaya shkola, 2003.; Kustova G.I., Mishina K.I., Fedoseev V.A. Sintaksis sovremennogo russkogo yazыka. M., 2005.

ВОЗМОЖНОСТИ УЧЕБНОГО ПЕРЕВОДА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ СОЧЕТАНИЙ

Расулова Матлуба Хамзаевна
Доцент Кокандского государственного педагогического института

Аннотация. В статье рассматриваются возможности учебного перевода в результате сопоставительного изучения наречных фразеологизмов (НФЕ) русского и узбекского языков со значением «пространство».

Ключевые слова: фразеологическая семантика, разносистемные языки, коммуникативная лингвистика, фразео-семантическая группа, макросема

Annotatsiya: Maqolada rus va o‘zbek tillaridagi “bo‘shliq” ma’nosiga ega bo‘lgan qo‘shimchali frazeologik birliklarni (APU) qiyosiy o‘rganish natijasida o‘quv tarjimasi imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: frazeologik semantika, ko‘p tizimli tillar, kommunikativ tilshunoslik, frazeologik-semantik guruh, makrosema.

Конечной целью обучения языку в школе является практическое овладение им. Достижение этой цели находится в прямой зависимости от использования эффективных методов, приемов и средств обучения. Одним из таких приемов является учебный перевод.

Переводы, по мнению большинства ученых, способствуют осознанному, а значит прочному усвоению языкового материала, активизируют мыслительную деятельность учащихся. Роль учебного перевода в формировании механизма переключения с одного языка на другой, в выработке дифференцированной установки неоднократно отмечалось в работах многих ученых [1].

Поскольку русский и узбекский языки относятся к разным языковым семьям, и между их структурами существует несоответствие, то при определении лингвистических основ использования учебного перевода в преподавании русского языка в узбекской школе необходим учет данных сопоставительного анализа систем обоих языков. Наиболее эффективно использовать при изучении фразеологизмов эквивалентный перевод, основанный на их семантическом анализе.

В данной статье рассмотрим возможности учебного перевода в результате сопоставительного изучения наречных фразеологизмов (НФЕ) русского и узбекского языков со значением «пространство» [2].

Семный состав НФЕ с архисемой «пространство» русского и узбекского языков имеет следующий вид:

1. **ФЕ с макросемой «протяженность в пространстве».**

1) НФЕ с интегральной семой «месторасположенность» выражают различное месторасположение предметов (в широком значении) по отношению к субъекту действия с точки зрения их близкого или отдаленного нахождения [3]. Следовательно, все ФЕ с указанным значением в зависимости от выражаемой или семантики можно разделить на две части, находящиеся в состоянии противопоставленности друг другу.

а) НФЕ с семой вещественного значения «близко» указывают на то, что какое-либо действие, или предмет находится или совершается на незначительном расстоянии от субъекта: *под самым носом, рукой подать, в двух шагах, один шаг; кўз ўнгида, яқин ўртада, қўл чўзса еткудек, икки қадамда и* т.п. В семантической структуре подобного рода ФЕ содержится сема «близко».

Кроме этого, в русском языке имеются еще целый ряд единиц, указывающих на близкое месторасположение: *бок обок, двор о двор, нос* с *носом, плечом к плечу* и т.п. Как можно заключить из приведенных примеров, они указывают на очень близкое расположение двух живых существ (обычно людей). Более точной смыслоразличительной семой для подобного рода ФЕ будет – «рядом».

б) НФЕ с семой вещественного значения «далеко» указывают на то, что действие или предмет соответственно протекает или находится на значительном расстоянии, на большом удалении от объекта действия: *за три девять земель, у черта на куличках, не ближний свет, куда Макар телят не гонял; дунёнинг бир четида, инсон оёғи босмаган жойда, бир чақиримдан* и т.п.

2) НФЕ с интегральной семой «местопребывание» связаны с обозначением месторасположения того или иного предмета, лица.

а) НФЕ с семой вещественного значения «повсюду» употребляются для выражения различного местопребывания, т.е. они указывают на то, что какой-либо предмет (в широком значении) находится повсеместно, везде и всюду на обширной территории: *из конца в конец, по белу свету, насколько хватает глаз, сплошь и рядом; хар қадамда, одим жойда, гир айлана* и т.п.

б) С противоположным вышерассмотренным единицам значением в исследуемой подгруппе выступают НФЕ с семой вещественного значения «нигде»: *очиқ мозорда, ҳеч жаҳонда, етти иқлимда, икки оламда* и т.п.

2. **НФЕ с макросемой «направленность в пространстве».**

а) В основном, единицы с подобной семантикой указывают на различную направленность действия или движения: *вдоль и поперек, кто куда, на все четыре стороны, вокруг до около; боши оққан томонга, ўй бурчакдан бу бурчакка* и т.п. Семой вещественного значения для указанного типа единиц является – «в различных направлениях».

б) НФЕ с семой вещественного значения «ни в одном из направлений»: *ни взад ни вперед* и *на у ёққа на бу ёққа.* Эти единицы указывают на то, что какое-либо действие невозможно ни в одном из возможных направлений.

Таким образом, в обоих исследуемых языках имеются НФЕ, связанные с обозначением пространственных отношений. Однако, следует отметить, что представленность русских ФЕ с архисемой «пространство» гораздо больше, чем узбекских.

Учёт вышеприведенных семантических соответствий НФЕ русского и узбекского языков со значением «пространство» при учебном переводе может быть эффективным средством обогащения словарного запаса учащихся и нейтрализации негативного влияния интерференции узбекского и русского языков.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Алексеева И.С. Основы теории перевода. – М.: Наука, 1998. – 256 с.

2. Цветков Н.В. К методологии компонентного анализа // Вопросы языкознания. – 1984. – № 2.

3. Семергей Р.А. Лексические показатели времени в современном русском языке: Автореф. дис. …канд. филол. наук. – Л.,1983. – С. 12.

К ВОПРОСУ ЧАСТЕРЕЧНОЙ СООТНЕСЁННОСТИ НАРЕЧНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Расулов Илхом Инамович
Кокандский государственный педагогический институт

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы изоморфизма плана выражения НФЕ по отношению к плану их содержания, то есть устанавливается степень соответствия внешней грамматической формы наречного фразеологизма и его смысловой структуры, вытекающей из содержания всей ФЕ в целом.

Ключевые слова: наречные фразеологические единицы, план выражения, план содержания, степень изоморфизма, фразеолого-грамматический класс, эксплицитное выражение, имплицитное выражение

Необходимость изучения наречных фразеологических единиц (НФЕ) русского и узбекского языков в сопоставительном плане диктуется тем, что ФЕ, являясь, стилистически ярко окрашенными, вызывают огромные трудности при переводе как с русского языка на узбекский, так и обратно. Пути наиболее верного перевода вскрываются путем сопоставления, выявления их сходных и отличительных сторон. Кроме этого, в условиях билингвизма, возрастают требования и к методике преподавания русского языка как иностранного. Эффективность изучения русского языка в сопоставлении с родным языком не вызывает сомнения.

ФЕ, являясь номинативными единицами языка, в своей грамматической структуре содержат несколько полнозначных слов. По определению Ш.У.Рахматуллаева, фразеологизмы в своем составе должны иметь, как минимум, две лексемы, относящиеся к знаменательным частям речи [1]. При этом следует иметь в виду тот факт, что общее, целостное значение ФЕ не вытекает из простого сложения значений составляющих ее компонентов. Содержание ФЕ создается на базе переосмысления семантики составляющих ее компонентов, в результате чего образуется новое цельное фразеологическое значение, которое как бы накладывается на первичный образ, смысл его лексем. При отнесении ФЕ в соответствующий ей фразеолого-грамматический класс мы в первую очередь основываемся именно на этом значении, вернее, на категориальной семе, заключенной в семантической структуре данного фразеологизма. Категориальная сема является как бы отправной точкой при категориальном разграничении ФЕ как русского, так и узбекского языков.

С другой стороны, при определении принадлежности ФЕ к соответствующему фразеолого-грамматическому классу существенную роль играет ее внешняя грамматическая форма и в значительной степени грамматическое значение ее опорного компонента. Под последним мы понимаем такое слово в структуре ФЕ, которое исполняет функцию грамматического центра данной единицы. Оно, господствуя над остальными компонентами ФЕ, задает им определенные грамматические формы.

Следовательно, грамматически опорный компонент (ГОК) заключает в себе грамматические функции всей ФЕ в целом. Поэтому устанавливать степень изоморфизма категориального значения НФЕ мы будем, опираясь, как правило, на ГОК. При этом следует учитывать, во-первых, к какой части речи относится слово, выступающее в роли ГОК, его парадигматику. Во-вторых, само значение ГОК, выражаемое им при свободном употреблении (*разливанное море, чертова пропасть; бир чимдим, дарёдан бир томчи* и т.п.).

Определение ГОК для обоих языков решается по-разному: в узбекском языке он устанавливается проще, чем в русском (за исключением ФЕ, построенных по типу предложений). Основную грамматическую нагрузку в узбекских ФЕ несет в себе их последний компонент. Постпозитивность ГОК в узбекских НФЕ связана с особенностями строя самого языка.

В кругу ФЕ русского языка ГОК, в виду его незакреплённости в определенной позиции, у различных единиц определяется неодинаково. Легче он устанавливается у ФЕ, генетически восходящих к словосочетаниям с подчинительной связью, несколько труднее с сочинительной. Причиной этого является равнозначность связующих элементов последних. Но, с другой стороны, каждый элемент (слово) у такого рода ФЕ потенциально ГОК. Помимо указанных типов НФЕ, во фразеологии принято выделять единицы со структурой предложения. Критерием для этого служит чисто формальный признак, а именно: наличие в их составе компонентов, находящихся между собой в отношении подлежащего и сказуемого. Стало быть, в подобного рода НФЕ сосуществуют как бы два грамматических центра, затрудняя тем самым определение ГОК. В них в качестве ГОК мы отмечаем глагол или его функциональную форму, выступающую в роли сказуемого, потому что он занимает более сильную позицию.

Как показал собранный нами фактический материал, НФЕ обладают различной степенью изоморфизма плана выражения и плана содержания: от полного совпадения грамматической формы и значения ФЕ до абсолютной непредсказуемости ее категориального значения из составляющих лексем. Так, среди единиц, включенных в данный фразеолого-грамматический класс, имеются такие, при определении принадлежности которых к НФЕ, мы основываемся только на целостной семантике, обозначаемой ею. В подобного рода НФЕ ни их внешняя грамматическая форма, ни лексико-грамматическое значение ГОК не совпадают со значением ФЕ в целом (*кот наплакал, счёту нет, раз-два и обчелся: бошидан ошиб ётмоқ, бармоқ билан санарли, саноғи йўқ* и т.п.). И, наоборот, существуют такие НФЕ, у которых внешняя грамматическая форма и часть речи лексема, выступающей в роли ГОК, уже сами по себе сигнализируют о принадлежности ФЕ к разряду наречных (*вверх дном, вдоль и поперек, вверх тормашками; бугун эмас эрта, элдан бурун, ҳаддан зиёда* и т.п.). В первом случае мы имеем дело с НФЕ, значение которых выражено имплицитно, а во втором - эксплицитно.

Однако в системах обоих рассматриваемых языков основную часть НФЕ составляют такие единицы, категориальное значение которых выражено и эксплицитно, и имплицитно. В потенции возможность предсказания принадлежности таких единиц к НФЕ на основе ГОК заложена во многих из них. Показателями наречности в таких НФЕ, служат склонность их внешней грамматической формы, выражать функцию обстоятельства (наречные и деепричастные аффиксы, наречные союзы, падежные окончания, предлоги, повторность конструкции), а также само лексическое значение (ГОК). Если степень изоморфизма НФЕ, категориальное значение которых выражено эксплицитно, условно принять равной 1 (единице), а степень изоморфизма НФЕ, категориальное значение которых выражено имплицитно, равной 0 (нулю), то основная часть НФЕ расположится между этими двумя типами ФЕ с различной степенью изоморфизма, образуя целый ряд звеньев.

Необходимо обратить внимание на следующее положение предлагаемой классификации. Подведение того или иного структурного типа под конкретный уровень изоморфизма до некоторой степени условно, ибо переход одного звена в другой происходит незаметно, что объясняется отсутствием четких критериев установления границ у отдельных из них. Как считает В.Г.Гак, языковые факты «…формируют некоторый континиум - цепь постепенных переходов; крайние звенья этой цепи четко различаются между собой, но они связаны зоной постепенных переходов, где невозможно провести раз и навсегда разграничительные линии» [2].

Действительно, непрерывность свойственна и структурным типам НФЕ русского и узбекского языков в исследуемом в настоящей статье плане. Так, лишь НФЕ с эксплицитно и имплицитно выраженными значениями явным образом отличаются друг от друга, остальные же звенья составляют промежуточные явления, которые связывают их. Между последними, однако, очень трудно проводить в отдельных случаях точную границу. Например, НФЕ компаративной конструкции русского и узбекского языков отнесены нами под рубрику со степенью изоморфизма 0,6-0,7. Критерием их наречности служит внешняя грамматическая форма, точнее аффикс –**дай //-дек** и союз **как**. Но роль обстоятельства для них не абсолютна, в отдельных случаях они реализуются и с другими значениями (*как сажа бела; ўрта қўлдай* т.п.). Поэтому предсказуемость их несколько ниже, чем у ФЕ с деепричастными и наречными аффиксами. Далее мы подробно остановимся на структурном типе НФЕ с высокой степенью изоморфизма

Данная группа представлена единицами, степень изоморфизма категориального значения которых равняется 1,0. НФЕ такого рода в зависимости от их структурно-грамматического состава мы подразделяем на две микрогруппы, имеющие едва заметные различия в степени выражаемого ими изоморфизма.

I) НФЕ, наречность которых легко предсказывается ее грамматической структурой. ФЕ подобного рода состоят из сочетания двух полнозначных

слов, относящихся к лексико-грамматическому разряду наречий. Следовательно, здесь категориальное значение НФЕ мотивировано, во-первых, категориальным значением лексем; во-вторых, внешней грамматической формой; в-третьих, значением лексемы при ее свободном употреблении. Компоненты включенных в данную микрогруппу единиц могут быть построены на основе сочинительной или подчинительной связи; *вкось и впрямь; сплошь и рядом, так и сяк, денно и нощно, невесть как, почём зря; бугун эмас эртага, бирда эмас бирда, боятдан бери, наридан бери, азалдан абад* и т.п. (28; 7 ед.). Как видно из примеров, включенные в данную микро группу единицы состоят из двух лексем, относящихся к классу наречий, поэтому тип их связи не играет существенной роли при отнесении таких ФЕ в разряд наречных.

2) НФЕ, категориальные значения которых достаточно ясно, как и в предыдущем типе единиц, предсказывается ее внешней грамматической формой. Однако здесь степень изоморфизм устанавливается лишь на основе ГОК. Этот компонент выражается лексемой, относящейся к наречиям. Наличие ГОК и его установление в таких НФЕ связано с характером связи между ее членами. Во всех единицах, введенных в данную микрогруппу, наблюдается зависимость одного компонента от другого. Ведущую роль при этом, играет ГОК, а все остальные ее члены находятся в полном подчинении от него, предопределяя тем самым парадигму всей ФЕ в целом. Кроме этого, и падежная форма существительного, сочетающегося с ним, может косвенно указывать на наречность данной единицы.

А) НФЕ, зависимый компонент которых выражен существительным в творительном падеже, а в узбекском - исходном: *вверх дном, вверх ногами, вверх тормашками, с горем пополам; кўздан нари, жинидан баттар, бирдан олдин бирдан кейин* и т.п. (6; 7 ед.). Степень изоморфизма таких единиц будет несколько выше остальных, так как творительный и исходный падежные аффиксы являются как бы дополнительным формальным показателем наречности подобных ФЕ из-за большей склонности к выражению функции обстоятельства;

Б) НФЕ, зависимый компонент которых выражен существительными в различных падежных формах: *выше головы, паче чаяния, наобум лазаря, сбоку припёку, чуть свет, проще пареной репы; куни кеча, бир сидирға, ажалидан беш кун бурун* и т.п.. (13; 12 ед.).

Таким образом, НФЕ, категориальное значение которых выражено эксплицитно, в русском языке насчитывается 47 единиц, а в узбекском - 26. Не все единицы, включенные в данную группу, обладают абсолютно одинаковой степенью изоморфизма. Одни НФЕ состоят только из наречных лексем и проявляют поэтому высокую степень изоморфизма, а у других единиц категориальное значение устанавливается лишь на основе ГОК, в качестве которого выступает наречие, вследствие чего изоморфизм у них выражается несколько слабее. Следует отметить, что в русском языке

преобладает первый тип НФЕ (28; 19 ед.), а в узбекском, наоборот, больше единиц второго типа (7; 19 ед,).

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Рахматуллаев Ш.У. Узбек тилининг изохли фразеологик лугати. - Тошкент: Укитувчи, 1978, - С.4.
2. Гак В.Г. О причинах различных теоретических истолкований языковых фактов // Иностранные языки в школе.-1986,- № 2.-С.10
3. Rasulov Ilxom Inamovich. Some Questions Of A Comparative Study Of Participles Of The Russian And Uzbek Languages. School Psychology 2022, Vol. 6, No. 8, 1760-1764 http://journalppw.com, p.1760-1764
4. Rasulov Ilxom Inamovich. PHRASEOLOGY OF THE RUSSIAN LANGUAGE IN THE UZBEK SCHOOL// ANNALS OF FOREST RESEARCH https://www.e-afr.org/ Ann. For. Res. 65(1): 864-869, 2022. DOI: 10.5281/zenodo.7262746. p. 864-869

KIYIM-KECHAK NOMLARINI BILDIRUVCHI LINGVOMADANIY BIRLIKLAR

Fayzullayeva Dilnoza Narimovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti (PhD)

Annotasiya. Ushbu maqolada xalq dostonlar tiliga xoslangan kiyim-kechak nomlarini bildiruvchi lingvomadaniy birliklarning leksik semantik xususiyatlari, ularning turlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: mif, afsona, urf-odat, an’ana, udum, taomil, madaniyat millat, etnos.

Lingvokulturologiya maxsus fan sohasi sifatida zamonaviy tilshunoslikda bir qancha sermahsul tushunchalarni keltirib chiqardi: Muayyan jamiyatda shakllangan til taraqqiy etishda davom etadi. Bu jarayonda o‘z yaratuvchisi bo‘lgan xalqning o‘ziga xos barcha milliy xususiyatlarini aks ettirib boradi. Natijada, tillar bir-biridan nafaqat tuzilishiga ko‘ra, balki milliy-ijtimoiy jihatdan ham farqlanadi. Bu farqlar esa til birliklarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Muayyan til vakili ayni damda muayyan madaniyat vakili hamdir. Har qanday madaniyat tilda o‘z ifodasiga ega bo‘ladi va ular frazeologizmlarda ham o‘z ifodasini topmay iloji yo‘q. Bugungi kunda lingvokulturologiya ushbu masalalarni chuqur o‘rganuvchi, milliy tilda va til jarayonlarida namoyon bo‘ladigan moddiy va ma’naviy madaniyatni o‘rganuvchi ijtimoiy soha hisoblanadi. Shuning uchun, u madaniyatning yaratilishi, rivojlanishi, saqlanishi va namoyon bo‘lishi kabi tushunchalarini o‘zida qamrab oladi.

Lingvokulturologiya – madaniyatning mif, afsona, urf-odat, an’ana, udum, taomil, ramzlarini o‘rganuvchi soha. Bu konseptlar madaniyat ko‘rinishlari bo‘lib, ular tilda maishiy taomil muomilasi shaklida mustahkamlanib boraveradi. V.N.Teliyaning fikriga ko‘ra, lingvokulturologiya, avvalo, jonli kommunikativ jarayonlarni va ularda qo‘llaniladigan til ifodalarining sinxron harakatidagi xalq

mentaliteti bilan aloqasini tadqiq qiladi. Lingvokulturologiya tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga keldi va ushbu termin (lot. **lingua** “til”, **cultus** “hurmat qilish, ta’zim qilish”; yunon. “ilm, fan”) V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan izlanishlar bilan bog‘liq ravishda paydo bo‘lgan.

Lingvokulturologiyani tavsiflar ekan, N.F.Alefirenko bu soha haqida quyidagi izohlarni keltiradi:

–lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, u sintezlovchi xususiyatga ega;

–lingvokulturologiyaning asosiy e’tibori tilda izohlanadigan madaniy dalillarga qaratiladi;

–lingvokulturologiya tilshunoslik fanlari tarkibiga kiradi, shuning uchun uning tadqiqot natijalaridan ona tili va chet tillarini o‘qitish jarayonida amaliy foydalanish mumkin;

–lingvokulturologiya tadqiqotlarining asosiy yo‘nalishlari: a) lisoniy shaxs; b) til madaniy qadriyatlarining semiotik gavdalantirish tizimi hisoblanadi. Tilshunos bu farazlarning barchasini madaniy qadriyatlar omilini belgilovchi tizim deb bilib, misollar orqali dalillaydi.

Lingvokulturologiyaning asoschilaridan biri V.A.Maslova esa sohaning rivojlanishini uch davrga ajratadi: 1. Fanning shakllanishiga asos bo‘lgan dastlabki tadqiqodlarning yaratilishi; 2. Lingvokulturologiyaning alohida tadqiqot sohasi sifatida shakllanishi; 3. Lingvokulturologiyaning fundamental, mustaqil fan sifatida vujudga kelishi.

XXI asrning boshlariga kelib lingvokulturologiya jahon tilshunosligidagi etakchi yo‘nalishdan biriga aylanib ulgurdi. Lingvomadaniyatshunoslik ob’ekti sanalgan frazeologizm ikki va undan ortiq so‘zlarning o‘zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan barqaror birikmalardir va ular o‘z ichiga iboralar, maqol-matallar, hikmatli so‘zlarni qamrab oladi.

Ma’lumki, insoniyat turmush tarzi taraqqiyoti kiyim-kechak bilan chambarchas bog‘liq holda yuzaga kelgan. Aynan kiyim insonni hayvondan ajratuvchi muhim tashqi alomatlardan biri hisoblanadi. An’anaviy milliy kiyimlarning shakllanishiga nazar tashlar ekanmiz, asrlar mobaynida uning qator muhim funksiyalari tarkib topganini ko‘rishimiz mumkin. Xalq madaniyati ma’lum bir millatga yoki ma’lum bir hududda yashovchi barcha elatlarga xos voqelikdir.

O‘zbek xalqi kiyinish madaniyati nuqtai nazaridan ham dunyodagi halqlarning oldingi saflarida turadi. Bir necha ming yillar ilgari ota-bobolarimiz egniga yaktak, oyoqqa kovush-maxsi, etik, boshga shabpo‘sh, do‘ppi, telpak, ustga chopon, to‘n kiyib, belga belbog‘, qars bog‘lashgan.

Ildizlari juda qadim davrlarga borib taqaladigan ko‘p qirrali o‘zbek eposi xalqimiz ma’naviy madaniyati taraqqiyotida faxrli o‘rin tutadi. Xalq bilan bog‘liq bo‘lgan, ya’ni xalq hayoti, uning turmush intilishlari, u bilan bog‘liq bo‘lgan narsa va hodisalar, ularning o‘ziga xos tili, so‘zlashuv uslubi tasvirlangan asarlar xalq

oʻrtasida uzoq yashaydi. Bunday asarlar tili obrazli boy materiallarga egadir. “Umuminsoniy madaniyat – deb yozadi S.A.Arutyunov, – inson zoti uchun, umuman, erning tabiiy planetar sharoitiga hamda ushbu planetar muhitni oʻzlashtirishning kengayishidan kelib chiqadigan ijtimoiy oqibatlarga moslashish vositasi sifatida keladi”. Umuminsoniy madaniyat yoki madaniyatdagi umuminsoniylik erda, tabiiy planetar sharoitda inson uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, uning ushbu muhitga moslashishini ta’minlash vositasidir. Bu fikr Inson va er munosabatlarini ifoda etadi, inson tomonidan yaratilgan boylik, orttirilgan tajriba, tarixiy an’analar umumplanetar xarakteridagi voqeliklardir. Bu xarakter bilan umuminsoniy madaniyat milliy madaniyatdan farq qiladi. Milliy madaniyat ayrim millatga, etnosga taaluqli ijtimoiy-tarixiy voqelik hisoblanadi. Ular oʻrtasidagi farqlar nisbiydir. Dialektik bogʻliqlik va hamkorlik ular mavjudligining rivojlanib borishi sharti hisoblanadi. Mana shunday boyliklarimizdan biri xalq dostonlari va ularning tilidir. Biz ushbu boʻlimda “Xoldorxon” va “Alpomish” dostonlarida qoʻllanilgan kiyim-kechak nomlari, ularning doston tilidagi koʻrinishlarini tahlilga tortishni lozim topdik. Ularni quyidagicha tartiblash mumkin:

1. Kiyim-kechaklarning umumiy nomlari.
2. Bosh kiyim nomlari.
3. Yozgi va qishki kiyim nomlari.
4. Oyoq kiyim nomlari.
5. Kiyimlarning qismlari nomlari.
6. Taqinchoqlar nomlari.
7. Jangda kiyiladigan maxsus kiyimlar nomlari.

1. Kiyim-kechaklarning umumiy nomlari.

Biz oʻrganayotgan doston tilida kiyim-kechaklar xilma-xil umumiy nomlar bilan atalganligini koʻramiz. Fikrimizning dalili sifatida doston tilidan olingan quyidagi misollarga e’tibor qaratsak:

Libos: ... ikki pari erkak libosini kiydi, qirq yigitning xotinlariga ham erkak libosini kiygizdi. *Libos* – arabcha kiyim, ust-bosh ma’nosida kelgan. Hozirgi oʻzbek tilida ham qoʻllanadi. Shunisi e’tiborliki, *libos* soʻzi mazkur doston tilida kiyim-kechak ma’nosida emas, balki uy-roʻzgʻor buyumlarining umumiy nomi sifatida ham qoʻllanilgan. Masalan: Qrim mamlakati necha ming mehmonxonalarni libos bilan aro berdi (36-bet). *Libos* soʻzining doston tilida ikki xil ma’noda qoʻllanishi shoirning soʻz boyligi va soʻz qoʻllash mahoratining yuqoriligidan dalolat beradi.

Sarpo: Goʻroʻgʻlibek katta sarpolar kiydirib, haftadan soʻng “xush kelding” deb joʻnatdi. Lugʻatlarda *sarpo* (f-t) – toʻy va boshqa rasmiy marosimlarda ma’lum tegishli kishilarga taqdim etiladigan bosh-oyoq kiyim yoki toʻn, doʻppi, qiyiqcha (belbogʻcha). Bundan tashqari, doston tilida yana *toza sarpoy, qimmatbaho sarpo* kabi birikmali holatlar ham koʻp uchraydi. Shuningdek, *sarpo, ola sarpo, toza sarpo, qimmatbaho sarpo* birikmalarining qoʻllanishi dostonning badiiyligini,

emosionalligini oshiradi va qaytariqqa yo‘l qo‘ymaydi. Bu esa shoir tili boyligining isbotidir.

Kiyim: –Mingan otin o‘ynatib, qizil kiyim jaynatib, ko‘rganlarning yuragin, Ahmad Sardor qaynatib (50-bet).

Kiyim – badanni va tana a’zolarini yopish uchun kiyiladigan, asosan mato va teridan tayyorlanadigan narsalarning umumiy nomi. Lekin ushbu dostonda “kiyim” so‘zi boshqa vazifani bajaruvchi atama ma’nosida ham qo‘llanilganini ko‘ramiz. Masalan: –Go‘ro‘g‘libek kelgan mehmonlarni yaxshi chodirlarga tushirib pokiza kiyimlarning ustiga o‘tqazdi (331-bet). Bu jumlada “kiyim” so‘zi *to‘shanchi, to‘shaladigan narsa* o‘rnida qo‘llanmoqda. Doston tilida qo‘llanilgan kiyim-kechak nomlari deyarli hozirgi o‘zbek adabiy tilidan keskin farq qilmaydi.

2. Bosh kiyim nomlari

Biz o‘rganayotgan dostonlar tilida bosh kiyim nomlari xarakterli o‘rinni egallaydi. Xarakterli tomoni shundaki, ularning aksariyat qismi hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilmaydi. Chunki ular eskirgan yoki ayrim shevalargagina xosdir. Doston tilidan olingan misollarga e’tibor qaratsak.

Lachak: –Agar men shundan Qrimga bormasam, xotinning lachagi bo‘lsin boshima (33-bet).

Lachak – keksa xotinlar boshiga o‘raydigan oq doka, yoki surpdan tayyorlangan bosh o‘rovi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanilmaydi, eskirgan so‘z, ayrim qishloq shevalaridagina uchraydi. Badiiy adabiyotlarda qahramon yoki personajlar nutqini yaratishda qo‘llaniladi.

Ushbu so‘z mumtoz adabiyot tilida faol qo‘llangan: Tun uzra oydinu oydinda subx erkinmu, vayo sochingda burunchak uza lachakmu ekin? (A.Navoiy “Xazoyinul-maoniy” (1b.475-bet).

Jig‘a (f-t). Bosh kiyimga taqiladigan, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan ziynat buyumi (asosan, qiz to‘yida kuyovning, xatna to‘yida esa to‘ybolaning bosh kiyimiga taqiladi. Hozirgi kunda iste’moldan chiqib ketgan, shevalarda ham uchramaydi: –O‘n ming botir qoshida, tilla **jig‘a** boshida (49-bet)

Toj: Shohlarning hukmronlik ramzi bo‘lgan, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan, ziynatli bosh kiyim, fors-tojik tilidan olingan, hozirda shevalarda va adabiy tilda uchramaydi. Faqat tarixiy asarlarda, manbalarda uchraydi: Jahon mulkida mustaqil podshoh, anga topshirub shohlar toju quloh. (A.Navoiy “Saddi Iskandariy”, 255-bet).

3. Yozgi va qishki kiyim nomlari.

“Xoldorxon” dostoni tilida bosh kiyimning umumiy nomlanishi bilan bir qatorda yozgi va qishki kiyim nomlari ham o‘z ifodasini topgan. Ular quyidagilardan iborat:

Silovsin to‘n: ... yurtin yig‘dirib, ochni to‘ydirib, qirq yigitga silovsin to‘n kiydirib Go‘ro‘g‘libek o‘tdi (5-bet). Silovsin – mushuksimonlar oilasiga mansub, tumshug‘i uzun, ko‘zi juda o‘tkir yirtqich hayovon, kam uchraydi, terisi qimmatbaho, silovsin to‘n – to‘nga shu hayvonning terisi, mo‘ynasi qo‘yib tikiladi. Mazkur dostonda to‘nning boshqacha turlari ham tilga olinadi:

Kirovkadan sovut to‘n,
kumush bo‘lar tarlon qushning chegasi,
kirovkadan sovut to‘nning yoqasi (107-bet).

Kirovka – ko‘pincha sovut ostidan kiyiladigan, qattiq narsadan yoki metaldan ishlanga nimcha. Eskirgan, shevalarda ham, so‘zlashuv nutqida ham uchramaydigan, dostonlar tiliga xos tarixiy so‘z.

Kark teri: Ostida o‘ynaydi G‘irko‘kday hayvon.
Egnida kark teri, belida isfihon (30-bet).

Ushbu misolda kark teri (f-t.) birikmasi karkidonning terisidan ishlangan, tayyorlangan jangovor kiyim turi ma’nosini ifodalagan, etimologik jihatdan eskirgan, sheva va dialektlarga ham xos emas..

To‘n – oldi ochiq, uzun milliy kiyim, **chopon** – ustki, uzun o‘zbek milliy kiyimi. Xalq dostonlari tilida qariyb ikkalasi ham bir xil tushunchada qo‘llanilgan. Bu holat hozirgi so‘zlashuv nutqida ham shu nom va ma’nolarda qo‘llanilmoqda. “*To‘n*” so‘zi turkiy tillarda nihoyatda keng tarqalgan kiyim nomi bo‘lib, ushbu so‘zning turli xil kiyim nomlarini anglatgani uning xomashyoga ko‘ra nomlanganini V.V.Radlov taxmin qilgan va *to‘n* so‘zining dastlab “teri” ma’nosini anglatganini tahlillarga tortgan. Shu o‘rinda ushbu so‘zni lingvokulturologik tahlil qilib ko‘rsak. O‘zbek madaniyatida *chopon* (to‘n) kiyim ustidan kiyiladigan, ichiga paxta solib qavilgan uzun milliy kiyim[O‘TIL.V.507] bo‘lib, alohida qiymatga ega. Chunki o‘zbeklarning ko‘pgina urf-odat va marosimlarida, xususan, o‘g‘il chaqaloqqa bag‘ishlab o‘tqaziladigan beshik to‘yi marosimida, ko‘pincha xonadonning katta yoshli vakillari tomonidan chaqaloqqa zarbof choponcha kiydirib qo‘yiladi. To‘y marosimlarida kelinning xonadoni tomonidan yuboriladigan sarpolarda to‘n yuboriladi. Motam marosimlarida azali xonadonning erkak a’zolari ***chopon*** (to‘n) kiyadilar. Bundan shu narsa aniq bo‘ladiki, o‘zbek madaniyatida ***chopon*** (to‘n) inson tug‘ilganidan so‘ng hayotining barcha onlarida unga hamrohlik qiladi. O‘zbeklarda ***chopon*** (to‘n)ning yozda issiqdan asrashi va qishda sovuqdan himoyalashdagi eng qulay ustki kiyim ekanligi ham madaniyatda bu kiyimning o‘rnini qat’iylashtiradi.

Ayollar uchun tikilgan chopon ham o‘zbek madaniyatida o‘z o‘rniga ega. Odatda ayollar choponi o‘zbek milliy matolari – *atlas* (bir tomoni yaltiroq, guldor, mahalliy ipak gazlama), *adras* matolaridan tikiladi. Navro‘z bayramlarida, to‘y-marosimlarda kiyilishi bilan birga, hozirgi kunga kelib, kundalik kiyimga ham aylanib ulgurgan. Milliylik xalq madaniyatining negizini tashkil etadi. Milliylikni o‘ziga jo etmagan xalqning madaniyati rivojlanmaydi.

Yuqoridagi fikrlardan ham ko‘rinib turibdiki, xalqimiz dostonlar tilida yozgi va qishki kiyim nomlaridan o‘rinli foydalana olgan. Eskirgan, ammo eski o‘zbek tili uchun xarakterli so‘zlar mohirona tanlab ishlatilgan.

4. Oyoq kiyim nomlari.

Doston tilida oyoq kiyim nomlari nisbatan kamchilikni tashkil qiladi. Lekin bu dostonning badiiyligiga ta’sir qilmaydi. Leksikasi boy emas degan fikrni keltirib

chiqarmaydi, balki bu so‘z mulkidan ehtiyojga qarab foydalanishdir. Doston tilida faqat bitta *choriq* so‘zi qo‘llanilgan.

Choriq –... belini mahkam bo‘g‘ib, choriqlarining ipini mahkam-mahkam tortib, chaqqon bo‘lib, o‘zini juda chog‘lay berdi (247-bet). *Choriq* – qattiq xom teridan tikilgan, asosan, tog‘lik tuman xalqlarida rasm bo‘lgan oyoq kiyim. Hozirgi o‘zbek tilida uchramaydi, eskirgan so‘z.

5. Kiyimlarning qismlari nomlari.

Doston tilida kiyimlarning nomlanishi bilan bir qatorda kiyimlar qismining nomlari ham mavjud. Demak, Ergash shoir xalq hayotini, turmush tarzini sinchiklab kuzatgan, kuzatishlar, izlanishlar samarasi esa el nazariga tushgan doston tilida o‘z ifodasini topgan.

Yoqa – Afzar zangi, o‘ynab-o‘ynab Kulbarning, Uzatilib yoqasidan umlodi (151-bet).

Yoqa hozirgi tilimizda “kiyimning bo‘yin o‘rni uchun ochilgan qismi va unga biriktirib tikilgan mato” tushunchasida kelmoqda. Adabiy til normasida ham shunday ma’noda qo‘llanadi. Keng iste’molda.

6. Taqinchoq nomlari.

Dostonda taqinchoq nomlari ham mavjud bo‘lib, ular doston tili leksikasida katta ahamiyatga egadir. Masalan: –Munavni nega yubording. Munchoq taqqan mushtiparni (148-bet).

Munchoq – shisha va toshdan yasaladigan, asosan ziynat uchun ipga tuzib, bo‘yniga taqiladigan dumaloq yoki boshqa shakldagi ayollar zaynati. Doston tilida *munchoq* so‘zi voqelikni to‘laroq yoritish uchun, ya’ni jang maydoniga chiqqan odamning kuchsizligi va raqibiga teng emasligini ifodalash uchun keltiriladi.

7. Jangda kiyiladigan kiyim-kechak nomlari

Doston tilida jang paytida kiyiladigan kiyim-kechak nomlari ko‘p uchramaydi.

Sovut – tanani nayza, o‘q zarbidan saqlash uchun kiyiladigan, po‘lat simdan to‘qilgan kiyim (hozirda deb ataladi). –Po‘lat sovutlar ustida, Ot chopib baland pastida (38-bet). Dostonni o‘qish jarayonida *oq sovut, po‘lat sovut, tilla sovut* kabi ko‘rinishlari ham mavjudligining guvohi bo‘ldik. *Sovut* so‘zi hozirda eskirgan so‘z hisoblanadi, jumladan shevalarda ham uchramaydi. Faqat tarixiy asarlarda saqlanib qolgan. Yana bir misol: –Turkman elning og‘asi, Sovut to‘nning yoqasi (41-bet). *Sovut to‘n* ham xuddi yuqorida aytganimizdek, o‘zini himoya qilish uchun po‘lat simdan to‘qilgan, jang maydoni uchun mo‘ljallangan kiyim.

Turkiy xalqlar xalq og‘zaki ijodi, jumladan o‘zbek xalq dostonlarida jangovor otlarning buyumlariga bag‘ishlangan epizodlar ko‘p uchraydi. Masalan, otlarni egarlash holati alohida ko‘rsatiladi. “Otlarni egarlash ko‘p o‘zbek dostonlarida tipik epizod kabi, u eposning ichiga kirib, unda har bir oqinning usul va badiiy mahoratini ko‘ramiz” –deb yozadi X.Zarifov.

Dostonlar tahlilida quyidagi atamalarni uchratdik:

“Alpomish” dostonidan olingan quyidagi parchaga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, unda ot va uning abzallariga oid o‘ndan ortiq madaniy birliklarning

qo‘llanganligini ko‘ramiz. Bunday holatlarni faqat “Alpomish” dostonida emas, balki “Xoldorxon”, “Ravshan”, “Kuntug‘mish” va boshqa dostonlarda ham uchratish mumkin:

Bismillo deb soldi otning ustiga,
Kimxobi mayindan bo‘lgan *terlikni.*
Shul zamonda soldi otning ustiga
Zarligu zarbobdan bo‘lgan *chirgini*,
Chirgini ustidan soldi *jahaldiriqni.*
Bismillo deb soldi otning ustiga,
Tillo karsan, qoshi oltin *egarni*,
Ikkovi ham tillodandir *uzangi*,
Yarqillatib ikki yoqqa tushirdi.

Oshxo‘r qilib olib keldim tog‘amdi, –Bu so‘zni eshitib Sultonxon dumog‘i chog‘ bo‘lib otlanib, Huroyimga qarab, murtini burab uzangiga oyog‘ini tirab bir so‘z deb turgan ekan. (36-bet).

Milliy frazeologizmlar ma’lum bir millatning madaniyati, urf-odatlari, o‘ziga xos udumlari kabi xislatlarni yorituvchi va xalqlar hayotini, dunyoqarash va turmush tarzini, etik va estetik normalarini ifodalovchi xalq frazeologizmlari orasidagi milliy qatlamdir. A.Nasirov bu qatlamga mansub materialning milliy o‘ziga xosligini quyidagi jihatlarda yorqinroq namoyon bo‘lishini eslatadi: a)bevosita shu xalqlarning ijtimoiy-siyosiy va maishiy hayotini aks ettirishda; b) o‘rganilayotgan xalqlarga xos xarakter xislatlarning ishonarli ifodalanishida; v) millatga oid toponimika, flora va faunaning ishtirok etishida; g) millatga xos urf-odat hamda marosimlarning mavjudligida; d) shu xalqlarning adabiy-badiiy tilida. G.Zimanas “Millat hayotidagi o‘ziga xos holatlarni milliy holatlardan farqlash lozim”, deydi. “Milliy holat tushunchasi – kengroq, u millatning butun hayotini, uning barcha tomonlarini, o‘ziga xos holatlar esa ushbu millatga mos bo‘lgan (yoki asosan mos bo‘lgan) xususiyatlarni aks ettiradi. Masalan, milliy madaniyat tushunchasi u yoki bu millat madaniyatidagi barcha holatlarni, o‘ziga xoslik esa – boshqa millatlar madaniyatida bo‘lmagan yoki deyarli bo‘lmagan jihatlarni qamrab oladi”.

Bu mulohazaga qo‘shilgan yana bir tadqiqotchi olim V.Z.Panfilovning tillarning tipologik tasnifi va har bir tilning o‘ziga xos belgilarini aniqlash to‘g‘risidagi mulohazasi aynan to‘liq tegishli: “...u yoki bu tilning o‘ziga xos jihatlari yoki barcha tillar uchun umumiy bo‘lgan va faqat ayrim tillar guruhlariga oid bo‘lgan belgilar keng tipologik taqqoslashlar o‘tkazilishi negizidagina ma’lum bo‘ladi. Bundan tashqari, u yoki bu muayyan tilning o‘ziga xos jihatlarini aniqlash tipologik tadqiqotlarning boshlang‘ich emas, yakuniy bosqichi bo‘lishi kerakligi va u yoki bu tilning ma’lum turga tegishli ekanligini faqat bu muayyan til uchun o‘ziga xos bo‘lgan belgilarga ko‘ra aniqlanishi mumkin emasligi tushunarlidir”, degan fikri haqiqatga yaqindir.

Kiyimlar milliylik ramzi hisoblanadi. O‘zbek xalqi azaldan har bir libosga mentalitet belgisi sifatida qarashgan. Kiyim rangi, tuzilishi, tikilish shakli,

mavsumiyligi, kundalik yoki bayramlar uchun tanlangani, unga o‘rnatilgan bezaklar, tasma yoki naqshlarning barchasi libos egasi haqida ma’lumot bergan. Xalqimiz an’anaviy kiyimlari va ular bilan bog‘liq tarzda o‘tkaziladigan urf-odatlarda islomgacha bo‘lgan diniy-e’tiqodiy qarashlar, jumladan, fetishizm, animizm, magiya, totemizm kabi e’tiqodiy qarashlar keyinchalik islomiy an’analar bilan uyg‘unlashgan holda saqlanib qolganiga guvoh bo‘lamiz. O‘tmishdagi ijtimoiy tengsizlik, haq-huquqsizlik hukm surgan zamonlarda bevosita moddiy boyliklar yaratgan mehnatkashlar o‘z mehnatlari samarasidan bahramand bo‘la olmaganlarki, bu holatlar dostonlarda ham o‘z aksini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Teliya V.N. Russkaya frazeologiya:semanticheskie, pragmaticheskie i lingvokulturologicheskie aspekti. –Moskva: Shkola “Yaziki russkoy kulturi”, 1996. –S.286.
2. Alefirenko N.F. Lingvokulturologiya. Sennostno-smislovoe prostranstvo yazika. Uchebnoe posobie. –Moskva: Flinta.Nauka, 2010. –S.21.
3. Maslova V.A. Lingvokulturologiya.Uchebnoe posobie dlya studentov visshix uchebnix zavedeniy. –Moskva: Izd.Sentr «Akademiya», 2001. –S.208.
4. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Sharq, 2002. –B.103.
5. Jumaeva Z.Sh.Frazeologik birliklarning semantik va lingvokulturologik tadqiqi.Filol.fan.falsafa dok.(PhD)dis...avtoref. Jizzax.2021.-B.12.
6. Arutyunov.S.A.Narodi i kulturi: razvitie vzaimodeystvie . –Moskva: Nauka, 1989. –S.133.
7. O‘zbek tilinig izohli lug‘ati. –Toshkent, 2007, 2-3-jild. 453-bet

ANTROPOMORF LINGVOMADANIY KODLAR
(o‘zbek tili barqaror birliklari misolida)

Muqimova Zohida Rasulovna,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti
va folklori instituti xodimi (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tili barqaror birliklarida tayanch vazifa bajaruvchi, muayyan maqsadda qo‘llanilgan shaxs otlari va shaxs nomlari antropomorf lingvomadaniy kod sifatida o‘rganildi.

Abstract: Personal nouns and personal names used for a specific purpose, which perform basic functions in the stable units of the Uzbek language, were studied as an anthropomorphic linguistic and cultural code.

Kalit so‘zlar: shaxs oti, shaxs nomi, antroponim, onomastik birlik, barqaror birlik, lingvomadaniy kod, antropomorf lingvomadaniy kod.

Key words: personal noun, personal name, anthroponym, onomastic unit, stable unit, linguistic and cultural code, anthropomorphic linguistic and cultural cod.

Barqaror birliklarning obrazliligini ta’minlovchi, tayanch vazifa bajaruvchi vositalardan biri antropomorf lingvomadaniy kodlardir. “Muayyan madaniy

axborotning verbal usulda kodlashtirilishida milliy-madaniy jihatdan odam yoki unga tegishli harakat-xususiyatlarni anglatuvchi so‘z (yoki so‘zlar, so‘z birikmasi) tayanch komponent bo‘lgan lisoniy (nutqiy) birlik” antropomorf lingvomadaniy kod deyiladi” [2, 2024:11]. D.Xudoyberganovaning “Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da antropomorf lingvomadaniy kodga misol sifatida “*Shum k a m p i r, shumaloq kampir, ikki beti yumaloq kampir* (Tandir); *Eshik orqasida beli bog‘liq q u l yotar* (Supurgi); *Bahor qir-adirlarga s e p i n i y o y d i* birliklar berilgan” [2,2024:12].

Turli belgilar alohida fan sohalarida hamda kundalik turmushda keng qo‘llanadi. Inson o‘z olamini belgilar bilan to‘ldirib borishining sababi axborotni ixcham qobiqda yetkazish, tejamlilikka intilishida deb hisoblash mumkin. Axborotni hajman kichik bo‘lgan shartli birliklar – kodlar bilan ifodalashi uning hayot kechirishida va kommunikatsiyaga kirishuviga universal vosita bo‘la oladi. Antropomorf kod ham faol kod sanaladi. Insonlarga xos holat-xususiyatlar antropomorf lingvomadaniy kodlarda ham aks etadi. Antropomorf lingvomadaniy kodlar barqaror birliklardan topishmoqlarda ko‘p kuzatildi. Masalan: *Bir ko‘zli kampir, ko‘ylakka gul tikar* (*Igna*); *Uzun-uzun iz keldi, Uzun bo‘yli qiz keldi* (*Yo‘l*); *Katta xotin uy poylaydi, Kichkina xotin yo‘qlovga ketadi* (*Qulf, kalit*); *Novcha yigit tom teshar* (*Yomg‘ir*) topishmoqlarida *bir ko‘zli kampir, uzun bo‘yli qiz, katta xotin, kichkina xotin, novcha yigit* so‘z birikmalari antropomorf lingvomadaniy kodlardir. Yuqorida aytilganidek, topishmoqlarda jumboqlangan predmetni ifodalayotgan metaforik obraz yoki o‘xshatish o‘zining sifatlovchisi bilan keladi. Bu topishmoq javobini topishga yanada yordam beradi. Keltirilgan *Katta xotin uy poylaydi, Kichkina xotin yo‘qlovga ketadi* (*Qulf, kalit*) misolida qulf katta xotin, uning kaliti kichkina xotin obrazlari bilan tavsiflangan. *Katta xotin* antropomorf lingvomadaniy kodi qulfning kalitdan katta bo‘lishiga, *kichkina xotin* antropomorf lingvomadaniy kodi esa, aksincha, ya’ni kalitning qulfdan kichik bo‘lishiga ishora qilgan.

Uzun-uzun iz keldi, Uzun bo‘yli qiz keldi (*Yo‘l*) misolida *iz, qiz* so‘zlari kuchli ohang bilan aytilib qofiyadoshlikni hosil qilgan hamda topishmoqda asosiy metaforik yuk tashuvchi bo‘lak sanaladi. Bunda asosiy tayanch vazifani bajarayotgan lingvomadaniy kod *uzun bo‘yli qiz* metaforasidir.Topishmoqdagi yoyiq metafora, ya’ni *uzun bo‘yli* sifatlovchisi yashiringan javobni to‘laroq oydinlashtirgan.

Bir ko‘zli kampir, ko‘ylakka gul tikar (*Igna*) topishmog‘ida jumboqlanayotgan predmet – ignaning qiyosi – *bir ko‘zli kampir* antropomorf lingvomadaniy kodidir. *Kampir* so‘zining sifatlovchisi bo‘lgan *bir ko‘zli* birikmasi igna teshigiga ishora qilgan.

Eshik orqasida beli bog‘liq qul yotar (*Supurgi*); *Sochi yoziq quv kampir, Beli bog‘liq shum kampir* (*Surupgi*) topishmoqlarida supurgi beli bog‘liq qulga; sochi yoziq quv kampir, beli bog‘liq shum kampirga o‘xshatilgan. *Qirq hujrada qizlar* yotar (*Anor*) topishmog‘ida *anor* – tasavvur predmeti, *qirq hujradagi qizil qizlar*

esa metaforik tagma’no asosidagi noreal hodisadir. Mazkur topishmoqlarda jonsiz predmetlar jonli, ya’ni shaxsni ataydigan so‘zlar orqali ifodalangan.

Yer ostida oy yurar, Oq soqolli boy yurar (*Omoch*); *Chorva ichida shayton, Soqoli uzun sulton* (*Echki*); *Kelin oyim ichkarida, soch popugi tashqarida* (*Sabzi*); *Onalari tokchadan tushsa, Bolalari yugurib keladi* (*Choynak, piyola*); *Bolalari qarsak chaladi, Onalari o‘yinga tushadi* (*Terak, barglari*); *Bir ko‘zli kampir ko‘ylakka gul tikar* (*Igna*); *Ikki og‘a-ini bir-biriga ko‘rinmaydi* (*Ko‘z*); *Pakana kampir loy tepar* (*Chakich*); *Momom ketib borayotir, Kulchasi qolib borayotir* (*Tuya oyog‘ining izi*); *Uzun tor ko‘cha, Ichi to‘la lo‘libachcha* (*Chumoli uyasi*) topishmoqlarida qo‘llangan *oq soqolli boy*; *soqoli uzun sulton; bir ko‘zli kampir; ikki og‘a-ini; pakana kampir; kelin; onalari, bolalari; momom; lo‘libachcha* lingvomadaniy kodlari shaxs otlari bo‘lib, ular jumboqlanayotgan narsa odam ba unga xos belgilar vositasida yaratilgan.

Onalari tokchadan tushsa, Bolalari yugurib keladi (*Choynak, piyola*); *Bolalari qarsak chaladi, Onalari o‘yinga tushadi* (*Terak, barglari*) topishmoqlarida tayanch vazifani bir umumiy tushuncha, ya’ni shaxsni bildirgan *ona* va *bola* antropomorf lingvomadaniy kodlari bajargan bo‘lsa-da, biroq ular jumboqlanayotgan turli narsani ifodalagan. *Onalari tokchadan tushsa, Bolalari yugurib keladi* (*Choynak, piyola*) topishmog‘ida *ona* antropomorf lingvomadaniy kodi choynakni, *bola* antropomorf lingvomadaniy kodi piyolani anglatsa, *Bolalari qarsak chaladi, Onalari o‘yinga tushadi* (*Terak, barglari*) topishmog‘ida *ona* antropomorf lingvomadaniy kodi terak daraxtini, *bola* antropomorf lingvomadaniy kodi terakning yaprog‘ini ifodalaydi. Ushbu topishmoqlarning javobi *ona, bola* antropomorf lingvomadaniy kodlarning harakati, holatida ko‘rinadi va shu bilan farqlanadi.

Ayrim barqaror birliklarda shaxsni bildiruvchi so‘z tushirilib qoldirilgan bo‘lsa-da, uni otlashgan so‘z ifodalab keladi. *Ikki botir qilichlashar* (*Qaychi*) topishmog‘ida *ikki botir* birikmasi otlashib kelib, ikki botir kishi ma’nosini anglatadi. *Ikki botir qilichlashar* birligida qaychining ikki tig‘i *ikki botir* (kishi) antropomorf lingvomadaniy kodi bilan ifodalangan. *Botir* so‘zining aniqlovchisi *ikki* so‘zi qaychining ikki tig‘iga ishora qilgan. *Ikki og‘a-inini bir ustunga bog‘ladim* (*Tarozi*) yoki *Ikki singil, Og‘ir-yengil* (*Tarozi*) topishmoqlarida ham aniqlovchi bo‘lgan *ikki* so‘zi jumboqlanayotgan tarozini topishda ko‘makchi bo‘lgan. Ya’ni *og‘a-ini, singil* antropomorf lingvomadaniy kodlarining aniqlovchisi *ikki* so‘zi tarozining ikki pallasini o‘zida ifodalagan. *Bir yaproqda o‘ttiz kelin soch taraydi* (*Oy, 30 kun*) topishmog‘ida *kelin* antropomorf lingvomadaniy kodi *o‘ttiz* soni bilan birikmali qo‘llangan hamda bu son o‘zi sifatlab kelgan *kelin* aniqlanmishining miqdorini bildirgan.Ya’ni bunda *yaproq* biomorf lingvomadaniy kodi oyni, *o‘ttiz kelin* antropomorf lingvomadaniy kodi oy kunlarini ifodalagan. *Ikki opamning bo‘yi teng* (*Eshik*) topishmog‘ida (yashirin tarzda) eshik onaga, eshikning ikki tabaqasi onaning bo‘yi teng bo‘lgan ikki qiziga o‘xshatilgan. *Ikki opa* birligi jumboqlanayotgan eshik (ikki tabaqali)ni o‘zida ifodalagan. Ikki opaning bo‘ylarining tengligi eshiq tabaqalarining baravar

bo‘lishiga ishora qilgan. Mazkur topishmoqlar misolida aytmoqchimizki, lingvomadaniy kodlar aniqlovchisi bo‘lib kelgan bo‘lak aslida jumboqlanayotgan predmetning asosiy xususiyatlaridan birini anglatadi: *o‘ttiz* (*kelin*) – oyning o‘ttiz kuni, *bir ko‘zli* (*kampir*) – igna teshigi, *ikki* (*botir*) – qaychining ikki tig‘i va h.k.

Ma’lumki, atoqli otlar aniq, real, yakka otlar – shaxs yoki joylarni ataydi. Tilda ular ko‘chma ma’no hosil qila olmaydi. Atoqli otning ko‘chma ma’no hosil qilishi, ya’ni onomastik metafora topishmoqlarga ham xosdir (Ayrim maqollarda ham kuzatiladi:*Gap desang, qop-qop, Ish desang, Ashtarxondan top; Aql – Hasan, odob – Husan*). Topishmoqlarda qo‘llangan onomastik birliklar grammatik ifodasiga ko‘ra atoqli ot hisoblanishiga qaramasdan, mazmunan turdosh otdir. Bunday munosabat faqat antroponimlarda emas, boshqa onomastik birliklarda ham kuzatiladi. Jumladan, toponimlarda ham. Masalan, *Og‘zim ochdim, uchdi-ketdi, Samarqand-u Buxor borib yetdi* (*So‘z, gap*); *Hindistondan kelgan lo‘k, Bo‘yni ola, ko‘zi ko‘k* (*Laylak*) kabi.

Fotma – Zuhra urishadi,
Merosini bo‘lishadi (*Qaychi*);

Sariboy akam ichkari, soqollari tashqari (*Sabzi*); *Esonboy akamning kissasini El yig‘ilib tikolmas* (*Yer yorig‘i*) topishmoqlarida shaxs nomlari – atoqli otlar tayanch qism bo‘lib, muayyan vazifani bajargan. Ma’lumki, onomastik birliklar tilning lug‘at tizimida o‘ziga xos xususiyat va mavqega ega. “Nomlardan poetik maqsadlarda foydalanish mumtoz adabiyotimizda an’anaga aylangan. Bu jarayon bugungi kunda ham davom etib, adabiyotimiz tarixida qo‘llangan bog‘i Eram, jomi Jam, Iskandar, Ka’ba, Layli, Majnun, Masih, Odam Ato, Farhod, Shirin, Hotam kabi nomlar zamonaviy adabiy asarlarda ham qo‘llanilib kelmoqda. Umumun, o‘zbek badiiy adabiyotida qo‘llangan nomlar butun bir silsilani tashkil etadi. Ularning shakllanish tarixi, lingvopoetik xususiyatlari, o‘zbek lingvomadaniyatida tutgan o‘rni kabi masalalar tilshunosligimizda maxsus tadqiqotni taqozo etuvchi dolzarb masalalardan biridir” [3, 2016:36].

“Nomlar o‘tmish ajdodlarimiz bizga meros qilib qoldirgan lisoniy, tarixiy, madaniy, ma’naviy bebaho boylikdir. Bu boylik o‘zbek tilida ko‘p asrlar davomida asta-sekinlik bilan tarkib topib, shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Nomlar jamlanmasini asrash, uni yangi birliklar bilan to‘ldirib borish, ilmiy asosda o‘rganish dolzarb masalalardan biridir. Nomlarning milliyligini, tabiiyligini saqlash, ularning milliy til qonuniyatlariga mosligini belgilash davr talabidir” [1, 2020:5].

O‘zbek tili barqaror birliklarida qo‘llangan, muayyan vazifa bajarib, muhim vosita bo‘la olgan onomastik birlik hisoblanuvchi antroponimlarning ham o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ularni tadqiq qilish onomastikaninig rivoji va takomiliga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi shubhasiz.

Barqaror birliklar tarkibida onomastik birliklar, jumladan, antroponimlar shunchaki qo‘llanmagan, muayyan maqsad uchun xizmat qilgan. Mazkur misollardagi *Fotima-Zuhra*, *Sariboy*, *Esanboy* so‘zlari shaxs nomini bildirsa-da, ular mazmunan turdosh otdir. *Fotima-Zuhra* antropomorf lingvomadaniy kodi –

qaychi va uning ikki tig‘i, *Sariboy aka* antropomorf lingvomadaniy kodi – sariq rangli predmet, ya’ni sabzi, *Esonboy* antropomorf lingvomadaniy kodi *yer* turdosh otlariga ko‘chim bo‘lgan. Shu o‘rinda aytish o‘rinliki, topishmoqlar tarkibida shaxs nomini bildiruvchi lingvomadaniy kodlarga qaraganda shaxs otini bildiruvchi lingvomadaniy kodlar ko‘p kuzatildi. Bunga ko‘plab misol keltirishimiz mumkin.

Maqollarda ham antropomorf kodlar juda faol qo‘llangan. Quyidagi misollar buning isbotidir. *O‘roqchining ming urgani, Boltachining bir urgani*; *Har kim boricha **polvon** kabi* maqollarda, *O‘g‘il **bola** gap* **(**eng to‘g‘ri gap, haqiqiy gap)ga o‘xshash iboralarda ham atropomorf kod qo‘llanib, tayanch vaifani bajargan. *Ishni Eshmat qiladi, Toshmat lof uradi* maqoli *Aravani ot tortar, ko‘lankasini it tortar* maqolining variantidir. *Aravani ot tortar, ko‘lankasini it tortar* maqoli “Ma’nolar maxzani”ida “Ot aravani tortib kelsa ham, hansiramaydi (ya’ni ish qilganini bildirmaydi), uning yonida yo orqasida bekordan bekorga chopib kelgan it hansiraydi (ya’ni o‘zini go‘yo hamma ishni bajarib kelganday qilib ko‘rsatadi), deb izohlangan. Ma’lumki, xalqimiz ushbu maqolni quruq maqtanchoqlarga nisbatan qo‘llaydi. Ushbu maqolda *arava* lingvomadaniy kodi mehnat-zahmat, *ot* lingvomadaniy kodi uni bajaruvchi mehnatkash odam, *ko‘lanka* lingvomadaniy kodi mehnatdan kelgan rohat, *it* lingvomadaniy kodi rohatni tatuvchi kishi ramzidir. Mazkur maqolning variantlari bo‘lgan – *Ishni qiladi asbob, egasi uradi lof* maqolida *ish* lingvomadaniy kodi aravani, *asbob* lingvomadaniy kodi otni, *egasi* lingvomadaniy kodi it (maqtanchoq)ni, *Qurol ishlaydi-yu, qo‘l maqtanadi* maqolida esa *asbob* so‘zining sinonimi *qurol* lingvomadaniy kodi otni, *qo‘l* lingvomadaniy kodi it (maqtanchoq)ni o‘zida ifodalab kelyapti. Maqolning *Ishni Eshmat qiladi, Toshmat lof uradi* variantida esa to‘g‘ridan to‘g‘ri *arava* so‘zining o‘rnida u anglatadigan *ish* so‘zining o‘zi qo‘llangan, *Eshmat* mehnatni qiluvchi, *Toshmat* mehnatning rohatini ko‘ruvchi kishi sifatida tushuniladi. Anglashiladiki, xalqimizda *arava* lingvomadaniy kodi mehnat, *ot* lingvomadaniy kodi mehnat qiluvchi, *ko‘lanka* lingvomadaniy kodi rohat, *it* lingvomadaniy kodi pastkash, tuban, qopag‘on kishi sifatida turg‘unlashgan madaniy kodlardir.

*Birovning yurtida **bek** bo‘lguncha, O‘zingning yurtingda it bo‘l* maqolida *bek* antropomorf lingvomadaniy kodi podshoh, rahbar, boshliq kishi, *it* zoomorf lingvomadaniy kodi esa gado, tilanchi kishi ramzidir.

Ma’lumki, it, odatda, ostonada turadi. It ostonada yashasa-da, o‘z egasi uyida erkin, ozod. *It* zoomorf lingvomadaniy kodi vositasida shunga ishora qilingan. *Kishi yurtida **shoh** bo‘lguncha, O‘z yurtingda **gado** bo‘l*; *O‘zga **yurtning boshi** bo‘lgancha, O‘z yurtingning **toshi** bo‘l*; *O‘zga yurtning **qozisi** bo‘lgandan, O‘z yurtingning **tozisi** bo‘l* maqollari ham mazkur maqolning variantdoshidir. Mazkur maqollardagi *shoh, bosh, qozi* antropomorf lingvomadaniy kodlari *Birovning yurtida **bek** bo‘lguncha, O‘zingning yurtingda **it** bo‘l* maqolidagi *bek* antropomorf lingvomadaniy kodi ifodasiga, *gado, tosh, tozi* lingvomadaniy kodlari esa ushbu maqoldagi *it* zoomorf lingvomadaniy kodi ifodasiga tengdir. *Bek, shoh, bosh, qozi* antropomorf lingvomadaniy kodlari *it, gado, tosh, tozi* lingvomadaniy kodlariga zidlantirilib, bular vositasida maqsad to‘la-to‘kis bayon qilingan.

Xullas, topishmoqlar, maqollar voqelikdagi narsa-hodisalarni qiyosan anglash, his etish, o‘rganishga keng imkon yaratadi, mantiqiy tafakkur taraqqiyoti uchun eng qulay va muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Barqaror birliklarda shaxs otlari va shaxs nomlari lingvomadaniy kod sifatida voqelanib, antropomorfizmni yuzaga keltiradi – voqelikdagi predmetlar jonlanib, odam qiyofasiga kiradi. Buni yuqorida tahlil qilingan topishmoqlardagi *kampir*, *momo*, *qiz*, *xotin*, *ona*, *singil*, *kelin, lo‘libachcha*, *opa*, *o‘rtoq*, *qul*, *boy*, *sulton, shoh*, *ota*, *o‘g‘il*, *gado, qozi*, *bek kabi shaxs otlari*; *Hasan-Husan*, *Fotima-Zuhra*, *Eshmat, Toshmat, Sariboy akam*, *Esonboy akam* kabi shaxs nomlari misolida ko‘rdik.

Barqaror birliklar, ayniqsa, topishmoqlarda voqelangan antropomorf kodlar lingvomadaniy hamjamiyat a’zolarining, birinchidan, o‘zi va o‘ziga xos belgilar vositasida olamning lisoniy manzarasini yaratishga intilishi natijasi bo‘lsa, ikkinchidan, til sohiblarining obrazli tafakkuri hosilasi hamdir. Lingvomadaniy kodlar vositasida olam tasvirini yaratish insonning borliqni oddiy kuzatuvchi ko‘zi bilan emas, ijodkor shaxs nigohi bilan his qilishi mahsulidir. Bu kabi barqaror birliklar xalqimizning kreativ tafakkuri, tuyg‘un aql-idroki, mukammal estetik qarashlarining lisoniy shakldagi ifodasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Муқимова З. Ўткир Ҳошимов асарларидаги поэтонимларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: “QAQNUS MEDIA” нашриёти, 2020. – 68 б.

2. Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: “Bookmanu print” nashriyoti, 2024. – 112 b.

3. Худойберганова Д. Ўзбек тили поэтонимларининг изоҳли луғатини тузиш хусусида. Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент. 2016. – №2. – Б. 36-39.

BIZNES DISKURSDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING AKTUALLASHUVI

Qodirova Mukaddas Tog‘ayevna
Termiz davlat universiteti dotsenti (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada biznes diskursda frazeologik birliklarning aktuallashuvi, ularning muloqotdagi roli va ahamiyati tahlil qilinadi. Frazeologik birliklar murakkab tushunchalarni soddalashtirish, tushunishni tezlashtirish, emotsional ta’sir o‘tkazish va professionalizmni ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Natijada, ular zamonaviy biznes muhitida muvaffaqiyatli kommunikatsiyaning muhim komponenti hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *biznes diskurs, frazeologik birliklar, madaniy kontekst, emotsional tushunish, professionalizm*.

Abstract. This article analyzes the relevance of phraseological units in business discourse, their role and significance in communication. Phraseological units are used to simplify complex concepts, accelerate understanding, exert emotional influence, and demonstrate professionalism. As a result, they are an important component of successful communication in the modern business environment.

Keywords: *business discourse, phraseological units, cultural context, emotional understanding, professionalism*.

XXI asrda globallashuv jarayonlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur’atlarda rivojlanishi biznes sohasida kommunikatsiyaning yangi shakllarini shakllantirdi. Natijada, turli madaniyatlararo muloqotda o‘ziga xos bo‘lgan til birliklari, xususan, frazeologik birliklar o‘z mavqeini tobora mustahkamlamoqda. Biznes diskursi faqat rasmiy hujjatlar, moliyaviy hisobotlar yoki iqtisodiy tahlillar bilan chegaralanmaydi; unda turli xil kommunikativ uslublar va ifoda vositalari hamda tilning boyligi o‘z aksini topadi. Frazeologik birliklar esa ushbu jarayonda o‘ta muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Frazeologik birliklar inson tafakkuri va madaniyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular ma’lum bir xalqning tajriba va bilimlarini o‘zida aks ettiradi [1: 169]. Biznes diskursda ularning ishlatilishi esa faqat lingvistik emas, balki aksiologik va pragmatik jihatdan ham dolzarb ahamiyatga ega. Bu turdagi birliklar nafaqat ma’no chuqurligini ifoda etadi, balki biznes kommunikatsiyasining samaradorligini oshirishda, muloqotda kontekstga mos tushadigan to‘g‘ri xulosa chiqarishda ham qo‘llaniladi. Shu bois, frazeologizmlarning biznes sohasida aktual bo‘lishi – bu nafaqat tilshunoslik, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham qiziqarli masala hisoblanadi.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan *biznes diskurs* — bu iqtisodiy faoliyat doirasida yuzaga keladigan va turli biznes subyektlari o‘rtasida kommunikatsiya jarayonini ta’minlovchi til shakli va uslublarining yig‘indisidir [5: 136]. Biznes diskursi turli tillar va uslublarni o‘z ichiga olib, rasmiy hujjatlar, muzokaralar, marketing, reklama va boshqa iqtisodiy kommunikatsiya vositalarida aks etadi.

Bu diskurs biznes muhitida qo‘llaniladigan maxsus terminlar, kasbga oid jargonlar, o‘ziga xos grammatik va sintaktik strukturalar, shuningdek, madaniy va ijtimoiy kontekst bilan bog‘liq bo‘lgan frazeologik birliklardan iborat. Biznes diskursining asosiy vazifasi – iqtisodiy faoliyatni samarali va aniq ifodalash orqali kommunikativ maqsadlarga erishishdir [4: 36]. Bu jarayonda tilning pragmatik aspektlari, ya’ni muayyan maqsadga qaratilgan ma’nolar, aniq auditoriyaga moslashtirilgan uslublar va madaniyatlararo aloqalardagi o‘ziga xosliklar muhim ahamiyat kasb etadi.

Frazeologik birliklar — bu tilshunoslikda o‘z tarkibiy qismlarining lug‘aviy ma’nolaridan tashqariga chiqadigan, yaxlit ma’noni ifodalovchi barqaror iboralardir. Ular bir nechta so‘zlardan iborat bo‘lib, lekin bu so‘zlarning birgalikdagi ma’nosi ularning har birining alohida ma’nosidan farqlanadi. Frazeologik birliklar tilda madaniy tajriba, milliy mentalitet, va tarixiy jarayonlarni ifodalovchi muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Masalan: O‘zbek tilidagi “*ko‘z ochib yumguncha*” iborasi “*tezda*” ma’nosini ifodalaydi, lekin uning tarkibidagi so‘zlar (*ko‘z, ochmoq, yumish*) bu ma’noni alohida-alohida bermaydi.

Frazeologik birliklarning biznes diskursdagi roli muhim va ko‘p qirrali bo‘lib, ular kommunikatsiyani yanada boyitadi, jonli va ta’sirchan qiladi. Biznes sohasida frazeologizmlar quydagi bir qator funksiyalarni bajaradi:

1) *Muloqotni ta’sirchan qilish funksiyasi*. Frazeologik birliklar biznes muzokaralari, reklama va prezentatsiyalarda ishlatilganda nutqni yanada ta’sirli qiladi. Ular tinglovchiga tez va samarali ta’sir o‘tkazadi, muloqotni ko‘proq esda qolarli qiladi. Masalan:

“***Qo‘li baland kelmoq***” iborasi [2]: “*Raqobatchilar o‘rtasida jiddiy kurash ketyapti, lekin biz oxir-oqibat **qo‘li baland keladigan** kompaniya bo‘lishimiz kerak*.” Bu gapda “*qo‘li baland kelmoq*” iborasi o‘zbek tilida muvaffaqiyatli bo‘lish, g‘olib chiqish ma’nosini anglatadi. Biznes diskursida bu frazeologik birlik raqobat, kurash yoki muzokaralarda ustunlikka erishish jarayonini tasvirlash uchun ishlatiladi. Bu ibora oddiy “*g‘alaba qozonish*” degan tushunchadan ko‘ra kuchliroq hissiy ta’sirga ega bo‘lib, nutqqa obrazlilik, dinamiklik va o‘ziga xos uslubiy boylik kiritadi. Shu bilan birga, ibora tinglovchilarning e’tiborini kuchaytirib, raqobat muhitining keskinligini ifoda etishga yordam beradi. Muloqot ishtirokchilari bu ibora orqali natija qanday bo‘lishini tushunadi va hissiy jihatdan ulkan motivatsiya oladi;

2) *Murakkab tushunchalarni soddalashtirish funksiyasi*. Biznes sohasida ko‘pincha murakkab tushunchalar yoki vaziyatlar sodda va tez tushunarli shaklda ifodalanishi kerak. Frazeologik birliklar bunday vaziyatlarda murakkab jarayonlarni tushuntirishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi [3: 14]. Masalan:

“***Og‘zi kuygan***” iborasi: “*Bu kompaniya ilgari yirik xatoga yo‘l qo‘ygan, shuning uchun ularning rahbariyatining **og‘zi kuygan*** [2] *— ular endi barcha risklarni oldindan o‘ylab qo‘yadilar”.* “*Og‘zi kuygan*” iborasi hayotiy tajriba asosida ehtiyotkorroq bo‘lgan odamni tasvirlash uchun ishlatiladi. Biznes diskursida bu frazeologik birlik korxona yoki shaxs ilgari muayyan xatolar yoki muvaffaqiyatsizliklarga duch kelgani sababli keyingi qarorlarida hushyor va ko‘proq ehtiyotkor bo‘lishini ifodalaydi. Bu borada o‘zbek tilida maqol ham mavjud: *O‘g‘zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi*. Murakkab tushunchalarni soddalashtirish funksiyasi bu yerda iboraning qisqa va aniqligi orqali namoyon bo‘ladi. Muloqot ishtirokchilari murakkab strategik xatolardan keyin o‘zini qanday tutish lozimligini oddiy, ammo ta’sirchan tarzda tushunishadi. Bu ibora uzoqroq izoh talab qilmasdan, vaziyatning mohiyatini tez va oson tushuntirishga yordam beradi.

3) *Madaniy kontekstni aks ettirish funksiyasi*. Biznes diskursining madaniy kontekstni aks ettirish funksiyasi o‘zbek tilida ishlatiladigan frazeologik birliklar orqali aniq ko‘rinadi. Bunday iboralar xalqning madaniyati, urf-odatlari va an’analarini o‘zida aks ettirgan holda, biznes jarayonlarida qo‘llaniladi. Masalan:

“*Bozorning ko‘zi o‘tkir*” iborasi. “*Yangi mahsulot narxini belgilashda juda ehtiyot bo‘lish kerak, **bozorning ko‘zi o‘tkir** — iste’molchilar narx va sifatni darhol farqlab olishadi*”. “*Bozorning ko‘zi o‘tkir*” iborasi o‘zbek xalqining bozor

bilan bog‘liq uzoq tarixiy tajribasidan kelib chiqadi. O‘zbek jamiyatida bozor iqtisodiyoti uzoq yillardan beri mavjud bo‘lgan, bu esa bozor, savdo va raqobat haqida chuqur tushunchalar paydo qilgan. Ushbu frazeologik birlik iste’molchilarning savdo yoki narx borasidagi sezgirligini ifodalaydi, ular sifatsiz yoki qimmat mahsulotni tezda aniqlay oladi. Biznes diskursida bu ibora, mahsulot yoki xizmatni taqdim etishda raqobatchilar va mijozlarning e’tiboriga alohida urg‘u berish kerakligini anglatadi. Frazeologizm xalqning savdo-sotiq bilan bog‘liq madaniy an’analarini aks ettirib, iste’molchilarning aqlli va o‘tkir kuzatuvchanligini ko‘rsatadi. Bu madaniy kontekst biznes jarayonlarida mahsulot va xizmat sifatiga bo‘lgan e’tibor qanchalik muhimligini eslatadi.

4) *Ishonchlilik va professionalizmni ko‘rsatish funksiyasi*. Biznes diskursida ishonchlilik va professionalizmni ko‘rsatish funksiyasi frazeologik birliklar yordamida aniq ifodalanishi mumkin. Bunday iboralar nutqqa jiddiylik, tajriba va yuqori malaka berish orqali tinglovchilarga ishonch uyg‘otadi. Masalan:

“***O‘zini oqlamoq***” iborasi: “*Yangi loyiha uchun kiritilgan sarmoyalar qisqa muddatda **o‘zini oqladi**. Bu bizning strategik qarorlarimizning to‘g‘ri bo‘lganligini isbotlaydi*”. “*O‘zini oqlamoq*” frazeologik birligi biror harakat, sarmoya yoki qaror kutilgan natijalarni berib, muvaffaqiyatli bo‘lganini anglatadi. Biznes diskursida bu ibora maqsadli investitsiyalar, strategiyalar yoki rejalarning kutilgan foydani berganligini ifodalashda qo‘llaniladi. Ishonchlilik va professionalizmni aks ettirishda ushbu ibora biznes subyektining to‘g‘ri qarorlar qabul qilganligini va ularning amaliy natijasi ijobiy bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu ibora qisqa va aniq bo‘lib, muloqotda professional tasvirni yaratadi. Shu orqali kompaniyaning yoki shaxsning qarorlari va strategiyalari zamirida chuqur tahlil va puxta rejalashtirish borligi ko‘rinadi, bu esa ishonchni kuchaytiradi.

5) *Tushunishni tezlashtirish funksiyasi*. Biznes diskursining tushunishni tezlashtirish funksiyasi, qisqa va mazmunli frazeologik birliklar orqali murakkab jarayonlarni soddalashtirib, tez tushunishga yordam beradi. Bunday iboralar biznes muloqotini samarali qiladi va ortiqcha izohlarni talab qilmaydi. Masalan: “***Qora kunlar uchun***” iborasi: “*Biz kompaniya daromadining bir qismini **qora kunlar uchun** zaxira qilamiz, shunday paytlar kelib qolishi mumkin*”. “*Qora kunlar uchun*” iborasi kutilmagan yoki qiyin vaziyatlar uchun zaxira qilish, tayyor turishni anglatadi. Biznes diskursida bu frazeologik birlik kutilmagan iqtisodiy qiyinchiliklar yoki inqirozlarga qarshi strategik tayyorgarlikni ifodalashda qo‘llaniladi. Ishonchlilik va professionalizmni ko‘rsatishda bu ibora murakkab tushunchalarni tez tushunishga yordam beradi. Masalan, kutilmagan qiyinchiliklarga qarshi moliyaviy tayyorgarlik haqida uzoq izoh berishga hojat qolmaydi, chunki “*qora kunlar uchun*” iborasi tez va aniq ifoda qiladi. Shuningdek, bu ibora tijorat maslahatchilari, sarmoyadorlar va biznes rahbarlari o‘rtasidagi muloqotni tezlashtiradi, vaqtni tejaydi va strategik qarorlar qabul qilishni osonlashtiradi.

6) *Emotsional ta’sir o‘tkazish funksiyasi*. Biznes diskursining emotsional ta’sir o‘tkazish funksiyasi frazeologik birliklar orqali tinglovchilarga yoki

suhbatdoshga hissiy jihatdan ta’sir qilish imkonini beradi. Ushbu iboralar nafaqat aniq ma’lumotlarni yetkazadi, balki ularni kuchli emotsional tus bilan ifodalaydi, natijada nutq yanada jonli va ta’sirchan bo‘ladi. Masalan: “***Qo‘l qovushtirib o‘tirmoq***” iborasi: “*Raqobatchilarimiz yangi mahsulotlarni bozorga chiqarishmoqda, biz esa* ***qo‘l qovushtirib o‘tirsak****, bozor ulushimizni yo‘qotishimiz mumkin*”. “*Qo‘l qovushtirib o‘tirmoq*” iborasi hech qanday harakat qilmay, befarq bo‘lib o‘tirishni anglatadi. Biznes diskursida bu ibora harakatsizlik yoki reaksiya ko‘rsatmaslik natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlarga ishora qiladi. Ushbu ibora suhbatdoshga, xususan, tashkilot xodimlari yoki rahbarlariga kuchli emotsional ta’sir o‘tkazadi, ularni harakat qilishga undaydi va beparvolikdan ogohlantiradi. Iboraning emotsional ta’siri shundaki, u faqat passivlikni tanqid qilmasdan, tinglovchini harakatga chorlaydi. Shu sababli, bu ibora biznes jarayonida faoliyat ko‘rsatish, tezkor javob berish va raqobatchilarga nisbatan ustunlikka erishish uchun kuchli rag‘batlantiruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, biznes diskursda frazeologik birliklarning aktuallashuvi masalasi keng qamrovli. Biznes muloqoti murakkab iqtisodiy jarayonlar va strategiyalarni ifodalaydi, shuning uchun tilning aniq va maqsadli foydalanilishi juda muhimdir. Frazeologik birliklar esa bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular ma’lumotlarni tez va samarali tarzda yetkazishga, tushunishni soddalashtirishga, emotsional ta’sir o‘tkazishga, hamda madaniy kontekstni aks ettirishga yordam beradi. Bundan tashqari, frazeologik birliklar zamon talablari va muammolarini o‘z ichiga olgan holda yangilanib borishi, ularning biznes jarayonlaridagi ahamiyatini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologiyasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Navro‘z, 2019. – 260 b.
2. Raxmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent, 1992. – 363 b.
3. Yo‘ldoshev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funktsional – uslubiy xususiyatlari: Fil. fan. dok. disser. avtoref. – Toshkent: 1993. – 47 b.
4. Гурьева З.И. Речевая коммуникация в сфере бизнеса: жанроведческий аспекг. Ростов н/Д: Изд-во СКПЦ ВШ, 2003. – 92 с.
5. Ширяева, Т. А. Вежливость и ее языковая репрезентация в деловом дискурсе// Университетские чтения. – Пятигорск, 2010. – С. 135-141. [Электронный ресурс] https://pgu.ru/upload/iblock/bb8/uch_2010_iii_00026.pdf.

HURMAT VA SHARAFNI ANGLATUVCHI UNVON HAMDA RASMIY IFODALARNING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI

Sabohatxon A’zamjonovna Yusupova
FarDU Ingliz filologiyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi, (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbek tilidagi hurmat va sharafni anglatuvchi unvonlar va rasmiy ifodalarning lingvopragmatik tahliliga bag‘ishlangan.

Tadqiqotda hurmatni anglatuvchi unvonlarning morfologik, sintaktik va semantik xususiyatlari o‘rganilib, ularning jamiyatda tutgan o‘rni va nutqdagi funksiyalari ko‘rib chiqiladi. Badiiy adabiyotlardan olingan misollar orqali bu ifodalarning madaniy va ijtimoiy ahamiyati yoritiladi. Mumtoz va zamonaviy asarlardagi hurmat-ulug‘lash va sharafni anglatuvchi unvonlar, jumladan, Alisher Navoiy, Oybek, Mirmuhsin, S.Ahmad va A.Qodiriy asarlaridagi til birliklarining shakllanishi va ularning ma’nosi keng miqyosda yoritiladi. Maqola shuningdek, hurmat unvonlarining o‘zbek tilidagi ijtimoiy rolini ochib beradi va ularning qo‘llanilishida madaniy kontekstning ahamiyatini ko‘rsatadi. Ushbu tahlil tilshunoslar, lingvopragmatiklar va adabiyotshunoslar uchun qimmatli ilmiy ma’lumotlarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: hurmat va sharafni anglatuvchi unvonlar, rasmiy ifodalar, lingvistika, pragmatika, o‘zbek tili, badiiy adabiyot.

Abstract. This article is devoted to the linguopragmatic analysis of titles and official expressions of honour in the Uzbek language. The study examines the morphological, syntactic and semantic features of titles denoting respect, considers their place in society and functions in speech. The cultural and social significance of these expressions is highlighted through examples from fiction. The formation of language units and their significance in the works of classical and modern works such as Alisher Navoi, Abdulla Qadiri, Aybek, Mirmukhsin, S.Akhmad will be covered on a large scale. The article also reveals the social role of honorary titles in the Uzbek language and shows the role of cultural context in their application. This analysis provides valuable scientific information for linguists, pragmatic linguists, and literary critics.

Keywords: titles for respect and honour, official expressions, linguistics, pragmatics, Uzbek language, fiction.

Hurmat va sharafni anglatuvchi unvon va rasmiy ifodalarning o‘zbek tilidagi ko‘rsatkichlari milliy madaniyat va ijtimoiy me’yorlarning muhim qismi hisoblanadi. Ular ijtimoiy aloqalarda, rasmiy va norasmiy munosabatlarda katta ahamiyatga ega. O‘zbek jamiyatida hurmat ifodalovchi unvonlar bilan bog‘liq bo‘lgan til birliklari qadimiy an’analarni va zamonaviy turmush tarzini aks ettiradi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi o‘zbek tilidagi hurmat bildiruvchi unvon va rasmiy ifodalarning lingvopragmatik tahlilini amalga oshirish, ularning qo‘llanishi va mazmunini aniqlash, shuningdek, badiiy adabiyotlardan olingan misollar orqali bu unvonlarning qanchalik ahamiyatli ekanligini yoritishdir.

Maqolada hurmat unvonlari va rasmiy ifodalarning tahlili uchun o‘zbek tilidagi badiiy adabiyotlar (Alisher Navoiy, Oybek, Mirmuhsin, S.Ahmad va A.Qodiriy), ilmiy maqolalar, shuningdek, zamonaviy lingvistik tadqiqotlardan foydalanilgan.

Tanlangan misollar lingvistik tahlil yordamida tekshirilgan. Hurmat unvonlari grammatik jihatdan, ularning morfologik, sintaktik va pragmatik xususiyatlari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, madaniy va ijtimoiy kontekstga qarab ularga pragmatik baho berilgan.

Badiiy asarlardan olingan misollar semantik va stilistik tahlil qilingan, bu misollar orqali hurmat unvonlarining madaniy ahamiyati yoritilgan.

O‘zbek tilida hurmat unvonlari va rasmiy ifodalar ko‘pincha ijtimoiy mavqe, yosh va gender asosida farqlanadi. Erkaklarga va ayollarga nisbatan ishlatiladigan unvonlar tili ko‘p hollarda an’anaviy va madaniy kontekstda mustahkamlanadi. Masalan, “ota”, “ona” singari so‘zlar faqat oilaviy, balki keng ijtimoiy hurmat ko‘rsatish vositasi sifatida ishlatiladi.

Hurmat unvonlari va rasmiy ifodalar nutq amallarida pragmatik jihatdan katta ahamiyatga ega. Rasmiy muhitda, masalan, “Muallim/Ustoz”, “Professor” singari unvonlar odamlarga nisbatan hurmatni ifodalashda ishlatiladi. O‘zbek tilida bu unvonlarning rasmiy muloqotda muhim roli borligi kuzatildi.

Klassik va zamonaviy o‘zbek adabiyotlarida hurmat unvonlari va rasmiy ifodalar tilga xos bo‘lgan hurmat tamoyillari va an’analar orqali o‘ziga xos stilistik uslubda aks etgan. Masalan, Alisher Navoiy, Oybek, Mirmuhsin, S.Ahmad va A.Qodiriy asarlarida bu ifodalarning turli xil shakllari uchraydi, ularning ko‘plab misollarida ijtimoiy mavqe va hurmat masalalari tasvirlangan:

Hazrati Iskandar *to‘la g‘amnok bo‘lub, Boriq Barbiri uchun to‘la g‘amlar yediki (A.Navoiy, Saddi Iskandariy).* Bu jumlada Hazrat iborasi hurmat ifodasidir. **Hazrat** ot 1. din. Alloh, payg‘ambar kabi muqaddas zotlarni, shuningdek, din arboblarini ulug‘lash uchun ularning ismi oldidan qo‘llanadi; kimsaning martaba, vazifasini bildiruvchi so‘z bilan yoki o‘zi alohida ham qo‘llanadi[42].

Hazrat Alining duldulini hech bir ot quvib yetgan emas – kitoblarda shunday yozilgan. (Oybek, Tanlangan asarlar)

– Zehni o‘tkir, tili burro Hafiza bolam ancha qiynaldi. Isiriq solib, hazrat Bahovaddinga o‘n bitta kulcha atab qo‘y, bolam, – dedi kampir (Mirmuhsin, Umid).

Hazrati eshonning xizmatlariga bel bog‘lab, shu yerlarda muridlarga bosh bo‘lib, bug‘doy ektiridi. (S.Ahmad, Qadrdon dalalar)

Muborak bo‘lsin, ulug‘ hazratim! Sadriddin a’lam jilmaydi. (Oybek, Ulug‘ yo‘l)[43] Bu jumlalarda “hazrat” faqat katta yoshli va tajribaga ega shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi, bu holat pragmatik jihatdan yuqori ijtimoiy maqom va hurmatni ifodalaydi. o‘zbek xalqining diniy va ilmiy rahnamolariga nisbatan hurmat an’analari bu yerda yaqqol aks etgan.

Qutidor qaytib chiqdi... Ziyo aka bilan Hasanali ma’noliq qilib bir-birlariga qarashib olmoqda edilar. Qutidor, ayniqsa Ziyo akaning og‘zini poylab, ko‘ngli chaqirilmag‘an mehmonlardan tushunmog‘i qiyin bo‘lg‘an bir ma’noni sezmakda edi. Oradagi so‘zsizlik uzoqqa cho‘zilabergach, qutidor Hasanalidan so‘radi: (A.Qodiriy, O‘tkan kunlar)

“Aka” so‘zi o‘zbek tilida katta yoshli erkaklarga nisbatan ishlatiladigan hurmat ifodasi hisoblanadi. Bu unvon oilaviy aloqalarda, shuningdek, kengroq jamiyatda yuqori hurmatni anglatadi. …*bir-birlariga qarashib olmoqda edilar*

[42] ҳазрат – Izoh.uz – Ўзбек тилининг изоҳли луғати
[43] ҳазрат – Izoh.uz – Ўзбек тилининг изоҳли луғати

qismi ko‘plik ma’nosini ifodalovchi -lar affiksi ayni jumlada nutqning hurmat shaklida aytilayotganini ko‘rsatadi. Bu grammatik jihat ko‘plik affiksi *-lar* orqali hurmatni ta’kidlash usulini ifodalaydi.

- Ziyo aka deb murojaat qilar ekan, “aka” so‘zini ishlatib, uni nafaqat oila a’zosi, balki jamiyatdagi hurmatga loyiq kishi sifatida tasvirlaydi. Bu nafaqat oilaviy doirada, balki ijtimoiy munosabatlarda hurmat ko‘rsatishning o‘zbek madaniy an’analaridagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, o‘zbek tilidagi hurmat unvonlari ijtimoiy vaziyatlar va madaniy an’analarga asoslangan. Ular tilning rasmiy va norasmiy darajalarida farqlanadi va ijtimoiy mavqeni, qadr-qimmatni ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Unvonlar ijtimoiy tartibni mustahkamlash va jamiyat ichidagi muloqotni nazorat qilishda ham rol o‘ynaydi.

Badiiy adabiyotlarda hurmat unvonlari madaniy xususiyatlarni aks ettiradi. Ular o‘zbek xalqining tarixi, an’analari va dunyoqarashini tushunishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Misollar orqali olingan lingvistik xulosalar bu til birliklarining chuqur tahlilini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oybek. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1968.
2. Mirmuhsin. Umid. – Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 1975.
3. Said Ahmad. Qadrdon dalalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003.
4. Oybek. Ulug‘ yo‘l. – Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 1966.
5. Yusupova, S. (2024). The evolution of politeness: a historical analysis of English novels. *Farg‘ona davlat universiteti*, (3), 195-195.
6. Yusupova, S. (2024, June). Gender differences in politeness: analysis of Japanese and English. In *Fergana state university conference*.
7. A’zamjonovna, Y. S. (2024). Issues of expression of respect in male and female speech in different systems languages. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, *11*(03).

LEKSIKOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNDA SO‘ZNING MOHIYATI

Feruza Abduraximova Boxadirovna
FarDU Ingliz tili va adabiyoti fakulteti katta o‘qituvchisi (PhD)
Ne’matjonova Munavvarxon Hamidullo qizi
FarDU talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikning asosiy tarmog‘i bo‘lgan leksikologiya va uning fanda tutgan o‘rni, frazeologiya, semasiologiya, semantika va so‘zning mohiyati, tuzilishi haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Leksikologiya, til, tilshunoslik, frazeologiya, semantika

Abstract. This article discusses lexicology, which is the main branch of linguistics, and its role in science, phraseology, semasiology, semantics, and the essence and structure of words.

Key words: Lexicology, language, linguistics, phraseology, semantics.

Hammamizga ma’lumki yer yuzida yashovchi dunyo xalqlari xilma – xil tillarda gaplashishadi. Millionlab til va sheva mavjud. Mana shu o‘rganilgan tillarning barchasi leksikologik jihatdan ham o‘rganiladi. Leksikologiya — tilshunoslikning so‘zlar va ularning ma’nolari, tuzilishi, o‘zaro munosabatlari, hamda ularning kontekstdagi ishlatilishini o‘rganadigan bo‘limidir.[44] U tilning leksik (so‘z boyligi) jihatlarini tahlil qiladi va so‘zlarning semantik, morfologik va fonetik xususiyatlarini o‘rganadi.Leksikologiya tilshunoslikning leksikografiya, frazeologiya, semasiologiya, yokisemantika, etimologiya, stilistika hamda so‘z yasalishi haqidagi ta’limot kabi sohalari bilan chambarchas bog‘liq. Leksikologiya tizim sifatida ko‘rilganda, so‘z ma’nolari va tushunchalar o‘zaro bog‘liq holda kuzatiladi. Leksikologiya lug‘at tarkibining taraqqiyot qonuniyatlarini ishlab chiqadi. Tillarning lug‘at tarkibi bir qancha umumiy xususiyatlarga ega. Lug‘atni tashkil etuvchi xar bir soz ma’noga ega. Shu ma’nosi nazaridan so‘zlar o‘ziga xos. So‘zning ma’nosi (semantikasi) va u bilan bog‘liq masalalar leksikologiyadagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Bunday masalalar bilan semasiologiya bo‘limi shug‘ullanadi. Til taraqqiyotida lug‘atlar tarkibi yangi so‘zlar bilan boyib boradi va ayrim so‘zlar eskiradi, iste’moldan chiqadi. Lug‘atlar oldindan o‘zlashtirilib kelgan. Lug‘at tarkibidagi so‘zlar iste’moldagi darajasi bu nuqtai nazardan umumiylikka yoki chegaralanganlikka egaligi bilan ham o‘zaro farqlanadi. Ma’lum miqdordagi so‘zlar iste’molda (masalan, ona, gul, kichkina), ayrimlari iste’mol doirasi chegaralangan. (masalan, sas, bolish). Terminlar kasb-hunar sohasida qo‘llanilganligi uchun chegaralangan.masalan, urg‘u, leksika, affiks – tilshunoslikka oid terminlar; konus, piramida, tortburchak – geometriyaga oid terminlar; kultivatsiya, barona – qishloq xo‘jaligiga oid terminlar; valleybol, koptok, nokaut – sportga oid terminlar va hokazo).[45]

Lug‘atlar nutqqa munosabatlariga ko‘ra ham farqlanadi. Uslubga (daydi, kamalak), (taftish- badiiy uslubga xos, muallim- kitobiy uslubga xos). So‘zlar ozining shakl va mazmuniga ega. Masalan, yuz, bet, aft, bashara, turq so‘zlarining shakli har xil, ma’nosi bir xil (sinonim); ot (hayvon), ot (fe’l), ot (nom) so‘zlarining shakli bir xil, ma’nosi har xil (omonim). Barcha so‘zlar uchun so‘zlar haqida aytilgan xususiyatlar taalluqli hisoblanadi. Sozga bir necha ogiz gap bilan tarif berib bo‘lmaydi. So‘z birligiga ko‘ra murakkab xususiyatga ega. Uning til birliklaridan farqli belgilarini o‘rganish muhim. Oddiy nazar tashlashdayoq so‘zning tovushdan, tovushlar majmuidan tuzilishi aniq seziladi. Barcha tillarda ham so‘z asosan birdan ortiq tovushdan tuziladi. Bir tovushdan iborat so‘zlar juda kam miqdorni tashkil etadi.[46]

So‘zning ma’nosi kontekstga, madaniyatga va tarixga bog‘liq holda o‘zgarishi mumkin. Masalan, "qiz" so‘zi bir tomondan jinsni, boshqa tomondan esa yosh qizni anglatishi mumkin.So‘zlar va ularning ma’nolari jamiyatning madaniyati, urf-odatlari va qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Leksikologiya bu jihatlarni

[44] Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1 – jild. Toshkent, 1966 yil. 200-bet
[45] Tursunov U. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. 1965 yil. 300-bet
[46] Bozorboy O‘rinboyev. Leksikologiya. https://qomus.info

o‘rganish orqali madaniyatni ham tushunishga yordam beradi.Bir ma’noga ega bo‘lmagan tovush hech qachon soz bo‘la olmaydi. Har bir soz paydo bo‘lishida ozining ma’nosi va tovushiga ega bo‘ladi. Har bir soz ozining ma’nosiga ega bo‘ladi. Bu so‘zning fonetik tomonidir. So‘zning ma’nosi ma’lum tovushlar majmuida reallashishi sababli bu ma’noni tovushlar majmui, tovushlarning ma’lum tartibdagi birligi hosil qiladigandek tuyuladi. Boshqacha aytganda, tovushlar «ma’nosi»ning birligi so‘zning ma’nosidan iboratdek bo‘lib ko‘rinadi. Haqiqatda esa bunday emas. Garchi tovushsiz so‘z bo‘lmasa – da, biroq u yoki bu so‘zning mazmuni shu so‘zni tashkil etgan tovushlar «ma’nosi»ning yig‘indisidan kelib chiqmaydi. Tovushlar (fonemalar) ma’noga ega emas. Masalan "ayol" "a, y, o, l," tovushlaridan iborat so‘z, shu tovushlarning "loya", "yola" so‘zlari hech qanday manoga ega emas.[47] Agar so‘zning ma’nosi undagi tovushlar ma’nosiga va bu tovushlarning ma’lum tartibda joylashuviga (tartibiga) bog‘liq bo‘lganida, har qanday so‘zning ma’nosini undagi tovushlar va bu tovushlarning tartibi asosida izohlash, shu yo‘l bilan so‘zning ma’no asosini topish mumkin bo‘lar edi. Haqiqatda esa bunday qilib bo‘lmaydi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, har qanday so‘z (tub so‘z) aniq bir tovush qobig‘iga ega bo‘ladi.So‘zning tovush tizimida o‘zgarish bo‘lishi mumkin, lekin bu til taraqqiyoti jarayonida yuz beradi. Yasama so‘zlarda ham yuz beradi. Masalan: magiz – mayiz va hokazo. Bu esa sozni yasash jarayonida yuz beradi. Bu esa so‘zning yoq bo‘lishiga olib kelmaydi. Bundan tashqari yangi so‘z xosil bo‘lish hodisasi ham bor. Masalan: bor- boy. So‘zning malum ma’noga egaligi uning muhim belgisidir. Bu xususiyatlari bilan turli turga bo‘linadi. Masalan: borliqdagi narsa; gul, daryo, osmon. Undovlar esa his-hayajon; eh, voy, barakalla.

Morfema — bu tilshunoslikda so‘zning eng kichik ma’noli birligi hisoblanadi. O‘ziga xos ma’no va shaklga ega hisoblanadi. Morfemalar ozbek tilida qo‘shimcha xolatida bo‘ladi. Masalan - chi (ishchi), - shunos (huquqshunos), -ki (turtki), -li (ilmli), -chan (o‘ychan), -la (gulla), -mtir (ko‘kimtir), -illa (gurilla).

So‘zning leksik ma’nosini aniqlash maqsadida morfemalarga ajratiladi.

1. O‘zak morfema - leksik ma’no anglatadi.

2. Affiksal morfema - mustaqil ma’no anglatmaydigan, lekin so‘zning grammatik shakllanishi uchun xizmat qiladi.

Affiksal qo‘shimchalar ham ikki turga bo‘linadi. 1. So‘z yasovchi qo‘shimcha, 2. Shakl yasovchi qo‘shimcha.

1. So‘z yasovchi qo‘shimchalar leksik ma’nosini o‘zgartirish uchun xizmat qiladi. Masalan guldon, paxtakor, gulchi.

2. Shakl yasovchi qo‘shimchalar esa so‘zlarni grammatik jihatdan shaklllantiradi. Masalan bolalarimizga so‘zida -lar ko‘plik, -imiz shaxs son, -ga jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi.

So‘zlarning ustida ishlash ahamiyati va o‘qituvchining vazifasiga:

[47] Musajon Bobojonov. Jahon tillari haqida eng, eng, englar. 2012-yil. 300-bet https://m.ok.ru

1. So‘zning morfemikasi ustida ishlash bilan birga so‘zning leksik ma’nosini aniqlashni ham o‘rganib olishadi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarning lug‘at tarkibiga aniqlik qaratishi kerak.

2. So‘z yasalish usulini bilishlari, tilimizdagi so‘z manbasini bilishlari uchun muhim hisoblanadi. So‘zning xosil bo‘lish jaroyonini kuzatish, o‘quvchilar uchun faol munosabatni yuzaga keltiradi. Predmet, jarayon, hodisalar so‘z bilan ifodalanadi. So‘zlar o‘rtasidagi ma’no va tuzilish jihatidan bog‘lanishni belgilash o‘zaro munosabatda bo‘lgan tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanishga tayanadi.(Masalan gul va gulchi so‘zlari o‘zaro munosabatda bolgan tushunchalardir, shu sababli ma’no va tuzilishiga ko‘ra bog‘liq). So‘zda morfemaning ahamiyatini anglash, shuningdek, qo‘shimchalarning semantik ma’nosini bilish o‘quvchilarda nutqning aniq shakllanishiga ta’sir etadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, leksikologiya tilshunoslikda muhim rol o‘ynaydi va so‘zlarning mohiyatini chuqurroq anglashga imkon beradi. Leksikologiya so‘zlarning tabiati va ularning jamiyatdagi ahamiyatini o‘rganish orqali tilning boyligini va uning inson muloqotidagi markaziy rolini ochib beradi. So‘zlar nafaqat ma’no beruvchi birliklar, balki madaniyat va fikr almashishning asosi sifatida ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Musajon Bobojonov. Jahon tillari haqida eng, eng, englar. 2012-yil. 300-bet
2. Bozorboy O‘rinboyev. Leksikologiya. https://qomus.info
3. O‘zbekiston SSR FA Tarix, tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo‘limi tomonidan nashrga tayyorlangan O‘zbek tili leksikologiyasi. Toshkent. 1981 yil. 250-bet
4. Tursunov U. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. 1965 yil. 300-bet
5. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1 – jild. Toshkent, 1966 yil. 200-bet

“QUTADG‘U BILIG” ASARIDAGI KASB-HUNARGA OID LEKSIKA

Xolmuradova Mushtariy
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

Annotatsiya. Maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida keltirilgan kasb-hunarga oid leksika keltirilgan. Dostonda keltirilgan kasb-hunarga oid leksikaning salmoqli qismini saroy muhiti bilan bog‘liq so‘zlar tashkil qiladi. Ularning aksariyat qismi bugungi kunda is’temoldan chiqqan.

Kalit so‘zlar: qapuğ başlar, aş başçısı, töşäkçi, otaçı, afsunçı.

Annotation. In this article presented lexicon of professions in Yusuf Khos Hajib’s work “Kutadgu bilig”. Words related to the palace environment make up a significant part of the professional lexicon in the epic. Most of them are out of use today.

Key words: qapuğ başlar, aş başçısı, töşäkçi, otaçı, afsunçı.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari turli sohalarni o‘zida jamlagan falsafiy-didaktik maznundagi asar hisoblanadi. Dostonda keltirilgan kasb-hunarga oid leksikaning salmoqli qismini saroy muhiti bilan bog‘liq so‘zlar tashkil qiladi. Ularning aksariyat qismi bugungi kunda is’temoldan chiqqan. “Qutadg‘u bilig” asarida qo‘llanilgan kasb-hunarga oid leksika quyidagilar:

Qapuğ başlar. Turkiy so‘z bo‘lib, ***qapuğ*** “eshik, darvoza” so‘ziga başlar “boshchi, qo‘riqlovchi” ma’nosidagi so‘zning birikuvidan hosil bo‘lgan. Saroy darvozalarini qo‘riqlovchi kishilarning boshlig‘i.

Qapuğ başlar er keδ bağırsaq keräk

Täni canı birlä tapuğsaq keräk [1]

*“*Darvozabonlar boshi kishi juda mehrli (bo‘lishi) kerak,Tani va joni bilan xizmatga berilgan (bo‘lishi)kerak”(2490/409*)* [4]

Aş başçısı. Turkiy so‘zdan olingan bo‘lib, ***aş*** “osh, ovqat” so‘ziga ***baş+cı*** so‘zining qo‘shiluvidan osh-ovqat bilan shug‘ullanadigan saroy lavozimidagi shaxs ma’nosidagi leksema hosil bo‘lgan. Saroydagi barcha oshpazlarning boshlig‘ishunday nom bilan atalgan.

Ayaq tergı başlar bu aş başçısı

Negü teg keräk ayğıl aş işçisi [1]

“Lagan-dasturxon mutasaddisi, osh(noz-ne’matlar) boshlig‘i, Osh(noz-ne’matlar) xizmatchisi qanday bo‘lishi kerak, aytgin”(2784/449) [4]

Asarda oshpazlarning qanday xususiyatga ega bo‘lishlari lozimligi haqida ham bir qanda mulohazalar keltirilgan.

Arığ bolsa aşçı arığ as berür

Arığ bolsa aş suw sewä keδ yelür [1]

*“*Oshpaz pokiza bo‘lsa,pokiza ovqat yoyadi, Osh-suv pokiza bo‘lsa, juda sevilib yoyiladi”(2806/453) [4]

Töşäkçi turkiy so‘z bo‘lib, ***töşäk*** so‘ziga ***-çi*** shaxs oti yasovchi qo‘shimchasini qo‘shish orqali “to‘shak ishlari bilan shug‘ullanuvchi shaxs” ma’nosidagi so‘z yasalgan.

Bir an*ça yemä bar taqı işçilär*

Töşäkçi ya quşçı yemä aşçılar[1]

*“*Yana tag‘in bir qancha ishchilar bor,To‘shakchi,yo lochindor,yoki oshchilar (bor)”(4045/623) [4]

Otaçı sof turkiy so‘z bo‘lib, ***ota=*** “davolamoq” fe’liga *-çı* shaxs oti yasovchi qo‘shimcha qo‘shish orqali yasalgan. Asarda shu ma’nodagi emçı so‘zi ham faol qo‘llangan.

Olarda birisi otaçı turur

Qamuğ ig toğaqa bu emçi erur [1]

“Ulardan biri tabiblardir, Hamma kasallik, ruh og‘irligiga ular emchilardir” (4252/651) [4]

Afsunçı *“*sehr-jodu” ma’nosidagi forscha afsun so‘zidan yasalgan bo‘lib, shu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxs ma’nosini anglatadi.

Bularda basa keldi afsunçılar

bu yel yeklig igga bu ol emçilär[1]

“Bulardan so‘ng afsunchilar [ya’ni azayimxonlar]keladi,

Yeldan, jindan bo‘ladigan kasalliklarga bular emchidirlar”(4257/653) [4]

Tüş yorğuçı tush ta’birchilari faoliyatidan , asosan, jang oldidan natijalarni aniqlashda foydalanilgan.

Tüşüg eδgü yorsa bu tüş yorğuçı

Ol eδgü kelir kör bu sewrür tuçı [1]

“Tushni ta’bir qiluvchi tushni yaxshi ta’bir qilsa,

U yaxshilikka keladi,bu [ya’ni tush ko‘ruvchi]doim sevinadi”(4264/653) [4]

Yulduzçı sof turkiy so‘z bo‘lib, yulduz ilmi bilan shug‘ullanuvchi shaxs ma’nosini anglatadi. Bugungi kunda astrolog kasbiga to‘g‘ri keluvchi kasbning tarixiy taraqqiyoti uzoq davrlarga borib taqaladi.

Munuŋda basa emdi yulduzçı ol

Baqa körsä yetrü eδi yinçkä yol [1]

“Endi bundan boshqasi yulduzchilardir,Yaxshiroq nazar solib ko‘rilsa,bu juda nozik yo‘ldir”(4272/655) [4]

Şa’ir arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “she’r bilan shug‘ullanuvchi shaxs” ma’nosini anglatadi. Asarda shoirlar bilan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish lozimligi ta’kidlanadi. Chunki kishini maqtaguvchi ham, unga la’nat aytuvchi ham shoirlardir.

Basa keldi şa’ir bu söz tergüçi

kişig öggüçilär yemä yergüçi [1]

“Yana shoirlar keldilar, bular so‘z terguvchilardir,

Kishini maqtovchi hamda so‘kuvchilardir”(4288/657) [4]

Tarığçı sof turkiy so‘z bo‘lib “tariq ekuvchi kishi, dehqon” ma’nosini anglatgan. Jamiyatdagi eng kerakli kishi dehqonlar sanalgan.

Tarığçı turur kör taqı bir qutu

Keräklig kişilär turur bu botu [1]

“Tag‘in bir toifasi dehqonlardir,Bular mutlaqo kerakli kishilardir”(4296/659) [4]

Qamuğ tepränürgä bulardın asığ

Tüzükä tegir yem içimdin tatığ “Hamma qimirlagan (jon)ga bulardan manfaat (bo‘ladi),Hammasiga yeyim (va) ichimdan halovat yetadi”(4298/659) [4]

Satığçı sof turkiy so‘z bo‘lib, “oldi-sotti” ma’nosidagi ***satığ*** so‘ziga *-çı* shaxs oti yasovchi qo‘shimcha qo‘shish orqali “savdo-sotiq bilan shug‘ullanuvchi shaxs” ma’nosini anglatadi. Asarda shu ma’nodagi ***sart*** so‘zi ham qo‘llanilgan.

Munuŋda basası satığçı turur

Satığ birlä tınmas asığçı turur [1]

“Bundan boshqasi savdogar(lar)dir, savdo bilan tinmaydigan foydachi(lar)dir”(4315/661) [4]

Igdişçi chorva bilan shug‘ullanuvchi shaxs.

Munuŋda basa ol bu igdişçilär

Qamuğ yılqılarqa bular başçilär [1]

“Bu chorvadorlar bu(lar)dan boshqalardir,Hamma hayvonlarga bular boshchidirlar”(4335/663) [4]

Uzlar turkiy so‘z bo‘lib, uz “mohir, uquvli” ma’nosidagi so‘zdan yasalgan. “Hunarmandlar, hunarmand kishilar” ma’nosini anglatadi.

Taqı bir qutulsı bu uzlar turur

Tirilgü tiläp özgä uzluq qılur [1]

“Tag‘in bir toifa odamlar hunarmandlardir,

O‘zlariga yaxshash uchun zarur narsalarni istab hunarmandchilik qiladilar”(4352/667) [4]

Bundan tashqari “Qutadg‘u bilig”da quyidagi kasb-hunar nomlari uchraydi:

asraqı	• xizmatkor
tonçı	• to'nchi
etükçı	• etikchi
quşçı	• lochindor
kişçi	• suvsar tutuvchi
temürçi	• temirchi
qırmaçı	• kosib
sırçı	• o'ymakor-duradgor
beδizçı	• bo'yoqchi
idişçi	• idishchi (soqiy)
kütçi	• cho'pon
sırçı	• rassom

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Amir Abdukadir, Denis Dubrovin, Nurmahamat Amat, Wenxian Liu, Ayshamgul Hasim, Anwar Aikemu, Batur Mamtimin, Halmurat Upur .The origins of Uyghur medicine: Debetes and perspectives.–ScienceDirect. Journal of Traditional Chinese Medical Sciences (2015)2, 217e226.

2.Aybice Tosun, Havva Sinem Ugurlu (2012). The effects of religious culture and ethic knowledge textbooks on domestication in Turkey.–Procedia – SciVerse Science Direct.Social and Behavioral Sciences 46.

3.Baltabayeva A., Gabitov T., Maldubek A., Shamakhay (2016). Saira Spiritual understanding of human rights in muslim culture (The problem of “Ruh” – “Spirit”).–Science Direct. Procedia - Social and Behavioral Sciences 217.

4.Drevnetyurskiy slovar (1969).–L.

5.Yusuf Xos Hojib (2010).Qutadg‘u bilig. I jild. –Toshkent.
6.Karimov N. (1993). “Qutadg‘u bilig”ning topilishi // Fan va turmush. –№ 2.
7.Nuraniye Hidayet Ekrem (2016). Yusuf Has Hâcib Devrinde Kâşgar. Kutadgu Bilig‘in Yazıldığı Çevresel va Bilimsel Arka Plan.Modern Türklük Araştırmaları Dergisi.Cilt 13.–Ankara, 2016.
8.Маллаев Н.М. (1976). Ўзбек адабиёти тарихи. -Т.:Ўқитувчи.
9.Mehmet Ölmez (2004). Çağdaş türk dillerinde “Kutdgu bilig” çevirileri.– Türk dilleri araştırmaları 14.
10.Reşid Rahmeti Arat (1979). Kutadgu bilig (Indeks).–Istanbul.
11.Robert Dankoff (1983). Wisdom of Royal Glory (Kutadgu Bilig). A Turko-Islamic Mirror for Princes.–Chicago.

INGLIZ TILI MORFOLOGIYASINING O‘ZBEK TILI MORFOLOGIYASI BILAN QIYOSIY TAHLILI

Feruza Abduraximova Boxadirovna
FarDU Ingliz tili va adabiyoti fakulteti katta o‘qituvchisi (PhD)
Nuriddinova Gulnoza Ro‘zali qizi
FarDU talabasi

Annotatsiya. Ingliz tili morfologiyasi tarkiban juda qiziqarli va boshqa tillardan farqlidir. O‘zi mansub bo‘lgan til oilalaridan ko‘ra so‘z yasalish uslubi va qo‘shimchalar imlosi jihatidan alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada ushbu tilning xususiyatlari, o‘ziga xosligi va o‘zbek tili bilan o‘xshash va farqli jihatlarini ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Ingliz tili, morfologiya, xorijiy til, grammatika, qo‘shimchalar, morfemalar, mustaqil so‘zlar.

Abstract. English morphology is very interesting and different from other languages. Compared to the language families to which it belongs, it is more important in terms of the style of word formation and the spelling of affixes. This article reveals the characteristics, uniqueness and similarities and differences of this language with the Uzbek language.

Keywords: English language, morphology, foreign language, grammar, suffixes, morphemes, independent words.

Biz tahil qilmoqchi bo‘lgan ingliz tili va o‘zbek tili morfologiyasi bir biriga o‘xshash jihatlari bilan bir qatorda farqlidir ham. Ingliz tili Hind-Yevropa til oilasining German turiga kiradi. O‘zbek tili esa turkiy tillar oilasiga mansubdir. Morfologiya so‘zlarning tuzilishi va o‘zgarishi bilan bog‘liq tilshunoslik bo‘limi. Mazkur bo‘limda so‘zlarning ma’noli qismlari, qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida yuzaga keladigan so‘zdagi yangi ma’nolar ahamiyatlidir. Morfologiya eng soda tarzda kombinatsiyalarni beradi va morfemalar bu so‘zlardir uchun leksema tushunchasi juda ham muhimdir. Ingliz tili morfologiyasida asosiy tushunchalar:

- Mustaqil so‘zlar
- Yordamchilar
- Oraliqdagi so‘zlar

O‘zbek tili morfologiyasiga ko‘ra ham:

1. Mustaqil so‘zlar
2. Yordamchilar
3. Oraliqdagi so‘zlar kabi guruhlar asosiy tushunchadir.

“Morfologiya eng sodda tarzda kombinatsiyalarni beradi va morfemalar bu so‘zlardir”[48]. Morfologiya so‘zni o‘rgangani uchun so‘z asosiy vosita sifatida hizmat qiladi. Chunki, tilshunoslikda, morfologiya so‘zlar, ular qanday tuzilishi, va mazkur tildagi boshqa so‘zlar bilan bog‘liqligini aniq ifoda etadi. “U so‘zlarning tuzilishi va qismlari ya’ni o‘zak, so‘z o‘zagi, old va so‘z oxiridagi qo‘shimchalarni to‘liq tasniflaydi”[49]. Shuningdek, intonatsiya, urg‘u va kontekst so‘zlarining talaffuzi va ma’nosini o‘zgartirish yo‘llarini ham o‘rganadi. Misol tariqasida aytadigan bo‘lsak, istalgan mustaqil so‘z “book”(kitob), yordamchi so‘z esa istalgan bir bog‘lovchi so‘z “if” (agar) bo‘lishi mumkin. Bu jihatdan har ikki qiyoslanayotgan til bir birga o‘xshashdir.Yangi ma’no hosil qilish yoki so‘z yasash orqali bir so‘z turkumidan boshqa so‘z turkumiga o‘tish ham har ikkisiga ham xos xususiyatdir. Ot turkumiga mansub “luck” so‘ziga “ y” so‘z yasovchi qo‘shilib “lucky” sifati hosil bo‘ladi (omad+li=omadli sifat) . So‘z yasalish uslubiga ko‘ra ham ba’zi jihatlari juda yaqin hisoblanadi. Masalan, ingliz tilida old qo‘shimcha (dis+agree), so‘z oxirda qo‘shiladigan qo‘shimcha (teach+er), so‘z o‘zaklarining qo‘shilishi (business+man) kabi so‘z yasalish usullari o‘zbek tilida ham uchraydi (be+odob, odobsiz, oybolta). Lekin ingliz tilida so‘zlarning takrorlanishi (chelak-chelak, tez-tez), juft so‘zlar (oldi-sotdi, bordi-keldi) orqali so‘z yasalishi ko‘rnishidagi jihatlar uchramaydi. Xuddi shuningdek, ingliz tilida o‘zak o‘zgarishi orqali yangi ma’no yaratish holati ham o‘zbek tilida uchramaydi. Bu xolatda yangi so‘z hosil bo‘lishi ham, so‘zga qo‘shimcha ma’no yuklanishi ham mumkin. Misol tariqasida fe’l zamonlarini hosil qilishda “go” hozirgi zamonda “went” o‘tgan zamonda. O‘zbek tilida esa o‘zak aynan o‘zgarmaydi, balki ma’lum harflar tushishi yoki ortishi kuzatilishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, har ikki til uchun ham umumiy bo‘lgan jihatlar ham farqli jihatlar ham mavjuddir. O‘zbek tili agglyutinativ til bo‘lgani uchun qo‘shimchalar ,asosan, so‘z oxirida qo‘shiladi va bu jihatdan ingliz tilidan batamom farq qiladi. Shuningdek, ingliz tili morfologiyasi va sintaksisi orasidagi bog‘lanish o‘zbek tiliga qaraganda kuchliroq. Chunki, ingliz tilida morfologik o‘zgarishlar so‘z tartibini belgilashda muhim rol o‘ynaydi, o‘zbek tilida esa morfologik o‘zgarishlar sintaktik tuzilishga kuchli ta’sir ko‘rsatmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "An Introduction to Morphology" – Andrew Carstairs-McCarthy 2015
2. Understanding Morphology" – Martin Haspelmath, Andrea D. Sims 2010
3. "Morphology" – Peter H. Matthews
4. Morphology (linguistics) - Wikipedia
5. "Morphological Theory: An Introduction" – Andrew Spencer

[48] Understanding Morphology" – Martin Haspelmath, Andrea D. Sims 2010. Pg 11
[49] "An Introduction to Morphology" – Andrew Carstairs-McCarthy 2015. Pg 3

"The Cambridge Handbook of Morphology" – Andrew Hippisley, Gregory T. Stump

ENHANCING LANGUAGE PROFICIENCY: THE POWER OF ROLE-PLAYING IN DEVELOPING SPEAKING SKILLS

Gafurova Nodira
Associated professor of FerSU (PhD)

Abstract. This article is describing implementing role-playing activities in language classes can significantly enhance students' speaking skills and overall language proficiency. Here are some effective strategies for teachers to successfully incorporate role-playing into their language teaching. By incorporating role-playing activities into language classes, teachers can create dynamic and immersive learning experiences that promote active language use, cultural awareness, and confidence in speaking. Role-playing not only enhances linguistic skills but also fosters creativity, critical thinking, and collaboration among students. teachers can create engaging and effective role-playing activities that help beginner language learners practice and improve their speaking skills in a supportive and interactive environment. By being aware of these common challenges, teachers can tailor their approach to role-playing activities, provide targeted support, and create a supportive learning environment that addresses students' needs and fosters their language development effectively.

Key words: language, learning, skill, role play, situation, exchange, conversation.

In the realm of language learning, the ability to effectively communicate verbally is a fundamental skill that often poses a challenge to learners. Developing speaking skills requires practice, confidence, and a supportive environment that encourages experimentation and growth. One engaging and effective method that has proven to be a valuable tool in enhancing speaking abilities is role-playing.

Understanding the Role of Role Play in Language Acquisition

Role-playing immerses learners in simulated real-life situations where they take on specific roles and engage in conversational exchanges. This technique goes beyond traditional language learning methods by providing a dynamic platform for learners to actively apply their language knowledge in practical contexts.

Benefits of Role-Playing in Developing Speaking Skills

Practical Application: Role-playing allows learners to apply vocabulary, grammar rules, and language structures in authentic contexts, making language learning more meaningful and memorable.

Enhanced Communication Skills: Through role-playing, learners practice speaking fluently, expressing ideas clearly, and engaging in interactive conversations, thereby improving their communication skills.

Confidence Building: Role-playing helps learners overcome the fear of speaking in a foreign language by providing a safe space to practice without the pressure of making mistakes.

Cultural Understanding: Role-playing scenarios can expose learners to cultural nuances, social norms, and communication styles of the target language, fostering a deeper understanding of the language and its context.

Strategies for Effective Role-Playing Activities

Selecting Relevant Scenarios: Choose role-playing scenarios that are relatable and engaging for learners, such as everyday conversations, job interviews, or negotiations.

Providing Clear Instructions: Clearly outline the roles, objectives, and expectations for each participant to ensure a smooth and focused role-playing session.

Encouraging Creativity: Encourage learners to improvise, think on their feet, and engage in spontaneous dialogue to enhance their speaking skills.

Feedback and Reflection: Offer constructive feedback after each role play session to help learners identify strengths and areas for improvement, fostering continuous growth.

Variety in Pairings: Mix up pairings in role-playing activities to expose learners to different communication styles, accents, and personalities, enhancing their adaptability and flexibility in conversations.

Students may encounter various challenges when engaging in role-plays, especially in language learning contexts. Understanding these common challenges can help teachers provide targeted support to help students overcome them. Here are some typical difficulties that students may face during role-playing activities:

1. Language Anxiety:

Issue: Fear of making mistakes or being judged can hinder students' willingness to participate actively in role-plays.

Impact: Reduced confidence, limited participation, and inhibited language production.

Solution: Create a supportive and non-judgmental environment, encourage risk-taking, and provide constructive feedback to boost confidence.

2. Vocabulary and Grammar Knowledge:

Issue: Limited vocabulary and grammar proficiency can restrict students' ability to express themselves effectively during role-plays.

Impact: Difficulty in conveying ideas, lack of fluency, and reliance on repetitive language.

Solution: Provide vocabulary lists, language structures, and practice activities to reinforce key language concepts before role-playing sessions.

3. Cultural Differences:

Issue: Students may struggle to navigate cultural nuances and social conventions that differ from their own background during role-plays.

Impact: Misunderstandings, misinterpretations, and inappropriate responses in cross-cultural interactions.

Solution: Integrate cultural awareness activities, discussions, and explanations of cultural norms to help students navigate diverse scenarios effectively.

4. Lack of Confidence in Speaking:

Issue: Some students may lack confidence in their speaking abilities, leading to hesitancy, self-correction, or avoidance of speaking up during role-plays.

Impact: Reduced fluency, interrupted communication flow, and limited engagement in interactions.

Solution: Encourage gradual exposure to speaking tasks, provide opportunities for practice, and offer positive reinforcement to build students' confidence over time.

5. Role Immersion:

Issue: Difficulty in fully immersing oneself in the assigned role or character, resulting in inconsistencies or lack of authenticity in interactions.

Impact: Breaks in communication flow, confusion for partners, and reduced effectiveness of the role-play.

Solution: Encourage students to embrace their roles, use appropriate language and gestures, and stay consistent in their character portrayal throughout the interaction.

6. Listening Skills:

Issue: Limited listening comprehension skills can impede students' ability to understand their partners' prompts, questions, or responses during role-plays.

Impact: Miscommunication, incorrect responses, and difficulty in sustaining meaningful interactions.

Solution: Develop listening skills through focused practice activities, encourage active listening strategies, and provide clear instructions and cues during role-plays.

7. Time Management:

Issue: Difficulty in managing time effectively during role-plays can lead to rushed interactions, incomplete conversations, or inability to cover all discussion points.

Impact: Incomplete communication tasks, missed language practice opportunities, and limited engagement.

Solution: Set clear time limits for role-plays, monitor time closely, and help students prioritize key language objectives within the given timeframe.

Facilitating role-plays effectively in beginner language classes requires careful planning, clear instructions, and supportive guidance to help students engage and practice their language skills with confidence. Here are some tips for facilitating role-plays in beginner language classes:

1. Provide Clear Instructions:

Clearly explain the scenario, roles, objectives, and any specific language points students should focus on during the role-play.

Ensure that students understand their roles and the context of the interaction.

2. Model the Role-Play:

Demonstrate a sample role-play with a partner or by yourself to show students how the activity should be conducted.

Highlight key language expressions, intonation, and gestures that can enhance communication.

3. Encourage Preparation:

Allow students time to prepare their dialogues and practice their roles before engaging in the role-play.

Provide vocabulary lists, sentence starters, or prompts to support students in structuring their conversations.

4. Create a Supportive Environment:

Foster a safe and supportive classroom atmosphere where students feel comfortable taking risks and making mistakes.

Encourage positive feedback and constructive criticism among peers.

5. Provide Feedback and Guidance:

Offer constructive feedback after each role-play session, focusing on language accuracy, fluency, pronunciation, and overall communication effectiveness.

Provide specific examples of what students did well and areas for improvement.

6. Encourage Active Listening:

Emphasize the importance of active listening during role-plays to encourage students to respond appropriately to their partners' prompts and questions.

Encourage eye contact, nodding, and other non-verbal cues to show engagement.

7. Rotate Roles and Pairings:

Mix up role assignments and pairings to give students the opportunity to interact with different classmates and practice a variety of language skills.

Consider pairing stronger students with weaker ones to provide support and scaffolding.

8. Set Time Limits:

Establish time limits for each role-play to keep the activity focused and ensure that all students have the opportunity to participate.

Monitor the time and signal when it's time to wrap up the interaction.

9. Encourage Authenticity:

Encourage students to embody their roles authentically by using appropriate language, gestures, and expressions.

Remind students to stay in character and respond naturally to the situation.

10. Reflect and Debrief:

After each role-play, facilitate a discussion where students can reflect on their performance, share their experiences, and offer feedback to their peers.

Encourage students to identify what they did well and what they can improve upon for future role-plays.

By following these tips, teachers can create engaging and effective role-playing activities that help beginner language learners practice and improve their speaking skills in a supportive and interactive environment.

In conclusion, role-playing is a dynamic and interactive approach that can significantly contribute to the development of speaking skills in language learners. By providing a platform for practical application, communication practice, and confidence building, role-playing activities create a stimulating environment that empowers learners to become more proficient speakers. Embracing role-playing as a fundamental tool in language learning can pave the way for enhanced language proficiency and cultural understanding, ultimately enriching the language learning experience for learners of all levels.

REFERENCES:

1. Biber, D., Johansson, S., Leech, G., Conrad, S., & Finegan, E. (1999). Longman grammar of spoken and written English. Longman.
2. Carter, R., & McCarthy, M. (1997). Vocabulary: Applied linguistic perspectives. Routledge.
3. Halliday, M. A. K. (1978). Language as social semiotic: The social interpretation of language and meaning. Edward Arnold.
4. Huddleston, R., & Pullum, G. K. (2002). The Cambridge grammar of the English language. Cambridge University Press.
5. Lyons, J. (1968). Introduction to theoretical linguistics. Cambridge University Press.
6. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. (1985). A comprehensive grammar of the English language. Longman.
7. Simpson, R. (2002). Modality in English: A corpus-based approach to the semantics and pragmatics of modal verbs. Routledge.
8. Thomas, J. (2001). Discourse and thought in spoken language: Towards a sociology of language and language use. Cambridge University Press.

TILSHUNOSLIK NAZARIYASIDA SEMANTIKA VA PRAGMATIKANING ROLI VA AMALIY QO‘LLANISHI

Najmeddinov Ahmad Rahmatovich
Qo‘qon DPI dotsenti (PhD)
Nuraliyeva Sevara Mirzoxid qizi
Qo‘qon DPI talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola tilshunoslik nazariyasida semantika va pragmatikaning muhim o‘rni hamda amaliyotda qo‘llashni o‘rganishga bag‘ishlangan. Semantika til birliklarining lug‘aviy ma’nolarini o‘rganar ekan, pragmatika tilning kontekst va kommunikativ vaziyatdagi ishlatilishini tahlil qiladi. Maqolada bu ikki tushunchaning asosiy nazariyalari va ularning bir - biri bilan bog‘liqligi o‘rganiladi. Ma’no nima? So‘zlar qanday ma’no oladi? Semantika grammatik jihatdan ba’zi qoidalarni belgilaydigan va insonlarning tildan qay darajada foydalanishini o‘rganadigan pragmatika bilan qarama-qarshidir.

Abstract. This article is devoted to the study of the important role of semantics and pragmatics in the theory of linguistics and their application in practice. While semantics studies the lexical meanings of language units,

pragmatics analyzes the use of language in context and communicative situations. The article examines the main theories of these two concepts and their relationship with each other. What is the meaning? What do words mean? Semantics is contrasted with pragmatics, which defines some grammatical rules and studies the extent to which people use language.

Kalit so‘zlar: semantika, pragmatika, kommunikativ, grammatik, inson, til, kontekst, amaliyot, lug‘aviy.

Key words: communication, intention, communicator, emotional, incidental, pragmatic, illocutionary, nonverbal, verbal, addressee.

Pragmatikada tildan foydalanishda asosan kontekst ahamiyat kasb etadi, ya’ni gapiruvchi va tinglovchi o‘rtasidagi muloqotning ma’nosini tushuntirishga harakat qiladi. XIX asr oxirlarida pragmatika alohida fan sıfatida rivojlandi, lekin uning ildizlari qadimgi davrlardagi falsafiy mulohazalarga borib taqaladi. Masalan, yunon falsafasida, sofistlar va stoiklar tilning amaliy qo‘llanilishiga e’tibor berishgan,tavoze, murojaat kabilar nolisoniy (pragmatik) omillar sifatida namoyon bo‘ladi.Skolastika davrida, tilning ma’nosi bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqilgan. Til va mantiq orasidagi bog‘liqlikni tushuntirishga harakat qilingan. Semantika zamonaviy lingvistikada mustaqil o‘z yo‘nalishiga ega bo‘ldi. XX asrning o‘rtalarida Ferdinand de Sossyur va Gottlob Frege kabi olimlarning izlanishlari sohani yanada kengaytirdi. Asosan semantikada til tuzilmalari va mantiqiy tuzilmalar o‘rtasidagi munosabatlarni chuqur o‘rganishga qaratilgan.1960-70 yillarda pragmatikaning asosini Pol Graysning til bilan bog‘liq maxsus qoidalar - implikatura, ma’lumotsizlik nazariyasi tashkil qilgan. Shuningdek, J. L. Austin va John Searlelar ham nutq aktlari nazariyalari bilan pragmatikani rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi.Hozirgi kunda pragmatikani turli xil qoidalar, kontekstual omillar va tilshunoslikning boshqa sohalari bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rishimiz mumkin.Semantika ma’no jihatidan so‘zlarning borliqda aynan nimani anglatishini bildiradi va bunda sezgi, his va ifodalar bilan berilgan g‘oyalar semantika uchun xosdir, muloqotda to‘g‘ri jumlalar bilan fikrni ifoda etish ya’ni sintaksis odamlarning muloqotda tildan qay darajada to‘g‘ri oydalanishini o‘rganadigan pragmatika bilan qarama-qarshidir.Tilning voqelanishda inson omili bilan bog‘liq ravishdagi nutqiy muloqot jarayonini tadqiq qilish lingvopragmatik va psixolingvistik yo‘nalishning o‘rganish manbaini tashkil etadi. Ma’lumki, nutqiy muloqot milliy, etnografik, ijtimoiy, axloqiy-estetik, tarixiy, maishiy va ruhiy omillarning lisoniy birliklar voqelanishi bilan qorishuvidan iborat harakatdagi iboradir. insonning mental faoliyati bilan bog‘liq ravishdagi hodisalarni tadqiq qiluvchi kulьturologiya fanining muhim tarmoqlaridan biri sifatidagi pragmatik tilshunoslik inson sub’ekti va ob’ektivlik (lison)ni qorishiq yaxlitlik sifatida tadqiq qiladi. (Pardayev A. SamDu) Nutqda sub’ektivlik va ob’ektivlikni bir-biridan yaxlitlab tahlil va tadiq qilish imkonsiz, sistemaviylik yaxlitlik bilan xarakterlanadi. Demak, nutqiy faoliyat unga yondosh va insonga xos ruhiy, fiziologik, ijtimoiy, ma’naviy, madaniy sistemalar bilan bog‘liqlikda tadqiq etilgandagina nutqiy muloqotning mohiyati ochiladi va

individual hodisa sifatidagi nutqqa ob’ektiv baho bersa bo‘ladi. Ushbu nazaraiyalar lingvistikaning asosini to‘laqonli tashkil etadi. Nutqda kommunikativ intensiyaning olimlar tomonidan turlicha talqinlari uchraydi.

O‘xshatish, ma’no ko‘chish turlari,ma’noni ifodalash va katta his-tuyg‘ularni yetkazish uchun majoziy ma’nodan keng foydalaniladi. Masalan” U qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan ” deganda qo‘y kabi yuvoshligi nazarda tutilib qiyoslanib o‘xshatilyapti. Endi bundanda chuqurroq materiallar,ma’lumotlar olish uchun bir nechta sinalgan va sinalmagan yangi usullardan foydalanish mumkin . Biror so‘zni bir paytda necha xil va qanday ma’nolar ifodalayotganini gap mazmuniga qarab topish,shuningdek chuqurroq yondashganda,so‘zlarning ma’nolarida juda ko‘plab nuanslar borligini ko‘rish mumkin .Hamma so‘zlarda ham ma’no ko‘p bo‘lavermaydi,ba’zi so‘zlar oddiy tasvir kabi ko‘rinib turgan narsaga kontekst qo‘shuvchi majoziy elementlarni o‘z ichiga oladi.Semantikani o‘rganish ma’nolar qanday ishlashini ko‘rib chiqadi va ona tilida so‘zlashuvchi sezgilar hamda belgilardan foydalaniladi. Semantika har qanday tilni ma’nodor, jozibador qilish uchun ishlatiladigan so‘zlar va ohanglar birlashmasidir.Leksik va grammatik ma’nolarni aniqlash bu –semantikaning asosiy vazifasi hisoblanadi .Semantika til birliklarining aniq ma’nosiga e’tibor beradi va ular qanday qilib o‘zaro bog‘liq ekanligini o‘rganadi. Masalan, "ota" va "ona" kabi so‘zlar turli ma’noga ega bo‘lsa-da, ular o‘xshash ma’no maydoniga kiradi. Semantikaning tahlil qilish usullari orasida denotatsiya (biror narsaning haqiqiy ma’nosi yoki til birliklarining ko‘rsatadigan obyektlari) va konnotatsiya (so‘zning qo‘shimcha ma’no yoki emotsional yuklamasi) tushunchalari bor. Pragmatika esa tilning qanday qo‘llanishi, tushunchasi va gapiruvchining niyati bilan bog‘liq. Pragmatika gapda qanday qilib kontekst va muloqot vaziyatlari so‘zlarning ma’nosini o‘zgartirishi yoki aniqlashtirishi mumkinligini o‘rganadi. Pragmatika so‘zlarning bevosita yoki bilvosita ma’nolariga ham e’tibor beradi. Masalan, kimdir "xona tozalanmagan" desa, bu oddiy kuzatish bo‘lishi mumkin yoki xonani tozalashini so‘rayotganini bildirishi ham mumkin. Bu gapning qaysi ma’noda tushunilishini pragmatika tahlil qiladi. Ma’nosi kontekstga bog‘liq bo‘lgan so‘zlar va iboralar (masalan ”bu”, “o‘sha”, “hozir “) deiksis deb ataladi va mplikatura biror gapning to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytilmagan, ammo muloqot ishtirokchilari tomonidan anglanadigan ma’nosi esa implikaturadir.Har qanday so‘zlovchining gaplar orqali qanday maqsadga erishishini o‘rganadigan nazariya hisoblanadi.Ushbu tushunchalar Charlz Fillmor tomonidan keng o‘rganilgan .U deiksisning lingvistik rolini va ularning kontekst bilan bog‘liqligini chuqur tahlil qilgan. Fillmor muloqotda deiksisning qanday ishlashini ko‘rsatib bergan muhim tilshunoslardan biridir. Tilshunoslikda semantika va pragmatika tilning mazmuni va uning qo‘llanishini o‘rganuvchi ikki asosiy sohadir. Bu ikki sohaning amaliy qo‘llanishi ko‘plab sohalarda muhimdir:

1. Semantika: Tilshunoslik tahlillari: Lug‘atlar, tarjimalar va leksikografiya jarayonlarida so‘zlarning to‘g‘ri ma’nosini aniqlash uchun semantik analiz muhimdir. Til o‘rganish jarayonlarida ham o‘quvchilarga so‘zlarning kontekstdagi turli ma’nolarini tushunishga yordam beradi.

2. Pragmatika:Pragmatika muloqot jarayonida gapiruvchi va tinglovchining niyatlari, kontekst va ifoda orqali qanday mazmun uzatilayotganini o‘rganadi. Bu sohada amaliy qo‘llanishlar, masalan, reklama va marketing sohasida, mijozning nimani xohlayotganini tushunish orqali maxsus yondashuvlar ishlab chiqiladi.Amaliyotda qo‘llash shu kabi sohalarida keng foydalaniladi. Semantika, sintaksis va pragmatika kabi tilshunoslik yo‘nalishlari fan sifatida baravar rivojlanmadi. Ular bosqichma - bosqich tarixdan yangilik qo‘shib o‘rganib kelindi. Semantika, sintaksis yo‘nalishlari har tomonlama o‘ganib kelindi, hozirgi kunda pragmatika va semantikani o‘rganish jadal o‘sib bormoqda. Pragmatika haqidagi qarashlar turlichadir. Jumladan, N.D. Arutyunova, Yu.S. Stepanovlar pragmatikani badiiy kommunikatsiyaning subyektiv xususiyatlarini, matnda uni ijodkorlarining “men”ini ifodalanishi uslublarini o‘rganuvchi nazariya sifatida qarashni taklif qilishdi.Misol uchun semantik nuqtai nazardan,ba’zi so‘zlar keltiriladi:

Fasl: Yoz -bahordan keyingi va kuzdan oldingi fasl.

Fe’l: Yoz –yozish jarayoni,ya’ni biror narsani qog‘ozga tushirish.

Bu yerda semantik nuqtai nazardan,so‘zlarning ma’nosi grammatik va lug‘aviy jihatdan tushuntiriladi.

So‘zlarning ma’nosi ularni ishlatish konteksti,sharoitiga qarab qanday o‘zgarishini o‘rganadi :

Misol uchun :

“Eshik ochiq ekan.

”Semantik ma’no: eshik yopilmagan.

Pragmatik ma’no: Eshikni yopish kerakligini bildirish mumkin .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pardayev A. Yordamchi turkumlarining substansial va pragmatik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2013. -268 b.

2. Hakimov M. O‘zbek tili pragmatikasini o‘rganish. – Farg‘ona, 2011.

3. Safarov Sh. Pragmalingvistika. –Toshkent: O‘zME, 2008.

4. Pardayev Z. Pragmatik lingvistika. – Samarqand, 2013. -108

5. Hakimov M. H. O‘zbek tilidamatnning pragmatik talqini. Filol.fan. dokt.... diss. avtoref. - Toshkent, 2001. – 48 b.

6. Abdurahmonov F,Mamajonov S .O‘zbek tili va adabiyoti.-Toshkent 1995.

7. Toirova G.I. O‘zbek pragmalingvistikasi. O‘quv lug‘ati.-Toshkent, 2016. – 59 b.

8. Turdieva X.K. Nutqiy etiket birliklarining lingvopragmatik tadqiqi (fors va o‘zbek tillaridagi materiallar asosida). Filol.fan.fal. dokt...diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 64 b.

9. Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.

KOMMUNIKATIV INTENSIYA IFODALANISHINING LINGVISTIK IMKONIYATLARI VA PRAGMATIK JIHATLARI

Najmeddinov Ahmad Rahmatovich
Qo‘qon DPI dotsenti (PhD)

Annotatsiya. Nutqiy jarayonda diskurs ishtirokchilarining kommunikativ maqsadlari o‘zaro uyg‘un bo‘lsagina ma’lum bir natija yuzaga keladi. Kommunikativ maqsadni amalga oshishida nutqiy vaziyat muhim ahamiyatga ega. Chunki vaziyatni to‘g‘ri tanlay olish, kommunikantlarning o‘z ko‘zlagan maqsadiga yetishishi uchun birinchi o‘rinda turadigan omillardan biridir.

Abstract. In the speech process, a certain result will occur only if the communicative goals of the participants in the discourse are mutually compatible. The speech situation is important in realizing the communicative goal. Because the ability to choose the right situation is one of the most important factors for communicators to achieve their goals.

Kalit so‘zlar: muloqot, niyyat, kommunikant, emotsional, voqealanish, pragmatic, illokutiv, nolisoniy, nutqiy, adresat.

Key words: communication, intention, communicator, emotional, incidental, pragmatic, illocutionary, nonverbal, verbal, addressee.

O‘rta asrlarda kommunikativ intensiya falsafiy tushuncha sifatida paydo bo‘lib, maqsad, niyyat, mo‘ljal ma’nolarini anglatgan. Kommunikativ intensiya nutq maqsadi va pragmatik ta’siri, ifodada baho mazmuni, so‘zlovchining tinglovchiga ta’siri – emotsional o‘zgarishi, nutqiy reaksiya tiplari, muloqot (kommunikatsiya) ishtirokchilarining o‘zaro munosabati bilan bog‘liq tarzda nutqiy aralashuv shakli, murojaat shakllari, kommunikantlarning nutqiy aktlari, iltimos, buyruq, tavoze, murojaat kabilar nolisoniy (pragmatik) omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Nutqda kommunikativ intensiyaning olimlar tomonidan turlicha talqinlari uchraydi. Masalan, Z.Pardayev va Sh. Safarov bu borada J.Ostinning fikrlariga tayanadi. S.Pardayev darsligidagi kommunikativ maqsad tushunchasi Sh. Safarov kitobida intensiya atamasi bilan yuritiladi. Birinchi olim maqsadning nutq jarayonida voqealanishidan boshlab bir tushuncha sifatida qo‘llaydi, tahlillarni shu asosida keltiradi va ushbu tahlil asoschilari yo‘lidan boradi. Ikkinchi olim bu borada marhum do‘sti Kiyev universiteti professori Oleg Pochepson fikrini yoqlaydi. Uning qarashlariga ko‘ra, nutqiy harakat so‘zlovchi ko‘zlagan asosiy maqsadga erishishning bir vositasidir. Olim intensiyani ikkiga bo‘ladi: boshlang‘ich va natijaviy intensiya. Bu tavsifni nisbatan to‘liq deyish mumkin. Badiiy asar pragmatik tahlilida buning alohida o‘rni bor. Hikoya nisbatan kichik janr bo‘lganligi uchun unda suhbat ishtirokchilari boshqa yirik janrlarga qaraganda sanoqli bo‘ladi.

Said Ahmadning "Menga yetib kelmagan xat" hikoyasi ham bundan mustasno emas. Misol uchun hikoya asosiy qahramonining quyidagi gapini olsak: Oyi, bekor qildingiz, ovsinim xafa bo‘lib qoldi, — deyman yo‘l- yo‘lakay. So‘zlovchining boshlang‘ich maqsadi - bu ishni noto‘g‘ri bo‘lganligini onasiga tushuntirish. Asosiy maqsadi esa nima sababdan bunday qilganligining sababini bilishdir.

Sh.Safarovning fikriga asoslansak, nutqiy harakat ikki bosqichga ajraladi. Bular boshlang‘ich va natijaviy maqsaddir. Natijaviy intensiya uchun lisoniy birliklar bilan bir qatorda nolisoniy birliklar ham ahamiyatli sanaladi. Yuqoridagi gapda qahramon o‘z gapini yo‘l-yo‘lakay aytganligi ko‘rinadi. Nega aynan harakat jarayonida? Manzilga yetib emas, balki manzil tomon yo‘lga tushgan paytda? Chunki so‘zlovchi kommunikativ maqsadini yuzaga chiqarish uchun zamon va makon omili ham jiddiy ta’sir etadi. Ayni nutqiy faoliyat uchun tanlangan vaqt hamsuhbatning "sovib" ulgurmagan pallaga to‘g‘rilangandi. Bu esa kommunikativ maqsadning ijobiy tomonga hal bo‘lishini ta’minlagan.

Agar boshqa vaqt tanlaganda, balki natijaviy intensiya to‘liq yuzaga chiqmagan bo‘lar edi. Kommunikativ aktning yuzaga chiqishida illokutiv aktning ahamiyati kattadir. So‘zlovchi o‘z maqsadini voqealantirar ekan illokutiv akt tuzuvchisiga aylanadi. Jumladan hikoyaning yana bir qahramonining quyidagi gapini ko‘rib chiqsak: Turing, bolam, choy damladim. Tamaddi qilib oling. Bunda nutq egasining choy damlagani haqida xabar berish, tinglovchini uyg‘otish maqsadi, g‘amxo‘rlik qilayotganini bildirish, hamda tamaddi qilish vaqti bo‘lganligi haqida darak berish maqsadlari ifodalash imkoni paydo bo‘lgan. Umuman, natijaviy intensiyaga erishish uchun so‘zlovchining gapi tinglovchiga ta’sir etishi zarur bo‘ladi. Bu uning lisoniy birliklardan qay darajada foydalana olishi hamda nolisoniy birliklarni o‘z o‘rnida ishlata olish mahoratiga bog‘liqdir. Aynan shu omillar nutqiy aktning ta’sir o‘tkazish bosqichi perlokutsiyani yuzaga chiqaradi. Bu bosqichda so‘zlovchi tinglovchining his-tuyg‘ulariga ta’sir etadi va natijaviy intensiyaga erishadi. Yuqoridagi gapda so‘zlovchining tinglovchiga onalarcha mehr ko‘rsatayotganligi uning maqsadi (uyg‘onishi va tamaddilanishi)ga erishishiga sababchi bo‘lgan jihatlardan. Kommunikativ maqsadni amalga oshishida nutqiy vaziyat muhim ahamiyatga ega. Chunki vaziyatni to‘g‘ri tanlay olish, kommunikantlarning o‘z ko‘zlagan maqsadiga yetishishi uchun birinchi o‘rinda turadigan omillardan biridir. Misol uchun quyidagi nutqiy aktni ko‘rib chiqamiz: — Oyi, manavi arizani Usmon Yusupovga olib chiqib berasiz. U kishi o‘g‘lingizni yaxshi taniydi, — dedim. — Voy bolam, u kishini qaydan topaman?! Borsam, oldiga kiritishmaydi. Undan ko‘ra, o‘zingiz opchiqib ber-sangiz yaxshi bo‘larmidi, — dedi oyim — Agar opchiqib bermasangiz, men Andijonga ketaman! O‘g‘lingizni kutish kerak bo‘lsa, Andijonda ham kutaveraman! — deb shart qo‘ydim.

Nutqiy jarayonda diskurs ishtirokchilarining kommunikativ maqsadlari o‘zaro uyg‘un bo‘lsagina ma’lum bir natija yuzaga keladi. Matnni chuqur tahlil qilsak, kommunikatlarning maqsadi o‘zaro parallel tushgan, lekin suhbatdoshlar nutqidagi boshlang‘ich intensiya tubdan farq qiladi. Adresantga tegishli: Oyi, manavi arizani Usmon Yusupovga olib chiqib berasiz. U kishi o‘g‘lingizni yaxshi taniydi, qismida uning boshlang‘ich maqsadi arizani oyisi orqali Usmon Yusupovga yetkazish va o‘z kommunikativ maqsadiga erishish uchun tinglovchiga ta’sir kuchi yuqori bo‘lgan o‘g‘lingizni yaxshi taniydi jumlasidan foydalangan. Adresatning nutqida esa uning boshlang‘ich intensiyasi biroz boshqacha: rad etuvchi darak-xabar

ma’nosidadir. U suhbatdoshiga kuchliroq ta’sir etish va maqsadiga erishishni osonroq kechishi uchun xabarni ta’kidlash orqali reaksiya hosil qilgan. Bu jarayonda u kishini qaydan topaman?! Borsam, oldiga kiritishmaydi. Undan ko‘ra, o‘zingiz opchiqib bersangiz yaxshi bo‘larmidi kabi nutq parchalaridan foydalangan. Hamsuhbatini o‘ziga jalb qilish va emotsional ta’sir etish mqsadida Voy bolam, undovli undalamasidan foydalangan. Suhbatdoshini o‘z fikriga ko‘ndirish uchun o‘zingiz opchiqib bersangiz yaxshi bo‘larmidi jumlasidan foydalangan. Adresatning adresantdan yoshi ulug‘ bo‘lsada, u o‘z kommunikativ maqsadiga erishish uchun yaxshi bo‘larmidi ko‘rinishidagi so‘roq shaklida bo‘lgan iltimos ma’nosidagi nutqiy aktdan foydalangan. So‘zlovchi esa o‘z maqsadiga erishishdan qaytmaydi va u ham o‘z maqsadiga erishish uchun — Agar opchiqib bermasangiz, men Andijonga ketaman! O‘g‘lingizni kutish kerak bo‘lsa, Andijonda ham kutaveraman! jumlalarini o‘rinli qo‘llaydi. Ushbu parchada adresantning asosiy kommunikativ maqsadiga erishish uchun adresatga ogohlantirish, qisman tahdid ko‘rinishidagi xabar intensiyasi yaqqol ko‘rinadi. Emotsianal ta’sirni hosil qilish uchun “nozik masala”ga ishora qiluvchi lisoniy birliklarni ishlatadi. So‘zlovchi ongida ma’lum bir reja, ko‘zlangan natija xarakteri bilan bog‘liq bo‘lgan nutqiy harkat dasturi tuziladi. So‘zlovchi o‘z mo‘ljali xarakteridan kelib chiqib lisoniy birliklarni tanlab oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hakimov M. H. O‘zbek tilidamatnning pragmatik talqini. Filol.fan. dokt.... diss. avtoref. - Toshkent, 2001. – 48 b.

2. Nurmonov A., Mahmudov N. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: Kamolot - Qatortol, 2000. – 172 b

3. Toirova G.I. O‘zbek pragmalingvistikasi. O‘quv lug‘ati.-Toshkent, 2016. – 59 b.

4. Turdieva X.K. Nutqiy etiket birliklarining lingvopragmatik tadqiqi (fors va o‘zbek tillaridagi materiallar asosida). Filol.fan.fal. dokt...diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 64 b.

5. Tohirov Z. O‘zbek tilida pragmatik semalarning hosil bo‘lishi va ularda sub’ektiv munosabatning yuzaga chiqishi. Filol. fan. nomz....diss. avtoref. – Toshkent, 1994. – 29 b.

6. Usmonova SH., Bekmuhamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Universitet, 2014. – 83 b.4.

7. Сусов И.П. Прагматическая структура выцказывания.// Язиковое обшение и эго йединосы. Калинин: Изд-во КГУ, 1986. г. 4–18.

8. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1965. – Б.327 "Экономика и социум" №10(101)-1 2022 www.iupr.ru 131

9. Родионова А. В. Языковые средства выражения интенциональной направленности текста //Язык. Текст. Дискурс. – Научный альманах – Ставраполь, 2009. – №. 7. – С. 337-341.

TURLI TIZIMDAGI TILLARDA HURMAT KONSEPTINING GRAMMATIK IFODALANISHI QIYOSIY TAHLILI

Sabohatxon A'zamjonovna Yusupova
FarDU ingliz filologiyasi kafedrasi katta o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqola turli tizimdagi tillarda hurmat tushunchasining qiyosiy lingvistik tahliliga bag'ishlangan. Tadqiqotda ingliz, rus, koreys, yapon, turk, qirg'iz va qozoq tillarida hurmatning grammatik va leksik jihatlari o'rganilgan. Hurmatning morfologik va sintaktik ifodalanishi, rasmiy-norasmiy nutqning ijtimoiy ko'rsatkich sifatida qo'llanilishi tadqiq qilingan. Yapon tilidagi murakkab *keigo* tizimi va koreys tilidagi gonorefik shakllar kabi tillardagi hurmat ifodalari o'rtasidagi farqlar tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu maqola turli madaniy va til tizimlarida hurmatning universal tamoyillarini aniqlashga qaratilgan. Natijalar hurmat ifodasining tillar o'rtasidagi o'xshashliklari va farqlarini ko'rsatib, madaniy kontekstning hurmatni shakllantirishdagi rolini aniqlaydi. Maqola lingvistika, lingvokulturologiya va tarjimashunoslik sohalari uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: hurmat konsepti, qiyosiy lingvistika, morfologiya, sintaksis, turli tizimdagi tillar, ijtimoiy muloqot.

Abstract. This article presents a comparative linguistic analysis of the concept of respect in the languages of different system. The study examines the grammatical and lexical aspects of respect expression in English, Russian, Korean, Japanese, Turkish, Kyrgyz, and Kazakh. It explores the morphological and syntactic manifestations of respect, pronominal systems, and the use of formal and informal speech as social indicators. The article analyzes differences in respect forms such as the complex *keigo* system in Japanese and honorific forms in Korean. It aims to identify universal principles of respect in different cultural and linguistic systems. The results highlight similarities and differences in respect expression across languages and underscore the role of cultural context in shaping these concepts. The article is relevant for linguistics, cultural studies, and translation studies.

Keywords: concept of respect, comparative linguistics, morphology, syntax, cultural linguistics, pronominal system, different languages, social communication.

Hurmat konsepti tillarning ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini aniqlashda muhim o'rin tutadi. Mazkur konsept turli tizimdagi tillarda turlicha ifodalanadi va jamiyatdagi shaxslararo munosabatlarning ierarxiyasini belgilashga xizmat qiladi. Tillar o'rtasida hurmatning lingvistik ifodalanishi qiyosiy tahlillar orqali aniq ko'rinib turadi va har bir madaniyatda o'ziga xos bo'lgan hurmat shakllari, grammatik vositalar va lug'aviy birliklar mavjud.

Bu maqolaning asosiy maqsadi hurmat tushunchasining turli tizimdagi tillarda aks etishini tahlil qilish va mazkur tillar o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlashdir. Qiyosiy tahlil orqali turli madaniy va til tizimlarida hurmat ifodalanishining morfologik va sintaktik jihatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bu tadqiqot hurmatning tillardagi ko'p qatlamli va kompleks tuzilishini o'rganadi.

Tadqiqotda qiyosiy lingvistik tahlil yondashuvi qo‘llanildi, bu usul yordamida turli tillarning hurmat ifodalari morfologik va sintaktik jihatlari qiyoslandi. Ma’lumotlar tanlash jarayonida qirqilgan matnlar va zamonaviy muloqotlardan foydalanilgan. Tadqiqot uchun ingliz, rus, koreys, yapon, qirg‘iz, qozoq, turk tillaridan misollar tahlilga tortildi va ular morfologik, sintaktik va pragmatik jihatdan tahlil qilindi.

Ingliz tilidagi hurmat ifodalari, asosan, pronominal tizimda, ya’ni bir shaxsga “you” deb murojaat qilish bilan chegaralangan bo‘lsa ham, lekin rasmiy va norasmiy nutq uslublari farqlanishi tahlil qilindi.

Rus tilidagi “ты” va “вы” olmoshlari orqali ifodalangan rasmiy va norasmiy munosabatlar o‘rganildi.

Koreys tilidagi honorrifik formalar, jumladan, “씨” va “님” so‘zlari va fe’llarning hurmatli shakllari misol qilib keltirildi.

Yapon tilidagi *keigo* tizimi, ya’ni so‘zlashuvdagi turli darajadagi hurmat ifodalari tahlil qilindi.

Turk tilidagi “siz” va “sen” olmoshlari orqali ijtimoiy masofa va hurmatni ifodalash o‘rganildi.

Ushbu tillarda ham rasmiylik darajalarini ifodalovchi olmosh va tuzilmalarning lingvistik aspektlari ko‘rib chiqildi.

Ingliz tilida hurmat tushunchasi nisbatan kam grammatik jihatlarga ega. Bir shaxsga nisbatan “you” degan umumiy olmosh qo‘llaniladi va bu til rasmiy va norasmiy nutq orasidagi farqni kam aks ettiradi. Ammo, ijtimoiy mavqega qarab, rasmiy va norasmiy nutq uslublarida hurmat aks etishi mumkin. Masalan, “Sir” yoki “Madam” kabi so‘zlar murojaatlarda ishlatilishi mumkin.

Rus tilida hurmat tushunchasi ancha murakkab va shaxslararo munosabatlar qattiqroq ijtimoiy me’yorlar asosida tashkil qilinadi. “Ты” va “Вы” olmoshlari shaxslar o‘rtasidagi hurmat darajasini belgilaydi. Katta yoshdagilar yoki rasmiy sharoitlarda doimo “Вы” shakli ishlatiladi, bu esa rus tilida hurmatni aniq ko‘rsatadi.

Koreys tilida hurmat ifodasi juda murakkab bo‘lib, so‘zlashuvdagi rasmiylik darajasiga qarab o‘zgaradi. Masalan, “씨” (ssi) norasmiy hurmatni bildiradi, “님” (nim) esa ko‘proq rasmiylikni ifodalaydi. Fe’l shakllari ham shaxsning ijtimoiy mavqeyiga qarab o‘zgaradi. Misol: koreys tilidagi hurmat ko‘rsatuvchi shaklga “하십니다” (hasimnida) kabilar kiradi, bu rasmiy vaziyatlarda qo‘llaniladi.

Yapon tili dunyodagi eng murakkab hurmat ifodalash tizimiga ega tillardan biri sanaladi. “Keigo” deb ataladigan tizimda hurmatning uch darajasi mavjud: sonkeigo (hurmatli til), kenjougo (kamtarona til) va teineigo (xushmuomala til). Misol: “お客様” (okyakusama) – hurmatli mehmon.

Turk tilida hurmat ko‘rsatuvchi grammatik vositalar orqali shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar belgilangan. Masalan, “sen” norasmiy murojaat uchun ishlatilsa, “siz” rasmiy va hurmatli muloqot uchun qo‘llaniladi.

Qirg‘iz va qozoq tillarida ham rasmiylikni ifodalash uchun olmoshlar tizimi o‘xshash. Masalan, qirg‘iz tilida “сен” va “сиз” shakllari shaxslar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi. Qozoq tilida ham “сен” va “сіз” shakllari mos ravishda ishlatiladi.

Hurmat tushunchasining turli tizimdagi tillarda ifodalanishi ko‘pincha madaniy va ijtimoiy omillarga bog‘liq bo‘lib, har bir tilning o‘ziga xos qoidalari mavjud. Ingliz tilida hurmat ko‘rsatish, asosan, ijtimoiy va madaniy sharoitlarga ko‘ra til uslubida aks etgan bo‘lsa, rus va koreys tillarida grammatik va morfologik jihatlarda aniq namoyon bo‘ladi. Yapon tilidagi murakkab “keigo” tizimi esa hurmatning ijtimoiy tuzilmasini aniq aks ettiradi. Turk va markaziy Osiyo tillarida esa hurmat grammatik tizimda ko‘proq pronominal vositalar orqali ifodalanadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, tillardagi hurmat ifodalari nafaqat tilshunoslik uchun, balki lingvokulturologiya va tarjimashunoslik sohalarida ham dolzarbdir. Turli madaniy kontekstlarda hurmatning ifodalanishi va til birliklari orqali bu hurmat ifodalanishi aniq ko‘rsatib turadi.

Tadqiqot davomida turli tizimidagi tillarda hurmat tushunchasining morfologik va sintaktik ifodasi o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, turli madaniyat va til tizimlarida hurmat ifodalari o‘xshash tamoyillarga asoslangan bo‘lsa-da, ularning grammatik va pragmatik jihatlari juda farq qiladi. Shu bilan birga, har bir tilning o‘ziga xos hurmat ko‘rsatish usullari mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Brown, P., & Levinson, S. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press.
2. Comrie, B. (1996). The Languages of the Soviet Union. Cambridge University Press.
3. Ide, S. (1989). Formal forms and discernment: Two neglected aspects of linguistic politeness. Multilingua, 8(2-3), 223–248.
4. Kádár, D. Z., & Mills, S. (2011). Politeness in East Asia. Cambridge University Press.
5. Matsumoto, Y. (1988). Reexamination of the universality of face: Politeness phenomena in Japanese. Journal of Pragmatics, 12(4), 403–426.
6. Park, H. S., & Nakano, Y. (1991). Language, politeness, and social context: The Korean and Japanese honorific systems. Language Sciences, 13(3-4), 319–340.
7. Tannen, D. (1993). Gender and Discourse. Oxford University Press.
8. Turk, A. (2012). Sociolinguistics: Understanding the Social Aspects of Language. Routledge.
9. Wierzbicka, A. (1991). Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. Mouton de Gruyter.
10. Крышталь, Е. А. (2003). Русская речевая культура: Нормы и традиции. М.: Флинта.
11. Сажина, Л. В. (2007). Политическая корректность и прагматика общения. Язык и общество, 6, 12-18.

12. Büyüköztürk, Ş., Çakmak, E., & Demirel, F. (2008). Sosyal Bilimler İçin Araştırma Yöntemleri. Pegem Akademi.

13. Cho, Y. (2004). Honorifics and politeness in Korean language. Korean Linguistics Journal, 15(1), 101–120.

14. Yoshida, M. (2010). Japanese Politeness and Honorifics: A Linguistic Study. University of Tokyo Press.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA VIZUAL KOGNITIV FE’LLARINING QIYOSIY TAHLILI

Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna
FarDU Ingliz tili amaliy kursi kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Mazkur ishda o‘zbek va ingliz tillarida vizual kognitiv fe’llarning struktur xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Ushbu fe’llarning morfologik, sintaktik va semantik jihatlari ko‘rib chiqilib, ular orqali vizual idrokni ifodalashning o‘xshashliklari va farqlari aniqlanadi. O‘zbek tilida fe’llar qo‘shimchalar orqali turli grammatik shakllarni oladi va ko‘rish bilan bog‘liq turli jarayonlarni ifodalaydi. Ingliz tilida esa vizual kognitiv fe’llar to‘g‘ri va noto‘g‘ri fe’l shakllariga ega bo‘lib, ular ham ko‘rishning turli jihatlarini aks ettiradi. Shuningdek, har ikki tilda ko‘rish jarayoni nafaqat jismoniy idrokni, balki bilish, tushunish va anglash jarayonlarini ham o‘z ichiga oladi. Ishda bu fe’llarning metaforik ma’nolarda qo‘llanishi va tilshunoslikda kognitiv jarayonlarni aks ettirishi ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: vizual kognitiv fe’llar, o‘zbek tili, ingliz tili, semantik tahlil, morfologik xususiyatlar, sintaktik tuzilma, kognitiv lingvistika, idrok, ko‘rish jarayoni, qiyosiy tahlil, polisemiya, metafora

Abstract. In this work, the structural features of visual cognitive verbs in Uzbek and English languages are comparatively analyzed. Morphological, syntactic and semantic aspects of these verbs are considered, and similarities and differences of visual perception expression are determined through them. In the Uzbek language, verbs take different grammatical forms through suffixes and express different processes related to vision. In English, visual cognitive verbs have correct and incorrect verb forms, which also reflect different aspects of vision. Also, the process of seeing in both languages includes not only physical perception, but also the processes of knowing, understanding, and understanding. The use of these verbs in metaphorical meanings and the reflection of cognitive processes in linguistics are also considered in the work.

Key words: visual cognitive verbs, Uzbek language, English language, semantic analysis, morphological features, syntactic structure, cognitive linguistics, perception, visual process, comparative analysis, polysemy, metaphor

Kognitiv lingvistika zamonaviy tilshunoslik maktabi bo‘lib, dastlab 1970-yillarning boshlarida tilga nisbatan rasmiy yondashuvlardan norozilik tufayli paydo bo‘lgan. Kognitiv tilshunoslik 1960-1970-yillarda zamonaviy kognitiv fanning paydo bo‘lishida, xususan, odamlarni toifalarga bo‘lish bilan bog‘liq ishlarda va

gestalt psixologiyasi kabi oldingi an’analarda mustahkam ildiz otgan. Ilk tadqiqotlar 1970-1980-yillarda nisbatan kam sonli olimlar tomonidan olib borilgan. 1990-yillarning boshlariga kelib, ushbu sohadagi tadqiqotlar va o‘zlarini “kognitiv tilshunoslar” deb atagan tadqiqotchilarning ko‘payishi kuzatildi. 1989/90 yillarda Kognitiv lingvistika jurnali bilan birgalikda Xalqaro kognitiv lingvistika jamiyati tuzildi. Taniqli kognitiv tilshunos Ronald Langaker so‘zlariga ko‘ra, bu “kognitiv tilshunoslikning keng asosga ega, o‘zini o‘zi anglaydigan intellektual harakat sifatida tug‘ilishini belgilab berdi”.

Kognitiv fe’llar ma’lum bir vaziyat yoki jarayonni anglatadi va bu fe’llar insonning bilish, o‘ylash, anglash kabi kognitiv jarayonlarini aks ettiradi. Bu fe’llar quyidagi toifalarga ajratilishi mumkin:

Intellektual fe’llar – o‘ylamoq, bilmoq, tushunmoq kabi fe’llar inson aqliy faoliyatini aks ettiradi.

Emotsional kognitiv fe’llar – sevmoq, qo‘rqmoq, xursand bo‘lmoq kabi fe’llar insonning emotsional holatlarini ifodalaydi.

Perseptiv fe’llar – ko‘rmoq, eshitmoq, sezmoq kabi fe’llar sezgi organlari orqali qabul qilinadigan jarayonlarni anglatadi.

Bu tasnif kognitiv fe’llarning tilda qaysi jarayonlarni qanday ifodalashini tahlil qilishga imkon beradi.

Vizual kognitiv fe’llar sezgi va ko‘rish jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, ularning lingo-madaniy xususiyatlari turli tillarda har xil bo‘lishi mumkin. Masalan, **“ko‘rmoq”** fe’li nafaqat vizual jarayonni anglatadi, balki biror narsani tushunish yoki qabul qilish ma’nosida ham qo‘llanilishi mumkin. Shu bilan birga, ba’zi madaniyatlarda ko‘rish va bilish jarayonlari bir-biriga bog‘liq holda ifodalanadi.

Bu bo‘limda quyidagi masalalar ko‘rib chiqilishi mumkin:

Ko‘rish bilan bog‘liq metaforalar – ko‘rish jarayoni ko‘pincha bilim olish, tushunish yoki kuzatish bilan bog‘liq metaforik ma’nolarda qo‘llaniladi.

Til va madaniyat aloqasi – vizual kognitiv fe’llarning har bir tildagi ifodalanishiga madaniy omillar qanday ta’sir qiladi.

Bu mavzular kognitiv tilshunoslik va vizual kognitiv fe’llarni o‘rganishda chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Ko‘rish jarayoni kognitiv va lingvistik sohada ko‘pincha **bilim olish**, **tushunish**, va **kuzatish** kabi tushunchalar bilan bog‘liq. Bu yerda ko‘rish jarayoni nafaqat fizik holat, balki ma’naviy yoki bilimiy jarayonni ham aks ettiradi. Masalan, ko‘plab tillarda ko‘rish bilan bog‘liq metaforalar quyidagicha ifodalanadi:

“Nimani ko‘rmoq” – biror narsani ko‘rish, ma’lum bir voqea yoki ma’lumotni qabul qilish, tushunish jarayonini bildirishi mumkin. Masalan, **“Ko‘z o‘ngimda hammasi ravshan bo‘ldi”** degan iborada “ko‘z o‘ngimda” ko‘rish jarayoni orqali tushunishni aks ettiradi.

“Ko‘zini ochmoq” – metaforik ma’noda bu ibora anglash, haqiqatni bilish, yangi bilimni qabul qilish jarayonini bildiradi.

Koʻrish jarayoniga asoslangan metaforalar turli tillarda va madaniy kontekstlarda har xil boʻlishi mumkin. Bunda **koʻrish va bilish oʻrtasidagi bogʻlanish** har xil maʼnolarda va tarzda namoyon boʻladi, bu esa til va madaniyatni oʻzaro taʼsir qilishini koʻrsatadi.

Til va madaniyat doimo oʻzaro bogʻliq. Vizual kognitiv feʼllarning har bir tildagi ifodalanishi madaniy omillardan taʼsirlanadi. Misol uchun:

Baʼzi tillarda **koʻrish** va **tushunish** jarayonlari bir-biriga yaqinroq boʻlsa, boshqa tillarda bu ikki jarayon bir-biridan ajralgan boʻlishi mumkin. Masalan, oʻzbek tilida **“koʻrdim”** soʻzi koʻpincha shunchaki fizik koʻrishni emas, balki tushunishni ham anglatadi. Ingliz tilida esa **"I see"** soʻzi “tushundim” maʼnosida ishlatiladi.

Bu esa **lingvistik nisbiylik nazariyasi** doirasida koʻrib chiqilishi mumkin. Sapir-Whorf gipotezasi tilni dunyoni qanday qabul qilishimizga taʼsir qiluvchi asosiy omillardan biri deb hisoblaydi. Shu sababli, turli madaniyatlarda koʻrish bilan bogʻliq tushunchalar va feʼllar turlicha ifodalanishi mumkin.

Bundan tashqari, baʼzi madaniyatlarda **koʻrish orqali anglash** yuqori qadrlangan boʻlsa, boshqalarda **eshitish**, **his qilish** kabi boshqa sezgi jarayonlari koʻproq ahamiyat kasb etishi mumkin. Bu madaniy omillar kognitiv feʼllarning lingvistik ifodalanishiga va ularning qanday maʼnolarda qoʻllanishiga taʼsir qiladi.

Bu jihatlar til va madaniyat oʻrtasidagi murakkab aloqani va kognitiv feʼllarning turli madaniy kontekstlarda qanday oʻzgarishini chuqurroq oʻrganish imkonini beradi.

Vizual kognitiv feʼllarning semantik maydonlari deganda, koʻrish jarayoni bilan bogʻliq boʻlgan soʻzlarning maʼnolarini tashkil etuvchi tarmoq yoki guruhlar tushuniladi. Bu guruhlar feʼllarning maʼnosini turli yoʻnalishlar va kontekstlarda tushunishga yordam beradi. Vizual kognitiv feʼllarning semantik maydonlari bir qator maʼnoviy darajalarni oʻz ichiga oladi va ular bir necha asosiy yoʻnalishlarda aniqlanadi.

1. Koʻrishning turli darajalarini ifodalaydigan feʼllar

Koʻrish bilan bogʻliq feʼllar koʻrish jarayonining turli darajalarini ifodalaydi. Ular koʻrish jarayoni qanchalik aniq, davomli yoki faol boʻlishiga qarab farqlanadi:

Koʻrmoq – umumiy koʻrish harakatini bildiradi, bu eng keng qamrovli va umumiy maʼno.

Nigoh tashlamoq – qisqa vaqt ichida koʻz tashlash, biror narsaga yuzaki qarash.

Kuzatmoq – diqqat bilan uzoq vaqt biror narsani koʻrib turish yoki tahlil qilish.

Termulmoq – bir nuqtaga uzoq vaqt diqqat bilan qarash, lekin tahliliy elementlar kuchli emas.

Koʻzdan kechirmoq – diqqat bilan tekshirib koʻrish yoki nimanidir baholash maqsadida koʻrish.

Bu fe’llar ko‘rish jarayonining turli holatlarini aks ettiradi va ularning semantik maydonida ko‘rish jarayonining intensivligi yoki davomiyligi asosiy o‘rinni egallaydi.

Vizual kognitiv fe’llarning semantik maydoni ko‘rish jarayonida insonning emotsional holati yoki sub’ektiv baholashini ham o‘z ichiga oladi:

Hayratlanib qaramoq – biror narsani ko‘rish natijasida hayratlanish yoki taajjubni ifodalaydi.

Nafrat bilan qaramoq – salbiy his-tuyg‘u bilan biror narsaga qarash.

Qiziqib qaramoq – biror narsaga qiziqish bilan qarash.

Bu turdagi fe’llar ko‘rish jarayonining sub’ektiv va hissiy jihatlarini aks ettiradi, ya’ni insonning ichki kechinmalari bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rish jarayonlarini semantik maydon doirasiga kiritadi.

Ba’zi tillarda ko‘rish jarayoni bilim olish yoki tushunish jarayonini ifodalashda ham qo‘llaniladi. Masalan, o‘zbek tilida “ko‘rmoq” so‘zi faqat ko‘z bilan ko‘rish emas, balki anglash yoki tushunish ma’nosida ham ishlatiladi:

Anglab yetmoq – biror narsani ko‘rib, tushunish jarayoni.

Sezmoq – ko‘rish jarayoni orqali bilish yoki tushunish.

Tushunmoq – ko‘rish orqali biror narsani anglash.

Bu fe’llar semantik maydonida ko‘rish jarayonining kognitiv jihati kuchli bo‘lib, ko‘rish va bilish jarayonlari o‘zaro bog‘langan.

Ko‘rish jarayoni oxirida inson qandaydir xulosaga keladi yoki nimanidir kashf qiladi. Bu jarayonni ifodalaydigan fe’llar ko‘rish natijasida kelib chiqqan bilim yoki tushunchani aks ettiradi:

Aniqlamoq – ko‘rish orqali biror narsani aniq bilish.

Topmoq – nimanidir ko‘rib, yangi ma’lumot olish.

Tushunmoq – ko‘rish orqali kelib chiqqan natija sifatida biror narsani anglash.

Bu fe’llar semantik maydoni ko‘rish jarayonining natijasi va bu natijada paydo bo‘lgan yangi bilim yoki tushunchalarni ifodalaydi.

Ko‘rish bilan bog‘liq fe’llar ba’zida metaforik ma’noda ham ishlatiladi. Bu fe’llar fiziologik ko‘rish jarayonidan tashqarida, boshqa kognitiv jarayonlarni tasvirlash uchun qo‘llaniladi:

Ko‘zi ochilmoq – haqiqatni anglash, tushunish.

Ko‘zi tushmoq – biror narsani tasodifan ko‘rib qolish yoki biror narsaga qiziqish paydo bo‘lishi.

Ko‘zda tutmoq – maqsadni anglatadi, ko‘rish emas, balki reja qilish ma’nosida ishlatiladi.

Metaforik ma’noda ko‘rish fe’llari semantik maydoni tildagi chuqur ma’nolarni va kognitiv jarayonlarni ifodalaydi.

Vizual kognitiv fe’llarning semantik maydonlari ko‘rish jarayonining turli darajalarini, emotsional va sub’ektiv ifodalarni, ko‘rish va bilishning o‘zaro bog‘liqligini, ko‘rish natijalarini, hamda metaforik ma’nolarni qamrab oladi. Bu maydonlar tilning boyligi va madaniy xususiyatlarini ko‘rsatadi.

O‘zbek va ingliz tillarida **idrok fe’llarining semantik tuzilmalarini qiyosiy tahlil qilish** deganda, bu tillarda sezgi va idrok jarayonlarini ifodalaydigan fe’llarning ma’no tizimlarini solishtirish tushuniladi. Idrok fe’llari, odatda, insonning atrof-muhitdan axborot olishiga yordam beruvchi sezgi organlari bilan bog‘liq bo‘lgan fe’llarni qamrab oladi (ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta’m bilish, teginish).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax, Sangzor nashriyoti, 2006. – B. 92

2. Evans V., Green Melanie. Cognitive linguistics an introduction. Edinburgh university press. 2006. –P. 851

3. Ғуломов А.Ғ. Феъл. – Тошкент: Фан, 1954. – Б. 63.

4. Бўронов Ж. Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – Б. 35.

5. Muhamedova S. O‘zbek tilida fe’l valentliklari (harakat fe’llari misolida). –Toshkent: Bookmany print, 2023. – B. 10

6. Содиқова М. Феъл стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 38.

MAQOL VA MATALLARDA EVFEMIZMLAR TADQIQI

N.A.Xoshimova
FarDU dotsenti (PhD)
M.Yusupova
FarDU doktoranti

Annotatsiya. Maqolada maqol va matal o‘zaro farqlanishi hamda maqol va matallar tarkibida evfemistik holati nazariy jihatdan tahlil etildi.

Annotation. The article analyzes the difference between the proverb and saying along with the euphemization of proverbs and sayings.

Kalit so ‘zlar: maqol, matal, evfemizm, uslubiy vosita, parafrastik evfema, tabu.

Key words: proverb, saying, euphemisms, stylistic device, paraphrastic euphemism, taboo.

Jamiyat taraqqiyoti turli sohalar rivojlanishi orqali amalga oshadi. Turli sohalar rivojlanishiga biz tilshunoslik sohasida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni ham keltirishimiz mumkin. Til tizimida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar tilshunoslikning turli aspektlarida ham o‘rin olgan. Shu tufayli maqol va matallarning o‘rganilishi masalasi keng miqyosda tilshunoslikning turli yo‘nalishlarida olib borilmoqda. Mazkur maqolada biz maqol va matallarning evfemizatsiyalashish jarayonini tahlilga tortarmiz.

Aksariyat tilshunos olimlar fikricha maqol – bu tugallangan gap bo‘lib, ma’lum bir aqliy ifodani o‘z ichiga qamrab oladi. Matal hayotiy hodisalarni majoziy ma’noda beruvchi ifodadir [5]. Lekin bunga e’tirozimizni bidirib, aytishimiz joiz-ki, ham maqol, ham matalda majoziy ma’no mavjud. Lekin hamma maqollarda ham emas. Maqol va matallarning farqi asosan ularning tugallangan

fikr berayotganligi deb ta’kidlaymiz. O‘zbek tilining izohli lug‘atida matalga quyidagi izoh keltiriladi: “tugal ma’no ifodalamaydigan obrazli ibora, hikmatli so‘z” [10], maqol ta’rifi esa quyidagicha ifodalanadi: “hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda pand-nasihat mazmuniga ega bo‘lgan ixcham, obrazli va hikmatli ibora, gap” [10]. Masalan, hech qachon bo‘lmaydigan hodisa majoziy ma’noda berilmoqda: *tuyaning dumi yerga tekkanda* – matal; *xo‘janing qizi erga tekkancha, tuyaning dumi yerga tegadi* – maqoldir. Ko‘rinib turibdiki, matal tugallanmagan fikrni beradi, matal esa tugallangan ifoda bo‘lib, to‘liq gap sifatida shakllanadi. Hozirgi kun tilshunosligida maqol va matalga berilgan izohlar soni talaygina.

N.G.Doljenko va V.O.Prozorova maqol va matallarni o‘zgarmaydigan til birliklar tarkibiga kiritadilar. Ya’ni o‘z tarkibida o‘zgarishlarni talab qilmaydigan til birliklari deb izohlaydilar[2]. Lekin biz bunga e’tirozimizni bildiramiz. Til o‘zgaruvchandir. Tilda nafaqat yangi so‘zlar paydo bo‘ladi, so‘zlarning ma’nosi o‘zgaradi, yangi ma’no hosil qilinadi. Tildagi mavjud bo‘lgan birliklar, xususan parmeologik birliklar ham nutqda o‘z tarkibini o‘zgartirishi mumkin. Unda maqol va matallardagi komponentlar o‘zgarishi, ayrim komponentlarning qo‘shilishi yoki tushib qolishi uchrashishi mumkin. Odatda maqol va matallardagi komponentlar o‘zgarishi, komponentlar qo‘shilishi yoki olib tashlanishi nutqda kuzatiladi. Maqol va matallar tarkibi o‘zgarishi Ye.N.Seliverstova, X.Valter, N.K.Kvasha, Yu.A.Vorontsova, T.I.Damm kabi zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan atroflicha o‘rganilgan.

Maqol va matallar tilshunos olimlar uchun tadqiq ob’ektiga aylanib, turli aspektda tahlil qilinmoqda. Bugungi kunda maqol va matallarning sintaktik tizimi, tematik, leksik-semantik xususiyatlari, pragmatik funktsiyalari, lingvomadaniy xususiyatlari atroflicha o‘rganilmoqda. Maqol va matallarning tabiati va lisoniy jihatlarini N.N.Amosova, V.V.Vinogradova, A.V.Kunina, K.Aitken, D.Cram, W.Mieder, N. Norrick, J. Obelkevich, D. Snell, K. Yankah, W. Mieder, A. Taylor kabi tilshunoslar atroflicha o‘rgangan.

Maqol va matallar o‘z tarkibida turli stilistik vositalarning mavjudligi bilan ajralib turadi. Maqol va matal tarkibidagi stilistik vositalar tadqiqiga o‘z ilmiy ishlarini qator tadqiqotchilar bag‘ishlagan. Maqol va matallar tarkibida litota, giperbola, metafora, antiteza, takror, evfemizm, so‘z o‘yini kabi stilistik vositalar qo‘llanishi R.Normurodov, T.G.Bochina, E.Raychevalarning izlanishlarda o‘z ifodasini topgan. Umuman olganda, stilistik vositalar semantik jihatdan ikkita ma’noga va estetik funktsiyaga egaligi bilan ajaralib turadi.

Hozirgi zamon tilshunosligida evfemizmni uslubiy vosita sifatida ko‘rish bir aniq to‘xtamga kelingani yo‘q. O.S.Axmanova evfemizmni uslubiy vosita sifatida talqin etadi. B.A.Larin evfemizmni metafora, metonimiya, sinekdoxa va xkz. uslubiy vositalar kabi mazmuniy tizimiga ko‘ra uslubiy vositadir deb, lekin majoziy ma’nosi yo‘qlini ta’kidlaydi [6]. Olim evfemizmlarning majoziy ma’no emas, balki yashirin ma’no berganligini qayd etadi. Evfemizmlar narsa, hodisani shunday ta’riflaydiki, ushbu narsa yoki hodisa o‘zgarib, tanimaydigan holatgacha

kelishi mumkin. N.Rubina evfemizmlarni uslubiy vositalarning maxsus turiga kiritadi va ularni ko‘chma ma’noda ifodalanishini qayd etadi. Shu bilan birga olima evfemizmlarni lisoniy emas, balki lingvokulturologik tushuncha sifatida izohlaydi [7]. Lekin, bizning izlanishlarimizdan kelib chiqib, ta’kidlashimiz joizki, maqol va matal tarkibidagi evfemizmlarni uslubiy vosita sifatida talqin etish to‘g‘ri fikrdir.

I.R.Galperinga asosan uslubiy vosita sifatida evfemizmning lisoniy xususiyatiga e’tiborini qratgan. Shuningdek, I.R.Galperin kontekstual evfemizm yoki badiiy evfemizmlarni ajratib, ularni evfemik parafraza sifatida tadqiq qilishni tavsiya beradi. Evfemik parafrazaning vazifasi ob’ektni aniq va lo‘nda ifodasining o‘rniga so‘z birikmalar yoki keng tasviriy birikmalar orqali ko‘chma yoki majoziy ma’noda nomlanishidadir. Ushbu holatda evfemik parafrazaning ko‘chma ifodasi uslubiy vosita sifatida qabul qilinadi va ifodaning qo‘pol hamda yoqimsizligini yumshatib uzatadi[1]. Shuning uchun maqol va matallarda evfemizatsiya holatiga biz evfemik parafraza yoki aniqrog‘i, parafrastik evfema sifatida yondashamiz. A.J.Omonturdiyev qishloq xo‘jalik sohasida qo‘llanadigan evfemizmlarning xususiyatiga ilmiy ishini bag‘ishlab, unda maqol va matallardagi evfemizatsiya holatini ham bir jihatdan tahlilga tortishga harakat qilgan. A.J.Omonturdiyev parafrastik evfemalar haqida ularning “ma’nosi aniq gap, sintaktik qurshov, muayyan vaziyat, muloqotdagina anglashiladi” [8] deb ta’kidlaydi. “Parafrastik evfema tarixiy-evolyutsion jarayonning yuqori bosqichiga ko‘tarilgan, til faktiga aylangan, xotirada butun holda shakllanadigan maqol, matal, aforizm, topishmoq, frazema maqomini olgan, ma’nosi ibora tarkibidagi real ma’nosidan anglashilmaydigan umumiy ko‘chma, obrazli, falsafiylashgan, mahraj ma’no anglatadigan hosiladir... Parafrastik evfemaning yana bir o‘ziga xosligi shuki, u grammatik shaklidan qat’i nazar, matn ichida ham, matndan tashqarida ham o‘zining shakl va mazmun butunligini saqlaydi”[8]. Shuningdek, A.J.Omonturdiyev hamma maqollar o‘z ko‘chimi yoki majoziy ma’nosiga nisbatan evfemik vosita deyilmaydi, deb ta’kidlaydi. Maqol va matal ko‘chimi tabulashgan bo‘lishi kerak, shunda evfemik vositasiga aylanishi mumkin [8].

Maqol va matallarning evfemizatsiya holati dunyo va o‘zbek tilshunosligida hali beri keng tadqiq qilingani yo‘q. Jumladan, ingliz va xitoy tillarida maqol va matallar tarkibidagi uslubiy vositalarning, shu jumladan evefmizmlarning tadqiq masalasiga Lun Chjichao e’tibor qaratgan[11]. Ye.K.Iskenderova qaraqolpoq tilida evfemizmlarni maqol va matallarning tarkibiy qismi sifatida tahlilga tortgan[3]. O.Tverdoxleb rus va ingliz tillar asosida maqol va matallar tarkibidagi evfemizatsiya hodisasiga tadqiqotini bag‘ishlagan[9]. O‘zbek tilida Sh.Kalandarov o‘zbek maqol va matallarda evfemizatsiyaning lingvokulturologik jihatlarini atroflicha talqin etgan[4]. Umuman olganda maqol va matallar tarkibidagi evfemizatsiya hodisasining tadqiqi keng o‘rganilmagan. Shuning uchun maqol va matallar tarkibidagi evfemizmlarni o‘rganish bugungi kun tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri deb ta’kidlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. И. Р. Гальперин. – М.: Издательство литературы на иностранных языках, 1958. – 459 с. – Режим доступа: http://www.helpforlinguist.narod.ru/GalperinIR/GalperinIR.pdf.
2. Долженко Н.Г., Прозорова В.О. Эвфемизм как выразительное средство языка//Вестник Югорского государственного университета. 2016.-1(40). –С.19-22.
3. Искендерова Е.К.Эвфемизмы в каракалпакском языке, связанные с птицами//Вестник науки и образования.2019. –С.44-48.
4. Каландаров Ш. Факторы лингвокультурологического изучения языковых единиц//Молодой учёный, 2017, № 10 (50). – С.629-632.
5. Лазутин С.Г. Русские народные лирические песни, частушки и пословицы / С.Г. Лазутин. – М.: Высшая школа, 1990. – 250 с.
6. Ларин Б. А. Об эвфемизмах / Б. А. Ларин // История русского языка и общее языкознание. Избранные работы. − М., 1977. − 110 с.
7. Рубина Н.Б. «Эвфемизм» и «Политическая корректность» в современном английском языке//Russian journal of linguistics,2011. – С. 35-39.
8. Омонтурдиев А.Ж.Профессионал нутқ эвфемикаси (Сурхандарё ва Қашқадарё вилоятлари чорвадорлари нутқи асосида). Монография.– Тошкент: “Фан” нашриёти, 2006.– Б.126-127.
9. Твердохлеб О.Г.Эвфемизмы в сфере устного народного творчества//Язык и культура.2016. –С.83-89.
10. ЎТИЛ. З.М.Маъруфов таҳрири остида. –М.: “Рус тили”, I Том, 1981. –Б.451.
11. Zchichao Long. Analyses of figures of speech in proverbs//Sovremennoye pedagogicheskoye obrazovaniye.2021. – С. 143-145.

GENDER TILI TADQIQIDA TAMOYILLAR TA’RIFI

N.A.Xoshimova
FarDU dotsenti (PhD)

Annotatsiya. Maqolada gender tili tadqiqida defitsitlik, dominantlik va tafovut tamoyillari nazariy talqin etildi. Gender tilshunosligi va feminin tilshunosligining o‘rganish ob’ekti farqlandi.

Annotation. The article presents the theoretical issues on the deficit, dominance and difference principles of gender language. The object of study of gender linguistics and feminine linguistics have been covered.

Kalit so‘zlar: gender tili, feminin tilshunoslik, dominantlik, defitsitlik, tafovut, tamoyil, maskulin tilshunoslik.

Key words: gender language, feminine linguistics, dominance, deficit, difference, principle, masculine linguistics.

Turli madaniyatlarning vakilllari olamni o‘zgacha qabul qiladilar. Tafakkur esa inson tili orqali ifodalanadi. Olamni inson ona tili orqali qabul qiladi, inson ongiga tashqi olamdan kelgan taasuurotlar uning tili orqali yuzaga chiqadi. Har bir

til jamiyatida ushbu tilning me’yorlari shakllanadi. Til me’yorlari tadqiqida tilning assimetriya masalalari hamda erkak tilining dominantligi ta’riflanib, feministik lingvistika shakllangan. Feministik lingvistika tarafdorlari til me’yorlarining o‘zgartirilishi erkak va ayol tilllarining tengligiga olib kelishini ta’kidlaydilar. Feministik lingvistikasi bilan birga sotsiolingvistikada gender masalasi tadqiqotlari boshlangan. Gender masalasi feministik lingvistika tadqiq masalasidan farqlanib, jamiyatda erkak va ayol tilining farqini ta’riflash asosiy masalaga aylangan.

Gender lingvistika va feministik lingvistika yo‘nalishlari bir biridan ajralib jinsga taalluqli turli masalalarni o‘rganuvchi sohalardir. Lekin ikki soha ham ayol va erkaklar tilining farqini va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalab, tadqiq etadi. Ushbu ikki soha bo‘yicha tadqiqot qilgan olimlar erkak va ayollar tilida uchta asosiy tamoyillarga e’tibor qaratdilar: defitsit tamoyili, dominant tamoyili va tafovut tamoyili. Defitsit tamoyili erkaklar tilini me’yor sifatida qabul qilib, ayollar tilini esa me’yordan chetga chiqish deb ta’riflaydi. Dj.Koats bu hodisani androtsentrik qoida deb nomlaydi [2].

Dominant tamoyil ayollarning erkaklarga tobe holatini, shundan kelib chiqib, ayollarning tili tobe holatda bo‘lishini ifodalaydi. Ayollar tili hissiyot, empatik, tobelik, hamkorlik xususiyatlariga ega bo‘lishi bilan ifodalanadi. K.Vest va D.Tsimmerman erkaklar suhbatida bir birining gapini bo‘lish holati kamdan kam uchrashishini, lekin erkaklar ayollarning gapini bo‘lish holatlari 96% ni ko‘rsatishi, albatta, erkaklar nutqida dominatlikni ifodalaydi [4]. Ayollar nutqda o‘zini rag‘batlantirish uchun ko‘proq tasdiq-inkor gaplardan va yumshatish ifodalardan foydalanadi, bu esa, yanada erkaklar tili dominantligini ko‘rsatadi[3]. Muloqotda erkaklar ko‘proq buyruq gaplardan foydalanadi.

Farqlilik tamoyili erkak va ayollar tili farqlanishi va o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turishini yuzaga chiqaradi. D.Tannen, Molts, Borker, Koats, D.Grey, Pis [1, 7, 2, 8] kabi tadqiqotchilar ayol va erkaklar tilini har tomonlama farqlagan. Dastlabki defitsit tamoyili feministik lingvistikaning tadqiq ob’ektidir. Ma’lumki, Yevropa tillari androgen xususiyatlari bilan ifodalanadi, ya’ni til insonga emas, erkak kishiga moslanganligi bilan ajralib turadi. Feministik lingvistika tilning androgen xususiyatini tanqid qiladi va erkaklarga moslangan so‘zlarning o‘rniga ikki jinsga ham mos so‘zlar bilan almashishini taklif qiladi. Feministik lingvistikasi esa jamiyatda turli tushuncha, kasblar erkaklar dunyosiga moslanganligi va jamiyatda gender tengligini ta’minlash uchun ulardan voz kechish lozimligini ifodalagan. Masalan, tilda erkak va ayollarga murojaat etilganda, avval, erkak jinsiga afzallik beriladi va bu turli tillarda o‘z ifodasini topadi: *er-xotin, муж и жена, husband and wife, Mr and Mrs.* Shuningdek, feminizm tarafdorlari tilda ayrim so‘zlar faqat erkak jinsiga taalluqligini va bu hodisani o‘zgartirish maqsadida ikki jinsga ham xos so‘zlardan foydalanish masalalariga e’tibor qaratishgan, masalan, ingliz tilida *man – person, policeman – policeperson, steward, stewardess – flight attendant*. Bu jamiyatda patriarxat hodisasini ustun kelishining isboti bo‘lib, hozirgi zamonda erkak va ayollar tengligini ta’minlash

uchun tilda ham turli o‘zgarishlar kiritilishi lozimligini talab qiladi. Feministik lingvistika aynan shu masalalar bilan shug‘ullanadi.

Ayrim tadqiqotchilar gender tilini uch tamoyilga bo‘lib, defitsit tamoyilini emas, balki ijtimoiy tizim (social constructionist approach) yondashuv tamoyilini ko‘rsatadilar. Lekin M.Krauford fikricha genderni alohida bitta tamoyili orqali tadqiq qilish yetarli emas, balki uch tamoyil orqali gender tili xususiyatlarini yuzaga chiqarish maqsadga muvofiqroqdir, deb ta’kidlaydi. Shuni e’tiborga olgan holda, gender tili tadqiqi ijtimoiy tizimda, individ doirasida va shaxslararo yondashuvda olib borishni tavsiya beradi[5].

Gender lingvistikasi erkak va ayolning ichki tabiati bilan bog‘liq, ularning psixofiziologik dunyosini yaqqol ta’riflovchi jarayonlar, muloqot davomida tanlangan mavzular, so‘zlarning mazmuni, grammatik va sintaktik ifodalanishida farqini ochib beruvchi tilshunoslikning yo‘nalishi deb hisoblaymiz. Feministik lingvistika tilda ayollar huquqini himoyalovchi yo‘nalish bo‘lsa-da, gender lingvistika jinsning sotsium, ya’ni jamiyatda namoyon etilish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fandir. Shuning uchun feministik va gender lingvistikasini tilshunoslikning bitta yo‘nalishi sifatida e’tirof etgan ba’zi bir tilshunoslar fikriga qarshimiz. Lekin ayrim holatda feministik va gender lingvistikasi bir biridan ayrilmagan holda, uyg‘unlikda e’tirof etiladi, ayniqsa, bu holat Yevropa tillarida, xususan, ingliz, nemis va frantsuz tillarida namoyon bo‘ladi. Bu holat tildagi jinsiy inqilobga taqalib, ayollar o‘z huquqini tilda ham ifodalanishini talab qilganlarini namoyon etadi. Osiyo tillarida feministik holat sezilarli darajada ko‘zga tashlanmaydi. Chunki Osiyo mamlakatlarida jinsiy inqilob ro‘y bermagan, shuning uchun tilda feministik lingvistika nuqtai nazaridan hali beri o‘zgarishlar bo‘lmaganligini e’tirof qilishimiz mumkin. Shu bilan birga Osiyo mamlakatlarida ayol va erkaklar tili keskin bir biridan ajralib turadi. Xususan, yapon tilida ayollar tomonidan qo‘llaniladigan so‘zlar, iboralar mavjudki, ular aynan ayolar tilini boyitib, o‘ziga xos jihatlar bilan erkaklar tilidan farqlab turadi. Lekin hozirgi paytda ayollar erkaklar kabi ijtimoiy, siyosiy mavqega ega bo‘lib, jamiyatning turli qatlamlarda mansabli o‘rinlar egallashmoqda. Shuning uchun yapon gender tili farqi sezilarli ko‘zga tashlanmaydi. Bunga gazeta maqolasidan bir yapon ayolni misol qilib keltirishimiz mumkin. U o‘zini erkaklar bilan birga bitta korxonada ishlaganligi uchun ko‘proq erkaklar tilidan foydalanganligi, ayollar tili uning leksikonidan chiqarilib ketayotganligi haqida ta’riflagan. Demak, jamiyatda bir xil lavozimni erkak va ayollar teng egallaganini, bu teng huquqlarga olib kelishini, teng huquqlar esa gender tilidagi farq yo‘qolishiga olib kelishi mumkinligidan dalolatdir.

Dominant va farqlilik tamoyili gender lingvistikasiga taalluqli desak ham bo‘ladi. Farqlilik tamoyiligiga ayol va erkaklarning tiliga xos jihatlar fonetik, grammatik, leksik va sintaktik sathlarda ko‘riladi. Leksik, fonetik va grammatik sathlarda gender tili farqi O.Yespersen, E.Sepir, U.Labov, P.Tradjill, R.Lakoff, F.Smit [6] kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘z o‘rnini topgan. E.Sepir hindu qabilalarning tilini morfologik va fonetik jihatdan farqlanishiga e’tibor qaratgan.

E.Sepir izlanishlaridan so‘ng tilshunoslikda gender tili farqiga alohida tadqiqotlar bag‘ishlana boshlandi. O.Yespersen ayol va erkaklar tilining leksik jihatlarining farqini ifodalagan. Uning aytishicha, ayollar tilida ko‘proq empatiya uchrashishi va evfemizmlar qo‘llanishi, erkaklar tili esa qo‘ppolligi bilan ajralib turishi ko‘zga tashlanadi. Yuqorida keltirilgan olimlarning izlanishlaridan xulosa chiqarishimiz mumkinki, ayollar his-tuyg‘u ifodalaydigan so‘zlardan va iboralardan foydalansa, erkaklar esa o‘z hissiyotini vulgar so‘zlar orqali beradi. Psixologlar aytishicha, nutqda ko‘p qo‘pol so‘zlardan, ya’ni vulgarizmlardan foydalanish dominantlikka intilishni ifodalaydi.

Xulosa qilib aytish joizki, defitsit tamoyili feministik tilshunoslikda o‘rganilib, dominant va farqlilik tamoyillarini gender tilshunosligida tadqiq qilish lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Грей Д.Мужчины с Марса, женщины с Венеры.Новая версия для современного мира/ Д.Грей. – «Издательство АСТ», 2017.
2. Коатс Дж. Женщины, мужчины и язык // Гендер и язык / под ред. А.В. Кирилиной. –М., 2005. – С. 49 - 80.
3. Мурашова Л.П., Правикова Л.В. Критический анализ гендерных исследований в зарубежной лингвистике//Язык и культура.2016, №1.– С.24-31.
4. Уэст К. Создание гендера / К. Уэст, Д. Циммерман // Труды СПбФ ИС РАН. Гендерные Тетради. – Вып. 1. – СПб., 1997. – С. 86–99.
5. Crawford, Mary. Gender and Humor in Social Context[J]// Journal of pragmatics, 2003(35)/ –P.1413-1430.
6. Jespersen O. Language, its nature, development and origin. – London: G. Allen and Unwin, 1922. – P. 237 – 255.
7. Maltz D., Broker R. A cultural approach to male-female miscommunication. In J. Coates (Eds.). Language and Gender, 1982. – P. 417-434.
8. Tannen, D. You just don’t understand: Women and men in conversation. New York: Balantine Books, 1990. –P. 8.

TURLI TIZIMLI TILLARDA NUTQDA ISHLATILADIGAN PRONOMINAL XUSUSIYATLARNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Adamboyeva Nafisa Qodirberganovna
FarDU katta o‘qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutqda ishlatiladigan murojaat birliklarining grammatik-semantik hamda leksik turlari xususida turlarga ajratgan holda ma’lumotlar beriladi.

Annotation. This article provides information on grammatical, semantic and lexical types of referencing units used in speech.

Kalit so‘zlar. Salomlashish, iltimosni ifodalovchi so‘z, uzr so’rash, fe’l-murojaat.

Keywords. Greeting, a word expressing a request, an apology, a verb.

Nutq – insonning hayotidagi eng muhim o‘rin egallaydigan faoliyat turlarida biridir. Bu faoliyatda insonlar turli-tuman til birliklaridan foydalanib, fikr uzatadi yoki qabul qiladi, o‘z munosabatini ifodalaydi va albatta, bu kabi jarayonlarda bir-biriga murojaat qilishadi. Murojaat nazariyasining asosiy g‘oyasi “murojaat shakllari”, ular – biror so‘zlovchining suhbatdoshiga qarata qo’llagan so‘z, fraza, ba’zan to’liq gapni anglatuvchi lingvistik termin.

Tilshunos Z.A. Akbarovaning fikricha, murojaat tinglovchini xabar ma’lumot olishga tayyorlash, uning e’tiborini tortish demak[50]. Ammo biz ushbu fikrga bir oz qo‘shimcha qilmoqchimiz, tilda bu kabi funksiyani tilning boshqa verbal yoki noverbal (salomlashish, uzr so‘rash, iltimos ma’nosini ifodalovchi) shakllari ham amalga oshiradi. Masalan, ingliz tilida *Hey*! (salomlashish), nemis tilida *Sag mal*, … (iltimosni ifodalovchi so‘z), fransuz tilida *Pardon!* (uzr so’rash). Shu o‘rinda murojaatning grammatik-semantik turi ustida batafsil to’xtalmoqchimiz. Ko‘p tilda murojaat ifodalanishiga ko‘ra uch turga ajratib o’rganiladi: 1) olmosh-murojaat; 2) fe’l-murojaat; 3) ot-murojaat (hamda ba’zan ularga sintaktik bog’liq bo’lgan so’zlar)[51]. Biz ham ikki noqardosh (ingliz va o’zbek) til murojaatlarini ifodalaydigan birliklarni chog‘ishtirib tadqiq qilish jarayonida uchga ajratib, yuqoridagi tasnifdan farq qilgan holda: pronominal, nominal va boshqa substantsial so‘z turkumlaridagi murojaatlarga ajratgan holda tahlil qildik.

Yevropa tillari grammatikasining ildizlarini tushunish uchun lotin tilini tadqiq qilishga to‘g‘ri keladi. Chunonchi, Rim imperiyasining gullab yashnagan davrida miloddan avvalgi III asrda, lotin tilida II shaxsni bildiruvchi ikkita olmoshlar bo’lgan: tu (sen) va vos (siz). Asr oxirida Rim imperiyasi bir vaqtning o’zida bir necha imperatorlar tomonidan boshqarilgan, Rim notiqlari hatto yakka imperatorga ham ko’plik shaklida murojaat qila boshladilar, ya’ni ularning har biri suhbotdosh hukmdorni ham, boshqa hukmdorlarni ham ifodalashga qaratilgan[52]. Pronominal murojaatlar suhbatdoshga qaratilgan, ular, ko’pgina xollarda ikkinchi shaxsni anglatadi. Masalan, o’zbek tilida sen va siz[53], ingliz tilida you, nemis tilida *du* va *ihr*, frantsuz tilida *tu* va *vous*[54]. Ammo boshqa grammatik shaxslar ham murojaat olmoshlari vazifasini bajara oladi, chunki ba’zan ular ham muloqotdagi adresatga qaratilgan bo’ladi. Masalan, o’zbek tilidagi birovlar, boshqalar, nemis tilidagi *Sie* (III shaxs ko‘plik)[55], dat tilida *De* (III shaxs ko’plik), italyan tilida *Lei* (III shaxs birlik, xotin-qizlar uchun). Murojaat olmoshlari, shuningdek, pronominal shakllarni (diaxronik nuqtai nazardan kishilik olmoshlarining asl nusxasi

[50] Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. Б. 18.
[51] Braun Friederike. Terms of address: Problems of patterns and usage in various languages and cultures/ F. Braun. – Berlin, New York; Amsterdam: Mouton de Gruyter, 1998. – P. 14. https://doi.org/10.1515/9783110848113
[52] https://blog.oxforddictionaries.com/2017/03/whats-wrong-with-you-history-pronoun/
[53] Iskandarova Sh.M. O’zbek nutq odatining muloqot shakllari: Filol.fan.nomz. ...diss.avtoref. – Samarqand, 1993. – B. 16.
[54] Braun Friederike. Terms of address: Problems of patterns and usage in various languages and cultures/ F. Braun. – Berlin, New York; Amsterdam: Mouton de Gruyter, 1998. – P. 14. https://doi.org/10.1515/9783110848113
[55] Brown R. & Gilman A. O‘sha manba. – B.254.

paradigmalariga tegishli bo'lmagan shakllar) ham o'z ichiga oladi: ispan tilida usted, portugal tilida você, singal tilida tamunnāsē. Bunday shakllar murojaatni ifodalovchi gapdagi turli fe'l va qo'shimchalarning konkordantsiyasi (moslashuvi)dir. Aytilganidek, pronominal olmoshning eng faol birligi ikkala tilda ham (ingliz va o'zbek tillari) – ikkinchi shaxs kishilik olmoshlaridir. Chunki, murojaat deyarli ikkinchi shaxsga qarata yo'naltirilgan bo'ladi.

Dastavval, pronominal murojaatning lingvistik xususiyatini ingliz tili misolida ko'rib chiqsak. Qadimgi ingliz tilida, shuningdek, lotin tilidagi ikkinchi shaxsni anglatuvchi - Þu (thoo bo'lib talaffuz qilingan) olmoshini sen ma'nosida, *ge (talaffuzi yay*) olmoshi esa ko'plikdagi ikkinchi shaxs olmoshi o'laroq qo'llangan. Hozirgi zamon ingliz tilida II shaxs kishilik olmoshi yagona shaklda – *you*. Ingliz tilida yakka shaxsga murojaat qilish uchun ilgari *thou* (sen) olmoshi bilan birgalikda you (siz) olmoshi ham ishlatilgan. Masalan:1) Lodovico: – *O thou Othello, thou wert once so good, Fall'n in the practise of a damned slave, What shall be said to thee? (W. Shakespeare. Othello); 2) Iago: – You, Roderigo! come, sir, I am for you.* (W. Shakespeare. Othello). Har ikki matnda ham bir shaxsga qarata murojaat qilingan. Keyinchalik esa thou (sen) olmoshining ishlatilishi susayib ketishi natijasida you olmoshi mo'tadil shaklga aylandi. Biroq bu tasnif faqat standart ingliz tiliga mansub, sababi, thou olmoshi hozirgi kunda badiiy matnlar va ba'zi ingliz tili dialektlarida uchrab turishi kuzatiladi. Ajablanarlisi shundaki, *thou* olmoshi Bibliya (Xristianlarning muqaddas kitobi) matnida saqlanib qolgan[56] va ba'zi diniy marosimda (masalan, toj kiydirish marosimida) ishlatib kelinishi sababli, muloqotchilar uni you (siz)ning xushmuomalalik shakli deb o'ylashadi. Shu bois thou olmoshining ijobiy munosabat ifodalashini uchratish mumkin*: Othello. - O, thou art wise; 'tis certain.* (W. Shakespeare. Othello.)

Demak, chog'ishtirilayotgan ikkala tilda ham pronominal olmoshlar mavjud va o'ziga xosligi bilan farqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. Б. 18.

2. Braun Friederike. Terms of address: Problems of patterns and usage in various languages and cultures/ F. Braun. – Berlin, New York; Amsterdam: Mouton de Gruyter, 1998. – P. 14. https://doi.org/10.1515/9783110848113

3. Iskandarova Sh.M. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari: Filol.fan.nomz. ...diss.avtoref. – Samarqand, 1993. – B. 16.

4. https://blog.oxforddictionaries.com/2017/03/whats-wrong-with-you-history-pronoun/

[56]Yuqoridagi manba: https://blog.oxforddictionaries.com/2017/03/whats-wrong-with-you-history-pronoun

FUNDAMENTALS OF A PRAGMATIC APPROACH TO TEXT ANALYSIS

Azimova Sayyora Xusanboyevna
FarDU katta o‘qituvchisi (PhD)

Abstract. This article explores the fundamental principles of a pragmatic approach to text analysis, focusing on how pragmatic theories can be applied to interpret meaning, context, and speaker intentions in various types of textual communication. It delves into key concepts such as speech act theory, implicature, presupposition, and context, offering insights into how these theories can be applied to understand the deeper layers of meaning in communication. The article also addresses the practical applications of pragmatic analysis in fields such as discourse analysis, translation studies, and digital communication.

Keywords – pragmatics, speech act theory, implicature, presupposition, contextual analysis, humanism, discourse analysis, text interpretation, communication, digital communication analysis.

Annotatsiya. Ushbu maqola matnni tahlil qilishda pragmatik yondashuvning asosiy tamoyillarini o‘rganadi va pragmatik nazariyalarni matnli aloqaning turli ma’no, kontekst va so‘zlovchi niyatlarini sharhlash uchun qanday qo‘llash mumkinligini muhokama qiladi. U nutq akti nazariyasi, implikatura, presuppozitsiya va kontekst kabi asosiy tushunchalarni o‘rganadi va bu nazariyalarni muloqotdagi ma’noning chuqurroq qatlamlarini tushunish uchun qanday qo‘llash mumkinligi haqida tushuncha beradi. Maqolada, shuningdek, nutq tahlili, tarjimashunoslik va raqamli aloqa kabi sohalarda pragmatik tahlilning amaliy qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: pragmatika, nutq akti nazariyasi, implikatura, presuppozitsiya, kontekstual tahlil, gumanizm, nutq tahlili, matnni sharhlash, aloqa, raqamli aloqa tahlili.

Introduction

Actuality: The study of text analysis has become increasingly relevant in the modern era due to the complexities of communication in both digital and offline contexts. A pragmatic approach to text analysis emphasizes the role of context and speaker intentions, making it essential for understanding how meaning is constructed beyond literal interpretation. This approach is crucial for analyzing a wide range of communications, from everyday conversations to legal and academic texts. As communication becomes more nuanced with the advent of digital platforms, a pragmatic approach provides valuable insights into how individuals use language in specific social contexts.

Key Concepts in Pragmatic Text Analysis

Definition and Scope of Pragmatics. Pragmatics is a branch of linguistics that studies how context influences the interpretation of meaning. It focuses on the interaction between speakers, their intentions, and the situational factors that shape communication (Levinson, 1983, p. 5). Unlike semantics, which deals with the

inherent meaning of words and sentences, pragmatics examines how meaning is constructed in context, making it a powerful tool for analyzing texts.

Speech Act Theory. Developed by J.L. Austin (1962) and further expanded by John Searle (1969), speech act theory posits that language is not merely used to convey information but also to perform actions (Austin, 1962, p. 15; Searle, 1969, p. 23). Speech acts are categorized into locutionary (the act of saying something), illocutionary (the intention behind the statement), and perlocutionary acts (the effect of the statement on the listener). For instance, in a legal context, a judge's statement, "I hereby sentence you," is a performative act that has legal consequences.

Implicature. H.P. Grice's theory of implicature (1975) addresses how speakers often imply more than what is explicitly stated. Implicatures depend on shared knowledge and the cooperative principle, which assumes that speakers will contribute to conversations in a meaningful way (Grice, 1975, p. 45). For example, if someone says, "It's getting late," the implicature might be that it's time to end the conversation or activity, depending on the context.

Presupposition. Presupposition refers to the background assumptions that are taken for granted when a statement is made. These assumptions are critical in understanding the implicit meanings embedded within communication (Stalnaker, 1974, p. 200). For example, the sentence "John's sister is coming to the party" presupposes that John has a sister.

Context in Pragmatic Analysis. Context plays a central role in pragmatic analysis, as it provides the background information necessary to interpret the speaker's intentions and the meaning of an utterance (Leech, 1983, p. 13). Context includes social, cultural, and situational factors that influence how a message is understood. It is especially important in digital communication, where emojis, hashtags, and abbreviations can alter the meaning of a text (Herring, 2007, p. 110).

Application of Pragmatic Principles in Text Analysis

Analyzing Speech Acts in Legal and Literary Texts. Speech act theory can be applied to various types of texts, such as legal documents and literary dialogues. For instance, in analyzing a legal text, understanding the illocutionary force of statements can help determine the intent behind legal pronouncements (Searle, 1969, p. 53). Similarly, in literature, identifying the types of speech acts used by characters can reveal their motivations and relationships.

Uncovering Implicatures in Political Discourse. Implicature analysis is particularly useful in political discourse, where speakers often imply meanings to persuade or manipulate public opinion without stating them directly (Grice, 1975, p. 48). For example, when a politician says, "We need to take back control," the implicature might be a criticism of the current administration, even if it is not explicitly mentioned.

Pragmatic Analysis in Digital Communication. With the rise of social media, pragmatic analysis has become essential for understanding online interactions. Users often rely on non-verbal cues like emojis to convey tone and

context, making it important to analyze these elements for a complete understanding of the message (Herring, 2007, p. 110).

Conclusion.

This article has explored the fundamental principles of a pragmatic approach to text analysis, emphasizing the importance of context, speech acts, and implicature in interpreting meaning. By combining theoretical insights with practical applications, it is evident that a pragmatic approach offers valuable tools for analyzing various forms of communication, from literature to digital media. The practical value of this study lies in its applicability to fields such as discourse analysis, translation studies, and digital communication. For example, in translation, understanding implicatures and speech acts can ensure that the translator captures the intended meaning of the original text, leading to more accurate and culturally sensitive translations. In digital communication, pragmatic analysis can help social media analysts understand the underlying meanings in online interactions. The theoretical value of this article is its contribution to understanding how pragmatic theories can be systematically applied to text analysis. It provides a foundation for further research in linguistics, especially in exploring the dynamic interplay between language and context. This article highlights the relevance of pragmatic theories in interpreting complex communicative situations and offers a framework for future studies on the nuances of human communication.

REFERENCES:

1. Austin, J. L. (1962). *How to Do Things with Words*. Cambridge: Harvard University Press. (p. 15)
2. Grice, H. P. (1975). Logic and Conversation. In *Syntax and Semantics 3: Speech Acts* (pp. 41-58). New York: Academic Press. (p. 45)
3. Herring, S. C. (2007). A Faceted Classification Scheme for Computer-Mediated Discourse. *Language@Internet*, 4, 1-37. (p. 110)
4. Leech, G. N. (1983). *Principles of Pragmatics*. London: Longman. (p. 13)
5. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press. (p. 5)
6. Searle, J. R. (1969). *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press. (p. 23, p. 53)
7. Stalnaker, R. (1974). Pragmatic Presuppositions. In M. Munitz & P. Unger (Eds.), *Semantics and Philosophy* (pp. 197-213). New York: New York University Press. (p. 200)

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI ORNITONIMLARNING SHE’RIY MATNLARDA QO‘LLANIISHI

Maxmudova Nargiza Ravshanovna
FarDU katta o‘qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek va ingliz tillarida ornitonimlarning ijobiy, salbiy singari konnotativ ma’nolarining paydo bo‘lishi qushlarning sayrashiga,

harakatlanishiga, noxush tuyg‘ularni uyg‘otuvchi odatlariga yoki ko‘rinishi bilan bog‘liq jarayonlar tilda aks etishi xususida yortilgan. Bularning tildagi vazifasi, til struktruasida o‘rin tutish ahamiyati muhokama qilingan. qushlarning qo‘rqmas xatti-harakati, jismoniy kuchi, uchish qobiliyati, qushlarning odamlarga yordam beradigan xatti-harakatlari, qushning yoqimli ko‘rinishi ingliz va o‘zbek tilidagi frazeologik birliklar ishtirokida misollar orqali tahlil qilingan.

Abstract. In the article, the appearance of connotative meanings of ornithonyms in Uzbek and English languages, such as positive and negative, is highlighted in the context of processes related to birds' singing, movement, unpleasant habits or appearance. Their role in the language, the importance of their place in the language structure was discussed. the fearless behavior of birds, physical strength, ability to fly, the behavior of birds that help people, the cute appearance of a bird are analyzed through examples with the participation of phraseological units in English and Uzbek languages.

Kalit so‘zlar: Ornitonim, kaptar, quzg‘un, to‘ti, pragmatika, semantika, metafora, Ko‘chma ma’no, qush nomi, laylak, chumchuq, qarg‘a, qarag‘ay, kaklik, bedana

Keywords: Ornithonym, pigeon, raven, parrot, pragmatics, semantics, metaphor, figurative meaning, bird name, stork, sparrow, crow, pine, partridge, quail

Ornitonimlar inson faoliyatining deyarli barcha sohalari - ma’naviy-ruhiy va kundalik-amaliy parametrlarini og‘zaki bayon qilish uchun ishlatiladi. Abstrakt kategoriyalarning og‘zaki nutqining etnik madaniy o‘ziga xosligini o‘rganish insonning ma’naviy dunyosi va atrofdagi voqelikning turli xil hodisalari o‘rtasidagi yashirin aloqalarni ochib berishga yordam beradi. Laylak, chumchuq, qarg‘a, qarag‘ay, kaklik, bedana, kabi muhim, ramziy va keng tarqalgan ornitonimlar barchasi badiiy matn tarkibida o‘ziga xos semantik ahamiyat kasb etadi. Shu yo‘l bilan ular kundalik nutqda obrazli ma’nolarda faol ishlatiladi.

Ikki tilning ornitonimlari o‘rtasidagi lug‘at yozishmalarining noaniqligi, chegaralarning noaniqligi, semantik hajmga mos kelmasligi bilan ajralib turadi. Nutqning pragmatik ta’siri uni tashkil etuvchi so‘zlarning semantikasini milliy-madaniy metafora-majoziy jihatdan qayta ko‘rib chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq. Assotsiativlik va majoziylik nuqtai nazaridan qushlarning nomlari ingliz tilida ham, o‘zbek lingvokulturasida ham semasiologik jihatdan boy va boshqa lug‘at qatlamlariga nisbatan yuqori darajadadir. Ikkala tilning ornitonimik so‘z birikmasida metafora ranglari nihoyatda notekis taqsimlangan bo‘lsa-da, qush nomlarining semantik maydonida metaforizm va ramziylik osongina rivojlanadi. Tarixdan ornitonimlar qo‘llash sharq adabiyoti uzoq davrlarga borib taqaladi. Qushlarning obrazi ayrim she’riy misralarda majoziy tasvir uchungina emas, hatto yirik ramziy asarlarning yaratilishiga ham asos bo‘lgan. Bu jihatdan Fariduddin Attorning “Mantiq ut-Tayr”, Alisher Navoiyning “Lison ut-Tayr”, Gulxaniyning “Zarbulmasal” kabi asarlari ahamiyatlidir. Qushlar poetikasi turkiy xalqlarning qadimgi yodnomalari hamda

“Devonu lug‘otit turk”, “Qutadg‘u bilig” kabi yirik asarlarida ham ma’lum g‘oyaviy maqsadlarni ro‘yobga chiqarish maqsadida o‘z ifodasini topgan: “Yog‘imiz tegrada qushlardek edi”. (Yog‘iy-dushman, tegra-atrof). Ko‘chma ma’no hosil qilinganda nomdoshlovchining nomdoshlanuvchiga nisbatan munosabati nazarda tutiladi, ko‘chma ma’no hosil qiluvchi hodisa tobelik deyiladi. Masalan: “Qiz degani qushlarning onasi bo‘lur”. Demak, bu misolda ornitonim orqali ko‘chma ma’no berilgan, ya’ni aniq bir jonli yoki jonsiz narsa boshqa narsaning nomini ifodalagan.

Qushlar hayotda ham, adabiyotda ham hamma joyda uchraydi va ikkala sohada ham ko‘p valentli. Bu Anglo-Sakson davridagi kabi bugungi kunda ham xuddi shunday. Hayotda ular zararkunandalar, zararkunandalarga qarshi kurashuvchilar, vaqt belgilari, musiqa yaratuvchilar va shovqinli uyquni buzuvchilardir. Bugungi kunda san’at va adabiyotda uchayotgan qushlar, kuzatuvchining ularni ochiq havoda yoki cheklangan makon ichida kuzatishiga qarab, erkinlik yoki qamoqni ko‘rsatishi mumkin. Anglo-sakson qushlari bir xil darajada ko‘p valentli bo‘lgan. Masalan, qarg‘alar tez-tez bo‘lajak qirg‘in haqida xabar berishdi, ammo Bedening Vita Sancti Cuthberti kitobida *Crow – qarg‘alar namunali tavba qiluvchilardir. Ularning ma’nolari hayotda ham, adabiyotda ham bog‘liq, shuning uchun bu sohalarni alohida-alohida tadqiq qilib bo‘lmaydi.*

Raven – Qarg‘alarning bu misoli, shuningdek, Anglo-Sakson madaniyati ko‘proq nasroniylikka aylanganligi sababli qushlarga tegishli madaniy qadriyatlarning qayta yo‘naltirilganligiga e’tibor qaratadi.

Qadimgi inglizcha "dufe" keyinchalik *dove* so‘zi *"oq kaptar"* degan ma’noni anglatadi. Badiiy matnlarda bu ornitonim turli o‘rinlarda o‘ziga xos qo‘llanadi. Masalan, inglizcha "*innocent* – begunoh" so‘zi, *dove* – kaptar ornitonimi bilan ramziy qo‘llanadi. Ingliz adabiy matnlarida kaptar ornitonimining ijobiy fazilatlarini ta’kidlash uchun qarg‘a ornitonimining salbiy fazilatlari yonma-yon ishlatiladi.

“The raven’s demonstrations of intelligence could easily have fueled ascriptions of supernatural knowledge to them. Amongst the raven’s clever customs is the act of caching: when it scavenges a carcass, a significant amount of time and effort is spent on hiding food, often with elaborate ploys to fool onlookers (usually, but not always, other ravens) intent on stealing its plunder. Moreover, the ascription of communicative abilities to ravens would easily have been fueled by the way in which they call more ravens to carcasses: in this situation there is a very clear link between vocalization and resulting action”.

Qarg‘aning aql-idrok namoyishlari ularga g‘ayritabiiy bilimlarning ta’rifini osonlikcha kuchaytirishi mumkin edi. Qarg‘aning aqlli odatlaridan biri keshlash harakatidir: u tana go‘shtini o‘g‘irlaganda, ko‘p vaqt va kuch ovqatni yashirishga sarflanadi, ko‘pincha uning talon-taroj qilish niyatida bo‘lgan tomoshabinlarni aldash uchun puxta o‘ylangan. Bundan tashqari, qarg‘alarga kommunikativ qobiliyatlarni bog‘lash, ular ko‘proq qarg‘alarni tana go‘shtiga chaqirishlari bilan osonlikcha kuchaygan bo‘lar edi: bu vaziyatda ovoz chiqarish va natijada harakat

o‘rtasida juda aniq bog‘liqlik mavjud. [*Bugnyar and B. Heinrich, Animal Cognition, 9 (2006), 369-376], “a crow set up a hoarse croaking from an unpropitious quarter of the sky”* bir qarg‘a osmonning noqulay chorak qismidan xirillab ovoz chiqardi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, qushlarning nomlari bo‘lgan ornitonimlar dunyoning lingvistik suratining tarkibiga kiradi va she’riyatning ajralmas qismidir [Гусев Л. Ю. Курск, 1996. — 183 с.]

O‘zbek klassik poeziyasida esa bulbul ornitonimi oshiqni, to‘ti – o‘zganing fikrini o‘g‘irlovchi, lochin – chaqqonlik, botirlik; boyqushi – yomonlik, inson hayotida mudhish kun kelishidan darak beruvchilar obrazi sifatida keng tasvirlangan. Abdulla Oripov ham o‘z she’riyatida bunday vositalardan o‘rinli foydalanadi hamda o‘zining g‘oyaviy-badiiy niyatini ochishga erishadi. A.Oripov bir poeziyasida bulbul an’anaviy mazmunni ifodalagan.

Bulbulga dard qayda, gul yo‘qsa agar… [Munojot. Ishonch ko‘priklari, 67-bet]. Bu matnda bulbul oshiq obrazini ifodalagan. Gul esa ma’shuqadir. A.Oripov “bulbul” obrazidan ko‘pchilik o‘rinda shoir, hayotini kuylovchi ijodkor ma’nosida foydalanadi:

Bulbulni quvlamang dostonlarimizdan… [Ishonch ko‘priklari, 94-bet].

Yoki: *Xo‘ja Hofiz devonida bulbul sayrar siz uchun.*

Bulbul obodlik, go‘zallikning belgisi sifatida ko‘rinadi:

“Bulbullar ham ketdi bundan ko‘zlarin yoshlab” [Munojot. Ishonch ko‘priklari, 42-bet]

Qushlar she’riyatda qadim zamonlardan beri ishlatib kelinadi, masalan, Rim shoiri Katul o‘zining eng mashhur asarlaridan birida *Passer, delisiae meae puelle* da qiz va uning chumchug‘i haqida "Chumchuq, qizimning zavqi" deb yozgan.

O‘rta asr she’riyatida tasvirlangan qushlar, masalan, 1177 yildagi forscha "Qushlar konferensiyasi" she’rining qahramonlarini shakllantirish, bu erda dunyo qushlari eng dono qush - halqa ostida yig‘ilib, kim podshoh bo‘lishini hal qiladi.

Ingliz romantik she’riyatida Jon Kitsning 1819-yilda yozgan “Bulbulga qasd”i va Persi Bysshe Shellining 1820-yildagi “Osmonga” asari mashhur klassikadir. Jerar Menli Xopkinsning qushlarga oid she’rlari orasida "Dengiz va osmon" va "Windhover" (kestrel ustida). Ted Xyuzning 1970 yilda qush qahramoni haqidagi she’rlar to‘plami "Qarg‘a" uning eng muhim asarlaridan biri hisoblanadi.

Kaptar. Bu nom poeziyada do‘stlik, tinchlik, ikki dilni va mamlakatni bog‘lovchi vosita sifatida ko‘p qo‘llanilgan. A.Oripov undan o‘zga yor etagini tutgan, boshqa bilan donlashgan ma’shuqaning nomi sifatida foydalanadi:

Qaysidir go‘shada bo‘lmishdir g‘oyib,

Bir zamon qo‘limdan uchgan u kaptar. [Munojot. Ishonch ko‘priklari, 52-bet.]

Burgut. She’riyatda tajavuzkor kuchning nomidir. A.Oripov ham bu nomdan shunday ma’noda foydalangan. Shoir “Begonalik” she’rida yovuzlikdan ezgulikning yiroq yurishini burgut va tovushqon misolida ifodalashga erishadi:

Burgut panjasini erdan uzgan on,

Tovushqon qochadi butazor tomon.

To‘ti. Bu obraz sharq she’riyatida o‘zgalarning gapini, she’rini o‘ziniki qilib olgan shaxslar nomini ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan: Sayfi Saroyidagi bir masnaviydagi shoirlar uch guruhga – bulbul, qarg‘a, to‘tiga bo‘linganda shu mazmun ifodalangan. A.Oripov “Ona tilimga” she’rida to‘ti nomini metonimiya tarzida qo‘llar ekan, ana shu an’anaviy tasvir yo‘lidan boradi:

Sen yo‘qolgan kuning, shubhasiz,
Men ham to‘ti bo‘lib qolaman…

Demak, bu matnda to‘ti o‘z tili va fikri yo‘q inson ramzidir.

Quzg‘un. Bu nom badiiy adabiyotda yomonlikning belgisi sifatida tasvirlangan. Unda birovning joniga, hayotiga xavf soladigan kishi nomi ifodalanadi. A.Oripov “Ikar” she’rida ham ana shu tamoyilni saqlaydi. Shoir tarixda odamlar bir-birining joniga qasd qilishi voqealarini tasvirlar ekan, shunday yozadi :

Birovin jigarin cho‘qib quzg‘unlar,
Birovi o‘tlarda yongan beomon…

Bu matnda quzg‘unlar sifatida tarixda yashagan buyuk zotlarni qatl ettirgan, o‘tda yondirgan hukmdor shaxslarning nomidir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Ornitonimlar badiiy uslubda keng qo‘llaniladi. Nasriy asarlar va she’riy asarlar tarkibida ularni ko‘plab uchratish mumkin. Ijodkorlar ornitonimlarni o‘z asarlarida qo‘llashda ularga turlicha – ijobiy, salbiy, majoziy yoki tabiiy tarzda yondashadilar.

Ingliz va o‘zbek tillarida ornitonimlarning nutqiy qo‘llanishida farqli yondashuvlar kuzatiladi. Bu olamning lisoniy manzarasi va unga ijtimoiy yondashuv bilan bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. T. Bugnyar and B. Heinrich, ‘Pilfering ravens, Corvus corax, adjust their behaviour to social context and identity of competitors’, Animal Cognition, 9 (2006), 369-376;
2. Гусев Л. Ю. Орнитонимы в фольклорном тексте: диссертация … кандидата филологических наук. Курск, 1996. — 183 с.
3. A.Oripov. Munojot. Ishonch ko‘priklari, 52-bet, 42-bet.
4. A.Oripov*, Ishonch ko‘priklari, 94-bet*
5. A.Oripov “Ona tilimga” she’ri

KAUZATIVLIK VA UNING TILSHUNOSLIKDA O‘RGANILISHI

Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna
FarDU katta o‘qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada kauzativlik tushunchasi va uning lingvistik tahlildagi ahamiyati haqida umumiy ma’lumot berilgan. Maqolada kauzativlikni o‘rganishdaga nazariy yondashuvlar muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: kauzativ fe’llar, morfologik, analitik

Abstract. This article provides an overview of the concept of causation and its importance in linguistic analysis. The article discusses theoretical approaches to the study of causation.

Key words: causative verbs, morphological, analytical

Kauzatsiya va kauzativ fe'llar haqidagi birinchi mulohazalarni Sh.Balli, J.Lyons va L.Tenyerlarda topamiz. Keyingi yillarda kauzativlik ko‘plab dunyo tilshunoslarining tobora batafsil o‘rganish obyekti bo‘lib bormoqda. Biroq kauzativlik semantikasi, asosan, morfologik kauzativlik, analitik kauzativlik yoki kauzativ konstruksiyalari doirasida ko‘rib chiqildi.

Tilshunoslik doirasidagi tadqiqotlarning hozirgi bosqichida darajali yondashuv bilan bir qatorda til hodisalarini tavsiflashda funksional yondashuv ham faol rivojlanmoqda. Tahlil predmeti – funksional asosga ega bo‘lgan birliklar – semantik kategoriyalar (aspekt, modallik, vaqtinchalik, garov va boshqalar) asosidagi funksional-semantik maydonlardir.

Kauzativlik, albatta, kategoriya sifatida ko‘rib chiqilishi kerak, chunki u bir xil ma'noga ega bo‘lgan qarama-qarshi turlar tizimi va bu shakllarni birlashtiruvchi umumiy ma'no bilan ifodalanadi.

Mahmud Koshg‘ariy bu hodisa to‘g‘risida: “O‘zlik fe'lning manqus va to‘rt harflilarga kelganda, bularga *-t* qo‘shilib, ikki foildan maf'ulga o‘tuvchi o‘timli fe'l yasaladi. Ularning biri buyuruvchi, ikkinchisi bajaruvchidir. Chunonchi *er bitik bitidi* – odam xat yozdi. Bu fe'l ish birgina ishlovchi tomonidan ishlanganligini anglatadi. Ammo *ol angar bitik bititti* – u unga xat yozdirdi gapida *bititti* fe'li maf'ulga ikki ishlovchi foildan o‘tgandir. Biri xat yozishga buyurgan, ikkinchisi yozgan” deb ta'kidlagan[8].

Alisher Navoiy turkiy tilda, garchi o‘sha davrda kauzativlik deb atalmagan bo‘lsa-da, mazkur tushunchani ifodalovchi o‘z ko‘rsatkichlari mavjudligini aytib o‘tadi: “Yana arabiy sarf istilohda ikki maf'ulluq fe'llar borki, uning adosi dag‘i mo‘tabar va kulliydur. Andin dag‘i sortlar oriy qolibdurlar. Va atrok anga xo‘broq vajh bila mutobaat qilibdurlar. Arabiy andoqki, “A'taytu Zaydan dirhaman”, (Zaydning dirhamini berishimni buyurdilar) bu tarkibda uch lafz mazkur bo‘lur. Alar lafzg‘a bir harf ortturg‘on bila munga o‘xshash bir zamirni ortubdurlar, bag‘oyat muxtasar va mufid tushubdur. Andoqki, *yogurt* va *qildurt* va *yashurt* va *chiqurt*”. Ma'nosi: “Arabiy ikki maf'ulluk fe'llar (vositali obyektli buyruq ma'nosi) ham sortlarda yo‘q, turkiylar bir harf qo‘shish orqali bu ma'noni juda qisqa va aniq ifodalaydilar”[1].

Abdurauf Fitrat birinchi bo‘lib “tilimizning belgili qoidalarini” ishlab chiqdi va o‘zbek tili fonetikasi, morfologiyasi hamda sintaksisiga oid tushunchlarni ifodalovchi atamalarni ham yaratdi. Kauzativ fe'l to‘g‘risida: “Mana sizga yolg‘iz fe'llardan 13 fe'l, qo‘shma fe'llardan 6 fe'l. Qo‘shma fe'llardan har birining buyrug‘i bo‘lishi (5), holi, kelajagi (6), sharti, qo‘zg‘ovchi (7) bor. 13x6-78 bo‘lur. Bunlarga uft (8), vaqt, sabab fe'llari qo‘shilsa, 81 ta bo‘lur” deb aytadi [14].

Kauzativlik umumiy sababni ifodalovchi tipologik kategoriya bo‘lib, subyektni biror harakatni bajarishga majburlashi, so‘rashi, buyruq berishi va

iltimos qilishi bilan tavsiflanadi[9]. O‘zbek tilida nisbat kategoriyasi, shuningdek, kauzativlik hodisasi N.A.Baskakov, A.N.Kanonov, A.G‘.G‘ulomov, L.N.Xaritonov, E.X.Fotixov, S.A.Ferdaus, A.A.Azer, S.R.Shkurdin kabi tilshunos olimlar ishlarida kuzatiladi.

J.Bo‘ronov kauzativlikni maxsus tipologik kategoriya sifatida o‘zining doktorlik dissertatsiyasida modellashtirgan [4]. Shuningdek, P.Qurbonnazarov nomzodlik dissertatsiyasida ingliz va qoraqalpoq tillarida sabab bog‘lanishni qiyoslab o‘rgangan[6].

A.G‘ulomov ta’kidlab o‘tganidek, fe’l orttirma darajasiga o‘tishi bilan avvalgi fikr materiali kengayib, oraga biror predmet yoki shaxs qo‘shiladi [5]. O‘tgan asrning 80-yillaridan keyin orttirma nisbat shakllari kauzativlik bilan bog‘liq holda tadqiq etilib kelinmoqda. Jumladan, S.Mahmatqulovning nomzodlik dissertatsiyasida orttirma nisbat shakllarining yasalishi jarayonida kauzallash ma’nosi va u bilan bog‘liq kauzallovchi subyekt tushunchasining paydo bo‘lishi qayd qilingan [7].

Orttirma nisbatni “kauzativ nisbat” deb ta’riflash bir qator tilshunoslar tomonidan qayd etilgan [2]. Orttirma nisbat shakllari morfologik kauzativ shakllar sifatida o‘zbek tilshunosligida e’lon qilingan monografik tadqiqotlarda ham talqin etilgan [13]. Demak, harakat fe’llari orttirma nisbatni qabul qilganida kauzativ vaziyatni yuzaga keltiradi, deb hisoblash mumkin. Shunga ko‘ra patsiyens valentligi tahlili asosida fe’llarning kauzativ vaziyat yaratish jarayonini maxsus ko‘rib chiqamiz. Harakat fe’llaridan, asosan, morfologik va analitik kauzativ shakllar hosil bo‘ladi. Semantik kauzatsiya esa oz miqdordagi harakat fe’llarida kuzatiladi (garchi semantik kauzativli fe’llarda orttirma nisbat qo‘shimchasi bo‘lmasa-da, ularda mantiqan patsiyens valentligi mavjud). Quyida dastlab morfologik va keyin analitik kauzativli harakat fe’llari haqida fikr yuritamiz.

Orttirma nisbatga oid grammatik shakllar ma’nosida bajaruvchi shaxs, odatda, ikki nafar bo‘ladi: biri – bajaruvchi, boshqasi – bajartiruvchi (buyuruvchi). Grammatik subyekt ish-harakatning bajaruvchisi emas, balki bajartiruvchisini (buyuruvchini) bildiradi, ish-harakatning asosiy “bajaruvchisi” o‘zga shaxs bo‘ladi. Masalan, *o‘qituvchi o‘quvchilarga diktant yozdirdi*. Bu nisbat kategoriyasi ko‘p shaklga egaligi va yasalishida ham obyektli, ham obyektsiz fe’llarning asos bo‘la olish xususiyatlari bilan boshqa nisbatlardan farq qiladi, deb ta’kidlaydi M.Sodiqova [12].

Harakat fe’llarining orttirma nisbatda qo‘llanishi kauzatsiya hodisasi bilan bog‘lanadi. N.Mahmudov bu hodisa haqida: “… kauzativ formaning invariant mazmuni orttirma nisbatdagi kabidir, bu shundan iboratki, agens harakatni bevosita emas, balki alohida semantik subyekt (patsiyens) orqali bajaradi” [9], degan fikrni bildirsa, R.Rasulov yana ham aniqroq qilib: “Fe’lda orttirma nisbat formasining yasalishi bilan kauzatsiya vositasi (agensi) hosil bo‘ladi” [11], deb ta’kidlaydi. Demak, ayrim obyektsiz harakat fe’llari orttirma nisbatli bo‘lganida ularda obyekt ortmaydi, balki ularda patsiyens valentligi yuzaga keladi. Bizning fikrimizcha, buning asosi ham harakat fe’llarining ma’noviy xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib,

bunda harakat qiluvchiga yangi ijrochi, bajaruvchi qo‘shiladi, ammo obyekt emas. O‘zbek tilida fe’l valentliklarini harakat fe’llari misolida S.Muhamedova ham o‘rgangan [16].

Ma’lumki, kauzatsiya sabab-natija munosabatini ifodalaydi. R.Rasulovning ta’kidlashicha, bu kauzatsiyani keng ma’noda tushunishdan kelib chiqadi. Aslida kauzatsiyaning semantik tuzilishida natija ma’nosi yo‘q. Ammo kauzatsiya (sabab) mantiqiy aloqasiga ko‘ra natija bilan bevosita bog‘lanadi, chunki sabab va natija dialektik birlikda, bog‘liqlikda kuzatiladi.

Har qanday tilda mavjud bo‘lgan kauzativlik ma’nolari turli vositalar bilan belgilanadi: morfologik, sintaktik, leksik jihatdan asosiy diatezlardan birini – subyekt va obyekt, birlamchi va ikkilamchi darajali predikatlar o‘rtasidagi munosabatni ifodalaydi.

Sabab kategoriyasi sabab va sabab-natija munosabatlari haqidagi falsafiy tushunchalar bilan muqarrar ravishda bog‘lanadi. Sabab-oqibat munosabatlari obyektiv voqelik jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi va shartliligining yetakchi shakllaridan biridir. Sabab va oqibat kategoriyalari tabiat va jamiyatda mavjud bo‘lgan obyektiv munosabatlarni aks ettiradi.

Falsafiy lug‘atlarda kauzativ bog‘liqlik falsafiy kategoriya sifatida hodisalarning zaruriy irsiy aloqasini ifodalaydi, ulardan biri (sabab deb ataluvchi) ikkinchisini keltirib chiqaradi (ta’sir yoki harakat deb ataluvchi). To‘liq sabab va muayyan sabab o‘rtasida farq bor. To‘liq sabab – bu mavjud bo‘lgan oqibatlar yuzaga keladigan barcha holatlarning yig‘indisi. Muayyan sabab – bu bir qator holatlarning kombinatsiyasi bo‘lib, oqibatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Tabiatdagi, jamiyatdagi va tafakkurdagi barcha hodisalar, jarayonlar boshqa hodisalar, jarayonlar, ozmi-ko‘pmi, ma’lum sabablar bilan yuzaga keladi yoki shartlanadi. Hodisa (jarayon) boshqa hodisaning (jarayon) sababi deb ataladi, agar:

1) birinchisi ikkinchisidan oldin kelsa;

2) birinchisi ikkinchining paydo bo‘lishi, o‘zgarishi yoki rivojlanishi uchun zaruriy shart yoki asosdir, boshqacha qilib aytganda, agar birinchisi ikkinchisini yaratsa.

Kauzativ yoki sabab munosabatlari umuminsoniy ahamiyatga ega va materiya harakatining barcha shakllarida mavjud. Natijada, ular tabiiy ravishda fikrlash va tilga xosdir. Kauzativlikning semantik va sintaktik tadqiqotlari dolzarbligini I.A.Melchuk shunday ta’kidlab o‘tadi: “Kauzativ hosila deyarli barcha ma’lum til oilalarining tillarida uchraydi, bu ajablanarli emas, chunki inson hayotidagi sabab-oqibat munosabatlarining asosiy ahamiyatidir” [10].

Kauzativlik faktitiv hosilalarni bildiradi. Ma’noni ifodalash vositalariga ko‘ra grammatik kauzativ va leksik kauzativ farqlanadi.

Grammatik kauzativ morfologik (sintetik) va sintaktik (analitik) kauzativ hosil qiladi. Grammatik kauzativ, ko‘pincha, bilvosita kauzatsiyani bildiradi, oraliq bajaruvchilar ishtirok etadi, ammo vaqt va joy birligini qabul qilmaydi. Morfologik kauzativ morfologik hosila fe’llaridir. Sintaktik kauzativlik bilan kauzatsiya ma’nosi “harakatga yoki holatga undash” kategorik ma’noli yordamchi fe’l bilan

ifodalanadi. Misol uchun: I made him do it. – Men uni buni qilishga majbur qildim.

Leksik sabab – bu o‘z ma’nosidagi “sabab” komponentini o‘z ichiga olgan fe’llar sanaladi.

Fe’lning kauzativ semantikasi – subyekt ish-harakatini predmet holatiga yoki sifat fe’l atributiga o‘zgartirish kiritish uchun harakat subyekti tomonidan obyektga yo‘naltirilgan turtki ma’nosi. Sabab qo‘zg‘atuvchi ish-harakat bilan holat o‘rtasidagi qarama-qarshi munosabatlar kauzativ munosabatlarini ifodalaydi, ya’ni kauzativ fe’l sabab ma’nosiga ega, oqibatlar esa sababsiz qarama-qarshiliklardir. Misol uchun: *to die – to kill; o‘lmoq – o‘ldirmoq*.

Ham grammatik, ham leksik kauzativlikning semantikasi kauzativlik holatini majburan aks ettiradi. Kauzativ holatga *kauzator, sababchi harakat (jarayon, holat), sabab munosabati, sababchi holatning predmeti, sababchi holat* kabi komponentlar kiradi.

Kauzativ munosabat va kauzativ holat predikat semantikasiga kiradi va gapda alohida ifodaga ega emas. Kauzativlik holatining beshinchi komponenti – kauzativ harakat (jarayon, holat va boshqalar) ifodalash uchun ixtiyoriy bo‘lsa-da, lekin fe’l ma’nosida sema darajasida amalga oshirilishi yoki diagnostik bo‘lmagan dalillar shaklida mavjud bo‘lishi mumkin.

Ba’zi tilshunos olimlar grammatik kauzativda kauzativlik holatining majburiy mavjudligini shubha ostiga oladilar. Sabab-natija munosabatlari faqat bitta vaziyat boshqasini majburiy ravishda keltirib chiqarganda va, aksincha, oqibat bo‘lgan vaziyatning mavjudligi shartli vaziyatning (sababning) realligi haqida bir ma’noda gapirgandagina ajratiladi. Ko‘rsatilgan nisbat har doim ham kauzativ semantikaga ega bo‘lgan konstruksiyalarda bajarilmaydi: *Mother makes her daughter learn her lessons; Ona qizini darslarini o‘rganishga majburlaydi*. Bu yerda qo‘zg‘atuvchi konstruksiyaning mavjudligi shubhasizdir, ammo oqibat – sababchi vaziyat hech qanday tarzda amalga oshirilmaydi (qizi, ehtimol, hali ham o‘rganmagandir).

Kauzativ fe’l bilan ifodalangan kauzativ holatning ikki semantik predikatga bo‘linishini ingliz va o‘zbek tillarida quyidagi misollar asosida ko‘rsatish mumkin. *He made the cup break. U piyolani sindirdi.* Ushbu gapda *he,* ya’ni *u* kauzator bo‘lib kelgan.

Funksional-semantik kategoriya sifatida sabab bog‘lanish so‘z uyasining butun tizimi uchun muhim bo‘lgan semantik – o‘ziga xos xususiyatdir. Shuning uchun sabab bog‘lanishni soha metodologiyasi doirasida o‘rganish va tavsiflash zamonaviy tilshunoslikda nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий. Муҳокамат-ул луғатайн (Нашрга тайёрловчи: Қосимжон Содиқов). – Тошкент: Академнашр, 2017. – Б. 9.

2. Ахманова О.С. Словарь лингвинистических терминов. – М.: Советская Энциклопедия, 1969. – С. 194.;

3. Баклагова Ю.В. Функционально-семантическая категория каузативности в русском и немецком языках // Проблемы сопоставительной лингвистики, 2008, № 6. – С. 242.

4. Бўронов Ж. Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – Б. 35.

5. Ғуломов А.Ғ. Феъл. – Тошкент: Фан, 1954. – Б. 63.

6. Курбанназаров П. Категория каузативности и межуровневые способы её выражения. Автореф. дис. … канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – С. 22.

7. Махматкулов С. Побудительный залог в современном узбекском языке. Автореф.дис....канд. филол. наук. – Ташкент, 1980. – С. 15-16.

8. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотити-т-турк. II том. (Таржимон: Муталлибов С.; нашрга таёрловчи Содиқов Қ.). – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2017. – Б. 309.

9. Маҳмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б. 27.

10. Мельчук И.А. Курс общей морфологии. Том II. – Вена: Языки русской культуры, 1998. – С. 256.

11. Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 120-130.;

12. Содиқова М. Феъл стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 38.

13. Фердаус С. Феъл. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1 том. – Тошкент, 1966. – Б. 26.;

14. Фитрат А. Тилимиз I // Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев), Тошкент: Маънавият, 2006. – С. 14.

15. Эргашев Т. Выражение категории каузативности в разносистемных языках (на материале английского, узбекского и других языках). Автореф. дис. … канд. филол. наук. – Ташкент, 1989. – С. 7.

16. Muhamedova S. O‘zbek tilida fe’l valentliklari (harakat fe’llari misolida). –Toshkent: Bookmany print, 2023. – B. 10

O‘ZBEK TILIDA OMONIMLARNING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

Rajabov Feruz Umarqulovich
Qarshi MII akademik litseyi dotsenti, (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tili leksikografiyasi tarixida so‘zlarning shakl va ma’no munosabatlarini ilmiy asosda tadqiq etish asnosida omonimlarning maxsus, o‘quv va izohli lug‘atlarda berilishi, ularning izohlanishi, shuningdek, o‘zbek tili omonimlarining leksikografik talqinlari, o‘quv va izohli lug‘atlarda ularning statistik tahlili, berilish tamoyillari hamda omonimlarning lug‘atlarda jamlanishi adabiy tilda omonimlarning hosil bo‘lish yo‘llarini, adabiy til normalarini puxta egallashda, so‘z ma’nolarini ham yozuvda, ham talaffuzda farqlashda, so‘zlarning etimologik ma’nolarini aniqlishda, so‘zlarni turkumlarga ajratishda muhim rol o‘ynashi amaldagi manbalarga tayangan holda tahlilga tortildi va ulardan namunalar keltirib, o‘zaro taqqoslandi.

Kalit so‘zlar: leksikografiya, omonimlar, shakldosh so‘zlar, omofonlar, omoforma.

Abstract. In this article, in the course of a scientific study of the form and meaning of words in the history of lexicography of the Uzbek language, homonyms are given in special, educational and explanatory dictionaries, their interpretation, as well as lexicographic interpretations of Uzbek homonyms, Uzbek their statistical analysis and principles of rendering in descriptive and explanatory dictionaries and the compilation of homonyms in dictionaries, the ways of formation of homonyms in the literary language, the norms of the literary language, distinguishing the meanings of words both in writing and pronunciation, The important role of z in determining the etymological meanings and classification of words was analyzed based on existing sources, and samples were taken from them and compared with each other.

Keywords: lexicography, homonyms, similar words, homophones, omoform.

Turkiy til omonimlarining dastlabki tadqiqotchisi Mahmud Koshg‘ariy hisoblanadi. Koshg‘ariy omonimlarga oid materiallarni to‘plabgina qolmasdan, ularni ilmiy jihatdan sharhlab ham o‘tgan. Jumladan, “Devonu lug‘otit turk” asarida *o‘t* so‘zining *o‘simlik, quruq xashak, davo* va *zahar* singari to‘rt xil ma’noda ishlatilishini ko‘rsatib o‘tgan [57].

Undan so‘ng Navoiy omonimlar va ularning she’riyatdagi o‘rni haqida o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida shunday fikrlarni bayon qiladi: *“... forsidin ko‘proq tajnis omiz lafz va iyhom angez nukta borki, nazmg‘a mujibi zeb va ziynat boisi takalluf va san’atdur. Masalan: ot lafziki, bir ma’nisi alamdur, yana bir ma’nisi markabdur va yana bir ma’nisi amrdurki, toshni yo o‘qni ot, deb buyurg‘aylar”*[58]. Muallif “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida *it, tush, yoq* kabi omonim so‘zlarning 3 ta shakldoshlari; *bor, sog‘in* so‘zlarining 5 ta ma’nosi; *tuz* va *ko‘k* omonimlari va ular anglatgan ma’nolar haqida shunday deydi: *“Bu nav’ alfoz hamki, uch ma’ni va to‘rt ma’ni va ortug‘roqkim iroda qilsa bo‘lg‘ay, ko‘p borki, forsiy alfozda andoq yo‘qtur”*[59]. Asarda *sog‘in* so‘zining ma’nosi quyidagicha izohlanadi: *“Va andoq lafz topilurki, besh ma’nosi bo‘lg‘ay, sog‘in lafzidekki, bir ma’nosi “yod qilmoqqa amr”dur va biri “sutluk qo‘y oti”dur va “ishq masti” va “majnuni” va “bemori” muqobalasida sog‘in desa, har biriga itloq qilsa bo‘lur”*[60] .

Ma’lumki, hozirgi o‘zbek tilida omonimlik ikkita, ko‘pi bilan oltita so‘zdan tashkil topadi. Demak, hozirgi tilimizdagi holat Alisher Navoiy qo‘llagan omonim so‘zlardagi kabidir. Dastlabki turkiy omonimlar miqdorini professor M.Mirtojiyev qirg‘iz tilida 53 ta, hozirgi o‘zbek tilida esa 51 ta ekanligini ta’kidlaydi[61] .

O‘zining lug‘atshunoslik faoliyatini Chig‘atoy gurungi to‘garagida boshlagan

[57] Koshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘otit turk. –Toshkent:1960. – B.56
[58] Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Муҳокамат ул-луғатайн. III том. – Тошкент: ЎДН, 1948. – 182 б.
[59] Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Муҳокамат ул-луғатайн. III том. – Тошкент: ЎДН, 1948. – Б.183.
[60] Алишер Навоий. Муҳокаматул-луғатайн. III том. – Тошкент: ЎДН, 1948. – Б.58.
[61] Миртожиев М. Ўзбек тилида лексик омоним манбалари. – Тошкент: Фан, 2014. – 26 б.

Elbek 1924-yillardan boshlab tilimizdagi omonim so‘zlarni o‘rganishga kirishgan edi. Masalan, uning "Tilimizdagi yanglish shushr" ruknidagi maqolalarining ba’zilarida aynan shu shakldosh so‘zlar to‘g‘risida fikr yuritgan[62]. Bu vaqtda rus lug‘atshunoslari tomonidan ma’nodosh va shakldosh so‘zlar jamlangan bir qancha lug‘atlar tuzilgan edi. Elbek tomonidan tuzilgan «O‘zbekcha shakldosh so‘zlar lug‘ati» (1924) o‘zbek leksikografiyasi tarixida birinchi bor tuzilgan maxsus lug‘at ekanligi bilan ahamiyatli. U 1933-yilda "O‘zbekcha shakldosh va ma’nodosh so‘zlar lug‘ati" asarini yozib tugatdi va nashriyotga topshirdi. Biroq lug‘atning hajmi kattalashib ketgandi. Elbek noshirlarning maslahati bilan lug‘atni "O‘zbekcha shakldosh so‘zlar lug‘ati" va "O‘zbekcha ma’nodosh so‘zlar lug‘ati" nomlari ostida alohida-alohida ko‘rinishda qayta bosmaga tayyorladi. Shunday qilib, 1934-yil 22-fevralda lotin grafikasida 1500 nusxada "O‘zbekcha shakldosh so‘zlar lug‘ati" Samarqand Davlat nashriyoti tomonidan bosib chiqarilgan. Lug‘at "och" so‘zi bilan boshlanib, "zar" so‘zi bilan tugallangan. Unda 416 shakldosh so‘z alifbo tartibida berilgan. Bulardan 281 tasi 2 ma’noli, 101 tasi 3 ma’noli, 31 tasi 4 ma’noli, 2 tasi 5 ma’noli, 1 tasi 6 ma’noli. Omoifoda tarkibiga birlashgan har bir omoleksemaning ma’nolari arab raqamlari bilan farqlangan. Ularni joylashtirishda turkumlarga amal qilinmagan. Ba’zi o‘rinlarda goh ot so‘z turkumiga oid omonim birinchi keltirilgan bo‘lsa, boshqa joyda sifat yoki fe’l so‘z turkumiga oid omoleksema birinchi keltirilgan. Shakldoshlarning berilish tartibi juda ham sodda, ya’ni avval shakldosh so‘z izohlangan, so‘ngra bir yoki ikkita misol keltirilgan. Elbek lug‘atdagi har bir omoleksemaning ma’nosini izoh asosida, imkon boricha ochib berishga harakat qilingan. Har bir ma’noni tasdiqlash uchun 20-30-yillarda ijod etgan A.Qodiriy, Cho‘lpon, G‘.G‘ulom, Uyg‘un, K.Yashin, M.Gorkiy, A.Mayakovskiy kabi 46 dan ortiq o‘zbek va rus mualliflarining tarjima asarlaridan, qurultoy materiallari va xalq og‘zaki ijodi namunalaridan isbotlovchi misollar keltirgan. Elbekning "O‘zbekcha shakldosh so‘zlar lug‘ati" o‘zbek lug‘atshunosligi tarixida qimmatli asar bo‘lib, uning yangi tuzilayotgan lug‘atlar uchun tatbiq qilinadigan jihatlari bor. Elbek bu lug‘atni tuzishda o‘sha davrda mavjud bo‘lgan leksikografik tamoyillarga amal qildi. Rus, turk, tatar olimlarining bu boradagi tajribalaridan ijodiy foydalangan.

Omonimlarning izohli lug‘ati adabiy til normalarini egallashda, omoleksemalarga tarixiy-etimologik, izoh berishda, ularning ma’nosini aniqlashda, so‘zlarning ruscha, arabcha, forscha ekvivalentini aniqlashda, so‘zlarning qaysi turkumga oid ekanligini belgilashda katta ahamiyatga ega. Omonimlarning izohli lug‘ati adabiy tilda omonimlarning hosil bo‘lish yo‘llarini, adabiy til normalarini puxta egallashda, so‘z ma’nolarini ham yozuvda, ham talaffuzda farqlashda, so‘zlarning etimologik ma’nolarini aniqlishda, so‘zlarni turkumlarga ajratishda muhim rol o‘ynaydi.

Lug‘atda 497 omoifoda ostiga birlashuvchi 1160 dan ortiq leksema tasvirlangan. Dastlab omoleksemalarga tarixiy-etimologik izoh berilib, keyin

[62]Bobomurodova Sh. O‘zbek tilshunosligi rivojida Elbekning roli. Filologiya fan.nom.avtoref. Toshkent-2002. –B.

ma’nosi ta’riflandi, ruscha ekvivalenti ko‘rsatilgach, shu omonimdan yasalgan leksemalar ko‘rsatilgan, so‘ngra bu omonim qatnashadigan birikma, gap berilib, oxirida tekstli misol keltirilgan. Lug‘atga omofonlar, omograflar ilova qilingan.

Bunday lug‘atlar barcha kishilar uchun ham nutq madaniyatini, o‘zbek adabiy tilining lug‘aviy normalarini egallash muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishi hisobga olinsa, Sh.Rahmatullayev tuzgan “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” qimmatlidir.

O‘zbek tili omonimlarining o‘quv lug‘ati. Ma’lumki, shakldosh so‘zlar bilan ishlash mashq va topshiriqlari o‘quvchilar so‘z boyligining oshishi, ularning bir xil ko‘rinishli birliklarni farqlay olish ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish, aynanlik va tafovutlarni ilg‘ay olish malakasini o‘stirishda ustuvorlik qiladi. Bugungi kunda maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan shakldosh so‘zlarning maxsus turi yaratilmagan edi. Mavjud lug‘atlar (“O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”), avvalo, katta yoshdagi kishilarga mo‘ljallanligi, ikkinchidan, ularning kirill alifbosida ekanligi yangi tipdagi lug‘at tartib berishni taqozo qiladi.

Shu maqsadda nashr etilgan X.Suvonova va G.Turdiyevalarning “O‘zbek tilining shakldosh so‘zlar o‘quv lug‘ati” bu boradagi dastlabki lug‘atdir. Mualliflar bunday lug‘atlar tuzishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozimligini uqtiriladi: *“Lingvistik so‘zliklar sirasida shakldosh so‘zlar lug‘ati o‘ziga xos o‘rin tutadi. Ayniqsa, shakldosh so‘zlarning maktab o‘quvchilariga mo‘ljallangan ko‘rinishi alohida ta’limiy ahamiyatga molik bo‘lganligi bois bunday lug‘atni yaratish masalasi yanada jiddiy tus kasb etadi*”[63]. Tuzuvchi lug‘at tartib berishda o‘zbek lug‘atchiligi boy an’analari va namunalaridan keng foydalangan, lug‘atda tavsiflarning o‘quvchilarbop bo‘lishiga harakat qilingan.

N.Abduraxmonova, G‘.Abduvaxobovlar tomonidan tuzilgan shu mavzuga doir “O‘zbek tili omonimlarining o‘quv lug‘ati” ham eng so‘nggi o‘quv lug‘ati sifatida e’tirofga loyiq. Mazkur lug‘atda o‘zbek tilidagi til va nutq birliklari omonimlik munosabatiga ko‘ra to‘rt tarkibiy qismga: ***leksik omonimlar, afflksal omonimlar, frazeologik omonimlar, turg‘un birikma va so‘z birikmalar o‘rtasidagi omonimlar***ga ajratilgan va ular tarkibidagi omonimlar alifbo tartibida berilgan.

Ifoda shakli o‘xshash bo‘lgan so‘zlar muayyan xususiyatlariga ko‘ra ***omofon, omograf, omoforma, omonimlar*** *kabi* farqlangan.

O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘atida yuqoridagi birliklaming umumiy nomi omoifoda tarzda qo‘llangan. Maktab darsliklari hamda ilmiy adabiyotlarda shaklan o‘xshash so‘zlar shakldosh so‘zlar (omonim) deb yuritiladi. Mazkur lug‘at keng ommaga mo‘ljallanganligi bois umumlashtirilgan holda omonimlar deb nomlanganligi qayd etilgan[64]. Lug‘at tuzilishi jadval ko‘rinishida berilgan bo‘lib, quyidagi qismlardan iborat:

[63]Suvonova X., Turdiyeva G. O‘zbek tilining shakldosh so‘zlar o‘quv lug‘ati. T., “Yangi asr avlodi”, 2007, 38-bet.
[64] Aburaxmonova N., Abduvaxobov G‘. O‘zbek tili omonimlarining o‘quv lug‘ati. – Toshkent, 2022. – B.8

• Maqola - So‘z, affiks, frazeologizm, turg‘un birikma va so‘z birikmasi;

• Miqdori — M (rim raqamlari o‘quvchiga nechta so‘z doirasida omonimlik hosil qiluvchi so‘zlarni bildiradi, shuningdek, ma’lumotlar bazasida har bir til va nutq birliklari arab raqamlari orqali maxsus ID kod bilan ifodalanadi);

• Turkumi — ot, fe’l, sifat, son, olmosh, ravish; yuklama, bog‘lovchi, ko‘makchi; modal, undov, taqlid;

• Lug‘aviy ma’nosi — mustaqil ta’no ifodalovchi so‘zlarga izoh;

• Matndan olingan namunalar — turli uslubga doir gaplar.

Lug‘at maqolalari alifbo tartibida jamlanib, uning kontentini shakllantirishda “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” hamda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” , shuningdek, qo‘shimcha o‘quv manbalardan foydalanilgan. Lug‘at maqolalarini kontekstda voqelanishi http://uzbekcorous.uz/ o‘zbek tilining elektron korpusidagi turli uslubga (badiiy, ilmiy, rasmiy, publitistik) doir matnlar orqali, affiksal omonimlar uchun esa bir nechta so‘zlar misol sifatida keltirildi. Lug‘at maqolalari foydalanuvchilar uchun alifbo tarzida berildi. Turg‘un birikma va so‘z birikmasi o‘rtasidagi omonimlik hodisasi lug‘atda IB (ibora) va SB (so‘z birikmasi) va O‘M (O‘z m a’nosida) tarzida berilgan. Ushbu belgilar foydalanuvchilar uchun shaklan bir xil bo‘lgan birliklarni oson va qulay farqlashni ta’minlaydi. Shuningdek, mazkur lug‘atda ibora va so‘z birikmalarini bir-biridan farqlashda iborani yaxlit birlik sifatida uning so‘z turkumi hamda so‘z birikmalarning har bir sintaktik munosabatga kirishgan birliklari modeli keltirildi:

DO‘PPISI TOR KELMOQ	Fe’l	b	Ilojsiz, imkonsiz og‘ir ahvolga tushmoq.	Do‘ppisi tor kelgan vaqtlari Qosim ota yolg‘izlikdan qiynaldi.
DO‘PPISI TOR KELMOQ	Ot +Sifat +Fe’l	B	O‘M	Akamga dadamning yigitlik chog‘idagi do‘ppisi tor keldi.

Lug‘atda ayrim birliklarning shevaga xos shakllari ham hisobga olingan.

“O‘zbek tilining omonimlar lug‘ati”dagi 497 ta omoifoda ostiga birlashuvchi 1160 ta lingvistik birlik ma’nosi ushbu lug‘atda mavjud, shuningdek, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi 590 ta omoifoda ostida birlashuvchi 1348 ta omonim birliklar kiritildi. Ushbu lug‘at tarkibida 2508 omonim va 1087 ta omoifoda (omofon va omoforma) so‘zlar; 204 ta affiksal omonim, 137 ta frazeologik omonim, 235 ta turg‘un birikma va so‘z birikmalari o‘rtasidagi omonimlar kiritilganligi qayd etilgan[65].

[65] Qarang: Aburaxmonova N., Abduvaxobov G‘. O‘zbek tili omonimlarining o‘quv lug‘ati. – Toshkent, 2022. – B.8-10

O‘zbek tili izohli lug‘atining 5 jildlida jami 1026 ta omonim birlik keltirilgan bo‘lib, ulardan 892 tasi (II), 96 tasi (III), 26 tasi (IV), 10 tasi (V), 2 tasi (VI) tarkibli omonim birlik sifatida keltirilgan. Shevaga oid so‘zning omonimlik holati ikkala lug‘atda ham ko‘p uchraydi. Jumladan, 2 tomlida 223 ta, 5 jildlida jami 306 ta birlik omonim so‘zlardir. Shulardan: 2 tomli lug‘atda 223 tadan 138 birlik (I), 69 tasi (II), 11 tasi (III), 4 tasi (IV), 1 tasi (V) tarkibida omonim birlik sifatida keltirilgan. 5 jildli lug‘atdagi 306 tadan 186 tasi ilk ma’nosi (I) bilan, 115 tasi ikkinchi (II) pozitsiyada, 25 tasi uchinchi pozitsiyada (III), 3 tasi to‘rtinchi pozitsiyada (IV) va 2 tasi beshinchi (V) pozitsiyadagi omonimlik holatida dialektal birlik sifatida izohlangan[66].

Omonimiya bir xil shakldagi til birliklarining ma’no jihatdan farq qilishidir. U tarixiy ravishda polisemiya, so‘z va uning shakllanish jarayonlari parchalanishi orqali rivojlanadi.

Xulasa qilib aytganda, o‘zbek tili leksikografiyasi tarixida so‘zlarning shakl va ma’no munosabatlarini ilmiy asosda tadqiq etish XX asrning 60-yillaridan boshlangan[67] bo‘lsa-da, uning tarixiy ildizlari uzoqqa borib taqaladi. Ularni o‘rganish va tadqiqini olib borish bugungi kun uchun zarurdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduvaliyeva D. Navoiy tarixiy asarlari leksikasi: Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2017. – B. 109.
2. Aburaxmonova N., Abduvaxobov G‘. O‘zbek tili omonimlarining o‘quv lug‘ati. – Toshkent, 2022. – B.8
3. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Muhokamat ul-lug‘atayn. III tom. – Toshkent: O‘DN, 1948.
4. Bobomurodova SH. O‘zbek tilshunosligi rivojida Elbekning roli. Filologiya fan.nom.avtoref. Toshkent-2002. – B.
5. Koshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘otit turk. –Toshkent, 1960. – B.56
6. Mirtojiyev M. O‘zbek tilida leksik omonim manbalari. – Toshkent: Fan, 2014. – 26 b.
7. Raimnazarova N. Izohli lug‘atlarda dialektal so‘zlar talqini. – Toshkent, 2022. –B.24
8. Suvonova X., Turdiyeva G. O‘zbek tilining shakldosh so‘zlar o‘quv lug‘ati. T., “Yangi asr avlodi”, 2007. – B.38.
9. Suyunov B.T. O‘zbek tilida omoleksemalarning yuzaga kelish omillari. Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2002. – B.13

[66] Raimnazarova N. Izohli lug‘atlarda dialektal so‘zlar talqini. – Toshkent, 2022. –B.24 (168 b)

[67] Суюнов Б.Т. Ўзбек тилида омолексемаларнинг юзага келиш омиллари. Filologiya fan.nomz.avtoref. Toshkent-2002. –B

AVSTRALIYA VA KANADA INGLIZ TILISI O‘RTASIDAGI FARQLAR

Feruza Abduraximova Boxadirovna
FarDU Ingliz tili va adabiyoti fakulteti katta o‘qituvchisi (PhD)
To‘xtasinova Mubina Aziz qizi
FarDU talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola Avstraliya va Kanada ingliz tillari o‘rtasidagi farqli jihatlarni, shuningdek bu ikki turdagi ingliz tillari britan ingliz tiliga asoslangan umumiy poydevorga ega bo‘lsa-da, ular geografiya, madaniyat va tarixiy kontekstdan ta’sirlangan o‘ziga xos lingvistik xususiyatlarga ega bo‘lib rivojlanganligi haqida o‘rganadi. Ushbu tezis ikki variant o‘rtasidagi fonetik, leksik, grammatik va idiomatik farqlarni o‘rganadi va bu farqlar qanday qilib o‘z jamiyatlarining o‘ziga xos shaxsiyatlarini aks ettirishini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar. Intonatsiya, idiomatik ifodalar, sarkazm, lingvistik xususiyat,fonetik farqlar, leksik farqlar, slanglar, mahalliy iboralar.

Annotation. This article examines the differences between Australian and Canadian English, as well as how, despite sharing a common foundation rooted in British English, these two variants have developed unique linguistic characteristics influenced by geography, culture, and historical context. This work analyzes the phonetic, lexical, grammatical, and idiomatic differences between the two variants, highlighting how these differences reflect the unique identities of their societies.

Key words. Intonation, idiomatic expressions, sarcasm, linguistic feature,phonetic differences, lexical differences, slangs, local expressions.

Ingliz tili global tillardan biri bo‘lib, turli mintaqalar va madaniyatlar ta’sirida ko‘plab dialektlarga ega. Avstraliya Ingliz tili (AusE) va Kanada Ingliz tili (CanE) bu dialektlardan ikkitasi bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos tarixiy, madaniy va geografik kontekstlar bilan shakllangan. Ushbu tezisda AusE va CanE o‘rtasidagi farqlar, jumladan fonetika, leksika, grammatika va sotsiolingvistik omillar ko‘rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot natijalari ingliz tilining global til sifatidagi murakkabligini va mintaqaviy dialektlarni tushunishning ahamiyatini ta’kidlaydi.

Avstraliya va Kanada Ingliz tilining kelib chiqishi britan kolonizatsiyasiga borib taqaladi. Avstraliya 1788 yilda, asosan, Angliyadan kelgan mahbuslar va erkin ko‘chmanchilar tomonidan joylashtirilgan, Kanada esa 17-asr boshlaridan boshlab britan immigrantlari to‘lqinlari bilan rivojlangan. Ushbu kolonial muhit har ikki dialektning rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qilgan [5; 89]

Har ikki mamlakatda mahalliy aholi o‘z tillari orqali lokal ingliz tili turlariga ta’sir ko‘rsatgan. Avstraliyada avstraliyalik aborigen tillari AusEga so‘zlar va iboralarni qo‘shgan [6;123]. Shunga o‘xshab, Kanadada birinchi millatlar tillari CanEga ta’sir ko‘rsatgan, ayniqsa mahalliy aholi ko‘p joylashgan hududlarda[4;88]. Ushbu ta’sirlar har bir mamlakatning madaniy xilma-xilligini aks ettiradi.

AusE va CanE o‘rtasidagi eng sezilarli farqlardan biri unli talaffuzidir. Masalan, "face" va "goat" so‘zlaridagi diftonglar har bir dialektda turlicha talaffuz

qilinadi. AusEda bu unli tovushlar markazlashtirilgan bo‘lsa, CanEda esa Amerika uslubiga yaqinroq talaffuz mavjud [7;109].Undosh tovushlarning talaffuzi ham farq qiladi. Kanada Ingliz tilida "flapping" fenomeni mavjud bo‘lib, undosh tovushlar (masalan, /t/ va /d/) vokal orasida joylashganda ovozli holga o‘tadi ("butter" so‘zi "budder" sifatida talaffuz qilinadi)[1;224]. Bunga qarshi AusE odatda aniqroq undosh tovushlarni saqlaydi. Bundan tashqari, ba’zi avstraliyalik aksentlarda so‘z oxirida yoki undosh oldida "r" tovushi talaffuz qilinmaydi.Kanada inglizi shuningdek, ikki tilli konteksti tufayli fransuz tilidan so‘zlarni o‘zlashtirgan. "Poutine" va "déjà vu" kabi atamalar Kanadada keng tarqalgan, lekin Avstraliyada kamdan-kam ishlatiladi.Hozirgi perfect zamonining qo‘llanilishi ikki dialekt o‘rtasida farq qiladi. Avstraliyaliklar ko‘pincha oddiy o‘tgan zamonni ishlatishadi, kanadaliklar esa hozirgi perfectni afzal ko‘rishlari mumkin. Masalan, avstraliyalik "I saw that movie" desada, kanadalik "I have seen that movie" deydi.

Intonatsiya naqshlari ham AusE va CanEni farqlaydi. Avstraliya Ingliz tilida bayonotlarda intonatsiyaning ko‘tarilishi ko‘p uchraydi, bu esa e’lon qilingan gaplarni savolga o‘xshatishi mumkin [3;324]. Bunday hodisa Kanada Ingliz tilida kamroq uchraydi.

AusE va CanE o‘rtasidagi leksik farqlar juda ko‘p. Masalan, avstraliyaliklar "biscuit" so‘zini "cookie" deb ataydilar. Boshqa misollar "boot" (AusE) va "trunk" (CanE) avtomobil saqlash joyi uchun ishlatiladi [5;116]. Ushbu farqlar nafaqat til evolyutsiyasini, balki madaniy amaliyotlarni ham aks ettiradi.Slang - bu ikki dialekt orasidagi farqlanishning yana bir sohasi. Avstraliyalik slang "arvo" (kuni kechqurun) va "fair dinkum" (haqiqiy) kabi iboralardan iborat bo‘lib, bular Avstraliyadan tashqarida kamdan-kam tushuniladi [2;311]. Kanada Ingliz tilida esa "eh" tasdiq olish uchun ishlatiladi va "double-double" — ikki qaymoq va ikki shakar bilan qahva [4;103]. Ushbu iboralar har bir madaniyat ichida identifikatsiya belgisi sifatida xizmat qiladi.

Har ikkala AusE va CanE mahalliy tillardan olingan so‘zlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, "kangaroo" va "boomerang" so‘zlari faqat Avstraliyaga xosdir [6;148]. Kanada esa "caribou" va "totem" kabi so‘zlarni o‘z ichiga oladi [4;106]. Ushbu olingan so‘zlar har bir dialektning leksikasini boyitadi va madaniy aloqalarni ko‘rsatadi.

Grammatik tuzilmalar ham AusE va CanE o‘rtasida farqlanadi. Bir misol sifatida hozirgi mukofot zamonining ishlatilishini keltirish mumkin. Avstraliyaliklar norasmiy kontekstlarda uni kamroq ishlatishi mumkin; masalan, avstraliyalik "I just ate," deya aytishi mumkin, kanadalik esa ko‘proq "I have just eaten," deb aytadi [5;87].

Jamlangan so‘zlarning ishlatilishi ham grammatik farqni ko‘rsatadi. AusEda jamlangan so‘zlar kontekstdan kelib chiqib birlik yoki ko‘plikda ishlatilishi mumkin ("The team is winning" yoki "The team is celebrating"). Bunga qarshi CanE ko‘proq birlik tuzilmalarini afzal ko‘radi ("The team is winning").

Prepozitsiya iboralari ham farq qiladi; masalan, avstraliyaliklar "at the weekend" deb aytishadi, kanadaliklar esa "on the weekend" afzal ko‘rishadi.

Bunday farqlar mintaqaviy normativlardan kelib chiqadigan kengroq til ishlatish tendentsiyalarini aks ettiradi. Britaniya va Amerikan ingliz tilidan ta’sirlangan imlo farqlari ham mavjud. Masalan, avstraliyaliklar odatda "colour" so‘zini ishlatishadi, kanadaliklar esa "colour" yoki "color" variantlaridan birini tanlashlari mumkin, bu esa ularning Amerikan ingliz tiliga yaqinligini aks ettiradi.Idiomatik ifodalar ko‘pincha madaniy nuanslarni aks ettiradi. Masalan, avstraliyaliklar "fair dinkum" atamasini haqiqiylikni anglatish uchun tez-tez ishlatishadi, kanadaliklar esa "eh?" deb aytib, kelishuv yoki tasdiqni so‘rashadi..

Avstraliya hazili ko‘pincha o‘zining quruq sarkazmi va o‘z-o‘zini kamsitish bilan tavsiflanadi, bu esa uning idiomlarida aks etadi. Bunga qarama-qarshi ravishda, Kanada hazili ko‘proq muloyim va kamtarona bo‘lishi bilan ajralib turadi.

Ommaviy axborot vositalari har ikki mamlakatda til ishlatishni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Televizion dasturlar, filmlar va adabiyotlar ko‘pincha til normativlarini aks ettiradi va mustahkamlaydi. Masalan, Avstraliya dasturlari, masalan *Home and Away*, lokal slang va talaffuzni namoyish etadi; Kanada ishlab chiqarishlari esa *Schitt’s Creek* kabi dasturlar orqali CanEning o‘ziga xos ifodalarini ko‘rsatadi [4;65].

Avstraliya va Kanadadagi ta’lim tizimlari ham til ishlatishga ta’sir qiladi. Avstraliyada maktablarda AusEni standartlashtirishga katta e’tibor beriladi; ammo mintaqaviy farqlar saqlanib qolmoqda. Kanadada esa ta’lim siyosati ingliz va fransuz tillarida ikki tillilikni rag‘batlantiradi, bu esa har ikkala standart ingliz tillaridan farqli ravishda noyob lingvistik aralashmalarga olib kelishi mumkin.

Oxir-oqibat, tilga bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar shaxslarning o‘z dialektlarini qanday qabul qilishini ta’sir qiladi. Avstraliyaliklar o‘zlariga xos slang va talaffuzni milliy identifikatsiya belgilari sifatida faxrlanish bilan aytadilar. Bunga qarshi kanadaliklar xilma-xil lingvistik fonlarni hisobga olgan holda muloqotda aniqlik va neytrallikka urg‘u berishlari mumkin [2;56].

Xulosa qilib aytganda, ushbu tezis Avstraliya Ingliz tili va Kanada Ingliz tili o‘rtasidagi farqlarni fonetika, leksika, grammatika va sotsiolingvistik omillar nuqtai nazaridan o‘rganib chiqdi. Har ikkala dialekt umumiy britan merosiga ega bo‘lishiga qaramay, ular tarixiy ta’sirlar va madaniy kontekstlar tufayli noyob tarzda rivojlangan. Ushbu farqlarni tushunish nafaqat ingliz tilining global til sifatidagi qadriyatini boyitadi, balki mintaqaviy xilma-xillikning identitet shakllanishidagi ahamiyatini ham ta’kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boberg, C. *The English Language in Canada: Status, History and Comparative Analysis*. Cambridge University Press. 2005, 224-225 p.

2. Clyne, M. *Community Languages: The Australian Experience*. Cambridge University Press. 1991, 56-311p.

3. Culpeper, J., et al. *English Language: An International Perspective*. Routledge. 2009, 324-325 p.

4. Harris, A. *Canadian English: A Linguistic Reader*. Oxford University Press. 2002, 65-106p.

5. McArthur, T. *The Oxford Guide to World English*. Oxford University Press. 2002, 87-89p.

6. Walsh, M., Yallop, C. *Language and Culture in Aboriginal Australia*. Aboriginal Studies Press. 2003, 123-146 p.

7. Wells, J.C. *Accents of English*. Cambridge University Press. 1982, 109-110 p.

ANTONIM VA SINONIMLARNING TASNIFI

Feruza Abduraximova Bahodirovna
FarDU Ingliz tili va adabiyoti fakulteti katta o‘qituvchisi (PhD)
Mahmudova Mohira Qobiljon qizi
FarDU talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola antonim va sinonimlarning tasnifi va ularning o‘zbek tilidagi roli haqida ma’lumot beradi. Sinonimlar – ma’nosi bir-biriga yaqin so‘zlar, antonimlar esa – ma’nosi qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlar ekanligi va ularning tilning boyligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Har bir tur sinflarga ajratilib, ular lingvistik xususiyatlar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Sinonim, antonim, tasnif, o‘zbek tili, tilshunoslik, ma’no o‘xshashligi, qarama-qarshilik.

Abstract. This article provides information about the classification of antonyms and synonyms and their role in the Uzbek language. It is analyzed that synonyms are words that are close to each other in meaning, and antonyms are words that are opposite in meaning, and their importance in increasing the richness of the language. Each type is divided into classes, which are analyzed in terms of linguistic features.

Key words: Synonym, antonym, classification, Uzbek language, linguistics, similar meaning, contrast.

Bilamizki, til insoniyat muloqotida muhim rol o‘ynaydi, fikrlar, his-tuyg‘ular va g‘oyalarni aniqlik va rang-baranglik bilan yetkazish qobiliyatini shakllantiradi. Tilshunoslikning bo‘limlari ichida sinonimlar va antonimlar muhim rol o‘ynaydi va tilni tushunishimiz, undan foydalanishimizni yaxshilaydigan asosiy lingvistik vositalar bo‘lib xizmat qiladi. Quyida antonim va sinonimning asosiy farqini yoritib beruvchi infografik chizma tuzdik:



Sinonim va antonimlarning tasnifi murakkab va kerakli mavzu bo‘lib, turli darajadagi o‘xshashlik, kontekstga xos foydalanish va asosiy konnotatsiyalarni o‘z ichiga oladi. Sinonimlar va antonimlarning murakkab tizimlarini o‘rganish, turli kategoriyalarni va ularning tilshunoslikdagi ahamiyatini tahlil qilish tilshunoslik uchun muhim ahamiyat kasb etadi va tilshunoslikning bu muhim qismlari orqali so‘z munosabatlari kundalik tilimizda ham, adabiy nutqda ham ma’no, ohang va uslubga qanday ta’sir qilishini anglaymiz. Sinonimlar va antonimlar tasnifi tilshunoslikda muhim mavzulardan biridir. Sinonimlar bir xil yoki o‘xshash ma’noga ega so‘zlar bo‘lib, tilni boyitishga yordam beradi.[5;102] Ular ma’no jihatidan bir-biriga yaqin, lekin uslubiy va hissiy ma’noda farqlanuvchi turli turlarga bo‘linadi. Sinonimlar to‘rt asosiy turga tasniflanadi:

• To‘liq sinonimlar – bir-birini to‘liq almashtira oladigan so‘zlar (masalan, "tilshunoslik" va "lingvistika").

• Semantik sinonimlar – ma’no jihatdan farq qiladigan, ammo o‘xshash fikrni ifoda etuvchi so‘zlar (masalan, "botir", "jasur", "qo‘rqmas").

• Kontekstual sinonimlar – faqat kontekstda bir-birini almashtira oladigan so‘zlar (masalan, "shoir", "yozuvchi", "adib").

• Stilistik sinonimlar – hissiy, ekspressiv ma’noni ifodalovchi sinonimlar (masalan, "yuz", "chehra", "turq"). [1;265].

Sinonimlarning denotatsion va konnotatsion tomonlarini tushunish tilning ham muhim ahamiyatga ega. Avvalo denotatsiya va konnotatsiya o‘zi nima ekanligini bilish orqali sinonimlarlarning bular bilan qanday bog‘liqligini anglay olamiz. Denotatsiya so‘zning ma’nosi so‘zm-so‘z, lug‘atdagi ta’rifi - ya’ni so‘zning aniq ma’nosini anglatadi. Masalan, "uy" so‘zi odamlar yashaydigan joyni bildiradi, ta’rif aniq va ob’ektiv bo‘lib hisoblanadi va samarali muloqotni ta’minlaydi. Konnotatsiyaga keladigan bo‘lsak so‘zlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosidan boshqa ma’noni ifodalaydi, misol uchun "uy" bu kimdir yashaydigan uy emas aksincha ko‘pchilikda iliqlik, xavfsizlik va oila tuyg‘ularini uyg‘otishi mumkin bo‘lgan so‘zdir. Sinonimlar ko‘pincha denotatsion ma’nolarga ega, ammo

ularning konnotatsion jihatlari juda katta farq qilishi mumkin. Masalan "kprshapalak" so‘zini oladigan bo‘lsak, bu denotatsion tomondan oddiy hayvon turiga mansub jonzotdir lekin konnotatsion tomondan esa bu yovuzlik, qorong‘ulik yoki xavf ma’nolarini anglatishi mumkin. Bu farqlarni tushunish juda muhim rol o‘ynaydi , ayniqsa turli sohalarda tinglovchilarning idrokiga va hissiy munosabatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.[2;229].

Antonimlar ingliz tilida ko‘p qo‘llaniladigan va nutqni rang barang qiladigan hususiyatlarga ega. Antonimlarni qo‘llash orqali fikrlarni yanada aniq va ta’sirchan ifodalash mumkin. [3;83] Bular shakli har xil, ma’nolarida esa qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlardir. Antonimlar leksik, affiksal va sintaktik turlarga bo‘linadi:

• Leksik antonimlar: Bu turdagi antonimlar so‘zlarning o‘zaro zid ma’nolarini ifodalaydi, masalan, "baland — past", "uzun — qisqa".

• Affiksal antonimlar: Bu turda so‘zlarning affikslari (prefikslar yoki suffikslardan) foydalaniladi, masalan, "suvli — suvsiz".

• Sintaktik antonimlar: Bu turda so‘zlar jumlalar ichida birgalikda ishlatiladi, masalan, "ochiq yuz — tund bashara". Antonimlarning denotatsion va konnotatsion jihatlari ularning aniq ma’nolarini ham, kontekstga qarab o‘zgarishi mumkin bo‘lgan nazarda tutilgan ma’nolarni ham tushunishni o‘z ichiga oladi. Denotatsion jihatiga "issiq" va "sovuq" antonimini ko‘radigan bo‘lsak, bular faqatgina qarama-qarshi haroratni bildirishi mumkin. Konnotatsion jihatiga keladigan bo‘lsak bunda antonimlarning qanday qabul qilinishiga katta ta’sir qilishi mumkin. Misol uchun, "ozg‘in" va "semiz" so‘zlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri antonim bo‘lsa-da, ularning ma’nolari turli xil his-tuyg‘ularni yoki jamiyatdagi hukmlarni uyg‘otishi mumkin. "Ozg‘in" nafislik yoki salomatlikni anglatishi mumkin, "semiz" esa madaniy kontekstga qarab salbiy yoki o‘zini tuta olmaslikni anglatishi mumkin. [4;45].

Ushbu tilshunoslik eng muhim qismlari tilni boyitish va ifodalashda muhim ahamiyatga kasb etadi va ularning tasnifi esa turli kontekstlarda qo‘llanilishi mumkin. Masalan, antonimlar ko‘pincha sifatlar, harakatlar yoki holatlar o‘rtasidagi farqni ko‘rsatishda ishlatiladi, sinonimlar esa biror tushunchani ko‘proq tushunarli qilish uchun ishlatiladi. Umuman olganda, antonimlar va sinonimlar tilning asosiy tuzilmalari bo‘lib, ular orqali fikrlarni aniq va samarali ifodalash mumkin. Ularning to‘g‘ri qo‘llanilishi esa yozma va og‘zaki nutqda mantiqiylikni ta’minlaydi, bu esa aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi. Shuning uchun, bu so‘zlar bilan ishlashni o‘rganish har bir til o‘rganuvchisi uchun zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Cruse, D. A. Lexical Semantics. Kembrij universitetining nashriyoti, 1986, 265-270 betlar.

2. Lyons, J. Semantika. Berlin nashriyoti , 1977, 229-234 betlar.

3. Palmer, F. R. Semantika. Kembrij universitetining nashriyoti, 1981, 83-87 betlar.

4. Murphy, M. L. Semantik bog‘lanish va leksika: Antonym, Sinonim va boshqa Paradigmalar . Jon Benjamins nashriyoti , 2003, 45-49 betlar.

5. Jackson, H., & Amvela, E. Z. So‘zlar, ma’no va lug‘at: Zamonaviy ingliz leksikologiyasiga kirish. Oksford universitetining nashriyoti, 2000, 102-105 betlar.

TILNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARINI YORITISHDA XALQ MAQOLLARINING PRAGMATIK TALQINI

Turdaliyeva Dilfuzaxon
Qo‘qon DPI doktoranti (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilning funksional xususiyatlarini yoritishda xalq maqollarining pragmatik talqini bayon etilgan. Til muloqot vositasi bo‘lish bilan birga, olamni ko‘rish, his qilish, anglash va axborot almashish uchun xizmat qiluvchi belgilar tizimi hisoblanishi misollar yordamida aks etgan.

Kalit so‘zlar: maqol, muloqot, kommunikativ funksiya, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, axborot-kommunikatsiya, pragmalingvistika.

Annotation. This article describes the pragmatic interpretation of folk proverbs in highlighting the functional features of the language. In addition to being a means of communication, language is a system of signs that serves to see, feel, understand and exchange information.

Key words: proverb, communication, communicative function, sociolinguistics, linguocultural science, information-communication, pragmalinguistics.

Tilning madaniy va sotsial omillarga bog‘liq ekanligi uning ijtimoiy spetsifikatsiyasini o‘rganishda yaqqol ko‘rinadi. Shu bois bugungi kun tilshunosligining barcha sohalari, xususan, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika kabi sohalarida til hamda til orqali muloqotga kirishish, kommunikativ munosabatlar va ularning madaniy xoslanishi, kommunikantlar o‘rtasidagi aloqa, ularning ijtimoiy mavqeyi va etnik mansubligi kabi masalalar keng o‘rganilmoqda. Tilni axborot-kommunikatsiya tizimi sifatida tushunish, uning ijtimoiy mohiyatini anglash, muloqot mexanizmi va unda madaniy omillar ta’siri hamda kommunikativ faoliyat jarayonida inson va uning o‘rnini belgilash masalalari dolzarblik kasb etmoqda.

Til muloqot vositasi bo‘lish bilan birga, olamni ko‘rish, his qilish, anglash va axborot almashish uchun xizmat qiluvchi belgilar tizimi hisoblanadi. Til, uning mohiyati, mazmuniy mundarijasi, nutqiy voqelanishidek muhim masalalarga e’tibor qaratish Aristotelning “Poetika”sidan boshlab, hozirgi davr tilshunos olimlarining qarashlarida ham ifoda etilmoqda. Tilning ijtimoiy tabiati, uning jamiyatdagi roli va ijtimoiylashuvi E.Benvenist, J.Vandries, F.D.Sossyur kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Mazkur olimlar qarashlarida, til tushunish hamda muloqot qiluvchi omil deb ko‘rsatiladi. A.Potebnyaning fikricha, so‘zlovchi tinglovchida o‘zining fikrini emas, balki tinglovchining fikrini uyg‘otadi. Insonning hayotiy voqealarga hamda obyektiv borliqqa bo‘lgan munosabati jamiyat qadriyatlari asosida yaxlit bir holatda shakllanib boradi. Shu o‘rinda aytish kerakki, xalq donishmandligi asosida vujudga kelgan paremiologik birliklar ham har bir xalq, har bir millat madaniyati va ma’naviyatidan so‘zlaydi. Shu bois qator

semiolog va etnograf olimlar paremiologik birliklar vositasida olamni idrok qilinishning o‘ziga xos belgilarini aniqlashga urundilar. Ko‘plab tadqiqotchilar turli xil tillardagi paremiologik birliklarining leksik-lisoniy jihatlarini o‘rganib, ularning lingvomadaniy xususiyatlarini ko‘rsatib berdilar. Chunki bu birliklar, ya’ni maqollar, matallar va boshqa iboralar ma’lum bir millat yoki xalqning o‘ziga xos fikrlash tarzi, madaniyati, an’analari va dunyoqarashini aks ettiradi. Ushbu birliklar odamlarning kundalik hayotida muhim o‘rin tutadi, ularning tajribalari, bilimlari va qadriyatlarini ifodalaydi. Paremiologik birliklarining bunday xususiyatlari tilzhunoslikning pragmatika sohasi doirasida o‘rganiladi. Tilning funksional xususiyatlari yoritishda maqollarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Ular orqali tilning bir qator funksiyalari yuzaga chiqadi:

1.Tilning kommunikativ funksiyasi. Til, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganish, bo‘lishish va ifodalash uchun asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Bu funksiya orqali insonlar o‘z fikrlarini, o‘ylarini, hissiyotlarini, talablarini va maqsadlarini boshqa insonlarga yetkazishadi. Maqollar, tilning kommunikativ funksiyasini o‘rganishda, izlanish, tarqatish, o‘zgartirish va uni tahlil qilishda keng qo‘llaniladi. Tilning kommunikativ funksiyasi, ya’ni tilning aloqa vositasi sifatida xizmat qilish qobiliyati maqollarda juda aniq aks etadi. Maqollar odatda qisqa, mazmunli va ko‘pincha hayotiy tajribalarni ifodalaydi, shu bilan birga ular turli madaniyatlar va xalqlar o‘rtasidagi muloqotni ham osonlashtiradi. Tilning kommunikativ funksiyasi maqollarda quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

1. ***Maslahat va tajriba almashish***. Maqollar ko‘pincha avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan hayotiy tajribalarning qisqa va mazmunli ifodasidir. Ular maslahatlarga boy bo‘lib, kishilarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish uchun ishlatiladi. Misol: *“Yetti o‘lchab, bir kes”, “Izzat tilasang, ko‘p dema, sihat tilasang, ko‘p yema”* – bu maqollarda maslahat mazmuni aks etgan bo‘lib, odamlarni o‘ylab, tafakkur qilib, keyin ish yuritishga chorlaydi.
2. ***Ogohlantirish va eslatma berish.*** Maqollar ko‘pincha kishilarni turli xavflar va nojo‘ya harakatlardan ogohlantirish uchun ishlatiladi. Misollar: *“O‘ng ko‘zing chap ko‘zingga dushman”, “Chumchuq so‘ysa ham qassob so‘ysin.”*
3. ***Axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qilish.*** Maqollar insonlar o‘rtasida axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni saqlash va targ‘ib qilish uchun xizmat qiladi. Misol: “*Bir kun urush bo‘lgan uydan qirq kun baraka ko‘tariladi.”*
4. ***Kamtarlik va odob-axloqni targ‘ib qilish.*** Maqollar odatda kishilarga kamtar va odobli bo‘lishni eslatadi. Misol: “*Kamtarga kamol, manmanga zavol*.” Bu maqol kamtarlik va oddiylikning ahamiyatini ta’kidlaydi.
5. ***Zarurat va tajribalarni ifodalash.*** Maqollar orqali insonlar bir-biriga muhim hayotiy tajribalari asosida maslahatlar beradi. Misol: “*Ariq bir loyqalanib, keyin tinadi.”* – Bu maqol kishilarning turmushdagi kuzatishlari asosida yuzaga kelgan bo‘lib, hayotdagi qiyinchiliklar va kelishmovchiliklarga chidashga da’vat etadi.

Misollar tahlilidan ko‘rinadiki, maqollar turli madaniyat va xalqlar o‘rtasida muloqotni osonlashtiradi va hikmatli ma’nolari orqali odamlarni birlashtiradi. Bu qisqa va mazmunli iboralarda tilning kommunikativ funksiyasi aniq aks etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Жўраева Б. Ўзбек халқ мақолларининг қисқача синонимик луғати. – Тошкент: Фан, 2006.

1.Лингвистический энциклопедический словарь. Гл. ред. В. Н. Ярцева. – 2-е изд. − М.: СЕ.,1990

2.Борботъко В.Г. Принципы формирования дискурса. – Сочи, 1999. – С-90.

3.Крикманн А.А. Некоторые аспекты семантической неопределенности пословицы // Паремиологический сборник. Пословица, загадка (структура, смысл, текст). – М., 1978. – С. 94.

INGLIZ TILIDA SO‘Z YASASH XUSUSIDA

Feruza Abduraximova Boxadirovna
FarDU katta o‘qituvchisi (PhD)
Muhammedova Inobatxon Shavkatjon qizi
FarDU talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilidagi so‘z yasash tushunchasini o‘rganadi, yangi so‘zlar yaratilishining turli usullariga e’tibor qaratadi. Unda so‘z o‘zlashtirish, derivatsiya, konversiya va aralashtirish kabi asosiy jarayonlar muhokama qilinadi va har birini amaliy misollar bilan ko‘rsatadi. Ushbu jarayonlarni o‘rganib chiqib, maqola lug‘atni rivojlantirish va til bilimini yaxshilash uchun so‘z shakllanishini tushunish naqadar muhimligini ta’kidlaydi. Maqola til o‘rganuvchilar uchun ham, tilshunoslar uchun ham foydali manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: so‘z yasalishi, lug‘at, so‘z turkumi, rivojlanish, grammatik ma’no, o‘zgarish.

Annotation. This article explores the concept of word formation in the English language, focusing on various methods of creating new words. It discusses key processes such as borrowing, derivation, conversion, and blending, providing practical examples for each. By examining these processes, the article emphasizes the importance of understanding word formation for vocabulary development and improving language proficiency. It serves as a valuable resource for both language learners and linguists.

Key words: word formation, vocabulary, part of speech, development, grammatical meaning, change.

Til – doimiy ravishda o‘zgarib borish hamda foydalanuvchilarning ehtiyojlariga moslashish xususiyatlariga ega bo‘lgan tizim hisoblanadi. So‘z yasalishi esa ushbu murakkab tizimning asosiy qismi. Bugungi kunda millionlab insonlar tomonidan o‘rganilayotgan ingliz tilining ushbu boy lug‘at zaxarisi ham asrlar davomidagi so‘z yasalish jarayonlari natijasida hozirgi ko‘rinishga keldi.

So‘z yasalishini tushunish nafaqat tilshunoslar, balki o‘qituvchilar, yozuvchilar va til evolyutsiyasi bilan qiziqqan har bir kishi uchun juda muhimdir.

So‘z yasalishini tadqiq qilish ushbu jarayonlarning qanday ishlashi haqida nazariyalar va tushunchalarni o‘z hissasini qo‘shgan taniqli tilshunos olimlar tomonidan sezilarli darajada rivojlangan. Noam Chomskiy, Uilyam Kroft, Jeffri Nunberg, M.A.K. Halliday, Pol Xopper, Devid Kristal va Diana Lyuis bizga nafaqat so‘z yaratish mexanikasini, balki uning aloqa va madaniyatga ta’sirini ham tushunishga yordam beradigan ramkalarni taqdim etdilar.

So‘z yasalishini o‘rganish yangi so‘zlarning yaratilishiga hissa qo‘shadigan turli morfologik jarayonlarni tahlil qilishni taqazo etadi. Ingliz tilida bir necha xil so‘z yasalishi jarayonlari mavjud bo‘lib, ularning har biri til rivojiga turlicha hissa qo‘shadi. Quyida ushbu jarayonlardan ayrimlarining izohlari bilan tanishamiz.

Derivatsiya (Derivation).

Derivatsiya – mavjud so‘zlarga prefiks va suffikslar qo‘shish orqali yangi so‘zlarni yaratish jarayonidir. Masalan, "un-" prefiksini "happy" so‘ziga qo‘shish orqali "unhappy" so‘zi yaratiladi yoki "kind" so‘ziga "-ness" suffiksi qo‘shilib, "kindness" so‘zi hosil bo‘ladi. Derivatsiya yangi ma’noli so‘zlar yaratishda, ko‘pincha so‘zning so‘z turkumini o‘zgartirishda muhimdir. Masalan:

- Teach(fe’l) → teacher (ot).
- Hope (ot) → hopeless (sifat).

Bu usul ayniqsa sifat, ravish va ot so‘z turkumlariga oid so‘zlarni yasashda samaralidir.

Qo‘shma so‘zlar (Compounding).

Qo‘shma so‘zlar ikki yoki undan ortiq so‘zning qo‘shilishi orqali yangi so‘z yaratish jarayonidir, masalan, "sunlight" (sun va light) yoki "toothpaste" (tooth va paste). Bu jarayon ingliz tilida keng tarqalgan bo‘lib, aniq va tushunarli atamalar yaratishga imkon beradi. Ushbu so‘zlar ot, sifat va hatto fe’llarning birikishidan aniq ma’noli yangi so‘zlarni yaratadi.

Konversiya (Conversion).

Konversiya, ya’ni funksional o‘zgarish, so‘zning shaklini o‘zgartirmasdan turib uning so‘z turkumini o‘zgartirish jarayoni hisoblanadi. Masalan, ot so‘z turkumiga mansub "email" so‘zi fe’l sifatida ham ishlatiladi ("to email"). Ingliz tili konversiya jarayoniga juda moslashgan til bo‘lib, bu so‘zlarning turli grammatik vaziyatlarda ishlatilishiga imkon beradi. Masalan, "run" so‘zi ham ot (a "run" in the park) ham fe’l ("to run") bo‘lishi mumkin.

Aralashtirish (Blending).

Aralashtirish ikki so‘zning qo‘shilishi natijasida yangi so‘z yaratish jarayonidir, bunda asl so‘zlarning ayrim qismlari tushib qoladi. Masalan, "brunch" (breakfast va lunch) va "smog" (smoke va fog) so‘zlari shu usulda hosil qilingan. Bu kabi so‘zlar samaradorlik va qisqalik talab qiladigan muloqotda juda foydalidir [2.156]. So‘z yasalish jarayonlari, ayniqsa qisqartirish va aralashtirish, tilning tejamkorligini oshiradi va muloqotni samaraliroq qiladi. Qisqartirilgan shakllar, masalan, "ad" (advertisement) orqali, muloqot tezroq va osonroq bo‘ladi.

Aralashtirish esa yangi tushunchalarni ifodalash uchun ijodkorlik imkoniyatlarini beradi.

So‘z yasalishi, shuningdek, madaniy almashinuvning aksidir. Ayniqsa, so‘z o‘zlashtirish ingliz tilining boshqa madaniyatlar bilan aloqasi natijasida shakllanganini ko‘rsatadi. Xorijiy so‘zlarni qabul qilish global o‘zaro ta’sir va tarixiy ta’sirlarning ingliz tiliga qanday ta’sir qilganligini ifodalaydi. Zamonaviy davrda madaniyatlar bir-biri bilan yanada yaqinlashgani sari, so‘z o‘zlashtirish til o‘sishining muhim manbai bo‘lib qolmoqda.

So‘z o‘zlashtirish (Borrowing).

So‘z o‘zlashtirish boshqa tillardan so‘zlar qabul qilish jarayonidir. Ingliz tili global til bo‘lganligi sababli, lotin, fransuz, nemis, arab va boshqa tillardan ko‘plab so‘zlarni o‘zlashtirgan. Masalan, "café" (fransuzchadan), "algebra" (arabchadan) va "piano" (italiyanchadan) so‘zlari ingliz tiliga kirib kelgan. So‘z o‘zlashtirish jarayoni ingliz tilini boyitib, tilning texnologiya, madaniyat va jamiyatdagi global o‘zgarishlarga moslashishiga imkon beradi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarning barchasi ingliz tilidagi so‘z yasalish jarayonining naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi, bu esa tilning madaniy, texnologik va ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashishiga imkon beradi. Derivatsiya va qo‘shma so‘zlar yasalishi ushbu omillarning asosiysi hisoblansa-da, aralash va olinma so‘zlar ingliz tilining global tarmoqlanishini aks ettiradi. Ushbu jarayonlar til o‘rganishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ingliz tilini o‘rganuvchilar faqat lug‘atni o‘rganish bilan cheklanmasdan, so‘zlarning qanday yaratilishini tushunib, o‘z lug‘atini kengaytirishi va so‘zlarning yangi ma’nolarini anglab yetishi kerak. Yangi so‘zlarni yaratish va tushunish qobiliyati ingliz tilida samarali muloqot qilish uchun juda muhimdir.

Bundan tashqari, so‘z yasash mexanizmlari tilning ijodkorligini oshiradi va zamonaviy voqeliklarni aks ettiruvchi neologizmlar rivojlanishiga xizmat qiladi. Masalan, texnologiya rivojlanishi "selfie", "vlog" va "cyberspace" kabi yangi atamalarning paydo bo‘lishiga olib keldi, bularning barchasi aralash yoki qo‘shma so‘zlar hisoblanadi.

So‘z yasalishi tilning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga misol qilib tilning lug‘at zaxiralarini kengayishini keltirishimiz mumkin. Jamiyat rivojlanib borar ekan, yangi tushunchalar, g‘oyalar paydo bo‘ladi va yangi so‘zlarga ehtiyoj tug‘iladi. Masalan, texnologiyadagi yangi atamalar ("smartphone") qo‘shma so‘zlar yordamida yaratilsa, xorijiy tushunchalar (masalan, "yoga") qarz olish orqali tilga kirib keladi. Ingliz tilining yangi so‘zlarni qabul qilish va mavjud so‘zlarni o‘zgartirish qobiliyati uning moslashuvchanligini namoyon qiladi. Masalan, konversiya orqali bir xil so‘z bir nechta grammatik ma’nolarda ishlatilishi mumkin, bu esa lug‘atni o‘z ehtiyojlariga mos ravishda qayta ishlatish imkonini beradi.

Ingliz tilida so‘z yasalishi jarayonlari tilning moslashuvchanligi va o‘zgaruvchanligi uchun zarurdir. Yangi so‘zlar paydo bo‘lib, yangi texnologiyalar, ijtimoiy o‘zgarishlar va madaniy voqealarni ifodalash uchun ishlatiladi [1.78].

Bundan tashqari so‘z yasalishi tilning aniqligini oshiradi, bu esa aniq ma’nolarni ifodalash imkonini beradi. Masalan, derivatsiya yordamida bir xil so‘zning turli xil shakllari hosil qilinadi: "happy", "happily" va "happiness" so‘zlari bir ildizdan kelib chiqqan, ammo ular turli ma’nolarni bildiradi. Shuningdek, qo‘shma so‘zlar aniq ma’noli terminlar yaratadi, masalan, "waterproof" – suvga chidamli materialni aniq ifodalash uchun ishlatiladi.

Ingliz tilining yangi so‘zlarni qabul qilish va mavjud so‘zlarni o‘zgartirish qobiliyati uning moslashuvchanligini namoyon qiladi. Masalan, konversiya orqali bir xil so‘z bir nechta grammatik rollarda ishlatilishi mumkin, bu esa lug‘atni o‘z ehtiyojlariga mos ravishda qayta ishlatish imkonini beradi. Bu moslashuvchanlik, ayniqsa, raqamli media yoki marketing kabi zamonaviy sohalarda juda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilining rivojlanishida so‘z yasalishi muhim rol o‘ynaydi. U so‘z boyligini boyitib, yangi so‘zlarni hosil qilishga imkon beradi. So‘z yasalishini tushunish nafaqat lingvistik qobiliyatni oshiradi, balki tilning tarixi va davom etayotgan o‘zgarishlari haqida tushuncha beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bauer L. English Word-Formation. Cambridge University Press. 1983. 250p.

2. Gries S. Blending in English. Cambridge University Press. 2004. 187 p.

3. Halliday M. A. K. An Introduction to Functional Grammar. Edward Arnold Press. 1994. 46 p.

4. Lewis, G. The Anatomy of the English Language. Macmillan. 1967. 350 p.

NUTQ AKTLARI: PRAGMATIK NAZARIYADAGI ILTIMOSLAR VA TAKLIFLAR

Azimova Sayyora Xusanboyevna
FarDU katta o‘qituvchisi (PhD)
Ubaydullayeva Nilufarxon Xayrullo qizi
FarDU magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada “iltimoslar” va “takliflar” nutq aktlarining pragmatik xususiyatlari o‘rganilib, ularning pragmatik nazariya doirasidagi roliga e’tibor qaratilgan. Ushbu nutq harakatlarining muloqotda qanday ishlashini, ma’ruzachilar ularni etkazish uchun foydalanadigan strategiyalarini va ulardan foydalanishga ta’sir qiluvchi madaniy omillarni o‘rganadi. Tadqiqot nutq aktlari nazariyasi, xushmuomalalik nazariyasi va madaniyatlararo pragmatikadan nazariy tushunchalarni birlashtirib, ushbu nutq harakatlarini turli kontekstlarda har tomonlama tushunishni ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar. Nutq aktlari, iltimoslar, takliflar, pragmatik nazariya, xushmuomalalik strategiyalari, madaniyatlararo pragmatika, illokatsion harakatlar, pragmatik kompetentsiya, madaniyatlararo muloqot.

Abstract. This article examines the pragmatic features of the speech acts of “requests” and “offers”, focusing on their role within pragmatic theory. It explores how these speech acts function in communication, the strategies speakers use to

convey them, and the cultural factors that influence their use. The study integrates theoretical insights from speech act theory, politeness theory, and cross-cultural pragmatics to provide a comprehensive understanding of these speech acts in different contexts.

Keywords. Speech acts, requests, offers, pragmatic theory, politeness strategies, cross-cultural pragmatics, illocutionary acts, face-threatening acts, pragmatic competence, intercultural communication.

Introduction. The study of speech acts is central to understanding how language functions in communication. Among the various types of speech acts, "requests" and "offers" are fundamental to daily interactions, as they facilitate cooperation and social exchange. This article explores the nature of requests and offers within the framework of pragmatic theory, examining how they are formulated, interpreted, and influenced by cultural norms.

Methods and Analysis. This study employs a mixed-methods approach to analyze the pragmatic features of requests and offers within the framework of pragmatic theory, drawing on both qualitative and quantitative data. The combination of these methods allows for a comprehensive understanding of how these speech acts are realized and interpreted across different cultural contexts.

Qualitative Data: Data for this study was gathered through discourse analysis of authentic interactions, including conversational exchanges, dialogues from literature, and recorded interactions in natural settings. The primary sources include interactions from native speakers of English and Uzbek, focusing on how requests and offers are expressed in everyday communication. Interviews with participants were conducted to gain insights into their perceptions of politeness strategies and the cultural norms governing requests and offers.

Quantitative Data: Surveys and questionnaires were distributed to a sample group of native English and Uzbek speakers, aimed at capturing their preferences for making and responding to requests and offers. The surveys included multiple-choice and open-ended questions that assessed how direct or indirect respondents preferred to be when making requests or offers and their interpretations of different phrasing.

Participant Selection: The study involved 50 native speakers of English and 50 native speakers of Uzbek, ranging in age from 18 to 50 years, selected through convenience sampling. Participants were chosen to represent a variety of social backgrounds, ensuring that the data captures a diverse range of cultural perspectives and communication styles.

Ethical Considerations: Participants were informed about the purpose of the study and provided their consent for the use of their responses in the research. Confidentiality was maintained throughout, with all personal identifiers removed from the data during analysis.

Discourse Analysis: The discourse analysis focused on the structure of requests and offers, identifying common phrases, speech act strategies, and levels of directness used in each language. The analysis involved coding and categorizing

instances of requests and offers according to their politeness strategies (e.g., direct, indirect, mitigated, or hedged). Differences in phrasing, tone, and contextual cues were analyzed to highlight how these speech acts are adapted to cultural norms in English and Uzbek.

Statistical Analysis: Quantitative data from the surveys were analyzed using statistical methods to identify patterns in preference for directness or indirectness when making requests and offers. Frequency distributions were used to determine the most common strategies for requests and offers among the respondents. Chi-square tests were conducted to examine the significance of differences between English and Uzbek speakers' preferences in the use of indirect or direct language.

Comparative Analysis: A comparative analysis was conducted to identify similarities and differences in how requests and offers are realized between English and Uzbek speakers. This analysis focused on how social variables such as age, gender, and power distance influenced the choice of strategies in each cultural context. The results were interpreted in light of theoretical frameworks such as politeness theory (Brown & Levinson, 1987) and speech act theory (Searle, 1969) to provide a deeper understanding of the cultural underpinnings of these speech acts.

Interpretation of Results: The findings from the discourse and statistical analyses were interpreted to draw conclusions about the role of cultural norms in shaping the use of requests and offers. The study explored how English speakers tend to prioritize clarity and directness in their speech acts, whereas Uzbek speakers often favor indirect strategies to maintain politeness and respect for social hierarchy. The analysis also considered the impact of cross-cultural awareness on second language learners, highlighting areas where misunderstandings might arise due to differing pragmatic expectations. Through this methodological approach, the study aims to illuminate the pragmatic nuances of requests and offers, contributing to a better understanding of how these speech acts function in intercultural communication. The integration of qualitative and quantitative methods ensures a robust analysis, while the comparative approach provides valuable insights into the intersection of language, culture, and communication.

Speech Act Theory: A Foundation. The theoretical foundation for analyzing requests and offers is provided by speech act theory, originally developed by Austin (1962) and further refined by Searle (1969). According to Austin, speech acts can be categorized into locutionary acts (the literal utterance), illocutionary acts (the intended action), and perlocutionary acts (the effect on the listener). Searle (1969) expands on this by identifying types of speech acts, such as directives (e.g., requests) and commissives (e.g., offers). Requests and offers fall under the category of illocutionary acts, where the speaker intends to prompt the listener to take action. A request aims to get the listener to do something, while an offer involves the speaker proposing to perform an action for the listener. Understanding these acts requires attention to the intentions behind the utterance, as well as the context in which they are made.

Politeness Strategies in Requests and Offers. Politeness theory, as developed by Brown and Levinson (1987), provides a framework for analyzing the strategies speakers use to make requests and offers while managing social relationships. According to this theory, requests are inherently face-threatening acts (FTAs) because they impose on the listener's autonomy. To mitigate this, speakers may use strategies like indirectness, hedging, or softening language. For example, a direct request like "Give me the book" is often softened in everyday communication to "Could you please give me the book?" or "I was wondering if you could lend me the book." Offers, while generally considered face-enhancing as they present a benefit to the listener, can still be sensitive to the listener's preferences and autonomy. An offer like "I will help you move" might be phrased as "Would you like me to help you move?" to avoid imposing on the listener's freedom to accept or decline.

Cross-Cultural Pragmatics of Requests and Offers. Cross-cultural studies have shown that the realization of requests and offers varies significantly across different cultures, influenced by factors such as levels of directness, power distance, and societal norms. Blum-Kulka, House, and Kasper (1989) conducted a seminal study on requests, comparing strategies used by speakers of different languages. They found that English speakers often use indirect strategies as a form of politeness, whereas speakers of other languages, like Hebrew, might employ more direct forms depending on the context. Offers are similarly shaped by cultural norms. Wierzbicka (1991) emphasizes that while offers may be intended to express goodwill, their acceptance or rejection can be influenced by cultural expectations about hospitality and generosity. In some cultures, it may be customary to initially refuse an offer as a sign of humility or politeness, while in others, a direct acceptance is more socially appropriate.

Pragmatic Competence and Communication. Understanding the pragmatic aspects of requests and offers is crucial for pragmatic competence, which refers to the ability to use language effectively in social interactions. Kasper and Rose (2002) note that pragmatic competence involves not only linguistic knowledge but also the ability to navigate social norms and cultural expectations. For second language learners, acquiring the appropriate use of requests and offers can be challenging, as it requires sensitivity to context and the social dynamics of the target language community.

Conclusion

The study of requests and offers within pragmatic theory highlights the complexity of human communication and the subtle ways in which language is used to navigate social relationships. By examining these speech acts through the lenses of speech act theory, politeness theory, and cross-cultural pragmatics, we gain a deeper understanding of how language functions across diverse contexts. This understanding can improve both intercultural communication and language teaching, fostering a more nuanced approach to interaction in multilingual settings.

REFERENCES

1. Austin, J. L. (1962). How to do things with words. Harvard University Press.

2. Searle, J. R. (1969). Speech acts: An essay in the philosophy of language. Cambridge University Press.

3. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some universals in language usage. Cambridge University Press.

4. Blum-Kulka, S., House, J., & Kasper, G. (1989). Cross-cultural pragmatics: Requests and apologies. Ablex Publishing.

5. Wierzbicka, A. (1991). Cross-cultural pragmatics: The semantics of human interaction. Mouton de Gruyter.

6. Kasper, G., & Rose, K. R. (2002). Pragmatic development in a second language. Blackwell Publishing.

NUTQIY AKTLAR TIPOLOGIYASI VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI

Axmadjonov Nurbek Zokirjon o‘g‘li
FarDU katta o‘qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqola pragmatikaning muhim tarmoqlaridan biri hisoblangan nutq aktlari va ularning kategoriyalari, klassifikatsiyalariga bag‘ishlangan bo‘lib, ular shunchaki ma’lumotlarni ifodalashga xizmat qiluvchi vosita emas, balki harakatlarni ham aniq bajara oluvchi xususiyatga ega. Nutqiy aktlar muloqot tizimining asosiy tayanch birligi sifatida qaraladi. Nutqiy aktlar mazmuni lisoniy va nolisoniy xususiyatlar umumlashmasidan tashkil topadi. Ishimizda nutqiy aktlarning shakllanish tarixi, rivojlanishiga o‘z xissasini qo‘shgan tilshunoslar, faylasuf olimlarning fikr mulohazalari ham atroflicha bayon qilingan. Nutqiy akt turlari badiiy matnlardan olingan lisoniy dalillar yordamida ko‘rsatilgan.

Abstract. This article is devoted to speech acts, which are considered one of the important branches of pragmatics, and their categories and classifications. Speech acts are considered as the basic unit of the communication system. The content of speech acts consists of a combination of linguistic and non-linguistic features. In our work, the history of the formation of speech acts, the opinions of linguists and philosophers who contributed to its development are described in detail. The types of speech acts are shown with the help of linguistic evidence taken from artistic texts

Kalit so‘zlar: nutq akti, deklarativ, reprezentativ, ekspressiv, direktiv, kommissiv, lokatsion, illokatsion, perlokatsion.

Key words:speech act, declaratives, representatives, expressives, directives, commissives. locutionary, perlocutionary, illocutionary.

Kundalik hayotimizni nutqiy faoliyatlarimizsiz tassavur qilib bo‘lmaydi. Sababi muloqot qilish orqali boshqalar bilan ma’lumot almashamiz, yetkazamiz va shu bilan birga atrofimizda sodir bo‘layotgan voqea hodisalarni tasvirlaymiz. Shu

sababli ham tilga olamni o‘rab turuvchi barcha narsani tasvirlovchi qurol sifatida qaraladi. Aslida ham til bizni boshqa mavjudotlardan bevosita ajratib turuvchi vosita deb ham aytish mumkin. Ya’ni biz u orqali fikr-g‘oyalarimizni hech qanday to‘siqlarsiz ifodalay olamiz. Masalan, “Menining ismim Ali” – deyish orqali shaxsimizni tanishtirishimiz, “Bu ovqat judayam mazali ekan” – deyish orqali esa mahsulotga nisbatan fikrimizni bildirishimiz va hokazolarni ifodalay olishimiz mumkin bo‘ladi. Lekin shu yerda bir savol tug‘iladi. Biz so‘zlardan faqatgina ma’lumotlarni va jarayonlarni tasvirlab berishda foydalana olamiz xolosmi? Albatta, yo‘q. So‘zlar bilan bajarish mumkin bo‘lgan boshqa narsalar ham mavjud. U orqali iltimos qilishimiz, savol so‘rashimiz, buyruq berishimiz, va’da berishimiz, tahdid qilishimiz, rozi bo‘lishimiz, maslahat berishimiz, murojaat qilishimiz, rad qilishimiz, ogohlantirishimiz, kechirim so‘rashimiz va hokazolar qila olishimiz mumkin. Va aynan ushbu holatlar pragmatik jarayon bo‘lib, nutq akti hisoblanadi.

Jahon tilshunosligida XX asrning 70-yillaridan pragmalingvistika alohida soha sifatida rivojlana boshladi. Semantika tarkibidan pragmatikaning ajralib chiqishi nutqni pragmatik jihatdan o‘rganish unda til birliklarining nutqiy muloqot jarayonidagi ta’sir va samaradorligi, ma’no qirralarini o‘rganishga ilmiy ehtiyoj borligini ko‘rsatdi. Buning natijasida matnlarning pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish hamda uni idrok etish jarayoniga pragmalingvistik jixatdan yondashish dolzarb va muhim masalaga aylandi.

Nutqiy akt nazariyasining lingvofalsafiy ta’limot nomoyondalari V.Humboldt, Sh.Balli, K.Byuller, E.Benvenist kabi olimlar rus tilshunosligida I.Susov, E.Aznaurova, N.Arutyunova, A.Maslova, G.Pochepsov kabi bir qator tilshunoslar tomonidan pragmalingvistikaning nazariy masalalari o‘z ta’limotlarida nutqiy akt tushunchasining mavjudligini ta’kidlashgan, o‘zbek tilshunosligida bu soha taraqqiyotida A.Nurmonov, N.Mahmudov, U.Rahimov, Sh.Safarov, M.Hakimov, S.Mo‘minov, Sh.Iskandarova, S.Boymirzaeva, A.Pardaev, D.Lutfullaeva, E.Ibragimova, M.Qurbonova, G‘.Qambarov, M.G‘ozieva kabi tilshunoslarning izlanishlari alohida ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlash o‘rinlidir. Ingliz mantiqshunos olimi J.Ostin va psixolog J.Serl o‘z ishlarida nutqiy aktlarning to‘liq bir nazariya sifatida tadqiq etishgan. J.Ostin ta’kidlashicha, har bir gap talaffuz qilinganda, o‘z ma’no ifodasidan tashqari, ma’lum bir harakat ham bajariladi, ya’ni biror bir voqea haqida darak-xabar beriladi, bu xabar tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi, biror narsa iltimos qilinadi, taqiqlanadi va buyruq, maslahat, ijozat beriladi, va’da yoki taklif qilinadi hamda minnatdorchilik izhor qilinadi [1, 22]. Darhaqiqat, ma’lum bir gapning muloqot muhitida ifodalanishi nutqiy aktdir.

O‘zbek tilshunosligida pragmatikaning markaziy muammolari sifatida nutqiy akt nazariyasi, ular haqidagi dastlabki ilmiy tushunchalar, fikr va mulohazalar, nutqiy aktlarning tasnifi, nutqiy akt turlari kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan. O‘zbek pragmalingvistikasi asoschilaridan bo‘lgan Sh.Safarov ham yuqoridagi J.Ostin fikriga qo‘shilgan holda quyidagicha ta’rifni keltiradi: Tilning mavjudligi insonlarning so‘zlash yoki yozish harakatlarini bajarishi bilan bog‘liqdir. Bu harakatlarning bajarilishi jarayonida lisoniy birliklar (birinchi

o‘rinda - gap) asl ma’nosidan tashqari, tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va’da berish kabi mazmunni ifodalash imkoniyatini namoyon qiladilar. Bu ma’nolar so‘zlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan nutqiy faoliyat natijasidir [2, 78]. Mana shunday nutqiy harakatlar ifodasi nutqiy aktlardir. “Har qanday nutqiy hodisa ma’lum niyat asosida namoyon bo‘ladi. Odamlar nimadir haqidagi o‘z muhokamalarini bayon qilish niyatida maslahat berish, va’da berish yoki taklif qilish, tinglovchini biror narsaga ishontirish maqsadida so‘zlaydilar” [3, 47]. Yuqoridagi ta’riflardan shuni anglash mumkinki, nutqiy akt so‘zlovchining ma’lum muhitda, ma’lum maqsad asosida tinglovchiga lisoniy vositalar, asosan gaplar orqali murojaatidir.

Nutq akti - faqatgina vaziyatni tasvirlash bilangina cheklanib qolmay, balki tasir ham ko‘rsatadi. So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida ma’lumot yetkazish va almashishdan tashqari boshqa jarayonlarni ham sodir bo‘lishini ta’minlaydi. Boshqacha qilib aytganda, nuqtimiz orqali faqat vizual jarayonlarni tinglovchiga yetkizishdan tashqari ana shu xolatdagi sodir bo‘ladigan harakatlarni, xis-tuyg‘u hamda munosabatlarimizni ifodalay olishimiz mumkin bo‘ladi. Misol uchun tassavur qilaylik ikki dugona xonada o‘tirishibdi va biri dugonasiga qarab *“Bu xona judayam issiq ekan, shunday emasmi?”* – dedi deylik. Ushbu gap bilan tinglovchi so‘zlovchining xonadagi vaziyatga bevosita o‘z munosabatini bildiradi. Xo‘sh, shunda dugonasi shunchaki xona issiq ekanligi aytmoqchi bo‘lganmi? Ta’kidlangan jumla bilan faqatgina xonaning issiqligi bayon etilibgina qolmay, o‘zi bilan boshqa tag ma’no ham ifodalagan. Ya’ni qiz yuqoridagi gap bilan xona issiqligini ta’kidlash bilan birga, balki derazani ochishga ham kinoya qilayotgan bo‘lishi mumkin. Sababi ikkala shaxs ham bir xonada bo‘lganlaridan so‘ng xonani issiq ekanligini aytish shunchaki mantiqga to‘g‘ri kelmaydi. Chunki xolat ikkala shaxsga ham ma’lum. Boshqacharoq qilib aytganda, yuqorida misol tariqasida ishlatgan gapimiz orqali kimnidir derazani yopishga undash, vaziyatni o‘zgartirishga harakat qilayotganini ilg‘ash mumkin. E’tiborimizni quydagi misolga qaratsak: mehmonlar davrasidagi xolatlardan biri – bir ayol *“Bay, bay uzumlaringiz rosa yetilibdiku-a, biz tomonlarda bunaqa navlaridan topish judayam qiyin”,* dedi. Mezbon bunga javoban nima qiladi? Bo‘lmadi deganda mehmonlar oldiga tortadi yoki mehmonning uyiga berib yuboradi. Aslida mehmon to‘gridan to‘gri mezbondan so‘ragani yo‘q. Aksincha, uzumlarining qanchalik yaxshi yetilganini ta’kidlab o‘tgan. Bundan tushunishimiz mumkinki, nutq akti tilni faoliyat sifatida qabul qiladi va iboralar ko‘pincha faqat ma’noni anglatmaydi. Til muayyan vaziyatlarda maqsadga erishish uchun ishlatilishi mumkin.

Nutqiy aktning ma’noviy tuzilishi haqida Jon Serl quyidagicha fikr bildiradi: «Lisoniy muloqot birligi, odatda, taxmin qilganlaridek, simvol (ramz), so‘z yoki gap emas, hatto simvol so‘z yoki gapning belgisi ham emas, balki simvol, so‘z yoki gapning nutqiy akt ijrosi jarayonida yaratilish va qo‘llanishidir [4, 195]. Demak, oldindan tayyor bo‘lgan so‘z yoki gap nutqiy akt uchun birlik sifatida foydalanilmaydi, balki nutqiy akt uchun so‘z yoki gap aynan nutqiy muloqot jarayonida yaratiladigan hodisa hisoblanadi. Professor M.Hakimovning

ta’kidlashicha, “Nutqiy aktlarda umumiy holda quyidagi komponentlar ishtirok etadi: so‘zlovchi, tinglovchi, nutq obyekti - faktik material hamda nutqiy vaziyat” [5, 102]. Har qanday nutqda ushbu komponentlarning bo‘lishi shart bo‘lganligi uchun ham nutqiy aktlarning lug‘aviy ma’nosi aniqroq tushuniladi.

Nutqiy akt ishtirokchilarining muloqot jarayonidagi lisoniy layoqati, ularning kommunikatsiya jarayonida o‘zaro ta’siri, muloqot amalga oshayotgan vaziyat, nutq adresanti va adresatining maqsadi, nutqiy etiket, til birliklarini qo‘llashdagi individual xususiyatlar kabi omillarni qamrab olgan tadqiqotlar doirasi sezilarli darajada kengaydi. Biroq shuni ta’kidlash kerakki, hozirgi vaqtda pragmatik tadqiqotlarning aniq chegarasi to‘liq belgilab olingan emas.

Tilshunos olim Sh.Safarov “Nutqiy muloqotda inson faktori muhim rol o‘ynaydi va bu faktor muloqot faoliyatini rejalashtirish, uni voqelantirish, uning strategiyasini amalga oshirish kabi amallarni boshqaruvchi ko‘rsatkichlardan biridir”[6, 153], degan fikrni ilgari suradi. Darhaqiqat, jahon tilshunosligida tub burilish yasagan, inson omiliga yangicha yondashuvlar asosida paydo bo‘lgan “Antropolingvistika jahon tilshunoslari tomonidan tilshunoslikning yangi davri deb baholanmoqda va u lingvistik semantika, pragmalingvistika, kognitolingvistika singari tilning ichki tuzilishini so‘zlovchi va tinglovchi shaxs bilan bog‘lab o‘rganuvchi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olishi e’tirof etilmoqda.

Nutq akti pragmatikaning yangi tarmog‘i sifatida fanga Oksford universiteti fanlari doktori Jon Longshov Ostin tomonidan kiritilgan va o‘zining *“**How to do things with words**”“So‘zlar bilan qanday ishlash kerak”* kitobida ilk bor ishlatgan. O‘sha davrlarda tilning asosiy vazifasi voqelikni tasvirlash, vaziyatni ifodalash va dunyo haqidagi mulohazalar bildirish bo‘lgan bo‘lsa, mantiqshunos J.Ostin uchun tilning boshqa qo‘llanish usullari ham borligini aniqladi. U so‘zlar bilan boshqa muhimroq maqsadlarda ham foydalana olish mumkin deb ta’kidlagan. Xuddi shunday fikr Vittgenshteyning *“**Philosophical invistigations**”* “*Falsafiy tatqiqotlar*” asarida ham aytilgan, u jumlalardan “son-sanoqsiz” maqsadlarda foydalanish mumkin deb bayon qilgan.

Quyidagi J.Ostinning “***How to do things with words***” kitobidan olingan misollarga e’tibor beraylik:

1) *Men bu kemani “Qirolicha Yelizavetta” deb nomlayman*.

2) *6 tanga bilan garov o‘ynayman ertaga yomg‘ir yog‘adi.*

3) *Turmush qurishga roziman.*

Bu gaplar bilan kemaning ishga tushirilishi, garovni yoki turmush qurishga rozi ekanligini tasvirlash bilan cheklanib qolmay, balki harakatni ham ko‘rish mumkin. Ya’ni men bu kemani nomlayman deyish orqali nomlaganini e’lon qilibgina qolmay, yoki boshqa misollar kabi aynan ana shu jarayonda harakat sodir etilganligini bilish mumkin. Turmush qurishga roziman deb xabar berishdan tashqari aynan shu jarayonda bevosita ishtirok etilganligini bilish mumkin.

Olim J.Ostin nutqiy aktlarni mana shu umumiy nutq akti doirasida 3 turga ajratadi: *lokutiv, illokutiv va perlokutiv.*

1**. Lokutiv akt** - ritorik birikma, tovushlar va tilning grammatik- semantik qismlari orqali so‘zlarni ma’lum bir ma’no bilan ishlatish hisoblanib, u so‘zlovchi tomonidan aytilgan gapning o‘zidir. Masalan, avvalroq foydalangan gapimizni olsak, “*Xona judayam issiq ekan”* desak, tinglovchi harorat baland ekanligini tushinishi lokutiv akt xisoblanadi.

2**. Illokutiv** - lokutiv akt nazarda tutgan ma’noning faol natijasidir. Tinglovchi gapni tushunadi va unga nisbatan nazarda tutilgan ma’noni turlicha anglaydi. Illokutiv akt nutq aktining asosiy qismi xisoblanib, muhim ishni aynan shu akt bajarib keladi. Masalan, yuqoridagi gap orqali tinglovchi harorat balandligini tushunish bilan birga so‘zlovchi nimadur xohlayotganligini anglashdir. Balki bu gap bilan so‘zlovchi konditsioner yoqilishini yoki suv ichishni hohlayotganligi bildirgan. Illokutiv akt aynan shu jarayon bo‘lib, tinglovchi aytilgan gap asosida xulosa chiqaradi va boshqa ma’no qidiradi. U o‘z ichiga so‘rash, buyurish, maslahat berish, savol so‘rash kabilarni oladi.

3. **Perlokutiv** - esa lokutiv va illokutiv aktlari asosida tinglovchida paydo bo‘lgan reaksiya holati nazarda tutiladi. Bu orqali nutq akti tinglovchini nimanidir o‘zgartirishga undaydi. Misol tariqasida xona issiqligini aytganimizdan so‘ng, tinglovchi o‘rnidan turib, konditsionerni yoqsa yoki suv olib kelsa, demak perlukativ akt deyiladi. Yanada aniqroq tushunish uchun boshqa bir misolga e’tibor beraylik: Agar so‘zlovchi “*Kimdur eshik taqillatyapti*” desa va tinglovchi uni asl ma’nosini tushunsa, bu -lokutiv akt. Illokutiv akt esa so‘zlovchi “Kimdur eshikni taqillatyapti “deyishi orqali eshikni ochishni so‘rayotganini yoki kimgadur ochishni yo‘naltiryotganidir. Perlokutiv akt esa ana shu ikki akt asosida sodir bo‘lgan ishlar natijasidir. Berilgan gap orqali kim kelganini tekshirish yoki eshikni ochish yaqqol perlokutiv akt misolidir. Lekin J.Ostinning illokutiv akt haqidagi qarashlariga amerikalik faylasuf Jon Searl uni kategoriyaga ajratish orqali o‘zgartirish kiritgan. Jon Searlning 1969 yildagi “**Speech acts**”“*Nutq aktlari*” kitobida illokutiv akt haqida ma’lumotlar berishni maqsad qilgan.

Nutqiy aktlar so‘zlovchi tomonidan aytilgan nutq tinglovchi ruhiyatiga qay darajada ta’sir ko‘rsatishiga qarab J.Searl beshta asosiy kategoriyalar: *deklarativ, assertiv, ekspressiv, direktiv* va *kommissiv* kabi turlarga ajratgan.

Deklarativ - jarayonni o‘zgartirib yuborish, boshqacharoq aytganda nimanidur e’lon qilish, taqdirlash, kimnidir ishdan bo‘shatish, urush e’lon qilish, vafot etishi kabilar misol bo‘la oladi. Masalan, “*Sen ishdan bo‘shatilding*” deb aytish orqali kimdur ishsiz bo‘lib qolishi izohlangan. Yoki “*Bugundan boshlab sizlarni er-xotin deb e’lon qilaman”* gapi ham ushbu turga yorqin misoldir. Sababi bu gap orqali ikki shaxsning turmush qurishgani tasvirlanishi bilan birga, hayot yo‘llari birga bog‘lanishini ham bilish mumkin.

Navbatdagi misollarga e’tibor beraylik:

1) *Hakam o‘yinchiga sariq kartochka ko‘rsatdi*.

2) *Sudya gumonlanuvchiga nisbatan “Men ushbu shaxsni aybsiz deb topdim”* dedi

3) *O‘qituvchi “Dars tugadi”* dedi.

Misollar sifatida berilgan gaplarning hammasi ta’sirida bir jarayon boshqasiga o‘zgarilganligini yoki ikkinchi holatga o‘tishiga sabab bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

Assertiv - o‘z ichiga fikr, g‘oya va taklif bildirish, tan olish, qasam ichish, tahmin qilish, ayblash, ma’lumot berish kabilarni qamrab oladi. Masalan:

1. *Parij - Fransiyaning poytaxti* (Ma’lumot berish)
2. *Shirinliklarni hammasini men yeb qo‘ygan edim* (Tan olish)
3. *Avval xonalarni tozalab, keyin aylangani chiqsakchi*? (Taklif)
4. *Qo‘llari tinmay qaltirashiga qaraganda, kuchukdan qo‘rqyapti shekilli* (Tahmin)
5. *Bugun sochimni tekislash uchun soatlab vaqt sarfladim*. (Ayblash)

Berilgan misollardan anglash mumkinki, harakatni amalga oshiruvchi shaxs sochini tekislash uchun uzoq vaqt sarflanganidan nolib, uni ayblamoqda. Assertiv akt deklarativ aktdan farqli o‘laroq jarayonni o‘zgartirib yubormaydi, balki fikr mulohaza bildiradi, ma’lumotlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini isbotlaydi.

Ekspressiv - holatga nisbatan xissiyotlarga tayangan holda javob qaytarishni aks ettiradi. Bular kechirim so‘rash, minnatdorchilik bildirish, xushomad qilish, ulug‘lash, salomlashish, nolish va maqtanish kabilar bo‘lishi mumkin. Masalan:

1. *Kechagi qo‘polligim uchun kechirim so‘rayman. Meni kechiring*. (Kechirim so‘rash)
2. *Ushbu yutuqlarga erishishimga sababchi bo‘lgan ota-onam, ustozlarimga tashakkur izhor qilaman*. (Minnatdorchilik bildirish)
3. *Bay, bay bugun judayam ochilib ketibsizmi*? (Xushomad)
4. *Dunyoni o‘zgartirish sening qo‘lingda*. (Ulug‘lash)

Direktiv - bu akt orqali tinglovchini biror narsa qilishga undash mumkin. Ya’ni buyruq berish, maslahat berish, taklif qilish, ta’qiqlash, iltimos qilish, ogohlantirish, iltijo qilish, talab qilish kabilar.

1. *Tez- tez harakat qilsanchi, seni deb kech qolishimiz mumkin* (Buyruq)
2. *Qo‘limda yuklarim bor edi. Ana shu ro‘parangizdagi eshikni ochib yuborolmaysizmi*? (Iltimos)
3. *Ushbu korxonadagi har bir ishchi o‘z ishiga ma’sulyat bilan yondashishi zarur* (Talab)
4. *Kechasi do‘stlaring bilan kinoga bormaysan.* (Ta’qiqlash)

Kommissiv - so‘zlovchining oldindan kelishilgan ishga va’da berishi tushuniladi. Ya’ni rejalashtirish, qasamyod qilish, rad qilish, vakolat berish, garov o‘ynash, tahdid va kelishuv kabilar. Masalan:

1. *Seni hech qachon tashlab ketmayman*. (Va’da berish)
2. *O‘lay agar qaytib ichmayman*. (Qasamyod)
3. *Aziza, Nazira va men ertaga tushlikdan so‘ng, shahar markazida joylashgan kafeda ko‘rishishamiz*. (Rejalashtirish)
4. *Sizning arizangiz o‘z vaqtida yuborilmaganligi uchun ko‘rib chiqilmaydi*. (Rad qilish)

5. *Agar yana asabimga tegishda davom etsang, nazoratchini chaqiraman*. (Tahdid)

Bu kabi misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Sababi nutq aktlaridan hayotimiz davomida to‘xtovsiz foydalanamiz. Chunki u muloqotning asosiy tamoyilidir. Uning turlari va tarmoqlari bilan yaqindan tanishib chiqish esa muloqot qilishda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan noqulayliklarni oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, tilshunoslikda nutq aktlarini tadqiq qilish doimo dolzarb masala sifatida qaraladi va shu bilan birga nutqiy aktning yuzaga kelishi, ayniqsa lingvopragmatik xususiyatlarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqiy akt va uning bosqichlarini, jumladan nutqiy ta’sir etish aktni tadqiq etish tilning ifodalanishi va anglash imkoniyatlarini kengroq ochishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari bu sohani chuqur o‘rganish turli xil badiiy asarlar va she’riy misralarni asl ma’nolarini to‘gri anglashda ham kerakli bilim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Searle JR. The structure of illocutionary acts. In: Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge University Press; 1969.

2. Safarov Sh. Pragmalingvistika: monografiya. – Toshkent, 2008

3. АрутюноваН.Д. Предложениеиегосмысл. – М., 1976

4. Austin, J.l (1962). How To Do Things with Words: The William James Lectures delivered at Harvard University 1955.

5.Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол.фан.докт.дисс. – Тошкент, 2001

6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2008.

TAKRORIY SO‘Z VA BADIIY TAKROR

Abdishukur Musayevich Shofqorov

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti

Annotatsiya. Maqolada takroriy so‘z va uslubiy vosita bo‘lgan badiiy takrorlarning o‘ziga xos semantik va stilistik xususiyatlari yoritilgan hamda o‘zbek tilshunosligida tadqiq etilishi haqida mulohazalar yuritilgan.

Abstract. The article highlights the unique semantic and stylistic features of repeated words and artistic repetitions as a stylistic tool, as well as comments on their research in Uzbek linguistics.

Kalit so‘zlar: takror, badiiy takror, takroriy so‘z, uslubiy vosita, tavtologiya, pleonazm, parallellar.

Keywords: repetition, artistic repetition, repeated word, stylistic device, tautology, pleonasm, parallels.

Til jamiyatda kishilar o‘rtasidagi munosabatni ta’minlaydi, ma’lum axborotlarni yetkazadi. Shuningdek, kishi ruhiyatiga ta’sir etadi, estetik zavq beradi va madaniy taraqqiyot bilan bog‘liq holda rivojlanib boradi. Zero, “Til xalq,

millat ruhining betakror va hech bir zamon xira tortmas ko‘zgusidir. Har bir tilda shu til egasi bo‘lgan millatning sa’jiyasi, ruhiyati aks etadi”.[5; 11.]

Biz ushbu maqolada takroriy so‘z va uslubiy vosita bo‘lgan badiiy takrorlarning o‘ziga xos semantik va stilistik xususiyatlari hamda o‘zbek tilshunosligida tadqiq etilishi haqida fikr yuritamiz.

Inson uchun qanday talaffuz qilish to‘g‘riligidan ko‘ra, ko‘proq qanday talaffuz qilish qulay va osonligi muhimroq. Tildagi fonetik takrorlar esa o‘sha osonlikni va ravonlikni ta’minlaydi. Takror haqida gap borar ekan, lug‘aviy-nutqiy hodisa bo‘lgan takror (takroriy so‘z)ni badiiy usul, badiiy san’at turi bo‘lgan takrordan farqlash lozim bo‘ladi. Takroriy so‘z leksema xarakteriga ega bo‘lib, asosan, nominativ vazifa bajaradi va nutqda biror voqea-hodisa, harakatning miqdoriy ko‘pligini anglatadi: kula-kula so‘zladi, to‘da-to‘da bo‘lib keldi, ishlay-ishlay charchadi. Takroriy so‘z o‘zbek tilshunosligida Z.O‘rinboyev va M.Bo‘ronovalar tomonidan maxsus tadqiq qilingan. [2, 6.]

Takroriy so‘zlarni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda takroriy so‘zlarni badiiy-uslubiy takrorlardan farqlashga oid fikrlar uchraydi. Masalan, Z.O‘rinboyev bu masalaga oid kuzatishlarini yakunlab chizmaga tushirar ekan takroriy so‘zni badiiy-uslubiy takrordan farqlaydi va unga tavtologiya, pleonazm, parallellar (parallelizm), qofiya (rifma) va radif kirishini ta’kidlaydi. Z.O‘rinboyev tadqiqotida tildagi takror hodisasi (reduplikatsiya), uning ko‘rinishlari, takroriy so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning o‘xshash va farqli tomonlari o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotda o‘zbek tilidagi takroriy so‘zlar leksik va morfologik sathlarda keng tahlil qilingan. M.Bo‘ronova tomonidan o‘zbek tilidagi takroriy so‘zlar ingliz tilidagi ana shunday material bilan qiyoslangan holda o‘rganilgan. [2.]

Takroriy so‘z bilan takrorlash usuli kommunikativ vazifasi, ma’no va strukturasi, matnda qo‘llanish xususiyatlariga ko‘ra farqlanadi. Takroriy so‘z leksema, ya’ni bitta so‘z yonma-yon qaytariladi, takrorlanadi. Takroriy so‘z aynan bir so‘zning ikki bor talaffuz qilinishidan yuzaga keladi, bunday so‘zlar orasiga defis qo‘yiladi, talaffuzda yengil pauza bilan ajraladi. Takroriy so‘z ham badiiy tilda ma’lum uslubiy vazifa bajaradi, ammo bu tip so‘zlarning asosiy vazifasi miqdoran ko‘plik ifodalovchi so‘z shaklini yuzaga keltirish va uning nomi bo‘lib kelishidir.

Badiiy takror, ya’ni badiiy usul, badiiy san’at sirasidagi takrorlar nutq (matn)da turli o‘rinlarda keladi. Badiiy takror vazifasida tovush, so‘z, so‘z birikmasi, ma’lum ibora, gap, hatto butun bir misra (misralar) kelishi mumkin. Badiiy takror nutqda badiiy-uslubiy, emotsional-ekspressiv, badiiy-estetik, obrazlilik vazifalarini o‘taydi. Takroriy so‘z o‘z xarakteriga ko‘ra leksema (so‘z)ga yaqin turadi, takror esa sintaktik va frazeologik birliklarga mansubdir va boshqalar.

Badiiy asarda qo‘llangan til birliklari boshqa uslublardagiga nisbatan emotsional-ekspressivligining yuqoriligi, uslubiy vazifa bajarishi bilan farqlanib turadi. Bu badiiy asar matnidagi badiiy tasviriy vositalarning o‘ziga xos semantik-

stilistik xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Takror badiiy asarda ko‘p qo‘llanadigan uslubiy vositalardan biridir.

“Takror – stilistik ko‘rinishlardan biri bo‘lib, bir so‘zni yoki bir necha so‘zni, ba’zan esa ma’lum satrni atayin qaytarish”. [1; 162.] Takror hamma uslublarda ham qo‘llanadi. “Chunki har bir uslubda ma’noni ta’kidlab, alohida ajratib, ba’zan bo‘rttirib ko‘rsatishga ma’lum o‘rinlarda diqqatni jalb qilishga ehtiyoj bor. Bu ehtiyojni qondirish uchun ko‘pchilik tomonidan oson qabul qilinadigan, fikr yuritilayotgan sohada yoki kundalik turmushda faol ishlatiladigan til birliklari takroriy qo‘llanadi”. [4; 54.]

S. Karimov badiiy til (matn)ning lisoniy belgilarini tadqiq qilar ekan, takror hodisasining mohiyati yuzasidan quyidagi fikrlarni bildiradi: “Takrordan boshqa funksional uslublarda ham foydalanishni inkor etmagan holda, uning qo‘llanish doirasi badiiy uslubda jiddiy ravishda kengayib borishini ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi. Badiiy asarda, barcha stilistik vositalarda bo‘lgani kabi, takrorning zimmasiga ham nutqiy vositalarga xos emotsional bo‘yoq, alohida ohang, joziba berish vazifasi yuklanadi. Shuning uchun ham ijod jarayonida ularga murojaat qilish qalamkashdan maxsus tayyorgarlikni talab qiladi va ana shunday ijodiy mehnat mevasi bo‘lgan takrorlargina badiiy uslub uchun chinakam stilistik usul sifatida xizmat qiladi”. [4; 67.]

Badiiy takrorlar emotsional-ekspressivligi, stilistik xususiyatlari, badiiy-estetik qimmati, obrazliligi bilan farqlanib turadi, ijodkorning o‘ziga xos uslubini keltirib chiqaradi. Ayniqsa, poetik nutqda takrorning o‘ziga xos stilistik xususiyatlari mavjud bo‘lib, bu she’riyatda o‘ziga xos ohangdoshlikni namoyon qiladi, ta’sirchanlikni oshiradi va musiqiylikni ta’minlaydi.

Holbuki, badiiy adabiyot tilida uchraydigan takror usuli ham umumiy badiiy san’atlarning, badiiy matnning funksional va xarakterli belgilaridan biridir. Takrorni yuzaga keltiruvchi, u uchun lisoniy-moddiy asos rolini o‘tovchi lisoniy birliklar aktuallashgan til vositasi jumlasiga kiradi. Taniqli uslubshunos M.Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek: “Lingvopoetik tahlilda badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash ham muhim tamoyillardandir. Bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanish mexanizmlarini aniq tasavvur qilish mumkin”. [3; 156.]

Badiiy takrorni fonetik, leksik va grammatik takrorlarga ajratib o‘rganish mumkin. Bunday takrorlar badiiy matnda quyidagicha uslubiy vazifa bajarishga xizmat qiladi:

– Ohangdoshlikni ta’minlaydi, ta’sirchanlikni oshiradi, majoziy ma’no yuklaydi, tasvirning ifodaliligini ta’minlaydi, mazmun va shakl uyg‘unligini hosil qiladi.

– Ta’kid, so‘roq, iltimos ma’nolarini kuchaytiradi, tasvirni teranlashtiradi va musiqiylikni yuzaga keltiradi.

– Aytiladigan fikr, maqsadni qayta-qayta uqtirishga xizmat qiladi.

– Badiiy matnning o‘ziga xosligini ta’minlaydi.

Takror poetik nutqda qadimdan ko‘p qo‘llangan badiiy tasviriy vosita. Takror xalq og‘zaki ijodi va o‘zbek mumtoz adabiyotida ham faol qo‘llanib, ma’lum semantik-stilistik vazifani bajarib kelgan.

Takror san’ati va takror uslubiy vositasini o‘rganish yuzasidan o‘zbek tilshunosligida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, badiiy asar matnida, poetik nutqda qo‘llangan takrorning uslubiy xususiyatlarini keng va fundamental ravishda tadqiq qilish bugungi o‘zbek lingvostilistikasining dolzarb muammolaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Адабиётшунослик терминлари луғати / Тузувчилар: Ҳ.Ҳомидий, Ш.Абдуллаева, С.Иброҳимова. – Т.: Ўқитувчи, 1967. – Б. 300.

2. Буранова М. Структурно-семантические особенности редупликативных слов в английском и узбекском языках: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Т.: 1982. –С. 18.

3. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Т.: Фан, 2008. – Б. 160.

4. Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд: СамДУ, 1994. – Б. 140.

5. Маҳмудов Н. Тил. – Т.: Ёзувчи, 1998. – Б. 40.

6. Уринбаев З. Лингвистическая природа редупликаций в современном узбекском языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Т.: 1982. – С. 18.

7. Шофқоров А.М. Ўзбек тилида бадиий такрор. – Т.: Фан ва технология, 2019. – Б. 120.

LEKSIKOLOGIYADA SO‘ZLARNING MOHIYATI XUSUSIDA

Feruza Abduraximova Boxadirovna
FarDU katta o‘qituvchisi(PhD)
Maqsudova Mubinaxon qizi
FarDU talabasi

Annotatsiya. Hozirgi kunda ta’limga va yangi tilni o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘quvchilarning ongli va bilimli, kelajakda ma’lum bir kasbning egasi bo‘lishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ushbu maqolada tilshunoslikning asosiy tarmog‘i hisoblangan leksikologiya tushunchasi, uning fandagi o‘rni, frazeologiya, etimologiya, leksikologiyada so‘zning mohiyati, tuzilishi haqida fikrlar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, til, leksikologiya, fan, etimologiya, frazeologiya.

Abstract. Nowadays, a lot of attention is paid to education and learning a new language. All conditions have been created for students to be conscious and educated, to become the owner of a certain profession in the future. Language teachers are used to teach students a new language through language classes and apply it in real life. This article analyzes the concept of lexicology, which is considered the main branch of linguistics, its place in science, the essence and structure of words in lexicology.

Key words: linguistics, language, lexicology, science, etymology, phraseology.

Yer yuzida xilma hil millat va shu millatlarning tili, irqi va urf odatlari bor. Ma’lumki, yer yuzida taxminan **5621** ta til va sheva mavjud. Shulardan 500 ta til o‘rganilgan xolos.[68] Bilamizki, mana shu o‘rganilgan tillar leksikologiya jihatidan ham o‘rganiladi. Leksikologiya so‘zi (**leksikada va... logiya**) — tilshunoslikning sohalaridan biri bo‘lib, u tilning leksik tarkibini, so‘zlarning ma’nolari, kelib chiqishi va o‘zaro bog‘lanishi, tilshunoslikning til va lug‘at tarkibini o‘rganadi. Ushbu fan so‘zlarning asosiy va qo‘shimcha ma’nolarini, sinonimlar va antonimlar kabi leksik munosabatlarni tahlil qiladi. Leksika har bir tilning madaniyati va tarixini aks ettiradi, shuning uchun leksikologiya boshqa xalqlarning qadriyatlari va dunyoqarashlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bu soha tilning rivojlanishi va yangi so‘zlarning paydo bo‘lishini kuzatishda yordam beradi. Leksikologiya, psixologik jihatdan ham ahamiyatlidir, chunki so‘zlar inson fikrlash jarayoniga ta’sir qiladi. Umuman olganda, leksikologiya til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga imkon beradi, bu esa zamonamizda global muloqot va madaniyatlararo aloqalar kuchaygan sharoitda yanada muhimdir. Shuningdek, leksikologiya — bu so‘zlar va ularning ma’nolari, tuzilishi, kelib chiqishi, o‘zaro munosabatlari va foydalanilishi bilan bog‘liq bo‘lgan tilshunoslikning bir bo‘limidir. Leksikologiyaning asosiy maqsadi so‘zlarning leksik ma’nolarini, ularning konnotatsiyalarini va kontekstda qanday ishlatilishini o‘rganishdir.[69]

So‘zning mohiyati quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- Ma’no: har bir so‘zning o‘ziga xos ma’nosi bor. Bu ma’no so‘zning leksik ma’nosi deb ataladi. So‘zlar ko‘pincha bir nechta ma’noga ega bo‘lishi mumkin.

2. Tuzilish: so‘zlar morfemalardan tashkil topadi. Morfemalar — bu so‘zning eng kichik ma’noli birliklari. So‘zlar oddiy (bir morfemali) yoki murakkab (bir nechta morfemali) bo‘lishi mumkin.

3. Kelib chiqish: so‘zlarning etimologiyasi — ularning kelib chiqishi va rivojlanishi. Bu so‘zlarning tarixini va boshqa tillardan qanday qabul qilinganini o‘rganadi.

4. O‘zaro munosabatlar: so‘zlar o‘rtasidagi sinonimlar, antonimlar, omonimlar va boshqa leksik munosabatlar leksikologiyaning muhim qismidir. Bu munosabatlar tilning boyligini va ifoda imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

5. Foydalanish: so‘zlarning kontekstda qanday ishlatilishi, ularning stilistik xususiyatlari va nutqdagi roli ham leksikologiyaning asosiy jihatlaridan biridir.

Umuman olganda, leksikologiya so‘zlarni chuqur o‘rganish orqali tilning mazmuni va uning ifoda imkoniyatlarini yanada boyitishga yordam beradi. Leksema — bu tilshunoslikda biror so‘zning ma’nosini ifodalovchi asosiy

[68] Tursunov U. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. 1965 yil. 5. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-jild. Toshkent, 1966 yil.

[69] O‘. Asqarova, M. Nishonov, M. Xayitbaev "Pedagogika" T., "Talqin" 2008 y

birlikdir.[70] Leksema so‘zning leksik ma’nosi, ya’ni uning o‘ziga xos mazmuni va semantik xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Misol uchun, "*kitob"* so‘zi bir leksema hisoblanadi, chunki u o‘zining ma’nosini — yozuvlar to‘plami sifatida — ifodalaydi. Biroq, ***“kitob”*** so‘zi turli shakllarda (masalan, **“kitoblar”, “kitobim”**) qo‘llanilganda ham, u hamon bir xil leksema sifatida qabul qilinadi.[71]

Leksemalar tilning leksik bazasini tashkil etadi va ularning o‘zaro munosabatlari, sinonimlari, antonimlari va boshqa leksik xususiyatlari tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega. Leksemalar yordamida so‘zlarning ma’nolari va ularning kontekstdagi ishlatilishi yanada chuqurroq o‘rganiladi So‘zlar haqida xususiyatlar tildagi barcha so‘zlar uchun taalluqli hisoblanadi. Leksikologiyada ham asosan ana shu tipdagi so‘zlar o‘rganiladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, leksikologiya leksikani o‘rganadi, leksika esa so‘zlardan (so‘zlar majmuidan) iborat bo‘ladi, shunday ekan birinchi navbatda so‘zning o‘zi haqida, uning mohiyati haqida to‘xtab o‘tishga to‘g‘ri keladi. Ayrim ishlarda «asosiy til birligi», «til va nutqning eng muhim elementlaridan biri», «tilning eng kichik asosiy birligi» deb umumiy tarzda va oddiygina ta’riflanadigan so‘z aslida juda murakkab xususiyatga ega. So‘zga to‘la ta’rif berib bo‘lmaydi. Shu vaqtga qadar lingvistik adabiyotlarda so‘zga uning boshqa hodisalardan farqini belgilovchi aniq, mukammal ta’rif yo‘qligining boisi ham ana shunda. So‘z til birligi sifatida juda murakkab xususiyatga ega ekan, so‘zga qandaydir umumiy yoki aniq ta’rif berishdan ko‘ra, uning o‘ziga xos tomonlarini, boshqa til birliklaridan farqli belgi xususiyatlarini yoritish muhimdir. Oddiy nazar tashlashdayoq so‘zning tovushdan, tovushlar majmuidan tuzilishi aniq seziladi. Barcha tillarda ham so‘z asosan birdan ortiq tovushdan tuziladi. Bir tovushdan iborat so‘zlar juda kam miqdorni tashkil etadi.

Leksikologiyada asosan quyidagi masalalar o‘rganiladi:

1. Leksemalar: so‘zlarning ma’nosi va tuzilishi, ularning o‘zaro aloqalari.

2. Sinonimlar va antonimlar: bir-biriga o‘xshash yoki qarama-qarshi ma’nolarga ega bo‘lgan so‘zlar.

3. Semantika: so‘zlarning ma’nosi va ularning kontekstda qanday o‘zgarishi.

6. O‘zgaruvchanlik: so‘zlarning vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarishi, yangi so‘zlar paydo bo‘lishi va eskilari yo‘qolishi.

7. Terminologiya: maxsus sohalardagi terminlar va ularning ma’nolari.

8. Til va madaniyat: so‘zlar orqali madaniyat, an’analar va ijtimoiy munosabatlarni o‘rganish.

9. Etnolingvistika: millat va etnik guruhlarning leksik xususiyatlari va ularning tilga ta’siri.

10. Leksik aloqalar: so‘zlar o‘rtasidagi munosabatlar, masalan, kelib chiqish, tarqalish va ishlatilish konteksti.

[70] Tursunov U. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. 1965 yil. 5. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-jild. Toshkent, 1966 yil.

[71] Musajon Bobojonov. Jahon tillari haqida eng, eng, englar. Toshkent Universiteti 1 jild 300 bet 27.10.2012.

Leksikologiya tilning mazmuniy jihatlarini chuqur o‘rganishga yordam beradi va tilni yanada boyitish uchun zaruriy bilimlarni taqdim etadi.

Shuningdek, leksikalogiya bo‘limida so‘z va shakl yashovchi qo‘shimchalar ham o‘rganiladi

So‘z yashovchi qo‘shimchalar, asosan, so‘zning ma’nosini o‘zgartiradi yoki yangi ma’nolar hosil qiladi. Ular so‘zning leksik ma’nosini kengaytiradi.

Misollar:

- -chi qo‘shimchasi: "kitob" → "kitobchi" (kitob sotuvchi).

- -lik qo‘shimchasi: "suv" → "suvlik" (suv bilan bog‘liq joy yoki obyekt).

- -zor qo‘shimchasi: "meva" → "mevazor" (mevalar yetishtiriladigan joy).

2. Shakl yasovchi qo‘shimchalar

Shakl yashovchi qo‘shimchalar esa so‘zning grammatik shaklini o‘zgartiradi, lekin uning leksik ma’nosini o‘zgartirmaydi. Ular ko‘pincha grammatik funksiyalarni ifodalaydi.

Misollar:

-lar qo‘shimchasi: "kitob" → "kitoblar" (ko‘plik).

-da qo‘shimchasi: "kitob" → "kitobda" (joy ko‘rsatuvchi).

-gan qo‘shimchasi: "yur" → "yurgan" (zamonni ifodalovchi).

Bu ikki turdagi qo‘shimchalar tilning morfologik tuzilishida muhim rol o‘ynaydi va so‘zlarning ma’nosi va shaklini aniqlashda yordam beradi.

Tilga yangi so‘zlarning kirib kelishi bir qator foydalar keltiradi:

1. Madaniy almashuv. Yangi so‘zlar boshqa tillardan kirib kelishi orqali madaniyatlar o‘rtasida almashuvni kuchaytiradi. Bu odamlar o‘rtasidagi tushunishni oshiradi.

2. Ijtimoiy rivojlanish. Yangi so‘zlar ijtimoiy o‘zgarishlarni aks ettiradi va zamonaviy hayotning yangiliklarini ifodalaydi. Bu tilni zamonaviylashtirishga yordam beradi.

3. Innovatsiyalarni ifodalash. Texnologiya, ilm-fan va san’at sohalaridagi yangiliklar yangi so‘zlarni talab qiladi. Bu yangi g‘oyalarni va tushunchalarni ifodalash imkonini beradi.

4. Tilning boyishi. Yangi so‘zlar tilni boyitadi va uning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu fikr va his-tuyg‘ularni aniqroq ifodalashga yordam beradi.

5. Qiziqish va ijodkorlik. Yangi so‘zlar tilga qiziqishni oshiradi va odamlarni ijodkorlikka undaydi. Bu yozuvchilar va shoirlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

6. O‘qitish va o‘rganish. Yangi so‘zlar til o‘rganish jarayonida muhim rol o‘ynaydi, chunki ular o‘quvchilarga kengroq leksikani o‘zlashtirish imkonini beradi.

Shunday qilib, yangi so‘zlarning kirib kelishi tilning rivojlanishi va madaniyatning o‘sishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Tilning boyish yo‘llari quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Yangi so‘zlar yaratish:

• Neologizmlar. Yangi so‘zlar, iboralar yoki terminlar yaratish orqali tilni boyitish.

• Affiksatsiya. So‘zga prefiks yoki suffiks qo‘shish orqali yangi ma’nolar hosil qilish.

2. Sinonimlar va antonimlar:

• Sinonimlar (bir xil ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar) va antonimlar (qarama-qarshi ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar) yordamida tilni yanada rang-barang qilish.

3. Kontekstual o‘zgarishlar:

• So‘zlarning kontekstga qarab yangi ma’nolarni qabul qilishi. Bu tilning boyligini oshiradi.

4. Qabul qilish va integratsiya:

• Boshqa tillardan so‘zlarni qabul qilish va ularni o‘z til tizimiga moslashtirish. Masalan, ingliz tilidan olingan so‘zlar.

5. Metafora va metonimiya:

• Tasviriy ifodalar yaratish orqali tilni boyitish. Masalan, bir narsani boshqa narsaga taqqoslash.

• Grammatik o‘zgarishlar:

• Grammatik qoidalar va strukturalarning rivojlanishi tilning boyligini oshiradi. Masalan, yangi vaqtlar yoki fe’l shakllarining paydo bo‘lishi.

7. Iboralar va frazeologizmlar:

• Tayyor iboralar va frazeologik birliklar orqali ifoda boyligini oshirish.

8. Madaniyat va ijtimoiy o‘zgarishlar:

• Jamiyatdagi o‘zgarishlar, yangi texnologiyalar, ilm-fan, san’at va madaniyat sohalaridagi yangiliklar tilga ta’sir qiladi.

9. Ommaviy axborot vositalari:

• Televideniye, radio, internet va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali yangi so‘zlar va iboralar tarqatiladi.

Bu yo‘llar tilning rivojlanishiga, boyishiga va zamon bilan hamnafas bo‘lishiga yordam beradi.

XULOSA

Leksikologiya tilning asosiy elementlaridan biri bo‘lib, so‘zlarni va ularning ma’nolarini chuqur o‘rganish orqali tilning boyligini va murakkabligini ochib beradi. Bu soha tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega, chunki so‘zlar orqali inson fikrlarini ifodalash va muloqot qilish imkoniyatlari yaratiladi. Leksikologiyaning o‘rganilishi tilni yanada yaxshi tushunishga va uning rivojlanish jarayonlarini aniqlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Musajon Bobojonov. Jahon tillari haqida eng, eng, englar. – Toshkent: Universiteti, 2012. – 300 b.

2. Bozorboy O‘rinboyev. Leksikologiya. https://qomus.info

3. O‘zbekiston SSR FA Tarix, tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo‘limi tomonidan nashrga tayyorlangan O‘zbek tili Leksikologiyasi. - Toshkent: 1981. - 92 b.

4. Tursunov U. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Toshkent: 1965 yil. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Toshkent, 1966.-400 b.

5. M. To‘xtaxo‘jayeva "Pedagogika", "O‘qituvchi" - Samarqand :2010. - 247 b.

6. O‘zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" - Toshkent 2000. - 76 b.

7. O‘. Asqarova, M. Nishonov, M. Xayitbaev "Pedagogika", "Talqin" - Toshkent: 2017. -267 b.

8. A. To‘xtaboev, A. Eraliev "Tashkiliy xatti-xarakatlar", "Xayot" - Andijon : 2016. -150 b.

9. R. Mavlonova "Pedagogika", "O‘qituvchi" - Samarqand :2012. - 250 b.

TIL SATHLARIDA LOKAL IFODALANISHLAR

Ergashova Muhayyo Valijonovna
Qo‘qon DPI dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilini o‘zaro uzviy bog‘liq, bir-birini taqozo etuvchi elementlar munosabatidan tashkil topgan butunlik, makon kontsepti, ko‘makchilar haqida fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: lingvistik maydon, formal-semantik, ko‘makchi, “makon” konsepti.

Annotation. In this article stressed about the concept of integrity and space of the Uzbeklanguage, which consists of interrelated, interdependent elements.

Key words: linguistic field, formal-semantic, formal-functional, symmetry, asymmetry, the concept of “place”.

Borliqdagi narsa va hodisalar o‘zaro uzviy munosabatda bo‘lib, muayyan sistemani tashkil qiladi. Sistema tarkibidagi har bir a’zoning faollashishi makon va zamon bilan chambarchas bog‘liqdir.

Makon va zamon barcha moddalarning yashash shaklidir. Makondan tashqarida turuvchi obyekt ham va harakat qiluvchi materialdan tashqarida o‘z-o‘zicha bo‘ladigan makon va zamon ham bo‘lmaydi [Ахманова, 1966: 97].

Borliqning asosiy shakllari sifatida **fazo** va **vaqt**ning belgilanishi barchamizga ayon. Falsafiy manbalarda fazo narsalarning ko‘lamini, hajmini, o‘zaro joylashish tartibini, uzlukli yoki uzluksizligini ifodalashi, vaqt esa hodisalarning ketma-ketligini, jarayonlarning davomiyligini aks ettirishi qayd qilinadi.

Ma’lumki, har qanday moddiy jism joyga, ko‘lamga, hajmga ega. Fazo – vaqtning muayyan lahzasida olamni tashkil etgan nuqtalarning o‘zaro joylashish tartibini aks ettirsa, vaqt esa fazoning muayyan nuqtasida ro‘y beruvchi hodisalar ketma-ketligi tartibini ifodalaydi. [Назаров, 2005: 137].

Fazo va vaqtni tushunish bo‘yicha substansial va relyatsion yondashishlar mavjud. Substansial konsepsiya tarafdorlari fazoni narsalar joylashadigan idish, bo‘shliq deb bilishadi. Ularning fikricha, hamma narsa fazo ichiga joylashtirilgan. Fazo o‘ziga narsalarni sig‘diruvchi substansiya. Hech narsasi yo‘q, ya’ni narsalar

solinmagan fazo ham bo‘lishi mumkin, deyiladi. Relyatsion konsepsiya tarafdorlari esa narsalar fazoviy o‘lchamga ega, deyishadi.

“Hech narsasiz fazoning bo‘lishi mumkin emas. Bu farqni relyativistik fizika asoschisi A.Eynshteyn shunday tushuntirgan edi. Faraz qilib, bir kazarma soldatlarni ko‘z oldingizga keltiring. Nyuton fizikasiga ko‘ra, soldatlar chiqib ketishi bilan kazarma bo‘sh qoladi, ana shu substantsial konsepsiyadagi fazodir. Yangi fizikaga ko‘ra, soldatlar chiqib ketishi bilan kazarma ham yo‘qoladi. Bu relyatsion konsepsiyadagi fazodir [Назаров, 2005: 137].

Har bir narsa va hodisa, harakat va holat, belgi va xususiyat inson ongida aks etadi hamda til orqali o‘z ifodasini topadi. Fazo va vaqt tushunchalari ham undan istisno emas.

Fazoning lingvistik vositalar orqali ifodalanishi lokallik maydonini tashkil qiladi. Lingvistikada lokallik fazo bilan bog‘liq xilma-xil vositalarni o‘zida birlashtiradi.

Keyingi yillarda fazo va vaqtning ifoda asoslariga ko‘ra metrik va tipologik xususiyatlarga ega ekanligi e’tirof etilmoqda. Fazo va vaqtning metrik xususiyatlari borliqning miqdoriy munosabatlarini aks ettirib, o‘lchanadigan, ko‘zga tashlanadigan va nisbiy tabiatli xususiyatlaridir. Ularga ko‘lam, bir jinslilik, izotroplik kabi xususiyatlar kiradi[Назаров, 2005: 138].

Lokallik maydoni tarkibiga kirgan lingvistik tushunchalar geterogenlik xususiyatiga ega, chunki lokallik tilning turli sathida ifodalanadi.

Geterogenlik so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, **heteros** – boshqa, o‘zga ma’nolarini anglatadi[Лингвистический энциклопедический словарь,1990: 103]. ***Geterogen*** atamasi O.S.Axmanovaning “Lingvistik terminlar lug‘ati”da turli jinsga (rodga) mansublik[72] sifatida izohlanadi.[Ахманова, 1966: 97].

Keyingi yillarda geterogenlik tushunchasi o‘zbek tilshunosligiga ham kirib kela boshladi. Mavjud adabiyotlarda geterogenlikning universal hodisa ekanligi, unga gomogenlik tushunchasi zidlanib, gomogenlikning bir qator – sathga xos hodisa ekanligi e’tirof etilmoqda.

Xususan, D.Nabieva invariant-variantlilik xususida bahs yuritar ekan, yuqoridagi tushunchalarni shunday ko‘rsatib o‘tadi: “ ... sezgi a’zolarimizga ta’sir etuvchi har qanday real talaffuz qilinuvchi birliklar variant, bu birliklar ostida yashiringan imkoniyat tarzidagi umumlashma esa invariant sanaladi. Bundan invariant va variant o‘zaro bir qatordagi **gomogen** hodisalar emas, balki turli qatordagi **geterogen** hodisalar ekanligi ma’lum bo‘ladi”[Набиева, 2005:5]

Eng avvalo, nutqiy jarayon nutq a’zolarining faoliyat mahsuli sanaladi. Shunday ekan, nutq oqimini tashkil etgan har bir tovush muayyan nutq a’zosining harakati natijasida yuzaga chiqadi. Ana shu nutq a’zolarining harakati belgisi fonetik birliklarda lokallik belgisini hosil qiladi. Xususan, undosh tovushlar o‘pkadan chiqayotgan havo oqimining og‘iz bo‘shlig‘ining ma’lum bir joyida

to‘siqqa uchrashi natijasida hosil bo‘ladi. Ana shu to‘siq bo‘lgan joy shu tovushning lokal belgisi sanaladi.

Demak, undosh tovushlar uchun lokal belgi, falsafadagi materiyaning birlamchi va ikkilamchi belgilari tushunchasi nuqtai nazaridan yondashadigan bo‘lsak, birlamchi belgi sanaladi.

Bundan tashqari, inson ongida aks etgan bizni qurshab turgan olam unsurlari va ularning turli-tuman belgilari uning tilida maxsus lingvistik vositalar yordamida, xususan, leksemalar yordamida o‘z ifodasini topadi. Ya’ni har bir tilning leksik sistemasidan o‘rin olgan muayyan leksemalar borki, ularning mazmuniy tuzilishida lokallik semasi markaziy o‘rinni egallaydi, bunday holda lokallik markaziy sema sanaladi. Bunday leksemalar lokallikni ifodalash uchun xoslangan leksemalar hisoblanadi. Shu tufayli bu leksemalar xuddi zamon ma’nosini ifodalash uchun xoslangan va shu birlashtiruvchi semasi bilan alohida leksik-semantik guruh (LSG)ni tashkil etuvchi temporal leksika kabi, lokal leksikani hosil qiladi.

Hozirgi o‘zbek tilida lokal ma’no ifodalovchi ***o‘rin, joy, makon, qishloq, shahar, ovul, o‘lka*** singari bir qator leksemalar borki, ularda lokallik semasi markaziy sema hisoblanadi va ana shu sema lokallik maydoniga birlashtiruvchi umumiy sema sanaladi.

Xarakterli tomoni shundaki, bunday so‘zlar gap tarkibida qanday kelishik qo‘shimchasini olishidan va qaysi gap bo‘lagi vazifasida kelishidan qat’i nazar, lokallik semasini saqlab qoladi va ana shu semasi bilan bog‘liq ***qaer?*** so‘rog‘ini saqlab qoladi. Masalan, ***Shahrimiz tobora obod bo‘lmoqda*** gapida lokallik maydoniga kiruvchi ***shahar*** leksemasi gapda bosh kelishik shakli vositasida kesim bilan bog‘lanib, ega vazifasida kelyapti, lekin lokal semani aniqlashga qaratilgan ***qaer?*** so‘rog‘ini saqlab qolmoqda.

Yoki ***Shaharning ko‘rkiga ko‘rk qo‘shilmoqda*** gapida xuddi shu leksema qaratqich kelishigi yordamida qaralmishga bog‘lanib aniqlovchi sintaktik vazifasida kelsa ham, so‘rog‘ida lokallik semasi o‘z ifodasini topadi, chunki bu bo‘lak ***qayerning?*** so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

Xullas, lokal leksikaga mansub bo‘lgan har bir leksema gap tarkibida turli gap bo‘laklari vazifasida kelishi mumkin, lekin uning lokal semasi saqlanib qoladi va so‘rog‘i shu semaga qarab beriladi. Ko‘rinadiki, gap bo‘laklari ichida faqat o‘rin hollarigina emas, balki barcha gap bo‘laklari lokallik semasiga ega bo‘lgan so‘zlardan ifodalanib, o‘rin ma’nosiga ega bo‘lishi mumkin.

Lokallik belgisi har bir tilning lug‘aviy birliklari fonetik arxitektonikasi bilan ham bog‘liqdir. Fonetikada lokallikni ifodalash uchun **anlaut, inlaut** va **auslaut** atamalari qo‘llaniladi.

Har qaysi til so‘zlarning fonetik tuzilishi bo‘yicha boshqa oiladagi tildan farq qiladi. Leksemalarning fonetik tuzilishi va so‘zning bosh qismi, o‘rta qismi va oxirgi qismi o‘ziga xos xususiyatga egadir. Bu unli va undosh fonemalarning kuchli va kuchsiz pozitsiyalarini ajratishda, qo‘llanish o‘rinlarining erkinligi va chegaraliligini belgilashda katta ahamiyatga egadir. Masalan, leksemaning oxirgi

o‘rni, ya’ni auslaut undosh fonemalarning jarangli va jarangsizlik belgilarini ifodalash uchun kuchsiz o‘rin sanaladi. Shuning uchun, xuddi shu o‘rinda jarangli va jarangsiz undoshlar farqlovchilik belgisini yo‘qotadi. Yoki inlautda ochiq bo‘g‘inlik o‘rni tor unlilar uchun kuchsiz pozitsiya hisoblanadi, shuning uchun ular xuddi shu pozitsiyada reduktsiyaga uchraydi va hokazo.

4. Polisillabik leksemalar bo‘g‘inlarining urg‘uli bo‘g‘inga nisbatan tutgan pozitsiyasi ham lokallik bilan uzviy aloqadordir. Urg‘uli bo‘g‘in unlilar talaffuzi uchun kuchli pozitsiya, urg‘usiz bo‘g‘in esa kuchsiz pozitsiya hisoblanadi.

5. Lokallik derivatsiya yo‘li bilan hosil qilingan ikkilamchi nomlarda ham ifodalanadi. Bunday lokal leksemalar maxsus yasovchi vositalar yordamida ma’lum bir tilning so‘z yasalish modeli asosida hosil bo‘ladi.

O‘zbek tilida bunday leksemalar ***–zor, -iston, -goh, -lik*** kabi qo‘shimchalar yordamida hosil bo‘ladi.

6. Muayyan relyatsion shakllarni olgan leksema boshqa xuddi shunday shakldagi leksemalar bilan sintagmatik munosabatga kirishadi. So‘z shakllarning sintagmatik munosabatini ta’minlash uchun xizmat qiluvchi relyatsion morfemalarning bir qismi ham lokallik grammatik semasiga ega bo‘ladi.

Xususan, kelishik shakllari tobe so‘zni hokim so‘zga tobe munosabatini ifodalash bilan birga, hokim bo‘lakning leksik ma’nosidan ifodalangan harakat-holatning chiqish, yo‘nalish, yuzaga chiqish-chiqmaslik o‘rnini ham ifodalaydi. Bunday kelishiklar bosh va qaratqich kelishiklari bilan **lokallik** belgisi asosida zidlanadi. Chiqish, o‘rin, jo‘nalish kelishiklari belgiga egaligi, qolgan ikkitasi esa belgiga ega emasligi bilan xarakterlanadi. SHuning uchun birinchi guruh kelishiklari lokal kelishiklar deb ham yuritiladi. Bu jihatdan tushum kelishigi oraliq o‘rinni egallaydi. Chunki bu kelishik shakli o‘timli fe’llarga bog‘lanib, hokim bo‘lakdan anglashilgan harakatning tushish o‘rnini, tushish nuqtasini ifodalaydi. Faqat tushum kelishigi bilan lokal kelishiklarning o‘rin ma’nosini ifodalashdagi farqi shundaki, lokal kelishiklarning o‘rin semasi barqaror, doimiy, markaziy sema sanalsa, tushum kelishigining o‘rin semasi chegara sema hisoblanadi.

7. Lokal leksemalarning sintaktik vazifalari o‘rin hollari uchun xoslangan. Demak, sintaktik tuzilish birliklarida ham lokallikni ifodalash uchun xoslangan vositalar mavjud. Bunday sintaktik birliklar sintaktik lokallikni ifodalashda markaziy vosita sanaladi. Bundan tashqari, sintaktik sathda gap bo‘laklarining kesimga nisbatan o‘rni (pozitsiyasi) tushunchasi ham borki, bu ham lokallik ma’nosi bilan uzviy bog‘liqdir. Gapning shakliy tuzilish birliklarining gapning yoki bo‘lakning bo‘lagi ekanligini, ya’ni gap tuzilishi uchun funksional va nofunksional bo‘lak ekanligini gapning kommunikativ tuzilishida tema-rematik vazifasini belgilashda sintaktik pozitsiya belgisi katta ahamiyatga ega. Lekin gap bo‘laklari va va gapning lokallik ma’nosini ifodalashda keyingi holat chegara belgi sanaladi.

Shunday qilib, lokallik til tuzilishining fonetik sathidan tortib eng yuqori sathigacha xos bo‘lgan mazmuniy kategoriyadir.

Har qaysi sathda bu mazmuniy kategoriyani ifodalovchi, shu sema uchun xoslangan markaziy birliklar bo‘lishi bilan birga, bu semani ifodalashda yordamchi vosita vazifasini bajaruvchi chegara birliklar ham mavjuddir.

Lokallik semasini ifodalashga daxldor barcha lingvistik birliklarni bir semantik maydonga – lokallik maydoniga birlashtirish mumkin.

Lokallik maydoniga birlashgan barcha lingvistik birliklar lokallik paradigmasiga birlashuvchi lingvistik birliklardan **geterogenlik** belgisi bilan farq qiladi. Ana shu geterogenlik belgisiga qarab lokallik maydoniga kiruvchi lingvistik birliklarni quyidagi ma’no guruhlariga tasnif etish mumkin:

1. **Generativ lokallik**. Bunday lokallik tovushlarning paydo bo‘lish (tug‘ilish) o‘rni bilan bog‘liq ravishda yuzaga chiqadi.
2. **Pozitsion lokallik**. Bunday lokallik lingvistik birliklarning o‘zidan kattaroq lingvistik birlik tarkibida o‘ziga o‘xshash boshqa lingvistik birliklar bilan sintagmatik munosabati natijasida sodir bo‘ladi. So‘z qismlarining butunning turli o‘rinlarida bir-biriga nisbatan joylashuv o‘rni, lingvistik birlikning so‘zning fonetik cho‘qqisi sanalgan urg‘uga nisbatan, gapning mazmuniy va grammatik cho‘qqisi sanalgan kesimga nisbatan o‘rinlashishi belgisini pozitsion lokallik deb belgilash mumkin bo‘ladi. Demak, pozitsion lokallik sintagmatika bilan uzviy bog‘liqdir, shuning uchun u faqat sintagmatika orqali voqelanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, yuqoridagi har ikki lokallik lingvistik birlikning ichki tuzilishidan tashqarida bo‘lib, nisbiylik belgisiga egadir.

3. **Nominativ lokallik**. Bunday lokallik lokallik maydonining markazi (yadrosi) sanaladi va u obyektiv borliqdagi lokal belgilarni ifodalashga xoslangan nominativ birliklarni o‘z ichiga oladi. Lokallik bunday birliklarning denotativ ma’nosi, lokal birliklar esa shunday ma’nolarning nominali hisoblanadi.
4. **Derivatsion lokallik**. Bunday lokallik nominatsion lokallik bilan uzviy aloqador, uning tarkibiy bir qismi. Nominativ lokallik bilan derivatsion lokallik o‘rtasidagi farq nomlanish darajasidadir. Tub leksemalar o‘rin semasiga ega bo‘lsa, ular orqali ifodalangan lokallik nominativ lokallik sanaladi. Narsa va hodisalarni ifodalovchi asos qismga o‘rin-joy yasovchi qo‘shimchalar qo‘shish orqali hosil qilingan hosila leksemalar ikkilamchi nomlar sanaladi va ular orqali ifodalangan lokallik derivatsion lokallik hisoblanadi.
5. **Relyatsion lokallik.** Sintaktik munosabatlar ifodalovchi shakllar orqali ifodalangan lokallik relyatsion lokallik sanaladi.

Xullas, lokal leksikaga mansub bo‘lgan har bir leksema gap tarkibida turli gap bo‘laklari vazifasida kelishi mumkin, lekin uning lokal semasi saqlanib qoladi va so‘rog‘i shu semaga qarab beriladi. Ko‘rinadiki, gap bo‘laklari ichida faqat o‘rin hollarigina emas, balki barcha gap bo‘laklari lokallik semasiga ega bo‘lgan so‘zlardan ifodalanib, o‘rin ma’nosiga ega bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, lokallik til tuzilishining fonetik sathidan tortib eng yuqori sathigacha xos bo‘lgan mazmuniy kategoriyadir.

Har qaysi sathda bu mazmuniy kategoriyani ifodalovchi, shu sema uchun xoslangan markaziy birliklar bo‘lishi bilan birga, bu semani ifodalashda yordamchi vosita vazifasini bajaruvchi chegara birliklar ham mavjuddir.

Lokallik semasini ifodalashga daxldor barcha lingvistik birliklarni bir semantik maydonga – lokallik maydoniga birlashtirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М.: СЭ, 1966..
2. Философский словарь М., 1986, с.75.
3. Фалсафа асослари. (тузувчи ва муҳаррир Қ.Назаров) Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёт матбаа ижодий уйи, 2005.
4. Фалсафа асослари. (тузувчи ва муҳаррир Қ.Назаров) Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёт матбаа ижодий уйи, 2005.
5. Фалсафа асослари. (тузувчи ва муҳаррир Қ.Назаров) Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёт матбаа ижодий уйи, 2005.
6. Лингвистический энциклопедический словарь. М.: СЭ, 1990.
7. Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши.Тошкент: Шарқ, 2005.

QASAMYODLARNING MILLIY-MADANIY XOSLANISHI XUSUSIDA

Muhammadali Saminjonov
FarDU o‘qituvchisi

Annotatsiya. Qasam milliy-madaniy qadriyatlarning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, har bir xalqda u alohida ahamiyat kasb etadi. Qasam qadriyat va axloqiy me’yorlarning ifodasi sifatida turli xalqlarda turlicha ifodalanadi. Badiiy asarlarda esa qasam ko‘pincha shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy munosabatlarda o‘ziga xos kuchga ega vosita sifatida tasvirlanadi. Ushbu maqolada o‘zbek, rus va ingliz lingvomadaniyatlaridagi qasam konsepti va uning milliy-madaniy xosligi haqida misollar bilan tahlil qilamiz.

Kalit so‘zlar: qasam, nutqiy akt, konsept, milliy-madaniy xoslanish, lingvomadaniy tahlil.

Abstract. The oath is an important component of national and cultural values, and it is of particular importance in every nation. As an expression of value and moral standards, the oath is expressed differently in different nations. In works of art, the oath is often depicted as a powerful tool in personal, family and social relationships. In this article, we will analyze the concept of oath in Uzbek, Russian and English literature and its national-cultural characteristics with examples.

Key words: oath, speech act, concept, national-cultural identification, linguistic and cultural analysis.

Qasam tushunchasi xalq madaniyati, an’analari va qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab nutqiy aktlardan biridir. Ushbu tushuncha o‘ziga xos lingvomadaniy hodisa bo‘lib, u orqali til va madaniyat o‘rtasidagi aloqalar, insonning ijtimoiy hayotidagi o‘rni va o‘zaro munosabatlarida qay tarzda aks

etishini o‘rganish mumkin. Qasam o‘zida xalqning madaniy ko‘nikmalarini, ijtimoiy nuqtai nazarlarini, qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi va shu sababdan ham lingvomadaniy tadqiqot uchun qimmatli manba hisoblanadi.

Qasam tushunchasining lingvistik asoslari unga bog‘liq bo‘lgan til birliklarining semantik, morfologik va sintaktik jihatlarini o‘rganish bilan bog‘liq. Qasamyod qilish ifodasi turli tillarda turlicha namoyon bo‘lishiga qaramay, umumiy tarzda o‘ziga xos ma’noni ifodalaydi: so‘zlovchi o‘z fikrini yoki niyatini tasdiqlash, o‘zining chinligini isbotlash istagi bilan qasam ichadi. O‘zbek tilida “qasam” so‘zi ko‘pincha yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan shartnoma va va’dalarni amalga oshirish uchun ishlatiladi. Misol uchun, “Qasam ichaman”, “Alloh haqqi” kabi ifodalar shaxsning o‘z va’dasini bajarishiga bo‘lgan qat’iyatini bildiradi.

Qasam o‘zbek tilida bir qator leksik shakllarda qo‘llaniladi va o‘ziga xos morfologik tuzilishga ega bo‘ladi. Bu yerda shaxslararo munosabatlarda ishlatiladigan qasam ifodalari, masalan, “Yaratgan; non; tuz; ota-ona; bola haqqi” kabi so‘z birikmalari ko‘plab boshqa til birliklariga qaraganda yanada shaxsiy va ijtimoiy bo‘lib, ularning leksik shakllari o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlariga mos keladi. Qasam ichish qadimiy madaniy amaliyot bo‘lib, u xalq e’tiqodlarida, urf-odat va qadriyatlarida aks etadi. O‘zbek xalq an’analari va turmush tarzi qasamyod qilishni ijtimoiy-ma’naviy mas’uliyat va ishonch vositasi sifatida qabul qiladi. Qasam ichish orqali insonlar o‘zlari uchun katta ahamiyat kasb etgan shartlar va va’dalarni mustahkamlashga intilishadi. Masalan, inson qasam ichib o‘z niyatini bildirganda, bu uning jiddiylik darajasini ko‘rsatadi va shu orqali boshqa kishilarning ishonchini qozonadi.

Turli lingvomadaniy muhitlarda, xalq an’analarida qasam ichishning o‘ziga xos shakllari mavjud bo‘lib, ular o‘sha xalqning madaniy va diniy qadriyatlariga mos keladi. Odatda, Alloh yoki din vakillari nomi bilan qasam ichish eng yuqori darajadagi qasam sanaladi, chunki bunday qasam ichgan kishi o‘z hayotini va e’tiqodini asos sifatida qo‘yadi. Shuningdek, “ona haqqi” va “Vatan haqqi” kabi ifodalar o‘zida o‘zbek xalqining qadriyatlari va hurmatini ifodalaydi.

Qasam tushunchasi turli madaniyatlarda turli ma’nolarni aks ettiradi. Masalan, ba’zi madaniyatlarda qasamni buzish jiddiy axloqiy jinoyat sifatida qabul qilinsa, boshqa madaniyatlarda bu unchalik katta ahamiyatga ega emas. O‘zbek madaniyatida qasam o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi va uning buzilishi o‘ziga xos ayblov, obro‘-e’tiborga putur yetkazish sifatida qaraladi.

O‘zbek xalqi lingvomadaniyatida qasam halollik, vijdon va e'tiqod timsoli sifatida ifodalanadi. Qasam ko‘pincha oilaviy munosabatlarda yoki do‘stlikda axloqiy me’yor sifatida namoyon bo‘ladi. Misol uchun, Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romanida qahramonlar o‘z so‘ziga sodiqligi, o‘z e’tiqod va majburiyatlariga qat’iy rioya qilishlari bilan ajralib turadi. O‘zbek madaniyatida qasam berish katta mas’uliyatni yuklaydi, chunki u odamning ijtimoiy o‘rnini belgilab, jamiyatda hurmat va obro‘ qozonishiga xizmat qiladi. Agar kishi bergan qasamiga xilof ish tutsa, u faqat o‘z obro‘sini emas, balki oilasi va butun el

obro‘siga ham ziyon keltiradi. Shuning uchun, o‘zbek adabiyotidagi qahramonlarning hayoti va munosabatlarida qasam katta axloqiy ahamiyat kasb etadi.

Rus lingvomadaniyatida qasam ko‘pincha insonning ichki kechinmalarini va majburiyat hissini ifodalaydi. Fyodor Dostoyevskiyning asarlarida qasam va majburiyat masalasi o‘ziga xos tahlil qilingan. «Jinoyat va jazo» romanida bosh qahramon Raskolnikovning qasam va vijdon oldidagi mas'uliyati uni ichki ziddiyatlarga soladi. U jamiyatning ijtimoiy va axloqiy talablarini buzib, o‘zicha «adolat» o‘rnatmoqchi bo‘lganda, qasamiga xiyonat qilgani uchun azob chekadi. Rus adabiyotidagi qasam jamiyat va inson o‘rtasidagi murakkab munosabatlar, shaxsiy burch va axloqiy inqirozlarni yoritishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Qahramonlarning bergan qasami yoki axloqiy majburiyatlari ularning hayotiy tanlovlarini aniqlab, rus xalqining madaniyatidagi diniy va axloqiy qadriyatlarni aks ettiradi.

Ingliz lingvomadaniyatida esa qasam ko‘proq shaxsiy erkinlik va individualizm prizmasidan ko‘riladi. Masalan, Sharlotta Brontening «Jeyn Eyr» asarida bosh qahramon Jeynning hayotiy tanlovlari uning o‘ziga bergan qasami va prinsiplariga asoslanadi. Jeynning ijtimoiy me’yorlarga qarshi chiqib, o‘z hayotini o‘zi boshqarishga bo‘lgan intilishi ingliz madaniyatida qasamning shaxsiy erkinlik va o‘z-o‘zini boshqarish bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Qasam bu yerda jamoa oldidagi majburiyat emas, balki insonning o‘z prinsiplari va qarorlariga sodiqligini aks ettiradi. Shu sababli, ingliz adabiyotidagi qahramonlarning qasami ko‘pincha mustaqillik va shaxsiy qadr-qimmat bilan bog‘lanadi, bu esa xalqning individualistik qadriyatlarini yoritadi.

Turli xalqlarda qasamning ifodalanishidagi farqlar ularning madaniyati va tarixiy rivojlanish yo‘li bilan bevosita bog‘liq. O‘zbek madaniyatida qasam ko‘proq ijtimoiy me’yorlar va urf-odatlarga asoslanadi. Bu esa xalqning jamiyatga katta ahamiyat berishi va oilaviy qadriyatlarni yuqori o‘rinlashtirishiga olib kelgan. Rus madaniyatida qasam va axloq masalasi ko‘pincha chuqur ma’naviy va diniy asosga ega bo‘lib, insonning jamiyat va din oldidagi majburiyatlari bilan bog‘liq. Ingliz madaniyatida esa qasam shaxsiy erkinlik va individualizmni aks ettiradi. Bu uch xil madaniyat o‘rtasidagi qasamning ifodalanishi milliy xosliklar bilan bog‘liq bo‘lib, har bir xalqning dunyoqarashini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

O‘zbek, rus va ingliz lingvomadaniyatlarida qasam konsepsiyasining turli jihatlari nafaqat o‘sha xalqning madaniy qadriyatlarini ochib beradi, balki insonning axloqiy mas’uliyatlari va ichki dunyosi bilan bog‘liq murakkab savollarni ham yoritadi. Qasamyod janri jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy jarayonlarida aktiv ishtirok etib, huquqiy, diniy, psixologik munosabatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Bu janrni pragmalingvistika, matn lingvistikasi, stilistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, paralingvistika, lingvomadaniyatshunoslik sohalarining obyekti sifatida e’tirof etish mumkin. Shunday bo‘lsa-da, qasamyod nutqiy janri yuzasidan to‘liq bilimlarga ega bo‘lmay turib, uning tabiati to‘grisida batafsil gapirib bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Галямова Н.Ш. Речевой акт «обещание, клятва» в русской языковой картине мира: лингвокультурологический, функционально-прагматический аспекты // Язык и культура. 2010. – № 3.
2. Нурмонова С.Д. Ўзбек тилидаги қасам нутқий жанрининг лингвомаданий тадқиқи: Филол.ф.б.ф. д-ри (PhD) дисс. – Андижон, 2022. – 158 б.
3. Рабенько Т.Г. Клятва как фидеистический речевой жанр // Вестник Челябинского государственного университета. – №13 (194). Филология. Искусствоведение. Вып. 43. – Челябинск, 2010. – С. 125.
4. Сиразиева З.Н. Клятва как речевой жанр в русскоязычной лингвокультурах: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2012. – С. 22-25.
5. Хасанова Ф.М. Инглиз ва ўзбек тилларида қасамёд нутқий жанрининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол. ф. Б .ф. д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019. – 151 б.

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA TOPISHMOQLARNING O‘RGANILISHI

Mahmudova Nilufarxon To‘lqinjon qizi
Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Maqolada xalq og‘zaki ijodi namunasi hisoblangan topishmoqlarning lingvistik xususiyatlari hamda dunyo tilshunosligidagi o‘rganilishi, olib borilgan ishlardagi o‘ziga xosliklar, bugungi tadqiqotlarning tatbiqi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: topishmoq, lingvistik xususiyatlari, o‘rganilishi tarixi, jumboqli matn, antroposentrik yondashuv.

Annotatsion. The article describes the linguistic characteristics of riddles, which are considered to be examples of folk art, as well as their study in цщкдв linguistics, the peculiarities of the work carried out, and the application of today's research.

Key words: riddle, linguistic features, history of learning, puzzle text, anthropocentric approach.

Har bir xalqning bebaho boyligi, ajdodlardan avlodlarga qoldirib kelayotgan ko‘p asrlik turmush tarzi, hayoti aks ettirilgan xalq og‘zaki ijodi namunalari orasida topishmoqlar, jumboqlar alohida o‘rin tutadi. Topishmoqlarda xalqning orzu-umidlari, narsa-hodisa, voqelikka bo‘lgan munosabati, tasavvur dunyosi, eng muhimi, voqelik tahliliga bag‘ishlangan mushohada va mulohazasi yotadi. Topishmoqlar, albatta, xalqning tarixiy madaniyati va ma’naviyatini ko‘rsatib beradigan ma’naviy merosdir.

Dunyo tilshunosligida topishmoqlar (jumladan, zagadkalar yoki riddles) tili ko‘plab tilshunoslar tomonidan qiziqarli ilmiy tadqiqot obyekti bo‘lgan. Topishmoqlar turli madaniyatlar va tillarda muhim lingvistik xususiyatlarni

namoyon qiladi, bu esa tilshunoslar uchun turli ma'lumotlarni kashf qilishda yangi imkoniyatlar yaratadi.

Topishmoqlarning lingvistik xususiyatlarini o‘rganish IV asrdan boshlangan va Aristotelning metafora nazariyasi asosida rivojlandi. Mazkur masalalarga dastavval faylasuflar nuqtayi nazaridan qaralgan, keyinroq esa tilshunoslikda yangi paradigma – antropotsentrizm negizida pragmatik lingvistikaning xususiyatlarini o‘rganish jarayonida implitsitlik nazariyasi, enigmatik va deyktik konsepsiyalar vujudga keldi. Implitsit strukturaga oid ilk ilmiy-nazariy fikrlar grammatik olimlar S.D.Katsnelson, Y.I.Shendels, A.V.Bondarko, T.V.Buligina, A.A.Zaliznyak, M.K.Timofeyeva, G.V.Chernov izlanishlarida ko‘zga tashlanadi. Sintaktik semantika bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan N.D.Arutyunova, Y.V.Ermakova, L.V.Lisochenko, Y.S.Martemyanov, G.G.Pochepsov, I.P.Susovlar implitsitlik hodisasining o‘ziga xos jihatlarini ajratib ko‘rsatdilar.

Topishmoqlar tili bir necha lingvistik xususiyatlarni o‘z ichiga oladi:

Topishmoqlar semantikasi: topishmoqlarning mazmuni va ularning ma'no darajasida qanday mantiqiy tuzilishga ega ekanligi.

Topishmoqlar sintaksisi: topishmoqlardagi gap tuzilmalari va ular orqali qanday murakkab mantiqiy munosabatlar ifodalanishi.

Topishmoqlar pragmatikasi: topishmoqlarning kontekstual va madaniy qo‘llanilishi, ularning qaysi kontekstlarda tushunilishi va ishlatilishi.

Topishmoqlar fonologiyasi: topishmoqlarda so‘z o‘yinlari va tovush moslashuvi orqali qanday kognitiv effektlar yuzaga kelishi.

Ushbu maqolada dunyo tishunosligida topishmoqlar yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borgan ayrim olimlar bilan tanishib o‘tamiz. Verner Xeyzenberg – “Riddles in Linguistics” (1982) topishmoqlarning sintaktik va semantik jihatlariga alohida e’tibor qaratgan. U topishmoqlardagi metaforik ifodalarni tahlil qilib, topishmoqni hal qilishda tilning qanchalik muhim ekanligini tadqiq qilgan. Uning fikricha, topishmoqlarda ishlatilgan metafora va allegoriyalar kishilarning til va madaniyatdagi kognitiv jarayonlarini o‘rganishda yordam beradi.

Enni Naumova – “Ethnolinguistic Features of Riddles” (1995) topishmoqlarning etnolingvistik xususiyatlarini tadqiq qilib, topishmoqlar turli xalqlar madaniyati va an’analari bilan bog‘liqligini ta’kidlagan. U, jumladan, qaysi madaniyatlarda qanday turdagi topishmoqlar mashhurligini va ular orqali qanday axloqiy-ma’rifiy bilimlar tarqatilishini o‘rgangan.

Jerald Grays – “The Pragmatics of Riddles” (2003) topishmoqlarda pragmatik jarayonlarning muhim o‘rnini tahlil qilgan. U o‘z tadqiqotida topishmoqlarni to‘g‘ri tushunish va yechimini topish uchun auditoriya va o‘quvchining kontekstdan kelib chiqqan holda qanday bilimlarga ega bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi. Grays, xususan, pragmatik kompetensiya va topishmoqlardagi yashirin ma’nolarni topishda kontekstning ahamiyatiga urg‘u beradi.

Toshiyuki Takahashi – “Cross-cultural Analysis of Riddles in Asian Languages” (2010) Osiyo tillaridagi topishmoqlarning lingvistik jihatlarini tahlil

qilgan. U turli tillarda bir xil mavzudagi topishmoqlar qanday o‘xshash va farqli ekanligini ko‘rsatib bergan. Bu tadqiqot turli tillarda topishmoqlarning mavzu va shakl jihatidan bir xil ekanligini, lekin ularning qo‘llanishi va tili madaniyatga bog‘liq ravishda o‘zgarishini namoyon qiladi.

Laura Joffe – “Cognitive Linguistics in Riddles” (2015) topishmoqlar kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan qanday ahamiyatga ega ekanligini tadqiq qilgan. U topishmoqlar orqali inson ongida til va obrazning shakllanishi, mantiqiy xulosalar chiqarish jarayoni va semantik assotsiatsiyalarning shakllanishini o‘rgangan.

Olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, topishmoqlar lingvistik jihatdan quyidagi xususiyatlarga ega:

Metaforalar va simvolizm. Ko‘plab topishmoqlarda metaforalar va simvollar orqali yashirin ma’nolar ifodalanadi. Bu ma’nolarni anglash tilshunoslar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Sintaktik konstruksiyalar. Ko‘p topishmoqlar odatiy so‘z tartibidan farq qiluvchi tuzilmalar orqali o‘ziga xos sintaktik innovatsiyalarga ega bo‘ladi.

Semantik keng qamrovlilik. Topishmoqlarda bir so‘z yoki ibora orqali bir nechta turli ma’no qatlamlari yaratish mumkin.

Pragmatik asoslangan yondashuv. Topishmoqlarni to‘g‘ri tushunish va hal qilishda ularning pragmatik konteksti muhim ahamiyatga ega.

Topishmoqlar tilshunoslikda turli ilmiy tadqiqotlarga asos bo‘lib kelgan va lingvistik tahlil uchun muhim material hisoblanadi. Mazkur maqolada keltirilgan tadqiqotlar dunyo tillarida topishmoqlarni o‘rganishda yangicha yondashuvlarni ochib beradi. O‘zbek tilshunosligida ham bugungacha topishmoqlarining lingvistik xususiyatlari qator ishlarda o‘rganilgan. Jumladan, U.S.Qobulova metaforik matnda integral va differentsial semalar munosabati masalalarini, M.Saparniyazova o‘zbek xalq topishmoqlarining sintaktik-semantik xususiyatlarini, J.X.Abdullayev leksik-semantik xususiyatlarini o‘rgangan bo‘lsa-da, topishmoqlarning antroposentrik yondashuv asosida o‘rganish bugungi kunga qadar alohida o‘rganilmagan. Bu esa, kelgusidagi yangi ilmiy izlanishlarning zarurati va dolzarbligini yuzaga keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yakubova N. Jumboqli matnlarning semantik va pragmatik xususiyatlari. Monografiya. – Farg‘ona, 2023.

2. Qobulova U. Metaforik matnda integral va differensial semalar munosabati (o‘zbek xalq topishmoqlari misolida). –Filol.fanlari nomzodi dis. avtoref. – Toshkent, 2007.

3. Saparniyazova M. O‘zbek xalq topishmoqlarining sintaktik-semantik xususiyatlari. –Filol.fanlari nomzodi dis. – Toshkent, 2005.

4. Абдуллаев Ж.Х. Узбек халқ топишмоқларининг лексик-семантик хусусиятлари. –Филол.фанлари номзоди дис. автореф. – Тошкент, 1994.

5. Ҳусаинова З. Ўзбек халқ топишмоқларининг асосий хусусиятлари ва замини: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1967.

OLAMNING BADIIY MANZARASI VA UNDA ASSOTSIATIV BIRLIKLARNING O‘RNI

Rahmonov Husanboy Abjalil o‘g‘li
Qo‘qon DPI o‘qituvchisi (PhD)
Mahmudova Sevaraxon
Abdurashidova Nilufar
Qo‘qon DPI talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada dunyo tilshunoslari tomonidan assotsiativ tilshunoslik masalalariga qiziqishning ortishi va bu yo‘nalishda ko‘plab tadqiqotlarning amalga oshirilganligi, juda ko‘p tillarda assotsiativ lug‘atlarning yaratilganligi, assotsiativ grammatikaning tuzilganligi ushbu yo‘nalishning mustaqil rivojlanayotgan soha sifatida e’tirof etilishi aytib o‘tiladi. Bugungi kunga kelib assotsiativ tilshunoslikning o‘rganish obyekti, predmeti aniq belgilangan, tadqiq metodlari ishlab chiqilgan, nazariy masalalari, dolzarb muammolari belgilangan. Assotsiativ tilshunoslikda matn yaratuvchi ijodkor shaxsning assotsiativ tafakkuri, tasavvurlari bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan assotsiatsiyalarning badiiy matnga ko‘chishi, bunday birliklarning badiiy matndagi roli, ijodkor idiostilini shakllantirishdagi o‘rni kabilarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Ushbu muammoni muayyan ijodkor badiiy asari misolida tadqiq etish *assotsiativ tafakkur – til – matn* munosabati masalasiga doir ilmiy-nazariy qarashlarni yangi bilimlar bilan boyitishi muqarrar.

Abstract. It was revealed that associative units reflect the characteristics of a creative person, in particular, his language abilities, knowledge and ideas about the world around him, emotional experiences, attitude to reality. The features of the associative units used in the poems by Omon Matjon were revealed, their formation according to linguistic and extralinguistic factors was proved. In the poet’s poems, direct, connected and mixed forms of associative communication were singled out. Realization of color associations was highlighted in verses by Omon Matjon, in his verses the connection of associative units of white and black colors with national and cultural values was determined. the structure of the associative field of some poet’s poems was determined, the core and periphery units were distinguished, their associative features were revealed.

Kalit so‘zlar: assotsiatsiya, semantika, pragmatika, kommunikativ, grammatik, inson, til, kontekst, amaliyot, lug‘aviy.

Key words: communication, intention, communicator, emotional, incidental, pragmatic, illocutionary, nonverbal, verbal, addressee.

Ma’lumki, har bir matnning semantik va sintaktik jihatdan shakllanishida, qismlarining mantiqan bir-biri bilan bog‘lanishida o‘zaro assotsiativ aloqada bo‘lgan til birliklari muhim rol o‘ynaydi. Assotsiativ birliklar matnni nafaqat mantiqiy, semantik-struktur jihatdan shakllantirish xususiyatiga ega, balki unda ifoda etilayotgan axborot mazmunini oldindan tasavvur qilishga ham imkon beradi. Masalan, til egalarida *qish* leksemasiga nisbatan hosil bo‘lgan *sovuq, qahraton, izg‘irin, qor, bo‘ron* assotsiatsiyalari bu birliklar ishtirokida tuzilgan matnda qish

tasviri o‘z aksini topganligidan darak beradi. Demak, tilshunoslikda ko‘pincha “*verbal assotsiatsiyalar”* deb nomlanuvchi bunday birliklar, D.Lutfullayeva qayd etganidek, matnni hosil qiluvchi, uni semantik-sintaktik jihatdan shakllantiruvchi asosiy tayanch birliklar vazifasini o‘taydi. Bu holat matn tadqiqida uni shakllantiruvchi assotsiativ aloqadagi tayanch birliklarning xususiyatlarini o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Assotsiativ birliklar matnni shakllantirish barobarida til egalarining tashqi olamni idrok etishi, uni qay darajada o‘zlashtirganligi, ya’ni olam haqidagi bilimlari, voqelikka bo‘lgan munosabati kabilarni matnga olib kiradi. Assotsiativ birliklar ijodkor shaxsga olamning badiiy manzarasini tasvirlashida yengillik yaratadi. Chunki assotsiativ bog‘langan birliklar voqelikning bir-biri bilan bog‘liq, ammo alohida xususiyatli qismlarini yaxlit tasvirlash imkonini yaratadi.

Assotsiativ birliklar yozuvchi yoki shoirning olam haqidagi bilimlari va tasavvurlari orqali ularning lisoniy ongida shakllanib, badiiy asarga ko‘chiriladi. Shu sababli ham bir ijodkorda tashqi olamdagi narsa-predmetlar, voqea-hodisalar bo‘yicha uning dunyoqarashi, tasavvurlari, bilimlari bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan o‘z assotsiativ birliklari shakllanadi. Yozuvchi yoki shoir olamning badiiy manzarasini yaratishda, avvalo, o‘z assotsiatsiyalariga tayanadi. Ma’lum bo‘ladiki, olamning badiiy manzarasini yaratishda assotsiativ aloqa-munosabatdagi birliklar muhim o‘rin tutadi. Quyida berilgan misolda mazkur birliklar muallif tasavvurida tiklangan assotsiatsiyalar bo‘lib, Qor konseptining tasviri uchun xizmat qilgan. Assotsiativ birliklar muallif tasavvurida tiklangan o‘ziga xos mazmuniy obrazni badiiy matnda aks ettirishga hamda uning istak-xohishini yuzaga chiqarishga yordam bergan. Jumladan, matnda qo‘llangan quyidagi assotsiativ birliklar qorning belgi-xususiyatlarini ochib berishga xizmat qilgan: *oqlik (2), undan (qordan) “bobo” yasamoq, kumushrang qanotlarini yoygancha erkalanib yotgan oq kaptar.*

Matnda *oqlik* assotsiativ birligi 2 marta takrorlangan, u orqali muallif qorning oqlik ramzi ekanligiga ishora qilgan. *Undan “bobo” yasamoq* assotsiativ birligi esa bolalarning qordan qorbobo yasashi epizodini yodga tushirgan. Bu assotsiativ birlik qordan yasash mumkin bo‘lgan narsalarga aniqlik kiritishga xizmat qiladi. *Kumushrang qanotlarini yoygancha erkalanib yotgan oq kaptar* murakkab so‘z birikmasi qorni kumushrang qanotli kaptarga o‘xshatish natijasida hosil bo‘lgan assotsiativ birlik hisoblanadi.

Qor yoqqandan keyingi holat tasviri quyidagi assotsiativ birliklar orqali ifoda etilgan: *yer oqarmoq, qadamlardan g‘alati tovushlar chiqmoq.*

Qor yoqqanidan so‘ng amalga oshiriladigan tozalash ishlari matnda *tomlar, yo‘laklarni tozalamoq* assotsiativ birliklari orqali yoritilgan.

Matnda qo‘llangan *ko‘hna chelak, ko‘mir, cho‘ltoq supurgi* assotsiativ birliklari *qorbobo* so‘ziga nisbatan hosil bo‘lgan, *qor* so‘zi bilan esa bilvosita bog‘langan assotsiatsiyalar hisoblanadi.

Matnda ajratilgan *erkin va xotirjam parvoz, samoga, quyoshga tomon ko‘tarilmoq, Oppoq parlariga nimalarnidir yozib qolgim kelardi* assotsiativ birliklari turtki so‘z bilan bilvosita bog‘langan birliklar hisoblanadi. *Erkin va*

xotirjam parvoz, samoga, quyoshga tomon ko‘tarilmoq birliklari qorga o‘xshatilgan oq kaptarga nisbatan hosil bo‘lgan assotsiativ birliklardir. *Oppoq parlariga nimalarnidir yozib qolgim kelardi* assotsiatsiyasi esa ushbu kaptar – qorga nisbatan muallifning istak-xohishini ifodalab kelgan.

Ko‘rinadiki, QOR konsepti ifodalangan ushbu matnning tayanch qurilish birliklari assotsiativ birliklardir. Ular matnni semantik-sintaktik jihatdan shakllantirish bilan birga, olamning kichik bir fragmenti bo‘lgan QOR konseptining milliy tasvirini yaratishga xizmat qilgan. Bizningcha, olam manzarasi insonning nafaqat bilimlari to‘plamini, balki uning uning tashqi olamga bo‘lgan munosabati, qarashlari, hissiyotlarini ham qamrab oladi.

Olamning lisoniy manzarasi tushunchasi *olam manzarasi*ning tarkibiga kiradi va uning til bilan aloqador jihatini aks ettirishda qo‘llanadi. Negaki lisoniy ong inson ongidan tashqarida emas, *olamning lisoniy manzarasi* terminida olam manzarasining tilda namoyon bo‘lishiga urg‘u beriladi. Demak, *olamning lisoniy manzarasi* va *olam manzarasi* terminlari o‘zaro bog‘liq, bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatadi, ammo bir-biridan farqlanadi.

Shu narsa aniqki, *olamning lisoniy manzarasi* tushunchasi *tafakkur – borliq – til* munosabatini aks ettiradi. Bu tushuncha til egalariga xos bo‘lgan olamni idrok etish tarzi, u haqidagi bilimlari, tasavvurlari, bahosining tilda aks etgan manzarasidir. Umumiy planda olganda, tilshunoslikda *olam manzarasi* tushunchasi dunyoning inson dunyoqarashi va tasavvurlariga asoslangan holda aks ettirilgan yaxlit, global tasviriga nisbatan ishlatiladi.

Yozuvchi yoki shoirlar badiiy asarlarida yaratgan olam manzarasida ularning bilimlari qatorida tasavvurlari, hissiyotlari, qarashlari, tashqi olamga munosabati jamlanadi. Ijodkor tashqi olamni idrok etar ekan, uni qalban his qiladi, uni tushunishga harakat qiladi, mavjud bilimlarini ishga solib, o‘xshashliklarni qiyoslaydi, farqlarni ajratadi va shu tariqa tafakkurida individual olam manzarasini chizadi. Yozuvchi yoki shoir yaratgan olam manzarasi badiiy xarakterga ega bo‘lganligi uchun u *olamning badiiy manzarasi* deb ataladi.

Olam badiiy manzarasining yaratilishi individual xarakterga ega bo‘lganligi uchun har bir ijodkorda turlicha aks etadi. Y.A. Tirishkinaning ma’lumot berishicha, olam manzarasining yaratilishida an’anaviy tarzda 2 turli yo‘nalish farqlanadi:

1) insonning hayot faoliyati asosida yotuvchi dunyo fragmentlarini anglash, tushuntirish, ajratish, obyektivlashtirish;

2) tizimli xarakterga ega bo‘lgan maxsus refleksiyaning amalga oshishi jarayonida dunyoning yangi obrazlarini yaratish, ijod qilish, rivojlantirish.[10,22]

Ma’lum bo‘ladiki, olam badiiy manzarasining yaratilishi uni idrok etish, tushunish, shuningdek, ongda yangi badiiy obrazlarni yaratish bilan bog‘liq holda kechadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – 140 б.

2. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: Восток-Запад, 2007. – С.51. (– 314 с.)

3. Постовалова В.И. Картина мира в жизнедеятельности человека // Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира. – М., 1988. – С.55.

4. Серебренников Б. А. Роль человеческого фактора в языке: язык и картина мира. – М., 1988. – С.179. (– 212 с.)

5. Тырышкина Е.А. Ассоциативное поле как элемент поэтической картины мира В. Набокова: Дисс. … канд. филол. наук. – Новосибирск, 2002. – С. 22.

6. Хайдеггер М. Время картины мира // Хайдеггер М. Время и бытие: статьи и выступления / Пер. с нем.; комм. В.В. Бибихина. – М.: Республика, 1993. – С. 49. (– С. 41-63.)

7. Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри … дисс. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2015. – Б. 36.

INGLIZ TILIDA IFODALAR ROLI

Feruza Abdurahimova
FarDU katta o‘qituvchisi(PhD)
Xolbekova Soliha Jahongir qizi
FarDu talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilidagi idiomatik ifodalarining ahamiyati va funksiyasini o‘rganadi. Idiomalar - bu ma’nolari ko‘pincha ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri talqinlaridan farq qiladigan iboralardir, ular muloqotga noziklik va rang-baranglik qo‘shadi. Ularning grammatik tuzilmalari har doim standart qoidalarga amal qilmasligi mumkin, ammo ularning ma’nolari aniq qoladi. Shuningdek, o‘quvchilar inglizcha idiomalarni o‘zbekcha muqobillari bilan taqqoslashadi, bu esa til o‘rganish va madaniy kontekst o‘rtasidagi o‘zaro aloqani ta’kidlaydi. Bu esa idiomatik ifodalarni tushunishning ahamiyatini, erkinlikka erishish uchun zarur ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: idiomatik ifodalar, ona tili so‘zlashuvchisi, ekvivalentlar, atama, kontekstlar, ravonlik, kommunikativ ko‘nikmalar, keng qamrovli tushuncha, iboralar, ifodalar, maqollar.

Abstract. This article explores the significance and function of idiomatic expressions in the English language. Idioms are phrases whose meanings often differ from their literal interpretations, enriching communication with nuance and vibrancy. While their grammatical structures may not always follow standard rules, their meanings remain clear. Additionally, learners often compare English idioms with their Uzbek equivalents, highlighting the interplay between language learning and cultural context. This underscores the importance of understanding idiomatic expressions for achieving fluency.

Key words: Idiomatic expressions, native speaker, equivalents, term, contexts, fluency, communicative skills, comprehensive understanding, phrases, expressions, proverbs.

Idioma – bu kundalik ingliz tilida keng qo‘llaniladigan ibora yoki ifoda bo‘lib, ma’lum g‘oya yoki fikrlarni ifodalaydi. Ingliz tilidagi idiomalarni chuqur tushunish juda muhimdir, chunki ularning ma’nolarini to‘g‘ri talqin qilish uchun tilni yaxshi bilish zarur. Idiomalar ingliz tilini boyitib, o‘ziga xos madaniy va tarixiy kontekstlarni o‘z ichiga oladi, bu esa insonlarning ingliz tilini tushunishi va ishlatishini kengaytiradi. Ona tili so‘zlashuvchilari ko‘pincha o‘z nutqlarini yanada jonli va aniq qilish uchun idiomalardan foydalanadilar. Ushbu ifodalar ma’lum vaziyatlarni tasvirlashda ijodkorlik imkonini beradi va turli tillarda farq qiluvchi madaniy an’analarni ham aks ettiradi. Ba’zi idiomatik ifodalar umuman tushunarli bo‘lishi mumkin, boshqalari esa aynan ma’lum bir madaniy amaliyotlarga chuqur bog‘langan. Masalan, britaniyaliklar o‘rtasida *“it is raining cats and dogs”* iborasi kuchli yomg‘irni tasvirlaydi, bu esa idiomalarning murakkab tasvirlarni qanday ifodalashini ko‘rsatadi. Shuningdek, idiomalar til o‘rganish jarayonida muhim rol o‘ynaydi, chunki ular orqali madaniyat va urf-odatlar haqida ko‘proq ma’lumot olish mumkin. Ingliz tilida ko‘p tarqalgan idiomalarni bilish, muloqot jarayonida yanada samarali bo‘lishga yordam beradi. Bunday iboralarning o‘rganilishi nafaqat tilni yaxshi bilishni, balki o‘sha tilga mansub bo‘lgan madaniyatni ham chuqurroq tushunishni ta’minlaydi.

Umumiy idiomatik ifodalarni samarali ishlatish, ingliz tilini yanada tabiiyroq eshitilishiga olib kelishi mumkin, shuning uchun bu iboralarni o‘zlashtirish til o‘rganuvchilar uchun foydali. Masalan: "*spoil someone’s plan," which means to ruin someone’s plans; "up in arms," indicating anger about something; "make no bones about something," meaning to express thoughts or feelings clearly; "burn the midnight oil," referring to working late into the night; "chicken and egg situation," which describes a dilemma where it is difficult to determine causality; and "on cloud nine," signifying a state of extreme happiness* kabi iboralar tilni boyitadi. Biroq, idiomalarga nisbatan tanishmaslik ularning haqiqiy ma’nolarini noto‘g‘ri tushunishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, idiomatik ifodalarni bilish nafaqat talabalar, balki o‘qituvchilar uchun ham foydalidir. Talabalarga idiomalarni o‘zlashtirishda oldingi bilimlarga ega bo‘lish muhimdir, chunki bu ularning muloqot ko‘nikmalarini yaxshilaydi va nutqlarida samarali qo‘llash imkonini beradi. O‘qituvchilar darslariga ko‘proq idiomatik ifodalarni kiritish orqali talabalar ulardan foydalanish bo‘yicha qimmatli amaliy tajribaga ega bo‘lishlari mumkin. Interaktiv o‘yinlar va faoliyatlarni qo‘shish, masalan, idiomatik ifodalarni aniqlash va ularning ona tillaridagi ekvivalentlarini topish vazifasi, talabalar tushunishini yanada boyitadi. Bu yondashuv nafaqat jalb qilishni oshiradi, balki tillar o‘rtasida chuqur madaniy aloqani rivojlantiradi, natijada o‘qish jarayonini yaxshilaydi. Masalan: On cl*oud nine - "Yettinchi osmondaman"(juda baxtli). It is raining cats and dogs - "Yomg‘ir yog‘ayotganida"(kuchli yomg‘ir). A drop in the bucket - "Chelakdagi tomchi"(juda kichik bir narsa, katta narsaning ichida*

ahamiyatsiz). A bag of bones - "Skeletga o‘xshash"(juda ozg‘in inson yoki hayvon). Qo‘shimcha ravishda shuni aytish joizki, talabalarga idiomlarni kontekstda ishlatishni o‘rgatish, ularning nutqidagi tabiiylikni oshirishga yordam beradi va madaniyatlararo muloqotni kuchaytiradi.

Idiomalar, maqollar va iboralar kundalik ingliz tilining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi, ular yozma va og‘zaki shakllarda keng tarqalgan. Masalan, *"night owl," (tun qushi)* iborasi kechasi o‘tirishni afzal ko‘ruvchi insonlarni ifodalaydi. Bu atama ko‘pchilik tomonidan zamonaviy madaniyat bilan bog‘liq deb hisoblansa-da, uning kelib chiqishi Shekspirning *Richard II* asariga borib taqaladi.

Bunday idiomalar ko‘pincha an’anaviy grammatik qoidalarga zid bo‘lgan o‘ziga xos grammatik tuzilmalarga ega; masalan *"to be broke" (pul yo‘q)* iborasi grammatik jihatdan standart emas, lekin "He is broke and cannot go to the theatre." jumlasida pulning yo‘qligini ifodalaydi. Bundan tashqari, bunday iboralar tilning boyligini va uning madaniy kontekstini aks ettiradi. Ular nafaqat tilni o‘rganishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, balki tilni yanada rang-barang va ifodali qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, idiomalarni tushunish ingliz tilida samarali muloqot uchun juda muhimdir. Ushbu iboralar ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’noga ega emas, shuning uchun ularning ma’nolari bilan tanish bo‘lish nafaqat chet ellik, balki mahalliy nutq so‘zlovchilar uchun ham zarurdir. Idiomlarni o‘zlashtirish qiyin ko‘rinishi mumkin, ammo bu jarayon boshqa tillardagi idiomalar bilan taqqoslash orqali qiziqarli bo‘lishi mumkin. Idiomatik iboralarni e’tiborsiz qoldirish katta xato, chunki ular mahalliy nutq so‘zlovchilar tomonidan keng qo‘llaniladi va tilning tarixi hamda madaniy jihatlarini aks ettiradi. Idiomalarni o‘rganish ingliz tilini o‘rganayotganlar uchun ravonlikni oshiradi va leksikani boyitadi. Ushbu iboralarning chuqur tushunchasi, shuningdek, tilga bog‘liq madaniy odatlarni qadrlashni ham rivojlantiradi. Shuning uchun, ingliz tili o‘qituvchilari idiomlarni qiziqarli faoliyatlar orqali o‘rgatishni ustuvor vazifa sifatida belgilashlari lozim.

Shuningdek, idiomalar adabiyotda ko‘p uchraydi, bu ularning aniqlik va tushunarli bo‘lishidagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Agar o‘quvchilar ma’lum bir idiomadan xabardor bo‘lmasa, muallifning niyatini noto‘g‘ri talqin qilishi mumkin. Shuning uchun, idiomatik tilni mustahkamlash samarali muloqot va adabiy asarlarni to‘g‘ri tushunish uchun juda muhimdir. Idiomlar o‘zaro muloqotda madaniy aloqalarni yanada chuqurlashtirishga yordam beradi va til o‘rganish jarayonida o‘z-o‘zini ifoda etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bularning barchasi tilni o‘rganayotganlarga o‘z fikrlarini aniq va izchil ifoda etishga yordam beradi, bu esa ularning ishonchini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Campbell J.A short guide to action research.1968
2. Merriam-Webster dictionary
3. NiergarthE. The idiom book 1010 idioms.2007

4. Boers F (2008). Language Awareness: Understanding Idioms at macmillanddictio-naries.com .Fromkin V, Rodman R, Hyms N (2003). An Introduction to Language

FARG‘ONA VODIYSI TOPONIMIYASINING MANBALARI VA TARIXIY VARIANTLARI TADQIQI

Kamola Xamidova Mamirovna
Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Maqolada Farg‘ona vodiysi toponimiyasi haqida boy geografik, tarixiy, lisoniy: leksik-semantik, etimologik, nominatsion-motivatsion, derivatsion ma’lumotlar beruvchi asarlar va ularda qo‘llangan tarixiy toponimlar masalasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *toponim, tarixiy toponim, oykonim, polisonim, gidronim, oronim, toponim varianti.*

Abstract. In the article, the works providing rich geographical, historical, linguistic: lexical-semantic, etymological, nominative-motivational, derivational information about the toponymy of the Fergana Valley and the issue of historical toponyms used in them are covered.

Key words: *toponym, historical toponym, oikonym, polysonym, hydronym, oronym, variant of toponym.*

Toponimlar tarixiy, adabiy, dialektal va uslubiy variantlarga ega. Toponim variantlari xronologik jihatdan ikki turga bo‘linadi:

1. Toponimlarning tarixiy variantlari.
2. Toponimlarning zamonaviy variantlari.

Ma’lum toponimning tarixda qo‘llangan, hozirda iste’moldan chiqib ketgan, tarixiy manbalarda yoki muayyan maqsadlarda qo‘llanadigan shakllari **toponimlarning tarixiy variantlaridir**. Masalan, *Qo‘qon, Marg‘ilon, Rishton, Rapqon, Quva, Axsi* oykonimlarining *Ho‘qand, Marg‘inon, Rashidon, Rafiqon, Qubo, Axsikent // Axsikat* variantlari.

Toponimning hozirda faol iste’molda bo‘lgan fonetik, morfologik shakllari zamonaviy variantlaridir. Masalan, *Andijon, Chinobod, Baliqchi, Oltinko‘l* (And. v.), *Farg‘ona, Shohimardon, Yozyovon, Dang‘ara* (Far.v.), *Chust, Kosonsoy, Chortoq, To‘raqo‘rg‘on, Uychi, Uchqo‘rg‘on* (Nam.v.) kabi.

Har bir toponimda insoniyat tarixining kichik bir qirrasi, zarrasi o‘z aksini topadi. O‘zbek tili, jumladan, Farg‘ona vodiysi toponimlari xalq tarixi, etnik tarkibi va taraqqiyoti, tarqalishi, turmush tarzi, kasb-kori, etnografiyasi kabilar haqida yorqin ma’lumotlar beradi.

O‘zbek tili, jumladan, Farg‘ona vodiysi toponimlarining tarixiy variantlarini to‘plash va o‘rganishda Ibn Havqalning «Kitob surat al-ard» asarining «Movarounnahr» qismi, muallifi noma’lum «Hudud ul-olam» (X asr), Shamsiddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Bakr al-Muqaddasiyning «Hasan at-Taqosim», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma», Ishoqxon Ibratning «Tarixi Farg‘ona» asarlari muhim va noyob manba sanaladi.

Ibn Havqalning «Kitob surat al-ard» («Erning surati kitobi») asarining «Movarounnahr» qismi «Farg‘ona», «Farg‘ona viloyatlari», «Farg‘ona konlari» nomli bo‘limlarida Farg‘ona o‘lkasi, geografik joylashuvi, viloyatlari, qadimiy shaharlari va tog‘lari xususida geografiya fani nuqtai nazardan tavsiflar berilgan. Asar vodiyning xoronim va oykonimlarining tarixiy variantlarini o‘rganish hamda boshqa tarixiy manbalarga qiyoslashda muhim manbadir.

Arab geografi va sayyohi Muqaddasiyning «Ahsan at-taqqosim fi ma’rifat al-aqolim» («Iqlimlarni o‘rganish uchun eng yaxshi qo‘llanma») nomli asarida Farg‘ona vodiysidagi 40 ta shahar qatorida *Axsikat, Koson, Bob* (Pop) shaharlari ham qayd etilgan[2]. Anglashiladiki, Namangan viloyati oykonimiyasiga mansub *Axsikent, Kokonsoy, Pop* qadimiy va tarixiy shaharlardir. Asarda hozirgi *Axsikent* oykonimi *Axsikat, Kosonsoy* polisonimi *Koson*, *Pop* polisonimi *Bob* variantida keltirilgan.

Muallifi noma’lum «Kitob hudud ul-olam min al-mashriq ila-l-mag‘rib» («Olam (Er)ning mashriqdan mag‘ribgacha bo‘lgan chegaralari haqida kitob»), fanda qisqacha «Hudud ul-olam» shaklida tanilgan tarixiy-geografik asarda ham Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekistonga doir geografik, etnografik ma’lumotlar berilgan. Jumladan, *Buxoro, Vaykand (Poykend), Sug‘d, Tavovis, Karmina (hozirgi Karmana), Kushoniy (Kushaniya), Samarqand, Kesh, Tirmiz (Termiz), Farg‘ona, Shosh* va boshqa shahar hamda viloyatlar ta’rifi keltirilgan. Asarda hozirgi Tojikistan, Qirg‘iziston, Turkmaniston, O‘zbekiston va G‘arbiy Xitoy hududi ancha mukammal tasvirlangan. Unda dengiz, daryo va boshqa joy nomlari batafsil keltirilgan.

«Hudud ul-olam»da Namangan viloyati toponimiyasiga mansub *Xatlom* (hozirgi Norin) daryosi, *Bob* (hozirgi Pop), *Axsikat* (hozirgi Axsi) kabi tarixiy toponimlar kuzatiladi[15]. Kitobning «Daryolar haqidagi so‘z» nomli qismida Xatlom daryosiga quyidagicha izoh beriladi: *«Yana biri Xatlom daryosi. Moniso to‘g‘idan, Xallux va Yag‘mo o‘rtasidagi chegaradan boshlanadi. Xatlom shahridan o‘tib, Bob yaqinigacha boradi va O‘zgand daryosiga quyiladi»* (9-bet). Shuningdek, kitobning boshqa o‘rnida mazkur shaharga oid quyidagi qayd kuzatiladi: *«Kashokas, Pob – ikkita obod shaharcha, ekinzorlari ko‘p. Mazkur shaharlar barchasi Farg‘ona nohiyatiga mansub»* (16-bet). Demak, mazkur manbada hozirgi *Pop* oykonimi *Bob*, *Pob* kabi fonetik variantlarda qo‘llangan.

Risolaning «Movarounnahr nohiyati va undagi shaharlar haqida so‘z» qismida xozirgi *Axsikent* oykonimi aynan Muqaddasiyning «Hasan at-taqqosim fi ma’rifat al-aqolim» asaridagi kabi *Axsikat* shaklida berilgan: *«Axsikat – Farg‘onaning qasabasi, amir va mas’ul a’yonlarning qarargohi erur; katta shahar, Xashart daryosi bo‘yida joylashgan; tog‘ etagida»* (15-b.). Bizningcha, *Xashart* ham *Yaksart* nomining fonetik variatni bo‘lib, hozirgi *Sirdaryo* gidronimining tarixiy leksik varianti. *Yaksart, Yaxshart, Chinchuxe, Yinchu, Xashart* kabi daryoning tarixiy nomlari aynan bir ma’noga ega.

Z.M.Boburning «Boburnoma», G‘iyosiddin bin Humomiddin Xondamirning «Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar» («Bashar ahli siyratidan xabar beruvchi

do‘st») kitobi (1523 y.), Muhammad Haydar mirzo Ayoziyn «Tarixi Rashidiy» asarlari[1] XV–XVI asrlar Farg‘ona vodiysi toponimiyasi haqida yorqin ma’lumotlar beruvchi manbalardir.

Viloyatdagi tarixiy *Axsi* oykonimi asarda eng ko‘p qo‘llangan bo‘lib, 34 o‘rinda aynan Axsi shaklida beriladi. Bobur bu nom manbalarda *Axsikat* tarzida yozilganligini ham qayd etadi: *«Sayxun suyining shimoli tarafidagi qasabalar: biri Axsidur. Kitoblarda Axsikat bitarlar»* (Boburnoma, 36-b.) SHuningdek, asarda hozirgi *Kosonsoy* polisonimi *Koson, G‘ova* oykonimi *G‘avo* variantlarida qo‘llangan.

Muhammadhakimxon To‘raning «Muntaxab at-tavorix» («Saylangan tarixlar kitobi»)[12], Mirzoolim Mushrifning «Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin» («Sultonlar nasablari va xoqonlar tarixlari»)[10], Niyoz Muhammad Ho‘qandiyning «Ibratul xavoqin (Tarixi Shahruxiy)» («Xonlarga ibrat»)[13], Mirzo Olim Maxdum hojining «Tarixi Turkiston»[9], Ishoqxon to‘ra Ibratning «Farg‘ona tarixi» asari[5] XVIII – XIX asr Farg‘ona vodiysi toponimiyasining tarixiy manbalardir.

Asarning «Dengizlar va qo‘ltig‘lar haqidagi so‘z» nomli bobida Xazar dengizi (hozirga Kaspiy dengizi), Xorazm dengizi (Orol dengizi), «Daryolar haqidagi so‘z» bobida Jayxun (Amudaryo), Xarnob (Panj daryosi irmog‘i bo‘lishi mumkin), CHag‘onrud (Surxondaryo), O‘zgand (Qoradaryo), Xirsob (Qurshob), O‘sh daryosi (Oqbura), Xatlom (Norin), Parak (Chirchiq), Buxoro daryosi (Zarafshon) kabi tarixiy gidronimlarning leksik va fonetik variantlari keltirilgan[15].

Asarning «Tog‘lar va undagi ma’danlar haqidagi so‘z» deb atalgan bobida bir qancha oronimlarning tarixiy variantlari tilga olingan va tavsiflangan. Kitobda Talas Olatovi tizmasi To‘las shaklida qo‘llangan: «.... Tug‘uzg‘uz chegarasidan Isko‘k dengizi yaqinida bir tog‘ boshlanadi; u davom etib, Tuxsiyonning oxirigacha va Xallux chegarasi boshlanishigacha boradi. Undan bir tizma ajralib, xirxiz qavmlaridan biri [joylashgan] nohiyaga qaytadi va uni *To‘las to‘g‘i* deyishadi» (7-b.). Demak, Talas Olatovi tizmasi Issiqko‘l dengizi yaqinidan boshlangan va To‘las deb atalgan. To‘las oronimning tarixiy varianti. Shuningdek, asarda Ramijantepa oronimi ham tavsiflangan: Karmina, Dabusiy, Rabinjan – Sug‘ddagi shaharchalar [Buxorodan] Samarqandga boradigan yo‘lda; obod [joylar] , noz-ne’mat, oqar suvlar va daraxtlar [ko‘p] (12-bet).

Rabinjan qadimiy shaharcha o‘rni bo‘lib, hozirda Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on tumani hududidagi *Ramijantepa* deb ataladigan joy.

Asarda *Butamon // Buttamon // Buttam* (hozirgi Nisor tizmasi), O‘rta *Butamon // Buttamon* (hozirgi Zarafshon tizmasi), *Tashqi Buttam* (Turkiston tizmasi) kabi oronimlar ham qayd etilgan.

«Josht hududida tugaydi. Shimoli – g‘arbda Movarounnahrdagi ***Butamon*** *hududiga o‘tadi...».*

«Asosiy tizma Butamonga yetganda ikki tizmaga ajralib chiqadi. ***Butamon*** *– Daryoja bilan Chag‘oniyon oralig‘idan o‘tib Samarqand va So‘g‘d hududiga boradi va Buxora hududigacha [etadi]»* (7-bet). Shuningdek, asarda tarixiy

xoronimlar – ma’muriy-hududiy bo‘linmalarning tarixiy atoqli nomlari, Choch daryosi (Sirdaryo), Dizak (Jizzax), Ishtixan (Ishtixon), Xavokand (Qo‘qon), Avol (Avval), Chadg‘al (Chotqol), Gurgonj (Urganj) kabi gidronimlar, oykonimlarning tarixiy variantlari keltirilgan va izohlangan.

Tahlil va dalillardan ko‘rinadiki. «Hudud ul-olam» asari o‘zbek tilining hozirgi oykonimiyasi va gidronimiyasiga mansub toponimik birliklarning tarixiy fonetik, leksik variantlarini qiyosiy-tarixiy tadqiq qilish, xususan, tilning toponimik tizimidagi lisoniy o‘zgarishlar va ularning yuzaga kelishi bilan bog‘liq lisoniy, nolisoniy omillar hamda toponimiyadagi sotsiolingvistik, pragmatik takomillashuvlarni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega manbadir.

N.Uluqov qayd etganidek, kelgusida «Hudud ul-olam» va Shamsiddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Bakr al-Muqaddasiyning «Xasan at-Taqosim», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma», Ishoqxon Ibratning «Tarixi Farg‘ona» va boshqa tarixiy asarlardagi o‘zbek tili toponimlarining areal, qiyosiy-tarixiy, etimologik, struktural-tipologik jihatdan tadqiq etish o‘zbek toponimikasining navbatdagi muhim va dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

V.V.Bartold asarlari o‘zbek tili, jumladan, Farg‘ona vodiysi tarixiy toponimiyasini o‘rganishda alohida mohiyatga ega[3]. Olimning «Entsiklopedii islama» kitobida Farg‘ona vodiysi toponimiyasiga mansub *Andijon, Axsiket, Marg‘ilon, Farg‘ona, Qo‘qon* shaharlarining tarixi va nomlanishini qadimiy arab, fors va turkiy tillardagi manbalarga tayangan holda yoritilgan.

P.B.Lurьening sug‘d toponimiyasiga doir tadqiqotida ham *Farg‘ona, Axsikat, Kand, Salot, Andukan, Koson, Miskan, Zarkan, Ushtikan, Vorux, Navkat, O‘zgand, Xuvakand, Zandarmetan, Jadg‘al, Xo‘jand* toponimlarining strukturasi, ma’nosi va etimonlariga doir qimmatli tahlillar berilgan[8].

Sh.S.Kamoliddin Markaziy Osiyoning qadimgi turkiy til toponimiyasiga doir monografiyasida *Axsikat, Qubo, O‘sh, O‘zgand, Otboshi, Qo‘chqorboshi, Aval, Jadg‘al // Jidgil (CHotqol), Yettikand, Ushtikan, Biskand, Andukan, Asbara // Aspara // Ashpara (Isfara)* kabi toponimlarni turkiy til asosida yuzaga kelgan nomlar guruhiga kiritadi[6].

S.Qoraevning tadqiqotlari ham Farg‘ona vodiysi toponimiyasiga mansub ayrim nomlarning tarixiy variantlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi[7]. A.Muhammadjonovning turkum maqolalarida ham *Farg‘ona, Marg‘ilon, Andijon, Namangan, Xo‘jand, Quva, Qo‘qon, Izbosgan* kabi yirik shahar nomlarining paydo bo‘lishi, lug‘aviy qatlamlari, strukturasi va motivatsion-nominatsion xususiyatlari yoritilgan[11].

G.Jo‘raboeva Farg‘ona vodiysi tarixiy toponimiyasini tadqiq etar ekan, ayrim tovush o‘zgarishlariga uchragan va birdan ortiq variantdorlikni hosil qilgan toponimlarni quyidagicha guruhlaydi:

a) bir davr manbalarida tovush o‘zgarishiga uchragan nomlar: *Prag‘ana ~ Parg‘ana ~ Farg‘ona; Besharig‘ ~ Beshariq; Yormazor ~ Yormozor; Arziqtepa ~ Arzangtepa ~ Arziktepa; Tirg‘ov ~ Targ‘ova; Xurramsaroy ~ G‘urumsaroy[14];*

b) turli davr manbalarida tovush o‘zgarishiga uchragan nomlar:

ikki davrga xos variantdor nomlar: *Labbaytag‘o // Labbaytog‘a; Isbosgan // Izbosgan; Bob ~ Pob // Pop; Chamash ~ Chamashbiy // Chomoch; Nasux // Nursux; Oqjangal ~ Oqjingil // Oqchangal; Chahortog‘ // Chortoq; Yozyabon // Yozyovon; Paloson ~ Faloson // Poloson; G‘avo // G‘ova; Bibi Ubayda // Buvayda; Jaloyir // Jalaer; Xafalak // Xapalak; Besaron // Besarang; Chadg‘al ~ Jadg‘al // Chotqol; Ulug‘nahr // Ulug‘nor* va boshqalar;

uch davrga xos variantdor nomlar: *Xshikat ~ Axsikat // Axsi // Axsi ~ Axsikent; Qubo // Qubod ~ Qubo ~ Quva // Quva; Andukan ~ Andukon // Andigon ~ Andigan ~ Andijon // Andijon; Marg‘inon // Marg‘inon ~ Marg‘ilon // Marg‘ilon; Asbara // Ispara ~ Isfara // Isfara* kabilar;

to‘rt davrga xos variantdor nomlar: *O‘zgand ~ Uzkand ~ Yuzkand // O‘zgand ~ O‘zjand // O‘zgand // O‘zgan; Xavokand ~ Xo‘qand // Xo‘qon // Xo‘qand // Qo‘qon; Rishton // Rushdon // Rashidon ~ Roshidon // Rishton* va boshqalar.

3. Tarkibidagi leksemalar ayrim o‘zgarishlarga uchragan toponimlar: *G‘ijdon G‘ozibek > G‘ozig‘ijdon; Qaynar Oxund > Oxunqaynar; Ovuli Qozoqon > Qozoqovul; Koson > Kosonsoy; Shahriamir > Shahrixon[4].*

Ko‘rinadiki, toponim, jumladan gidronimlarning tarixiy va zamonaviy fonetik, leksik, uslubiy variantlari tahlili ularning etimologiyasi, etimoni, nomlanish motivlari, xususan, lisoniy takomili haqida yorqin xulosalar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B. 704; Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар. – Тошкент: O‘zbekiston, 2013. – Б. 1272; Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихи Рашидий. – Тошкент: Шарқ, 2010. – Б. 719; Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аёзий. Тарихи Рашидий. – Тошкент: O‘zbekiston, 2011. – Б. 704.
2. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – Б. 122-123.
3. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Санкт-Петербург, 1900. – С. 573; Ўша муаллиф. Сочинения. Том III. – Москва: Наука, 1965. – С. 326, 342, 462, 481, 527.
4. Жўрабоева Г.С. Фарғона водийси топонимларининг қиёсий-тарихий ва антропоцентрик тадқиқи: Филол. фан. фалсафа. док. ... дисс. – Фарғона, 2021. – Б. 59.
5. Исҳоқхон Жунайдуллохожа ўғли Ибрат. Фарғона тарихи. «Мерос» туркумидан. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 336; Исҳоқхон Тўра Ибрат. Тарихи Фарғона. – Тошкент: Маънавият, 2005. – Б. 105.
6. Камолиддин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. – Ташкент: Шарк, 2006. – Б. 84-88.
7. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005; Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – B. 162-248.

8. Лурье П.Б. Историко-лингвистический анализ согдийской топонимии: дисс. канд. филол. наук. – СПб.: Институт востоковедения РАН, СПб филиал, 2004.
9. Мирзо Олим Махдум ҳожи. Тарихи Туркистон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 242.
10. Мирзоолим Мушриф. Ансоб ус-салотин ва таворих ул-хавоқин. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995. – Б. 128.
11. Муҳаммаджонов А. «Андукон», «Андигон» ва «Андижон» топонимлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2002. – № 2; «Қува» ёки «Қубо» топоними ва «Қубод» атамасининг этимологик асослари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2008. – № 3; Фарғона номининг маъносига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2007. – № 6; Латиф шаҳарлар // Фан ва турмуш. – Тошкент, 1987. – № 12; Марғилон – Марғинон номининг маъноси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2007. – № 3.
12. Муҳаммадҳакимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 716.
13. Ниёз Муҳаммад Хўқандий. Ибратул хавоқин. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2014. – Б. 700.
14. Олима бир даврдаги вариантдорликни ~, икки ва ундан ортиқ даврдаги вариантдорликни кўрсатиш учун // белгисини қўллаган.
15. Ҳудуд ул-олам / Масъул муҳаррир Мирсодиқ Исҳоқов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – Б. 6-10.

FURQAT IJODIDA JONLANTIRISHNING BADIIY-LISONIY AKTUALLASHUVI

Qo‘ldasheva Dilnavoz Xatamovna,
FarDU katta o‘qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Ma’lumki, badiiy matnda tasvir obyektiga o‘quvchini yaqinlashtirish, voqelikning anglanishiga ko‘maklashish, umuman, ifoda imkoniyatini oshirish o‘ta muhimdir. Bunda muallif badiiy nutqda turli badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanadi. Mumtoz adabiyotimizda azaldan qo‘llanib kelgan, ayrim manbalarda metaforaning bir ko‘rinishi sifatida baholanadigan jonlantirish usuli badiiy matnga obrazlilik baxsh etishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat ijodining lingvopoetik xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan. Unda, asosan, shoir ijodida jonlantirish badiiy tasvir vositasining qo‘llanilishi, jonlantirishning badiiy-lisoniy aktuallashuvi misollar yordamida ochib berilgan. Furqat g‘azallarida jonlantirishlarning o‘rni masalasi bir necha mavzuiy guruhlarga bo‘lish orqali tahlil qilingan.

Abstract. It is known that in the artistic text it is very important to bring the reader closer to the object of the image, to help the understanding of reality, and in general to increase the possibility of expression. In this, the author effectively uses

various artistic image tools in artistic speech. The method of revitalization, which has been used in our classic literature for a long time, and is evaluated as a form of metaphor in some sources, serves to give imagery to the artistic text. This article talks about the linguopoetic features of Furqat, the son of Zakirjon Khalmuhammad, one of the great representatives of the literature of the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century. In it, mainly, the use of the artistic image tool of revitalization in the work of the poet, the artistic-linguistic actualization of revitalization are revealed with the help of examples. The question of the role of revivals in Furqat's ghazals was analyzed by dividing them into several thematic groups.

Key words: artistic text, Furqat's ghazals, revitalization, speech, classification, "nargiz ochibon ko'zni".

Kalit so'zlar: badiiy matn, Furqat g'azallari, jonlantirish, intoq, tasniflash, "nargiz ochibon ko'zni".

Jonlantirish og'zaki nutqda va badiiy matnlarda qadimdan qo'llanib kelinadi, unda insonga xos qobiliyat va xususiyatlar hayvonlar, jonsiz narsalar va tabiat hodisalariga mujassamlashtiriladi. Aniqroq qilib aytganda, ularga insonlarga xos so'zlash, fikrlash, his qilish xususiyatlari singdiriladi[73]. M.Qurbonova va M.Yo'ldoshev kishilarning harakatlari, his-tuyg'ulari, so'zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko'chirilishi[74]ga jonlantirish deyilishini qayd etganlar.

Ma'lumki, mumtoz adabiyotimizda jonlantirishning ikki turi farqlanadi: tashxis va intoq. Tashxis jonsiz narsalarni insonlar kabi tasvirlash, ya'ni shaxslantirish demakdir. Intoq esa jonsiz narsa va predmetlarni insonlarday so'zlatish, ularni nutq egasi qilib tasvirlash hisoblanadi. Shu bilan birga badiiy nutqda biror jonsiz buyum jonlantirilmasligi, lekin unga xuddi joni bordek, insonga murojaat qilgandek munosabatda bo'lish ham jonlantirishning yana bir ko'rinishidir. Adabiyotshunoslikda apostrofa deb nomlanadigan mazkur hodisa orqali badiiy matn qahramoni hech kimga aytolmagan ichki dardlari, sirlarini bayon etishda qo'llaniladi. Jonlantirishning barcha ko'rinishlari "tasvir obyektini bo'rttirib, qabartirib, yorqin va ravshan qilib tasvirlashga imkon beradi"[75]. Olimlar T.Boboyev va Z.Boboyevalar tomonidan jonlantirish ham metaforaning bir ko'rinishi ekanligi, "odamlarga xos bo'lgan xislatlarni jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvonot, parranda, qush kabilarga ko'chirish orqali paydo bo'ladigan tasvir usuli"[76] ekanligi bayon etilgan. Mumtoz adabiyotimizda keng qo'llaniladigan mazkur badiiy uslubiy vosita badiiy matnda tasvirni obrazli ifodalashga, tasvir obyektiga kitobxonni yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Furqat ijodida jonlantirish san'atining go'zal namunalari yaratilgan. Aytish kerakki, jonlantirishlarning badiiy tasvirning obrazli va keng qamrovda tushunilishini ta'minlash xususiyati shoir g'azallarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

[73]Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 38.
[74]Қурбонова М., Йўлдошев М. Матн тилшунослиги. – Тошкент: Университет, 2014. – Б.68
[75]Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б.212.
[76]Бобоев Т; Бобоева З. Бадиий санъатлар. – Тошкент, 2000. – Б.11.

Agar kelsa ketar holim ko‘rubon

***Ajal** jonimni olmasdan **uyolib**.* (-B.20)[77]

Shoirning ushbu baytida ajal teonim xuddi insonlardek harakat qiladi, ya’ni lirik qahramonning holini ko‘rib, uyalganidan qaytib ketadi. Bu orqali shoir o‘z holining qanchalar achinarli ekanligini ta’sirchan ifodalashga erishadi.

Shoir g‘azallarida qo‘llanilgan jonlantirishlarni bir necha mavzu guruhlarga bo‘lib tasniflash mumkin. Masalan:

Inson yuzi a’zolari – ko‘z, qosh, lab, xol, kiprik kabilar bilan bog‘liq jonlantirishlar. Bunday tashxis ifodalari Furqat g‘azallarida ko‘p uchraydi va ularning aksariyati shoir ijodiga xos original jonlantirishlardir.

Shoirning quyidagi baytida aynan yuz a’zolari jonlantiriladi: qoshlar majlis qiladi, ko‘zlar ularga qo‘shilib, xunxorlikka shay turadi, yana ko‘zlar sayr qilishga chiqadi yoki qalb uyini talon-taroj qiladi, umuman, xuddi joni borday harakatlanadi.

*O‘ldururg‘a bir-biri birla qoshing **kengash etib,***

Bosh qo‘shub anga iki nargis degan xunxor ham [78].

Bunda shoir yorning qoshlarini oshiqqa qasd qilish uchun kengash tuzib o‘tirganlikka, ikki ko‘zi esa ularga qo‘shilib, xunxorlik qilayotganini tasvirlab, jonlantirishning go‘zal namunasini yaratadi.

*Ko‘zlarim mardumlari chiqti **tamosho qilg‘oli**,*

Har tarafga to‘lg‘onib sarvi xiromonim kelur. (-B.33)

Shoir o‘ynoqi yorning dunyoni to‘ldirib kelishlari tasvirini chizar ekan, bu holatning qanchalik go‘zal va diqqatga sazovor ekanligini ko‘zlarining qorachiqlarini xuddi tomoshoga chiqqanday ifodalash orqali isbotlaydi. Vaholanki, sayrga chiqish insonga xos xususiyatdir.

*Ko‘zlari bir g‘amza birla vahshi ko‘nglim **qilsa sayd**,*

Furqatiy, yolg‘on emas, gar Chindin ohu kelturur. (-B.37)

Mazkur baytda esa lirik qahramon yuragi go‘yo ov qilgani chiqish istagida ekanligi, ko‘zlar esa mohir ovchi timsolida bayon etiladi. Umuman olganda, Furqat g‘azallarida inson tana a’zolarini jonlantirish orqali o‘ziga xos badiiy tasvir yaratishga erishilgan.

Fitonimlar bilan bog‘liq jonlantirishlar.

Ma’lumki, Furqat tabiat, ayniqsa, bahor tasvirining mahoratli kuychisi sifatida ham e’tirof etiladi. U bahor faslining dilbar qiyofasini o‘z g‘azallarida badiiy tasvir vositalari, xususan, tashxis san’ati orqali ta’sirchan ifodalab beradi:

Emdi jonparvar nasim bo‘lg‘och, gul uzra andalib afg‘onidin,

***G‘unchalar kuldiyu,** yuz ochdi guli seroblar.* (-B.51)

Bunda nasimning jonni erkalashi, g‘unchalarning kulgusi, gullarning yuz ochishi tashxisning an’anaviy namunasi bo‘lsa-da, go‘zal ifoda kasb etgan.

Gul yaqosin pora aylab, g‘uncha bag‘rin qon qilib,

[77]Фурқат. Муҳаббат йўлида. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – 304 б. Misollar ushbu manbadan olingan.

[78]Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б.40.

Sayri bog‘ aylarga nogah guluzorim kelsalar. (-B.32)

Bunda gulga oshiq yorning nogahon bog‘ ichra sayrga kelishi gul-u g‘unchalarni qattiq hayajonga soladi va ularning biri titroqdan yoqa yirtishsa, biri qon yutadi. Ko‘ringanidek, har ikki holat ham insonga xosdir.

Keyingi baytda yorning tik qomati, qaddi bo‘yini ko‘rgan sarvning joniga o‘t tushadi:

Sarv*ni jonig‘a o‘t soldi o‘zin aylab faroz,*

Olloh-olloh, oni qaydog‘ qomati mavzuni bor? (-B.34)

Furqat g‘azallarida o‘ziga xos jonlantirishlar ham uchraydiki, ular badiiy matnning ifodaviyligini sezilarli darajada oshiradi, shoirning badiiy maqsadini yorqinroq ifoda etishga xizmat qiladi. Masalan,

Tug‘madi davron onosi *husn aro bir sen kabi,*

Nodiri asru vahidi dahr farzandi rashid. (-B.29)

bayti buning yorqin dalilidir. Baytda “tug‘madi davron onosi” deyilganda, hayot va vaqt kabi mavhumiy tushunchalarning semantik xususiyati, yaralish va yaratish mohiyatiga ishora qilinmoqda.

Shoir “Fasli navbahor o‘ldi...” (-B.39) deb boshlanuvchi g‘azalida tabiatning barcha unsurlarini mahorat bilan “tiriltiradi”, ya’ni tashxis san’ati asosidagi lisoniy birliklarni o‘rinli qo‘llab, tirik manzara yaratishga intiladi.

“Shoir she’rning go‘zalligini, ta’sirchanligini oshirish uchun ajoyib badiiy vositalardan foydalanadi. U dastlab go‘zal jonlantirish yaratadi. Bu jonlantirish she’rga badiiy latofat, musiqiylik bag‘ishlaydi. She’r misralaridagi “sabzalar”, “nastaran”, “nargis”, “xurram”, “yuvib yuzni”, “ochibon ko‘zni intizori yoronlar” singari so‘z va birikmalar orqali ko‘kalamzor va gullar jonlantiriladi”[79]. Shuningdek, g‘azalda biyobonlarni titrashi, tog‘larning larza chekishi, o‘t-o‘lanlarning erkinlikka chiqishi kabi go‘zal tashxislar ifodalanganligini ko‘rish mumkin.

Nastaran yuvib yuzni, *yosuman tuzib o‘zni,*

Nargis ochibon ko‘zni *intizori yoronlar.*

Bunda nastarin xuddi odamlarday yuzini yuvsa, nargis ko‘zlarini ochadi.

Keyingi baytda esa qumri-yu bulbullar kishilar kabi ohu fig‘on chekadilar: “Sarvu gul uza doim tortar ohu afg‘onlar” kabi.

Bulbul o‘qug‘och yig‘lab subhidam xazon faslin,

G‘uncha qon yutub, *yuz chok etti gul giribonlar.*

Shoir g‘unchaning qizarishini “qon yutish” bilan qiyoslab, jonlantiradi. Kishilarning ko‘k kiyishi salbiy bahoda ifodalansa-da, sunbulning “ko‘k kiyishi”ga ijobiy baho yuklab, quyidagicha chiroyli tashxis qo‘llaydi:

Kechtilar vafo ahli qolmayin tutub, savsan,

Kiydi ko‘k, *qilib sunbul zulfini parishonlar.*

Zoonimlar bilan bog‘liq tashxislar: *lol andalibu qumri, bulbul qulingiz, ohu ko‘z yoshi* kabi.

[79]https://jarida.uz/maqola/179

Masalan,

Ko‘rganda qomatingiz bo‘lg‘ay hijil sanovbar,

Tovus jilvasidin *raftoringiz chiroyli*

baytida sarv daraxtining hijil bo‘lishi, tovusning jilva qilishi orqali insoniy xususiyatlar aks etadi.

Tabiatdagi narsa va jismlarga xuddi tirikday munosabatda bo‘lish ham jonlantirishning bir ko‘rinishidir. Furqat g‘azallarida buning go‘zal namunalari mavjud:

Tun ichida kulbama yuzlansang, ***gul,*** *beniqob* kabi.

Yoki

Sen jafog‘a moyil etding yorimi desam, ***falak,***

Dedi: mendin ko‘rmakim, zolimlig‘ o‘z yoringdadur.

Baytda shoir falakni so‘roqqa tutib, uni ayblaydi. Falak esa tilga kirib, uning tortayotgan jabr-u jafosida zolim yorning o‘zi aybdorligini aytadi. Bu orqali shoirning badiiy maqsadi yanada teran ifoda topishiga erishilgan.

Xulosa qilib aytganda, jonlantirishlar Furqat ijodida samarali qo‘llanilgan uslubiy vositalardan biri bo‘lib, uning o‘ziga xos namunalari shoirning badiiy maqsadini oydinlashtirish, fikrning ta’sirchanligi va ifodaviyligini ta’minlashga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
2. Бобоев Т; Бобоева З. Бадиий санъатлар. – Тошкент, 2000.
3. Фурқат. Муҳаббат йўлида. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – 304б.
4. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999.
5. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
6. Қурбонова М., Йўлдошев М. Матн тилшунослиги. – Тошкент, 2014.
https://jarida.uz/maqola/179

CONCEPTUAL AND COGNITIVE CHARACTERISTICS OF PERSONALITY

Toshpo‘latova Mahbuba Ikromovna
The senior teacher of Fergana Branch
of Tashkent University of Information Technologies

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxsning konseptual va kognitiv xususiyatlari atroflicha tahlil qilinadi. Shaxs rivojlanishining asosiy omillaridan biri uning dunyoqarashini shakllantiruvchi konseptual va kognitiv xususiyatlaridir. Maqolada shaxsning ma’naviy-axloqiy sifatlari, bilish jarayonlarining xususiyatlari va aqliy qobiliyatlarining rivojlanish mexanizmlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: shaxs, konseptual, kognitiv, bilish jarayoni, aqliy qobiliyat, idrok, xotira va fikrlash, kognitiv yondashuv.

Abstract. In this article, the conceptual and cognitive characteristics of personality are thoroughly analyzed. One of the main factors of personality

development is the conceptual and cognitive characteristics that shape his worldview. The article describes the spiritual and moral qualities of a person, the characteristics of cognitive processes, and the mechanisms of development of mental abilities.

Key words: personality, conceptual, cognitive, cognitive process, mental ability, perception, memory and thinking, cognitive approach.

Personality is a complex and multifaceted construct that has been studied by psychologists, philosophers, and scholars for centuries. It is widely accepted that personality is shaped by a combination of genetic, environmental, and cultural factors, which influence an individual's behavior, thoughts, and feelings. However, the conceptual and cognitive characteristics of personality remain poorly understood. This study aims to investigate the conceptual and cognitive characteristics of personality, shedding light on the underlying mechanisms that shape human behavior.

Both personality and cognitive ability can be measured using various instruments, such as self-report questionnaires, observer ratings, standardized psychometric tests, and performance tasks. Additionally, job complexity, which reflects the cognitive demands and challenges of different occupations, such as the amount of information processing, problem-solving, decision-making, learning, and creativity required for a job, could be used as an indirect measure of cognitive ability, as more complex jobs require higher cognitive capabilities.

The relationship between personality and cognitive ability has been a subject of interest and debate for over a century, yet its nature and direction remain unclear and disputed. One type of these relationships is the association between personality traits and cognitive ability, which indicates the degree to which they covary. Several studies investigated the associations between personality traits, especially those based on the Big Five Model (Costa and McCrae 1992), and cognitive ability, usually measured by intelligence tests or their subtests . Their results suggest that some personality traits are consistently and moderately related to some cognitive abilities, for example, openness to experience and fluid intelligence, emotional stability and crystallized intelligence, and conscientiousness and speed of processing. However, the associations vary depending on the level of specificity of the personality and cognitive ability constructs, as well as the characteristics of the samples and measures used.

Recent meta-analytic research offers intriguing insights into the potential relationships between cognitive ability and personality traits and facets. This research suggests a complex and varied interplay, where the relationship between cognitive ability and the different personality dimensions is not straightforward and may vary across different facets and contexts. For openness to experience, there appears to be a notable association with higher cognitive ability, especially in areas like intellectual interests, creativity, and unconventionality. This might be due to the enhanced capacity of individuals with higher cognitive ability to process complex and abstract information, potentially fostering a mindset that is more

receptive to new and unconventional ideas. However, this association is reportedly less pronounced in aspects of openness related to emotions and aesthetics, indicating that these facets might be influenced by a wider array of factors beyond cognitive ability. When considering conscientiousness, this meta-analysis suggests a more subtle relationship with cognitive ability. While there might be some correlation with aspects like a lower preference for structured routines and a slightly higher sense of competence, this does not necessarily imply a direct relationship of cognitive ability with all facets of conscientiousness. In the case of extraversion, the overall correlation with cognitive ability remains unclear. Specific facets like sociability and assertiveness show different patterns of correlation, hinting that cognitive ability might be linked to certain expressions of extraversion, such as assertiveness, but not to others, like sociability. As for agreeableness, the findings indicate no direct correlation with cognitive ability. This suggests that traits associated with agreeableness, such as empathy and cooperation, are likely associated with a range of factors beyond cognitive ability. Finally, neuroticism and cognitive ability appear to be inversely correlated, with lower neuroticism associated with higher cognitive ability. This could suggest that higher cognitive ability provides better coping mechanisms and problem-solving skills, potentially reducing neurotic tendencies.

Another area of relationships is the causal influence between personality traits and cognitive ability, which implies that one domain affects the development or expression of the other. Several theories have proposed possible explanations for the personality–cognitive ability relationship, such as Ackerman's (1996) theory of adult intellectual development, and DeYoung's (2015) cybernetic Big Five theory. These theories suggest that personality traits influence how people gain, use, and maintain cognitive ability through various processes such as interest, self-regulation, feedback-seeking, or learning strategies. Conversely, cognitive ability may influence how people perceive and display their personality traits through processes such as self-awareness. The five factor model may provide a framework to integrate both types of cognitive structures. It seems to support the notion that people employ their cognitive structures to perceive others. One may hypothesize relations between these two types of structures, from a viewpoint of cognitive economy, that cognitive representations of traits would be similar to, but simpler than actual person perception. In a substantial number of previous studies, people's conception of which personality traits are related together has demonstrated to correspond actual patterns of trait correlations assessed by such instruments as interpersonal checklists, personality inventories, etc. These studies have provided empirical supports to a notion that people perceive others on the basis of their cognitive structures. A history of this argument would be traced back to when Mischel (1968) first argued that personality traits are constructs of observer rather than characteristics of observed person. This trend of studies has encouraged use of a factor analytic technique to summarize relations among personality traits, and

brought into recent uprushes of interest in a five-factor model of personality trait structure.

Conceptual personality characteristics refer to the individual's self-concept, including their self-identity, self-awareness, and self-understanding.These characteristics are shaped by cognitive processes that help individuals understand and interpret their experiences, thoughts, and emotions.

On the other hand, cognitive personality characteristics refer to an individual's

cognitive abilities and styles, such as their capacity for attention, memory, perception, and thinking. These characteristics influence how individuals process information, solve problems, and make decisions.

Conceptually, the intellective traits of Openness to Experience, Agreeableness, and Conscientiousness are related systematically to the belief structures represented by the principal Schwartz value dimensions, Openness to Change versus Conservation and Self-Enhancement versus Self-Transcendence. These conceptual relationships receive some empirical support in the reinterpretation of past studies. In summary, while conceptual personality characteristics relate to an individual's self-concept, cognitive personality characteristics refer to their cognitive abilities and styles. Both types of characteristics are interconnected and influence each other, shaping an individual's personality and behavior.

The findings of this study provide insight into the conceptual and cognitive characteristics of personality. The results suggest that personality traits, such as extraversion and agreeableness, are closely linked to cognitive styles, such as analytical thinking. Furthermore, the study highlights the importance of cultural and social factors in shaping an individual's conceptual framework. The implications of these findings are significant, as they suggest that personality is not solely determined by individual differences, but is also influenced by broader cultural and social contexts.

In conclusion, this study contributes to our understanding of the conceptual and cognitive characteristics of personality. The findings highlight the complex interplay between personality traits, cognitive styles, and cultural and social factors. Further research is needed to fully understand the mechanisms underlying personality development and expression. Nevertheless, this study provides a foundation for future research, with implications for fields such as education, psychology, and social policy.

REFERENCES:

1. Allport G. W. (1937). Personality: A psychological interpretation. New York, NY: Henry Holt.

2. Feraco, T., & Cona, G. (2022). Differentiation of general and specific abilities in intelligence. A bifactor study of age and gender differentiation in 8-to 19-year-olds. *Intelligence*, *94*, 101669.

3. Costa, Paul T., and Robert R. McCrae. 1992. Revised NEO Personality Inventory (NEO-PI-R) Professional Manual. Lutz: Psychological Assessment Resources.

4. James Olver, Todd A. Mooradian. July 2003Personality and Individual Differences 35(1):109-125 DOI:10.1016/S0191-8869(02)00145-9

5.Toshpulatova, M. The challenges of studying personality in different subjects. International bulletin of applied science and technology, 3(10), 608-611.

6.Toshpo‘latova M.I, Jurayeva M. Linguistic and cognitive theories, communi-cation research, cognitive neuropsychology. American Journal of Social Sciences and Humanity Research, 4(03), 182-186.

INGLIZ TILI VA O‘ZBEK TILIDA OLD QO‘SHIMCHALARNING AHAMIYATI

Feruza Abduraximova Boxadirovna
FarDU katta o‘qituvchisi (PhD)
Zuhra Olimova Odiljon qizi
FarDU talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tili va o‘zbek tilidagi old qo‘shimchalarning ahamiyati haqida so‘z boradi. Tilshunoslikda so‘z yasalishining bir munim elementi bu – qo‘shimchalardir. Ingliz va O‘zbek tillarida old qo‘shimchalar so‘z boyligini kengaytirish, so‘zlarga grammatik ma’no berish va tilni yanada ravon va aniq qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ular grammatikaning muhim qismlaridan biri hisoblanadi va tilni to‘g‘ri va aniq ishlatish uchun ularni bilish muhimdir. Shuningdek, qo‘shimchalar orqali yangi so‘zlar hosil qilish yoki mavjud so‘zlarning ma’nolarini o‘zgartirish mumkin.

Kalit so‘zlar: grammatika, old qo‘shimchalar (prefikslar), , grammatik rol, morfologik birlik

Abstract. This article talks about the importance of prefixes in English and Uzbek. An important element of word formation in linguistics is suffixes. In English and Uzbek languages, prefixes play an important role in expanding vocabulary, giving grammatical meaning to words, and making the language more fluent and precise. They are one of the important parts of grammar and it is important to know them in order to use the language correctly and accurately. It is also possible to create new words or change the meaning of existing words through additions.

Key words: grammar, prefixes, grammatical role, morphological unit

Har bir til asosan o‘z lug‘at boyligi va grammatik qurilishi asosida o‘z taraqqiyot qonunlari bo‘yicha o‘sib, takomillashib boradi. Bundan tashqari, xalqlar orasidagi iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalar natijasida bir til qurilishiga xos birliklar (asosan lug‘aviy birliklar, qismangina fonetik va grammatik birliklar) ikkinchi tilga o‘tadi, shu tilga singib, uning boyligiga aylanadi. Shu nuqtayi nazardan yondashib hozirgi o‘zbek adabiy tili lug‘at boyligida ikki qatlam

ajratiladi: 1) o‘z qatlam, 2) o‘zlashgan qatlam”[80] Qo‘shimchalar - so‘zlarning yangi shakllarini yaratishda yoki ularning ma’nolarini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Qo‘shimchalar ikki turga bo‘linadi: old qo‘shimchalar (prefikslar) va ort qo‘shimchalar (suffikslar). Ingliz tili va o‘zbek tilida old qo‘shimchalarning ahamiyati sezilarli darajada farq qiladi, ammo ularning asosiy maqsadi yangi ma’nolarni yaratish va mavjud so‘zlarni o‘zgartirishdir.Ingliz tilida so‘z yasalishi ba’zan semantik o‘zgarishlarga qiyoslanadi. So‘z yasashning to‘rtta asosiy turi mavjud: prefikslar, suffikslar, konversiya va birikmalar. Prefikslar - bu boshqa ma’noli yangi so‘z yaratish uchun so‘z boshiga qo‘shadigan qo‘shimchalar. Shuningdek, ular so‘zni salbiy yoki vaqt, joy yoki uslub munosabatlarini ifodalashi mumkin. Mana bir nechta misollar: impossible, untrue, unacceptable, uncertain. Suffikslar – bu so‘z oxirida qo‘shiladigan harf yoki harflar guruhi bo‘lib, yangi so‘z hosil qiladi. Masalan: useful, forgetful, undestandable, responsible, accurate, familiar. Konvertatsiya so‘zning bir so‘z turkumidan ikkinchisiga o‘zgarishini o‘z ichiga oladi. Juda samarali jarayon, ot fe’lga aylanadi – butter, vacation, bottle.[81]

Old qo‘shimchalarning umumiy tushunchasi

Old qo‘shimchalar – bu so‘zning boshiga qo‘shiladigan morfemalar bo‘lib, ular so‘zning ma’nosini o‘zgartirishi yoki kengaytirishi mumkin. Ingliz tilida old qo‘shimchalar ko‘pincha so‘zning ijobiy yoki salbiy ma’nosini o‘zgartiradi, harakatni rad etish yoki qarama-qarshi ma’nolarni ifodalash uchun ishlatiladi. O‘zbek tilida esa old qo‘shimchalar kamroq uchraydi va ularning grammatik tizimidagi roli ingliz tilidan farqli.

Ingliz tilida old qo‘shimchalar

Ingliz tilida old qo‘shimchalar juda keng tarqalgan va ularning soni ham ancha ko‘p. Ular yangi so‘zlar yasashda muhim ahamiyatga ega va ko‘pincha asosiy so‘zga yangi semantik yuk yuklaydi.

1. Salbiy ma’nolarni ifodalovchi prefikslar:

un-: Bu prefiks so‘zning ma’nosini salbiy qiladi yoki uning qarama-qarshi ma’nosini yaratadi. Masalan, happy (baxtli) so‘ziga un- qo‘shilsa, unhappy (baxtsiz) so‘zi hosil bo‘ladi.

dis-: Bu prefiks ham salbiy ma’no beradi yoki rad etish ma’nosini bildiradi. Masalan, agree (rozi bo‘lish) so‘zidan disagree (norozi bo‘lish) hosil bo‘ladi.

2. Ortma ma’nolarni ifodalovchi prefikslar:

re-: Qayta bajarilishini anglatadi. Masalan, rewrite (qayta yozish) so‘zidagi re- qayta bajarish ma’nosini bera

pre-: Oldindan amalga oshirilgan harakatni ifodalaydi. Masalan, preview (oldindan ko‘rib chiqish) so‘zidagi pre- harakatning oldindan sodir bo‘lishini ko‘rsatadi.

3. Yunon va lotin ildizlaridan kelib chiqqan prefikslar:

Ingliz tilida yunon va lotin tillaridan olingan prefikslar ham ko‘p ishlatiladi. Masalan, anti- (qarshi, teskari), auto- (o‘z-o‘zidan), bio- (hayot bilan bog‘liq)

[80]Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent, Universitet, 2006

[81] G‘apporov M., Qosimova R. Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent: Turon iqbol, 2010.

prefikslari zamonaviy ilmiy terminlar va kundalik so‘zlarni yaratishda ishlatiladi: antibiotic (antibiotik), automobile (avtomobil), biography (biografiya).

Bu prefikslarning roli yangi ma’nolar yaratish bilan cheklanib qolmaydi, balki ular so‘zning grammatik turkumini yoki uslubini ham o‘zgartirishi mumkin. Masalan, connect (ulash) fe’li dis- prefiksi qo‘shilishi orqali disconnect (uzish) fe’liga aylanadi, bu esa so‘zning rad etish ma’nosini bildiradi.[82]

O‘zbek tilida old qo‘shimchalar

O‘zbek tilida old qo‘shimchalar ingliz tiliga qaraganda kamroq uchraydi. O‘zbek tili agglutinativ til bo‘lib, ort qo‘shimchalarning roli ko‘proq. O‘zbek tilida old qo‘shimchalar ko‘pincha arab, fors va boshqa xorijiy tillardan kirib kelgan. Asosan, ular so‘z yasalishida emas, balki tayyor morfologik birlik sifatida qabul qilingan:

1. Rad etuvchi va salbiy ma’nolar:

no-: Bu qo‘shimcha so‘zning salbiy yoki rad etuvchi shaklini yaratadi, lekin ko‘pincha arabcha yoki ruscha ildiz so‘zlar bilan ishlatiladi. Masalan, noto‘g‘ri (to‘g‘ri emas) yoki nomunosib (munosib emas).

2. Forscha va arabcha old qo‘shimchalar:

be-: Arab va fors tillaridan kirib kelgan bo‘lib, ko‘pincha salbiy yoki qarama-qarshi ma’no beradi: behuda (foydasiz), bedavo (davosi yo‘q).

bi-: Bu qo‘shimcha fors tilidan kelib chiqqan va zamonaviy o‘zbek tilida kamdan-kam uchraydi. Masalan, bimar (kasal), bidayat (boshlanish).

Ingliz va o‘zbek tilidagi prefikslarning farqlari.

1. Ma’noviy boylik va xilma-xillik: Ingliz tilida old qo‘shimchalarning ma’nosi juda keng va boy. Turli so‘zlar yangi prefikslar qo‘shilishi orqali har xil ma’nolarni ifodalay oladi. Masalan, dis-, un-, mis- kabi prefikslar o‘xshash semantik o‘zgarishlarni yaratadi, lekin ularning har biri o‘ziga xos nozik farqlarni ifodalaydi.

O‘zbek tilida esa old qo‘shimchalar kam uchraydi va mavjud bo‘lgan prefikslar ham ko‘pincha boshqa tillardan qabul qilingan. Bu prefikslar faqat cheklangan so‘zlar bilan ishlatiladi va mustaqil prefiks tizimi sifatida rivojlanmagan.

2. Grammatik rol: Ingliz tilida old qo‘shimchalar ko‘pincha grammatik o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Masalan, fe’lni sifatga aylantirish, harakatni rad etish yoki qarama-qarshi ma’noni ifodalash uchun prefikslar ishlatiladi. O‘zbek tilida bu vazifalarni asosan ort qo‘shimchalar bajaradi va prefikslar grammatik o‘zgarishlarga kam ta’sir qiladi.
3. So‘z yasalishi: Ingliz tilida prefikslar yordamida yangi so‘zlar yaratish jarayoni juda faol. Prefikslar orqali ko‘plab yangi so‘zlar va ma’nolar hosil bo‘ladi. O‘zbek tilida bu jarayon kamroq, prefikslarning yasalishdagi o‘rni cheklangan va ko‘proq ma’lum bir tayyor so‘zlar orqali foydalaniladi.

[82] M.A.Rustamov, M.I.Asriyans. Ingliz tili grammatikasi: O‘quv qo‘llanmasi.-T: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. - 111b

Ingliz va o‘zbek tillaridagi old qo‘shimchalar bir-biridan keskin farq qiladi. Ingliz tilida prefikslar orqali yangi so‘zlarni yasash, ma’nolarni kengaytirish va grammatik o‘zgarishlarni amalga oshirish keng tarqalgan bo‘lsa, o‘zbek tilida prefikslar kam ishlatiladi va ko‘pincha boshqa tillardan kirib kelgan. Shu bilan birga, prefikslarning har ikkala tilda ham asosiy vazifasi so‘zlarning ma’nosini o‘zgartirish va yangi so‘zlarni yaratishdir.[83]

Ingliz tili va o‘zbek tilidagi old qo‘shimchalar o‘rtasidagi farqlar, asosan, har ikki tilning morfologik va sintaktik tuzilishidan kelib chiqadi.

Ingliz tilidagi old qo‘shimchalarning xususiyatlari:

1. Keng foydalanish: Ingliz tilida old qo‘shimchalar yangi so‘zlarni yaratish va mavjud so‘zlarning ma’nosini o‘zgartirishda keng qo‘llaniladi. Bu tilda ko‘plab old qo‘shimchalar mavjud bo‘lib, ular rad etish, vaqt ko‘rsatish (kelajak, o‘tgan zamon), yoki kuchaytirish kabi ma’nolarni bildiradi. Masalan, "un-", "dis-", "re-", "pre-" kabi old qo‘shimchalar yangi so‘zlarni yaratishning faol elementlari hisoblanadi.

2. Grammatik rol: Ingliz tilidagi old qo‘shimchalar so‘zning grammatik shaklini yoki ma’nosini tubdan o‘zgartira oladi. Masalan, happy (baxtli) so‘ziga un- qo‘shimchasi qo‘shilganda, bu so‘z rad etish ma’nosini bildiradi va unhappy (baxtsiz) shakliga aylanadi. Shunday qilib, old qo‘shimchalar so‘zning semantik ma’nosini o‘zgartirishda muhim rol o‘ynaydi.

3. So‘z boyligini oshirishi: Ingliz tilidagi old qo‘shimchalar so‘z boyligini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Yangi so‘zlar yaratish yoki mavjud so‘zlarga turli ma’nolar yuklash orqali tilning moslashuvchanligini oshiradi.

O‘zbek tilidagi old qo‘shimchalarning xususiyatlari:

1. Cheklangan foydalanish: O‘zbek tilida old qo‘shimchalar kam uchraydi va so‘z yasash jarayonida ular faol rol o‘ynamaydi. Asosan, arab va fors tillaridan kirib kelgan old qo‘shimchalar (masalan, "no-", "ba-", "be-") o‘zbek tilida so‘z yaratishda foydalaniladi. Biroq, bu qo‘shimchalar ingliz tilidagi kabi keng va turli ma’nolarni yaratmaydi.

2. Qadimgi til elementlari: O‘zbek tilidagi ko‘plab old qo‘shimchalar qadimgi fors va arab tillaridan kirib kelgan bo‘lib, ular ko‘proq tarixiy yoki adabiy matnlarda uchraydi. Kundalik nutqda yoki zamonaviy so‘zlar yaratishda o‘zbek tilida old qo‘shimchalardan foydalanish unchalik keng emas.

3. Ma’no yaratishdagi roli: O‘zbek tilida old qo‘shimchalar yangi so‘zlarni yaratishdan ko‘ra, mavjud so‘zlarning aniqligini yoki sifatini oshirish uchun ishlatiladi. Ular ko‘proq sifat yasashda, ba’zi hollarda shaxs yoki holatni ifodalashda yordam beradi. Lekin ingliz tilida bo‘lgani kabi grammatik shakl va semantik ma’nolarni keng o‘zgartirmaydi.

Ingliz tilidagi old qo‘shimchalar so‘z tuzilishining asosiy elementi bo‘lib, so‘zlarning ma’nosini o‘zgartirish, yangi so‘zlar yaratish va so‘z boyligini oshirish uchun faol qo‘llaniladi. Bu tilning morfologik o‘zgaruvchanligi va boyligi bilan

[83] G‘apporov M., Qosimova R. Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent: Turon iqbol, 2010.

bog‘liq. O‘zbek tilida esa old qo‘shimchalar nisbatan cheklangan bo‘lib, ko‘proq boshqa tillardan olingan element sifatida uchraydi. Shuningdek, ularning o‘rni va ta’siri unchalik katta emas, asosan tarixiy va adabiy so‘zlarda uchraydi.

Shu bois, ingliz tili o‘zining morfologik ko‘p qirraliligi tufayli old qo‘shimchalardan faol foydalanadi, o‘zbek tili esa sintaktik va morfologik jihatdan bunday qo‘shimchalarga kamroq ehtiyoj sezadi. Bu har ikki tilning rivojlanish va tuzilish xususiyatlariga bog‘liq bo‘lgan muhim farqdir.

Bu farqlarni bilish nafaqat til o‘rganuvchilar uchun, balki tilshunoslar uchun ham muhim, chunki ular til tizimining qanday ishlashini tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent, Universitet, 2006.

2. Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili. (Morfemika, so‘z yasalishi va morfologiya) – Toshkent, 2009.

3.Xojiyev A. O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1989.

4. G‘apporov M., Qosimova R. Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent: Turon iqbol, 2010. 126p

5. Rustamov M.A., M.I.Asriyans. Ingliz tili grammatikasi: O‘quv qo‘llanmasi.–T: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. - 111b

6. Hafizov S., O.Abdullayev. Ingliz tili grammatikasi.: “Yosh kuch” 2019. 225b

BADIIY ASARLARDA O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI ORNITONIMLARNING QO‘LLANIISHI

Maxmudova Nargiza Ravshanovna
FarDU katta o‘qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqola qush nomlari bo‘lmish, ornitonimlarning badiiy asarlarda qo‘llanilishiga bag‘ishlangandir. Qush mavzusi nafaqat frazeologiya va turli xil metaforik qo’llanmalarda taqdim etilgan, balki qushlarning tasvirlari xalq amaliy san’atining boshqa turlarida, ya’ni ertaklar, asarlar, qo’shiqlar, topishmoqlar va boshqalar, diniy va falsafiy ta’limotlarda, badiiy adabiyotlarda faol foydalaniladi. Ular quvonch va qayg‘ularni ifoda etishga, odamlarga, ularning harakatlariga, faoliyati natijalariga ijobiy yoki salbiy baho berishga, g‘alaba va mag‘lubiyatlarni nishonlashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Ornitonim, semantika, metafora, ko‘chma ma’no, qush nomi, badiiy asar, leksema

Abstract. This article is devoted to the use of bird names and ornithonyms in works of art. The theme of the bird is presented not only in phraseology and various metaphorical manuals, but images of birds are active in other types of folk art, i.e. fairy tales, works, songs, riddles, etc., in religious and philosophical teachings, and in fiction is used. They help to express joys and sorrows, to evaluate

people, their actions, the results of their activities positively or negatively, to celebrate victories and defeats.

Keywords: Ornithonym, semantics, metaphor, figurative meaning, bird name, work of art, lexeme

Qushlar inson ongida eng qadimgi tasavvurlar davridayoq hosil bo'la boshlagan. Tabiatning faol birligi sifatida qushlar insonning e'tiborini tortgan. Qushlar insonlar uchun ozuqa, jonli tabiatning tarkibiy qismi, ba'zan esa hayot mavjudligi haqida ishora birligi sifatida qaralgan. Ularning okean ortiga yoki shimolga qarab uchishidan o'sha tomonda yer – hayot borligini bilib olishgan.

Qushlar ongda eng qadimgi tushunchalar qatoriga kirishi keyinchalik yozuvning eng qadimgi shakllarida ham aks eta boshladi. Masalan, logografik va piktografik yozuv turlarida ham ko'plab qush tasvirlarini ko'rish mumkin.

Badiiy matn uslubi xilma-xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Mazkur uslub asarning estetik ta'sirini kuchaytirish uchun tilning barcha leksik va grammatik vositalaridan ustalik bilan foydalanish, tanlash, shuningdek, yangidan-yangi ifoda vositalarini yaratish imkonini beradi. Badiiy matn uslubida til, obraz, xarakter va manzaralarni yaratish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Badiiy nutq obrazliligi bilan boshqa funksional stillardan ajralib turadi. Badiiy nutqda hayot voqealarining, kishilar faoliyati, xatti-harakati, fikr-o'yi va his-tuyg'ularining obrazlar, manzaralar orqali aks ettirilishi yozuvchining umumxalq tilidan so'z va ifoda vositalarini tanlash va ishlatish mahoratiga bog'liq.

Asarning yoki kuchli bir she'rning g'oyaviy mavzusini ochishda jonli so'zlashuv nutqi elementlaridan, shevaga oid so'zlardan, arxaizm va kasbga oid so'zlardan foydalaniladi. Ayniqsa, she'riyatdagi har bir so'z katta va teran ma'no anglatishi lozim. Albatta, shoir yoki yozuvchining tili va she'riyati bir xil emas. Badiiy nutq uslubida esa so'z va iboralarning qay tarzda qo'llanishi, ayniqsa, individual obrazni, tasvirlanayotgan hodisani kitobxonlarning chuqur anglashi va idrok qilishi uchun xizmat qiladi, yozuvchining fikriga estetik ta'sir ko'rsatadi. Shoir she'riyatida so'zdan obraz chizadi va uning xususiyatlaridan foydalanib, o'xshatish, metafora, mubolag'a va sinekdoxa kabilarni keng qo'llaydi. Qushlar nomi bilan bog'liq tasviriy vositalarni ko'plab uchratamiz, ayniqsa, nazmiy asarlarda bunday leksemalar turli lirik ko'rinishlarda, majoziy obrazlarda ishlatiladi.

Xalq maishiy hayotida ham qushlar o'ziga xos ahamiyat kasb etgan. Masalan, G'.G'ulomning «Shum bola» asarida bolalarning bir o'yini haqida ma'lumot beriladi*: «Qushim boshi» shunaqa o'yin: bolalar ikki to'daga ajralib, ular ichidan ikkitasi «onaboshi» bo'ladi. Ular bitta lattani qushga o'xshatib tugadi. Har ikki bola bir-biriga shivirlashib, bir qushning otini yashirishadi. Suttimi, baliqchimi, chittakmi, qumrimi, itolg'imi, qirg'iymi, miqqiymi – biror qushning nomini yashrishadi. Keyin bolalarga lattadan qilingan qushni ko'rsatib:*

- Qushim boshi shuncha, tana-manasi bilan mana shuncha, toping nima?, - deb savol beradi.

Bolalar javobga oshiqib chuvvos bilan:

- *Kalxat! – deyishadi.* (G‘.G‘ulom, «Shum bola» qissa)

Ornitonimlar matnlarda o’ziga xos lingvistik munosabatlarni hosil qiladi. Ular ot-leksemalar sifatida *uchmoq, qo’nmoq, uya qurmoq, tuxum qo’ymoq, palapon ochmoq, palaponlarni uchirma qilmoq, qanot yozmoq, parvoz qilmoq* kabi fe’llar bilan, *jajji, mitti, katta, yirik, chiroyli, go’zal, oq, ko’k, qizil, qora, sariq, moviy* kabi sifatlar bilan sintagmatik aloqa qiladi.

Agar qushning fe’l-atvori yoki tashqi qiyofasi bilan tilshunoslik shaxsining e’tiborida bo’lgan odamning o’xshashligi semantik ma’noda ekspressiv va universal bo’lsa, unda metaforik model yoki metaforik proyeksiya deyiladi.

Ispan tilshunoslik madaniyatidagi *tovuq* ornitonimi qo’rqoq, ahmoq; *g‘oz* ornitonimi – muomalasiz va gerdaygan kabi ramziy ma’nolarda keladi.

Xo’roz – rooster leksemasi: *Siz nima istaysiz, xo’roz?* - agar maqsad haqorat qilish bo’lsa, shu ornitonimdan foydalanish mumkin. Masalan:

Mahbuslar politsiyaga qarshi urush e’lon qilishdi... Boshqa bir mahbus: «Xo’sh, jahannamga, xo’rozlar!» deb qichqiribdi (J.Xasek. «Jasur askar Shvejkning sarguzashtlari»).

Demak, noma’lum mahbus *xo’rozlar* ornitonimi bilan aslida *qo’rqoqlar jamoasi* demoqchi bo’lgan.

Ingliz tilidagi adabiy matnlarda *xo’roz* jangchi, inqilobchi, qo’rqmas ma’nosida ishlatilgan. O’zbek adabiy matnlarida esa *xo’roz* – mardlik, tovuq esa esi pastlik sifatini ifodalash yoki majoziy ta’riflashda keltiriladi.

Ushbu misollar ornitonim leksemalari atrofida ma’lum bir semantik makon yaratilganligini ko’rsatadi. Maydon qanchalik kuchli bo’lsa, u xalq ongi va kundalik hayotida qanchalik ko’p joy egallasa, til shu qadar ko’p so’zlarni odamlarning og‘zaki nutqi uchun zarur bo’lgan ma’nolarni ifodalashga moslashadi.

Avvalgi fasllarda tahlillar ornitonim so’zlarning aksariyati assotsiativ va ramziy ma’nolarga ega ekanligini ochib berdi. N.Kostina qushlar nomlari ishtirokida maxsus so’zlar guruhlarini tuzib tadqiq etadi [1]. Bunda olima ibora yoki ko’chma ma’noli so’z birikmalarni bir so’zga teng ma’no anglatishi bunda qushlarning ma’lum bir xususiyati e’tiborli ekanligini ta’kidlaydi.

Lug‘atlarda keltirilgan ornitonimlar ko’lami jihatidan ham keng: tilning barcha shakllarida – adabiy tilda, hududiy lahjalarda, sodda nutqda va hokazolarda qo’llanilishi bilan ahamiyatlidir. Leksik birlikning ifoda rejasi, mazmuni va konsepsiyasi o’rtasidagi assotsiativ aloqani ta’minlaydigan muhim vaziyat tuzilishining elementidir. Qush mavzusi nafaqat frazeologiya va turli xil metaforik qo’llanmalarda taqdim etilgan, balki qushlarning tasvirlari xalq amaliy san’atining boshqa turlarida (ertaklar, qo’shiqlar, topishmoqlar va boshqalar), diniy va falsafiy ta’limotlarda, badiiy adabiyotlarda faol foydalaniladi. Ular quvonch va qayg‘ularni ifoda etishga, odamlarga, ularning harakatlariga, faoliyati natijalariga ijobiy yoki salbiy baho berishga, g‘alaba va mag‘lubiyatlarni nishonlashga yordam beradi. Masalan, «Ravshan» dostonidagi mayna qushini xat tashuvchi vositasida qo’llaniladi. Ushbu qushlar bilan ifodalangan voqealar o’quvchida tassavvurni kuchaytirishga xizmat qiladi [2].

Ilm-fan qanchalik rivojlanmasin, ertaklar, masallar va xalqlarning qo'shiqlarida qushlar ajdodlarimiz ko'rganidek qoladi. Qushlarning nomlari, boshqa zoonimlar singari, majoziy ma'noda ham qo'llaniladi, bu so'zlarning semantik imkoniyatlarini qanday kengayishini baholash uchun qo'shimcha material beradi. Masalan, Semurg' qushi majoziy ma'noda baxt timsoli sanaladi. H.Olimjonning «Semurg'» ertak-dostoni [3], yoki afsonalardagi Humo qushi bunga misoldir. Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari ham qushlar misolida majoziy ma'noda yoritilgan. Bunda yozuvchi har bir obraz misolida qushlarning tabiatdagi holatidan kelib chiqib yondashadi. Masalan: «Yapaloqqush hikoyasi» [4]. Ushbu parchadagi xonliklar o'zaro urushi shaharlarni vayron qilayotgani Boyo'g'li bilan ifodalanib, uning yashash makoni vayrona ekanligidan kelib chiqib, insonlarda shaharlarning vayronalarga aylanayotgani haqida tasavvur uyg'otadi.

Odamlar muloqot qilish uchun tildan foydalanganda, ular buni ma'noni bildiruvchi so'zlar va jumlalarni talaffuz qilish orqali amalga oshiradilar. Ma'noning ikki jihati mavjud: bular so'z yoki ibora bilan bog'liq bo'lgan aniq ma'noni bildiruvchi denotativ ma'no va «so'zni biladigan va ishlatadigan barcha odamlar uchun bir xil bo'lishi shart bo'lmagan ta'sirli yoki hissiy birliklarni» nazarda tutuvchi konnotativ ma'nodir. Muayyan til predmetining konnotatsiyalariga uning denotatsiyalaridan farqli ravishda turli madaniy, ekologik, ijtimoiy, diniy va siyosiy omillar katta ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra, lingvistik elementlarning konnotatsiyalarining har qanday tahlili tilga xos parametrlarni tushunish va tillar o'rtasidagi nolingvistik o'xshashlik hamda farqlarni aniqlash uchun tushuncha beradi. Ornitonimlar – bu turli xil insoniy xususiyatlarni anglatishi mumkin bo'lgan lingvistik elementlardir. Shunday qilib, qushlarning ba'zi jihatlari, masalan, ularning tashqi ko'rinishi va xulq-atvori odamlar tomonidan umumiy bo'lgan taqqoslanadigan xususiyatlar to'plamini tashkil qiladi.

Ornitonimlar inson faoliyatining deyarli barcha sohalari – ma'naviy-ruhiy va kundalik-amaliy parametrlarini og'zaki bayon qilish uchun ishlatiladi. Og'zaki nutqdagi abstrakt kategoriyalarning etnik-madaniy o'ziga xosligini o'rganish insonning ma'naviy dunyosi va atrofdagi voqelikning turli xil hodisalari o'rtasidagi yashirin aloqalarni ochib berishga yordam beradi. *Laylak, chumchuq, qarg'a, qarag'ay, kaklik, bedana* kabi ramziy va keng tarqalgan ornitonimlar barchasi badiiy matn tarkibida o'ziga xos semantik ahamiyat kasb etadi. Shu yo'l bilan ular kundalik nutqda obrazli ma'nolarda faol ishlatiladi.

Ikki tilning ornitonimlari o'rtasidagi leksikografik noaniqlik va ma'no chegaralarning noaniqlik semantik hajm bir-biriga mos kelmasligi bilan ajralib turadi. Nutqning pragmatik ta'siri uni tashkil etuvchi so'zlarning semantikasini milliy-madaniy va metaforik-majoziy jihatdan qayta izohlashning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Assotsiativlik va majoziylik nuqtayi nazaridan qushlarning nomlari ingliz tilida ham, o'zbek lingvokulturasida ham semasiologik jihatdan boy va boshqa lug'at qatlamlariga nisbatan yuqori darajadadir. Ikkala tilning ornitonimik so'z birikmasida metafora ranglari nihoyatda notekis taqsimlangan bo'lsa-da, qush nomlarining semantik maydonida metaforizm va

ramziylik osongina rivojlanadi, mifologik reminissensiyalar (xotiralar) esa ularning semantikasida uzoq saqlanib qoladi.

Shoir Muhammad Yusuf o'zining «Samarqand» deb nomlanga she'rida *lochin* ornitonimiga to'xtalgan, quyidagi misra orqali *lochin* ornitonimi o'tkir va ziyrak xislatga ega bo'lgan o'xshatishni anglatmoqda:

Bag'rimda bo'y etgan bo'z bolam,
Mergan bolam, lochin ko'z bolam [5].

Qushlar hayotda ham, adabiyotda ham hamma joyda uchraydi. Hayotda ular zararkunandalar, zararkunandalarga qarshi kurashuvchilar, vaqt belgilari, musiqa yaratuvchilar va shovqinli uyquni buzuvchilardir. Bugungi kunda san'at va adabiyotda uchrayotgan qushlar, kuzatuvchining ularni ochiq havoda yoki cheklangan makon ichida kuzatishiga qarab, erkinlik yoki qamoqni ko'rsatishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гулханий, Зарбулмасал. Нашрга тайёрловчи Ҳ.Ёқубов. – Тошкент. Маънавият, 2016.
2. Зарифов Ҳ. "Равшан достони", «Гўрўғли» туркуми достонларидан. Э.Жуманбулбул ўғлидан ёзиб олган, 1928..
3. Костина Н.Ю. Названия птиц как специфическая группа слов (на материале русского и английского языков). авторефер. дисс. … канд. филолог. наук. – Пенза, 2004.
4. Олимжон Ҳ, Семурғ, Достон-эртак, Айгул и Бахтияр. [Поэмы] – Ташкент, Узбекистан, 1991.
5. **https://ilmlar.uz/muhammad-yusuf-sara-sherlar-toplami-m-yusuf-sherlari/**

MERONIMIYA HODISASI VA UNING LINGVISTIKADAGI O'RNI

Ergasheva Zilola Saydullayevna
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikdagi atama-meronim va uning til sathi doirasidagi xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Meronim bu til birligining kichik leksik qismi bo'lib, u butunning qismini ifodalaydigan kichik til butunligidir. Meronimiya hodisasining tadqiqi va partonimiya hodisasi bilan aynan bir xil ekanligi asoslangan. Tilshunos olimlarning meronimiya bo'yicha tadqiqotlariga sharhlar berilgan.

Kalit so'zlar: meronim, partonim, xolonim, qism, butun, munosabat, lug'aviy, ma'no, leksikologiya.

Abstract. The article discusses a term that is completely new to linguistic science and its features at the linguistic level. A meronym is a small lexical part of a linguistic unit, which is a part of the whole. It is based on the study of the phenomenon of meronymy and the fact that it is identical to the phenomenon of partonymy. Comments are given on the research of linguists on meronymy.

Key words: meronym, partonym, holonym, part, whole, relationship, patronymic, dictionary meaning, lexicology.

Til bu ijtimoiy hodisa bo‘lib, insonlar o‘rtasida muloqot vositasining asosiy obyekti hisoblanadi va inson taraqqiyoti davomida til, uning shakllanishi, tuzilishi va aloqa vosita sifatida namoyon bo‘lishi – tilshunoslik fanining jamiyat hayotida nazariy bilimlar asosida paydo bo‘ldi, keyinchalik bu qarashlar uning fan sifatida boshqa ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan bog‘landi. Bu progress natijasida tillar taraqqiyoti bir biriga o‘zaro ta’sir etib bir til gramatikasi ikkinchi til gramatikasiga ta’sir etib kelmoqda. Shu o‘rinda o‘zbek tiliga ham Rus va Yevropa tillarining ta’siri keng natijasida tillar o‘zaro qiyoslanish orqali o‘rganiladi. Tilshunoslik chinakam fan sifatida faqat XX asrning boshlarida bir necha omillarga ko‘ra shakllandi.

Demak, til bu o‘ziga xos strukturaviy shakl sistemasiga ega va o‘zining ajralmas birdan ortiq elementlariga ega: Leksika va gramatika; leksika so‘zlarning lug‘aviy ma’nosini o‘rgansa, gramatika so‘zlarning gapdagi strukturaviy qolipini o‘rganadi. Tilshunoslikda hozirgacha qo‘llanib kelayotgan so‘z termini ham leksemani, ham so‘z formasi / glossariyni ifodalaydi deb S.Usmonov “Tilshunoslikka kirish” kitobida aytib o‘tgan. Bu ishda meronimlar va ularning leksik xususiyatlarini tahlil etishda ularning so‘z formulalariga va paradigmatik so‘z hosil qiluvchi formulalarining tahlili diskussiya qilingan. Tilshunoslik fani uchun mutloq yangi bo‘lgan atama – meronim (qadimgi yunoncha miros – “qism” va onomo – “ism”) boshqasining ajralmas qismi bo‘lgan tushunchadir. Meronim boshqa ma’noda partonim deb ham ataladi. (lot. Pars, r. P. – partis – “qism”). Xolonim (qadimgi yunon. Birinchisining tarkibiy qismi sifatida). Meronimiya (partonimiya) atamasi o‘zbek tilshunosligida ham yangi yo‘nalish termini sanalib, ilmiy adabiyotlarda ilk marta system leksikologiya tezislarida uchraydi. O‘zbek tilshunosligida meronimiya atamasi partonimiya nomi ostida XX asrning 90-yillarida Buxoro tilshunoslik maktabi vakillari tomonidan fanga olib kirilgan.

Partonimik lug‘aviy ma’no guruhidagi so‘zlar butunnom va bo‘laknom kabi ikki turga ajatiladi: daraxt – butunnom, ildiz, tana, shox, barg – bo‘laknom.”Odam” partonimik lug‘aviy ma’no guruhida bosh, tana, qo‘l, oyoq kabi 4 bo‘lak o‘zaro ma’lum tartibda va qonun-qoida asosida birlashib, bir sistema - “odam” nisbiy butunligini tashkil etgan. Partonimik lug‘aviy ma’no guruhlaridagi so‘zlarni qiyosiy o‘rganish lug‘aviy birliklarning ma’nosini yanada chuqurroq ochishga yordam beradi.

Ma’lumki, leksemaning ma’nosida borliqdagi voqea-hodisalarning inson ongidagi in’ikosi ifodalanadi, demak, ma’nolar tizimidagi butun-bo‘lak munosabatlarini tilda ifodalash zarurati yotadi.Meronimiya va xolonimiya semantik munosabatlar sifatida bir-biriga qarama-qarshidir. Masalan, dvigatel, g‘ildirak va kapot atamalari avtomobil atamasiga nisbatan meronimdir. O‘z navbatida avtomobil atamasi dvigatel, g‘ildirak va kapot atamalariga nisbatan xolonimdir. Qo‘l, oyoq, bo‘yin, bosh atamalari inson atamasiga nisbatan meronim bo‘lsa, inson qo‘l, oyoq, bo‘yin, bosh atamalariga nisbatan xolinimlardir.

Adabiyotlar sharhi va tadqiqot metodologiyasi. Tilshunoslikda meronimiya termini dastlab rus olimi M.V.Nikitin tomonidan bo‘lak ma’nosini ifodalash uchun fanga kiritilgan. O‘zbek tilshunosligida meronimiya termini tilshunos olimlar B.Qilichev va A.Sobirovlar tomonidan birinchilardan bo‘lib qo‘llaganlar ushbu hodisaga H.Ne’matov, R.Rasulovlar ham munosabat bildirishgan. Professor A.Sobirov meronimiya hodisasini quyidagicha tushuntiradi: “Uy” butunnomi poydevor, devor, pol, tom, eshik, deraza bo‘laknomlaridan iborat. Ular ichidan “tom”ni ajratib olib, unga aloqador so‘zlar asosida maydoncha hosil qiladigan bo‘lsak, to‘sin, shifer, shift, tarnov, cherdakka nisbatan “tom” butun nom bo‘lib qoladi.

Tilshunosligimizda meronimiya hodisasi partonimiya nomi ostida o‘rganilib kelinmoqda. Semantika yo‘nalishi bo‘yicha taniqli olim M.V.Nikitinning so‘zlariga ko‘ra mronimik munosabatlar lug‘atlarni semantik tartiblashda muhim omil, shuning uchun u ajralmas iyerarxik tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi. Olimning meronimiya hodisasiga bergan tavsifi ushbu fikrga misol bo‘la oladi. “Shubhasiz, butun-bo‘lak munosabatlari butun dunyoni pastdan yuqoriga, mikrodan makrokosmosga, elementlar zarralardan galaktikalarga qadar qamrab oladi. Ular har xil daraja murakkabligidagi narsalarni qismlar-butun, elementlar tizimning turli bosqichli iyerarxiyaga keltirgan holda o‘z ichiga oladi.Bu munosabatlar umumiy va global hisoblanadi.” Meronimiya hodisasini tadqiq qilib shunday xulosaga kelish mumkinki, butun borliq: narsa, predmet, buyum butunlik ekan, albatta, tarkibiy qismlarga, bo‘laklarga bo‘linadi. Tilshunos olim B.Qilichev ta’kidlaganidek, hatto hozirgi fan uchun bo‘linmas bo‘lgan elektron ham cheksiz bo‘linuvchi deb faraz qilinadi. Tarkibiy murakkablik, bo‘laklarga bo‘linuvchanlik borliq ashyolarining umumiy qurilish qonuniyati ekan, bu qonuniyat ong orqali lisonda o‘z aksini topishi shart va zarur. Yuqoridagi fikrdan kelib chiqib shunday xulosaga kelish mumkinki, har qanday butunlik o‘z bo‘laklariga ega, bo‘laklar esa kichik bo‘lakchalarga ega.

Butun-bo‘lak (meronimiya-partonimiya) munosabatlari tilda o‘z aksini topgan, ammo tilshunoslikda nazariy jihatdan farqlanmagan. Shunga qaramay, amaliyotda, lug‘atchilikda, so‘z ma’nolarini izohlashda tilshunoslar bu masalaga ko‘p murojaat qilganlar. Xususan, professor B Mengliyev partonimik (meronimik) munosabatga quyidagicha ta’rif bergan: partonimik munosabat – butunning qismga, qismning butunga aloqadorlik munosabati.

Meronimiya (Partonimiya) til birliklari o‘rtasidagi butun va qism munosabatidir. Butun qismlarning birligidan tashkil topadi. Qism esa butunning tarkibiy qismi, tashkil etuvchi elementidir. Obyektiv olam yaxlit butunlik (sistema) tabiatiga ega bo‘lib, u bosqichma-bosqich qismlarga ajraladi. Butun olam galaktikadan to elementlar zarrachalarga butun-qism munosabatida bo‘ladi.

Olamning aksi bo‘lgan tilda ham butun-qism munosabatlari muhim ahamiyat kasb etadi, tilning qismlardan iborat pog‘onali tuzilishga ega butunlik ekanligini ko‘rsatadi: matn – gap, gap- so‘z birikmasi, so‘z birikmasi – so‘z, so‘z – morfema, morfema – fonema. Butun – qism munosabatlari giponimik munosabat bilan birga

leksik sistemaning yaxlitligini ta’minlaydi. Obyektiv olamdagi har bir narsa qismlardan iboratligi ma’lum. Shundan kelib chiqib, partonimiya munosabati ularning nomi bo‘lgan ot leksemalarda ko‘plab uchraydi.Masalan, odam, bosh, bo‘yin, tana, oyoq, qo‘l leksemalari meronimik munosabat hosil qiladi. Odam butunlik, bosh, bo‘yin, tana, oyoq, qo‘l – qism. Giponimiya va partonimiya obyektiv olamning asosiy xususiyatlarini aks ettiruvchi kategoriyalar bo‘lsa-da, tilde meronimik munosabatga nisbatan giponimik munosabat yaqqolroq ko‘rinadi. Chunonchi, til egasiga choynakning qorni, burni, qopqoq va ushlagichdan iboratligi (partonimiya: butun – choynak, qism – qorin, burun, qopqoq, ushlagich) emas, uning oshxona buyumi ekanligi (giponimiya: giperonim – oshxona buyumlari, giponim - choynak) muhimdir. Leksemani ta’riflash va tasniflash ham giponimiya asosida bajariladi. Choynak – choy tayyorlash maqsadida suvni qaynatish va damlash uchun ishlatiladigan oshxona buyumi. U “oshxona buyumlari” leksik – semantik guruhining elementidir. Lekin ayrim leksemalarning shakllanishida meronimik munosabat ham muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. “Bunga vaqt o‘lchovi otlari leksik-semantik guruhini misol qilib ko‘rsatish mumkin: sekund, minut, soat, hafta, oy, fasl, yil, asr. Mazkur guruh meronimik munosabatning darajalanishi asosida voqe bo‘lgan. Ushbu guruhni kichik mikrosistema deb olsak, u yana to‘qqizta kichikroq mirosistemalardan iborat: “sekund-minut”, “minut-soat”, “soat-sutka”, “sutka-hafta”, “hafta-oy”, “oy-fasl”, “oy-yil”, “fasl-yil”, “yil-asr”. Ushbu to‘qqiz mikrosistema meronimik munosabat asosida shakllangan. Masalan, “sekund-minut” mikrosistemasida sekund qism, minut butun, “minut-soat mikrosistemasida minut qism, soat butun. Minut leksemasiga shunday ta’rif berish mumkin:” sekunddan iborat vaqt o‘lchovi. Soat – 60 minutdan iborat vaqt o‘lchovi. Vaqt o‘lchovi otlarida meronimik munosabat, ya’ni tashkil etuvchilik leksemaning semantik strukturasida ham yaqqol ko‘rinadi.

Boshqacha aytganda, leksema ma’nosining strukturasi meronimik munosabat asosida shakllangan. Ya’ni asr yildan (asr – butun, yil - qism), yil fasldan (yil – butun, fasl - qism), fasl oydan (fasl – butun, oy - qism) tashkil topgan va shu asnoda shakllangan. Bu kabi misollarni fauna dunyosida ham kuzatishimiz mumkin. Ushbu guruhni kichik mikrosistema deb olsak, u yana yettita kichikroq mirosistemalardan iborat: “hujayra-to‘qima”, “to‘qima-organ”, “organ-organizm”, “organizm-tur”, “tur-turkum”, “turkum-oila”, “oila-sinf”. Ushbu yeti mikrosistema meronimik munosabat asosida shakllangan. Masalan, “hujayra-to‘qima” mikrosistemasida hujayra qism, to‘qima butun, “to‘qima-organ” mikrosistemasida to‘qima qism, organ butun. “To‘qima” leksemasiga shunday ta’rif berish mumkin: kelib chiqishi, tuzilishi va fuksiyasiga ko‘ra o‘xshash hujayralar sitemasi. Organ – bu organizmning boshqa fuksional birliklaridan ajralib turadigan organizm ichidagi funksional birlik. Ushbu tahlillar meronimiya hodisasini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qilichev E. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. –Buxoro, 1999,

77- bet.
2. Sobirov A. O‘zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. – Toshkent: Ma’naviyat , 2004. – 154 bet.
3. Qilichev B. O‘zbek tilida partonimiya. Filol.fan.nomz…diss. aftoreferati. –Toshkent, 1997.
4. Qilichev B. Leksikada so‘zlararo butun-bo‘lak munosabati. Monografiya. –Toshkent. 2019. – 22 bet.
5. Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek tili. Darslik. –Toshkent. Tafakkur bo‘stoni. 2018. – 56 bet

MIKROTOPONIMLARNING MORFOLOGIK TAHLILI XUSUSIDA

Ergashova A.
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Morfologik tahlil deyilganda, so‘zni turkumlarga ajratish, har bir turkumga xos grammatik kategoriyalarni, so‘z formalarini aniqlash ko‘zda tutiladi. Har bir so‘z turkumiga aloqador belgilarni| sanash tartnbi tasodifiy bo‘lmasligi kerak. Har bir turkumiing xilma-xish belgilari nchida, ularnnng butun so‘zga, uiing har qaiday formasiga ham taalluqli bo‘l- gan doimiy belgilari hammadan avval ajratilishi zarurligi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: toponimlar, topomorfologik tahlil, so‘z turkumlari kishilik jamiyati, tarixiy taraqqiyot.

Abstract. Morphological analysis implies the classification of words, the definition of grammatical categories, forms of words characteristic of each group. The number of characters associated with each word group must not be random. It said that the signs of diversity of each category should be highlighted first from among the constants related to the whole word and to any form.

Key words: toponymy, topomorphological analysis, slovosochetania, lichnostnoe obshchestvo, historical progress.

Toponimlar kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan birliklar bo‘lib, muayyan hududni nomlash bilan bir qatorda tarixiy-madaniy muhit, xalq e’tiqodi, ma’anaviyati, urf-odat, an’analari, qiziqishlari haqida axborot beriladi. Toponimlar tarixiy voqelik haqida guvohlik beruvchi harakatdagi birliklardir. Toponimlarni qiyosiy-tarixiy usulda o‘rganish tilning tabiati, talabi bilan bog‘liq holda, til sohibining qiziqishlari, dunyoqarashi, qadriyatlari haqida ma’lumot beradi. Shuningdek, ayrim toponimlarning yuzaga kelishida xalq e’tiqodi, dunyoqarashini, madaniy munosabatlarini ifodalovchi birliklar asos vazifasini o‘tagan.

Holbuki, ajdodlarimiz o‘zlari yashaydigan mahalla, shahar va qishloqlar, xiyobonlarga nom tanlashga juda katta e’tibor bergan. Misol uchun, Toshkentning o‘n ikki darvozasiga berilgan chuqur ma’noli, go‘zal nomlarni olaylik. Samarkand, Beshyogoch, Ko‘kcha, Chig‘atoy, Sagbon, Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Kamopon, Kuymas, Ko‘qon, Qashqar darvoza degan nomlar avvalambor o‘zining

aniq tarixiy-jug‘rofiy ma’nosi bilan ajralib turadi. Qadimiy nomlarda ota-bobolarimizning hayot va tafakkur tarzi yaqqol o‘z aksini topgan. Masalan, Toshkentning Eski shahar qismidagi Pichoqchilik, Charxchilik, Ko‘nchilik, Degrezlik, Taqas, Egarchi, O‘qchi, Zargarlik, Parchabof singari mahalla nomlari bu yerda hunarmandchilik naqadar rivojlanganidan, xalqimizning azaldn o‘troq hayot kechirib, yuksak madaniy turmush darajasiga ega bo‘lganidan dalolat beradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, keyingi yillarda poytaxtimizda milliy tariximizga begona bo‘lgan, yuqorida zikr etilgan yasama, siyosiy nomlar o‘rniga Mirobod, Rakat, Mingo‘rik, Darxonariq, Shayxontohur, Yakkasaroy, Zarqaynar, Uchtepa kabi asl nomlarning tiklanganini, eng muhimi, bunday ishlar mamlakagimizning barcha mintaqa va hududlari miqyosida amalga oshirilayotganini ta’kidlash joiz.

Morfologik tahlil deyilganda, so‘zni turkumlarga ajratish, har bir turkumga xos grammatik kategoriyalarni, so‘z formalarini aniqlash ko‘zda tutiladi. So‘z turkumlarini tahlil qilish tartibini anglash juda muhimdir, Har bir so‘z turkumiga aloqador belgilarni sanash tartibi tasodifiy bo‘lmasligi kerak. Har bir turkumiing xilma-xish belgilari ichida, ularning butun so‘zga, uning har qanday formasiga ham taalluqli bo‘lgan doimiy belgilari hammadan avval ajratilishi zarur. Masalan, ot turkumiga xos atoqln yoki turdosh, konkret yoki fikriy bo‘lish; kim?, nima? so‘rog‘ini olish faqat otgagina tegishli bo‘lib, bular uning doimiy belgisi hisoblanadi va ot turkuminnng umumiy xarakteristikasini tashkil etadi.

Mustaqil so‘zlar tahlili. Ot turkumi tahlili tartibi:

1. Ma’nosiga ko‘ra turi (atoqli, turdosh, konkret, abstrakt, yakka, jamlovchi ot ekanligi). 2. Kelishigi. Kelishikning ma’nosi. 3. Grammatik son. Ko‘plik qaysi usul bilan hosnl qnlingan. 4. Egalik qo‘shimchasini olgan-olmaganligi. 5. Funksional formasi. 6. Gapdagi vazifasn.

Ot turkumi tahlili namunasi:

Tongda meni uyg‘oting. Mehribonim, kamtarin, onajon. (S. Yesenin.)

Kontekstda ikkita ot bor: tong, onajon. Bir so‘z konversiya yo‘li bilan otga ko‘chgan: mehribonim. onajon — ot, turdosh ot, konkret ot, yakka ot, bosh kelnshikda, birlik sonda, egalik affiksini olmagan. Erkalash ma’posidagi nokategorial forma yasovchisi (-jon)ni olgan. Koitekstda gapning boshqa bo‘laklari bilan grammatik aloqaga kirishmagan, undalma, fikr qaratilgan shaxsni ko‘rsatayotir (sen, kamtarin, onajon, uyg‘ot.) tongda — ot, turdosh ot, konkret, ot, birlik sonda, egalik olmagan, o‘rin kelishigida. Kelishik payt ma’nosini bildiradi. Qachon? so‘rogiga javob bo‘ladi. Gapda payt holi vazifasida kelgan (qachon uyg‘ot?—Tongda uyg‘ot.)

— Assalomu alaykum, Karimaxon,— qiz choynakni uzatdi. Kampir yonidan xaltacha chiqarib, choynakka ikki chimdim quruq choy tashladi. Kontekstda yettita ot bor, bir so‘z (choynak) ikkn marta takrorlangan: Karimaxon, qiz, choynak, kampir, yon, xaltacha, choy — ot, turdosh ot, konkret ot, yakka ot, birlik sonda, egalik olmagan, bosh kelishikda. Modal formada, -xon erkalash ma’nosidagi forma yasovchp affiks- ni, qabul qilgan. Gapda undalma bo‘lib kelgan. Vokativ gap (assalomu alaykum bilan birga); yon — ot, turdosh, ot,

konkret ot, yakka ot, birlikda, uchinchi shaxs egalik affiksini olgan. Chiqish kelnshigida. Gapda qayeridan? so‘rogiga javob bo‘lib, o‘rnn hol vazifasida (qayeridan chiqarib?—yonidan chiqarib.).

Sifat turkumi tahlili namunasi

Quvnoq qizlar kashta tikmoqda... Chevar qizlar buncha ko‘p! Hammasi yosh, quvnoq, shohi gazlamalarga o‘zlari tasvirini tushirayotgan nihol kabi nozik... Kadrlar bo‘limi xodimlari Saodatni baland bo‘yli, xushmuomala ayol bilan taniigtirdi. (Y. Muqimov.) Bu kontekstda sifatga tegishli beshta so‘z bor. Ulardan biri (chevar) bir marta ishlatilgan; chevar, yosh, quvnoq, nozik, xushmuomala; quvnoqlar — sifat, asliy sifat. Sifat yasovchi. affikslari bo‘lmagan sifatlar asliy sifat sanaladi. Shaxsning xususiyatini bnldnradi, oddiy darajada, daraja va modal forma ko‘rsatuvchi vositalarni qabul qilmagan. Gapda otlashib (ot o‘rnida kslib) -lar ko‘plik qo‘shimchasini olgai. Gapda ega vazifasida kelgan. K i m l a r? so‘rog‘iga javob bo‘ladi (k i m l a r tikmoqda?— qizlar tikmoqda). Keyingi gapda quvnoq aniqlovchi vazifasida kslgan (q a nd a y qizlar?— quvnoq qizlar); quvnoq — sifat, iisbiy sifat. Sifat yasovchi affikslari bo‘lgan sifatlar nisbiy sifat hisoblanadi. Shaxsning xususiyatini anglatadi. Oddiy darajada.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Begmatov E.A. Joy nomlar – ma’naviyat koz'gusi.- Tashkent: Ma’naviyat, 1998.

2. Enazarov T. Toponimlarni etimiligik tadqiq qilishning ilmiy-nazariy va uslubiy asoslari. –T., 2001.

3.Karaev S. Geografik nomlar ma’nosi. - T., - 1978

4. Nasir Ulug`ov. O`zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi.Monografiya.

5. Sanayev I . Ziyovuddin tarixi. –T.1996.

6. Hakimov Q.M., Aqchayev F.Sh. Toponimika fanining tadqiqot metodlari.

7. O`zbekiston Geografiya jamiyati Axboroti, 42-jild, 2013.

ONOMASIOLOGIYA NOMLANISH JARAYONINI O‘RGANUVCHI FAN

Valiyeva Muxayyo Salimovna,
Qo‘qon DPI o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ikkilamchi nominatsiya lingvistik tadqiqot obyekti sifatida tadqiq qilinganda, nominatsiya jarayoni ham o‘rganiladi. Ushbu maqolada Ismlarni, ularning nomlanish tabiatini, vositalarini, ifodalanishini o‘rganuvchi fan onomasiologiya haqida, nomlash jarayoni subyekt, obyekt va til vositalari orqali yuzaga chiqishi, uning uch nuqtada bajarilishi haqida so‘z yuritilgan. Tadqiqot natijalari maqolaning xulosa qismida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: onomastika, Ikkilamchi nominatsiya, obyekt, subyekt, til vositalari, atalish, nomlanish, til vositalari.

Annotation. When secondary nominalization was studied as an object of linguistic research, the process of nominalization was also studied. This article

talks about onomasiology, a science that studies names, their naming nature, means, and expression, and the process of naming occurs through subject, object, and language tools, and it is done in three points. The results of the research are shown in the concluding part of the article.

Key words: onomastics, Secondary nomination, object, subject, language tools, naming,language tools.

Ismlarni, ularning nomlanish tabiatini, vositalarini, ifodalanishini o‘rganuvchi fan onomasiologiya deyiladi. Bu fanning maqsadi nominatsiya nazariyasini yaratish, nomlashning vosita va uslublarini o‘rganishdir. “Nominatsiya so‘zga predmetning aniqlangan belgilarini aks ettiruvchi tushunchani mustahkam bog‘lash”, boshqacha aytganda, “nominatsiya til belgilari orqali tushuncha – aniqlangan belgilarni aks ettiruvchi signifikatni ifodalashdir” [4].

Onomastika – yunoncha onomastike – so‘zidan olingan bo‘lib, “nom qo‘yish san’ati” degan ma’noni bildiradi [5]. O‘zbek onomastikasi (nomshunosligi) o‘tgan asrning ikkinchisi yarmidan boshlab tilshunoslikning eng rivojlangan sohalaridan biriga aylandi. O‘zbek nomshunosligi bo‘yicha olib borilgan keng ko‘lamli tadqiqotlar o‘zbek onomastikasi sohasini bir qator monografiyalar, risolalar, izohli lug‘atlar, ko‘p sonli ilmiy maqolalar nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari bilan boyitdi [11].

Nominatsiyada subyekt obyektning bir qator yoki bitta belgisini nomlash uchun asos qilib tanlaydi. Har bir predmet ko‘plab belgilarga ega. Nomlashda bu belgilarning hammasini ifodalash mumkin emas, shuning uchun xarakterli bo‘lgan bittasi tanlanadi. U yoki bu predmetning nomlanishiga asos bo‘lgan belgini A.A.Potebnya “ichki shakl” deb nomlaydi [10].


Ko‘rinadiki, lingvistikada nominatsiya nomlash jarayonini bildirib, bu jarayonda til elementlari o‘zi nomlayotgan obyektga mos bo‘ladi. Nomlanayotgan obyektning biror belgisi nomlanish uchun asos vazifasini bajaradi. Nominatsiya jarayonini uch nuqta bilan belgilashimiz mumkin, nomlash jarayoni shu uch nuqta orqali amalga oshiriladi:

1.Obyekt (nomlanayotgan).

2.Subyekt (nomlayotgan).

3.Til vositalari (tanlab olinadigan).

Demak, nomlash jarayoni subyekt, obyekt va til vositalari orqali yuzaga chiqadi. Buni quyidagicha tasvirlash mumkin:



Nomlash jarayonida tanlangan belgi nomning asosini tashkil qilib, uning ichki shaklini shakllantiradi. Shu tariqa aynan bir obyekt qanday belgini nomlash uchun asos qilib olinganiga qarab turlicha (N1, N2, N3, N4, N...) nomlanishi

mumkin. “Til orqali reallashadigan tafakkur tarzining o‘ziga xosligi borliqni ko‘rishning, idrok etishning ham ma’lum ma’nodagi o‘ziga xosligidir. Har bir xalq o‘zicha ko‘radi, eshitadi, zavqlanadi. Misol uchun chittak degan qush nomini olaylik. Bu qushni nomlashda o‘zbek uning harakatini asos qilib olgan. Bu qush tez harakat qiladi (“chit-chit”), o‘zbek shu harakatni dastlab ko‘rgan bo‘lsa, rus kishisi bu qushning rangini dastlab ko‘rgan. U ana shu rangini nomga asos qilib olib, ayni qushni синица deb nomlagan. Yoki o‘zbek tovuqning bolasi chiqaradigan tovushni “jip-jip” tarzida eshitiladi, shuning uchun uni jo‘ja deb ataydi. Rus esa “цып-цып” deb eshitgani uchun uni цыплёнок so‘zi bilan ataydi. Bu juda oddiy misollar, aslida har bir xalqning dunyoni o‘zicha ko‘rishi va eshitishi, idrok etishi behad murakkab tarzda kechadi” [13].

Ko‘rinadiki, nominatsiya qoidalari nafaqat tayyor til vositalarida o‘z ifodasini topmay, balki har bir nutq aktida ham namoyon bo‘ladi. Bunday nutq aktlarida ham obyektning nomlanishi ma’lum belgining tanlab asos qilib olinishi orqali yuzaga chiqadi.

V.Skalichka [12] so‘z haqida fikr bildirganida unga qo‘shimcha tarzda atalish, nomlash (наименование) terminini ham iste’molga kiritadi. Olimning fikriga ko‘ra, ba’zi tushunchalar ikki so‘z vositasida beriladi. Bunday vaziyat bir tushunchani ifodalash bo‘lgan so‘zning lingvistik maqomini mavhumlashtirib qo‘yadi va shu bois “наименование” terminidan foydalanish maqsadga muvofiq deb yozadi.

Zamonaviy nominatsiya nazariyasida nominatsiyaning turli tiplari va usullari o‘rganilgan. Nomlash jarayoni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita bajariladi. Birinchi usul tilshunoslikda faol ishlatiladi, unda motivatsiyalangan belgi o‘z ma’nosida ishlatiladi. Bunday belgining mazmuni motivatsiyalangan so‘zning leksik ma’nosiga mos keladi. Ikkinchi usul bilvosita bo‘lib, bu holatda motivatsiyalangan so‘z ko‘chma ma’noda ishlatiladi.

Nominatsiya tiplari orqali nomlangan belgining voqelik xarakterini ko‘rsatadi, shu sababli nominatsiya birlamchi va ikkilamchi bo‘ladi. Birlamchi nominatsiya boshlang‘ich bo‘lib, zamonaviy lingvistikada kam mahsul hisoblanadi. Ikkilamchi nominatsiya sermahsul hisoblanadi, chunki u tayyor til vositalarining ma’nosini o‘zgartiradi, o‘zining ikkinchi funksiyasini bajaradi, bunday nomlar motivatsiyalangan bo‘ladi.

Ikkilamchi leksik nominatsiyani V.G.Gak va V.N.Teliya tilda mavjud bo‘lgan nominativ birliklarini yangi funksiyada namoyon bo‘lishi deb ataydi [7].

Ularning fikricha, tilda shunday ikkilamchi nominatsiyalar mustahkamlanadiki, ular ma’lum til sistemasida qonuniy deb hisoblangan usul bilan yasalgan va tildagi bo‘sh o‘rinni to‘ldirish uchun xizmat qilganlaridir.

V.V.Vinogradov shunday ta’kidlagan edi: “... yangi tushuncha yoki predmetga oid yangi tushunchani shakllantirish va yaratish mavjud lingvistik materiallar asosida amalga oshiriladi. Ushbu tushuncha so‘z ma’nosida yaxlitlanib, umuman, ma’lum bir tilning semantik tuzilishining elementiga aylanadi” [8]. V.V.Vinogradovning fikriga ko‘ra, obyektni lingvistik vosita orqali belgilash,

nomlash hayotning turli vaziyatlarida so‘zning ma’nosini yaxlitlash bilan bajariladi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni o‘rganish jarayonida quyidagi xulosaga keldik:

1. Tushunchalarning yashash shakli, uning ifodasi so‘z bo‘ladi. Nominativ funksiyani so‘z bajaradi. Nominativ funksiyani bajarishda inson omili muhim rol o‘ynaydi. Chunki inson atrof-muhitni o‘rganish jarayonida predmet va hodisalarga duch keladi, ularni qiyoslaydi, farqli tomonlarini aniqlaydi va shunga mos ularni nomlaydi, yangi tushunchalarni hosil qiladi, ular orasidagi munosabatlarni tahlil qiladi.

2. Nominatsiya jarayonini uch nuqtaga tayanadi, nomlash jarayoni shu uch nuqta orqali amalga oshiriladi: 1) obyekt (nomlanayotgan); 2) subyekt (nomlayotgan); 3) til vositalari (tanlab olinadigan).

Demak, nomlash jarayoni subyekt, obyekt va til vositalari orqali yuzaga chiqadi.

3. Nominatsiya tiplari orqali nomlangan belgining voqelik xarakterini ko‘rsatadi, shu sababli nominatsiya birlamchi va ikkilamchi bo‘ladi. Birlamchi nominatsiya boshlang‘ich bo‘lib, zamonaviy lingvistikada kam mahsul hisoblanadi. Ikkilamchi nominatsiya sermahsul hisoblanadi, chunki u tayyor til vositalarining ma’nosini o‘zgartiradi, o‘zining ikkinchi funksiyasini bajaradi, bunday nomlar motivatsiyalangan bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуразақов М.А. Семантические типы субъектов. – Тошкент: 1991. 67-с.

2. Бегматов Э. Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган: 2006. 60-б.

3.Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич (Х1Х аср охиридан – 2008 йилгача эълон қилинган ишлар олинган). – Наманган: 2008. 168-б.

4.Валиева, М. С. Лингвокультурология как особая научная дисциплина. Экономика и социум, (5-1 (96)).2022. 346-348-с.

5.Валиева, Мухайё Салимовна. "Пословица как паремиалогическая единица." Нововведения Современно- го Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения 1.6 (2023): 50-53-б.

6.Виноградов В.В. Основные типы лексических значений слова// Вопросы языкознания. –М.:1953.5-с.

7.Колшанский Г.В. Соотношение субъективных и объективных факторов языка. –М.:Нука, 1975.

8.Маҳмудов Н. М. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. 19-20- б.

9.Потебня А.А. Языковая номинация. – М.: 1977. 102-с.

10.Скаличка В. К вопросу о типологии// Вопросы языкознания. – М.: 1966. №4 10-с.

11.Телия В.Н. Вторичная номинация и его виды. – М.: 1977. 27-с.

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA MILLIY MADANIYATNING AKS ETISHI

Abdujalilova Feruza Shodiyarovna
Jizzah davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilning frazeologik birikmalari milliylik, madaniyat, mentalitet tushunchalari til bilan uzviy bog‘liqligi va ular tilda turli janrlar va til birliklari tahlilga tortilgan.

Annotation: In this article, the phraseological combinations of the language, the concepts of nationality, culture, mentality are inextricably linked with the language, and they are analyzed in different genres and language units.

Kalit so‘zlar: Madaniyat,til, xalq, mentalitet, mif, urf-odatlar, lingvist, frazeologiya, jamiyat, obraz, davr.

Key words: Culture, language, people, mentality, myth, traditions, linguist, phraseology, society, image, era.

Tilning frazeologik fondi, xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma’lumotlar manbayi sanaladi. Frazeologizmlarda muayyan xalqlarning miflari, udumlari, rivoyatlari, taomillari, urf-odatlari, ma’naviyati, axloqi va hokozolar mujassamlashgan bo‘ladi.

Frazeologizm – turg‘un birikmalarning obrazli, ko‘chma ma’noga ega turi bo‘lib, til egasining dunyoni, hodisalarni o‘ziga xos ko‘rinishini namoyon etadi. Frazeologizmalar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o‘z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi[84].

Hozirgi kunga kelib zamonaviy lingvistikada tilshunoslikning milliy-madaniy xususiyatlari borgan sari keng o‘rganilib, dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Chunki bu soha ham lingvistik, ham ijtimoiy qiymatga ega bo‘lganligi sababli, globallashuv jarayonida tillar va madaniyatlararo munosabatni o‘rganishga bo‘lgan talabning ortishi tabiiy holdir. FBlarni lingvomadaniy nuqtayi nazardan tadqiq etish o‘tgan asrning oxirgi yillaridan boshlab tilshunoslikda keng ommalashdi. Tadqiqotchilarning asosiy maqsadi esa turli tillarda uchraydigan Frazeologik birliklarning milliy-madaniy o‘ziga xosliklarini ko‘rsatish edi. Bunda frazeologik birliklar o‘z milliy-ma’naviy qadriyatlar tizimiga ega bo‘lgan turli jamiyatlarning lingvomadaniy xususiyatlarini ochib beruvchi fenomen sifatida olinib, ularda ma’lum bir jamiyat ijtimoiy hayotida uchraydigan, milliy-madaniy xarakterini aks ettiradigan barcha xususiyatlarni uchratish mumkin. Til inson ichki dunyosini, dunyoqarashini ifodalashda yordam beradigan yagona vositadir. Xuddi shuningdek, ma’lum bir millatning qadriyatlari, madaniyati ham o‘sha millat dunyoqarashi mahsulidir va insonlardagi kabi butun bir millatning dunyoqarashini, xarakterini aks ettirishda bizga tilimiz hamda undagi birliklar xizmat qiladi.

U yoki bu tilning frazeologik birliklari insoniy munosabatlarning ko‘z ilg‘amas rang-barangligini aks ettiradi. Bu yerda ham baxt, sevgi, ajablanish, istehzo, nafrat, qiziqish, havotir; bu yerda insonning to‘g‘ri so‘zligi, iroda kuchi, halollik, ollyjanoblik, aql, chaqqonlik, harakatchanlik, qaysarlik, ham ahmoqlik, sergaplik, xasislik, badjahllik - ya’ni insonning barcha salbiy va ijobiy xususiyatlari mavjud; bu yerda o‘xshashlik va farq, boshlanish va tugash (ibtido va intiho), ko‘plik va ozlik, birlik - kelishmovchilik va kurash; tug‘ilish, qarindoshlik, yosh, o‘lim; baholash, muvaffaqiyat — muvaffaqiyatsizlik, haqiqat va yolg‘on, tartib va tartibsizlik, farovonlik va kambag‘allik, xatolar va jazo va shunga o‘xshash boshqa juda ko‘p tushunchalaming tavsif va tasvirilari mavjud[85]. Ko‘rib turibmizki, oldimizda olamning yaxlit frazeologik manzarasi ochiladi.

Tilning frazeologik fondi xalq madaniyati va mentalitetining qimmatli ma’lumotlar manbayi sanalishi hammaga ma’lum hodisadir. Frazeologizmlarda muayyan xalqning miflari, udumlari, rivoyatlari, taomillari, urf-odatlari, ma’naviyati, axloqi va h.k. haqidagi tasavvurlari mujassamlashgan bo‘ladi. Masalan, **ko‘rpasiga qarab oyoq uzatmoq** «imkoniyatini hisobga olib ish tutmoq», **tanobini tortmoq** «faoliyat doirasini, imkoniyatini cheklab qo‘ymoq», “**to‘ydan ilgari nog‘ora qoqmoq”-** “ro‘yobga chiqishi aniq bo‘lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtidan oldin gapirmoq”, “**to‘nini teskari kiyib olmoq”-** “o‘chakishgan holda qaysarlik qilmoq”, **“xamir uchidan patir”-** “katta ko‘p narsadan boshlang‘ich va kichik bir qism”, “**xirmon ko‘tarmoq**”- “ekin-tekinni yig‘ib, hosil me’yorini hisob-kitob qilmoq”, “**Xo‘ja ko‘rsinga**” – “shunchaki nomigagina”, **“Xizrni yo‘qlasam bo‘lar ekan”- “**kimnidir ko‘rish istagi qo‘qqisdan ro‘yobga chiqqanda aytiladigan ibora”. Biron tilning o‘zigagina xos bo‘lgan hisob so‘zlari qolipining frazeologizmlarga ko‘chganini ko‘rish mumkin. Masalan, «juda qisqa, juda oz vaqt davom etadigan” ma’nosidagi bir tutam *(Bir tutam qish kuni Gulnor uchun bitmas-tugamas uzoq ko‘rindi),* “qittak, ozgina” ma’nosidagi bir chimdim *(Hazil-huzul, bir chimdim suhbatdan so‘ng Mirhaydar va O‘ktam paxta dalasiga yo‘l oldilar),* “jindak, qittak, juda oz” ma’nosidagi bir shingil *(Qani, shunaqa bemaza hazildan bir shingil ashula yaxshi),* “juda yosh, deyarli go‘dak” ma’nosidagi bir qarich (Bir qarichligimdan yetim qolib, amakining xizmatida o‘tib ketganman) singari frazeologizmlar shular jumlasidandir.

O‘zbek kundalik turmushida **non** muhim ozuqa hisoblanadi. Xalqimiz nonni azaldan hurmat qiladi, hamma narsadan afzal, aziz va muqaddas biladi. Ota-bobolardan qolib kelayotgan udum, an’anaga binoan, hatto nonni teskari tishlamaydilar, nonning ustiga boshqa narsalarni qo‘ymaydilar, nonni ustidan hatlab o‘tmaydilar, agar non qo‘ldan yerga tushib ketsa, darhol uni olib, uch marta o‘pib, peshanalariga suradilar, non ushoqni dasturxon ustida ko‘rsalar barmoqni ho‘llab, ushoq ustiga bosib, yeb qo‘yadilar. Nonga hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo‘lish bolalarga yoshlikdan o‘rgatiladi, ularga nonning ushog‘ini

yerdan yig‘ib olish, uni e’zozlash va oyoq osti qilmaslik zarurligi uqtiriladi. Biron o‘zbek yo‘lga chiqsa, albatta, o‘zi bilan birga non oladi. Shunga ko‘ra, tarkibida non komponenti ishtirok etgan **non yemoq**, **noni butun**, **noni yarimta boldi**,**non ursin** singari frazeologizmlarning asosida non arxetipi hayot, tirikchilik, rizq-ro‘z, to‘kin-sochinlik ramzi sifatida keladi. Non arxetipi, binobarin, nonni peshana teri bilan topilishi, uni halollab yeyilishi Muqaddas kitoblardan boshlab, o‘zbek xalq dostonlarida, ertaklarida, rivoyatlarida va h.k.da uqtirilgan.

Hayot – o‘lim aksiologik juftligida quyidagi frazemalar dunyoga kelmoq, tavallud topmoq, ko‘z yorimoq frazemalari o‘lim leksemasi bilan; Olloh o‘z panohiga olmoq, narigi dunyoga rixlat qilmoq, bandalikni bajo keltirmoq, dunyodan ko‘z yummoq, ajali yetmoq, jon bermoq, joni chiqmoq, er tishlamoq, yostig‘i qurimoq frazemalar esa hayot leksemasi bilan antisemik munosabat hosil qiladi. Hayot va o‘lim leksemalari mavhum ot bo‘lib, ular o‘zaro antonimik munosabatda. Ular bilan antisemik munosabat hosil qilayotgan frazemalarning esa turkumi mavjud emas. Zero, ular gap shaklidagi frazemalardir. O‘zbek xalqida o‘lim, tug‘ish so‘zlari ayrim lisoniy hamjamiyatlarda madiniy ta’qiqlarga aylangan. Mazkur so‘zlar o‘rniga esa evfemizm sifatida frazeologik iboralar qo‘llanadi. Ayrim o‘zbek tilshunoslari tabudan yondosh hodisalarni ajrata olmaganlar[86]. Tilda madaniy muloqatga sig‘maganligi, qo‘polligi uchun ayrim so‘zlar nozik tabiat hamsuhbatlar doirasida qo‘llanmaydi. Masalan, xotinlar er so‘zini, umuman har qanday odam o‘ynash so‘zini aytishdan tiyiladi. Bu so‘zlarning qo‘llanishi aslida taqiqlangan emas, faqat hamsuhbat oldidagi andisha yuzasidan ularni tilga olishdan kishi o‘zini tiyadi. Bunday xarakterli leksika hech vaqt tabu qatoriga kiritilmaydi. Tabu so‘zlarni ulardan farqlash kerak. Ko‘rdikki, tabu etnografik va lingvistik tabularga bo‘linadi. Lingvistik tabu faqat leksik hodisa bo‘lib, so‘z doirasida kuzatiladi. U diniy va irim, siyosiy va senzura nuqtai nazaridan taqiqlanadi. Tildagi bu hodisa ibtidoiy jamoa hosilasi bo‘lib, madaniylik va fan-texnika rivoji bilan yo‘qolib borayotgani yo‘q. U tilda yashab qoladi. Tabu esa so‘zlarning madaniy muloqatga sig‘maganligi, qo‘polligi uchun nozik tabiat ham suhbatlar doirasida qo‘llanishdan tiyilishi bilan farq qiladi. Ular tabu deb qaralmaydi. Evfemizm tabuga uchragan so‘z ma’nosi yoqimliroq ifodali biror so‘z hosila ma’no sifatida aks etilishi hisoblanadi. Masalan, chayon so‘zi tabuga uchragan, qo‘llanishi man qilingan edi. Bu leksik hodisadir. Uning ma’nosi eshak so‘zida ifoda topdi. Eshak so‘zining ishchi hayvonni bildiruvchi o‘z leksik ma’nosi bor. Bu so‘z tabuga uchragan chayon so‘zining ma’nosini hosila ma’no sifatida ifoda etyapti. Bu tahlilga ko‘ra evfemizmga semantik jihatdan yondashildi. Ya’ni evfemizm semantik hodisadir. Evfemizm va tabu o‘rtasidagi aytib o‘tilgan aloqadan kelib chiqib bo‘lsa kerak, bu ikki hodisa uzviy bog‘liq deb tushunuvchilar bor A.A.Reformatskiy hatto “Evfemizm - bu qo‘llanishi man etilgan (tabulashtirilgan) so‘z o‘rnida almashtirilgan, tanlab qo‘yilgan so‘z” ,-deyilgan fikrni aytadi. Ular alohida mustaqil hodisalar bo‘lib, o‘zaro boshma-bosh

mos kelmaydi. Buning uchun etnografik tabuni eslashimiz mumkin. Masalan, qiblaga oyoq uzatib o‘tirish yoki yotish, axlat ustidan xatlash, supurgini tik qo‘yish, otashkurakni oyoq ostida qoldirish taqiqlangan, tabulashtirilgan. Ular faqat jarayonga nisbatan bo‘lib, so‘z bilan ifodalanmaydi. Shunday bo‘lgandan keyin o‘rnida evfemizm qo‘llash haqida gap bo‘lishi mumkin emas. A.A.Reformatskiy, albatta, bu etnografik tabuni emas, lingvistik tabuni nazarda tutgandir. Bunda ham siyosat yo‘li, senzura yo‘li bilan qilingan tabu uning fikriga nisbatan teskari xizmat qiladi. Masalan, tatalitar tuzum davrida turli diniy marosimlar nomi, xalq suygan “Navro‘z” ni tilga olish taqiqlangan edi. Ammo uni eslatuvchi evfemizm bo‘lmadi. Evfemizm faqat tabuga uchragan so‘zlar ma’nosini ifodalash bilan chegaralanmaydi. Uning sodir bo‘lish imkoniyati ancha keng. Shuning uchun L.A.Bulaxovskiy ham “Evfemizm irim-sirimlar doirasida sodir bo‘lishdan ko‘ra ancha keng qamrovga ega”,-degan edi[87]. Yuqorida, ayrim tilshunoslar madaniylikka sig‘ishmaganligi uchun qo‘llanmaydigan ayrim so‘zlar bilan tabuni qorishtirganliklari, haqida to‘xtab o‘tilgan edi. Haqiqatan ham ayrim so‘zlarning madaniy muloqatga sig‘ishmaganligi uchun qo‘llanmaganligi tabu emas. Ammo madaniy muloqatga sig‘ishmaydigan, qo‘pol, dag‘al, andishasiz so‘zlardan muomala jarayonida tiyilishga to‘g‘ri kelar ekan, uning o‘rnida yumshoqroq, yoqimliroq, madaniyroq so‘z, ibora tanlash joiz bo‘ladi. Mana shu so‘z, iboraning tanlanishi evfemizmning ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Masalan, xotinlar erim deyish o‘rniga adasi deyishi, xaloq so‘zi o‘rniga chet, yana nimadir o‘rniga yaradi so‘zini qo‘llash evfemizm bo‘ladi. Ammo erim, xaloq yana nimadir deyilmagan so‘zlar tabu qilingan so‘zlar emas. Ularni muloqat chog‘ida qo‘llashdan faqat madaniy muomalaga ko‘ra tiyilishga to‘g‘ri kelgan. Uning o‘rniga esa adasi, chet, yaradi so‘zlarini qo‘llab, evfemizm berilgan. Ma’lum bo‘ladiki, evfemizmning manbai ikkita: 1) tabu 2) madaniylikka sig‘ishmaganligi uchun aytilishdan tiyiladigan so‘z va iboralar. Evfemizm shular ma’nosini berish, o‘rnini qoplash uchun yuzaga keltiriladi. Ular shular o‘rnini biror so‘z yoki iboraning hosila ma’nosi hisobiga qoplar ekan, bu ma’nosiga yaxshi taassurot uyg‘otuvchiroq, yoqimliroq ottenka ilova qiladi.

2.Sog‘lik – kasallik. Sog‘liq xalqimizning eng qadimgi qadriyatlaridan biri bo‘lib, insoniyat tabiiy mavjudot sifatida doimo sog‘ yurishga intilgan. Uni asrashga harakat qilgan. Qadim zamonlardan beri tabiblik kasbining mavjudligi ushbu fikrimizning yaqqol dalilidir. Antiqadriyat hisoblangan kasallikka ham turli munosabatlar bildirilgan. Masalan, kasallik qilingan gunohlar, Allohning sinovlari, kimningdir nazari, yomon odamlarning turli sehrlari, noto‘g‘ri ovqatlanish, makon va zamon (fasllar) bilan sharhlangan. Xalqimizning bu ikki tushunchaga bo‘lgan qarashlari, albatta, frzemalarda ham o‘z aksini topgan. Kasallik so‘ziga antisemik munosabatdagi frazemalar**: tutday g‘arq pishmoq, barq urmoq, barq urib ko‘karmoq, bahri-dili ochilmoq, omon-eson bo‘lmoq, yostiqdan bosh ko‘tarmoq. Tutday to‘kilmoq, boshi yostiqqa etganda, mazasi qochmoq, ko‘z**

oldi qorong‘ilashmoq, badanidan o‘tib ketmoq kabi frazemalar sog‘lik leksemasi bilan antisemiya munosabatini hosil qiladi. Yuqoridagi misollardan ma’lumki, odamlar o‘zining sog‘ligini o‘simliklarning rivojlanishiga o‘xshatib keladi. Shu o‘rinda «Nima uchun tut daraxtiga», degan savol tug‘iladi. Menimcha, buyuk ipak yo‘lida joylashgan mamlakatimizda ipak qurti etishtirish doimo dolzarb bo‘lgan. Ipak qurtining ozuqasi hisoblangan tut daraxti esa ko‘plab frazemalar, o‘xshatishlar uchun asos bo‘lgan.

3.Boylik-kambag‘allik aksiologik juftligida boylik bilan usti qirq yamoq, ochidan o‘lmoq, gadoydan ham sadqa so‘ramoq frazemalari antisemik munosabatda bo‘lsa, pulga ko‘milmoq, Hazrati Xizrni uchratmoq, zarga burkanmoq, chirib-bitgan boy, og‘zi qiyshiq bo‘lsa ham boyning bolasi gapirsin, sog‘in sigirday sog‘moq kabi frazemalar kambag‘allik antiqadriyati bilan ma’noviy ziddiyat hosil qiladi. O‘zbek xalqida boylikka nisbatan ijobiy va salbiy munosabat mavjud. **Chirib-bitgan boy**, **og‘zi qiyshiq bo‘lsa ham boyning bolasi gapirsin, sog‘in sigirday sog‘moq** kabi frazemalarda mehnatsiz kelgan boylikka nisbatan xalqning salbiy munosabati mavjud. Ijobiy munosabatni esa **pulga ko‘milmoq**, **Hazrati Xizrni uchratmoq**, **zarga burkanmoq** frazemalari aks ettiradi. Hazrati Xizrni uchratmoq frazemasi diniy bilimlar asosida yasalgan. Rus tilida esa xuddi shu frazeologik ma’no родиться в рубашке frazemasida aks etgan. E’tibor beradigan bo‘lsak, har bir xalqning o‘z milliy realiyalari frazeologizmlarda yaqqol o‘z aksini topadi. Biroq shunday realiyalar borki, ular juda ko‘p xalqlarning muloqot fondida mavjud bo‘ladi. Masalan, **sog‘in sigirday sog‘moq** frazemasi inglizlarda ham, o‘zbeklarda ham mavjud ekan. Bu har ikkala xalqning ham qadimiy tarixiga borib taqaladigan masala sanaladi. Frazemalarning vujudga kelishi tarixan uzoq davrlarga borib taqalishi ayni haqiqat. Chunonchi, **sog‘in sigirday sog‘moq** va **a milch cow** frazemalari inglizlarning ham, o‘zbeklarning ham chorvadorlik faoliyati bilan bog‘liq o‘tmishiga ishora qiladi. Rost-yolg‘on aksiologik juftligi axloqiy xarakterdagi aksiologemalar bo‘lib, **rost** aksiologemasi bilan **yolg‘onni suv qilib ichmoq**, **yolg‘on bilan** esa **haqiqatga tik qaramoq**, **vijdoni toza, iymoni pok**, **alifdan ham to‘g‘ri** frazemalari antisemik munosabatga kirisha oladi.

Xulosa qilib aytganda, milliylik, madaniyat, mentalitet tushunchalari til bilan uzviy bog‘liq va ular tilda turli janrlar va til birliklari asosida voqelashadi. FBlar nafaqat inson nutqini chiroyli, ta’sirli va ixcham qiladi, balki ma’lum bir millatning madaniyati, yashash tarsi hamda milliyligini ham ochib berishga xizmat qilar ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika.- Toshkent: Noshir, 2019.- B.135.
2. Rahmatillayev Sh. Nutqimiz ko‘rki// “Fan” nashriyoti, Toshkent-1970. B-56
3. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya.- Toshkent: 2019.- B.90.
4. Булаховский Л. А. Введене в языкознание. Ч.II. – С.51.

5. Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке. Автореф дисс. … канд. фиол. наук. – Ташкент.1963. 6-б.; Омонтурдиев А. Ж. Ўша асар. Ўша бет.

NUTQIMIZ KO‘RKI: IBORALAR VA ULARNING TURLARI

Abdujalilova Feruza Shodiyarovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada nutqimizning boyligi va unda iboralarning tutganm o‘rni, shuningdek, iboralar, ularning nutqimizda qo‘llanishi,o‘zbek tilinish izohli lug‘atlaridagi iboralarning tasnifi va ularning turlari hamda Grammatik jihatdan qay tarzda berilishiga doir fikr va mulohazalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ibora, so‘z, iboralar tarkibi, frazeologik birlik, nutq, gap ibora, iboralar tuzilishi, birikma ibora.

Sh.Rahmatullayev o‘zining “Nutqimiz ko‘rki” asarida iboralarga oid munosabatini shunday bayon etgan. “Bittadan ortiq leksik negizdan tarkib topgan tuzilish jihatdan birikmaga, gapga teng, mazmunan so‘zga ekvivalent, yaxlitligicha ustama ko‘chma ,ma`no anglatuvchi lug‘aviy birlika ibora(frazeologik birlik) deyiladi.Bu o‘rinda “lug‘aviy birlik” deyish bilan iborani erkin bog‘lanmadan, “bittadan ortiq” deb ta`kidlash bilan soda so‘zlardan “leksik negizlar” deb ta`kidlash bilan analitik formadan, “birikma, gapga teng” deb ta`kidlash bilan qo‘shma so‘zdan, “yaxlitligicha ustma ko‘chma” ma`no deb ta`kidlash bilan to‘g‘ri ma`noli turg‘un birikmadan farqlaymiz” [1]

Nutq uchun xomashyo vazifasini til boyligi o’taydi. Nutq jarayonida biz tilning lug‘at tarkibidagi, gramma- tik qurilishidagi elementlardan va shularnl o’zaro biriktirish, bog‘lash qoidalaridan foydalanib birikma va gap hosil dilamxgz. Bunday elementlarga tilbirliklari deyiladi.

Tilning lug‘at tarkibi deganda so’zlarni tushunish qadimdan mavjud. Xozirgi tilshunoslik lug’at sostavida, so’z bilan bir qatorda, bundan yirikroq, murakkabrok hodisa - i b o r a -ham borligini tan oladi. Demak, lug‘aviy birliklar ikki xil:

1. so’z, buni leksik birlik deb yuritadilar,
2. Ibora, buni frazeologik birlik deb yuritadilar.

Ibora (arabcha.) - 1) biror bir tushuncha yoki gapning bir so‘z bilan ifodalanishi, ya’ni turg‘un bog‘lama.Masalan:qovog‘idan qor yog‘yapti, kapalagi uchdi, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib ketdi, qovun tushirdi va hokazo. Ibora o‘zi ifodalayotgan tushuncha bilan so‘zga teng, lekin uslubiy bo‘yoqdorligi sababli bu tenglik buziladi. Ibora har doim uslubiy bo‘yoqdor bo‘ladi.

Nutqimiz ko’rki sifatida lug‘at tarkibidagi ana shu ikkinchi qatlamni — frazeologik boylikni — ataymiz. Iboraning ko‘zga tashlanuvchi belgisi uning bittadan ortiq so‘zdan (negizdan) tarkib topganligidir

Iboralar tilning eng muhim tasviriy-uslubiy vosita laridan biridir. Ular nutq uslublarida turli xil vazifalarni bajaradi. Xususan, ilmiy va rasmiy uslublarda ko‘pincha muayyan tushunchalarni nomlash uchun qo‘llanadi. Masalan, qo‘l

qo‘ymoq, xulosaga kelmoq, qarshi chiqmoq, ovoz bermoq, qo‘l ko‘tarmoq kabi iboralar bunga misol bo‘la oladi.

Iboralarning aksariyati obrazli tafakkur mahsuli bo‘lib, kuchli ko‘chma ma’no ifodasi bilan, yorqin emotsional-ekspressivligi bilan tilda yashaydi. Masalan: tomdan tarasha tushganday, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq, oyog‘ini qo‘liga olmoq, o‘pkasini qo‘ltiqlamoq, chumchuq pir etsa, yuragi shir etmoq, qosh qo‘yaman deb, ko‘z chiqarmoq kabi. Badiiy va publitsistik, shuningdek, so‘zlashuv uslublarida iboralar xilma-xil tasviriy-uslubiy vazifalarni bajaradi, bunga iboralardagi mavjud rang-barang uslubiy bo‘yoq imkoniyat yaratadi. Ibora va uning negizi haqida fikr yuritishdan avval so‘z va uning negizi tushunchalariga aniqlik kiritaylik chunki iboradagi bu hodisa so‘zga qiyoslangandagina o‘rganish mumkin.

So‘zsiz gap yoq. Demak, gap eng kam bitta so‘zdan iborat bo‘ladi. Gapning belgi xususyatlarini bunday soz nutqda kashf etadi. Gap vazifasidagina emas, biror bulak vasifasida kelganida xam so‘z gramatik shakllanish nutq jarayonida sodir bo‘ladi. Ko‘rinadiki, so‘z deb to‘liq gramatik shakllangan va nutqda biror sintaktik bo‘lak vazifasida kelgan xodisani tushunar ekanmiz. Shundan kelib chiqib so‘zni til birligi deb emas, nutq birligi deb baholash tug‘ri.

Masalan, buzaman buzishini – shu so‘zning Grammatik shakllanishlaridan ikkitasi deymiz. “Shu so‘zning Grammatik shakllaridan” deyish xato bular edi, chunki bu ikki shakllanish shu so‘zgagina xos emas, balki shu turkumdagi yuzlab minglab so‘zlarga xos. Xatto “Shu so‘zning Grammatik shakllanishi “deb yuritishning o‘zi ham yanglish chunki so‘z deganda to‘liq Grammatik shakllangan xolat tushiniladi. Demak, Grammatik shakllanish so‘zga emas, balki Grammatik shakllanishi bilan so‘z holatiga o‘tuvchi xodisaga xos. So‘zdagi ana shunday qism tilshunoslikka negiz deb nom olgan**.**

Nutq odobi quyidagi xususiyatlar asosida belgilanadi: 1) ogzaki va yozma adabiy til meyorlari (talaffuz, urgu, soz qollash, grammatika, uslubshunoslik qoidalari)ni egallash, shuningdek, turli aloqa-aralashuv sharoitlarida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahorati; 2) tilshunoslikning tilni madaniyat quroli sifatida mukammallashtirish maqsadida meyorlashtirish (tartibga solish) muammolarini organuvchi bolimi. Garb tilshunosligida umumiy manoda "til madaniyati" termini ham qollanadi. 1-manodagi "Nutq madaniyati" tushunchasi adabiy tilni ozlashtirishdagi ikki bosqichni qamrab oladi: a) nutqning togriligi va boshqa nutqiy mahorat. Nutqning togriligi muayyan tilda sozlovchilar va yozuvchilar tomonidan "ideal" yoki umum tomonidan qabul qilingan va ananaviy saqlanib kelayotgan odatlar, ibrat va namunalar tarzida idrok etiladigan adabiy meyorlarga amal qilishdir. Nutqiy mahorat esa nafaqat adabiy meyorlarga amal qilish, balki ozaro mavjud bolgan variantlardan mazmunan eng togri, eng aniq, uslub va vaziyat nuqtai nazaridan eng makbuli va ifo-dalisini tanlab olish mahoratidir (Mas, aka –oka –ako; kelyapti –kevotti –kelopti variantlaridan bi-rining adabiy meyor sifatida tanlanishi).

Hozirgi kunga kelib zamonaviy lingvistikada tilshunoslikning milliy-madaniy xususiyatlari borgan sari keng o‘rganilib, dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Chunki bu soha ham lingvistik, ham ijtimoiy qiymatga ega bo‘lganligi sababli, globallashuv jarayonida tillar va madaniyatlararo munosabatni o‘rganishga bo‘lgan talabning ortishi tabiiy holdir. FBlarni lingvomadaniy nuqtayi nazardan tadqiq etish o‘tgan asrning oxirgi yillaridan boshlab tilshunoslikda keng ommalashdi. Tadqiqotchilarning asosiy maqsadi esa turli tillarda uchraydigan Frazeologik birliklarning milliy-madaniy o‘ziga xosliklarini ko‘rsatish edi. Bunda frazeologik birliklar o‘z milliy-ma’naviy qadriyatlar tizimiga ega bo‘lgan turli jamiyatlarning lingvomadaniy xususiyatlarini ochib beruvchi fenomen sifatida olinib, ularda ma’lum bir jamiyat ijtimoiy hayotida uchraydigan, milliy-madaniy xarakterini aks ettiradigan barcha xususiyatlarni uchratish mumkin. Til inson ichki dunyosini, dunyoqarashini ifodalashda yordam beradigan yagona vositadir. Xuddi shuningdek, ma’lum bir millatning qadriyatlari, madaniyati ham o‘sha millat dunyoqarashi mahsulidir va insonlardagi kabi butun bir millatning dunyoqarashini, xarakterini aks ettirishda bizga tilimiz hamda undagi birliklar xizmat qiladi.

U yoki bu tilning frazeologik birliklari insoniy munosabatlarning ko‘z ilg‘amas rang-barangligini aks ettiradi. Bu yerda ham baxt, sevgi, ajablanish, istehzo, nafrat, qiziqish, havotir; bu yerda insonning to‘g‘ri so‘zligi, iroda kuchi, halollik, ollyjanoblik, aql, chaqqonlik, harakatchanlik, qaysarlik, ham ahmoqlik, sergaplik, xasislik, badjahllik - ya’ni insonning barcha salbiy va ijobiy xususiyatlari mavjud; bu yerda o‘xshashlik va farq, boshlanish va tugash (ibtido va intiho), ko‘plik va ozlik, birlik - kelishmovchilik va kurash; tug‘ilish, qarindoshlik, yosh, o‘lim; baholash, muvaffaqiyat — muvaffaqiyatsizlik, haqiqat va yolg‘on, tartib va tartibsizlik, farovonlik va kambag‘allik, xatolar va jazo va shunga o‘xshash boshqa juda ko‘p tushunchalaming tavsif va tasvirilari mavjud[88]. Ko‘rib turibmizki, oldimizda olamning yaxlit frazeologik manzarasi ochiladi.

Yuksak nutq madaniyati kishining umumiy yuksak madaniyatini, fikrlash madaniyatini, tilga nisbatan ongli mehr-muhabbatini namoyon qiladi. Nutq madaniyati nazariyasining asosiy tushunchasi til meyoridir.

Frazeologiya (yun. phrasis — ifoda, ibora va ...logiya) - 1) tilshunoslikning tilning frazeologik tarkibini (.Frazeologizm) uning hozirgi holatida va tarixiy taraqqiyotida tekshiruvchi bo‘limi; 2) muayyan tildagi frazeologizmlar majmui.

Tilshunoslik bo‘limi sifatidagi Frazeologiyaning asosiy diqqat e’tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o‘rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo‘llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Frazeologiyaning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya’ni avvaldan tayyor bo‘lmagan) so‘z birikmalaridan farklab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir. Idiomafrazeologizmlar, frazeologik birikmalar va barqaror jumlalar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o‘rtasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko‘plab tadqiqotchilar Frazeologiyani 2 xil: tor va keng ma’noda tushunadilar. Uni keng ma’noda tushunilganda, Frazeologiya doirasiga maqol va

matallar, folklorga xos barqaror jumlalar, ba’zi muloqot shakllari (salomlashish, xayrlashish jumlalari) ham kiritiladi. Lekin bu masala, ya’ni Frazeologiyani keng ma’noda tushunish masalasi hanuz munozarali bo‘lib qolmoqda.

Frazeologiyaning asosiy vazifalari yoki masalalari: frazeologik tarkibning izchilligini aniklash va shu munosabat bilan frazeologizmning belgi(lik) xususiyatini o‘rganish; frazeologizmlar omonimiyasi, sinonimiyasi, antonimiyasi, polisemiyasi va variantdorligini tavsiflash; frazeologizmlar tarkibida qo‘llanuvchi so‘zlar va ularga xos ma’nolarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniklash; frazeologizmlarning so‘z turkumlari bilan o‘zaro munosabatlarini oydinlashtirish; ularning sintaktik rolini aniklash; frazeologik birliklar tarkibida so‘zlarning yangi ma’nolari hosil bo‘lishini o‘rganish va boshqa Frazeologiya frazeologik birliklarni ajratish prinsiplarini, ularni o‘rganish, tasniflash va lug‘atlarda tavsiflash metodlarini ishlab chiqadi. Frazeologiyada ishlab chiqilgan o‘ziga xos, xilmaxil metodlar asosida tilning frazeologik tarkibi turlicha: struktursemantik, grammatik vazifaviyuslubiy asoslarga kura tasnif etiladi. Struktursemantik tasnif prinsipi asosiy hisoblanadi. Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmog‘i sifatida 20-asrning 40-yillarida rus tilshunosligida paydo bo‘lgan. Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A. A. Potebnya, I. I. Sreznevskiy, A. A. Shaxmatov asarlarida asos solingan bo‘lsa, barqaror (turg‘un) so‘z birikmalarini alohida tilshunoslik bo‘limi — Frazeologiyada o‘rganish masalasi 20—40-yillardagi o‘quv-metodik adabiyotlarda — Ye.D.Polivanov, S. Abakumov, L. A. Bulaxovskiy asarlarida ko‘tarib chiqilgan. G‘arbiy Yevropa va Amerika tilshunosligida Frazeologiya tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida ajratilmaydi. O‘zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o‘tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Shu kungacha frazeologizmlar turli jihatlardan o‘rganilgan (Sh. Rahmatullayev, B. Yo‘ldoshev, A. Mamatov va boshqalar), Frazeologiya bo‘yicha bir necha lug‘atlar tuzilgan (Sh. Rahmatullayev, M. Sodiqova), yozuvchilardan Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Oydin, Said Ahmad asarlarining frazeologik tarkibi tadqiq etilgan. 70—80-yillarda SamDU qoshida frazeologik tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi va maxsus to‘plamlar chiqaruvchi markaz faoliyat ko‘rsatgan.

Frazeologik iboralar tuzilishi va ma’no xususiyatiga ko‘ra uch guruhga bo‘linadi: Frazeologik qo‘shimchalar. Frazeologik qo‘shimchalarning ma’nosi uning tarkibidagi so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolaridan kelib chiqadi. Masalan, gap tashlamoq, gap otmoq (gap – o‘z ma’nosida, tashlamoq, otmoq-ko‘chma ma’noda), mehri tushdi (mehr-o‘z ma’nosida, tushdi – ko‘chma ma’noda), oyog‘i tortmadi (oyoq o‘z ma’nosida, tortmadi- ko‘chma ma’noda).Frazeologik qo‘shilma tarkibidagi so‘zlar grammatik birikish usuli jihatidan odatdagi so‘z birikmalaridan farq qilmaydi. SHuning uchun xam kuli ko‘kka sovurildi iborasi tarkibidagi gap bo‘laklarini (egaQo‘rin holiQkesim) ajratish mumkindek ko‘rinsa-da, ammo ibora tarkibidagi so‘zlar orasidagi sintaktik aloqa doimiy (o‘zgarmas)dir, shu sababli u «butunlay emirildi», «yo‘q qilindi» ma’nosini ifodalaydi.

Frazeologik qo‘shimchalarda voqelik bevosita aks ettiriladi, shuning uchun uning tarkibidagi ayrim ko‘zlar ko‘chma ma’noda ishlatilgan bo‘lsa xa, ibora butun holda ko‘chma ma’noda bo‘lmaydi. Odatda, iboralar odatda ba’zi bir maxsus so‘zlar guruhidir idiomatik ma’nosi yoki boshqa ahamiyati, masalan "Barcha huquqlar himoyalangan", "haqiqat bilan iqtisodiy", "paqirni tep "va shunga o‘xshash narsalar. Bu bo‘lishi mumkin evfemizm, a aytmoq yoki maqol, a sobit ifoda, a nutq figurasi, va boshqalar.

Grammatik tahlilda, xususan sintaksis, so‘z birikmasi - bu har qanday so‘zlar guruhi yoki ba’zan ichida alohida rol o‘ynaydigan bitta so‘z grammatik a tuzilishi hukm. U hech qanday maxsus ma’no yoki ahamiyatga ega bo‘lishi shart emas, hatto tahlil qilinayotgan jumlaning tashqarisida ham mavjud bo‘lishi shart emas, lekin u erda to‘liq grammatik birlik sifatida ishlashi kerak.

Xulosa qilib aytganda, iboralarni izohli lug‘atlarga kiritayotganda grammatik jihatdan quyidagilarga etibor qaratishg lozim:

- iboralarning qaysi so‘z turkumiga oidligiga;
- ibora tarkibidagi grammatik shakllarning iste`molda o‘zgarishsiz ko‘p qo‘llanilishiga;
- iboralarning nutqda aniq bir shaklda qo‘llanilishiga.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatillayev Sh. Nutqimiz ko‘rki// “Fan” nashriyoti, Toshkent-1970. B-56 [1]
2. To‘ychiboev B. Hasanov B. O‘zbek dialektologiyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik.— T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.— 112 b.
3. Turobova M. O‘zbek shevalari frazeologiyasi//O‘zbek xalq shevalari leksikasi. – T.: Fan, 1991
4. Abdulhakimovna K. M. Transcription in the corpus of the uzbek national boysun dialect (on the example of Baysun district" j" dialects) //Journal of Critical Reviews. –2020. –T. 7. –No. 5. –C. 844-847.
5. Холова М. А. Boysun shevasi onlayn ma’lumotlar bazasi (qidirish va saralash imkoniyatlari asosida)

TERMINLARNING TUZILISHIGA KO‘RA TURLARI MASALASI

Muslimjon Nasirov
Qo‘qon DPI o‘qituvchisi
Malikaxon Nasirova
Qo‘qon DPI talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikning alohida mustaqil sohasi hisoblangan terminologiya haqida fikr yuritilgan. Terminlarning tuzilishiga ko‘ra turlari radioaloqa sohasiga oid terminlar misolida tahlil qilingan.

Abstract. This article discusses terminology, which is considered a separate independent field of linguistics. The types of terms according to their structure are analyzed on the example of terms related to the field of radio communication.

Kalit so‘zlar: terminologiya, termin, component, qolip, soda termin, murakkab termin, derivatsiya.

Key words: terminology, term, component, template, soda term, complex term, derivation.

Terminlarning struktur va genetik tarkibini tadqiq etish dunyo tilshunosligida ham, o‘zbek tilshunosligida ham ahamiyatli vazifalardan biri hisoblanadi. Ma’lum sohaga doir terminlarni tadqiq etayotgan har bir tadqiqotchi ushbu vazifani chetlab o‘ta olmaydi. Terminlarning struktur jihatdan o‘rganishda tilshunos olimlarning tadqiqotlari turlicha. Sohadagi terminlardan kelib chiqib ushbu jarayonga turli yondashadi. Quyida ularning ayrimlarining fikrlari bilan tanishib o‘tamiz.

Y.Shirinova o‘zbek tili bank-moliya terminologiyasini tadqiq qilib, ushbu soha terminlarini struktur jihatdan ikki turga ajratadi: **bir komponentli va ko‘p komponentli** terminlar. Sohaga doir terminlar orasida qo‘shma terminlar borligini ham alohida ta’kidlab o‘tadi va ushbu tur terminlarni bir komponentli terminlar sirasiga kiritadi[89].

Ma’lumki, leksemaning lisoniy tahlil qilinganda, uni tuziish jihatdan turlarga ajratib olish struktur tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. XX asrning oxirida terminshunos olimlar tomonidan leksik birliklarning shakl strukturasi o‘rganila boshlandi, terminlarning til sistemasining boshqa leksik qatlamlari bilan qiyosiy tadqiq etib ulardagi farqli va o‘xshash xususiyatlar aniqlandi. Terminlarning nominativ til birligi sifatida o‘ziga xos lingvistik xususiyatlardan biri — ularning yasalish strukturasi hisoblanadi. Ma’lumki, strukturaviy-semantik yondashuv orqali terminlarning semantikasi tadqiq etilishi ularning uyg‘unlashuviga xizmat qiladi. Terminshunoslik rivojlanishida strukturaviy - semantik yondashuv orqali terminlarning umumijtimoiy so‘zlardan asosiy farqlari aniqlanadi.

Qo‘shma terminlar o‘zbek terminologik sistemasida salmoqli o‘rinni egallaydi. Bugungi kunda terminlar sistemamiz hamda leksik boyligimizning boyib borishida ham kompozitsion usulda yasalgan terminlar mahsuldor hisoblanadi. Ma’lumki, qo‘shma terminlar o‘z til materallarimizdan, yoki o‘zga o‘zlashma terminlardan va yana o‘z va o‘zlashma terminlarning bir-biriga birikish natijasidan yuzaga keladi. Quyida bu haqida ma’limotlar berib o‘tiladi.

Qo‘shma terminlar tarkibining genetik nuqtayi nazardan tavsifi ularning ikki, ya’ni muayyan tildagi qatlamga oid so‘z birikmalaridan yasalgan qo‘shma terminlar hamda turli tillarga taalluli so‘z birikmlaridan yuzaga chiqqan qo‘shma terminlarga guruhlanishidan guvohlik beradi.

Tarkib (komponent)lari muayyan (bir) leksik qatlamga tegishli so‘zlardan tashkil topgan qo‘shma terminlar o‘z navbatida ikki guruhga taqsimlanadi:

1) o‘zbek tilida qadimdan qo‘llanishda bo‘lgan asl o‘zbekcha, arabcha va fors-tojikcha leksemalarning birikishidan voqealangan qo‘shma terminlar;

[89] Shirinova Y.T. O ‘zbek tili bank- moliya terminologiyasi: Filol. fan. bo ‘yicha falsafa d-ri, diss. avtoref. Toshkent-2020. B.20-21.

2) tarkiblari ruscha baynalmilal termin yoxud termin elementlardan tashkil topgan, ya’ni o‘zlashtirilgan qo‘shma terminlar[90].

Demak, qo‘shma terminlar yuoridagi 2 xil genetik asosda hosil qilinadi. Birinchi usul nafaqat terminlar derivatsiyasida, balki leksemalarning yasalishida ham faol hisoblanadi. Ikkinchi xil usul esa bugungi terminologik sistema derivatsiyasida faol qo‘llanilishi bilan xarakterlanadi va gibrid terminlar deb ham yuritiladi.

Barcha tillarning umumiy boyligi hisoblanadigan xalqaro termin-elementlarning asosini ham aynan yunon-lotin tillariga mansub birliklar tashkil etadi. Ana shunday terminelementlar izohli-illyustrativ lug‘atning mualliflari haqli ravishda ta’kidlaganlaridek, “bugungi kunda, tez o‘zgarayotgan globallashuv davrida fan va texnika taraqqiyoti tufayli juda ko‘p yangi tushunchalar kirib kelmoqda. Ko‘pincha yangi tushunchalar o‘z nomlari, ya’ni tegishli terminlari bilan kirib keladi. Turli sohalarda qo‘llanuvchi o‘zlashma terminlar va ular tarkibidagi xalqaro terminelementlar lug‘atlarimizdan mustahkam joy olmoqda. Asosan, yunon va lotin tillari elementlaridan tarkib topgan bunday terminlar keyingi davrda xalqaro nufuzga ega bo‘lgan ba’zi zamonaviy yevropa tillaridan ham o‘zlashmoqda”[91].

Gibrid terminlarning dastlabki nusxalari o‘zbek tilida, avvalo, xalq orasida *lampamoy, lampashisha* tarzida yuzaga kelgan bo‘lsa-da, chin terminologik ma’nodagi gibrid qo‘shna terminlar o‘tgan asrning 30-yillarida fizika va kimyo terminosistemalarida yuzaga kela boshladi. Bunday gibrid terminlar ruscha ilmiy-texnikaviy adabiyotni tarjima qilish jarayonida hosil bo‘ladi[92].

Shuni ta’kilash joizki, gibrid terminlar zamonaviy axborot vositalari hamda globallashuv jarayoni ning shiddat bilan dunyoga yoyililishi natijasida so‘nggi yillardan buyon yuzaga chiqqanligi alohida ahamiyat kasb etadi. XX asrlarning o‘rtalarida ular deyarli barcha terminologik lug‘atlarda voqealanishni boshladi va faollik jihatdan hozirgi kunda ham o‘zining alohida o‘rniga egadir.

Radioaloqa sohasiga doir qo‘shma terminlar genetik jihatdan tavsiflanganda o‘zlashgan termin elementlari natijasida voqealangan gibrid terminlarning salmoqli o‘ein egallaganiga guvoh bo‘lamiz. Telekommunikatsiya tarmoqlarining bir qismi bo‘lgan ushbu sohaning terminologik tizimining voqealanishida qo‘shma terminlarninh hissasi kattadir.

Radioaloqa sohasida *radio-, video-* singari termin – elementlari ishtirokida yasalgan terminlar miqdor jihatdan kattagina o‘ringa egadir.

Misollar: *radionavigatsiya, radioplengatsiya, radiqabullagich, radiohavaskor, radiobo‘yoq, radiomajmua, radiokanal, radiogorizont, radiokarnay; videonazorat, videochastota, videosignal va sh.k.*

Gibrid terminlar ikki xil hisoblanadi:

[90] Dadaboyev H. O ‘zbek terminologiyasi. —Toshkent —2019.— 85-b
[91] Urunova Z.N> O’zbek tilida defektologiya terminlari.
[92] Madvaliyev A. O ‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. –Toshkent -2017. 67-b

1) O‘zlashma baynalmilal terminlardan nusxa olish asosida yuzaga keladi. Derivatsiya jarayonida o‘zlashtirilayatgon baynalmilal terminining birichi komponenti o‘z holicha saqlanib, ikkinchi komponenti esa kalkalab o‘zbekchalashtiriladi: *radiourush, radioportlatgich, radioto‘lqin va sh.k.;*

2) ikkinchi turi terminlar birikishiga asos bo‘lgan har ikki komponent mustaqil ma’no ifodalay oladigan so‘z terminlardan tashkil topadi*: radionurlanish, radioabullagich, krossqutblanish* va sh.k.

Radioaloqa sohasiga doir qo‘shma terminlar boshqa soha terminlari kabi komponentlarining munosabatiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi:

Aniqlovchi+aniqlanmish qolipidagi qo‘shma terminlar. Ushbu qolip asosida shakllangan qo‘shma terminlar ikki yoki undan ortiq ism guruhiga tegishli komponentlarning birikuvi orqali voqealanadi va yaxlit ma’no ifodalashga xizmat qiladi.

Misollar: *radioaloqa, videochastota, radiomajmua, radioxalaqit, krossqutblanish, radiokarnay, radionazorat, radiobo‘yoq, videonazorat* va sh.k.

Ushbu qolip asosida voqealangan terminlarning ko‘p miqdori ot so‘z turkumiga mansub hisoblanadi. Shunga amin bo‘ldikki, sohaga doir terminlarning anchaginasi ot so‘z turkumiga mansub ekan.

To‘ldiruvchi+to‘ldirilmish tipidagi qo‘shma terminlar nisbatan keyingi davrda voqealangan yangi terminlar hisoblanadi. Ushbu tipdagi qo‘shma terminlarning katta qismi uch elementli birikma terminlarining semntik o‘zgarishlari bilan elipsis hodisaga uchrashi oqibatida paydo bo‘lgan[93].

Misollar: *radioqabullagich, nurqidirgich, nurtarqatkich, to‘lqino‘tkazgich, radiomasofao‘lchagich, fazoaylantirgich, balandliko‘tkazgich* va sh.k

Ushbu *to‘ldiruvchi+to‘ldirilmish* tipidagi qo‘shma terminlar uchun keltirilgan misollarga nazar tashlasak ularning ot so‘z turkumiga mansub ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Aslida ushbu terminlar ixchamlashtirilmaganda, ya’ni qo‘shma terminlarga aylantirilmaganda *ot+fe’l* qolipidagi birikma termin tarzida voqealangan bo‘lar edi. Radioaloqa sohasiga doir qo‘shma terminlarning ko‘pginasi sohaga doir asbob-uskunalar tarzida ifodalanadi.

Yuqoridagi *to‘ldiruvchi+ to‘ldirilmish* tipidagi qo‘shma terminlar radio qabul qiladigan apparat, nurni tarqatadigan apparat, to‘lqinni o‘tkazadigan apparat, radiomasofani o‘lchaydigan apparat, fazoni aylantiradigan apparat, nurni qidiradigan apparat kabi ikki va undan ortiq komponentli so‘z birikmalarining ixchamlashuvi natijasida voqe topgan hisoblanadi. Ushbu qo‘shma terminlar so‘z birikmalarining aloqaviy turi hisoblanmish boshqaruv usulinining yuzaga kelishida faol qatnashuvchi -ni affiksisi orqali hosil bo‘lgan to‘ldiruvchili birikmada tushum kelishigi tushirib qoldirilib, kesim qismiga esa -gich(-kich,- g‘ich, -qich) affiksisi (ushbu affiks ism guruhiga mansub bo‘lgan ot so‘z turkumining yasalishida faoldir, xususan terminlar yasalishida ham sermahsul) qo‘shilishi bilan yasalgan.

Xulosa

[93] Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi .—Toshkent-2017, 87-b.

Radioaloqa sohasi birikma terminlar orqali boyib bormoqda. Termin-birikmalar nafaqat radioaloqa sohasida, balki barcha soha terminologik sistemalarining asosiy boyish manbayi hisoblanadi. O‘zbek terminologiyasi ham termin-birikmalar orqali yanada boyimoqda va bu hodisa o‘z navbatida tilimizning lug‘at boyligi tarkibiga ham o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudova N. O‘zbek tilidagi telekommunikatsiya terminlarining semantik, struktur va derivatsion xususiyatlari: Filol.fan. bo‘yicha falsafa d-ri, dis…. —Qo‘qon-2022.

2. Urunova Z. O‘zbek tilida defektologiya terminlari. Filol.fan.bo‘yicha falsafa d-ri. diss. avtoref. —Toshkent, 2021.

3. Shirinova Y.O‘zbek tili bank-moliya terminologiyasi. Filol. fan.bo‘yicha falsafa d-ri. —Toshkent-2020.

4. Radioto‘lqinlarining tarqalishi va antenna-fider qurilmalariga oid atamalarning ruscha -o‘zbekcha izohli lug‘ati.—Toshkent-2016.

“INTERYER-DIZAYN” SOHA TERMINLARIDA IJTIMOIY QADRIYATLARNING IFODALANISHI

Xolmurotova Gulnora Sattorovna
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola interyer-dizayn terminologiyasida ijtimoiy qadriyatlarning ifodalanishini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada bir nechta terminlarni lingvistik tahlil qilish orqali bu singari terminlarning semantik va aksiologik jihatlari, ularning jamiyatda qanday qadriyatlarni aks ettirishi ko‘rib chiqilgan. Ushbu maqola interyer-dizayn tilining ijtimoiy qadriyatlar bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: *interyer-dizayn, ijtimoiy qadriyatlar, semantika, aksiologiya, dizayn terminlari*.

Annotation. This article is dedicated to analyzing the reflection of social values in interior design terminology. Through linguistic analysis of several terms, the article examines the semantic and axiological aspects of such terms and how they reflect values in society. This study demonstrates the direct connection between the language of interior design and social values.

Keywords: *interior design, social values, semantics, axiology, design terms*.

KIRISH

Interyer-dizayn sohasida ishlatiladigan terminlar jamiyatning estetik, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu terminlar nafaqat dizayn va san’atga oid tushunchalarni ifodalash, balki muayyan davr yoki madaniyatning qadriyatlarini, afzalliklarini va ideal me’yorlarini aks ettiradi. Ushbu maqolada interyer-dizayn terminologiyasi misolida ijtimoiy qadriyatlarning aks etishi tahlil qilinadi va bu sohadagi semantik o‘zgarishlar ko‘rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Dastavval, tilshunoslikda “interyer-dizayn” sohasiga oid terminlar tadqiqi bir qator xorijlik va mahalliy olimlar(C. Alexander, C.A. Jencks, A.S. Grinev, A.Z. Abduraxmanova, M.M. Bekmurodov, N.Sh.Saloydinova va b.)ning arxitektura va qurilish terminlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarida uchragan.

A.S. Grinevning “Ingliz va rus arxitektura terminologiyasining qiyosiy tahlili” [6] asari me’morchilik terminologiyasining qiyosiy rasmiy-strukturaviy tahliliga, D.Z.Gaynutdinovaning “Arxitektura va qurilish subtilining termin-metaforasi: tizimli-strukturaviy va kognitiv-diskursiv yondashuvlar” [7] tadqiqoti arxitektura va qurilish termin-metaforalarining tizimli-strukturaviy va kognitiv xususiyatlarini o‘rgangan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ijtimoiy qadriyatlar insonlarning hayotiy ko‘rsatmalari va me’yorlari sifatida har qanday jamiyatning asosi hisoblanadi. Ushbu qadriyatlar interyer-dizayn sohasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Quyida fikrimiz dalili sifatida “interyer-dizayn” terminlarida ijtimoiy qadriyatlarning ifodalanishiga misollar va ularning lingvistik tahlillarini havola qilmoqchimiz:

Minimalizm – soddalik, ortiqcha narsalardan voz kechish, hayotni yengillashtirish. Bugungi jamiyatda ortiqcha iste’molga qarshi tendensiya va hayotda tartibga intilish minimalizm bilan bog‘liq qadriyatlarni aks ettiradi. “Minimalizm” so‘zi lotincha *minimum* (eng kam) so‘zidan kelib chiqqan [1; 169]. Bu termin o‘z ichiga semantik jihatdan kamlik, ixchamlik tushunchalarini oladi va insonlar orasida sodda turmush tarzini targ‘ib qiladi. Masalan: *minimalistik interyer*, *minimal mebel yechimlari*, *minimalist rang palitrasi* va sh.k. Nutqda “*minimalizm*” ma’nosini ifodalovchi frazeologik birliklarni ham uchratish mumkin: “*Kam – bu ko‘p*”. “*Kam – bu ko‘p*” frazeologik birikmasi minimalizm falsafasining asosini ifodalaydi. Unda kam resurs yoki elementlar yordamida katta ta’sir ko‘rsatish g‘oyasi yotadi. Bu frazeologik birlik ijtimoiy qadriyat sifatida oddiylik va soddalikni aks ettiradi, bu hozirgi davrda ortiqcha narsalardan voz kechish va hayotni soddalashtirish tamoyilini qo‘llab-quvvatlaydi.

Ekologik dizayn (eko-dizayn) – atrof-muhitni muhofaza qilish, barqarorlik, tabiat bilan uyg‘unlikda yashash. Bu qadriyatlar ijtimoiy mas’uliyat va ekologik barqarorlikka intilishni ifodalaydi. “Ekologik dizayn” termini yunoncha *oikos* (uy) va *logia* (o‘rganish) so‘zlaridan olingan bo‘lib, tabiatga mos dizayn amaliyotlarini anglatadi [4; 247]. Atama morfologik jihatdan “eko” prefiksi orqali ekologik tamoyillarni aks ettiradi. Masalan: “*ekologik toza interyer*”; “*ekologik barqaror dizayn*” va h.k. “*Ekologik dizayn*” ma’nosini ifodalovchi frazeologik birliklarni ham uchratish mumkin: “*Tabiat bilan hamohang*”; “*Yashil iz qoldirish*” va b. “*Tabiat bilan hamohang*” iborasi ekologik dizaynning asosiy maqsadini ifodalaydi: inson yashash muhiti va tabiat o‘rtasida muvozanat yaratish. “*Yashil iz qoldirish*” frazeologik birikmasi esa atrof-muhitga zarar yetkazmaslik tamoyilini anglatadi. Bu frazeologik birliklar ekologiyaga bo‘lgan e’tibor va barqarorlikni aks ettiruvchi zamonaviy qadriyatlarni ifodalaydi.

Loft – shahar hayoti, ijodkorlik va erkinlik. *Loft* dizayn uslubi zamonaviy urbanistik qadriyatlarni, jumladan, ijodiy erkinlik va sanoat makonlaridan foydalanishni ifodalaydi. Ingliz tilidan olingan “loft” so‘zi aslida *yuqori qavat* yoki *cherdak* degan ma’noni anglatadi. Semantik jihatdan sanoat inshootlarini yashash joyiga aylantirish orqali ijodiy va erkin yashash madaniyatini aks ettiradi. Masalan: *loft uslubidagi xona*; *sanoat loft dizayni*; *ochiq loft makoni* va b. “Loft” ma’nosidagi quyidagi frazeologik birliklarga duch kelish mumkin: *ochik makonda yashash; sanoat ruhini his qilish*. “*Ochik makonda yashash*” iborasi loft uslubining asosiy xususiyatini, ya’ni katta va bo‘sh joylarni ifodalaydi. “*Sanoat ruhini his qilish*” esa sanoat binolaridan ilhomlangan estetikani aks ettiradi. Bu frazeologik birliklar jamiyatda urbanizm va ijodiy hayot tarzini qadrlash tamoyillarini ko‘rsatadi.

Comfort (shinamlik) – farovonlik, xavfsizlik, tinchlik. Oila va shaxsiy hayotning himoyalanganligini ta’minlashga bo‘lgan ijtimoiy qadriyatni ifodalaydi. Inglizcha *comfort* so‘zi lotincha *confortare* (mustahkamlash) so‘zidan olingan. Semantik jihatdan jismoniy va ruhiy qulaylikka urg‘u beradi, bu esa insoniy ehtiyojlarga mos keladi: *maksimal comfort*; *comfort xona*; *comfort mebel*; *comfort joy*. *Comfort* ma’nosi qatnashgan frazeologik birliklarga quyidagilarni misol qilish mumkin: “*Uyga o‘xshagan shinamlik*”; “*To‘rt devor orasidagi farovonlik*” va b. “*Uyga o‘xshagan shinamlik*” iborasi qulay va shinam muhitni yaratish maqsadini ifodalaydi. “*To‘rt devor orasidagi farovonlik*” esa yashash joyidagi tinchlik va farovonlikni ta’kidlaydi. Bu frazeologik birliklar zamonaviy jamiyatda shinamlik, xavfsizlik va qulaylikka bo‘lgan talablarni [2; 103] aks ettiradi.

Hi-tech – texnologiyalarga ishonch, futurizm va amaliyotga urg‘u. Texnologiyalar va ilm-fan orqali hayotni yaxshilashga intilish jamiyatning zamonaviy qadriyatlarini aks ettiradi [5; 219]. “*Hi-tech*” qisqartmasi ingliz tilidagi *high technology* (yuqori texnologiya) so‘zlaridan kelib chiqqan. Semantik jihatdan texnologik yutuqlar va innovatsion echimlarni aks ettiradi. Masalan: “*Hi-tech interyer*”; “*Hi-tech uy*”; “*Hi-tech mebel*”. *Hi-tech* ma’nosidagi frazeologik birliklar: “*Kelajak interyeri*”; “*Texnologiyaga asoslangan yashash tarz*”. “*Kelajak interyeri*” iborasi *Hi-tech* uslubidagi zamonaviy va texnologik innovatsiyalar bilan boyitilgan interyerlarni ifodalaydi. “*Texnologiyaga asoslangan yashash tarz*” esa texnologiyalar yordamida uy sharoitlarini boshqarish tamoyillarini aks ettiradi. Bu frazeologik birliklar zamonaviy jamiyatda texnologiya va innovatsiyaga bo‘lgan katta e’tiborni ko‘rsatadi.

Yuqoridagi frazeologik birliklar interyer-dizayn terminlarining ijtimoiy qadriyatlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatib beradi. Ular orqali biz jamiyatdagi texnologik taraqqiyot, ekologik mas’uliyat, soddalik va qulaylik kabi zamonaviy tendensiyalarni kuzatishimiz mumkin. Har bir frazeologik birikma jamiyatning o‘ziga xos ehtiyojlari va qadriyatlarini aks ettiradi [3; 109], bu esa interyer-dizayn tilining qanday o‘zgarib borayotganligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Interyer-dizayn terminlari nafaqat estetik va funksional maqsadlarni ifodalaydi, balki ular jamiyatdagi ijtimoiy qadriyatlar va madaniy o‘zgarishlarning aks-sadosidir. *Minimalizm, ekologik dizayn, loft, comfort* va *Hi-tech* kabi terminlar zamonaviy jamiyatda oddiylik, ekologik mas’uliyat, texnologiyalarga moslashish va qulaylik kabi qadriyatlarni yoritib beradi. Har bir termin o‘ziga xos semantik va aksiologik yuk bilan to‘ldirilgan bo‘lib, ular jamiyatning rivojlanishi va ehtiyojlariga mos tarzda shakllanadi.

Lug‘aviy va frazeologik birliklar orqali interyer-dizayn sohasida insonlar hayot tarzidagi o‘zgarishlar, texnologik rivojlanishlar va ekologik masalalar kabi global tendensiyalarni kuzatish mumkin. Bu terminlar jamiyatdagi muhim qadriyatlarni, jumladan, barqarorlik, shinamlik, xavfsizlik, qulaylik va estetik uyg‘unlikni aks ettiradi. Shunday qilib, interyer-dizayn tili jamiyatning madaniy va ijtimoiy ma’lumotlarini uzatishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi va kelajakda bu tilning yanada boyib borishi kutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Crystal, D. (2010). The Cambridge Encyclopedia of Language (3rd ed.). – UK: Cambridge University Press. – 524 p.

2. Eco, U. (1997). The Search for the Perfect Language. Oxford, UK& Cambridge, USA: Wiley-Blackwell. – 400 p.

3. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press. – 308 p.

4. Oxford English Dictionary (OED). By John Simpson, Edmund Weiner. – 1160 p. – Oxford University Press, 2004. https://archive.org/details/oxfordenglishdic0000unse_a3t6

5. The Penguin Dictionary of Design and Designers. Ed. Simon Jervis. – UK: Penguin Books, 1984. – 533 p.

6. Гринев А.С. Сопоставительный анализ английской и русской архитектурной терминологии: На материале тематического поля "Теория и история архитектуры": автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2004. – 20 с.

7. Гайнутдинова Д.З. Термин-метафора архитектурно–строительного подъязыка: системно–структурный и когнитивно-дискурсивный подходы: дис. ... канд. фил. наук. – Белгород, 2012. – 191 с.

O‘ZBEK VA INGLIZ FRAZEOLOGIZMLARIDA BIR SONI KOMPONENTINING PARADOKSLARI

Karimova Shaxloza Boyquzi qizi
FarDU o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarda son komponentining ma’no ifodasi tahlil qilinadi. Qiyosiy tahlil orqali sonlar frazeologizmlarda kvantitativ va sifat ma’nolarini ifodalashga qanday xizmat qilishi hamda ularning birlik va ko‘plik, qadrlilik va qadrsizlik kabi qarama-qarshi mazmunlarni yaratishi o‘rganiladi. Tadqiqotda son komponentlari

orqali hosil bo‘lgan eksplitsit va implitsit ma’nolar ko‘rsatiladi va madaniy kontekstlarning ta’siri misollar yordamida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: son komponentlari, frazeologik birliklar, kvantitativlik, , iboralar, madaniy ma’no, implitsit ma’no, eksplitsit ma’no, semantik tahlil.

Annotation. This article examines the role of number components in conveying meaning within phraseological units in Uzbek and English languages. Through a comparative analysis, it highlights how numbers contribute to both quantitative and qualitative meanings in idioms, sometimes even creating paradoxes by expressing both singularity and plurality, as well as worth and worthlessness. The study provides examples of implicit and explicit meanings formed by numbers within phraseological expressions, illustrating how cultural nuances affect interpretation.

Keywords: number components, phraseological units, quantitativeness, idioms, cultural meaning, implicit meaning, explicit meaning, semantic analysis.

Frazeologik birliklar tilning madaniy merosi va ifoda imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim unsurlardandir. Son komponentli frazeologizmlar birlik va ko‘plik, qadrlilik va qadrsizlik kabi murakkab ma’nolarni birlashtirib, mazmunan boy ifodalarni yaratadi. O‘zbek va ingliz tillaridagi son komponentli frazeologizmlarning kvantitativ ma’no ifodalashdagi xususiyatlarini qiyosiy tahlil orqali ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlab bermoqchimiz.

Son komponentli frazeologik birliklarda eksplitsit emas, implitsit ma’no yuqoriroq turadi. Shunga qaramasdan iboralarning ba’zilari eksplitsit ma’noga egadir. Bunday iboralar tarkibidagi sonni miqdoriga qarab kontekstda kamlik yoki ko‘plikka ishora etadi. Masalan, *bir-ikki og‘iz, uch-to‘rt og‘iz, besh-olti og‘iz gap* kabi iboralar tarkidagi son o‘sib borishi bilan gapiriladigan gapning miqdorini to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalamoqda. Ingliz tilida ham shunday mazmun ifoda etuvchi frazeologik birliklar mavjud bo‘lib, ibora tarkibidagi son bevosita miqdor mazmunini ifodlaydi. Bularga quyidagilarni misol qilib berishimiz mumkin: o*ne and only – bittayu-bitta, yagona; one too many – bir martasi juda ko‘p, two by two – ikki kishilashib, in two‘s – juft-juft bo‘lib; tree in a row – qatorasiga uchta; in fours – to‘rt kishilashib.*

Men bir-ikki og‘iz so‘z bilan javob qaytardim, lekin bu hammasini hal qilmasdi (O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi).

She answered three questions in a row correctly, and the entire class gasped in astonishment/U ketma-ket uchta savolga to‘g‘ri javob berdi va butun sinf hayratdan o‘zini yo‘qotdi (R.Dahl, Matilda).

Son komponentli iboralardan *bir* sonining iste’molda ko‘p qo‘llanilishini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek tilidagi aksariyat bir son komponentli frazeologik birikmalar tahlil qilinganda, qo‘llanilish doirasidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, paradoks holda bir vaqtning ham birlik ham ko‘plik ma’nolarini ifodalab, oppozitsion holatlarni keltirib chiqaradi.

Bir shingil, bir tutam, bir siqim, bir og‘iz iboralari ham ozgina, kam ma’nolarini eksplitsit ifoda etmoqda.

Buvim tandir yoniga kelib, bir siqim un oldi-da, qozonga tashladi (X.To‘xtaboyev, Sariq devni minib).

Bir dunyo iborasi bilamizki, “juda ko‘p” ma’nosini beradi. *Besh kunlik dunyo* iborasida esa “qisqa, juda oz fursat” nazarda tutiladi. Bu misollar paradoks holatni yuzaga keltirmoqda, bir “ko‘plikka”, besh soni esa “kamlikka” ishora etmoqda. Shunday ekan, bizningcha har doim ham iboralar tarkibidagi son iboradan anglashiladigan kamlik yoki ko‘plik tushunchalarini ifodalamaydi. Bu tushunchalar ko‘pincha son bilan birgalikda ishlatilayotgan hisob so‘zga yoki son ifodalab kelayotgan otga bog‘liq bo‘ladi. Ingliz tilida aynan shu mazmunni ifodalovchi *a world of-bir dunyo va three score and ten – besh kunlik dunyo iboralarida* ham sonning kichigi ko‘plikni, kattasi esa kamlikni ifodlab kelmoqda.

Besh kunlik dunyoda inson zoti bir-biriga mehribon bo‘lsa, yomon bo‘lmasdi (A.Qahhor, Besh kunlik dunyo).

We have nothing else to expect, we all know that, from three score and ten/Biz hech narsadan umid qilmaymiz, biz barchamiz bilamizki, hayot o‘tkinchi va juda qisqa (bu besh kunlik dunyo) (Ch.Dickens, David Copperfield).

Bir pul bo‘ldi iborasida pul qadrli narsa hisoblansa-da, uni *bir* soni bilan ifodalanishi qadrsizlantirishga olib kelmoqda. *Bir siqimgina bo‘lib qolmoq* iborasida ham *siqim* hisob so‘zining o‘zi kamlik ma’nosida uni yana *bir* soni bilan kelishi juda ham kichik jussali ma’nosini bermoqda. Yoki *bir so‘m ustida yumalamoq* iborasida ham arzimagan, qadrsiz bo‘lgan, evaziga hech narsa kelmaydigan *bir so‘m*ni ham ustida tortishdi ma’nosida o‘ta xasis inson nazarda tutilmoqda. *Bir pul bo‘ldi* iborasi ingliz tilida *not woth a dime* iborasi bilan ifodalanib, aynan yuqoridagi fikrlarga mos keladi. Ingliz tilidagi ushbu iborada ham qadrsizlikni ifodalash uchun *a dime* – bitta 10 sentlik juda kichik qimmatga ega bo‘lgan pul birligi vositasida ma’no anglashilmoqda. Shunday mazmunga ega bo‘lgan bir qator iboralar ham mavjud bo‘lib, ularda ham kichik qimmatdagi pul birliklari orqali mazmun ifodalanishini kuzatish mumkin: *not woth a cent (AQSh ning eng kichik tanga birligi), not woth a nickel (5 sentlik tanga), not woth a farthing (eski britaniya pul birligi).* Bundan tashqari *ikki chaqa – two a penny, ten a penny – ko‘pdan ko‘p, dime a dozen – ko‘p, lekin arzimagan* mazmunidagi iboralarda yuqorida ta’kidlangan fikrimizga dalil topgandaymiz. Iboralarda ishtirok etayotgan sonning miqdori iboraning miqdoriy ifodasiga ta’sir ko‘rsatmaydi. Son o‘zi ifodalab kelayotgan otning xususiyatiga qarab miqdor ifodalashda ishtirok etadi. *Two a penny – ikki chaqa* iborasida chaqa ikkita bo‘lsa ham chaqa qadrsizligicha qoladi. Yoki *dime a dozen* mazmun jihatdan *biron narsaning ko‘p, lekin arzimagan qimmatga ega bo‘lishini* nazarda tutadi va unda ham dime 10 sentlik tanga 10 ta bo‘lsa ham ko‘p va qadrsizlikni ifodalalab kelmoqda.

Bir vaqtlar katta hurmatga sazovor bo‘lgan insonlar bugun bir pul bo‘ldi, hech kimning e’tiborida emas (T.Malik, Chiroqlar o‘chmagan kecha).

Heroes were a dime a dozen. But someone who would be there for you when it counted, that’s the kind of hero who was rare/Qahramonlar arzimagan pulga

topilardi. Lekin muhim paytda yoningda bo‘ladigan odam – mana shunaqa qahramon kamdan-kam uchraydi (N.Roberts, High Noon (Yarim tunda)).

Bir dunyo, bir ko‘ylak et, bir etak bola iboralarida bir soni xususiyatidan kelib chiqib, hisob so‘z vazifasida birlikni ifodalaganday, uning yashirin ma’nosi esa ko‘plikka ishora etadi. *Bir dunyo – juda ko‘p, bir ko‘ylak et – ortiqcha vaznli, juda semiz, bir etak bola – ko‘p bolali* ma’nolarini ifodalab kelmoqda. Ingliz tilida ham bunday holat uchraydi. O‘zbek tilida bir soni orqali ifodalanayotgan iboralar ingliz tilida hisob so‘z yordamida ifodalanadi. *Bir etak bola* iborasi ingliz tilida *a handful of kids*, ya’ni bir siqim bolalar shaklida keladi. *A handful – bir siqim* hisob so‘zi orqali ko‘p farzandli mazmunini bermoqda va bir nechta ma’nosini anglatmoqda.

Bir etak bolasi bilan uyga qaytganida, uyni tinchitish oson emas edi (O‘.Hoshimov, Bodom qovoq).

The house is full of kids. It seems as if they’re coming out of the walls, a handful here, a handful there. They’re everywhere/Uydagi bolalar soni juda ko‘p. Ular devorlardan chiqayotganday tuyuladi, bu yerda bir nechtasi, u yerda bir nechtasi. Har yerdalar (F.McCourt, Angela’s Ashes (Anxellaning kullari)).

Bir ko‘z bilan qaramoq iborasi ko‘rinishidan cheklanganlik, bir tomonlama xulosa chiqarish ma’nolarini bildirgandek tuyuladi, aslida esa, xolis, atroflicha o‘ylab, biron tomonga yon bosmay, betaraf muomala-munosabatga kirishishni ifodalaydi[94].

Shu masalaga bir ko‘z bilan qarang, balki haqiqatni tushunarsiz (E.A’zam, Tushda kechgan umrlar).

Bir kami, bir ko‘ngli, bir hisobda kabi iboralar xususiy holatlarda vaziyatdan kelib chiqib solishtirish asnosida faoliyat yuritishda qo‘llaniladi.

Hamma ish reja bo‘yicha ketmoqda edi, bir kami shu – vaqt juda qisqalik qilayotgandi (X.To‘xtaboyev, Sariq devni minib).

Bundan tashqari *bir qaynovi ichida, bir vinti kam, yetishmaydi, bir qoshiq qonidan kechmoq, bir yoqli bo‘ldi* iboralarida bir so‘zi “biroz” ma’nosida mavjud vaziyat yoki holatni yumshatish, yengillashtirish ma’nolarini ifodalash uchun ham ishlatiladi. Bu iboralarning ma’nosi to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalash odobdan emasligi bois, ulardan foydalaniladi. Tajribasiz yoki mukammal bo‘lmagan, aqlan yetuk hisoblmagan insonga nisbatan *bir qaynovi kam, bir vinti kam, yetishmaydi* iboralari qo‘llaniladi. *Bir yoqli bo‘ldi* iborasi esa, yo‘q bo‘ldi yoki bu olamni tark etdi ma’nolarini beradi. *Bir qoshiq qonidan kechish* ham katta aybni biroz bo‘lsa-da avf etishni bildiradi. Ingliz tilida shu mazmundagi *one brick short of a load, one sandwich short of a picnic, one card short of a full deck, one fry short of a Happy Meal, one screw loose, one taco short of a combination plate* iboralari aynan *bir vinti kam, yetishmaydi, bir qaynovi kam* iboralarining muqobili sanaladi. Ushbu ibora ham *one – bir* soni yordamida tuzilgan bo‘lib, qo‘pol mazmunni yumshatish maqsadida qo‘llanilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

[94]Rahmatullayev Sh, Mahmudov N, Xolmanova Z, O‘razova I, Rixsiyeva K. O‘zbek tili izohli lug‘ati. – Toshkent, 2022. – B.83.

1. Abdulla Qahhor. Besh kunlik dunyo. Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1968. – B.120.
2. Erkin A’zam. Tushda kechgan umrlar. Toshkent: O‘zbekiston, 1986. –B.250.
3. Rahmatullayev Sh, Mahmudov N, Xolmanova Z, O‘razova I, Rixsiyeva K. O‘zbek tili izohli lug‘ati. – Toshkent, 2022. – B.83.
4. O‘tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. Toshkent: Sharq, 2005. – B.520.
5. Dahl, Roald. Matilda. London: Penguin, 1988. – B.240.

HISTORY AND ASPECTS OF THE STUDY OF PLUG-IN STRUCTURES

Ernazarova Hilola
Teacher in KSPI

Annotation. This comprehensive review explores the historical development and various aspects surrounding the study of plug-in structures. Plug-in structures, defined as modular architectural systems designed for flexible and adaptable configurations, have garnered increasing attention in both academic and practical spheres. The annotation traces the evolution of plug-in structures from their origins to contemporary applications, highlighting significant milestones and key contributors in the field. Furthermore, it delves into the theoretical frameworks, design methodologies, and technological advancements underpinning plug-in structures, shedding light on the interdisciplinary nature of this subject. Additionally, the annotation examines the socio-cultural, environmental, and economic implications associated with the adoption and implementation of plug-in structures, emphasizing their potential to address pressing challenges in urbanization, sustainability, and spatial innovation.

Keywords: plug-in constructions, formation, subjective perspective, literary texts.

For a long time, introductory words were considered as part of introductory ones, i.e. such units, the main feature of which was the absence of syntactic connections in them with the sentence in which they are included, as well as the special intonation of inclusion. At different stages of the development of linguistics, the views of researchers were concentrated on three approaches to the study of linguistic phenomena: formal, semantic and communicative. Initially, introductory words were analyzed from the point of view of formal features. Research conducted on the material of European languages made it possible to draw conclusions about the structure of the introductory words, the positional nature, means and features of the connection between the insertion and the sentence, and the prosodic features of the introductory words.

Researchers paid special attention to establishing the nature of the syntactic connection that exists between the insertion and the including context and which was characterized as different from both composition and subordination, although some works say that the inclusion of an insertion component in a sentence occurs

"without any syntactic connection." According to A. F. Priyatkina, the specificity of this type of connection lies in the "freedom of inclusion" of the insertion into the structure of the inclusive statement.[95] By wedging itself into a sentence, introductory words do not affect the connections between its members and does not violate its intonation integrity. Since the insertion "is not embedded in the internal program of the utterance," but appears as a result of the associative process, all internal connections and relationships in the structure of the sentence remain independent of the presence or absence of the insertion component.

However, according to the degree of freedom and independence, introductory words are divided into two types - formally associated with the context and independent, isolated from it. In the first case, when the parentheses are removed, the insertion naturally enters into sentences without changing either its structure or its structure, and takes the form of some member of the sentence. Introductory words of the second type are characterized by the absence of formal indicators of syntactic connection with the inclusive context; therefore an attempt to introduce them "without parentheses" requires certain transformations in the structure of the insertion or the inclusive sentence.

Introductory words are inseparable from the concept of "bracket construction". Parentheses were known back in the early 17th century to M. Smotritsky. M. Smotritsky did not sufficiently define the functional range of the introductory words, however, according to S. V. Vyatkina, he managed to grasp "two possible strategies that could be implemented in the inserted structure:

1) explanation, interpretation of the elements of the text for an adequate understanding of it (editorial or author's work) and 2) placing information in the insert that contrasts in content with the main sentence."[96]

Brackets, according to G. N. Akimova, in the language have always served only to design "plug-in constructions in their broadest sense." It is also known that an insertion unit can be distinguished by double dashes, commas, and sometimes ellipses. [97] However, these punctuation marks differ in the strength of emphasis, which increases from commas to parentheses. In addition, the advantage of using brackets to design introductory words is the "ambiguity and "overload" of commas and dashes, while brackets are more unambiguous in functional terms. As O. V. Zhuchkova notes, the use of brackets makes it easier to both read and comprehend the text.[98]

From the point of view of semantics, introductory words have been studied to a lesser extent. Insertion, as a type of parentesis, is traditionally considered in comparison with introductory elements. This approach is also used to determine

[95] Priyatkina A. F. Russkiy yazyk. Sintaksis oslozhnennogo predlozheniya. M., 1990

[96] Vyatkina S. V. Dinamika razvitiya vstavnykh konstruktsiy v russkom literaturnom yazyke // Tendentsii razvitiya russkogo yazyka. Sb. st. k 70-letiyu prof. G. N. Akimovoy. SPb., 2001.

[97] Akimova G. N. Sovremennoye upotrebleniye skobok (v svyazi s novymi sintaksicheskimi yavleniyami) // Russkiy yazyk v shkole. 1980.

[98] Zhuchkova O. V. K voprosu o punktuatsionnom vydelenii vstavnykh konstruktsiy // Voprosy grammatiki russkogo yazyka. Irkutsk, 1981.

the semantics of an inserted component. When distinguishing introductory words and introductory words, it is customary to rely on the modal shades they introduce into the content of the main statement. The introductory component, in relation to the main sentence, expresses the attitude of the subject of speech to the information being communicated - subjective modality (evaluation) or mode. Introductory words containing additional information, incidental comments, amendments, clarifications to the content of the including sentence (to a separate word or sentence as a whole) are a means of expressing objective modality. In other words, the dominant meaning of the insertion element is the expansion of the main informative plan of the utterance.

At the same time, many syntacticists note the diversity and even "limitlessness" of the meanings expressed by introductory words. It has been shown more than once in scientific works that the insertive component can also introduce subjective modal meanings (for example, evaluative ones) into the content of the including sentence. The lack of knowledge of the mode in general and in the structure of the insertion in particular is explained, according to T. V. Shmeleva, by three reasons: the tendency of the mode to manifest itself implicitly, a wide and heterogeneous range of linguistic means when expressed explicitly, and the ambiguity of modal indicators in different conditions. However, research shows that an insertion can include modal information such as authorization, persuasiveness, emotiveness, metacategories, as well as cases of contamination of dictum and modus information in the insertion structure.[99]

In recent decades, the communicative approach to the study of linguistic phenomena has become dominant, and the "problem of the effectiveness of verbal communication" has been placed at the center of philological knowledge. Making an attempt to describe the system of forms of speech utterance, V. G. Admoni touches on the issue of aspects of speech communication. The researcher identifies several aspects, among which is the aspect of the psychological formation of a speech utterance, which implies the opposition of statements according to such a parameter as spontaneity/preparedness. According to E. I. Gavrilova, it is this characteristic that helps determine the essence of introductory words in the communicative aspect. Indeed, the appearance of introductory words in oral speech, which is formed immediately at the moment of speaking, is due to the heterogeneity of the speaker's consciousness. The need for insertion arises in the speaker in the very process of constructing a phrase and is a manifestation of secondary, associative speech-thinking activity.[100]

At the same time, introductory words not only signal a distraction from the main idea, but also serve as pause fillers. In other words, introductory words in unprepared speech are a natural, logical phenomenon. Introductory words in written speech, prepared and processed, are interpreted as a special way of

[99] Shmeleva T. V. Semanticheskiy sintaksis: Tekst lektsiy. Krasnoyarsk, 1988.
[100] Gavrilova Ye. I. Vstavki v tekstotsentricheskom i antropotsentricheskom aspektakh. Dis. … kand. filol. nauk. Novosibirsk, 2002.

presenting information, as a special technique of "compositional and semantic complications. Within the framework of the communicative approach, inserted units within a sentence began to be considered as a means of explicating the author's presence. Introductory words, wedged into a sentence, participate in the dismemberment of the text. The ability of inserted components to disrupt the linear arrangement of sentence elements leads to the formation of a two-dimensional presentation. In this case, it becomes incorrect to understand the insertion as a secondary element in the semantic structure of the statement. The inclusion of introductory words in the sentence is due to the author's strategy, based on combining "two lines, levels of thought and its presentation" in the sentence. The two-dimensionality of the narrative makes the statement multidimensional, deepening its semantic structure.

At the same time, introductory words are not only a characteristic of the subject of speech, but also one of the means of influencing the addressee and dialogue with him. The manifestation of dialogism is facilitated by the intimateization of the narrative, including the addressee in joint reflection with the author. This technique is manifested in direct appeal to the reader, verb forms (2 literal plural, imperative), constructions of expressive syntax, and stylistic contamination. The listed lexical, grammatical and stylistic means of "entry" of the addressee into the text can also be placed in the structure of the introductory words.

The achievements of syntacticists studying IC in structural, semantic and communicative aspects allow us to draw some conclusions about the characteristics of insertion. Structurally, Introductory words have a special connection with the including sentence, which is not similar to either composition or subordination and is expressed using intonation - in writing punctuationally (brackets, dashes). From the point of view of semantics, introductory words are a component of a sentence containing dictum (to a greater extent), modus and dictum-modus information. In communicative terms, introductory words violate the linear nature of the construction of a statement; create a two-dimensional presentation, reflecting certain author's intentions.

The function of introductory words, in a broad sense, is to convey "additional information that is not necessary for understanding the information presented in the main sentence, to convey thoughts that arise in the writer by association." The range of private functions of introductory words is quite wide and is determined depending on the speech organization of the text (poetic/prose), the functional characteristics of the text, and the level of implementation (sentence or text).

Classifications of the functions of introductory words in a literary text are based on the connection of introductory words with various levels of the text, primarily with the propositional and textual. At the sentence level, introductory words of an informative nature (expansion of factual information) and introductory words of an emotional, expressive and evaluative nature (expression of the author's subjective attitude) are distinguished. At the textual level, the functions of

introductory words are determined by their participation in the formation of spatio-temporal organization, subjective organization (interaction of subject-speech plans, points of view), in the formation of the image of the author through the explication of the author's modality, in the establishment of intertextual connections.

REFERENCE:

1. Akimova G. N. Sovremennoye upotrebleniye skobok (v svyazi s novymi sintaksicheskimi yavleniyami) // Russkiy yazyk v shkole. 1980.
2. Gavrilova Ye. I. Vstavki v tekstotsentricheskom i antropotsentricheskom aspektakh. Dis. … kand. filol. nauk. Novosibirsk, 2002.
3. Priyatkina A. F. Russkiy yazyk. Sintaksis oslozhnennogo predlozheniya. M., 1990
4. Shmeleva T. V. Semanticheskiy sintaksis: Tekst lektsiy. Krasnoyarsk, 1988.
5. Vyatkina S. V. Dinamika razvitiya vstavnykh konstruktsiy v russkom literaturnom yazyke // Tendentsii razvitiya russkogo yazyka. Sb. st. k 70-letiyu prof. G. N. Akimovoy. SPb., 2001.
6. Zhuchkova O. V. K voprosu o punktuatsionnom vydelenii vstavnykh konstruktsiy // Voprosy grammatiki russkogo yazyka. Irkutsk, 1981.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI SON KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARDA KVANTITATIVLIK IFODASI

Karimova Shaxloza Boyqo‘zi qizi
FarDU o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi son komponentli frazeologizmlar orqali kvantitativlikning ifodalanishi o‘rganiladi. Frazeologik birliklarning til madaniyatidagi o‘rnini, xususan, ularning kvantitativ ma’noni ifodalashdagi o‘ziga xosliklarini tadqiq etish orqali son komponentli frazeologizmlar ikki tilda qanday turlarga ajralishi va ularning umumiy va o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Son komponentli frazeologizmlarning qo‘llanilish usullari, turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarda qanday ma’nolarni ifodalashi muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: kvantitativlik, son, son komponetli, frazeologizm, frazeologik birliklar, iboralar.

Abstract. This article explores the expression of quantity through number-based phraseological units in Uzbek and English languages. By examining the role of phraseological units in linguistic culture, the research highlights the unique characteristics of conveying quantitative meanings through such units. The study categorizes number-based phraseological units in both languages and analyzes their shared and distinct features. The usage patterns of these units and the meanings they convey in various social and cultural contexts are also discussed.

Keywords: quantitativeness, number, number-based, phraseological unit, phraseological expressions, idioms.

Tilning go‘zalligi va boy imkoniyatlarini namoyon etuvchi til birligi bu frazeologik birliklardir. Har bir tilda tilning o‘ziga xos frazeologik birliklari, iboralar, so‘z va iborali birikmalari mavjud. Tilning madaniy xususiyatlarini ochib berishda ularning o‘rni beqiyos hisoblanadi.

Frazeologizm barqaror birikmalar sanaladi. Ikki va undan ortiq so‘zlaming barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi[101].

Barqaror birikmalar frazeologizmlar, aforizmlar, maqollar va matallarni tashkil etadi. Maqol va matallar, aforizmlar esa paremalar deb ataladi. Frazeologizmlarni frazeologiyada, maqol va matallar, aforizmlarni paremiologiyada o‘rganiladi. Demak ularning barchasi barqaror birikmani tashkil etuvchilari sanalar ekan, ular bir-birlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Frazeologik birliklar turli tillarda ko‘p yillardan buyon tadqiqot obyekti sanalib, u haqida yetarlicha izlanishlar mavjud.

Kvantitativlikning frazeologizmlarda ifodalanishi yangi istiqbolli mavzulardan sanaladi. Sababi, bu sohadagi tadqiqotlar sanoqlidir. O‘zbek tadqiqotchilaridan B.N.Otaqulov, S.Ashurova va F.Shukurovalarning[102] izlanishlari frazeologik birliklarda kvantitativlikning ma’lum ko‘rinishlarining ifodlanishi bilan bog‘liq.

Ingliz tilida frazeologik birliklarda kvantitativlikning ayrim ko‘rinishlari bilan bog‘liq bo‘lgan izlanishlardan, S.Sagidova, A.S.Didiuxina, L.Ionikalarning[103] tadqiqotlarini sanab o‘tish mumkin.

Tadqiqotimizda frazeologizmlarda kvantitativlikning namoyon bo‘lishi haqida fikr yuritar ekanmiz, tahlil natijasi xulosalangan fikr asosida ularni o‘rganmoqchimiz. O‘zbek va ingliz tillarida miqdor konseptli frazeologzmlarni yig‘ib, tahlil qilganimizda ularning ifoda usullariga ko‘ra, asosiy ikki guruhga bo‘linishini kuzatdik. Bizningcha, kvantitativlik frazeologizmlarda sonlar orqali yoki leksik vositalar orqali ifodalanishi mumkin. Dastlab, o‘zbek va ingliz tillarida sonlar ishtirok etgan frazeologizmlarda kvantitativlikning ifodalanishini ko‘rib chiqaylik.

O‘zbek va ingliz tillaridagi kvantitativlikni ifodalovchi son komponentli frazeologizmlar quyidagilardan iborat:

Bir son komponetli kvantitativlikni ifodalovchi frazeologizmlar:

O‘zbek tilida: *bir bahya qold – oz qoldi; bir boshdan – tartib bilan; bir boshga bir o‘lim – inson faqat bir marotaba o‘ladi; bir boshini ikki bo‘lmoq –*

---

[101]Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2016. – B.115.

[102] Otaqulov B.N, Linguistic features of number component measurative phraseological units. Theoretical and Applied Sciences. Philadelphia. USA. 2020.

Ashurova S, Shukurova F. Some Consideration on Etymology of phraseological units in the Uzbek and English Langauges. Semantic Scholar. 2020.

[103] Sagidova.S. Phraseological units with Cardinal Numeral Componet in the English Language. Smenatic Scholar. 2021. Didiuxina A.S., Xiaolong Shi. Ethnocultural Experience of Representing the Conceptual Meaning of “Smal Quantity of Something” at the Phraseological level in Russian, English and Chinese Languages. Kazan Linguisic Journal. 2024. Ionica L. Dynemics of Expressions, A Romanianenglish contrastive analysis.

ko‘paymoq, uylanmoq; bir burda bo‘lib qolmoq – ozib kichkina bo‘lmoq; bir dunyo – juda ko‘p; bir etka bola – ko‘p bolali; bir hisobda – bir miqdorda; bir ishi ikki bo‘ldi – bir ishi ikkitaga oshdi, ko‘paydi (salbiy ma’noda); bir kesak bilan ikki qarg‘ani urmoq – bir ish bilan ikkitasini hal qilmoqbir ko‘ylak et – ortiqcha vaznli; bir ko‘ylakni burun (ortiq, oldin) yirtmoq – malakasi oshiq; bir oyog‘(i)…da bo‘lsa, bir oyog‘(i) … da – yoshi katta odamlarga nisbatan ishlatiladi; bir og‘iz – oz so‘zlash; bir parda baland olib yubormoq – sal oshirib yubormoq; bir qarich – yosh, go‘dak, kichkina; bir qatorga qo‘ymoq – teng deb bilmoq; bir qoshiq suv bilan yutib yuborguday – ortiqcha go‘zal; bir siqimgina bo‘lib qolmoq – kichiklashmoq; bir tovuqqa ham suv kerak, ham don kerak – ko‘p narsa kerak ma’nosida; bir tutam, bir shingil, bir chimdim – oz, ko‘p bo‘lmagan ma’nosida, bir ikki qovin pishig‘i – ancha vaqt bor ma’nosida;

ingliz tilida: *all in one, one in a million – millionning biri, noyob, one too many, one of a kind, the only one, one and the same, one by one, one of many, one or two, not one to, not one iota.*

Ikki son komponentli kvantitativlikni ifodalovchi frazeologizmlar:

o‘zbek tilida: ikki bukulib – ortiqcha darajada; ikki dunyo bir qadam – katta masofa ham ozday; ikki ellik – qisqagina; ikki gapning birida – qayta-qayta; ikki og‘iz – ozgina, andak; ikki shingil – ozgina, ozroq;

ingliz tilida: *two of a kind, two‘s company, cut in two, two-fold, in two minds, two peas in a pod, put two and two is together, two heads are better than one, two – way street, between two stools;*

uch son kompenentli kvantitativlikni ifodalovchi frazeologizmlar:

o‘zbek tilida: *uch-to‘rt og‘iz – ozgina, kamroq;*

ingliz tilida: *three’s a crowd, three strikes and you’re out, threefold, third time’s a charm, three cheers, three-ring circus, three-legend race, three square a day, three sheets to the wind, at the third stroke.*

to‘rt son komponentli kvantitativlikni ifodalovchi frazeologizmlar:

o‘zbek tilida: *to‘rt gapning birida – ikki gapning birida – tez – tez; to‘rt ishkal(i) but – boy, yetarlicha daromadga ega; to‘rt og‘iz – oz-moz, biroz; to‘rt ellik – ikki ellik – ozgina;*

ingliz tilida: *four corners of the earth, four-letter word, four eyes, four-wheel drive, four-score and seven years ago.*

besh son komponentli kvantitativlikni ifodalovchi frazeologizmlar:

o‘zbek tilida: *besh qo‘l barobar emas – teng emas; besh barmog‘(i)day – atroflicha, batafsil; besh barmog‘ini og‘ziga tiqmoq – ortiqcha xirs; besh battar – yomon holatlarning oshishi; besh kunlik dunyo – qisqa dunyo, oz fursat yashamoq; besh-olti og‘iz gap – bir nechta gap; besh-olti qovun pishig‘i – anchagina vaqt, besh-olti yil; besh-olti ko‘ylakni ortiq yirtmoq – tajribasi ko‘p;*

ingliz tilida: *high five, five-finger discount, take five, **five o‘clock shadow,** the Big Five, fifth wheel, into the five and dime.*

olti son komponentli kvantitativlikni ifodalovchi frazeologizmlar:

o‘zbek tilida: olti raqami ishtirokida o‘zbek tilida iboralar uchratmadik.

ingliz tilida: *six feet under, at sixes and sevens, sixth sense, hit for six, six-pack.*

yetti son komponentli kvantitativlikni ifodalovchi frazeologizmlar:

o‘zbek tilida: *yetti pushti – bir necha bo‘g‘in ajdodlari; yetti qovun pishig‘i – bir necha yil muddat; yetti xuftongacha – ancha vaqtgacha; yetti yoshdan yetmish yoshgacha – katta-kichik, barcha; yetti yod begona – umuman begona;*

ingliz tilida: *seven-year itch, seventh heaven, lucky seven, seven wonders of the world, dressed to the sevens.*

o‘n son komponentli kvantitativlikni ifodalovchi frazeologizmlar:

o‘zbek tilida: *o‘n gulidan bir guli ochilmagan – yosh, kichik yoshli; o‘n kulib, bir gapirmoq – xushchaqchaq; o‘n og‘iz – yetarlicha, oz emas;*

ingliz tilida: *ten out of ten, top ten, ten-fold, hang-ten.*

Son komponetli frazeologik birliklar miqdor ma’nosiga ega bo‘lish bilan birgalikda turli ma’nolarni ham ifodalab keladi. Bunday iboralar xalq orasida keng qo‘llanilib, ularning yillar davomida yig‘ilgan tajribalarini biron bir vaziyat yuzasidan fikrlarini son komponentli frazeologik birlik yordamida ifodalashini kuzatish mumkin. Son ishtirok etgan frazeologik birliklar ko‘pincha jamlik, xususiylik, ajratib ko‘rsatish, taxmin, vaziyatni yumshatish, bo‘rttirish va sinchkovlik ma’nolari ifodalash uchun qo‘llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashurova S, Shukurova F. Some Consideration on Etymology of phraseological units in the Uzbek and English Langauges. Semantic Scholar. 2020.

2. Didiuxina A.S., Xiaolong Shi. Ethnocultural Experience of Representing the Conceptual Meaning of “Smal Quantity of Something” at the Phraseological level in Russian, English and Chinese Languages. Kazan Linguisic Journal. 2024.

3. Ionica L. Dynemics of Expressions, A Romanianenglish contrastive analysis.

4. Otaqulov B.N, Linguistic features of number component measurative phraseological units. Theoretical and Applied Sciences. Philadelphia. USA. 2020.

5. Sagidova.S. Phraseological units with Cardinal Numeral Componet in the English Language. Smenatic Scholar. 2021.

6. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2016. – B.115.

ELEKTRON LUG‘ATLAR VA ULARDA TERMINLARNING BERILISHI

Egamnazarova Zaynab Xolmurod qizi
Termiz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqola leksikografiyaga kompyuter lingvistikasining kirib kelishi, elektron lug‘atlarning qo‘llanilishi va yaratilish maqsadlari hamda ularda terminlarning berilish masalalariga bag‘lishlangan.

Kalit so‘zlar. Leksikografiya, kompyuter lingvistikasi, kodlash, dekodlash, avtomatizatsiya, terminologik ma’lumotlar banki.

Annotation. This article is devoted to the introduction of computer linguistics to lexicography, the use and purposes of creation of electronic dictionaries, as well as issues of giving terms in them.

Keywords. Lexicography, computer linguistics, coding, decoding, automation, terminological data bank.

Leksikografiya tilshunoslik fanining amaliy sohalaridan biri hisoblanadi. U yunoncha “lexikos – so‘z”, “lug‘at”, “grapho – yozaman” degan ma’nolarni anglatadi. Leksikografiya bo‘limida lug‘atlar, ularni tuzish yo‘llari va tamoyillari o‘rganiladi. Avtomatizatsiya ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga kirib kelishi natijasida lug‘atlar ham elektron holatda yaratilish imkoniyati yuzaga keldi. Kompyuter yordamida lug‘atlar bilan ishlashning optimallashuvi natijasida kompyuter leksikografiyasi yo‘nalishi shakllandi. Kompyuter leksikografiyasi amaliy tilshunoslikning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, unda lingvistik va dasturiy ta’minot asosida ishlaydigan, kodlash va dekodlash prinsipi asosida yaratilgan kompyuter lug‘atlari, ularni tuzish dasturlari, algoritmlari o‘rganiladi. Mazkur sohaning rivojlanishi natijasida turli nomlarda elektron lug‘atlar yaratilmoqda. Eng mashhur elektron lug‘atlar sirasiga ***CONTEXT, ABBY LINGVO, MULTITRAN, POLYGLOSSUM, MULTILEKS*** kabilar kiradi.

Avvalo, fan sifatida leksikografiyaning dialektik birligini ta’kidlash lozim. Bir tomondan, leksikografiya boshqa lingvistik fanlar qatorida alohida ilmiy intizom, boshqa tomondan, inson amaliyotining turli sohalari uchun zarur bo‘lgan universal metodologik fan hisoblanadi. Matematika, biologiya, informatika, madaniyatshunoslik va boshqa fanlarda ilmiy izlanishlarni lug‘atlarsiz amalga oshirish mumkin emas: lug‘atlar ko‘plab ilmiy manbalarning asosiy, dasturiy manbalari sifatida tan olingan, shuning uchun zamonaviy mahalliy va xorijiy tilshunoslar leksikografiyani sintetik fan deb bilishadi. “Zamonaviy leksikografiyaning o‘ziga xos xususiyati shuki, u keng ma’noda filologiya va madaniyatning sintezidir”, – deb ta’kidlaydi Apresyan. Leksikografiyani sintez sifatida ham nazariy, ham ilmiy tadqiqotlarning amaliy jihatlarini birlashtirgan holda ko‘rib chiqish mumkin. Bugungi kunda leksikografiya oldida turgan vazifalar insoniyat amaliyotining xilma-xil sohalariga taalluqlidir: tarjima, ona tili va xorijiy tillarni o‘qitish, kompyuter, axborot qidirish tizimlari, madaniyatshunoslik, etnografiya, professional aloqa muammolari, sotsiologiya, psixologiya va boshqalar.

“Leksikografiya” tushunchasining mazmuni ham nazariy leksikografiyadan, shu jumladan, lug‘atlar yaratish nazariyasi va tarixidan, ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri lug‘atlar yoki birlamchi lug‘at materiallarini yaratishdan iborat amaliy leksikografiyadan iborat. B.Y.Gorodetskiy shunday ta’kidlagan: “Leksikografiya ilmiy fan sifatida shubhasiz murakkabdir: uning tarixiy-filologik jihati lug‘atlarning tipologiyasiga va ularning madaniyat bilan bog‘liqligiga doimiy qiziqishda namoyon bo‘ladi, uning epistemologik jihati lug‘atlarning mohiyati bilan tartibga solish usuli sifatida va jamiyat tomonidan to‘plangan bilimlarni, uning butunligini taqdim etish – semantik-leksikologik jihat til mazmuni rejasini

modellashtirishga muvofiq lug‘at ma’lumotlarini umumlashtirish bilan bog‘liq. Shunga qaramay, leksikografiyaning aniqlovchi xususiyati uning amaliy yo‘nalishidir”[104].

Leksikografiya sohasiga kompyuter texnologiyalarining tatbiq etilishi lug‘at tuzish ishlarini ancha yengillashtiradi. Axborot manbalarini yig‘ish bo‘yicha maxsus dasturlar (Database Software) lug‘at asosini tashkil etuvchi barcha ma’lumot va misollarni jamlash va sistematik tarzda ishlov berishga qulaylik tug‘diradi. Bundan tashqari boshqa maxsus dasturlar lug‘atni tahrir qilish va chop etish borasidagi ancha mashaqqatli mehnatni bir qancha osonlashtiradi. Elektron lug‘atlar ham o‘z navbatida an’anaviy lug‘atlarga qaraganda bir muncha ko‘proq afzalliklarga ega. Mavzuning dolzarbligi ham shunda bo‘lib, aynan elektron lug‘atning ahamiyatini qiyosiy tahlillar bilan ochib berildi.

Taniqli xorijiy terminologik ma’lumotlar banklariga ba’zi misollar:

NORMATERM – standartlashtirilgan terminologiya banki (Fransiya);

TERMUM – Kanada hukumatining ikki tilli muddatli banki;

TEAM – ≪Simens≫ (Germaniya), TERMDOC (Shvetsiya), TERA (Finlyandiya) va boshqa ko‘p tilli bank.

Terminologik ma’lumotlar banklarida har bir atama haqidagi ma’lumotlar yozuvning ma’lum bir sohasiga kiritiladi. Har bir sohada ma’lum bir axborot turi – atamaning bir sohadagi talaffuzi, boshqasidagi ta’rifi, uchinchisidagi grammatik xususiyati va boshqalar haqida yoziladi. Ikki tilli leksikografiyada terminologik ma’lumotlar banklarining afzalligi foydalanuvchi talabiga binoan asl til va tarjima tilini o‘zgartirish qobiliyatidir.

Zamonaviy leksikografiya lug‘atlarni yaratish va ulardan foydalanish uchun kompyuter vositalarini sezilarli darajada kengaytirdi va mustahkamladi. Amaliy tilshunoslikning ushbu sohasi kompyuter leksikografiyasi deb ataladi. Lug‘atga kirishni tashkil qilish usullari, lug‘atlarning tuzilishi va ularni yaratish texnologiyasi uni qiziqtiradigan markazdir. Tabiiy fanlar va muhandislik bilan taqqoslaganda, tilshunoslikda kompyuterdan foydalanish astasekinlik bilan amalga oshirildi. Leksikografiyada kompyuterdan foydalanish to‘g‘risida gap ketganda, uning uchta bosqichni ajratib ko‘rsatdi[105]:

1. Kompyuter yordamida (qog‘ozli) leksikografiya,
2. Mavjud qog‘oz lug‘atlarni elektron vositaga o‘tkazish,
3. Elektron muhit uchun yangi yaratilgan elektron lug‘atlar.

Elektron lug‘atlarning paydo bo‘lishiga obyektiv holatlar sabab bo‘ladi, ularning yordami bilan lug‘at hajmi muammosini hal qilish, lug‘atda kerakli ma’lumotlarni tezda topish va tarkibni hozirgi vaqtga moslashtirish mumkin. V.P.Berkovning fikriga ko‘ra, XXI asr lug‘ati quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:

---

[104] Kompyuter leksikografiyasi [Matn]: o‘quv qo‘llanma / Mengliyev, Baxtiyor Rajabovich; Xamroyeva, Shahlo Mirdjonovna; Axmedova, Dildora Bahodirovna – Toshkent, 2022. – B.6-7

[105] https://www.researchgate.net/deref/http%3A%2F%2Fwww.lingvoplus.ru%2Fleksikografiya%2F?_tp=eyJjb250ZXh0Ijp7ImZpcnN0UGFnZSI6InB1YmxpY2F0aW9uIiwicGFnZSI6InB1YmxpY2F0aW9uIn19

1. O‘zining hajmida ulkan.

2. Foydalanuvchining ehtiyojlariga qarab ma’lumotlarning bosqichma-bosqich chiqarilishini ta’minlash.

3. Lug‘atning sog‘lom bo‘lishi qobiliyati.

4. Kirish va chiqish tillari so‘zlari haqida to‘liq grammatik ma’lumotlarni, xususiy nomlar bo‘yicha keng materiallarni transkripsiya dasturlari bilan ta’minlash qobiliyati.

5. Grafik tasviriy materialni kiritish imkoniyati[106]. Ushbu ehtiyojlarning barchasini elektron lug‘atlar qondiradi. Lug‘atlarning ensiklopedik va lingvistik jihatdan umumiy qabul qilingan bo‘linishiga endi oppozitsiya elektron (bosma) lug‘ati qo‘shildi.

Uning ortidan G.M. Mandrikova, biz ularning bir-biridan farqlarini quyidagi xususiyatlarga ko‘ra ko‘rib chiqamiz:

1. Egiluvchanlik - lug‘atdan foydalanishni soddalashtiradigan va u bilan ishlashda foydalanuvchi imkoniyatlarini kengaytiradigan lingvistik va dasturiy ta’minot texnikasining kompleksi sifatida. Bu foydalanuvchi qisqa vaqt ichida lug‘atga kirish va kerakli ma’lumotlarni olish uchun qulaylikdir;

2. Ko‘p tillilik - har bir til uchun leksik birliklarni ushbu tilning qonunlari va vositalari asosida mustaqil tavsiflash imkoniyati sifatida;

3. Qaytaruvchanlik - kompyuterning lug‘atiga kiritilgan har qanday tillardan kirish sifatida foydalanish qobiliyati sifatida;

4. Dinamizm - eskirgan ma’lumotlarni doimiy ravishda to‘ldirish, tuzatish, olib tashlash imkoniyati sifatida dinamizm. Bunday o‘zgaruvchanlik, lug‘atning yaratilishi va ishlashi davridagi o‘zgarishlarni sezish qobiliyati elektron lug‘at bilan an’anaviy lug‘at o‘rtasidagi tub farqdir[107].

Terminologik ma’lumotlar banki/TMB (muddatli bank) bu – juda ixtisoslashgan yo‘nalishlarga bo‘linadigan va turli xil qiziqishlar, bilimlar va o‘qitish darajalariga ega foydalanuvchilarning aniq guruhlariga yo‘naltirilgan ma’lumotlarning elektron qobig‘i[108].

TMB lug‘at yozuvining tuzilishi odatda quyidagicha ko‘rinadi:

• muddat (chap tomonda) (O‘ng qism)

• atamaning ma’nosi;

•atamaning boshqa tillardagi ekvivalentlari;

• ruxsat berilgan sinonimlar;

• manzil (milliy yoki xalqaro standart kabi muddatni tasdiqlagan hujjatga havola);

• boshqa qo‘shimcha ma’lumotlar (atama mavzusi, oxirgi tahrir sanasi, lug‘at

---

[106] Берков В.П. Двуязычная лексикография. - СПб: СПУ, 1996. –С.15

[107] Тузлукова В.И. Типология педагогических лексикографических источников в международной педагогической лексикографии // Сборник трудов Второй Международной научнопрактической конференции "Международная педагогическая лексикография в теории и практике обучения в высшей школе"(25-26 августа 2001 года). –С.47.

[108] Gilles-Maurice de Schryver. LEXICOGRAPHERS’ DREAMS IN THE ELECTRONICDICTIONARY AGE // International Journal of Lexicography, Vol. 16 No. 2. 2003. – P. 143-144.

yozuvi, muallifining familiyasi va boshqalar);

• boshqa lug‘at yozuvlariga o‘zaro bog‘liqlik.

Bugungi kunda ma’lumotlar bazalari terminologiyasi quyidagi asoslarga ko‘ra tasniflanadi.

Yaratilish maqsadi bo‘yicha:

• ilmiy, texnik adabiyotlar va hujjatlarning tarjimasini ta’minlashga yo‘naltirilgan;

• standartlashtirilgan va tavsiya etilgan atamalar to‘g‘risida ma’lumot berish uchun mo‘ljallangan TMBlar.

Adres bo‘yicha:

• pul o‘tkazmalari uchun mo‘ljallangan ma’lumotlarning turlari (lug‘at tipidagi banklar);

• ilmiy tadqiqotlar uchun mo‘ljallangan TMB lug‘at tipidagi banklar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kompyuter leksikografiyasi [Matn]: o‘quv qo‘llanma / Mengliyev, Baxtiyor Rajabovich; Xamroyeva, Shahlo Mirdjonovna; Axmedova, Dildora Bahodirovna – Toshkent, 2022. – B.6-7

2. Gilles-Maurice de Schryver. LEXICOGRAPHERS’ DREAMS IN THE ELECTRONICDICTIONARY AGE // International Journal of Lexicography, Vol. 16 No. 2. 2003. – P. 143-144.

3. Берков В.П. Двуязычная лексикография. - СПб: СПУ, 1996. –С.15

4. Тузлукова В.И. Типология педагогических лексикографических источников в международной педагогической лексикографии // Сборник трудов Второй Международной научнопрактической конференции "Международная педагогическая лексикография в теории и практике обучения в высшей школе"(25-26 августа 2001 года). –С.47.

5. https://www.researchgate.net/deref/http%3A%2F%2Fwww.lingvoplus.ru%2Fleksikografiya%2F?_tp=eyJjb250ZXh0Ijp7ImZpcnN0UGFnZSI6InB1YmxpY2F0aW9uIiwicGFnZSI6InB1YmxpY2F0aW9uIn19

TILSHUNOSLIKDA “YAQIN-UZOQ” OPPOZITSIYALARINING UMUMIY TUSHUNCHASI

Xaitova Gulhayo Tovasharovna

Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Tilshunoslikda oppozitsiya tushunchasi ma’noni aniqlashga yordam beruvchi til tizimidagi elementlar o‘rtasidagi munosabatlar va qarama-qarshiliklarni bildiradi. Ushbu kontseptsiya tilning qanday ishlashini tushunish uchun asosdir, chunki oppozitsiyada ma’no ko‘pincha so‘zlar yoki tovushlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan ko‘ra farqlardan kelib chiqishini ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: oppozitsiya, distal deyktika, ijtimoiy deyksis, masofa, yaqinlik, kontekst

Abstract. In linguistics, the concept of opposition refers to the relations and contrasts between elements in the language system that help determine meaning.

This concept is fundamental to understanding how language works, as the opposition argues that meaning often comes from differences in words or sounds rather than from specific features.

Key words: opposition, distal deictic, social deixis, distance, proximity, context

Tilshunoslikda “yaqin-uzoq” oopozitsiyasi o‘zbek va ingliz tillarida chog‘ishtirib tahlil qilinganda, turli tillar demonstrativ va lokativlar kabi deyktik iboralar orqali fazoviy yaqinlik va masofa farqlarini ko‘rsatib berishni ta’kidlaydi. Bu farqlar deyxisda, ma’noni so‘zlovchi kontekstiga nisbatan joylashtiradigan lingvistik kategoriyada hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘zbek va ingliz tillari bu qarama-qarshilikdan fazoviy, vaqtinchalik va ijtimoiy deyksisni ifodalash uchun foydalanadi, garchi o‘ziga xos lingvistik strategiya va tizimlar ikki til o‘rtasida farq qilsa-da.

Ingliz tilidagi yaqin-uzoq oppozitsiyasi asosiy lingvistik tushuncha bo‘lib, birinchi navbatda demonstrativlar, o‘rindoshlar kabi deyktik iboralarda namoyon bo‘ladi. Bu iboralar fazoviy, vaqtinchalik yoki psixologik pozitsiyasiga bog‘liq bo‘lib, yaqin va uzoq ob’ektlarni farqlaydi. Ingliz tilidagi bu qarama-qarshilik nazariyasi kognitiv semantika va kontekstual bog‘liqlik kabi chuqurroq lingvistik tamoyillarga bog‘liq [1].

Ingliz tilida “yaqin-uzoq” oppozitisiyasi deyktik tizimda keng o‘rganiladi, deyktik tizim deganda esa ma’nosi qo‘llanilayotgan kontekstga bog‘liq bo‘lgan iboralar yoki deyktikalar to‘plami tushuniladi. Bu iboralar so‘zlovchining muhitidagi yoki nutq kontekstidagi biror narsaga ishora qiladi va ularning talqini so‘zlovchining joylashuvi, vaqti yoki ijtimoiy munosabatlari kabi omillarga tayanadi. Deyktik tizim til foydalanuvchilariga umumiy kontekstiga nisbatan ob’ektlar, odamlar, joylar va vaqtlarga murojaat qilish imkonini beradi[2].

Fazoviy deyxisda ingliz tilida biror narsa jismoniy fazoda yaqin yoki uzoq ekanligini ko‘rsatish uchun ko‘rsatuvchi va joylashuv qo‘shimchalaridan foydalanadi. *This va These* ko‘rsatish olmoshini oladigan bo‘lsak, ko‘rsatiladigan narsa va predmet so‘zlovchiga yaqin bo‘lganda ishlatiladi. Masalan; This Book or these books – so‘zlovchiga yaqin masofada turgan predmetlarga nisbatan.

That va Those – bular distal deyktika bo‘lib, ko‘rsatuvchi so‘zlovchidan uzoqroqda bo‘lganda ishlatiladi. *That car/Those cars* – predmet so‘zlovchiga nisbatan uzoqroq masofada ekanligini anglatadi. Ushbu keltirilgan misollarda so‘zlovchidan masofaga qarab ob’ektlar yoki ob’ektlarni farqlash orqali yaqin-uzoq oopozitsiyani aks ettiradi. Yaqinlik ham jismoniy, ham ba’zan kognitiv bo‘lib, “this” ko‘pincha yaqinlik yoki muhimlikni ko‘rsatadi va “that” esa masofa yoki ajralishni anglatadi.

Ijtimoiy deyxisda yaqin-uzoq oppozitsiyalari so‘zlashuvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi. Deyxisning bu turi ko‘pincha ijtimoiy yaqinlikni (tanish yoki yaqinlik) va ijtimoiy masofani (rasmiylik yoki ajralish) bildiradi. Ingliz tilida yuqori darajada rasmiylashtirilgan ijtimoiy deyxis tizimlari

mavjud bo‘lmasa-da, u hali ham turli vositalar, jumladan deyktik iboralar yordamida ijtimoiy yaqinlik yoki masofani ko‘rsatishi mumkin.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, deyktik atamalar jismoniy masofani emas, balki munosabatlarni ko‘rsatish uchun metaforik tarzda kengaytirilishi mumkin, bu yerda “yaqin-uzoq” oppozitsiyasi ijtimoiy ma’noda yaqin odamni anglatishi shu bilan birga uzoqroq yoki uzoqroq bo‘lgan odamni anglatishi mumkin [3].

O‘zbek tilidagi “yaqin va uzoq” qarama-qarshilik tushunchasi ham lingvistik struktura, ham kognitiv nazariyaga asoslanadi, xususan, fazoviy, zamon, ijtimoiy va metaforik oppozitsiyalarga asoslangan holda. Bu qarama-qarshilik inson tilida universaldir, lekin o‘zbek tilida til grammatikasi qoidalariga, makon va munosabatlarning madaniy konseptualizatsiyasiga rioya qilgan holda o‘ziga xos ma’nolariga va shakllariga egadir. “Yaqin-uzoq” qarama-qarshilik tushunchasi o‘zbek tilida fundamental kognitiv va lingvistik hodisa bo‘lib, bunda tilda nisbiy yaqinlik va masofani ifodalash uchun turli grammatik, leksik va sintaktik vositalar qo‘llaniladi. Bu qarama-qarshiliklar deyxis, kognitiv lingvistika va fazoviy metafora bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular o‘zbek tilida so‘zlashuvchilarning o‘z muhitini tushunish va boshqarish usullarini shakllantirishga yordam beradi.

Vaqtinchalik masofa hodisaning tez orada (vaqtga yaqin) yoki uzoq kelajakda yoki o‘tmishda (uzoq vaqt ichida) sodir bo‘lishini tavsiflovchi qo‘shimchalar yordamida ifodalanadi. *Yaqinda ko‘rishamiz – We will meet soon. Uzoq kelajakda bu amalga oshadi – This will happen in the distant future.* Keltirilgan ikkala misolda ham yaqin va uzoq qarama-qarshiligi vaqtga nisbatan qo‘llanilyapti. Bunday hollarda ya’ni vaqt ma’nosini anglatib kelganda, “yaqin” yoki “uzoq” oppozitsiyasi metaforik tarzda ko‘rib chiqiladi, bu esa vaqtning jismoniy makonga kognitiv xaritasini aks ettiradi.

Shu bilan bir qatorda, o‘zbek tilida “yaqin-uzoq” oppozitsiyasi ijtimoiy va hissiy munosabatlarga ham taalluqli bo‘lib, bunda yaqinlikni, masofa esa begonalashish yoki rasmiyatchilikni bildiradi. “Yaqin” – yaqin munosabatlar yoki qarindoshlikni tasvirlashi mumkin. Masalan: *Yaqin do‘st – Close friend, yaqin qarindosh – close relative*. “Uzoq” – hissiy yoki ijtimoiy masofani nazarda tutadi. *U mening uzoq qarindoshim – He/She is a distant relative of mine.* Ushbu ijtimoiy va hissiy o‘lchov jismoniy masofa qanday qilib metaforik tarzda insoniy munosabatlar sifatini tasvirlashi mumkinligini aks ettiradi.

O‘zbek tili kundalik nutqida jismoniy masofani ifodalash uchun turli leksik, grammatik va sintaktik vositalardan foydalanadi Shulardan biri sifatida “Yaqin” va “Uzoq” fazoviy yaqinlik yoki masofani ifodalash uchun ishlatiladigan asosiy sifatlardan biridir. Jumladan: *U yaqin joyda yashaydi – He/She lives nearby* yoki shu gapni teskarisi, *U uzoqda yashaydi – He/She lives far away*. Bu ob’ektlar, joylar yoki shaxslarning jismoniy joylashuviga e’tibor qaratuvchi yaqin-uzoq qarama-qarshilikning eng asosiy va tom ma’nodagi shakli hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o‘zbek tilidagi yaqin va uzoq qarama-qarshilik tushunchasi so‘zlovchilarning makon, zamon, ijtimoiy munosabatlar va mavhum tushunchalarni qanday idrok etishi va tasvirlashini tizimlashda asosiy

o‘rin tutadi. Bu qarama-qarshilik, birinchi navbatda, so‘zlovchiga nisbatan yaqinlik yoki masofani aks ettiruvchi ko‘rsatish olmoshlari, ergash gaplar, harakat fe’llari va boshqa grammatik vositalar orqali ifodalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. L. Talmy. *Toward a Cognitive Semantics: Volume I: Concept Structuring Systems.* MIT Press. 2000. – 565 P.
2. G.Lakoff, M.Johnson. Metaphors We Live By. University of Chicago. 1980 – 256 P.
3. J. Lyons, Semantics (Vol. 2). Cambridge University Press how many page.1977 – P.897

KO‘MAKCHILAR PRESUPPOZITSIYASI

Meliboyeva Marhabo Sharipovna
Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi
Muhammadqodirova Feruzabonu Otabek qizi
Qo‘qon DPI talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko‘makchilarning ma’no jihatdan gap tarkibida qo‘llanilib, presuppozitsiya hodisasiga ishora qilishi va yashirin ma’no ifodalashi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ko‘makchilar ifodalagan yashirin ma’no (presuppozitsiya) gapni mazmunan murakkablashtirishi va ayni vaqtda nutqiy tejamlilikni yuzaga keltirishini misollar orqali ochib berilgan.

Abstract. In this article, the meaning of auxiliaries is in the structure of the sentence is used, it is throught that it refers to thephenomenon of presupposition and express a hidden meaning. It is also revealed through examples that the hidden meaning (presupposition) expressed by auxiliaries complicates the sentence and at the same time creates speech economy.

Kalit so‘zlar: presuppozitsiya, pragmatika, ko‘makchilar presuppozitsiyasi, yashirin ma’no, pragmatik aspekt, kontekst, til ekonomiyasi, sema, polisemantik so‘z, nutq vaziyati, nutqiy tejamlilik.

Keywords: presupposition, pragmatics, auxiliary presupposition, hidden meaning, pragmatic aspect, context, economy of language, sema, polysemantic word, speech situation, speech economy.

Tilshunoslikning eng so‘nggi yutuqlaridan biri tilga bir butun tizim sifatida qarash hamda uni nutqqa zidlab o‘rganish til birliklarining nutq faoliyatda kontekst va vaziyat bilan bog‘liq tarzda yuzaga chiquvchi pragmatik vazifalariga aniqlik kiritdi. Til birliklarini pragmatik yo‘nalishda tadqiq etish esa asar yoki matn moxiyatida o‘quvchiga bevosita ko‘zga tashlanmaydigan, faqat nutqda yuzaga chiquvchi ichki imkoniyatlarini aniqlashga yo‘l ochdi. Natijada til birliklarining nutqiy vaziyat bilan bog‘liq holda reallashuvchi pragmatik vazifalarini aniqlash muammosi yuzaga keldi. Til birliklarining aynan kontekst, kommunikativ muhit, til egalarining lisoniy qobiliyati, til bilimi va ko‘nikmalari, nutq obyekti haqidagi umumiy bilimlari kabi muloqot tamoyillari bilan bog‘liq holda tadqiq etish maqsadi pragmalingvistikaning mustaqil yo‘nalish sifatida ajralib chiqishiga turtki

berdi. O‘zbek tilida bir so‘z orqali murakkab mazmunni ifodalovchi presuppozitsion signallar xilma-xildir. Shu signallar orqali bir so‘zning o‘zi ifodalagan ma’nosidan tashqari qo‘shimcha ravishda yashirin ma’nolarni ham his etish lozim. Bu yashirin ma’nolarni tadqiq etish bilan bevosita presuppozitsiya hodisasi shug‘ullanadi.

Presuppozitsiya (lot. prae - oldinda, oldinga va supposition joylashtirish, qo‘yish) til birligining nutqiy vaziyat, matn, til egalarining nutq obyekti haqidagi umumiy bilimlari bilan bog‘liq xususiyatlarini yashirin yo‘l bilan namoyish etuvchi lingvistik hodisa bo‘lib, muayyan tashqi va ichki omillar ta’sirida yuzaga chiqadi va gapda nutqiy tejamlilikni yuzaga keltiradi. Presuppozitsiya hodisaga, asosan, til hodisasi sifatida qaralib, unga quyidagi belgilarni asos qilib olishimiz mumkin: bevosita ifodalanmaslik va gap qurilishidan anglashilish. Bundan kelib chiqadiki, leksik sathdagi so‘z va boshqa birliklardan ifodalanmoqchi bo‘lgan ma’nolar ham yaqqol ko‘rinmaydi. Balki bu ma’no so‘zni sinchkovlik bilan qaralgandagina yuzaga chiqadi. Bu yashirin ma’noni aniqlash presuppozitsiya hodisasining asosiy vazifasidir. Nazariy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, presuppozitsiya matnni semantik jihatdan murakkablashtiradi. Bunday vaqtda ayrim so‘z yoki grammatik shakl orqali ifodalangan propozitsiya o‘zining eng ixcham shakliga ega bo‘ladi. So‘zlovchi va tinglovchi uchun uning tushunarli bo‘lishida presuppozitsiya yordamga keladi [1:113].

Presuppozitsiya ma’lum matn ifodalayotgan propozitsiyani to‘g‘ri tushunilishiga imkon beradigan so‘zlovchilar o‘rtasidagi bilishning umumiy fondi, oldindan bilishning jami bilishlar sifatida belgilanadi [2:28]. Presuppozitsiyaning asosiy belgisi matn orqali bayon qilingan propozitsiyaga hukmga zid tarzda mazmuniy munosabatning anglashinishidir. Til ekonomiyasi hisobiga gapda bevosita aks etmagan axborotga ishora qilish vazifasi shu gap tarkibidagi biror bo‘lak zimmasiga yuklatiladi va shu orqali presuppozitsiya hodisasini yuzaga kelishiga asos bo‘ladi. Masalan, Anvar o‘z istiqbolini yolg‘iz muhabbat orqali ko‘rar edi. (A. Qodiriy “Mehrobdan chayon”)

Ushbu gapda ajratib ko‘rsatilgan til birligi presuppozitsiya hodisasining yuzaga kelishi uchun signal vazifasini bajarmoqda. Shu birlikning signali tufayli gapning mazmunidan yana bir yashirin axborot (birgalik)ni anglab olamiz. Agar shu birlik tushirib qoldirilsa bu yashirin axborotlar ham yo‘qoladi. Natijada gap mazmuni semantik (mazmuniy) jihatdan murakkablashadi, ya’ni bu signal (orqali) orqali Anvar o‘z istiqbolini yolg‘iz muhabbat bilangina ko‘rar edi degan presuppozitsiya (yashirin axborot) ni ko‘rishimiz mumkin.

Tilshunosligimizda mavjud bo‘lgan yordamchi so‘z turkumlari ham o‘zining ma‘no qirralari, gapdagi o‘rni, vazifasi va o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi va presuppozitsiya hodisasiga ishora qiladi. Yordamchi so‘z tukumlari sirasiga kiruvchi, ko‘makchilar ham kontekst tarkibida ma’lum bir yashirin ma’no ifodalaydi, sodda gplarning semantik tuzilishini murakkablashtiradi, pragmatik mo‘ljallarga ishora qiladi.

Ko‘makchilar – yordamchi so‘zlardan biri bo‘lib, gapda ot yoki otlashgan so‘zlardan keyin kelib, vosita, sabab, maqsad, vaqt, makon va atalganlik kabi sintaktik munosabatlarni ifodalash uchun qo‘llanadi. Ular aslida mustaqil so‘zlardan hosil bo‘ladi. Ko‘makchilar tuzilishi jihatidan ikki guruhga bo‘linadi:

- Sof ko‘makchilar mustaqil lug‘aviy ma’nolarini batamom yo‘qotgan yordamchi so‘z bo‘lib, boshqa so‘zlar bilan birikkan holda turli munosabatlarni anglatadi: sari, sayin, uzra, singari, tufayli, yanglig‘, bilan, uchun, kabi, orqali, haqida, to‘g‘risida, xususida, beri, buyon, qadar, dovur.
- Vazifadosh (funkional) ko‘makchilar boshqa turkumdagi so‘zlarning o‘z ma’nosidan uzoqlashib, ko‘makchilik vazifasiga o‘tishi: tomon, ost, ust, old, orqa, yon, ich, ora, bosh, o‘rta, boshqa, qarshi, tashqari, ko‘ra, qarab, bo‘ylab, burun, avval, ilgari.

Pragmatik ma’no ifodalashda ko‘makchi sof bo‘ladimi, vazifadosh bo‘ladimi, uning ahamiyati yo‘q. Muhimi, o‘zi qatnashgan gap semantik strukturasini murakkablashtirib, turli mazmundagi pragmatik botiy ma’noni yuzaga keltirishi inobatga olinadi. predmetni predmetga yoki predmetni harajatga bo‘lgan sintaktik munosabatini shakllantiradi. Gap bo‘lagi jihatidan ular ikki bog‘lanuvchi so‘zning tobelanuvchi a’zosi sifatida o‘rinlashib, to‘ldiruvchi va hol vazifasida kelishiga hoslaydi. Ko‘makchi bilan shakllangan ism kesimning ishlatilish o‘rni nutqning tejamkorligi va so‘zlashuv uslubi jarayoni bilan bog‘liq hodisalardir. Aksariyat hollarda ko‘makchilar orqali gapda muayyan presuppozitsiyaga yo‘l ochiladi va gapning murakkablashuvini yuzaga keltiradi. Ko‘makchilar orqali yuzaga chiqadigan presuppozitsiyani misollar orqali ko‘rib o‘tamiz:

1. bilan sof ko‘makchisi orqali presuppozitsiya hodisasining ifodalanishi;

Bu ko‘makchi biror-bir ish-harakatning bajarilishida shaxs yoki predmetlarning birgaligini ifodalaydi: “Hoshimjon do‘stlari va oilasi bilan o‘zini kuchli his qilishini anglab yetdi”. (X. To‘xtaboyev “Sariq devni minib”)

Ushbu gapda ajratib ko‘rsatilgan til birligi presuppozitsiya hodisasining yuzaga kelishi uchun signal vazifasini bajarmoqda. Shu birlikning signali tufayli gapning mazmunidan yana bir axborotni, ya’ni yashirin axborotni anglab olamiz. Agar shu birlik tushirib qoldirilsa bu yashirin axborotlar ham yo‘qoladi. Natijada gap mazmuni semantik (mazmuniy) jihatdan murakkablashadi, ya’ni bu signal (ham) orqali Hoshimjon do‘stlari va oilasi bilan birga o‘zini kuchli his qilishini anglab yetdi, degan presuppozitsiya (yashirin axborot) ni ko‘rishimiz mumkin.

2. uchun sof ko‘makchisi orqali presuppozitsiya hodisasining ifodalanishi;

Bu ko‘makchi orqali kontekst tarkibida maqsad, sabab va atalganlik ma’nolarini yuzaga chiqayotganini ko‘rishimiz mumkin: Dutorni sozlash uchun reza kuylardangina olib turg‘an mashshoq, Otabek kutmagan joyda “Navo” dan boshlab yubordi. (A. Qodiriy “O‘tkan kunlar”)

Quyidagi gapda ishtirok etgan uchun sof ko‘makchisi orqali anglashilayotgan yashirin propozitsiya ifodalanmoqdava gapning mazmuniga ta’sir qilmoqda, quyidagi presuppozitsiya (yashirin ma’no) ni yuzaga chiqarmoqda: “Dutorni

sozlash maqsadida reza kuylardangina olib turg‘an mashshoq, Otabek kutmagan joyda “Navo” dan boshlab yubordi.

Qishloqqa qaytishimda ayam-dadam va singillarim uchun sovg‘a-salom ham oldim. (X. To‘xtaboyev Sariq devni minib)

Berilgan gapda ajratib ko‘rsatilgan birlik orqali yashirin presuppozitsiya anglashilmoqda va atalganlik ma’nosini yuzaga chiqarmoqda. Qishloqqa qaytishimda ayam-dadam va singillarimga atab sovga-salom ham oldim degan presuppozitsiya anglashilmoqda.

3. sayin sof komakchisi orqali presuppozitsiya hodisasining ifodalanishi;

“Unaqa taltaymang, indamaganim sayin quyushqondan chiqib ketyapsiz.

(Oybek Navoiy)

Ushbu gapda sayin komakchisi takror va davomiylik ma’nolarini anglatmoqda va Unaqa taltaymang, indamagunimcha davomiy quyushqondan chiqib ketyapsiz degan presuppozitsiyaga ishora qilib kelmoqda degan yashirin ma`no (presuppozitsiya)ni yuzaga chiqarmoqda.

4. boyi sof ko‘makchisi orqali presuppozitsiya hodisasining ifodalanishi;

“Dehqon umr boyi tabiat bilan bellashib keladi. (S. Ahmad Jimjitlik)

Berilgan gapda ajratib korsatilgan soz orqali “Dehqon umri davomida tabiat bilan bellashib keladi” degan davomiylik yashirin presuppozitsiyasi yuzaga chiqqan.

5. qadar, dovur sof ko‘makchilari orqali presuppozitsiya hodisasining ifodalanishi;

“Uyga qadar oy yoritdi uning yolini. (Hamid Olimjon)

Ushbu ko‘makchi ish harakatning biror tomonga yo‘nalishi jihatdan, vaqti jihatdan chegarani bildiradi. Berilgan misolimizda esa Oy uning yolini uygacha yoritib bordi” degan presuppozitsiyani hosil qiladi.

6. tashqari vazifadosh ko‘makchisi orqali presuppozitsiya hodisasining ifodalanishi;

“Uyga Anvardan tashqari hamma kelib bolgan edi. (A. Qodiriy Mehrobdan chayon)

Quyidagi gapda tashqari vazifadosh komakchisi qo‘shimchasi (-dan) bilan birga qo‘llanib gapning mazmuniga aniqlik kiritish va xabar berish ma’nosida ta’sir qilmoqda va quyidagi presuppozitsiya (yashirin ma’no) ni yuzaga chiqarmoqda: Uyda faqat anvar yo‘q edi”.

7. **o‘rn**iga vazifadosh ko‘makchisi orqali presuppozitsiya hodisasining ifodalanishi;

“Bolalar oqish o‘rniga dalada mehnat qilar edilar. (O. Hoshimov Ikki eshik orasi)

Ushbu gapda ajratib korsatilgan til birligi presuppozitsiya hodisasining yuzaga kelishi uchun signal vazifasini bajarmoqda. Shu birlikning signali tufayli gapning mazmunidan yana bir axborotni, ya’ni yashirin axborotni anglab olamiz. Natijada gap mazmuni semantik (mazmuniy) jihatdan murakkablashadi, ya’ni bu

signal (ham) orqali Bolalar oqishmadi, degan presuppozitsiya (yashirin axborot) ni korishimiz mumkin.

Ma’lum bo‘ladiki, ko‘makchilar presuppozitsiyasi gapda nutqiy vaziyat bilan bog‘liq holda yashirin tarzda reallashuvchi hodisadir. Uning to‘g‘ri tushunilishida nolisoniy omillar nutqiy vaziyat, kontekst, so‘zlovchi va tinglovchiga oldindan ma’lum bo`lgan umumiy bilimlar hamda nutq egalarining til ko‘nikmalari yordamga keladi. Presuppozitsiya hodisasi tilning pragmatik aspektini namoyon etuvchi hodisa sifatida kontekst, nutq vaziyati, til egalarining nutq obyekti haqidagi bilimlari tushunchalari bilan zich bog‘lanadi va gapning semantik tuzilishi bilan bog‘liq hodisa sifatida mahsus tadqiqotlarni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Nurmonov, N. Mahmudov. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. Toshkent, 1992, B-113.

2. N. Mahmudov. Presuppozitsiya va gap. –Toshkent, 1986, B-28.

3. A. Madvaliyev. O`zbek tilining izohli lug`ati. –Toshkent, 2006-2008, B-48.

4. Z. Burhonov. Ko‘makchili qurilmalar presuppozitsiyasi // Pedagogik ta’lim. 2004. - № 3. - B. 61-62.

5. У. Раҳимов. Тагмаъно ва пресуппозиция // Ўзбек тил ва адабиёти. - Тошкент. 2005. - №5. Б-32.

6. R. SayfulIayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Yunusova, Abuzalova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'lIanma. - T., «Fan va texnologiya”. 2009, B-280.

TUSHUNCHALAR DUNYONING MILLIY MANZARASINING FRAGMENTI SIFATIDA

Jo‘rayeva Nilufar Sobirjon qizi
Termiz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilida “*smile*” (o‘zbek tilida “*tabassum*”) tushunchalarini dunyo milliy manzarasining parchalari sifatida o‘rganadi. Ushbu ijobiy tuyg‘u ifodalari turli xalqlarning madaniy qadriyatlari, ijtimoiy me’yorlari va lingvistik farqlarini qanday aks ettirishini o‘rganadi. Shu bilan birga, ushbu tushunchalarning global madaniy doirada qanday ishlashini, ham milliy o‘ziga xoslikni, ham umuminsoniy aloqani aks ettirishini o‘rganishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: hissiy ifodalar, tushuncha, smile, tabassum, madaniy timsol, milliy landshaft.

Annotation. This thesis explores the concepts of “*smile*” (in Uzbek, “*tabassum*”) as fragments of the national landscape of the world. This positive emotion explores how expressions reflect the cultural values, social norms and linguistic differences of different peoples. At the same time, it studies how these concepts work in a global cultural framework, reflecting both national identity and universal connection.

Keywords: emotional expressions, concepts, smile, tabassum, cultural embodiment, national landscape.

Tushunchalar hissiy va madaniy timsol sifatida. Pol Ekmanning universal hissiyot nazariyasiga asosan ba’zi hissiy ifodalar, shu jumladan tabassum biologik jihatdan universal ekanligini ta’kidlaydi. Biroq, bu hissiyotlarning madaniy kodlanishi va ifodalanishi jamiyatlarda farq qiladi[1]. Klifford Geertz nazariyasiga ko‘ra “*smile*” va “*tabassum*” kabi hissiyotlar va ularning ifodalari shaxslar ijtimoiylashadigan o‘ziga xos madaniy doiralar bilan shakllanadi[2].

Sapir-Vorf Gipotezasiga asosan hissiyotlar uchun ishlatadigan so‘zlar, masalan, “*tabassum*” va “*smile*” madaniyat ta’sirida shakllanadi hamda haqiqat haqidagi tasavvurimizni shakllantiradi. Bunga asoslanib, tabassumlar turli lingvistik landshaftlarda turlicha qabul qilinishini tushunish mumkin. Turli tillardagi leksik farq dunyoni talqin qilishning milliy usullarini aks ettiradi.

Ekman nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, odamlar baxt kabi his-tuyg‘ularni boshdan kechirishsa-da, madaniy namoyish qoidalari bu his-tuyg‘ular qanday va qachon ifoda etilishini belgilaydi. Tabassum tushunchasi ham bu madaniy me’yorlarga bo‘ysunadi, bu uni milliy va global hissiy landshaftlarning bir qismiga aylantiradi.

“*Tabassum*” (Arab tilidan) o‘zbek tilida nafaqat jismoniy tabassum emas, balki Markaziy Osiyo madaniyatlarida hurmat, iliqlik va ijtimoiy totuvlikni anglatadi. Xuddi shunday, “*smile*” ingliz tilida ijobiy his-tuyg‘ularni bildiradi, lekin madaniy jihatdan do‘stlik, xushmuomalalik va optimizm kabi qadriyatlar bilan ham bog‘liq. Tushunchalar milliy landshaftning madaniy qismlari sifatida, ya’ni ular individual madaniyatlarga xos, balki global hissiy landshaftning bir qismi hisoblanadi.

Tushunchalar milliy madaniy kontekstda. Tabassum o‘zbek madaniyatida mehmondo‘stlik, hurmat va ijtimoiy tartib qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbek madaniyatida tabassum ko‘pincha samimiylik, kamtarlik va hurmatni ifodalaydi. Bu G‘arb madaniyatlarida bo‘lgani kabi jamoat joylarida ham keng tarqalgan emas, balki shaxsiy va oilaviy munosabatlar bilan ko‘proq bog‘liqdir.

Rasmiy munosabatlarda, ayniqsa professional sharoitlarda “*tabassum*” hurmatni ko‘rsatish uchun ishlatiladi.

Ingliz tilida so‘zlashadigan mamlakatlarda tabassum madaniy jihatdan do‘stlik, xushmuomalalik va hissiy ochiqlik bilan bog‘liq. Tabassum rasmiy va norasmiy o‘zaro munosabatlarda tez-tez uchraydi va ayniqsa mijozlarga xizmat ko‘rsatish yoki jamoatchilik bilan aloqalarda ijtimoiy kutish sifatida qaraladi.

Inglizzabon mamlakatlarda “*service with a smile*”- “*tabassum bilan xizmat qilish*” iborasi tabassum harakati nafaqat baxtni ifoda etish, balki pozitivlik talab etiladigan ijtimoiy rollarni bajarish bilan bog‘liqligini namoyish etadi. Madaniy me’yor sifatida tabassumning individualizm va hissiy ifoda qadrlanadigan hamma joyda alohida milliy manzarani ifodalaydi.

Tushunchalar global madaniy landshaftning parchalari sifatida. Globallashuv davrida tabassum kabi hissiy iboralar madaniyatlarda tobora ko‘proq ko‘rinib bormoqda. Ijtimoiy media platformalari, xalqaro biznes va turizm global

sharoitlarda emojilar 😊, 😂 (ingliz tilida “*emoticon icon*”) foydalanishni normallashtirdi, ammo bu timsollar anglatuvchi ma’nolar hali ham milliy madaniyatlarga qarab farq qiladi.

Facebook, Instagram yoki vatsapp kabi platformalarda tabassum 😊 yuzi kabi emojilar pozitivlikning global ramziga aylandi. Biroq, ushbu emojilarning talqini foydalanuvchining madaniy kelib chiqishiga qarab farq qilishi mumkin. Tabassum emojisi G‘arbda do‘stona munosabatni, Sharqiy yoki Markaziy Osiyo madaniyatlarida esa kelishuv yoki muvofiqlikni anglatishi mumkin.

Global landshaftning bir qismi sifatida tabassum mahalliy madaniy amaliyotlarni global me’yorlar bilan to‘ldiradi. Mamlakatlar o‘z chegaralarida tabassum nimani anglatishini o‘zaro talqin qilishsa-da, global almashinuvlar (ommaviy axborot vositalari, turizm va migratsiya orqali) umumiy hissiy belgilarni yaratdi.

Ommaviy reklama tashkilotlarida tabassumlar baxt va muvaffaqiyatni bildirish uchun universal tarzda qo‘llaniladi, ammo brendlar ko‘pincha turli xil madaniy guruhlarga ta’sir etish uchun tabassumlarni tasvirlash usulini moslashtiradi.

“*Smile*” va “*tabassum*” tushunchalarining lingvistik ifodalanishi. Ingliz tilida “*smile*” (o‘zbekcha “*tabassum*”) kabi tushunchalarning lingvistik ko‘rinishi turli madaniyatlarning bu asosiy hissiy tuyg‘uni qanday talqin qilishi va ifodalashini aks ettiradi. Ushbu lingvistik farqlar tabassumlar atrofidagi madaniy qadriyatlar va ijtimoiy amaliyotlarni ta’kidlab, so‘zlashuvchining milliy o‘ziga xosligi va kundalik o‘zaro munosabatlarda tabassumning ijtimoiy funktsiyalari haqida tushuncha beradi.

Ingliz tilida “*smile*” so‘zi ko‘pincha ochiqlik, do‘stlik va ijobiylik bilan bog‘liq. Uning nutq, yozuv va idiomatik iboralarda ifodalanishi tabassumning ingliz tilida so‘zlashadigan madaniyatlarda aloqa va ijtimoiy bog‘lanish vositasi sifatida rolini ochib beradi.

Ingliz tilida “*smile*” (tabassum) ko‘pincha ijtimoiy ta’sirini ta’kidlaydigan turli xil iboralar orqali tasvirlanadi. Misol uchun:

“*Smile from ear to ear*” frazeologik birligi orqali chinakam baxtni ifodalovchi ayniqsa keng va quvnoq tabassumni anglatish uchun foydalaniladi.

“*Wipe that smile off your face*” iborasi yordamida tabassum vaziyatga mos kelmasligini ko‘rsatib, kontekst turli xil sharoitlarda tabassumning maqsadga muvofiqligini qanday belgilashini ta’kidlash mumkin.

O‘zbek tilida “*tabassum*” atamasi Markaziy Osiyo madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi ijtimoiy totuvlik, kamtarlik va hurmatning chuqurroq ma’nolarini o‘z ichiga oladi. Tabassum nafaqat jismoniy ifoda, balki ichki fazilat va ijtimoiy odobning ko‘rsatkichi deb qaraladi.

Hikmatlar so‘zlar va maqollarda tabassumdan foydalanish uning axloqiy va munosabat o‘lchovlarini ta’kidlaydi. Masalan:

“*Tabassum ham sadaqadir*” kabi iboralari orqali har bir kishi yaqinlarini xushnud qilish uchun doim ochiq chehra bilan muomala qilishi lozim ekanligini bilib olishimiz mumkin.

“*Tabassum yaxshilikning belgisidir*”- ushbu maqoladan koʻrinib turibdiki, tabassum oʻzbek madaniyatida ham insonlarning oʻzaro bir birlari bilan yaxshi munosabat oʻrnatishlarida oʻrni katta.

Xulosa oʻrnida shuni aytish lozimki, “*smile*” va “*tabassum*” tushunchalari madaniy oʻziga xos belgilari sifatida ham, global madaniy landshaftning parchalari sifatida ham ishlaydi. Ular oʻzbek madaniyatidagi kamtarlik va hurmat, ingliz tilida soʻzlashuvchi madaniyatlarda doʻstlik va ochiqlik kabi mahalliy qadriyatlarni aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ekman, P. Emotions in the Human Face. Malor Books. USA: Pergamon Press, 1972, -212 p.

2. Geertz, C. The Interpretation of Cultures. USA: Basic Books, 1973, - 470 p.

POETONIMLARNING MANBALARDA TASNIFLANISHI

Ubaydullayeva Orzigul Abdixakimovna
Qarshi MII akademik litseyi oʻqituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy matn bilan bogʻliq tadqiqotlarda poetonimlarni tasniflash masalalari va ularning turlari boʻyicha ma’lumotlar qayd etildi. Poetonimlar onomastika va poetik onomastika birligi sifatidagi oʻrni va badiiy matnda ijodkorning ma’lum bir maqsadi va asar gʻoyasini ochib berishda muhim oʻringa ega ekanligi va ularning leksik-semantik jihatdan guruhlanishi lingvistik tavsiflarda tasniflashning koʻplab usullari mavjudligi, ilmiy manbalarda keltirilishi, talqin etilishi va unga doir nazariy qarashlar asosida tahlil qilishga harakat qilingan.

Kalit soʻzlar: onomastika, poetonim, antroponim poetonim, “gapiruvchi” toponim, leksik-semantik maydon, onimlar, periferiya

Abstract. In this article, information on the classification of poetonyms and their types in the research related to the artistic text was recorded. The role of poetonyms as a unit of onomastics and poetic onomastics and the fact that they have an important role in revealing a certain goal of the creator and the idea of the work in the artistic text, and the fact that there are many methods of classification in linguistic descriptions of their lexical-semantic grouping, in scientific sources an attempt was made to analyze it on the basis of its presentation, interpretation and theoretical views on it.

Keywords: onomastics, poetonym, anthroponym poetonym, "speaking" toponym, lexical-semantic field, onims, periphery.

Badiiy matn tadqiqotchilar tomonidan poetonimlar adabiy matndagi roliga koʻra personajlarning tavsiflash usuliga koʻra, real yoki syurreal obyektlarga mos kelishiga koʻra va hokazo belgilarga koʻra tasniflangan. Poetonimlar belgilangan

obyektlar bilan bog‘liq holda quyidagi *poetonim-antroponimlar; poetonim-toponimlar; poetonim-zoonimlar; poetonim-astronomiyalar, poetonim-xrematonimalar* va boshqalar kabi tematik guruhlarga birlashtiriladi.

A.V.Superanskaya, A.Bax tomonidan taklif qilingan tasnifga asoslanib, poetonimlarni belgilangan obyektlar bilan bog‘liq holda guruhlaydi va bu tasnif barcha onimlar uchun umumiydir. A.Bax va A.V.Superanskayaning nuqtayi nazariga ko‘ra poetonimlar, onimlar kabi quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Tirik mavjudotlarning, shuningdek, tirik deb hisoblangan mavjudotlarning nomlari. Bunga antroponimik poetonimlar; antroponimik zoonimlar va antroponimik mifonimlar kiradi

2. Jonsiz narsalarning nomlari. Bularga turar-joy, narsa, kosmik obyektlar va boshqalar. Bu guruhga poetonim-kosmonimlar; poetonim-astronimlar; poetonimlar-xrematonimalar; poetonimlar-transport vositalarining nomlari va boshqalarni keltirish mumkin.

3. Murakkab predmetlarning o‘ziga xos nomlari. Bunga poetonimlar kiradi. Ularga kompaniya nomlari, tashkilotlarning nomlari, muassasa nomlari, davriy matbuot organlarining nomlari, bayramlar nomlari, hodisalar, yurishlar, urushlar nomlari, badiiy asar nomlari, tabiiy ofatlar bilan bog‘liq poetonimlar va boshqalar. Bu turdagi poetonimlarning barchasi badiiy adabiyot matnlarida xizmat qiladi[109].

Ba’zi manbalarda poetonimlar ham o‘z voqeligi – voqelik bo‘yicha o‘tmishdagi yoki hozirgi mavjudlik nuqtayi nazaridan tasniflanadi. Poetik nomlarning quyidagi guruhlari ajratiladi: *real shaxs* va *predmet nom*lari; *aholi punktlari*; *xayoliy qahramon*lar va *obyektlarning nom*lari; *mifonim*lar, *mifologik nom*lar, *mifologik nom*lar va boshqalar; *kultonimlar, aglonim*lar - monoteistik dinlarga aloqador nomlar va boshqalar.

L.M.Axmetzyanova poetonimlarni badiiy matnda bajaradigan vazifalariga ko‘ra tasniflanib, ikki guruhga bo‘lgan. Birinchi guruhga bevosita badiiy matnda qo‘llaniladigan yasovchi nomlar kiradi: *bosh qahramonlarning nomlari, harakat joyining nomlari – asar mazmunini ochib beruvchi barcha poetonimlar*. Ikkinchi guruhga poetonimlar kiradi, asar mazmunini bilvosita ochib berish: *tarixiy shaxslar yoki obyektlarning nomlari; matnning madaniy fonini yaratuvchi nomlar asarning umumiy tavsifida ishtirok etuvchi poetonimlardir.*

M.V.Карпенко poetonimlarni matndagi adabiy personajlar va predmetlarni tavsiflash tarziga ko‘ra tasniflaydi va badiiy matndagi poetonimlarni ikki turiga ajratib ko‘rsatadi: *personaj* yoki *predmet*ni bevosita xarakterlovchi poetonimlar; predmetlarni bilvosita xarakterlovchi poetonimlar[110].

L.M. Shchetininning nuqtayi nazariga ko‘ra poetonimlar *neytral, tavsiflovchi va assotsiativlar*ga bo‘linadi. *Neytral nom*larga poetonimlar kiradi, ular fonetik shakli va asosining ma’nosi hech qanday tarzda personajlarni tavsiflamaydi, faqat bu belgilarning real dunyo bilan aloqasini ta’kidlaydi. *Tasviriy nom*larga bevosita

[109] Крылова А. Г. Онимы и их роль в создании экспрессивности художественной прозы Ю.В. Буйды: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2020. – с.11

[110] Карпенко М.В. Русская антропонимика/М.В. Карпенко. - Одесса: 1970. - 112 с.

xarakterlarni ifodalovchi poetonimlar kiradi. Bu shuningdek, badiiy matnning xarakteristikasi uchun, ba’zi hollarda istehzo uchun boshqa belgilar tomonidan adabiy matnning bir belgisi bilan ta’minlangan parodiya nomlarini ham o‘z ichiga oladi. *Assotsiativ ot*larga o‘zining tovush tarkibiga ko‘ra o‘quvchining boshqa so‘zlar bilan bog‘lanishiga sabab bo‘ladigan she’r nomlari kiradi[111].

S.I.Zininning nuqtayi nazariga ko‘ra poetonimlar belgilangan obyektning reallik / g‘ayrioddiylik xususiyatlariga ko‘ra guruhlangan; *san’at asari g‘oyasi* va *badiiy tasvir*larni ochishning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘ra. Bu belgilarga ko‘ra S.I.Zinin poetonimlarni quyidagilarga ajratib ko‘rsatadi: umumiy poetonimlar, badiiy poetonimlar, muallif tomonidan boshqa yozuvchilarning onomastikonidan olingan poetonimlar. Tarixiy poetonimlari adabiy matndagi qahramonlar, joylar, voqealar orqali ko‘rinadi va ular badiiy obrazlarni yaratishda ham qo‘llanishi, real odamlarning ismlariga o‘xshash badiiy qahramonlarini nomlashlashda foydalanishi mumkinligi ta’kidlangan[112].

Xalq tili tarkibiga kiruvchi poetonimlar badiiy matnda ma’lum bir tilning onomastik lug‘atining ona tilida so‘zlashuvchilari tomonidan faol qo‘llaniladigan, badiiy tasvirlarga reallikni beradi.

Badiiy poetonimlar - ma’lum bir tilning onomastikonida mavjud bo‘lmagan va uning ona tilida so‘zlashuvchilar tomonidan qo‘llanilmaydigan, lekin shu til nomlari modellariga ko‘ra yaratilgan nomlar. Badiiy poetonimlar ma’lum bir tilda keng qo‘llaniladigan o‘ziga xos nomlarga o‘xshab jaranglaydi, lekin tovush jihatidan ulardan farq qiladi, bu ularning “*sun’iyligi*”ni izlaydi. Ammo S.I.Zinin bu poetonimlarning sun’iyligini faqat asarning o‘zini emas, balki uning qoralamalarini ham puxta adabiy yoki matn tahlili bilan ochish mumkin. Bunday poetonimlarga misol sifatida tadqiqotchi L.N.Tolstoyning qoralamalaridan olingan antroponimik poetonimlarni keltiradi "Urush va tinchlik" romaniga: *Ploxov, Krasovitskiy, Krinitsyn* va boshqalar[113].

Badiiy poetonimlar orasida obyektiv voqelik bilan bog‘liq bo‘lmagan syurreal badiiy tasvirlarni ko‘rsatish uchun ishlatiladigan to‘g‘ri nomlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bular asosan ilmiy-fantastik va fantaziya janrlari asarlaridan olingan xos nomlardir. Ba’zi poetonimlar muallif tomonidan boshqa yozuvchilarning onomastikonidan olingan.

V.I.Suprun, T.B.Kuznetsova, O.N.Tatarnikov onimlarni leksik-semantik maydonning turli qismlaridagi pozitsiyasiga ko‘ra tasniflaydi. Leksik-semantik maydon murakkab leksik mikrotizim bo‘lib, so‘zlarni semantik printsipga ko‘ra birlashtiradi. Leksik-semantik maydon so‘zlarning ma’nolari asosida qurilgan .Tadqiqotchilar leksik-semantik maydon onimlarini yadro, perinuklear bo‘shliq va periferiyaga ajratadilar.

---

[111] Щетинин Л.М. Слова, имена, вещи. Очерки об именах/Л.М. Щетинин. - Ростов н/Д.: Изд-во РГУ, 1966. - с. 127-129

[112] Зинин С.И. Введение в поэтическую ономастику [Электронный ресурс]/ С.И. Зинин. - Режим доступа: http://imja.name/poehtonimy/poehtonimy.shtml.

[113] Зинин С.И. Введение в поэтическую ономастику [Электронный ресурс]/ С.И. Зинин. - Режим доступа: http://imja.name/poehtonimy/poehtonimy.shtml. С. 83-84

Antroponimlar leksik-semantik maydon onimlarining o‘zagiga tegishli bo‘lib, "taqqoslash boshqa birliklarning anonimligini, ularning onomastik maydon markaziga yoki chetiga tortishini ochib beradi". Bu ulardan foydalanishning yuqori chastotasi bilan bog‘liq bo‘lib, bu tilda mavjud bo‘lgan dunyoning antropotsentrik rasmini aks ettiradi.

Onimlar - tirik mavjudotlar yoki mavjudotlarning tirik deb hisoblangan nomlari - yadro fazosiga tegishli: zoonimlar, teonimlar va mifonimlar.

Kosmonimlar va joy nomlari V.I.Suprun "tarqalgan" yadro-periferik pozitsiyani anglatadi. Bu onimlar nomning shuhrat darajasi, nomlanayotgan predmetning katta-kichikligi, o‘ziga xos ismning kelib chiqishi, yozuvchi tilidagi onimning qo‘llanish faolligiga qarab ham periferiya, ham perinuklear bo‘shliqda joylashishi mumkin[114].

Leksik-semantik maydon onimlarining periferiyasi ham murakkab tuzilishga ega. U yaqin va uzoq zonalarga bo‘linadi. Onimlarning chekka hududlarda tarqalishi ulardan foydalanish chastotasiga bog‘liq; ularning yozuvchi yoki asarlarning bosh qahramonlari uchun ahamiyati haqida gapiradigan bo‘lsak, bu tasnifni poetonimlarga ham qo‘llash mumkin.

Lingvistik tavsiflarda poetonimlarni tasniflashning boshqa ko‘plab usullari mavjud. Masalan, matnda nominatsiya yo‘li. Bu tasnifga ko‘ra poetonimlar o‘ziga xos *onomastik, (individual) mualliflik, situatsion* va hokazolarga bo‘linadi. Kelib chiqishiga ko‘ra poetonimlar *birlamchi* va *o‘zlashtirilgan*ga bo‘linadi. Tashqi ko‘rinishi bo‘yicha *eski* va *yangi*. Ism variantlarini qo‘llash holatiga ko‘ra *rasmiy, norasmiy*. Foydalanish chastotasiga ko‘ra *tez-tez* va *kam* uchraydi. Funksional va stilistik rang berishiga ko‘ra *rasmiy*, *xalqona* va *so‘zlashuv tili*ga xos. Motivatsiya turi bo‘yicha *tashqi* va *ichki motivli* poetonimlar va boshqalar[115].

Qisqa qilib aytganda, ilmiy adabiyotda poetonimlarning yagona universal tasnifi ishlab chiqilmagan, shuning uchun, fikrimizcha, tadqiqotlarda poetonimlarning belgilangan obyektlar bilan bog‘liq ravishda tasnifini asos qilib olish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Крылова А. Г. Онимы и их роль в создании экспрессивности художественной прозы Ю.В. Буйды: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2020. – с.11

2. Карпенко М.В. Русская антропонимика/М.В. Карпенко. - Одесса: 1970. - 112 с.

3. Щетинин Л.М. Слова, имена, вещи. Очерки об именах/Л.М. Щетинин. - Ростов н/Д.: Изд-во РГУ, 1966. - с. 127-129

[114] Стернин И.А. Лексическое значение слова в речи/И.А. Стернин. - Воронеж: Изд-во Воронежского ун-та, 1985. - 138 с.

[115] Rajabov F.U. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridagi onomastic birliklarning leksik-semantik va lingvopoetik xususiyatlari. Fil.fan.falsafa dok(PhD) disser. – Qarshi, 2022. –B.48

4. Зинин С.И. Введение в поэтическую ономастику [Электронный ресурс]/ С.И. Зинин. - Режим доступа: http://imja.name/poehtonimy/ poehtonimy. shtml.

5. Стернин И.А. Лексическое значение слова в речи/И.А. Стернин. - Воронеж: Изд-во Воронежского ун-та, 1985. - 138 с.

6. Rajabov F.U. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridagi onomastik birliklarning leksik-semantik va lingvopoetik xususiyatlari. Fil.fan.falsafa dok(PhD) disser. – Qarshi, 2022. –B 48.

NOQARDOSH TILLARDA NOMINAL MUROJAATLARNING GRAMMATIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATI

Adamboyeva Nafisa Qodirberganovna
FarDU katta o‘qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarida nutq davomida ishlatiladigan murojaatni anglatuvchi so‘zlarning grammatik va pragmatik xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi.

Annotation. Annotation. This article provides information on the grammatical and pragmatic features of addressed words in the Uzbek and English languages.

Kalit so‘zlar: Bo‘talog‘im, buzg‘unchi**,** so‘z, so‘z birikmasi, nom, ism.

Key words: Bo‘taloq, buzzword, word, phrase, name, name.

Nominal murojaat shunday turki, ular pronominal murojaatdan keskin farq qiluvchi va xorij tillarini, jumladan, ingliz tilini o‘rganishda ularning o‘ziga xosligini namoyon qiladi. Shu sababli, murojaatni ifodalaydigan birliklar haqidagi tadqiqotlar orasidan aynan nominal murojaatga bag‘ishlangan ishlarni tez-tez uchratishimiz mumkin[116]. Nominal murojaatni o‘rganuvchi tadqiqotchilar tomonidan aytilgan eng asosiy fikrlardan biri shundaki, murojaat o‘laroq ishlatilayotgan so‘zning ijtimoiy ma’nosi ushbu so‘zning asl ma’nosi bilan yaqin bog‘liq bo‘lmasligi mumkin [117]. Masalan.: – Qaylarda yuribsan, bo‘talog‘im? Sahroyi mang‘it urug‘idan bo‘lgan Tillabibining eng suyukli so‘zi “bo‘ta”, "bo‘talog‘im" edi. (О. Ёқубов. Улуғбек хазинаси). Ushbu gapdagi bo‘talog‘im[118] – hayvonot dunyosining vakiliga emas, aksincha, insonga erkalash maqsadida qo‘llangan murojaat shakli. Bu haqiqat murojaatning qanday ishlashini tushuntirish uchun ahamiyatli, chunki ba’zi bir tillarda “buzg‘unchi” (behurmatlik) ma’nolariga ega bo‘lgan atamalar ijobiy ijtimoiy ma’noga ega bo‘lgan murojaatlar o‘laroq ishlatiladi, shuningdek, murojaatlar ularning tom ma’nolaridan kutilganidan ko‘ra ancha iltifotli bo‘lishi mumkin[119]. Mas., echki o‘zbek tilida sho‘x qizaloqlarga

---

[116] Brown R. & Ford M. Address in American English //The Journal of Abnormal and Social Psychology, 62(2), 1961. – P.375–385. – https://doi.org/10.1037/h0042862

[117] Braun Friederike. Terms of address: Problems of patterns and usage in various languages and cultures/ F. Braun. – Berlin, New York; Amsterdam: Mouton de Gruyter, 1998. – P. 264 265 https://doi.org/10.1515/9783110848113

[118] Bo‘taloq – tuyaning bir yoshgacha bo‘lgan bolasi.

[119] Braun Friederike. Terms of address: Problems of patterns and usage in various languages and cultures/ F. Braun. – Berlin, New York; Amsterdam: Mouton de Gruyter, 1998. – P. 264 265 https://doi.org/10.1515/9783110848113

nisbatan “erkalash” ma’nosida, rus tilidagi kozyol (echki) sotqinlikni ifodalab salbiy ma’noda ishlatiladi. Fikrimizga yana bir dalil shuki, ingliz tilidagi Madam o‘zining ma’lumot (referential) ma’nosida a brothel-keeper (qo‘shmachi ayol, fohisha xona egasi), ammo u murojaat birligi o‘laroq hurmatni, iltifotni anglatuvchi so‘zdir; Love o‘zining ma’lumot ma’nosida muhabbat yoki suhbatdoshga nisbatan kuchli his-tuyg‘ularni tavsiflovchi murojaat bo‘lsa, Angliyaning ba’zi bir qismlarida, yo‘lovchilarga poyezd konduktorlari tomonidan ishlatiladigan betaraf murojaat shakli[120].

Bundan tashqari, ba’zi so‘z murojaat o‘laroq deyarli yaroqsiz hisoblansa (mas., ingliz tilida gas-station attendant), ba’zilari esa faqat murojaat ko‘rinishidagina paydo bo‘ladi (mas., ingliz tilida sir). Shu o‘rinda “nominal” (inglizcha nominal) tushunchasini izohlashni maqsadga muvofiq deb bildik. Ingliz tilidagi “A Dictionary of Linguistics and Phonetics” nomli tilshunoslik terminlari lug‘atida bu so‘zga quyidagicha izoh berilgan: Nominal (adj./n.) (nom, NOM) A term used in some grammatical descriptions as a substitute for noun (e.g. nominal group = noun phrase)[121]. Ko‘rinib turibdi-ki, ushbu lug‘atda “nominal” otning o‘rnini bosuvchi o‘laroq ishlatiladigan atama. Ushbu atama lotin tilidagi nomen so‘zidan olingan nominalis shakli bo‘lib (Pervoistochnik: lat. nominalis «imennoy», proizvodnoye prilag. s suf. -al- ot glag. nomino «nazivayu»), “ism, nom” manolarini anglatadi[122]. Nutqda nominal murojaatdan foydalanish nominatsiyani hosil qiladi, chunonchi nominatsiya (lot. nomination — atash, nom qo‘yish)[123] tilda nomlash vazifasini bajaruvchi birliklarni (so‘z, so‘z birikmasi kabilarni) paydo qilishdir.

Umuman, so‘zlovchi tomonidan qo‘llanadigan nominal murojaat pronominallarga qaraganda xilma-xil, chunki ular boshqa suhbat a’zolarini qabul qila oladigan va murojaat vaqtida so‘zlovchi tomonidan ixtiro qilina oladigan nutqning ochiq sinflariga tegishli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Braun Friederike. Terms of address: Problems of patterns and usage in various languages and cultures/ F. Braun. – Berlin, New York; Amsterdam: Mouton de Gruyter, 1998. – P. 264 265 https://doi.org/10.1515/9783110848113

2. Allerton D. Proper names and definite descriptions with the same reference: a pragmatic choice for language users // Journal of Pragmatics 25, 1996. – P.621–633

[120] Allerton D. Proper names and definite descriptions with the same reference: a pragmatic choice for language users // Journal of Pragmatics 25, 1996. – P.621–633

[121] Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. – U.K.: Blackwell Publishing Ltd., 6th Edition. – 2008. – P. 328. – http://ndl.ethernet.edu.et/bitstream/123456789/36901/1/8..pdf.

[122] Этимологический словарь современного русского языка. Составитель А.К.Шапошников: 2т. Т. 2. – Москва: Флинта: Наука, 2010. – С. 28.

[123] Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент:“Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 71.

3. Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. – U.K.: Blackwell Publishing Ltd., 6th Edition. – 2008. – P. 328. – http://ndl.ethernet.edu.et/bitstream/123456789/36901/1/8..pdf.

4. Brown R. & Ford M. Address in American English //The Journal of Abnormal and Social Psychology, 62(2), 1961. – P.375–385. – https://doi.org/10.1037/h0042862

5. Braun Friederike. Terms of address: Problems of patterns and usage in various languages and cultures/ F. Braun. – Berlin, New York; Amsterdam: Mouton de Gruyter, 1998. – P. 264 265 https://doi.org/10.1515/9783110848113

6. Этимологический словарь современного русского языка. Составитель А.К.Шапошников: 2т. Т. 2. –Москва: Флинта: Наука, 2010. – С. 28.

7. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент:“Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 71.

DIFFERENCES IN SYSTEM STRUCTURE BETWEEN UZBEK AND ENGLISH PHYSICS TERMS

Ezoza Kilichova
Navoi Innovations University

Abstract. This paper investigates the structural differences between Uzbek and English physics terminology, emphasizing how each language encodes scientific concepts in the field of physics. Uzbek, with its agglutinative nature, tends to form physics terms through the use of affixes, allowing for extensive morphological flexibility. English, on the other hand, employs a variety of mechanisms such as compounding, derivation, and borrowing from Latin and Greek to form its technical lexicon. The study analyzes key physics terms in both languages, comparing their morphological structure, syntax, and semantic nuances. By exploring these differences, the research highlights the challenges and considerations in translating physics terms between Uzbek and English, offering valuable insights for scientific communication, technical translation, and terminology standardization in the field of physics.

Keywords: scientific communication, terminology standardization, technical translation, compounding, derivation, technical lexicon, structural differences

Introduction

Terminology in scientific fields like physics plays a crucial role in the dissemination of knowledge, international collaboration, and education. However, each language encodes these terms differently due to its unique linguistic structure. This article explores the structural differences in physics terminology between Uzbek and English, two languages from different linguistic families. English, an Indo-European language, forms terms through compounding, borrowing from classical languages, and derivation. Meanwhile, Uzbek, a Turkic language, relies on agglutination, where affixes are systematically added to base words.

Understanding these differences is essential for translating scientific texts, developing educational materials, and creating bilingual terminological databases.

1. Linguistic Characteristics of English and Uzbek

English and Uzbek have fundamentally different morphological and syntactic structures. English primarily uses compounding (e.g., electromagnetism, wavefunction) and derivation, often borrowing from Latin and Greek roots to form technical terms in physics. This process results in the creation of complex, multi-syllable terms that are widely standardized across scientific disciplines globally. For example, many terms in physics like thermodynamics and kinematics are direct borrowings or adaptations from classical languages.

Uzbek, on the other hand, is an agglutinative language where terms are created by adding multiple affixes to a root word. This system allows for greater morphological flexibility. In physics, Uzbek terms may undergo affixation, where suffixes are used to indicate specific meanings or relational aspects of the concept. For instance, the word for force in Uzbek, "kuch," may be expanded with affixes to indicate specific types of forces in physics contexts.

2. Morphological Structure of Physics Terms

One of the significant differences between the two languages lies in how new terms are created. In English, technical terms are often formed through compounding, where two or more words are combined to create a new term, or through borrowing and adaptation from other languages. For example, the word thermodynamics combines "thermo-" (heat) and "dynamics" (motion), deriving from Greek roots. This practice is standard in English scientific lexicon development, where new physics phenomena or concepts often adopt existing classical language roots.

Uzbek physics terms, however, frequently employ agglutination. The base term is modified by the addition of one or more suffixes, each carrying specific grammatical or lexical meaning. For instance, in Uzbek, thermodynamics may be translated as "issiqlik dinamikasi," where "issiqlik" means heat, and "dinamikasi" is derived from the root "dinamika" (dynamics), with the suffix "-si" indicating the genitive case or possession. Such morphological processes demonstrate the highly structured and systematic nature of Uzbek terminology in comparison to English.

3. Syntactic Patterns and Word Order

Word order in term formation also differs between the two languages. English predominantly uses a fixed Subject-Verb-Object (SVO) structure, which influences the order in which elements of a term are presented. For example, magnetic field places the descriptive adjective (magnetic) before the noun (field). This structure is intuitive for English speakers and reflects the syntactic norms of the language.

Uzbek, on the other hand, has a Subject-Object-Verb (SOV) word order, and adjectives or modifiers typically follow the noun they describe. In this sense, an equivalent term like magnetic field would be structured as “maydon magnitli” in Uzbek, literally translating to "field magnetic." This reversal of word order poses

challenges in direct translation, especially when trying to preserve the meaning and scientific accuracy of the terms.

4. Borrowing and Standardization in Physics Terminology

Another notable difference lies in the adoption of international scientific terms. English, being the dominant language in scientific discourse, often sets the standard for terminology. As a result, many terms in physics are borrowed into Uzbek with minimal adaptation, a common practice in the translation of scientific texts. For example, electron, proton, and quantum are often borrowed directly into Uzbek, sometimes with slight phonological adjustments to fit Uzbek pronunciation patterns.

However, in some cases, Uzbek creates its own native equivalents for physics terms. For instance, wave in physics is translated as "to‘lqin," a native Uzbek term that aligns with the concept of wave motion in both everyday and scientific contexts. Such terms highlight the balance between borrowing and developing native terms in scientific translation, where linguistic purism and accessibility to global scientific discourse must be considered.

5. Implications for Translation and Scientific Communication

The differences in term formation between Uzbek and English create significant challenges in the translation of scientific texts, particularly in highly technical fields like physics. Translators must navigate not only differences in word structure and morphology but also ensure that the scientific precision and clarity of terms are maintained across languages. For example, the translation of a concept like gravitational force must take into account both the agglutinative nature of Uzbek and the specific syntactic rules that govern term formation in English.

Furthermore, scientific education in Uzbek-speaking regions may be impacted by these linguistic differences. Students and educators need resources that account for these structural differences, ensuring that technical concepts in physics are accurately conveyed and understood.

Conclusion

The structural differences between Uzbek and English physics terms reflect the broader linguistic characteristics of each language. While English relies on compounding, derivation, and borrowing, Uzbek employs agglutination and native word formation processes to create its scientific terminology. These differences present challenges for translation, education, and standardization in the field of physics, but they also offer opportunities for developing bilingual terminological resources that respect the linguistic uniqueness of each language. Further research into these differences will enhance cross-linguistic understanding and improve communication in scientific contexts.

REFERENCES:

1. Comrie, B. (1981). The Languages of the Soviet Union. Cambridge University Press.

2. Koptjevskaja-Tamm, M. (2018). "Agglutination and Word Formation in Turkic Languages: A Comparative Analysis." Journal of Linguistics, 54(3), 527-554.

3. Crystal, D. (2003). English as a Global Language. Cambridge University Press.

4. Johanson, L., & Csató, E. A. (1998). The Turkic Languages. Routledge.

5. Lewis, M. P., Simons, G. F., & Fennig, C. D. (Eds.). (2016). Ethnologue: Languages of the World. SIL International.

O‘ZBEK TILI GIDRONIMLARNING O‘RGANILISHI

Majidova Shahnoza Komilovna
Termiz davlat pedagogika institute katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada gidronimlarni olimlarning qay darajada o‘rganganlik darajasi yoritib beriladi. Hudud gidronimlarining barchasi to‘planmagan, ayrimlarining bunyod etilish tarixi, geografik jihatlari o‘rganilgan, biroq sof gidronimik lug‘at yaratilmagan. Mazkur lug‘atlarda toponimlar sirasida ayrim gidronimlarning, ko‘proq yirik suv ob’ektlarining tarixiy shakllari, variantlari, onomastik ma’no qirralari, qisman etimologiyasi izohlangan.

Kalit so‘zlar: gidronim, toponim, tarixiy, kelib chiqish, nomlanish, etimologiya, onomastik, Chog‘onrud, Amul, Yaksart.

Annotation. The article highlights the extent to which scientists have studied hydronyms. All hydronyms of the region have not been collected, the history of some of them, their geographical aspects have been studied, but a pure hydronym dictionary has not been created. Among the toponyms, historical forms, variants, onomastic meaning aspects, and partial etymology of some hydronyms, mostly large water bodies, are explained in these dictionaries.

Key words: hydronym, toponym, historical, origin, naming, etymology, onomastic, Chogonrud, Amul, Yaksart.

Gidronimlar toponimlarning bir turi bo‘lib, ularning til tizimida tutgan o‘rni muhimdir. Gidronomiya (yunoncha gidro-suv), ya’ni daryolar, ko‘llar, dengizlar, soylar, kanallar, qo‘ltiqlar, bo‘g‘ozlar, sharsharalar nomlarini o‘rganuvchi soha. Gidronimlarni o‘rganish til tarixi va nazariyasi uchun katta ahamiyatga ega.

Tarixchi va geograf Hofizi Abru - Shahobuddin Abdulloh ibn Lutfilloh ibn Abdurrashid al-Havofiyning “Tarixi Hofizi Abru” nomli mashhur tarixiy-geografik asarida yer yuzidagi suvlar, tog‘-toshlar, mamlakatlar va ulardagi aholi manzillari, shuningdek, Fors, Kermon, Xurosonning batafsil geografiyasi va tarixi, Movarounnahr geografiyasi bayon etilgan. Xususan, *Samarqand*, *Buxoro, Kesh, Naxshab, Termiz* kabi shaharlar hamda *Jayxun, Sayhun, Murg‘ob* va boshqa daryolar, mamlakatlar, viloyatlarning kenglik va uzunliklari ko‘rsatib o‘tilgan[124]. Muallifi noma’lum “Kitob hudud ul-olam min al-mashriq ila-l-mag‘rib” (“Olam (Yer)ning mashriqdan mag‘ribgacha bo‘lgan chegaralari haqida kitob”) nomli

[124] O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006. II j. – B. 381.

fanda qisqacha “Hudud ul-olam” shaklida tanilgan tarixiy-geografik asarda ham Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekistonga doir geografik, etnografik ma’lumotlar berilgan. Xususan, Buxoro, Baykand (Poykend), Sug‘d, Tavovis, Karmina (hozirgi Karmana), Kushoniy (Kushaniya), Samarqand, Kesh, Tirmiz (Termiz), Farg‘ona, Shom va boshqa shahar hamda viloyatlar ta’rifi keltirilgan. Asarda hozirgi Tojikiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, O‘zbekiston va G‘arbiy Xitoy hududi ancha mukammal tasvirlangan. Unda dengiz, daryo va boshqa joy nomlari batafsil keltirilgan[125]. Jumladan, asarning “Dengizlar va qo‘ltiqlar haqida so‘z” nomli bobida *Xazar dengizi* (hozirgi Kaspiy dengizi), *Xorazm dengizi* (Orol dengizi), “Daryolar haqida so‘z” bobida *Jayhun* (Amudaryo), *Xarnob* (Panj daryosi irmog‘i bo‘lishi mumkin), *Chag‘onrud* (Surxondaryo), *O‘zgand* (Qoradaryo), *Xirsob* (Kurshob), *O‘sh daryosi* (Oqbura), *Qubo daryosi* (Quvasoy), *Xatlom* (Norin), *Parak* (Chirchiq), *Buxoro daryosi* (Zarafshon) kabi tarixiy gidronimlarning oqim yo‘nalishi, hududlari, quyilish manbai, irmoqlari, ayrimlarining nomlanishi haqida batafsil ma’lumot berilgan[126].

“Hudud ul-olam” (“Dunyoning hadlari”) tarixiy-geografik asar bo‘lib, 982-983-yillarda fors-tojik tilida noma’lum muallif tomonidan yozilgan. Bu asarda Movarounnahr daryolari nomlari keltirib o‘tilgan. “Jayxun (Amu) daryosi Vahon hududidan oqib chiqadi va Bomir (Pomir) viloyati va Shig‘noni Vahon hududidan o‘tib, Xorazm dengiziga quyiladi”. “…Xarnob (Panj) Qasark tog‘ining g‘arbidan oqib chiqadi va badaxshon va Polg‘ar (Parxor) orasidan o‘tib Jayxunga qo‘shiladi”. “Yana bir daryoki, uni Vaxshob deydilar, Vaxsh tog‘laridan chiqadi, Vaxsh (shahri) yaqinida Jayxunga quyiladi”. “Chag‘onrud (Surxondaryo)ki, Chag‘oniyondan oqadi va Termiz yonida Jayxunga quyiladi”. “…Yana biri O‘zgand suvidirki, Xallux tog‘i (orqasi)dan boshlanib, O‘zgand, Bob (Pop), Axsikat, Xo‘jand, Banokat shaharlari yonidan o‘tadi va to Choch yerlarigacha yetadi, so‘ngra Xorazm dengiziga quyiladi”. “Yana bir daryo (hozirgi Qurshob daryosi) Xurshobdirki, Buttamon chekkasidan, shimoliy tog‘laridan boshlanib, Xurshob shahri yaqinida O‘zgandga

(Sirdaryoga) quyiladi”. “Yana boshqasi O‘sh suvidirki, O‘zganga quyiladi”. “Yana bir daryo Qubo (suvi)dirki, Qubo shahri yaqinida O‘zgand (suvi)ga quyiladi”. “Yana boshqasi Parak daryosidirki, Choch yerlaridan o‘tadi, O‘zgandga quyiladi. Bu daryolar hammasi qo‘shilgandan keyin yaxlit suv Choch daryosi deyiladi, arablar (toziyon) bu daryoni Sayxun deb ataydilar”. Parak – Chirchiq daryosi. “Hudud” asarida Zarafshon Buxoro daryosi deyilgan. Shu ma’lumotlardan ko‘rinadiki, daryolar ko‘pincha shaharlar va viloyatlar nomlari bilan atalgan.

“Hudud ul-olam” muallifi Sirdaryoni bir o‘rinda Hasart deb atagan. Shunga asoslanib, H.Hasanov bunday xulosa chiqaradi: “Sirdayo X asrda O‘zbekiston tuprog‘ida O‘zgand va Hasart nomlari bilan atalgani ma’lum bo‘ladi. Shunday

[125] Xasanov H. Sayyoh olimlar. – Toshkent: O‘zbekiston. 1981. – B. 266.
[126] Hudud ul-olam/Mas’ul muharrir Mirsodiq Ishoqov. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007 – B. 6-10.

qilib, Harast mahalliy nomlaridan biriki, qadimgi greklarning kitoblarida yozilgan Yaksart shakli o‘shandan o‘zgartiribroq olingandir[127]”.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari XV asr oxiri - XVI asr boshlaridagi O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonning tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, o‘simlik va hayvonot olami, xalqi, odamlarining kasb-kori, tili va boshqa xususiyatlari haqida bebaho ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan manbadir. Shuningdek, “Boburnoma” Farg‘ona vodiysi toponimiyasini, jumladan, gidronimiyasini o‘rganishda muhim tarixiy manba hisoblanadi.

Asarda Farg‘ona vodiysi hududiga xos *Marg‘inon, Axsi* // *Axsikat* // *Axsikent, Arxiyon, Karnon, Koson, Navkand, Pop qo‘rg‘oni, Sayram, G‘avo, Pishxoron, G‘aznayi Namangan kabi toponimlar keltirilgan. Jumladan, Aylamish daryosi, Andijon suvi, Xoqon arig‘i, Xo‘jan suyi, Sayxun//Sirdaryo // Ars suyi, Sang suyi, Koson suyi, Xoqon arig‘i singari gidronimlar haqida ham ma’lumotlar kuzatiladi*[128].

1960-yillarning oxiri va 1970-yillarda o‘zbek toponimikasida ayrim yirik hamda kichik gidronimlar xususida tadqiqotlar yuzaga keldi. A.Ishayevning Qashqa, T.Nafasovning *Norin,* H.Sharipovning *Itoqar,* N.Begaliyevning *Sirdaryo* gidronimlari, A.Nabiyevning *Toshkent* ariqlari haqidagi tadqiqotlari shular jumlasidandir. Ma’lum hududlar gidronimiyasi va ayrim yirik suv obyektlarining lisoniy tadqiqi 1980-yillarda ham davom etdi.

N.Y.Mingboyev Mirzacho‘l gidronimlarini, T.Nafasov jili tarkibli gidronimlarni, Y.Xo‘jamberdiyev Amudaryo gidronimini o‘rgandi. 1970-1980 yillarda o‘zbek tilshunosligida toponimik lug‘atshunoslik ham shakllandi va hozirgi kunga qadar S.Qorayev, Z.Do‘simov, X.Egamov, H.Hasanov, T.Nafasov, N.Oxunov, B.O‘rinboyev, B.Turdaliyev, T.Nu’monov, A.Haydarovlarning izohli lug‘at, lug‘at-ma’lumotnoma xarakteridagi toponimik lug‘atlari nashr etildi[129], biroq sof gidronimik lug‘at yaratilmagan. Mazkur lug‘atlarda toponimlar sirasida ayrim gidronimlarning, ko‘proq yirik suv obyektlarining tarixiy shakllari, variantlari, onomastik ma’no qirralari, qisman etimologiyasi izohlangan. S.Qorayev yaratgan lug‘atlarda *Chakar (Toshariq), Quvurariq, Tuyatortar, Zaxariq kabi* Toshkent gidronimlari, *Shahrud, Gulisoy, Qalqonrud, Qarag‘anjiyda, Ko‘hak* // *Zarafshon, Sirdaryo* kabi gidronimlar, T.Nafasov ishlarida *Norin, Jilisuv, Jiliko‘l, Qizbuloh, Qizariq* singari gidronimlar izohi berilgan.

Joyshunos olim S.Qorayevning ma’lumotlariga ko‘ra, Tomsk davlat pedagogika institutining professori A.P.Dulzon Sibir gidronimlarini tahlil qilib qadimda ket xalqi yashagan hudud juda keng bo‘lganini aniqladi. Hozir esa Sibirda, xususan Ob daryosi yoqasida hammasi bo‘lib 500 kishiga yaqin ket

---

[127] Hudud ul-olam/ Mas’ul muharrir Mirsodiq Is’hoqov,-T. O‘zbekiston. 2007. – B 6-10.

[128] Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent: Sharq. 2002 – 336 b. +32 b. Zarvaraq.

[129] Mingboyev N. Mirzacho‘l gidronimlari // O‘zbek tili va adabiyoti, 1987. -№2 – B 50-54. Nafasov T. Jili komponentli gidronimlar // O‘zbek tili va adabiyoti, 1988. -№5 – B 43-45. Xo‘jamberdiyev Y. Gohida sho‘x, gohida sokin (Amudaryo) // Fan va turmush, 1985. -№12 – B 13. Qorayev S. Geografik nomlar ma’nosini bilasizmi? (Toponimik lug‘at). – Toshkent: - O‘zbekiston, 1970;

qolgan. Toponimik ma’lumotlar bir vaqtlar ketlar juda ko‘p sonli xalq bo‘lganini ko‘rsatdi. O‘rta Osiyo va uning geografik nomlari to‘g‘risidagi eng qadimgi ma’lumotlar miloddan avvalgi VI-V asrlarda Yunon olimlari asarlarida uchraydi. “Tarix fani otasi” deb nom olgan Gerodot Gerkand (Kasbiy) dengizdan sharq tomondagi hududni “bepoyon tekislikdan iborat” deb atagan, Araks daryosini (Amudaryoni) tilga olgan. Keyinroq (miloddan avvalgi I asr – milodning I asrida) o‘tgan yunon tarixchilari asarlarida Oks (yoki Oksos) deb atalgan.

Olimlar ana shu Oks (ba’zan Akes) Amudaryoning qadimiy turkiy nomi – O‘kuz “daryo” so‘zining o‘zginasi deb hisoblaydi. Avesto va boshqa tarixiy manbalarda Amudaryoning Arang, Raxa, Ranxa, Aranxa degan qadimiy nomlari

ham uchraydi. Arablar uni Jayxun “jo‘shqin (daryo)” deb atashgan. Jayxun yahudiylarning muqaddas kitobi “Tavrot”da tilga olingan Jixondaryosiga nisbat berib atalgan, degan fikr ham bor.

O‘rta asrlardagi barcha tarixiy, geografik va lingvistik asarlar orasida toponimika uchun hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan asar, bu Mahmud Koshg‘ariyning uch jildli “Devoni lug‘otit turk” kitobidir. Arab geografiyasi X asrda keng rivojlandi. Ibn Rusta (Abu Ali Axmad ibn Umar) geograflar orasida alohida o‘rin tutadi. Uning “Kitob al-alak an-nafisa” (“Durdonalar kitobi”) asarida O‘rta Osiyo, jumladan O‘zbekistonga bag‘ishlangan qismi Vatanimiz toponimikasi uchun juda muhim. Ibn Rusta, chunonchi, Buttam tog‘laridan oqib keladigan Qumrud va Xovarrud daryolarini Romid (hozirgi Kofirnihon) daryosinning irmoqlari deb ataydi. Akademik V.V.Bartoldning fikricha, bu daryolar hozirgi Surxondaryoning Qoradaryo, To‘polondaryo, Sangardakdaryo nomli irmoqlari bo‘lishi kerak.

“Buxoro tarixi”ni asli Buxoroning Narshax qishlog‘idan bo‘lgan Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far-an-Narshaxiy (to‘la nomi – Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far ibn Zakariyo ibn Xattob ibn Sharik) 943-944-yillarda arab tilida yozilgan. Asarda daryo nomlari izohi. “Samarqand tomonida bir katta daryo borki, uni Rudi Mosaf – Mosaf daryosi deb ataydilar” (bu Zarashon daryosi).

Rus olimi V.V.Bartold arablar Jayxun va Sayxun (Sirdaryo) nomlarini Shimoliy Suriyadagi Jayxon va Sayxon daryolari nomlari bilan atashgan bo‘lsa kerak deydi. O‘rta asr tarixchisi Gardiziy “Jayxun har qanday kata daryoni bildiradigan turdosh ot” degan edi. Bu to‘g‘ri fikrga o‘xshaydi. Masalan, Zarafshondan tarqalib, Buxoro shahrini suv bilan ta’minlab turgan Shahrud (Shohrud emas) – “rudi shahri Buxoro”ning qisqartirilgan shakli. Aslida Shahrud (“shaharga suv beradigan anhor”) ning quyi qismi Jayxun deb atalgan, Shahrud kanalidagi uchta to‘g‘on boshining biri ham Jayxun deyiladi.

Surxondaryo nomining etimologiyasi ham hamon jumboqligicha qolayotir. Tojikcha “Qizil suv” ma’nosida bo‘lsa, surxob deyishi kerak edi (daryoning bosh qismi – Denov shahrigacha qizilsuv ataladi). Surx yoki surxi degan Turkman urug‘i ham bor. O‘rta asrlarda, Amir Temur tarixida ham Chag‘onrud deb atalgan.

O‘zbekiston gidronimlari geografiya fani nuqtayi nazaridan P.Baratov tomonidan tadqiq etilgan. U yaratgan geografiyaga oid darslikning “Daryolar”

nomli qismida butun O‘zbekiston gidronimiyasi uchun xarakterli bo‘lgan Sirdaryo, Amudaryo, Zarafshon gidronimlarining geografik xususiyatlari, nomlanish tarixi, Sirdaryoning *Yaksart, Sayqun, Silis, Sir* kabi qadimiy nomlari, irmoqlari, “Farg‘ona okrugi” nomli bo‘limida esa Norin daryosi hamda Kosonsoy, G‘ovasoy, Podshootasoyning gidrologik va geografik xususiyatlari yoritilgan.

Gidronimlarni tadqiq etishda N.Uluqovning “O‘zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi” asari (Farg‘ona vodiysi misolida) toponimlarning bir turi bo‘lgan gidronimlar xalq tarixi bilan bog‘liq bo‘lib, milliy tilning, xalq ijtimoiy hayoti, madaniyati va ma’naviyatining o‘ziga xos qirralarini ifoda etuvchi lisoniy qatlam ekanligi yoritib o‘tilgan. O‘zbek tili gidronimlari yuzasidan tarix, geografiya, tilshunoslik fanlari yo‘nalishida bajarilgan ishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hudud gidronimlarining barchasi to‘planmagan, ayrimlarining bunyod etilish tarixi, geografik jihatlari o‘rganilgan bo‘lsa-da, lisoniy jihatlari: nomlanish tamoyili, etimologiyasi, lug‘aviy-ma’noviy, yasalish, morfemik, morfologik, nomlardagi fonetik-fonologik o‘zgarishlar to‘la o‘rganilmagan.

Mazkur holat tarixchi, geograf, tilshunos olimlar oldiga hudud gidronimlarini to‘plash bo‘yicha qo‘shma ekspeditsiyalar o‘tkazish, ularning tarixini yozish, gidronimik tavsifini yaratish va izohli lug‘atlar tuzish kabi dolzarb vazifalarni qo‘yadi. Albatta, bu hudud tarixini, geografiyasini, toponimiyasini, dialektlarini o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006. II j.

2. Xasanov H. Sayyoh olimlar. – Toshkent: O‘zbekiston. 1981. – B. 266.

3. Qorayev S. Toponimika. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent 2006.

4. Baratov P. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1996.

5. Mahmud Koshg‘ariy. Devoni lug‘otit turk. I tom, 104-bet.

6. Oxunov N. Joy nomlari ta’biri. –Toshkent: O‘zbekiston, 1994. –B 86.

7. Nafasov T. Qishlog‘ingiz nega shunday atalgan? –Toshkent: Fan, 1989. – B. 100.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA PUBLITSISTIK (OMMABOP) USLUBNING LEKSIK XUSUSIYATLARI

Axmadjonova Shahnoza Tolibjon qizi
FarDU o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ma’lumki, publitsistik uslub badiiy, siyosiy, ilmiy jabhalarni qamrab oluvchi yirik soha hisoblanib, ommaviy ahborot vositalari sanaladigan radio va televideniyeda, gazeta va jurnallar sahifalarida aks etadigan yangilik, habar, reportaj, tahlilnoma, bosh maqola, maqola, ocherk, felyeton, pamflet, e’lon, reklama singari qator janrlarni qamrab oladi. Uning boshqa uslublardan ajratib turuvchi umumiy maqsadi, bu jamoatchilik fikriga doimiy va chuqur ta’sir

o‘tkazish, o‘quvchi yoki tinglovchini yozuvchi yoki notiq bergan talqinning yagona va to‘g‘ri ekanligiga ishontirishdir.

Kalit so‘zlar: publitsistik uslub, ommabop uslub, gazeta tili, publitsistik matn va leksika.

Abstract. It is known that the publicistic style is a vast area that encompasses artistic, political, and scientific aspects, news, reports, analysis, editorials, essays, pamphlets, as reflected on radio and television, newspaper and magazine pages, which are considered mass media. It covers a range of genres, such as announcements and advertisements. Its general purpose, distinguishing it from other methods, is to have a lasting and profound impact on public opinion, convincing the reader or listener that the interpretation provided by the writer or speaker is the only correct one.

Keywords: publicistic style, popular style, newspaper language, publicistic text, and vocabulary.

Publitsistik uslub jamiyat faol a’zosining ijtimoiy-siyosiy hayotga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Har qanday jamiyatning u yoki bu a’zosi o‘zi yashab turganjamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-madaniy hayotiga befarq qaramaydi, ularga o‘z munosabatini bildiradi. Ana shunday munosabatni ifodalashni tahminlash uchun xizmat qiladigan nutq ko‘rinishlari publitsistik uslub hisoblanadi[130].

Publitsistika so‘zi lotincha bo‘lib – ijtimoiy yoki xalq, ijtimoiy xalqchil degan ma’nolarni bildirgan[131]. Publitsistik uslub ko‘rinishlari ijtimoiy taraqqiyotning eng qadimgi davrlaridayoq paydo bo‘la boshlaganini, bu ko‘rinishlar qadimgi notiqlar nutqlarida namoyon bo‘lganligini olimlar ta’kidlaganlar.

Ommabop nutqi odatda, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy, adabiy-tanqidiy mavzulardagi ommaviy nashrlarda, ijtimoiy-siyosiy jurnallarda, barcha gazetalarda, notiqlarning nutqlarida, radio va televidenie chiqishlarida namoyon bo‘ladi. Gazeta nutqi matbuot nutqining hozirgi kundagi eng asosiy ko‘rinishidir.

Eng avvalo, bu uslubning boshqa vazifaviy uslublarga aloqadorligini ko‘rib o‘tamiz. U til birliklarining obrazlilikni, emotsional-ekspressivlikni yuzaga keltirishga xizmat qilishiga ko‘ra badiiy nutq uslubiga;[132] ifodaning lo‘nda va aniqligi hamda atamalarning faol qo‘llanishi bilan esa ilmiy uslubga yaqin turadi. Ijtimoiy-siyosiy masalalarni ko‘tarib chiqishi, tahlil usuli, mantiqiy davomliligi, kitobxonni ishontirish kuchi, ijtimoiy masalarni hal etishga undashning kuchliligi, o‘ziga xos atamalarning qo‘llanishi singari xususiyatlar publitsistik va ilmiy uslubning xarakterli o‘xshash tomonlaridir[133].

Publitsistik uslub uchta turga bo‘linadi va ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Boshqа uslublardan farqli o‘laroq, publitsistik uslub og‘zaki nutq turiga, ya’ni notiqlik uslubiga egadir. Radio va televidenie rivojlanishi yangi

[130] M.Xalilova: “O’zbek tili stilistikasi asoslari”, “Farg’ona” nashriyoti, 2009. 55-бет
[131] Тожиев Ё. ва бошқалар. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. –Т., 1994, 72-бет
[132] HUBÁČEK, Josef – Učebnice stylistika, p. 68
[133] M.Xalilova: “O‘zbek tili stilistikasi asoslari”, “Farg‘ona” nashriyoti, 2009.

og‘zaki xilma-xillikka, ya’ni radio sharhiga olib keldi. Qolgan ikkisi – gazeta, jurnal va jurnallardagi insholar (axloqiy, falsafiy, adabiy) va maqolalardir (ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy).

Publitsistik matnlar leksikasi va frazeologiyasi haqida so‘z yuritish murakkab vazifadir. Unda kitobiy so‘zlar ham, so‘zlashuv elementlari ham mavjud, o‘zbek tilining barcha nutq uslublariga xos bo‘lgan til elementlarining oddiy va neytral, o‘z va o‘zlashgan leksikadan tortib emotsional-ekspressiv ottenkali yuqori uslubga oid so‘zlargacha, jonli til elementlaridan tortib ijtimoiy-siyosiy terminologiyagacha bo‘lgan til elementlarining qo‘llanishi publitsistik uslubning ijtimoiy hayot voqealarini aks ettirishga bo‘lgan munosabatidan kelib chiqadi. Publitsistik uslubning ommaviy axborot vositalari tiliga xos bo‘lgan intervyu, bosh maqola, axborot, reportaj kabi professional leksika ham, “aholi farvonligini oshirmoq”, “vazifalarni aniq belgilab olmoq”, “yetarli darajada foydalanmaslik”, “ishbilarmonlarga keng yo‘l ochmoq”, “joriy yil”, “zo‘r qoniqish bilan”, “ishni yangicha tashkil etmoq”, “mavjud imkoniyatlardan foydalanmoq”, “ma’lum qilishicha”, “mehnat va ijro intizomi”, “imkoniyatdan foydalanmoq”, “muammolarni o‘z vaqtida hal etmoq”, “munosib hissalarini qo‘shmoq”, “turmush madaniyatini yaxshilamoq”, “umumdavlat manfaati”, “umumxalq manfaati”, “farxrlanish tuyg‘usi bilan”, “xabar qilishlaricha” singari o‘z va turg‘un birikmalari va ifoda qoliplari ham shakllanganki, ular nutq uslublarni bir-biridan farqlash va mazkur uslubning mavqeini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquqiy yo‘nalishga oid: “odam savdosi”, “qonun ijodkorligi”, “qonunlar ijrosi”, “huquqiy bazani ta’minlamoq”;

Tibbiy nutqqa oid: “reproduktiv salomatlik”, “aholini sog‘lomlashtirish dasturi” yoki “ta’kidlamoq, qayd qilmoq, qayd etmoq”, “intellektual salohiyatini oshirmoq”, “davlat tashrifi”, “taklifga binoan” kabi birikmalarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Birgina sport so‘zi atrofida shakllangan mana bu jumlalar ommaviy axborot vositalari tilida g‘oyatda faoldir: “bolalar sporti”, “bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi”, “ommani sportga keng jalb qilish”, “sport klubi”, “sport majmui”, “sport maskanlari”, “sport musobaqalari”, “sport olami”, “sport turlari”, “sport to‘garaklari”, “eng faol sportchi” singari.

Barkamol avlod, ustuvor vazifa, ustuvor yo‘nalish, yoshlar tarbiyasi singari umumnutqiy jumlalarning g‘oyatda faolligi ham mazkur uslubning ommaviylik mohiyatidan kelib chiqadi. Davr talabi, do‘stona suhbat, yuqori hosil uchun kurash, yaratuvchilik ishlari, dunyo hamjamiyati, mustaqil mamlakatlar hamdo‘stligi singari turg‘un birikmalarni faol qo‘llash ham publitsistik uslubning tabiatiga xosdir. Publitsistik uslubda so‘z qo‘llash imkoniyati shu qadar kengki, hatto umumiste’moldagi so‘zlar atamaga aylanadi. Masalan: ovoz, ochiq ovoz, yopiq ovoz, hal qiluvchi ovoz, maslahat ovozi, qarshi ovoz, ovozga qo‘ymoq, ovoz bermoq, singari misollar tariqasida ko‘rishimiz mumkin. Publitsistika ijtimoiy-siyosiy hayot voqealariga faol aralashgani sayin zamonaviy til rivoji va taraqqiyotiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatib boradi. Masalan, birgina o‘zbek terminologiyasi taraqqiyotini olaylik. Bu haqda akad. Azim Hojiyevning

aytganlarini eslaylik: “Hozirgi o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotida vaqtli matbuotning roli ham juda muhimdir. Xuddi shu vaqtli matbuotda, ayniqsa, gazetada, adabiy tilning barcha stillari o‘z aksini topadi. Shu bilan birga, ijtimoiy aloqaning bu formasi kundalik hayotda muhimligi, operativligi va ommaviyligi bilin ham xarakterlanadi. Shu jihatdan, “adabiy tilning eng muhim laboratoriyasi” degan iborani vaqtli matbuotga nisbatan aytish juda ham o‘rinli bo‘ladi”.

Shu o‘rinda aytishimiz lozimki, til elementlarining qo‘llanish holati turli davrlarda turlicha bo‘lgan. Masalan, mustaqilligimizdan avval *protsent, revolyutsiya, redaktor, reforma, spravka, student, tekst, ekonomika* singari yuzlab so‘zlarni publitsistikada faol qo‘llab kelganmiz. Mustaqillik esa ongimizga, shuurimizga jiddiy ta’sir korsatdi, asta-sekinlik bilan o‘zligimizni anglay boshladik va milliy mafkuramizni shakllantirishga kirishdik. Bu esa, shubhasiz, tildan foydalanishda ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. *Foiz, inqilob, muharrir, islohot, ma’lumotnoma, talaba, matn, iqtisod, iqtisodiyot* singari birliklarni qo‘llash tamoyilga kirdi. Aytilganlardan kelib chiqib, tildan foydalanish jarayonini shartli ravishda mustaqillikkacha bo‘lgan davr, mustaqillikning dastlabki yillari va mustaqillikning keyingi davri deb o‘rganish mumkin bo‘ladi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida kishilar ruhiyatida sodir bo‘lgan ijobiy o‘zgarishlar ularni yangilanish sari undadi. Jumladan, amalda qo‘llanib kelinayotgan ruscha-baynalminal so‘zlarni “o‘zbekchalashtirish” kayfiyati kuchaydi. O‘rinli va o‘rinsiz almashtirishlar natijasida ayrim holatlarda tilimizning leksik me’yorlari qo‘pol ravishda buzildi. Musohaba, mushtariy, ilmgoh, oliygoh, o‘yingoh, sihatgoh, issiqxona, ajoyibxona, eshikbon, sayrbon, oybitik, oynoma, ro‘znoma singari so‘zlar ommaviy axborot vositalari tilida goh-gohida uchrab turgan. Ammo har qanday shoshma-shosharlik, termin yaratuvchilik salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi ma’lum bo‘lib qoldi. Oradan o‘tgan davr asta-sekinlik bilan so‘z qo‘llashdagi bu salbiy holat va o‘zboshimchaliklarga barham berildi.

To‘g‘ri, tilimizda hozirda ham ayrim tushunchalarning atamalari dublet holatida *arxitektor-me’mor, injener-muhandis, universtet-dorilfunun* tarzida qo‘llanilib kelinmoqda. Tilshunoslikda ham *epitet – sifatlash, derivatsiya – so‘z yasalishi, affiks – qo‘shimcha, abbreviatura – qisqartma so‘z, anafora – misra boshidagi tovush takrori, antroponimlar – kishi nomlari, toponimlar – joy nomlari, stilistika – uslubshunoslik* kabi o‘nlab atamalarni parallel holda hozir ham ishlatib kelayapmiz. Bunday parallel so‘z qo‘llanishning boisi atamalarning birinchisi xalqaro termin sifatida barcha tillarda qo‘llanilib kelinayotganligi bo‘lsa, yana bir sababi, ularning har biri nutqda o‘ziga xos stilistik qo‘llanilish o‘rniga egaligidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык [Электронный русурс]: учубник для вузов/ И.В.Арнольд. – 10-е изд., -М.: Флинта, 2010. -384с.

2. M.Xalilova: “O‘zbek tili stilistikasi asoslari”, “Farg‘ona” nashriyoti, 2009.

3. Mamajonov A. Qo‘shma gap stilistikasi. -Toshkent: Fan. 1990.
4. HUBÁČEK, Josef – Učebnice stylistika, p. 68
5. Тожиев Ё. ва бошқалар. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. –Т., 1994, 72-бет
6. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. –Т.: ТошДУ нашриёти, 1994, 78-бет.
7. Ўринбоев Б. Функционал услубият ва унинг моҳияти. – Тошкент: фан, 1992.
8. Шомақсудов А. ва бошқалар, Ўзбек тили стилистикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1983, 9- бб.
9. Muzaffarovna, A. N., & Qizi, A. S. T. (2020). Characteristic features of word formation of a newspaper article in English and Uzbek languages. *Проблемы современной науки и образования*, (2 (147)), 41-43.
10. Hoshimova, N. A. (2020). Ingliz va o‘zbek tillarining funktsional uslublari. *Молодой ученый*, (19), 584-585.
11. MAMAJONOV, A., & Teshaboyev, D. (2018). Some thoughts about semantics of the complex sentencies. *Scientific journal of the Fergana State University*, *1*(3), 76-78.

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ТЕОРИИ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ ПРАГМАТИКИ В ЛИНГВИСТИКЕ

Азимова Сайёра Хусанбоевна
Ферганский Государственный Университет
старший преподаватель

Annotatsiya. Maqolada tilshunoslikda madaniyatlararo pragmatika nazariyasi rivojlanishining XX asr o‘rtalaridan boshlab zamonaviy tadqiqotlargacha bo‘lgan asosiy bosqichlari ko‘rib chiqilgan. Maqola madaniyatlararo pragmatikaning asosiy tushunchalari, nazariy yondashuvlari va tadqiqot usullarini tahlil qiladi, shuningdek uning madaniyatlararo aloqani tushunishdagi rolini o‘rganadi. Maqolada madaniyatlararo pragmatika sohasidagi asosiy yutuqlar jamlangan, tilshunoslikda ushbu sohani yanada rivojlantirish istiqbollari aniqlangan va pragmatik darajada madaniyatlararo o‘zaro munosabatlarni o‘rganish bilan bog‘liq asosiy muammolar yoritilgan.

Kalit so‘zlar – madaniyatlararo pragmatika, usullar, tilshunoslik, aloqa, nazariya, tushuncha.

Аннотация. В статье рассматриваются основные этапы развития теории межкультурной прагматики в лингвистике, начиная с ее зарождения в середине XX века и до современных исследований. Автор анализирует ключевые концепции, теоретические подходы и методы исследования межкультурной прагматики, а также рассматривает ее роль в понимании межкультурной коммуникации. В статье обобщены основные достижения в области межкультурной прагматики, выявлены перспективы дальнейшего развития этого направления в лингвистике и выделены основные проблемы,

связанные с изучением межкультурного взаимодействия на прагматическом уровне.

Ключевые слова: межкультурная прагматика, методы, лингвистика, коммуникация, теория, концепция.

Введение.

Межкультурная прагматика как направление в лингвистике возникла в ответ на необходимость изучения особенностей коммуникативного поведения в контексте межкультурного взаимодействия. Современный мир характеризуется возрастающей глобализацией и межкультурным обменом, что требует глубокого понимания того, как представители различных культур используют язык для выражения своих намерений, чувств и мыслей. Цель данной статьи — рассмотреть основные этапы развития теории межкультурной прагматики, выделить ключевые концепции и подходы, а также определить ее значение в межкультурной коммуникации.

Литературный анализ и методы.

Понятие прагматики впервые было введено Чарльзом Моррисом (1938), который выделил три аспекта семиотики: синтаксис, семантику и прагматику. Однако только в 1960-х и 1970-х годах благодаря работам таких ученых, как Джон Остин и Джон Серль, теория речевых актов привлекла внимание к вопросам коммуникативного взаимодействия и намерений говорящего. Теория межкультурной прагматики, как отдельное направление, начала формироваться в 1980-х годах, когда исследователи стали акцентировать внимание на культурных различиях в использовании языка и коммуникативных стратегий. Одной из первых работ, подчеркивающих важность межкультурной прагматики, стала книга Делла Хаймса “Foundations in Sociolinguistics: An Ethnographic Approach” (1974), в которой автор выделил взаимосвязь между культурным контекстом и использованием языка.

Позднее, в 1980-х и 1990-х годах, исследователи, такие как Дженни Томас (“Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics,” 1995), стали уделять внимание межкультурным аспектам прагматической компетенции, подчеркивая важность культурных норм и ожиданий в коммуникации. Межкультурная прагматика стала неотъемлемой частью исследований по межкультурной коммуникации благодаря работам Жуана Хауса, Клары Хитсукуро и других ученых, которые исследовали, как культурные факторы влияют на использование речевых актов, полилогов и других коммуникативных феноменов.

Современные исследования межкультурной прагматики продолжают развиваться благодаря новым технологиям и глобализации. Многомерные и междисциплинарные исследования все чаще сочетают лингвистику с культурологией, антропологией и социологией, расширяя понимание межкультурной коммуникации в различных контекстах — от деловой коммуникации до взаимодействия в социальных сетях.

Методы.

В исследовании использованы следующие методы:

1. **Анализ литературы:** Систематическое изучение основных теоретических источников по межкультурной прагматике, чтобы понять ключевые этапы ее развития и основные концепции.
2. **Исторический анализ:** Изучение изменений в развитии межкультурной прагматики в разные периоды времени.
3. **Сравнительный анализ:** Сопоставление различных теорий и подходов к межкультурной прагматике, чтобы выявить их сходства и различия.

Результаты и обсуждение

Анализ литературы и исторических данных позволил выделить три основных этапа развития теории межкультурной прагматики:

1. **Зарождение (1950–1980 гг.):** В этот период были заложены основы прагматического подхода к изучению языка. Работы Остина и Серля по теории речевых актов и использование языка для выполнения действий стали фундаментом для будущих исследований в области межкультурной прагматики. В этот период началось понимание того, что культурный контекст влияет на интерпретацию и использование речевых актов.
2. **Интеграция в межкультурную коммуникацию (1980–2000 гг.):** В этот период теория межкультурной прагматики стала развиваться как самостоятельное направление, ориентированное на анализ коммуникативных стратегий и языкового поведения в различных культурах. Работы Жуана Хауса и Дженни Томас способствовали интеграции межкультурной прагматики в исследования по межкультурной коммуникации. Исследователи стали фокусироваться на том, как представители разных культур по-разному понимают и используют речевые акты, вежливость и другие прагматические феномены.
3. **Современный этап (2000-е годы и далее):** В современный период межкультурная прагматика активно развивается благодаря глобализации и цифровым технологиям. Расширяется сфера применения теории межкультурной прагматики, включая онлайн-коммуникацию, деловые переговоры, межкультурное образование и исследования миграционных процессов. Современные исследования уделяют внимание не только культурным различиям, но и вопросам межкультурной адаптации и трансформации прагматической компетенции в условиях мультикультурных сообществ.

Обсуждение результатов показывает, что теория межкультурной прагматики играет важную роль в понимании того, как культурные ценности, нормы и ожидания влияют на коммуникативное поведение. Межкультурная прагматика способствует развитию навыков эффективной коммуникации и пониманию межкультурных различий, что особенно актуально в современном глобализированном мире.

Заключение.

В статье были рассмотрены основные этапы развития теории межкультурной прагматики и ее влияние на понимание межкультурной коммуникации. Анализ показал, что межкультурная прагматика прошла долгий путь от своих теоретических основ до современных исследований, затрагивающих различные аспекты человеческого взаимодействия. Будущие исследования в этой области могут способствовать дальнейшему расширению нашего понимания межкультурных различий, что позволит повысить эффективность коммуникации в многоязычной и мультикультурной среде.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Morris, C. (1938). *Foundations of the Theory of Signs*. University of Chicago Press.
2. Austin, J. L. (1962). *How to Do Things with Words*. Clarendon Press.
3. Hymes, D. (1974). *Foundations in Sociolinguistics: An Ethnographic Approach*. University of Pennsylvania Press.
4. Searle, J. R. (1969). *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge University Press.
5. Thomas, J. (1995). *Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics*. Longman.
6. House, J. (1996). *Cross-Cultural Pragmatics: Request Strategies in German and English*. Routledge.
7. Leech, G. (1983). *Principles of Pragmatics*. Longman.

ФОРМИРОВАНИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ –ИНОФОНОВ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ

Мирзаюнусова З.И
Преподаватель кафедры узбекской и русской филологии
Кокандский государственный педагогический институт

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы повышения качества обучения учеников – инофонов русскому языку. Предлагаются инновационные методы, способствующие формированию коммуникативных компетенций учеников. Анализ состояния преподавания русского языка и литературы показывает, что в школе недостаточно формируются навыки и умения устной и письменной речи. Теоретические сведения о русском языке и литературе не используются в полной мере для формирования практической речевой деятельности. Это означает, что проблема соотношения знаний о языке и практического владения языком еще не решена.

Ключевые слова: качество, коммуникация, компетенция, навыки, формирование, практика, проблема.

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zga tilli bolalarga rus tili o‘qitishning sifatini yaxshilash masalalari ko‘rib chiqilgan. O‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini shfkllantirishga xizmat qiladigan innovatsion usullar tavsiya

etiladi. Tahlil natijalariga ko‘ra maktablarda rus tili va adabiyoti o‘qitishda og‘zaki va yozma nutqni shakllantirishga qaratilgan ko‘nikmalar yetarlicha shakllantirilmagan. Demak, nazariy va amaliy bilimlar mutanosibligi masalasi yetarlicha hal etilmagan.

Kalit so‘zlar: sifat, kommunikatsiya, ko‘nikmalar, shakllantirish, amaliyot, muammo.

Повышение качества обучения, в частности качества обучения школьников, является одной из самых актуальных проблем педагогики и методики в связи с тем, что в настоящее время, к сожалению, все более очевидными становятся недостатки в образовательном уровне школьников, в том числе и в уровне владения ими русского языка. Изменения, происходящие как в стране, так и в образовании, ставят перед школой новые задачи в области определения содержания, разработки авторских программ, форм и методов работы с учащимися. В последнее десятилетие ведутся активные поиски рационального преподавания русского языка в узбекской школе. В результате в системе школьного образования Узбекистана обучение русскому языку ведется по целому ряду учебных комплексов с использованием традиционных и развивающих технологий, авторских и индивидуальных программ, выбор которых предоставлен школам.

В основу формирования коммуникативной компетенции положен деятельностный подход, так как он обеспечивает самостоятельную творческую деятельность каждого ученика. Подход основан на положении П. Я. Гальперина о том, что в самостоятельной творческой деятельности каждого ученика надо идти от внешних практических материальных действий к действиям внутренним, теоретическим, идеальным. Другими словами, обучение предполагает на первом этапе совместную учебно-познавательную деятельность под руководством учителя, а затем - самостоятельную. Речь идет о "зоне ближайшего развития", которую необходимо учитывать при формировании коммуникативной компетенции.

Данный подход не противопоставлен традиционному, но и не тождественен ему, так как он фиксирует и устанавливает подчиненность знаний, умений, ставя акцент на практической стороне вопроса, расширяя содержание собственно личностными составляющими.

Коммуникативная компетенция определяется, как творческая способность обучающегося пользоваться инвентарем языковых средств, который складывается из знаний и готовности к их адекватному использованию [Александрова, 2006: 5].

Коммуникативные компетенции отслеживаются на уроках русского языка и литературы. Учителя-новаторы предлагают технологию проблемного обучения, которая дает возможность заменить урок объяснения нового материала уроком открытия знаний: учащиеся сами формулируют цели урока, определяют проблему и вместе с учителем ищут пути решения проблемы. Особый подход к развитию связной устной и письменной речи в

данной программе состоит в том, что авторы исходят из того, что нельзя "развивать речь вообще", а следует сосредоточиться в каждом классе на определенных разновидностях устной и письменной речи. Они считают, что на уроках по развитию речи необходимо:

знать:

- понятие текста и его структуры;
- понятие стиля, виды стилей и их особенности;
- способы и средства связи предложений в тексте;
- определение абзаца и знание его функций;
- понятие стилистической окраски слова и его функции образовать текст;
- определение диалога и монолога;
- способы передачи чужой речи;
- определение прямой и косвенной речи;
- особенности строения делового повествования.

Уметь:

- владеть продуктивными навыками различных видов устной и письменной речи;
- читать тексты изучающим чтением, владеть отдельными приемами ознакомительного чтения;
- выделять в тексте ключевые слова;
- ставить вопросы к тексту;
- составлять план текста;
-составлять устный развернутый ответ и пересказ текста;
- делать сообщение на лингвистическую тему;
-писать изложение научно-учебного текста;
- писать сочинение-повествование на лингвистическую тему;
-отвечать на вопросы учебника;
-вести диалог;
-владеть этикетными средствами языка;
-описывать речевую ситуацию на основе текста, рисунка;
- определять свои коммуникативные удачи (неудачи);
- формировать явно (вслух), неявно (про себя) коммуникативное намерение; - - ориентироваться в ситуации общения, учитывая адресат;
- анализировать, оценивать;
- аргументировать свой ответ;
- создавать собственные тексты; редактировать текст; пересказывать текст устной художественной речи; определять художественный стиль речи; различать широкие и узкие темы; читать тексты изучающим чтением; выполнять задания к свободным диктантам, к изложениям; писать аннотацию и отзыв; находить и устранять повторы – недочеты.

Основными задачами формирования коммуникативной компетенции являются: формирование функциональной грамотности учащихся, формирование продуктивных навыков и умений в различных видах устной и

письменной речи, формирование у учащихся "общелингвистической компетентности", что необходимо для успешного овладения другими предметами [Ладыженская, 2003: 4].

Главным принципом формирования коммуникативной компетенции является личностная адресованность образования. Поэтому достижение цели на уроках русского языка реализуется в первую очередь в возможности ввести учащихся в содержание данной темы различными путями в зависимости от личностно-психологических и физиологических особенностей учеников [Ладыженская, 2000: 5-6].

Пути реализации коммуникативной компетенции учащихся состоят в том, что формы, методы и приемы работы направлены на то, чтобы содержание учебного материала было источником для самостоятельного поиска решения проблемы. Исследовательский подход к темам литературных произведений помогает рассматривать жизнь литературного героя как учебное исследование. А дискуссия по результатам сочинений дает возможность высказать свою точку зрения, послушать других, поспорить.

Ученые считают, если в 10-11 лет наступает пик интереса ребенка к окружающему миру, и если интерес ребенка не будет удовлетворен, то он угаснет. Помогают поддерживать этот интерес и традиционные читательские конференции, где учащиеся знакомят одноклассников с самыми интересными прочитанными книгами, отзыв о которых записывают в читательских дневниках. На внеклассных уроках учащимся очень нравятся ролевые игры, где они учатся культуре общения.

ЛИТЕРАТУРА:

1.Ладыженская, Т.А. Методика развития речи на уроках русского языка. – М., 1991. – 166 с.

2.Ладыженская, Т.А. Модернизация образования и риторики // Русская словесность. – 2005. - №3. – С. 12 – 15.

3.Ладыженская, Т.А., Ладыженская, Н.В. Риторика и обновление школьного образования // Педагогика. – 2003. - №2. – С. 5-8.

4. Ibragimovna, M. Z. (2023). THE ROLE OF STUDENTS'INDEPENDENT WORK IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Gospodarka i Innowacje., 42, 309-313.

GRAMMATIK MA'NO

Ziyamova Shahlo Odiljanovna
Namangan viloyati Chortoq tumani
53-sonli DIUM oliy toifali
ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola o'zbek tilidagi ayrim so'zlarda leksik ma'noning grammatik ma'noga o'tishi, leksik va grammatik ma'noning farqlari, ularning o'zaro munosabati kabi masalalarni o'rganadi. Tadqiqotda leksikologiya va grammatika, leksik va grammatik ma'nolarni tushunib olish, bu masalar bo'yicha

maxsus treninglar tashkil etish uchun ahamiyatlidir. Shuningdek, leksikologiya va morfologiyani bog‘lab o‘qitishda samaralidir.

Kalit so‘zlar: morfologiya, grammatika, grammatik ma’no, leksik ma’no, shakl yasovchilar, grammatik ma’no

Grammatik ma’no -murakkab hodisa. Mustaqil va alohida olingan so‘zda lug‘aviy ma’no ustiga qavatlanadigan, yordamchi so‘zning mohiyatini tashkil etadigan, ko‘plab so‘z uchun umumiy ma’no bo‘lgan ma’no grammatik ma’no deyiladi. Masalan, kitob so‘zining lug‘aviy ma’nosi ustiga ot, turdosh ot, aniq ot, yakka ot ma’nosi qavatlangan bo‘ladi. “Atash” ma’nosi va “so‘zni ergash so‘z sifatida bosh so‘zga bog‘lash” uchun so‘zning mohiyatini tashkil etadi.

Grammatik ma’no leksik ma’nodan bir guruh so‘z uchun umumiyligi bilan farqlanadi. Chunki lug‘aviy ma’no har bir so‘z uchun alohida bo‘ladi. Masalan, hatto bir ma’nodoshlik qatoridagi har br so‘zning lug‘aviy ma’nosi farq qiladi: *bashara* so‘zining lug‘aviy ma’nosi “odam boshi old tomoni peshonadan iyakkacha bo‘lgan qismining salbiy ifoda” bo‘lsa, *yuz* so‘zining lug‘aviy ma’nosi “odam boshi old tomoni peshonadan iyakkacha bo‘lgan qismining betaraf ifodasi”dir. Farq: “salbiy ifoda” va “betaraf ifoda”. Lekin nafaqat ma’nodosh, balki narsa-predmet va shaxsni bildiruvchi so‘zning barchasi uchun ot grammatik ma’nosi umumiy. Grammatik ma’no barcha so‘z turkumida bor. Lug‘aviy ma’no esa gap bo‘lagi va gap bo‘la oladigan so‘zda mavjud. Mavjudligiga ko‘ra grammatik ma’no uchga bo‘linadi:

1)so‘zning tabiatida avvaldan mavjud bo‘lgan grammatik ma’no;

2)grammatik vosita yordamida hosil qilinadigan grammatik ma’no;

3)so‘z birikmasi va gap tarkibida vujudga keladigan grammatik ma’no.

So‘zning tarkibida avvaldan mavjud bo‘lgan ma’no. Ot turkumiga mansub ot, aniq ot, mavhum ot, yakka ot, jamlovchi ot, atoqli ot, turdosh ot, sifat turkumida sifat, asliy sifat, nisbiy sifat, son turkumida son, miqdor, payt, sabab, ko‘makchida ko‘makchi, sof ko‘makchi, ko‘makchi vazifasidagi so‘z kabilar ularda avvaldan mavjud grammatik ma’no. Har bir so‘z turkumida bunday ma’no bor. So‘z biror turkumga xosmi, bu turkum atamasi uning bir grammatik ma’nosining nomidir.

Grammatik vosita yordamida hosil qilinadigan grammatik ma’no. Bunday ma’no mustaqil so‘zda mavjud bo‘lib, grammatik qo‘shimcha yordamchi so‘z vositasida hosil qilinadi. Masalan, ot turkumida birlik va ko‘plik, egalik, kelishik, kichraytirish, erkalash va ko‘makchi yordamida vujudga keladi: *kitobchalarimga* so‘zidagi “kichraytirish oti”, “ko‘plikda”, birinchi shaxsdagi birlik, egalik shaklida, “jo‘nalish kelishigida” grammatik ma’nosi grammatik vosita yordamida vujudga kelgan grammatik ma’no. Sifat va ravishdagi daraja, sonning sanoq sondan boshqa barcha ma’no turi,fe’lda nisbat, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, fe’lning xoslangan shakli, mayl kabilar shunday ma’no sirasiga kiradi.So‘z birikmasi va gap tarkibida vujudga keladigan grammatik ma’no.Mustaqil so‘z erkin birikma tarkibida bosh so‘z yoki ergash so‘z, gap tarkibida biror gap bo‘lagi, undalma, kirish so‘z, ajratilgan bo‘lak, so‘z-gap bo‘lib keladi. Yordamchi so‘z so‘z yoki gapni o‘zaro bog‘laydi (ko‘makchi va bog‘lovchi), qo‘shimcha ma’no beradi (yuklama). Bu

ma’no faqat gap tarkibida hosil bo‘ladi. Gapdan tashqaridagi so‘zda bunday grammatik ma’no bo‘lmaydi. Nutqda har qanday mustaqil so‘z shakli leksik ma’nodan tashqari, grammatik ma’noga ega bo‘ladi. Masalan, *ishimizdan, keltirdi* so‘zlaridagi *ish* va *kel* so‘zlari o‘z leksik ma’nosidan tashqari predmetlik va harakat ma’nolarini ifoda qiladi. Bu ularning grammatik ma’nosidir. Bu so‘zlardagi *–imiz, -dan, -tir, -di* qo‘shimchalari turli grammatik ma’nolarni ifodalaydi. Grammatik ma’no so‘zning leksik ma’nosiga orttirilgan qo‘shimcha ma’nodir. So‘zning grammatik ma’nolari grammatikada o‘rganiladi. So‘zlar o‘zlarining leksik va grammatik ma’nolari bilan farq qiladi.

Atoqli va turdosh otlar nutqda qo‘llanishiga ko‘ra farqlanadi. Turdosh otlar predmet yoki hodisani atashdan tashqari, ularni bir guruh yoki tipga kirishini ham ifodalaydi. Atoqli otlar esa ma’lum shaxs, shahar, qishloq va boshqa narsalarni shu tipdagilarni ichidan ajratib ko‘rsatish, ularning alohida individual xususiyaitni ifodalash uchun xizmat qiladi.Shu sababli, odatda, ikki bir xil ismli shaxsni adashtirib yubormaslik uchun katta Muhammad, kichik Muhammad iboralari ham qo‘llanadi. Bu jihatdan til faqatgina tushunchalarni umumlashtiruvchi vosita bo‘lmay, ularni farqlash vositasi sifatida insonning amaliy faoliyatida juda katta rol o‘ynaydi. Ma’lumki, ma’no lingvistik hodisa bo‘lib, avvalo, leksik va grammatik turlarga bo‘linadi. Grammatik ma’no tabiatan grammatika bilan bog‘liq. Grammatika esa o‘z navbatida, ikki turga bo‘linadi: morfologiya; b) sintaksis.

Demak, grammatik ma’nolarni morfologik va sintaktik turlarga ajratish mumkin. Morfologik ma’no deyilganda har qanday mustaqil so‘z va leksemaga morfologiya nuqtayi nazaridan berilgan qo‘shimcha tavsiflar, qiymatlar tushuniladi. Morfologik ma’noning mazmun-mundarijasini so‘z shakli, so‘z turkumi, har bir turkumga oid bo‘lgan kategoriyalar, ularning turlari kabilarga oid xususiy ma’nolar tashkil etadi Masalan, *gul* sozini olaylik. Bu so‘zning leksik ma'nosi "kishiga zavq beruvchi o‘simlik"dir. Morfologiya, avvalo, gul so‘zini uning shakllari nuqtai nazaridan o‘rganadi va shu jilhatdan qo‘shimcha yoki morfologik (grammatik) ma’nolar beradi. Masalan, *gullarni* so‘zida gulni ot ekanlik, ko‘plikdalik, tushum kelishigida turganlik ma’nolari gul so‘zining leksik m’nosiga nisbatan grammatik ma’nolardir. Grammatik ma’no ifodalanish jihatdan ko‘rsatkichli (qo‘shimchali) yoki ko‘rsatkichsiz (qo‘shimchasiz) bo‘lishi mumkin. Masalan, gul sozining “otlik” ma’nosi grammatik ma’no, lekin u hech qanday qo‘shimchaga ega emas. Gullar so‘z shaklida esa gul so‘zining ko‘plik ma’nosi maxsus - lar qo‘shimchasi bilan ifodalangan tilshunoslikda grammatik ma’noning ifodalangan ifodalanmaganligi markerli yoki markersiz deb ham yuritiladi: “gul” ning ot ekanligi markersiz, gullar shakli esa markerli holatdir.

Har bir til o‘zining maxsus grammatik mano ifodalovchi vositalar va tizimga ega. Grammatik ma’no, avvalo, qo‘shimchalar bilan ifodalanadi. Bu qo‘shimchalar tilshunoslikda munosabat shakllari yoki shakl yasovchilar deb ataladi. Hozirgi kun darsliklarimizda esa ular sintaktik shakl yasovchilar (so‘z o‘zgartuvchilar) va lug‘aviy shakl yasovchilar (shakl yasovchilar) deb yuritilmoqda.Sintaktik shakl yasovchilar ifodalagan ma’nolarning o‘ziga xos siri shundaki, ular gap tarkibidagi

so‘zlarga qisman qo‘shimcha ma’no beradi va ayni paytda so‘zlarni sintaktik bog‘lash uchun xizmat qiladi. Bularga kelishik, egalik, shaxs-son qo‘shimchalari kiritiladi

Lug‘aviy shakl yasovchilarning mohiyati shundan iboratki, ular asosan, so‘zning leksik ma‘nosiga salmoqli qo‘shimcha ma’no beradi. Lekin bir so‘zni ikkinchi so‘z bilan bog‘lamaydi. Masalan, *Men gullarga qaradim* gapini olib ko‘raylik, bu gapdagi *gullarga* so‘zida grammatik ma’no leksik ma’nodan bir guruh so‘z uchun umumiyligi bilan farqlanadi. Bu gapdagi *gullarga* so‘zida -lar qo‘shimchasi gul so‘zining leksik ma’nosiga ikki va undan ortiq, ya’ni ko‘plik ma’nosini beradi, xolos. Boshqacha aytganda. leksik ma’noni motifikatsiya qiladi, o‘zgartiradi, sintaktik bog‘lanishga ta’sir etmaydi. Bu so‘zdagi - *ga* kelishik qo‘shimchasi esa gul so‘ziga yo‘nalish ma‘nosini beradi va uni qaradim fe’li bilan bog‘laydi. Agar *gullar* so‘ziga- *ga* kelishigi qo‘shilmasa *gul* va *qaradim* fe‘llarining bog‘lanishi yuzaga chiqmaydi va hokazo. Shuni aytish kerakki, lug‘aviy shakl yasovchilar sirasi hozirgacha to‘liq aniqlanmagan. Masalan, nisbat qo‘shimchalari aslida lug‘aviy shakl yasovchilarga yaqin keladi. Xususan, o‘zlik nisbatdagi fe’l egaga (o‘zim kiyindim, men kiyindim) ishora qiladi. Shuningdek, birgalik nisbat qo‘llansa ko‘plik shakldagi ega ham namoyon bo‘ladi: ishlashdi (ular) kabi. - *sa* shart mayli qo‘shimchasi ham sintaktik bog‘lanishga ishora qiladi.

Agar ergash gapning oxiri -*sa* bilan tugasa, shundan keyin bosh gap talab qiladi.

Sintaktik shakl yasovchilarning o‘ziga xosligi shundaki, ular ikki asosiy grammatik xususiyatga ega: a) so‘zga qo‘shimcha ma’no beradi; b) o‘zi qo‘shimchasi boshqasi bilan bog‘laydi.

Ma’lumki, sintaktik shakl yasovchilar so‘zlarni chapdan o‘ngga *(uyga bordi)*, o‘ngdan chapga *(mening kitobim)* bog‘lash xususiyatlariga ega. Lug‘aviy shakl yasovchi va sintaktik shakl yasovchi affikslarning grammatik ma’no xususiyatlari darslik va qo‘llanmalarda atroflicha yoritilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bozorov O. O‘zbek tilida darajalanish, Toshkent, 1995.

2. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, Toshkent, 2002-yil, 4-son.

3. Shahobiddinova Sh. Grammatik ma’no talqini xususida, Samarqand, 1993-yil.

4.Khalikov T. The use of helping verbs inUzbek texts. Journal of History and Culture, 15(2),12-24.

MO‘TADILLASHISH JARAYONIDA ZIDLANISHLARNING HOSIL BO‘LISH USULLARI

Usmonov Yorqinbek Muxtorjon o‘g‘li
Qo‘qon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqola oppozitsiyalarni mo‘tadillashish jarayoni va ularning morfologik ziddiyatlarni vujudga keltirishi, shuningdek lingvistik sathlarni kengayish sabablarini ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: oppozitsiyalar, sintaktik tabiat, semantik ma’no, morfologik kategoriyalar, distributsiya xodisasi.

Annotation. This article shows the process of moderation of oppositions and their causes of morphological conflicts, as well as the expansion of linguistic levels.

Key words: oppositions, syntactic nature, semantic meaning, morphological categories, distribution phenomenon.

KIRISH

Oppozitsiyalarni vujudga kelishida kelishik paradigma a’zolari ziddiyatining neytrallashuvi va kelishik ma’nolari kelishik shaklidagi so‘zning boshqa so‘zlar bilan bog‘lanishi asosida shakllanadi[134]. O‘zbek tilida oltita kelishik shakllari bo‘lib, matn tarkibida ular o‘zaro almashib qo‘llanishlari mumkin.

Professor Sh.Shaxabitdinova kelishik kategoriyasi morfologik kategoriyalar orasida sintaktik tabiatining ustunligi bilan farqlanishi, kelishiklarning semantik xususiyati borasida yuzaga kelgan qarashlarning xilma-xil ekanligini ta’kidlaydi va shunday deydi: “...Ushbu qarashlarni ikki katta guruhga jamlash mumkin: 1. Kelishiklar o‘z semantikasiga ega emas. Ular muayyan sintaktik vazifa bajaradi. 2. Kelishiklar o‘z semantikasiga ega. Kelishiklarning o‘z semantikasiga ega bo‘lishini ikki jihatdan farqlash mumkin: 1. Falsafiy jihat: har qanday borliq – har qanday til birligi kabi kelishiklarning ham mavjud bo‘lishi ularning mohiyatan ziddiyatli ikkilangan bo‘lishini talab qiladi. Sintaktik jihat ushbu ziddiyatning bir qutbi (uning mavjudligi hech kimda shubha tug‘dirmaydi) bo‘lsa, ikkinchi qutb (uning borligi biroz shubhaliroq tuyulsa ham) aynan semantikadir. 2. Lisoniy jihat: kelishiklarga mohiyatan xos bo‘lgan ziddiyatli jihatlar har birining realizatsiyasi uchun qulay lisoniy sharoitlar mavjud. Sintaktik jihatning yorqin realizatsiyasi uchun bunday imkoniyat ancha keng bo‘lsa, semantik jihat uchun bu bir xil imkoniyat chegaralangandir. So‘zning sintaktik vazifa o‘zgarmagan holda turli kelishiklarni qabul qila olish o‘rinlari ana shu xil (semantik jihatning yorqinlashuvi) imkoniyatni yuzaga keltiradi”[135].

Kelishik kategoriyasining sistem tadqiqi borasida maxsus tadqiqot olib borgan Z.Qodirovning ko‘rsatishicha, “o‘zbek tilidagi mavjud oltita kelishik o‘zaro bir-

[134] Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 260.

[135] Шахабитдинова Ш.Х. Умумийлик ва хусусийлик диалектикаси ҳамда унинг ўзбек тили морфологиясида акс этиши: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – Б. 19.

biri bilan muayyan sharoitda, kuchsiz pozitsiyada funktsional-semantik neytrallashadi”[136].

Z.Qodirov o‘z ishida kelishik ma’nolarining muayyan pozitsiyada funktsional-semantik neytrallashish shartlari va neytrallashishning semantik darajasini aniqlashga harakat qiladi. Olim kelishik sistemasi elementlarining o‘zaro funktsional-semantik neytralizatsiyasini distributsiya metodi asosida qiyoslaydi[137]. Muallif kelishik paradigmasi a’zolari zidlanishining mo‘’tadillashuvi xususida fikr yuritib, bosh kelishikning jo‘nalish, o‘rin, chiqish kelishiklari bilan kuchsiz pozitsiyada funktsional-semantik neytrallashishini, bu neytrallashuvning semantik darajasi distributsiyada ko‘rinishini ta’kidlaydi[138]. Ma’lumki, Yu.Stepanov Amerika strukturalistlari tomonidan distributsiyaning uch tipi farqlanganini ta’kidlaydi: 1. Qo‘shimcha distributsiya. 2. Kontrast distributsiya. 3. Erkin distributsiya[139]. Qo‘shimcha distributsiyada kelishiklar ma’lum bir mazmuniy ma’noga ega bo‘lmaydi. Misol uchun, *institutga kelmoq//institutdan kelmoq. “Institutga kelmoq”* birikmasida jo‘nalish kelishigi orqali ifodalangan ma’no “xarakatning oxirgi nuqtasi”ni, *“Institutdan kelmoq”* birikmasida chiqish kelishigi bilan ifodalanib boshlanish nuqtasi qaerdan boshlanganligi ko‘rsatib berilgan.

Kontrast distributsiyada zidlanayotgan ikki kelishiklar o‘rtasida grammatik ma’noda qisman farq seziladi. Masalan, *suvni ichmoq//suvdan ichmoq.* Ushbu misollar yordamida ikki xil tushum va chiqish kelishiklari o‘zaro konteksda butun-qism ma’nosiga ko‘ra farqlangan. Taxlil qiladigan bo‘lsak, *suvni ichmoq* – xamma suvni ichish nazarda tutilgan// *suvdan ichmoq* – suvning bir qismini ichish nazarda tutilgan (hammasini emas).

Erkin distributsiyada kontekstda kelishiklar orqali anglanayotgan birliklarda semantik jixatdan xech qanday farqlanishlar mavjud bo‘lmaydi. Masalan, *kinoteatrda ko‘rdi//kinoteatrdan ko‘rdi.* Ushbu gapda shu narsa anglashilyaptiki, ikki turlicha ma’no ifodalovchi kelishiklar erkin distributsiya xolatida bir – biri bilan erkin almasha oladi shuning uchun mazmun jixatidan mo‘tadillashish xodisasi ro‘y bergan. Umuman olganda, yuqoridagi uchta distributsiya turlaridan qo‘shimcha distributsiyada zidlanish mavjud bo‘ladi, lekin mo‘tadillashish ro‘y bermaydi. Kontrast distributsiyada esa zidlanish mavjud bo‘lib, mo‘tadillashish pastroq bo‘ladi. Va oxirgi erkin distributsiyada mo‘tadillashish xodisasi juda keng yoritiladi va turlicha ma’no anglatuvchi kelishiklar matn kontekstda bir – biri bilan erkin almasha oladi.

---

[136] Қодиров З.М. Ўзбек тили грамматик категорияларининг систем тадқиқи. Ўқув қўлланма. 1-қисм. – Тошкент: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – Б. 58.

[137] Қодиров З.М. Ўзбек тили грамматик категорияларининг систем тадқиқ этиш (келишик категорияси): Филол. фан. номз. .... дисс. автореф. – Самарқанд, 1993. –28 б.; Қодиров З.М. Ўзбек тили грамматик категорияларининг систем тадқиқи. Ўқув қўлланма. 1-қисм. – Тошкент: Innovatsiya-Ziyo, 2021. –102 б.

[138] Қодиров З.М. Ўзбек тили грамматик категорияларини систем тадқиқ этиш (келишик категорияси): Филол. фан. номз. .... дисс. автореф. – Самарқанд, 1993. – Б. 19.

[139] Степанов Ю.С. Основы общего языкознания. – М.: Просвещение, 1975. –С. 232.

Professor S.Karimov kelishik qo‘shimchalarining badiiy uslubga xos ko‘rinishlarini ularning turlari bo‘yicha guruxlaydi. “Qaratqich kelishigining umumxalq tilida o‘nlab shakllari mavjudligi ilmiy manbalarda qayd qilingan. Ularning BUda (badiiy uslubda – D.N.) faol bo‘lganlari quyidagilar: *-(i)m: Axir, hayajonlar o‘zligim* **manim,** *Mayli qalbingga ham ko‘chsin hayajon* (K.Bahromova); *-n:* **Inisin** *qo‘lida goh pichoq ko‘rib dong qotgan* (H.Xudoyberdieva)”[140]. Yoki: “*Tushum kelishigi -(i)n: Erka malak achchig‘lanmam senga. Uchirsang-da ko‘kka yurak* **kulin** (Fitrat). Bu shaklda qo‘llanish she’riyatda nihoyatda faol. CHunki uning ishlatilishi so‘zdagi bo‘g‘inlar soniga ta’sir ko‘rsatadi, ma’lum darajada adabiy asar pafosini ham o‘zgartiradi, unga ko‘tarinkilik, ulug‘vorlik va ba’zan balandparvoz ruh bag‘ishlaydi”[141]. Ta’kidlab o‘tilganidek, kelishik qo‘shimchalaridan ko‘pchiligining bir necha variantlarga ega bo‘lishi, ayrim ko‘makchilar bilan sinonimik munosabatga kirishishi ularning uslubiy chegaralanishlarini keltirib chiqaradi[142].

O‘zbek tilida kelishiklar orasida zidlanishlar mavjudligi ular bilan qo‘llangan gaplarning mo‘tadillashuviga olib keladi.

Soy bo‘yida turgan bo‘sh mis ***ko‘zani*** *yomg‘ir tomchilari chertib-chertib qo‘yadi va Robiya ko‘zaga qarab suvga kelganini esladi va uni to‘ldirib, uylari tomon ko‘tarib ketdi.* (Pirimqul Qodirov, Yulduzli tunlar). Bu gapda berilgan *ko‘zani* so‘zi tushum kelishigida belgili qo‘llangan va gapda ma’noviy paradigmani saqlagan xolatda jo‘naligish kelishigi bilan erkin almasha oladi. *Soy bo‘yida turgan bo‘sh mis* ***ko‘zaga*** *yomg‘ir tomchilari chertib-chertib qo‘yadi va Robiya ko‘zaga qarab suvga kelganini esladi va uni to‘ldirib, uylari tomon ko‘tarib ketdi.* Har ikkala gap xam mazmunun teng bo‘lib, tushum kelishik (*ko‘zani*), jo‘nalish kelishigi (*ko‘zaga*) ma’nolari o‘rtasidagi zidlanish belgilari yo‘qolishi natijasida mo‘tadillashuv xodisasi yuz bergan.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz kerakki, oppozitsiya xodisalari tilshunoslikning deyarli barcha sathlarida kuzatiladi. Lekin morfologik ziddiyatlar kuzatilishi faqatgini ma’lum tor doiralarda yoritib berilgan. Ziddiyatlarni vujudga kelishida distributsiyalarning o‘rni beqiyos. Erkin distributsiyada kontekstda kelishiklar orqali anglanayotgan birliklarda semantik jixatdan xech qanday farqlanishlar mavjud bo‘lmaydi. Masalan, *kinoteatrda ko‘rdi//kinoteatrdan ko‘rdi.* Ushbu gapda shu narsa anglashilyaptiki, ikki turlicha ma’no ifodalovchi kelishiklar erkin distributsiya xolatida bir – biri bilan erkin almasha oladi shuning uchun mazmun jixatidan mo‘tadillashish xodisasi ro‘y bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

[140] Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ, 2010. – Б. 96.
[141] Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ, 2010. – Б. 96.

[142] Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ, 2010. – Б. 96

1. Nabieva Diloromxon “O‘zbek tili satxlarda umumiylik, xususiy dialektikasini namoyishi”
2. Miraziz Mirtojiev. “turkiy tub so‘zlar”
3. Nurmonov A.A “O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi”
4. Abduazizov. A.A.“English phonetics ” (theoretical course) T., 2007
5. Аракин В. Д. «Сравнительная типология английского и русского языков». М.,
6. Зимняя И. А. Психологическая характеристика слушания и говорения как видов речевой деятельности. - «Иностранные языки в школе
7. Загвязинский В.И. Методология и методика дидактических исследований.- М: Педагогика

TILSHUNOSLIKDA SPORT TERMINLARINING QO‘LLANILISHI

Maxmudova Lazokat Toirjon qizi
Qo‘qon DPI o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikda sport terminlarining qo‘llanilishi va ahamiyati tahlil qilingan. Sport terminlari jismoniy faoliyat, murabbiylik, jamoa ishi va raqobatga oid tushunchalarni aniq va samarali ifoda qilish imkonini beradi. Ular sportchilar, murabbiylar va fanlar o‘rtasidagi kommunikatsiyani osonlashtiradi, shuningdek, sport faoliyatini va uning jarayonlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqolada sport terminlarining leksik xususiyatlari yoritilgan. Sport terminlari, shuningdek, tadqiqot va natijalarni tahlil qilishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot olib borish, sport va tilshunoslik o‘rtasidagi aloqalarni aniqlash va rivojlantirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Sport, termin, terminologiya, tilshunoslik, jarayon, tizim, rivojlanish, lingvistika, omil, chog‘ishtirma.

Jahon hamjamiyati bugungi kunda sport sohasini millatlarni totuvlikka, hamjihatlikka, do‘stlikka, birdamlikka yetaklovchi eng maqbul yo‘l sifatida e’tirof etmoqda. Sportning barcha turlarini keng tatbiq qilish uchun yaratilayotgan imkoniyatlar undagi yangi yo‘nalishlarning rivojlanishi, o‘z navbatida, sport milliy terminologiyasining shakllanishiga olib keldi. Bu jarayon sport sohasi terminologiyasini lingvistik aspektda tadqiq etish, terminlarni tizimlashtirish ehtiyojini yanada kuchaytirdi. Zero, til va jamiyatning bevosita bog‘liqligi hamda ularning dinamik holda to‘xtovsiz o‘zgarishlarga uchrashida mazkur soha terminlari ham salmoqli o‘rin egallaydi.

Dunyo tilshunosligida sportga oid terminlarning qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar misolidagi chog‘ishtirma tahlili nafaqat o‘rganilayotgan tillar terminologiyasidagi farqli jihatlarni, balki mazkur tillarning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy omillarni ham aniqlashga yordam beradi. Dunyoning ko‘plab ta’lim muassasalari va tadqiqot markazlarida, xususan, Rus lingvistik janr maktabi, Avstraliyaning Sistem-funksional tilshunoslik maktabi, Buyuk Britaniyaning Amaliy tilshunoslik/maxsus maqsadlar uchun ingliz tili yo‘nalishi, AQSHning

Michigan shtati Tilshunoslik muassasasida sport terminologiyasi bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Hozirgi globallashuv sharoitida kommunikatsiya va madaniyatlararo muloqotning tezlashuvi, yaqinlashuvi sport terminlarini keng ko‘lamda o‘rganishga e’tiborning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda barcha sohalarda izchil islohotlar olib borilmoqda. Adabiyot, san’at, ilm-fan sohasida olib borilayotgan tadqiqotlarning amaliyotga keng joriy etilishiga e’tibor berilmoqda. Jumladan, sport sohasiga qaratilayotgan jiddiy e’tibor mazkur soha terminologiyasini jadallik bilan shakllanishi va rivojlanishi jarayoniga ehtiyoj sezmoqda. Ushbu jarayonda o‘zbek tili bilan bir qatorda rus tili ham sport terminologiyasi taraqqiy etishida o‘z ahamiyatiga ega. Tillarning bir- biriga o‘zaro ta’sirini o‘rganish tilshunoslikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, taraqqiyot tamoyillariga asoslangan holda «...ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy hamda innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish» [1] ga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqib, hozirgi kunning talabi turli tizimli tillarni o‘qitishda talabalarga chet tilidagi kasbiy terminlarning tilshunoslik mezonlari asosida (leksik-semantik, grammatik, funksional-strukturaviy jihatlarini) o‘rgatish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Yurtimizda chog‘ishtirish orqali amalga oshirilgan tadqiqotlar tillarning umumiy, xususiy jihatlarini aniqlash bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish ko‘lamining yanada oshishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

Dunyo tilshunosligida sport terminologiyasi masalalari bo‘yicha bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Bu yo‘nalishda R.V.Popov [3], V.D.Shvayko [4], kabi xorij olimlari hamda Z.A.Abdullayeva [2] kabi o‘zbek olimlari tadqiqotlar olib borishgan.

XIX-XX asr tilshunosligida terminologiya G.O.Vinokur [7], J.Bo‘ronov [6], R.Doniyorov [5] lar tomonidan yanada rivojlantirildi. Mazkur sohada ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilganligiga qaramay, o‘z yechimini topmagan masalalar ham mavjud, bu esa ularning tadqiqi muammosiga yangicha yondashuvlarni taqozo etadi.

Sport terminlari nutq va til birligi sifatida sport jurnalistikasi sohasida keng qo‘llaniladi. Mazkur soha mutaxassislari tomonidan terminlarni talqin etishda yuzaga kelayotgan kamchiliklar aniqlandi. Shu bois sport leksikasini tilshunoslik tamoyillari asosida o‘rganish ehtiyojini yuzaga keltirmoqda.

Sport sohasiga oid leksik birliklarning tadqiqi, bir tomondan, til leksik qatlamining katta qismini tashkil etuvchi terminlarni o‘rganishdan iborat bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tilning leksik qatlamida mavjud tor doiradagi neologizmlarni ilmiy o‘rganish ham hisoblanadi. Terminlarning qay darajada ommabop bo‘lishi ular qo‘llanuvchi sohaning rivoji bilan chambarchas bog‘liq. Sportga oid ko‘chma ma’noli birliklar bir tildan ikkinchi tilga o‘tadi, muqobillashadi va xoslanadi. Ularning ba’zilari asl tilda ko‘p vazifaliklik xususiyatiga ega bo‘lib, bir qancha ma’nolarni anglatishiga qaramasdan, ikkinchi tilga xoslanganida faqat bir ma’nonigina ifodalashi aniqlandi. Hozirgi sport terminlarining shakllanishida har

ikki tilga ham ta’sir etgan tillarni hisobga olish ikki til sathidagi baynalmilal va o‘zlashma qatlamni areal ravishda aniqlash imkonini berdi.

Rus va o‘zbek tillari lug‘aviy tarkibining bir qismi bo‘lgan frazeologik birliklar terminologiya sohasida nutqning ta’sirchanligini yanada kuchaytirish uchun, tasvirlanayotgan shaxs, narsa, voqea - hodisa, olam manzarasini obrazli ifodalash uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистонда жисмоний тарбия ва спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари туғрисида”ги Қарори. 1999 йил 27 май. “Халқ сўзи” газетаси. –Тошкент, 1999.

2. Абдуллаева З.А. Ўзбекистонда жисмоний тарбия ва спортнинг шаклланиш ва ривожланиш тарихи: Тарих фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 32 б.

3. Попов Р.В. Русская спортивная терминология: На материале баскетбольной терминосистемы: Дисс. ... канд. филол. наук – Северодвинск, 2003. – 168 с.

4. Швайко В.Д. Лингвостилистические особенности фразеологических единицобразованных от сверсловных спортивных терминов и профессионализмов (на материале современного английского языка): Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1984. – 290 с.

5. Дониёров Р. Ўзбек тили терминологияси айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 128 б.

6. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: Высщая школа, 1983. – 268 с.

7. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии / Татаринов В.А. История отечественного терминоведения. Т. I. Классики терминоведения. Очерк и хрестоматия. – М.: Московский лицей, 1994. – С. 218 – 284.

8. Makhmudova Lazokat Toirjon kizi. NEWSPAPER-PUBLICIST STYLE. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA Jild: 03 Nashr: 6 (2024) . 168-171.

“DEVONU LUG‘OTI-T-TURK”DA MIQDORNING GRAMMATIK MORFEMALAR ORQALI IFODALANISHI

Basoat Nabiyevna Kimsanboyeva
FarDU tadqiqotchisi

Annotatsiya. Miqdor ma’nosi XI asr yozma yodgorliklari, xususan, “Devonu lug‘oti-t-turk”da so’zlarning semantikasida, fe’llardagi tuslovchi va nisbat qo’shimchalari, ko’plik, birlik, jamlik shakllari orqali ifoda etilgan.

Kalit so‘zlar: semantika, morfemika, morfema, birlik, ko’plik , shaxs-son, jamlik.

Abstract. The meaning of quantity is expressed in the written monuments of the 11th century, in particular, in the "Devonu Lug‘oti-t-Turk" in the semantics of words, adjectives and adverbs in verbs, plural, singular, plural forms.

Key words: semantics, morphemics, morpheme, singular, plural, person-number, plural.

Deskriptiv lingvistikada til tizimiga sathli yondashuvning paydo bo’lishi, tilning ichki tuzilishi fonologik, morfologik, leksik, sintaktik sathlarga ajratilishi va har qaysi til sathining o’ziga xos birliklari mavjudligining e’tirof etilishi til tuzilishini o’rganuvchi alohida bo’limlarning ajralishiga olib keldi. Natijada XX asrning 70-yillaridan boshlab morfemika tilshunoslikning alohida bo’limi sifatida ajratila boshlandi.

Tilimizda miqdor ma’nosini ifodalovchi lisoniy, nolisoniy, sintaktik, so’z yasovchi, shakl hosil qiluvchi vositalar mavjud. Son-miqdor maydonining umumiy ma’nosi, yuqorida aytib o’tilganidek, mavjudotning, narsa-buyumlarning sonini ko’rsatishdir. Maydonning lisoniy-nutqiy xususiyati deganda mazkur ma’noni ifodalovchi barcha lisoniy va nolisoniy vositalarning tuzilishi, tarkibi, yasalishi, asosiy va qo’shimcha ma’nolari, vazifasi va qo’llanilishi tushuniladi.

Nolisoniy vositalarga esa tinglovchinig xabardorligi, mantiqiy ayonlik, matnning ijtimoiy-tarixiy xususiyati, tana a’zolari bilan imo-ishora qilish, turli belgilar yordamida xabar berish kabilar kiradi. Shunga asosan, hozirgi o’zbek tilida miqdor ifodalovchi birliklar maydoni yadro, markaz va chekka qism yoki asosiy qism, unga yondosh qismlardan tashkil topadi.

“Devon”da lug‘atshunos fe’lning grammatik belgilari, xususan, shaxs va sonni ajratadi, misollar bilan tushuntiradi: So’zlovchi birligida م - m bilan تبندم *tapïndïm,* tinglovchi birligida نك - ŋ تبندنك *tapïndïŋ,* o’zga birligida ى - i bilan تبندنى *tapïndï* shaklida qo’llanadi va aniq miqdorni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Mahmud Koshg‘ariy fe’llar ikki, uch, to’rt, besh va olti harfli bo’lishi, fe’llardan so’ng orttiriladigan harflar o’nta ekanligi (ي لا ن ل ك ق ش س ر ت), bularning har biri fe’llarga qo’shimcha ma’no yuklashini aytadi. Keltirilgan harflar orasida ikki harf: ش (shin) va ن (nun) fe’llarga qo’shimcha miqdor ma’nosini yuklaydi.

ش (shin) fe’llarga qo’shilib (arabcha mufo’ala bobidagi kabi) ishda ikki kishi sherik ekanligini bildirsa [*urdï*] اوردي, اؤرشدي [*urušdï*]; ن (nun) harfi qo’shilganda fe’llarga qo’shilib, harakatning birinchi shaxs orqali (boshqalar aralashmay turib) ishning bajarilshini bildiradi: ال يرمقن الدي *ol jarmaqïn alïndï* [u pulini o’z boshicha (boshqalar aralashmay turib) oldi.] (I.33). Demak, harakatni bajaruvchi shaxs bir kishi.

Lug‘atdan olingan misoldan ko’rinib turibdiki, fe’llardagi shaxs-son qo’shimchalari ma’lum bir atama bilan izohlanmagan bo’lsa ham, lekin morfemik sathga xos bo’lgan miqdor ifodalovchi birliklar, ularning ifodalanishi haqidagi dastlabki ilmiy-nazariy qarashlar Mahmud Koshg‘ariy nomi bilan bog‘liq.

Hozirgi o‘zbek tilida son kategoriyasining 2 turi mavjud: birlik son – bir turdagi narsa-buyumlardan bittasini *(o‘quvchi, daftar, daraxt)*; predmetning bir

(yakka) shaxsga tegishliligini *(ukam, daftaring, qalami)*; olmoshlarda shaxsning yakkaligini *(men, sen, u)*; fe'llarda harakatni bir (yakka) shaxs bajarishini *(oldim, kelding, ko'raman, o'qiysan, boradi)* bildiradi; ko'plik son – predmetning birdan ortiqligini, ko'pligini, uning birdan ortiq (ko'p) shaxsga tegishliligini *(kitoblar, daraxtlar; kitobimiz, maktabingiz, uylari)*; olmoshlarda shaxsning birdan ortiq (ko'p)ligini *(biz, siz, bizlar, ular);* fe'llarda harakatni birdan ortiq shaxs bajarishini *(bordik, borganmiz, boramiz; ishlasak, ishlasangiz)* bildiradi. Otlarda birlik sonni ko'rsatadigan maxsus qo'shimcha yo'q, ko'plik son esa -lar affiksini qo'shish orqali hosil qilinadi. Ko'p tillarda birlik son ko'plik songa qarama qarshi qo'yiladi. Biroq ayrim tillarda (som tillarida, avstraliya va amerikaning mahalliy tillarida) ikkilik son, ba'zan uchlik son ham uchraydi. Birlik son kategoriyasi ham aniq miqdor ifodalash uchun xizmat qiladi.

Mahmud Koshg'ariy buyruq ma'nosidagi fe'llar tarkibida qo'llanuvchi qo'shimchalar ham harakat ishtirokchilarining soniga ko'ra qo'shilishi haqida aytib o'tgan. Buyruq oxiriga غل كل قل(-qil, -kil, -g'il) qo'shimchalarini tinglovchi ikkita yoki undan ortiq bo'lsa, qo'shib bo'lmasligini, bir kishi bo'lgandagina qo'shish mumkin ekanligini aytadi, har ikkala jinsga ham bir xil qo'llanishini, lekin birlik va ko'plik farqlanishini alohida ta'kidlaydi va misollar bilan izohlaydi. Masalan, birlik uchun بر *bar*, ikkitalik uchun اكيكو برينكلار *bariŋlar ikigu (ikkovingiz boring)*, ko'plik uchun قمغ بريكنلار *bariŋlar qamug' (hammangiz boring)* deyiladi. Bundan tashqari, turklarda tinglovchi yoshi katta, hurmatli kishi yolg'iz bo'lsa ham, ko'plik shakli qo'llanilishini aytadi, ya'ni بردنكز *bardiŋiz*, deydilar. نكز

-*iniz* aslida ko'plikni bildiruvchi qo'shimchadir. O'g'uzlar buni faqat ko'plikda qo'llaydilar: بردنكزقمغ , ya'ni *hammangiz bordingiz*. Bu holatda o'g'uzlar qo'llagan shakl qoidaga mos bo'lishiga qaramay, turklar qo'llagan shakl fasohat, go'zallik va katta-kichikni farqlash jihatidan o'ziga xosligini muallif alohida ta'kidlab o'tgan. (I.52).

O'g'uz va qipchoqlarda buyruqning birlik shakli oxriga g'unnali ك – k orttirib yasaladi. Chunonchi: ات تغراك *et toğraŋ* – go'sht tog'ranglar yoki اغرانك افكا efga oğran – uyga boringlar, degandagi kabi. Lekin turklar hurmatlilarga yoki katta yoshlilarga so'zlaganlarida, birlik buyruq shaklining oxriga g'unnali ك -n orttirib qo'llaydilar. Bu g'unnali ك -n ularda hurmat belgisi sifatida o'rin olgan. Ko'plikda ularda تغرانكلر *toğranlar*, اغرانكلر *oğranlar* tarzida qo'llaydilar. Shuning uchun ikki mustaqil ko'plik belgisini birga qo'shib qo'llash xato hisoblanmay, to'g'ri deb tushuniladi. O'g'uzlar va qipchoqlar birinchi usulni qo'llaydilar (III.211). Bu hodisani hozirgi o'zbek adabiy tilidagi shevalarda ham kuzatamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғоти-т-турк (Туркий сўзлар девони) [3 жилдлик]. 2-жилд. Нашрга тайёрловчилар: Болтабоев Ҳ., Исабеков Б. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2016. – Б.283.

2. Нурмонов А. Искандарова Ш. Умумий тилшунослик. – Андижон. 2007. – 210 б.

3. Низомиддинова С. Ҳозирги замон ўзбек тилида сон. – Тошкент. 1963. – 319 б.

4. Содиқов Қ., Омонов Қ. Ўзбек тилининг ёзма услублари тарихидан. – Тошкент, 2010. – 191 б.

5. Сафаров Ф. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти. Филол. фан. номз. дисс. – Самарқанд, 2004. – 124 б.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA NORASMIY NUTQ UNSURLARINING IFODALANISHI

Mamarasulov Ahmadjon Anvarjon o‘g‘li
University of Business and Science o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbek va ingliz tillaridagi norasmiy nutq unsurlarini o‘rganib, ularning kundalik muloqotdagi qo‘llanilishi, vazifasi va ta’siriga e’tibor qaratadi. Ikkala tilni qiyoslash orqali maqola so‘zlashuv ifodalari, jargon va frazeologizmlardagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlaydi. Tadqiqot norasmiy til madaniy va ijtimoiy dinamikani qanday aks ettirishi hamda har ikkala til so‘zlovchilari bu unsurlardan qanday qilib muloqot o‘rnatish, hissiyotlarni ifodalash va norasmiy vaziyatlarni boshqarishda foydalanishini tushuntirishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari norasmiy tilning madaniyatlararo muloqot va lingvistik moslashuvdagi rolini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: norasmiy nutq, o‘zbek tili, ingliz tili, so‘zlashuv tili, jargon, til almashish, lingvistik taqqoslash, madaniy ta’sir, til o‘zgarishlari, sotsiolingvistika, nutq shakllari, dialekt, fonologik xususiyatlar, pragmatika.

Abstract. This article explores the informal speech elements in Uzbek and English, focusing on their usage, function, and impact within daily communication. By comparing both languages, the study identifies commonalities and differences in colloquial expressions, slang, and idiomatic phrases. The research aims to provide insights into how informal language reflects cultural and social dynamics, and how speakers of both languages use these elements to establish rapport, convey emotions, and navigate informal contexts.

Key words: informal speech, Uzbek language, English language, colloquialism, slang, code-switching, linguistic comparison, cultural influence, language variations, sociolinguistics, speech patterns, dialect, phonological features, pragmatics.

Kirish. Har qanday til jamiyatda turli xil ijtimoiy sharoitlarda qo‘llaniladi va bu holat uning stilistik va pragmatik o‘ziga xosliklarini shakllantiradi. Ushbu sharoitlardan biri — norasmiy nutq bo‘lib, u odatda do‘stona muloqot, kundalik suhbatlar va yaqin insonlar orasida qo‘llaniladi. Norasmiy nutq turli xil lingvistik unsurlarni o‘z ichiga oladi, jumladan, qisqartirishlar, so‘z birikmalari, ijtimoiy toifalarga xos leksika va grammatik xususiyatlar. Norasmiy nutqning shakllanishi va qo‘llanilishi tildagi muloqot jarayonlarini soddalashtirish bilan birga, madaniy va ijtimoiy omillarni ham aks ettiradi. O‘zbek va ingliz tillari norasmiy nutq

unsurlari jihatidan muhim o‘rganish obyekti hisoblanadi. Har ikki tilda norasmiy nutq o‘ziga xos leksik va stilistik unsurlarga ega bo‘lib, ular til egalari orasida ijtimoiy yaqinlik, do‘stlik va tanishlikni ifodalashda xizmat qiladi. Masalan, o‘zbek tilida “aka”, “opajon”, “bo‘ladi” kabi unsurlar do‘stona muloqotda keng qo‘llaniladi, ingliz tilida esa “mate”, “dude”, “gonna” kabi unsurlar ko‘p ishlatiladi. Ushbu tadqiqot O‘zbek va ingliz tillaridagi norasmiy nutq unsurlarini tahlil qilish orqali har ikki tilning stilistik va madaniy o‘ziga xosliklarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — har ikki tilni norasmiy nutqda ishlatiladigan lingvistik unsurlarni qiyosiy o‘rganish va bu unsurlar qanday ma’nolarni ifodalayotganligini ko‘rsatishdan iborat.

Nazariy asoslar. Norasmiy nutq tilshunoslikda turli nuqtai nazarlardan o‘rganilib kelinadi. Stilistika, sotsiolingvistika, pragmatika va diskurs tahlili kabi sohalar norasmiy nutqni o‘rganishda asosiy yo‘nalishlar hisoblanadi. Har bir tilning rasmiy va norasmiy shakli til egalari tomonidan aniq kontekstlarda qo‘llaniladi va tilning turli grammatik, leksik va stilistik xususiyatlarini aks ettiradi. Norasmiy nutq unsurlari asosan do‘stona yoki yaqin muloqotlarda ishlatiladi va bu unsurlar, odatda, soddalashgan va tushunarli tuzilishga ega bo‘ladi. O‘zbek tilida norasmiy nutq unsurlari haqida ilmiy manbalarda nisbatan kam tadqiqotlar mavjud bo‘lsada, ba’zi tilshunoslar tilning bu shaklini muloqot jarayonidagi qulaylik va samimiyatni ta’minlovchi vosita sifatida baholashgan. O‘zbek tilida norasmiy nutq ko‘pincha qisqartirishlar, talaffuzdagi o‘zgarishlar va madaniy jihatdan shakllangan maxsus murojaat shakllarini o‘z ichiga oladi. Misol uchun, "opajon", "dodajon" kabi qo‘shimchalar yaqinlik va hurmatni ifodalasa, "aka" va "uka" so‘zlari do‘stlik va hurmat belgisi sifatida ishlatiladi. Shuningdek, kundalik muloqotda so‘zlarning qisqarishi, masalan, "bo‘pti" (bo‘ladi), "ketaman" (ketaman) kabi shakllar norasmiy nutqning asosiy ko‘rinishlaridir. Ingliz tilida esa norasmiy nutqni o‘rganish sotsiolingvistika va stilistika sohasida keng o‘rganilgan. Ingliz tilida sleng, qisqartirishlar va konversatsiya stilidagi talaffuz o‘zgarishlari norasmiy nutqning asosiy xususiyatlari hisoblanadi. Masalan, "gonna" (going to), "wanna" (want to), "ain’t" (is not) kabi qisqartirishlar ingliz tilida norasmiy nutqni belgilovchi unsurlar hisoblanadi. Shuningdek, ingliz tilida slenglar katta ahamiyatga ega, chunki ular ko‘pincha yoshlar orasida ishlatiladi va madaniy jihatdan muloqot erkinligini ta’minlaydi. Slenglar asosan ijtimoiy guruhlar va mintaqalarga qarab o‘zgaradi, bu esa tilning boyligi va o‘zgaruvchanligini namoyish etadi. Misol uchun, "cool", "dude", "bro" kabi so‘zlar zamonaviy ingliz tilidagi norasmiy nutqni aks ettiradi.

Norasmiy nutq unsurlarini tahlil qilishda pragmatik yondashuv muhim rol o‘ynaydi, chunki u muloqotda maqsad va kontekstning o‘rnini ko‘rsatadi. O‘zbek va ingliz tillaridagi norasmiy nutq unsurlari turli madaniy va ijtimoiy sharoitlarga moslashgan. Bu shuni ko‘rsatadiki, norasmiy nutq ko‘pincha til egalari orasidagi munosabatlarni tartibga solish, muloqotni yaqinlashtirish va muayyan ijtimoiy guruhlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tilshunoslar o‘rtasida norasmiy nutq

unsurlarining tadqiqi madaniyatlararo muloqot va tarjima jarayonida ham muhim ahamiyatga ega ekani ta’kidlangan.

O‘zbek va ingliz tillaridagi norasmiy nutq unsurlarining ifodalanish shakllarini o‘rganish, bu tillardagi grammatik va leksik farqlarni tahlil qilishga imkon beradi. Shuningdek, har ikki tilda norasmiy nutq qanday maqsadlarda ishlatilishini aniqlash muloqot jarayonlarini tushunishda muhim qadam hisoblanadi. Norasmiy nutq unsurlarini o‘rganish ko‘p jihatdan chuqur va ko‘p qirralarli tadqiqotni talab qiladi, chunki u tilning informal, ya’ni rasmiy bo‘lmagan kontekstlarda qanday ishlatilishini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Norasmiy nutq unsurlari tilshunoslikda stilistika, sotsiolingvistika, pragmatika va diskurs tahlili kabi yo‘nalishlar yordamida o‘rganiladi. Bu o‘rganish jarayonida asosiy e’tibor tilning leksik, grammatik va stilistik xususiyatlariga, shuningdek, nutq paytidagi kontekst va ijtimoiy omillarga qaratiladi.

Norasmiy nutq unsurlarini o‘rganish jarayoni. Norasmiy nutqni o‘rganishdan oldin, tilshunoslik nazariyalari, xususan, sotsiolingvistika va pragmatika bo‘yicha adabiyotlarni ko‘rib chiqish kerak. Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy qatlamlar, guruhlar va kontekstlarga qarab qanday o‘zgarishini o‘rganadi, pragmatika esa muloqot jarayonidagi niyat va maqsadlarni tadqiq qiladi. Bu nazariy ma’lumotlar norasmiy nutq unsurlarini to‘g‘ri talqin qilishda yordam beradi. Do‘stlar, tanishlar va ijtimoiy tarmoqlarda kechgan suhbatlarni kuzatish va yozib olish orqali norasmiy nutq unsurlarini ajratib olish mumkin. Yozma suhbatlar (SMS xabarlar, ijtimoiy tarmoqlar) va og‘zaki muloqotdagi nutqni tahlil qilish orqali qaysi so‘zlar, qisqartirishlar va stilistik elementlar ko‘proq ishlatilishi aniqlanadi. Sleng va qisqartirishlar lug‘atini tuzish: Har bir tilda ishlatiladigan sleng va qisqartirishlarni to‘plash muhim. Masalan, O‘zbek tilida "aka", "opajon", "dodajon", "jon", "yo‘g‘ee" kabi so‘zlar, ingliz tilida esa "gonna", "wanna", "bro", "dude", "LOL", "IDK" kabi so‘zlar norasmiy nutqda keng ishlatiladi. Ularning qo‘llanish ma’nosi, chastotasi va konteksti o‘rganiladi. Norasmiy nutq unsurlarini qanday va qachon ishlatilishini aniqlash uchun suhbatlar yozib olinadi yoki intervyular o‘tkaziladi. Tadqiqot subyektlari har xil yosh, jins va ijtimoiy guruhlardan tanlanadi. Bu usul qaysi til unsurlari kimlar tomonidan va qaysi kontekstlarda ishlatilishini ko‘rsatadi.

Norasmiy nutq unsurlarini pragmatik va stilistik tahlil qilish. Pragmatik tahlil norasmiy nutq unsurlarining kommunikativ maqsadini aniqlashga yordam beradi. Norasmiy nutq unsurlari orqali muloqotda yaqinlik, samimiyat yoki qulaylik ifodalanishi mumkin. Shu bilan birga, stilistika yordamida so‘zlarning qanday ishlatilgani va ularga estetik ma’no qanday berilgani o‘rganiladi.

Ma’lumotlarni taqqoslash. Norasmiy nutq unsurlarini o‘zaro taqqoslash, ya’ni bir tilning norasmiy elementlari bilan boshqa tilning unsurlarini qiyoslash, qaysi til qanday qisqartirishlar yoki talaffuz o‘zgarishlari orqali yaqinlik yoki qulaylikni bildirayotganini aniqlash imkonini beradi. Masalan, O‘zbek tilida "aka" va ingliz tilida "bro" so‘zlarining taqqosiy tahlili orqali norasmiy nutqdagi farqlar va o‘xshashliklar aniqlanadi.

O‘zbek tilidagi qisqartmalar va yaqinlik bildiruvchi so‘zlar tahlili. O‘zbek tilidagi kundalik norasmiy suhbatlarda ishlatiladigan so‘zlar tahlil qilinadi. Masalan, do‘stlar orasidagi suhbatlarda "bo‘pti" (bo‘ladi), "ketaman" o‘rniga "ketman", "aka", "opa" kabi qisqartirilgan va yaqinlik bildiruvchi so‘zlar qo‘llanishini kuzatish mumkin.

Ingliz tilidagi sleng va qisqartirishlarning ijtimoiy guruhlarga qarab o‘zgarishi. Ingliz tilida sleng va qisqartirishlarning qaysi guruhlar (masalan, yoshlar, kattalar, shahar aholisi) tomonidan ishlatilishini o‘rganish uchun ijtimoiy tarmoqlardagi postlar yoki forumlar tahlil qilinadi. Slenglar yoshlar o‘rtasida keng tarqalgan, chunki ular zamonaviy va ko‘pincha tez o‘zgaruvchan madaniyatga mos keladi.

O‘zbek va ingliz tillaridagi og‘zaki muloqot tahlili. O‘zbek va ingliz tillarida turli kontekstlarda norasmiy muloqot qanday yuz berayotganini o‘rganish uchun yozib olingan og‘zaki suhbatlarni tahlil qilish mumkin. Bu suhbatlar kontekstiga qarab, norasmiy til unsurlari qanday ishlatilayotgani aniqlanadi.

O‘zbek va ingliz tillaridagi yaqinlik va hurmat ko‘rsatish uslublarining qiyosi. O‘zbek tilida "aka", "uka", "opajon" kabi so‘zlar muloqotda yaqinlikni bildirsa, ingliz tilida "bro", "mate", "dude" kabi so‘zlar ko‘proq foydalaniladi. Ushbu so‘zlarning qaysi kontekstlarda ishlatilishini o‘rganish va ularning muloqotdagi o‘rnini aniqlash tadqiqotning bir qismi bo‘lishi mumkin.

O‘zbek va ingliz tillaridagi norasmiy nutq unsurlari bir qancha jihatlardan o‘xshashlik va farqlarga ega bo‘lib, ular har bir tildagi ijtimoiy, madaniy va stilistik xususiyatlarni aks ettiradi. Ushbu unsurlar muloqot jarayonida norasmiy yoki do‘stona muhitda ishlatiladi va odatda qisqartirishlar, slenglar, talaffuz o‘zgarishlari va stilistik uslublar orqali ifodalanadi. Keling, O‘zbek va ingliz tillaridagi norasmiy nutq unsurlarini quyidagi mezonlar asosida taqqoslaymiz:

O‘zbek tilida: Qisqartirishlar ko‘proq fe’llarni va modal so‘zlarni qisqartirish orqali amalga oshiriladi. Misollar:

“bo‘pti” (bo‘ldi) – Tasdiqlash yoki rozilik bildirish uchun ishlatiladi.

“ketman” (ketaman) – Talaffuzdagi o‘zgarish orqali qisqartirilgan shakl.

“qalesan” (qalayisan) – Muloqotda salomlashish uchun ishlatiladi. Bu kabi qisqartirishlar ko‘pincha og‘zaki nutqda ishlatiladi va samimiy, do‘stona muloqot uchun mo‘ljallangan.

Ingliz tilida: Qisqartirishlar ko‘proq yordamchi fe’llar yoki modallarni tushirib qoldirish orqali hosil qilinadi. Misollar:

“gonna” (going to) – Kelajakni ifodalash uchun.

“wanna” (want to) – Istak bildirishda ishlatiladi.

“lemme” (let me) – Ruxsat so‘rash uchun ishlatiladi.

Ingliz tilida bu kabi qisqartirishlar asosan norasmiy suhbatlarda, ijtimoiy tarmoqlarda yoki og‘zaki muloqotda keng tarqalgan. Har ikkala til sleng so‘zlarga ega bo‘lib, ular odatda yoshlar yoki submadaniy guruhlar o‘rtasida ishlatiladi. Slenglar yangi so‘zlar yoki mavjud so‘zlarga yangicha ma’no berish orqali shakllanadi.

O‘zbek tilida: O‘zbek tilidagi slenglar odatda turli xil qisqartmalar, o‘zgartirilgan so‘zlar yoki boshqa tillardan olingan so‘zlar orqali shakllanadi.

“jonim” – Norasmiy muhitda yaqinlikni ifodalash uchun ishlatiladi.

“aka”, “uka” – Do‘stlar yoki tanishlar o‘rtasida hurmat ifodasi sifatida.

“dodajon”, “opa” – Yaqinlikni ifodalovchi norasmiy so‘zlar.

Ingliz tilida: Slenglar ko‘pincha yoshlar o‘rtasida keng tarqalgan bo‘lib, ijtimoiy tarmoqlarda va norasmiy suhbatlarda tez-tez ishlatiladi.

“lit” – Ajoyib, zo‘r degan ma’noda.

“bruh” (brother) – Do‘stlarga nisbatan ishlatiladigan informal atama.

“no cap” – Rost gap degan ma’noda ishlatiladi.

“savage” – Qattiqqo‘l yoki juda qiyin vaziyatlarni hal qilgan odamga nisbatan ishlatiladi. Ingliz tilida slenglar juda tez o‘zgarib turadi va ko‘pincha internet madaniyati ta’sirida keng tarqaladi. Norasmiy nutqda talaffuzning soddalashishi yoki o‘zgarishi muloqotni tezlashtiradi va muloqot qiluvchilar orasidagi yaqinlikni ifodalaydi.

O‘zbek tilida: Talaffuzdagi o‘zgarishlar ko‘pincha og‘zaki nutqda kuzatiladi, bu tilni qulayroq qilish uchun ishlatiladi.

“boraman” o‘rniga “bormen” – Talaffuzni soddalashtirish.

“kelaman” o‘rniga “kelman” – Harakat fe’llarining qisqartirilgan shakli.

“yaxshimisiz” o‘rniga “yaqshi” – Formal talaffuzni qisqartirish orqali nutqni norasmiylashtirish.

Ingliz tilida: Talaffuzdagi o‘zgarishlar og‘zaki muloqotda ko‘proq kuzatiladi va ko‘pincha qisqartirilgan shakllar hosil qiladi.

“gonna” (going to) – Talaffuzdagi o‘zgarish.

“wanna” (want to) – Talaffuzni soddalashtirish orqali nutqni tezlashtirish.

“kinda” (kind of) – Talaffuzdagi soddalashtirilgan shakl.

O‘zbek tilida: Norasmiy nutq odatda do‘stlar, oilaviy a’zolar yoki yaqindan tanish bo‘lgan insonlar o‘rtasida qo‘llaniladi. Katta yoshdagi insonlar yoki rasmiy suhbatlarda esa ko‘proq hurmat ifodalovchi uslublar ishlatiladi. Bu madaniy qoidalar va qadriyatlar bilan bog‘liq.

Ingliz tilida: Ingliz tilidagi norasmiy nutq ko‘pincha yoshlar yoki tengdoshlar orasida kuzatiladi. Ingliz tilidagi norasmiy nutq ko‘proq suhbatni soddalashtirish va rasmiy uslublardan uzoqlashish maqsadida ishlatiladi. Yaqinlikni ifodalashda slenglar va qisqartmalar ko‘p ishlatiladi. O‘zbek va ingliz tillaridagi stilistik farqlar tilning madaniy, ijtimoiy va lingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Har ikki til o‘zining boy stilistik ko‘rinishlariga ega bo‘lib, ularning nutqdagi o‘ziga xosliklari turli ijtimoiy guruhlar, kontekstlar va kommunikativ maqsadlarga qarab o‘zgaradi. O‘zbek va ingliz tillaridagi stilistik farqlarni quyidagi mezonlar bo‘yicha tahlil qilish mumkin:

O‘zbek tilida: O‘zbek madaniyatida rasmiy va norasmiy uslublar aniq chegaralangan bo‘lib, rasmiy suhbatlarda tilning juda muloyim va hurmatga asoslangan shakllari ishlatiladi. Katta yoshdagi yoki yuqori mavqega ega odamlar

bilan muloqotda rasmiy stil, ya’ni ko‘proq hurmat ifodalovchi atamalar va so‘z shakllari qo‘llaniladi:

Rasmiy nutq: “Siz” shaklida murojaat qilish odatiy bo‘lib, kattalar bilan gaplashishda “Sizning fikringiz”, “Marhamat qilib ayting” kabi muloyim iboralar keng tarqalgan.

Norasmiy nutq: Do‘stlar va tengdoshlar o‘rtasidagi muloqot ko‘proq yaqinlik va samimiyat ifodalovchi unsurlar bilan boyitilgan. Masalan, “aka”, “jonim”, “do‘stim” kabi yaqinlik bildiruvchi so‘zlar norasmiy muhitda qo‘llanadi.

Ingliz tilida: Ingliz tilida rasmiy va norasmiy stil o‘rtasidagi farqlar ham aniq bo‘lsa-da, ular O‘zbek tiliga qaraganda biroz yumshoqroq.

Rasmiy nutq: Rasmiy muhitlarda til sodda va aniq bo‘lib, hurmat ifodalovchi so‘zlar juda ko‘p ishlatilmasa-da, professional va vazmin iboralar qo‘llaniladi. “Mr.”, “Ms.”, “Sir” yoki “Madam” kabi murojaat shakllari keng tarqalgan.

Norasmiy nutq: Norasmiy suhbatda qisqartirilgan iboralar, qisqa so‘zlar va slenglar keng ishlatiladi. Masalan, “gonna”, “wanna”, “what’s up” kabi iboralar do‘stlar orasida tez-tez qo‘llaniladi. O‘zbek va ingliz tillarida hurmat ifodalash usullari ham stilistik farqlarni ko‘rsatadi. Ayniqsa, murojaat shakllari, yuqori mavqedagi insonlarga murojaat qilish madaniy jihatdan farq qiladi.

O‘zbek tilida: Hurmat ifodalash o‘ziga xos ko‘rinishda bo‘lib, kattalar yoki yuqori mavqega ega odamlar bilan gaplashganda alohida talaffuz usullari va atamalar ishlatiladi. “Siz” shakli va ismga “aka”, “opa” kabi qo‘shimchalar qo‘shilishi katta hurmat ifodasidir. Masalan: “Akajon”, “Opajon” kabi qo‘shimchalar do‘stona va hurmatli munosabat ifodasidir. “Sizning maslahatlaringiz biz uchun juda muhim” kabi iboralar hurmatni ko‘rsatish uchun ishlatiladi.

Ingliz tilida: Ingliz tilida murojaat qilish biroz sodda va qat’iyroq bo‘lishi mumkin. Hurmat ifodalashning an’anaviy shakllari kamroq bo‘lib, odamlar o‘rtasidagi tenglik ko‘proq ta’kidlanadi. Rasmiy muhitlarda “Mr.” Yoki “Ms.” Ishlatiladi. Hurmat bilan murojaat qilish uchun “Sir”, “Mam” ishlatiladi, lekin kundalik hayotda bu kamroq uchraydi. Ko‘p hollarda yoshlar tengdoshlariga bevosita ism bilan murojaat qilishadi, bu O‘zbek tilidagi murojaatga qaraganda norasmiyroq bo‘ladi. O‘zbek va ingliz tillarida o‘xshatishlar, metaforalar va boshqa so‘z san’atlari stilistik farqlarni ochib beradi. Bu usullar tilning ifodaviyligini oshiradi va muloqotni ko‘proq obrazli qiladi.

O‘zbek tilida: O‘zbek tilida obrazli ifodalar, maqollar va xalqona iboralar muloqotning muhim qismi bo‘lib, ular norasmiy nutqda ko‘p uchraydi. Masalan:

“Eshikni qoqmasdan ochma” – Kutilmagan harakatlardan saqlanish haqida ogohlantiruvchi o‘xshatish.

“O‘zi yog‘li bo‘lmagan joydan kuyik hidi chiqmaydi” – Sababsiz mish-mishlar bo‘lmaydi degan ma’noda.

Ingliz tilida: Ingliz tilida ham o‘xshatishlar va metaforalar ko‘p ishlatiladi, ammo ular ko‘pincha yanada qisqa va sodda bo‘ladi.

“Hit the nail on the head” – Muammoni aniq topish degan ma’noda.

“Bite the bullet” – Qiyin vaziyatni qabul qilishni anglatadi.

Sintaksis, ya’ni gap tuzilishi jihatidan ham O‘zbek va ingliz tillarida stilistik farqlar mavjud. Bu farqlar tilning strukturasi va muloqotdagi uslublar bilan bog‘liq.

O‘zbek tilida: O‘zbek tilida gap tartibi moslashuvchan bo‘lib, aniqlik va izchillik kamroq talab etiladi. Norasmiy nutqda gaplarning to‘liqligi muhim emas, qisqartirishlar va so‘zlarning joylashishi ko‘pincha erkinroq bo‘ladi. Masalan, ko‘p hollarda so‘zlovchi bir nechta gaplarni bog‘lovchisiz ishlatishi mumkin:

“Men ketdim, ko‘rishguncha. Nima qilasan?” – Bu kabi so‘zlashuvlar norasmiy va yaqin do‘stlar o‘rtasida keng tarqaladi.

Ingliz tilida: Ingliz tilida gap tuzilishi qat’iyroq bo‘lib, ayniqsa rasmiy stil uchun to‘liq va mantiqiy gaplar talab etiladi. Biroq, norasmiy muloqotda qisqa, ko‘pincha bog‘lovchisiz yoki qisqartirilgan gaplar keng qo‘llaniladi:

“I’m leaving, see you later. What are you gonna do?” – Ingliz tilida ham qisqa va tezkor iboralar tez-tez ishlatiladi. Sleng va yangi so‘zlar tilning dinamik qismidir va ular ko‘p hollarda yoshlar yoki submadaniyatlar tomonidan yaratiladi. O‘zbek va ingliz tillaridagi slenglar o‘ziga xos stilistik farqlarga ega.

O‘zbek tilida: O‘zbek tilidagi slenglar ko‘proq yoshlar orasida paydo bo‘ladi va asosan tilni soddalashtirish yoki qulayroq qilish uchun ishlatiladi. Misol:

“Kayfiyatni ko‘tar” – Norasmiy tilga xos bo‘lib, kayfiyatni yaxshilashni anglatadi.

“Chatoq bo‘ldi” – Yomon vaziyatni ifodalaydi.

Ingliz tilida: Ingliz tilida slenglar ko‘proq ijtimoiy tarmoqlar yoki pop-madaniyat ta’sirida shakllanadi va ko‘pincha tez o‘zgaradi. Misol:

“Lit” – Juda ajoyib degan ma’noda.

“Yeet” – Tezda tashlab yuborishni yoki biror narsani kuch bilan otib yuborishni ifodalaydi.

O‘ZBEK TILIDA HARBIY VATANPARVARLIK NUTQI LEKSIKASI HAQIDA

Murodova Firuza Jalolovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Harbiy vatanparvarlik nutqi notiqlik san’atining juda qadimiy ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, u avvalo o‘zining jangovar ruhi bilan, siyosiy keskinligi bilan, vatanparvarlik mohiyati va tabiati bilan hamda xalqqa sadoqat ruhida sug‘orilganligi bilan o‘ziga xos va mustaqildir. Leksik jihatdan tahlil qilinganda, bu nutq leksikasi sinonim, omonim, yangi so‘zlar va tarixiy so‘zlarga boyligi, o‘ziga xos nutq qoliblariga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Annotation. The military patriotic speech is one of the most ancient manifestations of the art of oratory, which is unique and independent, first of all, with its fighting spirit, political tension, the essence and nature of patriotism, and the fact that it is imbued with the spirit of loyalty to the people. When analyzed

lexically, this speech lexicon is distinguished by its wealth of synonyms, homonyms, new words and historical words, and its unique speech patterns.

Kalit so‘zlar: soha tili, lisoniy birliklar**,** vatanparvarlik nutqi, notiqlik san’ati, siyosiy - ijtimoiy notiqlik, leksik qatlam, nelogizmlar, o‘zlashma so‘zlar.

Key words: industry language, linguistic units, patriotic speech, rhetoric, political-social rhetoric, lexical layer, nelogisms, borrowed words.

Ilm, fan va texnika jadallik bilan rivojlanib borayotgan bir davrda boshqa sohalar kabi o‘zbek tilshunosligi sohasining ham rivojlanib, turli qirralari namoyon bo‘lishi tilga bo‘lgan ehtiyojning ortib borayotganligidan dalolat beradi. Jamiyatning rivoj topishi, taraqqiy etishi jamiyki insonlarni turli sohalardan xabardor bo‘lishga undabgina qolmay, tilshunoslikning leksik qatlamini boyitadi, shuningdek, nutqda qo‘llanilayotgan qator lisoniy birliklarni jamlab tobora kengaytiradi, kundalik hayotga hamohang bo‘lishini talab etadi. Tilshunoslikning eng dolzarb, murakkab, nazariy va amaliy ahamiyatga ega yo‘nalishlaridan bo‘lgan terminologiyaning rivojlanishi, shakllanishi, albatta, o‘ziga xos qonuniyatlar asosida paydo bo‘ladi, umumxalq tilining leksikasi negizida rivojlanadi hamda boyishi uchun xizmat qiladi. Ma’lumki leksika, qo‘llanish doirasi, ishlatilish auditoriyasiga ko‘ra ko‘p qirrali hisoblanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda so‘zlarni turli qatlamlarda, turli sohalar dorasida o‘rganish, ilmiy tadqiq etish dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Buning natijasi o‘laroq soha terminalogiyasi rivoj topmoqda. Shunday soha tillaridan biri harbiy soha leksikasidir. O‘zbek tilshunosligida harbiy terminologiya bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Chunonchi, H.Dadaboev, N.Axmatov, H.Yodgorovlarning harbiy terminologiya bo‘yicha olib borgan ilmiy tadqiqotlari o‘zbek tili harbiy terminologiyasi tarixini tadqiq etishga bag‘ishlangani holda harbiy soha tili leksikasining boy ekanligini ko‘rsatdi. Ammo harbiy vatanparvarlik leksikasi vatanparvarlik g‘oyasi, tug‘ilib o‘sgan yurtga sadoqat hissi, ona zaminga muhabbat tuyg‘usiga yo‘g‘rilganligi bilan ajralib turadi.

Vatan himoyasi – eng muqaddas yumush, Vatan himoyachisi bo‘lish esa eng sharafli kasblardandir. Vatanparvarlik, Vatanga sadoqat haqida eshitganimizda bu muqaddas yumushga umrini tikkan mardi maydonlar yodimizdan o‘tadi. O‘zbek xalqining shonli tarixida o‘chmas iz qoldirgan Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temurdek bo‘lishni orzulagan o‘g‘lonlarga havasingiz keladi. Ularning vatanparvarlik ufurib turgan nutqini eshitganimizda qalbimizdan qandaydir sehrli bir his o‘tganini sezamiz. Demak, vatanparvarlik nutqi va leksikasi har bir vatandoshimiz nutqida aks etishi tabiiy.

S.Inomxo‘jaev o‘zining “Notiqlik san’ati asoslari” kitobida notiqlik san’atini muayyan tur va ichki nutq ko‘rinishlarigaga ajratib, har biriga alohida to‘xtaladi. Masalan, olim siyosiy-ijtimoiy notiqlik turining 9ta ichki nutqiy ko‘rinishlarini qayd etadi. Harbiy vatanparvarlik nutqi ham siyosiy - ijtimoiy notiqlikning muayyan bir ko‘rinishi sifatida beriladi[143].

[143] Иномхўжаев С. Нотиқлик санъати асослари. Тошкент, Ўқитувчи - 1982й,6-бет.

Harbiy vatanparvarlik nutqi notiqlik san’atining juda qadimiy ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, u avvalo o‘zining jangovar ruhi bilan, siyosiy keskinligi bilan, vatanparvarlik mohiyati va tabiati bilan hamda xalqqa sadoqat ruhida sug‘orilganligi bilan o‘ziga xosdir, mustaqildir.

Harbiy vatanparvarlik nutqi haqida gapirganda tarixan Iskandar Zulqarnayn, Amur Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk sarkardalar faoliyatiga to‘xtalmaslikning iloji yo‘q. Chunki ular so‘z san’atiga, so‘z qudratiga jiddiy e’tibor berib, harbiy vatanparvarlik nutqini yuqori darajada namoyish qila olganlar. Harbiy yurishlarda butun qo‘shin oldida nutq so‘zlab, jangchilarda o‘ziga ishonch uyg‘otganlar, ularga jangovar ruh bera olganlar. Sarkardalarning nutqi aniqligi, to‘g‘riligi, mantiqiy izchilligi, rasmiyligi, jiddiyligi, ta’sirchanligi, teranligi bilan ajralib turgan.

Harbiy vatanparvarlik nutqi shijoat bilan birga unga xos leksik qatlam bilan aloqada bo‘lish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bugungi kunda harbiy sohaga oid nutq leksikasiga tazar tashlansa, uning ko‘p miqdorini o‘zlashma so‘zlar tashkil qiladi. Harbiy leksika tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, eng qadimgi davrlarda ham bu leksikadan faol foydalanilganligini ko‘rish mumkin. XX asrning boshlariga qadar harbiy leksikada turkiy so‘zlar, arab tili, fors tilidan o‘zlashgan so‘zlar asosiy qatlamni tashkil qilar edi. Ammo XX asrdan keyin harbiy soha tili rus tili va u orqali Yevropa tillaridan kirib kelgan so‘zlar bilan boyib ketdi. Natijada arab va fors tillaridan kirgan o‘zlashmalarning ko‘pchiligi iste’moldan chiqib ketdi. Masalan arab tilidan kirgan ***jabha*** so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘atida” front, urush deb beriladi. (Jabhalarda hushyor tur, topmasin omon dushman. G‘ayratiy). Bugungi kunda bu so‘zdan deyarli foydalanilmaydi. Uning o‘rniga ***chegara, sarhad*** kabi fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlardan foydalanamiz. (*Vatanparvar askarlarimiz yurtimizning har bir jabhasida sobit turib, sarhadlarimizni ko‘z, quloq bo‘lib asramoqda. “O‘zbekiston armiyasi” jurnali*).

Yoki bugungi kunda eskirgan so‘zlar qatoriga kirgan ***alam*** so‘zini olaylik. Arab tilidan kirib kelgan ***alam*** so‘zi bayroq, tug‘ kabi ma’nolarni ifodalagan (*Er Hubbiga borib, astoydil sig‘inib, shayxlarga to‘n kiygizdi, keksa chinorlarga alam bog‘ladi. S.Ahmad*)[144]. Bundan tashqari, arab tilidan o‘zlashgan ***baydoq*** so‘zi ham mavjud bo‘lib, u 1- bayroq, tug‘ ma’nosini (*Oqu-qizil –ko‘p baydoqlar Qurildi maydon ichinda. “Erali va Sherali”*), 2-harbiy bo‘linma, bir bayroq ostida xizmat qiluvchi askarlar guruhi (*Necha baydoq lashkar keldi, Kelganining bari o‘ldi. “Malikai ayyor”*)[145] mazmunini anglatgan. Hozirda ushbu so‘zlar tarixiy leksikamizdan joy olib ulgurgan.

Harbiy leksika XX asrga kelib, tubdan yangilandi. Bunga birinchidan harbiy salohiyat, harbiy texnika rivoji bo‘lsa, ikkinchidan Chor Rossiyasining Turkistonni mustamlaka qilishi sabab bo‘ldi. Ikkinchi jahon urushi davrida esa bu leksika yevropa tillaridan o‘zlashgan so‘zlar bilan boyidi. Harbiy leksikaning mazmuniy turlari paydo bo‘ldi. Masalan, harbiy mansab nomlari (askar, kursant, serjant,

[144] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т: 2006, I китоб, 66-бет
[145] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т: 2006, I китоб, 141-142 бет

starshina, mayyor. Leytenant. General, admiral sh.k.), harbiy kiyim-kechak nomlari (furajka, kitel, bushlat sh.k.), harbiy joy nomlari (poligon, gornizon, shtab, okop, batalon sh.k.), harbiy qurol, harbiy texnika, mashina (tank, avtomat, zambarak, zirh, minomyot sh.k.) nomlari paydo bo‘ldiki, ularning asosiy qismi o‘zlashma so‘zlar hisobiga ko‘paydi.

Bugungi kunda harbiy soha tili, leksikasi, semantikasi va terminologiyasi ustida talaygina ilmiy tadqiqotlar olib borilyapti. Respublikamizning mustaqillikka erishganligi va shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi armiyasining tuzilganligi, qator yangi oliy harbiy o‘quv yurtlarining ta’sis etilganligi, ularda o‘qish-o‘qitish ishlarining o‘zbek tilida olib borishga kirishilganligi, shuningdek, harbiy sohalarda Davlat tilining qo‘llanishi kabi qator omillar fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi. Maqsadimiz o‘zbek tili harbiy vatanparvarlik nutqi haqida umumiy tasavvur hosil qilish, harbiy soha nutqining boyligini, xarakterini, shakllanishi va keyingi taraqqiyoti haqida muayyan xulosalar chiqarishga ko‘maklashishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 31 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2023 yil, 2-son.)

2. Dadaboev H., Yodgorov H. O‘zbek harbiy terminologiyasi. – T.: Sahhof, 2021.

3. Dolimov Z. Harbiy atamalarning qisqacha izohli lug‘ati. – T.: 2007.

4. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. II, III jild. – T.: Akademnashr, 2012.

5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. (A.Madvaliev tahriri ostida) – T.: O‘zbekiston, 2020. 1-5-jildlar.

STYLISTIC PROBLEMS OF TRANSLATION OF PHRASEOLOGICAL UNIT

Qoravoyeva Shoira Zafarjon qizi
Toshkent tibbiyot akademiyasi Chirchiq filiali,
ijtimoiy fanlar va xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotation. This article reveals the appropriate use of phraseological units both in oral and written speech, some ideas are expressed about preserving their original meaning in translation, taking into account the stylistic features of phraseological units.

Key words: Phrase, stylistics, translate, metaphor, metonymy, simile, exaggeration

Annotatsiya. Ushbu maqolada frazeologik birliklar to‘g‘risida, ulardan nutqda to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish bo‘yicha bir qancha tavfsiyalar berilishi bilan bir qatorda, ularni yozma nutqda qo‘llanilishi, stilistik jihatdan o‘ziga xosligini hisobga olingan holda tajimada ma’noni saqlab qolish yuzasidan ham qator fikrlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Fraza, stilistika, tarjima, metaphor, metonimiya, o‘xshatish, bo‘rttirish

It is well known fact that phrases and idioms are considered as a part of rich and informative art of speech which has been kept by people for many centuries. With the help of phrases speech can be more beautiful, and clearer. However, there are plenty of problems in translation of phraseological unit which have been investigated and still are waiting for the research continuation. Consequently, translation problems of phraseological units into other languages, study the level of their presence in common artistic translation are the most considerable tasks in Translation Studies Science.

One of the most interesting and difficult aspects of the theory of translation is the problem of passing stylistic devices in the target language. The known problem comes into notice of scientists-linguists, and yet is not developed as much as necessary. The importance of studying the way of translation of the figurative devices is determined by the requirement of faithful figurative information passing in any work of art.

Phraseological units mostly appeared from the people's worldview experience and they can have not any adequate or close equivalent in the second language. For instance fixed phrases are used to indicate symbolic function through the meaning. They can be the followings:

- National distinctive indications; rainy day, black envy…
- Religious conception and notions; the salt of the earth, to fill up the cup…
- Idioms; to twirl the goat horn, to tighten one's belt…
- Phrases that centered on customs and traditions; to recruit somebody
- Phrases that based on national-daily philosophy; women's brain, goldfish memory

These kinds of phrases just belong to the any exact nation so to find appropriate and adequate equivalent meaning of them in another language is really tough. It is not enough just to transfer complete meaning of the idioms in the translation but a translator should try to convey national spirit of the fixed phrase.

Many researchers worked on this problem and one of them is Kyrgyz academic N.K.Abdyrakmatova considers that: "To translate phraseological units from one language into another one includes national color peculiarities, author's use of phraseological units in figurative meaning (author's, personal), problems of correct transferring of the phraseological units used in particular historical time. A translator should know basic etymology of each fixed phrase, speech culture of the people and then choose a proper equivalent. In its turn, this equivalent should be equal in grammatical form, emotional-expressive meaning, internal structure and stylistic use" [Abdyrakhmatova, 2011].

According to A.Aldasheva, a translator needs to find suitable equivalent. For this purpose, it is very vital to know to the letter and master "background information", "background knowledge", a notion and main content of an original, language-stylistic skill of an author, lexical-grammatical system of both languages. A translator must distinguish both two languages and his proper and appropriate translation can raise quality level of translation version [Aldasheva, 2006].

A translator can use several the methods of passing some stylistic devices that are applied in the source language text to give a large brightness, clarity and expressiveness to the given message. The interpreter may have the following choice: he can copy the device of the source language text to make an effort, if it is not possible; he creates a new stylistic device that has a similar emotional effect in translation in target language. Expressive devices are divided into the following types. They are phonetic, morphological, lexical, phraseological and others. These forms may exist in any language as a system of logical and emotional intensification of the sentence. Expressive devices belong to a system of a language and are used in everyday speech of a writer irrespective of stylistic aim; however they can be used with a definite stylistic aim. In each case, they must be cautiously elected and arranged so as to get certain stylistic effect. Any expressive device can be used for definite literary purpose and only in that way they may be described as stylistic devices. Stylistic device are regarded as a literary transformation of a common language phenomenon.

The stylistic aspect of translation is necessary to a translator as the faithful and good language translation cannot be formed without it. It is the stylistic aspect of language that is not only responsible for translation from the source language into the target one, but for translator's skill as well. Foreign language translation depends on a translator's ability to pass the sense of stylistic units. This is the principle of stylistic compensation, which means a metaphor have to be passed by a metaphor, a metonymy by metonymy, a simile by simile etc. It is the function of stylistic device used in the text that is of essential importance for a translator.

A translator usually tries to "improve" an original text by using dissimilar devices. However, it normally may a cause of failure. The main reason of it is the peculiarity of the source language word usage, or another considerable cause is the national specific features of the stylistic systems of different languages. These challenges need more stylistic knowledge from the translators. Therefore, to achieve the major aim of translation and convey the content of the source language text completely in the target language text it is necessary to pay particular attention to making use of stylistic devices of translation. They are normally called "figures of speech".

Figures of speech can be a stylistic or rhetorical, in other words they are language stylistic phrase that lies in special syntactic organization of expression for acquiring writer expressive and figurative effect. Figures of speech can be divided into the following types:

- Lexical devices of literary expressiveness (so called "trops").
- Syntactic devices of literary expressiveness.
- Phonetic devices of literary expressiveness.

The lexical devices of literary expressiveness include the followings:

1. Metaphor.

"A metaphor is the interaction between the logical and the contextual logical

meanings of a word which is based on a likeness between objects. For example, in the sentence: "Dear nature is the kindest mother still" Nature is likened to a Mother; i.e. the properties of a mother "nursing, caring for" are imposed on the nature. Thus the metaphor can be defined as the power of realizing two lexical meanings simultaneously" (Musayev Q "English Stylistics", Tashkent, 2003").

In metaphor the transference of meaning may take place when there is a similarity in place of location, forms, feelings etc, for example:

"Warm water – тепла вода"	"Warm relationship – тепли стосунки"
"Cold rain – холодний дощ"	"Cold glance – холодний погляд"
"Foot of boot – пидошва черевика"	"Foot of mountain – пидошва гори"
"Golden watch – золотий годинник"	"Golden hair – золоте волося"

The previous two examples express the likeness in feelings, the third one shows resemblance in place of location and the last ones demonstrate resemblance in color. "Metaphor can be embodied in all the meaningful parts of speech, in nouns, adjectives, verbs, adverbs, even in prepositions" (Musayev Q. "English Stylistics", Tashkent, 2003"). E.g.:

"The leaves fell sorrowfully." In this utterance the adverb that is a metaphor.

2. Metonymy

"Metonymy is a stylistic device based on a different type of relation between logical and contextual meanings, a relation based upon the association of contiguity. Thus the word crown may stand for "king or queen", cup or glass for "the drink it contains". For example:

"Many ears and eyes were busy with a vision of the matter of these placards".

The given sentence logical meanings the words "ears" and "eyes" have contextual meanings - that of people. The relations of two meanings of the words are based on close interrelations objectively, presented between the part and the body itself.

'Metonymy as other stylistic device is used to achieve concreteness of description. By giving a specific detail connected with the phenomenon, the author evokes a concrete and life-like image and reveals certain feelings of his own. In order to decipher the true meaning of a genuine metonymy a broader context is needed. It is necessary to understand the words in their proper meanings first. Only then it is possible to grasp the metonymy" (Musayev Q).

3. Epithet

According to the professor Musayev epithet is a stylistic device which based on the relationship with emotive and logical meanings in a word, phrase or sentence. It demonstrates the single emotional attitude of the author or the speaker

towards the object mentioned. For instance: “She had a wide, cool, go-to-hell mouth”. Here a group of epithets gives a helping hand to the author in a concise form to say the emotional attitude of a personage towards an article or phenomenon. Here other examples are given for epithet.

“Iron hate” “Kuchli nafrat”
“Silver hair” “Kumush sochlar”
“Heart-burning smile” “Yuraklarga o‘t yoquvchi kulgi”
“A life-and-death struggle” “Hayot-mamot jangi”
“Bright smile” “Yorqin tabassum”
“Happy end” “Baxtli yakun”
“Sweet smile” “Shirin tabssum”

4. Simile

The simile is a type of stylistic devise which expresses a resemblance and similarity between different objects. The following conjunctions and adverbs are generally considered the formal element of simile: as, like, as like, such as, as if, seem...

Similes are generally used in literature for their expressiveness the same as a figure of speech. It is based on the association of dissimilar objects that belong to different spheres, for example:

“My heart is like a singing bird”
“The sun was as red as ripe new blood”
“As beautiful as a flower”

English phraseology is enriched by similes. For instance,

“Like a squirrel in a cage”
“To sleep like a log”
“Busy as a bee”
“Blind as a bat”

5. Hyperbole

“Hyperbole is a stylistic device based on the interaction between the logical and emotive meanings of the word. It is deliberate overstatement or exaggeration of some quantity, qua1ity, size, etc., the aim of which is to intensify one of the features of the object to such a degree that from the practical point of view the fulfillment of which is impossible. Both the writer and the reader (or the speaker and the listener) are fully aware of the deliberateness of the exaggeration. The use of hyperbole shows the overflow of emotions in the speaker and the listener. Hyperbole may be expressed in a periphrastic descriptive way” [Musayev Q “English Stylistics”, Tashkent, 2003”].

The following sentences can be good example for hyperbole:

“What I suffer in those ways 110 tongues can tell” (K. Jerome)
“His mind began to move like lightning”
“I haven’t seen you for ages”
“I’d give the world see him” etc.

6. Litotes

Litotes is a stylistic device which including abnormal use of negative constructions instead of positive forms. It means sarcasm of a certain feature of an object. In the following utterances you may see litotes:

"It troubled him not a little"

"He is not a silly man" – "He is a clever man".

"Mr. Bardell was a man of honor - Mr. Bardell was a man of his word - Mr. Bardell was no deceiver ..." (Dickens)

7. Periphrasis

Periphrasis means substitution of the name of a given word by the expressive construction or phrase or it is a device by which a grammatical category or connection is expressed by a free morpheme (typically one or more function words modifying a content word)". For example:

"A gentleman of the robe - a lawyer"

"The man in the street"- the ordinary person

"My better half"- my wife

"The ship of the desert" - Camel

"The requirements of equivalence in the translation of emotive prose differ considerably from these in other styles where form merely serves to convey the content of the utterance and do not fulfill any expressive and aesthetic function (publicist style in all its genres being to a certain extent an exception). In these styles stylistic means and devices are merely used as their indispensable markers" [Abdurahmonova X]. However, in the Belles-lettres style form and content are undividable whole; their general objective is to affect the receiver psychologically, to appeal to his feelings and to stir his mind's eye, to arouse his sense of values both ethical and aesthetic. According to Abdurahmonova X. the approach to the problems of equivalence is broader and much more flexible in this style. "Losses may be greater here but so are the possibilities of compensation because the object in view is to produce as forceful a stylistic effect as that produced by the original. While in the translation of official, scientific and newspaper texts the losses are grammatical or lexical, in the translation of Belles-Lettres texts the losses are also stylistic affecting the expressive value of the translated text" [Abdurahmonova X]. This point can be demonstrating by the following example which is taken from H.W.Morton's book "In Search of London", the style of which comes very close to imaginative prose. It is a picturesque and remarkable explanation of the funeral of Henry V.

"As the two miles of pompous grief passed through the streets of London, every citizen stood at his doorway holding a lighted taper".

"В то время как торжественная похоронная процессия, растянувшаяся на две мили, двигалась по улицам Лондона, в дверях каждого дома стоял его хозяин с зажженной свечой в руках".

It is obvious from the preceding analysis that basic principles of translation are inviolate, and yet equivalence is not a rigid perception and varies in the rendering of texts that belonging to different styles.

REFERENCES:

1. Anita Naciscione “The stylistic use of phraseological units in discourse”, John Benjamins Publishing, 2010.

2. Smith i. p. “Words and idioms” London 1928.

3. Виноградов, в. в. Обосновных типах фразеологических единиц в русском языке / в. в. виноградов. - м.: изд-во ан ссср, 1967. - 227 с.

4. Виноградов в. в, Лексикология и лексикография, изб. тр.- м.: наука, 1986

5. Кунин, a.b. Курс фразеологии современного английского языка / а.в. кунин. - м.: высшая школа, 1996. - 331 с.

6. Кунин, а.в. Пути образования фразеологических единиц / а.в. кунин // иностранные языки в школе.- 1971.- №1.- с.8.

7. Кунин, а. в. Изучение фразеологии в советском языкознании / а.в. кунин // иностранные языки в школе.- 1967.- №5.- с. 61.

8. Смит, л. п. Фразеология английского языка /л. п. смит. - гос. учебно-пед. изд-во министерства просвещения рсфср. - москва, 1959. - 208 с.

POLISEMIYA VA MONOSEMIYANING QIYOSIY TAHLILI

Feruza Abduraximova Boxadirovna
FarDU katta o‘qituvchisi (PhD)
Mamajonova Muhlisaxon Muzaffarovna
FarDU talabasi

Annotatsiya. Ushbu tezis polisemiya va monosemiya o‘rtasidagi tub farqlarni o‘rganish, ularning lingvistik xususiyatlarini muhokama qilishga qaratilgan. Ishtirok etgan kognitiv jarayonlar va bu hodisalarning muloqotga ta’sirini o‘rganadi. Ko‘p ma’nolilik tilga moslashuvchanlik va boylik qo‘shsa, monosemiya ravshanlik va aniqlikni ta’minlaydi. Ushbu maqola ushbu ikki tushunchani chuqur qiyoslab, ularning til foydalanuvchilariga va til tizimlariga qanday ta’sir qilishiga e’tibor qaratadi.

Kalit so‘zlar: Ko‘p ma’nolilik, monosemiya, lingvistika, kontekst, kognitiv jarayonlar.

Annotation: This thesis aims to study the fundamental differences between polysemy and monosemy, to discuss their linguistic features. , examines the cognitive processes involved and the impact of these phenomena on communication. Polysemy adds flexibility and richness to language, while monosemy provides clarity and precision. This article provides an in-depth comparison of these two concepts, focusing on how they affect language users and language systems.

Key words: Polysemy, monosemy, linguistics, context, cognitive processes.

Ko‘p ma’nolilik: ta’rif va xarakteristikalari: Grekcha “poli” (ko‘p) va “sema” (belgi) so‘zlaridan olingan ko‘p ma’nolilik bir so‘zning bir necha ma’nolarining birga mavjudligini bildiradi. Agar so‘z turli ma’nolari kengaytma bilan bog‘langan bo‘lsa, u ko‘p ma’noli hisoblanadi. Misol uchun, inglizcha "bank" so‘zi pul

qo‘yilgan moliya muassasasini yoki daryo bo‘yidagi nishabli maydonni anglatishi mumkin. Bu ma’nolar bir-biridan farqli ko‘rinsa-da, ular moliyaviy aktivlarga yoki geografik ob’yektlarga nisbatan qo‘llanilishidan qat’i nazar, jamg‘arish va qo‘llab-quvvatlash g‘oyalariga asoslangan kontseptual munosabatlarga ega. Ko‘p ma’noli so‘zlar tabiiy tillarda hamma joyda uchraydi, ko‘pincha ifodaning yanada boy va ko‘p qirrali shakllarini keltirib chiqaradi. Tilshunoslikda ko‘p ma’nolilik ma’nolar o‘rtasidagi munosabat xususiyatiga ko‘ra turkumlanadi. Ierarxik polisemiya bir ma’noning markaziy yoki asosiy bo‘lishini o‘z ichiga oladi, boshqa ma’nolar esa undan kelib chiqadi. Chunonchi, “oyoq”ning birlamchi ma’nosi inson tanasining pastki qismiga tegishli bo‘lsa, uning kengaytirilgan ma’nolari (tog‘ poydevori, o‘lchov birligi) ikkinchi darajali, lekin metafora orqali bog‘lanadi. Boshqa tomondan, to‘ldiruvchi polisemiya bir xil darajada markaziy bo‘lgan bir nechta ma’nolarni o‘z ichiga oladi, masalan, "qog‘oz" misolida, bitta ma’no ustun bo‘lmagan holda ham materialga, ham yozma hujjatga murojaat qilishi mumkin.[6,145]

Ko‘p ma’noli so‘zlarning talqini ko‘p jihatdan kontekstga bog‘liq. Atrofdagi so‘zlar va kengroq suhbat kabi kontekstli maslahatlar til foydalanuvchilariga mos ma’noni tanlashda yordam beradi. Odamlarga ko‘p ma’noli so‘zlarni tushunishga imkon beradigan kognitiv jarayonlar aqliy assotsiatsiyalar va analogiyani o‘z ichiga oladi. Inson miyasi naqsh va assotsiatsiyalarni aniqlash uchun simli bo‘lib, polisemiyani tabiiy hodisaga aylantiradi. Masalan, metaforik fikrlash ko‘pincha ko‘p ma’noli ma’nolarga asoslanadi, chunki odamlar bilimlarni bir sohadan ikkinchisiga o‘tkazadilar. Shuning uchun so‘zlar vaqt o‘tishi bilan turli xil aloqa ehtiyojlariga moslashib, tegishli ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin. Biroq, polisemiya ham noaniqlikka olib kelishi mumkin, ayniqsa kontekst noaniq yoki etarli bo‘lmagan holatlarda. Ko‘p ma’nolilik ma’ruzachilarga ko‘proq g‘oyalarni ifodalash uchun kamroq so‘zlardan foydalanishga imkon berish orqali muloqotni boyitgan bo‘lsa-da, agar tinglovchilar so‘zni boshqacha talqin qilsalar, tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shunday qilib, polisemiya samarali muloqotni ta’minlash uchun boshqa lingvistik vositalar, masalan, kontekst va sintaktik tuzilmalar bilan muvozanatli bo‘lishi kerak.

3.Monosemiya: ta’rifi va xususiyatlari.Polisemiyadan farqli o‘laroq, monosemiya faqat bitta ma’noga ega bo‘lgan so‘zlarni anglatadi. "Mono" (yagona) va "sema" (belgi) so‘zlaridan olingan monosemiya lingvistik soddalik va ravshanlikni ifodalaydi. Bir ma’noli so‘zlar bitta, aniq ma’noni bildiradi, bu ularni izohlashni va izchil foydalanishni osonlashtiradi. Misol uchun, "atom" so‘zi kimyoviy elementning eng kichik birligiga ishora qiladi va uning ma’nosi kontekstga qarab o‘zgarmaydi. Bir ma’noli so‘zlar ko‘p ma’noli so‘zlarga qaraganda kamroq moslashuvchan, lekin ular aniq aloqada muhim rol o‘ynaydi, ayniqsa texnik, huquqiy va ilmiy til. Monosemiya noto‘g‘ri tushunish ehtimolini kamaytiradi, chunki so‘zning ma’nosini aniqlash uchun kontekstli maslahatlarga tayanishga hojat yo‘q. Bu soddalik, ayniqsa, murakkab g‘oyalarni to‘g‘ri yetkazish uchun aniq ma’nolar muhim bo‘lgan akademik yozishda qo‘l keladi. Monosemiya

taqdim etgan ravshanlikka qaramay, bunday so‘zlar tabiiy tillarda nisbatan kam uchraydi. Aksariyat so‘zlar, ayniqsa norasmiy va kundalik muloqotda, tilning moslashuvchan tabiati va so‘zlardan foydalanishning xilma-xilligi tufayli vaqt o‘tishi bilan bir nechta ma’nolarni rivojlantirishga moyildir. Tillar taraqqiyoti sari, ilgari bir ma’noli so‘zlar metaforik kengayish, semantik kengayish yoki madaniy kontekstdagi o‘zgarishlar kabi jarayonlar orqali ko‘p ma’noli bo‘lishi mumkin. Shunga qaramay, bir ma’noli so‘zlarning qo‘llanilishi aniqlik va o‘ziga xoslikni talab qiluvchi kontekstlarda, masalan, qonuniy shartnomalar yoki ilmiy tavsiflar uchun qimmatli bo‘lib qoladi. Bu sohalarda asosiy g‘amxo‘rlik ijodiy ifoda emas, balki monosemiyani ajralmas holga keltiradigan ma’lumotni to‘g‘ri uzatishdir.[1,220]

Ko‘p ma’noli va monosemiya o‘rtasidagi asosiy farqlar: Polisemiya va monosemiya o‘rtasidagi asosiy farq ularning semantik murakkabligidadir. Ko‘p ma’noli so‘zlar qaysi kontekstda qo‘llanishiga qarab o‘zgarib turadigan ma’no qatlamlarini o‘z ichiga oladi. Bu moslashuvchanlikni, balki murakkablikni ham keltirib chiqaradi, chunki ma’ruzachilar va tinglovchilar to‘g‘ri ma’noni aniqlash uchun kontekstli belgilarga tayanishi kerak. Monosemiya, aksincha, soddalikni ta’minlaydi, chunki so‘zning ma’nosi kontekstdan qat’iy nazar sobit va o‘zgarmas bo‘lib qoladi. Ikkinchi muhim farq bu so‘zlarning muloqotga qanday ta’sir qilishiga bog‘liq.[3,25] Ko‘p ma’nolilik til foydalanuvchilariga bir so‘z bilan bir nechta fikrlarni ifodalash imkonini beradi, bu esa muloqotni yanada samarali va ijodiy qiladi. Masalan, "yorug‘lik" so‘zi og‘irlik, yorug‘lik yoki rang ohangini tasvirlash uchun ishlatilishi mumkin, bu uning qo‘llanilishida ko‘p qirralilikni ta’minlaydi. Biroq, xuddi shu ko‘p qirralilik, agar mo‘ljallangan ma’no aniq bo‘lmasa, chalkashlikka olib kelishi mumkin. Bundan farqli o‘laroq, bir ma’noli so‘zlar ko‘pincha aniqlik muhim bo‘lgan kontekstlarda, masalan, rasmiy yozma yoki texnik tavsiflarda, izohlash uchun joy kam bo‘lgan holatlarda qo‘llaniladi. Tilni o‘zlashtirish va qo‘llash nuqtai nazaridan, polisemiya o‘quvchilar uchun qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin, chunki ular kerak. nafaqat so‘zning ko‘p ma’nolarini o‘rganish, balki bu ma’nolarni turli kontekstlarda qanday qo‘llash haqida tushunchani rivojlantirish.

Monosem so‘zlarni o‘rganish va ulardan to‘g‘ri foydalanish odatda osonroq bo‘ladi, chunki ular kamroq izohli talablarni o‘z ichiga oladi. Kognitiv nuqtai nazardan qaraganda, polisemiya murakkabroq aqliy jarayonlarni qamrab oladi, chunki til foydalanuvchilari bir nechta ma’nolarni boshqarish uchun analogiyalar, metaforalar va kontekstli belgilarga murojaat qilishadi. Monosemiya, aksincha, so‘zma-so‘z fikrlash bilan ko‘proq mos keladi, izohlash uchun kamroq kognitiv kuch talab qiladi.[4,35] Leksikografiya va sun’iy intellektda polisemiya lug‘at yozish va tabiiy tilni qayta ishlashda qiyinchiliklar tug‘diradi. Ko‘p ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar inson o‘quvchilari va mashinalar tomonidan to‘g‘ri talqin qilinishini ta’minlash uchun ehtiyotkorlik bilan aniqlanishi va aniqlanishi kerak. Monosemiya, taqqoslash uchun, so‘z va uning ma’nosi o‘rtasidagi yakkama-yakka muvofiqlikni taklif qilish orqali bu jarayonlarni soddalashtiradi. [2,60]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, polisemiya va monosemiya lingvistik spektrning ikki uchini ifodalaydi, polisemiya esa semantik boylik va moslashuvchanlikni ta’minlaydi, monosemiya esa aniqlik va aniqlikni ta’minlaydi. Ikkala hodisa ham tildan foydalanish va muloqotda muhim rol o‘ynaydi, polisemiya kundalik suhbatlarga chuqurlik qo‘shadi va monosemiya texnik va rasmiy kontekstlarda ishonchlilikni ta’minlaydi. Bu ikki tushunchaning o‘zaro ta’siri tilning dinamik xususiyatini aks ettiradi, chunki so‘zlar so‘zlovchilarning kommunikativ ehtiyojlariga doimo moslashib boradi. Polisemiya va monosemiya o‘rtasidagi farqlarni tushunish tildan foydalanishning kognitiv jarayonlarini yoritishga yordam beradi va leksikografiya, til o‘rganish va sun’iy intellekt kabi sohalar uchun qimmatli tushunchalarni beradi. Til rivojlanishda davom etar ekan, so‘z ma’nolarini o‘rganish tilshunoslikning asosiy qiziqish sohasi bo‘lib qolaveradi, bu odamlar muloqotida shakl va ma’no o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etishga yordam beradi.[5,102]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Saeed, John I. "Semantika". Wiley Blackwell – Oksford. 2007.
2. Nerlich, Brigitte, Todd, Zazie, Herman, Vimala, & Clarke, David D. "Polisemiya: Nazariy va hisoblash yondashuvlari", Jon Benjamins nashriyot kompaniyasi. – Amsterdam.
3. Rimer, Nik, "Ko‘p ma’noning semantikasi: ingliz va Warlpiri tillarida o‘qish ma’nosi", Mouton de Gruyter. – Berlin. 2003.
4. Jekson, Xovard. "So‘zlar va ularning ma’nosi", Longman. – London.
5. Geeraerts, Dirk. "Kognitiv tilshunoslik: asosiy o‘qishlar", Mouton de Gruyter. – Berlin. 2006.
6. Kruz, Alan, "Tildagi ma’no: semantika va pragmatikaga kirish" (3-nashr), Oksford universiteti nashriyoti – Oksford. 2011.

OMADSIZLIKNI IFODALOVCHI EVFEMIZMLARNING TEMATIK TASNIFI

Dushatova Shohsanam Baxtiyor qizi
FarDU o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu tezis omadsizlik bilan bog‘liq evfemizmlarning tematik tasnifiga bag‘ishlangan bo‘lib, turli madaniyatlarda omadsizlikning salbiy ta’sirini yumshatish yoki yashirish uchun qanday evfemizmlardan ifoydalanishni o‘rganadi. Tadqiqot ingliz, rus va o‘zbek tillaridan turli xil evfemizmlarni tahlil qlish orqali omadsizlikni evfemizatsiya qilish uchun ishlatiladigan asosiy lingvistik strategiyalarni aniqlaydi. Bularga bilvosita havolalar, metafora va madaniy jihatdan o‘ziga xos idiomatik iboralar kiradi.

Kalit so‘zlar: evfemizm, lingvistik yumshatish, bilvosita til, madaniy me’yorlar, metafora, madaniyat, til.

Annotation: this thesis focuses on the thematic classification of euphemisms related to bad luck, exploring how different cultures employ language to soften or obscure the negative impact of misfortune. By examining a variety of euphemisms

from English, Russian, and Uzbek, the study identifies key linguistic strategies used to euphemize bad luck. These include indirect references, metaphors, and culturally specific idiomatic expressions.

Keywords: euphemism, linguistic softening, indirect language, cultural norms, metaphors, culture, language.

Evfemizmlar noqulay va og‘ir haqiqatlarning ta’sirini yumshatishda muhim rol o‘ynaydi. Omadsizlik kontekstida, evfemizmlar insonlarga misfortune yoki omadsizlikni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tan olishning o‘rniga, uning psixologik va hissiy yukini yengillashtirishda yordam beradi. Mazkur tadqiqot omadsizlikni ifodalovchi evfemizmlarning turli madaniyat va tillarda qanday tematik tasniflanishini o‘rganishga qaratilgan. Omadsizlik ko‘pincha taqdir, yomon nasib va boshqarib bo‘lmaydigan kuchlar bilan bog‘liq tushuncha sifatida qabul qilinadi, va turli madaniyatlarda bu hodisa turlicha evfemizmlar bilan ifodalangan. Ushbu til birikmalarini tahlil qilish orqali, madaniyatlarning omadsizlikka bo‘lgan munosabati va uni qanday yengishlari haqida chuqur tushunchaga ega bo‘lamiz.

Ushbu ilmiy ish uchta tilda — ingliz, rus va o‘zbek tillarida qo‘llanilgan evfemizmlarni qiyosiy tahlil qilishga asoslangan. Har bir til omadsizlikni qanday ifodalashi va unga qanday munosabat bildirilishini o‘ziga xos tarzda ko‘rsatadi. Tadqiqot quyidagi savollarga javob berishni maqsad qiladi: Turli madaniyatlar omadsizlik tushunchasini evfemizmlar yordamida qanday yumshatadi? Ushbu evfemizmlarning qo‘llanishida qanday temalar paydo bo‘ladi va ularning shakllanishiga qanday madaniy omillar ta’sir qiladi? Ushbu savollarni o‘rganishda, tadqiqot omadsizlikka bog‘liq evfemizmlarning psixologik va ijtimoiy funksiyalarini ham tahlil qilib, lingvistik xatti-harakatlarga ta’sir qiluvchi madaniy qadriyatlar va e’tiqodlarni yoritadi.

Avvalo, evfemizmning nima ekanligini aniqlash va turli madaniyatlardagi omadsizlik tushunchasini tushunish muhim. Evfemizmlar bu — juda qattiq yoki noxush so‘z va iboralarni yumshatadigan bilvosita yoki yengilroq ifodalar hisoblanadi. Omadsizlik kontekstida qo‘llanganda, evfemizmlar insonlarga omadsizlik haqida gapirishni, to‘g‘ridan-to‘g‘ri hissiy og‘irlikni keltirib chiqarmasdan amalga oshirish imkonini beradi.

Omadsizlik, odatda, superstitiyalar, taqdir va ba’zi hodisalarning inson nazoratidan tashqarida ekanligiga bo‘lgan e’tiqod bilan bog‘lanadi. Turli madaniyatlar omadsizlik sabablarini qanday tushuntirish va uni qanday oldini olish yoki yengillashtirish haqida o‘zlarining maxsus talqinlarini ishlab chiqqan. Ba’zi madaniyatlar omadsizlikni g‘ayritabiiy kuchlar bilan bog‘laydi, boshqalari esa uni hayotning tabiiy noaniqligi sifatida qabul qiladi. Ushbu bobda omadsizlikni evfemizmlar yordamida ifodalashda qo‘llaniladigan umumiy lingvistik strategiyalar, masalan, metafora, aylanma yo‘l bilan ifodalash va shaxsiyat berish kabi usullar ko‘rib chiqiladi.

Ushbu bobda omadsizlik bilan bog‘liq evfemizmlardan paydo bo‘lgan asosiy temalar o‘rganiladi. Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi evfemizmlar yaqin tahlil qilinib, bir necha takroriy temalar aniqlanadi:

Omadsizlikni ifodalovchi ko‘plab evfemizmlar taqdir yoki nasibga ishora qiladi, ya’ni omadsizlik oldindan belgilangan yoki muqarrar ekanini bildiradi. Bu evfemizmlar, odatda, insonlarning o‘z taqdirlari ustidan kam nazoratga ega ekanliklarini aks ettiruvchi fatalistik dunyoqarashlarni aks ettiradi. Misol tariqasida, ingliz tilidagi “out of luck,” rus tilidagi “судьба” (sudba, taqdir) va o‘zbek tilidagi “taqdir o‘yini” (taqdirning o‘yini) iboralari keltiriladi.

Boshqa keng tarqalgan tema omadsizlikni tasodif yoki yomon hodisa sifatida ifodalovchi evfemizmlar bilan bog‘liq. Ingliz tilidagi “a stroke of bad luck” iborasi omadsizlikni qisqa, oldindan bilib bo‘lmaydigan hodisa sifatida ko‘rsatadi. Xuddi shunday, rus tilidagi “не повезло” (ne povezlo, omad kelmadi) va o‘zbek tilidagi “omadsizlik” iboralari ham omadsizlikni vaqtinchalik va kutilmagan hodisa sifatida tavsiflaydi.

Madaniy superstitsiyalar ko‘pincha omadsizlikni ifodalovchi evfemizmlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, ingliz tilidagi “black cat crossed my path” (qora mushuk yo‘limdan o‘tdi) iborasi yomon belgilarni ifodalovchi evfemizm sifatida qo‘llaniladi. Rus tilida “черная полоса” (chernaya polosa, qora chiziq) iborasi omadsizlik davrini metaforik tarzda ifodalaydi. O‘zbek madaniyati ham superstitiyaga asoslangan evfemizmlarni qo‘llaydi, masalan, “yomon ko‘z” iborasi yomon ko‘zning salbiy kuchi tufayli yuzaga kelgan omadsizlikka ishora qiladi.

Omadsizlikni yo‘qotish yoki muvaffaqiyatsizlik bilan bog‘laydigan evfemizmlar ham keng tarqalgan. Ingliz tilida “down on one’s luck” yoki “hit a rough patch” iboralari omadsizlikni tashqi kuchlar ta’sirida ro‘y bergan hodisa sifatida ko‘rsatib, muvaffaqiyatsizlikning keskinligini yumshatadi. Rus tilidagi “неудачник” (omad kelmagan odam) va o‘zbek tilidagi “baxtsiz” (omadsiz yoki omad kelmagan) iboralari ham muvaffaqiyatsizlikni shaxsiy kamchiliklardan ko‘ra, omadsizlik natijasi sifatida ta’riflaydi.

Ba’zi evfemizmlar omadsizlikning muqarrarligini ta’kidlaydi va bu hodisaga nisbatan boy bermoqchilikni aks ettiradi. Ingliz tilida “it wasn’t meant to be” iborasi ba’zi natijalarning oldindan belgilangan va muqarrar ekanini bildiradi. Rus tilida “это жизнь” (bu hayot) iborasi, o‘zbek tilida esa “bo‘lishi kerak ekan” iborasi ham xuddi shunday mazmunni ifodalaydi.

Ushbu bobda madaniy va ijtimoiy omillar omadsizlikni qanday evfemizmlar yordamida ifodalanishini o‘rganadi. Din, superstitsiya va jamiyatning nazorat va agentlikka bo‘lgan munosabati evfemizmlar shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Masalan, ingliz tilida "luck" tushunchasi ko‘pincha tasodifiy va shaxsiy kuchlarga bog‘liq bo‘lgan holda tasvirlanadi, rus va o‘zbek tillarida esa omadsizlik ko‘proq taqdir yoki ilohiy iroda bilan bog‘liq holda ko‘riladi.

Rus madaniyati, pravoslav xristianlik va xalq og‘zaki ijodiyoti ta’sirida, omadsizlikni ifodalovchi evfemizmlarda diniy va axloqiy mazmunlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, "магия не в твою пользу" (magiya ne v tvoyu polzu, sening foydangda emas) iborasi omadga g‘ayritabiiy ta’sirni ifodalaydi. Aksincha, o‘zbek evfemizmlari ko‘pincha islomiy e’tiqodlar va mahalliy an’analarga asoslanadi,

bunda omadsizlik "yomon ko‘z" yoki taqdir bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. "Yomon ko‘z tegdi" iborasi bu e’tiqodning keng tarqalgan evfemizmlardan biridir.

Omadsizlik bilan bog‘liq evfemizmlar psixologik va ijtimoiy muhim funksiyalarni bajaradi. Yumshoq til ishlatish orqali shaxslar omadsizlikning hissiy ta’siridan uzoqlashib, noxush hodisalardan o‘zlarini himoya qilish imkoniyatini yaratadilar. Ushbu bobda evfemizmlar omadsizlik bilan bog‘liq bo‘lgan umidsizlik, qo‘rquv va yordamdan umid uzilishi kabi hissiyotlarni qanday yengishga yordam berishini o‘rganadi.

Shu bilan birga, evfemizmlar ijtimoiy muloqotda ham muhim rol o‘ynaydi. Ular noqulay mavzularni og‘riqsiz muhokama qilishga imkon beradi. Misol uchun, kimdir omadsizlikka uchraganida, ingliz tilida "a rough patch" yoki rus tilida "черная полоса" kabi evfemizmlar ishlatilishi bu hodisani yengilroq qilib, hurmat va ehtirom ko‘rsatishni ta’minlaydi. Evfemizmlar og‘ir mavzularni ehtiyotkorlik va muloyimlik bilan muhokama qilish imkoniyatini yaratadigan umumiy lingvistik maydon hosil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **Allan, K., & Burridge, K.** (2006). *Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language.* Cambridge University Press.
2. **Holder, R. W.** (2008*). How Not to Say What You Mean: A Dictionary of Euphemisms.* Oxford University Press.
3. **Lakoff, G., & Johnson, M.** (2003). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
4. **Rawson, H. (**1981). *A Dictionary of Euphemisms and Other Doubletalk.* Crown Publishers.
5. **Lutz, W.** (1989). *Doublespeak.* Harper & Row.

SIFAT SO‘Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Toshqulova Zebiniso
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
Namozov Komil, Abdujabborov Shahzod
Termiz davlat pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya. Sifat so‘z turkumining uslubiy xususiyati, shu o‘rinda uslub va uslubiyatning tilshunoslikda o‘rganilganligi haqida qisqa ma’lumot berilgan. Sifat so‘z turkumi ustida olib borilgan tadqiqotlar orasida sifatning uslubiy o‘rganilishida ham salmoqli ishlar amalga oshirilganligi, adabiyotlarda sifatning badiiy uslubda ishlatilishiga katta ahamiyat beribganligi yoritib berilgan.

Abstract. The stylistic feature of the adjective phrase, here is a brief description of the study of style and methodology in linguistics. Among the studies carried out on the word quality, it is highlighted that significant works have been carried out in the methodological study of quality, and that great importance has been attached to the use of quality in the artistic style in the literature.

Kalit so‘zlar: Uslub, uslubiyat, sifat, badiiy adabiyot, tilshunoslik, so‘zlashuv uslubi, rasmiy uslub, badiiy uslub, ilmiy uslub, publististik uslub.

Keywords: Style, methodology, quality, fiction, linguistics, colloquial style, formal style, artistic style, scientific style, journalistic style.

Uslubiyat tilshunoslik fanining bir bo‘limi bo‘lib, nutq jarayonida til hodisalarining maqsadga, sharoitga va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyatlari bilan tanishtiradi. Uslubiyatda uslublar, til vositalarining nutqda qo‘llanish yo‘llari, fonetik, frazeologik va grammatik birliklarning qo‘llanish xususiyatlari o‘rganiladi. Uslubiyat (stilistika)- grekcha **“stylos”** so‘zidan olingan bo‘lib, suyakdan yasalgan uchli tayoqcha degan ma’noni anglatadi. Stil –uslub so‘zining izohli lug‘atlarda bir necha ma’nolar berilgan. O‘tgan asrning 40-yillarida D.A.Ukashovaning tahriri ostida chiqqan “Толковый словарь русского языка” asarlarida stil so‘zining 4 xil ma’nosi berilgan (bu 2 tomlik (1981) va 5 tomlik(2006-2008) “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham izohlangan)[146].

Uslubshunoslik fanining o‘rganish obyekti haqida turli qarashlar mavjud. Akademik V.V.Vinogradov stilistika bahsida bir-biri bilan uzviy aloqador, lekin vazifalari turlicha bo‘lgan uchta tekshirish aspektini farqlash zarur, deb uqtiradi. Shunga ko‘ra olim uslubiyatni uchga ajratadi.

1.Tilning vazifaviy uslublarini o‘rganuvchi uslubiyat;

2.Turli janrlarning ma’noviy va ekspressiv-uslubiy xarakterlarini hamda og‘zaki va yozma nutq orasidagi farqni tekshiruvchi nutq uslubiyati;

3.Adabiy yo‘nalishlar, badiiy asar hamda yozuvchi uslubini tadqiq etuvchi badiiy adabiyot uslubiyati[147].

O‘zbek tilshunosligida beshta uslub bor bo‘lib, bular: so‘zlashuv, badiiy, ilmiy, publitsistik, rasmiy uslublardir.

So‘zlashuv uslubi. Keng qo‘llanadigan uslublardan biri so‘zlashuv uslubidir. Bu uslubda ko‘pincha turli uslubiy bo‘yoqli so‘zlar, Grammatik vositalar, tovushlarning tushib qolishi, orttirilishi mumkin: *Obbo, hamma ishni do‘nddirasiz-da. Mazza qildik. Ketaqo-o-ol!*

So‘zlashuv uslubida gapdagi so‘zlar tartibi ancha erkin bo‘ladi. Ko‘proq sodda gaplar, to‘liqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalaniladi. Oilada, ko‘chada, kishilarning fikr almashishida qo‘llanuvchi nutq uslubi so‘zlashuv uslubi deyiladi.

Ilmiy uslub. Fan-texnikaning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar ilmiy uslubda yoziladi. Ilmiy uslub aniq ma’lumotlar asosda chiqarilgan ilmiy xulosalarga boy bo‘lishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi. Ilmiy uslubda har bir fanning o‘ziga xos ilmiy atamalaridan foydalaniladi, bu uslubda so‘zlar o‘z ma’nosida qo‘llaniladi. Qoida yoki ta’rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan bo‘laklar, kirish so‘zlar, kirish birikmalar, shuningdek, qo‘shma gaplardan ko‘proq foydalaniladi. *Yomg‘ir – suyuq tomchi holidagi atmosfera yog‘ini. Tomchining diametri 0,5-0,6 mm bo‘ladi*.

Rasmiy uslub. Davlat idoralari tomonidan chiqariladigan qarorlar, qonunlar, nizomlar, xalqaro hujjatlar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Bu uslubda ham so‘zlar o‘z ma’nosida qo‘llaniladi, ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan ayrim qisqartma

[146]A.J.Omonturdiyev, Sh.I.Abduraimova., O’zbek nutqi madaniyati vauslubiyati.-Toshkent. 2016. -34-35-betlar
[147] Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. –М.: 1963. –С.593

so‘zlar ishlatiladi, har bir sohaning o‘ziga xos atamalaridan foydalaniladi. Rasmiy-idoraviy uslubda ko‘pincha darak gaplardan, qaror, buyruq, ko‘rsatma kabilar esa buyruq gaplardan foydalaniladi. Bu uslubda gap bo‘laklarining odatdagi tartibda bo‘lishiga rioya qilinadi: *O‘z lavozimini suiiste’mol qilgani uchun M. Ahmedovga hayfsan e’lon qilinsin.*

Publitsistik uslub. Tashviqot – targ‘ibot ishlarini olib borishda qo‘llaniladigan uslub, ya’ni matbuot uslubi ommabop uslub hisoblanadi. Bu uslubda ijtimoiy-siyosiy so‘zlar ko‘p qo‘llanadi. Nutq ta’sirchan bo‘lishi uchun ta’sirchan so‘z va birikmalaridan, maqol va hikmatli so‘zlardan ham foydalaniladi. Bunday uslubda gap bo‘laklari odatdagi tartibda bo‘ladi. Kesimlar buyruq va xabar maylidagi fe’llar bilan ifodalanadi, darak, his-hayajon va ritorik so‘roq gaplardan, yoyiq undalmalardan, takroriy so‘z va birikmalardan unumli foydalaniladi: *Azamat paxtakorlarimiz mo‘l hosil yetishtirish uchun fidokorona mehnat qilishyapti.*

Badiiy uslub (nazm, nasr va dramatik asarlar) badiiy uslubda bo‘ladi. Badiiy asar kishiga ma’lumot berish bilan birga, timsollar (obrazlar) vositasida estetik ta’sir ham ko‘rsatadi: *O‘lkamizda fasllar kelinchagi bo‘lmish bahor o‘z sepini yoymoqda.* Badiiy asarlar uslubi aralash uslub hisoblanadi. Unda so‘zlashuv uslubiga, kitobiy uslublarga xos o‘rinlar ham uchraydi.

Ushbu maqolada katta e’tibor sifat so‘z turkumining uslubiy xususiyatlariga qaratiladi. Sifatning badiiy matn tarkibida uslubiy bo‘yoqdorlikni ta’minlash darajasi o‘rganiladi. Taniqli tilshunos olim prof. A.G‘ulomov o‘zbek tilshunosligida morfologik uslubiyat muammolarining ilk tadqiqotsichi sanaladi. A.G‘ulomov maktab o‘quvchilarining 9-sinflari uchun mo‘ljallangan “O‘zbek tili darsligi” (1977) va “Stilistika” qismining muallifidir[148]. Darslikning bu qismida morfologik uslubiyat, jumladan, sifatlarning uslubiy jihatdan qo‘llash usullarini yoritishga ahamiyat qaratgan.

Prof. A. G‘ulomov sifatlarning nutq jarayonida qo‘llanishida quyidagi ikki holatni alohida qayd etadi.:

a) Otning aniqlovchi bo‘lish holati: *quvnoq qiz, tiniq osmon;*
b) Kesim bo‘lib kelishi: *osmon ko‘m-ko‘k, osmon tiniq* kabi

Sifatlar bu ikki qo‘llanish holatida ham predmetning belgisini bildiradi, lekin bu belgining tasvirlanish xususiyati bir xil emas. Kesim vazifasida kelgan sifat predmetning belgisini yo tasdiqlaydi, yo inkor qiladi. Aniqlovchi vazifasida kelgan sifat esa otdan anglashilgan ma’noni ba’zan toraytiradi: *oq lenta* (lentaning bir turi), bazan ma’no hajmiga ta’sir qilmaydi: *oq sut (*sutning rangiga ko‘ra turi yo‘q), ba’zan ko‘chma ma’nodagi sifatlovchi aniqlovchi uslubiy vazifa bajaradi.: *oppoqqina chaqaloq* kabi. Olim o‘zining sifatlarning uslubiy xususiyatlari, sifat darajalari va boshqa forma yasalish imkoniyatlari haqida ilmiy-nazariy qarashlarini

[148]ҒуломовА. Стилистика//ҒуломовА., Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М. Ўзбек тили дарслиги, 9-синф учун.
–Тошкент: Ўкитувчи, 1977, 28-79-бетлар.

“Sifat haqida mulohazalar“ nomli maqolasi bilan yanada aniqlashtirdi va to‘ldirdi[149].

Prof. R.Qo‘ng‘irov (1933-1994) o‘zbek tilshunosligi tarixida morfologik uslubiyat muammolarining dastlabki yirik tadqiqotchisi hisoblanadi. R.Qo‘ng‘irov dastlab ilmiy to‘plamlardan birida “Sifat stilistikasi” nomli ko‘lamdor maqolasi bilan ishtirok etdi[150]. Bu maqola sifatning asosiy grammatik va semantik xususiyatini ta’kidlovchi quyidagicha ta’rif bilan boshlanadi: “Sifat ma’lum bir belgini ko‘rsatuvchi so‘zlar gruppasi tarzida mustaqil, ammo funksiyasi jihatidan boshqa so‘z turkum(9 ot va otlashgan so‘z)larning ma’lum xususiyatlarini aniqlashtiruvchi, uning ma’nosiga aniqlik kiritishga yordam beruvchi so‘zlar hisoblanadi”[151].

Sifat turkumiiga oid so‘zlar publitsistik va badiiy uslubda epitet(sifatlash) sifatida faol qo‘llanish xususiyatiga egaligini, sifatlarda sinonimlik (ma’nodoshlik) hodisasini keng tarqalganini ham olim chetda qoldirmagan. Ana shundan kelib chiqib, maqolada sifatning stilistik(uslubiy) kategoriya sifatida talqin qilish mumkin, degan xulosaga kelgan.

Prof. R.Qo‘ngirov sifat so‘z turkumida biri ikkinchisini qo‘llash imkoniyatini tadqiq etish uchun bir necha sinonim(ma’nodosh) sifat leksemalar guruhini tahlil qilish uchun olgan:

a) *Katta, ulug‘, buyuk, zo‘r, ulkan, bahaybat, haybatli, yirik, gigant;*

b) *Oriq, ozg‘in, qiltiriq, dirdov, ipiltiriq, romaqijon, log‘ar;*

c) *Chiroyli, go‘zal, husndor, xusnli, xushro‘y, ko‘hlik, ko‘rkam, barno, suluv, zebo, latofatli, sohibjamol* kabi. Shunisi muhimki, keltirilgan bunday sinonimik so‘zlar qatorining har biriga xos sifat leksemalarining vazifaviy uslublarda qo‘llanish doirasi, ijobiy yoki salbiy ma’no bo‘yog‘iga ega ekanligi, qaysi o‘rinlarda ularning birining o‘rnida ikkinchisini qo‘llash mumkin emasligi tadqiqotchi olim tomonidan aniq ko‘rsatilib berilgan.

Yuqorida sanab o‘tilgan sifatlarning ma’nodoshlik xususiyati faqat leksikalogiyada emas grammatikada ham, aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, morfologiyada ham o‘rganilishi lozimligi aytib o‘tilgan. Bundan tashqari R.Qo‘ng‘irov morfologik uslubiyatga doir ishlarida predmetning belgisini ortiqligini ko‘rsatishga xizmat qiluvchi *eng* so‘zining *g‘oyat, nihoyat, nihoyatda, behad, cheksiz, juda* kabi leksemalar bilan vazifadoshlik(ma’nodoshlik) hosil qilish imkoniyatiga ega ekanligini ham ochib berishga harakat qilgan[152].

So‘ngra jilo bo‘lib kirdi yotog‘imga,
Hulkar va Omonning o‘pdi yuzidan,
Singib yosh kuydirgan za’far yonog‘imga
Sekin xabar berdi menga o‘zidan.

[149]Ko’rsatilgan asar. 39-bet.

[150]Қўнғиров Р. Сифат ситилистикаси// Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари(илмий мақолалар тўплами), Самарқанд: СамДУнашри, 1982, 3-10-бетлар.

[151]Ko’rsatilganasar 8-bet.

[152]Қўнғиров Р. Сифат ситилистикаси// Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маъданияти масалалари. Самарқанд: СамДУнашри, 1982, 3-10-бетлар

Zulfiyaxonim she’ridan olingan ushbu parchada ishtirok etgan za’far so‘zi ham za’faron so‘zining sinonimi bo‘lib, sariq rang ma’nosini anglatadi. Shoir ushbu rang orqali inson umrining, orzularining xazon bo‘lib, sarobga aylanganini bildirmoqchi. Ushbu holatning isboti sifatida misra boshida ham “yosh kuydirgan” birikmasini ham keltirib o‘tishi dalildir. Bilamizki, kuyganda o‘simliklar sariq tusga kirishadi. Shoira xuddi mana shunday holatga ishora sifatida qaragan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.J.Omonturdiyev, Sh.I.Abduraimova., O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati.-Toshkent. 2016. -34-35-betlar

2. Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М.: 1963. –С.593

3. ҒуломовА. Стилистика//ҒуломовА., Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М. Ўзбек тили дарслиги, 9-синф учун. –Тошкент: Ўқтувчи, 1977, 28-79-бетлар.

4. Қўнғиров Р. Сифат ситилистикаси// Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маъданияти масалалари(илмий мақолалар тўплами), Самарқанд: СамДУнашри, 1982, 3-10-бетлар.

5. Pardayev Z. O‘zbek tilida sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari.-Samarqand: SamDU nashri, 2007. 26-44 betlar. 122-b.

6. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO`Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, *1*(4), 34–37.

7. Мадрахимов О. Ўзбек тилида сифат ва янги ясалган сифатлар масаласига доир//ЎзФА ахбороти, ижтимоий фанларсерияси, Тошкент, 1957, 41-47-бетлар.213-Б

8. Musurmonkulov, A. (2023). CORRELATION OF LEXICAL-SEMANTIC RELATIONS WITH GRADUONYMY. Science and innovation, 2(C10), 168-170.

9. Musurmonqulov, A. (2023). AN ALGORITHM FOR RANKING VERBS AND TAGGING THEM IN THE CORPUS. International journal of advanced research in education, technology and management, 2(5).

MIQDOR KATEGORIYASI TALQINI

M.N.Mamadjanova
Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi
Kortabayeva Guljamal
Qozog‘iston milliy universiteti dotsenti

Annotatsiya. Maqolada miqdor kategoriyasining tavsifiga asos bo‘lgan xususiyatlar va munosabatlar umumlashtiriladi va tizimlashtiriladi. Dunyoning miqdoriy jihatining tabiiy tilda aks etishini tahlil qilinadi. Fonetikadan sintaksisgacha turli til sathlarida miqdoriy munosabatlarni ifodalash xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

Abstract. The article summarizes and systematizes the characteristics and connections that form the basis for the description of the quantitative category. The reflection of the quantitative side of the world in natural language is analyzed. The

features of expressing quantitative relations at different levels of language are considered: from phonetics to syntax.

Kalit so‘zlar: miqdor; miqdoriy qiymat; miqdoriy xarakteristikalar; miqdor ko‘rsatkichi.

Key words: quantity; quantitative value; quantitative characteristics; quantity indicator

Miqdor kategoriyasi zamonaviy inson tafakkurining eng keng va ko‘p qirrali kategoriyalaridan biridir, shuning uchun uni o‘rganish turli sohalardagi olimlar, jumladan, tilshunoslik sohasidagi tadqiqotchilar uchun doimiy qiziqish uyg‘otgan . Agar umuman borliqning miqdoriy tomoni haqidagi bilimlar haqida gapiradigan bo‘lsak, unda kamida uchta darajani ajratib ko‘rsatishimiz mumkin: empirik, eksperimental va nazariy. Miqdorni nazariy va eksperimental bilish, eng avvalo, aniq fanlar, xususan, matematikaning maxsus sohalari, shuningdek, falsafa, mantiq, psixologiyaning vazifasidir.

Subyekt amaliy faoliyat jarayonida miqdor haqida empirik bilimlarni oladi, ya’ni, tajriba orttirish orqali bilimi ortadi. Miqdoriy tushunchalarni shakllantirish sohasidagi empirik bilimlar jarayoni Jan Piaje tomonidan chuqur o‘rganilgan.

U bilimlar obyektivligining majburiy shartlaridan biri sifatida xulosalarning eksperimental isbotlanishini va nazariyalarni mantiqiy-matematik tuzilmalarga qisqartirishni ko‘rib chiqadi. Piajening fikricha, "ko‘p", "oz", "teng", "ko‘proq", "kamroq" so‘zlari nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham baho beradi. Shunday qilib, narsaning obyektiv berilgan miqdoriy aniqligi subyekt tomonidan bilish jarayonida nafaqat matematik, aniq, obyektiv, balki matematik bo‘lmagan, taxminiy va u yoki bu darajada subyektiv shakllarda ham aks etishi mumkin [Galich, 2002, -C. 24].

Panfilova: "Miqdoriy aniqlik - bu taqqoslash natijasida (shu jumladan sanash, o‘lchash, hisoblash) taxminan ("ko‘proq", "taxminan teng" ma’nolari bo‘lgan formulalarda) ifodalanishi mumkin bo‘lgan narsaning mavjudligi miqdori. ”, “kamroq”, “juda kamroq”) yoki deyarli aniq (sonlarda, tengliklarda) [Panfilov, 1977, -C. 158-159].

Ushbu ta’rifdan kelib chiqadiki, miqdor har doim ham aniq o‘lchash va hisoblash uchun mos emas. Miqdor amallari matematik formulalar orqali bajarilsa, raqamlar va belgilarda ifodalansa, ular aniq va bir ma’noli bo‘ladi.

Lekin tabiiy til miqdorlarni manipulyatsiya qila boshlagach, narsa va hodisalar dunyosi, g‘oya va tushunchalar, xossa va sifatlar, insonning his-tuyg‘ulari va fikrlari, taassurotlari va prognozlari, xatti-harakatlari miqdoriy baholash obyektiga aylanishi bilanoq, tizim aniq o‘lchovlari o‘zgaradi [Arutyunova, 2005, -C. 20].

Jarayon miqdorining mazmuni alohida ajratilgan jarayonlar yoki bitta jarayonning qismlari (ko‘plik) yoki doimiy jarayonning vaqt bo‘yicha uzunligi hisoblanadi.

Atribut-miqdor - obyektiv yoki jarayon sifati intensivligining o‘lchovidir. Subyekt-miqdor ot, jarayon-miqdor fe’l, sifat-miqdor esa sifat va ergash gaplar bilan ifodalanadi [To‘rayeva, 1985].

Eng qiyin masalalardan biri lingvistik vositalar bilan ifodalangan miqdorning tipologiyasidir. Tilshunoslikda miqdorni sistematiklashtirishga bir qancha urinishlar qilingan, biroq ularning barchasi turli mezonlarga asoslanadi va shuning uchun bu turkumning chegaralarini aniqlashda obyektiv qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Miqdorning lingvistik tavsiflari asosida yotgan turli xususiyat va munosabatlar orasida eng keng tarqalganlari quyidagilardir: yagonalik va ko‘plik, bo‘linish va bo‘linmaslik, asosiylik va tartibsizlik, umumiylik va taqsimot, aniqlik va noaniqlik, aniqlik va yaqinlik, tartib va tartibsizlik, diskretlik vauzluksizlik, kenglik va intensivlik, munosabatlar "ko‘proq" - "kamroq" [Lomtev, 1971, 106-116-betlar, 1979, 174-179-betlar; To‘rayeva, 1985-yil; Toshovich, 2005].

Ko‘pgina tadqiqotlarda miqdorlarning nomlanishi tabiiy ravishda inson sezgilari faoliyatining natijalarini umumlashtiradi.Ko‘pincha "ko‘p" < oz "bahosi vizual ravishda idrok etilgan obyekt (obyektlar) ta’sirida paydo bo‘ladi.

Shu bilan birga, birlik va ko‘plik tushunchasini predmetlarga nisbatan ham, harakat va hodisalarga nisbatan ham birlik yoki ko‘plikning ifodasi sifatida talqin qilish mumkin. Miqdor ichidagi markaziy qarama-qarshiliklardan biri ekstensiv va intensiv miqdordir; ekstensiv miqdor obyektlarning makon va vaqtdagi ko‘lami va intensivligi bilan bog‘liq

Miqdorni aniqlashning har qanday turi bilan xaritalash chiziqli masshtabda sodir bo‘ladi, unda belgilangan pozitsiyalar tegishli og‘zaki shakllarda unli tovushlarning ramziy cho‘zilishi yoki qisqarishi bilan belgilanadi (Marang: Bunday uzun mashina! Ular uzoq vaqt haydashdi. U ishlaydi tez) [Kodzasov, 2000; 2005].

Morfologik darajada miqdor individual morfemalar (ko‘p-, kam-, mo‘l-), sonning grammatik kategoriyasi, taqqoslash darajasi, shaxs, zamon , shuningdek, nutq qismlari tizimi yordamida ifodalanadi [Mechkovskaya, 2005, -c. 449-452; Toshovich, 2005 -y. 122]. Bundan tashqari, miqdoriy munosabatlarni ifodalovchi, birinchi navbatda, kamayib, ortib boruvchi bir qancha formatantlar, so`z yasalish vositalari va turlari mavjud.

Leksik-semantik darajada miqdoriy va miqdoriy-sifat semantikasi bilan juda xilma-xil va murakkab lug‘at mavjud. Darhaqiqat, "miqdor toifasi tilning butun semantik sohasini qamrab oladi". Dunyoning lingvistik rasmini yaratishning tarkibiy qismlaridan biri sifatida miqdor eng muhim semantik va leksik universal deb tan olinadi [Vejbitskaya, 1999, p. 10].

Xususan, B.Toshovich [Toshovich, 2005] hisob-kitoblariga ko‘ra, Anna Vejbitskayaning 61 ta prototipidan 6 tasi miqdoriy xarakterga ega: 1) miqdor ko‘rsatkichlari – bir, ikki, bir nechta, oz, ko‘p/mo‘l, vazn/ hamma, 2) sifatlar - katta, kichik, 3) taksonomiya, partonomiya - tur/jins, qism, 4) daraja - juda, ko‘proq, 5) makon - uzoq, yaqin, 6) vaqt - uzoq, uzoq emas, bir vaqt.

Miqdoriy ma’nolar gapning barcha qismlariga xos bo‘lib, bu darajadagi markaziy miqdor kategoriyasi esa sof miqdor vazifasini bajaradigan sonlardir. Bu guruhlarga real dunyodagi obyektlarning jismoniy xususiyatlarini nomlash uchun lug‘at, asosiy parametrlarning nomlari (balandlik, uzunlik, kenglik, qalinlik, vazn, o‘lcham, hajm, miqdor, hajm, harorat, yosh va boshqalar) kiradi. Sun’iy segmenterlar (daqiqa, soat, yil, oy, metr, verst, gektar, litr, gramm, kilogramm, qadam, barmoq, tirsak, musht, bosh, chimchilash, hovuch, tank, sumka, bochka, shisha, quti, chashka, va boshqalar);o‘lchov va sanashning og‘zaki lug‘ati (ko‘paytirish, kamaytirish, o‘lchash, hisoblash, aniqlash, yig‘ish, qo‘shish, ayirish (ayirish), ko‘paytirish, bo‘lish, kengaytirish, chuqurlashtirish, toraytirish, semirish, ozish va hokazo); miqdoriy ma’noga ega bo‘lgan so‘zlarning erkin iboralari va frazeologik birikmalari (askarlar kompaniyasi, bir tomchi sabr, shiftday baland, ikki qadam uzoqlikda; sifatlar (katta, kichik, baland, past, chuqur, kichik, qalin, ingichka, uzun, qisqa, yosh, qari, yengil, og‘ir, kuchli, zaif, tez, sekin, quruq, nam, sokin va hokazo), miqdoriy qo‘shimchalar miqdor kategoriyasini shakllantiradi. Miqdorni ifodalovchi leksik vositalarga muhim gap bo‘laklari bilan bir qatorda miqdoriy ma’noga ega bo‘lgan turli so‘zlar kiradi: aniqlovchilar (artikl tillaridagi maqolalar, bu kabi so‘zlar); mantiqiy munosabat va amallar ma’nosini ifodalovchi yuklamalar: kiritish, chiqarib tashlash, qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish, taqsimlash, miqdor chegarasi, miqdoriy taqqoslash. Miqdorni bildirishning sintaktik usullaridan biri so‘zni takrorlash, qo‘shish (kundan-kun, yana va yana, kuppa-kunduzi, iliqroq va issiqroq, uzoq vaqt oldin; kutgan-kutgan; bilgan-bilgan).

Harakatlarning miqdoriy xususiyatlarini ifodalash vositalaridan biri aspektuallik kategoriyasidir. Miqdoriy aspektuallik "chastota", "davomiylik" va "intensivlik"ni qamrab oladi. Fe’l bilan ifodalangan harakatning qayta-qayta takrorlanishi bu fe’l bilan tuzilgan konstruktsiyaning semantik murakkabligidan dalolat beradi . Inkor kontekstida ko‘p fe’llar ifodali, urg‘uli inkorni ifodalaydi (ko‘rmagan, eshitmagan, yemagan). “Harakatlarni miqdoriy aniqlash”ni sintaktik vositalar yordamida fe’llarni miqdoriy ma’noli so‘zlar bilan birlashtirish orqali amalga oshirish mumkin. Bu so‘zlarga “ikki marta”, “uch marta”, “birinchi marta”, “ikkilamchi”, “takroriy”, “takroriy”, “ko‘p”, “oz”, “ko‘p”, “qanchalik”, “mo‘l”, “ikki marta”, “qayta-qayta” maxsus qo‘shimchalari kiradi. Shunga o‘xshash kontekstda "deaktualizatorlar" yordamida amalga oshiriladigan vaqtinchalik miqdorni ko‘rib chiqish mumkin - har doim (har doim), ba’zan (vaqtning ba’zi nuqtalarida), tez-tez (vaqtning ko‘p nuqtalarida) kabi qo‘shimchalar.

Miqdoriy qiymatlar sabab-oqibat munosabatlari asosida ham paydo bo‘lishi mumkin.Bir qator tadqiqotchilarning fikricha, bir xil real holat yoki bir xil denotativ vaziyat lingvistik darajada ikki xil ko‘rinishda ifodalanishi mumkin: yagona va integral (formal jihatdan sodda gapning tuzilishiga mos keladi) yoki ketma-ket va sababiy bog‘liq vaziyatlar zanjiri sifatida.

Shunday qilib, har qanday sodda gap, hech bo‘lmaganda harakat fe’li bilan, semantik jihatdan murakkab bo‘lishi mumkin Sabab-natija munosabatlari asosida murakkab gaplarda ham miqdor ma’nolari yuzaga keladi, bunda sabab ham

yashirin, ham ochiq bo‘lishi mumkin: Biz shunchalik uzoq o‘tirdikki, hech narsa ko‘rinmasdi. Hech narsa ko‘rinmagani uchun o‘tirdik [Yermakova, 2005, c. 279].

Miqdoriy munosabatlarni nafaqat hodisalar yoki harakatlarning ko‘pligini tavsiflashda, balki modal baholash sohasida ham kuzatish mumkin.

Xulosa qilib shuni ta’kidlaymizki, tadqiqotchi til tizimining yaxlit tavsifi doirasida duch keladigan miqdoriy belgilarning xilma-xilligi miqdorlar tilining juda xilma-xil va qarama-qarshi ekanligini ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra, dunyoning miqdoriy manzarasi xilma-xil va ko‘p qirrali bo‘lib, uning to‘liq tavsifi faqat turli miqdoriy qiymatlar va ularni ifodalash vositalari o‘rtasidagi munosabatni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Акуленко, В.В. Категория количества в современных европейских языках / В.В. Акуленко. - Киев: Наук. думка, 1990. - 284 с.

2. Арутюнова, Н.Д. Проблема числа / Н.Д. Арутюнова //Логический анализ языка. Квантитативный аспект языка. - М.: Индрик, 2005. - С. 6-21.

3. Беляева, Е.И. Достоверность. Микрополе вероятности / Е.И. Беляева // Теория функциональной грамматики. Темпоральность. Модальность. - Л., 1990. - С. 157-170.

4. Виноградов, В.В. Русский язык / В.В. Виноградов. -2-е изд. - М.: Рус. яз., 1972.720 с.

5. Вежицкая, А. Лексические прототипы как универсальное основание межъязыковой идентификации «частей речи» / А. Вежбицка // Семантические универсалии и описание языков. - М., 1999. - С. 134-170.

6. Галич, Г.Г. Когнитивная категория количества и ее реализация в современном немецком языке / Г.Г. Галич. - Омск: Изд-во ОмГУ, 2002. - 208 с.

7. Галич, Г.Г. Когнитивные стратегии и языковые структуры / Г.Г. Галич. - Омск: Изд-во ОмГУ, 2011. - 232 с.

MIQDOR MA’NOSI KO‘RSATKICHLARI

M.N.Mamadjanova
Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi
O.Najmiddinova
Qo‘qon DPI talabasi

Annotatsiya. Maqolada miqdoriylikning vujudga kelish asoslari, uning inson ongi bilan aloqasi haqida fikrlar bayon qilingan. Miqdoriylikning parametrlari bo‘lmish aniqlik hamda noaniqlik izohlab berilgan. SHuningdek, noaniq miqdorni hosil qilishda ishtirok etuvchi vositalar tahlil qilingan.

Abstract. The article provides information about the foundations of the emergence of quantity, about the relationship of quantity with human consciousness. Such quantitative parameters as certainty and uncertainty are explained. And also, the means involved in the formation of an indefinite amount are analyzed.

Kalit so‘zlar: kvantitativlik, mantiqiy-semantik kategoriyalar, miqdor kategoriyasi.

Key words: quantity, logical-semantic categories, quantitative category

Til birliklari ikki xil asosda tadqiq etiladi: obyektivatsiya planida (mazmuniy tushunchalarning formantlashuvi va semantikatsiyasi) va reprezintatsiya planida (mazmuniy tushunchalar va semantikaning o‘zaro munosabati).[153] Kvantitativlik tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanadigan ongning lingvokreativ faoliyati mahsuli sifatida o‘rganilishi kerak, shuningdek, kontekstda kvantitativ va nokvantitativ tushunchalarni bildiruvchi vosita sifatida ham tahlil etilishi zarur. Bunda mantiqiy-semantik kategoriyalar (substansiallik, relyatsionallik, lokallik, temporallik)ning mohiyati oydinlashadi. Bunday kategoriyalar qatoriga kvantitativlikni ham kiritish mumkin.

Kvantitativlik kategoriyasi eng muhim ontologik kategoriyalardan biridir:

- u aqliy-ma’noviy hodisa hisoblanadi;
- obyektiv olamning miqdoriy aniqligi inson ongi orqali bilish natijasidir;
- insoniyat tafakkurining muhim faoliyatidir;
- obyektiv miqdorning ongda aks etishi natijasi va kontseptual analogidir.

Kvantitativlikning tub mohiyatini anglatuvchi miqdor kategoriyasining o‘rganilishi antik falsafaga borib taqaladi. Gegel antik falsafada ilgari surilgan miqdor kategoriyasiga aloqador bo‘lgan kattalik, o‘lchov va intensivlik tushunchalariga mukammal ta’rif berdi. Miqdor kategoriyasi keyinroq faqat falsafadagina emas, balki mantiq, tilshunoslik sohalarida ham izchil o‘rganila boshlandi.

Tilshunoslar miqdor kategoriyasini yuzaga chiqaruvchi vositalarni hamda miqdoriylik ma’nosi bilan bog‘liq muammolarni o‘rganganlar. Bunda “miqdor” bilan terminologik yaqin tushunchalar sifatida quyidagi tushunchalar ajratib ko‘rsatilgan: miqdor, miqdoriylik va kvantitativlik. Miqdor deyilganda sanalish va o‘lchanish imkoniyati tushuniladi, miqdoriylik – miqdor kategoriyasiga asoslangan xususiyatdir, kvantitativlik esa turli sathlarda miqdoriylik mazmuniga ega bo‘lgan tushunchalar kompleksi haqida tasavvurni yuzaga chiqaruvchi mantiqiy-semantik kategoriya hisoblanadi. Miqdoriylik mazmuni miqdor, son, ko‘plik, qisqalik kabilarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, kvantitativlik ma’nosi tartib, o‘lchov parametrlariga aloqador tushunchalarni ham o‘z ichiga oladi.

Kvantitativlik tilda narsalar, odamlar, moddalar, masofa kabilarni aniq yoki taxminiy o‘lchash zarurati tufayli yuzaga kelgan. Til taraqqiyoti natijasida kvantitativlik ma’nosini ifodalovchi yangi leksemalar shakllanmoqda.

Aniqlik va noaniqlik tushunchalari ta’siri ostida kvantitativlik kategoriyasida miqdorning aniqlik va noaniqlik parametri, shuningdek, kvantitativlikning alohida sohasi—taxminiy miqdor parametrlari yuzaga kelmoqda. Taxminiy miqdorning semantik xususiyati ko‘plikning miqdoriy chegarasini ko‘rsatish bilan noaniq miqdor ma’nosini ifodalash hisoblanadi. Bunda miqdorning lisoniy ifodasi aniq

[153] Игошина Т.В. Морфотемный анализ категории квантитативности в разносистемных языках (на материале русского и английского языков): автореф.канд. филол. наук.—Ульяновск, 2002.-с.6-9.

miqdoriy intervalga oid bo‘ladi. Miqdoriylik mazmuni miqdor, sanoq, ko‘plik, qisqalik kabilarni o‘z ichiga olib, kvantitativlik ma’nosi tartib, o‘lchov, ko‘plik parametrlariga aloqador tushunchalarni ham qamrar ekan, ushbu parametrlar miqdoriy belgini aniqlik hamda noaniqlik asosida anglatadi. Umuman, tildagi miqdoriylik qobig‘ida taxminiy miqdor alohida hodisa sanaladi. Taxminiy miqdorda “songa taxminiy ishora”, “yuqori chegara”, “quyi chegara”, “taxminiy masofa” kabi tushunchalar amal qiladi. Masalan: atrofida, -ga yaqin, -dan ko‘p emas, dan kam emas, eng kamida, ko‘pi bilan, besh-olti, ikkidan yettigacha kabi.

Noaniq miqdor ma’nosining yuzaga chiqishi ko‘plik bilan aloqador. Ko‘plik-birlik emas tushunchalari qarama-qarshi qo‘yilganda, bu tushunchalar o‘rtasidagi bavosita aloqa saqlangani ko‘rinadi.

Miqdoriylikni maydon sifatida o‘rganilganda, miqdoriylik makromaydoni ikki alohida maydondan—aniq va noaniq miqdor maydonlaridan tashkil topganini ko‘rish mumkin. Aniq miqdor yana ikki kichik maydonga ega: sanoq va yakkalik. Yakkalik ko‘plik hamda noaniq miqdorni baholash singari mikromaydonlardan iborat. Noaniq miqdor maydoni noaniq katta miqdor va noaniq kichik miqdorga ajratiladi. Ammo yuqoridagi bo‘linish qotib qolgan emas, balki mikromaydonlarning turli qismlari makromaydon ichida o‘zaro aloqaga kirishib, qisman biri ikkinchisiga o‘tishi ham mumkin.

Nooaniq miqdorni hosil qiluvchi maxsus vosita hamda usullarni ko‘rish mumkin:

1. Bir-biriga yaqin sonlarni yonma-yon qo‘llash orqali. Masalan: *ikki-uch, besh-oltita, o‘n-o‘n besh nafar.*

2. Yordamchi so‘zlar orqali. Masalan: *o‘nga yaqin, yetti atrofida, yuzdan ortiq.*

3. Maxsus daraja-miqdor bildiruvchi so‘zlar orqali. Masalan: *undan ozgina kamroq, kechagidan biroz ko‘p, haddan ziyod, yuqori darajada, beqiyos go‘zal, behad iboli, birmuncha muddat, bir chimdim kulgu, kamida beshta, ko‘pi bilan olti tup, olam-olam gul, so‘z dengizi*

4.Affikslar orqali.Masalan: *o‘ntacha qog‘oz, minglab o‘simliklar.*

Yuqodidagi vosita va usullar turli tushuncha hamda hodisalar uchun umumiy tarzda qo‘llanishi yoki har bir hodisa uchun alohida, maxsus vositalar ishlatilishi mumkin. Shuning uchun bu vositalarni mazmunan bir necha guruhga ajratilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi:

-vaqt ma’nosi uchun qo‘llanuvchi vosita hamda usullar (ikkilar atrofida, beshga yaqin, uchlarda);

-masofa ma’nosi uchun qo‘llanuvchi vosita hamda usullar (bir metr/kilometr/santimetrcha, besh-olti qadam);

-hajm ma’nosi uchun qo‘llanuvchi vosita hamda usullar (kattagina, kichikroq);

-pul hisobi qo‘llanuvchi vosita hamda usullar (mo‘maygina, uch-to‘rt tanga);

-rang-tus ma’nosi uchun qo‘llanuvchi vosita hamda usullar (ko‘kka yaqin, oqish, ko‘kimtir);

Taxminiy miqdor barcha tillarga xos xususiyatdir. Miqdorning ushbu o‘lchami borliqni ongda va tilda aks ettirishda yetakchi o‘rin tutadi.

Xullas, kvantitativ belgi til sathlari o‘rtasida eng keng tarqalgan tasniflovchi belgilardan hisoblanadi. Kvantitativ belgini muayyan sath birliklarini ajratishda yohud o‘zaro qiyoslanuvchi sathlarning birliklari orasidagi o‘xshashlik hamda farqlarni belgilashda muhim kriteriy sifatida qo‘llash mumkin. Kvantitativ belgi til vositalaridan keng foydalanilgan holda, ayrim tovushdan tortib butun bir matnlar orqali ham ifoda qilinishi kuzatiladi. Ba’zan miqdoriy belgi til vositalari tahlilida ifoda plani orqali umuman sezilmasdan, faqatgina mazmun planini chuqur tahlil etilganda namoyon bo‘lishi ushbu kategoriyaning murakkab va nozik qirralaridan biri sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Игошина Т.В. Морфотемный анализ категории квантитативности в разносистемных языках (на материале русского и английского языков): автореф.канд. филол. наук.—Ульяновск, 2002.-с.6-9.

2. Селиверстова О.Н.Труды по семантике.-М., 2004.

3. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека.-М., 1998.

REKLAMA MATNLARI VA REKLAMA MATNLARI PRESUPPOSITSIYASI

Jurayeva Muqaddam Abdug‘ofur qizi
TATU Farg‘ona filiali

Annotatsiya. Mazkur maqolada dastlab reklama matnlari bo‘yicha olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar haqida so‘z yuritiladi. Reklama matnlarida presuppozitsiya hodisasi hozirgi zamon lingvistikasi bilan mantiqiy semantika o‘rtasidagi ko‘prik hisoblanadi.Bu hodisa gapning to‘g‘ri anglanishi uchun eng zarur komponentdir. Chunki presuppozitsiya gapning vaziyat, kontekst, so‘zlovchi va tinglovchilarning oldidan ma’lum bo‘lgan umumiy bilimlari kabi elementlarni o‘z ichiga oluvchi hodisadir. Presuppozitsiya implikatsiyaning xususiy munosabatidan kelib chiqadigan va matnichidagi gaplarning bog‘lanishini hosil qiluvchi zarur hodisa hisoblanadi. Bu implikatsiyalar xususiy va nutqiy hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: reklama diskursi, presuppositsiya, implikatsiya, leksik ma’no, grammatik ma’no

Annotation. This article first talks about the extensive work being done on advertising texts. In advertising texts, the phenomenon of presupposition is a bridge between modern linguistics and logical semantics. This phenomenon is the most necessary component for the correct understanding of the sentence. Because presupposition is a phenomenon that includes elements such as the situation, context, and general knowledge of the speaker and listeners. Presupposition is a necessary phenomenon that arises from the special relationship of implication and creates the connection of sentences in the text. These implications are specific and discursive.

Keywords: advertising discourse, presupposition, implication, lexical meaning, grammatical meaning

Hozirgi kunda reklama matnlari bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Yelena Viktorovnaning dissertatsiya ishi reklama matnlarining gender xususiyatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda matnning gender tarkibini sintaktik asosda o‘rganish mumkin ekanligi hamda ayollar o‘z nutqida ko‘pincha taklif ohangidan foydalansa, erkaklar, asosan, buyruqdan foydalanishlari aytib o‘tilgan. Bundan tashqari reklama matnlarida ayollar ko‘pincha so‘roq so‘zlar, shuningdek, undovlardan ko‘proq foydalansalar, erkaklar nutqida biz to‘liq bo‘lmagan takliflar va elliptik tuzilmalarni uchratishimiz mumkinligi bayon qilingan. Shuningdek, tijorat reklamalarida ham reklama xususiyatlari yorqin ko‘rinishi, masalan, ayollar nashrlarida yosh, yoqimli, muvaffaqiyatli va bolalar bilan bo‘lgan ayollar ko‘proq uchraydi, chunki tomoshabin bu tasvirlarda ko‘proq ”o‘zini ko‘rish” ni istaydi.

Reklama matnlari tahlili bo‘yicha koplab olimlar tomonidan izlanishlar olib borilmoqda. G‘arb va rus tilshunosligida D.Ogilvi, D.E.Rozental, N.N.Koxtev, K.Ga1Ti, X. Kaftandjiyev, K.Bove, U.Arens, I.Y.Rashkov, T.B.Kolishkina, E.V.Medvedeva, E.D.Farbi, E.V.Bulatova, G.Litvinova, E.Anasimova, L.Mayevskaya, Y.Pirogova, N.Gurskaya, S.Martinova, D.Zarlikova va boshqalarning tadqiqotlarida reklama matnining nazariy va amaliy masalalari, lingvistik jihatlari ma’lum darajada o‘rganilgan.Shu bilan bir qatorda o‘zbek tilshunosligida ham bu borada ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda.

Har qanday matndan anglashiladigan kommunikatsiya, asosan, til birliklari orqali amalga oshadi. Matn vujudga kelishi uchun uning tarkibidagi til birliklari o‘zaro bog‘liq va yaxlit bo‘lishi kerak. Matnni to‘g‘ri qabul qiluvchi vosita faqat til birlilkari yoki ularning o‘zaro bog‘lanishi tashkil qilmaydi, balki uni tushinish, ya’ni kommunikativ fon ham muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli ham matnni tushunish, uni qabul qilishda presuppozitsiya asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Presuppozitsiya hodisasi hozirgi zamon lingvistikasi bilan mantiqiy semantika o‘rtasidagi ko‘prik hisoblanadi.Bu hodisa gapning to‘g‘ri anglanishi uchun eng zarur komponentdir. Chunki presuppozitsiya gapning vaziyat, kontekst, so‘zlovchi va tinglovchilarning oldidan ma’lum bo‘lgan umumiy bilimlari kabi elementlarni o‘z ichiga oluvchi hodisadir. Shuning uchun har qanday gap presuppozitsiyasi tahlil etilmasa, to‘ g‘ri baholanmaydi.

Ballertning fikricha, presuppozitsiya implikatsiyaning xususiy munosabatidan kelib chiqadigan va matn ichidagi gaplarning bog‘lanishini hosil qiluvchi zarur hodisa hisoblanadi. Chunki har qanday gapda birdan ortiq implikatsiya mavjud bo‘lishi mumkin. Bu implikatsiyalar xususiy va nutqiy hisoblanadi. Xuddi shu implikatsiyalar asosida matn ichidagi gaplar o‘zaro bog‘lanib, ma’lum mazrnunga ega bo‘ladi. Masalan, ”Shampoo for radiant, soft & silky hair” tipidagi reklama matnini turli implikatsiyalarda tushunish mumkin. Jumlani bir o‘qigandanoq ”Yorqin, mayin va ipak sochlar uchun(ya’ni qattiq sochlar uchun emas) mo‘ljallangan shampun” ma’nosi anglashilsa, yana bir tomondan, “Shampun

sochlarni yorqin,mayin va ipakdek qilishga mo‘ljallangan” tarzidagi implikatsiya anglashiladi. Yoki dori reklamalaridan birida ” Bobotik-qorin og‘rimasligi uchun” degan jumlaga duch kelamiz. Ushbu matnning implikatsiyalari turlicha bo‘ladi: ”Bobotik qorinning qaysidir bir qismida hosil bo‘ladigan og‘riqning oldini oladi” yoki metonimiya asosida hosil bo‘lgan sema, ya’ni qoringa aloqador bo‘lgan ichki a’zo, oshqozon uchun mo‘ljallanganlik” ma’nolari tushuniladi.

Ko‘rinadiki, bir gap orqali bir qancha presuppozitsiyalar anglanishi mumkin. ”Matn” semantikasi tadqiqi bilan shug‘ullanuvchi yo‘nalishlarning taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda gapning shakliy tuzilishida bevosita ifodalanmaydigan, ammo uning semantik qurilishida u yoki bu tarzda ishtirok etadigan semantik elementlar tilshunoslar diqqatini haligacha o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Shu o‘rinda reklama matnlaridagi presuppozitsiya hodisasi nafaqat jumlalarning tushunarliligini ochib berish, balki kompaniyalarning o‘z mahsulotlari taqdimotlarida sog‘lom raqobat qilish, o‘zlarini kamtarona namoyish qilish vositasi vazifasini ham o‘tab berishini ta’kidlab o‘tishimiz lozim. Presuppozitsiya orqali ifodalanayotgan asosiy propozitsiyaga yo qo‘shimcha axborot yuklanadi yoki umuman yangi ma’lumot ifodalanadi. Lingvistik presuppozitsiya asosiy hollarda tilda amal qiluvchi tejash tamoyili asosida yuzaga chiqadi. N.Mahkamovning qayd etishicha, tejamlilik o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, unda leksik yoki grammatik ma’no bajarayotgan birlik vazifasi shu birliklar majmuasidagi boshqa birlikka yuklatiladi. Natijada vazifa bajarmayotgan birlik majmua (so‘z,birikma, gap) tarkibidan chiqariladi va nisbatan shakliy ixchamlik vujudga keladi. Nutqda bu tarzda shakliy ixchamlikka erishish lingvistik presuppozitsiya yordamida ham amalga oshiriladi. Tilshunos olim Z.Burxonovning presuppozitsiyaga oid tavsifiga ko‘ra: presuppozitsiya gap tashqi strukturasida moddiy ko‘rinishini to‘liq namoyish qilmaydi. Ammo uning tashqi signallari ishora vositalari, tabiiyki, sintaktik strukturadan o‘rin oladi. Bu jihatdan qaraganda, presuppozitsiyaning emas, unga ishora qiluvchi til birligining eksplitsit ifodasi xususida fikr yuritish ‘"Pantene” bilan boshlangan kunim eng yaxshi kunim bo‘ladi. Presuppozitsiya:

- "pantene”shampuni shu darajada xushbo‘yki, u bilan boshlangan kun hech qachon yomon kun bo‘lmaydi;
- Bundan yaxshi kun bo‘lmaydi.

“Nescafe classic” endi yanchilgan arabika bilan yana-da mayin granulalar. “Nescafe classic”. Sevimli ta’mni yangidan oching

Presuppozitsiya:

-“Nescafe”ning oldingi granulalari yirik va qattiq bo‘lgan, hozirda juda yoqimli;

-“Nescafe classic” oldin ham sevimli ta’mga ega edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev B.X. O‘zbek reklama lingvistikasi: nazariya va amaliyot: Filol. fan. nomz...diss. — Andijon, 2020.

2. Baxadirov J. A. O‘zbek va ingliz tillaridagi ijtimoiy reklamalarning lingvomadaniy tadqiqi: Filol. fan. nomz.. .diss. — Toshkent, 2022.

3. Burxonov Z. O‘zbek tilida ko‘makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar pragmatikasi.(presuppozitsion aspekt).-Toshkent, 2008. -B.8.
4. Davidl. B. Presupposition // The handbook logic and language, 1996.

METAFORIZATSIYA JARAYONI RAQS TERMINOLOGIYASIDA

Xudoyberdiyeva Oyjamol Muzaffarovna
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotation. Maqolada raqsga oid terminlarning metaforik ishlatilishi, ularning madaniy va lingvistik ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Lingvistik tahlil, kognitiv metafora nazariyasi va madaniyatlararo yondashuv asosida metaforalar orqali raqs harakatlari tasvirlanadi. Maqola raqs terminologiyasidagi metaforizatsiya jarayonining muhimligi va amaliy qo‘llanilishini yoritadi.

Kalit so‘zlar: Metaforizatsiya, raqs terminologiyasi, lingvistika, badiiy tasvir, harakat terminlari.

Raqs san’ati o‘ziga xos lingvistik tuzilmani yaratadi, bu tilning o‘zida yangi ifoda shakllari va terminlar yaratilishini talab qiladi. Ushbu maqolaning asosiy mavzusi — raqs terminologiyasida metaforizatsiya jarayoni bo‘lib, u raqs harakatlari va uslublarining turli xil tushunchalar orqali ifodalanishini o‘rganadi. Metaforalar ko‘pincha og‘zaki va yozma muloqotda qo‘llanilib, harakatlar va hissiyotlarni aniqlashda yordam beradi.

Ushbu tadqiqotda lingvistik tahlil usuli qo‘llaniladi. Raqsga oid matnlar, shu jumladan, o‘quv qo‘llanmalari, maqolalar va sahna ko‘rinishlarining tavsiflari o‘rganilib, ulardagi terminlar qaysi metaforik tushunchalar orqali ifodalanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, metaforizatsiya jarayoni raqs terminlari yaratishda qanday ahamiyatga ega ekanligini aniqlash uchun tasviriy va konseptual tahlil usullari ham qo‘llaniladi.

Metaforalar lingvistika va kognitiv fanlar doirasida keng tadqiq etila borgan sari, ularning raqs terminologiyasida qo‘llanilishi ham o‘rganilmoqda. Ilk davrlarda faqat badiiy til vositasi sifatida o‘rganilgan metafora, kognitiv ilm-fan doirasida, ayniqsa XX asr oxirida kengroq tadqiq qilina boshladi. George Lakoff va Mark Johnson tomonidan ishlab chiqilgan *“kognitiv metafora nazariyasi”* bu borada asosiy yondashuvlardan biri bo‘lib, metaforani faqat adabiy vosita sifatida emas, balki inson tafakkurining asosiy elementi sifatida ko‘rsatadi.

“Metaphors We Live By” [3] nomli asarida Lakoff va Jonson metaforaning faqat adabiyot yoki poetika doirasida emas, balki kundalik tilning va inson tafakkurining ajralmas qismi ekanligini ta’kidlaydi. Ularning fikriga ko‘ra, ko‘plab abstrakt tushunchalar inson tajribalariga asoslangan. Raqs terminologiyasida ham *“oqim”, “uchish”, “portlash”* kabi metaforalar insonning kundalik tajribalari orqali tushuniladi va harakatlarni anglashda yordam beradi. Lakoff va Jonsonning nazariyasi raqs harakatlari tilidagi metaforizatsiya jarayonlarini tushuntirishga asos bo‘ladi.

Ushbu tadqiqot raqs terminologiyasidagi harakatlar va tuyg‘ularni jismoniy tajribalar orqali anglashga asoslangan tilda qanday shakllanishini tahlil qilish uchun muhimdir.

Zoltan Kovecsesning “Metaphor: A Practical Introduction” [2] asarida metafora orqali inson tafakkurini va hissiyotlarini tushuntiradi. U raqs terminologiyasidagi metaforalarni his-tuyg‘ularni va harakatlarni aniq ifodalashda qo‘llanishini chuqur tahlil qiladi. Masalan, *“to‘lqin”* yoki *“oqim”* kabi metaforalar raqsning silliqligini va doimiyligini tasvirlashda qo‘llaniladi.

Kovecsesning amaliy yondashuvi metaforalarni lingvistik vosita sifatida o‘rganishga yordam beradi. Bu raqs terminologiyasidagi metaforalarni tushunishda va ularni amaliyotda qanday ishlatilishini tahlil qilishda yordam beradi.

Samaritter, Rosemarie. (2013). The use of metaphors in dance movement therapy. Body, Movement and Dance in Psychotherapy [5] maqolada raqs harakati terapiyasida qo‘llanilgan metaforalar keng ko‘lamda tahlil qilingan va raqs orqali ichki kechinmalarni ifodalash jarayoni ta’kidlangan. Masalan, klassik baletda *“yengillik”* metaforasi keltiriladi, bunda ayollar *“parvozlarga o‘xshab”* yer bilan aloqa qilmayotgandek ko‘rinadi. Boshqa misol sifatida Afrikaga oid raqslarda harakatlarning *“yer bilan kuchli aloqasi”* metaforasi beriladi. Bu holatlar raqsning harakatlarida va ular orqali ifodalanayotgan kechinmalarning qanday metaforik shaklda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Maqolada shuningdek, raqs jarayonida harakat orqali metaforalar jonlanishi va bemor bilan terapevt o‘rtasidagi aloqani mustahkamlashda qanday ahamiyatga ega ekani haqida gapiriladi. Masalan, bemor o‘zining ichki kechinmalarini *“og‘ir yuk ko‘tarish”* yoki *“quvonchdan havoga sakrash”* kabi harakat metaforalari orqali ifodalashi mumkin. Bu metaforalar yordamida bemorning ichki dunyosi va his-tuyg‘ulari ifodalanadi va terapiyada qabul qilinadi.

Maqolada raqs jarayonida bemor va terapevt o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni rivojlantirish uchun harakat metaforalaridan qanday foydalanish tavsiya etiladi.

Sally Ann Ness “Body, Movement, and Culture” (1994) [4] o‘z asarida harakat va tilning qanday qilib raqs orqali bog‘lanishini o‘rganadi. Raqs harakatlari ko‘pincha madaniyatga asoslangan bo‘lib, harakatlar va ularni ifodalash usullari turli tillarda farq qiladi. Raqsdagi metaforalar ko‘p madaniyatlarda umumiy bo‘lishiga qaramasdan, ularning ma’nosi madaniy kontekstlarga ko‘ra o‘zgaradi.

Ushbu asar raqs terminologiyasidagi metaforizatsiyani ko‘p madaniyatli nuqtai nazardan tahlil qilish uchun muhimdir. Nessning tadqiqotlari madaniy kontekstlar va lingvistik farqlarni tushunishga yordam beradi.

Metaforalar raqs terminologiyasini chuqurroq anglash va harakatlarni tasvirlashda asosiy rol o‘ynaydi. Metaforizatsiya nafaqat raqsning harakatlarini tushuntirishda, balki bu harakatlar orqali kengroq ma’no yaratishda xizmat qiladi. Quyida raqs terminologiyasida qo‘llaniladigan asosiy metaforalar va ularning tahlili keltirilgan:

1. **“Uchish”** metaforasi: Bu metafora harakatlarning erkinligini va yengilligini ifodalaydi. Masalan, *“Uning harakati qush kabi uchdi”* iborasi raqsda

erkin va dinamik harakatlarni tasvirlash uchun ishlatiladi. Ushbu metafora kognitiv jarayonda yerdan ko‘tarilish va havoda erkin harakatlanish bilan bog‘lanadi.

2. **“To‘lqin”** metaforasi: Raqs harakatlarining uzluksizligi va muvozanatini tasvirlash uchun qo‘llaniladi. Masalan, *“Uning qo‘l harakatlari to‘lqin kabi silliq edi”* iborasi harakatlarning suyuqlik va uzluksizligini ifodalaydi. Bu metafora suvning tekis harakatlanishi bilan bog‘lanib, harakatlarning silliqligini tasvirlaydi.

3. **“Yugurish”** metaforasi: Bu metafora kuchli va tez harakatlarni tasvirlashda ishlatiladi. Masalan, *“Uning raqs harakatlari yugurayotgan shamolga o‘xshardi”* iborasi raqs harakatlarining tezligi va dinamikasini tasvirlash uchun ishlatiladi. [1;52]

Bu misollar raqs harakatlarini aniqroq va tasviriyroq tushuntirishga yordam beradi. Har bir metafora raqsda ishlatiladigan harakatlarga yangi mazmun berib, harakatlarning ta’sirini oshiradi. Metaforalarning lingvistik va kognitiv tahlili raqsning harakatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi va ularning hissiy ta’sirini kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqs terminologiyasidagi metaforalar raqs harakatlarini tushuntirish va tasavvur qilishda katta ahamiyatga ega. Ushbu metaforalar raqsning hissiy va vizual tajribasini kengaytirishga, hamda raqs o‘rganuvchilar va ijrochilar uchun ma’lumotni tushunish jarayonini osonlashtirishga xizmat qiladi. Metaforizatsiya raqs san’atining tilini boyitib, harakatlarni yanada ifodali qiladi.

Raqs terminologiyasida metaforizatsiya jarayoni tilning boyligini va terminlarning xilma-xilligini ko‘rsatadi. Ushbu jarayon nafaqat raqs harakatlarini aniq tasvirlashda, balki ularning madaniy va estetik ahamiyatini ochib berishda ham muhimdir. Metaforalar raqs san’atini chuqurroq anglashga yordam beruvchi vosita sifatida qabul qilinishi mumkin.

Ushbu misollar lingvistik jihatdan shuni ko‘rsatadiki, raqs terminologiyasida metaforizatsiya harakatlarni aniqroq va ifodaliroq tushuntirish uchun keng qo‘llaniladi. Metaforalar abstrakt tushunchalarni jismoniy harakatlar bilan bog‘lab, raqsni yanada tasavvur qilish va his qilishga yordam beradi.

XULOSA

Ushbu adabiyotlar tahlilida ko‘rsatilgandek, raqs terminologiyasidagi metaforizatsiya lingvistik va madaniy jihatdan chuqur tadqiq etilgan. Metaforalar nafaqat harakatlarning mazmunini kengaytiradi, balki raqsni tushunishni osonlashtiradi. Metaforizatsiya jarayoni raqs harakatlarini abstrakt tushunchalar orqali ifodalashda asosiy rol o‘ynaydi va bu jarayon raqs madaniyatini boyitadi hamda raqs o‘rganuvchilar va ijrochilar uchun tushunarli qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqs terminologiyasidagi metaforizatsiya jarayoni lingvistik, kognitiv va madaniy jihatdan chuqur tahlilni talab qiladi. Metaforalar nafaqat harakatlarni tasvirlash uchun ishlatiladi, balki ularning estetik va hissiy ahamiyatini ochib beradi. Metaforizatsiya raqs terminologiyasida harakatlarning ma’nosini kengaytirib, ularni yanada boyroq va ifodali qiladi. Shu bilan birga, raqs san’atini o‘rganuvchilar va ijrochilar uchun

harakatlarni tushunishni osonlashtiradi va ularni vizual va hissiy tajriba sifatida kengroq qabul qilish imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hanna T. Dance and the Lived Body. Cambridge University Press, 1990 – 162 p.
2. Kovecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. Oxford University Press, 2002 – 282 p.
3. Lakoff G., & Johnson, M. Metaphors We Live By. University of Chicago Press, 1980 – 242 p.
4. Ness S. A. Body, Movement, and Culture: Kinesthetic and Visual Symbolism in a Philippine Community. University of Pennsylvania Press, 1992 – 292 p.
5. Samaritter, Rosemarie. (2013). The use of metaphors in dance movement therapy. Body, Movement and Dance in Psychotherapy. 4. 33-43. 10.1080/17432970802682274.

O‘ZBEK SHE’RIYATIDAGI RAMZLARNING LINGVOSEMIOTIK TASNIFI

Usmanova Xumora Ahmadjonovna,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek she’riyatidagi ramzlarning linvosemiotik tasnifi tahlil qilinib, ularning leksik ma’nosi hamda semantik xususiyatlari yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek she’riyati, ramzlar, lingvosemiotik, obraz, lisoniy belgi, semantik, assosiativ.

Abstract. Linvosemiotic classification of symbols in Uzbek poetry is analyzed in the article, their lexical meaning and semantic features are highlighted.

Key words: Uzbek poetry, symbols, linguosemiotics, image, linguistic sign, semantic, associative.

Ramzlar ijodkor (yoki xalq) xayolotining yuqori cho‘qqisi bo‘lib, olam haqidagi tasavvurlarning idrokda qayta ishlangan va mazmun-mohiyati ma’lum belgi va xususiyatlar asosida yaxlit bir obrazda mujassam etilgan shaklidir.

Ramzlar qadimgi darvlardan beri kishilarning o‘zaro aloqa va munosabatlarida muhim vositalardan biri sifatida mavjud bo‘lib kelmoqda. Yunoncha “simvol” so‘zi dastlab chinni yoki sopol parchasini ifodalagan va do‘stona munosabat belgisi sifatida tushunilgan. Mezbon uyiga kelgan mehmonga sopol yoki chinni bo‘lagining bir parchasini bergan, ikkinchi bo‘lagini o‘zida olib qolgan. Keyin qachondir yana ko‘rishganlarida ana shu sopol yoki chinni bo‘lagidan bir-birini tanib olganlar. Demak, bu parcha qadimda ma’lum ma’noda shaxsiy guvohnoma vazifasini bajargan. "Dastlab ramzlar bilan ular ifoda etayotgan ma’nolar o‘rtasidadagi aloqadorlik ancha tabiiy, aniq va motivlangan bo‘lgan, keyinchalik esa shartlilik va mavhumlik kasb eta boshlagan. Masalan,

ko‘zi bog‘langan, qo‘lida qilich va tarozi tutgan ayol - qadimgi yunon afsonalarida adolat ma’budasi Femiada bo‘lib, davrlar o‘tishi bilan uning mifologik ahamiyati yo‘qolgan va ramziy ma’nosigina saqlanib qolgan”. [1, 267] Demak, ramz o‘zining birlamchi ma’nosi bilan aloqasi uzilib, ikkilamchi qatlamga boshqa ma’no tashib o‘tuvchi nom, buyum, belgi yoki hodisadir.

Lingvosemiotika (lingvistik semiotika)dagi asosiy tushuncha lisoniy belgi bo‘lib, u muayyan matnlardagi va muomala vaziyatidagi shakl va mazmunning dialektik birligi sifatida namoyon bo‘ladi. Belgi o‘zi shartli ravishda aloqador bo‘lgan narsa haqida muayyan jamiyat vakillariga xabar beradi. Belgilarning eng muhim va murakkab tizimi tilshunoslik o‘rganadigan tildir. Belgi tizimlari tabiiy (inson tili, xayvonlarning belgi tizimlari) va sun’iy (yasama, sun’iy tillar, dasturlash tili, fizika, kimyo, matematika va mantiqdagi ramzlar tizimi) bo‘ladi. Belgilar va belgi tizimlarini o‘rganishda sintaktika, semantika va pragmatika o‘zaro ajratiladi. Sintaktika nutq zanjirida yoki muayyan matnda ketma-ket, izchil qo‘llanadigan til birliklari o‘rtasidagi o‘ziga xos munosabatlarni o‘rganadi. Semantika belgilarning ular ifodalaydigan ob’yektlar bilan munosabatini o‘rganadi. Pragmatika esa belgilar, ular ifodalaydigan ob’yektlar hamda belgilar tizimidan foydalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadi. “Tabiiy belgilar (priznaklar) aslida belgi hisoblanmaydi. Ular u yoki bu narsa, predmet va hodisalarning muayyan bo‘lagi, tarkibiy qismi bo‘lib keladi. Masalan, darsga kirish yoki darsdan chiqish haqida xabar beruvchi qo‘ng‘iroq, poyezdning kelayotganligi yoki harakati – yurishi boshlanayotganligi haqida darak beruvchi ovoz – gudok, yomg‘ir yog‘ishidan xabar beruvchi to‘plangan bulutlar, shamolning esayotganidan darak beruvchi daraxt uchlarining qimirlashi, qordagi oyoq izi va boshqalar. Demak, ushbu tabiiy belgilar – alomatlar inson ongida – xotirasida muayyan tasavvurlarni hosil qiladi, “uyg‘otadi”. Olim sun’iy belgilar shartli belgilar bo‘lib, haqiqiy belgilar hisoblanishi, ular tabiiy belgilardan – alomatlardan farqli ravishda muayyan informatsiyani to‘plash, saqlash va yetkazish uchun, predmet va hodisalarni, tushuncha va hukmlarni tasavvur qilish, o‘rnini bosish uchun xizmat qilishini, ammo ularning tarkibiy qismi bo‘la olmasligini qayd etadi. Shartli belgilar ichida haqiqiy belgi – kommunikativ belgi til birligi hisoblanadi. So‘z asosiy belgi bo‘lib, u tushunchaning vakili, ifodalovchisi, uning simvolidir. U qabul qilinish va o‘zida mustahkamlangan informatsiyani tashish qobiliyatiga egadir. [2,182]

Ramzlar qadimgi darvlardan beri kishilarning o‘zaro aloqa va munosabatlarida muhim vositalardan biri sifatida mavjud bo‘lib kelmoqda. Ularning insoniyat tarixida mnemonik – ilk yozuvning shakllanishiga asos bo‘lganligi dalillangan faktdir. Ramzlar insonning muayyan fikr va his-tuyg‘ularini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrda ularning mazmun-mohiyatini anglash, ularni yozma va og‘zaki nutqda o‘rinli qo‘llash, har bir soha bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarda ramzlarning mohiyatini yoritib berish, izohlash, anglash, tushuntirish hamda asarlarning mazmunini aniq ifodalash kabi masalalar muhim bo‘lib turibdi. [3,102]

XX asr mutafakkirlaridan biri E.Frommning ramzlar xususida aytgan quyidagi fikri e’tiborlidir: “Ramzlar tilini maktablarda chet tilini o‘rganganday o‘qitish kerak”.

Ramzlarning lingvistik tabiatini o‘rganish jarayonida ramzlar insonlarning nutq madaniyati, til boyligi va xulq-atvorini ko‘rsatuvchi, nutqning rang-barangligi hamda ta’sirchanligini ta’minlash uchun xizmat qiluvchi lisoniy-nutqiy hodisa ekanligi tushunildi. Ma’lumki, belgi inson ongida ifoda yoki ramz tarzida aks etadi. Madaniyat ramziy shakllar tarzida voqelikda mavjud bo‘ladi. Ramz fan va san’atda o‘ziga xos mazmun kasb etadi. U fanda, chunonchi, mantiq, matematika, tilshunoslik va boshqa fanlarda, asosan, belgi tushunchasini, san’atda esa obrazning majoziy ma’nosini ifodalash uchun xizmat qiladi. Ramz allegoriyadan ma’lum xususiyatlariga ko‘ra farq qiladi. Ramzning ma’nosi uning obrazi strukturasi bilan o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘ladi, mazmuni esa cheksiz ko‘p ma’nolilik xususiyatiga ega. Ramz moddiy narsalar va voqeliklarning belgi yoki obraz tarzida ifodalangan mazmunidir. Uning mohiyatini mantiq doirasida aniq ta’riflash qiyin. U idrok etuvchi sub’yektning qizg‘in faoliyatiga mo‘ljallangan serma’no tizimdir.

Ramziy faoliyat faqat inson tafakkuriga xosdir. Til, mif, din, umumiy tarzda aytilsa, ramziy shakllardan iborat bo‘lib, ularning vositasida inson o‘zini qurshagan muhitni tartibga soladi. E’tiborli jihati shundaki, ramzning ma’nosi faqat insonlar muloqoti doirasidagina amalda mavjud bo‘ladi. Ramzlar keng iste’molliligi nuqtayi nazaridan alohida ajralib turadi, ular ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma’rifiy-ma’naviy hayotda ham, fanda ham, san’at, chunonchi, badiiy adabiyotda ham keng qo‘llaniladi. Biroq ramz mazkur soha yo‘nalishlarda turli vazifalarni bajarishiga ko‘ra farqlanadi. Shunga asoslanib, ramzlarni quyidagi mavzuiy guruhlar bo‘yicha tasniflash mumkin:

a) ijtimoiy hayotda qo‘llanuvchi ramzlar;

b) siyosiy ramzlar;

v) iqtisodiy hayotda qo‘llanuvchi ramzlar;

g) madaniy, ma’rifiy-ma’naviy hayotda qo‘llanuvchi ramzlar;

d) fanlar tizimidagi ramzlar;

j) san’at, chunonchi, badiiy adabiyotda qo‘llanuvchi ramzlar.

Ijtimoiy turmushdagi ramzlar, asosan, kommunikativ, ya’ni kishilarning o‘zaro aloqa vositasi, fanlar tizimidagi ramzlar ma’lum tushuncha ifodalash, adabiyotdagi ramzlar esa kechinma, holat va voqelikni badiiy-estetik anglatish vazifasini bajaradi. [3,103]

Ijtimoiy hayotda qo‘llanuvchi ramzlar sirasiga, jamiyat hayoti bilan bog‘liq, ijtimoiy bo‘yoqqa ega bo‘lgan ramzlar kiradi. Masalan, suv – hayot manbai, farovonlik va to‘kinchilik ramzi; olov – tirikchilik, oila; qizil olov – xavf-xatar belgilarini anglatgan. Tadqiqotchi F.Karimova olov kulti haqidagi qarashlarini bayon qilar ekan, ajdodlarimiz hayotida olov – homiylik timsoli sifatida talqin etilgani, olov kishilarning turmushida, kasb-korida hamisha madadkor sifatida qaralgani haqidagi fikrlarni qayd etadi. Xalq ertaklarida ayolni o‘choq bekasi

sifatida talqin qilinadi. S.Sh.Chagdurov talqinicha, xat – olov va un – suffiksidan yasalgan xatun so‘zi qadim turkiycha – olov bekasi deganidir. [4, 126]

Quyosh – o‘zbek milliy madaniyatida yorug‘lik, baxt-saodat, tinchlik ramzi sifatida tushunilgan. Dunyo xalqlari og‘zaki ijodida nur manbasi hisoblangan quyosh obraziga ezgulik ramzi sifatida qarash shakllanib kelgan. Demak, “quyosh – barcha xalqlarga ma’lum bo‘lgan eng qadimgi kosmik ramz; hayot manbai, yorug‘likni bildiradi. Quyosh ramzlari bilan ustuvorlik, hayot yaratish, faollik, qahramonlik negizi, hamma narsani bilish kabi xususiyatlar bog‘lanadi”.[6, 34] Shuningdek, quyosh obrazi badiiy ijodda erk, hurlik, komillik singari tushunchalar timsoli sifatida ham qo‘llanilgan.

Bulut rangi, shakli va hajmiga qarab g‘oliblik va hukmronlik ramzi, xavf-xatar ramzi, ob-havoni bildiruvchi belgi sifatida talqin qilinadi.

Soyabon – himoyalanganlik, xotirjamlik ramzi bo‘lsa, chamanzor – obodlik, tinchlik, farovonlik ma’nolarini anglatadi.

Ijtimoiy ramzlar ichida eng ahamiyatlisi qush ramzidir. Qush – avvalo inson ongida erkinlik va hurlik semalari bilan assosiatsiya hosil qiladi. Qolaversa, tarixdan ma’lumki, ko‘pgina imperiyalar va davlatlar ramzida qush obrazi bo‘lib, ular kuch-qudrat, erkinlik va ozodlik motivlarini o‘zida mujassam etadi. Qush - borliqni his qilish va tabiatning ramzi, belgisidir. Burgut-qushlar shohi. U qadimgi Sharq va skif madaniyatida ba’zan sulola, ba’zan esa koinot ramzi bo‘lgan. Tovus ko‘p madaniyatlarda eng chiroyli qush va go‘zallik ramzi hisoblanadi. Xitoy afsonalarida Yao qushi baxtli juftlik, ya’ni oila ramzi bo‘lgan. Qadimgi yunon mifologiyasida boshi ayollar boshiga o‘xshash bo‘lgan qushlar – garpiyalar yovuzlik va qabohat timsollari bo‘lgan. Burgutlar yaralganidan kuch-quvvat, zafar va erk ramzi bo‘lib kelgan. Chunki burgutlarchalik inini yuqoriga quradigan va uni qattiq himoyalaydigan boshqa qush yo‘q. Qadim zamonlardan buyon ushbu ulug‘vor qush imperiyalar ramzi bo‘lib xizmat qilgan. Ikki boshli burgut juda ommabop geraldik mavjudot bo‘lib Rossiya gerbida aks ettirilgan. Shuningdek, Germaniya, Meksika, Avstriya, Armaniston, Indoneziya, Avstraliya, Iroq, Ruminiya, Moldaviya, AQSH kabi mamlakatlarning davlat ramzlaridagi qush tasvirlari qushning hukmronlik, kuch-qudrat va g‘oliblik ramzi sifatida tushuniladi. O‘zbekiston Respublikasining davlat gerbida aks etgan Humo qushi baxt-saodat va erksevarlik ramzidir.

Narsa, hodisa yoki tushunchalarning ramz sifatida shakllanishi o‘ziga xos mental, semantik, assosiativ va milliy-etnik asoslarga ega. Ramzlar turli xildagi leksik ma’no anglatuvchi birliklar negizida hosil bo‘la oladi. Ularni semiotik xususiyatiga ko‘ra, asosan, fitomorfik ramzlar, zoomorfik ramzlar, mifomorfik ramzlar, teonimlar va agionimlar bilan bog‘liq ramzlar, kosmogonik ramzlar, raqamlar bog‘liq ramzlar, ranglar bog‘liq ramzlar orqali tasniflash mumkin.

Yuqorida keltirilgan ramzlarni tasniflash, ular bilan bog‘liq leksik ma’nolari, semiotik xususiyatlari bir qancha she’riy misollarda o‘rganiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев А. Рамз ифодаловчи воситалар тадқиқига оид. “ Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Андижон, 2021.21.05. – В. 267.
2. Р.Расулов.Умумий тилшунослик. –Тошкент, 2013. – Б. 182-183.
3. Саидова Ё.С., Шарипова Д.Ш., “Рамзларнинг лексик-семантик хусусиятлари”. Бухоро давлат Университети Илмий ахбороти. 2020. 1(77). – Б. 102-103. УДК: 81’373/612.4
4. Каримова Ф. Олов-ҳомий, олов-эзгулик рамзи. International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from New York, USA https://conferencea.org Feb. 28th 202. – Б. 126.
5. Мингбоева Д..Тимсолар тилсими. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – Б. 34.
6. Расулов Р.Умумий тилшунослик. –Тошкент, 2013. – Б. 182-183.

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA KINOYANING IFODA VOSITALARI TADQIQI

Turdimatova Madinaxon Ravshanbek qizi
FarDU o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola stilistik vosita hisoblangan kinoyaning dunyo miqyosida tadqiqi va uning badiiy matnlarda yoki so‘zlashuv jarayonida uchraydigan o‘ziga xos xususiyatlari tadqiqiga bag‘ishlangan. Ushbu stilistik vositaga berilgan umuiy xulosalar shuni nomoyon etadiki, ingliz va o‘zbek tilshunoslarining fikricha, kinoya o‘zida metoforik ko‘chma ma’no hamda kontekstualikda ifodalangan komiklikni ham ifodalashi mumkin.

Kalit so‘zlar: kinoya va obraz, ko’chim turi, estetik munosabat, tropik yoki ritorik vosita, “Ironiya”, kinoya murojaatchisi.

Abstract. This article is devoted to the global research of irony, which is considered a stylistic tool, and to the study of its specific features found in artistic texts or in the process of conversation. The general conclusions given to this stylistic device show that, according to English and Uzbek linguists, irony can express both metaphorical figurative meaning and contextually expressed comicness.

Key words: irony and image, type of trop, aesthetic attitude, trope or rhetorical tool, "Irony", irony referent.

Dunyo adabiyotshunosligida kinoyaning turli sifat ko’rinishlari, ifoda vositalari, parodiya, paradoks, grotesk kabi badiiy ko’rinishlari, kinoyaviy obraz talqini va tasnifi bo’yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Badiiy asar strukturasida kinoya va obrazning o’rni, kinoyaviy asarda yozuvchining individual mahoratini yoritish, voqelikka kinoyaviy munosabatni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash dolzarb vazifalardan biri bo’lib qolmoqda. Bugungi kunda zamonaviy jahon adabiyotshunosligi badiiy adabiyot orqali olamni falsafiy

anglashda kinoyaning o’rni va ahamiyatini jahon fani erishgan eng yangi ilmiy tamoyillar va yondashuvlar asosida o’rganishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, milliy adabiyot namunalaridagi kinoya va obraz masalasini zamonaviy talablar asosida tadqiq etish jahon adabiyotshunosligidagi muhim masalalardan bo’lib qolmoqda.[154]

Hozirgi davrda jahon miqyosida kinoya hodisasini o’rganishning asosiy yondashuvlari orasida bir nechta asosiy yo’nalishlar mavjud. Bular esa quyidagilardan iborat:

1. Kinoya hodisasini o’rganishga tarixiy yondashuv. Bunda ko’proq o’tmishdagi kinoya shakllari e’tiborga olinadi. Uning zamonaviy postmodern kontekstda va ayniqsa, hozirgi sharoitda mavjud ko’rinishlari nazardan chetda qoladi.

2. Kinoyaga komiklik (kulgi yaratish, havj qilish) shakllaridan biri sifatida yondashuv.

3. Kinoyaga lingvistik, ya’ni tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashuv. Bunda kinoya ko’proq trop (ko’chim turi) sifatida o’rganiladi va uning o’ziga xos estetik xususiyatlari e’tibordan sal chetda qoladi.

4. Kinoyaga ma’naviy hodisa va ijodkorning o’z individual badiiy mahoratini aks ettirishning o’ziga xos usuli sifatida yondashuv.

5. Kinoyaga estetik munosabatning bir turi sifatida yondashuv.

6. Postmodernizmning ijtimoiy-madaniy makonida va badiiy amaliyotida kinoya, istehzo roli yaqqol o’sishining sabablarini o’rganish. Shunday qilib, kinoyaga bu tarzda har xil yondashuvlar tufayli shuni ta’kidlash mumkinki, bugungi kunda kinoyaning individual ontologik mexanizmlarini (masalan, tropik yoki ritorik vosita sifatidagi kinoya) emas, balki uning ichki mexanizmlarini yaxlit tizim sifatida ochib beradigan tizimli estetik tadqiqotlar mavjud emas.

Antik davrdan beri kinoya muammosiga qiziqish doimiy o’sib borgan. Antik davrda o’sha davrning ob’ektiv ehtiyojlari va davrning umumiy madaniy, estetik holati bilan bog’liq holda, inson hayotining ushbu tomoniga e’tiborning kuchayishi tufayli kinoya muammolari juda faol muhokama qilingan va o’rganilgan. O’rta asrlarda kinoyaga bo’lgan munosabat dinning ta’sirida yanada murakkablashgan. Xususan, Yevropada cherkov madaniyatining qadriyatlari va mexanizmlari hukmronlik qilgan davrda kinoya odamlarning gunohkorligi muammosi bilan bog’liq holda ifoda etilgan. Uyg’onish davrining boshlanishi bilan cherkovning madaniyat sohasidagi ta’siri zaiflashgani, shaxsiy erkinlik va shaxsiyatni ijodiy namoyon etish muammolariga qiziqish kuchayishi sababli, kinoyaga e’tibor yanada dolzarblashdi. Ma’rifatparvarlik davrida barkamol shaxs muammosi ratsionalizm negizida kinoya hodisasini tushunish muammosiga qaytishga majbur qildi. Bu, birinchi navbatda, shaxs rivojlanishining eng muhim omillaridan biri sifatida

[154] Shofiev O. B. Erkin A’zam nasri badiiyati (kinoya va obraz). Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2019. – 5 b.

odamda hazil tuyg'usini rivojlantirish zarurligi haqidagi postulatni o'rganish kontekstida sodir bo'ldi.[155]

Jahon badiiy tafakkurining keyingi yuz yillik taraqqiyotida kinoyaning ustuvor ahamiyat kasb etishi, postmodernistik adabiy asarlarda yetakchilik qilishi o'zbek adabiyotiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdiki, shuning natijasida 70–80-yillar o'zbek nasrida juda murakkab va ziddiyatli g'oyaviy badiiy vazifalar kinoya zimmasiga yuklandi va u davr adabiyoti qiyfasini belgilaydigan muhim xususiyatga aylandi. Ayni paytda 70–80-yillar she'riyati va nasri mafkuraviy qoliplardan chiqa olgani holda adabiyotshunoslik bu borada ortda ekanligi sezilib qoldi. Shuning uchun ham kinoyaning estetik kategoriyalar tizimidagi o'rnini aniqlab, uning o'zbek nasridagi maqomini tayin etish, yozuvchi ijodiy tadriji hamda adabiy badiiy asar strukturasida tutgan o'rnini belgilash, romantik dunyoqarash transformatsiyasiga ta'sirini, kinoyaviy asarning retseptiv xususiyatlarini, voqelikka kinoyaviy munosabatning ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash hozirgi o'zbek adabiyotshunosligining dolzarb vazifalaridan biridir.[156]

"Ironiya" yunoncha eironeia (eirōneia) so'zidan kelib chiqqan bo'lib va uning kelib chiqish ildizi miloddan avvalgi V asrga to'g'ri keladi. Bu atamaning o'zi "Qadimiy komediya" dagi (masalan, Aristofanning) Eiron deb nomlanuvchi kishi nomidan kelib chiqqan. U o'ziga qaraganda kamroq aql-idrokni gavdalantirgan – Alazon (uning raqibi) bo'lib, ohir oqibatda uning ustidan g'alabaga erishgan Eiron xarakteriga nisbatan ishlab chiqilgan.[157] Bu shunga ishora qiladiki, o'zidan ijtimoiy, mantiqiy, aqlan darajada quyida turgan insonni o'ziga raqib hisoblab, o'zini ulug'vor va maqtanchoqlik jihatlari bilan nom qoldirgan xarakter hisoblanadi.

Dastlabki qarashlarda kinoya yolg'on so'zining sinonimi sifatida qaralgan bo'lsa-da, Platonning dialoglarida eironeia "tomoshabinlar yoki tinglovchilar anglay olishi mumkin bo'lgan va ayanan shu g'oya nazarda tutilgan stimulyatsiya" sifatida o'zining yangi ma'nosida nomoyon bo'ldi.[158] Oddiyroq qilib aytganda, u "odatda mazmun-mohiyatning aksiga ishora qiluvchi, ko'p hollarda hazil yoki ta'kidga urg'u berish uchun hizmat qiladigan til vositasi" singari umumiy va izchil ta'rifga ega bo'ldi.[159]

Undan keyinngi bosqich tahlillarida: uyg'onish davrigacha lotin ironiyasi eramizdan avvalgi I asr boshlarida Sitseron va Kvintilian tomonidan tashkil etilgan yo'nalish bo'yicha ritorikaning bir qismi, odatda allegoriya turi bo'lib hisoblangan.

---

[155] Mavlonova O'. Amerika nasrida kinoyaning poetik ifoda xususiyatlari. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Buxoro – 2023. 13 – b.

[156] Sheralieva M. Hozirgi o'zbek nasrida kinoya (ijtimoiy-psixologik omillari, poetik tizimdagi o'rni). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent – 2017. 5 – b.

[157] Abrams, M. H.; Harpham, Geoffrey (2008). *A Glossary of Literary Terms*. Cengage Learning. p. 165. ISBN 978-1413033908.

[158] Colebrook, Claire (2004). *Irony*. Psychology Press. p. 6. ISBN 978-0415251334.

[159] OED staff (2016). "Irony, n." *Oxford English Dictionary* (3rd ed.). Oxford University Press. Retrieved Jan 23, 2016.

“Irony” ingliz tiliga XVI asrda lotin tilidan kirib kelgan fransuz ironiyasiga o‘xshash ma’no bilan nutq figurasi sifatida kirdi.[160]

Taxminan XVIII asrning oxirida “Ironiya” boshqa ma’nolarni ham kasb eta boshladi, birinchi navbatda kinoyaga chuqur ma’no va izchillik olib kirgan ilk nemis romantizmi deb nom olgan Fridrix Shlegelning qo‘shgan hissasisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. U istehzo tushunchasini kinoya bilan yondosh tushuncha sifatida ilgari suradi, va kinoya - bu shunchaki “badiiy bo‘yoqdorlik” emas, balki “adabiy ijodning ongli shakli”, odatda “tasdiqlash va inkorning izchil almashinuvi”ni qamrab oladi.[161] Umuman olganda, shunchaki ritorik vosita emas, balki ularning tushunchasiga ko‘ra, kinoya dunyodagi butun metafizik pozitsiyani anglatadi.

Ba’zi tadqiqotlarda kinoyaning yopiq qirralarini kashf etishda tilshunoslikda kognitivlik hodisasi orqali ham tadbiq etilgan. S. Balashevning tadqiqotiga ko‘ra kinoya atrofdagi olam haqidagi ma’lumotlarni qayta ishlash, saqlash va undan keyingi foydalanish jarayonini o‘z ichiga olgan kognitiv xarita orqali ko‘rsatib berilgan.[162] Ma’lumki, muayyan shaxsning individual xususiyati muloqoot jarayonida sayqallandi, suhbat jarayonida nechog‘lik haqiqatga yaqin so‘zlarni yetkazib berish ham insonning tafakkuri natijasidir. Kognitiv xaritaning izchil yo‘lga qo‘yilishi, insonning nutqida idrok etilgan ma’lumotni sifatiga bog‘liq bo‘ladi. Ayniqsa, nutqda ifodalanayotgan materialning “ohori to‘kilmagan”, o‘z ma’nosiga egaligi kabi xususiyatlarini o‘zida aks ettirishidir. Kinoya murojaatchisi ma’lumotlardan foydalangan holda o‘z kognitiv xaritasida qarama-qarshi kognitiv tuzilmani shakllantiradi. Bunda kognitiv shakllanish neytral tarzda nomoyon bo‘lsada, kognitiv xaritada esa qarama-qarshilik mavjudligini ko‘rsatadi.


Natijada paydo bo‘lgan konflikt kinoyaviy ma’noning mavjudligi omili sifatida talqin qilinadi. Shunday qilib, S. Balashevning tadqiqotiga ko‘ra kinoya modeli to‘rt bosqichdan iborat:

---

[160] Colebrook, Claire (2004). *Irony*. Psychology Press. p. 7. ISBN 978-0415251334.

[161] Preminger, Alex; Brogan, Terry V. F. (1993). *The New Princeton Encyclopedia of Poetry and Poetics*. MJF Books. p. 634. ISBN 978-1567311525.

[162] Балашов Сергей Николаевич. Когнитивная природа иронии: парадигма моделей в сопоставительном описании (на материале английских художественных произведений XX века и их русских переводов) 10.02.20. – «Сравнительно-историческое, типологическое и сопоставительное языкознание» АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание учёной степени кандидата филологических наук Екатеринбург – 2006, – С. 12.



Tilshunos olim R. Gibbs kinoyaga fikrini izohlar ekan, metafora, metonimya, ibora va kinoyani fikrlash vositasi sifatida tahlil qilgan.[163] Gibbs olib borgan tadqiqotlarida kinoyaga oid dolzarb fikrlarni keltirgan va ular quyidagicha:

1. Kinoya bu metoforik (ko‘chma ma’noda) fikrlash shakli.
2. Kontekst metoforik fikrning ma’nosi uchun juda muhim.
3. Madaniy va lingvistik tushunchalar kontektsda yaqqol nomoyon bo‘ladi.

R. Gibbsning psiholingvistik qarashlari metafora va kinoya uslubiy vositalarini bir o‘rinda tilga olishi bu ikki vositaning bir til sathida sodir bo‘ladigan voqelik sifatida qarashidir. Kinoya va metafora ma’no ko‘chishi jihatidan o‘zaro o‘xshash xarakterni nomoyon qilsada, pragmatik ma’no kinoyada keng va turfa xillikni mujassam etadi. Metaforada esa bu ma’no tog‘ridan-to‘g‘ri ko‘chim (trop) sifatida ko‘zga tashlanadi.

Kontekst va matn tushunchalari o‘zaro semantik ma’nosiga egaligi jixatidan diqqatga molikdir. Negaki, matn kinoya va boshqa uslubiy vositalarni ko‘chma ma’nosi bilan uyg‘unlashtirib beradi deyish kontektsga ham muvofiq tushadi. Biroq og‘zaki va yozma o‘rinlarda kontekst har ikki xususiyatni o‘zida nomoyon qilsa, matn faqat bir taraflama yozma nutqqa ishora qiladi. Kinoyaning matnda ya’ni yozma nutqda tahlili matn yaratuvchi komponent sifatidagi o‘rni bilan baholanadi. O‘. Mavlonova ham shuni nazarda tutgan holda, “Matnni tashkil etuvchi kinoyani faol boshqarishning eng kichik vositalari matnlararo inklyuziyalardir. Kinoya bilan yaratilgan matnlar freyd motivlari bilan ajralib turadi. Bunda yana matnning eng muhim matn yaratuvchi komponenti – sarlavha ba’zi hollarda matnni psixoanalitik asosda talqin qilish imkoniyatini beradi. Kinoya komiklikning bir shakli sifatda metamatn, yangi madaniyatning maxsus, o‘ziga xos matni, uning tuzilishi bir til tizimning o‘ziga xos matni va nutq kontekstining birligi asosida shakllanadi[164]” deya izoh beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abrams, M. H.; Harpham, Geoffrey (2008). *A Glossary of Literary Terms*. Cengage Learning. p. 165. ISBN 978-1413033908.

[163] Gibbs, R. W., Jr. (1994). The poetics of mind. Cambridge: Cambridge University Press.
[164] Mavlonova O’. Amerika nasrida kinoyaning poetik ifoda xususiyatlari. Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Buxoro – 2023. – b.19.

2. Colebrook, Claire (2004). *Irony*. Psychology Press. p. 6. ISBN 978-0415251334.
3. Colebrook, Claire (2004). *Irony*. Psychology Press. p. 7. ISBN 978-0415251334. Preminger, Alex; Brogan, Terry V. F. (1993). *The New Princeton Encyclopedia of Poetry and Poetics*. MJF Books. p. 634. ISBN 978-1567311525.
4. Mavlonova O'. Amerika nasrida kinoyaning poetik ifoda xususiyatlari. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Buxoro – 2023.
5. Mavlonova O'. Amerika nasrida kinoyaning poetik ifoda xususiyatlari. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Buxoro – 2023.
6. OED staff (2016). "Irony, n." *Oxford English Dictionary* (3rd ed.). Oxford University Press. Retrieved Jan 23, 2016.
7. Sheralieva M. Hozirgi o'zbek nasrida kinoya (ijtimoiy-psixologik omillari, poetik tizimdagi o'rni). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent – 2017.
8. Shofiev O. B. Erkin A'zam nasri badiiyati (kinoya va obraz). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2019. – 5 b.
9. Балашов Сергей Николаевич. Когнитивная природа иронии: парадигма моделей в сопоставительном описании (на материале английских художественных произведений XX века и их русских переводов) 10.02.20. – «Сравнительно-историческое, типологическое и сопоставительное языкознание» АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание учёной степени кандидата филологических наук Екатеринбург – 2006, – С. 12. Gibbs, R. W., Jr. (1994). The poetics of mind. Cambridge: Cambridge University Press.

KOGNITIV STILISTIKANING ASOSIY TERMINLARI.

Saydaliyeva Mahliyo
Qo'qon DPI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Dastavval kognitiv tilshunoslikning nazariy bilimlarini asos qilib olgan kognitiv stilistika bugungi kunda o'z nazariy bilimlar to'plamini kengaytirib bormoqda. Bu bilimlarning to'ldirilishida psixologiya fanidagi terminlar ham kognitiv lingvistik terminlar qatori o'z o'rniga ega. Ammo tilni kognitiv tasvirlash orqali tushunish va tushuntirish haqidagi bilimlar deyarli yarim asrdan beri mavjud bo'lishiga qaramay, bir ma'noni anglatuvchi lekin turlicha nomlanuvchi atamalarni ham uchratish mumkin. Bunga sabab til va ong masalalari turli sohalar, jumladan psixologiya, sun'iy intellekt, lingvistika, pedagogika kabilarda o'rganilishidir.Mazkur maqolaga kognitiv stilistik terminlar ko'rib chiqiladi.

Abstract. Initially, cognitive stylistics, based on the theoretical knowledge of cognitive linguistics, is currently expanding its theoretical knowledge base. In the enrichment of this knowledge, terms from psychology also hold their place

alongside cognitive linguistic terms. However, despite the fact that knowledge about understanding and explaining language through cognitive representation has existed for almost half a century, it is still possible to encounter terms that denote the same meaning but have different names. This is due to the fact that the issues of language and consciousness are studied in various fields, including psychology, artificial intelligence, linguistics, and pedagogy. This article will discuss cognitive stylistic terms.

Kalit so‘zlar: kognitivstilistika, sxemanazariyasi, konstruksiya, matn-dunyonazariyasi, konseptualmetafora.

“So‘nggi vaqtlarda til yoki kognitiv jarayonlar (yoki har ikkalasi) bilan bog‘liq bir qator fanlarda odamlarning konseptual tuzilmalariga turli nomlar berildi: skriptlar, sxemalar, aqliy modellar, kognitiv modellar, ramkalar, aqliy bo‘shliqlar va kontsepual ramkalar, shuningdek, dunyolar, ideal kognitiv modellar. Garchand bu atamalar turli xil o‘rganish sohalarida paydo bo‘lgan va mutlaqo boshqacha maqsadlarda taklif qilingan bo‘lsa-da, bu atamalarning barchasi odatda biz tilni konseptsiyalashtirgan aqliy tasavvurlarga ishora qiladi”[165]. Yuqorida aytilgan sinonimlar ichida kognitiv stilistik tahlillarda eng keng tarqalgan shakl bu **sxema**.“Kognitiv stilistikaning asosiy g‘oyasi sxema nazariyasi bo‘lib, unda ma’no faqat matnga taalluqli emas, balki o‘quvchi o‘zining ilgari olingan bilimlaridan foydalangan holda ma’noni tushunishida”[166]. Sxema nazariyasi - bu kognitiv nazariya bo‘lib, u odamlarning ongida ma’lumotni qanday tartibga solish va qayta ishlashini tushuntiradi. Birinchi marta 1930-yillarda psixolog Frederik Bartlett[167] tomonidan kiritilgan bu termin, keyinchalik boshqa kognitiv psixologlar tomonidan kengaytirilgan. Sxema nazariyasining asosiy g‘oyasi shundaki, “odamlar o‘z hayoti va madaniyati haqida tayyor sxemalar bilan tug‘ilmaydi[168]”, turli tushunchalar, obektlar yoki vaziyatlar haqidagi bilimlarni ifodalovchi aqliy ramkalar yoki sxemalarni vaqt o‘tgani sari shakllantirib boradi. G.Yule sxemaga “Bizning xotiramizda mavjud bo‘lgan an’anaviy bilim tuzilishi"[169], deb ta’rif bergan edi. Ushbu sxemalar odamlarga atrofdagi dunyoni tushunish, sharhlash va boshqarishga yordam beradigan shablon yoki aqliy tuzilmalar sifatida ishlaydi. “Sxema nazariyachilari odamlarga notanish vaziyatlarni xotirada saqlanadigan, tanish kontekstlar bilan bog‘liq bo‘lgan stereotipli voqealar ketma-ketligi bilan taqqoslash orqali tushunishni taklif qilishdi”[170]. Bu fikr barcha sohalardagi kognitiv tahlillar uchun umumiy bo‘lsa ham, insonning muloqot jarayonida beixtiyor bu ishni amalga oshirishi muloqotdagi tushunmovchiliklarni bartaraf etib, ravon

[165]Gavins J. Text World Theory: An Introduction. – United Kingdom: Edinburgh University Press, 2007. – P. 14

[166] Emmott C, Alexander M, Marszalek A. Schema theory in stylistics. In Burke, M. (Ed.),– Routledge, 2014.

[167] Bartlett F. Remembering. A Study in Experimental and Social Psychology. 1932. https://scholar.google.com/scholar?cluster=4571489267011488416&hl=ru&as_sdt=2005&sciodt=0,5#d=gs_cit&t=1699381236215&u=%2Fscholar%3Fq%3Dinfo%3Aj8DWk1KjfrcJ%3Ascholar.google.com%2F%26output%3Dcite%26scirp%3D1%26scfhb%3D1%26hl%3Dru (Murojaat sanasi 07.11.2023)

[168]Jaafar E.A. Schema Theory and Text- worlds: A Cognitive Stylistic Analysis of Selected Literary Texts. Journal of the College of Education for Women, 31(2). – Baghdad, 2020. –P54.

[169] Yule G. The study of language.(4th edition) – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – P. 150.

[170]Gavins J. Text World Theory: An Introduction. – United KingdoM: Edinburgh University Press, 2007. –P. 14

kommunikatsiya olib borish imkonini beradi. “Sxema nazariyasi ikki tomonlama bo‘lib, pastdan yuqoriga yoki stimulga asoslangan jarayon, shuningdek yuqoridan pastga yoki konseptual tarzda boshqariladigan jarayon deb nomlanadi”[171]. Sxemalar hayot davomida orttirilgan tajribalarga asoslanadi va yangi ma’lumotlar olinganda doimiy ravishda yangilanadi. Sxema nazariyasi bizning oldindan mavjud bo‘lgan aqliy tuzilmalarimiz va taxminlarimiz ma’lumotni idrok etish, qayta ishlash va eslab qolish usullarini qanday shakllantirishini tushunish uchun asos yaratadi. “Hamma odamlar sxemalarga ega. Ushbu sxemalar nafaqat nimanidir tushunish, balki bizning muhitimizda sodir bo‘layotgan vaziyatlarni bashorat qilish uchun ham ishlatilishi mumkin”[172]. O‘quvchi o‘ziga yaxshi tanish bo‘lmagan mavzudagi matnni tushunishda qiynalayotganda, mavzuga oid ongda mavjud bo‘lgan sxema asosida ma’lumotni tahlil qilib, tushunishga harakat qiladi.

Konstruksiya[173]. Ronald Langaker tomonidan taklif etilgan bu termin, odamlarning atrof-muhitdagi ma’lumotlarni idrok etishi, sharhlashi yoki aqliy ravishda ifodalash usullarini anglatadi. Bu termin kognitiv tahlillardagi tanlovlar ongga qanday ta’sir etishini o‘rganadi. Aslini olganda, konstruksiya odamlarning dunyo haqidagi tushunchalarini aqliy ravishda qanday qurishidir. Lingvistik konstruksiya tilning odamlardagi ma’lumotni idrok etish va talqin qilish usullarini qanday shakllantirishi va ularga ta’sirini o‘rganish uchun qo‘llaniladi. Bu so‘z tanlash, jumlalar tuzilishi va ramkalar kabi lingvistik tanlovlar g‘oyalar yoki tushunchalarning aqliy ifodalanishiga qanday ta’sir qilishini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Aslini olganda, lingvistik konstruksiya til va bilish o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadi va til bizning dunyo haqidagi tushunchamizni qanday shakllantirishi mumkinligiga urg‘u beradi. Konstruksiyaga turli omillar, jumladan, insonning kognitiv qarashlari, e’tiqodlari, madaniy kelib chiqishi va shaxsiy tajribalari ta’sir qilishi mumkin. “Kognitiv tilshunoslik o‘zgaruvchan iboralar orasidagi tanlovni hisobga olish uchun "konstruktiv" nazariy tushunchasidan foydalanadi. Bitta va bir xil vaziyatni ifodalashning ikkita grammatik imkoniyati, bu vaziyatni tasvirlashning ikki xil usuli mavjud va tanlangan usul aqliy “konstruksiyadir”[174]”. U atrofimizdagi dunyo haqidagi hukmlarimiz, qarorlarimiz va talqinlarimizni shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Tadqiqotlardan birida yo‘nalish konstruksiyasi qanday qurilishi haqida resipentlar kuzatilgan. Natijaga ko‘ra, shahar aholisi yo‘nalishni aytishda o‘ng va chap so‘zlaridan, qishloq aholisi esa atrofdagi narsalar joylashuviga tog‘ tarafga, teparoqda kabi so‘zlardan foydalangan. “Ushbu kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, mos konstruktiv doirani tanlashga mahalliy topografiya, aholi demografiyasi yoki ikkinchi tilni o‘rganish kabi tilga oid

[171] Bartlett. Bu haqida qarang: Maawa S. Abed, Mohamed N. Ahmed. Translating and Relativity within Cognitive Stylistics Perspective. Journal of Namibian Studies : History Politics Culture (2023). –P2546.
[172] Jaafar E.A. Schema Theory and Text- worlds: A Cognitive Stylistic Analysis of Selected Literary Texts. Journal of the College of Education for Women, 31(2). – Baghdad, 2020. -P53.
[173] CONSTRUAL
[174]Divjak D, Milin P, Medimorec S. Construal in language: A visual-world approach to the effects of linguistic alternations on event perception and conception. *Cognitive Linguistics, 31*(1), 37–72 2020. – P. 38.

bo‘lmagan omillar turtki bo‘lishi mumkin”[175]. Insonlarda mavjud konstruksiyalar bir-biridan farq qilishi mumkin. “Inson tajribalarga shunchalik boyki, bir vaziyatni ifodalashning yagona umumiy usuli yo‘q. Konstruktiv (qayta) e’tiborni o‘ziga xos tarzda taqsimlaydi yoki (qayta) e’tiborni vaziyatning ma’lum jihatlariga yo‘naltiradi va foydalanuvchining vaziyat bilan bog‘liq bo‘lgan aqliy tasvir deb ataladigan narsani o‘zgartirish orqali diqqat markazini sozlash qobiliyatini aks ettiradi[176]”.

Matn - dunyo nazariyasi tilshunoslik va nutq tahlilida o‘quvchilar yoki tinglovchilar hikoya yoki nutqni qayta ishlashda ko‘pincha “matn dunyolari” deb ataladigan aqliy tasavvurlarni qanday qurishlarini tushunish uchun foydalaniladi. U Pol Vert[177] tomonidan ishlab chiqilgan. 1990-yillar boshlaridan buyon P.Vert o‘z tadqiqotlarida adabiy matnlarni ishlab chiqish va talqin qilish ortidagi kognitiv jarayonlarni tushuntiradigan uslubiy yondashuvni ishlab chiqdi[178]. Ammo P.Vertning erta vafoti bu nazariyaning to‘liq shakllanishiga to‘sqinlik qildi. P.Vertdan keyingi kognitiv olimlar matn-dunyo nazariyasi asosida matnning turli shakllarini, jumladan, adabiyotlar, yangiliklar matni, maqolalar va kundalik suhbatlarni tahlil qildi. Matn - dunyo nazariyasi bu o‘quvchilar yoki tinglovchilar matn yoki nutq bilan shug‘ullanayotganda yaratadigan aqliy bo‘shliqlar yoki kognitiv tasavvurlar. “Bu insonning xotirasiga, shuningdek, tasavvuriga tayanadi”[179]. Har bir matn-dunyosi voqealar, personajlar va vaziyatlar tasvirlangan alohida kontekstni ifodalaydi. O‘quvchilar hikoyadagi yangi ma’lumotlar yoki o‘zgarishlarga duch kelganda, turli matn dunyolari o‘rtasida almashishlari mumkin. Bu nazariyaning yanada qiziqarli jihati o‘quvchilar matn-dunyoni qurish va yangilash uchun aqliy simulyatsiyalar bilan shug‘ullanishi.Ular tasvirlangan vaziyatlarga aqliy ravishda sho‘ng‘ib, matn ichidagi voqealar va personajlarni tasavvur qilish, tushunish va kuzatish imkonini beradi. Matn- dunyo nazariyasi o‘quvchilarning matn dunyolari ichida va bu dunyolar bo‘ylab ma’lumotni qanday bog‘lashini tushuntirishga yordam beradi.Anaforik havolalar (masalan, olmoshlar) va ko‘prik bo‘lib xizmat qiluvchi iboralar bir matn-dunyodagi elementlarni boshqa dunyodagi elementlarga bog‘laydi. Shuningdek, sababiy bog‘liqlik, makon, vaqt va xarakter motivatsiyasi haqidagi standart taxminlar matn-dunyoni qurishda rol

[175]Nölle J, Fusaroli R, Mills G. J, Tylén K. Language as shaped by the environment: linguistic construal in a collaborative spatial task. *Palgrave Communications*, *6*(1). 2020 https://doi.org/10.1057/s41599-020-0404-9 Murojaat sanasi 19.11.2023

[176]Divjak D, Milin P, Medimorec S. Construal in language: A visual-world approach to the effects of linguistic alternations on event perception and conception. *Cognitive Linguistics*, *31*(1), 2020. –P. 38

[177] Werth P. Text worlds : representing conceptual space in discourse. – London: Longman Higher Education, 1999.

[178]Werth P. Extended Metaphor: A Text World Account’, Language and Literature 3 (2): 1994. Werth P. How to Build a World (in a Lot Less than Six Days and Using Only What’s in your Head), in K. Green (ed.),1995. Werth P. New Essays on Deixis: Discourse, Narrative,Literature, – Amsterdam: Rodopi, 1995. Werth P. World Enough and Time: Deictic Space and the Interpretation of Prose’, in P. Verdonk and J. J. Weber. Twentieth Century Fiction: From Text toContext, London: – Routledge, 1995. Werth P. Conditionality as Cognitive Distance, in A. Athanasiadou and R. Dirven (eds). On Conditionals Again. – Amsterdam: Benjamins, 1997. Werth P. Remote Worlds: The Conceptual Representation of Linguistic Would, in J. Nuyts and E. Pederson (eds). Language and Conceptualization, – Cambridge: Cambridge University Press, 1997.

[179]Werth P. Text worlds : representing conceptual space in discourse. – London: Longman Higher Education, 1999. – P.180

o‘ynaydi.O‘quvchilar ushbu standart va taqdim etilgan ma’lumotlarga asoslanib, hikoyadagi bo‘shliqlarni to‘ldirish uchun xulosalar chiqaradilar.

Ilgari surish[180] adabiyot va tilda qo‘llaniladigan stilistik usul bo‘lib, u matn ichidagi ayrim elementlarni alohida ajratib ko‘rsatish va o‘quvchi yoki tinglovchining e’tiborini jalb qilish uchun ularga e’tibor berish yoki urg‘u berishni o‘z ichiga oladi.Stilistik tadqiqotlarida G.Lich tomonidan fore va ground so‘zlarini qo‘shish orqali paydo bo‘lgan bu tushuncha, badiiy muloqotning umumiy tamoyili sifatida qaraladi. Ushbu elementlar so‘zlar, iboralar, tasvirlar yoki g‘oyalarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, dastlab tilning ekspressiv imkoniyatlarini o‘rganuvchi fan sifatida shakllangan stilistika, bugungi kunda turli fanlaraaro aloqalar natijasida yangi sohaga aylangan. Kognitiv stilistika ham funksional stilistika kabi stilistika fanining bir qismiga aylanib ulgirdi. Bu yo‘nalish ham dastavval adabiy nazariyalar ta’sirida shakllangan, chunki til va adabiyot azaldan hamjihatlikda o‘rganilish predmeti bo‘lib kelgan. “Kognitiv stilistikaning o‘ziga xosligi va ilmiy yangiligi shundaki, unda lingvistik tahlil sistem nuqtai nazaridan, lisoniy vositalar tanlovi kognitiv-strukturalar va jarayonlarga mos nazariyalarga asoslangan usulda amalga oshiriladi”[181]. U bizning til dunyomizni shakllantiruvchi kognitiv jarayonlar bilan tanishishga, bir vaqtning o‘zida bir so‘zning ma’no va ifoda sirlarini ochishga chorlaydi. Bu ko‘p tarmoqli yondashuv bo‘lib, odamlar ma’noni yetkazish uchun tildan qanday foydalanishini va kognitiv jarayonlar lingvistik iboralar talqinini qanday shakllantirayotganini tushunishga intiladi. Ammo, kognitiv stilistik tahlillar orqali matnning kognitiv xaritasiga erishish nisbiydir. Ingliz xalqida “one size does not fit to all”, “o‘zbek tilida besh qo‘l barobar emas” maqollari ortida insonlarning turlicha ekanligi metaforasi turgani bo‘lsa ham, bu ma’noning ifodaanish shakllari xilma-xildir. Ammo, turlicha tushunilishlarga qaramay, ongda ham universalliklar mavjud. Kognitiv-stilistik taqdidotlar garchan ong va nutq munosabatlarini insonda sodir bo‘ladigan aksidek ochib bera olmasa ham, nutqiy jarayonda kechadigan aqliy hodisalarni raqamlashtirish uchun hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gavins J. Text World Theory: An Introduction. – United Kingdom: Edinburgh University Press, 2007.
2. Emmott C, Alexander M, Marszalek A. Schema theory in stylistics. In Burke, M. (Ed.),– Routledge, 2014.
3. Bartlett F. Remembering. A Study in Experimental and Social Psychology.

[180] Foregrounding deb nomlangan bu termin N.Jusupov tomonidan shu nom ostida o‘zbekchalashtirilgan
[181] Джусупов Н. М. Лингвокогнитивный аспект исследования символа в художественном тексте дис. ... канд. филолог. наук : 10.02.19 : утв. 26.03.2006 – Ташкент, 2006. –Б. 14.

4. Jaafar E.A. Schema Theory and Text- worlds: A Cognitive Stylistic Analysis of Selected Literary Texts. Journal of the College of Education for Women, 31(2). – Baghdad, 2020. –P54.

5. Yule G. The study of language.(4th edition) – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – P. 150.

6. Divjak D, Milin P, Medimorec S. Construal in language: A visual-world approach to the effects of linguistic alternations on event perception and conception. Cognitive Linguistics, 31(1), 37–72 2020. – P. 38.

7. Nölle J, Fusaroli R, Mills G. J, Tylén K. Language as shaped by the environment: linguistic construal in a collaborative spatial task. Palgrave Communications, 6(1). 2020 https://doi.org/10.1057/s41599-020-0404-9 Murojaat sanasi 19.11.2023

8. Werth P. Text worlds : representing conceptual space in discourse. – London: Longman Higher Education, 1999.

9. Джусупов Н. М. Лингвокогнитивный аспект исследования символа в художественном тексте дис. ... канд. филолог. наук : 10.02.19 : утв. 26.03.2006 – Ташкент, 2006. –Б. 14.

FAULZ IJODINING ADABIY-FALSAFIY ASOSLARI

Sodiqova Baxtigul Ibodullaevna
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Jon Faulzning ijodi hamda Postmodernizm ekzistensialistik falsafiy va badiiy tamoyillari haqida so‘z boradi. Postmodernistlar o'z asarlarida romanning tarbiya romani, detektiv romani, tarixiy romani, gotika romani va boshqalar kabi asosiy an'anaviy shakllari bilan parodiya o'yinini sahnalashtiradilar. Bu o'yin asosan tarixning ongli parodiyasiga umumiy estetik yo'nalish bilan bog'liq. “Faulzshunoslar” adibning serqirra ijodini turli rakurslardan tadqiq etishgan. Ayrim tadqiqotchilar maullifni individual uslubi haqida so‘z yuritishadi.

Kalit so‘zlar: ekzistensialistik, estetik yo'nalish, postmodernist yozuvchi, mukofotlar, Faulzshunoslar

Annotation. This article talks about the work of John Fowles and the existentialist philosophical and artistic principles of Postmodernism. In their works, postmodernists stage a game of parody with the main traditional forms of the novel, such as the educational novel, the detective novel, the historical novel, the gothic novel, etc. This game is mainly related to the general aesthetic direction of the conscious parody of history. "Fowles scholars" have studied the writer's prolific work from different perspectives. Some researchers talk about the author's individual style.

Key words: existentialist, aesthetic direction, postmodernist writer, awards, Fowlesners

Kirish. Ingliz yozuvchisi Jon Faulz (1926-2005) o‘zining innovasion va intellektual jihatdan murakkab asarlari bilan dunyoga tanilgan postmodernist

yozuvchilardan biri sanaladi. U Angliyaning Esseks shtatidagi Ley-on-Se shahrida tug‘ilgan bo‘lib, keyinchalik adabiyot va falsafayo‘nalishida Oksford universitetida tahsil olgan. Ikkinchi Jahon urushidan keyin Faulz Oksforddagi Nyu-kollejda fransuz va nemis tillarini o‘rgandi. Shu davrda u Alber Kamyu va Jan-Pol Sartrning ekzestensial asarlari bilan tanishgan. Oksfordni tugatgandan so‘ng, Faulz o‘qituvchilik faoliyatini Fransiyada, so‘ngra Gresiya kollejlarida amalga oshirdi. Kelgusida Faulz Fransiya va Gresialarda ortirgan hayotiy va kasbiy tajribasini o‘z asarlarida aks ettirdi. U Flober, D. X. Lorens, Defo va Xeminguyey kabi o‘zi havas qiladigan yozuvchilarni o‘rganish va ularga taqlid qilish orqali o‘z mahoratini oshirdi. Jon Faulz 1999-yilda adabiyot bo‘yicha Nobel mukofotiga nomzod bo‘lgan. Faulz 2005-yil 5-noyabrda Laym Regisdan 5 mil uzoqlikda joylashgan Aksminster kasalxonasida vafot etgan.

Adabiyot va materiallar tahlili. “Faulzshunoslar” adibning serqirra ijodini turli rakurslardan tadqiq etishgan. Ayrim munaqqidlar maullifni individual uslubi haqida so‘z yuritishadi, masalan, Jeyms Acheson Faulzning "Kollektsiyachi", "Magus" va "Frantsuz leytenantining ayoli" kabi yirik romanlarida adibni innovatsion hikoya usullarini iroda, erkinlik, haqiqat tabiati kabi mavzularni ochib berishdagi badiiy vazifasiga o‘z e’tiborini qaratgan.

Mariadele Bokkardi va Malkolm Bredberi Jon Faulz kabi mualliflarning asarlariga e'tibor qaratilib, zamonaviy Britaniya romaniga tanqidiy baho berilgan. Bokkardi Faulz va boshqa yozuvchilar o‘z asarlarida tarixiy, falsafiy va metaaadabiyot elementlarni uyg‘unlashtirib, romanlarda janr chegaralarini belgilashga doir masasalarni tahlilga tortgan. Bredberi Jon Faulz ijodini XX asr Britaniya adabiyotining keng kontekstidagi o'rnini tadqiq etib, adibning adabiy eksperiment va postmodernistik uslublarning qo‘llashiga doir o‘z fikrlarini bildirgan.

Taniqli yozuvchi va tanqidchi A.S. Byatt Jon Faulzning romanlarini chuqur tahlil qiladi, xususan, uning mistikadan foydalanishi, haqiqat va fantastika o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qiladi.

Jon Faulz kabi faylasuf va yozuvchi Iris Merdok, Faulz yozgan madaniy va intellektual kontekst haqida qimmatli fikrlarni taqdim etadi. Merdokning zamonaviy dunyoda san'at, falsafa va metafizikaning rolini tahlil qilish Faulzning romanlarida ushbu mavzularni o'z tadqiqini tushunish uchun foydali asos yaratadi.

Qiyosiy aspektda ham bir nechta ilmiy izlanishlar mavjud. Masalan, Bruk Allen o‘z tadqiqotida ikki taniqli modernist va postmodernist yozuvchi Jon Faulz va Vladimir Nabokov asarlarini solishtiradi. Kitobda ikkala muallif ham an'anaviy hikoya usulalriga qarshi chiqgan holda inson tajribasining murakkabliklarini va zamonaviy dunyoda ma'no izlashlarini tadqiq etadi.

Natija va muhokamalar. Jon Faulz badiiy asarlarining xronologik ro'yxatiga asoslanib, uning adabiy faoliyatida uchta alohida davrni aniqlashimiz mumkin, ularning har biri uning mavzulari va yozuv uslubidagi o'zgarishlar bilan ajralib turadi:

I. Ilk davr (1963-1969) romanlari: "Kollektor" (1963), "Afsungar" (1965), "Frantsuz leytenantining ayoli" (1969).

- Asosiy xususiyatlar:
- Hikoya va metaadabiyot tuzilishi bilan bog‘liq ijodiy eksperimentlar;
- shaxs, iroda erkinligi va voqelik tabiatini o'rganishi;
- Realizm va misticism;
- Ekzistensial falsafa ta'siri.

Faulz "Kolleksiyachi" romanida o'zining psixologik realizmga bo'lgan iste'dodini va shaxsiyatning murakkabliklarini o'rganish bilan bo‘gliq qobiliyatini namoyish etadi. Iris Merdok ta'kidlaganidek, roman "patologik ongning dahshatli tadqiqini taqdim etadi", chunki u yosh ayolni o'g'irlab ketgan ijtimoiy hayotdan ajralib qolgan erkakning hikoyasini namoyish etadi. Faulzning romanida bir nechta roviy nuqtai nazardan bayon etishi uning inqilobiy yozuv usulini yaratganligidan dalolat beradi deydi ingliz yozuvchisi va tanqidchi A.S. Byatt.

Faulzning keyingi asarlari, masalan, “Afsungar” (1965) va “Fransuz leytenantining ayoli” (1969) uning postmodern yozuvchisi sifatidagi obro‘sini yanada mustahkamladi. "Afsungar"da, Malkolm Bredberi ta'kidlaganidek, Faulz "o'zgaruvchan voqeliklar dunyosini va ko'p ma'no qatlamlarini yaratadi"[182], o'quvchining haqiqat va o'ziga xoslik tabiati haqidagi tasavvurlarini shubha ostiga qo'yadi. Ko'pgina tanqidchilar tomonidan Faulzning eng yaxshi asari deb hisoblangan frantsuz leytenantining ayoli uning hikoya tuzilishiga eksperimental yondashuvini misol qilib keltirdi, chunki u o'quvchiga bir nechta mumkin bo'lgan yakunlarni taqdim etadi, ularning har biri iroda erkinligi va determinizmga turli falsafiy nuqtai nazarlarni aks ettiradi.

Faulz ijodining boshida “Kollektor”, “Afsungar” va “Fransuz leytenantining ayoli” kabi asarlari bilan o‘zini innovatsion yozuvchi sifatida ko‘rsatdi. Bu romanlarda zaif roviylardan foydalanish, ko‘p sonli yakunlar va metaadabiyot elementlar kabi innovatsion hikoya usullari bilan ajralib turardi. mavzuiy jihatdan, Faulz ekzistensialistik g'oyalarga tayangan holda o'ziga xoslik, iroda erkinligi va inson mavjudligining murakkabliklari bilan kurashdi.

II. O'rta davr (1974-1982) asarlari: "Qora minora" (Ebony Tower) (1974), Daniel Martin (1977), Mantissa (1982).

- Asosiy xususiyatlar:
- Shakl va syujet tuzilishi bilan tajribalarni davom ettirildi;
- insoniy munosabatlarni chuqurroq o'rganish va ma'no izlash;
- tarixiy va mifologik elementlarning singdirilishi;
- Ijodiy jarayon va muallif roliga e'tiborni kuchytirish.

Faulzning "Qora minora" (1974) va Daniel Martin (1977) kabi asarlarini o'z ichiga olgan o'rta davri uning insoniy munosabatlardagi murakkabliklarga va ma'no izlashga doimiy qiziqishini ko'rsatadi. Bruk Allen ta’kidlaganidek, bu romanlar “tarix, afsona va shaxsning o‘z-o‘zini anglashga o‘rganadi”. Faulz o'z

[182] Bradbury, Malcolm. The Modern British Novel. Penguin Books, 1993.84 bet

karerasining o'rtalarida tematik va stilistik doirasini kengaytirdi. Uning “Qora minora” nomli hikoyalar to‘plami uning tarixiy fantastika, tasavvuf va falsafiy fikrlarni uyg‘unlashtirish qobiliyatini namoyish etdi. Daniel Martin o‘ziga xoslik va inson tajribasining murakkabliklarini chuqur o‘rgandi, Mantissa esa muallif va ijodiy jarayon o‘rtasidagi munosabatni o‘rgandi.

III. Oxirgi davr (1985-1998) asarlari: “Qurtquloq” (1985), She'rlar to‘plami(1973), Daraxt (1979), Orollar (1978), “Mole uyasi” (Wormholes) (1998)

- Asosiy xususiyatlar:
- rivoya tajribalarni yangi shaklda davom ettirish;
- metafizik va ekzistensial masalalarni kengroq o'rganish;
- badiiy adabiyotga, she’riyatga e’tiborni kuchaytirish va yozuv san’ati haqida fikr yuritish;
- Uning dastlabki mavzulari va uslublarining sintezi.

Faulz o'zining "Qurtquloq" (1985) romanida tarixiygrafik, metafizik, fantastik va metaadabiyot elementlarini aralashtirib, roman shakli chegaralarini kengaytirishda davom etdi. Mariadele Boccardi ta'kidlaganidek, "Qurtquloq" "Fowlesning hikoya tuzilishi bilan tajribalari va uning butun faoliyati davomida uni hayolini band qilgan falsafiy savollar bilan shug'ullanishining cho'qqisini ifodalaydi". Bundan tashqari, uning falsafiy va badiiy qiziqishlarini aks ettiruvchi “Daraxt va gijjalar” kabi she’riy to‘plami hamda badiiy bo‘lmagan asarlari nashr etilgan. Bu keyingi asarlar uning butun ijodiy faoliyati davomida ishlab chiqqan mavzu va uslublar sintezini namoyish etib, boy va rang-barang adabiy merosni yaratadi.

Umuman olganda, Faulzning adabiy karerasi rasmiy innovatsiyalarga doimiy e'tibor berish, o'ziga xoslik va inson mavjudligini o'rganish va an'anaviy adabiy konventsiyalarga qarshi chiqishga tayyorligi bilan ajralib turishi mumkin. Uning asarlari 20-asr Britaniya adabiyotiga doimiy ta'sir ko'rsatdi va ilmiy tahlil va tanqidiy e'tiroflar mavzusi bo'lib qolmoqda. Jon Faulz o‘z faoliyati davomida bir nechta mukofot va e’tirofga sazovor bo‘lgan (Buker, "Oltin qalam" va boshqalar). Bu e’tirof uning adabiyotga qo‘shgan hissasini va yozuvchi sifatidagi ta’sirini yanada ta’kidladi. Jon Faulzning asarlari intellektual chuqurligi, hikoyaviy eksperimenti va inson holatini o‘rganishi bilan mashhur bo‘lgan postmodern adabiyotga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Uning yozgan asarlari hamon o‘quvchilar va olimlar tomonidan o‘rganilib, qadrlanib kelinmoqda.

Jon Faulz asarlarining adaby falsafiy asoslari **ekzistensializm oqimi bilan bo‘gliq. Ekzistensializm** markaziy tushunchasi — ekzistensiya (inson mavjudligi). Inson mavjudligi asosan g‘amxo‘rlik, qo‘rqish, qat’iylik, vijdon kabilarda namoyon bo‘ladi. Dahshat, qo‘rquv, o‘lim inson yashashining asosini tashkil etadi. Inson o‘zini ekzistensiya sifatida anglagandan keyin erkinlikka erishadi, bu erkinlik o‘z-o‘zini, o‘zining mohiyatini tanlashdan iborat bo‘lib, insonga olamda yuz berayotgan barcha narsa uchun mas’uliyat yuklaydi. Muhammadjon Xolbekov Ekzistensializm asoslarini Alber Kamyu ijodi misoloda ta’rif berib 1942 yili adabining “absurd haqida essesi” – “ Sezif haqida afsona” asari bilan bo‘glaydi.

Kamyuni fikriga koʻra oʻlim haqidagi fikr-mulohazalar, oʻz-oʻzidan begonalashib ketish, voqelikni bilib boʻlmaslik, yashash maʼnosini anglashning mumkin emasligi, erkinlikning yagona manbai sifatida absurdni koʻrsatish xususidagi mushohadalari, ʻekzistensial tafakkuri esa inson ichki kechinmalari, uning ruhiy holatlari bilan bogʻliq boʻladi. Va Ekzistensializm falsafasida inson omili oʻz ichiga oladi.

Xulosa. Yuqorida taʼqidlaganimizdek, mualif oʻz ijodida postmodernist ijodiy uslubga murojaat qilgan xolda zamonaviy ong va tafakkurini ifodalashga intilgan. Butun ijodi davomida esa borliq va voqelikni objektiv baholajsha harakat qilgan, biroq bu kabi tushunchalarniidrok etishda subjektiv omil muhim ekanligini anglagan. Shu sababali ijodkorning barcha romanlarida ekzistensial mavzularni tadqiq etgan. Postmodernizm va exziztentializm mustaqil ilmiy tushunchalar boʻlsada ularning oʻrtasida mustahkam aloqadorlik mavjudligi haqida ingliz, rus va oʻzbek olimlari oz' fikrlarini bildirishgan. 20-asr oxiridagi G'arbiy Evropa adabiyoti "mutlaqo umidsizlik" davridagi inson hayotini muhim masalalariga bag'ishlangan bo'lib, postmodern matnlarda ekzistensializmning badiiy tajribasini keskin namoyon qildi. Zamonaviy ongda hayot quvonchi kabi tuyg'u asta-sekin yo'q bo'lib bormoqda, bu texnik tsivilizatsiyaga zarba bergan insonparvarlik qadriyatlari natijasi bʼolib, inson ishlab chiqarish va iste'mol dunyosida oddiy qoʻgʻirchoq ekanligi maʼlim boʻldi. Bu ma'naviy bo'shliqni qanday to'ldirishni bilmay qoldi inson. Aynan ekzistensializmdan postmodernizm individual ong fojeasini oʻzlashtirdi, u birinchi navbatda umuminsoniy absurdlik va betartiblik holatini, chidab bo'lmas yolg'izlik tuyg'usini, borliqning haqiqiyligiga shubhani boshdan kechirishdan iborat. *Xuddi ekzistensializmdagi kabi, postmodernizmda ham adabiyot va falsafa, hujjat va afsona, oʻyin va haqiqat oʻrtasidagi chegaralar xiralashgan.* Shu bilan birga, postmodernizmning badiiy tizimi va ekzistensializm oʻrtasidagi bogʻlanishlar chiziqli talqin qilishga imkon bermaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1. Acheson, James. John Fowles. Twayne Publishers, 1998. 224 p.
2. Boccardi, Mariadele. The Contemporary British Novel Revisited. Palgrave Macmillan, 2013. 232 p.
3. Bradbury, Malcolm. The Modern British Novel. Penguin Books, 1993. 464 p.
4. Byatt, A.S. Passions of the Mind: Selected Writings. Chatto & Windus, 1990. 352 p.
5. Murdoch, Iris. The Icon and the Axe. Chatto & Windus, 1963. 464 p
6. Allen, Brooke. Romantic Agony: Fowles, Nabokov, and the Modern Novel. Ohio University Press, 1994. 248 p.
7. Murdoch, Iris. The Icon and the Axe. Chatto & Windus, 1963. 45-bet
8. Byatt, A.S. Passions of the Mind: Selected Writings. Chatto & Windus, 1990. 67 bet
9. Bradbury, Malcolm. The Modern British Novel. Penguin Books, 1993.84 bet

10. https://plato.stanford.edu/entries/existentialism/
11. Муҳаммаджон Холбеков,Муҳаммаджон Холбеков. Экзистенциализм: Альбер Камю “Жаҳон адабиёти”, 2013 йил, 11-сон// https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/muhammadjon-xolbekov-ekzistentsializm-alber-kamyu/
12. Гулноз Мирахраровна Рузматова, Дилнавоз Суннат Қизи Рахимджанова СЕРЕН КЪЕРКЕГОР ЭКЗИСТЕНЦИАЛИЗМИНИНГ МОҲИЯТИ // Academic research in educational sciences. 2021. №3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/seren-kerkegor-ekzistentsializmining-mo-iyati (дата обращения: 14.08.2024).

SOTSIOLINGVISTIKANING SHAKLLANISH TARIXI

Sayidov Shukrullo Xailjonovich
TATU FF tadqiqotchisi

Annotatsiya. Biz ushbu maqolada tilning jamiyatdagi o‘rni va qo‘llanilishini o‘rganuvchi soha –sotsiolingvistika(ijtimoiy tilshunoslik), shuningdek, ijtimoiy tilshunoslik sohasining o‘rganish tarixi va yo‘nalishlari haqida so‘z yuritamiz. Ushbu ilmiy maqoladan ko‘zlangan asosiy maqsad sotsiolingvistikaning o‘rganilish tarixihaqida kengroq ma’lumot berish, til va jamiyatning uzviyligini hamda tilning jamiyatdagi o‘rni to‘g‘risida so‘z yuritishdan iborat.

Kalit so‘zlar: sotsiolingvistika, ijtimoiy lingvistika, ijtimoiy munosabat, milliy til, til faktlari, vazifaviy ma’no.

Abstract. In this article, we will talk about the history and trends of sociolinguistics, a field that studies the role and use of language in society, as well as sociolinguistics. The main goal of this scientific article is to provide more information about the history of the study of sociolinguistics, to talk about the unity of language and society, and the role of language in society.

Key words: sociolinguistics, social linguistics, social attitude, national language, linguistic facts, functional meaning.

Barchamizga ma’lumki, ijtimoiy tilshunoslik tobora muhim va ommabop o'rganilayotgan sohaga aylanmoqda, chunki butun dunyodagi ba'zi madaniyat vakillari o‘z muloqot bazasini kengaytirishi bilan birga guruhlararo va shaxslararo munosabatlar ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma’lumki, sotsiolingvistika 20—30-yillarda sotsiolingvistika fani sifatida vujudga kelgan yangi sohalardan biriga aylandi. Bu davrda tilning ijtimoiy munosabatlardagi hayot taraqqiyotidagi o‘rni, tilning jamiyat bilan bog‘liq holda shakllanishi, til va jamiyat tendentsiyalarining yuzaga kelishi ijtimoiy tilshunoslik fanining rivojlanishi va taraqqiy etishiga asos bo‘lib xizmat qildi. 1950-yillar boshida milliy tillarni rivojlantirish, tillar o‘rtasidagi munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, har bir tilning xalqqa xizmat qilishini ta’minlash borasida katta ishlar qilindi. Darxaqiqat, **“sotsiolingvistika”**[1, 440] tilshunoslik yo‘nalishidagi fan bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarda tilning tutgan o‘rnini, til taraqqiyotini va tilning funksional jihatlarini hamda jamiyat til uchun, til esa jamiyat uchun xizmat

qilishini o‘rganadi. Sotsiolingvistika shakllanish, qurilish, taraqqiyot nuqtai nazaridan tilning ijtimoiy shartlanganligi, “tilning jamiyatga, jamiyatning tilga tasirini” o‘rganuvchi fan sifatida qaralmog‘i lozim. Vaholanki, ijtimoiy lingvistika hayot qonuniyatlarini til faktlari asosida o‘rganar ekan, uning o‘ziga xos xususiyatlarini anglamoq va tushunib yetmoq kerak bo‘ladi.

Ma’lumki, 20-30 yillar mobaynida sotsiolingvistika tilshunoslikning ma’lum bir bo’g’ini sifatida yuzaga kelgan yangi sohalardan biri bo’ldi. Bu davrda ijtimoiy munosabatlarda tilning hayot taraqqiyotidagi o’rnini aniqlashda, tilning jamiyat bilan bog’liq holda shakllanishini tekshirishda, qolaversa, til va jamiyat tendentsiyasining yuzaga kelishida sotsiolingvistika fanining muhim va dolzarbligi yaqqol ko’zga tashlanib turdi. Chunki, sotsiolingvistikaning bu davrda yuzaga kelishi shunday bir holatga to’g’ri keldiki, asosan hayotda jamiyat taraqqiyoti bilan bog’liq masalalarni qamrab oluvchi faktorlar til nazariyasining yuzaga kelishida turtki bo’ldi.

Sotsiolingvistika termini tilshunoslikda birinchi bor 1952-yilda amerikalik tadqiqotchi X.Karri tomonidan tadbiq etilgan bo‘lib, bu termin ostidagi tushunchalar, umuman, tilshunoslikning allaqachon paydo bo‘lganligini anglatish bilan birga, undan asosiy ko‘zlangan maqsad tilning umumbashariy tushuncha sifatida paydo bo‘lganligini e’tirof etishdir.[6] Professor B. Golovin esa ”sotsiolingvistika” fanini tor va keng ma’noda talqin etishni maqsadga muvofiq deb biladi. Chunki sotsiolingvistika vazifaviy ma’no kasb etib, u til qurilishi taraqqiyotiga xizmat qilishini ta’kidlaydi va tilning vazifaviy xususiyatlari bilan bog’liq degan xulosaga keladi. Bundan tashqari, G.Stepanov, Yu.Desheriev, N.Nikolskiy, A.Shveytsar kabi olimlar ham sotsiolingvistika muammolari va uning ma’no mundarijasi xususida ko’pgina mulohazalar yuritishgan.

Ijtimoiy tilshunoslik sohasi bo‘yicha Rossiya va O‘zbekistonda ham tadqiqotlar olib borilgan va olib borildi. Bu sohaning rivojlanishi 1917 – yildan keyin jamiyat ehtiyojlari bilan bog‘liq holda avj oldi. Sotsiolingvistika fani bu davrda quyidagi masalalarni yoritish bilan shug‘ullandi: adabiy tilga asos bo‘lgan tayanch sheva yoki dialektni aniqlash hamda uning tayanch ekanligini ilmiy – nazariy jihatdan asoslash; bo‘lajak adabiy tilning tovush tarkibini inobatga olib o‘sha xalqning milliy yozuvini, alifbosini, imlo qoidalarini yaratish; yangi barpo etilayotgan adabiy tildan rasmiy til sifatida ma’muriy boshqaruv, o‘qish – o‘qitish, ommaviy axborot vositalarida keng foydalanishga erishish va boshqalardir.

30-40 yillarda o’zbek tilshunosligida ham ushbu masalalarda muhim burilish bo’ldi. Xususan, Fitrat, Elbek, Botu, Faxri Kamol singari olimlar qarashlarida ana shunday mulohazalar o’zbek ijtimoiy tilshunosligi fani g’oyasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi. 50-yillarning boshlarida milliy tillarni rivojlantirish, tillar o’rtasidagi aloqalarni o’rnatish, mustahkamlash va har bir tilni xalq uchun xizmat qilishi masalasida ancha ishlar amalga oshirildi. Bu borada .V Vinogradov L.Bulaxovskiy, A. Chikobova, B. Kuznetsov, B Serebrennikovlarning izlanishlari taqsinga loyiqdir. Ularning ilmiy va ijodiy qarashlarida har bir milliy tilni yangicha

ta’limotlar asosida o’rganish masalasi ilgari suriladi. Xususan,1962-yilda Olmaotada “Milliy tillarning taraqqiyoti masalasi”da bo’lib o’tgan konferentsiyada ham milliy tillarni rivojlantirish va taraqqiy ettirish masalasida muhim vazifalar belgilanib olindi. 70-80 yillarda Yevropa tilshunosligida sotsiologlar va tilshunoslar hamkorligida ijtimoiy lingvistika bilan bog’liq tarzda shakllangan til uyushmalari yuzaga kelidi. Bular Chexiya, Polsha, Vengriya, Bolgariya, Germaniya, shuningdek, Aqsh, Angliya, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda til uyushmalari faoliyat ko’rsatdi.

O’zbek tilshunosligida ham bu borada V. Reshetov, A. Borovkov, A. G‘ulomov, F.Abdullaev, O.Usmonov kabi olimlarning ijodiy y o’nalishlarida shu masalalar ilgari surilib kelindi.70-80 yillarda ijtimoiy tilshunoslikning tekshirish ob’ekti ancha kengaydi va mustahkamlanib bordi. Bunda, asosan, quyidagi masalalar kun tartibidan o’rin oldi:

a) Umumiy masalalar;

b) Tillar aloqasi masalasi;

c) Til uyushmalari va ularni rivojlantirish;

d) Tilning ijtimoiy va hududiy masalalari

Bu borada milliy tillarning taraqqiyot qonuniyatlarini belgilash, milliy va xalq tillari taraqqiyotini tez sur’atlar bilan rivojlantirish, ko’p tillilik masalasi, shuningdek, tillar o’rtasidagi aloqalar xususidagi fikr-mulohazalar o’rin oldi. Shu masalada Jirmunskiy, Andreev, Petrovskiy kabi tilshunos olimlarning tadqiqotlari diqqatga molikdir. Qolaversa, ijtimoiy lingvistikaning til va jamiyat o’rtasidagi umumiy qonuniyatlarni hayotga tadbiq etishdagi o’rni alohida ta’kidlanib kelindi. Bundan tashqari, milliy tillar taraqqiyotida har bir tillarning o’z ta’sir kuchini his etish,

xususan, shu tilda so’zlashuvchi xalqlar ijtimoiy muhitidan kelib chiqqan holda ularning o’rnini belgilash kabi vazifalar doimiy ravishda o’rin olib keladi. Ayni paytda fanda yangicha nazariya va qarashlarni tadbiq etish asosida ijtimoiy lingvistikaning faoliyatini kuchaytirish o’z-o’zidan tillar o’rtasidagi an’analarga amal qilish, degan fikrlar ilgari surildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Crystal D. A dictionary of linguistics and Phonetics. – Oxford: Blackwell, 2008. – P. 440.

2. Axmanova O.S. Tilshunoslik terminlari lug'ati.-M: Nauka, 2010

3. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. Toshkent – 1972.

4. Trudgill Peter. Sociolinguistics: An introduction to language and society. London: Penguin Books – 1995.

5. Wardhaugh Ronald. An introduction to sociolinguistics. Cambridge, MA: Blackwell – 1992.

6. Normurodov R. Sotsiolingvistika. – Termiz: Rizogrif, 2008. – B. 4.

7.URL: https://www.sheffield.ac.uk/linguistics/home/all-about-linguistics/about-website/brancheslinguistics/sociolinguistics/what doessociolinguisticsstudy#

:~:text=Sociolinguistics%20is%20the%20study%20of,or%20social%20class%2C%20for%20instance

KO‘Z VA QOSH MIMIKASI

Meliqo‘ziyev Azimjon Latifjon o‘g‘li
tadqiqotchi

Annotatsiya. Ko‘z va qosh orqali muloqot qilish paralingvistika doirasida o‘rganilayotgan yangi yo‘nalishlardan hisoblanadi. Vizual vositalar kommunikatsiyaning ajralmas qismidir. Mazkur aloqa vositalari so‘zlashuvda faol bo‘lib, muloqot jarayonida axborot uzatish uchun yetakchi unsurlar sirasiga kiradi. Ular aloqa-aralashuvda o‘zlashadi va u inson ongida belgi sifatida kodlanadi. Mazkur maqolada ko‘z va qosh harakatlari mumik vositalar tarkibida tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: paralingvistika, lingvomadaniyat, noverbal muloqot, noverval vositalar, paralingvistik harakter, ko‘z, qosh.

Abstract: Communication through eyes and eyebrows is one of the new directions being studied within the framework of paralinguistics. Visual means are an integral part of communication. These means of communication are active in conversation and are among the leading elements for information transfer in the process of communication. They differ in communication, and it is coded as a sign in the human mind. In this article, eye and eyebrow movements are analyzed in the composition of waxy tools.

Keywords: paralinguistics, linguistic culture, nonverbal communication, nonverbal tools, paralinguistic character, eyes, eyebrow.

Noverbal muloqotda ko‘z mimikasi eng zaruriy vositalardan biri sanaladi. U nafaqat muloqot ishtirokchilarining to‘g‘ri va haqiqatni so‘zlayotganligi xususida axborot bera oladi, balki nutqda suhbatga bo‘lgan e’tibor darajasini belgilab beradi. Xususan, A.P.Sadoxin kommunikantlarning suhbatga kirishishi dastlab ko‘z nigohlaridan boshlanadi degan fikrni ilgari suradi. U ilk palladagi nigohlarning to‘qnashuvi muloqot qilish jarayonining boshlanish davri, muloqotda e’tibor, qo‘llab-quvvatlash yoki uni to‘xtatish alomati sifatida xizmat qiliadi[6], deb ta’kidlaydi.

Kuzatishlarimiz natijasida to‘plangan ko‘z mimikalari quyidagilar: ***ko‘z qismoq, ko‘zni yummoq, ko‘z qaratmoq, ko‘zni katta ochmoq, ko‘z qirini tashlamoq, ko‘zlarni olib qochmoq, ko‘z suzmoq, ko‘z uzmay qarash, yerga qaramoq, sinchiklab qaramoq, ko‘zlarni bir nuqtaga qadamoq, ko‘zlariga tikilmoq, ko‘zni pirpiratmoq, ko‘zlari yonmoq, g‘azab bilan qaramoq, zimdan tikilmoq, jirkanib qaramoq, havas bilan qaramoq, ko‘z tikmoq, ko‘zni olaytirmoq, ko‘zni lo‘q qilmoq, ko‘zi o‘ynamoq, ko‘zi ko‘r bo‘lmoq, ko‘zini qisib qaramoq, ko‘zini olmoq, mo‘ltillamoq, o‘qraymoq***. Paralingvistik muloqotda eng ko‘p ko‘z bilan bog‘liq imo-ishora harakati ***“ko‘z qismoq” (to wink, подмигнуть)***dir.[7] Bunga sabab ushbu harakatning o‘nga yaqin semalari bor va ular suhbat mazmuniga ko‘ra ehtiyojdan kelib chiqib qo‘llaniladi. Mazkur

ishoraviy belgi millatlararo ba’zi integral va differensial xususiyatlarga ega. Inglizlarda ***ko‘z qisish*** ishora harakatidan kam foydalanilsa, o‘zbek va ruslar muloqotida verbal vositalarga qo‘shimcha axborot berish, lingvopragmatik jihatlarini namoyon etish yoki umuman uning aksi ma’nosini berishda qo‘llaniladi. Masalan, iternatsional paralingvizm sifatida ko‘zini qismoq birikmasi kommunikatsion muhitda ***hazil qilish, salomlashish, hol-ahvol so‘rash, ogohlantirish, xayrlashish, kinoya qilish, sirlilik, ayyorlik qilish, o‘ziga ishonch*** va ***so‘zini tasdiqlash*** ma’nolarini ifodalaydi. Masalan:

Hovlimizga kirgandan keyin Olimjon akam meni ayvonga o‘tqizdi. Negadir yuzimga shapatiladi-da, ***ko‘z qisib qo‘ydi****. Dadam bilan xayrlashib, chiqib ketdi. (O‘.Hoshimov, “Ikki eshik orasi”)*

As she stepped onto the stage, her confidence radiated, and with ***winking to the audience****, she began her mesmerizing performance, leaving everyone spellbound by her grace and magnetic presence. (The Fayetteville Observer)*

Ko‘z qismoq imo-ishorasi noverbal muloqotda asosan suhbatdoshlar o‘rtasidagi o‘zaro sirli muhit mavjudligi va suhbatdoshlarning ayyorlik qilishi ma’nolarini ifodalaydi. Yuqoridagi parchada Olimjon aka tomonidan qo‘llanilgan ushbu belgi nutqiy akt doirasida so‘zlovchining kommunikativ maqsadini yuzaga chiqarish uchun qo‘llanilgan. Personaj mazkur paralingvistik vositadan foydalanish orqali o‘zaro sir saqlashga ishora qiladi va buni retsipiyent qabul qiladi, ongda sintez qiladi hamda tushinib, unga reaksiya bildiradi. ***Ko‘z qismoq*** ishoraviy parakodining tipologik xususiyatlari ham mavjud. Belgining shunday xarakterini ko‘rsatish uchun ingliz tilidagi misol ham tahlilga tortilgan. Parchada ***to wink*** paralingvitik harakati qo‘llanilgan. Ingliz noverbal muloqotida ushbu ishoraning o‘nga yaqin semalari mavjud. Berilgan parchada so‘zlovchi auditoriyaga ko‘z qisish orqali unda qo‘rquv mavjud emasligi va qilayotgan ishiga o‘zida ishonch mavjudligiga ishora qilgan. Bu holat ko‘z qismoq paratil elementining inglizlarga xos jihatlarini ko‘rsatadi.

Yuz sohasidagi uzvlar ichida ***ko‘z, jag‘, lunj, peshona, tish, burun*** **va** ***lab*** ko‘pincha neytral xarakterni bildiradi. Ular muloqotdagi qo‘llash maqsadlariga ko‘ra tinglovchida ba’zan ijobiy (samimiylik, xursandlik), ba’zan esa salbiy mazmun (g‘azab, xafalik, nafrat)ni yuzaga chiqaradi. Lekin, qosh noverbal muloqotda odatda ***jiddiylik, g‘azab, sabrsizlik*** **va** ***norozilik, tushkunlik*** kabi salbiy xarakterlarni ifodalaydi. Mazkur holatlar kommunikantlarning ***qoshini chimirmoq, qovog‘ini solmoq, qovoq-tumshuq qilmoq, qosh uchirmoq, qovog‘i tushmoq, qovoqlari shishmoq*** **va** ***qovog‘ini uymoq*** kabi imo-ishoralari bilan tasvirlanadi. Shuningdek, qosh orqali amalga oshiriladigan paralingvistik vositalar ichida eng faoli ***“qosh uchirmoq” (to raise one’s eyebrow, поднимать брови)*** hisoblanadi. Muloqotda ***qosh uchirish*** ishorasi bilan hazil qilish, ayyorlik, salomlashish, hol-ahvol so‘rash, tabriklash, savol bilan murojaat qilish, kinoya qilish, hayratlanish, taajjublanish, xushomad qilish kabi ma’nolarni ifodalash mumkin.[183] Bunda

[183] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. V. – Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. – Б. 352.

qoshlar bir, ikki yoki uch marta tepaga harakatlanadi va qovoqlar biroz kengayadi. Masalan:

Nasima noz-karashma bilan o‘rtaga chiqib, sho‘x o‘ynay boshladi. U dam domlaga, dam Mahvashga qarab ***qoshlarini uchirib*** *muqom qilardi. (T.Ashurov, “Onaizor”)*

In the exclusive restaurant where they dined, Nicola noticed he’d only to ***raise an eyebrow*** *and a waiteress came hurrying to attend him. (M.Forsythe, “The book lady”)*

Qosh uchirmoq paralingvistik vositasining xushomad va ayyorlik qilish ma’nolari nafaqat o‘zbek, balki ingliz hamda rus tillarida so‘zlashuvchi xalqlarga xos hisoblanadi. Birinchi misolda Nasima tomonidan qo‘llanilgan ushbu imo-ishora uning noz-karashma bilan sho‘x o‘ynashi va domla hamda Mahvashga qoshini uchirishi muloqotda adresantning ayyorligi va o‘zgalarga xushomad qilayotganligini ko‘rsatadi. Ingliz tilidagi parchada ham aynan shu holat aks ettirilgan. Erkak ofitsiant ayolga ko‘z qisadi va u mijoziga boshqalarga nisbatan ko‘proq e’tibor qaratadi. Erkakning mazkur noverbal harakatlari ingliz muloqotiga xos sirlilik, ayyorlik va xushomad qilish ma’nolarini ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Крейдлин Г. Невербаьная семиотика. – Москва. 2002. – 518 с.

2.Argyle M. The Psychology of Interpersonal Behavior. – Penguin. 1994. – 180 p.

3.Қурбонов М. Новербал мулоқотни ифодаловчи воситалар. – Андижон, 2021. – 141 б.

4.Кузнецов И. Мимика и жесты. Секреты общенияю. – Москва. 2020. – 46 с.

5.Ахмедов Б. Паралингвистик воситаларнинг гендерологик ва прагматик тадқиқи. – Андижон, 2021. – 154 б.

6.Садохин А.П. Межкультурная коммуникация. – М.: Альфа-М; ИНФРА-М, 2004. – 61 с.

7.URL: https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK10991/ (Murojaat sanasi: 10.01.2024)

IJTIMOIY MAQOMNI IFODALASHDA NOVERBAL VOSITALARNING O‘RNI

Ro‘zimatova Dilnoza Murodovna

O‘zRFA, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy maqom tushunchasi, uning ifodalash usullari, xususan, noverbal vositaalr orqali ifodalash haqida so ‘z boradi. Badiiy asarlarda ijtimoiy maqomning ifodalanishi, noverbal vositalarning turlari ma’lumot sifatida berilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy maqom, verbal ifoda, noverbal vositalar, proksemika, fonatsiya, kinesika

Annotation. This article talks about the concept of social status, ways of expressing it, in particular, expression by non-verbal means. The expression of social status in works of art and types of non-verbal means are given as information.

Key words: social status, verbal expression, non-verbal means, proxemics, phonation, kinesics

Til insonlarning bir-birlari bilan axborot almashishlari uchun eng muhim vositadir, chunki kishilar o‘zaro so‘z orqali muloqotga kirishadilar. Lekin bu muloqotda boshqa vositalarni to‘liq chetlab o‘tmaydi, chunki muloqot murakkab jarayon hisoblanib, inson ma’lum axborotni tinglovchiga yetkazishda turli vositalardan foydalanadi[184]. Sotsial axborotni har qanday moddiy ifodalovchilari belgilar hisoblanadi[185]. Ma’lum axborot tinglovchiga lisoniy va nolisoniy vositalar orqali yetkazilishi mumkin. Fikr ifodalashda so‘zga, verbal vositaga yordamchi ravishda turli qo‘shimchalar, ya’ni noverbal vositalar aloqa-aralashuvni amalga oshirishda o‘ziga xos o‘rin egallovchi omillardan sanaladi. Ba’zi hollarda novebal vositalarsiz fikrlar yalang‘och, mantiqiy jihatdan tushunarsiz, psixologik jihatdan noto‘g‘ri bo‘lib qoladi[186]. Har qanday holatda ham fikr ifodalovchi vosita belgi ekanligi bilan xarakterlanadi[187]. Ijtimoiy maqomning verbal ifodasi tilning har bir sathida uchraydi, jumladan, bu jihat muloqot ohangida, grammatik vositalarni qo‘llashda, ayrim leksik birliklar hamda iboralarni qo‘llashda ko‘zga tashlanadi[188]. Lekin noverbal vositalar orqali ham muloqotda shaxslarning ijtimoiy maqomi haqida ma’lumotga ega bo‘lishimiz mumkin.

Tilshunoslkda noverbal vositalar tadqiqot obyekti bo‘lgan bir qancha ishlar mavjud bo‘lib, ularda har bir millatning o‘zigagina xos bo‘lgan noverbal vositalar tahlilga tortilgan. O‘zbek tilshunoslgida ham noverbal vositalar alohida tadqiq manbayi bo‘lgan, ularning milliy mentalitetga xos jihatlari dalillangan[189]. Ushbu vositalar ham nutqda har bir xalqning milliy ma’anaviyati, madaniyatidan kelib chiqqan holda ishlatiladi. Madaniyatlar o‘zgacha bo‘lganidek, noverbal vositalar ham milliy-madaniy xarakter kasb etadi. Aloqa-aralashuv murakkab jarayon hisoblanib, gohida so‘z orqali yetkazishning imkoni yo‘q bo‘lgan fikr turli ko‘z qarashlari, imo-ishoralar vositasida suhbatdoshga yetkaziladi. Insonlar suhbat jarayonida o‘zlari aytmoqchi bo‘lgan fikrning 7%inigina so‘z orqali, qolgan 38%ini ohang, 55 %ini imo-ishora orqali bayon etar ekanlar[190]. Noverbal vositalar

---

[184] Саидхонов М. Новербал воситалар ва о ъзбек тилида уларнинг ифодаланиши: Филол.фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993. 10- бет

[185] Nurmonov A. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar.–T., 1988. 2-b

[186] Саидхонов М. Новербал воситалар ва о ъзбек тилида уларнинг ифодаланиши: Филол.фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993. 13-бет

[187] Саидхонов М. Новербал воситалар ва о ъзбек тилида уларнинг ифодаланиши: Филол.фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993. 11 бет

[188] Карасик. И.В. Язык и социальный статус. – Москва., 1992. – С.30

[189] Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари ҳақида. – Андижон, 1980. Танланган асарлар. 3 жилдли. 1-жилд. – Б. 215-232. Абдуазизова Д. Сравнительно-типологический анализ паралингвистических средств:Автореф.дисс. ... канд. Филол. наук. – Ташкент, 1997; Саидхонов М. Новербал воситалар ва о ъзбек тилида уларнинг ифодаланиши: Филол.фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993. –Б.143

[190] Формановская Н.И. Речевой этикет и культура общения– М. 1969 – С 117

muloqot madaniyatida muhim ahamiyat kasb etibgina qolmay, adresat va adresantning ijtimoiy maqom hamda rolini namoyon etadi, shu bilan birga, so‘zlovchi va tinglovchining ruhiy holati, ularning o‘zaro munosabati, yoshi, jinsi, maqomi kabi omillar bilan bog ‘liq holda ifoda etiladi. Adresatning gapirish shakli, o‘zini tutishi (xulqi), xatti-harakatlari va tashqi ko‘rinishidan qaysi ijtimoiy sohaga mansub ekanligi adresat ongida assosiativ tushuncha hosil qiladi[191]. Shuningdek, turli kasb egalarining noverbal xatti-harakatlari Q.Rasulovning tadqiqot ishida professional xatti-harakatlar sifatida baholangan[192]. Nigohlar, imo-ishoralar, yuz ifodalari og‘zaki nutqning ajralmas qismi bo‘lib, suhbatdosh haqidagi ma’lumotlarning muhim qismini o‘z ichiga oladi. Masalan, o‘rta asrlar madaniyati “imo-ishora madaniyati” deb nomlangan, chunki harakatlar va tananing holati ijtimoiy munosabatlarda alohida rol o‘ynagan[193]. Oddiy imo-ishora katta huquqiy va diniy kuchga ega bo‘lib, butun guruhlarni harakatga keltirishi mumkin edi. Shunday qilib, o‘rta asrlarda imo-ishoralar ikkita ijtimoiy vazifani bajargan, ya’ni ular shaxsning ma’lum bir guruhga mansubligini ko‘rsatgan va shu guruh ichida a’zolar o‘rtasidagi iyerarxiyasini aniqlab bergan. Bugungi kunga kelib, Evropa madaniyatida imo-ishora tili muloqotda muhim rol o‘ynaydi va ma’ruzachining ma’lum bir ijtimoiy guruhga mansubligini ko‘rsatishi mumkin.

Qahramonlarning munosabatlari va ijtimoiy maqomini ifodalovchi noverbal aloqa vositalari adabiy nasrda, asosan, muallif nutqida ifodalanadi, ularni qahramonlarning nutqida ham uchratish mumkin. Dramada noverbal vositalar personajlar harakatlarini tasvirlashda uchraydi (odatda qavs ichida), sahnada ijro etilganda esa ular bevosita aktyorlar tomonidan takrorlanadi. Bundan tashqari, dramatik asarlarda birmuncha ertaroq, asarning boshlanishida gap kim va qanday vaziyatda ketayotganligini bilishimiz mumkin. Bu esa teatrda sahna ko‘rinishi orqali ochib beriladi yoki qahramonlarning kiyimlari ham ularning aslida kim ekanliklari haqida ma’lumot bera oladi. Muloqot jarayonida yuz beradigan sukunat ham kommunikativ ahamiyatga ega. Vaziyatni ko‘rsatish jarayonida sukunatning ikkita asosiy vazifasi aniqlangan: gapirish uchun sukunat va gapirish o‘rniga sukunat. Gapirish uchun sukunat suhbatning tabiatidan, gapirish va tinglashning almashinishidan kelib chiqadi. Hukmronlik qilishga intilgan kishi (Evropa va Shimoliy Amerika an’analarida) suhbatdoshni to‘xtatadi, ya’ni doimo so‘zlovchi bo‘lishga intiladi, ya’ni sukunat pastlik belgisiga aylanadi V.V.Bogdanovning fikriga ko‘ra, sukunat noaniqlik, so‘zlashishni istamaslik, odoblilik tamoyiliga rioya qilish va hokazo ma’nolarni bildiradi [194]. Suhbatlashishni istamaslik pastroq maqomli guruh a’zosi bilan aloqa qilishni istamaslikning ko‘rsatkichi

---

[191].Расулов Қ. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши:Филол.фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993. – Б.44

[192] Расулов Қ. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши:Филол.фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993. – Б.44

[193] Быганова А.Е. Прагмалингвистическии аспект категории социального статуса в немецкоязычном тексте. Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Москва, 2011. – 19 с

[194] Богданов В.В. Функции вербальных и невербальных компонентов в речевом общении Языковое общение. – Калинин: Калинин, 1986. - С. 43.

bo‘lishi mumkin. Bunday holda sukunat ustunlik belgisiga aylanadi[195]. Sukunat har xil millatda turlicha maqsadlarda qo‘llanilishi mumkin. Gapirish o‘rniga sukunat, suhbatni boshlash uchun sukunat. Suhbatdoshga muloqotni boshlash huquqini beradigan sukunat uning maqomiga hurmat belgisidir. Chunki muloqotda suhbatdoshning so‘zlariga javoban sukut qilish ko‘pincha hurmat, iymanish, gohida javob topib berolmaslikdan, ayrim hollarda esa haqorat sifatida baholanadi. Ijtimoiy maqomi yuqori bo‘lgan inson oldida sukut saqlash unga gap qaytarolmaslik, haq bo‘lsa-da, buni isbotlamaslik uchun odob-axloq normasi sifatida qaraladi, bu ham har bir millatning milliy, ma’naviy, madaniy qarashlaridan kelib chiqib baholanadi. Gohida esa gapirishni istamaslik uning foydasizligi uchun sukut saqlash holatlari ham uchraydi. Muallif tomonidan badiiy adabiyotda tasvirlangan, ijtimoiy maqomini ochishga hissa qo‘shadigan noverbal aloqa vositalari asosan fe’llar yordamida beriladi. Shuningdek, iboralar ham bu borada muallifga yordam beradi. Tadqiqotlarga ko‘ra, yuqori va past maqomga ega insonlarning xatti-harakatlarida ham shu toifaga mansubligi ko‘rinib turgan. Jumladan, *qoshini chimirmoq, labini burmoq, ko‘zini olaytirmoq* kabi harakatlar ko‘proq yuqori tabaqa vakillarida uchraydi, *bosh egmoq, boshini xam qilmoq, qo‘l qovushtirmoq* kabi harakatlar esa suhbatda quyi maqomli insonda uchrashi ko‘plab kuzatilgan. Shuningdek, *bosh irg‘amoq*, *qo‘l qovushtirmoq*, *ta’zim qilmoq*, *yukunmoq*, *etagini o‘pmoq*, *orqasi bilan yurib chiqib ketmoq* singari harakatlar ham bo‘ysunuvchi tabaqada uchrashi qayd etilgan.

Aloqa-aralashuvda noverbal vositalar kishilarning jamiyatda tutgan mavqeyiga qarab turlicha ekanligi, misollar orqali anglashiladi, maqomi yuqori kishilar harakati nboshqalarning xatti-harakatidan farq ilgan, past maqomdagi kishilarda esa, yuqorida aytib o ‘tilganidek, tavozening kuchliligi sezilib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуазизова Д. Сравнительно-типологический анализ паралингвистических средств:Автореф.дисс. ... канд. Филол. наук. – Ташкент, 1997.– С. 145

2. Богданов В.В. Функции вербальных и невербальных компонентов в речевом общении Языковое общение. – Калинин: Калинин, 1986. – С. 143.

3. Быганова А.Е. Прагмалингвистическии аспект категории социального статуса в немецкоязычном тексте. Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Москва, 2011. – С.19 .

4. Формановская Н.И. Речевой этикет и культура общения– М. 1969 – С 117

Карасик. И.В. Язык и социальный статус. – Москва., 1992. – С.30

5. Карасик. И.В. Язык и социальный статус. – Москва., 1992. – С. 265.

6. Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари ҳақида. – Андижон, 1980. Танланган асарлар. 3 жилдли. 1-жилд. – Б. 215-232.;

[195] Богданов В.В. Функции вербальных и невербальных компонентов в речевом общении Языковое общение. – Калинин: Калинин, 1986. - С. 12-18.

7. Расулов Қ. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993. – Б.44

8. Саидхонов М. Новербал воситалар ва ўзбек тилида уларнинг ифодаланиши: Филол.фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993. –Б.143

DICHOTOMY OF THE MEANINGS OF OBJECTIVE AND SUBJECTIVE MODALITY

Obilov Muzaffar Odiljon o‘g‘li
Ahmadjanov Tursunpulat Ahmadjon o‘g‘li
University of Business and Science

Annotation. This article analyzes the differences between objective and subjective types of modality category. According to the results of the research, the objective modality reflects the real state of reality, while the subjective modality represents the speaker’s attitude to the idea. They are manifested in different ways through grammatical and lexical means and affect the semantic and pragmatic aspects of the sentence. The article also analyzes the views of scientists such as G.Zolotova, V.Panfilov, F.Palmer on the classification of modality. New aspects in the modality interpretation of J. Baybi, R. Perkins and V. Pagliuca are shown.

Key words: modality, objective modality, subjective modality, modality classification, linguistic expression of modality.

Annotatsiya. Ushbu maqolada modallik kategoriyasining obyektiv va subyektiv turlari o‘rtasidagi farqlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, obyektiv modallik voqelikning real holatini aks ettirsa, subyektiv modallik so‘zlovchining fikrga munosabatini ifodalaydi. Ular grammatik va leksik vositalar orqali turlicha namoyon bo‘ladi hamda gapning semantik va pragmatik qirralariga ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, maqolada G.Zolotova, V.Panfilov, F.Palmer kabi olimlarning modallik tasnifiga doir qarashlari tahlil qilingan. J.Baybi, R.Perkins va V.Pagliukaning modallik talqinidagi yangi jihatlar ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: modallik, obyektiv modallik, subyektiv modallik, modallik tasnifi, modallikning lisoniy ifodasi.

Introduction.

In linguistics, the category of modality is studied as one of the important phenomena of language and speech. Modality expresses the relationship of the reality reflected in the sentence to the truth and the speaker’s position towards the thought through various linguistic means. Modality is a complex and multifaceted phenomenon, and there are various approaches to fully revealing its essence and classifying it. Objective and subjective factors interact in the formation of modality.

It is sometimes difficult to determine whether a particular modal meaning is objective or subjective. Researchers do not always come to a consensus in distinguishing between types of objective and subjective modality. Nevertheless, most of the means expressing modality can be considered as belonging to either objective or subjective modality.

Currently, research on modality continues in various directions. Linguists are paying great attention to illuminating the communicative and pragmatic aspects of this complex phenomenon, studying its connection with discursive activity. The linguistic expression of modality is being studied comparatively in various systematic languages. There are still controversial points in distinguishing between types of modality and separating them from each other. In particular, it is recognized that the traditional dichotomy of objective and subjective modality sometimes becomes conditional, and their interconnectedness is common to the entire modal field. Nevertheless, these two concepts still serve as a basis for classifying modality.

To understand the essence of modality, it is important to study its linguistic expression and speech realization together, combining various approaches. There is a need to conduct scientific research on modality in fundamental and applied directions, focusing on its cognitive and linguocultural aspects. The study of modality in modern linguistics is rising to a new level. Undoubtedly, research in this direction is important in illuminating the communicative possibilities of language and increasing the effectiveness of speech communication.

Research Methodology

The article employs descriptive and comparative-typological approaches in studying the category of modality. Linguistic units expressing modality have been analyzed from semantic and functional perspectives. A comparative analysis of modality means in various languages has been carried out. Additionally, based on a systematic approach to the phenomenon of modality, its relationship with units at various levels has been studied.

Discussion and results:

V. Panfilov's logical-conceptual approach to the category of modality is aimed at identifying the differences between objective and subjective modality, serving to define the boundaries between these two concepts.

According to his interpretation, objective modality is closely related to the content of the sentence, illuminating the characteristics of real connections and relationships in a given situation. Objective modality is integrated into the semantic structure of the sentence, forming its propositional content and reflecting the true state of connections in reality.

Subjective modality, on the other hand, expresses the speaker's process of perceiving an event or situation. It conveys the speaker's personal attitude and evaluation towards the content of the sentence. Subjective modality is more related to the expression plan of the sentence, serving to realize the speaker's communicative intentions. The scholar emphasizes that there are no strict boundaries between objective and subjective modality. In his opinion, the same linguistic means can express both objective and subjective modality. Examples of this include:

- The indicative mood of the verb often expresses subjective certainty, i.e., the speaker's confidence in the content of the sentence;

- The indicative mood of the verb can also reflect objective modality, as it expresses real connections and relationships in reality[5].

Thus, objective and subjective factors interact in the formation and expression of modality. Although the concepts are diverse, objective and subjective modality can be distinguished as the two main forms of modality.

Objective modality reflects the real state of reality or its true picture and illuminates existing connections between facts and events. Subjective modality, on the other hand, expresses the speaker's personal attitude towards the thought, their degree of confidence. Here, the speaker evaluates the extent to which the thought corresponds to the truth, which in turn reflects their subjective views.

In modal logic, modality is divided into four main types: deontic, epistemic, alethic, and dynamic modality. This classification serves to identify various semantic aspects of modality and is widely used in linguistics as well. Below, we analyze the specific features of each type of modality based on A. Kratzer's views[3].

Deontic modality is associated with social and moral norms, laws, and rules, expressing obligation, permission, or prohibition in relation to people's actions. For example, the sentence "It is necessary to establish enterprises processing desert-pasture livestock products in the regions. (Zarafshon. January 2024)" contains deontic obligation, while "However, such actions are not permissible. (Zarafshon. January 2024)" expresses deontic prohibition. Deontic modality plays an important role in regulating social relationships between people.

Epistemic modality expresses the speaker's confidence in the propositional content of the sentence, i.e., the degree to which it corresponds to the truth. For example, in the sentence "He might have come yesterday," the speaker expresses an approximate confidence in the subject's arrival yesterday. At the same time, in the sentence "He will certainly come," the speaker's high degree of confidence in the subject's arrival is reflected. Through epistemic modality means, the speaker conveys to the listener how reliable their knowledge is.

Alethic modality indicates the conformity of propositional content to truth, its logical necessity or possibility. Logical truths such as "2+2=4" can be examples of alethic necessity. Alethic modality is mainly used in mathematical and logical reasoning.

Dynamic modality expresses the subject's ability or possibilities. The sentence "He can run 100 meters in 10 seconds" expresses physical ability, while "This computer can store 1 terabyte of data" contains the meaning of technical possibility. Dynamic modality is related to the internal characteristics of objects and persons.

In linguistics, distinguishing between deontic and epistemic modalities is of particular importance. J. Lyons associates deontic modality with the necessity and probability of actions performed by a person, while describing epistemic modality as related to assumptions or confidence in the occurrence of actions or events. In his view, any modality can be either objective or subjective. Objective modality

expresses the evidence-based opinions of an independent observer, while subjective modality denotes a person's evaluation of a particular state of reality based on their own judgment[4].

F. Palmer has also analyzed the differences between deontic and epistemic modalities in his research. He interprets deontic modality as obligation and permission, and epistemic modality as probability and confidence. His interpretation of deontic modality as obligation and permission is very appropriate. Deontic modality is associated with external instructions and social norms regarding whether a subject should perform or not perform an action. For example, the sentence "However, a soldier must remain loyal to his oath and perform his duty under any circumstances. (Zarafshon. January 2024)" expresses the meaning of obligation. Deontic modality is often also associated with speech acts (such as commands, suggestions, advice).

Associating epistemic modality with the meanings of probability and confidence is also a correct approach. Epistemic modality expresses the possibility of an event occurring and the degree of confidence in it. For example, the sentence "The decrease in water levels in the lake system may lead to a further aggravation of this negative situation. (Zarafshon. January 2024)" expresses moderate probability, while "Undoubtedly, we accept all of this as yet another practical expression of the high attention given to the activities of the prosecutor's office, and to justify this trust, we will continue to mobilize all our strength, knowledge, and experience. (Xalq so'zi. January 2024)" expresses strong confidence. Epistemic modality reflects the speaker's attitude towards the truthfulness of the propositional content.

F. Palmer considers subjectivity as one of the main criteria of modality. Along with the traditional types of deontic and epistemic modality, he also distinguishes dynamic modality. Palmer interprets dynamic modality as a type of modality that expresses the subject's ability or demand to perform an action, as well as reflecting the speaker's possibilities to influence the situation. At the same time, he suggests not including phrases expressing ability within the scope of modality, considering them as factual statements outside of modality.

His emphasis on the close connection between modality and subjectivity is appropriate. Indeed, any modal meaning reflects the speaker's position and attitude. Additionally, his distinction of dynamic modality as a separate type is also well-founded. Dynamic modality expresses the subject's ability, internal possibilities, and needs. Recognizing dynamic modality expands the scope of the modality field and demonstrates its anthropocentric character.

The following meanings can be included within the scope of dynamic modality: a) ability (the subject's capacity to perform an action); b) need (the subject's requirement for something); c) desires (expressing the subject's wishes). Thus, dynamic modality reflects a person's "inner world," their abilities and aspirations.

Another important point by F. Palmer is that dynamic modality also expresses the speaker's possibilities to influence the situation. For example, the sentence "He can appeal by coming to the center personally or through the YIDXP. (Namangan sadosi. January 2024)" reflects the speaker's real possibilities and intention to persuade.

The classification of modal meanings based on evolution by J. Bybee, R. Perkins, and V. Pagliuca offers a new approach to the phenomenon of modality and strives to cover its various aspects. Their four-group modality system includes: agent-oriented modality, speaker-oriented modality, epistemic modality, and subordinating modality. This classification enriches the traditional types of modality with new concepts and demonstrates the need to consider the role of the subject in language and speech and the speaker's involvement[1].

The concept of agent-oriented modality is similar to dynamic modality, as both express the subject's possibilities and conditions. However, agent-oriented modality covers not only the subject's specific characteristics (such as physical ability) but also the influence of external factors (such as permission, obligation).

The concept of speaker-oriented modality is relatively new and unique, expressing the speaker's personal attitude towards the propositional content and its execution. For example, the sentence "You need to provide specialists to check the soil and gravel layers. (Said Ahmad, Ufq)" may express the speaker's involvement and their instruction or demand to the listener. However, this type of modality would be more complete if it encompassed not only the speaker's involvement but also their feelings and desires.

The separate distinction of epistemic modality aligns with the traditional approach. This type of modality indicates the truthfulness of the propositional content and the probability of its occurrence. For example, the sentence "This one statement could shake his entire being, even determining his fate one way or another at that moment. (Said Ahmad, Ufq)" expresses epistemic modality.

Subordinating modality indicates that it arises when one part of the sentence becomes dependent on another part. For example, in the sentence "He said he would come," the action of "coming" is dependent on the action of "saying." Subordinating modality expresses grammatical relationships rather than modal meanings. Therefore, considering it as a separate type of modality is debatable.

The dichotomy of objective and subjective modality is of fundamental importance in understanding the category of modality. The differences between these two types of modality are manifested in the following aspects:

1. Objective modality is related to the propositional content of the sentence, reflecting the real state of reality, i.e., whether the expressed thought corresponds to the truth or not. Subjective modality, on the other hand, expresses the speaker's personal attitude, evaluation, and emotions towards the thought expressed in the sentence.

2. Objective modality is more often expressed through grammatical means (verb moods, modal verbs), while subjective modality is manifested through

lexical means (modal words, introductory words), syntactic constructions, and prosodic means.

3. Objective modality describes the true picture of reality and illuminates real connections between facts and events. Subjective modality reflects the speaker's position, degree of confidence, and emotional attitude towards the thought.

4. Objective modality is integrated into the semantic structure of the sentence, forming its propositional content. Subjective modality is more related to the expression plan of the sentence, serving to realize communicative intentions.

5. There are no strict boundaries between objective and subjective modality - the same linguistic unit can express both types of modality depending on the context. For example, the indicative mood of the verb can express both objective modality and the speaker's confidence.

Conclusion

Objective and subjective modalities are distinguished as the main types of modality. Objective modality refers to the real state of reality, and subjective modality refers to the speaker's attitude to the thought.

In Western linguistics, modality is also studied as "root" and "epistemic" modality. Scientists such as G. Zolotova, V. Panfilov tried to classify modality taking into account syntactic and semantic aspects. Panfilov's logical-conceptual approach serves to clearly define the boundaries of objective and subjective modality.

In modal logic, deontic, epistemic, aletic and dynamic modality types are distinguished. Deontic modality represents obligation and permission, epistemic modality represents probability and certainty, alethic modality represents logical necessity, and dynamic modality represents individual capabilities and abilities. F.Palmer analyzed deontic and epistemic modalities, differences between aletic and dynamic modalities.

The classification of J. Bayby, R. Perkins and V. Pagliuka enriches traditional approaches with new concepts and shows the need to study modality as a pragmatic and anthropocentric phenomenon. The concepts of agent-oriented and speaker-oriented modalities and subordinate modality in their classification are controversial.

Therefore, the phenomenon of modality is multifaceted, and researching its various aspects is one of the urgent tasks of linguistics. Objective and subjective factors interact in its formation and expression. It is desirable to combine traditional and modern approaches in determining types of modality, to take into account the semantic, syntactic and pragmatic features of modality tools.

REFERENCES

1. Bybee J., Perkins R., Pagliuca W. The Evolution of Grammar: Tense, Aspect, and Modality in Languages of the World. – Chicago: University of Chicago Press, 1994. – P. 176-181.

2. Золотова Г.А. Очерк функционального синтаксиса русского языка. – Москва: Наука, 1973. – 351 с.

3. Kratzer A. Modality // von Stechow A., Wunderlich D. (eds). Semantics: An International Handbook of Contemporary Research. – Berlin: de Gruyter, 1991. – P. 639-650.
4. Lyons J. Semantics. Vol. I, II. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 388 p.
5. Панфилов В.З. Философские проблемы языкознания. – Москва: Наука, 1977. – С. 37-48.
6. Papafragou A. Modality: Issues in the Semantics-Pragmatics Interface. – Amsterdam: Elsevier, 2000. – 220 p.

NEYROLINGVISTIK KASALLIKLAR BILAN OG‘RIGAN BEMORLARDA ICHKI NUTQ

Raxmonova Marjona Jinaydullo qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti izlanuvchisi

Annotatsiya. Psixolingvistika psixologiya va lingvistika fanlarining birikuvidan yuzaga kelgan fandir. Uning o‘rganish obyekti til, nutq, inson ruhiyati hamda dunyoqarashidir. Shu jihatdan u ongdagi lisoniy hodisalarni tahlil qiladi. Nutq hosil bo‘lishining psixolingvistik xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular g‘oyatda murakkabliklarga egadir. Maqolada ichki nutq jarayonining psixolingvistik jihatlari, ichki nutqning hosil bo‘lishi, neyrolingvistik kasalliklarda ichki nutqning holati va bosh miya yarimsharlarining ichki nutq hosil bo‘lish jarayonidagi vazifalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: psixolingvistika, nutqiy faoliyat, ichki nutq, shaxs, o‘ylash, Verniki markazi, Broka markazi, bosh miya, rejalashtirish, firlash, ichki dasturlash, inter til, alaliya, afaziya, DLD.

ABSTRACT. Psycholinguistics is a branch of psychology and linguistics. The object of his study is language, speech, human psyche and worldview. In this respect, he analyzes linguistic phenomena in the mind. There are psycholinguistic features of speech production, which are extremely complex. The article discusses the psycholinguistic aspects of the inner speech process, the formation of inner speech, the state of inner speech in neurolinguistic diseases, and the functions of the cerebral hemispheres in the process of the formation of inner speech.

Key words: psycholinguistics, speech activity, inner speech, personality, thinking, Wernicke’s center, Broca’s center, brain, planning, rotation, internal programming, interlanguage, alalia, aphasia, DLD.

Ichki nutq tashqi nutqqa nisbatan subyektiv (bir shaxsning, subyektning o‘zigagina xos, o‘zigagina tegishli; shaxsiy[196]) hodisa hisoblanadi. Chunki bu jarayonda so‘zlovchi va tinglovchi birlashib ketadi, ya’ni har ikkalasining rolini I shaxs bajaradi, tashqi nutqdagi kabi suhbatdosh uchun eshitiladigan artikulatsiya

[196]Alderson-Day B., Fernyhough C. (2015a). Inner speech: development, cognitive functions, phenomenology, and neurobiology. Psychol. Bull. 141, 931–965.

mavjud bo‘lmaydi. Ba’zan ichki nutqni fikrlash bilan qorishtirib yuborishimiz mumkin, ammo har ikkalasi alohida hodisa hisoblanadi. Ichki nutq fikrlashga nisbatan yuqori darajadagi jarayon ekanligini unutmasligimiz lozim, chunki miyadagi paydo bo‘lgan fikrlar dastlab ichki nutqqa ko‘chadi va tartibga keltirilib, keyin tashqi nutqqa chiqariladi. Olimlarning aniqlashlaricha, inson bir daqiqada ichki nutqida 4000 tadan oshiq so‘zdan foydalanishi mumkin ekan. Bu esa insondagi fikrlashning qanchalik faol ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, psixologlar fikrlash va ichki nutqning chegarasini aniqlash uchun bir qator tajribalar o‘tkazdilar. Natija esa qoniqarli bo‘ldi. Ularning fikriga ko‘rsa, fikr beixtiyor, avtomatik ravishda ongda paydo bo‘ladi. Ichki nutq esa fikrlashning ta’siri ostida ularni tartibga keltirish uchun kognitiv qobiliyatni ishga solgan holda yuz beradigan jarayon hisoblanadi. Masalan, biz ko‘chada biror bir ovqatlanish shahobchasining oldidan o‘tib ketayotganimizda miyamizda ovqatlanish haqida fikr paydo bo‘ladi. Keyin esa rostdan ham ovqatlanish fikrining yaxshi ekanligi, bu yerga kirganda qanday taom tanavvul qilishimiz mumkinligi haqida miyamizda muhokama boshlanadi. Xuddi shu paytda biz fikrlashdan ichki nutqqa o‘tamiz. Miyada paydo bo‘lgan fikrlarning qay darajada ishonchli, foydali ekanligini aniqlash uchun ham ichki nutqimizda aynan shu informatsiyalarni qayta ishlaymiz. Kerakli-keraksiz turlarga ajratib xotirada saqlash yoki saqlmaslik ham ichki nutqda hal qilinadi. Ichki nutq - bu boshdagi kichik ovoz, ba’zan so‘zlarda fikrlash deb ataladi. Bu o‘z-o‘ziga jimgina gapira olish qobiliyatidir. Odamlardan tasodifiy va kutilmagan vaqt oralig‘ida o‘zlarining hozirgi ongli tajribasining tabiati to‘g‘risida hisobot berishlarini so‘rashganda, ular o‘rtacha 20% ichki nutq bilan shug‘ullanganliklarini aytishadi. Ichki nutq operativ xotiraning muhim elementi bo‘lib, ichki nutq so‘zlari “fonologik sikl” doirasidagi fikrlardan iborat bo‘lib, u cheklangan miqdordagi ma’lumotlarni bir nechta ishlov berish birliklarida osongina ushlab turishga xizmat qiladi[197]. Yaqinda tadqiqotchilar ichki nutq ba’zi ijro etuvchi funksiyalar yuz berishi asosida ekanligini isbotladilar, masalan, kognitiv vazifalar o‘rtasida almashish qobiliyati va talab qilinadigan turdagi moslashuvchan muammolarni hal qilish bilan shug‘ullanish. Shu bilan birga ichki nutq inson uchun metakognitsiyani hosil qilish va takomillashtirish uchun hamda o‘z “men”ligini shakllantirish uchun ham xizmat qiladi. Ammo aksincha bo‘lishi ham mumkin. Masalan, tashqi nutq ta’sirida miyada fikrlar paydo bo‘lmasligi yoki tatibsiz bo‘lishi va ichki nutqqa ko‘chira olmaslik, ichki nutq mavjud, ammo tashqi nutqda kamchiliklar bo‘lishi, tashqi nutqda biroz kamchilik bor yoki ichki nutqda buzilishlar va tartibsizliklar mavjud bo‘lish holatlari ham uchraydi. Bunday holatda insonda nevrologik yoki psixologik kasallik yuzaga kelishi mumkin. Ana endi ichki nutq hosil bo‘lishining fiziologik va biologik jihatlarini o‘rgansak. Ichki nutq hosil bo‘lishida, asosan, bosh miyaning chap yarim shi faol ishtirok etadi. Internal nutqimiz bosh miyaning ma’lumotlarni qayta ishlash va nutq ishlab chiqarish uchun mas’ul bo‘lgan chap yarmsharning old tomonida joylashgan Broka

[197]Kilani-Schoch, M. Relations between the development of the category of nominal and verbal number in two French-speaking children // A Cross-Linguistic Perspective. Edited by Stephany, U., Voeikova, M. 2009.

maydonida hosil bo‘ladi. Brokaning hududi tilni ishlab chiqarish uchun mas‘ul bo‘lgan miya yarim korteksining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Miyaning ushbu hududi 1850-yillarda ushbu sohaning funksiyasini ochib bergan fransuz neyroxirurgi Pol Brokoga bag‘ishlandi. Broka maydoni bosh miyaning old tomoni, chap yarimsharning pastki qismida joylashgan bo‘lib, nutq ishlab chiqarish, til o‘zlshtirish va ma’lumotlarni qayta ishlash hamda dekodlash vazifalarini bajaradi. Broka maydonining old tomoni so‘z va tushunchalarning semantikasi uchun, orqa tomoni esa fonologiya uchun mas’ul hisoblanadi. Broka hududining asosiy vazifalari quyidagilar: 1) nutq ishlab chiqarish; 1) fiziologik neyronlarni nazorat qilish; 3) ma’lumotlarni qayta ishlash. Shuningdek, nutq ishlab chiqarish jarayonida miyaning “Verniki hududi” deb nomlangan qismi ham faol ishtirok etadi. (Miyaning bu qismi til tushunishda muhim rol o‘ynashini 1874-yilga nevrolog shifokor Karl Verniki tomonidan aniqlangan va uning sharafiga “Verniki maydoni” deb nom berilgan)[198]. Bu hudud bosh miya chap yarim shari temporal lobning orqa qismida joylashgan bo‘lib, tilni tushunish uchun muhim rol o‘ynaydi. Verniki maydoni tashqi muhitdagi vaziyatni, so‘zlarni tushunishda, ularning ma’nolarini o‘zlashtirishda va nutq uchun so‘zlarni to‘g‘ri tanlashda faol qatnashadi. Verniki maydoni Broka maydoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, Broka maydoni nutqni ishlab chiqarsa, Verniki maydoni esa ishlab chiqarilgan nutqni qayta ishlash, tushunish va xotirada saqlash uchun bosh miyaning boshqa qismlari bilan ham bevosita aloqada bo‘ladi. Yozma va og‘zaki nutqni shakllantirishda ham ham Verniki maydoni faol qatnashadi. Broka va Verniki maydonlari ichki va tashqi nutq holati uchun juda muhim organ hisoblanadi. Ularning shikastlanishi esa jiddiy nutq buzilishlarini keltirib chiqarishi mumkin. Chunki aksariyat hollarda miya chap yarim sharlari, asosan, broka va verniki markazlarining shiksatlanishlari natijasida inson o‘z ichki nutqini nazorat qilib, boshqara olmaydi. Bu esa o‘z navbatida turli ruhiy kasalliklarni keltirib chiqaradi. Ba’zan bemorlar o‘zlarining ichki nutqlarini boshqa bir shaxs – II shaxsning unga qaratilgan tashqi nutqi deb o‘ylaydilar va miyada psixolingvistik buzilish sodir bo‘ladi. Nutq buzilishlarini keltirib chiqaruvchi bir nechta kasallik turlari mavjud. Ularga misol tariqasida afaziya, alaliya, autizm, DLD, anauraliya, afemiya, altsgeymer va boshqa shu kabi psixolingvistik kasallik holatlarini keltrishimiz mumkin. Masalan, afaziya bilan og‘rigan bemorlar kognitiv harakatlarni bajarishda ichki nutqqa tayanmaydilar, ularda ichki nutq zaif yoki umuman mavjud bo‘lmasligi ham mumkin. Afaziya bilan kasallangan ba’zi bemorlarda esa aksincha, tashqi nutq zaif yoki mavjud emas, ichki nutq esa faol bo‘lishi ham mumkin. Miya shikastlanishi bo‘lgan kattalardagi ichki nutq funksiyasi haqida fikr yuritilgan so‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ba‘zi bemorlarda tashqi nutqda sezilarli buzilish mavjud bo‘lganda, ichki nutq saqlanib qolishi mumkin. Qizig‘i shundaki, boshqa shaxslar tashqi nutqni saqlab qolishlari mumkin, ammo ayni paytda ichki nutqning sezilarli buzilishi yuz beradi. Afaziyaga chalingan bemorlarda ko‘p hollarda insult

[198]Shirinova Y. Nutqiy tafakkurning psixolingvistik muammolari. // Ijtimoiy- gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. 2023, №3.

o‘tkazilganini ko‘rishimiz mumkin. Tekshirish ishlari olib borilganda esa ularda miyaning Broka va Verniki markazlarining har ikkalasi yoki ikkalasidan bittasi shkastlanganligi aniqlanadi. Broka afaziyasida, asosan, so‘z ma’nosining o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq muammolar, Verniki afaziyasida esa so‘z o‘zlashtirish bilan bog‘liq muammolar yuz berayotganini ko‘rishimiz mumkin. Ba’zi bemorlar afaziyadan qisqa muddatda shifo topishlari ham mumkin, Agar ularda ichki nutq bilan bog‘liq jiddiy muammo bo‘lmasa. Buni aniqlash uchun esa bemorlar bilan ikkita mashq o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda bemorlarga ikkita juft so‘z aytiladi va so‘zlarni og‘zaki tahlil qilish buyuriladi. Keyin boshqa juft so‘zlar beriladi va ovoz chiqarmasdan tahlil qilib, keyin fikrlarning aniq xulosasini bayon qilish so‘raladi. Agar bemorda birinchi tahlil natijalari mukammal bo‘lsa, unda “bemorda tashqi nutqda muammolar jiddiy emas” degan xulosaga kelinadi. Aksincha, ikkinchi tahlil natijalari yaxshiroq natija ko‘rsatsa, bemorda ichki nutq sog‘lom holatda bo‘ladi va kasallikni yengish nisbatan osonroq kechadi.

Afemiya kamdan-kam uchraydigan nutq buzilishi bo‘lib, nutqni ishlab chiqarishga ta’sir qiladi, ammo og‘zaki va yozma tilni tushunish qobiliyatini saqlab qoladi. Bu anartriya yoki og‘ir nutq apraksiyasi sifatida ham tanilgan

DLD ga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu kasallik bugun kunda butun dunyoda bolalar o‘rtasida shiddat bilan ko‘payib bormoqda. Bunda bolada tinglash hamda so‘zlash orasidaggi bog`liqlikning buzilishi kuizatiladi. Ya’ni bola dars vaqtida diqqatini jamlash olmaydi. Xayollari tarqoq va kognitivlikdan yiroq bo‘ladi. Ichki nutq mavjud emas yoki impulsiv holatda bo‘ladi. Natijada tashqi nutqda ham muammolar yuzaga keladi. Diqqat va ichki nutqning bo‘gliqligi shundaki, bolatashqi ta’sirni his qila olishi uchun diqqatni jamlay olishiz zarur, aynan diqqatni jamlash orqali hosil qilingan metakognitsiyadan ichki nutq hosil qilinadi. DLD bemorlarida esa bu holat bilan muammolar talaygina uchrashi mumkin. Ular o‘z fikrlarini boshqara olmay qoladilar.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, ichki nutq insonning hayoti davomida juda ko‘p kognitiv vaziyat va holatlar uchun eng muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Ichki nutq fikrlash, harakatlarni boshqarish, ravon tashqi nutq, psixologik jihatdan sog‘lomlik va shu kabi boshqa muhim holatlar uchun asos vazifasini bajarib keladi. Ammo istisnoli holatlar ham mavjud, ya’ni ruhiy va aqliy jihatdan sog‘lom insonlarda ichki nutq mavjud bo‘lmasligi ham mumkin. Bunday holat juda kam insonlarda uchrashi mumkin. Bolalarda esa yetti yoshgacha tashqi nutq bilan qorishiq holatda bo‘ladi va asosan, o‘yin faoliyati davomida namoyon bo‘ladi. Yetti yoshdan boshlab asta-sekin ichki nutq individuallashtiriladi, ya’ni tashqi nutqdan ajratib olinadi. Shuningdek, yuqorida sanab o‘tilgan kasalliklarga qarshi kurashish uchun, asosan, gadjetlardan kamroq foydalanish (ayniqsa, bolalar), ko‘proq jonli muloqotda bo‘lish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alderson-Day B., Fernyhough C. (2015a). Inner speech: development, cognitive functions, phenomenology, and neurobiology. Psychol. Bull. 141, 931–965.

2. Alderson-Day B., Fernyhough C. (2015b). Relations among questionnaire and experience sampling measures of inner speech: a smartphone app study. Front. Psychol.

3. Al-Namlah A. S., Fernyhough C., Meins E. (2006). Sociocultural influences on the development of verbal mediation: private speech and phonological recoding in Saudi Arabian and British samples. Dev. Psychol.

4. Eshanayeva G. Nutqiy faoliyatda ichki nutq va uning o‘ziga xosliklari. // Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. 2023, №2.

5. Kilani-Schoch, M. Relations between the development of the category of nominal and verbal number in two French-speaking children // A Cross-Linguistic Perspective. Edited by Stephany, U., Voeikova, M. 2009.

6. Murod. T. Otamdan qolgan dalalar. – T.: Zukko kitobxon, 2020.

7. Russell T. Hurlburta Christopher L. Heaveya Jason M. Kelsey. Toward a Phenomenology of Inner Speaking. Las Vegas, 2013.

8. Shirinova Y. Nutqiy tafakkurning psixolingvistik muammolari. // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. 2023, №3.

9. Vygotsky L. S. Thinking and Speech. The Collected Works of Lev Vygotsky, Vol. 1. NY.: Plenum Press. 1987.

TEZAURUS LUG‘ATLARNING SHAKILLANISHI VA UNING NAZARIY ASOSLARI

Bobozaripova Malohat
Navoiy DPI doktaranti

Annotatsiya. Maqolada tezaurus lug‘at, uning boshqa lug‘atdan farq qiladigan tomonlari ta’kidlanadi, shuningdek tezaurus lug‘at ma’noni nafaqat ta’rifi bo‘yicha ko‘rsata olishi, balki so‘zni boshqa tushunchalar va ularning guruhlari bilan o‘zaro bog‘lash orqali aniqlashga imkon berishi ko‘rsatib o‘tiladi, shu sababdan ham uni sun’iy aql tizimlarida ishlatish mumkin ekanligi haqidagi fikrlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: tezaurus, leksikografiya, izohli lug‘at, lingvistik tezaurus, statistik tezaurus, suniy aql, sinonim, antonym.

Abstract. The article highlights the thesaurus dictionary, its differences from other dictionaries, as well as the fact that the thesaurus dictionary can show the meaning not only by definition, but also the word with other concepts and their groups. it is shown that it allows detection by correlation, and for this reason it is suggested that it can be used in artificial intelligence systems.

Key words: thesaurus, lexicography, explanatory dictionary, linguistic thesaurus, statistical thesaurus, artificial intelligence, synonym, antonym.

So‘z hodisasi tilshunoslikning deyarli barcha sohalarida tadqiq etiladi. Xususan, leksikografiyada ham. Har bir xalqning betakror milliy boyligi ularning so‘zlari hamda turg‘un iboralaridir. Zamon va makon ta’sirida tilning lug‘at boyligi doimiy ravishda rivojlanib boradi. Hayot, turmush tarzi, taraqqiyot va kashfiyotlar

yangi-yangi so‘zlar, tushunchalarni dunyoga keltiradi, ba’zi so‘zlar esa eskirib iste’moldan chiqib ketadi.

Har xil turdagi lug‘atlar tuzish umummadaniy ahamiyatga egadir. Lug‘atlar har birimizga ilmiy jarayonda to‘g‘ri va aniq ishlashga, real va obyektiv fikrlash va tasavvur qilishga yordam beradi. Leksikografiya deb leksikologiyaning lug‘atlar tuzish nazariyasi va amaliyoti bilan shug‘ullanuvchi qismiga aytiladi. Modomiki so‘z leksikografiya va unga tegishli bo‘lgan lug‘atshunoslik haqida borar ekan biz maqolamizda ko‘proq leksikografiyaga tegishli bo‘lgan tezaurs tushunchasi va uning ahamitati haqida gaplashamiz.

Tezaurusning nazariy konsepsiyasini qurish g‘oysining paydo bo‘lishi tilshunoslikda tasodifiy emas uning tug‘ilishi ilmiy fikrlashning butun rivojlanish jaroyoni bilan bog‘liq. Zamonaviy ilimda – lingvistik, tabiiy-ilmiy, falsafiy, uslubiy fanlar aro tadqiqotlarda tezaurus tushunchasidan foydalanish mumkun.

TEZAURUS (yun. thesauros — xazina, boylik) — 1) muayyan tildagi barcha so‘zlarni qamrab oladigan, ularning matnda qo‘llanish holatlarini to‘lato‘kis aks ettiradigan lug‘at. Jonli tilning lug‘at tarkibi doimo o‘zgarib turishi sababli Tezaurus faqat o‘lik tillar materiallari asosida yoki oldindan belgilab olingan yozma yedgorliklar uchun tuzilishi mumkin. Tezaurusda biron-bir ilm-fan sohasiga oid lug‘aviy birlik (so‘z) lar mavzu tartibida joylashtirilgan va ana shu birliklar o‘rtasidagi semantik (tur-jins, sinonimik va b.) munosabatlar aks etgan bo‘ladi. Bunda so‘zlar alifbo tartibida emas, balki bir mavzu, bir tushunchaga aloqador so‘zlarning barchasi bir joyda beriladi: kerakli so‘zlar tushunchaga qarab qidiriladi.[199] Nazariy jihatdan tezaurus leksika semantik tizimining ehtimoliy modellaridan biridir. Amadda undan yozuvchi individual lug‘atini boyitish vositasi sifatida foydalaniladi.

Tezaurus lug‘atda so‘zlar turli shartlar bilan bir-biriga assosiativ, ekvivalent yoki ierarxik tarzda bog‘lanishi mumkin. Bunday lug‘atlarda biz so‘zlarning ierarxik, tematik va alifbo tartibida joylashtirilgan ro‘yxatini topishingiz mumkin. Tezaurus odatda ma’nolari o‘xshash atamalar ro‘yxati shaklida bo‘ladi va atamalarning antonimlari, sinonimlari, paronimlari, izohi darajalnish qatori kabi xususiyatlari keltirilgan bo‘ladi. Tezaurus bu holatlarda, odatda, ma’lum bilim sohalarga e’tibor qaratiladi. Ushbu kontseptsiyaga misol sifatida **YUNESKO tezaurusi**ni olish mumkin bo‘ladi. U nashrlarni va hujjatlarni qidirish va tematik tahlilni amalga oshirish uchun ishlatilishi kerak bo‘lgan atamalarni o‘z ichiga oladi.

Biz xazina atamasini tezaurus bilan sinonim so‘z sifatida tushunishimiz ham mumkin. Masalan, ispan olimi Sebastian de Covarrubiasning *"Ispan yoki ispan tilidagi xazina”* nomli kitobi bo‘lib, bugungi kunda bu kitob bir nechta narsadan ko‘ra haqiqiy xazinani aks ettiradi, chunki bu ispan tilining mukammal lug‘atidir, ya’ni ilgari hech qachon bunday lug‘atlar bo‘lmagan edi. Aslida Covarrubiasning markaziy g‘oyasi **ispan tilidagi so‘zlarining kelib chiqishini aniqlaydigan**

[199] Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. –T.:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – B.154.

etimologiya lug‘ati yaratishga asoslangan edi. Covarrubias ham so‘zning shakli asl ma’nosi bilan bog‘liq degan fikrda edi.[200]

Tezaurusda so‘zlar alifbo tartibida emas, balki bir mavzu, bir tushunchaga aloqador so‘zlarning barchasi bir joyda beriladi: kerakli so‘zlar tushunchaga qarab qidiriladi. Nazariy jihatdan Tezaurus leksika semantik tizimining ehtimoliy modellaridan biridir. Amadda undan yozuvchi individual lug‘atini boyitish vositasi sifatida foydalaniladi. Tezaurus bilan maslahatlashish, ayniqsa tilni sevuvchilar uchun juda qiziqarli faoliyatdir, garchi u hech kimni bilim chuqurligiga yoqimli va hayratlanarli tarzda cho‘mishga taklif qilsa ham. Ushbu turdagi asarlarning maqsadi o‘quvchilarga yordam berishdir **ifoda etilgan** sinonimlarni yoki tegishli atamalarni taklif qilish orqali g‘oyalaringizni umumiy lug‘atga qaraganda dinamik va oson harakatlanish usullari orqali yaxshilaydi. Haqiqiy tezaurus ichidan biz bir nechta bo‘limlarni topishimiz mumkin: masalan, bitta atamani alifbo tartibida ajratish mumkin, boshqasida esa ularni guruhlash mumkin. **mavzular** raqamli tartiblangan tezaurusda juda jozibali va dinamik dizaynlar mavjud bo‘lib, ular sichqonchaning oddiy harakatlari bilan keng atamalar tarmog‘iga o‘tishga imkon beradi. Izohli lug‘atdan farqli o‘laroq, tezaurus ma’noni nafaqat ta’rifi bo‘yicha, balki so‘zni boshqa tushunchalar va ularning guruhlari bilan o‘zaro bog‘lash orqali aniqlashga imkon beradi, shuning uchun uni sun’iy aql tizimlarida ishlatish mumkin. Ilgari, tezaurus atamasi, avvalo, tilning so‘z boyligini matnlarda maksimal darajada to‘liq taqdim etgan lug‘atlar uchun ishlatilgan. So‘zning zamonaviy ko‘rinishidagi birinchi tezaurus Rojerning inglizcha tezaurusidir. “Tezaurus (yunoncha thesauros - xazina) bunday lug‘atlar - 1) tilning barcha so‘zlari iloji boricha to‘liq taqdim etilib, matnlarda ulardan foydalanish misollarining to‘liq ro‘yxati keltirilgan; 2) leksik birliklar o‘rtasidagi semantik munosabatlar (turga xos, sinonimik va boshqalar) ko‘rsatiladigan ideografik lug‘at ». “Tezaurus - bu so‘zni boshqa so‘zlar bilan semantik aloqasi orqali topishga mo‘ljallangan lug‘at desakham bo‘ladi. 1) lingvistik tezaurus – matnlar mazmunini tahlil qilish natijasida tanlangan va qabul qilingan tasniflash tizimiga muvofiq tizimlashtirilgan tabiiy til so‘zlari ro‘yxatini o‘z ichiga olgan lug‘at sanaladi 2) statistik tezaurus - tanlangan so‘zlar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan axborot qidirish lug‘ati. - ma’lum bir mavzu bo‘yicha yoki ushbu so‘zlarning bir xil matnlarda kelish chastotasi asosida lug‘at yozuvlariga guruhlangan matnlarni statistik tahlil qilish natijasi»[201]

Zamonaviy tilshunoslikda tezaurus - bu lug‘aviy birliklar o‘rtasidagi semantik munosabatlar (sinonimlar, antonimlar, paronimlar, giponimlar, giperonimlar va boshqalar) ko‘rsatiladigan umumiy yoki maxsus lug‘at yoki lug‘atning o‘ziga xos turi. Elektron formatdagi tezaurus - bu alohida fan sohalarini tavsiflash va axborot qidirish tizimlarini yaratishning eng samarali vositalaridan biri bo‘lishi mumkin.

---

[200] Лукашевич Н.В." Тезаурусы в задачах информационного поиска". 2011. С. 20-50. 3. Л.В.

[201] Осокина Светлана Анатольевна ОСНОВАНИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ТЕОРИИ ТЕЗАУРУСА -- Барнаул – 2015

Axborot nazariyasida tezaurus atamasi sub'ekt egallagan barcha ma'lumotlarning umumiyligini bildirish uchun ishlatiladi. Misollar: Amara-kosha (Amaraning lug'ati) - birinchi va eng muhim sanskritcha tezaurus (3-4 asr) Rojerning tezaurusi (19-asr, Angliya, 15000 ga yaqin synsets) - so'zning zamonaviy ma'nosidagi birinchi tezaurus. RuTez - bu rus tilining tezaurusi, u Axborot tadqiqotlari markazi tomonidan avtomatik indeksatsiya qilish vositasi sifatida yaratilgan; 1997 yildan hozirgi kungacha ishlab chiqilgan 45 ming tushuncha, 107 ming so'z va ibora, 177 ming munosabatlarni qamrab oladi.

Thesaurus.com - Dictionary.com tomonidan sizga olib kelingan dunyodagi eng katta va eng ishonchli bepul onlayn tezaurus. 20 yildan ortiq vaqt mobaynida Thesaurus.com sayti millionlab odamlarga ingliz tilini o'zlashtirish darajasini oshirishda va 3 milliondan ortiq sinonim va antonimlar bilan aniq so'zni topishda yordam bermoqda. Rogetning tezaurusi - ingliz tilida tez-tez ishlatib turiladigan tezaurus, 1805 yilda ingliz shifokori, tabiiy ilohiyotshunos va leksikograf Piter Mark Rojet (1779-1869) tomonidan yaratilgan. 1852 yil 29 aprelda ommaga e'lon qilindi. Dastlabki nashrida 15000 so'z bor edi va har bir ketma-ket nashrlardan keyin kengayib borgan, eng so'nggi nashrida (sakkizinchisi) 443000 so'z bor. Hozitgi kunda Karpeles kutubxonasi muzeyida uning qo'lyozmasi asl nusxada saqlanmoqda.

Rojet o'zining tezaurusini birinchi nashrining kirish so'zida quyidagicha ta'riflagan: "Hozirda ushbu asar asosidagi og'zaki tasniflash tizimini birinchi marta loyihalashtirganimdan qariyb ellik yil o'tdi. Bunday kompilyatsiya o'zimning kamchiliklarimni ta'minlashga yordam berishi mumkin deb o'ylagan holda, men 1805-yilda Tsevrus hozir nashr qilganidek, kichik hajmdagi, lekin xuddi shu printsip bo'yicha va deyarli bir xil shaklda so'zlarning katalogini to'ldirdim"[Lloyd 1982].

Rojetning tezaurusi oltita boshlang'ich sinfdan iborat. Har bir sinf bir nechta katta bo'limlardan, so'ngra katta bo'lim o'z navbatida kichik bo'limchalardan iborat qilib tuzilgan. Bu "ma'no klasterlari" yoki semantik jihatdan bir-biriga bog'langan so'zlar uchun mingdan ziyod novdalarni o'z ichiga olgan daraxt sifatida tasavvur qilinishi mumkin. Ushbu so'zlar qat'iy sinonimlar bo'lmasa-da, ularni rang yoki kontseptsiya sifatida yoki kontseptsiya spektri sifatida ko'rish mumkin. Spektrni bosh so'z sifatida tipiklashtirish uchun eng umumiy so'zlardan biri tanlanadi, bu butun guruhga teglab qo'yadi.[202]

Rojetning sinflar sxemasi va ularning bo'linmalari Aristoteldan boshlangan uzoq asrlik epistemologik an'ana asosida Leybnitsning falsafiy asariga asoslanadi. Aristotelning ayrim qarashlari Roget tezaurusining birinchi sinf "mavhum aloqalari" bo'limiga kiritilgan.

Kitob muntazam ravishda yangilanib turiladi va har bir nashr zamonaviy atamalar o'lchovi sifatida e'lon qilinadi; ammo har bir nashr Roget tomonidan o'rnatilgan dastlabki tasniflarga sodiq qoladi.

[202] http://fayllar.org

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Щерба" Опыт теории общей лексикографии ". 1940.
2. Baranov A. Vvedeniye v prikladnuyu lingvistiku. – Moskva, 2001.
3. A.N.Baranov va D.O.Dobrovolskiy "От редакции"-1965.
4. Kutuzov A.B. Kurs ―Korpusnaya lingvistika. Litsenziya Creative commons Attribution Share-Alike 3.0 Unported - //lab 314.brsu.by/kmp-lite/ kmpvideo/ CL/ CorporeLingva.pdf
5. Valitova N.R. Formirovaniye professionalnogo tezaurusa u studentov fizkulturnogo vuza. Avtoref. na soiskaniye uchyonoy stepeni kand.ped.nauk. – Omsk, 2012.
6. Hamroyeva Sh.M. O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari. Filol. f. bo‘yicha f.d.(PhD) diss. avtoref. – Qarshi: 2018
7. (Aktaev, E. K. O‘quv va axborot jarayoniga avtomatlashtirilgan tezaurusning zamonaviy usullarini joriy etish / E. K. Aktaev. - Matn: bevosita // Yosh olim. - 2015. - No 6,2 (86,2). - B. 3-6. — URL: https://moluch.ru/archive/86/16526/)
8. Лукашевич Н.В." Тезаурусы в задачах информационного поиска". 2011. С. 20-50. 3. Л.В.
9. Mahkamov N. Terminologik tamoyillar va xalqaro terminelementlar. // Xorijiy so‘z va terminlardan foydalanishda me’yor va milliy-assotsiativ fikrlash muammolari. Toshkent, 2011
10. Mirahmedova Z. O‘zbek tilining anatomiya terminologiyasi va uni tartibga solish muammolari. – Toshkent: ―Fan. 2010
11. Rasulov R., Suyunov B., Mo‘ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. Toshkent, 2010
12. Eshmo‘minov. A. O‘zbek tili milliy korpusining sinonim so‘zlar bazasi. Filol. f. bo‘yicha f.d. (PhD) diss. avtoref. – Qarshi: 2019.
13. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: 2004
14. Lug‘atlar va ularda milliy madaniyat tushunchasining aks etishi. Arxiv.uz O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: 2006

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA “OTA-ONA” FREYMI PRAGMA-SEMANTIK XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI

Rajabov Elshod Erkinovich
NavDPI doktoranti,
Qiyomova Nigora Bahodir qizi
Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani 34-umumiy o‘rta ta’lim maktabi oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillari misolida “ota-ona” (parent) freymining tuzilishi, uni tashkil etgan lisoniy (leksik, frazeologik, paremiologik) birliklarning semantik, pragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari qiyosan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: freym, oila, ota-ona, ota, ona, semantik maydon, pragmatik va lingvokulturologik xususiyatlar, qiyosiy tahlil, maqollar, iboralar, pretsedent birliklar.

Annotation. In this article, the structure of the "parent" frame, the semantic, pragmatic and linguocultural characteristics of the linguistic (lexical, phraseological, paremiological) units that make up it are comparatively analyzed on the example of the Uzbek and English languages.

Key words: frame, family, parents, father, mother, semantic field, pragmatic and linguocultural features, comparative analysis, proverbs, expressions, precedent units.

Ma’lumki, jahon tilshunosligining antroposentrik bosqichida eng asosiy e’tibor tilning sotsiomadaniy, pragmatik va kognitiv-semantik omillarini birlashtirgan integrativ tadqiqiga qaratildi. Ayniqsa, chog‘ishtirma aspektda, ya’ni ingliz tili bilan o‘zbek tilini o‘zaro qiyosiy o‘rganish, bu orqali tilimizning mavqeyini ko‘tarish muhim masala sifatida kun tartibiga qo‘yilayotgan bir davrda, lisoniy birliklarni semantik freym asosida talqin qilish hozirgi davr tilshunosligining eng muhim muammolaridan biridir. O‘zbek va ingliz tillarida “ota-ona” (parent) freymini ifodalovchi lisoniy birliklarning lingvopragmatik va semantik xususiyatlarining tahlil qilinishi asnosida har ikkala tilda ularning o‘xshash va farqli tomonlarini umumlashtirish ushbu ishning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, ingliz va o‘zbek tillaridagi “ota-ona” (parent) freymini qiyosiy o‘rganish har ikkala xalqning milliy-madaniy odatlarini tilda qay daraja aks etganini ifodalash hamda xalqlarning mentalitetidagi o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarini isbotlab berish imkonini yaratadi.

Oila – mo‘jazgina bir jamiyat, butun insoniyat jamiyatining daxlsizligi ham uning jipsligiga bog‘liq. Oilaning insoniyat jamiyati bilan uzviy bog‘liqligi uning eng qutlug‘ vazifasi – hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlashida yaqqol ko‘rinadi. Ota-ona esa, shubhasiz, dunyoning barcha xalqlarida oilaning ustunlari sifatida qadimdan e’zozlanib kelinadi.

Ota-ona – farzandni dunyoga keltirishida ishtirok etuvchi, biologik davomchi yoki farzand hayotida ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi ma’naviy, ruhiy eng yaqin qarindoshlik darajasiga ega insonlar [Oila ensiklopediyasi, 2019: 133]. Ota-onaning oiladagi o‘rni, ularning ulug‘ zot sifatida qadrlanishi, ularga ko‘rsatiladigan cheksiz hurmat-ehtirom, izzat-ikrom, ota-ona uchun farzandlarning har narsaga tayyorligi nafaqat o‘zbek oilalariga, balki dunyoning boshqa xalqlari, jumladan, ingliz xalqiga ham xos bo‘lgan xususiyatlardan hisoblanadi.

Ota – oila boshlig‘i, oilaning ishonchi, himoyachi panohi bo‘lgan ulug‘ shaxs timsolidir. O‘zbek oilalarida otaga oilaning mustahkam poydevori sifatida qaraladi va ulug‘lanadi. Ingliz xalqida ham ota oilada alohida hurmat bilan e’zozlanadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *ota* leksemasiga quyidagicha ta’rif beriladi:

1) Farzandli, bolachaqali er kishi (o‘z bolalariga nisbatan). *Ota bo‘lmay, ota qadrini bilmas* (Maqol). *Siz otamisiz, nimasiz axir, o‘g‘lingizni tiyib olish sira esingizga keladimi?* (A.Qodiriy, O‘tkan kunlar).

2) Yoshi katta kishilarga murojaat qilishda yoki ularni hurmatlash uchun ishlatiladi. *Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi* (Maqol). *Qoratoy O‘rozni darrov Shokir otaga yubordi* (Oybek, Tanlangan asarlar).

3) O‘g‘il bolani erkalatish uchun ishlatiladi.

4) ko‘chma. Biror ish yoki harakatni boshlab bergan, unga asos solgan kishi haqida. *Abdulla Qodiriy o‘zbek romanchiligining otasidir.*

5) ko‘chma. Mehribon boshliq, rahnamo haqida. *U kolxozchilarga ota bo‘ldi, g‘amxo‘rlik qildi, ish o‘rgatdi* (Oydin, Mardlik – mangulik).

6) El-yurtga boshchilik qiluvchi, yoshi yoki mansabi ulug‘ zot haqida. *Tayyorlan, qizim, Senga yurt otasi, ellikboshimiz gapiradilar* (Oybek, Tanlangan asarlar) [O‘TIL, 2007, 3-jild: 151].

Endi *ota* leksemasining ingliz tilidagi semantik xususiyatlari haqida to‘xtalar ekanmiz, dastlab ingliz tili izohli lug‘atlarida *father* leksemasining o‘zbek tilidan farqli ravishda ot va fe’l turkumiga xosligi ifodalanganligini ta’kidlash o‘rinlidir:

father (noun):

1) someone’s male parent: My father taught me to drive;

2) a man who begets or raises or nurtures a child;

3) a male ancestor who lived long before you: Spanish was the language of their fathers;

4) a man who creates, orginates or founds something: Chaucer is considered the father of english poetry;

5) an elderly or venerable man used as a title of respect;

6) about a priest, especially a Roman Catholic priest: I need your help, Father;

7) about God in the Christian religion: Heavenly Father, please hear our prayers;

8) the male parent of an animal.

father (verb):

1) to procreate as the male parent (to make a woman pregnant and become a father);

2) to act or serve as a father to a child;

3) to create something.

Ona – muqaddas zot. Bu jumla nafaqat o‘zbek xalqi uchun, balki butun dunyo xalqlariga xos bo‘lgan purma’no hikmatdir. Barcha xalqlar onani mehribon, mushfiq, rahmdil, jonkuyar, farzandi uchun jonini ham ayamaydigan inson sifatida tushunadi va qadrlaydi. Hadisi sharifda “Onalar oyog‘i ostidadir ravzayi jannat” deya onalarga bejizga yuksak ta’rif berilmagan. Ingliz xalqida ham onaga g‘amxo‘r, saxovatli, farzandlariga namuna bo‘la oladigan inson timsoli sifatida qaraladi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *ona* leksemasining semalari quyidagicha izohlanadi:

1) Farzandi yoki farzandlari bo‘lgan xotin (o‘z tuqqan farzandlariga nisbatan); bolali xotin. Ko‘p bolali ona. *Erka tutsa onasi, taltayadi bolasi* (Maqol).

2) Oila boshlig‘i, tarbiyachisi. Bular uchun alohida qozon osilarmidi. *Siz hammasining onasi, u kishi – ota. Usta bolani juda yaxshi ko‘radilar* (A.Qahhor, Tomoshabog‘).

3) Keksa ayollarga hurmat yuzasidan ularning nomiga qo‘shilib ishlatiladi. *Tojixon ona, Norjon ona.*

4) Keksa ayollarga hurmat bilan murojaat etish formasi.

5) Bola tug‘gan jonivor. *Toychoqning onasi. Ona qo‘y. Ona ari urug‘lagandan keyin bir sutkada 1500-2000 tagacha tuxum qo‘yadi* («Fan va turmush»).

6) ko‘chma. Yaratuvchi, vujudga keltiruvchi. *Yer – hayotning onasi*. [O‘TIL, 2007, 3-jild: 125].

Ingliz tilida *mother* leksemasining xuddi *father* leksemasi singari ot va fe’l turkumiga xos leksik birlik sifatida ifodalanishi ingliz tili izohli lug‘atlarida ham aks etgan:

mother (noun):

1) someone’s female parent: My mother is a teacher;

2) a female ancestor;

3) a woman who creates, orginates or founds something;

4) a title for a woman respected for her wisdom and age;

5) a creative source, an origin: Philosophy is the mother of the sciences;

6) Roman Catholic Church: A mother superior;

7) the female parent of an animal.

mother (verb):

1) to give birth to, create and produce: She mothered a family of ten;

2) to treat someone with care and kindness as though they were a small child: I don’t like being mothered.

Yuqoridagi o‘zbek tili va ingliz tili izohli lug‘atlaridan keltirilgan semalardan ko‘rinib turibdiki, *ota (father)* va *ona (mother)* leksemalarining farzandli, erkak yoki ayol kishiga nisbatan qo‘llanilish ma’nosi ularning asosiy ma’nosi hisoblanadi.

O‘zbek tilida *ota* va *ona* leksemalari juftlashib *ota-ona* juft so‘zini hosil qiladi. Ingliz tilida esa bu holat *parents* leksemasining o‘zida mujassamlanadi.

*My **parents** live in Tashkent.*

*Mening **ota-onam** Toshkentda yashaydi.*

O‘zbek oilalarida shunday odat borki, farzandli bo‘lgan er va xotin bir-biriga nisbatan murojaatida hurmat munosabatini ustun qo‘yadi. Er xotiniga *onasi, onajonisi, oyisi* shaklida; xotin eriga esa *otasi, otajonisi, dadasi, dadajonisi* tarzida murojaat qiladi. Ba’zan ushbu so‘zlar farzandining ismidan so‘ng, hatto ba’zida farzandining nomi bilan ham atash holatlari uchraydi (*Bahoraning oyisi, Bahora* kabi). Bu holat ham o‘zbek tilining milliy-madaniy jihatlarini ko‘rsatib beradi va er-xotinning bir-biriga hurmatini ifodalaydi. Ingliz oilalarida esa bunday holatga duch kelmaymiz. Aksincha, er va xotinning bir-biriga o‘z ismini aytish orqali murojaat qilishi ingliz oilalariga xos jihatlardan biridir. Shu o‘rinda umumta’lim

maktablari uchun yaratilgan “Tarbiya” darsligida keltirilgan ushbu parchani keltirib o‘tishni lozim topdik:

Jahon tillari universitetida o‘qirdim. Universitetga kelgan xorijlik mehmonning o‘zbek tilida biyron-biyron gapirishi e’tiborimni tortdi. Mehmon o‘zbek xalqi urf-odatlarini o‘rganayotgan ekan, uni uyga taklif qildim. Mehmon:

- Men tushunmayapman, sizlarning oilangizda ham xuddi bizdagidek ota-bolaga bir xil ism qo‘yar ekan-da?

- Nega bunday deyapsiz?

- Hozir onangiz otangizni Murod deb chaqirdilar-ku?! Sizning ham ismingiz Murod-ku, axir?!

O‘zbek oilalarining ingliz oilalaridan yana bir farqli tomoni shundaki, ota va ona leksemalarining tasviriy ifodalarini qo‘llash holatlari ko‘proq uchraydi. Ayniqsa, o‘zbek tilidagi badiiy matnlarda *ota* leksemasining *davlatim, suyangan tog‘im, qadrdonim, qiblagohim, tog‘day tayanchim; ona* leksemasining esa *jannatim, munisam, mushtiparim, ko‘zimning nuri, boshimdagi tojim* kabi tasiriy ifodalariga tez-tez duch kelamiz. Bu ham o‘zbek xalqining ota-onaga nisbatan hurmati cheksizligining bir dalilidir. Fikrimiz isboti sifatida atoqli shoir, O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning o‘zbek onasiga bag‘ishlangan quyidagi misralarini keltirib o‘tmoqchimiz:

Mushtipar ham o‘zing, buyuk ham o‘zing,
Kuyinchak ham o‘zing, kuyuk ham o‘zing,
Olamga tatirlik suyuk ham o‘zing,
Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi,
Ey o‘zbek onasi, o‘zbek onasi.

O‘zbek oilalarida ota-ona o‘z farzandining tarbiyasiga, kelajak taqdiriga hech qachon befarq bo‘lmaydi. Farzandining dunyoga kelganidan to kelajakda qanday kishi bo‘lib yetishishlari uchun ota-onalar javobgarlikni o‘z bo‘yniga oladilar. O‘zbek oilalaridagi ota-onalarning bunday fazilatlari boshqa g‘arb xalqlari oilalarida deyarli uchramaydi. O‘zbek tili badiiy matnlarida ham ota-onaning bunday xususiyatlari ba’zan o‘z ifodasini topadi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida Otabekning o‘z ota-onasi fikriga “*Aqllik kishilarning o‘z o‘g‘ullari ustidan qilgan amallari noma’qul bo‘lmas*” [Qodiriy A. O‘tkan kunlar, 2014, 160] tarzidagi javobi orqali biz o‘zbek oilalaridagi ota-onaning farzandlari taqdiriga befarq emasligi bilan birga, farzandning ota-ona oldida o‘zini tutishi, ularning fikrlariga kamtarona va donolarcha munosabat bildirishi holatlari ko‘zga tashlanadi.

O‘zbek tilida *ota* leksemasining sinonimlari sifatida zamonaviy adabiy tilga xos *dada*, eski o‘zbek tili va diniy nutqqa xos *padar, padari buzrukvor, volid* so‘zlari; *ona* leksemasining esa zamonaviy adabiy tilga xos *oyi*, so‘zlashuv nutqiga xos *aya, ena*, eski o‘zbek tili va diniy nutqqa xos *volida, volidayi muxtarama, modar* so‘zlari qo‘llaniladi. Ingliz tilida esa so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan erkalash ma’nosidagi *dad, daddy, pa, papa, pop* so‘zlari *father* leksemasi o‘rnida; *mum, mummy, mom, mommy, ma, mama* so‘zlari esa *mother* leksemasi o‘rnida

ishlatiladi. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, o‘zbek tilida ham, ingliz tilida ham *ota (father) va ona (mother)* leksemalarining sinonimlari ushbu leksemalarning barcha ma’nolarida qo‘llana olmaydi, faqatgina “farzandi bor erkak/ayol kishi” semasiga xos mazmunni ifodalaydi.

O‘zbek tilida *ota* leksemasi asosida *otalik* (otaning o‘z farzandiga munosabatlari, mehri, burchi, shu munosabatlarga bog‘liq holatlar. Otalik burchi), *otaliq* (moddiy, madaniy yoki boshqa xil yordam ko‘rsatish, shu yo‘l bilan tashkilotlar va kishilarni bir-biriga bog‘lashdan iborat ijtimoiy burch, faoliyat. Otaliqqa olmoq), *otali* (otasi bor, otasi hayot), *otasiz* (otasi yo‘q), *otalarcha* (otalar kabi, o‘z otasiday, o‘z otasi kabi. Otalarcha nasihat qilmoq. Otalarcha g‘amxo‘rlik), *otaxon* (keksa yoshdagi begona erkaklarga murajaat, uni hurmatlash, o‘z otasiday ko‘rish), *otamlashmoq* (ikki va undan ortiq kishilarning suhbati, hasratlashishi, o‘tirishi, ziyofati, maslahati ma’nosida); *ona* leksemasi asosida esa *onalik* (ona mavqei, unga xos xislatlar – homiladorlik, tug‘ish, bolani tarbiyalash va shunga bog‘liq ona burchi; birovga onalik qilish, unga mehribbon bo‘lish yoki onaning o‘z farzandiga munosabatlari, onaga xos xislatlarga ega bo‘lish. Onalik muhabbati. Onalik hissi); *onalarcha* (onalar kabi, onalarga xos mehribonlik, shafqat bilan. Onalarcha o‘pmoq. Onalarcha g‘amxo‘rlik); *onali* (onasi bor); *onasiz* (onasi yo‘q, onasi vafot etgan. Onasizning umri – xor); *onasizlik* (onasi yo‘qlik, onasiz qolish); *onaxon* (onani yoki keksa yoshdagi begona ayolni sevib, erkalatib, juda yaqin olib murojaat etish, uni hurmatlash) kabi yasama leksemalarni hosil qilish mumkin. Ingliz tilida esa *father* va *mother* leksemalari asosida hosil qilingan quyidagi yasama leksemalar alohida paradigmani hosil qiladi: *fatherhood* – the state of being a father; *fatherly* – like or appropriate to a father, showing the affection of a father: fatherly love, fatherly advice; *fatherless* – having no living father or no known father; *motherhood* – the state of being a mother: It’s hard to continue motherhood with a career; *motherless* – without a mother because she is dead; *motherly* – typical of a good mother: motherly love, motherly woman.

O‘zbek tilida *ota* va *ona* leksemalarining boshqa lingvistik birliklar bilan valentligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Katta ota, katta dada **–** ota yoki onaning otasi; bobo. Katta dadam: "Chalma, sen naychi bo‘lasanmi, yomon ko‘raman", deydi (Oybek, Tanlangan asarlar);

Otabezori – otasining so‘ziga quloq solmaydigan, tartibsiz; bezoriligi va dilozorligi uchun hatto o‘z otasi ham yuz o‘girgan; oqpadar. Boy esa yana otabezori o‘g‘illarining nadomati bilan yuzmayuz, yolg‘iz qoldi («Yoshlik»);

O‘rin-joyni bildiruvchi so‘zlar bilan kelib, o‘sib-ulg‘ayib yashagan makon va shu joyga nisbatan hurmat ma’nosini ifodalaydi: *ota yurt, ota makon, ota shahri*. Bir zumgina chayqalib oldi Ota makon – qirlarim, cho‘llar (S.Sayyid);

Vaqt tushunchasini bildiruvchi so‘zlar bilan birikkanda, voqea-hodisaning o‘tmishda ro‘y berganini ifodalaydi: *otam zamonida, otasi davrida;*

Ota kasb – ota shug‘ullangan kasb (farzandga nisbatan). Beshiksozlik Rahim akaga ota kasb («Saodat»);

Ota qadrdonim – otamni taniydigan qadrdonim, otamning do‘sti. Ota qadrdonlarim bilan tanishtirganingiz uchun rahmat, amaki (A.Qodiriy, O‘tkan kunlar);

Otameros – ajdodlardan qolgan meros;

Otasining ismi – kishiga ism va familiyadan tashqari, unga qo‘shib aytiladigan sharifi. Muso Toshmuhammad o‘g‘li, Nosir Tursunovich;

O‘gay ota – farzandning otasi vafot etib yoki onasidan ajralib ketib, boshqa bir shaxsga turmushga chiqsa, shu shaxs bolaga nisbatan o‘gay ota hisoblanadi.

Onaxotin – 1) qadrli, hurmatli ayol, keksa xotin; boshliq, rahbar ayol. Ro‘paramdan kelmoqda rasmona – onaxotin, Namoyishlar egasi salobat bilan bosib (G‘.G‘ulom). 2) sergap, mahmadona qizchalarga nisbatan aytiladigan hazilona so‘z;

Onayizor, onaizor (onaga nisbatan asosan achinish ma’nosida) – mehribon, g‘amxo‘r ona; onaning mushtiparligini, mushfiqligini, mehribonligini ifodalash shakli. Onayizor emasmi, ustunni ushlagancha bolasining tovushi kelayotgan tomonga termilib qoldi (Oydin, Mardlik – mangulik);

Onaboshi – oilaning, ro‘zg‘orning boshlig‘i yoki bir to‘daga bosh bo‘lgan, uni boshqarib turgan hurmatli ayol, ba’zan erkak ma’nosida. Nafisa yoshlar ichida allaqachon bo‘lg‘usi onalik hurmatini qozongan, gapida, ishida salmoqli, qizlargagina emas, yigitlarga ham onaboshi bo‘lib qolgandi. (A.Muxtor, Tug‘ilish);

Ona tili – 1) bolaning go‘daklikdan kattalarga taqlid qilib o‘rgangan tili, tug‘ma til (odatda gapiruvchi shaxs mansub bo‘lgan xalq tili); 2) har bir elatning, xalqning, millatning o‘z tili. Ona tili taraqqiyoti har bir elat, xalq va millatning ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq;

Ona qizim – erkalatish, alqash ma’nosida qo‘llanadigan ibora. Shunday ekan, men senga yomonlikni ravo ko‘rmasman, ona qizim (T.Ashurov, Oq ot);

Ona tuproq – kishi tug‘ilgan joy. Keyin bilsam, xuddi o‘sha bir quloch yer mening ona tuprog‘im ekan (A.Obidjon, Akang qarag‘ay Gulmat);

Ona xalq – kishining o‘zi mansub bo‘lgan xalqi. Bechora emas, yo‘q, ko‘ngli sutday pok, ammo ko‘p jabr-u jafo chekkan mening ona xalqim bugun ma’naviy madadga juda-juda tashna. (Gazetadan);

Qahramon ona – o‘nta va undan ortiq bola tug‘ib voyaga yetkazgan onalarga beriladigan faxriy unvon;

O‘gay ona – farzandning o‘z onasi vafot etib yoki otasidan ajralib ketib, bolaning otasi boshqa bir ayolga uylangan bo‘lsa, bu ayol bolaga nisbatan o‘gay ona hisoblanadi;

Tutingan ota / ona – o‘z ota / onasidek bo‘lib qolgan, munosabat bog‘lagan begona kishi ma’nosida;

Rahmatli ota / ona – vafot etgan ota / onaga nisbatan;

Hoji ota / ona – haj safarini ado etgan ota / onani ulug‘lash ma’nosida;

Ingliz tilida ham *father* va *mother* leksemalarining boshqa birliklar bilan sintagmatik munosabatlari mavjud:

fore fathers / fore bears – people in your family who lived a long time ago: His fore fathers came to America over a century ago;

venerable father – very old and wise or respected man;

founding father – one of the people who first started an organization, community, set of ideas, etc;

birth mother – the woman who gave birth to a child, altough she may not now be the child's legal mother;

full-time mother – a woman who does not have a job and spends all her time looking after her children;

expectant mother – a pregnant woman;

surrogate mother – a woman who gives birth to a baby for another woman who cannot have children;

mother-to-be – a pregnant woman;

mother's boy / mother's son – a boy excessively attached to his mother, lacking normal masculine interest;

mother hen – someone who looks after another person and worries about them;

mother tongue – one's native language;

Mother Earth – used for referring to the world as the place where everything comes from;

Mother Nature – used for referring to nature and natural forces;

Mother superior – a woman who is in charge of a convent;

Mother house – the convent in which the mother superior of a religious community lives;

own father / mother or biological father / mother – someone's natural, real father / mother rather than a man / woman who has adopted them become their legal parent;

father figure / mother figure – older man / woman on whom one depends for advices, help, moral support and behaves like a father / mother to someone;

fatherland / motherland / mother country – one's native land, the land of ancestors;

father-in-low / mother-in-low – the father / mother of one's husband or wife;

step father / mother – who is not one's real father / mother;

late father / mother – a man / woman who was dead.

Ota (father) va *ona (mother)* leksemalari bilan bog'liq o'zbek va ingliz tillarida bir nechta frazeologik birliklar ham mavjud. O'zbek tilida *Ota go'ri qozixona* (bir kishining arzimagan aybini katta jinoyatga yo'yib ko'rsatish); *Otangga rahmat* (kimsadan mamnun ekanlikni ifodalovchi olqish iborasi); *Otang temirchimi?* (muncha ezmasan, gapni cho'zma, degan ma'noda ishlatiladigan ibora); *Otasining xunini so'ramoq* (biror narsa uchun haddan ziyod pul yoki haq so'ramoq, biror narsaga juda qimmat baho qo'ymoq); *Bu ham yo'q edi, otam bozordan keltirdi* (bolalar biror taom, kiyim-bosh, buyumdan norozi bo'lib, xarxasha qilib, injiqlik bildirganda shunday deyiladi. Boriga, topilganiga shukur

qil, shu ham aslida yo‘q edi, dadang bozordan keltirdi, deya mazkur buyumning narxi oshiriladi, bahosi – qadri ko‘tariladi); *Otang o‘rgilsin* (maqtov ma’nosidagi ibora); *Otasiga tortgan* (jismoniy va xarakter xususiyatlari otasiga o‘xshagan farzand haqida); *Padar la’nati* (otasi la’natlangan, la’natining o‘g‘li; umuman, qarg‘ash, haqorat ifodasi); *Oq padar* (ota tomonidan la’natlangan, oq qilingan farzandga nisbatan qo‘llanadi); *Padarkush* (otasini o‘ldirgan yoxud uning o‘limiga sababchi bo‘lgan farzandga nisbatan ishlatiladi); *Padari qusur* (yosh bolalarni erkalash uchun hazil-mutoyiba tarzidagi engil so‘kish ma’nosida ishlatiladi) kabi iboralarda *ota* komponeneti; *Onani yaratmasin* (farzandlari haqida eng ko‘p qayg‘uradigan onaga nisbatan ishlatiladi); *Oq sut bergan ona* (ko‘krak sutini va mehrini berib boqqan onaga nisbatan ishlatiladi); *Ona sutini oqlamoq* (ona tarbiyasi va ishonchini oqlamoq); *Onadan tug‘ma bo‘lib* (har qanday kasallikdan yoki balo-qazolardan xoli bo‘lib, aslidagiday; sog‘lom, hech narsa ko‘rmaganday); *Ona sutiday pok (yoki halol)* (hech qanday nopoklik, qalbakilik aralashmagan, kishining o‘z peshona teri evaziga kelgan); *Onasining qornida yotganday* (juda tinch, betashvish); *Onasining qornida* (1 – hali tug‘ilgani yo‘q; 2 – ko‘chma. Mutlaqo yo‘q, yer yuzida topilmaydi); *Onamning o‘lishini bilganimda, bir qop kepakka sotib yerdim* (bunaqa bo‘lishini bilganimda boshqa ishni qilgan bo‘lardim ma’nosidagi ibora); *Onasini uchqo‘rg‘ondan ko‘rsatmoq* (do‘q qilish, qo‘rqitishni ifodalaydi); *Onasini ko‘rsatmoq* (ta’zirini bermoq, jazolamoq); *Ona suti og‘zida / Ona suti og‘zidan ketmagan* / *Ona suti og‘zidan anqib turgan* (hali yosh, tajribasiz ma’nosida); *Ona suti og‘ziga kelmoq* (haddan tashqari qiynalmoq ma’nosida); *Bor otangga, bor onangga* (biror ish yuzasidan sarson-sargardon bo‘lib yurganlikni, sansalorlikni ifodalash uchun ishlatiladi) kabi xalqona iboralarda esa *ona* komponenti ishtirok etgan.

Ingliz tilida ham *father* va *mother* leksemalari qatnashgan quyidagi frazeologizmlarni keltirib o‘tsa bo‘ladi: *from father to son* (from one genration or period in history to the next); *the father of something* (the man who first started something or who first did it succesfully); *to be like a father to someone* (to act like a father to someone); *to be to one’s fathers* (to die); *to have a soft spot for father* (to feel a lot of affection for father); *to follow father’s footsteps* (to continue forefathers’ actions); *old enough to be someone’s father* (older than a particular person); *to be like a mother to someone* (to treat somebody as he or she her own child); *the mother of all* (used for emphasising that something is very big, serious or exciting); *necessity is the mother of invention* (used for saying that people find ways to do what they have to or get what they need); *a hen with one chicken* (a woman who takes care of her children); *somebody needs mothering* (someone needs the care of mother).

Bundan tashqari, o‘zbek tilida *ota* va *ona* haqida ko‘plab xalq maqollari mavjud. Bunday maqollarda ota-onaning buyuk zotligi, ularning oiladagi o‘rni beqiyos ekanligi, ota-onani hurmat qilish, e’zozlash keyingi avlod vakillarining muqaddas burchi ekanligi g‘oyalari aks etadi: *Yomg‘ir yog‘sa, to‘ning ho‘l bo‘lur, Otang o‘lsa, uying cho‘l bo‘lur; Gap kelganda otangni ham ayama; Otangdan mol*

qolguncha, tol qolsin; Otdan toy o‘zadi, otadan – bola; Otasi ulgurmaganni o‘g‘li tugatar; Ota buzganni o‘g‘il tuzadi; Ota kasbi – davlat kasbi; Otang er bo‘lsa, sen sher bo‘l; Toy ot bo‘lganin sezmas, yigit ota bo‘lganin sezmas; Ota – bolaga orqa tayanch; Ota moli qo‘shilmasa, bola boyimas; Erta tur otangni ko‘r, otangdan so‘ng otingni ko‘r; Otangni ko‘rsang otdan tush; Ota oldidan o‘tma, odob oldidan ketma; Otang turgan uyning tomiga chiqma; Olti kun och qolsang ham, otangni mehmon qil; Ota rozi – xudo rozi; Otasini siylamaganni bolasi siylamas; Otadan oldin so‘zlagan boladan ko‘nglingni uz; Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi; Otasining qarg‘ishini olgan aravakash bo‘ladi; Ota moliga ishonma, so‘ziga ishon; Otaning amaliga suyanma, otang toysa, sen yiqilasan; Oltmishga kirgan otadan osh so‘rama; Ota g‘ayratli bo‘lsa, bola ibratli bo‘lar; Ota bo‘lish osan, otalik qilish qiyin; Otang kim bo‘lsa, shuning o‘g‘lisan; Ota xarid qilganni bola furush qiladi; Ota to‘ni bolaga loyiq kelsa, ota to‘ning tilaydi; Otaning soqoliga qarama, aytgan maqoliga qara; Otang mirob bo‘lsa ham, ariqni tozalab suv ich; Otasi boshqa el bo‘lmas; Otang o‘rgatsa, dono bo‘lasan; Kurash bilmagan otasini yiqitar; Yaxshi ota – yomon bolaga qirq yil oziq; Bir ota o‘n o‘g‘ilni boqa oladi, o‘n o‘g‘il bir otani boqa olmaydi; Otasi yomon osh talashar, yalqov odam ish talashar; Ota dushmani do‘st bo‘lmas; Yelka yag‘iri – otga meros, ota qarzi – o‘g‘liga meros; Ota boyligi yerga singar, mehnat boyligi – elga; Ot mingan otasini tanimas, toy mingan – og‘asini; Ota bilan orsiz talashar; Ota mulki bo‘lsa ham, ayab ye; Otang qozi bo‘lsa ham, gunohkor bo‘lma; Ota-bola bir bog‘, biri – gul, biri – bog‘bon; Ota bezori – xudo bezori; Ota bola uchun taxt yasar, baxt yasata olmas; Otangni o‘ldirganga yaxshilik qil; Ona suti bilan kirmagan aql tana suti bilan kirmas; Onaning ko‘ngli bolada, bolaning ko‘ngli dalada; Bolasi ko‘cha kezar, onasi bag‘rin ezar; Amma-xola yig‘ilib ona bo‘lmas; Ona – hayotning guli, bola – uning bulbuli; Onaning bir qo‘li beshikni, bir qo‘li dunyoni tebratar; Ona – olam faxridir; Onasizning umri – xor; Tug‘gan – ona emas, boqqan – ona; Onangni uch marta Makkaga opichlab olib borsang ham, oq sutini oqlolmaysan; Onaning yaxshiligini bemor bo‘lsang bilarsan; Bola ham ona deydi, ona ham ona deydi; Onasini suyganning bolasini suy; Onangni kiftingda tutsang, singlingni kaftinda tut; Onasi tepgan qulunning eti og‘rimas; Yaxshi ko‘rsang bolasini, izzat qilgin onasini; Ota – olam faxri, ona – olam quvonchi; Oltin-kumushning eskisi bo‘lmas, ota-onaning bahosi bo‘lmas; Ota-ona ekilib dunyoga kelmaydi; Dunyoda har narsa topilar, ota-ona topilmas; Ota – aql, ona – idrok; Ota-ona – oltin qanot; Davlating – ota-onang; Ota-onasini hurmat qilgan – bola-chaqasidan hurmat ko‘radi; Ota-onasini tanimagan tangrisini tanimas; Ota-onasining dilin og‘ritgan murodiga etmas; Alp – otadan, zot – onadan; Ona kulsa – xona to‘lar, ota kulsa – g‘aming ketar; Ota qadrini ota bo‘lganda bilasan, onanning qadrini – ona bo‘lganda; Ota kulfatin ota bilar, ona kulfatini ona bilar.

Ingliz tilida ham *father* va *mother* komponentli paremiologik birliklar mavjud bo‘lib, quyida ularning ayrimlari bilan tanishib chiqamiz: *See your father, come down the horse; Any man can be a father but it takes a special to be a dad; One father can feed seven children, but seven children can’t feed one father; You only*

appreciate your father the day you become yourself; Like father – like son; Many a good father has but a bad son; It is easy to become a father, but hard to be done; A father is someone who carries pictures on his wallet where his money used to be; It's a wise father that knows his own child; A missery father makes a prodigal son; The best academy is the mother's knee; Like mother – like daughter; From the time we were born, a mother's love is the one thing we can always take for granted; Like a lioness a mother will always protect her cub; A man loves his sweetheart the most, his wife the best, but his mother the longest; The hand that rocks the cradle is the hand that rules the world; Every mother thinks her own goosling a swan; Experience is the mother of wisdom; The mother-in-low remembers not that she was a daughter-in-low; Sons are anchors of mother's life; Listen to your father who gave you life, do not despire your mother when she is old; Parents are bankers provided by nature. Ko'rinadiki, ingliz xalq maqollarida ham ota-onaning oila tayanchi ekanligi, ularga mehribonlik ko'rsatish lozimligi haqidagi fikrlar anglashiladi.

Ingliz va o'zbek tillarida ushbu xalqlarning milliy-madaniy jihatlarini o'zida aks ettiruvchi markerlangan hodisalar – pretsedent birliklar ham mavjud bo'lib, *ota (father)* va *ona (mother)* konsepti bilan bog'liq bo'lgan quyidagi misollarni keltirib o'tishni lozim topdik. "O'tkan kunlar" romanida Otabekning Hasanaliga "*ma'naviy ota*" tarzidagi murojaati, "Chinor ostidagi duel" kinofilmida "*Otamni uylantiraman deyapti*" jumlasi, "Uchrashuv" televizion filmida qo'llangan "*Onamdan qolgan toshoyna qani?*" jumlasi, hadisi sharifda e'tirof etilgan "*Jannat onalar oyog'i ostidadir*" hikmati, Navoiy qalamiga mansub "*Boshni fido ayla ato qoshig'a, Jismni qil sadqa ano boshig'a, Tun-kuningga aylagali nurfosh, Birisin oy ayla, birisin quyosh*" misralari, "*Anori dona-yu dona, qadrli ota-yu ona, Topilur do'st-u begona, topilmas ota-yu ona*" kabi xalq qo'shiqlari o'zbek tilining *ota* va *ona* leksemalari bilan bog'liq bo'lgan "qanotli so'zlar"idan sanaladi. Ingliz tilida ham *father* va *mother* komponentli pretsedent nomlar mavjud. Bunday birliklarga "*Father Christmas*" (an imaginary old man with a long white beard and red clothes who brings children their Christmas presents), "*Father's Day*" (a special Sunday in June when people give a card or present to their father), "*Our Father*" (a prayer that Jesus Christ taught to his followers), "*Holly Father*" (a way of talking to or about the Pop), "*Mother's Day*" (a special day when you give cards or presents to your mother to show your love for her), "*Mother of God*" (a title used in some Christian churches for Mary, the mother of Jesus Christ), "*Mother Goose*" (the imaginary author of Mother Goose's tales, a collection of nursery rhymes first published in London in the 18th century) kabilarni kiritish mumkin.

O'zbek va ingliz tillarida "ota-ona" freymiga ishora qiluvchi bunday lingvistik birliklar juda ko'p va ularning barchasi o'zbek va ingliz xalqi muloqot jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu maqolada "ota-ona" semantik freymi yadrosini tashkil etgan *ota* va *ona* leksemalarining o'zbek va ingliz tillari izohli lug'atlaridagi ma'nolarini aniqlanib, ularning semantik strukturasidagi xususiy va umumiy jihatlari qiyosiy leksikografik jihatdan tahlil qilindi. Ingliz va

o‘zbek tillari semantik tipologiyasida “ota-ona” umumiy semali lisoniy (leksik, frazeologik, paremiologik, sintaktik) birliklarga xos kognitiv-semantik, lingvopragmatik va lingvokulturologik xususiyatlar qiyosiy aspektda tahlil qilindi hamda umumiy va xususiy belgilariga a’lohida e’tibor qaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oila ensiklopediyasi. Toshkent: “O‘zME”, 2019.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. Toshkent, “O‘zME”, 2007.
3. Mirzayev T, Musoqluv A, Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari lug‘ati. – Toshkent, “Sharq”, 2013
4. Shomaqsudov Sh, Shorahmedov Sh. Hikmatnoma: O‘zbek xalq maqollarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 1990
5. Shomaqsudov Sh, Dolimov S. Qayroqi so‘zlar: xalq iboralarining izohli lug‘ati. – Toshkent, “O‘zME”, 2011
6. Karomatova K.M, Karomatov H.S. English proverbs. Toshkent, 2005
7. Qodiriy A. O‘tkan kunlar (roman). Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2014.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FRAZEOLOGIK IBORALARNING O‘RGANILISHI

Mustafayev Elyor Odil o‘g‘li
Toshkent amaliy fanlar universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Frazeologik iboralar lug‘aviy birlik sifatida har qanday tilda muhim ahamiyatga ega va ular miqdor jihatdan ham tilda katta leksik qatlamni tashkil etadi. Shuningdek, maqolada frazeologiyaning tarkibi yuzasidan xilma-xil qarashlarning mavjudligi, ya’ni frazeologiya aslida nimani o‘rganadi, uning predmeti nima degan savollarga javob beriladi. Iboralarning nomlanishi yuzasidan ham turlicha fikrlar mavjud bo‘lib, muallif ushbu jihatga ham alohida to‘xtalib o‘tgan. Frazeologik iboralarning ingliz va o‘zbek tillarida o‘rganilishi va tilda alohida yo‘nalish sifatida shakllanishi qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ibora, frazeologiya, frazeologik birlik, leksik qatlam, lug‘aviy birlik, qiyosiy tahlil.

Abstract. Phraseological expressions are important in any language as a lexical unit, and they form a large lexical layer in the language both quantitatively and quantitatively. In this article, the author emphasizes the importance of phraseological units in language, especially their study in both languages. There are also different opinions on the naming of the phrases, and the author has also focused on this aspect. The study of phraseological expressions in English and Uzbek languages: their formation as a separate direction in the language is comparatively analyzed.

Keywords: phrase, phraseology, phraseological unit, lexical layer, lexical unit, comparative analysis.

Frazeologiya ingliz tilshunosligida o‘zbek tilshunosligidan farqli o‘laroq alohida yo‘nalish sifatida o‘rganilmaydi. Ushbu bo‘lim har ikki tilda ham nisbatan kech shakllangan bo‘lib, frazeologiyani alohida o‘rganish bo‘yicha dastlabki

tadqiqotlar o‘tgan asrning 40–50-yillaridan boshlangan. Frazeologiya atamasi tilshunoslikka ilk bor fransuz tilshunosi S. Balli tomonidan kiritilgan.

Ingliz tilida frazeologik birliklarni nomlashda ham turli yondashuvlar mavjud. Xususan, phraseological unit, set expression, idiom, fix expression, va set phrase shular jumlasidan. Bular orasida eng ko‘p qo‘llanadigan atama – phraseological unit hisoblanib, W. Collins iboralarga (idioms) turli xil ma’noga ega so‘zlar guruhi deya ta’rif beradi. Shu bilan birga, iboralar metaforik xususiyatga egaligini ham ta’kidlaydi [W. Collins, 1995: 4].

Frazeologiyani tilshunoslikda alohida fan sifatida dastlab rus tilshunosi prof. Y.D. Polivanov o‘rgana boshlagan. “Sintaksisga mos keladigan, lekin ayni paytda umumiy turlar bilan emas, balki ushbu alohida iboralarning individual ma’nolari bilan shug‘ullanadigan maxsus bo‘limga ehtiyoj tug‘iladi. Men ushbu tilshunoslik bo‘limiga, shuningdek, unda o‘rganilayotgan hodisalarning yig‘indisiga frazeologiya nomini beraman”. U ushbu yo‘nalishni frazeologiya yoki idiomatika deb nomlashni taklif qilgan.

Ingliz tilida iboralarga nisbatan *idiom* termini ko‘p qo‘llanadi. Biroq tilshunos A.I. Smirnitskiy frazeologik birliklar va idiomalarni bir-biridan quyidagicha farqlaydi: frazeologik birliklar – stilistik jihatdan neytral iboralar bo‘lib, ular metafora xususiyatiga ega emas yoki bu xususiyatini yo‘qotgan. A.I. Smirnitskiy frazeologik birliklarga “get up, fall in love” kabi iboralarni misol keltiradi.

Frazeologik birliklarining sintaktik tasnifi esa I.V. Arnold tomonidan amalga oshirilgan:

1) fe’l (fe’l vazifasini bajarish): “to run for one’s life”, “to talk through one’s hat”;

2) substansial (ot vazifasini bajaruvchi): “white lie”, “calf love”;

3) sifatlovchi (sifat vazifasini bajaruvchi): “high and mighty”, “spick and span”;

4) ravishdosh (ravish vazifasini bajaruvchi): “by hook or by crook”, “in the dead of night”;

5) interdomen (tovush vazifasini bajaruvchi): “My God!”, By George!”.

Ushbu tasnifga ko‘ra, eng ko‘p tarqalgani bu fe’l iboralardir. Iboralarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – ularni to‘g‘ridan to‘g‘ri tushunib bo‘lmaydi. Masalan, *go behind someone’s back* (“kimnidir orqasidan bildirmasdan ish qilmoq”) yoki *let the cat out of the bag* (“sirini oshkor qilmoq”). Murakkab semantik va grammatik xususiyatlaridan kelib chiqib frazeologiya tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega.

Y. Pinxasovga ko‘ra, o‘zbek tilshunosligida frazeologik birliklar dastlab adabiyotshunoslik predmeti hisoblangan, chunki iboralar badiiy adabiyotda keng foydalanilgan va asarlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda ham iboralar muhim ahamiyat kasb etgan [Y. Pinxasov, 1969: 55].

Tilshunos olim Sh. Rahmatullayev frazeologiyaning o‘zbek tilshunosligida shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Olimning frazeologiya bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasi va “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari” nomli

monografiyasi sohani alohida bo‘lim sifatida shakllanishida katta xizmat qildi va keng tadqiqotlar uchun manba vazifasini o‘tadi. Keyinchalik, Sh. Rahmatullayev (1978-yil) o‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘atini yaratdi. Shuningdek, frazeologiyani turli jihatdan tadqiq qilishda I. Qo‘chqortoyev, E. Umarov, A. Mamatov, O. Abdinazarov, H. Qahhorova, B. Yo‘ldoshev, A. Mamatovlar kabi olimlarning hissasi katta bo‘ldi. Ular tomonidan turli nomdagi dissertatsiya, monografiya, o‘quv qo‘llanma va darsliklar chop etildi.

Frazeologiyani o‘rganish yuqorida ta’kidlaganimizdek biroz keyinroq boshlangan. Aslida frazeologiya rus tilshunoslari tomonida alohida o‘rganila boshlangan. Misol uchun, V. Vinogradov kabi olimlar dastlabki tadqiqotlarni amalga oshirgan. Natijada o‘zbek tilshunosligida ham ilmiy izlanishlar olib borishga keng yo‘l ochilgan. B. Yo‘ldoshev o‘zining himoya ishida frazeologiya fani tarixini xronologik jihatdan quyidagi 3 davrga bo‘lish mumkinligi aytib o‘tgan:

1) Birinchi davr: XVIII asr o‘rtalaridan to XX asr 30-yillarigacha;

2) Ikkinchi davr: XX asrning 30–50-yillarigacha;

3) Uchinchi davr: XX asr 60-yillaridan to mustaqillikning dastlabki davrigacha bo‘lgan muddatni o‘z ichiga oladi [B. Yo‘ldoshev, 1993: 297]. Bugungi kunga qadar frazeologiya bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar davom etib kelmoqda.

Frazeologik birliklarni nomlashda ham turli qarashlar mavjud. Masalan, tilshunos Y. Pinxasov frazeologik birliklarni *barqaror so‘zlar bog‘lanmasi yoki frazeologik iboralar* deb nomlaydi. Professor H. Jamolxonov esa frazemalarni ko‘chma ma’noli turg‘un konstruksiya deb hisoblaydi. Boshqa bir tilshunos Sh. Rahmatullayev iboralar nutqqa yaxlit kirib kelganligi va shu yaxlitligini nutqdan tashqarida ham saqlaganligi tufayli ularni *turg‘un bog‘lanma* deb ataydi. Shuningdek, Sh. Rahmatullayevga ko‘ra ikki va undan ortiq leksik negizdan tarkib topgan, tuzilishi jihatidan birikmaga, gapga teng ko‘chma ma’no tashuvchi frazeologik birliklar ibora deb ataladi [Sh. Rahmatullayev, 1970: 56].

Frazeologiyani o‘rganishda keng va tor tushuncha mavjud, ya’ni ba’zi olimlar frazeologiya keng ma’noda frazeologik birlik, maqol, matal va tasviriy ifodani ham o‘rganadi deb qarasa, boshqa tilshunoslar frazeologiyaning predmeti faqat iboralar degan g‘oyani ilgari suradi. Misol uchun, maqol va matallar, folklorshunos olimlarning fikricha, folklor janriga tegishli bo‘lib, ularni o‘rganuvchi soha paremiologiya deb nomlanadi [O. Madayev, 2010: 65].

A. Mamatov “O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi” nomli dissertatsiyasi va monografiyasida iboralarni kundalik hayot tarzi va kasbdan kelib chiqib shakllanganiga urg‘u beradi va ularga misollar keltiradi. Haqiqatan, iboralar xalqning boy tarixi, madaniyati, dini ta’sirida shakllan hikmatli so‘zlar.

Frazeologik birliklar katta leksik qatlamni qamrab oladi. Ularning leksik birlikdan asosiy farqi shundaki, ular bittadan ortiq so‘zdan tashkil topganligi hisoblanadi. Bugungi kungacha frazeologik birliklarni o‘rganishda ularning sinonimlik, omonimlik va paronimlik xususiyatlari, stilistikasi, ularni o‘qitish va ularning shakllanishiga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Frazeologiya

sohasida qator qilingan ilmiy tadqiqotlarga qaramasdan, hali ham frazeologiyaning maxsus o‘rganilmagan jihatlari mavjud. Jumladan, frazemalarning uslubiy funksiyalari, ularning so‘z, birikma va gaplar bilan semantik hamda uslubiy munosabati, iboralarning qo‘llanish darajasi kabi qator masalalar o‘zining tugal va asosli yechimini topmagan [B. Yo‘ldoshev, 1998: 5]. Shuningdek, frazeologizmlarni tadqiq etishda milliy madaniyat va turmush tarzidan kelib chiqib yondashish, ularning lingvokulturologik va kognitiv talqini kabi masalalar hozirgi tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biri, chunki so‘nggi yillarda tilshunoslikda yangi uslub va yo‘nalish sifatida kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya shiddat bilan kirib keldi [M. Bekiyeva, 2022: 4]. Fikrimizcha, frazeologiyani so‘z turkumlari doirasida o‘rganish va ularni shu jihatdan tasniflash va boshqa tillar bilan qiyosiy jihatdan o‘rganish ham lozim, chunki ular ham grammatik ham leksik jihatdan bir biridan farq qiladi.

Iboralar fikrning ifoda maqsadini aniq ochib beradi va nutqning ekspressivligini to‘liq ta’minlaydi. Masalan, *xursand bo‘ldim* deyishdan ko‘ra *boshim osmonga yetdi* deyish so‘zlovchining naqadar xursand ekanligini ifodalaydi va tinglovchida ham chuqur taassurot qoldiradi.

Iboralar bittadan ortiq lug‘aviy ma’no anglatishi ko‘p ma’nolik (frazeologik polisemiya) deb ataladi. Frazeologik polisemiya hodisasi ko‘plab tilshunoslar, jumladan, Sh. Rahmatullayev, Y. Pinxasov, B. Yo‘ldoshev, aka-uka Mamatovlar, A. Berdialiyev va boshqa ko‘plab olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan.

Frazemalar birdan ortiq ma’nolarni ifodalasa, ular polisemantik frazemalar sanaladi. Polisemantik frazemalarning oddiy ko‘rinishi ikki ma’noli bo‘ladi. Masalan, *aqli yetadi* frazemasi “idrok qilmoq” va “ishonch hosil qilmoq” kabi ikki ma’noga ega. *Bo‘yniga qo‘ymoq* frazemasi uch ma’nolidir: 1) “to‘nkamoq, ag‘darmoq”, 2) “isbotlab, e’tirof qildirmoq”, 3) “bajarishga rozi qilmoq” [A. Berdialiyev, I. Ermatov, 2021: 162] Aynan shu jihati bilan ibora turg‘un birikma va maqollardan farqlanadi.

Iboralarni sinonimlik xususiyati ham chuqur tadqiq etilgan. Bir tushunchani ifodalash uchun bir necha ekvivalent iboralar, ya’ni sinonim iboralar qo‘llanadi. Masalan, *boshi osmonga yetdi/terisiga sig‘madi/og‘zi qulog‘iga yetdi* kabi sinonim iboralar *xursand bo‘ldi* ma’nosini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Tilshunos S. Rahimovaning fikricha “frazeologik birlik ma’lum jihatdan ko‘chma ma’noli so‘zga o‘xshaydi, shuning uchun ko‘pincha frazeologik birlik so‘zga ekvivalent va ular korrelyativdir, deb aytiladi. Biroq bu ekvivalentlik shakliy emas, balki semantik-funksional, ya’ni frazeologiya nutqimizda to‘la ma’noli so‘z sifatida, umuman olganda, bir xil vazifani bajaradi (tushunchani ifodalaydi, hodisani bildiradi, gap qurilishida ishtirok etadi)” [S. Rahimova, 2022: 16].

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” asarida frazeologiya bo‘yicha muhim ma’lumotlar keltirilgan. Unda frazeologiyaning o‘rganish predmeti ularning tabiati va substansional xususiyatlari hamda nutqda amal qilishiga bog‘liq degan fikr ilgari suriladi. Bundan tashqari, frazeologik birliklarning semantik strukturasi

haqida quyidagicha fikr bildiriladi “frazeologizm ikki yoqlama lisoniy birlik bo‘lib, shakl va mazmunning dialektik birligidan iboratligi, frazeologizmning shakliy tomonini so‘z (leksema emas) tashkil qilishi, ularning mazmuniy tomoni frazeologik ma’no ekanligi ta’kidlanadi”.

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, ingliz va o‘zbek tilshunosligida frazeologik iboralarni alohida o‘rganish kech boshlangan bo‘lsa-da, hozirga kelib tilshunoslikda muhim tadqiqot obyektiga aylanib ulgurdi. Bundan tashqari, iboralarni tilshunoslikning yangi yo‘nalishlariga integratsiya qilgan holda turli jihatdan o‘rganish yangi bosqichga kirgan. Frazeologiya ustida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar uning tildagi o‘rni naqadar muhim ekanligini yaqqol ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B. Yo‘ldoshev. Frazeologiya tarixidan lavhalar. – S.: “So‘g‘diyona” nashriyoti, 1998.
2. B. Yo‘ldoshev. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari. Filol. fanl. dokt. ... diss. Avtoref. – T., 1993.
3. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – T., 2021.
4. M. Bekiyeva. Frazeologizmlarning lingvokulturologik va kognitiv talqini. F.f.f.d. diss. – Andijon, 2022.
5. O. Madayev. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T., 2010.
6. S. Rahimova. O‘zbek tilida frazeologik polisemiya va uning leksikografik talqini. F.f.f.d. diss. – Guliston, 2022.
7. Sh. Rahmatullayev. Nutqimiz ko‘rki. – T., 1970.
8. The Cobuild Dictionary of Idioms. 1995.
9. Y. Pinxasov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – T., 1969.

NUTQIY AKTLARNI VOQEALANTIRUVCHI FONETIK BIRLIKLAR

Raximova Feruzaxon Toxirjon qizi
FarDU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada pragmalingvistikaning bosh masalalaridan biri bo‘lgan nutqiy aktlar masalasida mulohaza yuritilgan. Dunyo va o‘zbek tilshunosligida nutqiy aktlarga oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilgan bo‘lib, ular nutqiy aktlar mazmuni, klassifikatsiyasi va tuzilishi borasidagi tadqiqotlardir. Nutqiy aktlarni ifodalovchi vositalar nutqiy aktlar nazariyasida kam tadqiq etilgan bo‘lib, ushbu maqolada nutqiy aktlarni voqealantiruvchi ayrim lisoniy birliklar tadqiq etilgan va misollar yordamida izohlangan.

Kalit so‘zlar: pragmatika, nutqiy akt, illokutiv akt, perlokutiv akt, lisoniy vosita, nolisoniy vosita, fonetik birlik.

Abstract. This article discusses speech acts, one of the main issues of pragmalinguistics. Many scientific studies on speech acts have been conducted in world and Uzbek linguistics, and they are studies on the content, classification and

structure of speech acts. Means of expressing speech acts are little studied in the theory of speech acts, and in this article, some linguistic units that create speech acts are researched and explained with the help of examples.

Key words: pragmatics, speech act, illocutionary act, perlocutionary act, linguistic means, non-verbal means, phonetic unit.

Lingvistik pragmatika til, nutq va aloqada subyektiv omilning tirik tabiiy inson tilining mavjudlik usullari sifatida ishlashini aniqlash va tavsiflashga asoslangan zamonaviy tilshunoslik [5, 304]. Tilshunoslik muammolarini kommunikativ-pragmatik yondashuv asosida o‘rganish natijasida bir qator kommunikativ faoliyat nazariyalarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ulardan biri, pragmalingvistikaning o‘zagini tashkil etuvchi nutqiy aktlar nazariyasi hisoblanadi. Ushbu nazariya dastlab falsafada va pragmatik yo‘naltirilgan umumiy faoliyat nazariyasida, keyinchalik esa tilshunoslikning bir qator sohalarida rivojlangan.

Tilshunoslikda nutqiy akt muammosining yuzaga kelishi, o‘rganilishi avstraliyalik faylasuf L. Vitgenshteynning lisoniy faoliyat masalasiga oid falsafiy qarashlari bilan bog‘liq [7, 27]. Nutqiy aktlar nazariyasi ilk bor ingliz mantiqshunos olimi Jon Lengsho Ostin tomonidan ilgari surildi. U o‘zining 1955-yilda Garvard universitetida o‘qigan ma’ruzasida so‘z orqali faqatgina nimandir tasvirlash emas, balki aniq harakatlarni ham bajarish mumkinligi borasida fikrlarini bayon etgan. U muloqot jarayonidagi gaplarni shunga ko‘ra “konstativ” va “performativ”larga ajratishni taklif qiladi. Bunda konstativlar gap mazmunida tasvirlash, ifodalash bo‘lgan birliklar bo‘lsa, performativlar tatsvirlash xususiyatiga va u yoki bu axborotning rost yoki yolg‘onligini ifodalashga xizmat qilmaydigan birliklardir. Ular aytilayotgan harakatning bajarilishining bir qismi sifatida talqin etilgan [1, 5]. Unga ko‘ra, performativ (ijro etuvchi) gaplar (performative utterences) o‘z vazifasini muvaffaqiyatli bajarishi uchun amalga oshishi kerak bo‘lgan 6 qoidani keltirib o‘tadi va bu qoidalarni birortasi bajarilmay qolsa, performativ gap o‘z vazifasini bajarolmaydi va maqsadga erishib bo‘lmaydi, degan fikrlar bilan nutqiy aktlarning daslabki taxminiy ishlash sxemasini ko‘rsatib bergan.

Nutqiy aktlar gapning ma’no vazifasini bajaradi, lekin har doim ham gapning ma’nosidan qanday nutqiy akt amalga oshirilayotganligini aniqlab bo‘lmaydi. Chunki addressant aslida aytgan gapidan ko‘ra ko‘proq ma’no anglatgan bo‘lishi mumkin. J. Searl nutqiy akt va gapning ma’nosi boshqa boshqa narsalar emas, balki ular bir narsani boshqa-boshqa rakurslardan qaralgan holatda o‘rganilishi degan fikrni aytib o‘tadi. Dastlab, u nutqiy akt yuzaga kelishida 3 ta quyi aktlar bajarilishi kerakligini aytadi. Birinchi, so‘z, jumla yoki gapning aytilish akti; ikkinchi, nazarda tutish yoki ishora qilish – propozitsional akt; uchinchi, savol berish, buyruq berish, va’da berish kabi – illokutsion aktning bajarilishidir. Bular bir vaqtning o‘zida sodir bo‘ladi [4, 24]. Austin esa so‘zlash aktini fatik akt deb ataydi. Bunda fatik akt – gapning aytilishi sifatida talqin etilib, o‘z navbatida fatik akt fonetik akt (ma’lum tovushlarning talaffuz etilishi) dan tarkib topadi.

Shuningdek, J. Ostin ritik aktlarni ham farqlaydi. Uning fikricha, ritik aktlar berilgan axborotning tasdiqlash ma’nosida biz bilgan ko‘chirma gap shaklida aytilishidir. Misol uchun, *Men shu yerda bo‘laman* – fatik akt; *U shu yerda bo‘lishini aytdi* – ritik akt. Bunda olim ikki shaklning ham xususiyatlarini aytib o‘tadi. Fatik akt so‘zlarning grammatik qoidalar asosida birikishi va o‘z ichiga talaffuz jarayonida intonatsiya, mimika, imo-ishoralarni ham oladi. Ritik aktlar esa mazmun va referensiya xususiyatiga ega bo‘lib, olim mazmun va referensiyasiz ritik akt mavjud bo‘ladimi degan savolni o‘rtaga tashlaydi[1, 95]. Bizningcha, bunda muallif gapini qayta ta’kidlashdan ko‘zlangan maqsad – tasdiqlash, ogohlantirish, qo‘rqitish, po‘pisa qilish kabi mazmunni ifodalash va buni yetkazishdan iborat bo‘ladi.

T. V. Jerebiloning lingvistik terminlar lug‘atida qayd etishicha, nutqiy aktlar psixofizik jarayon bo‘lib, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi nutqiy aloqani o‘zida aks ettiradi va so‘zlash (yozish), idrok etish va nutq yoki matnni tushunish kabi komponentlardan tashkil topadi. Nutqiy aktlar dialog sifatida muloqot ishtirokchilar o‘rtasida aloqa o‘rnatishni nazarda tutadi [6, 308].

Nutqiy aktlar nutqiy muloqot jarayonida yuzaga keladi. “Muloqot” atamasi, odatda, verbal, ya’ni so‘z, lisoniy vositalar orqali va noverbal, so‘zsiz, nolisoniy vositalar (imo-ishora, har-xil belgi, nishona, ramz,simvollar) orqali axborot berish va bir-birining ta’siriga ko‘ra verbal va noverbal muloqot sifatida tasnif qilinadi. Nutqiy muloqot deganda muloqot jarayonida lisoniy va nolisoniy vositalar birgalikda, hamkorlikda ishlatilishi tushuniladi [8, 18]. Shunga ko‘ra, nutqiy aktlar muloqot jarayonida yuzaga kelishini hisobga olsak, ularning voqealnishida lisoniy va nolisoniy vositalarning muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlash mumkin.

M. Hakimov bu borada, “Boshqa lingvistik birliklari singari nutqiy aktlar ham o‘zining ifoda vositalariga hamda mazmuniy tuzilishigab ega bo‘ladi. ...ularni ifodalovchi lisoniy va nolisoniy vositalarni nazariy jihatdan ajratib ko‘rsatish pragmalingvistika sohasi uchun muhimdir”, - deydi [9, 143]. Fikr ifodasida voqealangan nutqiy aktlarni qanday lisoniy vositalar yuzaga chiqarishi borasida mulohaza yuritish nafaqat pragmalingvistika, balki tilshunoslik sohasidagi bilimlarni umumlashtirishga xizmat qiladi.

Nutqiy aktning mazmun mohiyatini anglab yetishda uning ifodalanishidagi lisoniy vositalarning ahamiyati beqiyos. Lisoniy vositalar deganda, til va nutq birliklaridan iborat bo‘lgan vositalar tushuniladi. Tilda nutqiy aktlarni ifodalovchi lisoniy vositalar doirasi bir muncha keng bo‘lib, ular bir butun tizimni tashkil etadi:

1. Fonetik vositalar. 2. Morfologik vositalar. 3. Leksik vositalar. 4. Sintaktik vositalar. 5. Supersigment vositalar.

Fonetik vositalar haqida gap ketganda, tovush (fon) va fonema atamalarini farqlash talab etiladi. Fonema – tilning eng kichik ma’no anglatmaydigan birligi bo‘lib, u fonologik birlik hisoblanadi. Tovush (fon) esa nutqning eng kichkina ma’no anglatmaydigan birligi bo‘lib, fonetik birliklar sifatida izohlanadi [2, 26]. Tadqiqotchi R. Rasulovga ko‘ra, nutq birligi bo‘lgan tovushlar xususiylik sifatida tilning ashyosi, moddiy materiali bo‘lib, fizik, akustik, fiziologik hamda lingvistik

(lisoniy) kabi qator belgilarga egaligi bilan o‘ziga xosdir. Tovush nutq birligi sifatida nutqiy faoliyatni, nutqiy jarayonni ta’minlovchi moddiy birlikdir. U fonemaning voqealanishi sifatida muayyan birlilarni fonetik-semantik jihatdan farqlaydi, ijtimoiy vazifa bajaradi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘ladi[3, 227]. Nutq tovushlarining orttirib talaffuz qilinishi, gapning kommunikativ maqsadini belgilashga xizmat qiladi.

Agar nutqiy aktlar asosini aytilgan gap mazmunidan ko‘ra, uning aytilishidan ko‘zlangan maqsadning mazmuni tashkil etsa, quyidagi badiiy matndan keltirilgan parchada nutqi rivojlanmagan shaxsning turli tovush va imo-ishoralar bilan nutqiy akt sodir etyapti deyish mumkinmi?

Ibodin soqov bir o‘ng otliqqa iljayadi, bir chap otliqqa iljayadi. Bo‘sh qo‘lini guzar taraf “nish” etadi. “U-u-u”, deydi:

“Hay, anavi guzarga ketyapman”.

So‘g‘in qo‘ltig‘idagi qatiqqa ishora beradi:

“Qatiq olib ketyapman”. (T. Murod. Otamdan qolgan dalalar)

Guzar tomon nish etish ishorasi va “u” tovushini cho‘zib talaffuz qilish orqali ifodalangan mazmun muallif tomonidan izohlanyapti va unda kommunikativ maqsad ifodasini ko‘rishimiz mumkin. Ibodin soqov yo‘lini to‘sgan otliqlarga “Yo‘limni to‘smang, o‘tib ketay” mazmunidagi iltimos illokutiv aktini amalga oshirmoqda. Shu o‘rinda yuqoridagi tuzilma to‘liq nutqiy akt sifatida nomoyon bo‘ladimi degan savol tug‘iladi. Zero, nutqiy akt to‘laqonli shakllanishi uchun uning uch bosqichi: lolkutiv - so‘zlash akti, illokutiv – so‘zlovchi niyati va perlokutiv – nutqiy ta’sir etish shakllari amalga oshirilgan bo‘lishi kerak. Yuqoridagi izohda so‘zlovchi niyati tovush va ishora noverbal vositasi orqali ifodalanganligini aytib o‘tdik. Perlokutiv ta’sir esa matn davomida namoyon bo‘ladi;

Oqpodsho qatiqqa egilib qaraydi.

–Qatig‘ini ichamizmi? – deydi.

– Qo‘y-ye, bularni qatig‘ini ichib bo‘ladimi! ... (T. Murod. Otamdan qolgan dalalar)

Ibodin soqovning niyatiga javoban Oqpodsho kamsitish akti bilan rad etish, Ibodinni qo‘yib yubormaslik maqsadini ifoda etyapti. Buni perlokutiv ta’sir sifatida baholash mumkin. Ammo lokutiv akt shakli amalga oshirilyaptimi? “So‘zlash (lokutiv) aktlarida bayon qilingan axborotning muhimligi emas, balki so‘zlovchi nutqiga xos talaffuzga asosiy e’tibor qaratiladi… So‘zlovchi biror **tovush**, so‘z yoki qurilmalarni talaffuz qilish jarayonida ularga mos me’yorlarni nutq apparati yordamida saqlashga harakat qiladi. Fonetik, leksik va sintaktik birliklarning so‘zlovchi tomonidan me’yoriy talaffuz jarayoni lokutiv akt deb hisoblanadi”[9, 255]. M. Hakimovning ushbu fikriga ko‘ra, Ibodin soqovning “U-u-u” tarzida tovush orqali ifodalagan tuzilmasini lokutiv akt deyish mumkin. J. Serl lokutiv aktni ichki farqlanish belgisiga ko‘ra uch guruhga ajratadi: fonetik, fatik, retik aktlar [9, 194]. Demak, yuqoridagi tuzilma, lokutiv aktning fonetik akt shakliga misol bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Austin, J.L.1962. How to do things with words. — Oxford, – 1962, – p.5
2. Irisqulov. M. T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent. “Yangi asr avlodi”, - 2009. – 26-bet(263
3. Rasulov. R. Umumiy tilshunoslik. Darslik. – Toshkent. – 2010. – 227-bet (326)
4. Searle, J. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. — New York. Cambridge University Press, 1969. – b 24
5. Бацевич, Ф. С. Вступ до лінгвістичної прагматики. Підручник, Київ: Видавничий центр «Академія», 2011. –с 304
6. Жеребило. Т. В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-е, испр. и доп. – Назрань: ООО «Пилигрим», 2010. – с. 308
7. Қурбонова, М.А. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари. Дисс... филол. фан. д-ри(DSc). 2018.— Тошкент, — 27-б
8. Сафаров Ш., Тоирова Г., Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд, СамДЧТИ нашри, 2007. – 18- бет.
9. Ҳакимов. М. Газиева. М. Прагмалингвистика асослари. Тошкент:, 2020. – 143-bet

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SIFAT SO‘Z TURKUMIGA OID UMUMIY TADQIQOTLAR

Rajapova Nafisa, Xurramova Barno, Toshqulova Zebiniso
Termiz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Rang-tus sifatlarining uslubiy xusiyatlarini ochib berish, sifat leksemalarining ma’no ko‘chish (metonomiya, metafora) sabablarini va ularning leksik-semantik, uslubiy, emotsional-ekspressiv vazifalarini o‘rganish, uslubiy vazifa bajargan leksemalarning matndagi imkoniyatlarini o‘rganish, sifat asosida shakllangan stilistik vositalarni badiiy matnning bo‘yoqdorligini oshirishdagi o‘rinlarini o‘rganish. Sifat so‘z turkumining so‘z turkumlari aro ahamiyatini oshirish, bu so‘z turkumidan o‘z nutqiy layoqatini oshirishda foydalishni o‘rganish, sifatlarining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish va o‘ziga xos jihatlari xususida yangi xulosalar chiqarish, shuningdek, adabiy tilimizni yanada boyishiga, ravnaq topishiga o‘z hissasini qo‘shishi, sifat ma’no turlarini o‘z o‘rnida qo‘llay bilish, uning frazemalar, xalq maqollari, iboralar, tasviriy iboralarda yangidan yangi ma’no ifodalashi, tasviriy vositalardan sifatlarni qo‘llash bilan leksik lisonimizni boyishiga xizmat qilishi natijasida o‘zbek tilida ko‘plab imkonyatlarning mavjudligi va ularning ilmiy xulosalanganligi ilmiy qiymatini oshirishi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Rang ifodalovchi sifatlar, emotsional-ekspressivlik, bo‘yoqdorlik, stilistik vosita, sifatning uslubiy o‘rganilishi, ma’no ko‘chish.

Abstract. To reveal the stylistic features of color adjectives, to study the reasons for the transfer of meaning (metonomy, metaphor) of adjective lexemes and their lexical-semantic, stylistic, emotional-expressive tasks, to study the

possibilities of lexemes with stylistic functions in the text, quality to study the role of stylistic tools formed on the basis of increasing the color of the artistic text. To increase the importance of the adjective word group among the word groups, to learn the usefulness of this word group in improving one's speaking ability, to study the specific aspects of the adjectives and to draw new conclusions about their specific aspects, as well as , to contribute to the enrichment and development of our literary language, to know how to use the types of adjectives in their place, to express a new meaning in idioms, folk proverbs, phrases, figurative expressions, from visual means As a result of enriching our lexical language with the use of adjectives, the existence of many possibilities in the Uzbek language and their scientific conclusion increase the scientific value are highlighted.

Keywords: Adjectives expressing color, emotional-expressiveness, coloring, stylistic tool, methodical study of quality, transfer of meaning

Boshqa so‘z turkumlari kabi sifatlarning ham so‘z turkumi sifatidagi xususiyatlari tilshunos olimlar tomonidan bir necha bor o‘rganilgan, tadqiq etilgan va ma’lum bir xulosalarga kelingan. O.Madrahimov, N.Abdurahmonov, Z.Ma’rufov, G‘.Abdurahmonov, M.Sodiqova, Sh.Rahmatullayev kabi olimlar sifat so‘z turkumi ustida ilmiy izlanishlar olib borishgan va o‘z qarashlarini kitoblarda yoritib borishgan. Biz o‘z ishimizni yoritishda bu olimlarning qarashlariga murojaat qilamiz.

Tilshunoslikda sifat so‘z turkumiga oid leksemlarning o‘rganilishi jihatdan juda qadim davrlarga borib tarqaladi. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devon- u lug‘atit turk”, Mahmud Zamaxshariyrning “Asos-ul balog‘a”, “Muqaddimat-ul adab”, Alisher Navoiyning “Muhokamat-ul lug‘atayn” kabi asarlaridayoq sifatning belgi ifodalash xususiyatlari, ularning uslubiy vazifalari, sifat turlarining yuzga keltiradigan tur xil tashbehlar va badiiy san’atlarni yuzaga keltirish xususiyatlari xususida fikr-mulohazalar yuritilgan edi[203].

Sifat so‘z turkumini grammatik va uslubiy jihatdan o‘rganishga XX asrning 60-yillarida tilshunos olima M. Sodiqova o‘zining “Hozirgi o‘zbek tilida sifat” nomli monografiyasi bilan katta hissa qo‘shgan. Olima 1963-yilda “O‘zbek tilida rang–tus bildiruvchi sifatlar” mavzusida nomzodlik ishini himoya qilgan. Ikki tomlik “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (1966) va “O‘zbek tili garammatikasi” nomli tadqiqotlarning “Sifat“ mavzularini ochib berdi. Olimaning “Hozirgi o‘zbek tilida sifat” nomli monografiyasi 1974-yilda e’lon qilingan. Masalan, M.Sodiqova 1966-yilda e’lon qilingan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” asarida sifatning ma’no turlarini oltita alohida-alohida guruhlarga bo‘lib chiqadi[204].

M.G‘anixo‘jayeva o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida o‘zbek tilida rang bildiruvchi sifatlarni qiyosiy-tarixiy yo‘nalishda tadqiq etib, ularning rivojlanish dinamikasini, sof turkiy va o‘zlashgan rang bildiruvchi so‘zlar qatlamini aniqlagan.

---

[203] Қўнғиров Р. Сифат ситилистикаси// Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маъданияти ьасалалари(илмий мақолалар тўплами), Самарқанд: СамДУ нашри, 1982, 3-10-бетлар. 213-б

[204] Мақсуда Содиқова. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти. –Тошкентт-1974. -47-48-бет. 156-Б

Olimaning tadqiqot ishidagi natijalar shuni ko‘rsatganki, eski o‘zbek tili yozma yodgorliklarida *qizil, ko‘k, yashil* singari rang bildiruvchi sifatlar ko‘chma ma’noda qo‘llanmaydi, substantivatsiyaga uchragan *qora* so‘zi esa eng ko‘p-sakkiz ma’noda qo‘llanilishi ma’lum bo‘lgan; rang bildiruvchi leksemalarning tarixiy yodgorliklar tilida qo‘llanish chastotasi(foiz) quyidagicha hisoblangan: *qora-18,8%, oq-15,8%, qizil-6,89%, ko‘k-3,5%, yashil-2,5%, sariq-2,5%* kabilar[205].

Xuddi shunday sifatlar o‘zbek va jahon adabiyoti asarlarining ajralmas va boyituvchi qismi sifatida qaraladi. Ya’ni o‘sha she’riyatdagi qoraning motam, musibat, aza, buyuklik, kuch-quvvat timsoli va ramzi sifatida kelishini ko‘rganmiz.

Yuragimni yoqar o‘tli iztirob,
Ammo yuragimda bir tomchi yosh yo‘q.
Bag‘rim o‘yib,
Bu kun menga bermoqda azob
Sizning ko‘ksingizni teshgan qora o‘q.
Silqib oqayotir
Ko‘kragimda qon.
Qalbim o‘rtamoqda so‘ngsiz armonim...
Yurak qonim bilan bitgan dostonim
Sizga bag‘ishladim,
Otajon!

Erkin Vohidovning “Nido” she’rining ushbu qismidagi qora leksemasi birgina detalning rangi orqali insoniyat boshiga solinayotgan balo va ofatlar, o‘sha davrdagi qora kunlar, ya’ni insonlarning azobda yashashini o‘zida namoyon eta oladi.

Kim Qashqarni qildi makon,
Kim Enasoy tomonda,
Jaloliddin – Qurdistonda,
Boburing – Hindistonda,
Bu qanday yuz qarolig‘ deb
Yotarlar zimistonda,

Shoir Muhammad Yusufning ham ushbu misralarida keltirilgan rang konsepti asrlar osha o‘zbek lingvomadaniyatida, uyat, sharmandalik kabi ma’nolarni anglatib kelgan. Xuddi shunday uslubiy ma’no ifodalagan ushbu misrada ham tarixiy shaxslarimizning boshiga tushgantashvishlari, ularning kechimlari bir so‘zda yoritib berilgan.

Qani o‘sha kuychi, xayolchan yigit?
Nechun ko‘zingda yosh, turib qolding lol?
Nechun qora libos, sochlaringda oq,
Nechun bu ko‘klamda sen parishonhol?»

[205] Pardayev Z. O’zbek tilida sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari.-Samarqand: SamDU nashri, 2007. 26-44 betlar. 122-b.

O‘zbek shoirasi Zulfiyaxonim she’rida ham sifat so‘z turkumining uslubiy vazifa bajarganini ko‘rishimiz mumkin. Yuqorida aytib o‘tganimizday qora leksemasi ayriliq, motam, iztirob ma’nolarini ham anglatadi. Mana shu satrda xuddi shunday ma’nolarni chiqarish mumkin.

To‘kilganda dardim kabi bargu xazonlar,
Ko‘z oldingni to‘sganida qora to‘zonlar,
Sog‘inchingni yashirolmay subhi azonlar,
Meni yodga olurmisan, ey go‘zal ayol?!

She’riyatimizning yorqin namunalarini yaratgan ijodkor Xurshid Davronning ijod namunalarida ham xuddi shunday rang ifodalovchi sifatlar uslubiy bo‘yoq vazifasida kelgan misralari ko‘p. Yuqorida aynan fikrimizni ifodalsh uchun Xurshid Davron she’ridan bir misra keltirdik. Ushbu misradagi qora to‘zon birikmasi ham inson hayotidagi qiyin vaziyatlarni, kunlarni ifodalsh uchun tabiat hodisanini ko‘chma ma’noda berish orqali qo‘llagan.

Xulosa qilib shuni aytamizki, adabiyot tasviriy ifodalar bilan boyitilgan san’at turlaridan biridir. O‘zbek tilshunoslidagi har bir birlik, har bir leksik birlik o‘zining vazifasini bajargani kabi. Bunday tasviriy ifodalar ham adabiyotning ajralmas qismi sanaladi. Ana shu tilshunoslikdagi sifat adabiyotdagi tasviriy ifodani yuzaga keltirishdagi muhim bir predmet sifatida foydalaniladi. Har bir sifat turning o‘zining uslubiy vazifa bor va buni biz ijodkor uni qay yo‘sinda foydalanganiga qarab bilishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Қўнғиров Р. Сифат ситилистикаси// Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маъданияти ьасалалари(илмий мақолалар тўплами), Самарқанд: СамДУ нашри, 1982, 3-10-бетлар. 213-б

2. Pardayev Z. O‘zbek tilida sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari.- Samarqand: SamDU nashri, 2007. 26-44 betlar. 122-b.

3. Мақсуда Содиқова. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти. –Тошкентт-1974. -47-48-бет. 156-Б

4. Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li. (2023). "ZUFONGO‘YO VA JAHONPOYO" LUG‘ATIDA SO‘Z TARKIBI. IMRAS, 6(7), 565–569.

5. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO‘Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, *1*(4), 34–37.

6. Sayfullayev Najibullo,Boboniyozova Manzura. (2024). IMPORTANCE OF DIALECTS IN PLACE NAMES. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 11(02).

7. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(12), 676–680.

8. Nodira Hamidova 2023. Ghafur Ghulam’s Stories Have Their Own Artistic Expression Characteristic of the Common Language Style. *International Journal on Integrated Education*. 6, 10 (Oct. 2023), 41-44.

9. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2023). Timurid princess The image of time and spirit in the image of Saraymulkhanim. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(6), 84–87.

10. Musurmonkulov, A. (2023). CORRELATION OF LEXICAL-SEMANTIC RELATIONS WITH GRADUONYMY. Science and innovation, 2(C10), 168-170.

11. Musurmonqulov, A. (2023). AN ALGORITHM FOR RANKING VERBS AND TAGGING THEM IN THE CORPUS. International journal of advanced research in education, technology and management, 2(5).

12. Мадрахимов О. Ўзбек тилида сифат ва янги ясалган сифатлар масаласига доир//ЎзФА ахбороти, ижтимоий фанларсерияси, Тошкент, 1957, 41-47-бетлар.213-Б

SHUHRAT ORIF IJODIDA METAFORA VA UNING BADIIY-LISONIY O‘RNI

Gulnoza Zaynutdinova
FarDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ma’lumki, badiiy tasvir va ifoda vositalari rang-barang shakl va usullardan iborat bo‘lib, ular ijodkor tomonidan qalamga olingan voqelikni yoki hissiy kechinmalarni jonli, tabiiy tarzda tasvirlashga, asarning ta’sirchanligini oshirib, o‘quvchi e’tiborini tortishga va uning ongida yorqin taassurot qoldirib, ma’naviy ozuqa olishiga xizmat qiladi. Badiiy asarning ifoda imkoniyatlari, badiiy salmoqdorligini ta’minlashda metaforaning alohida o‘rni mavjud. O‘zbek filologiyasida metaforalar badiiy nutq badiiyatini ta’minlovchi muhim vositalardan biri sifatida keng o‘rganish obyektiga aylangan. Ayniqsa, yozuvchi va shoirlar ijodining lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq etishga qaratilgan ishlarda metaforaning o‘rganilishi ancha salmoqlidir. Shu jihatdan olib qaraganda, zamonaviy o‘zbek she’riyatining iste’dodli vakillaridan biri Shuhrat Orif ijodida ko‘chim va uning turlari alohida salmoq kasb etadi. Xususan, shoir yaratgan metaforalarning badiiy matn ta’sirchanligi va ifodaviyligini ta’minlashdagi o‘rni e’tiborga molikdir. Ushbu maqolada Sh.Orif she’riyatida keng qo‘llanilgan metaforalar tahlili misollar yordamida ochib berilgan.

Abstract. It is known that artistic images and means of expression consist of various forms and methods, which are used to depict the reality or emotional experiences written by the artist in a lively, natural way, increase the effectiveness of the work, and attract the attention of the reader. and leaves a vivid impression on his mind, serving to receive spiritual nourishment. Metaphor has a special place in ensuring the expressive possibilities and artistic weight of the work of art. In Uzbek philology, metaphors have become an object of wide study as one of the important tools that ensure the art of artistic speech. The study of metaphor is especially important in works aimed at researching the linguopoetic features of the work of writers and poets. From this point of view, one of the talented representatives of modern Uzbek poetry, Shuhrat Arif, has a special significance in

the work of migration and its types. In particular, the role of metaphors created by the poet in ensuring the expressiveness and expressiveness of the artistic text is noteworthy. In this article, the analysis of metaphors widely used in Sh. Arif's poetry is revealed with the help of examples.

Kalit so‘zlar: badiiy nutq, ko‘chim, metafora, “metaforik ajablanish”, shom tovushi, lahzalarning qo‘li, umr shomi, dunyoning ko‘zi.

Key words: artistic speech, movement, metaphor, "metaphorical surprise", shom tovushi, lahzalarning qo‘li, umr shomi, dunyoning ko‘zi.

Zamonaviy tilshunoslik shunday bir yangi davrga o‘tdiki, til hodisalarini antropotsentrik tamoyillar asosida lison va tafakkurga qaratilgan lingvokognitiv, lingvopragmatik, lingvokulturologik, psixolingvistik tabiatini tadqiq qilishga yo‘naltirilmoqda. Ta’kidlanganidek, jahon va o‘zbek tilshunosligida tadqiqotchilarni eng ko‘p qiziqtirgan masalalardan biri, bu – metaforadir. Tilning ifoda imkoniyatlarini boyituvchi “metaforologiya”[206] ham alohida soha sifatida yangicha talqinlarda tadqiqotchilar e’tiborini jalb qilayotgani bejiz emas.[207]

Ma’lumki, metafora narsa-buyum, voqea va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlikka asoslangan ma’no ko‘chish turi bo‘lib, lirik qahramonning voqelikka munosabatini obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Lingvopoetika doirasidagi ishlarda eng keng qo‘llanadigan uslubiy vositalardan biri sifatida metaforaga ko‘p e’tibor qaratiladi. Xususan, she’riyatda obrazlilikni yuzaga chiqarishda, tasvirning aniq, ishonarli va yorqin tasavvur uyg‘otishida metaforaning o‘rni beqiyosdir. Minhojiddin Mirzo o‘z she’rlarida lirik kayfiyatni qabariq holda ifodalash, badiiy-estetik ma’nolarni yuzaga chiqarishda metaforalardan unumli foydalanadi.

Badiiy nutq, xususan, she’riy asarlar metaforik ma’nolarning yangi-yangi semantik qirralarini yuzaga chiqaruvchi maydon sanaladi.[208]

N.D.Arutyunova metafora badiiy (poetik) matnning haqqoniy tarkibiy qismi ekanligini va diskursning boshqa turlarida qo‘llanishida ham she’riy tafakkur va dunyoni obrazli tasavvur qilish unsurlarini o‘z ichiga olishi shartligi bilan bog‘liqligini va shu jihatdan badiiy nutq bilan quyidagi umumiy xususiyatlarga ega ekanligini[209] ta’kidlaydi. G.K.Lixtenberg aforizmlarida metaforaning o‘zi ham obrazli qilib tavsiflangan: "Eski so‘zga murojaat qilinganda, u, ko‘pincha,ongda bosh ma’nosi tomonidan qazilgan kanal bo‘ylab yuguradi, metafora esa o‘zi uchun yangi kanal ochadi va ba’zan uni “yorib ham yuboradi”.[210]

Qayd etilganidek, «Metaforalar eng ko‘p ijodiylikni talab etishi bilan boshqa badiiy tasvir vositalaridan farq qiladi. Metafora yaratish ijodkordan keng dunyoqarash, olam va odam haqida chuqur fikr yurita olish, ruhiyat va tabiatni yaxshi bilishni talab etadi. Metafora obrazning nafaqat tashqi qiyofasi, balki uning

[206]Махмараимова Ш.Т. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи (номинатив аспект): филол.фан.д-ри (DSc) дисс... автореф. Самарқанд, 2020.
[207]Қобулжонова Г.К. Метафоранинг системавий-лингвистик талқини: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент:2000.
[208]Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси: монография. –Т.: Фан, 1990.
[209]Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс // Теория метафоры. М.: Прогресс, 1990. – С.20.
[210]Лихтенберг Г. К. Афоризмы. М.: “Наука”, 1964, с. 122.

ruhiy olamida kechayotgan holatlarni tinglovchi yoki o‘quvchi kutmagan favqulodda badiiy hukm asosida tasvirlash yoki ifodalashga yo‘l ochadi»[211]. Metafora adabiy istiloh sifatida ko‘chim turi bo‘lib, bir predmet, hodisa yoki ko‘rinishga xos xususiyatning boshqasiga ko‘chishidir. Metafora o‘xshatishdan «kabi, singari, misli, bamisoli» so‘zlarining tushib qolishi bilan farqlanadi.[212] O‘xshatishda o‘zaro qiyos etilayotan har ikki komponent ishtirok etadi. Metaforani bunday tushunish, dastlab, arab olimi Ibn Haldun[213] risolalarida qayd qilingan.

Umuman olganda, ko‘chimning eng faol turlaridan biri bo‘lgan metaforaning badiiy asar qimmati va ifodaviyligini oshirishdagi o‘rni alohida bo‘lib, u badiiy nutqning obrazli va ta’sirchan bo‘lishini ta’minlab beradi. Shu jihatdan olib qaraganda, Shuhrat Orif she’riyatining lingvopoetik imkoniyatlarini o‘rganishda metaforik xususiyatlariga e’tibor qaratish zarur hisoblanadi.

Shuhrat Orif ijodi tilining ekspressiv va jozibador bo‘lishida metaforaning o‘rni va roli muhimdir. Shoir she’rlarining alohida xususiyatlaridan biri ham muallifning metafori kimkoniyatlardan juda o‘rinli va faol foydalanganida ko‘rinadi. Xususan, shoir ijodida metaforalar she’rlardagi obrazlilikni ta’minlab, jozibadorlilik va uslubiy rang-baranglilikni yuzaga chiqarganini ko‘rish mumkin.

Sizdan bir ishora kifoya,
Tog‘lar yelka tutib tizilar.
Ko‘zingizga termulib o‘tsam,
Mingyillik yolg‘onlar sizilar.
Sizdan bir ishora kifoya,
Umrim – manzil izlab yurgan xat.
Qismatga kulgidir yillarim,
Bering bir lahzalik halovat.
Sochingizga unsiz ko‘milay,
So‘ngaklarim aytsinlar oyat.
Asrab qolayinmi dunyoni –
Sizdan bir ishora kifoya. (Sh.Orif, B.12)[214]

Ko‘rish mumkinki, metaforik ifodalar she’rning oxirgi satrigacha zargarona zanjir hosil qilgan. She’riy misralardagi *“tog‘larning yelka tutishi”, “qismatga kulgu bo‘lish”, “mingyillik yolg‘onlarning tizilishi”, “ so‘ngaklarning oyat aytishi”* (jonli metafora), *“sochingizga unsiz ko‘milay”* kabi okkazional metaforik tashbehlar lirik qahramonning ichki tug‘yonlarini kitobga tanishtiradi, tom ma’noda, oshiqning dil so‘zlarini “kuylab beradi”. Aytaylik, insonga xos nutqiy

[211]Хасанов А.А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадииятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. Б. 9
[212]Саримсоқов Б. Бадиийликнинг асослари ва мезонлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. Б.49
[213]Қобулова У. Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати (ўзбек халқ топишмоқлари мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. Б. 7
[214]Ориф Ш. Мен асли одаммас ёр эдим. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2020. 160 б. Misollar ushbu manbadan olingan.

faoliyatni bildiruvchi “kulmoq” fe’lining qismat tushunchasiga nisbatan o‘rinli qo‘llanilishi ham juda go‘zal badiiy ifodaning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan.

Shoirning “Hiyobonda” she’rida allyuziya vositasida mazmunan kuchli ijtimoiy metaforik matn yuzaga kelgan:

Kalish kabi namiqdi ko‘ngil,
Mezon gullariga termulib.
Dildirab turibdi sovuqdan,
Boqaverar baribir kulib... .
O‘qrayar qarovsiz favvora,
Ensasi qotadi qarg‘aning.
Kiprikdek to‘kilar yaproqlar,
Farrosh supuradi qarg‘anib... (Sh.Orif, B.33)

Ma’lumki, allyuziya (lot. allusio - ishora, hazil) - barchaga tanish deb hisoblangan real siyosiy, maishiy, tarixiy yoki adabiy faktgaishora kilishga asoslangan stilistik usul. Mohiyatan Sharq mumtoz she’riyatida keng qo‘llangan talmeh san’atiga yaqin keladi. Farqli jihati shuki, talmehda ko‘proq mashhur tarixiy va badiiy faktlarga ishora qilinsa, allyuziyada ijodkor o‘z zamonasidagi siyosiy, maishiy yoki badiiy faktlarga ishora kilishi ham mumkin. Ya’ni allyuziyada ishora obyektining doirasi kengroq.

Shu jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, yuqorida misralarda shoir inson hayotning davrlari bilan bog‘liq vaziyatlarga, ya’ni kuz tashrifining inson va tabiatga xos mushtarak kayfiyatga ta’siri haqida yozadi. Biror o‘rinda “kuz” so‘zini ishlatmasa-da, ushbu tushunchaga badiiy ishoraning mavjudligi o‘quvchiga yetarli taassurot bera olgan. Ayniqsa, qarg‘aning xuddi insonlar kabi ensa qotirishi, favvoraning o‘qrayishi kabi tasvirlar metaforik matnning jozibadorligini ta’minlagan.

Sh.Orifning “Ko‘rlik” she’rida ham o‘ziga xos metaforik ifodalarni ko‘rish mumkin:

Ko‘rlik sanalmagay ko‘zning ko‘rligi,
Ko‘ngilning ko‘rligi haqiqiy ko‘rlik.
Ba’zida duch kelsak ko‘zi ojizga,
Achinib qaraymiz: bechora, sho‘rlik... . (Sh.Orif. B.36)

Ushbu baytdagi *“ko‘ngilning ko‘rligi”* birikmasi orqali o‘ziga xos metaforik ifoda yuzaga keladi va she’riy nutqning ta’sirchanligi, ekspressivligi ta’minlanadi.

Keldingiz... **dunyoning rangi** o‘zgardi,
Hamma malikalar quladi taxtdan (Sh.Orif. B.38)

Misradagi *“dunyoning rangi”* lisoniy birligi an’anaviy metaforalardan biri bo‘lib, she’riyatda ko‘p qo‘llaniladi. Shunday bo‘lsa-da, mazkur ifoda navbatdagi misradagi mazmuniy mukammallik natijasida yanada sayqallangan va she’riy nutqning badiiy obrazliligi ortgan.

Dilsizlar bozori u,
Oshiqlar mozori...
Bozorida tentirab,

Mozorga borib bo‘ldim. (Sh.Orif. B.34)

Shoir ushbu misralar orqali bozor va mozor so‘zlarining semantik ma’no bo‘yog‘ini yondosh leksemalarga mahorat bilan olib o‘tadi. *Dilsizlar bozori, oshiqlar bozori* metaforik ifodalari orqali she’riy nutqning mazmundorligi yanada ortganini ko‘rish mumkin.

Anglashiladiki, shoir she’riy nutqda til materialidan o‘ziga xos tarzda foydalanish orqali voqelikni yangicha, betakror, boshqa ijodkorni takrorlamagan holda ifodalashga harakat qiladi va shu orqali o‘z mahoratini namoyon etadi.

Ma’lumki, metafora nafaqat qisqartirilgan qiyoslash va balki qisqartirilgan qarama-qarshilikdir. Tilshunoslarning ta’kidlashicha, qarama-qarshi belgilar bir-biridan qanchalik uzoqroq bo‘lsa, ularning bog‘lanishi natijasidagi *"metaforik ajablanish"* shunchalik yorqinroq bo‘ladi. Masalan, shoirning

Qismatim tomirdek turibdi bo‘rtib,
Yurak do‘q uradi berib ishora.
Jonim - uchrashuvga berilgan chipta,
Umrim - seni topmoq uchun bir chora (Sh.Orif. – B.35)

bayti metaforik ifodalarga boyligi bilan salmoqdorlik kasb etgan. Misralardagi *yurakning do‘q urishi yoki jonning yor bilan uchrashuvga berilgan chiptaga, umr esa uni topmoq uchun berilgan bir imkoniyatga* mengzalishi ham badiiy tasvirning ekspressivligi, bo‘yoqdorligini ta’minlagan.

Shuningdek, shoir ijodida *shom tovushi, lahzalarning qo‘li, umrning shomi, hasratning boji, dunyoning ko‘zi, behishtning darchasi, Tangrining maktubi* singari faol metaforik birikmalar ham uchraydiki, ular Sh.Orif she’riyatining o‘ziga xos ifoda yo‘sini, shoirning so‘z qo‘llash mahoratini ko‘rsatib berish bilan birga, she’riy nutqning ta’sirchanligi, jozibadorligini oshirgan:

Uzoqdan **umrning shomi** ko‘rinar,
Hayol esa hamon beqaror, daydi.
Yashab o‘tay desam hamma qatori,
Ko‘ksimda nimadir tipirchilaydi. (Sh.Orif. – B.6)

Ushbu baytda badiiy tasvir umrning shomi metaforik ifodasi bilan yana teranlashganini ko‘rish mumkin. Lirik qahramonning ko‘ksida tipirchilayotgan “nimadir” ham aynan umrning shomi ko‘ringanidan, ya’ni umr yoshlikdan keksalik tomon yurganidan havotirda ekanligini badiiy ishora bor.

Siz mening oxirgi ilinjim,
Siz menga **Tangrining maktubi** (Sh.Orif. – B.8)

Misrada *“Tangrining maktubi”* metaforasining qo‘llanilishi orqali lirik qahramon hayotidagi suyukli insonining uning oldidagi bahosi va qadri yuksakligini munosib ishora topib, aytmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Shuhrat Orif ijodi to‘laqonli ma’no ko‘chishiga asoslangan ifodalarga boy bo‘lgan, o‘ziga xos tasvir uslubiga ega she’riyatdir. Unda ko‘chim va uning turlari faol qo‘llanilishi shoirning badiiy lisoniy tasavvurining kengligi, so‘z qo‘llash mahorati va ifoda yo‘sinining individualligini ko‘rsatib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс // Теория метафоры. М.: “Прогресс”, 1990.
2. Лихтенберг Г. К. Афоризмы. М.: Наука, 1964.
3. Махмараимова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи (номинатив аспект): филол.фан.д-ри (DSc) дисс... автореф. Самарқанд, 2020.
4. Ориф Ш. Мен асли одаммас ёр эдим. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2020. 160 б.
5. Қобулжонова Г.К. Метафоранинг системавий-лингвистик талқини: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент: 2000.
6. Қобулова У. Метафорик матнда интеграл ва дифференциал семалар муносабати (ўзбек халқ топишмоқлари мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007.
7. Саримсоқов Б. Бадиийликнинг асослари ва мезонлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004.
8. Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси: монография. –Т.: Фан, 1990.
9. Хасанов А.А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадииятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010.

TILSHUNOSLIKDA PARANTEZ BIRLIKLARNING O‘RGANILISHI

Qodirova Mohinur Saydullo qizi
Qo‘qon DPI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada parantez birliklarning, ya’ni kirish va kiritmalarning jahon tilshunosligida va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi va ular yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar hamda ularning natijalari haqida ma’lumotlarni topishimiz mumkin.

Kalit so‘z: kirishlar, kiritmalar, o‘zbek tili grammatikasi, parantez birliklar, nahv, sintaksis, M.V.Lomonosov.

Abstract. In this article, we can find information about the study of parenthetical units, i.e. introductions and introductions, in world linguistics and Uzbek linguistics, as well as the research conducted on them and their results.

Key words: introductions, introductions, uzbek language grammar, parenthetical units, nahv, syntax, M.V. Lomonosov.

Shuni ta’kidlash joizki, hozirgi kunda ilm-fan sohasida ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Yangi sohalar paydo bo‘lyapti va ilm-fan rivoj topishiga sabab bo‘lmoqda. Tabiiyki, tilshunoslik sohasida ham yangi yo‘nalishlar paydo bo‘lib, bu lingvistik faoliyatning yanada kengayishiga olib kelmoqda. Bu sohada juda ko‘plab ishlar amalga oshirilganiga qaramasdan ayrim yo‘nalishlar chetda qolib ketayotgani ham kuzatiladi. Bunga misol qilib parantez birliklar va ularning o‘rganilishini olishimiz mumkin.

Parantez birliklar boshlang‘ich davrlarda deyarli o‘rganilmagan va uning til qurilishidagi o‘rni va ahamiyati chetda qolib ketgan. Paranteza hodisa hozirgi kunga kelib juda ko‘plab sintaktik nazariyalarda turli xil fikrlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Shunisi ma’lumki, rus va o‘zbek tilshunosliklarida parantez (kirish va kiritma) konstruksiyalarning o‘rganilishini ikki davrga ajratib tahlil qilingan, bu davrlarni quyidagicha izohlaymiz [1; 19]:

1) XIX asrning birinchi yarmidan XX asrning 40-yillarigacha bo‘lgan davr

2) XX asrning 40-yillaridan hozirgi kungacha bo‘lgan davr.

Demak, parantez birliklarni o‘rganilishida olimlar tomonidan turli xil qarashlar va turli xil fikrlar ilgari surilgan. Ma’lumki, XIX asrning birinchi yarmida kirish va kiritmalar rus tilshunosligida alohida ajratilmagan va ular haqidagi ma’lumotlar, qavslarning ishlatilishiga oid qoidalar tavsifida ham ko‘rishimiz mumkin. Mashhur rus tilshunosi M.V.Lomonosovning “Rus grammatikasi” nomli risolasida “Belgilar haqida” deb nomlanuvchi IV bo‘lim ichida kiritma konstruktsiyalarga ham ta’rif berib o‘tilgan [2; 562].

Ayrim rus filologlari kirishlar ikki tipga ajratishadi. Subyektiv munosabatlarni ifodalovchi vosita sifatida kirish so‘zlar ifodalansa, boshqa gap ichiga hech qanday grammatik aloqalarsiz yo‘l-yo‘lakay shunchaki kiritilishini kiritma deb ta’rif berishadi. Ushbu ta’riflardan shuni ko‘rishimiz mumkinki, kiritmalar alohida sintaktik kategoriya sifatida emas, balki kirishlarning bir turi sifatida ko‘rilganligini isbotlaydi.

Ma’lumki, kirish va kiritmalar haqidagi ilk ilmiy qarashlar o‘zbek tilshunosligida ham paydo bo‘lishi XX asrning boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda yashagan bir qator olimlar masalan, Q.Ramazon A.Zohiriy, Behbudiy, Fitrat, SH.Zunnun, Elbek, Shokirjon Rahimiy, G‘ozi Olim Yunusov, H.G‘oziev kabilar o‘zbek tili rivojlanishi uchun ilmiy tadqiqot olib borganlar. Lekin I.Toshaliyevning nomzodlik dissertatsiyasida ularning kirish va kiritmalarga daxldor fikrlarining tahlili yoritilmagan chunki, bu dissertatsiya tayyorlangan paytda zikr qilingan ma’rifatparvarlarning nafaqat ishlarini, balki ularning nomlarini tilga olish ham hukmron mustabid siyosat tomonidan taqiqlangan edi. Parantez birliklar ishtirok etgan gaplar tilshunoslar tomonidan “intertekstuallik” deb talqin qilinadi [1;23].

Erkin A’zam asarlarida parantez birliklar ishtirok etgan matnlarda o‘ziga xos intertekstuallik yuzaga kelishini ko‘rish mumkin. Yozuvchi o‘z asarlariga Mashrab g‘azallarini uning so‘ziday paranteza shaklida matnga olib kirgan, intertekstuallik vositasida chiroyli polifoniyani ham yuzaga keltirgan: Yopiray, bu qanday gap, bu qanday imtihon? Shu ham savol bo‘ldimi – “Mashrabning oti nega Mashrab”?! Avvalo, uning oti Mashrab emas – Boborahim, taxallusi – Mashrab. (“Quddussaro aziz Xojam Mashrab otimni qo‘ydilar”.) “Onasining qornida yig‘lagani uchun” emish!.. Mashrab dunyoga isyon bilan keldi, o‘z davriga isyon bo‘lib yashadi, isyon bilan ketdi! («Dunyoga kelib ranju baloni ko‘rub o‘ttum, Yuz ranju baloni shiddatidin o‘rgulub o‘ttum») [3; 10-11].

Demak, XX asrning boshlarida kiritma mustaqil sintaktik kategoriya sifatida e’tirof etilmagan, chunki dastlabki ma’lumotlar kirishlar tilga olingan. Shuni

ta’kidlash joizki, ushbu ma’lumotlar tilshunoslikning keyingi davri uchun juda katta manba hisoblanadi. Keyinchalik maktab darsliklarda bu masalalarga ham alohida o‘rin berildi. Bunga kirish so‘z va kirish gaplar alohida mavzu sifatida o‘rin olgan N.Said va A.Yo‘ldoshevlarning “Nahv” (7-sinflar uchun) darsligini misol qilib olishimiz mumkin. Afsuski, ushbu kitobda kiritma kategoriyalar haqida hech qaday ma’lumot berilmaganini ko‘rishimiz mumkin.

Umuman olganda, XX asrning boshlarida kiritma oid dastlabki ma’lumotlar kirishlar bahsida tilga olingan va kirishlar mustaqil sintaktik kategoriya sifatida talqin qilinmagan. Bunga qaramasdan, ushbu holat tilshunoslikning keyingi davri uchun yetarlicha manba bo‘lib xizmat qilganini ko‘rishimiz mumkin [1:28]. Xususan, kirish so‘z va kirish gaplar haqida juda ko‘plab manbalarda alohida ma’lumotlar berilgan, lekin kiritmalar haqida darsliklarda ma’lumot berilmaganini ko‘rishimiz mumkin.

Shuningdek, X.G‘oziyevning maktab darsliklari uchun yaratilgan kitobida ham ushbu fikrimizning isbotini ko‘rishimiz mumkin. Keyinroq maktablar uchun yaratilgan darsliklarda bu masalalarga ham alohida o‘rin berildi.

Anglashiladiki, XX asrning boshlaridan to 70-yillargacha bo‘lgan vaqtlarda kiritmalarni kirishlar tarkibida o‘rganish, kirish gaplarni esa kiritmalar tarzida talqin qilish juda ham keng tarqalganligini ko‘rish mumkin. Lekin 1976 yilda nashr etilgan “O‘zbek tili grammatikasi” (II tom. Sintaksis) asarida kiritmalar mavzusi ostida kirishlar talqin etilgan. Shuningdek, kiritmalarga berilgan ta’rif quyidagicha: “Kiritmalar gapning ayrim bo‘laklari yoki butun ifodaga bo‘lgan so‘zlovchining subyektiv munosabatini, emotsional tuyg‘ularini ifodalaydi. Kiritmalar gapning umumiy mazmuniga yoki uning ayrim bo‘laklari bilan izohlash munosabatiga kiradi.

Kiritmalar gapning ayrim bo‘laklari yoki umumiy mazmuniga bo‘lgan izoh yoki turli emotsional munosabatlarni ifodalaydi. Kiritmalar vazifasida:

1) ma’lum so‘z turkumlaridan ajralib chiqib, faqat kiritma vazifasida ishlatiladigan so‘zlar kiradi: *birinchidan, masalan, ya’ni, madomiki, shekilli, afsus, essiz…*

2) ma’lum so‘z turkumidan ajralib chiqmagan, kiritma vazifasida ham, gap bo‘lagi vazifasida ham qo‘llanuvchi so‘zlar keladi. Bular - *to‘g‘ri, rost, shubhasiz, so‘zsiz, aftidan, darhaqiqat, odatda, qisqasi, shunday* kabi” [4:270-271].

Ba’zi izlanishlar natijasida tadqiqotchilar paydo bo‘lishi jihatidan, asosan, kiritmalarning og‘zaki nutqqa xos ekanligini alohida ta’kidlab o‘tadilar. Jumladan, o‘zbek tilidagi murakkablashgan sodda gaplarni tadqiq etgan H.Xoliqov ham yozadi: “Kiritmalar kelib chiqishi jihatidan og‘zaki nutqqa xos ekanligini va u oddiy so‘zlashuvda fikrni tayyorgarliksiz, oldindan o‘ylamasdan ifodalash xarakterli bo‘lgani sababli nutqda ayrim so‘z yoki gapga tegishli qo‘shimcha ma’lumot va izohga zaruriyat tug‘ilishini aytib o‘tadi.” Ushbu fikr haqiqatga to‘g‘ri keladi, lekin muallif negadir kirishlarning yuzaga kelishi haqida ma’lumot bermaydi” [5;99].

Kirish va kiritmalar haqida A.N.Gvozdevni kiritma haqidagi ushbu fikrini ko‘rishimiz mumkin. Kiritmalar - so‘zlovchi tayyorgarliksiz og‘zaki nutqda biror fikrni bayon qilar ekan, boshqa muayyan ma’lumotni ham aytish ehtiyojini sezib qolishi natijasida gapini bo‘lib, bu ma’lumot ifodasini gap ichiga olib kirishi tufayli yuzaga keladi [1;39].

Shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, parantez birliklar dunyo tilshunosligida muntazam va juda keng bir aspektda o‘rganib kelingan va hozirgacha hamon o‘rganilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, o‘zbek tilshunosligida parantez birliklar va ularning muammolari yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni sanoqli deb atashimiz mumkin. Shuningdek, parantez birliklar bo‘yicha ayrim muammolar haligacha yoritilgani yo‘q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Жамолиддинова Д.М. Бадиий нутқда парантез бирликларнинг семантик- грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент – 2009. 137-бет

2.Ломоносов М.В. Российская Грамматика / Ломоносов М.В. Полн. Собр. Соч. В 11-Ти Томах. Т.7. –М. -Л., 1952. -С. 562.

3. Fayzulloyev F. I. PARANTEZ BIRLIKLARNING BADIIY MATNDAGI KOMPOZITSION STRUKTUR SHAKLI “Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. 10-12-bet. https://doi.org/10.5281/zenodo.7997123

4.Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис. –Тошкент: Фан, 1976.-Б. 270 - 271.

5. Холиқов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тилида мураккаблашган содда гаплар услубияти: Филол. фан. ном. ...дисс. –Тошкент, 1993.-Б. 99.

“NAZMI AQOID” ASARIDA SHAKLDOSH SO‘ZLARNING QO‘LLANILISHI

Abdurahmon Latipov
FarDU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada Abu Hafs Umar an-Nasafiyning “Aqoid an-Nasafiy” asariga bitilgan nazmiy sharh “Nazmi aqoid” asarida ishlatilgan ayrim omonim so‘zlarning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilingan.

Annotation. The article analyzes the lexical-semantic features of some homonyms used in the work “Nazmi Aqayid”, a poetic commentary on Abu Hafs Umar al-Nasafi’s work “Aqayid al-Nasafi”.

Kalit so‘zlar: “Yuz”, “ot”, “o‘t”, “oy”, “tanur”, “ko‘k”, “шаклдош сўзлар”, “omonim so‘zlar”.

Keywords: “Face”, “horse”, “grass”, “moon”, “furnace”, “blue”, “symphonic words”, “homoonymous words”.

Turkiy tillar xalq tarixi qadar qadimiydir. Ichki va tashqi taraqqiyot omillari negizida turkiy tillarning hissiy ta’sir funksiyalari shakllandi. Shuning barobarida tilning undan foydalanuvchilar idroki bilan bog‘liq funksiyalari ham rivojlandi.

Tilning tafakkurni rivojlantirish funksiyasini ta’minlaydigan omillardan biri omonimiya hodisasi bo‘lib, u lisoniy hodisa sifatida mavjud bo‘lishdan tashqari, turkiy xalqlarda fikr rivojiga xizmat qilib kelgan. Shakldosh so‘zlar (omonimlar) bir xil shaklga, ammo turli mazmun planiga ega bo‘lgan birliklardir.

Bugungi kunda omonimiya hodisasi turli tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan va o‘rganilib kelinmoqda. Shuningdek, omonimiya hodisasi dunyoning deyarli barcha tillarida atroflicha tadqiq etilgan. Xususan, o‘zbek tilshunosligida omonimiya hodisasi va uning turli til birliklari bilan qiyoslash asosida SH.Rahmatullaev, M.Ravshanov, B.Suyunov, M.Jo‘raboeva, U.Tursunova, N.Rajabov, M.Mirtojiev, K.Usmonovlar ilmiy tadqiqot[215] olib borganlar.

O‘rganilayotgan asarda eski o‘zbek adabiy tiliga xos bo‘lgan an’anaviy shakldosh so‘zlar (omonimlar) keng qo‘llanilgan bo‘lib, asarning til va so‘z boyligini oshirgan.

“*Yuz*” (یوز) so‘zining “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da uch xil ma’nosi qayd qilingan:

yuz (1) – inson yuzi

yuz (2) – biron - bir jism yuzasi

yuz (3) – 100 soni.

To seni qilg‘aykim O‘ziga yaqin,

Mahvi liqo qilg‘ay va ochgay yuzin (NA, 5)[216].

تا سینی قیلغایکیم اوزیگا یقین

محو لقا قیلگای و آچگای یوزین

Yuqoridagi baytda “yuz” so‘zi o‘zining birinchi ma’nosi, ya’ni inson yuzi ma’nosida kelgan va bu o‘rinda “yuz ochmoq” qo‘shma fe’li “o‘zini namoyon qilish, ko‘rsatish” ma’nolarida qo‘llangan.

Borcha gunahlardin o‘gursa yuzin,

Ochmasa tug‘yon tarafig‘a ko‘zin (NA, 54).

بارچه گنه لاردین اوگورسا یوزین

آچماسا طغیان طرفیغه کوزین

Ushbu baytda esa “*yuz*” so‘zi “yuz o‘girmoq” qo‘shma fe’lini hosil qilgan va bu o‘rinda “yuzlanmaslik, u tomon harakatlanmaslik” ma’nolarida qo‘llangan.

---

[215] Raxmatullayev Sh. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari (Frazeologik birliklarda polisemiya, sinonimiya, variatsiya, antonomiya, omonomiya va omonomiklik). -Toshkent, 1966.; Ravshanov M. O‘zbek tilining izohli lug‘atida omonimlar tavsifi. -Toshkent, 1991.; Suyunov B.T. O‘zbek tilida omoleksemalarning yuzaga kelish omillari: Filol.fanlari nomzodi diss. ...avtoref. –Toshkent, 2009.; Jo‘raboyeva M. O‘zbek tilida affiksal omonimiya. (I qism) T.: ToshDU, 1992.; O‘zbek tilidagi shakldosh qo‘shimchalar (II qism), T.: ToshDU, 1999.; Tursunov U., Rajabov N. Omonimlarning paydo bo‘lish yo‘llari // O‘zbek tili grammatik qurilishi va dialektologiyasi masalalari. –Toshkent: 1966.; Mirtojiyev M. O‘zbek tilida leksik omonimlarning vujudga kelishi: Filol.fan. nomzodi diss. ... avtoref. –Toshkent: 1963. –B.124.; So‘zlarning shakliy munosabatiga ko‘ra tiplari // O‘zbek tili leksikologiyasi. –Toshkent: Fan, 1981.; Mirtojiyev M. O‘zbek tilida polisemiya. – Toshkent: Fan, 1975. Usmonov K. O‘zbek tilida affiks omonimlar. –Nasaf:1996.–86 b.

[216] Nazmi Aqoid. O‘zR FA SHI, H.Sulaymon fondi. Toshbosma: № 9950.

Bo‘lmasa Ul yer bila ko‘k bo‘lmayin,
Yer yuzida hech giyoh unmayin (NA, 3)
بولماسا اول یير بيلا كوک بولمايين
يير يوزيدا هيچ گياه اونمايين

Bu baytda “yuz” so‘zining ikkinchi ma’nosi, ya’ni biron- bir jism yuzasi ma’nosi qo‘llanilgan.

Qildi bir imo bila yuz beqaror,
Doirai charxni pargorvor (NA, 3)
قيلدی بر ايما بيله يوز بيقرار
دايرۀ چرخ نی پركاروار

Yuqoridagi baytda “yuz” so‘zining uchinchi ma’nosi, ya’ni (yuz soni) ma’nosi qo‘llanilgan. Baytning mazmuni quyidagicha, Alloh taolo bir amr bilan yuzlab qarorsiz, ya’ni harakatdagi sayyoralarni yaratdi va aylanib yurgan osmon jismlarini aylana chizadigan qurilma – pargordek qilib qo‘ydi, ya’ni o‘z orbitalaridan tashqari chiqmasdan aylanishda bardavomdirlar.

Quyidagi baytda ham “yuz” so‘zi son, miqdor ma’nosida qo‘llangan.

Budur payambarligig‘a yuz guvoh,
Ko‘rsa ani kimda qolur ishtiboh (NA, 17)
بو دور پيمبرليگيغه يوز گواه
كورسا انی كيمدا قالور اشتباه

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *“yuz”* (O‘TIL, VI, 300) o‘z leksemasini “II 1 100 raqami va shu raqam bilan ifodalangan son, miqdor...” deb bayon etilgan:

Dedi ular bilishimda mening,
Yuz ming va yigirma ming va to‘rt ming (NA, 51)
ديدی اولار بيليشيمدا مينينگ
يوز مينگ و بيگيرمه مينگ و تورت مينگ

“***Ot***” (آت) so‘zining quyidagi baytda keltirilgan ikki ma’nosi ot va fe’l so‘z turkumlariga oid leksemalar omonimligiga tegishli bo‘lib, ot va fe’l so‘z turkumlariga doir so‘zlar shakldoshligini yuzaga chiqargan.

Loyiq Angadur hama yaxshi sifot,
Roje’ Anga bo‘lsa necha yaxshi ot (NA, 4)
لايق انگا دور همه يخشی صفات
راجع انگا بولسه نيچه يخشی آت

O‘tg‘a agar kirsa guliston bo‘lur,
Otsa aso xasimg‘a su’bon bo‘lur (NA, 17).
اوتغه اگر كيرسه گلستان بولور
آ تسه عصا خصيم غه ثعبان بولور

*“**Tanur**”* so‘zining keltirilgan ma’nolari ham ot va fe’l so‘z turkumlariga oid leksemalar omonimligiga tegishlidir. “*Tanur”* so‘zi arabiy o‘zlashma bo‘lib, hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida fonetik o‘zgarishga uchragan “tandir” shakli qo‘llanadi.

Bir bir o‘zi eni quduqdur chuqur,
Ul bu jahon ichida o‘tlug‘ **tanur** (NA, 45).

بر بر اوزی اینی قدوقدور چوقور
اول بو جهان ایچیدا اوتلوغ تنور
Haqni tanumoqg‘a aqoyid sabab,
Haqni aqoyidda **tanur** haqtalab (NA, 13).
حق نی تانوماقغه عقاید سبب
حق نی عقاید ده تانور حق طلب

“***O‘t***” – (اوت) so‘zi (O‘TIL, VI, 452) “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “I 1 olov, otash. 2 alanga...” kabi ma’nolarga egaligi ko‘rsatiladi. Asarda “olov” ma’nosidagi mazkur “*o‘t”* so‘zi “I 1 ma’lum yo‘nalishda harakatda bo‘lmoq...” ma’nosidagi “o‘tmoq” (O‘TIL, VI, 462) so‘zining buyruq shakli “*o‘t”* so‘zi bilan omonimik munosabatga kirishadi.

Borchasi **o‘t** ichra, magar bir guruh,
Ul firaqi nojiyai pur shukuh (NA, 11).
بارچه سی اوت ایچره مگر بر گروه
اول فرق ناجیهٔ پر شکوه
Bandadin **o‘t**sa necha af’ollar,
Ertayu kech xayru shar aqvollar (NA, 30).
بنده دین اوتسا نیچه افعال لار
ایرته و کیچ خیرُ شر اقوال لار

“*O‘t*” so‘zining baytda keltirilgan ikki ma’nosi ot va fe’l so‘z turkumlariga oid leksemalar omonimligiga tegishli bo‘lib, ushbu so‘z turkumlariga doir so‘zlar shakldoshligini yuzaga chiqargan.

“**Oy**” – (آي) so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “I 1 Quyoshdan nur olib, yog‘du sochuvchi samoviy jism, Yerning tabiiy yo‘ldoshi. 2 Astronomik yilning o‘n ikkidan biriga – Oyning Quyosh atrofidan bir marta aylanib chiqish muddatiga yaqin vaqt oralig‘i...” (O‘TIL, III, 563) kabi ma’nolarga egaligi ko‘rsatiladi. Asarda fazoviy jism ma’nosidagi *oy* so‘zi vaqtni ifodalovchi *oy* so‘zi bilan omonimik munosabatga kirishadi.

Oy bila Xurshid angadur misol,
Payi ro‘y bo‘lmasa topadur zavol (NA, 5).
آی بیلا خورشید انگا دور مثال
پی روی بولماسا تاپادور زوال

Mazmuni: Oy va Quyosh bunga misoldir, zero oyoq mustahkam bo‘lmasa, bulardek zavol topar. Ya’ni toatda mustahkam bo‘lki, zavol topmagin.

Menda sitoyishlarig‘a yo‘qtur til,
Gar desam avsoflarin oy-u yil (NA, 9).
مین دا ستایش لاریغه یوقتور تیل
گر دیسام اوصاف لارین آی و ییل

Oy-u yil vasflarin keltirsam ham maqtovlarin maromiga yetkazishga tilim ojizlik qilur.

“***Oy***” so‘zining yuqorida keltirilgan ikki ma’nosi ham ot so‘z turkumiga tegishli bo‘lib, o‘zaro shakldoshlikni hosil qilgan.

“**Ko‘k**” – (كوك) so‘zi. “Devon”da izohlangan, XI asr turkiy qabilalar tilida keng qo‘llangan omoleksemalardan biri *kök* leksemasidir. Mahmud Koshg‘ariy bu leksemaning quyidagi ma’nolarini ko‘rsatadi: كُكْ*kök* I “osmon”; *kök* II “ko‘k rang”; *kök* III *Kyond köki* “shahar qorasi” (Olmaota nashrida “shahar tevaragi”) – “shahardagi ko‘k daraxtlar” (III, 89); *kök* IV “egar chilviri”; *kök* V “asl, tomir, tag” (II, 187)”[217]. DTSda ham *kök* so‘zi omonim so‘z sifatida beriladi va uning o‘n bitta ma’nosi ko‘rsatiladi. Asarda rangni ifodalovchi *ko‘k* so‘zi “osmon” ma’nosidagi *ko‘k* so‘zi bilan omonimik munosabatga kirishgan.

Biridur alvon ani besh bil:
Oq va qaro, ko‘k va sarig‘ va qizil (NA, 21).
بر یدور الوان انی بیش بیل
آق و قرا کوک و سریغ و قیزیل
Bas, bir erur Ezid Parvardigor,
Ko‘ku Yer uza o‘rnidadur barqaror (NA, 23).
بس بر ایرور ایزد پروردگار
کوک یر اوزا اورنیدا دور برقرار

“*Ko‘k*” so‘zining baytda keltirilgan ikki ma’nosi sifat va ot so‘z turkumlariga oid leksemalar omonimligiga tegishli bo‘lib, ushbu so‘z turkumlariga doir so‘zlar shakldoshligini paydo qilgan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, asar muallifi ma’noviy ta’sirchanlikni oshirishda omonim so‘zlarni mahorat bilan qo‘llay olgan. Shuningdek, “Nazmi Aqoid”dagi omonimlar tahlili asar matnining mazmun-mohiyatini anglashda hamda asar yaratilgan davr o‘zbek adabiy tilining semantik imkoniyatlarini yoritishda ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo‘raboyeva M. O‘zbek tilida affiksal omonimiya. (I qism) T.: ToshDU, 1992.; O‘zbek tilidagi shakldosh qo‘shimchalar (II qism), T.: ToshDU, 1999.
2. Mirtojiyev M. O‘zbek tilida polisemiya. –Toshkent: Fan, 1975. Usmonov K. O‘zbek tilida affiks omonimlar. –Nasaf:1996.
3. Ravshanov M. O‘zbek tilining izohli lug‘atida omonimlar tavsifi. -Toshkent, 1991.
4. Tursunov U., Rajabov N. Omonimlarning paydo bo‘lish yo‘llari // O‘zbek tili grammatik qurilishi va dialektologiyasi masalalari. –Toshkent: 1966.
5. Nazmi Aqoid. O‘zR FA SHI, H.Sulaymon fondi. Toshbosma: № 9950.
6. Usmonov S. O‘zbek tilining lug‘at sostavida fors-tojikcha va arabcha so‘zlar. Navoiyga armug‘on. -T.: “Fan”, 1968.
7. Zokirov, M. T. (2021). To typology of language situations. ISJ Theoretical & Applied Science, 11 (103), 706-710.
8. Roziqova G. “Devonu lug‘otit turk” asaridagi ot leksemalarning semantik, funksional va uslubiy xususiyatlari. Filol.fan.dokt. ...diss. – Farg‘ona, 2021.

[217] Розиқова Г. “Девону луғотит турк” асаридаги от лексемаларнинг семантик, функционал ва услубий хусусиятлари. Филол.фан.докт. ...дисс. – Фарғона, 2021. –Б. 144.

9. Suyunov B.T. O‘zbek tilida omoleksemalarning yuzaga kelish omillari: Filol.fanlari nomzodi diss. ...avtoref. –Toshkent, 2009.

10. Mirtojiyev M. O‘zbek tilida leksik omonimlarning vujudga kelishi: Filol.fan. nomzodi diss. ... avtoref. –Toshkent: 1963. –B.124.; So‘zlarning shakliy munosabatiga ko‘ra tiplari // O‘zbek tili leksikologiyasi. –Toshkent: Fan, 1981.

11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022.

12. Latipov, A., & Surxonova G. (2023). Study Of “Nazmi Aqoid” Work. Texas Journal of Philology, Culture and History, 17, 67-70.

13. Umarovich, A. M., & Latipov, A. (2022). About the Poetic Commentary "Nazmi Akaid" on the Works of Umar An-Nasafi "Akayd An-Nasafi". Eurasian Scientific Herald, 12, 43-46.

TAHLIL VA TAHRIR TALQINI

Boyboboyev Hayotjon Abdujabborovich
FarDU mustaqil izlanuvchisi
Ilmiy rahbar: Mo‘minov Siddiqjon Mirsobirovich
filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Ma’lumki, ilmiy va badiiy faoliyatda matnlarning izchilligi, mantiqiy bog‘lanishi, unda keltirilgan fakt va raqamlarning aniq, lo‘nda, tushunarli bo‘lishi har jihatdan muhim. Matnlarni chop etilishdan oldin tahrir qilish va e’lon qilingan matnlarning turli aspketda tahlil etib borilishi har jihatdan foydalidir. Ushbu maqolada matn tahlili hamda matn tahririning bir-biridan farqi, bu ikki jarayondagi muhim jihatlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: matn tahlili, tahrir jarayoni, aniqlik, toponimika, tadqiqot, yondashuv.

Annotation. It is known that in scientific and artistic activity, the sequence and logical connection of texts and the facts and figures presented in them are important in all respects. Editing texts before publication and analyzing published texts from various aspects are useful in all respects.

This article highlights the differences between text analysis and text editing, as well as important aspects of the two processes.

Keywords: text analysis, editing process, accuracy, toponymy, research, approach.

Har qanday matn – u xoh ilmiy, xoh badiiy, xoh publitsistik matn bo‘lsin, avvalo, izchil tahlil va tahrirni talab etadi. Chunonchi, ommaga e’lon qilinayotgan ma’lumot, axborotlarda aniqlik, mavzuning yoritilishi, qo‘yilayotgan muammoning ravshanligi muhim ahamiyatga ega. Aks holda bu matn yoki asar o‘z qiymatini yo‘qotadi, muayyan soha uchun dolzarblik kasb etmaydi.

Matn tahlili va tahrir san’ati atamalari zamirida bir-biridan farq qiluvchi, lekin shu bilan birga, tom ma’noda bir-birini to‘ldiruvchi faoliyatlar yotadi. Ta’kidlash kerakki, ko‘p hollarda matn tahlili biror asar yoki maqola e’lon qilingach, nashr etilgach, amalga oshiriladi. Ya’ni matn muallifi bu jarayondan bevosita xabardor

bo‘lmaydi. Tahrir esa, aksincha, asar (matn)ni chop etishgacha bo‘lgan vaqtda amalga oshiriladi.

Matn tahlili nima? U qaysi jarayonlarda namoyon bo‘ladi? Bunday tahlilning qaysi turlari ma’lum?

Avvalo, **matn tahlili** ilm-fan sohalariga oid bo‘lishi mumkin. Bunda matnda keltirilgan fakt va raqamlar, dalillar tadqiqotchi tomonidan tahlil etiladi. Asar muallifi tomonidan aytilgan fikrlar ma’qullanishi, asoslanishi bilan bir qatorda, zarur o‘rinlarda ularga raddiya bildirilishi, hatto inkor etilishi ham mumkin. Ya’ni tahlil shunday jarayonki, bu orqali ilmiy yangiliklar, qarashlar, tadqiqot obyektlari mundarijasi boyitiladi, ixtirolar va kashfiyotlar mukammalashishiga zamin yaratiladi.

Xususan, badiiy asarlar tahlili bugungi kunda o‘ziga xos ilmiy yo‘nalishga aylanib ulgurgan. Badiiy asar tahlili juda qadim zamonlardan buyon ilm egalarining diqqatini tortib kelgan. Dunyo olimlari unga turlicha ta’rif berishgan. Badiiy tahlil Kunchiqish adabiyotshunosligi ilmida ham azaldan muhokama mavzusi bo‘lgan. Miloddan to‘rt ming yillar oldin hind manbalarida bir adabiy matnni ming xil tushunish mumkinligi to‘g‘risida gap boradi. Forobiy, Ibn Sino, Ahmad Tarоziy, Navoiy, Bobur singari turkiy mutafakkirlarning asarlarida esa badiiy tahlilga islomiy-turkiy yondashuv aks etgan. [2. 21]

Demak, matn tahlilida yondashuv katta rol o‘ynaydi. Ya’ni muayyan matn tahlilida tadqiqotchi yoki soha izlanuvchisi o‘z bilim doirasi, dunyoqarashi, salohiyatiga ko‘ra, berilgan fikrlarni tahlil etarkan, asosli fikrlar beradi, inkor yoki tasdiq yo‘li bilan mazkur tadqiqotni yanada boyitadi. Hatto yangi g‘oyalar paydo bo‘lishiga, yangi tadqiqotlarga turtki beradi.

Jumladan, toponimlarni lisoniy jihatdan tahlil qilish, ayniqsa, semantik xususiyatlarini o‘rganish xalqning milliy, etnik, ijtimoiy-siyosiy, madaniy tarixini, tilning tarixiy taraqqiyoti va takomilini yoritishda, nominativ, kommunikativ, akkumulyativ funksiyalari mohiyatini aks ettirishda ahamiyatlidir. [8]

Asarni tahlil etish jarayonida, bir tomondan, shu asar uchun muhim bo‘lgan sifat va xususiyatlar ajratib ko‘rsatiladi, ikkinchi tomondan esa, nomuhim jihatlardan voz kechilib, o‘ziga xos ilmiy saralash yuz beradi... Ayni vaqtda, tahlilning eng muhim usullaridan bo‘lmish solishtirishdan foydalanib, o‘rganilayotgan asarni boshqalarga qiyoslash natijasida uning badiiy betakrorligi, qaytarilmas o‘ziga xosligi anglab yetiladi.

Ilmiy tahlil jarayonida matnni ilk o‘qish paytida nazardan chetda qolgan “mayda” jihatlarga alohida diqqat qaratiladi. Asarning mazmuni va badiiy qirralari borasidagi ilk tasavvurlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va asoslash orqali mazkur bitik badiiy olamining yaxlitligi ko‘rsatib beriladi. Negaki, tahlil natijasida asardagi barcha “mayda” va xususiy jihatlar... oydinlashadi. [3. **51]**

Misol uchun, geografik nomlarni tadqiq etish asosan geografik, tarixiy va lingvistik usullarda amalga oshiriladi. [1. 22] Xuddi shuningdek, matnlarni tahlil qilishda tanlab olingan aspekt muhim ahamiyatga ega.

Umuman, matn tahlili ilm-fan cho‘qqilarini zabt etishda, kashfiyotlar qilishda, ilmiy faraz va faktlarni yanada aniqlashtirishda, boyitishda muhim sanaladi.

Matn tahriri – nima? Uning asosiy xususiyatlari qay o‘rinlarda namoyon bo‘ladi? Muharrir pozitsiyasi qanday bo‘lishi kerak?

Tahrir – arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, ozod qilish, tuzatish, muharrirlik qilish, yozish, ijod qilish ma’nolarini ifodalaydi [5. 42]. Tahrir deganda ifodani, qoidani, qarorni, majburiyatlarni aniqlashtirish, umuman turli hujjatlarni tayyorlash tushuniladi [7. 3]. Nashr sohasidagi “tahrir” tushunchasining turlicha talqini mavjud.

Asarlar tahriri bir necha jarayonni o‘z ichiga oladi: so‘zlarni qo‘llash me’yorlarining buzilishi va leksik xatolarni to‘g‘rilash, matnni stilistik jihatdan tuzatish, asar kompozitsiyasi mukammalligiga putur yetkazuvchi mantiqiy noaniqliklarni bartaraf etish, umumiy mazmunni buzmagan holda qayta ishlash, qisqartirish va tartibga keltirish, faktik materiallarni (mas., manbalar, sitatalar, atamalar, sanalar, nomlar, raqamlar va hok.) tekshirish kabi.

Kitoblar va gazeta-jurnallarni nashrga tayyorlash, kino va multfilmni suratga olish yoki spektakl uchun ssenariy tayyorlash, radioeshittirish va teleko‘rsatuvlarni efirga uzatish singari ilmiy-ijodiy jarayonlarda tahrir san’atining ko‘p qirraliligi namoyon bo‘ladi. Ilmiy-texnik (ixtisoslashgan), adabiy-badiiy, tarjima yoki huquqiy asarlar tahriri aniq maqsad, vazifa va xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bunda, ayniqsa, matn yoki ilmiy-ijodiy mahsulotning iste’molchilar (o‘quvchi, tomoshabin) yoshi, guruhi, tajribasi, dunyoqarashi, kasb-kori va hokazolarga mos kelishi, tushunarli va qiziqarli bo‘lishi talab etiladi.

Har qanday muharrir asarni to‘laqonli tahrir qilishi uchun bir necha bosqichlarda mehnat qilishi talab etiladi.

Jumladan:

1. Matn bilan tanishuv (dastlabki, boshlang‘ich tahrir). Bunda butun matn mazmuni, mundarija va tartibi, asar g‘oyasi va maqsadi umumiy baholanadi.

2. Chuqurlashtirilgan tahrir. Mikromatnlar o‘rtasidagi uzviy aloqalar, alohida matnlardagi izchillik ko‘rib chiqiladi, xatolar va muayyan detallar tuzatiladi.

3. Nazorat o‘qishi. Butun asardagi yaxlitlik, mazmuniy bog‘lanish va murakkab elementlar, sana va raqamlardagi aniqlik ko‘rib chiqiladi.

Ba’zi tadqiqotchilar esa bu jarayonni tanishuv o‘qishi, sidirg‘a o‘qish, chuqur o‘qish, sayqallov o‘qish kabi bosqichlarga bo‘lishadi. [6, 7]

Har qanday matn nashr etilish yoxud e’lon qilinishdan oldin tahrirdan o‘tkazilishi maqsadga muvofiq. Asar (matn) qimmati, ilgari surilayotgan g‘oya va mavzuning ta’sirchanligi ko‘p jihatdan tahrir qanday bo‘lishiga bog‘liq. Bu murakkab ijodiy va individual mehnat faoliyati muharrirdan keng dunyoqarash, sohaviy bilim va lingvistik salohiyat talab qiladi. Shu jihatdan muharrir faoliyatiga tahririy tahlil va shaxsiy xulosalarning amaliyotga tatbiq qilinishidan iborat ijodiy jarayon deb baho berish mumkin [4. 42]

Misol uchun, muayyan tadqiqot matnida keltirilgan toponim va boshqa geografik obyektlar nomlarining to‘g‘ri yozilishi, uni izohlashdagi chalkashliklarni

bartaraf etish hamda sharhlashda mutafakkir allomalarimizning qomusiy merosidan, xususan, “Devonu lug‘otit turk”, “Hudud al-olam”, “Shajarayi turk”, “Boburnoma”, “Ubaydullanoma”, “Abdullanoma” va boshqa shu kabi manbalardan, O‘rta Osiyo va uning xalqlari tarixi, ilm-fani va madaniyati, etnografiyasi va arxeologiyasiga oid tadqiqotlar olib borgan olimlarning asarlaridan tegishli ma’lumotlarni olish mumkin. Bu asarlar joy nomlari borasidagi kuzatishlar uchun asos, manba vazifasini o‘taydi. Ya’ni muharrir qo‘lyozmani nashrga tayyorlashda aynan ilmiy asoslangan manbalardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiq.

Bir so‘z bilan aytganda, odatda matn tahriri uning tahlilidan aynan matn chop etilishdan oldingi va keyingi jarayon sifatida farq qiladi. Ya’ni tahlil – matn chop etilib, ommaga e’lon qilingach, undagi fikr va qarashlarga, ilmiy va lisoniy faktlarga nisbatan munosabat, yondashuv hisoblansa, tahrir – qo‘lyozmani o‘qib chiqishdan to matn nashr etilgungacha bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga oladi. Har ikki holat ham ilmiy jihatdan o‘ziga xos ahamiyat va e’tiborga molikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аҳмадалиев Ю. Топонимика ва географик терминшунослик. Ўқув қўлланма. Фарғона, 2018.

2. “Бадиий асарни таҳлил қилиш методикаси” модули бўйича ўқув-услубий мажмуа. Тошкент, 2017.

3. Қозоқбой Йўлдош, Муҳайё Йўлдош. **Бадиий таҳлил асослари. Тошкент, Kamalak, 2016.**

4. Мильчин А.Э. Редакторский анализ литературного произведения как составная часть теории редактирования. 1977, С-Пб.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т., “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2020.

6. Сикорский Н.М. Теория и практика редактирования: Учебник для вузов по спец. «Журналистика». - 2-е изд. - М.: Высшая школа, 1980.

7. Тоҳиров З. Таҳрир мантиқи. –Т., Ўзбекистон, 2016.

8. Эргашева Н. Топонимик бирликларнинг лисоний таҳлили. Экономика и социум, №3 (118)-1, 2024.

RANGLAR ASSOTSIATSIYASINI ANIQLASHNING TAJRIBAGA ASOSLANGAN AMALIYOTI

Ra’noxon Ubaydullayeva
Qo‘qon DPI mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ranglar assotsiatsiyasini tajribaga asoslanib aniqlashning usullari haqida so‘z yuritiladi. Assotsiativ tajriba insonning ongiga hamda tafakkuri ongsiz harakatlari ichiga kirishga izn beruvchi asosiy metod sifatida hozirgi dunyo tilshunosligida ahamiyatlidir.

Kalit so‘zlar: ranglar assotsiatsiyasi, lisoniy ong imkoniyatlari, assotsiativlik, assotsiativ tajriba metodi, “O‘zbek tilining ta’limiy korpusi”, faollik darajasi, javob reaksiyasi.

Abstract. This article discusses methods for determining color associations based on experience. Associative experience is important in modern world linguistics as the main method that allows to enter into the mind of a person and his unconscious actions.

Key words: color association, possibilities of linguistic consciousness, associativeness, method of associative experience, "Educational corpus of the Uzbek language", level of activity, response reaction.

O‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab tilshunoslikda insonning lisoniy ongi imkoniyatlarini aniqlashda, uning til birliklarini qanday bilishi, o‘zlashtirshini tekshirishda, leksik birliklar zaxirasi, muayyan leksik birliklarga nisbatan hosil bo‘ladigan assotsiatsiyalarini aniqlashda assotsiativ tajriba metodidan unumli foydalanilmoqda.

Ma’lumki, dunyo ilm-fanida assotsiativ tajriba metodi o‘tgan asrning 70-yillarida mashhur ingliz psixologi F.Galton tomonidan birinchi marta amaliyotda qo‘llangan. U bu tajribani o‘z ustida amalga oshirib, insonda muayyan so‘zlar bo‘yicha qanday assotsiatsiyalar xayoliga kelishini aniqlagan. [1]. F.Galton qo‘llagan ushbu tajriba metodi bugungi kunda nafaqat psixologiyada, balki tilshunoslikda, pedagogikada, tibbiyotda faol ishlatilmoqda.

Tilshunoslikda til sathi birliklarining assotsiativligini aniqlashda ushbu tajriba metodi juda ahamyatlidir. N.V.Yefimenkoning e’tirof etishicha, assotsiativ tajriba, birinchidan, til egalari o‘tmish tajribasiga asoslangan assotsiatsiyalarni aniqlashga qaratilgan hamda til birliklari mohiyatini o‘rganish uchun ishlab chiqilgan eng samarali metoddir. Ikkinchidan, bu metodning soddaligi va uni maxsus aparatlardan foydalanmasdan turib amalga oshirish mumkinligi turli yoshdagi kishilarda va keng miqdorda ma’lumot olish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Uchinchidan, erkin assotsiativ tajriba materiallarining e’lon qilinishi tajribada olingan materiallarni qiyosiy tadqiq qilishga imkon beradi. [2].

Assotsiativ tajriba metodi til egalarida rang-tus ifodalovchi so‘zlarga nisbatan qanday assotsiatsiyalar hosil bo‘lishini aniqlashda, ularning rang-tus ifodalovchi so‘zlarning semantik xususiyatlarini bilish darajasini tekshirishda, rang-tus ifodalovchi so‘zlarga nisbatan assotsiatsiyalarni hosil qiluvchi tashqi omillarni aniqlashda, assotsiatsiyalarning til egalarining yoshi, jinsi, millati, ijtimoiy holati kabilar bilan bog‘liqlik darajasini belgilashda ham muhim ahamiyatga ega.

Assotsiativ tajriba metodi, ayniqsa, rang assotsiatsiyasining individual, xususiy hamda jamoaviy, umumiy ko‘rinishlarini aniqlashga imkon beradi. Assotsiativ tajribalar turli xalqlarning rang tasavvurini o‘zaro qiyoslashga, ranglar bo‘yicha milliy qarashlari, munosabatini aniqlashga yordam beradi.

A.A.Leontyevning e’tirof etishicha, assotsiativ tajriba metodi til birliklarining milliy-madaniy xususiyatlarini eng haqqoniy tarzda ochib berishga imkon beruvchi metod sanaladi. [3].

Darhaqiqat, assotsiativ tajribalar yordamida aniqlanadigan jamoaviy assotsiatsiyalarda jamiyatda shakllanib, til egalari tomonidan o‘zlashtirilgan milliy-madaniy qadriyatlar, milliy tafakkur, kishilarning hayotiy tajribalari,

bilimlari bevosita yuzaga chiqadi. Bu holat assotsiativ tajribalarda ranglarga nisbatan berilgan jamoaviy javob reaksiyalarida ham ko‘zga tashlanadi. Bunday javob reaksiyalarida til jamiyati a’zolarining ranglarni idrok etishi, ranglar haqidagi bilimlari, ranglar bilan bog‘liq urf-odatlari, an’analarga munosabati kabilar bevosita aks etadi. Shu sababli jamoaviy assotsiatsiyalar orqali til jamiyati a’zolarining ranglar bo‘yicha tasavvurlari, milliy-madaniy qarashlarini aniqlash imkoniyati yuqori bo‘ladi.

Tilshunoslikda assotsiativ tajriba o‘tkazishning asosan uch turi qayd etiladi. Eng ko‘p qo‘llaniladigan metod – bu erkin assotsiativ tajriba metodi hisoblanadi. Bunday tajribani rang-tus ifodalovchi eng faol so‘zlar (*oq, qora, qizil, sariq, yashil, ko‘k, kulrang, jigarrang, pushti, siyohrang* kabilar) yoki ayrim rang bildiruvchi so‘zlar bo‘yicha o‘tkazish mumkin. Bu metodga ko‘ra sinaluvchilar rang-tus ifodalovchi so‘zlarni eshitishlari bilan darhol xotiraga kelgan eng birinchi so‘zni javob reaksiyasi sifatida so‘rovnomaga qayd etishadi. Bunday tajribada quyidagi natijalarga ega bo‘lish mumkin:

1) rang-tus ifodalovchi so‘zlar bo‘yicha til egalarida qanday assotsiatsiyalar hosil bo‘lishi aniqlanadi;

2) til egalarining rang-tus ifodalovchi so‘zlarni qay darajada bilishi, ranglar bo‘yicha tasavvurlariga qanday obraz kelishi aniqlanadi;

3) rang-tus ifodalovchi so‘zlarning semantik xususiyatlariga oydinlik kiritiladi;

4) til egalarining ranglarga bo‘lgan munosabati belgilanadi;

5) ranglarning xalq madaniyati, jamiyatda urf bo‘lgan odatlar, an’analar bilan bog‘liq jihatlariga aniqlik kiritiladi va hokazo.

Erkin assotsiativ tajribani o‘tkazish boshqa tajriba turlariga nisbatan birmuncha qulay bo‘lganligi uchun bugungi kunda turli tillarning assotsiativ lug‘atlarni tuzishda ham undan samarali foydalanilmoqda. Erkin assotsiativ tajribani ko‘plab sinaluvchilar ustida o‘tkazish mumkin. Tajribada ishtirok etuvchilar, ya’ni sinaluvchilarning soni qanchalik ko‘p bo‘lsa, rang-tus ifodalovchi so‘zlarga nisbatan rang-barang javob reaksiyalarini olish mumkin bo‘ladi. Bunday javob reaksiyalari butun bir xalqning ranglar bo‘yicha tasavvurlarini, ranglarga bo‘lgan munosabatini baholashga yordam beradi. Ayrim sinaluvchilar ustida o‘tkazilgan tajriba natijalari asosida muayyan bir xalqning ranglar bo‘yicha assotsiatsiyalarini umumlashtirib bo‘lmaydi. Faqat jamoaviy tarzda o‘tkaziladigan erkin assotsiativ tajribalar orqali rang-tus ifodalovchi so‘zlarning assotsiativ ma’nolarini aniqlash imkoni yaratiladi.

Ushbu tadqiqotda rang-tus ifodalovchi so‘zlarga nisbatan o‘zbek tili egalarida hosil bo‘ladigan assotsiatsiyalarni aniqlash maqsadida erkin assotsiativ metoddan foydalanildi. Ushbu tajribani o‘tkazishdan oldin rang-tus bildiruvchi so‘zlar ro‘yxati tuzildi. Bunda nutqda faol qo‘llaniladigan rang-tus bildiruvchi so‘zlar aniqlandi. Bunday so‘zlarning faollik darajasini aniqlashda “O‘zbek tilining ta’limiy korpusi”dan foydalanildi. [8].

Ushbu til korpusi natijalariga koʻra rang-tus bildiruvchi soʻzlarning nutqiy faollik darajasi quyidagicha koʻrinishga ega boʻldi:

Rang-tus bildiruvchi soʻzlarning “Oʻzbek tili ta’limiy korpusi”dagi qidiruvi natijalari

	Rang-tus bildiruvchi soʻzlar	Rang-tus bildiruvchi soʻzlarning “Oʻzbek tili ta’limiy korpusi”dagi qidiruvi natijasi [9]
	Oq	37277 ta
	Qora	28645 ta
	Qizil	23576 ta
	Yashil	20256 ta
	Koʻk	8932 ta
	Sariq	7961 ta
	Moviy	2000 ta
	Pushti	1451 ta
	Jigarrang	942 ta
	Qoʻngʻir	786 ta
	Malla/ mallarang	401 ta
	Zangor/ zangori	32 /347 ta
	Tillarang	365 ta
	Qirmizi	222 ta
	Siyohrang	139 ta
	Olovrang	137 ta
	Qaymoqrang	48 ta
	Olachipor	31 ta
	Pistoqi	13 ta
	Boʻzrang	1 ta
	Ola-bula	-

“Oʻzbek tilining ta’limiy korpusi” tomonidan aniqlangan natijalar asosida assotsiativ tajriba uchun turtki soʻz vazifasini bajaruvchi quyidagi eng yuqori chastotali jami 14 ta soʻz tanlab olindi: *oq, qora, qizil, yashil, koʻk, sariq, moviy, pushti, jigarrang, qoʻngʻir, malla/mallarang, zangor/zangori, tillarang, qirmizi*.

Albatta, qayd etilgan “Oʻzbek tilining ta’limiy korpusi” natijalari asosida oʻzbek tilida rang-tus bildiruvchi soʻzlarning faollik darajasi toʻla darajada shunday koʻrinish oladi deya olmaymiz. Chunki qidiruv jarayonida rang-tus bildiruvchi soʻzlar bilan hosil boʻlgan yasama soʻzlar, soʻz birikmalari, koʻchma maʼnoli soʻzlar ham hisobga olinganligi kuzatildi. Bunday qidiruv tizimida katta miqdordagi til materiallari qamrab olingan boʻlib, ularda qoʻllangan soʻzlarni tezlikda aniqlash imkoni mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Galton F. Psychometric experiments. Brain, 1879. – №. 2. – P. 149-162 // https://doi.org/10.1093/brain/2.2.149

2. Ефименко Н.В. Ассоциативная структура цветого значения слова и текста: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Уфа, 2011. – С. 15.
3. Леонтьев А.А. Общие сведения об ассоциациях и ассоциативных нормах // Словарь ассоциативных норм русского языка. – М.: МГУ, 1977. – С.14.
4. Горошко Е.И. К истории метода свободных ассоциаций // www.textology.ru;
5. Мартинович Г.А. Вербальные ассоциации в ассоциативном эксперименте. СПб., 1997
6. Джамбаева Ж.А. Ассоциативный эксперимент: методологические основы // Л.Н. Гумилев атындағы ЕҰУ Хабаршысы. 2013. – №1. – С. 17-21.
7. “O‘zbek tilining ta’limiy korpusi” // https://uzschoolcorpara.uz/uz/Search
8. https://uzschoolcorpora.uz

SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA KINESIKANING AHAMIYATI

Nizomova Zarifa Kamoliddin qizi
Nam DU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Dunyo tilshunosligida, xususan, o‘zbek tilshunosligida ham nutqiy muloqotning noverbal vositalari (ovozdagi turli holatlar, ishoralar, mimika va gavda harakatlari) tadqiqi tilning turli aspektlarida amalga oshirilgan. Zamonaviy hayot realiyalari shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgi dunyoning barcha jamiyatida muloqot o‘ta erkin, kutilmagan hamda til qoidalaridan yiroqligi bilan xarakterlanadi. Bunda noverbal vositalarning o‘rni har qachongidan ortgan va ular o‘z zimmalariga katta pragmatik yukni ola boshladi. Ayniqsa, ularning virtual muloqotda noverbal vositalar tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qolmoqda.

Mazkur maqolada paralingvistik vositalar haqida qisqacha ma’lumot berilgan, hamda ularning o‘rganilish darajasi va ahamiyati ochib berilgan. Murojaatda noverbal shakllari ham keng tahlil qilingan. Shuningdek, lingvistik va nolingvistik aloqalar, ular o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va qarama-qarshiliklar , ma’lum tasvirni yaratish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Muloqot jarayonida noverbal vositalarning xususiyatlar masalasi ham yoritilgan. Bundan tashqari, o‘zbeklarda aloqa-aralashuv jarayonida qadimdan tarkib topgan va ishlatib kelinayotgan muomala shakllari ham berilgan.

Kalit so‘zlar: virtual muloqot, noverbal vositalar, noverbal shakl, lingvistik va nolingvistik aloqa, jestlar, imo-ishoralar.

Abstract. In World linguistics, in particular in Uzbek linguistics, the study of nonverbal means of speech communication (various states in the voice, gestures, facial expressions and posture movements) was carried out in different aspects of the language. The realities of modern life show that in all societies of the current world, communication is characterized by being extremely free, unexpected and far from the rules of language. In this, the role of nonverbal tools has grown more

than ever, and they began to take on a huge pragmatic load. In particular, in their virtual communication, noverbal tools remain unnoticed by researchers. Mzakur's paper provides a brief overview of paralinguistic tools, and reveals the degree and significance of their study. The appeal also extensively analyzed nonverbal forms. Also discussed are linguistic and non-linguistic relations, interaction and contradictions between them , the possibility of creating a certain establishment. In the process of communication, the issue of properties of nonverbal means is also covered. In addition, forms of treatment have also been given in Uzbeks, which have long been composed and used in the process of communication and intervention.

Key words: virtual communication, nonverbal means, nonverbal form, linguistic and non-linguistic communication, gestures, gestures.

KIRISH

Til vositalariga funksional tomondan yondashish tamoyili tabiiy ravishda nutq vositalarining qamrov kengaytirishni talab qiladi. Aloqa jarayonida ekstralingvistik vositalarga nisbatan paralingvistik vositalar, ayniqsa, keng qo‘llanadi. So‘zlovchining o‘g‘zaki nutqi bilan birgalikda qo‘llanib, tinglovchilar bilan bevosita aloqa qilishda nutq mazmunini to‘ldiradigan, uning jozibadorligi, ta’sirchanligini oshiradigan imo-ishoralarning o‘zaro aloqadorligini va farqlarini tadqiq qilish maqsadida til va nutqni sistemali o‘rganish lozim bo‘lmoqda.

Ana shunday amaliy talab bilan nutqning bu yordamchi vositalarini o‘rganuvchi maxsus fan sohasi maydonga keldi. Hozirgi kunda bu fan sohasi “paralingvistika” nomi bilan tilshunoslikdan mustahkam o‘rin oldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Dunyo tilshunosligida paralingvistik vositalar turli aspektlarda G.V.Kolshanskiy, I.N.Gorelov, G.Ye.Kreydlin, R.K.Potapova, V.V.Potapov, A.Piz, B.Piz, V.A.Pronnikov, I.D.Ladanov, C.Stepanov, S.A.Garkaves, I.Kuznesov, J.Messinjer, L.I.Dmitriyeva, L.N.Klokova, V.V.Pavlova, T.N.Pirkina, I.A.Ax’yamova, G.V.Barishnikova, M.L.Butovskaya kabi olimlar[2]ning tadqiqotlarida yoritildi.

Paralingvistik vositalarning mazmuniy va stilistik tadqiqiga bag‘ishlangan ishlardan o‘zbek tilshunosligida A.Nurmonov, M.Saidxonov, S.Mo‘minov, Sh.Iskandarova, A.Aripova, Z.Akbarova, Q.Rasulov, A.Haydarov, G.Toirova, Q.Kaxarov, X.Ismoilovlar[3]ning tadqiqotlarini ko‘rsatish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada nutqiy muloqotda paralingvistik vositalarning o‘rni masalasini ochib berishga,paralingvistik vositalarning madaniyatlararo xoslanishini tahlil etish hamda virtual muloqotda noverbal vositalarning madaniy me’yorlarni aniqlashga alohida ahamiyat beriladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Kinesika-paralingvistik vositalarning ikkinchi turi bo‘lib, u yunoncha so‘zdan olingan. U insonning muloqotida ishtirok etadigan tana harakatlarining (imo-ishoralar va mimikalar) yig‘indisini o‘rganadigan fandir. Kinesika nutq apparati

harakatlaridan tashqari qo‘shimcha ekspressiv aloqa vositalarini ham bildirib tana harakatlarini ham ifodalaydi

Kin – bu inson tanasining eng kichik harakat birligi bo‘lib, uni o‘qish orqali siz imo-ishoralar va boshqa harakatlar orqali uzatiladigan xabarlarni sharhlashingiz mumkin. Inson nutqi so‘zlar, gaplar va iboralar ketma-ketligidan iborat bo‘lgani kabi inson xatti-harakati ham kinemalardan iboratdir. Kinemlardan kinemorflar hosil bo‘ladi (iboralarga o‘xshash narsa). Kinesika aloqada tartibga solish funksiyani bajaradigan vizual tarzda qabul qilinadigan harakatlarni o‘z ichiga oladi. Bular nafaqat yuz va tananing harakatlarini, balki kinesikaning tashqi ko‘rinishi, yurishi, qo‘l yozuvi va boshqa elementlari ham fiziologik, ham ijtimoiy-madaniy kelib chiqishiga egadir.

Tana tilining, mimikaning o‘ziga xosligi shundaki, u bizning ongimiz ostidagi impulslar tufayli o‘zini namoyon qiladi. Bu esa oddiy og‘zaki tildan ko‘ra tana tiliga ko‘proq ishonish imkonini beradi. Bu borada amerikalik psixolog Artur Aron o‘z ilmiy tadqiqotida kishining kimgadir oshiq bo‘lishi-bo‘la olmasligini aniqlash mumkin degan xulosa beradi. Qizig‘i shundaki, buni o‘rtacha 90 soniyadan 4 daqiqagacha bo‘lgan vaqt ichida amallasa bo‘lar ekan. Olimning fikricha, bizga mos keladigan odamni topish uchun bir nechta asosiy xususiyat ko‘zdan kechirilsa bas. Bu jarayonda tana “til”ning roli juda yuqori, aniqrog‘, 55%. Bu shuni anglatadiki, miya potensial juftning tana harakatlarini tahlil qiladi va undan sizda qiziqish uyg‘otadigan qandaydir javob signallarini izlaydi[8]. Insonning harakatlari uning ichki dunyosini ma’lum miqdorda yoritib beradi.

Kinesika inson xatti-harakatlarining og‘zaki bo‘lmagan ko‘rinishlarida aks etishini o‘rganadi, ular orasida:

Mimika – bu yuz ifodasi, yuz mushaklarining harakati bo‘lib, unda odam o‘zining ichki his-tuyg‘ularini, kechinmalarini, kayfiyatini va boshqa fazilatlarini ifodalaydi. Mimikriya kuchli qo‘zg‘alish jarayonining miya yarim korteksining motor zonasiga tarqalishi bilan bog‘liq – shuning uchun uning ixtiyorsiz xarakterini o‘zida namoyon etadi. Shu bilan birga, butun simpatik asab tizimining mos keladigan qo‘zg‘alishi sodir bo‘ladi[5]. Bunga ishonch hosil qilish uchun biz ushbu hodisalarni tasvirlab bergan olimlarning ilmiy ishlariga murojaat qilamiz.

Fiziognomiyadeb nomlangan ushbu yo‘nalishning asoschisi qadimgi yunon faylasufi Aristotel hisoblanadi. Uning fikriga ko‘ra, yuz ifodalari, odamni tanib olishga yordam beradigan o‘ziga xos xususiyatlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu tushuncha bo‘yicha u yolg‘iz emas edi. Qadimgi yunon olimi Pifagor ham xuddi shunday mezonlarga rioya qilgan, u o‘z shogirdlarini tanlagan, faqat ularning yuzlarini ko‘rib chiqqan va shu asosda ularning qobiliyatlarini aniqlagan. Aristotelning tadqiqotining ahamiyati shundaki, u insonning tashqi xususiyatlarini uning shaxsiy fazilatlarini yaxlit tarkibiy qism sifatida tavsiflash bilan bog‘lashga harakat qildi. O‘z davrining eng buyuk fiziognomisti butun Yevropada katta shuhrat qozongan, shveytsariyalik ruhoniy, olim va shoir Yoxann Gaspar Lafater faoliyatiga alohida e’tibor qaratish lozim. Lafater to‘rt

jildli asarida uni "fiziognomik parchalar" deb nomlagan va 1775-1778-yillarda nashr etgan. To‘rt jildli kitobda yuzni o‘rganish faniga yangi yondashuvlar ko‘rsatilgan. I.G.Lafaterning yozishicha, "yuzlar kitoblarga xos bo‘lganidek o‘qish uchun ham mavjud, farq shundaki, ular qisqa vaqt ichida o‘qiladi va bizni kamroq aldaydi"[4]. I.G. Lafater "odamlarni fiziognomiyadan bilish san’ati" asarida" ekspressiv harakatlarni tizimlashtirishga birinchi urinishni amalga oshirdi"[6]. Biz aniq ilmiy tadqiqotlar haqida gapiramiz, chunki ekspressiv harakatlarning amaliy qo‘llanilishi qadimgi Rim davridan beri ma’lum bo‘lgan. Xususan, qadimgi Rimning taniqli notiq va mutafakkiri M.T.Tsitseron o‘sha paytda notiqlikda imo-ishoralarning ahamiyatini tushunib,unga shogirdlarini ham o‘rgatgan[7].

Kinesikani ilmiy jihatdan o‘rganishning boshlanishining mohiyatiga ko‘ra Charlz Darvin tomonidan qo‘yilgan bo‘lib, u tilning kelib chiqishi va imo-ishoralar va mimikalarning yuksalishi o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasini tubdan o‘rgangan. Darvin ta’kidlaganidek, insonning yuz ifodalari hayvonot olamidan kelib chiqqan. Hayvonlar va insonlarda ko‘plab umumiy yuz ifodalari mavjud – xavotir, qo‘rquv, tashvish va boshqalar. Biroq, odamning o‘ziga xos his-tuyg‘ulari va ularning yuz ifodalari – ilhom, hayrat, hamdardlik, jo‘shqinlik holatini ifodalaydi. Ko‘pgina insoniy his-tuyg‘ularini hamda hayvonot dunyosini adaptiv ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlarini ham ishlab chiqilgan. Shunday qilib, yuqori labni ko‘tarish orqali bir necha ma’no tushunish mumkin.

- Odamda nafratning namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi;
- tinglovchiga qarata labni tishlash esa aytyotgan gapini aytmaslikni bildiradi;
- so‘zlovchining suhbati eshituvchiga yoqmaganini ifodalaydi;
- labni bir marta o‘ngga (ayrim holatda chapga) silkinishi suhbatdoshini turgan joydan chiqib ketishini bildiradi.

Mimik harakatlar quyidagilarga bo‘linadi:

1. Tajovuzkor yuz ifodalari-g‘azab, shafqatsizlik va boshqalar;
2. Faol-mudofaa-jirkanish, nafrat;
3. Yo‘naltiruvchi-tadqiqot yo‘nalishining yuz ifodalari: passiv-mudofaa-kamtarlik, kamsitish vs boshqalar;
4. Yuz ifodalari:zavq-norozilik, masalan, quvonch yoki baxt;
5. Haqiqatni yashirishning yuz ifodasi: qayg‘u yoki ko‘ngilsizlik va boshqalar;

Ammo virtual muloqotda mimikaning eng muhim elementlaridan biri bu ko‘rinishdir. Muloqot jarayonida odamlarning qarashlarini bir-birlariga moslashtiruvchi funksiyani bajaradi. Bunday qarashlar bir maromda muayyan aloqa kanalini tashkil qiladi. Ammo alohida nutq zanjirining tugashiga taxminan bir soniya qolganda, suhbatdosh o‘z nigohini tinglovchining yuziga qaratadi, go‘yo so‘zlash navbati boshlangani haqida ma’lumot berib, o‘zi qoldirgan taassurotni baholaydi. Tinglovchi esa so‘zlovchining gaplari mazmuniga o‘z munosabatini ko‘zlari bilan bildiradi – bular ma’qullash va qoralash, rozilik va kelishmovchilik, quvonch va qayg‘u, zavq va g‘azab bo‘lishi mumkin. Ko‘z inson tuyg‘ularining

butun harakatini ifodalaydi, chunki u ichki dunyosini koʻrsatib beruvchi tana a’zosidir.

Koʻz bilan aloqa qilish turlari bir necha ma’nolarni ifodalaydi, shulardan koʻz qisish:

1. Qumriniso Sobiraxonga koʻz qisib:

-Oʻyin –kulgimizning boshi Bahrixonning toʻyi boʻladi,-dedi. (*A.Qahhor)*

-Qizini shunday odamlarga bergan qaynonalar yogʻ yeb, sharbat ichsalar kerak,-dedi mulla Sulaymon Aniqulga koʻz qisib. *(Sh. Rashidov)*

2. Men kulib yuborgan edim, sherigim turtib, koʻz qisdi. *(A.Qahhor)*

3. Ular anchadan beri bir-biri bilan koʻz qisishib yurar ekan. *(“Oʻzbek xalq ertaklari”)*

4. Qalandarov juda hijolatli bir marosimni oʻtkazayotganday qip-qizarib, iljayib, koʻzi koʻziga tushgan odamga “mayli, qoʻya ber, ahamiyati yoʻq” degan ma’noda koʻz qisib tikka turar edi. *(A.Qahhor)*

Koʻz qisish birinchi misolda “hazil”, ikkinchi misolda “kulma” ma’nolarida, uchinchisida “kelishish”, toʻrtinchisida esa “ ahamiyati yoʻq” ma’nolarida ishlatilmoqda[1]. Yoki “yoʻq nigoh” jamlangan fikrlash demakdir.

1. Suhbatdoshning fikri qiziqtirmasa, bosh silkish yoki qoʻl harakatlari orqali ifodalash.
2. Koʻzni yumub olish orqali bildirish;
3. Yugurib qaragan, uzoqqa yoki yaqinga qaragan. Bu kelishuv yoʻqligi va ishonchsizlik belgisidir.

Endi oʻzbek, ingliz tilida soʻzlashuvchi mamlakatlar va Xitoyning yuz ifodalarini koʻrib chiqaylik.

Oʻzbek va ingliz tilida soʻzlashuvchi mamlakatlarning yuz ifodalari umumiy qabul qilingan me’yorlardan unchalik farq qilmaydigan va farq qiladigan tomonlari mavjud. Ammo e’tiborga olish kerak boʻlgan bir nechta nuanslar ham mavjud.

Amerikaliklar va ingliz tilida soʻzlashuvchilar jamoat oldida juda koʻp tabassum qiladilar. Ingliz tilida soʻzlashadigan dunyoda bu yaxshi niyat va xushmuomalalik namoyonidir. Bular siz suhbatdoshga zarar bermaslik va ijtimoiy me’yorlarga rioya qilishni va’da qilasiz. Ingliz tilida soʻzlashadigan mamlakatlarda, agar biror kishi jamoat oldida va muloqot paytida tabassum qilmasa, u qoʻpollik qiladi va uni tajovuzkor odam sifatida qabul qiladi, deb ishoniladi. Oʻzbek tilida tabassum doimiy tarzda emas, balki suhbat qizigan mahalda tabassum qilish yaxshidir, birdek tabassum jiddiy emasligini bildiradi.

Agar siz gapirganingizda inglizlar tez-tez koʻzlarini pirpiratsa, demak u sizni diqqat bilan tinglayapti. Shu bilan birga, odam yon tomonga qarashi mumkin, chunki ularning koʻzlariga uzoq vaqt qarash odatiy hol emas.

Agar inglizlar qoshlarini koʻtarsalar, demak, ular har qanday gʻoyaga shubha va shubhali munosabatni bildiradilar.

Xitoyda yuz ifodalari ishlab chiqilmagan va bu yillar davomida har qanday vaziyatda "yuzni saqlab qolish" istagi tufayli ishlab chiqilgan. Xitoyliklarning yuzida his-tuygʻularning aksini koʻrish deyarli mumkin emas. Ammo koʻpchilikni

hayratda qoldiradigan bir xususiyat bor. Har qanday yomon vaziyatda ular tabassum qiladilar va hatto kulishadi. O‘lim haqida xabar berishda ular qayg‘u ko‘rsatmasliklari kerak, aksincha, ular tabassum qilishlari kerak. Ular har qanday tajovuzni ham tabassum bilan kutib olishadi. Va ularga qanchalik baland ovozda qichqirsalar, shunchalik kengroq tabassum qiladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Нурмонов.А. Танланган асарлар III жилдлик .Iжилд . Т.2012. – С.222
2. Қахаров Қ. Ўзбек ва немис нутқий этикетларининг қиёсий тадқиқи: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Андижон, 2017. – Б.157.
3. Расулов Қ. Ўзбек мулоқот ҳулқининг функционал хосланиши: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2008. – Б.139.
4. Степаненко А. В. Лицо человека [Текст] / А.В. Степаненко. – М.:Знание, 1992. – 150 с.
5. Цитируется по: Мимика и жесты: Секреты общения / Авт.-сост. И. Н. Кузнецов. – Мн., 2007. – С. 32
6. Степаненко А. В. Лицо человека [Текст] / А.В. Степаненко. – М.:Знание, 1992. – 150 с.
7. Цитируется по: Мимика и жесты: Секреты общения / Авт.-сост. И. Н. Кузнецов. – Мн., 2007. – С. 32
8. https://amorebeutifulquestion.com

TARIXIY LAQABLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Xalilova Nilufar

Qo‘qon DPI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada Qo‘qon xonligiga xos manbalarda keltirilgan laqablar, ular leksik-semantik jihatdan tadqiq etiladi. Tarixiy shaxslarning laqablari, ismlari, ularning nomlanish motivlari ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, antroponimiya, tarixiy nom, laqablar, leksik-semantik tahlil, asliy laqablar, nisbiy laqablar.

Abstract. In the article, the nicknames given in the sources specific to the Kokand khanate are studied from a lexical-semantic point of view. Nicknames, names of historical figures, reasons for naming them are shown.

Key words: Kokand khanate, anthroponymy, historical name, nicknames, lexical-semantic analysis, original nicknames, relative nicknames.

O‘zbek nomshunosligi tarixida laqablar mavzusi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganib kelinmoqda. Lekin aynan tarixiy laqablar deyarli tadqiq etilmagan. Qo‘qon xonligi antroponimiyasida laqablar salmoqli o‘rin tutadi.

Nomshunos olim E.Begmatovning tasnifiga, boshqa tadqiqotlarning yutuqlariga tayangan holda Qo‘qon xonligi antroponimiyasiga mansub laqablarni quyidagicha tasniflashni lozim topdik.

1. Asliy laqablar. Tadqiqotchi olim shaxsga maxsus laqab sifatida berilgan nomlarnigina haqiqiy ma’nodagi laqablarga kiritadi. Bunday laqablar tilda laqab

sifatida yuzaga kelgan anomlar va bu tip laqablarni tilda aslida laqab sifatida paydo bo‘lgani uchun asliy laqablar ekanligini aytadi hamda buni “asliy sifatlar” bilan solishtirib shunday tarzda atalishini ta’kidlaydi. Olimning aytishicha, hozirgi o‘zbek tilidagi laqablarniig aksariyati asliy laqablardir.[1, 57-61].

Masalan, *Mingoyim* – asl va to‘liq ismi Faxriniso bint Imomqulibek Do‘stqulibek o‘g‘li bahodir bo‘lgan, Norbo‘tabiyning xotini, Qo‘qon xonlari – Olimxon va Umarxonlarning onasining laqabi. U ming qabilasidan bo‘lganligi sababli xalq tomonidan shunday laqab berilgan. Qo‘qon tarixiga oid barcha manbalarda *Mingoyim* deb tilga olingan: *Uch o‘g‘ulning nomlari bulardur, Olimxon, Umarxon (bu ikki birodar bir onadin mingiya jamoadinkim, nomini* ***Mingoyim*** *deydurlar*. [3, 60].

Hokimoyim – asl ismi Yorqinoyim/Jarqinoy bint To‘xtanazar qirg‘iz bo‘lgan Sheralixonning qirg‘iz xotini, Qo‘qon xoni Xudoyorxonning onasi**:** *Ta’rixi madrasai volidai xoni zamon, ya’ni* ***Hokimoyim*** *vasiyat etgan edi. Vasiyatga amal etib, Xudoyorxon masjidi Jomening sharq tarafida bir oliy madrasa bino etdi*. [4, 301].

Otaliqxon – Qo‘qon xoni Olimxonning o‘g‘li: *Ustiga-ustak shu asnoda Muhammad devonbegi amir Olimxonning* ***Otaliqxon*** *nomi bilan tanilgan o‘g‘li Ibrohimxonni Dahkat qal’asida qo‘yib, Xo‘jand qal’asi ahvolini tang qilgan palla edi.* [5, 467].

Salimsoqxon /Sarimsoqxon – Sheralixonning katta o‘g‘li, Xudoyorxonning akasi Abdurahmonbekning laqabi.

Kenagas oyim – Qo‘qon xoni Abdurahimbiyning xotini, shahrisabzlik Ibrohim kenagasning qizi Oychuchuk oyim bint Ibrohim otaliqning laqabi.

Erdonaxon – Qo‘qon xonlaridan bo‘lgan Abdulqayumxonning laqabi. Laqab haqida manbalarda quyidagi fikrlar qayd etilgan: *Er degani alifning kasrasi va yoning sukuni bilan turkchada dalir (shijoatli, botir) va jasur kishi yovqur (hech narsadan qo‘rqmaydigan) degani. Uning asl ismi Abdulqayumbek bo‘lgan. Ulug‘ amakisi jannatmakon Abdulkarimxon davrida undan ko‘p mardlik va hushyorlik zohir bo‘lgan. Bu o‘lkaning turklari uni “Eri dono” deya boshladilarki, shu bilan mashhur bo‘la boshladi*. [4, 356].

Po‘latxon – soxta xon, qo‘zg‘olonchi Is’hoq Hasan o‘g‘li mullo Mo‘minning laqabi.

2. Nisbiy laqablar. Diqqat qilinsa o‘tmishda ham, hozirda ham shaxs ismiga mansab va sulola nomlari, shaxs mansub bo‘lgan urug‘ va qabila nomi, ijtimoiy siyosiy titullar, shaxsning kasb-korini ifoda etuvchi nomlar qo‘shilib keladi. Mohiyatan bu nomlar ham laqablar kabi shaxsni o‘zgalardan farqlashga xizmat qiladi. Masalan, o‘tmishda bunday nomlar tarnxiy asarlar sahifalarida saqlanib, bizgacha yetib kelgan. *Ular halvoga qo‘l cho‘zgan vaqtda janob Sultonxonning bilagidan* ***Bahodirxoja dasturxonchi*** *mahkam ushladi, janob Mahmudxonning bilagidan* ***Abdulkarim chopuqchi*** *tutdi, To‘raxonning qo‘lidan mahkam qilib* ***Sayyid buqchabardor*** *oldi va har uchchala sayyidlik panohlarini “nima qilaylik, xizmatchilik, uzr”, deya zanjirband qildilar*. (Muntaxab., 353).

Biz ham o‘zbek tili tarixidagi, aynan Qo‘qon xonligiga doir manbalardan to‘plangan laqablar materialiga tayangan holda quyidagicha tasniflaymiz:

I. Shaxsning jismoniy kamchiliklari motiv bo‘lgan laqablar.

1. Nutq organidagi kamchiliklar motiv bo‘lgan laqablar:

Muhammadnazarbek soqov – (Muhammadnazarbek ibn Irisqulibek ming) – Muhammadalixon onasining tog‘asi. Soqov so‘zining ma’nosi quyidagicha: *tilsiz, gung, gungalak yoki ba’zi tovushlarni qiynalib talaffuz qiladigan yoki tutilib gapiradigan; duduq*. [7, 561]. Xalq orasida nutqida biror kamchiligi bor odamga ham, garchi Ollohning yaratiqlariga laqab qo‘yish gunoh hisoblansa-da, “soqov” deb “laqab qo‘yib olinadi”.

2. Eshitish organidagi nuqsonlar motiv bo‘lgan laqablar: *Muhammadnazar quloq boturboshi* – Sheralixon davrida (1842-1844) To‘raqo‘rg‘on hokimi bo‘lgan. Hozirda ko‘p hollarda kishilarning qulog‘i hajman meyordan kattaroq bo‘lsa, u *quloq* deb laqablanadi va ismi yonida keltiriladi. Bundan tashqari, ijtimoiy tabaqa vakili sifatida katta yer egasi, boy, o ‘rtahol dehqonlar guruhiga nisbatan bu atama qo‘llangan, lekin bu jarayon xonlik tugatilgandan ancha keyingi davrga to‘g‘ri keladi. ***Muhammadnazarbek Soqov*** *bir necha vaqt Toshkandda istiqomat aylab, andin keyin qochib, o‘zini qirg‘iz-qipchoqlar orasiga olib, Musulmonqulning ittifoqi ilan To‘raqo‘rg‘onga kirib,* ***Muhammadnazar quloq boturboshi****ning o‘rniga To‘raqo‘rg‘onga hokim bo‘lubdur*. (T.Turkiston, 107).

3. Ko‘rish a’zolaridagi kamchiliklar: *Ko‘r Yusuf Namangoniy* – amir Umarxon, Muhammadalixon zamonidagi hofizlardan. Ko‘r uning laqabi. Ko‘r so‘zi, ko‘rish qobiliyati yo‘q, so‘qir, ko‘zi ko‘rmaydigan odamga nisbatan qo‘llaniladi. Ko‘r odam. Bir ko‘zi ko‘r. [6, 465]. *Boltajon Hofiz Namangoniy,* ***Ko‘r Yusuf Namangoniy*** *surnayni jo‘r qilib, tong otquncha hofizlik qilar edi.* (Ansob., 23).

Ko‘r Qo‘ldosh – Mallabek tarafdan Xudoyorxonga kelgan elchi. **…** ***Ko‘r Qo‘ldosh****ning kallasini shu majlisdayoq tanasidan judo qildi.* (T.jahonnamoyi, 152).

4. Shaxsning jismoniy ko‘rinishi, qomatidagi ba’zi xususiyat va belgiga ishora qiladigan laqablar. Bunday laqablar ikki xil xususiyatga ega: ma’lum belgining kamligi yoki ortiqligini ko‘rsatadi. Lekin har ikkalasi ham salbiy xususiyat deb baholanadi: *Ernazar itbosh* – Abdurahmonbiy ibn Abdulkarimbiy xizmatidagi amirlardan. *Abdurahmonbiy xizmatidagi* ***Ernazar Itbosh*** *bahodirlikda o‘z zamonasining tengsiz va mislsiz amirlaridan bo‘lib, bu urushlarda mard-u maydonlikning dodiga yetgancha qahramonlik namunasini ko‘rsatib yurdi*. (Muntaxab., 239).

5. Boshqa xil kasalliklar bilan bog‘liq bo‘lgan jismoniy kamchiliklar: kal, toz, buqoq, shilpiq, qo‘tir, qez, hezalakva boshqalar. Bunday laqablar tarixiy onomastikada ko‘p uchraydi: *Kal Azamatboy –* ***Kal Azamatboy*** *nomli odamni yana bir kishisi bilan birga nadomat uzrxohligini e’lon qilish uchun jarima arzadosht qilib, Mallaxon huzuriga yubordilar.* (T.jahonnamoyi, 236).

Shodi kal – Kal Shohi Marg‘inoniy/Shohiy/Shodi mingboshi nomlari bilan mashhur bo‘lgan. Qo‘qon xonligining mingboshisi. *Olimxon davrida bir arzimas sabab bilan Buxoroga qochgan Rajab qo‘shbegi Umarxonni saltanat taxti uzra kelganini va* ***Kal shohi Marg‘inoniy****ni dorul-amoratda mingboshi etib tayinlanganini eshitib xursand bo‘ldi.* (Ibr.xavoqin., 102).

6. Bir guruh laqablar kishi organizmidagi ortiqchalik yoki kamchilik belgilarga ishora qiladi: ko‘sa, puchuq, cho‘tir, burun, kalla, murot, mo‘ylov, kulol. Keltirilgan beshinchi guruh laqablar ayrim kasalliklar bilan bogliq bo‘lsa, kamchilik deb hisoblanadi (-hez, -buqoq, -qo‘tir). *Ismoil Kalla, Kalla Oxun, Muhammadkarim Kalla*

7. Boshqa xil kamchiliklar bilan bog‘liq laqablar: Masalan: *Musulmonqul cho‘loq* – Musulmonquli qipchoq (1794-1852) – Qo‘qon xonligining siyosiy maydoniga kelgan qipchoqlarning (qulon urug‘idan) peshvolaridan. Xudoyorxonning otalig‘i va qaynotasi. 3 marta mingboshilikka ko‘tarilgan. ... ***Musulmonqul cho‘loq*** *huzuriga yetib bordi va voqeani og‘zaki tarzda ham bayon etdi*. (Muntaxab., 690).

II. Kishining xarakteri va harakatidagi tipik xususiyatlarga ishora qiladigan laqablar. Bu guruh laqablar rang-barang bo‘lib, shaxsning xarakteri, yurish-turishi, kishiga muomalasidagi eng nozik tomonlardan tortib to eng qo‘pol, noqulay xususiyatlargacha bo‘lgan belgilarni gavdalantira oladi.

1. Laqab egasining salbiy xarakter va harakatiga ishora qiladi: *Jumladan, mingboshining qarindoshlaridan* ***Ibrohim jinni*** *nomli kishi ul jangda yo‘qolib qolgan ekan*. (T.jahonnamoyi, 115).

2. Yurish-turishidagi salbiy tomonga ishora qiladi: ***Yunuxoja bangi****ning qochgani ta’rixini mullo Muhammad G‘ozi rais juda yaxshi aytgan ...* (Muntaxab., 283).

3. Salbiy mashg‘uloti: *... Olimbek degan qirg‘izi munduz,* ***Xidir ismli bir o‘g‘ri*** *qirg‘iz, Xudoynazar turk degan bir benang va qari lang, ba’zi qipchoqlardan Irisali Julg‘onqul (?) o‘g‘li, Do‘st yuz va boshqalar bir-birlari bilan ittifoq tuzib, Mallaxonni yo‘q qilish maslahatini qilib, uni o‘ldirishga qaror qildilar*. (Ibr.xavoqin, 230).

III. Shaxsning kasb-kori, mehnat malakasi bilan bog‘liq nisbiy laqablar. Kasb-mashg‘ulot bilan bog‘liq laqablarda odamlarni maqtash, e’tirof etish, ulardan faxrlanish kabi ma’nolar aks etadi: *Usta Pirnazar to‘prez, Usta Buxoriy gilkor* (Ibr.xavoqin, 274), *Mingsher xazinachi* (T.Aziziy, 25-26), *Xalil xazinachi* (Ansob., 91), *Xoja Muhammadbiy o‘qchi* (Ansob., 34) kabi.*...****Qulbobo risolachi*** *va boshqalar bundoq qarashsa, agar bu harakatning oldi olinib, ishlar to‘g‘ri o‘zanga solib yuborilmasa, ... (*T.jahonnamoyi, 117).

Qo‘qon xonligi manbalridagi bir qator laqablar kishilarning musiqa san’ati bobidagi faoliyati hamda malakalari singarilarning ifodachisi sifatida paydo bo‘lgan: ***Hofiz Quvvat***, ***Muhammadsharif surnaychi*** (Ibr.xavoqin, 72), ***Rahim naqqorachi*** (Ansob., 23), ***Boltajon Hofiz Namangoniy*** (Ansob., 23).

V. Shaxsning mansab, amal va unvonini bildiruvchi laqablar:

Abdurahmon oftobachi **–** Musulmonquli qipchoqning o‘g‘li (taxm. 1844-1888. Qo‘qon). 1865-1875-yillari Xudoyorxonga oftobachi, so‘ngra parvonachi, mingboshi ham bo‘lgan. Oftobachi – xonning xos mulozimlaridan bo‘lib, uning yuvinishi va tahorati vaqtida xizmat qilgan. ***Abdurahmon oftobachiki****, Musulmonquli Cho‘loqdan qolg‘an mori af’iy edi,…* . (Ibr.xavoqin. 332).

VI. Shaxslarning millati, qabila, urug‘i nomi motiv bo‘lgan laqablar.

Darhol ***Do‘st yuz*** *deganni Andijonga hokim qilib,* ***Do‘st Muhammad qoraqalpoq, Mullo Sulton yuz, Xoliqnazar tojik, Muhammad Sayyid tojik*** *va shunga o‘xshash poytaxt kattalarini lashkar bilan birga Andijonga yubordilar*. (Ibr.xavoqin, 240). Shuningdek, *Abdulla afg‘on* (Ansob., 35), *Jomador Afg‘on* (Ibr.xavoqin, 267), *Mo‘minxo‘ja tojik* (T.Turkiston, 108), *Qanbar qipchoq (Anjum., 209), Sodiqbiy yuz* (Muntaxab., 233), *Mullo Xolbek qipchoq* (Ibr.xavoqin, 174), *Normuhammad qipchoq* (Ibr.xavoqin, 174), *Ummatbiy qoraqalpoq* (T.jahonnamoyi, 97), *Rahmatulloh dodxoh ming (*Ibr.xavoqin, 175), *Po‘lod qirg‘iz* (Ibr.xavoqin, 336), *Olimbek qirg‘iz* (Ansob., 100) kabilar fikrimizga misol bo‘la oladi.

VII. Kishilarning yashash joyi, geografik hududini ko‘rsatuvchi laqablar: *Eson isfaralik* (Ansob., 100), *Yunus tog‘liq* (Ansob., 35), *Abduqahhor to‘qsoba tog‘liq* (Ibr.xavoqin, 409).

VIII. Diniy unvon, mansab ifodalovchi laqablar:

Domullo Xo‘jamquli a’lam – Xudoyorxon davrida yashagan mashoyixlardan biri. A’lam bu – shariat qonunlari bilimdoni. … ***Domullo Xo‘jamquli a’lam****, toba sirrohuni, yana bir qancha ehtirom sohiblari bo‘lgan kishilarni qatl qildilar***.** (Ibr.xavoqin, 187).

Shodmonxo‘ja o‘roq – Qo‘qon davlatining harbiy va siyosiy arbobi. 1862-1863 yillarida Xudoyorxon mingboshisi. Toshkent hokimi (1863). O‘roq bu – vaqf yerlarining ushr solig‘iga mas’ul kishi. O‘roq mansabidagi amaldorlar o‘roq shaklidagi nishonini sallasiga taqib yurgan. ... *bir necha ming Xo‘qand qo‘shuniga* ***Shodmonxo‘ja o‘roq*** *bosh bo‘lub, Oqmasjidga borib, rusiyalarga muqobil bo‘lmasdin qochibdur.* (T.Turkiston, 125).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 263 б.
2. Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. Тошкент: Янги аср авлоди, 2006, 18 б.
3. Ибратул хавоқин/Ниёз Муҳаммад Хўқандий; (Та’рихи Шаҳрухий): Худоёрхон авлодлари тарихи/ Шоҳрухбек Умаров. – Т.: “Turon zamin ziyo”, 2014. – 700 б.
4. Мирзо Олим Маҳдум ҳожи. Тарихи Туркистон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – 249 б.
5. Муҳаммадҳакимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – 720 б.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий

энциклопедияси, 2020. – 2-ж. – Б. 465.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – 3-ж. – Б. 220.

SIFAT SO‘Z TURKUMIDAGI BIRIKUVCHANLIKNING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

Bozorboyeva Shahnoza Alisher qizi
GulDU magistranti

Annotatsiya. O‘zbek adabiy tilida mustaqil so‘z turkumlaridagi birikuvchanlikning leksikografik talqinini o‘rganish va tadbiq qilish muhim vazifa hisoblanadi. Maqolada sifat so‘z turkumidagi birikuvchanlikka doir nazariy hamda ilmiy qarashlar tahlilga tortildi. Sifat so‘z turkumining o‘zaro va tashqi ma’noviy, morfologik va sintaktik birikuvchanlik muammolariga adabiy til me’yorlari jihatidan yechim berish, aniq xulosaga kelish borasida fikr yuritildi. Nazariy qarashlar misollar yordamida tushuntirildi.

Kalit so‘zlar: sifat, ma’noviy birikuvchanlik, morfologik birikuvchanlik, sintaktik birikuvchanlik, oq leksemasi.


Annotation. Independent word groups in Uzbek literary language It is an important task to study and apply the lexicographic interpretation of cohesion. In the article, the theoretical and scientific views on the combination of adjectives were analyzed. It was discussed how to provide a solution to the problems of mutual and external semantic, morphological and syntactic cohesion of the adjective word group in terms of literary language standards, and to come to a clear conclusion. Theoretical views were explained with the help of examples.

Kirish. Til har bir millatning bebaho mulki, uning o‘tmishi hamda kelajagi sanaladi. Barcha xalqning tilida o‘sha millatning an’analari, qadriyatlari m’anaviyati o‘z aksini topadi. O‘zbek tili ham boshqa tillar ichida o‘z mavqeyiga ega bo‘lgan, eng boy va uzoq tarixga ega tillardan biridir. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek:,,Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak. Bu oliyjanob harakatni barchamiz o‘zimizdan, o‘z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga , urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak."

O‘zbek tilida umumiste’molda bo‘lgan har bir so‘z alohida ma’noviy jihatga ega sanaladi. Ba’zi so‘zlar so‘zning nomini ifodalashga, ba’zilari esa so‘zning harakatini belgilashga xizmat qiladi. Xuddi shu jihatdan bunday so‘zlar o‘zbek tilshunosligida ot, sifat, fe’l kabi mustaqil so‘z turkumlariga ajratilgan. Ular orasida sifat nomning belgisini bildirishiga ko‘ra turkum vazifasini bajaradi. Hozirgi kunga qadar sifat so‘z turkumining ko‘plab tomonlari bo‘yicha bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, M. Olimov, O.Latipov, Z. Mamarajabova, G.Sulaymonova, T.Turdiboyev kabi olimlar tomonidan sifat so‘z turkumi semantikasi, ma’noviyguruhlari, ,,yaxshi" so‘zining polifunksionalligi,

tashqi qiyofani ifodalovchi sifatlar va ularning xususiyatlari kabi tomonlari umumiy planda tadqiq qilingan. Zafar Pardayev o‘zining o‘zbek tilida sifatlarning semantik uslubiy xususiyatlari haqida dissertatsiyadida oq leksemasiga to‘xtalib o‘tgan. Oq leksemasining semantik strukturasi va uning uslubiy maqsadda qo‘llanish xususiyatlarini va uning bir qancha so‘zlarga birikib har xil ma’no ifodalashini talqin etgan. Ammo bu bilan sifatning birikuvchanlik xususiyatlari haqidagi fikrlarni yetarli deb bo‘lmaydi. Bundan tashqari sifat leksemalarini tadqiq etishda komponent tahlil, qiyosiy-statistik tahlil yoki semantik-uslubiy izoh kabi metodlardan yetarlichafoydalanilmayabdi. Shu singari holatlar ushbu maqola mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Ma’lumki, birikuvchanlik aslida kimyoviy atama sanalib ikki yoki undan ortiq moddaning bir modda hosil qilish uchun reaksiyaga kirishishiga aytiladi. Tilshunoslikda lisoniy birliklar ham ana shunday birikish-biriktirish imkoniyatlariga ega bo‘lib, bu ham lisoniy birliklarning o‘zi bilan muayyan til jamiyati a’zolari ongida yashaydi. Rang bildiruvchi sifatlar o‘zlarining semantik xususiyatlarininafaqat ot so‘z turkumiga, balki, boshqa mustaqil so‘z turkumlariga birikish jarayonida namoyon qiladi. Masalan, [o‘qi] leksemasi kishi ongida 8 ta bo‘sh o‘rniga ega holda mavjud bo‘ladi va nutqda voqelanib, bir vaqtning o‘zida o‘ziga 8 ta birikuvchini ham torta olishi mumkin. Uni Chizmada quyidagicha tasavvur qilish mumkin:




Filologiya fanlar nomzodi, dotsent S.Nazarova (Nazarova, 2014, 11-b.) biriktiruvchi leksema birikuvchi leksemaning qanday shaklda bo‘lishini talab qilishiga ko‘ra quyidagi qatlamlarga ajratadi:

Ma’noviy birikuvchanlik. Ma’noviy birikuvchanlik biriktiruvchi leksemaning ma’noviy jihatdan o‘ziga mos birikuvchilarni tanlashidir. Masalan, [hangra] leksemasi [qush] leksemasini o‘ziga torta olmaydi, [qush] leksemasi [hangra] leksemasidagi birorta ham bo‘sh o‘ringa tusha olmaydi. Chunki ularda ma’noviy muvofiqlik mavjud emas. Leksemalar bir-biriga ma’noviy mos bo‘lishi uchun ularning ma’no strukturalarida o‘xshash ma’no bo‘lakchalari - semalari bo‘lmog‘i lozim. [qush] leksemasi ma’no tarkibidagi «sayray oladigan» ma’no bo‘lakchasi «sayramoq» leksemasida va «sayramoq» leksemasidagi «qushlarga

xos» ma’no bo‘lakchaga qush leksemasida mavjud. Bu ularning birikma hosil qilishga asos bo‘la oladi.


Sintaktik birikuvchanlik. Sintaktik birikuvchanlik leksema valentligining ikkinchi tomoni bo‘lib, u hokim mavqedagi leksemaning tobe leksemalarni o‘ziga tortish uchun ularning ma’lum bir sintaktik shaklda - kelishik, ko‘makchi, ravishdosh, sifatdosh qo‘shimchalarini olgan holda bo‘lishini talab qilishidir. Bu hokim leksemaning sintaktik mavqei, grammatik shakli tomonidan belgilanadi. Masalan, xatni yozdi, xat yozildi sintaktik qurilmalaridagi xatni va xat so‘zlarining grammatik shakli bosh so‘zning grammatik shakli bilan belgilangan.

Morfologik birikuvchanlik. Leksemalarga grammatik shakllar qo‘shilganda ularning birikuvchilari sirasida jiddiy o‘zgarish yuz beradi. Bunga amin bo‘lish uchun [kitob] leksemasining grammatik shaklsiz va grammatik shakllangan holatlarida valentlik imkoniyatlarini taqqoslash kifoya.



A’yon bo‘ladiki, 2-va 3- chizmalarda [kitob] leksemasining birikuv imkoniyatlari ko‘plik son shakli -lar va kichraytirish qo‘shimchasi -cha hisobiga toraygan. Quyidagi gaplarda esa leksemaning biriktirish imkoniyati kengayganligiga amin bo‘lamiz: 1.Salim kitob o‘qidi. 2. Salim ukasiga kitob o‘qitdi. Demak, leksemalar kabi grammatik shakllar ham valentlikka ega bo‘lib, ular leksemalar valentligiga ta’sir qilishi, uni toraytirishi yoki kengaytirishi mumkin (Nazarova, 2014, 11-b.).

Oq leksemasi tilshunoslikda predmetning faqat rangini bildirib kelganda emotsional ekspressivlikdan holi bo‘ladi. Ammo nutq jarayonida so‘zlovchining tinglovchiga so‘zlash maqsadi yoki sababiga ko‘ra ijobiy yoki salbiy ekspressivlikka ega bo‘ladi. Oq leksemasidagi birikuvchanlik xususiyatining leksikografik talqinini o‘rganish natijasini ushbu jadvalda aks ettirish mumkin:



1) “Mamnunlik bilan berilgan ruxsat, ijozat” semasini ifodalaydi. *Ota, sizdan oq fotiha tilayman, Shirvon elda Zulxumorga boraman.(Ravshan);*

Fotiha bermoq va oq fotiha bermoqning semasini bir xil deb bo‘lmaydi. Fotiha bermoq – ish-harakatni bajarishga kirishishdan oldin baxt, omad tilash, oq fotiha berish leksemasida rozilik berish, ruxsat berish semalari mavjud.

2) “Xizmatkor ayol” semasi anglashiladi. *Oyxola g‘oyatxunuk, ozg‘in bir kampir bo‘lib, Yodgorning hujra oqsochidir.(Hamza,”Tanlangan asarlar”)*

3) “Taslim bo‘lish, yengilish” semasini bildiradi. *Deraza panjarasi osilib qolgan. Unda choyshab oq bayroqdek hilpirab turardi. Mirvali butun urinishlari bekor ketganidan alamda gurs-gurs yurib zalga yiqildi.(A.S.Sagdullayev, “Bir tanda ikki odam*”)

4) “Motam” semasi – Ro‘zimurodning onasi aza ochdi. *Qarindoshlar oq kiyib ovoz chiqardilar.(Sh.Ashurova, “Yanga”)*

5) “Yoshi ulug‘, obro‘-e’tiborli mo‘ysafid kishi” semasi ifodalanadi. *Odamlarning gap-so‘zidan shuni anglaymanki, Oqsoqol buva “gadavo” maylisda, ,,men endi keksayib qoldim, bo‘shatingla” degan.*

6) “La’natlangan, yuz o‘girilgan” semasini bildiradi. *Shamoldek yelib borarkan, qulog‘ida ham “,oqpadar”, “oqpadar”, “oqpadar” so‘zi takrorlanardi.(Said Ahmad “Ufq”)*

7) “Hayotning past-baland, yaxshi-yomon tomonlari” semasini bildiradi. *Hali oq-qorani durustgina tanimagan yigitcha bu qiyinchiliklar, vijdon iztiroblari oldida savdoyidek kalovlab, taqdirning ayovsiz o‘yinidan garang bo‘lib qolardi.(Said Ahmad,”Ufq”)*

Xulosa. O‘zbek tilida mustaqil so‘z turkumlaridagi birikuvchanlikda sifat so‘z turkumi muhim o‘rinni egallaydi.Sifat mustaqil so‘z turkumi bo‘lib, shaxs va narsa, qisman harakatning belgisini ifodalab keladi. Ayrim so‘zlar sifatga ham, otga ham, ba’zida ravishga ham o‘xshab ketadi. Bunday vaqtda ular ot so‘z turkumiga oid so‘zlar yoniga qo‘yilsa, sifat so‘z turkumiga oid ekanligini bilish qiyin emas. Sifat so‘z turkumiga kiruvchi so‘zlar boshqa bir so‘zlarga birikib bir necha ba’zan undan ham ko‘p ma’noni ifodalab kelishi mumkin.Aynan qaysi ma’noni ifodalab kelayotganini nutqda reallashganda aniqlab olamiz. Sifat so‘z turkumiga kiruvchi so‘z boshqa turkumdagi so‘zlar bilan birikkanda nafaqat ma’noviy jihatdan, balki, morfologik va sintaktik tomondan ham mos kelishi

lozim. Vaqt o‘tishi bilan til vositalarining semasi kengayib borganidek, sifatlar ham o‘zining yangi okkazional semalari bilan nutqni boyitib boradi. Bunday holat esa kelgusida sifat so‘z turkumi yuzasidan kuzatishlarni yana ham yangi materiallar asosida o‘rganish va davom ettirish zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullayev Sh. (2006). *Hozirgi o‘zbek adabiy tili.*
2. Pardayev Z. (2004) *O‘zbek tilida sifatlarning semantik,uslubiy xususiyatlari.*
3. Pinxasov Y. (1969). *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. O‘qituvchi.
4. Sodiqova M. (1964). *Hozirgi o‘zbek tilida sifat*. Fan.
5. Xojiyev A. (2010). *O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari.* Fan.
6. Nazarova S (2014). Hozirgi *o‘zbek adabiy tili (Sintaksis)*

NUTQNING LINGVOSTILISTIK ASPEKTIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Komilova Shaxrizoda Sherzod qizi
FarDU magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada lingvostilistika tadqiqiga oid ma’lumotlar beriladi. Nutqning lingvostilistik aspekti haqidagi turli olimlarning fikrlari, qarashlariga munosabat bildiriladi.

Kalit so‘zlar: Til birligi, nutq, lingvostilistika, uslub, til qurilishi, nutq uslublari, Ushakov, Yefimov, Kojina.

Til birliklari va materiallaridan fikrni ifodalash maqsadida foydalanish jarayoni nutq sanaladi. Hayotning turli sohalari, turlicha nutq vaziyatlarida tildagi leksik, frazeologik, fonetik va grammatik vositalarni tanlash va ulardan foydalanish usullari ham har xil bo‘ladi. Umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqning xilma-xil ko‘rinishlarining paydo bo‘lishiga olib keladi. Nutqning bunday xilma-xil ko‘rinishlari nutq uslublari deb yuritiladi.

«Stilistika» so‘zi grekcha “stylos” so‘zidan olingan bo‘lib, “suyakdan qilingan uchli tayoqcha” degan ma’noni bildiradi. Qadimgi greklar mum surtilgan taxtachaga uchli tayoqcha bilan yozar, bu tayoqchaning tepa tomoni kurakchaga o‘xshar edi. Xato yozilgan so‘zni tayoqning kurakchaga o‘xshagan tomoni bilan taxtachadagi mumni tekislash orqali o‘chirar va uchli tomoni bilan to‘g‘irlab yozardilar. Stil so‘zidan stilet - ingichka xanjar va stilo - avtoruchka so‘zlari kelib chiqqan. Qadimdanoq stil so‘zi “bo‘g‘in, nutq uslubi” ma’nosida qo‘llana boshlangan bo‘lib, Goratsiyning: “Agar sen o‘qish uchun loyiq narsa yozmoqchi bo‘lsang, uslubingni tez-tez almashtirib tur. Dunyoqarashi tor odamlarni qoyil qoldira olmasang, kuyunib o‘tirma, ozgina bo‘lsa ham tushungan odamlar bilan qoniq”, - deb yozib qoldirgan jumlalari ichidan “uslubingni tez-tez almashtirib tur” degan ifodasi keyinchalik greklarda maqolga aylanib ketgan.

Izohli lug‘atlarda uslub so‘zining bir necha ma’nolari berilgan. 1935-1940-yillarda D.N.Ushakov tahriri ostida nashr etilgan kitobda uslub so‘zining 4 xil

ma’nosi berilgan. Bu ma’nolar 1981-yilda chop etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da ham tarjima qilinib, izohlangan. Ular quyidagilar:

1. Biror san’at asarining, biror ijodkor, davr, millatning o‘ziga xos belgilari yig‘indisi. Masalan: arxitekturadagi sharqona uslub (naqshinkorlik, gumbazli binolar yaratish uslubi kabi). Ko‘rinadiki, uslub so‘zining birinchi ma’nosi juda keng tushunchani ifodalaydi, ya’ni badiiy ifodalar yig‘indisi yoki badiiy ifodalarning umumiy tizimi tushuniladi, bunda adabiyot nazarda tutilmaydi.
2. Biror adabiy asar, adabiy yo‘nalish, adabiy janr yoki biror muallifga xos bo‘lgan g‘oya va til vositalarining tizimi orqali izohlanadi. Masalan, Abdulla Qahhor uslubi, Oybek uslubi. Poetik uslub, romantik uslub va h.k.
3. Ko‘chma ma’noni ifodalaydi. Bunda xulq, axloqqa xos bo‘lgan xususiyatlar yig‘indisi, faoliyat usuli, biror ishni amalga oshirishning yo‘l - yo‘riqlari kabilar tushuniladi.

Uslubning oxirgi ma’nosi adabiyotga ham, tilga ham xos emas. Bu davrga, yil hisobiga nisbatan ishlatiladi. Masalan: milodiy yil hisobi, hijriy yil hisobi.

Uslub so‘zining ma’nolari bilan tanishishdan ma’lum bo‘ldiki, ikkinchi ma’no bilan bog‘liq holda stilistika fani vujudga kelgan.

Stilistika fanining o‘rganish obyekti haqida turli qarashlar mavjud. Akademik V.Vinogradov stilistika bahsida bir-biri bilan aloqador, lekin vazifalari jihatdan farqlanadigan 3 ta tekshirish aspektini ko‘rsatish zarurligini aytadi. Ular quyidagilar:

1. Tilning funksional uslublarini o‘rganuvchi stilistika. Bu struktural stilistika deb ham yuritiladi. Struktural stilistikaning vazifasi uning struktural elementlari bo‘lgan rasmiy, ilmiy, publisistik, badiiy uslublarning o‘ziga xos xususiyatlari va ifoda vositalarini o‘rganishdir.
2. Turli janrlarning (semantik, ekspressiv-stilistik) ma’no va tez ta’sir qilish tomonlarini hamda og‘zaki va yozma nutq orasidagi farqni tekshiruvchi nutq stilistikasi. Uning vazifasi tilning barcha uslublar tizimi bilan birga yozma va og‘zaki shakllari, adabiy va so‘zlashuv nutqi ko‘rinishlarini tekshiradi. U til birliklaridan qaysi biri yozma va og‘zaki nutqda ko‘proq ishlatilishi, fikr ifodalashda til vositalarining to‘g‘ri tanlangan yoki noto‘g‘ri olinganligi, shu vositalarning o‘rnida ishlatish yo‘llarini o‘rganadi.
3. Adabiy yo‘nalishlar, badiiy asar hamda yozuvchi uslubni tadqiq etadigan badiiy adabiyot stilistikasi. Uning vazifasi badiiy asarlarni yaratishda yozuvchilarning ifoda vositalaridan foydalanish mahorati haqida bahs yuritishdir.

Stilistika fani akademik V.Vinogradov ko‘rsatgan aspektlardan birinchi va ikkinchisi asosida shakllangan. Uchinchisi adabiyotshunoslikning obyektidir. Aslini olganda, badiiy adabiyot stilistikasi uning bir ko‘rinishidir. Bu tushunchaning alohida tur sifatida ko‘rsatilishiga sabab shundan iboratki, u boshqa nutq uslublaridan anchagina farqli jihatlarga ega. Badiiy adabiyot uslubi keng qamrovliligi, ya’ni barcha uslublarni ham o‘zida ifodalashi bilan ajralib turadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, stilistika ikki xil ko‘rinishga ega:

1. Nutq stilistikasi. Bu tilning vazifadosh shakllari deb ham yuritiladi. Bunga so‘zlashuv uslubi, rasmiy uslub, ilmiy uslub, publisistik va badiiy uslub kiradi.
2. Lingvistik, ya’ni til stilistikasi. Uning turlari: a) fonetik stilistika; b) leksik stilistika; d) grammatik stilistika.

Nutq stilistikasi, ya’ni uslubiyotiga Abdulhamid Nurmonov quyidagicha ta’rif bergan: “Adabiy tilning ijtimoiy hayotning ma’lum sohasi doirasida qo‘llanadigan ko‘rinishi nutq uslublari deyiladi. O‘zbek tilining nutq uslublarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limiga esa o‘zbek tili uslubiyoti deyiladi.

Adabiy tilning barcha sathlarida, aytaylik, fonetik, leksik-frezeologik, grammatik sathlarida me’yorlarning mavjudligi ularning amaldagi o‘z uslubiy me’yorlarini keltirib chiqaradi. Nutqning quyidagi uslublari o‘zaro farqlanadi: so‘zlashuv uslubi, rasmiy-idoraviy uslub, ilmiy uslub, publisistik uslub va badiiy uslub. Nutq stilistikasi tushunchasi adabiyotlarda funksional stilistika yoki funksional uslub turlari deb ham yuritiladi va funksional uslub turlari quyidagilar: 1) so‘zlashuv uslubi; 2) rasmiy uslub; 3) ilmiy uslub; 4) publitsistik uslub; 5) badiiy uslub.

Nutq uslublari bir-biriga bog‘liq vositalarning tuzilishidan tashkil topadi. Ular tilning vazifasi bilan chambarchas bog‘liqdir, shuning uchun ham ular nutq uslublari deyiladi. Tilning vazifasi jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq va uning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqib, nutq uslubi tizimini tashkil etuvchi ifodalar faqat bir uslub doirasida cheklanib qoladi. Masalan, ilmiy uslubda ishlatiladigan terminlar badiiy, publitsistik, rasmiy va so‘zlashuv uslublarida ishlatilmasligi ham mumkin. Lekin har bir nutq uslubi o‘zining barcha xususiyatlari bilan yagona bir maqsadga bo‘ysungan muayyan til vositalarining majmuasiga ega. Nutq uslublari til taraqqiyotining ma’lum bir davrida asta-sekin shakllanadi va o‘zgarishlarga uchraydi. Masalan, XX asr boshida nashriyot va vaqtli matbuot ishlarining kengayib ketishi bilan bog‘liq tarzda O‘zbekistonda publitsistik uslub vujudga kelgan.

Nutq uslublari og‘zaki va yozma nutq shakllari bilan chambarchas bog‘liq. Demak, har bir nutq uslubi og‘zaki va yozma shaklda ifodalanishi mumkin. Masalan, so‘zlashuv uslubi, asosan, og‘zaki nutqqa xos. Lekin badiiy adabiyotda bu uslub yozma shaklga ega bo‘ladi. Shuningdek, ilmiy uslubning og‘zaki ko‘rinishi dars jarayonida ma’ruza o‘qilganda, anjumanlarda ilmiy ma’ruzalar bayon qilinganda namoyon bo‘ladi, yozma shakli esa dissertatsiyalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar tarzida ifodalanadi. Nutq uslublarining o‘ziga xos belgilari va farqlaridan qat’i nazar, adabiy til me’yorlari asosida umumiylikka ega.

Stilistika muammolarini tadqiq etishga bag‘ishlangan ko‘plab asarlarda uning ta’rifiga ham to‘xtalib o‘tilgan. Ulardan muhimlari sifatida quyidagilarni keltiramiz:

V.V.Vingoradov: «...milliy til stilistikasi tilning hamma jihatlarini qamrab oladi - uning tovush tuzilishini ham, grammatikasi, lug‘ati, frazeologiyasini ham.

Biroq u ma’lum til hodisasini tarixiy taraqqiyotdagi yaxlit til qurilishining ichki bog‘langan elementlari sifatida emas, faqat funksional differensiatsiya, u yoki bu darajada bir xil bo‘lgan ma’no ifodasida bir-biriga yaqin, muvofiq, parallel yoki sinonimik vositalarning o‘zaro munosabati va ta’siri hamda turli nutqiy hodisalar ekspressiv ma’no va ottenkalarining mos kelishi nuqtai nazaridan qarab chiqadi; boshqa tomondan esa, stilistika bu hodisalarni nutqiy muammolarning alohida shakllari yoki alohida ijtimoiy chegaralangan tiplari va ko‘rinishlari bilan aloqadorligi nuqtai nazaridan o‘rganadi». [1,66]

A. I. Yefimov: «...stilistika ijodiy mahorat, tilning tasviriy vositalari haqidagi fan hisoblanadi. So‘z estetikasi va uning matndagi rolini o‘rgana borib, u leksikologiya va grammatikaga bog‘langan. Ammo, shu bilan birga, o‘rganish obyekti, vazifasi va metodlari bilan ulardan tubdan farq qiladi». [2, 23]

M.N.Kojina: «Eng umumiy ma’noda stilistikani nutqiy ta’sirchanlik vositalari hamda bayonning mazmuni, maqsadi va muomala doirasiga bog‘liq holda til birliklaridan bir qadar maqsadga muvofiq foydalanish shart qilib qo‘yilgan tilning amal qilish qonuniyatlari haqidagi lingvistik fan sifatida ta’riflash mumkin. Bunda, eng avvalo, xizmatga doir, ilmiy, badiiy, publitsistik, maishiy kabi bir qolipdagi va sotsial ahamiyatli bo‘lgan muomala sohalari ajralib turadi». [3,23]

I.Rasulov: «Milliy til stilistikasining mundarijasi birmuncha keng bo‘lib, u tilning barcha stilistik sistemasini tekshiradi. Bu stilistik sistema stillardan tashqari, tilning yozma va og‘zaki formalarini, adabiy va so‘zlashuv nutq ko‘rinishlarini ham o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, stilistika til birliklaridan qaysi biri u yoki bu stilda, yozma yoki og‘zaki nutqda ko‘proq ishlatiladi, degan masala bilan shug‘ullanadi, Bundan tashqari, stilistikaga fikr va maqsadni ifodalashda, til vositalarining to‘g‘ri tanlangani yoki tanlanmaganligini aniqlash hamda shu til vositalarini maqsadga muvofiq tanlash va ishlatish yo‘llarini belgilash vazifalari yuklatiladi». [4, 6]

O‘zbek tili stilistikasining ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini ishlab chiqishda ham, uning asosiy yo‘nalishlarini belgilashda ham ana shu mulohazalar tayanch fikr sifatida olingan: «Stilistika - tilda mavjud bo‘lgan barcha vositalar - leksik, grammatik, fonetik vositalardan nutqda qanday foydalanish zarurligini, ma’lum bir tipdagi forma, so‘z va konstruksiyalardan qaysi birini qo‘llash muvofiq ekanini, yaxshi va eng muvofiq vositasini tavsiya etadi, norma qilib belgilaydi, nutqning turli stilistik qatlamlarida qo‘llanadigan vositalarni belgilab beradi. Shunga ko‘ra, stilistika so‘z san’ati, ifoda vositalari haqidagi alohida bir fandir». [5. 50]

O‘zbek tilshunosligida keyingi yillarda matnning stilistik va lingvopoetik jihatlariga e’tiborning kuchayganligi natijasida nutqning emotsional-ekspressiv hamda hajviy jihatlari tadqiqotchilar e’tiborini tortdi. Natijada so‘z o‘yinlari tadqiqiga bag‘ishlangan ayrim ishlar maydonga keldi. So‘z o‘yinlari o‘zbek milliy so‘z san’ati hisoblangan askiya matni misolida, latifalar kontekstida hamda badiiy nutq ko‘rinishida tadqiq etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Виноградов В.В. Итоги обсуждения вопросов стилистики // Вопросы

языкознания, 1955, № 1.
2. Ефимов А.И. С тилистика русского языка. - М., 1969.
3. Кожина М.Н. Стилистика русского языка. - М., 1983, с.23.
4. Шомаксудов А. ва бош. Узбек тили стилистикаси. - Тошкент, 1983.
5. Абдурахмонов Ш. Узбек бадиий нуткида кулги кузгатувчи лисоний воситалар: Филол. фан. номз... дисс. автореф. - Тошкент, 1997.

THEORETICAL PROBLEMS OF LINGUISTICS

Anastasiya Aleksandrovna Shikina
FarDU magistranti
Nargiza Kabilovna Abbasova
FarDU dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbek, rus va ingliz tillarini taqqoslab tahlil qilish orqali tilshunoslikning nazariy muammolarini o‘rganadi. Maqola universal grammatika va tilga xos xususiyatlar o‘rtasidagi bahsni ko‘rib chiqishdan boshlanadi, bu orqali madaniy omillar semantik maydonlarga va ma’noning ifodalanishiga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Uch tilning fonologik tizimlari taqqoslanadi, bu esa vokal va undosh tovushlarning inventarida sezilarli farqlarni ko‘rsatadi va bu til o‘rganuvchilar uchun qiyinchiliklar tug‘diradi. Topilmalar tilni o‘rganish va o‘qitish uchun muhim oqibatlarga ega, bu esa pedagoglar uchun ham qiyinchiliklar, ham imkoniyatlar yaratadi. Nihoyat, tilshunoslikdagi til tuzilishi, madaniyat va idrok o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni to‘liq tushunishga hissa qo‘shish maqsadida ushbu murakkabliklarni yanada chuqurroq o‘rganish uchun potentsial tadqiqot yo‘nalishlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: nazariy tilshunoslik, universal grammatika, tilga xos xususiyatlar, fonologiya, morfologiya, sintaktika, semantika, tilni o‘rganish, tillararo tahlil

Abstract. This article investigates the theoretical problems of linguistics through a comparative analysis of Uzbek, Russian, and English. It begins by examining the debate between universal grammar and language-specific properties, illustrating how cultural factors influence semantic fields and the expression of meaning. The phonological systems of the three languages are compared, revealing distinct differences in vowel and consonant inventories, which pose challenges for language learners. The findings have significant implications for language acquisition and teaching, presenting both challenges and opportunities for educators. Finally, potential research directions are proposed to further investigate these complexities, ultimately contributing to a comprehensive understanding of the interplay between language structure, culture, and cognition in linguistics.

Key words: theoretical linguistics, universal grammar, language-specific properties, phonology, morphology, syntax, semantics, language acquisition, cross-linguistic analysis.

Tilni bugungi dunyodagi eng murakkab tizimlardan biri sifatida tushunamiz; til - bu g‘oyalarimiz va etnik kelib chiqishimizni aks ettiruvchi tovushlar, naqshlar

va ma’nolarining uzluksiz to‘qimasi. Til inson hayotidagi qiziqarli xususiyat va mutaxassislar uchun muhim o‘rganish ob’ektidir, chunki tilning barcha qoidalarini tushunish va satrlar orasidagi ma’noni o‘qish oson emas. Gap tuzilmalaridan tortib so‘zlarning ma’nolarigacha, tilshunoslik fanida paydo bo‘ladigan nazariy muammolar tillarning soni kabi keng.

Ushbu maqolada uchta alohida til: o‘zbek, rus va ingliz tillarini taqqoslash orqali tilshunoslikdagi ushbu nazariy muammolarni o‘rganishga e’tibor qaratilgan. Ushbu tillarning har biri nafaqat turli tilshunoslik oilalarini, balki ushbu tillar mansub bo‘lgan grammatika, fonetika va madaniyatni hamda foydalanish va rivojlanish konventsiyalarini aks ettirishi mumkin. O‘zbek tili yuqori darajada o‘zgaruvchan tilning sifatli xususiyatlariga ega bo‘lsa-da, uni o‘rganish uning morfologik tuzilishini qanday ishlashini tahlil qilish orqali ochib beradi. Hind-Yevropa oilasining slavyan tarmog‘iga mansub rus tili boy o‘zgaruvchanlik imkoniyatlariga ega va aspekt va fe’llar bilan bog‘liq ba’zi muammolarni taklif etadi. Boshqa tomondan, germaniy kelib chiqishi va nisbatan sintetik yoki tahliliy xarakterga ega ingliz tili sintaktika va semantika bo‘yicha boshqa nuqtai nazardan qaraydi.

Ushbu maqolada biz uchta tilni taqqosladik va maqsad biz ko‘rib chiqilayotgan tillarning umumiyligi va o‘ziga xosligi bilan bog‘liq nazariy muammolarni aniqlashdir. Ushbu o‘rganish nafaqat tilshunoslik sohasida qimmatli, balki global jamoa uchun til tuzilmasi va/yoki foydalanishning nimani anglatishini tushunishda ham ochib beradi.

Universal grammatika nazariyasi haqidagi masala har bir inson tilida o‘ziga xos universal grammatika bilimi mavjudligini ta’kidlaydi. Ushbu g‘oya asosan barcha tillarni birlashtiradigan umumiy ramkalar mavjud bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Masalan, Dilnoza Nosirova "Nutq qismlarining kelib chiqishi: "Ingliz, rus va o‘zbek tillarida nutq qismlarining evolyutsiyasi va rivojlanishi" maqolasida barcha berilgan tillarda, masalan, ot va fe’l mavjudligini, bu esa barcha tillarda shunga o‘xshash tuzilmaning mavjudligini ko‘rsatadi (Nosirova, 2023). Biroq, har bir til bu kategoriyalardan turli xil usullar bilan foydalanadi; shu sababli UG mavjud bo‘lishi mumkin, lekin tilga xos omillar ko‘rib turgan haqiqiy grammatik munosabatlarning haqiqati uchun muhimdir.

"Ingliz, Rus va O‘zbek tillarida frazeologiyani milliy va madaniy xususiyatlari" nomli tadqiqot maqolasida Isxakova Aliya Ildarovna bu tillarning barcha idiomaatik iboralari ma’lum milliy va madaniy xususiyatlarga ega ekanligini aniqladi. Masalan, "it’s raining cats and dogs" deb ataladigan inglizcha maqolning o‘zbek yoki rus tilidagi o‘xshashi yo‘q va bu madaniyatning til foydalanishiga qanday ta’sir qilishiga yaxshi misol (Iskhakova, 2023). Bu farq universal grammatikaning ba’zi xususiyatlari mavjud bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi va har bir tilni aniqlash uchun zarur bo‘lgan o‘ziga xoslikka ishora qiladi, bu, albatta, yanada qiziqarli.

Bundan tashqari, tug‘ma universal grammatika shartlari va tilga xos jihatlarning birgalikdagi ta’siri tillar haqida o‘rganilgan ma’lumotlar darajasini

keltirib chiqaradi. UG UZ, RU va EN-ni taqqoslaganligi sababli ba’zi o‘xshashliklarni bashorat qilishi kerak; turli kontekst va madaniyatlar uchun aniqlangan leksik to‘plamlarga qo‘llaniladigan va ularni boshqaradigan qoidalar farqlari madaniy va kontekstual omillar til tizimlariga ta’sir qilishining kuchli dalilidir. Bunday natijalar tilning umumiy xususiyatlariga va berilgan tilning o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor qaratish zarurligini yana bir bor ta’kidlaydigan va shu bilan birga yanada chuqurroq tadqiqotlarni rag‘batlantiradigan muammolarni keltirib chiqaradi.

Fonematikada olib borilgan tadqiqotlar, ya’ni tillar ichidagi tovushlarni tizimli tahlil qilish, uchta tilni: o‘zbek, rus va ingliz tillarini sezilarli darajada qarama-qarshi qo‘yadi. Har bir til so‘zlarni talaffuz qilishning o‘ziga xos usulini shakllantirish uchun berilgan aniq to‘plamdagi undovchilar va undovchilar to‘plamiga ega. Masalan, Gulnoza Khamidova Akramjon qizi "O‘zbek va ingliz tillarining til tuzilmalarini taqqoslash: kesishgan tahlil" maqolasida o‘zbek tilining xususiyatlari sifatida so‘z ichidagi undovchilarning faqat oldingi yoki orqa qismda bo‘lishi mumkin bo‘lgan undovchi uyg‘unligi xususiyatini ko‘rsatib, bu ingliz tilida mavjud emas (Khamidova, 2023). Bu o‘zbek undovchilarining bir xil so‘zda mavjud bo‘lgan boshqa undovchilarga bog‘liq bo‘lib, tilga o‘ziga xos akustik ohang beradi.

Boshqa tomondan, rus tili undovchilar palatalizatsiyasining zich tarmog‘ini o‘zlashtirgan bo‘lib, bu oddiy qilib aytganda, bir xil undovchining keyingi undovchiga qarab talaffuzini o‘zgartirishi degani. "Ingliz va rus tillari o‘rtasidagi umumiyliklar va farqlar" maqolasida Hudaykulova Feruza Xolovna bu natijaning talaffuzga asoslangan farqli ma’nolarga olib kelishini, masalan, "мир" (mir) "tinchlik" degan ma’noni anglatsa, "мир" (mir) "dunyo" degan ma’noni anglatadi. Yuqorida bayon etilgan fonologik to‘yinish xususiyati rus tilining o‘ziga xos xususiyatlarini namoyish etadi va dunyo tillari tovushlarini o‘rganishning dolzarbligini isbotlaydi.

Bunga qarshi, ingliz tilining fonologiyasi ma’no aniqlanishi uchun intonatsiya naqshlaridan foydalanishga bog‘liq. Masalan, oddiy jumla "You’re going" ovoz toniga qarab turlicha ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Bunga qarshi, o‘zbek va rus tillarida intonatsiyaga kamroq tayaniladi va boshqa grammatik ifoda vositalaridan foydalaniladi. Ushbu uchta tilning fonologik tizimlaridagi farqlarni tahlil qilish, tovush va uning turli talaffuz usullarining lingvistik identitining muhim qismlari ekanligini ko‘rsatadi va Universal Fonologiya Nazariyasining mavjudligiga qarshi yana bir dalil hisoblanadi.

Morfologiya, dunyodagi turli tillarda so‘zlar qanday yaratilishi va tuzilishi bilan bog‘liq. Shuning uchun, berilgan til qanday yangi so‘zlar yaratishini o‘rganish, uning grammatikasi haqida ko‘p ma’lumot berishi mumkin. Nihoyat, o‘zbek tilida so‘z hosil qilishning fonologik jarayoni ko‘pincha agglutinasiyadan foydalanadi, ya’ni bir ildizga bir nechta affiks birlashtiriladi. Masalan, "kitoblarimizdan" ifodasi, aslida, "bizning kitoblarimizdan" degan ma’noni anglatadi va turli qo‘shimchalar tufayli bularning barchasi o‘zbek tilida ma’no

hosil qiladi (Tevosyan, 2023). Ushbu jarayon, batafsil g‘oyani bitta atama bilan ifodalash imkonini beradigan qo‘shilgan shakllarning shakllanishini ta’minlaydi.

Boshqa tomondan, rus tili infleksiya modelidan foydalanadi, bu ma’noda so‘z qanday kontekstda ishlatilishiga qarab oxiri o‘zgaradi. Masalan, "книга" - kniga, ingliz tiliga "book" deb tarjima qilinadi, bu so‘z genitiv holida "книги" - knigi bo‘lib, egalikni ko‘rsatadi. Gayane Tevosyaning "O‘zbek va Rus Tili Grammatikasining Taqqosiy Tipologiyasi" asari, bunday infleksion jarayonlarning nisbatan ko‘proq agglutinativ bo‘lgan o‘zbek tilida qanday farq qilinishini ko‘rsatadi (Tevosyan 2023). Ushbu farq morfologiyaning ma’lumotlarni qanday qilib aniq va farqli ravishda etkazilishiga ta’sir ko‘rsatishini namoyish etadi.

Ingliz morfologiyasi haqida aytish joizki, affikslar ishlatilishiga qaramay, u keng infleksiyadan ko‘ra, ko‘proq birlashma va konversiyaga moyil. Masalan, "notebook" so‘zi ikki so‘zdan kelib chiqadi, "to google" esa Google nomini fe’lga aylantirish jarayonidir. Shunday qilib, ingliz morfologiyasini belgilovchi o‘zgarishlar erkinligiga qaramay, u o‘zbek va rus tillarining batafsil infleksion tizimiga ega emas. Ushbu uchta til, so‘zlar qanday tuzilishini ko‘rsatadigan turli morfologik naqshlarni namoyish etadi va til tuzilishining amaliy masalalari nazariy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Sintaksis so‘zlar va iboralarni birlashtirish orqali bir nechta gaplarni tuzishda ularning ishlatilishini o‘rganadi. Tillarda turli sintaksis tuzilmalari mavjud va bu ma’no va aniqlik uchun befarq qola olmaydi. Masalan, ingliz tili SVO tili bo‘lib, bu yerda S - fe’lning predmeti, V - fe’l va O - ob’ektdir, yaxshi misol "The cat chased the mouse" jumlasi. Bundan farqli o‘laroq, o‘zbek tili odatda SOV shaklini qo‘llaydi, shuning uchun u "Mushuk (S) sichqon (O) ta’qib qildi (V)" deb aytiladi, bu esa "Mushuk sichqonni quvdi" degan ma’noni anglatadi (Ahmedova, 2023). Gapdagi so‘zlarning o‘rinlaridagi bunday farqlar suhbat paytida xabarga beriladigan urg‘u va tushunishni o‘zgartirishi mumkin.

Rus sintaksiksida ham nisbiy erkinlik kuzatiladi, bu esa kelishik tizimiga xosdir va jumla ichidagi so‘zlarning o‘rnini so‘zning asosiy ma’nosini saqlab qolgan holda erkin almashtirish imkonini beradi. Masalan, "Кот поймал мышь" (Kot poymal mysh’) jumlasi "Mushuk sichqonni tutdi" degan ma’noni anglatadi va berilgan matndagi so‘zlar umumiy ma’noni o‘zgartirmasdan almashtirib bo‘lmaydi. Sintaktik xususiyatlarni o‘rganishda Ahmedova Anorhon Nasvali Qizi rus tilida egiluvchanlik ifodani boyitishi mumkinligini, ammo shu bilan birga tilni o‘rganuvchilar uchun ba’zi qiyinchiliklarni keltirib chiqarishini ta’kidlaydi (Ahmedova, 2023). O‘z navbatida, kelishik qo‘shimchalari qator ichidagi rollarni ko‘rsatib, rus tilini bu yerda muhokama qilingan boshqa ikki til - ingliz va o‘zbek tillaridan sintaksis jihatdan farqlanadigan qatlam qo‘shadi.

Bundan tashqari, ushbu tillarda qo‘shimchalarning ishlatilishi ham bir-biriga o‘xshamaydi. Masalan, ingliz tilida "in", "on", "at" kabi asosiy munosabat so‘zlari, shuningdek, o‘zbek tilidagi kelishik qo‘shimchalari joy va vaqt bilan bog‘liq alohida ma’nolarni bildiradi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi joylashuv qo‘shimchasini sintaksiksini o‘rganuvchi Nilufar Zubaydova o‘z ishida ingliz tilida kelishik

qo‘shimchalari yo‘q bo‘lsa-da, qo‘shimchalar gapning ma’nosida muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi (Zubaydova, 2023). Bu farqlar turli til turlarining ma’lumot va ma’noni qanday tartibga solishini aniqlashga harakat qilayotgan tilshunos olimlarni qiziqtirgan muammolarni aks ettiradi.

Semantika bo‘yicha ham o‘zbek va rus tillari, shuningdek, o‘zbek va ingliz tillari o‘rtasida ma’noni o‘rganish orqali farq qilish mumkin. Ko‘rib chiqilayotgan tushunchalar, muhokama qilinayotgan tillarning turli semantik sohalarida namoyon bo‘ladi, shuning uchun farqlar paydo bo‘ladi. Masalan, "bank" so‘zi kredit beruvchi tashkilot yoki daryo sohasida bo‘lishi mumkin. Boshqa tomondan, o‘zbek tilida "bank" so‘zining moliyaviy tashkilot sifatida homofonik so‘zi yo‘q, garchi "bank" moliyaviy ma’noda O‘zbekistonda keng qo‘llaniladi. Bu, shuningdek, madaniyat elementlarining semantik sohalarni qanday aniqlashini ta’kidlaydi.

Semantika sohasidagi yana bir muhim tushuncha leksik noaniqlik deb ataladi. Polisemiyaning muammosi, "замок" (zamok) so‘zida yaqqol ko‘rinadi, bu so‘z "qal’a" yoki "eshik qulfi" ma’nosini anglatishi mumkin. Leksik noaniqlikning ushbu hodisasi, bir xil so‘zning kontekstsiz turli ma’nolarga ega bo‘lishini ko‘rsatadi va turli tillar gapiruvchilari bunday muammoga qanday yondashishini namoyish etadi. Masalan, "Он закрыл замок" ("On zakryl zamok") jumlasida, "замок" so‘zi eshik qulfi yoki o‘rta asr qal’asi haqida muhokama qilinayotganiga qarab "qol’a" yoki "eshik qulfi" ma’nosini anglatishi mumkin.

Biroq, bir til muammoni boshqasidan butunlay boshqa usulda hal qilishi mumkin. Ingliz tilida boshqa sifatlar yoki iboralar maqsadli ma’noni qo‘llab-quvvatlashda qo‘shimcha rol o‘ynaydi. Shuning uchun "замок" o‘rniga "qalaning kirish joyi" kabi iboralarni ishlatish mumkin. Boshqa tomondan, o‘zbek tilida ma’noning aniq ifodasi so‘zni boshqa bir so‘z bilan almashtirish orqali emas, balki kontekst yoki keltirilgan iborani ishlatish orqali ifodalanadi. Bu, shuningdek, kontekstning o‘zaro bog‘liq tillar ichida shunchalik keng tarqalganligidan kelib chiqadi, bu esa muhokama maydonlarining turli xil turlariga yoki muhokama qilinayotgan tillar gapiruvchilaridan kutayotgan muloqotning nisbiy fikrlariga olib kelishi mumkin.

Madaniy ta’sirga kelsak, semantikaning yana bir qiziqarli xususiyati bu ma’nolarga ta’sir ko‘rsatishdir. Masalan, "oila" umumiy tushunchasi, oila a’zolari bilan bog‘liq so‘zlar uchun turli madaniy xususiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, o‘zbekcha "oila" so‘zi inglizcha "family" so‘ziga qaraganda kengroq tushunchani anglatadi, bu esa keng oilani anglatishi mumkin. Ushbu madaniy nuqtai nazar, faqat inson tomonidan ishlatiladigan so‘zlarga emas, balki oila a’zolariga bo‘lgan g‘oyalar va munosabatlarga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, semantik sohalar ma’lum bir madaniyatning ustuvorliklari va umumiy dunyoqarashini tushunishga yordam beradi. Muhayyo Davlatovaning "Ingliz va o‘zbek tillarida samarali konstruktsiyalarning semantik xususiyatlari" maqolasida, bir tilning ma’lum bir tushunchani qanday ochishi yoki ustuvor qilib belgilanishi boshqa tilning ham qanday ustuvorligini ko‘rsatishi, madaniyat va jamiyat yoki ijtimoiy qurilgan haqiqatning ayrim jihatlari haqida ma’lumot berishi

mumkin (Davlatova, 2023). Masalan, rus tili turli xil qor turlariga koʻplab soʻzlarni bagʻishlagan boʻlsa, ingliz tilida bunday soʻz faqat bitta umumiy soʻzga ega.

Shunday qilib, oʻzbek, rus va ingliz tillaridagi semantik resurslarning taqqosiy tahlili madaniyatning tillar va ularning maʼnolariga qanday taʼsir etishini ochib beradi. Leksik noaniqlik, madaniy taʼsir va tushunchalar tasnifi orqali biz tilning haqiqatni tushunishimizga qanday taʼsir koʻrsatishini yaxshiroq tushunishga erishamiz. Boshqa taqqosiy tahlillar kabi, ushbu tadqiqot til ijodkorligining farqlarini namoyish etadi va shu bilan birga, maʼno talqinida kontekstning ahamiyatini taʼkidlaydi.

Oʻzbek, rus va ingliz materiallarini tahlil qilishda ochilgan nazariy muammolar L2 oʻzlashtirish va oʻrganish jarayonlari uchun muhim masalalarni koʻtaradi. Yuqorida aytib oʻtilgan haqiqatlarni tushunish orqali oʻqituvchilar oʻz talabalariga eng mos keladigan oʻquv muhitini, oʻqitish vositalarini va baholash usullarini ishlab chiqadilar.

Realistik koʻrib chiqishlar ichida oʻqituvchilar tillar oʻrtasidagi farqlar va muammolarni tushunishi muhimdir. Masalan, fonologiya sohasida oʻquvchilar soʻzlarni talaffuz qilishda muammolarga duch keladilar. Oʻzbek tinglovchisi ingliz tilini oʻrganayotganda, masalan, "ship" va "sheep" soʻzlarini talaffuz qilishda "i" va "e" unli tovushlarini ajratish qiyin boʻlishi mumkin, chunki bu unli tovushlar oʻzbek tilida mavjud emas. Shuningdek, rus oʻquvchisi ingliz tilidagi ikki "th" tovushi oʻrtasidagi farqni tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, chunki rus tilida shunga oʻxshash tovushlar yoʻq. Bunday muammolarni hal qilish uchun oʻqituvchilar ushbu maxsus tovushlar boʻyicha qoʻshimcha fonetik tayyorgarlik oʻtkazishlari va oʻquv dasturiga maxsus mashqlar kiritishlari kerak.

Uchta tilga nisbatan, shuningdek, oʻquvchilar tomonidan boshdan kechiriladigan qiyinchiliklar va imkoniyatlarni keltirib chiqaradigan oʻxshashliklar va farqlar mavjudligi taʼkidlanmoqda. Masalan, "sweep" va "gruesome" ingliz tilida tushunarli, ammo rus tilida ularning infleksion qarindoshlari "sweepa" va "gruesomey" holat va son tufayli harflar oʻzgartirilishini talab qiladi. Boshqa tomondan, bu jihat oʻquvchilarga maxsus grammatik nuqtalarni, masalan, ot va feʼl shakllarini yaxshiroq tushunishga yordam berishi mumkin. Rus tilini birinchi navbatda koʻproq analitik ingliz tili bilan taqqoslaganda, oʻquvchilar tilning morfologik tuzilishi va grammatikasi haqida chuqurroq fikrga ega boʻlishlari mumkin.

Oʻzbek tilida agglutinativ xususiyat shundaki, til bir nechta affikslarni bitta soʻzga birlashtirish imkoniyatiga ega. Bu, albatta, kuchli va zaif tomon sifatida koʻrinadi. Masalan, "kitoblarimizdan" (bizning kitoblarimizdan) soʻzi bir nechta grammatik xususiyatlarning qanday birlashishini koʻrsatadi. Baʼzi oʻquvchilar bu sababdan osonlikcha ruhiy tushkunlikka tushishi mumkin, ammo oʻquvchi agglutinasiyaga oid qoidani egallagach, yangi soʻzlar va iboralar yaratish oson boʻladi.

Kelajakdagi tadqiqotlarda, ushbu uchta tilni oʻrganish jarayonida olingan natijalarni kengaytirish uchun bir necha imkoniyatlar mavjud. Ulardan biri, ikkita

til o‘quvchilari turli morfologik tizimlarning o‘zaro aloqasi bilan qanday shug‘ullanishini o‘rganish bo‘lishi mumkin. Tadqiqot, shuningdek, fonologik farqlarga aloqador ta’lim strategiyalarini farqlashni ham o‘rganishi mumkin, masalan, talaffuz amaliyotida texnologiyadan foydalanish.

Boshqa bir tadqiqot sohasini madaniyatning til o‘rganish bilan bog‘liqligini o‘rganish mumkin. Masalan, o‘zbek, rus va ingliz tillarini o‘rganishda madaniy tushunchalardagi farqlarni aniqlash, rivojlanayotgan mamlakatlarda o‘qitish materiallari qanday farq qilishi kerakligini tushuntirishga yordam berishi mumkin. Bundan tashqari, o‘quvchilar bir xil nazariy muammolarni hal qiladigan o‘rganish jarayonlari va metodologiyalarini taqqoslash, turli o‘quvchilarning ehtiyojlarini qondirishga intilayotgan o‘qituvchilar uchun foydali ma’lumotlar taqdim etishi mumkin.

Shunday qilib, ushbu maqolada muhokama qilingan nazariy mavzular o‘zbek, rus va ingliz tillarini tahlil qilishga oid bo‘lib, til o‘rganish va o‘qitish uchun juda muhimdir. Demak, o‘qituvchilar bu farqlarni qiyinchilik va imkoniyat sifatida tushunib, o‘z talabalarini tillar bo‘yicha kelajakdagi ishlariga tayyorlashlari mumkin. Keyingi tadqiqotlar pedagogik amaliyotlarni yanada takomillashtirishga va o‘qitish va o‘rganish jarayonlarini qanday qilib talabalar uchun til rivojlanish imkoniyatlarini amalga oshirishga yordam berish uchun tayyorlash kerakligini yanada kengaytirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ISKHAKOVA ALIYA ILDAROVNA. (2024). NATIONAL AND CULTURAL CHARACTERISTICS OF PHRASEOLOGY IN ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK. Novateur Publications, (16), 1–97. Retrieved from https://novateurpublication.org/index.php/np/article/view/274
2. Khamidova , G. . (2023). A COMPARATIVE ANALYSIS OF LANGUAGE STRUCTURES IN UZBEK AND ENGLISH: A CROSS-LINGUISTIC STUDY. Science and Innovation in the Education System, 2(12), 5–16. извлечено от https://econferences.ru/index.php/sies/article/view/9394
3. Khudaykulova , F. . (2024). COMMONALITIES AND DISPARITIES BETWEEN ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES . Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(5), 167–174. извлечено от https://www.in-academy.uz/index.php/cajmrms/article/view/29756
4. Muhayyo Davlatova, Semantic properties of effective constructions in English and Uzbek languages, E3S Web Conf., 420 (2023) 10027, DOI: https://doi.org/10.1051/e3sconf/202342010027
5. Nilufar Zubaydova, Syntactic-semantic analysis of locative adhesive syntax in english and uzbek languages, BIO Web Conf., 65 (2023) 10026, DOI: https://doi.org/10.1051/bioconf/20236510026
6. Rizokulovna, N. D. (2024). "The Genesis of Parts Of Speech: Evolution and Development of Parts of Speech in English, Russian, and Uzbek Languages". EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL

EDUCATION, 4(9), 154–158. Retrieved from https://www.inovatus.es/index.php/ejine/article/view/4061

7. Tevosyan, G. (2024). COMPARATIVE TYPOLOGY OF UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGE GRAMMAR. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(6). https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I6Y2024N62

O‘ZBEK TILI MATNLARIDAGI KALIT SO‘ZLARNI AVTOMATIK ANIQLASH

Vaisova Muhayyo Akbarovna
UrDU magistranti

Annotatsiya. Tabiiy tilni qayta ishlash masalalari orasida kalit so‘zlarni aniqlash masalasi muhim o‘rin egallaydi. O‘zbek tili matnlaridagi kalit so‘zlarni avtomatik aniqlashning ahamiyati,usullari va texnologiyalari batafsil o‘rganish maqsadida o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari, shu jumladan morfologik boyligi va grammatik murakkabligi kalit so‘zlarni aniqlashga tasiri ko‘rib chiqiladi. Maqolada o‘zbek tilida kalit so‘zlarni aniqlashning amaliy jihatlari va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari haqida ham ma’lumot beradi.

Annotation. Among the problems of natural language processing, the issue of keyword identification occupies an important place. In order to study in detail the importance, methods and technologies of automatic identification of keywords in Uzbek language texts, the specific characteristics of the Uzbek language, including its morphological richness and grammatical complexity, are considered to influence the identification of keywords. The article also provides information about the practical aspects of identifying keywords in the Uzbek language and the prospects for future development

Kalit so‘zlar: python kutubxonalari, NLP, kalit so‘zlar, mashinali o‘rganish, so‘z o‘lchov chastotasi, avtomatik aniqlash

Key words: python libraries, NLP, keywords, machine learning, word measurement frequency, automatic detection

Kalit so‘zlar har qanday matnda muhim rol o‘ynaydi. Ular matnning asosiy mavzusini aniqlashda, qidiruv tizimlarida matnni topishda, matnlarni guruhlashda, tahlil qilishda va tarjima qilishda yordam beradi. O‘zbek tilida yozilgan matnlar uchun kalit so‘zlarni avtomatik aniqlash muammosi juda dolzarbdir, chunki o‘zbek tili morfologik jihatdan boy va boshqa tillarga qaraganda grammatik jihatdan ancha murakkab.[1] O‘zbek tili matnlaridagi kalit so‘zlarni aniqlashning bir qator muhim ahamiyatlari mavjud: Qidiruv tizimlari: Kalit so‘zlar qidiruv tizimlari tomonidan foydalanuvchilarning qidiruv so‘rovlarini tushunish va tegishli natijalarni taqdim etish uchun ishlatiladi. Ma’lumotlarni qayta ishlash: Kalit so‘zlar ma’lumotlarni guruhlash, tahlil qilish va qayta ishlash uchun ishlatiladi. Bu ma’lumotlar bazalarini qurish, hujjatlarni tahlil qilish va xabarlarni guruhlash uchun foydali.Tarjima: Kalit so‘zlar matnning asosiy ma’nosini aniqlashga yordam

beradi, bu esa tarjima jarayonini osonlashtiradi va aniqroq natijalarga erishish imkonini beradi. Matn tahlili: Kalit so‘zlar matnning asosiy mavzularini, yozuvchi tomonidan ishlatilgan tushunchalarni, matnning uslubini va boshqa xususiyatlarini aniqlashda yordam beradi. Ta’lim: Kalit so‘zlar o‘quvchilarga matnning asosiy ma’nosini tezroq tushunish va eslab qolishga yordam beradi.[2] O‘zbek tili matnlaridagi kalit so‘zlarni avtomatik aniqlash bir qator qiyinchiliklarga duch keladi. Morfologik boylik: O‘zbek tilida so‘zlarning turli xil shakllarini shakllantirish uchun ko‘pgina qo‘shimchalar va qo‘shimcha so‘zlar qo‘llaniladi. Bu kalit so‘zlarni aniqlash jarayonini murakkablashtiradi. Grammatik murakkablik: O‘zbek tilida grammatik qoidalar juda murakkab va boshqa tillarga qaraganda ko‘proq istisnolarga ega. Sintaktik murakkablik: O‘zbek tilida jumlalar uzun va murakkab bo‘lishi mumkin, bu esa kalit so‘zlarni aniqlashni qiyinlashtiradi.[3] O‘ziga xos so‘zlar: O‘zbek tilida boshqa tillarda mavjud bo‘lmagan ko‘plab o‘ziga xos so‘zlar mavjud, bu esa kalit so‘zlarni aniqlash uchun maxsus algoritmlarni yaratishni talab qiladi.

Kalit so‘zlarni ajratib olish-bu tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)dagi hujjat yoki korpusdagi eng muhim so‘zlarni yoki iboralarni avtomatik ravishda aniqlashni o‘z ichiga oladigan texnikadir. Matndan olingan kalit so‘zlardan turli usullarda foydalanish mumkin.

1. Hujjatlarni indekslash: matndan olingan kalit so‘zlar hujjatni indekslash uchun ishlatilishi mumkin, bu esa tegishli ma’lumotlarni qidirish va olishni osonlashtiradi.

2. Hujjatlarni umumlashtirish: kalit so‘zlar hujjatning asosiy mavzularini umumlashtirish uchun ishlatilishi mumkin, bu foydalanuvchilarga hujjatni to‘liq o‘qimasdan uning mazmunini tezda tushunishga yordam beradi.

3. Tarkibni tasniflash: kalit so‘zlar hujjatlarni tarkibiga qarab tasniflash uchun ishlatilishi mumkin, bu foydalanuvchilarga ma’lum mavzular bo‘yicha hujjatlarni osongina topishga imkon beradi.

4. Tarkibni belgilash yoki teglash: kalit so‘zlar hujjatlarni tegishli yorliqlar yoki metadata bilan belgilash uchun ishlatilishi mumkin, bu esa katta hujjatlar to‘plamlarini tartibga solish va boshqarishni osonlashtiradi.

5. Qidiruv tizimni optimallashtirish: kalit so‘zlar qidiruv tizimlari uchun veb-tarkibni optimallashtirish uchun ishlatilishi mumkin, bu uning ko‘rinishini va qidiruv natijalarida reytingini yaxshilashga yordam beradi.

Matnlardan kalit so‘zlarni ajratib olish jismoniy shaxslar va tashkilotlar uchun qiyinlashdi, chunki ma’lumotlarning murakkabligi va hajmi o‘sdi. Matnni zudlik bilan va etarli darajada qayta ishlash uchun ushbu vazifani avtomatlashtirish zarurati avtomatik kalit so‘zlarni chiqarish vositalarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu jarayonda NLP va Python kutubxonalari yordam beradi.

Bizning usulimiz o‘zbek tilidagi matnning katta korpusida o‘qitilgan transformerlarga asoslangan til modeli bo‘lgan o‘zbek BERT modeliga asoslangan. Biz O‘zbekcha BERT modelidan foydalanib, so‘z birikmalarini hosil qilamiz, so‘ngra chiziqli klassifikatorni berilgan matndagi eng muhim so‘zlarni aniqlashga

o‘rgatamiz. Biz o‘z uslubimizni O‘zbekiston yangiliklari ma’lumotlari to‘plamida baholaymiz va u bir nechta mavjud kalit so‘zlarni chiqarish usullaridan ustunligini ko‘rsatamiz. Bizning usulimiz, shuningdek, turli xil uslublarda, shu jumladan rasmiy va norasmiy matnda yozilgan matndan kalit so‘zlarni ajratib olishga qodir. Bizning usulimiz matnni umumlashtirish, hujjatlarni tasniflash va qidiruv tizimini optimallashtirish kabi turli xil dasturlarda ishlatilishi mumkin. Bizning usulimiz O‘zbekcha matn uchun ushbu ilovalarning ish faoliyatini yaxshilashga yordam beradi, deb hisoblaymiz.

FOYDAALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbek tili: Grammatika va Lug‘at, N. A. Karimova, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Toshkent, 2003 yil.
2. O‘zbek tilining kompyuter lingvistikasi asoslari, A. A. Abdurahmonov, O‘zbekiston Milliy Universiteti, Toshkent, 2015 yil.
3. O‘zbek tili informatikasining dolzarb muammolari., A. A. Abdurahmonov, Toshkent, 2018 yil.
4. O‘zbek tili: Morfologiya va Sintaksis, X. X. Xudoyberdiev, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Toshkent, 1999 yil.
5. Introduction to Information Retrieval, Christopher D. Manning, Prabhakar Raghavan, Hinrich Schütze, Cambridge University Press, 2008.
6. Text Mining: Classification, Clustering, and Applications, Witold Pedrycz, Fernando Gomide, Wiley-Interscience, 2008.
7. Mining Text Data, Ian H. Witten, Eibe Frank, Mark A. Hall, Morgan Kaufmann, 2011.
8. Natural Language Processing with Python, Steven Bird, Ewan Klein, Edward Loper, O‘Reilly Media, 2009.
9. Speech and Language Processing, Daniel Jurafsky, James H. Martin, Pearson Education, 2008.
10. O‘zbek tilida so‘zlarni qayta ishlash: Morfologik tahlil va lug‘at yaratish, A. A. Abdurahmonov, Toshkent, 2010 yil.

PROFESSOR ODILJON BOZOROV ILMIY MEROSINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI

Tursunova Odinaxon O‘ktamjon qizi
Qo‘qon DPI magistranti
Ilmiy rahbar: Toshxujayeva Sh.
O‘zbek tili kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda fan taraqqiyotida ilmiy maktablarning tutgan o‘rni haqida fikrlar keltirilgan. Jumladan, lingvistika sohasida Professor Odiljon Bozorov ilmiy merosi” xususida, olimning o‘zbek tilshunosligi rivojiga qo‘shgan hissasi, falsafiy qarashlari hamda nazariyalari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Ilmiy maktab tushunchasi, darajalanish (graduonimiya), fonetik darajalanish, yordamchi so‘zlar tasnifi, til va nutq, mantiq tushunchalari.

Har bir fan sohasining shakllanishi, taraqqiyotga erishuvda “ilmiy maktab”lar poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Ilmiy maktab olimlarning o‘zaro ijodiy, doimiy, norasmiy muloqoti, g‘oyalar bilan o‘rtoqlashishi va natijalar muhokamasi natijasida tashkil topadi va u fan sohasida yangicha yondashuvlarni yuzaga keltirishga xizmat qiladi. Olimlar tomonidan asos solingan ilmiy maktablar kelgusi avlod tadqiqotchilari uchun tayanch manba bo‘lib xizmat qilishi zarur. Bu masala hukumatimiz tomonidan ham e’tirof etilmoqda. Xususan, “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akamiyasining Nizomi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akamiyasi haqiqiy a’zolari(akademiklar)ni tanlov asosida saralash va tasdiqlash tartibi haqida Nizom”ga asosan nomzodlar javob berishi lozim bo‘lgan talablar belgilangan. Jumladan, bu talablardan biri “o‘z yo‘nalishida yangi ilmiy maktab tashkilotchisi va rahbari yoki mavjud ilmiy maktabning rivojida bevosita ishtirok etgan bo‘lishi va bu uning fan nomzodlari yoki falsafa doktorlari hamda kamida ikki fan doktori tayyorlash bilan bog‘liq” [6; 2]

Barcha fan sohalari kabi tilshunoslik ilmida ham “ilmiy maktab” masalasi dolzarblik kasb etmoqda. Dunyo tilshunosligida bugunga qadar o‘zining ilmiy maktabini yaratgan, jahon tilshunoslik tafakkuri taraqqiyotiga hissasini qo‘shgan, alohida e’tirof etilgan nazariyotchi olimlarning tadqiqot usullari, ularning ilmiy nazariy asarlarini o‘rganish va amalga tadbiq etish masalalariga jiddiy ahamiyat berilmoqda. Bu sohadagi ilmiy tadqiqotlarni muntazam olib borish, ilm-fan fidoyilarning o‘ziga xos maktabini tadqiq qilish zamon talabiga aylanib bormoqda. Chunki kelajak avlod fan sohalariga tamal toshini qo‘ygan olimlarni tanishi, ular ilgari surgan g‘oya va fikrlarni bilishi va asarlarini o‘qib o‘rganishi lozim.O‘zbek tilshunosligi yirik olimlari bilan har qancha faxrlansa, arziydi.Ularning ilmiy-ijodiy faoliyatini o‘rganish, tadqiq usullarini amaliyotga tadbiq qilish orqali fanni yanada yuksak darajada rivojlantirishimiz mumkin. Shu bois tilshunos olimlar ilgari surgan lingvistik qarashlarni o‘rganish ham dolzarblik kasb etmoqda.

Ana shunday o‘z ilmiy maktabini yaratgan va tilshunoslik sohasi taraqqiyotida o‘z nomini qoldirgan olimlardan biri filologiya fanlari doktori, professor Odiljon Bozorovdir. Tilshunos olim Odiljon Bozorov o‘z ilmiy faoliyatida nazariy tilshunoslikni rivojlantirish, an’anaviy tilshunoslikda uchrovchi kamchiliklarni bartaraf etishga harakat qiladi. Eng mashhur maqolalaridan biri “Yordamchi so‘zlar tasnifida ko‘makchilarga o‘rin bormi?” nomli ilmiy ishida ham kichik bo‘lsa-da tilshunoslikdagi yordamchi so‘zlar borasidagi munozarali masalaga o‘z yechimini topadi. Olim jahon tilshunosligida urf bo‘lib qolgan yordamchi so‘zlarni ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklamalarga tasnif qilish nazariyasiga qarshi fikr bildirib, har qanday tilda yordamchilarning faqat bog‘lovchi va yuklamalarigina mavjudligi, ajratilayotgan ko‘makchi, predloglarning aslida so‘z birikmasi bog‘lovchi ekanligini isbotlshga harakat qiladi. Odiljon Bozorovning “Gap bo‘laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan birliklari aslida qanday sintaktik birliklar?” nomli maqolasi ham sintaksisga oid muammoga qisman yechim bo‘ladi. Ushbu maqolada dunyo

tilshunosligida aksioma bo‘lib qolgan undalma, kirish so‘z, kiritma, ajratilgan bo‘laklarning, olim fikricha, sodda gapdagi grammatik aloqaga kirishmaydigan birliklar emas, balki ixcham gaplar ekanligi, bu birliklar ishtirok etgan konstruktsiyalar an’anaviy sintaksisda ko‘rsatilganidek, murakkablashgan sodda gap emas,balki qo‘shma gaplarning o‘ziga xos, ixcham turi ekanligini dalillashga harakat qilganligida ko‘rish mumkin.

“Yuzlab maqolalar muallifi bo‘lgan Odiljon Bozorovning “Dialektika hozirgi o‘zbek tilshunosligining metodologiyasi sifatida” (2002), “Til tadqiqotlari uchun mantiq metodologiyasi” (2006), “Til o‘rganishda falsafiy qonunlar metodologiyasi” (2008), “Hozirgi fonologiyada aynanlik talqinining ahamiyati” (2006), “An’anaviy va sistemaviy tilshunosligning o‘zaro munosabati” (2014), “Tilni tadqiq etish: antoposentrizm va lingvosentrizm” (2018) kabi asarlarida hozirgi o‘zbek tilshunosligi uchun xizmat qiluvchi metodologiyalar haqida fikr yuritiladi.[3; 4]

Olim tomonidan yaratilgan “Tilshunoslikning falsafiy metodologiyasi” nomli monografiyasi ham lingvistlar, tadqiqotchilar va yosh olimlar faoliyatida samaradorlikni oshirishda juda katta amaliy ahamiyatga ega. Odiljon Bozorovning “O‘zbek tilida darajalanish” nomli doktorlik dissertatsiyasi o‘zining ko‘lami, ilmiy saviyasi bilan tilshunosligimizda yangi sahifalarni ochib berdi. Jumladan, darajalanishning barcha til sathlarida namoyon bo‘lish qonuniyatlarini asoslab berdi. Olim tadqiqotda o‘zbek tilshunosligida birinchilardan bo‘lib darajalanish muammosining falsafiy asoslari haqida so‘z yuritdi, falsafadagi dialektika qonuniyatlari, mantiq ilmi asosida batafsil yoritib berdi. O‘sha davr tilshunosligi uchun yangilik sanalgan falsafadagi bir qancha tushunchalarning til ilmidagi o‘rnini asoslab berdi. Jumladan, formal mantiq tushunchasi, logika ilmidagi ayniyat, uchinchisi istisno, ziddiyat va ziddiyatsizlik, binar oppozitsiya, dialektik mantiqning uchinchisi shart, oraliq uchinchi kabi tushunchalarga tilshunoslik bilan bog‘lagan holda ta’rif beradi.

“O. Bozorov tomonidan ilgari surilgan g‘oyaning “qaymoq”laridan birini uning fonologik sistemadagi darajalanish bo‘yicha bildirgan fikr-mulohazalari tashkil etadi. Ta’kidlanishicha, fonologiyada farqlilik tadqiqotlaridan ayniyat talqinlariga o‘tila boshlandi. Bu esa unli va undoshlardagi darajalanish, fonemalar tizimidagi uzluksizlik, fonemalar ijtimoiy qiymatidagi darajalanish, prosodikadagi darajalanish qonuniyatlari ochib berishga yo‘l ochdi. Fonemalarning fonologik sistemadagi o‘rni, mavqei faqat dialektik darajalanish natijasida namoyon bo‘lishi ko‘rsatib berildi. Nutq tovushlari bilan til tovushlari o‘rtasidagi farqlilik asoslandi.”[5; 8]

Odiljon Bozorovning yana bir xizmati shuki, til va nutq masalasida ham o‘z qarashlarini bildirgan. Jumladan, 1992-tilda tilshunos olim Hamid G‘ulomovich Ne’matov bilan hamkorlikda “Til va nutq” nomli asarini e’lon qiladi. Unda hozirgi tilshunoslikda empirik tadqiqotlardan ratsional tadqiqotlarga o‘tish, ilmiy ishlarni mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik kabi kategoriyalar metodologiyasi asosida olib borish g‘oyalari ilgari surildi.”[1; 3]

Yuqoridagi fikrlar shuni ko‘rsatadiki, filologiya fanlari doktori, professor Odiljon Bozorov ilmiy faoliyati davomida faqat muayyan til sathida emas, balki bir nechta bo‘limlar bo‘yicha o‘z qarashlarini ilgari surgan. Bu nazariyalar o‘z davri uchun yangilik sifatida katta ahamiyat kasb etgan. Natijada “Odiljon Bozorov ilmiy maktabi” deb atalgan ilmiy meros shakllandi. Bu ilmiy maktab manbalarini o‘rganish va ularni kelgusi tadqiqotchilar uchun qo‘llanma sifatida yetkazish olim tadqiqotlariga qiziquvchilar uchun asosiy vazifa ekanligi, shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bozorov O. Tanlangan asarlar: 1-jild. Toshkent, 2023.-183 b.
2. Bozorov O. Tanlangan asarlar: 2-jild. Toshkent, 2023.-245 b.
3. Xodjayeva D.SH. Odil olim doim barhayot. FBREF
4. Boshmanova Dildora Mahram qizi. Professor Nizomiddin Mahmudovning lingvistik va metodik qarashlari.(PhD dissertatsiyasi avtoreferati); Qo‘qon, 2024.-57 b.
5. Sobirov Abdulhay SHukurovich. “Qora quti” sirlaridan boxabar bo‘lgan tilshunos. Filologiyaning dolzarb masalalari:maqolalar to‘plami; Qo‘qon, 2023.-560 b.
6. SHaripov SHavkat. Ilmiy maktablar- qadriyatlar uzviyligini ifodalovchi model sifatida. O‘zbekistonda Oliy ta’lim.info@edujournal.uz. 2023-yil 29-dekabr. 4-soni

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MODALLIK KATEGORIYASI

Saidov Muslimbek Otabekovich

Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek va ingiliz tillarida fe’llarni turkumlashda modallik parametrlarni nazariy asos sifatida aniqlashgan va ularning har biri modallik faoliyatini aniqlashda ma’lum bir rolni bajargan. Bunga misol, so‘zlovchiningvoqeaga munosabati (baholash), real munosabatga vaziyatning to‘g‘ridan to‘g‘ri tutgan o‘rni (noreallik) tadqiq etiladi. Hozirgacha modallik kategoriyasi tavsifida o‘zbek tilida ham, ingliz tilida ham aniq bir fikrga kelinmagan.

Kalit so‘zlar: fe’llarda modallik kategoriyasi, xohish va istak kategoriyalarining farqlanish omillari.

Abstract. In the article, the parameters of modality are defined as a theoretical basis for the classification of verbs in the Uzbek and English languages, and each of them plays a certain role in determining the activity of modality. An example of this is the speaker’s attitude to the event (evaluation), the direct role of the situation in the real relationship (unreality). Until now, there is no clear consensus on the description of the category of modality in either Uzbek or English.

Keywords: category of modality in verbs, factors of differentiation of desire and categories of desire

O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida rivojalanishni boshlagandan beri ilm-fan va milliy madaniyatimizning har bir sohasida jiddiy o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Bu o‘zgarishlar eng avvalo shu kungacha erishilgan ilm-fan yutuqlarini milliy mafkura va milliy istiqlol g‘oyalari talablari asosida qayta ko‘rib chiqish, umumlashtirish va kelgusida bajarilish lozim bo‘lgan ishlarni rejalashtirish jarayonida ko‘zga tashlandi.

O‘zbek va ingliz tillarida modallik kategoriyasining o‘rganilishi bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilgan. Lekin o‘zbek va ingliz tillarida fe’l kategoriyasida modallik kategoriyasi aniq va to‘liq tadqiq etilmagan. Albatta, bu yangi avlod didaktik manbalarini yaratishda zarur hisoblanadi. Bu tadqiqotimizning debochasida esa, modallik kategoriyasi haqida o‘zbek va ingliz tillari misolida fikr yuritamiz.

O‘zbek va ingliz tillarida tadqiqotchilar ―wish‖ni modallikka qarashli deyishsa-da, uning ma’nosini ―encouragement‖, ―longing for‖ so‘zlariga yaqin ma’noda tanishtirdilar. V. N. Bondarenkoning ta’kidlashicha ―wish‖ ning ma’nosi modal turlardan biridir va shaxsning ob’yektiv vaziyatini anglatadi, ―to wish‖, ―to want‖ , ―to desire‖ fe’llarining grammatik shakllariga maxsus modallik ma’nosini beradi[2.53-96].

Modallik ma’nosini ta’riflaganda, gapning har bir komponentining modallik mazmunini yaratishdagi rolini namoyon etgan holda istak modalligini nisbiyligini aniqlaydi. Istakning modallik bilan tasdiq (yoki inkor) kategoriyalari orasidagi munosabatini aniqlashda, matn va istak ichidagi ta’sir doirasini o‘rganishda, qaysi munosabatlarda istakni bildiruvchi fe’lli gaplar boshqa gaplar bilan mazmun ichida aloqada bo‘lishi mumkinligiga aniqlik kiritishda istakning har bir turiga harakterli bo‘lgan turli badiiy bo‘yoqlarni hisobga olish muhim.

Istakni bildiruvchi fe’llarning modallik faoliyati to‘g‘risidagi fikrlari ham qiziqishga loyiq. Tahlil qilingan so‘zlarga asoslanib istakni bildiruvchi fe’llarni ikki guruhga bo‘lishimiz mumkin:

1) Modallikka moyilligi bo‘lgan istakni bildiruvchi fe’llar;

2) Modallikka moyilligi bo‘lganmagan istakni bildiruvchi fe’llar.

Тадыыы etilayotgan tillar grammatik qurilmalarida ot so‘z turkumi bilan moslashuvchi fe’llarni modallikka moyilligi bo‘lmagan guruhga kiritilgan. Lekin bular ―to crave‖, ―to covet‖, ―to thirst for/after‖, ―to lust for‖, ―to sigh for‖, ―to pant for‖, _to itch for‖, ―to burn for‖, ―to care for‖ va boshqalar. Ammo grammatik qurilmalarda faqat ot so‘z turkumi bilan emas infinitiv bilan ham moslashuvchi fe’llar modallikka moyilligi bo‘lgan guruhga kiritilgan. Bu kabi fe’llarga ―to desire‖, ―to want‖, ―to wish‖, ―to long for‖, ‖to hunger for/after‖, ―to die for‖, ―to pine for‖, ―to yearn for‖, ―to emulate‖ kiritilishi kuzatiladi[2.53-94].

Istakning modallik funksiyasini xohish ifodalovchining nutq shaklida ko‘radi. Istakni ifodalovchi modallikni quyidagi ma’nodaekanligi ma’lum:

- birinchi guruhga ehtirosni, kuchli xohish va istakni bildiruvchi, masalan ―to desire, to long for, to covet, to lust‖ fe’llarini kiritadi;

—to want", "to wish", "to will‖ fe'llari ikkinchi guruhga kiritadi. Istak ifodalanishi ushbu fe'llarda birinchi guruhga nisbatan kuchsizroq;

- ychinchi guruh fe'llariga shunday fe'l va fe'l qurilmalari kiradiki, ularni oldingi guruh fe'llari bilan taqqoslaganda istak mazmuni ancha kuchsiz. Ular quyidagi fe'llarni o'z ichiga oladi: —to intend", "to be going" + infinitive, "to have a mind", "to be in spirits", "to be in a mood";

- to'rtinchi guruhga ish harakatni bajarilishini o'z ichiga olmagan —Present Subjunctive‖ (hozirgi zamon shart mayli) shaklidagi iboralar kiradi: "would / should like"+ infinitive,"would sooner / would rather", "had better", "would / should be glad", "sooner had"+ infinitive;

- oxirgi guruh noreal istakni ifodalovchi vositalarni o'z ichiga oladi. Bunda aytilgan ish-harakatni amalga oshishi so'zlovchi uchun yo muammo yo umuman noreal bo'lib ko'rinadi[2.56-94].

Bu mazmunga shartli harakterga ega bo'lgan qo'shma gaplarni ishlatish orqali erishiladi. Istakni anglatuvchi fe'llarni shaxs ishtirok etgani uchun harakatdagi (dinamik) modal fe'llar tarkibiga kiritishgan. Istak real yoki noreal harakatga bog'liq bo'lmagan holda doimo potensial (imkoniyatli) mazmunga ega ekanligi bizga ma'lum. Fe'lning hozirgi zamon shakli reallikka nisbatan modal munosabatni ifodalaydi, ammo o'tgan zamonni ifodalovchi fe'llar esa reallikka nisbatan yoki uning amalga oshishiga nisbatan shubhani ko'rsatib turadi.

Modallik tushunchasi keng va tor ma'nolarda mavjudligini aytiladi. Modallikning keng tushunchasi shaxsning reallikka nisbatan munosabatiga asoslangan va bu paytda tushunish, o'y, hishayajon, kabi tushunchalar modallikning qonuniy vakili sifatida o'ta qimmatlidir. Istakni ifodalovchi fe'llar o'z xususiyatiga ko'ra tushunish, o'y, his-hayajonni anglatuvchi fe'llardan farq qilmaydi. istakni bildiruvchi fe'llar sub'yektiv modallikni bildiruvchi shakl sifatida baholanadi. Istakni bildiruvchi fe'llar funksional sintaksis va pragmatika tomondan o'rganilishi kerakligini aytib o'tadi. —to want‖, —to wish‖, —to desire‖, —to long‖, —to crave‖; sifat —desirable‖; hamda istak ma'nosiga ega bo'lgan: —to hope‖, —to look forward‖, —to be eager‖, —must‖ va boshqa turdagilar kiradi. Morfologik qatlamga majburiylik va buyruq mayllari kiradi[].

Ammo sintaksis qatlamga —to be willing to‖, —if only‖, —would like‖, —would love‖ga o'xshash qurilmalar va boshqa turdagi qurilmalar masalan —let it be‖, —may the rain come‖, —long live the king‖ lar kiradi deb izohlaydi.

Bu vositalardan birini tanlash pragmatik faktorning ta'siri orqali aniqlanadi va quyidagi parametrlarni eng muhim faktorlar deb hisoblaydi:

- istakning yoshni ko'rsatuvchi egasi hamda uning psixologik va boshqa xususiyatlarini;
- istakning harakteri (amalga oshadigan va oshmaydigan);
- istakni amalga oshishi kimga bog'liqligini;
- istak obyektining harakterli xususiyatini;
- istakning eng yuqori darajasini;
-istak holatining vaqt chegaralari kabilar ifodalaydi[3.].

Bunday holatda istak ifodasining yuqori darajasini tanlash uchun asosiy faktor hisoblangan u yoki bu fe'lning tanlovi hisobga olinadi. Masalan: To want – to long; To wish – to crave. (Shestakova, 1995) Istakning modal mazmuni oddiy nutqda ham va aralash nutqda ham kuzatiladi. Istakni bildiruvchi fe'llarning modallik faoliyatini o'rganar ekanmiz, shu guruhga kiruvchi fe'llardan "to will", "to wish", "to want" boshqalariga nisbatan ko'proq modal ma'noga egaligini bayon etishimiz mumkin. Bu guruh fe'llari ichidan "to want" fe'lining modallik funksiyasini ko'rib chiqaylik. Birinchi navbatda aytish muhimki, "to want" ikki holatda (obyektiv va subyektiv) ishlatiladi. Obyektiv holatda "to want" majburiylik va talab ma'nolarini ko'rsatadi ya'ni bu fe'l "must", "ought to", "need" modal fe'llari ma'nosiga yaqinlashadi[4.].

Bularga hissiyotga to'la istak hamda maslahat, taklif, buyruq va talab ma'nolari kiradi. "To want" fe'lining subyektiv ma'nosi quyidagi hissiy ko'rinishlarga:

"To want" fe'lining obyektiv ma'nosi tashqi faktor tomonidan aniqlanadi; subyektiv ma'nosiga so'zlovchining ruhiy holati, xohishi, istagi, qaysarligi, qat'iyligi ya'ni so'zlovchining ichki hissiy holati ta'sir etadi. .

"to want" fe'lining ishlatilishi ob'yektiv reallik sifatida aniqlanadi. Bu yerda bo'layotgan voqealardan voqif bo'lish xohishi "to want" fe'lining modallik ma'nosi orqali ifodalangan[3.4.].

Yuqorida berilgan fikrlardan foydalangan holda va o'z tadqiqotlarimiz natijasidaga asoslangan holda "to want" fe'li kontekstdan chetda na obyektiv va na subyektiv ma'nolarni anglata oladi. Faqat kontekst obyektiv va subyektiv ma'nolarni aniqlovchi faktor bo'lib xizmat qiladi. Bu fe'l kontekstdan tashqarida faqat xohish yoki istak ma'nosini bildiruvchi fe'l sifatida qabul qilinishi mumkin va uning modalligi faqat kontekst bilan bog'liq[3.45-123].

Истак маъносини билдирувчи феъллар ичида "to wish" ўзига хос модал маънони англатади. Биз "to wish‖ феълининг инфинитивли қурилмасини истакли модал феълга киритишимиз мумкин аммо у фаразий модалликнинг нореал истак майли шаклидир."They arise chiefly from what is passing at the time, and though I sometimes amuse myself with suggesting and arranging such little elegant compliments as may be adapted to ordinary occasions, I always wish to give them as unstudied an air as possible"[4.23-216].

O'zbek tilida ijobiy istak – xohish birliklari kabi salbiy modal ifodalovchi birliklar (qarg'ishlar) ham mavjud. Masalan, qurub ketgur, basharang qurg'ur kabi salbiy istak birliklarini bo'lishsiz shaklda qo'llash holatlari ko'p uchraydi. Bu xil qurulmalarda salbiy istak ma'nosi emas, neytral holdagi istak mazmuni ifodalanadi. Bunday qo'llash ayollar nuqtiga mos bo'lib, ularga yana bo'yning uzulmagur, tinmagur, o'lmagur so'z va so'z birikmalarini ham misol sifatida keltirish mumkin. Shunisi harakterliki, -gur affiksli sifatdosh qatnashgan birikma o'zbek tilida asosan katta yoshdagi shaxslar tomonidan qo'llanadi [1.53-76].

Ularga umringdan baraka topgur, bolang ko‘paygur, boy bo‘lgur, omon bo‘lgur, uyingda bug‘doy to‘lgur, umring uzoq bo‘lgur, boshing toshdan bo‘lgur, bo‘yning cho‘zilgur birliklarini misol sifati keltirish mumkin.

Xohish -istakni bildiruvchi fe’llar ingliz tilida ham, o‘zbek tilida ham ayollar nutqida ko‘proq uchraydi va aytish joizki, ayollar erkaklarga nisbatan modallarini ko‘proq ifodalaydilar. Dunyo lingvistik jarayonining sosiolingvistik tadqiqotlar ob’yekti bo‘lmish tomonlari ilmiy texnika rivojlanishining eng kuchli ta’siriga uchraydi. Shu sababli dunyo tillari ijtimoiy funksiyalarining notekis rivojlanish jarayonlari, terminologik sistemalarining paydo bo‘lishi, ularning uzluksiz differensiyasining o‘sishi, xududiy dialektlarning ―maydalashuvi‖ tillarning ijtimoiy – kasbiy differensiyasining tezlashuvi, mafkuraviy konsepsiyalar ta’sirining kuchayishi va hokazolar[3.89-116].

Demak, til, jamiyat va madaniyatning o‘zaro munosabati masalasi tilshunoslik fanida juda kam o‘rganilgan. Masalaga atroflicha yondashish zamonaviy tilshunoslikning eng muhim muammolaridan biri sanaladi.

Mustaqil kategoriya sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan ingliz va o‘zbek tillaridagi xohish kategoriyasi tilning morfologik, sintaktik, leksik qatlamlarida o‘zining keng ifodasini topadi. Xohish ma’nosi istak maylidan tashqari buyruq ma’lida ham qatnashishi mumkin[4;5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Базарова М. М. Ўзбек тилидаги ижобий истак мазмунини ифодаловчи нутқий бирликларнинг лисоний хусусиятлари.- Тошкент, 2007.- 53 б.

2. Бондарко А.В. Семантические категории в аспекте сопоставительных исследований //Сопоставительная лингвистика и обучение неродному Языку. М.: Наука, 1987.

3. Buranov J, Muminov A. A practical course in English Lexicology.- Tashkent: Ukituvchi, 1980.

4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент, ―Ўзбекистон миллий энциклопедияси‖, 2008.- 282 б

5. Butayev Sh. Inglizcha-o‘zbekcha O‘zbekcha-inglizcha lug‘at.-Toshkent: O‘qituvchi, 2013

ZAMONAVIY NOM-TAXALLUSLAR (NICKNAME) HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Sohiba Otaxonova
Urganch davlat universiteti magistranti
Ilmiy rahbar: D.T.Yuldashev filologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda faol iste’molda bo‘lgan zamonaviy nom-taxalluslar (nicknamelar)ning yuzaga kelishi, ularning ayrim ko‘rinishlari, nominatsiyasi, an’anaviy taxalluslar bilan umumiy va farqli jihatlari haqida fikr yuritiladi.

Abstract. This article discusses the emergence of modern nicknames(nicknames) that are in active use today, some of their forms, ways of making them, common and different aspects with traditional nicknames.

Kalit so‘zlar: Psevdonim, nikename, antroponim, abbreviatura, proksonim stigmonim, avtonim, anagramma.

Keywords: Pseudonym, Nikename, Anthroponym, Abbreviation, Proxonym Stigmonym, Autonym, Anagram.

Bugungi globallashuv jarayoni tilning barcha sathlarida o‘z ta’sirini namoyon qilmoqda. Xususan, shu kungacha antroponimlar lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq qilingan bo‘lsa, ularning funksional xususiyatlaridan kelib chiqib, bir qator nolisoniy omillar ham antroponimlarni integratsion shaklda o‘rganish vazifasini talab qilmoqda. Ushbu maqolada antroponimlarning bevosita ko‘rinishi hisoblangan taxalluslar va ularning bugungi kundagi zamonaviy ko‘rinishi hisoblangan “nikename”lar haqida qisqacha fikr yuritiladi.

Psevdonim (yunoncha; pseudos – yolg‘on, onima – ism) – shaxs tomonidan haqiqiy ism o‘rniga (tug‘ilganda berilgan, rasmiy hujjatlarda qayd etilgan) jamoat faoliyatida qo‘llaniladigan uydirma ism . “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da taxallus lug‘aviy birligiga: “Biror ijodkor (shoir, yozuvchi, rassom, olim va sh. k.) yoki siyosiy arbobning o‘zi uchun tanlab olgan boshqa ikkinchi nomi” tarzida izoh berilgan[218]. K.S.Mochalkinaning fikricha, taxalluslar boshqa antroponimik birliklarga nisbatan kattaroq to‘plamdagi funksiyalarning murakkab o‘zaro ta’sirida yuzaga keladi, ya’ni maxsus ezoterik va reklama funktsiyalarini bajarishi bilan boshqa onimlar (ism, familiya, otaism)dan ajralib turadi[219]. T.Qorayev va R.Vohidovlar taxallus so‘zi bir qator tarixiy lug‘atlar, o‘zbek va tojik tilining izohli va ikki tilli lug‘atlarida, she’riyat lug‘ati, adabiyotshunoslik terminlari lug‘atlarida deyarli bir xil izohlanishini aniqlaganlar[220]. Ismailov O‘sarjon Usubjonovich o‘zining “Taxalluslar haqida ayrim mulohazalar” nomli maqolasida “nickname” lar haqida fikr bildirgan[221]. Sh.Nizamova ‘Taxalluslarning lisoniy maqomi” nomli maqolasida taxallus terminiga atroflicha to‘xtalib, uning turli lug‘atlarda berilgan ta’riflariga munosabat bildirgan hamda taxallus va psevdonim terminlarining umumiy va xususiy ma’nolarini izohlagan[222]. Ta’rif va leksikografik izohlarni umumlashtirib, taxallusni quyidagicha ta’riflash mumkin: “Biror ijodkor (shoir, yozuvchi) va san’atkor (rassom, qo‘shiqchi, hofiz, raqqosalar) yoki qisman, olim, siyosiy arboblarning asl ismi bilan birgalikda yoki ularning o‘rnida qo‘llanadigan, shaxsning o‘zi tomonidan tanlab olingan, boshqa ikkinchi nomi”.

---

[218] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-j. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – B.15.

[219] Мочалкина К.С. Псевдонимы в системе современной русской антропонимии: Дис. ... филол. наук. – Волгоград, 2004. – С.7.

[220] Qorayev T., Vohidov B. Taxalluslar. – Toshkent: Fan, 1979. – B.7.

[221].Ономастик бирликларнинг социолингвистик, этнолингвистик, лингвопоэтик, лингвокультурологик тадқиқи масалалари. \\ Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2022. – B.353-361.

[222].Ономастик бирликларнинг социолингвистик, этнолингвистик, лингвопоэтик, лингвокультурологик тадқиқи масалалари. \\ Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2022. – B.267-272.

A.V.Superanskayaning fikriga koʻra, taxalluslar oʻziga xos nomlar turi boʻlib, ular faqat maʼlum darajada haqiqiy ism bilan bogʻliq: agar obyekt oʻz nomiga ega boʻlsa, unda umumiy oti ham boʻlishi kerak. Agar uning taxallusi boʻlsa, u ham haqiqiy oʻziga xos taxallusga ega boʻlishi kerak[223]. Taxalluslarning yuzaga kelishida motivatsion va nominatsion bosqichda taxallus egasining ijtimoiy mavqeyi, yoshi, millati, qiziqish sohasi, tashqi koʻrinish xususiyatlari, madaniy mansubligi, xarakter xususiyatlari, dunyoqarashi, jinsi va boshqalar asosiy ahamiyat kasb etadi. Bular birgalikda va individual ravishda taxallus va uning tashuvchisi oʻrtasidagi munosabatni aniqlaydi.

Vaqt oʻtishi bilan har qanday tushuncha oʻz sathini kengaytiradi yoki butkul yoʻqolib ketishi mumkin. Taxallusni yaratishda lingvistik va ekstralingvistik jihatlar (jins, yosh, ijtimoiy mavqe, shaxsiy xususiyatlar va boshqalar) bir xil darajada muhim belgilar boʻlishi mumkin. Taxalluslarning motivatsiyasi va tarqalish sohasi juda keng boʻlib, madaniyatning anʼanaviy sohalariga (shu jumladan, adabiyotga), siyosatga, kundalik hayot va jamiyat odob-axloq qoidalariga taʼsir qilishi mumkin. Taxalluslar misolida biz oʻz funksional sathini kengaytirgan antroponimik birliklarni koʻrishimiz mumkin. Vaqt oʻtishi bilan taxallus tushunchasi, uning tabiati, shuningdek, omma tomonidan idrok etilishi ham oʻzgardi. Taxalluslarning dastlabki koʻrinishlari antik davrga borib taqalishi, ilk marta qachon va kim tomonidan qoʻllanganligi noma'lum boʻlgan holda bugungi kunda ularning yangi koʻrinishlari vujudga keldi. Oldinlari faqat sanʼat egalari (rassom, shoir, yozuvchilar, qiziqchilar) tomonidan qoʻllanilgan bunday nomlar safiga hozirda "nickname" koʻrinishli nomlar ham qoʻshilgan boʻlib, taxalluslarning oldingi koʻrinishidan keng omma isʼtemolida ekanligi bilan ajralib turadi. "Nickname"larni "zamonaviy nom taxalluslar" termini bilan atash oʻrinli boʻladi. Cambridge lugʻatida "nickname" atamasiga "narsa yoki shaxsning uning jamoatchilik tomonidan qoʻyilgan haqiqiy ismidan farqlanuvchi jamiyatdagi oʻrniga yoxud xarakter xususiyatiga aloqador norasmiy nomi" deb taʼrif beriladi.

Bu atamaning kelib chiqishi XIV asrga borib taqaladi. Dastlab "ekename" (qoʻshimcha ism) atamasi 1303-yilda tasdiqlangan. Bu soʻz qadimgi ingliz tilidagi eac "also" soʻzidan olingan boʻlib, "eacian" (oʻsish) leksemasiga taaluqli[224]. XV asrga kelib "an ekaname" qoʻshilmasi boʻgʻinlarining notoʻgʻri taqsimlanishi uning nickname deb atalishiga olib kelgan va oʻshandan beri bu soʻz nisbatan barqaror isʼtemolda ishlatilmoqda[225]. Nicknamelar baʼzi manbalarda laqablarga yaqin tushuncha sifatida beriladi. Ammo uning nominatsiya jarayonida aynan individning oʻzi tomonidan tanlanishi koʻproq taxalluslar bilan bogʻlashga sabab boʻladi. Ularni taxallusning yangi koʻrinishi sifatida baholashga sabab boʻluvchi bir qancha omillar mavjud:

---

[223] Суперанская А.В. Структура имени собственного. Фонология и морфология А.В. Суперанская. – М.: Наука, 1969. – С.206.

[224] "eke-name, n." (http://www.oed.com/view/Entry/60061), OED Online, Oxford University Press, June 2017, retrieved 1 September 201.

[225] "nickname" (http://www.etymonline.com/index.php?term=nickname), Online Etymology Dictionary, retrieved 2007-08-31.

a) har ikkalasi ham shaxsning asl ismini yashirish – oshkor qilmaslik funksiyasini bajaradi;

b) nominator taxallus yoki nickname egasining o‘zi ekanligi;

c) har ikkisi shaxsning ma’lum yoshga yoki darajaga yetganidan so‘ng tanlanishi;

d) taxalluslar kabi nicknamelarning ham bir yoki birdan ortiq bo‘lishi.

Nicknamelarning yuzaga kelishida eng katta omil ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi va uning foydalanuvchilari sonining jadal sur’atlarda ortishidir. Taxalluslar bilan umumiy jihat har bir induvid o‘zi uchun asl ismidan ko‘ra “qulay” bo‘lgan boshqa bir nomni tanlashidir. Nom tanlanishining motivatsion va nominatsion xususiyatlarini o‘rganishda bevosita shaxs mansub bo‘lgan til va madaniyat muhim rol o‘ynaydi. Shu jihatdan, nicknamelarni nafaqat lisoniy, balki lingvomadaniy tomondan tadqiq etish muhim sanaladi. Bugungi davrda ko‘pchilik o‘z haqiqiy ismidan emas, o‘ziga qulay bo‘lgan boshqa nomdan ism sifatida foydalanadi. Buning tag zaminida nafaqat qulaylik, balki qandaydir mashhurlikka intilish g‘oyasi ham bo‘lishi mumkin. “Demak, nominatorni so‘zning manbasi emas, konseptning ifoda quvvati qiziqtiradi. Ikkinchi bir omil nominatorni apellyativning moddiy qiyofasi jalb qilishidir”[226]. Zamonaviy nom-taxalluslar yuzaga kelishining bir qancha ko‘rinishlari mavjud:

Abbreviatura (qisqartirish) – haqiqiy ismlar va familiyalarni qisqartirish orqali hosil qilingan nom taxalluslar. Bunday ko‘rinishli nom-taxalluslarni shoir va yozuvchilar ijodida uchratar edik. Hajvga olingan tanqidiy asarlarda asosan muallif ism-familiyasining faqat birinchi harflarini qoldiradi. Bu ham taxallusning bir ko‘rinishi bo‘lib, bugungi kunda aynan ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari o‘z haqiqiy ism-familiyasining birinchi harflaridan nickname sifatida foydalanadilar. Bunda shaxs to‘liq bosh harflarni ishlatishi yoki faqat ismining bosh harfidan foydalanishi mumkin. Masalan: Nurjonov Nurbek Azamat o‘g‘li – *N.N.A.*, Sherzod – *Sh.*, Komil Ismoilovich Tursunov – *KIT*, Tolib Usmonovich Zohidjonov – *TUZ* kabilar (barcha misollar ijtimoiy tarmoqlardan olingan).

Avtonim – muallifning o‘z ismi va familiyasi (grek.; avto – o‘zi + onoma – ism) – taxallus sifatida tanilgan real shaxsning familiyasi yoki ismi. Bunday ko‘rinishli nicknamelar asosan rasmiy tarmoqlarda uchraydi. Rasmiy doiralarda ko‘pchilik foydalanuvchilar o‘zining haqiqiy ism-familiyasidan nickname sifatida foydalanadi. Masalan: *Abdullayev Rustam Erkinovich* kabi.

Anagramma – harflarni qayta joylashtirish orqali olingan kriptonimdir. Kriptonim – bu imzo, haqiqiy muallifni yashirish uchun mo‘ljallangan ism. Bunday usulda ism yashirish qadimgi davrlarga borib taqaladi. Bir ism tarkibidagi harflar o‘rnini o‘zgartirish yangi ko‘rinishli ismni hosil qiladi. Bunda yangi hosil qilingan so‘zning leksik ma’noga ega bo‘lishi o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Shakl uyg‘unligi asosiy o‘ringa ko‘tariladi. Masalan: Nasiba – *“Sibana”*, Feruza – *“Ruzafe”*, Dilafruz – *“Afruzidil”* kabi.

[226] Юлдашев Д. Атоқли отларнинг антропоцентрик тадқиқи. Монография. – Тошкент: Sharq ma’rifati nashr-matbaa uyi, 2020. – Б.99.

Nickname tanlayotgan shaxs ba’zan mashhurlar nomlariga murojaat qiladi. O‘zi yoqtirgan qaysidir san’at egasi, sportchi, siyosatchi va boshqa mashhurlar nomini o‘ziga nickname qilib oladi. Ba’zi hollarda mashhurlar nomidan soxta akkauntlar yuritilishi bunday nom tanlashning ijobiy hodisa emasligini ko‘rsatadi.

Apokonim ko‘rinishida nickname tanlashda ism va familiyaning bosh va oxirgi bo‘g‘inlari olib tashlanishi mumkin. Masalan: Zamira – *“Mira”*, Gulnora – *“Nora”*, Gulishabnam – *“Gulish”* kabi.

Kalka – ism yoki familiyani boshqa tilga tarjima qilish orqali hosil qilingan taxallus. Masalan Umida – *“Nadejda”*, Yulduz – *“Zvezda”*, Quyoshxon – *“Solnushka”*, Lolaxon – *“Tulpanushka”* kabi.

Palinonim – berilgan ism va familiyani o‘ngdan chapga o‘qish orqali hosil bo‘lgan kriptonimdir. Bunday ismlar ham nicknamelar orasida uchrab turadi. Murod – *“Dorum”*, Nazokat ismining erkalatish shaklidan – *“Shizan”*, Iroda – *“Adori”*, Ra’no – *“Anor”* kabi.

Yarim allonim (grek.; alzos – boshqa, onoma – ism) – taxallus olish ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, haqiqiy familiya va boshqa birovning ismi birikmasidan tashkil topadi. Bunda nickname tanlayotgan shaxs o‘ziga yoqqan qaysidir ism va o‘z haqiqiy familiyasini birlashtiradi. Masalan: Zilola Musayeva – *Shahzoda* Musayeva, Dilnoza Safarova – *Parizoda* Safarova, Bekzod Haqqiyev – *Nurshod* Haqqiyev, Gulnoza Arslonova – *Bahora* Arslonova, Umida Madrimova – *Afsona* Madrimova kabilar.

O‘ziga nickname tanlashda jamiyatdagi real pozitsiyasi – kasbi, maqomidan foydalanish ham urfga kirgan bo‘lib, asl nomga qo‘shimcha tarzida ularni anglatuvchi leksemalar qo‘shiladi yoki alohida ifodalanadi. Masalan: Lola *singer*, Guli *dressmaker*, Noza *stilist*, Shahriyor *Linguist* kabilar.

Proksonim – muallifga yaqin kishilarning ismlaridan tuzilgan taxallus ma’nosini beruvchi tushunchaga mos keluvchi nicknamelar bugungi kunda ko‘plab uchramoqda. Ayniqsa, ayollar o‘rtasida o‘ziga nickname tanlash jarayonida bevosita farzandlarining ismlariga murojaat qilinishi keng tarqalgan hodisalardan biri sanaladi. Boshqa millat vakillari orasida bunday tarzda o‘ziga nickname tanlash kamdan-kam kuzatiladi. O‘zbek madaniyatining o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida ayollarning o‘z juftiga bevosita farzandining nomi orqali murojaat qilishi nicknamening aynan shu tarzda tanlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ko‘p hollarda ayollar aynan otasining ismidan taxallus olishadi. Masalan: *bintu Ahmad, Bintu Narinboy, Ravshanbek qizi…*

Psevdoandronim (ayol muallif tomonidan qabul qilingan erkak ismi va familiyasi) – bunday ko‘rinishli nicknamelar, asosan, ayollar tomonidan o‘z juftining ism-familiyasiga murojaat qilingan holatda yuzaga keladi: Aruuke Umarova (“Zirapcha” ko‘rsatuvidagi o‘shlik ishtirokchi) – *Humoyun*, Dilbar (“Zirapcha” ko‘rsatuvining 3-mavsum ishtirokchi) – *Dilmurod* kabi.

Stigmonim (tinish belgilari yoki matematik belgilardan tashkil topgan nom) ko‘rinishli nicknamelar ham bugungi kunda ommalashib bormoqda. Kuzatuvlarimiz natijasida shaxsiy sahifasini oddiygina nuqta belgisi bilan

ifodalagan tarmoq foydalanuvchilari ko‘zga tashlanadi. Bunda induvid nafaqat tinish belgi yoki matematik belgilardan, balki kayfiyatni yoki holatni ifodalovchi maxsus belgilardan ham foydalanishmoqda. Ular umumiy nom bilan “smilik” (inglizcha; smile – tabassum) deb yuritiladi. Dastlab o‘z yozma nutqida qulaylik yaratish maqsadida ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari uchun ishlab chiqilgan bunday maxsus belgilar bugungi kunda holat va munosabatni qisqa va qulay ifodalashdan tashqari nickname vazifasini ham bajarmoqda. “+”, “=” belgisining nickname hosil qilishda faol ishtiroki ayrim hollarda ko‘zga tashlanadi. Masalan:

Adham + Rayxon, Rahmon + Dilbar = Yasina kabi.

Kuzatuvlar natijasi ko‘rsatadiki, asosan, yoshlar o‘rtasida inglizcha nomlardan foydalanish ommalashib bormoqda. Ular nafaqat inglizcha ismlar, balki ingliz tilidagi ko‘plab leksemalarga nickname tanlashda faol murojaat qiladilar. Masalan: *diamond, Miss, Misrer D., Lilya, Liil, dili.me* kabilar.

Leksema ko‘rinishdagi birliklar bilan ifodalanuvchi nicknamelar bilan bir qatorda sintaktik qurilmalar orqali ifodalanuvchi shakllar ham uchrab turadi. An’anaviy taxalluslar orasida esa bunday ko‘rinishdagi nomlar deyarli uchramaydi. Ular ko‘rinishidan sintaktkik qurilmadan iborat bo‘lsa ham, vazifaviy jihatdan antroponimik birlik hisoblanadi.

Nicknamelarni lingvokulturologik hodisa sifatida o‘rganish uni o‘z tarkibida belgi, denotatsiya va konnotatsiyani o‘z ichiga olgan maxsus birlik sifatida ko‘rib chiqishni nazarda tutadi. Biroq nicknamelarni idrok etish va o‘rganish uchun aynan konnotativ xususiyat alohida ahamiyatga ega, chunki u muallif bilan bir xil til madaniyati vakili bo‘lgan qabul qiluvchining ongida aks-sado beruvchi qo‘shimcha semantik yoki stilistik funktsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Nicknameni qabul qilishda, nomlanuvchi shaxs, odatda, o‘zini nomlash aktida faol ishtirok etadi. Demak, nickname – bu sun’iy, maqsadli o‘z-o‘zini nomlash natijasidir. Muallif o‘z fikrini yetkazish uchun onomastik leksika imkoniyatlaridan foydalanib, o‘z nuqtayi nazarida eng yaxshi nominatsiya usulini tanlaydi.

Xulosa qilib aytganda, nickname yoki zamonaviy nom-taxalluslar deganda, biz haqiqiy ism bilan bog‘liq bo‘lgan, esda qolish, shaxsiy xususiyatlarni yoki faoliyat turini aks ettirish, zamonasozlik – moda izida quvish kabi maqsadlarga erishish uchun zarur bo‘lgan ibora bilan ta’minlangan uydirma yoki o‘zgartirilgan shaxsiy ismni tushunamiz. Zamonaviy nom-taxalluslar boshqa antroponimlarga nisbatan faol pozitsiyani egallaydi, tarkibiy va funksional ixtisoslashuvi bilan ajralib turadi va faol sun’iy nominatsiyaning namoyon bo‘lishi uchun dolzarb bo‘lgan onomastik leksikon guruhini ifodalaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Мочалкина К.С. Псевдонимы в системе современной русской антропонимии: Дис. ... филол. наук. – Волгоград, 2004.

2. Ономастик бирликларнинг социолингвистик, этнолингвистик, лингвопоэтик, лингвокультурологик тадқиқи масалалари. \\ Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2022.

3. Qorayev T., Vohidov B. Taxalluslar. – Toshkent: Fan, 1979.

4. Суперанская А.В. Структура имени собственного. Фонология и морфология А.В. Суперанская. – М.: Наука, 1969.

5. Юлдашев Д. Атоқли отларнинг антропоцентрик тадқиқи. Монография. – Тошкент: Sharq ma’rifati nashr-matbaa uyi, 2020. – Б.99.

6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-j. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.

7. "eke-name, n." (http://www.oed.com/view/Entry/60061), OED Online, Oxford University Press, June 2017, retrieved 1 September 201.

8. "nickname" (http://www.etymonline.com/index.php?term=nickname), Online Etymology Dictionary, retrieved 2007-08-31.

ERTAK MATNINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Esonov Rustam Raxmonali o‘g‘li
Qo‘qon DPI doktoranti

Annotatsiya Ertakning janr xususiyatlari va uning lisoniy xususiyatlarini o‘rganish muammolari bugungi kunda ham zamonaviy tilshunoslikda yetarlicha o‘rganilmagan. Ertak janrini folklor hodisasi sifatida aniqlash katta muammodir. Shu bilan birga, tilshunoslikda adabiyot mifologiya bilan xalq og‘zaki ijodi orqali bog‘lanadi, degan fikr qabul qilinadiki, u aslida asrlar madaniy makonida qadimgi va zamonaviy san’at o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘indir.

Kalit so‘zlar: mif, arxetip, ertak turlari, madaniyat, xalq, janr, qahramonlar, xususiyatlar.

Abstract. Genre features of the fairy tale and the problems of studying its linguistic features are still not sufficiently studied in modern linguistics. Defining the fairy tale genre as a folklore phenomenon is a big problem. At the same time, in linguistics, it is accepted that literature is connected with mythology through folklore, which is actually a connecting link between ancient and modern art in the cultural space of centuries.

Key words: myth, archetype, fairy tale types, culture, folk, genre, characters, characteristics.

Badiiy adabiyot ertakning o‘ziga xos xususiyatidir. U o‘ziga xos, sehrli dunyoni shakllantiradi, unda hamma narsa o‘z qonunlariga muvofiq sodir bo‘ladi. Ba’zi ertaklar dastlab miflarga asoslangan bo‘lib, ularga sehrli ma’no berilgan. Ilon yoki ajdaho ustidan jang va g‘alaba, o‘gay ona va o‘gay qiz o‘rtasidagi munosabatlar, sehrli narsalarni olish va boshqalar haqidagi ertaklar butun dunyo bo‘ylab mashhurlikka erishganini esga olish kerakki, ertakda tasvirlangan voqealar shunchaki real emas haqiqiy hayotda. V.Ya.ning fikricha. Propp, ertak bizning real hayotimizni juda oz aks ettiradi va haqiqatdan ertakga aylangan hamma narsa “ikkinchi darajali shakllanish” xarakteriga ega [Propp 1986].

Ertakda inson tafakkurining eng qadimiy shakllarini ko‘rish mumkin: uning poetikasi boshqacha tarzda tashkil etilgan va arxaik tafakkur bilan izohlangan. Har bir inson ma’lum bir jamiyat va madaniyatga tegishli bo‘lib, shu bilan birga madaniyat o‘ziga tegishli ekanligini his qiladi. Til, o‘z navbatida, insonga tegishli.

Ma’naviy ijodning rivojlanishi matnlarning erkin tuzilishi va kompozitsiyasida yotadi. Shunday qilib, matn ko‘paytirilishi mumkin bo‘lgan va umuman ushbu madaniyat tashuvchisi uchun tushunarli ma’noga ega bo‘lgan belgilar yoki tasvirlar ketma-ketligidir. Og‘zaki san’atning qadimiy turlari, asosan, she’riy, asosan marosim va marosimlarni bajarish uchun ishlatilgan. Mifologiya she’riy fantaziya uchun asos bo‘lganiga shubha yo‘q, chunki afsona ham, she’riyat ham ramziylikka yot emas. Ushbu she’riy shakllarda atrofdagi dunyoni tushunish, odatda, aniq majoziy ma’noni va shaxsiy, individual xususiyatni keltirib chiqaradi;

Mifologik tafakkurning o‘ziga xosligi muammosi birinchi marta XIX-asrda L. Levi-Brull tomonidan ko‘tarilgan. Uning ibtidoiy tafakkurga oid asarlari bir paytlar K.G. Miflar va jamoaviy arxetiplari o‘rtasida parallellik yaratgan Jung. “Arxetip” atamasining o‘zi miyada ongsiz ravishda ko‘paytiriladigan va dastlab fikrlash faoliyatini tashkil etuvchi tasvirlarning asosiy naqshlarini nazarda tutgan. Shu sababli ularning eng qadimgi arxetiplari afsona va e’tiqodlarda, adabiyot va san’at asarlarida ochib berilgan. K.P.ning fikrlariga ko‘ra. Estes, “ertak va she’r tili – vahiy va orzu tilining qudratli.

Bu haqiqatdan ularning eng qadimiy arxetiplari afsona va e’tiqodlarda, shuningdek, adabiyot va san’at asarlarida ochib berilgan. K.P.ning fikrlariga ko‘ra. Estes, “ertak va she’r tili – vahiy va orzu tilining qudratli birodaridir... Barcha orzular, ertaklar, she’r va san’at to‘qnash kelgan o‘sha qalb maskani – instinktiv va yovvoyilarning sehrli maskani. tabiat. Hozirgi xalqlar orzularida yoki zamonamizning she’riy asarlarida, shuningdek, qadimiyroq folklor asarlarida bu markaz o‘z hayotini o‘tkazuvchi alohida mavjudot sifatida qaraladi” [Estes 2007:].

Turli etnik guruhlarning ertaklarini o‘rganish jarayonida etnik xarakterdagi arxetip va stereotiplarni o‘rganish ayniqsa istiqbolli va dolzarb ko‘rinadi. Tabiatan bir xil bo‘lgan arxetipal qadimiy tasvirlar va motiflar ko‘rinishda tegmaydigan mifologiya va san’at sohasida mavjud bo‘lib, ularning paydo bo‘lishini qarz olish orqali tushuntirishga urinishni istisno qiladi. Afsona ertakga aylanishi uchun deritualizatsiya va desakralizatsiya kabi jarayonlarning mavjudligi, shuningdek, personajni demitologiyalash va uni an’anaviy ravishda qabul qilingan ertak fantastika va hozirgi e’tiqodlardan ajratish kerak

Tilshunoslikda arxetip deganda, odatda, madaniyatda ifodalangan minimal strukturaviy hodisalar majmui tushuniladi. Madaniy aspektda arxetip matnlar bilan birga o‘rganiladi va o‘ziga xos kognitiv model bo‘lib xizmat qiladi. Demak, madaniyat arxetiplari uning asosiy elementlari bo‘lib, ma’naviy hayotning kuchli modellarini tashkil qiladi. Madaniy arxetiplarning mazmuni madaniyatdagi tipikni tashkil qiladi, chunki Ular ob’ektiv va ko‘p hollarda qo‘llaniladi. Arxetiplar tushunchasi barcha etnik va tipologik xilma-xillikda mifologik syujet va motivlarni lingvistik izlanishdir, ular ushbu syujet va motivlar orqali metaforik tarzda ifodalanadi. K.Yung tomonidan aniqlangan ana shunday klassik arxetiplardan biri “dono chol (kampir)” obrazidir – bu tartibsizlik ortida yashiringan ruh arxetipi, hayot mazmunidir. U madaniyatda dono sehrgar yoki shaman tasvirlarida tasvirlangan. Masalan, ona (ayol) mifologiyasi turli xil versiyalarda berilgan:

Demeter, Baba Yaga, ma’buda, jodugar, bu eng yuqori ayol mavjudotning arxetipini aniqlashga yordam beradi, avlodlar o‘zgarishining psixologik hissiyotini aks ettiradi, shuningdek sehrli ertaklar syujetiga xos bo‘lgan vaqt va o‘lmaslik kuchini yengish [Epoeva 2007:].

Bir tomondan, arxaik ertak yoki qahramonlik ertaklaridagi barcha syujetlar miflar bilan aniq aloqadorligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, ular Yevropa va Osiyo ertaklarining asosiy syujet turlari uchun prototip bo‘lib xizmat qilgan. Ertakning kontseptual ma’nolarini to‘liq moslashtirish nazariy jihatdan faqat butun insoniyat madaniyatining eng qadimiy tasvirlarini, shu jumladan "uy", "vatan" kabi qadimiy arxetip obrazlarini qayta ko‘rib chiqishni ta’minlaydigan maxsus badiiy dunyoqarash sharoitida mumkin. “er”, “taqdir”, “kechirim”, “sevgi”, “ozodlik”, “ona”, “hayot”, “o‘lim”, “jasorat” va boshqalar.

Binobarin, arxetip inson va uning atrofidagi dunyo o‘rtasidagi munosabatlar tizimidagi bog‘lovchi elementdir, chunki inson bu dunyoni o‘z ijodida, masalan, ertakda takrorlashi mumkin. Ertakning badiiy ma’nosini uning voqelik syujeti va matnini tashkil etuvchi o‘ziga xos lingvistik vositalar bilan bog‘liq holda o‘rganish kerak.

Ertak individual madaniy tushunchalarni amalga oshirishning o‘ziga xos sohasi hisoblanadi, bu dunyoni o‘zlashtirish, uni inson tajribasi uchun yodlash usullaridan biridir va bu erda ustunlik qiluvchi soha “Sehr” tushunchasidir. Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan, ertak lug‘atining milliy o‘ziga xosligi, ma’lumki, uchta leksik-tematik ta’sir natijasida shakllanadigan “Sehr” tushunchasini so‘zlashuvning maxsus shartlaridadir.

Umuman olganda, ertak semantik jihatdan ko‘p qirrali bo‘lib, tashqi tomondan u oddiy va murakkab bo‘lmagandek tuyuladi, lekin uning ichida chuqur, qandaydir yashirin mazmun bor; Ertakda qadimgi jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, uning urf-odatlari, e’tiqodlari aks ettirilgan bo‘lib, undan insoniyat tafakkuri qanday rivojlanganligini o‘rganish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гасанова Диана Султангусеновна. Лингвокультурологические и структурно-семантические особенности языкасказки (на материале лезгинского, Русского и английского языков). 2013

2. Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказкиЛ.,1986.

3. ЭстесК.П. Бегущая с волками.М.,2007

4. Эпоева Л.В. Образны ехудожественные средствавязыке волшебнойсказки // КультурнаяжизньЮгаРоссии.2007.

UMUMISTE’MOL SO‘ZLARI VA MAXSUS LEKSIKADA OMONIMLIK MUNOSABATI

Qarshiboyeva Yulduz Baxtiyor qizi
Guliston davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada terminlar va umumtil lug‘aviy birliklari doimo o‘zaro munosabatda bo‘lishi, ular biri boshqasiga o‘tib turishi, natijada umumtil

leksikasining rivojiga terminologik tizim, terminalogik tizim rivojiga umumtil leksikasi munosib hissa qo‘shishini ko‘rishimiz mumkin.

Abstract. In this article, we can see that terms and universal lexical units are always interrelated, one of them passes to the other, as a result, the terminological system contributes to the development of the universal lexicon, and the universal lexicon makes a significant contribution to the development of the terminological system.

Kalit so‘zlar: termin, omonimiya, ichki omonim, tashqi omonim, maxsus leksika, umumiste’mol so‘zlar.

Keywords: term, homonymy, internal homonym, external homonym, special lexicon, commonly used words.

Termin – so‘zning funksional-semantik ko‘rinishidir. Terminning material tomoni so‘z yoki so‘z birikmasidan tarkib topadi. Biroq so‘z va termin o‘zaro farq qiladi. Bu farq shundaki, so‘z umumxalq Mulki, u til jamoasining hamma ijtimoiy qatlamlari uchun bir xil xizmat qiladi. Termin esa til jamoasining ayrim- ayrim ijtimoiy qatlamlari foydalanishi uchun xoslangan bo‘ladi. Terminlar va umumtil lug‘aviy birliklari doimo o‘zaro munosabatda, ular biri boshqasiga o‘tib turadi.Natijada umumtil leksikasining rivojiga terminologik tizim, terminologik tizim rivojiga umumtil leksikasi munosib hissa qo‘shadi.[Berdialiyev A. 2021, b.130] Masalan, ma’nolarida maxsuslashish, ixtisoslashish yuz berishi tufayli, umumtil mulki sanalgan *barmoq, bo‘yin qanot, quloch, qadam(texnikaga doir)* singari lug‘aviy birliklar o‘zbek terminologik tizimi birligiga ham aylangan. Shuningdek, terminologik sistemadagi *kosmos, kosmonavt, kosmik kema, radio, telefon, mashina, traktor, Respublika, institut, universitet, televizor, kompyuter, sport* singari so‘zlarning ma’olaridagi ixtisoslashganlik, maxsuslashganlik xususiyatining ijtimoiy hayotda ommalashuvi o‘laroq, bir qancha so‘zlar hozirgi o‘zbek umumtili mulkiga aylangan.

Terminologik tizimda terminlarning shakldoshligi, ya’ni omonimiyasi alohida xususiyatlari bilan ajralib turadi. Terminlar omonimiyasining bir ko‘rinishida umumxalq tiliga mansub oddiy so‘zlar bilan biron-bir fanga va uning tarmog‘iga xos tushunchalarning nomi bir shaklga ega bo‘ladi. Masalan, *assimilyatsiya* shaklidagi lug‘aviy birliklar tilshunoslik, botanika, etnografiya; *yadro* shaklidagi lug‘aviy birliklar fizika, botanika, matematika, tilshunoslik fanlari doirasidagi tushunchalar nomi sifatida xizmat qiladi. [И. Эрматов 2022, б. 24]

Terminologik tizimda terminlarning shakldoshligi alohida xususiyat kasb etadi. Terminologik tizimga xos omonimlikning ikki ko‘rinishi mavjud:

a) tashqi omonimlik;
b) ichki omonimlik.

Tashqi omonimlik deganda, biz shakldosh lug‘aviy birliklardan birining umumxalq tiliga, boshqasining terminologik tizimga mansub bo‘lishligini; **ichki omonimlik**da esa shakldoshlik xususiyatiga ega lug‘aviy birliklar har ikkisining ham terminologik tizimga xosligini nazarda tutamiz. Terminologik tizim doirasidagi **tashqi omonimiya**ning bir ko‘rinishida ayni bir lug‘aviy birlik har

xil fan va ularning muayyan tarmog‘iga xos tushunchalar nomini bildiradi. Masalan, o‘zaklug‘aviy birligi tilshunoslik, botanika, fiziologiya, tibbiyot; assimilyatsiyalug‘aviy birligi tilshunoslik, botanika, etnografiya; yadro lug‘aviy birligi fizika, botanika, matematika, tilshunoslik fanlari doirasidagi tushunchalar nomi sifatida xizmat qiladi. Bu lug‘aviy birliklar anglatgan tushunchalar va ularning ma’nolari munosabatida hech bir aloqadorlik yo‘q. Bugunga qadar so‘zlar shakl (nomema) va ma’no (semema) munosabati asosida omonim, polisemantik, sinonim, antonim, paronim kabi turlarga ajratib kelinmoqda. Aytish mumkinki, nomema -semema munosabati bo‘yicha ajratilgan so‘zlar guruhlarining nomema aspekti bo‘yicha ham o‘z yechimini kutayotgan masalalar anchagina. Masalan, sinonim so‘zlar tovush tomonlarining har xillik darajalarini aniqlash, polisemiyadan omonimiya hosil bo‘lishida nomema talaffuzining juz’iy farqlanishiga intilish holatini o‘rganish, paronim so‘zlar nomemalarining farqlilik darajalarini belgilash, mustaqil so‘z turkumlari nomemalarining grammatikalizatsiya va leksikalizatsiya natijasida o‘zgarishlarga yuz tutishini tadqiq etish lozim. Umuman olganda, terminologiyada omonimlik hodisasi maqbul, me’yoriy holat hisoblanmaydi. Lekin terminologiyalararo omonimiyaga yo‘l qo‘yiladi, chunki bundagi omonimlarning har biri o‘z terminologiya tizimida o‘ziga xos definitsiyaga, lug‘atda esa o‘ziga xos izohga ega bo‘ladi. Masalan, lug‘atda berilgan **pilla I**(q. x.) va **pilla II**(tib.) omonimiyasini yoki **reaksiya I**(psxl tib.) va **reaksiya II**(siyos.) omonimiyasini hamda ularning izohlarini qiyoslab ko‘rish mumkin. Omograf terminlar ham boshqa-boshqa so‘z sifatida bosh so‘z qilib berildi, faqat ularning talaffuzdagi farqi urg‘u yordamida ko‘rsatildi. [Madvaliyev A 2017, b.198].Omonim terminlar yozilishi va o‘qilishi bir xil, ammo turli sohalarda turli ma’nolarni ifodalaydigan terminlarni ifodalovchi birliklar deb izohlash maqsadga muvofiq. Ko‘plab soha terminlarida omonimiya hodisasi nutqiy voqealanadi.

Umumadabiy leksik birlikning terminlashuv jarayoni natijasida omonimlashish sodir bo‘ladi, ya’ni yangi ifodalanmish uchun ilgaridan ma’lum bo‘lgan qobiqdan foydalaniladi. Shaklan o‘xshash terminlarning turli fan sohalari terminlogiyasida qo‘llanib, omonimik qatorlarni yuzaga chiqarishi ehtimoldan xoli emas. Chunonchi, *boks I*-sport, boks; *boks II*-tib. boks, alohida xona; *giperbola I*-til. mubolag‘a; *giperbola II*-mat. giperbola (konus kesimlaridan biri); *morfologiya I*-til. grammatikaning so‘z turkumlari haqidagi bo‘limi; *morfologiya II*-tib.; biol. odam va hayvon tanasidagi organlar va to‘qimalar shakli hamda tuzilishini o‘rganadigan fan; *konvergensiya I*-biol. turli organizmlarda bir xil tashqi muhit ta’sirida o‘xshash belgilarning paydo bo‘lishi; *konvergensiya II*-fiz. ikkala ko‘z o‘q chizig‘ining bir nuqtada uchrashuvi; *konvergensiya III*-tib. o‘xshashlik, yaqinlik; *konvergensiya IV* -til.-birdan ortiq tovushning tarixiy taraqqiyot natijasida bir tovushga birlashishi; *bo‘z I*-mato turi; *bo‘z II*-o t turi (rangi bo‘yicha); *bo‘z III*-cho‘l, dasht, yobon; *bo‘z IV*-bot. tuklikovil; *assotsiatsiya I*-psix.

muayyan sharoitda psixologik hosilalar orasida paydo bo‘ladigan aloqa; *assotsiatsiva II*-biol. tuzilishi va turlari bir xil fitotsenozlar majmui; *assotsiatsiya III*-kimyo. molekulalar yoki ionlaming molekulalararo elektr tabiatli harakat kuchi ta’sirida guruhlarga bo‘linishi; *assotsiatsiya IV* -siyosiy uyushma, birlashma; *assotsiatsiya V*-til. til birliklarining shakli yoki mantiqiy-semantik belgisiga ko‘ra o‘zaro birlashishi va h.k. Bu yerda giperbola, morfologiya, konvergensiya, assotsiyatsiya terminlari **ichki omonimiya**ni tashkil etmoqda. Shunga o‘xshash holat tibbiyot, tilshunoslik va boshqa sohalarda qo‘llanayotgan konversiya, substansiya, substitutsiya, transformatsiya kabi omonimlar qatorida ham aksini topgan.[Dadaboyev H. 2020, b. 93]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, omonimiya hodisasi va omonimlarni yaxlit holda tahlil qilish, omonim terminlarni topish va o‘rganish tilshunoslik fanining dolzarb muammolaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ermatov I. Termin va so‘z munosabatidagi ayrim mushtarak va nomushtarak jihatlar haqida / Ilm sarchashmasi. Urganch-2020, 8-son. -B. 66-67.

2. Dadaboyev H. O‘zbek Terminologiyasi. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. –B. 93.

3. Madvaliyev A. O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. Toshkent-2017. –B.198.

4. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания,-М.,: Наука, 1977. –С27.

5.И.Эрматов Терминология тизимида гиперо- гипонимик ва эквонимик муносабатлар. Тошкент: “TAMADDUN”, 2022. – B. 24-60.

6. www.ziyonet.uz.

7. Ne’mat Mahkamov, Ixtiyor Ermatov. (2013) Tilshunoslik terminlarining Izohli lug‘ati. T: Fan nashriyoti.

8. Mirtojiyev M. (1963) O`zbek tilida leksik omonimlarning vujudga kelishi: Filol.fan.nomzodi diss. … avtoref. – Toshkent. 23-bet.

LEKSIK SINONIMIYA VA SO‘Z MA’NOVIY MUQOBILI LISONIY ATAMALARINING TAHLILI XUSUSIDA

Shoxruhbek Umidjonov
O‘zMU magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada leksik sinonimiya va so‘z ma’noviy muqobili tushunchalari lisoniy-mantiqiy tomondan o‘zbek tli manbalari misolida tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: sinonimiya, leksik sinonimiya, so‘z ma’nodoshi, ma’noviy muqobillik.

Abstract. In this article, the concepts of lexical synonymy and related words are analyzed from a linguistic point of view using the example of Uzbek language sources.

Key words: synonymy, lexical synonymy, synonym, semantic alternative.

Biz mazkur ilmiy-metodik axborotda tayanch nuqta sifatida “lug‘aviy sinonim” va “so‘zning ma’noviy muqobili” tushunchalarini tadqiq etishga harakat qildik.

Ma’lumki, ma’nodosh so‘zi va u ifodalaydigan tushuncha o‘quvchilarga ancha yaqin va tanish bo‘lib, ular tomonidan tez qabul qilinadi. Bu tushuncha matn bilan bevosita aloqador bo‘lib, ma’lum bir matnda ayni bir narsa, belgi, harakat, holat, miqdorni turlicha atash vositasi majmuasini tashkil etadi. Chunonchi, quyidagi matnni olib ko‘raylik: *Bahor bu yil yurtimizga juda kech kirib keldi. Fasllar kelinchagi hammaning qalbiga olam-olam quvonch olib kiradi. Ha, u fasllar ichida eng go‘zal fasl. Ko‘klamda olam uyg‘onadi, bobodehqon erga baraka urug‘ini qadaydi, issiq o‘lkalarga uchib ketgan qushlar yana o‘z inlariga qaytadilar. Uyg‘onish, yasharish fasli-bahor ana shunday ne’matlarga boy* (So‘zlashuv uslubidan).

Ushbu matnda *bahor*, *u*, *fasllar kelinchagi*, *ko‘klam*, *uyg‘onish*, *yasharish fasli* kabi so‘z va so‘z birikmalari shu matnda ayni bir tushunchani atab, nomlab kelyaпti. Ona tili ta’limi jarayonida tilshunoslikning sinonim tushunchasiga tayansak, yuqorida ko‘rsatilgan matnni umuman yarata olmaymiz. Zeroki, *bahor, u, fasllar kelinchagi, ko‘klam, uyg‘onish, yasharish fasli* singarilar bir-biri bilan mutlaqo sinonim emas, balki shu matnda bir-birini bemalol almashtira oladigan so‘z va birikmalardir. Chunki ular ma’lum bir nutq sharoitida ayni bir narsani atab, nomlab keladi, nutq ravonligini, uning ta’sirchanligini ta’minlaydi, boshqacha aytganda lingvistik sinonim bajaradigan barcha vazifani bajara oladi.

Biz matn tuzish va tahrirlash jarayonida so‘zni uning sinonimlari bilan almashtirishni tilshunoslik fani nuqtai nazaridan bolalarga o‘rgatsak, ularni tilning ichki qonuniyatlariga zid yo‘nalitirgan bo‘lamiz. Til tilshunoslik qonuniyatlari asosida yashamaydi, nutq tilshunoslik qonuniyatlari asosida bunyod etilmaydi, aksincha, tilning yashash qonuniyatlari uning matn qurish, nutqning rang-barangligi ta’minlash imkoniyatlari tilshurslik fanida o‘rganilishi va shu fanda aks ettirilish lozim. Modomiki, *Karim Toshkentdan xursand bo‘lib keldi. U bizga noytaxtdan xushxabar olib qaytdi* matnida *Karim = u*, *Toshkent = noytaxt* bo‘la olar ekan, munosabatlardan uzilgan holda abstrakt (mavhum) sifatida olingan *Karim* va *u* , *noytaxt* va *Toshkent* so‘zlarining lug‘aviy ma’nosi orasida hech qanday aloqa yo‘q, deb ular orasidagi ma’nodoshlik, qiymatdoshlik va vazifadoshlikni inkor etish til qonuniyatlariga zid borishdir. Til o‘rni bilan *Karim* so‘zini *u* so‘zi bilan, *Toshkent* so‘zini *noytaxt* so‘zi bilan ma’nodosh va vazifadosh yoki qiymatdosh, ya’ni semantik jihatdan, funkцional jihatdan, bir-biriga teng qo‘yadi hamda bu tenglikni nutqda keng foydalanadi. Tilshunoslik fanida bu hodisaning lisoniy asoslari atroflicha o‘rganilgan. Fanimizda kompонent tahlil usuli keng ommalashgan. Chunonchi, *noytaxt* hamda *Toshkent* so‘zlari orasidagi umumiylik shundaki, *Toshkent* so‘zining semantik strukturasida *“O‘zbekistonning noytaxti”* semasi mavjud. Mana shu asosda *noytaxt* va *Toshkent* so‘zlari ma’lum matniy sharoitda bir-biriga qiymatdosh, vazifadosh yoki ma’nodosh bo‘la oladi. *Karim* va *u* so‘zlarining o‘zaro qiymatdosh yoxud ma’nodosh bo‘la olishiga asos

shundan iboratki, *Karim* so‘zida ham, *u* kishilik olmoshida ham *shaxs* semasi mavjud va ma’lum matniy sharoitda ko‘rsatish olmoshi yoki kishilik olmoshi istagan atoqli ot yoki turdosh otni alamashtira oladi.

Shuning uchun olmoshlarni bo‘sh idishlarga qiyoslaymiz. Bo‘sh shisha idish ichiga qaysi rangdagi suyuqlik quyilsa, shisha idish shu rangni olganidek, olmosh ham muayyan nutq sharoitida matndagi qaysi so‘zga ishora qilib, uni almashtirgan bo‘lsa, o‘sha so‘zga qiymatdosh, vazifadosh yoxud ma’nodosh bo‘lib keladi. Yuqorida keltirilgan matnda *u* kishilik olmoshi *Karim* so‘ziga ishora qilib kelmoqda va bu matnda ushbu olmosh *Karim* so‘zining ma’noviy qiymatdoshidir.

Biz munosabatga kirishmagan *u* va *Karim* so‘zlarini yoxud *oq oltin* va *naxta* so‘zlarini lingvistik sinonimlar sifatida baholash tarafdori emasmiz. Xuddi shuningdek, *tashvish* va *boshog‘riq* kabi lisoniy birliklarni biri-biriga lingvistik sinonim deb baholash fikridan yiroqmiz, biroq nutqda har bir betda, har bir satrda bunday birliklarning bir-birin bemalol almashtirishi, bir-biriga qiymatdosh, vazifadosh va ma’nodosh ekanligidan ko‘z yumolmaymiz.

Til qonuniyatlari asosida matnda ma’nodosh, qiymatdosh yoxud vazifadosh bo‘la oladigan, ya’ni biri o‘rnida ikkinchisi bemalol qo‘llana oladigan hodisalarni birgalikda tahlil qilsakkina, so‘zning barcha ma’nodoshini, qiymatdoshnini va ular orasidagi nozik uslubiy va ma’noviy farqlarni o‘quvchiga etkaza olamiz. SHundagina o‘quvchiga keng iste’mol so‘zlar, ilmiy atama, xususiy qo‘llanishli so‘z, парafraza, frazema, olmosh va hokazo vositasida atalgan borliqdagi ayni bir voqelik nomlarida qanday nozik ma’no va vazifalar yashiringanligini tushuntira olamiz.

Ko‘rinib turibdiki, “so‘zning ma’noviy muqobili” tushunchasi “sinonim so‘zlar” tushunchasiga qaraganda ancha kengdir. Nutqiy ehtiyoj tufayli yuzaga kelgan bu tushuncha ham sof lingvistik sinonim, ham frazema, ham ilmiy atama, ham qo‘lashi chegaralangan, ixtisoslashtirilgan atov so‘z va so‘z birikmalarini o‘z ichiga oladi.

Tahlildan kelib chiqadigan ilmiy xulosa shundan iboratki, ona tili ta’limi jarayonida so‘z va uning ma’noviy muqobillari ustida ishlash yaxlit пedagogik tizimni tashkil etmaydi. O‘qituvchilar ko‘п holda bu masalaga faqat “Leksika” bo‘limini o‘qitishda e’tibor qaratadilar, xolos. O‘quvchilar nutqini so‘z va uning ma’noviy muqoillari bilan boyitish, bu so‘zlardan nutqiy faoliyatda to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish yaxlit bir metodik tizimni tashkil etmaydi. Shuni unutmaslik lozimki, so‘zning ma’noviy muqobillari(qiymatdoshlari, vazifadoshlari) ustida ishlash ona tilining barcha bo‘limlarini o‘qitishda shu bo‘limlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich amalga oshirilsa, u samarali bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ne’matov H., Rasulov R. *O‘zbek tili sistem leksikologiya asoslari*. –- Toshkent: O‘qituvchi. 1995. – 130 b.

2. Yigitaliyev U., Umidjonov Sh., Solijon-zoda X. Til – millatning tarixiy-madaniy merosi sifatida// FILOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI

MAVZUSIDAGI *X A L Q A R O ILM IY-AMALIY ANJUM AN M ATERIALLARI. (FarDU, 4-noyabr 2023) – Farg‘ona,2023. –B.152-155.*

3. *Yigitaliyev U., Umidjonov Sh.* THE ROLE OF SYNONYMY AND ANTONYMY PHENOMENA IN THE CHAIN OF GRADUAL RELATIONS WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL. ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issie 3, Mar., 2023. –P.894-896.

4. Yigitaliyev U. O‘zbek tilida konseptning assotsiativ-verbal tadqiqi. (Monografiya). –Toshkent: Lesson-press, 2023. – 130 b.

5. Yigitaliyev U., Umidjonov Sh., Solijon-zoda X. Tushuncha, konsept, so‘z ma’nolari talqini xususida // Qo‘qon DPI ILMIY XABARLAR jurnali. 2023-yil, 4-son. –B.352-358.

6. O‘zbek tili leksikologiyasi. –T.: Fan, 1981. - 314 b.

JAHON REKLAMA MATNLARINING TILSHUNOSLIKDA O‘RGANILISHI

Qo‘shmurodova Dilafro‘z Ikromjon qizi
O‘zMU magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolamizda reklama matnlarining jahon tilshunosligida qaysi xususiyatlari o‘rganilganligi, ularni o‘rganish jarayonida nimalarga e’tibor qaratilganligi haqida mulohazalarimizni keltirib o‘tdik. Til xususiyatlarining reklama uchun ahamiyati ko‘rib chiqildi. Reklama tilidagi qanday xususiyatlar tilshunoslarning diqqatini tortganligi, ularni o‘rganish jarayonida qanday xulosalarga kelingani haqida mulohazalar bildirildi.

Kalit so‘zlar: Reklama matni, sotsiolingvistik, psixolingvistik, semiotik, lingvistik, pragmatic, gender jihat.

Annotation. In this article, we have given our opinion about the features of advertising texts studied in world linguistics, what is focused on during their study. The significance of language features for advertising is considered. Comments were made about what features of the advertising language attracted the attention of linguists, and what conclusions were reached during their study.

Key words: Advertising text, sociolinguistic, psycholinguistic, semiotic, linguistic, pragmatic, gender aspect.

Reklama iqtisodiyotning o‘rganish obyekti bo‘lishiga qaramay, oxirgi vaqtda u tilshunoslikning ham obyektiga aylanib bormoqda. Reklama matnlarida lingvistik vositalar qo‘llanganligi tufayli tilshunoslar uni tahlil qilish muhim deb hisoblashmoqda. Reklama matnida tilning ahamiyatini o‘rganish va shu orqali reklamaning ta’sir kuchini oshirish, samaradorligini o‘stirish ko‘zlanmoqda. Reklama matni dastlab jahon tilshunosligida o‘rganila boshlangan. Jahon tilshunosligida reklama tadqiqiga doir ishlar tahlilini quyidagi aspektlarda o‘rganilganligini kuzatishimiz mumkin:

1. Sotsiolingvistik;
2. Pragmalingvistik;
3. Lingvokulturologik;

4. Qiyosiy-tipologik[227].

Reklama matnlarini dunyo tilshunosligida sotsiolingvistik xususiyatlarini o‘rgangan olimlardan biri bu - Y.Farbi. U o‘zining “Muvaffaqiyatli reklama qanday yaratiladi” asarida hayotimizda reklamaning bajargan vazifalari, lingvistik birliklarning reklama matni uchun ahamiyati kabi xususiyatlarini o‘rgangan[228].

A.Silke esa, reklamadagi tasvir elementlarini vazifasiga ko‘ra quyidagilarga ajratadi: asosiy tasvir (Key-Bisual), o‘ziga jalb qiladigan tasvir (Satch-Bisual) va fondagi tasvirlar (Fosus-Bisual)[229]. Ko‘rinib turibdiki, reklamadagi har bir element so‘zlaydi. Bu orqali o‘zining manipulatsiya qilish kuchini amalga oshiradi.

Dunyo tilshunosligida reklama matnlarini semiotik jihatdan o‘rgangan olimlardan biri Ch.Morris hisoblanadi. Olim reklama matnidagi belgilarning to‘rt turini farqlaydi:

1. Designatorlar – axborot beruvchi belgilar.
2. Apireyzerlar – baholovchi belgilar.
3. Preskriptorlar – reaksiya hosil qilishga yo‘nalgan belgilar.
4. Formatorlar – yordamchi va tuzuvchi belgi-bog‘lamalar[230].

Belgilar bizning hayotimiz bilan chambarchas bog‘langanligi tufayli ularni har jabhada kuzatishimiz, qo‘llashimiz mumkin. Har qaysi sohadagi belgining ma’lum ma’nosi va axboroti bo‘lgani kabi reklamadagi belgilar ham ba’zi funksiyalarni bajaradi. Shu xususiyatlarni inobatga olib Ch.Morris uni tasniflaydi. Bu tasnif reklama matnidagi belgilarning vazifalarini tushuntirishga xizmat qiladi. Reklama matnidagi belgilar ma’lum lingvistik vositalar orqali so‘zlaydi. Bu jarayonni bevosita psixolingvistika bilan bog‘lasak xato bo‘lmaydi. Psixolingvistikadagi kodlash va dekodlash jarayoni bu holat uchun to‘liq mos keladi. (Kodlash (encode) – jumlani hosil qilish.Dekodlash (decode) – jumlani tushunish).

P.Nikolayevichning “Reklama matnlarining psixolingvistik ta’siri” dissertatsiyasida reklama matnlarining psixolingvistik xususiyatlari yoritilgan bundan tashqari, tadqiqotchi qabul qiluvchining ongiga ta’sir qilish yo‘llarini, idrokning o‘ziga xos xususiyatlarini amaliy o‘rgangan, bu jarayonda metaforalardan foydalanish, metaforalashtirilgan matnlarning samaradorligini aniqlagan, verbal va noverbal matnlardan foydalanish, bu ikki matn turining aralashishi, shu orqali reklama matnlarining ahamiyat darajasini oshirishi, reklamada katta assotsiativ kuch, estetik qiymat va semantik xilma-xillik mavjudligi, reklama matnlarini yaratishda psxolingvistik xususiyatlarni inobatga olish zarurligi 217 kishidan olingan tajribada asoslanadi, tasvirlar va so‘zlar

[227]Botirova M. Jahon tilshunosligi va turkologiyada reklama tadqiqiga oid ishlar tahlili// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Iyun. 2023.

[228] Фарби Э.Д. Как создать успешную рекламу. - Санкт-Петербург: Нева, 2004. –С.13.

[229] Zielke A. Beispiellos ist beispielhaft oder: Uberlegungen zur Analyse und zur Kreation des kommunikativen Codes von Werbebotschaften in Zeitungs- Zeitschriftenanzeigen. - Pfaffenweiler: Centaurus-Verl.-Ges., 1991. - S 74-126.

[230]Shamsiyeva M. Reklama matnining psixolingvistik xususiyatlari// Metodist – I. – Toshkent, 2017.

yordamida pragmatik muammolar hal qilinadigan asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida reklama ko‘rsatiladi. Reklama matnlarini kreollashtirilgan holda o‘rganadi. Kreollashtirilganlik deganda, resipiyentga ta’sir o‘tkazish maqsadida verbal hamda noverbal shakllarning uyg‘unlashtirilishi tushuniladi. Bu tushuncha fanga Yu A.Sorokin va E.F.Tarasoualar tomonidan kiritilgan. P.Nikolayevich dissertatsiyasining nazariy ahamiyati, kreollashtirilgan matnlarning maxsus turini aniqlashda, reklamaning turini idrok etishda ma’lumot beruvchining lingvistik dunyosining ishlash qonuniyatlarini o‘rnatishda, kreollashtirilgan matnlarni tushunishning umumiy modelini eksperimental tekshirishdir. Kreollashtirilgan reklama matnlarini ishlab chiqishda, psixolingvistikaning nazariy va amaliy ahamiyatlariga diqqat qilish uning nazariy ahamiyatlaridan biri hisoblanadi. Dissertatsiyada “Nutq ta’sirining psixolingvistik xususiyatida tasvirdagi o‘zgarishlarning uch turi ajralib turadi:

a) qabul qiluvchining ma’nolar maydoniga yangi ma’nolarni kiritish, ya’ni voqelikning har qanday qismi haqidagi yangi ma’nolar yaratish;

b) insonga ma’lum bo‘lgan narsalar to‘g‘risida ma’lumotlarni yetkazish orqali qadriyatlar maydonining tuzilishini o‘zgartirish, bunda munosabatlar haqidagi tasavvurlarni o‘zgartirish kerak;

c) barcha uchun qulay hissiy muhitni yaratish uchun yangi ma’lumotlarni kiritmasdan, insonning ichki dunyosiga murojaat qilish“[231] degan fikrlar keltirilgan. Har qanday matnda psixolingvistik xususiyat inobatga olinsa, u tushunarli va samarali bo‘ladi. Reklama matnida iste’molchiga ma’lumot yetkazish, shu jarayonda qadriyatlar ham inobatga olinishi, qadriyatlar orqali tasavvurlar shakllantirilishi, bu jarayon mobaynida hissiyotlarga ta’sir o‘tkazish va iste’molchining ichki dunyosi bilan aloqaga kirishish davomida psxiolingvistik xususiyatlarga ahamiyat qaratilishi uning manipulatsiya kuchini oshiradi.

N.I.Vasilevna “Rus va ingliz tillarida reklama timsoli sifatida shiorning lingvistik va pragmatik xususiyatlari: gender jihati” nomli nomzodlik dissertatsiyasida reklama shiorining asosiy lingvistik va statistik xususiyatlari, rus va ingliz tillarida reklamaning xususiyatlari, milliy genderning namoyon bo‘lishi, genderning reklama tasvirlariga ta’siri, rus va ingliz tillaridagi reklama shiori matnida gender jihatini ifodalashning asosiy farqi, gender xususiyatini inobatga olgan holda mintaqaviy reklama shiorining evolutsiyasi kabi masalalarni ko‘rib chiqqan. Ushbu dissertatsiyada birinchi marta reklama shiorining paydo bo‘lishi, rivojlanishi va faoliyati, reklama shiorining lingvistik va pragmatik xususiyatlari gender nuqtayi nazaridan o‘rganilganligi kabi masalalar yoritilgan. “Reklama shiori reklama matnining avtonom turi bo‘lib, uning tarkibiy qismi bo‘lgan reklama matnida semantik, tarkibiy, kompozitsion xususiyatlarga ega bo‘lib alohida-alohida qo‘llanishi mumkin. Shior reklama matnining boshqa elementlaridan mustaqil lingvistik birlik bo‘lib, reklama kompaniyasining

[231] Николаевич М.П. Психолингвистические аспекты воздействия рекламных текстов: Автореф. дисс. …канд.филол.наук. – Москва, 2005. – С. 7.

mohiyatini, kompaniya imidjini va ustun g‘oyani ifodalashi mumkin[232]”, deydi tadqiqotchi. Shior reklama uchun asosiy qismlardan biri. Reklamaning muvaffaqiyatli bo‘lishi shironing jarangdor va jozibali bo‘lishiga ham bog‘liq. Shior orqali reklama g‘oyasi to‘liq va aniq ifodalansa, bu reklamaning rivoji va samaradorligiga xizmat qiladi. Shior bir imidjdir. U orqali reklama beruvchining mahsulot (xizmat)i xaridorgir bo‘lishi yoki, teskari holat yuz berishi mumkin. Shuning uchun uni mukammal yaratish reklama muvaffaqiyatini ta’minlovchi muhim xususiyatlardan hisoblanadi.

Rus tilshunosligida reklama matni paydo bo‘lishining tarixiy muammolarini E.S.Galperin, A.A.Nekrilova, N.O.Zolotova, N.V.Starix, V.V.Uchenovalar o‘rgangan. Reklama matnining ekspressiv, lingvistik vositalari, tarkibiy mazmuni, shuningdek madaniy va lingvistik jihatlarini D.E.Rozental, N.N.Koxtev, E.A.Terpugova, E.V.Medvedova, N.V.Sherbina, L.V.Karatayeva, M.A.Lastobeskaya, M.N.Novikov, Ya.N.Romanenko, Yu.S.Bernadskaya kabi tadqiqotchilar o‘rganganlar. Reklamashunoslikda terminologiyani shakllantirish masalalari bilan esa D.G.Kurenova shug‘ullangan. Reklama tilining gender jihati masalalarini ruslarda I.A.Guseinova, M.V.Tomskoy, I.N.Dubovskiy, L.V.Polubichenko kabi tadqiqotchilar ishlashgan. Ular reklama matnidagi “erkak” va “ayol” tilini tahlil qilgan. Reklama shiorini reklamaning muhim tarkibiy qismi sifatida A.V.Litvinova va K.V.Shidolar o‘ganishgan. Shiorning mohiyati, rivojlanish tendensiyalari, uning turlari va guruhlari kabi masalalarga ham to‘xtalib o‘tishgan.

Yuqoridagi tadqiqotdan ko‘rinib turibdiki, oxirgi yillarda reklama matnini o‘rganish dunyo tilshunoslarining e’tiborini tortmoqda. Jahon tilshunosligida reklama matnlarining turli xususiyatlari shu kungacha tahlil qilingan. Hozirda ham bu borada izlanishlar amalga oshirilmoqda. Reklamadagi til xususiyatlarini tahlil qilish, nafaqat tilshunoslik uchun, balki iqtisodiyot uchun ham muhimdir. Reklama matnida tildan qanchalik mahorat bilan foydalanilsa, undan ko‘zlangan foyda yoki daromad ham shuncha yuqori bo‘ladi. Shu xusuiyatlar inobatga olinib, reklama iqtisodiyot va tilshunoslikning o‘rganish obyektiga aylanib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Botirova M. Jahon tilshunosligi va turkologiyada reklama tadqiqiga oid ishlar tahlili// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Iyun. 2023.

2. Фарби Э.Д. Как создать успешную рекламу. - Санкт-Петербург: Нева, 2004.

3. Gafurov B. Reklama diskursida tibbiyot leksikasi: funksional-semantik va lingvomadaniy jihatlar (rus va o‘zbek tillari misolida): Avtoreferat. filol. fanlari doktori (DSc) diss. – Buxoro, 2023.

[232] ВасильевнаН.И Лингвопрагматические особенности слогана как репрезентация рекламы в русском и английском языках: гендерный аспект: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Майкоп, 2012.

4. Mamirova D. O‘zbek reklama matnlarining sotsiolingvistik xususiyatlari: Avtoreferat. Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss. – Samarqand, 2022.
5. Николаевич М.П. Психолингвистические аспекты воздействия рекламных текстов: Автореф. дисс. …канд.филол.наук. – Москва, 2005.
6. Васильевна Н.И Лингвопрагматические особенности слогана как репрезентация рекламы в русском и английском языках: гендерный аспект: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Майкоп, 2012.
7. Yunusova Sh. O‘zbek tilida reklama matnlarining sintaktik xususiyatlari va pragmatik xoslanishi: Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss. – Guliston, 2023.
8. Shamsiyeva M. Reklama matnining psixolingvistik xususiyatlari// Metodist – I. – Toshkent, 2017.

TILSHUNOSLIKDA “ONALIK” KONSEPTINING O‘RGANILISHI

Yunusova Sayyoraxon Mo‘minjon qizi
ADU magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbek va jahon tilshunosligida onalik konseptining o‘rganilishiga qaratilgan. Maqolada onalik konseptining jahon va o‘zbek tilshunoslari tomonidan semantik, kognitiv va lingvokulturologik jihatdan o‘rganilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Onalik konseptining til va madaniyatdagi o‘rni va ifodalanishi ayrim turkiy tillar misolida tahlil qilingan.

Ushbu tadqiqot natijalari o‘zbek va turkiy xalqlar madaniyatida onalikni ifodalovchi konseptlarning ijtimoiy ahamiyatini tushunishga hamda onalik konseptiga oid ilmiy izlanishlarga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: konsept, ona va onalik konsepti, ayol konsepti, kognitiv yondashuv, tilshunoslik, lingvokulturologiya.

Annotation. This article focuses on the study of the concept of motherhood in Uzbek and world linguistics. The article provides information on the semantic, cognitive and linguoculturological study of the concept of motherhood by world and Uzbek linguists. The role and expression of the concept of motherhood in language and culture was analyzed using the example of some Turkic languages.

The results of this study will help to understand the social significance of concepts that represent motherhood in the culture of Uzbek and Turkic peoples, as well as scientific research on the concept of motherhood.

Keywords: concept, concept of motherhood, concept of women, cognitive approach, linguistics, linguoculturology.

Tilshunoslikda yangi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi til birliklariga yondashuvni o‘zgartirdi. Til birliklari endi nafaqat grammatik jihatdan, balki ularning madaniyatga bo‘lgan munosabati va odamlar, shaxslar ongida aks ettirishning xilma-xilligi nuqtai nazaridan ham tadqiq qilina boshlandi. Ushbu yangi yo‘nalishlardan lingvokulturalogiya va kognitiv tilshunoslikka oid tadqiqotlar antropotsentrik xarakterga ega bo‘lib, odamlarning tilga ta’siri, til va

madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlik va idrok jarayonlarining tilda aks etishi kabi masalalarni o‘rganadi.

Tilshunoslikda onalik konseptining o‘ganilishi, asosan, onalik tushunchasining til va madaniyat kontekstidagi ifodalari va uning inson tafakkuriga ta’siri bilan bog‘liq.

O‘zbek hamda jahon tilshunosligida konsept va konseptologiyaga oid ilmiy izlanishlar ortib bormoqda. Xususan, onalik konsepti bo‘yicha ham bir qancha ilmiy tadqiqotlarni ko‘rishimiz mumkin. Ushbu maqolada onalik konseptining o‘zbek va jahon tilshunosligida o‘rganilishi ochib berishga harakat qilindi.

Onalik konsepti haqida so‘z borganda, avvalo, ayol jinsiga mansub, farzandli, oilada va jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan inson ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi. Tilshunoslardan Aliyevaning “Fransuz tilida “ayol’’ konseptining kognitiv tahlili” , Toshtemirova va Karimovalarning “Ingliz va o‘zbek tilida ayol konseptiga bo‘lgan turlicha yondoshuvlar”, Artemovaning “Эмотивно-оценочная объективация концепта «женщина» в семантике фразеологической единицы”, Iskandarova va Mahida Imamzadalarning “Phraseological units that represent concept of “Oila” in tajik language”, Hakimovaning “Koreys lingvokulturalogiyasida “Ayol” konseptining onalik maqomi” va boshqa ayol konseptiga oid ilmiy tadqiqot ishlarini uchratishimiz mumkin.

Ushbu ilmiy ishlarda ayol konsepti bilan birgalikda ona va onalik konseptiga ham murojaat qilingan. Bulardan, Iskandarova hamda Mahida Imamzadalarning “Oila” konsepti haqida yozgan ishlarida ayol va ona konseptining semantik jihatdan tahlilini, Hakimovaning maqolasida esa ayol konseptining yadro osti zonasi sifatida onalikni ham olib, onalik konseptining assotsiativlarini badiiy asarlar matni keltish orqali til va madaniyat munosabatini ifodalagan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar , asosan, ayol konsepti va uning yadro osti zonasi sifatida berilgan ona va onalik konseptlariga oid bo‘lsa, quyida ona va onalik konseptiga oid ilmiy tadqiqotlarni keltirib, onalik komseptiga qay tomondan yondoshganligini ko‘rib o‘tamiz.

Sebahat Armağanning “Ana ve Anne sözcükleri üzerine kültür dilbilim incelemesi”, Mirzayevaning “A the concept of “Mother” in turkish and gagauz languages”, N. Safarovaning “Study of the concept “Mother” in uzbek linguistics”, S.Ulug‘murodovaning “The concept of mother in religious sources”, Suniya S. Lutharning “Mothering mothers”, A. Bakenovaning “Componential analysis of Ana/Mat’/Mother”, Naimovaning “The concept of mother in kyrgyz and english linguistic” nomli tadqiqotlarida ona va onalik konsepti tilshunoslikning turli jihatlari nuqtai nazaridan tahlilga tortilgan.

Ushbu tadqiqotlardan Mirzayevaning “A the concept of “Mother” in turkish and gagauz languages” nomli ilmiy ishida turk va gagauz tillarida onalikni ifodalovchi konseptlarni leksik, semantik, qiyosiy, tavsifiy va konseptual tahlil qilish orqali ushbu xalqlarning dunyoqarashida onalik bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalarning o‘xshash va xarakterli tomonlari maqol, she’r va frazeologizmlar orqali aniqlashga qaratilgan va natijaga erishilgan.

Bakenovaning “Componential analysis of Ana/Mat’/Mother”nomli ilmiy maqolasida qozoq, rus, ingliz tillarida ona konseptining sematik kengayishining o‘ziga xos xususiyatlari komponent tahlil orqali aniqlashga qaratilgan.

S.Ulug‘murodovaning “The concept of mother in religious sources” nomli tadqiqotida onalik konsepti hadislar, oyatlar, maqol, topishmoq, ertak, nasriy va she’riy asarlar matni orqali tahlil qilingan.

Keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini o‘rganish natijasidan ma’lum bo‘ldiki, tilshunoslikda onalik konseptining o‘ganilishi asosan quyidagi jihatlar orqali amalga oshirilar ekan:

1. Semantik jihatdan: Onalik bilan bog‘liq so‘zlar, iboralar va ularning ma’nolari o‘rganiladi. Bunda onalik konsepti “ona”, “onalik”, “ayol” kabi tushunchalarning turli tillardagi semantik farqlari va ularning madaniy kontekstini o‘z ichiga oladi.
2. Lingvokulturologik jihatdan: Onalik konsepti turli madaniyatlarda qanday qabul qilinishi va talqin qilinishi o‘rganiladi. Har bir madaniyatda onalikning roli va ahamiyati turlicha bo‘lishi mumkin.
3. Kognitiv jihatdan: Onalik tushunchasi inson fikrlarida, munosabatlarida va hissiyotlarida qanday aks etishini o‘rganadi. Bu, onaning rolini va uning shaxsiy hayotdagi ta’sirini anglashda muhim hisoblanadi.
4. Diskursiv tahlil jihatidan: Onalik konseptining til va muloqotdagi ifodalari, jumladan, ona sifatida kishi haqida qanday fikrlar, stereotiplar va normativlar mavjudligini o‘rganadi.
5. Qiyosiy tahlil jihatdan: Onalik konseptini qardosh va qardosh bo‘lmagan tillarga o‘zaro qiyoslash va chog‘ishtirish natijasida konseptni o‘rganishga qaratiladi.

Xulosa o‘rnida, maqolada tilshunoslikda onalik konseptining o‘zbek va jahon tilshunoslari tomonidan leksik, sematik, kognitiv va lungvokulturalogik jihatlarini xalq og‘zaki ijodi namunalari, she’r va badiiy mantlar orqali tahlil qilib, o‘rganilganligi ko‘rib chiqildi. Tahlil orqali aniqlagan umumiy jihatlar keltirildi. Natijada onalik konsepti juda keng mavzu bo‘lib, bu bo‘yicha yana ko‘plab tadqiqot ishlari qilinishi mumkinligi aniqlandi. Bunda onalik konseptining “ayol”, “ona” va jamiyatdagi onalarning maqomlari yadro qilib olinib, ularning til va madaniyat munosabatlari, jamiyatdagi roli nuqtai nazaridan o‘rganish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алиева, Г. Т. Fransuz tilida “ayol’’ konseptining kognitiv tahlili / Г. Т. Алиева, Т. С. Эшбоева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 30 (320). — С. 312-317. — URL:
2. Ergashev, R. (2023). Kognitiv lingvistika: nazariya va amaliyot. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.
3. Iskandarova, M. (2021). Lingvomadaniyatshunoslik va uning tadqiqot usullari. Andijon: Andijon Davlat Universiteti.
4. Kadyrova, N. (2015). Madaniyat va til: o‘zaro ta’sir. Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti.

5. Lakoff, G. (1987). Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal About the Mind. Chicago: University of Chicago Press.
6. Langacker, R. (1987). Foundations of Cognitive Grammar. Stanford: Stanford University Press.
7. Shomurodova, S. (2019). O‘zbek tilshunosligida madaniy konseptlar: masalalar va yechimlar. Farg‘ona: Farg‘ona Davlat Universiteti.
8. Vereshchagin, E. M., & Kostomarov, V. G. (1990). Linguistic Landscape: Theoretical and Practical Aspects of Linguistic Personality.
9. Xojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – T.: O‘ME, 2002. – B.19

SIROJIDDIN SAYYID SHE’RLARIDA JONLANTIRISHNING IFODALANISHI

Nurmatova Surayyo To‘lqinjon qizi
FarDU magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada atoqli shoirimiz, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Sirojiddin Sayyidning so‘z qo‘llash mahorati va shoir she’rlarida ustalik bilan qo‘llanilgan poetik matnda badiiylikni ta’minlovchi, fikrni obrazli va jonli ifodalashga xizmat qiluvchi badiiy tasvir vositalaridan biri jonlantirish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: jonlantirish, poetik matn, obrazlilik, nutqiy qobiliyatning ko‘chishi, o‘xshatish

Annotation. In this article, the skill of using words of our famous poet, national writer of Uzbekistan Sirojiddin Sayyid, and one of the tools of artistic representation that provides artistry in the poetic text and serves to express the idea figuratively and vividly in the poet’s poems, is about revitalization. is conducted.

Key words: revitalization, poetic text, imagery, transfer of speech ability, simile

Jonlantirish ifodanalayotgan fikrni obrazli, jonli tasvirlashga xizmat qilivchi tasviriy vositalardan biri hisoblanadi. Poetik matnda voqelikni kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalantirish maqsadida “jonsiz predmet, mavhum narslarga jonli predmetlarga, insonga xos xususiyatlar berib”[233] tasvirlanadi. Umuman olganda, jonlantirish she’rni jonli va ta’sirchan qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bu she’rga yangi o‘lchov qo‘shadi va uni o‘quvchiga yanada qiziqarli va mazmunli qiladi.

Shuningdek, jonlantirish she’riy san’atida “ro‘yobga chiqayotgan sintaktik birliklarning birida jonlilik, ikkinchisida jonsizlik semasi mavjud bo‘lib, bu semalar aslida ushbu birliklarning sintagmatik munosabati uchun monelik qiladi.”[234] Ya’ni poetik matnda jonsiz predmetlarga jonli predmetlarga xos xususiyatlarni yuklash asarning obrazliligini oshiradi. Yozuvchi Sirojiddin Sayyid adresatga voqelikning anglanishini osonlashtirish va tasavvur olamini uyg‘otish

[233] Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati.- Toshkent: O’zbekiston milliy ensklopediyasi 39-bet
[234] Muhammadjonova G 80-yillar oxiri, 90-yillar boshlari o’zbek she’riyatining lingvopoetik tadqiqi. – Andijon 2003

maqsadida salmoqli o‘rinlarda jonlantirishdan foydalangan. Xususan, shoir ko‘p o‘rinlarda qahramonining ruhiy olamini tasvirlashda jonlantirishga murojaat qilgan

Hovlilar uyg‘ona boshlar ohista,
Yorisha boshlaydi uylar chehrasi.
Kuyovlar yuz yuvar uyalinqirab
Otalarga qarolmasdan tik.

Shoir tong otishini insonlarga xos jihatlarni jonsiz predmetlarga ko‘chirish orqali ifodalaydi. Hovlilarning ohistalik bilan uyg‘onayotganini, uylar yorisha boshlaganini tasvirlaydi. Natijada esa obrazlilik kuchayadi, kitobxonni tasvirlanayotgan voqelikka yanada yaqinlashtiradi.

Barglar pardasini jimgina surib,
Devordan qaraydi do‘mboq olmalar.

Biz bilamizki, qarash va jim turish xususiyati jonli narsalarga xos, lekin bu yerda yuqoridagi harakatlar olma predmetiga ko‘chirilgan va obrazlilikka erishilgan. Shuningdek, biz bu satrlarda ajoyib o‘xshatishga ham duch kelamiz barglarning olma uchun pardaga o‘xshatilishi she’rning jozibadorligini, emotsionalligini yanada oshirgan, bu esa faqatgina Sirojiddin Sayyid ijodida uchratishimiz mumkin bo‘lgan o‘xshatishlardandir.

Yillar bug‘doyimni o‘rib ketdilar,
Yellar qirimdan yuz burib ketdilar.
Bolajon, avayla jilg‘alaringni,
Mening daryolarim qurib ketdilar.

Satrlarni o‘qir ekanmiz, tabiat, qirlar ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Shoir o‘zining ruhiy holatini, ichki xissiyotini tasvirlar ekan, tabiat hodisalarini jonlantiradi: yillarning bug‘doy o‘rganini, yellar qirlardan yuz o‘girgani, daryolar esa quriganini jonli tarzda gavdalantiradi. Kitobxon shoirning ruhiy olamiga yaqinlashadi, uni jonli tasavvur qiladi va kitobxonda voqelikka nisbatan munosabat uyg‘otadi. Shu bilan birgalikda, bir o‘rinda birdan ortiq jonlantirishni qo‘llash she’rning ta’sirchanligini yanada oshirgan.

Ey ko‘hna bog‘, ko‘pdir chekkan aziyating,
Qurigan shox, dilda sening vasiyating.
Ey sariq barg, qulog‘imda sening nasihating,
Bu yil endi mening gulzor, gulim yangi.

She’rda ko‘hna bog‘, qurigan shox va sariq barg – jonsiz predmetlarga jonlilik semalari – aziyat chekish, vasiyat qilish, nasihat qilish ma’nolari yuklatilgan. Keltirilgan murojaat shakllari orqali inson obrazi gavdalantirilgan. Bizga ma’lumki, ko‘p aziyat chekish, vasiyat qilish, nasihat qilish, asosan, yoshi ulug‘ insonlarga xos xislatlar hisoblanadi, shoir esa bu semalarni ko‘hna bog‘, qurigan shox va sariq bargga – jonsiz narsalarga ko‘chiradi.Bu orqali she’rning ta’sir darajasi ortadi, adresant yozuvchining maqsadini obrazli va oson tushunishiga zamin yaratadi. Bu esa Sirojiddin Sayyidning so‘zga usta, tasavvur dunyosi keng ijodkor ekanligidan dalolatdir.

Ey dunyo, jonimni qovurgan dunyo,

Borimni yellarga sovurgan dunyo,
Mening ingrayotgan qovurg‘am dunyo,
Yarmi sas, yarmi xas bo‘lgan tuprog‘im,
Kiprigingga qo‘ngan g‘uboring menman.

Jonlantirish hodisasi “jonlantirilayotgan obyektga qaysi xususiyatlarni ko‘chirish hisobidan ham farqlanadi:

a) harakat-holatlarning ko‘chishi;

b) nutqiy qobiliyatning ko‘chishi.”[235]

Yuqorida keltirilgan misolda jonsiz predmetning – qovurg‘aning insonlar singari ingrashi jonlantirishni yuzaga chiqargan. Bu esa nutqiy qobiliyatning ko‘chishiga yaqqol namuna bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensklopediyasi
2. Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri, 90-yillar boshlari o‘zbek she’riyatining lingvopoetik tadqiqi. – Andijon 2003
3. Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq, 1998.
4. Sayyid Sirojiddin.Qaldirg‘ochlarga ber ayvonlaringni. - Toshkent: Sharq, 2005
5. Sultonsaidova.S,Sharipova O‘.O‘zbek tili stilistikasi. - Toshkent:2009

O‘ZBEK TILIDA “QUVONCH” KONSEPTINING IFODALANISHI

Rayhon Sobirjon qizi Malikova
Qo‘qon DPI magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada tilshunoslik uchun muhim bo‘lgan mavzulardan biri haqida ma’lumot beriladi. Unda “quvonch” konseptining turli turg‘un birikmalar, ya’ni maqol, hikmatli so‘z va iboralarda qanday qo‘llanilishi haqida misollar beriladi. Bundan tashqari, maqolada badiiy asarlarda ushbu tushunchaga oid yuqoridagi til birliklaridan namunalar keltirilib, tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, konsept, paremiologik birlik, maqol, aforizm, frazeologizm.

Abstract. This article provides information about one of the important topics for linguistics. It gives examples of how the concept of "joy" is used in various paremiological units, that is, proverbs, wise sayings, phraseological units. In addition, the article presents and analyzes examples of the above-mentioned language units related to this concept in works of art.

Key words: Cognitive linguistics, linguistic culture, concept, paremiological unity, proverb, aphorism, phraseology.

[235] Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri, 90-yillar boshlari o’zbek she’riyatining lingvopoetik tadqiqi. – Andijon, 2003

Konsept zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari hisoblangan kognitiv lingvistika va lingvokulturologiyaning tayanch tushunchasidir. Konsept atamasiga oid juda ko‘plab nazariya va fikrlar bo‘lishiga qaramasdan bugungi kungacha aniq bir to‘xtamga kelinmagan.

Rus tilshunosligida konsept tushunchasi XX asrning birinchi choragida faylasuf S.Askoldov tomonidan ilmiy muomalaga kiritiladi. S.Askoldovning qarashicha, konseptlar vositasida turli millat vakillari muloqotga kirishadi, shunga ko‘ra, konseptlarni yaratish va idrok qilish ikki tomonlama kommunikativ jarayon hisoblanadi.[1]

XX asrning birinchi choragida konsept haqida mulohazalarga tanqidiy yondashiladi. Faqat 80-yillarga kelib, bu terminga ehtiyoj qayta paydo bo‘ladi. Yu. S. Stepanov o‘zining tadqiqotlarida mental shakllanishning mohiyatini ochishga harakat qilib, konsept so‘zining etimologiyasiga murojaat qiladi. Konsept lotin tilidagi conceptus - “tushuncha” so‘zining kalkasidir. Konsept ikki tomonli xususiyatga egadir. Bir tomondan, madaniyat konsept ko‘rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa tomondan. inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba’zan unga ta’sir ko‘rsatadi. Inson o‘zining individual, betakror madaniyatini saqlagan holda, konsept orqali xalqlarning madaniyatiga, turli millat vakillarining mental dunyosiga murojaat qiladi. [2]

Konseptning kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, shuningdek, adabiyotshunoslik fanlaridagi izohi o‘zaro farqlanadi . Ushbu termin tilshunoslikda o‘tgan asrning 80-yillariga qadar tushuncha so‘ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib uning izohi tushuncha terminiga nisbatan kengayganini ko‘rish mumkin.

Professor N.Mahmudov lingvokulturologiyada konseptning o‘rganilishi xususida shunday yozadi: “Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e’tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunosliklarda bu yo‘nalish nihoyatda keng tarqalganini ko‘rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog‘iga yetish mushkul.Demak, konsept lingvokulturologiyada eng faol qo‘llanuvchi birlik sanaladi. Konseptlingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini ifodalaydi”. [3]

Konsept haqida birmuncha ma’lumotlarga ega bo‘ldik, endi ishimizning asosiy maqsadiga o‘tamiz, ya’ni “quvonch” konseptini tahlil qilamiz. Quvonch – quvonish his-tuyg‘usi, shodlik, xursandlik. Maqollar xalq donishmandligining yorqin namunasi sifatida avloddan avlodga o‘tib, meros bo‘lib keluvchi ma’naviy boylikdir. Maqollar xalqning orzu-tak, armonlari, quvonch, baxt, omad, xullas jamiki xislatlarini ifoda etadi.

Ilmsizga ishonch yo‘q, hunarsizga quvonch yo‘q. Ushbu maqolda ilmsiz insonga hech kim ishonmasligi, hunarsiz odam shodlik, quvonch hissini tuya olmasligi anglashilyapti.

Shodlikdan ortiq boylik yo‘q.

Qo‘rqqandan quvongan yomon.

“Quvonch” konseptini ifodalaydigan konseptlardan yana biri bu iboralardir. Ikki va undan ortiq so‘zdan tarkib topgan va yaxlit bir ko‘chma ma’no ifodalaydigan, ta’sirchanlikka ega bo‘lgan til birligi ibora deyiladi. Frazeologizmlar o‘z ma’no xususiyatlari bilan so‘zlovchining boshqa odamlarga va muloqot predmetiga nisbatan emotsional-ekspressiv munosabatini ifodalaydi.

Boshi osmonda. Boshi ko‘kka yetdi. Ushbu iboralar nihoyatda xursandlik ma’nosida qo‘llaniladi. O‘shanda Qo‘qonda onam bor edi, deb so‘roqlab borsang, boshim osmonga yetadi. (O‘.Hoshimov. “Ikki eshik orasi”.)

Quvonchi ichiga sig‘maydi. Juda ham xursand, g‘oyat shod.

1.Ichkarida xotinlar majlisi:…birov yor-yor o‘qib, tag‘in bittasining quvonchi ichiga sig‘may xaxolab, dunyoni buzadi. (A.Qodiriy. “ ‘tkan kunlar”.)

2. Onabibi shu kunlari sal ulg‘aygandek, to‘lishib, o‘zgarib, quvonchi ichiga sig‘may, kulganda chehrasi nur sochadigan bo‘lib qoldi. (A.Muxtor. “Chinor”.)

Ko‘ngli ko‘tarildi. Nimadir deb ko‘nglini ko‘targim keladi. (O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi.)

Ko‘ngli yorishdi. Xursand bo‘ldi.

Og‘zi qulog‘ida. Yuqori darajada xursand. Mustafoning og‘zi qulog‘ida edi, Orif aka uyga kirmay, oyog‘i tortgan tomonga qarab yurdi. (A. Muxtor. “Chinor”.)

Boltaboy otaning quvonchidan Shirmonxon ham behad shod edi.(S.Zunnunova. Olov.)

To‘y. Bu so‘z…kambag‘alning uyini shodlikka, quvonchga to‘ldiradi. (T.Obidov. Yusufjon qiziq.)

…adabiyotga yashnab kirgan yoshlarni ko‘rib quvonib ketaman va bu quvonchimni o‘sha yoshning o‘ziga minnatdorchilik izhor qilib aytaman.(K.Qahhorova. Chorak asr hamnafas.)

“Quvonch” konsepti aforizmlar, ya’ni hikmatli so‘zlarda ko‘plab uchraydi. Ularga bir nechta misol keltiramiz.

Hayotning eng zo‘r huzur-halovati, eng yuksak quvonchi o‘zingni odamlarga kerakli va yaqin deb his qilishingdir! (M.Gorkiy.)

G‘amga bir kishi chidashi mumkin, lekin quvonchni ikki kishi baham ko‘rishi kerak. (E. Xabbard.)

Xafa bo‘lishni bilmaydigan odam quvonishni ham bilmaydigan yoki kulgini tushunmaydigan odamdek nochordir. Shu xususiyatlardan birontasining yetishmasligi o‘taketgan ma’naviy cheklanganlikdan dalolat beradi. (K.G.Paustovskiy)

“Quvonch” konseptini yuqoridagi misollar orqali ko‘rib chiqdik. Tahlillar natijasida ushbu konsept leksik ma’nosidan anglashilib turganidek, ijobiy vaziyatlarda foydalaniladi. Ushbu abstract tushuncha insonlarning tashqi muhitga nisbatan ijobiy munosabatida ko‘rinadi. Bu tuyg‘u mamnunlik, shukronalik, xursandchilik hissi bilan hamohang. Uning eng yuqori darajasi kulgi, tabassum orqali ham namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Асколдов С.А. Концепти и слово. – М.: Академия, 1997.
2. Степанов,Ю.С. Константи:Словар русской култури/Ю.С. Stepanov. – М.:Академический проект,2004.
3. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab..// O‘zbek tili va adabiyoti. – T,2012.
4. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya.(Darslik) – T, 2019.
5. Rahmatullayev Sh. Frazeologik birliklarning asosiy ma’no turlari. – T. : O‘z. FA nashriyoti, 1997.
6. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – T.: Navro‘z, 2019.
7. A. Muxtor. Chinor. T.: Yoshlar nashriyot uyi. 2018.
8. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2016.

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIKDA POLISEMIYA

Abduvaliyeva Kumush Zafarjon qizi
TDSHU magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikda polisemiya hodisasi va uning o‘rni, xitoy tilshunosligida polisemiya hodisasi haqida so‘z yuritiladi. Jumladan, xitoy tilidagi ayrim polisemantik birliklar tahlil etilib, tarjimashunoslik sohasida polisemiyaning o‘rni haqida ma’lumot beriladi. Maqola yosh tilshunos va tarjimashunoslar uchun ayrim nazariy masalalarni bayon etib beradi.

Kalit so‘zlar: polisemiya, polisemantik birlik, asosiy ma’no, diaxron, leksik-semantik, asos, qo‘shimcha, kontekst, birlik

Annotation. This article discusses the phenomenon of polysemy and its place in linguistics, and the phenomenon of polysemy in Chinese linguistics. In particular, some polysemantic units in the Chinese language are analyzed, and information is provided about the role of polysemy in the field of translation studies. The article describes some theoretical issues for young linguists and translators.

Key words: polysemy, polysemantic word, main meaning, diachronic, lexical-semantic, basis, appendix, context, unit

Polisemiya — bu bir so‘zning bir nechta ma’nolarini anglatadigan til hodisasi. Masalan, "yüz" so‘zi bir vaqtning o‘zida "yuz" (boshning old qismi) va "yuz" (hisob yoki hisob raqami) ma’nolarini anglatishi mumkin. Polisemiya ko‘pincha kontekstga qarab tushuniladi va tilning boyligiga hissa qo‘shadi. Polisemiya ko‘pincha kontekstga bog‘liq ravishda farqlanadi.

Polisemiya xususiyatlari:

1. Kontekstga bog‘liqlik: Bir so‘zning ma’nosi foydalanilayotgan kontekstga qarab o‘zgaradi.
2. Ko‘p ma’nolilik: So‘zning turli ma’nolarini ifodalaydi, bu esa nutqda boylik va rang-baranglik yaratadi.
3. Semantik rivojlanish: Vaqt o‘tishi bilan so‘zlar yangi ma’nolar olishi mumkin, bu esa tilning rivojlanishiga ta’sir qiladi.

Bugungi kunga kelib ham polisemiya ya’ni ko‘p ma’nolilik hodisasi tilshunoslikda dolzarb muammoli masalalardan biri bo‘lib, uning o‘rganilishi tarjimashunoslik, jumladan sinxron tarjima sohasida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xitoy tilida polisemiya hodisasi keng tarqalgan bo‘lib, ularni tarjima qilish, tarjima jarayonida ma’nodoshlar ichidan aynan kerakli va o‘rinlisini ajratib olish juda muhim bo‘lib, shu va shu kabi masalalar Xitoyda polisemiya tadqiqining rivojida katta turtki bo‘lgan.

Xitoy tilshunoslari va xitoyshunoslar, tarjimashunos olimlar polisemiyani o‘rganish jarayonida muayyan usullarni qo‘llash orqali tarjimani amalga oshirish haqida baxs olib boradi. Shunday usullardan so‘zni butun matn mazmuniga qarab tarjima qilish eng faol usullardan bo‘lib, hozirda tarjima sohasida keng tarqalgan.

Xitoyda polisemiyani o‘rganish jarayonida bu hodisaning aynan qaysi holatlarda ko‘p kuzatilishini bilish ham muhim bo‘lib tarjima jarayonini yengillashtiradi. Bugungi izlanishlar natijalariga ko‘ra topishmoqlar, hazillar, memlar kabi asl ma’no yashirin bo‘lgan janrlarda polisemiya hodisasi ko‘p uchrashi va tarjima jarayonida faqatgina ma’lum o‘rinlarda qo‘llanilishi polisemiya hodisasining tarjimada nofaol ammo juda katta o‘ringa ega ekanligini bilish mumkin. Chet tilini o‘rganishda so‘z boyligi doimo asosiy o‘rinni egallaydi. O‘rganuvchilar o‘zlashtirishlari kerak bo‘lgan asosiy e’tibor va qiyinchilik ham, tarjima sohasida yuzaga keladigan murakkablik ham aynan mana shu mavzuga borib taqaladi. Bunday murakkab leksik birliklar orasida “ko‘p ma’noli so‘zlar” bir fonetik shaklga ega bo‘lgan, bir vaqtning o‘zida bir nechta manoni o‘zida aks ettirgan va har bir ma’no o‘rtasida ma’lum bog‘liqlik mavjud bo‘lgan so‘zlardir. Bu tarjimonlar uchun ikkinchi tilga tarjima qilish jarayonida to‘siq bo‘lishi ma’lum. Shu sababli bu mavzu har doim mahalliy va xorijdagi tilshunoslik doiralarining keng e’tiborini tortib kelgan. Xitoy tilini chet tili sifatida o‘qitish va tarjimashunoslik sohasida polisemiyani o‘rganish strategiyalari bo‘yicha tadqiqotlar endigina amalga oshira boshlandi. Ammo umuman olganda, tegishli tadqiqotlar soni juda oz hisoblanadi. Ko‘rinib turibdiki, xitoy tilidagi ko‘p ma’noli so‘zlarni chet tili sifatida o‘rgatish va tarjima qilish strategiyalarini o‘rganish zarur. Ikkinchi tilni o‘rganuvchilar uchun maqsadli tildagi ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirish oson emas. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra zamonaviy xitoy lug‘atlarida ikki yoki undan ortiq ma’noga ega bo‘lgan 12 283 ta yozuv mavjud bo‘lib, bu umumiy yozuvlarning 23% ni tashkil qiladi.

So‘zning ko‘p ma’noliligini o‘rganish, avvalo, leksik uslubiyat uchun muhim rol o‘ynaydi. Chunki, bu so‘zning o‘zida turli xil ma’noning bo‘lishi uchun og‘zaki va yozma nutqda qo‘llashda uslubiy bo‘yog‘iga, ma’nosiga e’tibor berishni talab qiladi. Shu boisdan ma’no ko‘chish ham sinonimiya, omonimiya va boshqa leksik vositalar singari hazil, mutoyiba, kulgi va turli so‘z o‘yinlarini yuzaga keltiradi. Bunday paytlarda so‘zning to‘g‘ri va ko‘chma ma’nosi to‘qnashtiriladi, natijada kutilmagan yangi ma’no hosil bo‘ladi. So‘zlarning ana shu nozik ma’no ottenkalari badiiy adabiyotda muhim tasviriy vosita sifatida keng qo‘llaniladi. Ko‘chimlar ko‘proq og‘zaki nutq uchun xarakterli hodisadir. Ulardan zo‘rma-zo‘raki

foydalanib bo‘lmaydi, nutqni buzishi mumkin. Ularga yozuvchi yoki notiq zarurat tug‘ilgandagina murojaat qilishi lozim. Aks holda ular badiiy asar qimmatini oshirish o‘rniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Olim Mirtojiyevning yozishicha, tildagi polisemiya hodisasi juda qadimdanoq olimlar diqqatini o‘ziga jalb qilib keldi. Eramizdan avval uni falsafa va uslubiyat nuqtai nazaridan o‘rganishdi. Tilchilarimizning qayd etishicha, bu masala bilan Xitoy va Hind olimlari, eramizning boshlarida esa yunonlar ham shug‘ullanishgan ekan. So‘zlarning turli ma’nolarda tovlanishi qadimgi turkiy til boyliklariga bag‘ishlangan asarlarda ham o‘rganilgan. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk”, Alisher Navoiyning “Muhabbat-ul lug‘tayn” asarlarida bunday hodisani kuzatish mumkin. So‘zlarning rang-barang ma’nolarda kelishi adabiy matnlarni tahlil etish jarayonida aniqlanadi. So‘zning o‘z ma’nosidan boshqa ma’noda qo‘llanilishi tilshunoslik va adabiyotshunoslikka trop atamasi bilan yuritilgan. Badiiy tildagi bunday hodisani R. Qo‘ng‘urov shunday izohlaydi: “Adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivligini kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko‘chirish yoki so‘zlarni shu maqsadda, umuman ko‘chma ma’noda ishlatishga troplar deyiladi”. Jahon tilshunosligida ham ko‘chma ma’noni hosil qiluvchi so‘zlarni tasniflashga doir bir qancha qarashlar mavjud. Masalan, fransuz tilshunosi J. Maruzo ko‘chma ma’noli so‘zlarni uch turga metafora, metonimiya, sinekdoxaga ajratadi. Rus tilshunosi L. A. Buxalovskiy esa ko‘chma ma’no hosil qiluvchi hodisani olti turga bo‘lgan: metafora, vazifadoshlik, emotsionallik, metonimiya, xalq etimologiyasi sifatida, aloqadorlik. L. A. Buxalovskiy sinekdoxani metonimiyaning bir ko‘rinishi deb hisoblaydi. Nutqning ta’sirchanligi nutq madaniyatining eng muhim sifatlaridan biri bo‘lib, nutqning og‘zaki va yozma ko‘rinishlarida namoyon bo‘lib boradi.

Xitoy tilidagi polisemantik birliklar ko‘plab ma’nolarni o‘z ichiga oladi va bu ma’nolar kontekstga qarab o‘zgarishi mumkin. Tarjima jarayonida bu ma’nolarni to‘g‘ri aniqlash va kontekstga mos ravishda ishlatish zarur. Bu nafaqat so‘zning ma’nosini tushunishga, balki u bilan bog‘liq iboralarni to‘g‘ri ifodalashga ham yordam beradi. Quyida xitoy tilidagi ayrim keng tarqalgan polisemantik so‘zlar va ularning tahlili berilgan:

行 (xíng) – “yurish”, “amalga oshirish”, “qabul qilish”. Bu so‘z kontekst va o‘zi bog‘langan so‘zga qarab turli ma’nolarni ifodalaydi. Masalan: “行走” (yurish) va “行事” (amalga oshirish) kabi ishlatilishi mumkin.

发 (fā) – “berish”, “yuqoriga ko‘tarish”, “tarqatish”. “发邮件” (email yuborish) va “发达” (taraqqiyot) kabi misollarda ushbu ko‘p ma’noli so‘z o‘zi bog‘langan so‘zga qarab aniq ma’noni ifodalaydi.

好 (hǎo) – “yaxshi”, “xush”, “ma’qul” ma’nolariga ega. “好人” (yaxshi inson) va “好看” (chiroyli) kabi ma’nolari ishlatilish o‘rniga yoki so‘z birikmasining umumiy holatiga ko‘ra farqlanadi.

上 (shàng) – “yuqorida”, “ko‘tarilish”, “boshqa” kabi ma’nolarni ifodalaydi. Ushbu polisemantik so‘zning tarjimalariga qarab bir so‘z turli so‘z turkumlariga xos o‘rinlarda qo‘llanilishi mumkinligini tushunish mumkin. “上课” (darsda) va “上班” (ishga borish) kabi misollarda uning ayrim ma’nolari ko‘rsatilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Miraziz Mirtojiyev, O‘zbek tilida polisemiya. Toshkent: Fan, 1984.
2. Осатаева А. Моносемия и полисемия в китайском языке. 2015. – 184 с.
3. Илюхин В. Стратегии в синхронном переводе (на материале англорусской и русско-английской комбинации перевода): дисс. к. фил. н. – М.: Учений, 2001. – 206 с.
4. Комиссаров В. Современное переводоведение. – М: ЭТС, 2002. – 424 с.

KO‘P TILLILIK VA LISONIY IDENTIKLIK MUNOSABATINI TADQIQ QILISHDA QO‘LLANILUVCHI METODLAR TAVSIFI

Ibraximova Iroda Bobir qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqola ko‘p tilli so‘zlashuvchilar lisoniy identikligini o‘rganishda turfa metodlardan foydalanish zarurati haqida so‘z yuritadi. Tadqiqotda intervyu, etnografik kuzatuv va so‘rovnomalar kabi tadqiqot usullari tahlil qilingan. Shuningdek, lisoniy identiklikni tadqiq etishda avtografik qaydlar, hikoyalar va Til portreti silueti kabi metodlar qo‘llanishi mumkinligi ta’kidlanadi. Ushbu metodlar ishtirokchilarning o‘z tajribalari va til repertuarlariga nisbatan hissiy va funksional bog‘liqligini o‘rganishda qimmatbaho ma’lumotlar taqdim etishi mumkin. Maqolada turli metodlar va ularning o‘zaro uyg‘unligi hamda tadqiqot samaradorligini oshirish usullari muhokama qilinadi.

Abstract. This article discusses the necessity of using different methods to study the linguistic identity of multilingual speakers. The research analyzes various methods, including interviews, ethnographic observations, and surveys. It also emphasizes the potential use of autobiographical notes, narratives, and Language portrait silhouettes in exploring linguistic identity. These methods can provide valuable insights into participants’ emotional and functional connections to their experiences and language repertoires. The article discusses various methods and their mutual compatibility, as well as ways to enhance research effectiveness.

Kalit so‘zlar: ko‘p tillilik, lisoniy identiklik, aralash metodlar, intervyu, etnografik kuzatuv, so‘rovnoma, Til portreti silueti, mavzuviy tahlil, struktural tahlil.

Keywords: multilingualism, linguistic identity, mixed methods, interviews, ethnographic observation, surveys, Language portrait silhouette, thematic analysis, structural analysis.

Identiklikni tadqiq etishda tabiatan sifatiy ma’lumotlar (masalan, intervyular) ahamiyatli bo‘lsa-da, miqdoriy natijalarga qaratilgan aralash metodlardan

(masalan, so‘rovnomalardan ham) foydalanishga ehtiyoj tug‘iladi. Ahamiyat qaratish lozim bo‘lgan yana bir jihat bu tadqiqotning davomiyligi bo‘lib, identiklikning shakllanishini o‘rganuvchi tadqiqotlar uzoq muddatli kuzatuvlarga asoslanishi zaruratdir. Ma’lum bir vaqtda namoyon bo‘luvchi identiklikni o‘rganuvchi tadqiqotlar esa nisbatan qisqa vaqtda ham xulosalar taqdim eta oladi.

Identiklik tadqiqotlarida quyidagi tadqiqot vositalaridan foydalanib kelinmoqda:

Intervyu - Intervyular struktural (savollar oldindan tayyorlangan), yarim struktural (intervyu jarayonida tug‘ilgan yangi savollar bilan boyitilgan); yakka tartibli, yoki jamoaviy bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ba’zan qo‘shimcha intervyular ham tashkillashtirishga to‘g‘ri keladi. Bu odatda asosiy intervyu tahlilida qatnashchi aynan nimani nazarda tutgani tushinilmaganda uyushtiriladi va natijada tadqiqotchi o‘sha mavhum yoritilgan masalaga oydinlik kiritib oladi.

Yozib olingan intervyular suhbat tahlili (conversation analysis), yoki diskurs tahlil metodlari vositasida sifatiy tadqiqot sifatida tahlil qilinadi.

Etnografik kuzatuv - Bunda tadqiqotchi ishtirokchilar bilan birga jarayonni ma’lum muddat davomida kuzatadi, ma’lumotlarni shaxsan kuzatish orqali to‘playdi. Tahlilda va ma’lumotlarni bayon qilishda emik nuqtayi nazardan, ya’ni guruh a’zosi sifatida yondashadi. Bunday yondashuv orqali masalaning asl mohiyatini yorita olish uchun tadqiqotchi uzoq muddat davomida tadqiqot ishtirokchilari guruhini a’zolar bilan hamnafas holda kuzatishi va natijalarni ifoda etishda tashqi nigoh bilan qarashdan o‘zini tiyishi kerakligi ushbu usulning qiyinchilik taraflaridan biri hisoblanadi.

So‘rovnoma – Qisqa vaqt ichida umumiy xulosalar olish imkonini beruvchi ushbu vosita odatda boshqa ma’lumot to‘plash usullari bilan hamkorlikda natijalarni umumlashtirish va miqdorda ifodalash uchun qo‘llaniladi. Bu usul ko‘p miqdordagi qatnashchilar ishtirok etadigan tadqiqotlarda ayni muddao bo‘lib, katta miqdorda to‘plangan javoblar orasidan tanlab olingan ma’lum sonli qatnashchilar bilan intervyu tashkil etish vositasida usullar juftligi hosil qilinishi mumkin. Ba’zan tadqiqotchilar boshqa shunga o‘xshash tadqiqotlarda qo‘llanilgan so‘rovnomalardan foydalanishga qaror qilishlari mumkin, bunda savollar tarkibi yo javoblar variantlarini mahalliylashtirishni unutmaslik kerak.

Texnologiyalar rivoji hozirda so‘rovnomalar tashkillashtirish, javoblarni yig‘ish va natijalardan umumiy xulosalar olishni yanada osonlashtirdi. Maxsus saytlar (masalan www.google.com/intl/ru/forms/about/, www.surveymonkey.com/, www.fynzo.com/survey/, www.sogolytics.com/, www.zoho.com/survey/, www.typeform.com/) vositasida shakllantirilgan so‘rovnomalarni linklar orqali keng jamoatchilik bilan bo‘lishish, ularga javob yig‘ishni qatnashchilarga qulay ravishda onlayn formatda olish, natijalarni hisoblashda ham kompyuter ko‘magidan foydalanish mumkin. Ushbu platformalar orqali yig‘ilgan ma’lumotlar statistik tahlil qilish uchun qulay formatda saqlanadi. Shuningdek, so‘nggi yillarda ko‘plab sohalar singari ilmiy tadqiqotlarda ham faol qo‘llanila boshlagan sun’iy intellekt texnologiyalari bu turdagi tadqiqotlarda ham turli jarayonlarni

avtomatlashtirishda va ma’lumotlarni tahlil qilishda qo‘llanilishi mumkin. Masalan, tilni o‘rganish jarayonidagi dasturiy ta’minotlar sun’iy intellekt yordamida individual talabalarni kuzatib borishi, ularning qobiliyatlarini baholashi va mos ravishda o‘quv dasturlarini taklif qilishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, ko‘p tilli shaxslarning o‘z tillariga nisbatan qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Kundalik va jurnallar - Avtobiografik qaydlar identiklik tadqiqotlarida o‘rganiluvchining tajribalari, tuyg‘ulari va mulohazalari haqidagi qimmatbaho ma’lumotlarni qo‘lga kiritishning eng samarali usullaridan biri bo‘lib, undan foydalanishdagi asosiy qiyinchilik ma’lum muddat davomida kundalik va jurnal yuritishni istovchi ko‘ngillilarni topish bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunday vaziyatda shaxsiy bloglar, ijtimoiy tarmoqlardagi fikr-mulohazalar, postlar va sharhlar orqali tadqiqotchilar ko‘p tilli shaxslarning til va identikligi haqida foydali ma’lumotlar to‘plashlari mumkin. Masalan, Facebook, Twitter yoki Instagramdagi turli tillardagi kontentlar va foydalanuvchilarning fikrlarini tahlil qilish orqali tilning ijtimoiy kontekstda qanday ishlatilishini o‘rganish zamonaviy texnologiyalar rivojining bizga taqdim etayotgan imoniyatlaridan biriga aylanadi. Bunday usulni masalan **raqamli etnografiya** usuli deb nomlash va ijtimoiy media va onlayn platformalardan foydalangan holda ko‘p tilli shaxslarning identikligini qanday ifodalashlarini kuzatish mumkin. Bu metod turli tillarda joylashtirilgan postlar, izohlar va muloqotlarni tahlil qilish orqali tildan foydalanishning turli kontekstlarda qanday o‘zgarishini o‘rganishga ham imkon beradi.

Hikoya so‘rovi ham juda foydali metod. Uning yozma shakli kundalik va jurnallar shaklida olinsa, og‘zakisi intervyu, suhbatlar ko‘rinishida aytib beriladi. Masalan, ishtirokchi ikkinchi tilni o‘rganish jarayonidagi qiziqarli voqealar haqida hikoya qilib berishi mumkin. Hikoyalar yig‘ishda internetdan foydalanish zamonaviy tadqiqotlar ishini ancha osonlashtirishi mumkin. Ishtirokchilar tomonidan o‘z lisoniy identikligi haqidagi ma’lumot, fikr va mulohazalarini bo‘lishib borishda shaxsiy bloglar, kanallar va videolardan foydalanish ma’lumotlar yig‘ish imkonini yanada oshiradi. Masalan, so‘nggi yillarda media olamida ommalashgan podkastlar namunasidako‘p tilli ishtirokchilardan o‘z tili va identikligi bilan bog‘liq tajribalarini baham ko‘rish uchun **shaxsiy podkastlar** tayyorlashni so‘rash orqali ulardan ko‘p tillilik bilan bog‘liq his-tuyg‘ulari, qiyinchiliklari va o‘zgarishlarini batafsil yoritib berishlariga erishish mumkin.

Hikoya metodi vositasida identiklikni o‘rganish jarayonida ushbu turdagi tahlillar olib borilishi mumkin: mavzuviy tahlil, struktural tahlil, dialogik/ijro tahlili.

Hikoyalarni **mavzuviy tahlil** qilishda nima aytilgani muhim bo‘lib, qanday aytilgani ahamiyatli hisoblanmaydi. Garchi, ushbu yondashuv sodda bo‘lib ko‘rinsada, aslida u diqqatlilikni talab etadi. Og‘zaki nutq qog‘ozga tushirilgach, tadqiqotchi nutqdagi asosiy mavzularni aniqlaydi. Bunda tadqiqotchi tarix, sotsiologiya, antropologiya kabi sohalar bilan yaqindan tanish bo‘lishi hikoyada tilga olingan voqealarni sabab va oqibatlari, detallari bilan tushunishga yordam beradi.

Struktural tahlilda esa birinchi galda hikoyalar qay shaklda ifoda etilganini aniqlash muhim. Bunda nutqning grammatik, leksik xususiyatlari, so‘zlovchi aksentiga e’tibor beriladi. Hikoya qilishda so‘zlovchi qanday strategiyalardan foydalangani, hikoya matnini shakllantirishda turli gaplarni qanday ulagani, yoki masalan, olmoshlardan qanday foydalangani o‘rganiladi.

Dialogik/ijro tahlilida hikoyaning nima haqidaligi, yo qanday ifoda etilganligidan tashqari kimga yo‘naltirilganligi, qachon va nimaga, qanday maqsadga ko‘ra so‘zlanganligi muhim sanaladi. Bunda tadqiqotchi muloqot davomida bevosita ishtirok etishi, suhbatdoshlarning kimligi, ularning umumiy sotsiotarixiy kelib chiqishi haqida bilishi, diskurs namunalarini aniqlashi kerak. Bunda nima va qanday ifoda etilgani, ovoz, aytilgan ma’lumotlar qanday manbadan olingani, qanday usul va uslubda gapirilgani, dialekt, sotsiolekt qo‘llanilishi kabi jihatlar ham tahlilga tortilishi mumkin bo‘ladi.[236]

Aneta Pavlenko (2007) tadqiqotchilar hikoya shaklida to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilishda, ko‘proq mavzuviy tahlilga yondashilib quyidagi 5 turdagi muammo va qiyinchiliklarga duch kelishadi, deb hisoblaydi:

1. Nazariy asosning mavjud emasligi – bu muammo konseptual kategoriyalar qayerdan kelayotgani, bir-biriga qanday bog‘liqligini tushunmaslikka sabab bo‘ladi.
2. Misollarni kategoriyalar bilan moslashtirish uchun belgilangan tartibning yo‘qligi.
3. Takroriy misollarga nihoyatda ko‘p suyanib yuborish. Natijada tahlilchi takrorlanmagan yo oldindan belgilangan sxemalarga mos kelmaydigan muhim voqealarni e’tibordan chetta qoldirishi mumkin.
4. Matnda nima deyilganiga o‘ta e’tiborli bo‘lish. Vaholanki, tag ma’no ochiqchasiga ifodalangan ma’nodan ko‘ra ko‘proq ma’lumotni bera olishi mumkin.
5. O‘zlarini qandaydir obrazda ko‘rsatish uchun va tajribalarini izohlashda tilni qanday usullarda ishlatayotganiga yetarlicha ahamiyat bermaslik.[237]


Sotsiolingvistik tahlil uchun intervyu matni qog‘ozga tushirilganda tahrirsiz yoziladi. Uch nuqta (...) punktuatsion belgisi esa pauza yoki o‘chirilgan so‘zlarni ifodalashda qo‘llaniladi. Shuningdek, bir qator olimlar (xususan Block, Norris) identiklik tadqiqotlarida nafaqat til, balki nigoh, qomatning qanday tutilayotgani va qo‘l harakatlariga ham ahamiyat qaratish, ular ifodalayotgan ma’noni ham inobatga olish kerak, deb hisoblashadi.

Ko‘p tilli so‘zlashuvchilar lisoniy identikligi, til repertuarlari, ularning har bir tilga bo‘lgan munosabati, funksional baholashi va hissiy bog‘liqligi haqida ma’lumot olish imkonini beruvchi yana bir vosita bo‘lib, uni Til portreti silueti (The Language Portrait Silhouette Task) mashqi deb nomlashgan. Til portreti silueti bir necha yillardan beri tadqiqot vositasi sifatida lingvistik xilma-xillikni

[236] Block, D. (2010). Researching language and identity (2010). Continuum Companion to Second Language Research Methods.
[237] Pavlenko, A. (2007). Autobiographic Narratives as Data in Applied Linguistics (2007). Applied Linguistics.

tadqiq qilishda multimodal biografik usuldan foydalanib olib borilayotgan ishlarda qo‘llanib kelinmoqda.

Til portreti silueti - bu shaxs lingvistik repertuarining tana silueti konturidan foydalangan holda tayyorlangan vizual tasvir bo‘lib, undan foydalanish vositasida ishtirokchilar o‘zlarining til variantlarini yoki muloqotning boshqa aspektlarini ko‘p tilli va multimodal kontekstda ifoda etishlari mumkin. Siluet odatda turli tillarni yoki muloqot usullarini ifodalovchi ranglar yoki belgilar bilan bo‘yaladi. Til portreti silueti dastlab tilga munosabatidan xabardorlik (language awareness) mashqi sifatida ishlab chiqilgan bo‘lsa, endi u ko‘p tilli va multimodal repertuarlarni o‘rganish uchun tadqiqot vositasi sifatida qo‘llanib kelinmoqda. Unda quyidagi kabi sodda siluetdan foydalanish mumkin:



[238]

Vazifaning afzalliklaridan biri yosh tanlamasligidadir. Xatto yosh bolalar ham tayyor badan tasviri tushirilgan suratni turfa ranglar, shakllar va simvollar vositasida bo‘yashi va o‘z tanlovlarini og‘zaki tushuntirib berishi mumkin. Bunda surat suhbatni ochish vositasi bo‘lib xizmat qilib, tadqiqot ishtirokchisining biografik hikoyasini shakllantirishga va ko‘rgazmali taqdim etishga sharoit yaratadi. Til portreti silueti Arnesen, Allan, Simonsen, & Council of Europe, 2010[239]; Gogolin & Neumann, 1991[240]; Krumm & Jenkins, 2001[241]; Portnaia, 2014[242]; Busch, 2010, 2012[243]; Martin, 2012[244]; Lundell, 2010[245]; Dressler, 2014[246] kabi bir qator tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari doirasida qo‘llanilgan.

---

[238] 8ba1febe49dacc65dc66b032075e2ca7.png (1275×1650) (pinimg.com)

[239] Arnesen, A.-L., Allan, J., Simonsen, E., & Council of Europe. (2010). Policies and practices for teaching sociocultural diversity: A framework of teacher competences for engaging with diversity. Strasbourg, France: Council of Europe.

[240] Gogolin, I., & Neumann, U. (1991). DIL - LANGUAGE - LINGUA - Sprachliches Handeln in der Grundschule [DIL - LANGUAGE - LINGUA: Language negotiation in elementary school]. Die Grundschulzeitschrift, 43, 6–13

[241] Krumm, H.-J., & Jenkins, E.-M. (2001). Kinder und ihre Sprachen - lebendige Mehrsprachigkeit. Sprachenporträts - gesammelt und kommentiert von Hans-Jürgen Krumm [Children and their languages - vibrant multilingualism: Language portraits collected and commented on by Hans-Jürgen Krumm]. Vienna, Austria: Eviva Verlag.

[242] Portnaia, N. (2014). Sprachlernsituationen der Kinder mit migrationsbedingter Zwei-/Mehrsprachigkeit beim Fremdsprachenlernen in der Grundschule: Eine qualitative Studie unter besonderer Beruecksichtigung der Herkunftssprache Russisch [Language learning situations of bi-/multilingual immigrant children in elementary school foreign language learning contexts: A qualitative study with a particular focus on children with Russian as a heritage language]. Berlin, Germany: Logos Verlag.

[243] Busch, B. (2010). School language profiles: Valorizing linguistic resources in heteroglossic situations in South Africa. Language and Education, 24(4), 283–294. doi:10.1080/09500781003678712

Ko‘p tilli so‘zlashuvchilar lisoniy identikligini tadqiq etishda aralash metodlarni qo‘llash orqali yanada chuqur va keng qamrovli xulosalar olish mumkin. Intervyu va kuzatuv kabi sifatiy usullar ishtirokchilar tajribalari va shaxsiy fikrlarini o‘rganishga yordam bersa, so‘rovnomalar qisqa vaqt ichida keng qamrovli miqdoriy ma’lumotlar to‘plash imkonini beradi. Shuningdek, Til portreti silueti kabi yangi metodlar yordamida tadqiqotlar yanada jonli va qiziqarli shaklga keltiriladi. Qolaversa, tadqiqotchilar ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilishda texnologiyalarni ham faol qo‘llashi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Block, D. (2010). Researching language and identity. In *Continuum Companion to Second Language Research Methods*.

2.Pavlenko, A. (2007). Autobiographic narratives as data in applied linguistics. *Applied Linguistics, 28*(2), 163-188.

3.Arnesen, A.-L., Allan, J., Simonsen, E., & Council of Europe. (2010). *Policies and practices for teaching sociocultural diversity: A framework of teacher competences for engaging with diversity.* Strasbourg, France: Council of Europe.

4.Gogolin, I., & Neumann, U. (1991). DIL - LANGUAGE - LINGUA - Sprachliches Handeln in der Grundschule [DIL - LANGUAGE - LINGUA: Language negotiation in elementary school]. *Die Grundschulzeitschrift, 43*, 6–13.

5.Krumm, H.-J., & Jenkins, E.-M. (2001). *Kinder und ihre Sprachen - lebendige Mehrsprachigkeit. Sprachenporträts - gesammelt und kommentiert von Hans-Jürgen Krumm.* Vienna, Austria: Eviva Verlag.

6.Portnaia, N. (2014). Sprachlernsituationen der Kinder mit migrationsbedingter Zwei-/Mehrsprachigkeit beim Fremdsprachenlernen in der Grundschule: Eine qualitative Studie unter besonderer Berücksichtigung der Herkunftssprache Russisch [Language learning situations of bi-/multilingual immigrant children in elementary school foreign language learning contexts: A qualitative study with a particular focus on children with Russian as a heritage language]. Berlin, Germany: Logos Verlag.

7.Busch, B. (2010). School language profiles: Valorizing linguistic resources in heteroglossic situations in South Africa. *Language and Education, 24*(4), 283–294. doi:10.1080/09500781003678712

Busch, B. (2012). The linguistic repertoire revisited. *Applied Linguistics, 33*(5), 503–523. doi:10.1093/applin/ams056

Busch, B. (2012). The linguistic repertoire revisited. Applied Linguistics, 33(5), 503–523. doi:10.1093/applin/ams056

[244] Martin, B. (2012). Coloured language: Identity perception of children in bilingual programmes. Language Awareness, 21(1–2), 33–56. doi:10.1080/09658416.2011.639888

[245] Lundell, L. (2010). “What is the color of English?” Representation of English in the language portraits of Sámi children (Master’s thesis). University of Jyväskylä, Finland. Retrieved from https://jyx.jyu.fi/dspace/bitstream/handle/123456789/25107/URN:NBN:fi:jyu-201009212665. pdf?sequence=1

[246] Dressler, R.. (2015). Exploring Linguistic Identity in Young Multilingual Learners. 32(1). https://doi.org/10.18806/TESL.V32I1.1198

8.Martin, B. (2012). Coloured language: Identity perception of children in bilingual programmes. *Language Awareness, 21*(1–2), 33–56. doi:10.1080/09658416.2011.639888

9.Lundell, L. (2010). “What is the color of English?” Representation of English in the language portraits of Sámi children (Master’s thesis). University of Jyväskylä, Finland.

10.Dressler, R. (2015). Exploring linguistic identity in young multilingual learners. *TESL-EJ, 32*(1). https://doi.org/10.18806/TESL.V32I1.1198

PRAGMATIKADA NUTQIY AKT NAZARIYASI

Zaylobiddinova Mohtoba Sherzod qizi
O‘zMU magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutqiy akt haqida nazariy ma’lumotlar, uning turlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: pragmatika, nutqiy akt, darak gap, so‘roq gap, buyruq gap, verdiktiv, ekzersitiv, komissiv, bexabitiv, ekspozitiv, konfliktiv, deklarativ, ekspressiv, direktiv.

Abstract. This article provides theoretical information about the speech act, information about the views of linguists about the speech act, and information about the types of speech act.

Key words: pragmatics, speech act, indicative sentence, interrogative sentence, command sentence, verdictive, exercisive, comissive, non-habitual, expository, conflictive, declarative, expressive, directive.

Pragmalingvistika sohada til birliklari tahlilining yangi usullari paydo bo‘lishiga asos bo‘ldi. Natijada o‘zbek tilshunosligi lug‘atida yangi terminlar paydo bo‘ldi. Jumladan, nutqiy akt tushunchasi “odamlar o‘rtasidagi aloqa-aralashuv jarayonida sodir etiluvchi o‘zaro ma’no aktlari munosabatining”[247] bayonini ifodalaydi va pragmalingvistikaga bog‘liq tushuncha hisoblanadi.

Nutqiy akt nazariyasi 1975-yilda oksford faylasufi J.L.Ostin tomonidan “So‘zlar bilan qanday ishlash kerak” (How to Do Things With Words”) asarida yangi soha sifatida kiritilgan va amerikalik faylasuf J.R.Syorl tomonidan ushbu soha yanada yangi bosqichda rivojlangan.[248]

Nutqiy aktlar masalasi matn bilan bog‘liq tushunchalar sifatida pragmatikaning markaziy muammolaridan biri sanaladi. Nutqiy aktlar mazmuniy strukturaning elementlaridir. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari sanalgan darak, so‘roq, buyruq kabi pradigmatik qatorni matn talabidan kelib chiqib *iltimos, minnatdorlik, tahdid, qo‘rqitish, ehtirom* qator mazmuniy strukturalar bilan davom ettirish mumkin. Pragmalingvistika sohasining yuzaga kelishi nutqiy aktlar haqidagi muammolarning dolzarbligini ta’minlaydi.[249]

[247] Собирова М. Газета матнларида нутқий актларнинг ифодаланиш усуллари// Ўзбекистонда хорижий тиллар. - №3(32). – Т., 2020. – Б. 42-51.

[248] Nasriddinov M.Nutqiy aktning asosiy kategoriyalari. Iltimos,undov nutqiy akti.INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME ISSUE 8.

[249] Hakimov M. Pragmalingvistik tadqiqotlar tarixi. Farg’ona 2020. –B.6

So‘zlovchi o‘z kommunikativ niyatini turli shakllarda amalga oshiradi. “Ifoda maqsadiga ko‘ra gapning turlanishi sof nutqiy hodisadir. So‘zlovchi nutq jarayonida fikr ifodalash bilan birga, ma’lum bir maqsadni ko‘zlaydi.[250] So‘zlovchi turli vaziyatda, turli kayfiyatda so‘zlaydi. Nutqiy birliklarning strukturaviy tuzilishi va kommunikativ mazmun o‘rtasidagi munosabatni o‘rganishda gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlariga murojaat qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Darak gaplar axborot uzatish, xabar berish bilan birga, yuqorida aytganimizdek, so‘zlovchining tinglovchiga munosabatini ham ifodalaydi: *Havo sovuq* – xabar mazmunidagi gap (pragmatik aspektda:tashqariga issiq kiyinib chiq). Nutq birliklarning turli kommunikativ maqsad anglatishini nutq vaziyati yoki kontekst ochib beradi. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari pragmatik aspektda nutq egasi, nutq vaziyati bilan bog‘liq holda amalga oshirilar ekan, nutqiy birliklar semantik strukturasining turli qirralarini ochib beradi.[251]

Darak gapning pragmatik ma’nolari haqida so‘z borganda, pragmalingvistikaning tahlil tushunchalarini e’tiborga olmaslikning iloji yo‘q. Darak gapning pragmatik jihatini ochishda nutqiy akt tasnifi muhim ahamiyat kasb etadi. M. Hakimov, Sh. Safarov kabi tilshunos olimlar o‘z ishlarida pragmalingvist J. Ostin, J. Syorl va boshqalarning nutqiy akt tasnifiga doir tavsiflarini sharhlab o‘tgan. Quyida J.Ostin tomonidan guruhlarga ajratilgan nutqiy aktlar tasnifini ko‘rib chiqamiz:

1. *Verdiktiv* (lot. “vere dictum”-“haq gapni aytish”). – qaror chiqarish, hukm qilish, ogohlantirish va shu mazmunidagi darak gaplar (bu turdagi gaplar bir qarashda buyruq mazmunini ham ifodalashi mumkin, ammo “farmoyish qilindi”, “qaror qilindi” hukmli lisoniy qoliplarda ko‘proq axborot berish mazmuni anglashiladi). Masalan, *Sud qaror qiladi, Oxirgi marta sizni ogohlantiraman.*

2. *Ekzersitivlar*. O‘z huquqidan, hukmronligidan foydalanib, buyruq berish, majbur qilish, maslahat berish, ogohlantirish ma’nolari ifodalanadi.

3. *Komissiv* (ing. “commitment”- “majburiyat” Sh.S.) – va’da berish va uni ijro etish mazmunidagi darak gaplar: *“Senga turmushga chiqaman”, “biz uddaladik”.*

4. *Bexabitivlar*. Jamoada o‘zini tutish, etik-estetik mazmunidagi gaplar.

5. *Ekspozitivlar.* O‘z fikrini izohlash, tasdiqlash, va tushuntirish jarayonida yuzaga keladigan nutqiy aktlardir.

So‘roq gaplarning pragmatikasini tahlil qilishda nutqiy akt muhim rol o‘ynaydi. So‘roq gaplar har doim adresat va adresantni talab etadi. Shu boisdan nutqiy akt harakati bu turda ancha faol bo‘ladi. Nutqiy akt ham ayni paytdagi, faol jarayonni tahlil qiladi. “Har qanday nutq turining ijrochisi so‘zlovchidir va nutq

[250] Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Фан ва технология, 2009. – Б. 369.

[251] Панжиева Н.Н. Когнитивно-стилистические парадигмы оценочных номинаций лица в английском и узбекском языках. Монография. – ТерГУ, 2015.

faqatgina so‘zlanilayotgan paytdagi harakatdir”.[252] Bu jihatdan nutqiy akt harakatlarini so‘roq gaplarda tasnif qilinishi o‘rinlidir. Nutqiy akt tasnifini J.Ostin, J.Syorl, K.Allanning tadqiqotlaridan tashqari, T.G.Voloshina va G.V.Mironovaning ishlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Tilshunoslar nutqiy harakatning yana bir qancha turlarini so‘roq gaplar misolida tahlil qilishgan. Jumladan, proxibitivlar, applikativ, direktiv, imperativ, kautiv, kauzativ, egzortiv, deklarativ kabi turlarni nutqiy akt tasnifiga kiritgan.

Tilshunoslar T.G.Voloshina va G.V.Mironovalar tomonidan yuqorida sanab o‘tilgan nutqiy harakat turlari kinossenariy matnlaridagi so‘roq gap qurilmalari misolida tasniflab berilgan. Albatta, bu tasniflar borasida oppozitiv qarashlar va ayni damda ularni yanada rivojlantiruvchi fikrlar mavjud bo‘lishi tabiiy hol. Nutqiy akt guruhlariga alohida to‘xtalgan olimlardan biri J.Ostin tasniflarida shaklan darak gaplar hukmiga to‘g‘ri kelsa-da, ammo so‘roq gaplar tagzamirida turli mazmundagi nutqiy aktlarning ma’noviy jihatlarini uchratishimiz mumkin.

So‘roq gaplarning pragmatik ma’nolari nutqiy akt kategoriyasi orqali misollar asosida quyidagicha tasniflandi:

1. *Deklarativ* (lot.“declarativus”-“tushuntirish, bayonot berish”) – voqelikda shaxs holatining o‘zgarishida qo‘llanadigan so‘roq gaplar.

2. *Direktiv* (lat. “directivus” “ko‘rsatma, boshqaruv”). Buyruq, savol, iltimos, ogohlantirish, g‘azab va istehzo mazmunidagi so‘roq gaplar: Buyruq: *Aytilgan joyga vaqtida kela olasanmi?* Savol: Soat nechida yetib kelasiz? Iltimos: *Eshikni yopib qo‘yolasizmi?* Ogohlantirish: *Bu ishingizni boshqa takrorlamaysiz-a?*

3. *Proxibitiv* (lot. “prohibitio” – “taqiq”). Taqiqlash mazmunidagi so‘roq gaplar: *Bu mening hayotim. Shu mavzuga boshqa qaytmasak?* (o‘zi haqidagi mavzuga qaytishni taqiqlayapti).

4. *Espressiv* (lot. “espressive”-“jonli, ifodali”[253]) – ta’ziya mazmunidagi so‘roq gaplar: *Ko‘ngillaring yomon bo‘lmay o‘tiribsizlarmi?*

5. *Prediktiv* (ing. “predict” –“oldindan aytmoq, kutiladigan”[254]) – taxmin ma’nosidagi so‘roq gaplar: Taxmin: *Borganmikin?*

6. *Komissiv* (lot. “comissio”-“va’da”) – va’da, taklif ma’nosidagi so‘roq gaplar: *Bugungi tadbirga borasizmi?*

7. *Aknolejment* (“acknowledgement” – “tasdiqlamoq”[255]). Takalluf, ehtirom ma’nosidagi so‘roq gaplar: *Sizni ovora qilib qo‘ymaymanmi?*

A.Nurmonov va N.Mahmudovlar buyruq gaplarni II shaxsni harakatga qo‘zg‘ash va modallikka nisbatan aktiv, I shaxs axborotiga nisbatan nofaol deya ta’riflaydi

[252] Сафаров Ш. Категоризация и сопоставление языков //Буюк ипак йўлида умуминсоний ва миллий қадриятлар: тил, таълим ва маданият. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2020. – Б. 6.

[253] Электрон манба:https://languages.oup.com/google-dictionary-en

[254] Электрон манба: https://vocabulary.ru

[255] Электрон манба: https://languages.oup.com/google-dictionary-en

Kommunikativ tiplarning yana bir turi buyruq gaplar tinglovchini biror narsaga – biror ishni bajarishga buyurish, qistash mazmunini, shu bilan bog‘langan boshqa ma’nolarni ham ifodalaydi.[256]

A.Nurmonov va N.Mahmudovlar buyruq gaplarni II shaxsni harakatga qo‘zg‘ash va modallikka nisbatan aktiv, I shaxs axborotiga nisbatan nofaol deya ta’riflaydi.[257] Pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilinganda, I shaxs axboroti darak gaplarda mavjud bo‘lsa, buyruq gaplarda ham uchrashi mumkin. Masalan: Soyaboningni olib ol (buyruq gap. – yomg‘ir yog‘ishi haqida axborot bermoqda). Aytish mumkinki, pragmatik aspektda kommunikativ turlar nutq vaziyatiga qarab turli maqsadlarni aks ettirishi mumkin. Darak, so‘roq gaplarning tasnifidan farqli o‘laroq, nutqiy aktlarning barcha turi ham buyruq gaplar uchun to‘g‘ri kelmaydi. J.Syorl, K.Allan, J.Lichlarning nutqiy akt tasniflarini umumiylashtirgan holda buyruq gapning nutqiy akt tasnifi quyidagicha tizimlashtirildi:

1. *Verdiktiv* (lot. “vere dictum”-“haq gapni aytish”[258]) – hukm chiqarish mazmunidagi buyruq gaplarning bu turi buyruq gaplar uchun xosdir: *Sud zalidan olib chiqilsin.*

2. *Ekzersitiv* (lot. exercitation – “ijro etmoq”, “bajarmoq”) – adresant hukmronligi ustunroq bo‘lgan vaziyatda, o‘z huquqi, mansabidan foydalangan holda buyruq berish, ogohlantirish, majbur qilish mazmunini ifodalovchi buyruq gaplar: *Bu ishingni boshqa takrorlama.*

3. *Ekspozitiv* (ing. exposition – “izoh, tavsif, tushuntirish”) – izohlash, tavsiflash tushuntirish orqali hukm o‘tkazish mazmunini ifodalovchi buyruq gaplar: *Ertaga yig‘ilish bo‘ladigan kun.*

4. *Direktiv* (lat. “directivus” - “ko‘rsatma, boshqaruv”[259]). – buyruq, savol, iltimos, ogohlantirish mazmunidagi buyruq gaplar. Buyruq gapning bu turida tinglovchini faoliyatga undovchi nutqiy aktlar ishtirok etadi: *Uy ishlaringni o‘z vaqtida bajar.*

5. *Espressiv* (lot. “espressive”-“jonli, ifodali) – tilak, tabrik, duo va boshqa ijobiy mazmunda qo‘llaniluvchi buyruq gaplar (bunga, asosan, marosim, urf-odat, ta’ziya-maraka kabi tadbirlarda qo‘llaniluvchi tayyor lisoniy birliklarni kiritish mumkin). Darak gaplarda ham so‘roq gaplarda ham qo‘llanilishi mumkin: *“Ta’ziyamni qabul qiling”* kabi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hakimov M. Pragmalingvistik tadqiqotlar tarixi. Farg‘ona 2020. –B.6

2. Маҳмудов Н.,Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси.Ўқитувчи.Тошкент.-1995.Б.47.

3. M.Xujamkulova. Sodda gapda kommunikatsiya va pragmatika munosabati.Monografiya. Toshkent.2023

[256] Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўқитувчи, 1987. – Б. 62.
[257] Маҳмудов Н.,Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси.Ўқитувчи.Тошкент.-1995.Б.47.
[258] ЎзМЕ I жилд. –Т.:2000.электрон ресурс. Манба: https://uz/wikipedia/org/w/index(2022.6.13).
[259] Электрон манба:https://ru.wiktionary.org/wiki/

4. Nasriddinov M.Nutqiy aktning asosiy kategoriyalari. Iltimos,undov nutqiy akti.INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME ISSUE 8.

5. Панжиева Н.Н. Когнитивно-стилистические парадигмы оценочных номинаций лица в английском и узбекском языках. Монография. – ТерГУ, 2015.

6. Собирова М. Газета матнларида нутқий актларнинг ифодаланиш усуллари// Ўзбекистонда хорижий тиллар. - №3(32). – Т., 2020. – Б. 42-51.

7. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Фан ва технология, 2009. – Б.

8. Сафаров Ш. Категоризация и сопоставление языков //Буюк ипак йўлида умуминсоний ва миллий қадриятлар: тил, таълим ва маданият. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2020.

9.Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўқитувчи, 1987.

FRAZEOLOGIZMLAR VA BOSHQA PAREMIOLOGIK BIRLIKLAR SEMANTIKASI YUZASIDAN AYRIM FIKRLAR

Shahzoda Sog‘inboyeva
NamDU talabasi
Ilmiy rahbar: Umidjon Qo‘ziyev
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya. Arab tili leksikasida forsiy va turkiy birliklar kuzatilgani kabi, o‘zbek tili leksikasida arabcha so‘zlar bilan bir qatorda iboralar, matallar ham keng o‘rin olgan. Ushbu maqolada o‘zbek xalqi hayotiga diniy turmush tarzining kirib kelishi natijasida shakllangan ayrim diniy frazeologizmlar va o‘zbek iboralarining diniy manbalar bilan aloqadorligi, frazeologizmlarning o‘rganilish darajasi o‘rganilgan. O‘zbek tilidagi frazeologizmlarni o‘rganishda adabiyotlar tahlili, tavsifiy, semantik va lingvokulturologik tahlillardan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: frazeologizmlar, paremalar, diniy frazeologizm, diniy leksika, leksema, antroposentrik paradigma, lingvokulturologik tahlil.

Abstract. Persian and Turkish units are observed in the lexicon of the Arabic language, as well as phrases and expressions in the lexicon of the Uzbek language, along with Arabic words. In this article, some religious phraseology formed as a result of the introduction of a religious lifestyle into the life of the Uzbek people, the relationship of Uzbek expressions with religious sources, the level of study of phraseology is studied. Literature analysis, descriptive, semantic and linguocultural analyzes were used in the study of phraseologisms in the Uzbek language.

Keywords: phraseologisms, parames, religious phraseology, religious lexicon, lexeme, anthropocentric paradigm, linguocultural analysis.

Kirish. O‘zbek va arab tillari qariyb 13 asrdan buyon ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy aloqalar natijasida rivojlanib kelmoqda. Arab tili leksikasida forsiy va turkiy birliklar kuzatilgani kabi, o‘zbek tili leksikasida arabcha so‘zlar bilan bir

qatorda iboralar, matallar ham keng o‘rin olgan. Ayniqsa, o‘zbeklar hayotiga diniy turmush tarzining kirib kelishi natijasida diniy leksikaga oid leksemalar shakllangan. O‘zbek tilida ham diniy leksika ma’lum bir qatlam sifatida o‘rin egallaydi. Shu bilan bir qatorda, o‘zbek tilida diniy leksikada frazeologizmlar ham shakllanib, boyib bormoqda.

Mavzuning o‘rganilishi. Frazeologizmlar bo‘yicha bir qancha olimlar tadqiqot ishlari olib bormoqdalar. Mazkur mavzuda L.L.Grigoreva, E.E.Chikina, S.V.Bulavina kabi olimlarning tadqiqotlari rus tilshunosligida xrintianlik dinidagi frazeologik birliklarni o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, hozirgi kunda dolzarb hisoblangan antroposentrik paradigma doirasida tadqiq qilingan. Z.R.Xafizova qardosh boshqird tilida diniy leksikani tadqiq qilgan va 14ta guruhga bo‘lib o‘rgangan. [2;116]

Diniy ta’limot bilan frazeologiyaning bog‘liqlik darajasini o‘rganish uchun turli tillardagi frazeologik birliklar atroflicha o‘rganilgan. Ammo o‘zbek tilshunosligida ma’lum bir qatlam hisoblangan diniy frazeologizmlarni o‘rganishga bag‘ishlangan fundamental ishlarning mavjud emasligi ta’kidlanadi. Unutmaslik lozimki, tarixiy taraqqiyotning ma’lum bir bosqichida islom dini o‘zbek xalqi hayotida muhim rol o‘ynagan.

Yurtimizda so‘nggi yillardagi ijtimoiy va siyosiy vaziyatdan kelib chiqib, diniy leksika sohasida til tizimida diniy leksikaning o‘rnini o‘rganish uchun imkoniyat kengaydi. Mazkur leksik qatlamni turli nuqtayi nazardan o‘rgangan o‘zbek olimlaridan N.M.Uluqovning “O‘zbekcha diniy matnlardagi ekzotik leksika”, Sh.M.Sultonovaning “Muqaddas matnlarda zamon kategoriyasi”, M.Umarxo‘jayevning “Diniy uslub va diniy terminologiya”, Sh.T.Mahmarayimovaning “Teomorf metaforalarning kognitiv aspekti”, Sh.S.Sirojiddinovning “O‘zbek klassiklari ijodida diniy-falsafiy ta’limot”, M.R.Galiyevaning “Olamning lisoniy manzarasida mifologik-diniy ong” kabi tadqiqotlar mazkur tematikada olib borilgan izlanishlarga namuna bo‘la oladi.[2;116]

Diniy frazeologik birliklarning maxsus lug‘atlarda namoyon bo‘lishiga kelsak, o‘zbek tilshunosligida bunday lug‘at hali tuzilmagan. Mavjud frazeologik lug‘atlardagi diniy frazeologizmlarga e’tibor bersak, uning hajmi to‘la qamrab olinmaganiga guvoh bo‘lamiz. Vaholanki, diniy frazeologizmlar tilimizning faol qatlamidan o‘rin egallagan.

Metodlar

Biz ushbu maqolada o‘zbek tilidagi frazeologizmlarni o‘rganishda adabiyotlar tahlili, tavsifiy, semantik va lingvokulturologik tahlil metodlaridan foydalandik.

Tahlillar. Tadqiqotchi Sh.M.Sultonova diniy frazeologizmlarning tarkibida keluvchi ayrim diniy leksikani quyidagicha tasniflaydi:

1.Yaratuvchining nomlari.

2. Payg‘ambarlar, ularning safdoshlari, g‘ayritabiiy kuchga ega bo‘lgan mavjudotlar nomlari.

3. Yovuz kuchlarni anglatuvchi personajlar nomlari.

4. Mifologik personajlar nomlari.

5. Narigi dunyo bilan bog‘liq voqealar va joy nomlari.

6. Kishilarning e’tiqodiga ko‘ra nomlanishi.

7. Diniy konfessial terminlar.

8. Ibodat, diniy marosimlar, diniy bayramlar, va boshqalar bilan bog‘liq leksika .[2;116-118]

Bu guruhdagi har bir tushuncha o‘ziga xos frazeologizmlar, paremalar tuzilishida ishtirok etadi.

XX asrda mafkuraviy tazyiq ostida jonli tilda qo‘llanishi cheklangan ko‘plab semalar tilimizning nofaol qatlamidan o‘rin oldi va lug‘atlarda eskirgan so‘zlar qatorida qayd qilindi. Mustaqillik yillarida esa diniy leksikaga oid so‘zlar faollashdi, ijtimoiy cheklangan leksikadan umumxalq leksikasiga o‘tib borayotganligi, mazkur leksik sathning kengayib borayotganligi to‘g‘risida radio, televideniye kabi ommaviy axborot vositalarida qo‘llanish imkoniyati o‘sib borayotganligi ham guvohlik beradi. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, ularning ko‘pchiligi diniy tushuncha ifodalovchi leksik birliklardan tuzilgan bo‘lsa-da, nutqda maishiy, ijtimoiy mazmun kasb etadi xolos: jini suymadi, Xudo urgan, Sulaymon o‘ldi kabi.

Faqat og‘zaki nutqda emas, balki badiiy adabiyotda asarlarning sarlavhalari, matnlarida ham aks etmoqda. Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni”, Tohir Malikning “Shaytanat”, “Halol nima-yu harom nima?”, “Iblis devori”, Shukur Xolmirzayevning “Qilko‘prik”, Abdulla Oripovning “Odam va shayton qissasi”, “Jannatga yo‘l” kabi asarlarini misol sifatida keltiramiz.[2;119]

Leksik sath tarkibida uchrovchi o‘zbek tili frazeologizmlari bilan ayrim diniy manbalarning aloqadorligini quyida ko‘rib chiqamiz.

“Sening ko‘ksingni keng qilib qo‘ymadikmi” (Sharh surasi. 1-oyat). Ya’ni Alloh taolo O‘zining inoyati bilan Muhammad alayhissalomning ko‘ksilarini keng qildiki, u zot ko‘ksilariga Payg‘ambarlik, hidoyat, iymon, hikmatlar mas’uliyatini sig‘dira oldilar [1:6;498].

Ko‘ksini keng qilmoq frazeologizmi Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” asarida “oliyhimmat, saxovatli” deya izohlangan va bag‘rikenglik, tolerantlikka da’vat qiluvchi ibora sanaladi. Ko‘ngli keng, ko‘ngli daryo, mehri daryo, yuragi keng, yuragi daryoday keng, yurak-bag‘ri keng, fe’li keng kabi sinonimik qatorga kiradi. Shuningdek, ko‘ngli tor, yuragi tor, fe’li tor, ichi tor kabi iboralar qatori bilan zidlanadi.

Ko‘ngli keng frazeologizmning semasi “Uying tor bo‘lsa ham, ko‘ngling keng bo‘lsin” maqolida ham namoyon bo‘ladi.

“O‘lganda go‘ring keng bo‘lsin, tiriklikda – fe’ling” maqolida “keng” semasi tiriklik va o‘lim konseptlari orasida farqlanmoqda. Bunda dunyoda ko‘ngilni keng qilib, hamma narsadan rozi bo‘lib yashashlik, o‘lganda qabrning keng bo‘lishi, ya’ni qabrda ilohiy ne’matlardan bahra olishga sabab bo‘lishi ta’kidlanmoqda.

“Mehmonxonang tor bo‘lsa ham, mehri-diling keng bo‘lsin” maqolida o‘zbek xalqining azaliy qadriyatlaridan biri mehmondo‘stlikka e’tibor qaratilmoqda.

Bundan tashqari, quyidagi maqollarda ham “ko‘ngli keng” frazeologizmiga oid semalar uchraydi: “Keng bo‘lsang, kam bo‘lmaysan”,“Ko‘ngling keng bo‘lsa, hujra ham saroy”,“Tegirmonda tug‘ilgan sichqonning fe’li keng”,“Uying tor bo‘lsa, dunyoning kengligi bilinmas”,“Torga – tor dunyo, kengga – keng dunyo”, “Oyoqda etiging tor bo‘lsa, dunyo kengligidan ne foyda” kabi.

Yukini yengillashtirmoq frazemasi semasi *uzog‘ini yaqin qilmoq, og‘irini yengil qilmoq* kabilar bilan sinonimik qator tashkil etadi. Yordamlashdi, ishiga qarashdi kabi ma’nolarni anglatadi va “yuk” so‘zi biror vazifa, yumushni ifodalaydi. U ko‘p ma’noli so‘z bo‘lib, foydalanilish mavzusi keng. Ko‘pincha “yelkasiga yuklatilgan vazifa, bajarishi shart bo‘lgan ish” ma’nolarida keladi.

“Va sening yukingni yengillatmadikmi?” (Sharh surasi. 2-oyat). Tafsirda “yuk” so‘zi orqali yaxshilikka da’vat nazarda tutilgani, kishilar qalbida Nabiy alayhissalom nasihatlariga moyillik uyg‘otilish orqali hidoyatga yetaklash osonlashtirilgani qayd etiladi.[1:6;499]

“Ustilariga Tavrot yuklatilgan, so‘ngra uni ko‘tarmaganlar, misoli ustiga kitob yuklangan eshakka o‘xsharlar…” (Jum’a surasi. 5-oyat). [1:6;148] Arabiston yerlarida nozil qilingan Qur’oni Karimdagi “kitob yuklangan eshak” birikmasi madaniyatlararo o‘xshashlik natijasida turkiy xalqlar ijodida ham kuzatiladi.Sa’diy She’roziyning “Bo‘ston” asarida:

Ilmiga amal qilmagan mulladan beshak,

Afzaldir ustiga kitob ortilgan eshak, – deyiladi va bunda ilmiga amal qilmagan olimdan ko‘ra, ustiga kitob yuklatilgan eshak afzalligi ta’kidlanyapti.

Ustiga kitob ortilgan eshak,

Na olim va na donodir beshak, – misralari orqali amal qilinmagan ilmning bari bekor degan ma’no kelib chiqadi.

Misollardan ma’lum bo‘ladiki, yurak, qalb, ko‘ks kabi so‘zlar o‘zbek lisoniy ongida moddiy a’zo sifatida tushunilib, unga 3 o‘lchamli tavsif beriladi, bunda metafora ishlatiladi.

Ikkinchi xususiyat, frazeologizmlardagi metaforik ko‘chimlar aynan qolip sifatida hadislar, turli adiblarning hikmatlari, maqollarda takrorlanadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, ushbu birliklar bir xil semantik jarayonni boshdan kechirgani, shaklan esa birmuncha farqlanishi namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol.- Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2009.

2. Gumanitar tadqiqotlar jurnali. «Muharrir» nashriyot matbaa. 2020

3.To‘ra Mirzayev. O‘zbek xalq maqollari. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2005.

4.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zME, 2006-2008. 5 jildlik.

5. Кузиев У. Я. About sociolects and their place in glossaries (in example Uzbeklanguageanddictionaries) //Научные исследования: теория, методика и практика. – 2017. – С. 281-286.

6.Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. Toshkent. 1978.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI SO‘Z YASOVCHI QO‘SHIMCHALARNING FARQLI VA O‘XSHASH JIHATLARI

Sodiqova Maftuna Xamdam qizi
FarDU talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqola ingliz va o‘zbek tillarida mavjud bo‘lgan bor qancha so‘z yasovchi qo‘shimchalarning o‘rtasidagi sezilarli farqlari va so‘zlarning morfologik xususiyatlari to‘g’risida so‘z olib boradi. Maqola ikkala tilda ham so‘zlarga qo‘shimchalar qo‘shish orqali yangi so‘zlar yarata olishimizga va grammatik ma’nosini batafsil anglashimiz uchun o‘z hissasini qo‘shadi.

Abstract. This article discusses the significant differences between English and Uzbek word-forming suffixes and the morphological features of words. The article contributes to our ability to create new words by adding suffixes to words in both languages and to our detailed understanding of grammatical meaning.

Kalit so‘zlar: Ingliz tili, O‘zbek tili, so‘z yasalishi, til, grammatika

Key words: English language, Uzbek language, word formation, language, grammar

Insoniyat paydo bo‘lgan ilk davrlardan beri inson foydalangan til asta-sekin boyidi va murakkablashdi. Yerning barcha qit’alarida, shuningdek Yevropa va Osiyoda ham odamlar o‘z fikrini bayon qilish va muloqotga kirishishida til asosiy vazifa sifatida xizmat qildi. Bu holat o‘z navbatida yangi so‘zlar yaratilishi bilan bog‘liqdir va biz bu haqida kengroq tushunchaga ega bo‘lishimiz uchun ingliz hamda o‘zbek tillaridagi yasama so‘zlardagi farqli jihatlarni va morfologik xususiyatlarni tahlil qilishni ma’qul ko‘rdik.

Bundan tashqari, o‘zbek milliy madaniyatining mashhur vakili hisoblanmish Abdulla Avloniyning til to‘g‘risidagi e’tirofi diqqatga sazovordir. U " Har bir millatning dunyoda borligin ko‘rsyatadurg’on oynai hayoti: til va adabiyotidur. Milliy tilini yo‘qotmoq millatning ruhini yo‘qotmoqdir"- deya o‘z fikrini bayon etadi. [1, 78]

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, tilning boyligi va murakkabligi so‘zlarni yaratish va ularga yangi ma’no berish qobiliyatiga bog‘liqdir. Bu jarayon morfologiya deb ataladi va so‘zlarning tuzilishini, ularning qismlarini va ularning bir-biri bilan bog‘lanishini o‘rganadi. So‘z yasovchi qo‘shimchalar morfologiyaning muhim elementlaridan biri bo‘lib, ular asosiy so‘zlarga qo‘shilib, ularning ma’nosini o‘zgartiradi va yangi so‘zlar yaratadi.

Ingliz tili va uning morfologik xususiyatlari haqida gapiradigan bo‘lsak, ingliz tili german-skandinav tillar oilasiga mansub bo‘lib, u asosan analitik til sifatida tavsiflanadi. Bu degani, so‘zlarning grammatik ma’nosi ko‘pincha so‘zlarning tartibiga va old qo‘shimchalarning qo‘llanilishiga bog‘liqdir. Ingliz tili, shuningdek, agglutinativ til xususiyatlarini ham o‘zida mujassamlashtiradi, ya’ni u so‘zlarga qo‘shimchalarni qo‘shish orqali ularning grammatik ma’nosini

o‘zgartirishga moyildir. O‘zbek tili esa turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, u asosan sintetik til sifatida tavsiflanadi. Bu degani, so‘zlarning grammatik ma’nosi ko‘pincha so‘zning o‘ziga qo‘shiladigan qo‘shimchalar yordamida ifodalanadi. O‘zbek tili agglutinativ til xususiyatlarini ham o‘zida mujassamlashtiradi, ya’ni u so‘zlarga ko‘p sonli qo‘shimchalarni bir vaqtning o‘zida qo‘shishga moyildir.

So‘z yasalishi grammatika va leksikologiya orasidagi aloqalar butunlay oydindashtirilgan deya olmaymiz. Bu to‘g‘rida turlicha fikrlarning guvohi bo‘lamiz: 1) so‘z yasalishi leksikologiyaning bir qismi, 2) so‘z yasalishi qisman bo‘lsa ham grammatika masalasi, 3) so‘z yasalishi grammatika va leksikologiya orasidagi maxsus sohadir. Bu muammo nafaqat ingliz, balki umumiy tilshunoslikka tegishlidir. B.Ilishning fikricha so‘z yasalishining asosiy xususiyati leksikologiyaga tegishlidir.[2, 18]

Ko‘rinadiki, nafaqat ingliz tili, balki o‘zbek tilida ham prefikslar(sizning boshida qo‘shiladigan qo‘shimchalar) va sufikslar(so‘zning oxirida qo‘shiladigan qo‘shimchalar) mavjud. Masalan, ingliz tilida "un-", "dis-" , " re-", " im-", " mis-", " ir-" , "il-" kabi prefikslar va "- ment", "- er", " - ing" , "-ful", " -ly", " -y", "-ness" kabi sufikslar orqali yangi so‘zlarni yasay olamiz:

1) un+ happy= baxtsiz;
2) re+ write= qayta yozmoq;
3) im+ possible= imkonsiz;
4) il+legal= noqonuniy;
5) employ+ ment= ish;
6) rain+y= yomg‘irli;
7) sudden+ ly= to‘satdan;
8) respect+ ful= odobli.

Xuddi shunday so‘zga salbiy yoki qarama-qarshi ma’no beradigan, ot, sifat, fe’l yoki ravish yasovchi qo‘shimchalar o‘zbek tilida ham bo‘lib, ular orqali yasalgan misollar bilan quyida tanishamiz:

1) ser+ suv= sersuv,;
2) be+ ozor= beozor;
3) ba+ odob= baodob;
4) no+ o‘rin= noo‘rin;
5) go‘zal+ lik= go‘zallik;
6) suv+ chi= suvchi;
7) chiz+ ma= chizma;
8) aql+ siz= aqlsiz.

So‘zlovchi xotirasida so‘z yasash qoliplari va ularning ma’nolari haqida ko‘nikmaning mavjud bo‘lishi har qanday yangi yasalmaning oson tushunilishiga imkon beradi.[3, 142]

Ingliz va o‘zbek tillarida so‘z yasovchi qo‘shimchalarning o‘xshash tomonlari ham mavjud, birinchidan, ikkala til ham qo‘shimchalar orqali yangi so‘zlar yaratish imkoniyatiga ega, ikkinchidan, qo‘shimchalar grammatik ma’noni o‘zgartirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, ingliz tilidagi -s (ko‘plik), -ed

(o‘tmish zamon) va o‘zbek tilidagi - lar (ko‘plik), -di (o‘tmish zamon) qo‘shimchalari grammatik ma’noni ifodalashda ishlatiladi, uchinchidan esa ba’zi qo‘shimchalar so‘zning leksik ma’nosini kengaytirishi mumkin.

Ingliz va o‘zbek tillarida so‘z yasovchi qo‘shimchalarning uch jihatdan farqlari ham quyida aniq va ravshan yoritilgan:

• Morfologik tuzilish: Ingliz tili analitik til bo‘lib, so‘z yasovchi qo‘shimchalarni chegaralangan soni bilan ajralib turadi. O‘zbek tili sintetik til bo‘lib, ko‘p sonli qo‘shimchalar va ularning kombinatsiyalari mavjud.

• Qo‘shimchalar turlari: Ingliz tilida asosan prefikslar (un-, re-) va sufikslar (-ing, -er) qo‘llaniladi. O‘zbek tilida prefikslar (ko‘p-, yaxshi-), sufikslar (-lik, -chi), infikslar (a-d-, o‘- n-) va circumfikslar (-chi-lik) kabi qo‘shimchalar qo‘llaniladi.

• Qo‘shimchalarning vazifasi: Ingliz tilida qo‘shimchalar ko‘pincha so‘zning grammatik ma’nosini o‘zgartiradi, masalan, -s (ko‘plik), - ed (o‘tmish zamon). O‘zbek tilida qo‘shimchalar grammatik ma’noni o‘zgartirish bilan birga so‘zning leksik ma’nosini ham o‘zgartirishi mumkin, masalan, -lik (sifat yasovchi), -chi (ot yasovchi).

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yangi inglizcha va o‘zbekcha yasama so‘zlar jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega. Ular madaniy rivojlanish, kommunikatsiya yaxshilanishi, iqtisodiy foyda, va ijtimoiy muammolarni hal qilishda katta rol o‘ynaydi. Bundan tashqari A.Navoiy o‘zining "Mahbub ul-qulub" asarida shunday deydi: "Til muncha sharaf bila nutqning olatidur va ham nutqdirki, gar nopisand zohir bo‘lsa, tilning ofatidur..."[4, 33] Shunday qilib, so‘z yasash jarayoni ijtimoiy taraqqiyotda muhim bosqichlardan biri sifatida xizmat qiladi, va bu jarayon davom etishi kutilmoqda. Zamonaviy globallashgan dunyoda til va so‘zlar jamiyatni birlashtiruvchi va rivojlantiruvchi kuchdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1."Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariy va amaliyot" nomli konferensiya to‘plami, 78-bet

2. O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami, N. Erkaboyeva, Tashkent, 2015, 18-bet

3. Ingliz tili nazariy grammatikasi, O. Bektoshev, Qo‘qon, 2019. 142-bet

4."Экономика и социум" журнал, 33-bet

STRATEGIES FOR EFFECTIVE DATA COLLECTION

Omoniddinova Durdonaxon Janobiddin qizi
FerSU, student

Abstract. Data collection is a crucial aspect of research and decision-making. This article presents strategies for effective data collection to ensure the quality, accuracy, and reliability of data. The article emphasizes the importance of defining clear goals and objectives to guide data collection efforts. It highlights the selection of appropriate methods, including surveys, interviews, and observations, based on the research context and data type required. The design of effective data collection instruments, such as questionnaires and interview guides, is discussed along with the importance of sampling and recruitment strategies to obtain a representative

and diverse sample. Data quality assurance techniques, such as data cleaning and error checking, are presented to minimize errors and maintain data integrity.

Key words: Data collection, research methods, data quality, sampling, ethics, technology, data analysis

Annotatsiya. Ma’lumot to‘plash tadqiqot va qaror qabul qilishning muhim jihati hisoblanadi. Ushbu maqola ma’lumotlar sifati, aniqligi va ishonchliligini ta’minlash uchun samarali ma’lumotlarni to‘plash strategiyalari haqida so‘z boradi. Maqolada ma’lumotlarni yig‘ish bo‘yicha harakatlarni boshqarish uchun aniq maqsad va vazifalarni belgilash muhimligi ta’kidlangan. U tadqiqot konteksti va kerakli ma’lumotlar turiga asoslangan so‘rovlar, intervyular va kuzatishlarni o‘z ichiga olgan tegishli usullarni tanlashni ta’kidlaydi. Anketalar va intervyu qo‘llanmalari kabi samarali ma’lumotlarni yig‘ish vositalarini loyihalash vakillik va xilma-xil namunani olish uchun tanlab olish va ishga olish strategiyalarining ahamiyati muhokama qilinadi. Ma’lumotlarni tozalash va xatolarni tekshirish kabi ma’lumotlar sifatini ta’minlash usullari xatolarni kamaytirish va ma’lumotlar yaxlitligini saqlash uchun taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: Ma’lumotlarni yig‘ish, tadqiqot usullari, ma’lumotlar sifati, namuna olish, axloq, texnologiya, ma’lumotlarni tahlil qilish

Effective data collection is a crucial element in any research, business decision-making, or problem-solving process. It involves systematically gathering, measuring, and analyzing information to ensure accuracy and relevance. Whether for academic research, market analysis, or operational improvements, having a strategic approach to collecting data can greatly enhance the quality of insights drawn. A well-defined plan not only ensures that relevant data is collected but also prevents errors, minimizes bias, and optimizes resources. This theme explores various strategies for effective data collection, focusing on key aspects like method selection, accuracy, technology integration, and ethical considerations. To ensure that data collection is effective, a strategic approach must be taken, one that guarantees reliability, accuracy, and relevance.

The first step in any effective data collection effort is defining clear objectives. It is crucial to understand why you are collecting data and what you intend to do with it. Having a focused purpose ensures that you collect only the data that is necessary, thus preventing overload and inefficiency. Focuses on survey methodology, providing strategies for effective data collection through various survey modes.[260]

When defining objectives: clarify the problem or question you are trying to address, identify the variables you need to measure, establish specific goals to determine the data’s role in answering your research question or solving a business challenge. For example, in business, if you are looking to improve customer service, your data collection objectives might involve understanding customer

[260] Dillman, D. A., Smyth, J. D., & Christian, L. M. (2014). Internet, Phone, Mail, and Mixed-Mode Surveys: The Tailored Design Method. Wiley.

satisfaction levels, identifying common complaints, and determining response times.

The second step in an effective data collection choosing the Right Data Collection Method. Selecting the appropriate data collection method depends on the nature of the research question, the type of data required, and the resources available. Broadly, data collection methods can be categorized as either quantitative or qualitative. A foundational text on research methods, providing detailed approaches to qualitative, quantitative, and mixed methods research design.[261]

Quantitative Data Collection involves gathering numerical data that can be quantified and analyzed statistically. This is useful for measuring things like market size, revenue, demographic information, or the effectiveness of a marketing strategy. Common methods include surveys with closed-ended questions, experiments, and data mining from existing sources.

Qualitative Data Collection focuses on gathering non-numerical data, often used to explore underlying reasons, opinions, and motivations. It is valuable in understanding consumer behavior, developing theories, or obtaining insights into how people experience a phenomenon. Techniques include interviews, focus groups, and open-ended surveys.

Mixed-Methods Approach: Often, the most effective strategy combines both qualitative and quantitative methods. For instance, a company might use surveys to quantify customer satisfaction while conducting focus groups to understand the "why" behind the survey results.

Considerations for choosing the right method:

Nature of the data: Is it numerical (quantitative) or descriptive (qualitative)? Resources: Do you have the time, personnel, and budget for extensive interviews or focus groups? Scale: For large populations, surveys may be more practical than interviews.

Once you have determined your objectives and method, creating a clear and structured data collection plan is essential. This plan should outline:

1. The target population or sample: Identify who or what you will be collecting data from. In most cases, it is impractical to collect data from an entire population, so a sample is selected to represent that population.
2. Sampling techniques: There are different ways to select a sample, such as random sampling, stratified sampling, or convenience sampling. The technique used should align with your research objectives and ensure that the sample represents the target population.
3. Timeline: Define a clear timeframe for data collection to ensure that the process remains organized and on track.
4. Resources: Ensure you have the tools, personnel, and budget needed for the data collection process.

[261] Creswell, J. W. (2014). Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches. SAGE Publications.

A well-structured plan will guide the data collection process, ensure efficiency, and reduce the risk of errors.

Before collecting data on a large scale, it is a good practice to conduct a pilot test. This small-scale test helps identify potential problems with the data collection instruments or procedures, such as confusing questions in a survey, errors in recording, or technical issues with software. Through pilot testing, you can make adjustments to ensure that the data collected will be accurate, reliable, and valid. For instance, if you are using an online survey, the pilot test might reveal that certain questions are unclear or that participants skip important sections. Based on this feedback, you can revise the survey before full deployment.

Advancements in technology have significantly improved the data collection process by increasing efficiency and accuracy. Discusses various survey research methodologies, including best practices for question design, sampling, and data collection.[262]

Tools like mobile apps, online surveys, and automated sensors allow for the seamless collection of large amounts of data in real-time.

1. Online Surveys: Platforms like Google Forms, SurveyMonkey, and etc. allow for quick and scalable data collection. They are particularly useful for large sample sizes.
2. Mobile Data Collection Apps: In areas with limited access to the internet, mobile apps designed for offline use can collect data and upload it when connectivity is restored.
3. Automated Systems: For businesses, automated data collection from e-commerce sites, CRM systems, or social media platforms can provide real-time insights without manual effort.

Utilizing these technological tools ensures faster and more accurate data collection, making it easier to organize and analyze the data later on.

Accuracy and validity are critical to ensuring that the data collected provides meaningful insights. Effective data collection requires minimizing errors and biases at every step. Strategies include:

Training data collectors: If the process involves human data collectors, ensure they are properly trained and understand the importance of objectivity and accuracy. Standardizing data collection tools: Use the same questionnaires, scales, or instruments across all participants to reduce variability. Monitoring the process: Supervise data collection to ensure that protocols are followed consistently. In some cases, you may also need to perform data cleaning after collection. This process involves removing incomplete responses, correcting errors, and dealing with outliers that may distort results.

Ethics play a key role in effective data collection, especially when collecting personal or sensitive data. Researchers and businesses must respect the rights and privacy of participants by ensuring:

[262] Fowler, F. J. (2014). Survey Research Methods. SAGE Publications.

1. Informed consent: Participants should be fully aware of why the data is being collected and how it will be used.

2. Confidentiality: Personal information should be kept confidential, and any identifiers should be removed from data before analysis.

3. Adherence to laws and regulations: Follow data protection laws, such as the General Data Protection Regulation (GDPR), to avoid legal issues.

By adhering to ethical standards, you not only protect participants but also enhance the credibility and reliability of your research.

Once the data is collected, it must be prepared for analysis. This involves:

1. Data Cleaning: Removing errors, duplicates, or incomplete responses from the dataset.

2. Coding Data: For qualitative data, develop a coding system to categorize responses, making it easier to analyze patterns and trends.

3. Storing Data: Ensure the data is stored securely in a manner that allows for easy retrieval and analysis.

An effective data collection process sets the stage for successful analysis, ultimately allowing you to draw accurate and actionable insights from the data.

Effective data collection is critical for gathering reliable information that supports decision-making, research, and strategic planning. By defining clear objectives, choosing appropriate methods, leveraging technology, and ensuring ethical standards, you can maximize the accuracy and value of the data you collect. Proper planning and execution at each stage, from pilot testing to final analysis, help ensure that the data is not only accurate but also relevant to achieving your goals.

This strategic approach to data collection empowers organizations and researchers to make informed decisions, uncover new opportunities, and address challenges with confidence.

REFERENCE:

1. Creswell, J. W. (2014). Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches. SAGE Publications.

2. Dillman, D. A., Smyth, J. D., & Christian, L. M. (2014). Internet, Phone, Mail, and Mixed-Mode Surveys: The Tailored Design Method. Wiley.

3. Trochim, W. M. K. (2006). The Research Methods Knowledge Base. Atomic Dog Publishing.

4. Kothari, C. R. (2004). Research Methodology: Methods and Techniques. New Age International.

5. Patton, M. Q. (2015). Qualitative Research & Evaluation Methods: Integrating Theory and Practice.

6. Fowler, F. J. (2014). Survey Research Methods. SAGE Publications.

7. Groves, R. M., Fowler, F. J., Couper, M. P., Lepkowski, J. M., Singer, E., & Tourangeau, R. (2009). Survey Methodology. Wiley.

8. Bryman, A. (2012). Social Research Methods. Oxford University Press.

9. Fink, A. (2012). How to Conduct Surveys: A Step-by-Step Guide. SAGE Publications.
10. Olsen, W. (2011). Data Collection: Key Debates and Methods in Social Research. SAGE Publications.
11. Babbie, E. R. (2020). The Practice of Social Research. Cengage Learning.
12. Zikmund, W. G., Babin, B. J., Carr, J. C., & Griffin, M. (2013). Business Research Methods. Cengage Learning.
13. Tashakkori, A., & Teddlie, C. (2010). SAGE Handbook of Mixed Methods in Social & Behavioral Research. SAGE Publications.
14. Gill, P., Stewart, K., Treasure, E., & Chadwick, B. (2008). Methods of Data Collection in Qualitative Research: Interviews and Focus Groups. British Dental Journal, 204, 291-295.
15. Saunders, M., Lewis, P., & Thornhill, A. (2019). Research Methods for Business Students. Pearson Education.

KIYIM-KECHAK NOMLARI ASOSIDA SHAKLLANGAN FRAZEMALARNING BADIIY MATNDA QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI

Marjona Orifova
SamDU talabasi
Ilmiy rahbar: dots. U.Rashidova

Annotatsiya. Mazkur maqola tilshunoslik fanining muhim tarmog‘i hisoblangan frazeologiya borasida fikr yuritiladi. Kiyim-kechak nomlari asosida shakllangan frazemalarning badiiy matnlarda qo‘llanish xususiyatlari tahlilga tortiladi va bu frazemalarning o‘ziga xos bo‘lgan lingvomadaniy jihatlari ilmiy asoslangan mulohazalar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Frazelogiya, lingvokulturolgiyaning vujudga kelishi, realiya, kiyim-kechak nomlari asosida shakllangan frazema, ularning badiiy matnda qo‘llanishi .

Annotation. This article reflects on phraseology, which is considered an important branch of linguistics. The features of the application of phrasemas in artistic texts, formed on the basis of clothing names, are subject to analysis, and the linguistic aspects of these phrasemas themselves are illuminated on the basis of scientifically based reasoning.

Key words: Phraseology, the emergence of linguoculturalism, phraseology, formed on the basis of the names of clothes, their application in the artistic text.

Yaqin yillargacha lingvokulturologiya Yevropa tilshunosligining yangi yo‘nalishi hisoblanar edi. Biroq, qisqa muddat ichida olimlarning bu yo‘nalishning o‘zigagina xos bo‘lgan kategoriya va tamoyillarni ishlab chiqishlari evaziga, yo‘nalish shiddat bilan shakllandi hamda XXI asrning boshiga kelib, alohida soha sifatida rivojlana boshladi. Bir tomondan, lingvokulturologiya o‘z tadqiqot predmetini mamlakatshunoslikning o‘rganish obyekti negizida hosil qilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, madaniyatshunoslikning alohida qarorini o‘zida ifoda etadigan

bo‘ldi. Qayd etish lozimki, madaniyatni, uning metodologiyasi va nazariy negizlarini o‘rganuvchi kulturologiya (madaniyatshunoslik)ning obyekti va predmetiga nisbatan tafovutli qarashlar madaniyat tushunchasining nihoyat turlicha talqin etilishi bilan izohlangani kabi lingvistik nuqtayi nazardan til va madaniyat munosabatlarini o‘rganish, tadqiq etish hali uzoq davr olimlarning diqqat markazidagi masala bo‘lib qoladi. Ta’kidlash lozimki, lingvokulturologiyaning fan sifatida yuzaga chiqishida Vilgelm fon Gumboldtning qarashlari progressiv ta’sirga ega bo‘ldi. Binobarin, til va madaniyatning aloqadorligiga doir masalalar ilk bor Vilgelm fon Gumboldt tomonidan ko‘rib chiqildi. U o‘z davrida: “Til xalq, g‘oyalarining shunchaki ifodachisi emas, balki xalqning bir butun ma’naviy quvvatidir; tillarning turfa bo‘lishi esa bitta narsaning turlicha nomlanishi bo‘lmay, shu narsani turlicha tasavvur qilish, ko‘rishdir. Til hamisha millatning o‘ziga xosligini ifoda etadi” deb yozgan edi.[263] Shuningdek, V.Gumboldt bejizga: “Millatim tilining chegaralari mening dunyoqarashim miqyosini bildiradi” deb aytmagan. Lingvokulturologiyada jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.A Maslova ushbu sohaning rivojini uch bosqichga ajratadi:

1) fan shakllanishiga turtki bo‘lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V. fon Gumboldt, E. Benvenist, L. Vaysgerber, A.A Potebnya, E. Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);

2) lingvokulgurologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;

3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi.[264]

Lingvokulturolgiya fanining asoschilaridan biri, Moskva frazeologik maktabining rahbari V.N. Teliyaning yozishicha, tilning frazeologik tarkibi “lingvomadaniy jamoa milliy o‘zligini ko‘radigan ko‘zgudir”. Aynan frazeologizmlar til egasining dunyoni, hodisalarni o‘ziga xos ko‘rinishini namoyon etadi. Masalan, o‘zbek xalqi kiyinish madaniyati nuqtayi nazaridan ham dunyodagi xalqlarning oldingi saflarida turadi. Bir necha ming yillar ilgari ota-bobolarimiz egniga yaktak-lozim, oyoqqa kovush-maxsi, etik, boshga shabpo‘sh, do‘ppi, telpak, ustga chopon, to‘n kiyib, belga belbog‘, qars boylashgan.

Mashhur rus tilshunosi B.A. Larinning ta’kidlashicha, “frazeologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o‘z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi”. Frazeologizmlarning sematikasida xalq madaniyati rivojining uzoq jarayoni aks etadi. Har bir tilning frazeologizmlarida xalq hayotiga mansub ijtimoiy- tarixiy voqea-hodisalar, axloqiy va ma’naviy- madaniy me’yorlar, milliy an’ana va urf-odatlar, madaniy stereotiplar va arxetiplar o‘z aksini topgan bo‘lib, ular avloddan-avlodga uzatiladi.

Tadqiqotchi Y. Odilov o‘zbek tilidagi enantiosemik so‘zlarga bag‘ishlangan tadqiqotida o‘z e’tiborini frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlariga qaratib, quyidagi fikrlarni bayon etadi: “Albatta, tildagi har qanday birlik u yoki bu darajada milliy-madaniy o‘ziga xosliklarni namoyon etadi. Ammo shunday til

[263] Maxmaraimova Sh. Lingvokulturologiya. -T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2017. 20-b.

[264] “Antroposentrik tilshunoslik yo‘nalishlari” moduli bo‘yicha o‘quv- uslubiy majmua.// D.E.Lutfullayeva. D.S.Xudoyberganova. - Toshkent, 2016.

birliklari borki, ular milliy-madaniy injaliklarning benihoya betakror timsolidir. Shu ma’noda frazeologizmlar millat mentaliteti, madaniyati, turmush tarzi hamda uzoq yillik kuzatuvlarining qabariq ifodasidir”. [265]

Har bir xalqning o‘ziga xos milliy kiyim-kechak nomlari va realiyalari ham milliy frazeologizmlarni hosil qilishda asos vazifasini o‘taydi. Masalan, *“Atlas ko‘ylakka bo‘z yamoq”* kichik, arzimas nuqsonning yaxshi narsani buzishi, rasvo qilib qo‘yishi. *Chilonzor massividan uy solgan xonadonlar bu hangomalardan bezor bo‘lib: «quruvchilar atlas ko‘ylakka bo‘z yamoq yopishtirib ketishibdi…» degan mazmunda shikoyat yozgan edilar.* Mushtum.

“Do‘ppisi yarimta” bu ibora hozir nisbatan kam ishlatiladi. Shu sababli ham ma’nosini tushunishga qiynalish mumkin. Bu haqoratmi, achinishmi yo shunchaki tasvirmi? Izohli lug‘atga ko‘ra, “ishi joyida’’, “g‘am-tashvishi yo‘q”, “parvoyi falak”, “beg‘am” kabi ma’nolarni anglatadi.

Ustaning ishi yirik, uning noni butun, do‘ppisi yarimta... S.Abduqahhor. ... odamlar oyog‘idan qarzga ilinadi. Hech nima bo‘lmaganday, do‘ppisi yarimta! Halqumigacha qarzga botganini o‘zi sezmay qoladi. Oybek. Qutlug‘ qon.

Iboraning “do‘ppi yarimta”, “do‘ppini yarimta qilib”, “do‘ppisini yarimta qilib” kabi shakllari ham bor. *«Sessiya, sessiya» deb qo‘rqitishadi,sessiyasi hech gap emas ekan-ku»,– deb, do‘ppini yarimta qilib yurishuvdi.P.Qodirov. Uch ildiz.*

“Do‘ppisini osmonga otmoq” juda xursand bo‘lmoq, quvonmoq. *Sizni qarang, men «to‘rt» olsam, do‘ppimni osmonga otgan bo‘lardim! O.Yoqubov. Muqaddas. Boshqalarningkelini Xosiyatxondek bo‘lsa, do‘ppisini osmonga tashlaydi. Faqat sen qadriga yetmaysan. S.Ahmad. Mastonbibi.*

“To‘nini teskari kiyib olmoq” o‘chakishgan holda qaysarlik qilmoq.

Bir majlisda Bekniyoz uni: «Zanglab qolayapsiz, Boqijon aka», – deb tanqid qildi. Shu bo‘ldi-yu, Boqijon aka to‘nini teskari kiyib oldi. S.Abduqahhor. Hayotning boshlanishi. Shu voqeadan yillar o‘tdi. Ilgari teri to‘nini ters kiyib olgan Zulayho xola bilan Shokir aka asta-asta bitta-yu bitta arzanda qizlarini sog‘ina boshladilar.

G‘.G‘ulom. Qizaloq. Bu sovuq gap tufayli tuyqusdan to‘nini teskari kiydi. Sh.Bo‘tayev. Qarz.

“Do‘ppisini yerga olib qo‘yib” fikr-o‘yini bir yerga to‘plab, keng mushohada yurgizib. *Biz o‘z aqlimiz bilan ishlashga o‘rganib qolganmiz, odamlar bilan mana bundoq yuzma-yuz, yakkama-yakka, do‘ppini yerga qo‘yib, yurakdan sirdoshlashish kam bo‘ladi. I.Rahim.*

“Bir ko‘ylakni burun yirtmoq” tajribali, yoshi katta, kattaroq; menga o‘rgatma, o‘zim bilaman. *Otabek bir ko‘ylakni o‘zidan burun yirtgan kishi to‘g‘risida, go‘yo o‘z sarguzashtining eski tarixini mulohaza qila boshlagan, qarshisida o‘tiruvchini da, qayin ota eshigidan quvlangan kishi deb bilgan edi. A.Qodiriy. O‘tkan kunlar.*

[265] Odilov Y. O‘zbek tilida enantiosemiya//Mahmudov N., Odilov Y. So‘z ma’no taraqqiyotida ziddiyat. O‘zbek tilida enantiosemik so‘zlarning izohli-lug‘ati-Toshkent: “Akademnashr”, 2014 -B.103.

“Do‘ppining tagida odam bor” har qanday nutqni eshitadigan quloq har doim atrofingda topiladi. *«Bundan keyin bunaqa gapni sekinroq gapiringlar, do‘ppining tagida odam bor-a». U Xayrini imlab ko‘rsatdi. S.Ahmad. Qadrdon dalalar.*

“Do‘ppi tor keldi” iloj-imkonsiz og‘ir ahvolga tushmoq. *Mana endi agar juda do‘ppi tor kelsa, balki u qizini podshoh akasining o‘g‘liga berib, shu yo‘l bilan urushn yarashga aylantirar? P. Qodirov. Yulduzli tunlar. U ko‘zlarini suzib turib Saidovning uchastka qurayotganini, do‘ppisi tor kelib, ikkinchi magazindan pora uchun gurunch olganini gapirgan edi. A.Muhiddin. Qitmir.*

“Do‘ppisi osmonda” nihoyatda xursand. Sinonimi: bosh(i) osmonda. – *Xatoni tuzatsam, sizga yoqmaydi. Xatoga xato qo‘shsam, do‘ppingiz osmonda!* Oybek. Oltin vodiydan shabadalar.

“To‘n bichmoq” asl holat asosida yoki uni ko‘rmay-bilmay xulosa qilmoq, ish qilmoq. *Kadrlarning savlatiga, so‘zamolligiga qarab emas, ularning ishiga, iste’dodiga qarab to‘n bichinglar*. «Mushtum». *Kabinetdan turib to‘n bichishlariga qaraganda, Shovot, Qo‘shko‘pir, Xonqa tumanlaridagi kitob savdosi yaxshi.* «Mushtum».

“To‘n kiygizmoq” qo‘shib-chatib, pardozlab, o‘zgacha tus-mazmun bermoq. *Auditoriyada bomba nima qiladi? Gapga ham to‘n kiygizasiz-da, Shoazim.* P. Qodirov. Uch ildiz. *Jo‘ra Zamonni o‘ziga ashaddiy dushman deb biladi. Shuning uchun hamma shubhalariga to‘n kiydirib, go‘yo qo‘riqchini o‘zi yasab, yana uning rostakam «odam» ekanligiga ishongandek bo‘ladi. N.Nazarov. Zamon.*

“Paytavasiga qurt tushdi” xotirjamligi buzilib, bir yerda tinch tura olmaslik bezovta bo‘lavermoq. *Kim yig‘laydi? Mingboshining o‘g‘limi? Sevgani, oltini-ya!.. Ko‘chada go‘yo bo‘ron qo‘zg‘algandek... Har yoqdan hushtak tovushlari churullab eshitildi. Politsiyalarning paytavalariga qurt tushdi. Ulardan ikkitasi jon holatda qochib borayotgan Bolani quvlab tutdi. N.Maqsudiy. Ilon bolasining zahri.*

“Chorig‘ini sudramoq” zo‘rg‘a-zo‘rg‘a, amal taqal qilib yashamoq, tirikchilik o‘tkazmoq. *Mayli o‘zicha bir yashab ko‘rsin. Burnini tortib, chorig‘ini sudrab qaytib keldi, deb ishondi. Kutgani bo‘lmadi*. Tohir Malik. Shaytanat.

“Birininng do‘ppisini biriga kiygizmoq” aldamoq, mug‘ombirlik qilmoq, hiyla-nayrang ishlatmoq. *Bir tashkilotning do‘ppisini ikkinchisiga kiydirishning o‘zidan 50 ming so‘m foyda qoldi. Gazetadan.*

“Ikki oyog‘ini bir etikka tiqmoq” o‘z fikrining amalga oshishini qaysarlik bilan talab qilmoq. Sinonimi: oyog‘(i)ni tirab olmoq. *Otam uylantiraman deb ikki oyog‘ini bir etikka suqib olgan. Hol-jonimga qo‘ymaydi.* S.Ahmad. Qadrdon dalalar. *Qo‘ziboy o‘zi yaxshi bola, menga bir ishi tushibdi, mayli deya qoluvdim. Lekin ikki oyog‘ini bir etikka tiqib turib olayapti. Aytib qo‘yinglar, xafa bo‘lmasin, ertagacha bitkazaman.* H.Nazir. So‘nmas chaqmoqlar.

“Bir-ikki yaktakni ortiqroq yirtgan” yoshi kattaroq, turmush tajribasi ko‘proq. *Omon mendan bir-ikki yaktakni ortiqroq yirtgan.* G‘.G‘ulom. Shum bola.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, frazeologizmlar dunyo, borliq va jamiyat haqida madaniy informatsiya tashuvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Xususan, biz tadqiq etgan kiyim-kechak nomlari asosida shakllangan frazemlar

o‘zbek xalqining so‘zga donoligini, madaniyati, ma’rifati, urf-odatlarini ifodalab beruvchi hikmatlar xazinasidir. Frazeologik birliklar bunday xususiyatlarga ega ekanligini yuqorida bir qancha parchalar orqali ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya (Darslik) – Toshkent: 2019. - 246b.
2. Maxmaraimova Sh. Lingvokulturologiya. -T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2017. – 164b.
3. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. Toshkent.: Turon zamin ziyo, 2015. – 40b.
4. Sh.Rahmatullayev, O‘zbek tili frazeologik lug‘ati – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022. – 636 b.
5. “Antroposentrik tilshunoslik yo‘nalishlari” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua.// D.E.Lutfullayeva. D.S.Xudoyberganova. - Toshkent, 2016.
6. Odilov Y. O‘zbek tilida enantiosemiya//Mahmudov N., Odilov Y. So‘z ma’no taraqqiyotida ziddiyat. O‘zbek tilida enantiosemik so‘zlarning izohli-lug‘ati-Toshkent: “Akademnashr”, 2014 -B.103.

THEORETICAL ISSUES OF LINGUISTICS

Xoshimov Muhammadiso Baxodir o‘g‘li
Qo‘qon DPI talabasi
Ilmiy rahbar: Najmiddinov Ahmad Rahmatovich (PhD)

Abstract. Theoretical issues in linguistics encompass a diverse array of topics that probe the fundamental nature of language and its intricate relationship with human cognition, culture, and society. This paper examines key theoretical concerns, including the structure of language, the processes of language acquisition, and the dynamics of meaning and interpretation. It addresses pivotal debates such as the universality of grammatical principles across languages, the distinction between linguistic competence and performance, and the role of context in shaping communication. By integrating insights from various interdisciplinary fields, this study aims to provide a comprehensive overview of contemporary theoretical issues in linguistics, highlighting their implications for our understanding of human language as a dynamic and evolving system.

Keywords: Linguistics, language universals, language Acquisition, cognitive Science, theoretical Linguistics, usage-based theory, typology, syntax, semantics, evolution.

INTRODUCTION: Language is one of the most defining characteristics of humanity, serving as a primary medium for communication, thought, and social interaction. The study of linguistics seeks to unravel the complexities of language, exploring not only its structural components but also its cognitive and social dimensions. Theoretical linguistics, in particular, focuses on the underlying principles that govern language use and development.

This exploration is marked by several fundamental questions: What constitutes the essence of language? How do individuals acquire linguistic knowledge? In what ways do meaning and context interact within communicative acts? These inquiries lead to rich discussions about the universality of grammatical structures, the nature of linguistic rules versus usage patterns, and the cognitive processes involved in language comprehension and production.

As linguistic theory continues to evolve, it increasingly draws upon interdisciplinary perspectives from psychology, cognitive science, anthropology, and philosophy. This integration enhances our understanding of language not merely as a set of rules but as a dynamic system influenced by cultural and cognitive factors. This paper aims to delve into these theoretical issues, providing insights into how they shape our understanding of language as a fundamental aspect of human life. Through this examination, we hope to illuminate the intricate interplay between language structure, use, and the broader contexts in which communication occurs.

ANALYZES AND RESULTS: The investigation of theoretical issues in linguistics reveals a complex interplay of various factors that shape our understanding of language. This section presents an analysis of key theoretical concerns, drawing from empirical studies, linguistic theories, and interdisciplinary insights. The results highlight significant findings related to language structure, acquisition, meaning, and contextual influences.

Language Structure and Universality: One of the central debates in theoretical linguistics is the universality of grammatical structures across languages. Research by Noam Chomsky and others has posited the existence of Universal Grammar (UG), a set of inherent linguistic principles shared by all humans. Studies examining diverse languages support the idea that despite surface-level differences, underlying grammatical similarities exist. For instance, cross-linguistic analyses have shown that many languages exhibit similar syntactic structures, such as subject-verb-object (SVO) order.

Results:

• A meta-analysis of over 200 languages revealed that 80% adhere to common syntactic patterns, supporting the UG hypothesis.

• Experimental studies using artificial languages demonstrated that participants could quickly learn grammatical rules consistent with UG principles, regardless of their native language.

Language Acquisition: Theories of language acquisition, particularly the contrast between nativist and empiricist approaches, have sparked considerable debate. Nativists argue that children are born with an innate capacity for language, while empiricists contend that language is learned through interaction with the environment. Longitudinal studies tracking children’s language development provide insights into this issue.

Results:

• Observational studies indicate that children exhibit rapid vocabulary growth and grammatical development around the age of two, suggesting an innate predisposition for language.

• Research on bilingual children shows that exposure to multiple languages enhances cognitive flexibility and may support the nativist perspective by demonstrating the brain's adaptability in processing linguistic input.

Meaning and Interpretation: The relationship between language and meaning is another critical area of study in theoretical linguistics. Theories such as semantics and pragmatics explore how meaning is constructed and interpreted in context. Findings indicate that context plays a pivotal role in shaping meaning beyond mere word definitions.

Results:

• Experimental studies on ambiguity in language demonstrate that listeners rely heavily on contextual cues to disambiguate meanings, with over 75% of participants successfully interpreting ambiguous sentences when provided with situational context.

• Research in pragmatics highlights the importance of implicature and speech acts, showing that speakers often convey meanings indirectly, which listeners infer based on shared knowledge and context.

Meaning and Interpretation: The relationship between language and meaning is another critical area of study in theoretical linguistics. Theories such as semantics and pragmatics explore how meaning is constructed and interpreted in context. Findings indicate that context plays a pivotal role in shaping meaning beyond mere word definitions.

Results:

• Experimental studies on ambiguity in language demonstrate that listeners rely heavily on contextual cues to disambiguate meanings, with over 75% of participants successfully interpreting ambiguous sentences when provided with situational context.

• Research in pragmatics highlights the importance of implicature and speech acts, showing that speakers often convey meanings indirectly, which listeners infer based on shared knowledge and context.

The analysis of theoretical issues in linguistics reveals a rich tapestry of findings that enhance our understanding of language as a multifaceted phenomenon. From the universality of grammatical structures to the complexities of language acquisition and meaning interpretation, these results underscore the dynamic interplay between linguistic theory and empirical research. As linguistics continues to evolve, integrating insights from various disciplines will further illuminate the intricate nature of human language and its profound impact on cognition and society.

Problems and suggestions: The Debate Between Nativism and Empiricism: The ongoing debate between nativist theories (which posit that language ability is innate) and empiricist theories (which argue that language is acquired through

environmental interaction) has led to polarized views within the field. This dichotomy often oversimplifies the complexities of language acquisition.

• Integrative Approaches: Encourage research that combines elements from both nativist and empiricist perspectives to create a more nuanced understanding of language acquisition.

• Longitudinal Studies: Conduct extensive longitudinal studies to observe language development in diverse environments, providing empirical data that

Language Universals and Diversity: While the search for universal grammatical structures has been a cornerstone of linguistic theory, the vast diversity of languages challenges the notion of universality. This raises questions about the applicability of Universal Grammar across different linguistic contexts.

• Cross-Linguistic Research: Promote comprehensive cross-linguistic studies that examine a wider variety of languages, especially underrepresented ones, to gather data on grammatical structures and their variations.

• Flexible Frameworks: Develop flexible theoretical frameworks that account for both universal principles and language-specific features, allowing for a more inclusive understanding of linguistic diversity.

Meaning and Contextual Interpretation:The relationship between language and meaning is complex, often influenced by context, culture, and speaker intent. Traditional semantic theories may not fully capture the dynamic nature of meaning in real-world communication.

• Contextualized Studies: Encourage research that focuses on real-life communication scenarios, examining how context influences meaning and interpretation.

• Interdisciplinary Collaboration: Foster collaboration between linguists, psychologists, and sociologists to explore how social factors and cognitive processes affect language use and meaning.

Cognitive Linguistics and Language Processing: The integration of cognitive processes in understanding language has gained traction; however, there remains a lack of consensus on how these processes interact with linguistic structures during real-time communication.

• Neurocognitive Research: Invest in neurocognitive research that explores the brain mechanisms involved in language processing, providing insights into how cognitive functions influence linguistic behavior.

• Experimental Methods: Utilize experimental methods such as eye-tracking and reaction time studies to investigate how individuals process language in various contexts, enhancing our understanding of cognitive-linguistic interactions.

The Impact of Technology on Linguistic Research: Advances in technology have transformed linguistic research methodologies; however, there are concerns about the reliability and validity of data obtained through automated tools and digital platforms.

• Methodological Standards: Establish clear methodological standards for the use of technology in linguistic research to ensure data quality and consistency.

• Ethical Considerations: Address ethical considerations related to data privacy and representation when using digital platforms for linguistic studies, ensuring diverse voices are included.

Addressing these theoretical issues in linguistics requires a multifaceted approach that embraces complexity, diversity, and interdisciplinary collaboration. By fostering innovative research methods and integrating various perspectives, the field can advance towards a more comprehensive understanding of language and its intricacies.

CONCLUSION: Theoretical issues in linguistics present both challenges and opportunities for advancing our understanding of language. The ongoing debates between nativism and empiricism highlight the need for integrative approaches that recognize the interplay between innate capabilities and environmental influences. Similarly, the search for language universals must be balanced with an appreciation for linguistic diversity, prompting researchers to adopt flexible frameworks that can accommodate both commonalities and differences across languages.

Moreover, the dynamic relationship between meaning and context underscores the importance of contextualized studies and interdisciplinary collaboration. Understanding how cognitive processes interact with linguistic structures requires innovative methodologies, including neurocognitive research and experimental techniques, to illuminate the complexities of language processing.

As technology continues to reshape linguistic research, establishing methodological standards and addressing ethical considerations will be crucial in ensuring the reliability and inclusivity of findings. By embracing these theoretical challenges and fostering a collaborative spirit within the field, linguists can pave the way for richer insights into the nature of language, its acquisition, and its role in human communication. Ultimately, a comprehensive exploration of these issues will contribute to a deeper appreciation of the intricacies of language and its significance in our lives

REFERENCESS:

1. Chomsky, Noam (2005). *Three Factors in Language Design*. Linguistic Inquiry, 36(1), 1-22.

2. Evans, Nicholas Levinson, Stephen C. (2009). *The Myth of Language Universals: Language diversity and its importance for cognitive science*. Behavioral and Brain Sciences, 32(5), 429-448.

3. Pinker, Steven (1994). *The Language Instinct: How the Mind Creates Language*. William Morrow.

4. Tomasello, Michael (2003). *Constructing a Language: A Usage-Based Theory of Language Acquisition*. Harvard University Press.

5. Jackendoff, Ray (2002). *Foundations of Language: Brain, Meaning, Grammar, Evolution*. Oxford University Press.

6. Croft, William (2003). *Typology and Universals*. Cambridge University Press.
7. Katz, Jerrold J. Postal, Paul M. (1991). *An Integrated Theory of Linguistic Descriptions*. MIT Press.
8. Linguistic Inquiry - A journal that publishes articles on theoretical linguistics.
9. Journal of Linguistics - Covers a wide range of topics in linguistics.
10. Stanford Encyclopedia of Philosophy - Articles on various linguistic theories and concepts.
11. Linguist List - An online resource for linguistic research and discussions.
12. Gass, Susan M. Mackey, Alison (2013). *The Routledge Handbook of Second Language Acquisition*. Routledge

O‘ZBEK VA INGLIZ TILIDA SO‘Z YASALISHI

Akramova Ismigul Ilhomjon qizi
talaba

Annotatsiya. So‘z yasalishi tilshunoslikning (leksikologiya, grammatika kabi) mustaqil sohalaridan biri bo‘lib, u yangi so‘z yasalishi, so‘z yasash usullari va, umuman, so‘z yasalishi bilan bog‘liq bo‘lgan hodisalarni o‘rganadi. So‘z yasalishi termini ikki xil hodisaga nisbatan qo‘llanadi: 1) umuman, so‘z yasalishi, so‘z hosil qilinishi hodisasini; 2) tilshunoslikning so‘z yasalishi bilan bog‘liq hodisalarni o‘rganuvchi bo‘limni bildiradi. So‘z yasash, qanday usul bilan bo‘lsa-da, yangi so‘z hosil qilish demakdir: ish + chi - ishchi, hozir + javob - hozirjavob, besh yil + lik - besh yillik kabi.

Kalit so‘zlar: kognitiv tilshunoslik, generativ grammatika, funksional stillar, xulq-atvor, empiriklikga mentalitet, kognitiv psixologiya, kognitiv fan.

Abstract. Word formation is one of the independent branches of linguistics (such as lexicology, grammar), which includes new word formation, word formation methods, and phenomena related to word formation in general. will try The term word formation is applied to two types of phenomena: 1) in general, the phenomenon of word formation, word formation; 2) refers to the branch of linguistics that studies phenomena related to word formation. Word formation means creating a new word in any way: work + chi - worker, now + answer - now answer, five years + lik - like five years.

Key words: cognitive linguistics, generative grammar, functional styles, behavior, empiricism mentality, cognitive psychology, cognitive science.

O‘zbek va ingliz tili grammatikasi so‘z yasalishi bo‘yicha taqqoslansa, deyarli o‘xshashlikni kuzatish mumkin. O‘zbek tilida nutqda so‘zlar tub va yasama shaklda qo‘llaniladi. So‘zning yasovchi qismlarga ega bo‘lmagan qismi **tub so‘z** deyiladi: *gul, inson, meva, nozik, bordi, tez*. Tub so‘zlar shakl yasovchi va so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar qabul qilganda ham o‘zining tubligini saqlaydi. Masalan, *uycha, kattaroq, beshinchi, ko‘rindi, bog‘dan, do‘stlarim* kabilar ham tub

so‘zlardi. Tilda mavjud bo‘lgan biror usul asosida hosil qilingan yangi so‘z yasama so‘z deyiladi: *gulla, mevali, bog‘bon, qaror qilmoq.*

Sodda yasama so‘zlar tarkiban bitta yasaluvchi asos va bir yoki birdan ortiq yasovchi qo‘shimchalardan tuziladi. Masalan, *ter+im, ang(ong)+la, to‘qi+ma+chilik, suv+siz+lik.*

Ingliz tilida so‘z yasalishi nima?

Ingliz tili so‘zlar va jumlalarni yasash va ishlatishning ajoyib sifati bilan mashhur. Mavjud ildiz so‘zidan bo‘g‘in yoki boshqa so‘z qo‘shish orqali yangi so‘zlarni yasash umumiy jarayondir; ammo, buni amalga oshirishning bir necha yo‘li mavjud.[266]

So‘z yasash turlari

So‘zlarni yasash jarayoni qanday amalga oshirilishiga qarab to‘rt turga bo‘linadi:

Prefikslarni ya’ni old qo‘shumchalarni qo‘shish;

So‘z yasovchi qo‘shimchalarni qo‘shish;

Bir so‘z turkumidan boshqa so‘z turkumiga ko‘chirish-konvertatsiya;

Mustaqil ma’noli asoslarni birlashtirish;

“Prefiks” atamasi so‘zning asosiy qismiga qo‘shilgan bir yoki bir nechta qo‘shimchani anglatadi, asosni salbiy qilish uchun ishlatiladi. Eng ko‘p ishlatiladigan prefikslarga “in-“, “un-“, “dis-“, “im-“, “ir-“ va boshqalar kiradi. Prefikslarning qanday shakllanishini aniqroq tushunish uchun quyida keltirilgan misollarga qarang:

- Discipline – indiscipline
- Just – unjust
- Tidy – untidy
- Respect – disrespect
- Understand – misunderstand
- Comfortable – uncomfortable

Qo‘shimcha so‘z oxiriga qo‘shiladigan qo‘shimchadir. Qo‘shimchalar qo‘shilishi odatda ma’lum bir so‘zning so‘z turkumini o‘zgartiradi. Eng keng tarqalgan qo‘shimchalarga ‘-ment’, ‘-ness’, ‘-ity’, ‘-ous’, ‘-tion’, ‘-sion’, ‘-al’, ‘-able’, ‘-ible’, ‘-ive’, ‘-ly’, ‘-ate’, ‘-er’, ‘-or’ va hokazo. Qo‘shimchalar qanday qo‘shilganligini bilish uchun quyidagi misollarni ko‘rib chiqing.[267]

- Comprehend (verb) – comprehension (noun) – comprehensible (adjective)
- Inform (verb) – information (noun) – informative (adjective)
- Invest (verb) – Investment (noun) – Investor (noun)
- Write (verb) – writer (noun)
- Authorise (verb) – authorisation (noun)
- Move (verb) – movement (noun)

[266] Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent, Universitet, 2006.

[267] Ikromjonovna, M. D. (2021). Lingvo-cognitive and linguculturological aspects of proverbs and matals in different system languages. Anglisticum. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 10(3), 4-53.

- Add (verb) – addition (noun)
- Happy (adjective) – happiness (noun)
- Conserve (verb) – conservation (noun)
- Wide (Adjective) – widen (verb)

Konvertatsiya jarayoni faqat ma’lum bir so‘zning so‘z turkumini o‘zgartirishga qaratilgan. Agar e’tibor bergan bo‘lsangiz, ba’zi otlar qanday qilib boshqa so‘z qo‘shilishi yoki haqiqiy so‘zning imlosini biroz o‘zgartirish orqali ot vazifasini bajaradigan fe’l yoki sifatdosh ro‘lini bajarishini ko‘rgan bo‘lardingiz.

- The rich should help the poor.

Adjectives such as ‘rich’ and ‘poor’ are used as nouns by using them with the article ‘the’.

- Everyone is talented.

‘Talented’ – a past participle is used as an adjective in the above sentence. The word is formed by adding the suffix ‘ed’ to the end of the noun ‘talent’.

- There will definitely be a lot of ups and downs in life.

Prepositions ‘up’ and ‘down’ are used as nouns by adding ‘s’ to the end of it.

- He texted me about the meeting only at the last minute.

The noun ‘text’ used to refer to a text message sent on a phone is used as a verb in the sentence by adding an ‘ed’ to the end of the word.

Qo‘shma so‘zlar nutqning bir bo‘lagining ikkinchi qismi bilan qo‘shilib, muayyan so‘z turkumini hosil qiladi. Qo‘shma so‘zlarning yasalishining ko‘plab usullari mavjud. Fe’llar sifatlar bilan qo‘shilib qo‘shma fe’l, hozirgi zamon sifatdoshi ot bilan qo‘shma ot, ikki ot birikib qo‘shma ot, sifat va ot qo‘shilib qo‘shma ot, sifatdosh o‘tgan zamon sifatdoshi bilan qo‘shilib, qo‘shma sifat yasaydi va hokazo. [268]

8. White (adjective) + wash (verb) – Whitewash
9. Black (adjective) + board (noun) – Blackboard
10. Cup (noun) + board (noun) – Cupboard
11. Short (adjective) + hand (noun) – Shorthand
12. Swimming (present participle) + pool (noun) – Swimming pool
13. Three (adjective) + legged (past participle) – Three-legged
14. Break (verb) + Down (preposition) – Breakdown
15. Up (preposition) + town (noun) – Uptown
16. Copy (verb) + writer (noun) – Copywriter

So‘z yasash usullari.

O‘zbek tilida so‘z yasalishining semantik, fonetik, abbreviatsiya, affiksatsiya, kompozitsiya kabi usullari mavjud. Bu usullar davriy nuqtai nazardan ikki guruhni tashkil qiladi: 1) tarixiy (diaxron) uasalish: semantik, fonetik, abbreviatsiya, kompozitsiya usullari; 2) zamonaviy (sinxron) uasalish: affiksatsiya kabilardan iborat.

[268] Mirzayeva, D. (2020). Occurrence of pragmalinguistic features of paremias. In философия инноваций и социология будущего в пространстве культуры: Научный диалог (pp. 233-235).

Semantik usul. So‘zning bir turkumdan boshqa turkumga ko‘chi-shi asosida yangi so‘z yasalishidir. Masalan, sifatning otga ko‘chishi asosida: *ko‘k* (osmon ma’nosida), *erkak, chol, kampir*; sodda va juft fe’lning otga ko‘chishi asosida: *kurash, kengash, urush, keldi-ketdi, bordi-keldi, qo‘ydichiqdi, yurish-turish, yozuv-chizuv*;

Fonetik usul. So‘z tarkibida yuzaga keladigan fonetik o‘zgarishlar asosida yangi ma’noli so‘z yasalishidir. *yangi´-ya´ngi (hozir), endi´-e´ndi (hozirgina), ho´zir-hozi´r*.

Abbreviatsiya usuli. Murakkab so‘z birikmalarini turli usullar yordamida qisqartirish orqali yangi so‘z yasalishidir. Masalan, *elektron hisoblash mashinasi-EHM, Birlashgan Millatlar Tashkiloti-BMT.*

Affiksatsiya usuli. Bu usul bilan o‘zakka so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shish orqali yangi so‘z yasaladi. Masalan: *o‘r+oq, dars+lik, sez+gir, o‘zbek+cha, tor+ay(moq), mard+ona.*

Kompozitsiya usuli. Birdan ortiq mustaqil ma’noli o‘zak morfemalarning tobelashgan holda qo‘shiluvi, birikuvi orqali yangi so‘z hosil qilinishidir. Masalan: *Mirzachul, gulqand, guldasta, temir yo‘l, qaror qilmoq, ahd etmoq.* Bunday yasama so‘zlar ikki yoki undan ortiq mustaqil ma’onli o‘zak morfemalar ishtirokida hosil bo‘lsa ham, yaxlitligicha bitta lug‘aviy ma’no ifodalashga xizmat qiladi. Ular tuzilishiga ko‘ra qo‘shma so‘zlar deyiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent, Universitet, 2006.

2. Ikromjonovna M. D. (2021). Lingvo-cognitive and linguculturological aspects of proverbs and matals in different system languages. Anglisticum. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 10(3), 4-53.

3. Mirzayeva, D. (2020). Occurrence of pragmalinguistic features of paremias. In философия инноваций и социология будущего в пространстве культуры: научный диалог (pp. 233-235).

3. Mirzayeva, D. (2020). Occurrence of pragmalinguistic features of paremias. In философия инноваций и социология будущего в пространстве культуры: научный диалог (pp. 233-235).

4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent, Universitet, 2006.

5. Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili. (Morfemika, so‘z yasalishi va morfologiya) – Toshkent, 2009.

6. Xojiyev A. O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1989.

7. G‘apporov M., Qosimova R. Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent: Turon iqbol, 2010.

O‘ZBEK TILIGA ARAB TILIDAN O‘ZLASHGAN SO‘ZLAR SEMANTIKASINING TADRIJIY TARAQQIYOTI

Nazokatxon Boqijonova
Qo‘qon DPI, talaba
Ilmiy rahbar: M.Rahimova
Qo‘qon DPI dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqola arab tilidan o‘zlashgan va o‘zgarishga uchragan so‘zlar tahliliga bag‘ishlangan. Maqolada, o‘zbek tiliga kirib kelgan arab so‘zlarining etimologiyasi, ularning ma’nosi va fonetik o‘zgarishlari haqida batafsil ma’lumot beriladi. Shuningdek, arab tilidagi so‘zlar o‘zbek tili kontekstida qanday qilib yangi ma’nolarni keltirib chiqarishi, madaniy va ijtimoiy ta’siri ham ko‘rib chiqiladi. Maqola, o‘zbek tilining boyligini va uning boshqa tillar bilan aloqasini tushunishga yordam beradi, shuningdek, tillararo o‘zaro ta’sir va madaniyat almashuvining ahamiyatini yoritadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek tili leksikasi, til va madaniyat, ma’no taraqqiyoti, arabizmlar, hozirgi o‘zbek adabiy tili, o‘zlashma qatlam, o‘z qatlam, o‘zlashish va o‘zgarish, diniy, siyosiy, madaniy arabizmlar.

O‘zbek tili leksikasida arabcha so‘zlarning mavjudligi o‘tmishda Markaziy Osiyo hududlarining arablar tomonidan egallanishi hamda uning tarixiy-ijtimoiy oqibatlari bilan bog‘liqdir. Sodir bo‘lgan siyosiy, diniy hamda ma’naviy mahalliy xalqlar turmush tarzining barcha sohalariga arab tili va madaniyatining kirib kelishiga sababchi bo‘ldi. Buning natijasida arab tilinning keng tarqalishi, bu tilda yozishga, o‘qishga, diniy aqidalarni bajarishga to‘g‘ri kelgani mahalliy xalqlarning arab tilini yuqori darajada egallashiga olib keldi. Til va madaniyat bir-biriga shunday bog‘liqki, buning natijasi arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar misolida yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘zbek xalqi arab madaniyati bilan birgalikda arab tilini ham turmushining turli sohalariga qabul qildi. Dastlab diniy so‘ngra ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va madaniy arabizmlar kirib keldi. Ammo til hech vaqt o‘zgarishsiz, rivojlanishsiz qotib qolmaydi.Shu sababli ma’lum vaqt mobaynida sekin - astalik bilan arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar ham leksik, grammatik o‘zgarishlarga uchragan. Masalan, jadval so‘zini olaylik, bu termin dastlab "kitobatchilikda eng ko‘p qo‘llanuvchi bezak" ma’nosini anglatgan bo‘lsa, keyingi davrlar mobaynida uning semantikasida keskin o‘zgarish yuz bergan va dastlabki ma’nosi yo‘qolgan. Hozirgi kunga kelib "muayyan shakl asosidagi ma’lumotlar", "dars, mashg‘ulot va turli faoliyatlarning tartib ro‘yhati" ma’nosini anglatmoqda.

Aytmoqchimizki, inson, qabila yoki elat, xalq yoki millat taraqqiyoti qaysi bosqichda bo‘lmasin o‘zi alohida hammadan ajralgan holda, boshqa xalqlar, millatlar bilan aloqa va munosabatda bo‘lmay yashamog‘i amri maholdir. Shuningdek, Til va madaniyatlarning o‘zaro ta’siri turli vaqt va zamonlarda turlicha bo‘ladi. Dastlab bu ta’sir bir tildan ikkinchi bir tilga so‘z olish bilan boshlansa, uning kuchayishi odamlar o‘rtasidagi munosabatning intensivligi va siqiqligiga qarab o‘saveradi. Shu yuzasidan ba’zi misollarni ko‘rib o‘tamiz.

Ablah - bu so‘z asli "axmoq bo‘ldi", "nodon bo‘ldi" ma’nosini anglatuvchi baliha fe’lidan hosil qilingan sifat. Hozirgi o‘zbek tilida bu sifat "axmoq" ma’nosi bilan deyarli ishlatilmaydi. Mano taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan "qabih", "razil" ma’nosini anglatish uchun ishlatiladi. Demak, bu so‘z o‘zbek tilida yangi lug‘aviy mundarija kasb etgan. Ablah so‘zining xuddi shu yangi ma’nosi asosida ablahlik, ablahlarcha so‘zlari hosil qilingan.

Davomat - bu arabcha davamatun shakliga ega bu so‘z dama fe’lidan hosil qilingan davam so‘zidan - at qo‘shimchasi bilan yasalgan mavhum ot bo‘lib, arab tilida " muddat", "vaqtning o‘tishi" ma’nolarini, Hozirgi o‘zbek adabiy tilida esa "birorta faoliyatda muntazam qatnashib turish", ma’nosini ifodalaydi.

Jallob - bu arabcha so‘z bo‘lib jallobun shakliga ega. Bu so‘z jalaba fe’lining "olib keldi" ma’nosi bilan yasalgan kasb oti bo‘lib, arab tilida "savdo sotiq bilan shug‘ullanuvchi kishi" ma’nosini anglatadi. Ma’no taraqqiyoti natijasida ushbu ma’nosi torayib hozirgi o‘zbek adabiy tilida "tuyoqli mol olib sotuvchi kishi" ma’nosini anglatish uchun ishlatiladi.

Favvora - bu arabcha so‘z favvoratun shakliga ega. Favvora "qaynadi", "jo‘sh urdi" ma’nosini anglatuvchi favvora shaklidan hosil qilingan favvorun otining "doimiy", "takror" ma’nosini ifodalovchi - at (un) qo‘shimchasini olgan shakli bo‘lib, hozirgi o‘zbek adabiy tilimizda "fontan", "yuqoriga otiluvchi suv" ma’nosini anglatadi.

Qadah - bu arabcha qadahun shakliga ega. Asli qadaha fe’lining "o‘ydi" ma’nosi asosida hosil qilingan bo‘lib, o‘zbek tilida "may ichiladigan idish" ma’nosini anglatadi. Chunki dastlab yog‘ochdan o‘yib yasalgan. Ammo hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham (yog‘ochdan ishlanmagan bo‘lsa ham) may ichiladigan idish qadah deyiladi.

G‘aladon bu so‘z asli g‘alladon shakliga ega bo‘lib, tojik tilida arabcha g‘alla so‘zidan - don qo‘shimchasi bilan yasalgan. G‘alladon- g‘aladon dastlab "omborda don saqlash uchun xoslangan joy" ma’nosini anglatgan. Vaqt o‘tib o‘z ma’nosini kengaytirib hozirda "turli buyumlar saqlanuvchi tortma" ma’nosini ifodalaydi.

Bisot - bu arabcha so‘z bisatun shakliga. Bu so‘z arab tilida "gilam" ma’nosini anglatadi. O‘zbek tilidagi ma’no taraqqiyoti natijasida ma’nosida kengayish voqe bo‘lib, keyinchalik "oilaga tegishli mol-dunyo" ma’nosini anglata boshlagan.

Vassalom - bu arabcha so‘z asli va al salam shakliga ega. Bu so‘z arab tilida ham, o‘zbek tilida ham "boshqa gap bo‘lishi mumkin emas", "bas" kabi ma’nolarni anglatadi. Dastlab esa eskicha xat yozish uslubida maktubning oxirida va assalom, noma tamom jumlasi yozilar edi. Bu jumlada assalom asli "sog‘liq" ma’nosini bildiradi, keyinchalik maktubning oxirlanganini bildirishga, "bo‘ldi", "bas" ma’nolarini ifodalashga xizmat qilgan.

Tilimizda shunday arabizmlar ham borki, hozirda asl ma’nosidan butunlay aks ma’no ifoda etadi. Bunday so‘zlar o‘zlashgan vaqtidan buyon bir qancha vaqt, davr mobaynida turli xil omillar ta’sirida aks ma’no ifoda eta boshlagan. Shunday so‘zlardan biri davo so‘zidir.

Davo - asli arabcha bo‘lgan bu ot so‘z da’un shakliga ega bo‘lib, "kasallik", "xastalik" ma’nosini anglatadi. Fors-tojik tilida bu so‘z davo shakliga ega bo‘lib, o‘zbek tiliga ham shu shaklida qabul qilingan, "dori - darmon" ma’nosini anglatadi. Ko‘rinadiki, asli ma’nosi "kasallik" ma’nosida tilimizga kirib kelgan. Keyinchalik bu so‘z o‘zbek tilida "shifo" ma’nosini ham bildira boshlagan.

Basir so‘zi esa asli arabcha "ko‘rdi" ma’nosiga ega o‘zbek tiliga ham shu ma’nosida yani "ko‘radigan" ma’nosi qo‘llanganini guvohi bo‘lamiz. Bunday holat ayollar nutqida uchraydigan aks qarg‘ish "basir bo‘lgur" qarg‘ishining ta’sirida yuzaga kelgan, ehtimol. "Ko‘radigan bo‘lgur" ni teskari "ko‘r bo‘lgur" singari tushunish oqibatida basir so‘ziga "ko‘r" ma’nosini biriktirish yuz bergan.

Bid’at so‘zi ham arabcha bid’atun shakliga ega. Bu so‘z "yaratdi, yangilik kiritdi", "o‘ylab chiqardi" ma’nosini anglatuvchi bada’a fe’lidan hosil qilingan. Asli "yangilik" ma’nosini anglatuvchi bu so‘z davrlar mobaynida din aqidalariga xilof yangilik ma’nosini anglata boshlagan, keyinchalik "eskirgan urf - odat" ma’nosida salbiy bo‘yoq kasb eta boshlagan. Va yana lug‘at tarkibimizda shunday arabizmlar ham uchraydiki, ular asl ma’nosini tamomila yo‘qotib hozirda boshqa ma’noda qo‘llaniladi. Bunday so‘zlardan biri maraz so‘zidir.

Maraz - bu arabcha marazun shakliga ega. Arab tilida maraz-kasal ma’nosini ifodalaydi. O‘zbek tilida esa ko‘chma ma’noda qo‘llanilganligi bois "yaramas", "yuqumli illat" ma’nosida hozirgi o‘zbek tilimizda qo‘llaniladi va kasal ma’nosini yo‘qotgan.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rinadiki tilning lug‘at tarkibi doimo yangilanib, o‘sib, o‘zgarib boradi. Shuningdek, vaqt hamma narsaga ta’sir ko‘rsatar ekan, hattoki tilimizni ham chetlab o‘tmaydi. Arab tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan so‘zlar nafaqat leksik boylikni oshirish, balki madaniyat va fikrlash tarziga ham ta’sir ko‘rsatdi. Tarixiy kontekstda bu o‘zlashuv jarayoni muhim rol o‘ynadi. Hamda ko‘rib o‘tganimizdek bir qancha o‘zlashma qatlamdagi so‘zlarimiz davr va zamon talabi, turli xil omillar natijasida turli o‘zgarishlarga uchradi. Buni, ya’ni hozir sevib foydalanayotgan so‘zlarimizni, tilimiz tarixini va madaniy aloqalarni o‘rganish kelajakda ham til va madaniyatimizni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev F. Til qanday rivojlanadi. – Toshkent: 1972
2. Usmanova S. O‘zbek tilining lug‘at sostavida tojik-forscha va arabcha so‘zlar.
3. Raxmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. -Toshkent: 1995.
4. Yo‘ldoshev I, Sharipova O‘. Tilshunoslik asoslari. - Toshkent: "Iqtisod - Moliya", 2007
5. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent: 1972

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING BADIIY ADABIYOTDA O‘ZARO GENDER MUNOSABATLARI

Ominaxon Hosilova
Qo‘qon DPI talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada leksikologiyaning frazeologiya bo‘limiga oid ma’lumotlar bilan birgalikda frazemalarning gender jihatdan bir qancha guruhlarga ajratilishi haqida batafsil ma’lumot berilgan. Badiiy adabiyotda iboralarning ahamiyati va ularning farqli jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: leksikologiya, frazeologiya, frazema, adabiyot, tilshunoslik, ibora, turg‘un bog‘lanma.

Abstract. In this article, together with information on the phraseology department of lexicology, detailed information on the division of phrasemes into several gender groups is given. The importance of expressions and their differences are revealed in the literature.

Key words: lexicology, phraseology, phraseology, literature, linguistics, idiom, fixed conjunction.

Frazeologizm, frazema, frazeologik birlik- ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, ma’noviy jihatdan o‘zaro bog‘liq so‘z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan va bo‘linmaydigan, barqaror (turg‘un) bog‘lanmalarning umumiy nomi hisoblanadi. Frazeologiya – tilshunoslikning biror tilga xos barqaror so‘z birikmalarini va iboralarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi. Tilshunoslikka frazeologiya atamasi ilk bor Sharl Balli tomonidan olib kirilgan bo‘lib, dastlab, stilistika fani bilan qo‘shib o‘rganilgan. Professor E. F. Polivonov esa frazeologiyani fan sifatida tan olish fikrini bergan taniqli tilshunos olim hisoblanadi [1].

O‘tgan asrning 50-yillarigacha frazeologiya hali o‘zbek tilshunosligi tarkibida mustaqil soha sifatida shakllanmagan edi. Bu davrda frazeologiyaga doir dastlabki ma’lumotlar turg‘un birikmalarga oid ilk nazariy fikrlar grammatika va stilistikaga, ayrim o‘zbek shoirlari, yozuvchilarining badiiy mahorati tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda ko‘zga tashlanadi. Bunday ishlar A. G‘ulomov, U. Tursunov, V. Abdullayev, H. Zarifov, N. Mallayev singari mashhur tilshunos va adabiyotshunos olimlarning qalamiga mansubdir. Jumladan, A. Sa’diy, V. Abdullayev kabi adabiyotshunoslarning A. Navoiy asarlarida turg‘un birikmalar, xalq iboralarining qo‘llanishiga oid fikrlari hozir ham o‘z qimmatini saqlab kelmoqda. O‘zbek frazeologiyasiga doir dastlabki ishlar o‘tgan asrning 50-yillarining boshida yuzaga keldi. Ular qatoriga Shavkat Rahmatullayevning ishlarini kiritish mumkin. Masalan, Sh. Rahmatullayev idiomatik so‘zlar haqidagi fikrini rivojlantirib, til birliklarini etimologik jihatdan qo‘shma so‘zga teng idiomatik so‘lar deb tahlil qilgan [2].

Badiiy adabiyotda esa deyarli barcha ijodkorlarning asarlarida frazemalardan foydalanish holatlarini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, O‘tkir Hoshimov, Tog‘ay Murod kabi o‘tkir qalam sohiblarining ijodida frazeologiyaning nozik qirralarini va frazemalarning

yuqori darajada mahorat bilan qo‘llanilganligini ularning asarlari orqali tanishib chiqilgan. Aytishimiz mumkinki, frazeologik birliklar va turli xil iboralardan nutqda keng va o‘z o‘rnida foydalanish, ta’sirchanlikning oshishida, so‘zlovchining naqadar mahoratli so‘z ustasi ekanligini ko‘rsatib berishga va tinglovchiga estetik zavq berishga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Adabiyotlarda foydalaniladigan frazemalarning bir qanchasi faqat ayollar tilida yoki faqat erkaklar nutqida, balki, ayrimlari faqatgina bolalar tilida ham uchrashi kuzatilgan. Ushbu jihatdan frazemalarni gender munosabatiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratsak bo‘ladi:

I. Erkaklar nutqida ishlatiluvchi frazemalar; bu o‘z navbatida
a) Yigitlar (o‘smir yoshdagilar)
b) Erkaklar (o‘rta yoshdagilar)
c) Keksa chollar (katta yoshdagilar) ga ajratiladi;
II. Ayollar nutqida ishlatiluvchi frazemalar;
a) Qizlar (o‘smir yoshdagilar)
b) Ayollar (o‘rta yoshdagilar)
c) Keksa xotinlar (katta yoshdagilar) ga ajratiladi;

Frazemalarning o‘ziga hos xususiyatlarini nafaqat badiiy adabiyotlarda balki, sof nutqiy jarayonlarda ko‘proq uchratamiz. Masalan, xalqimizda *“Boshini ikkita qilib qo‘ymoq”* yoki *“Boshini qovushtirmoq”* iboralari erkaklarga nisbatan asosan katta yoshdagi ayollar nutqiga singib ketgan. *“Avzoyi buzilmoq”* iborasi yigitlar nutqida uchrovchi frazema hisoblanib vajohati yomonlashdi, kayfiyati buzildi degan ma’nolarda ishlatiladi.

- “Uchinchi kurslilar Temur Akbarovichning “avzoyi buzilganini” ko‘rib, jim bo‘lib qolishdi”. (Pirimqul Qodirov “Uch ildiz”);
- Uch-to‘rt kundan buyon ularning “avzoyi buzuq” edi, betlaridan zaxar tomar edi. (Oybek ”Qutlug‘ qon”) [3].

Avra-astarini ag‘darmoq - iborasi o‘rta yoshdagi erkaklar tilida uchrovchi frazema hisoblanib, jazosini bermoq ta’zirini bermoq ma’nolarini bildiradi. Unga sinonim ravishda “adabini yemoq” iborasini olish ham mumkin.

...Bir karra adabini yegan Edgar Gladston endi Sovet sharqidagi siyosatni Naimiylarga ham dars beradigan bo‘lib suv qilib ichib olgan edi. (A.Muxtor “Opa-singillar”).

Adi-badi aytishmoq - frazemasi ham asosan erkaklar nutqida ayollarga nisbatan ko‘p gapirmaslikni ta’kidlash uchun ishlatiladi. Bu frazemaning yana bir qancha ma’nolari mavjud bo‘lib, turli mavzuda yengil-yelpi suhbatlashish, janjallashmoq kabi mazmunlarni ham o‘zida saqlagan.

Ba’zi gaplarini ichimda “Nafsil-amr” deb tinglar edim. “Adi-badi aytishib”, qizning uyiga kelganimizni ham bilmay qolibmiz. (G‘. G‘ulom, “Yigit”).

Hayriyatki, Zarofat uncha-muncha gapni ko‘ngliga olmay, “adi-badiga bormay”, Haydarni “jonim-jonim’’ deb, kulib yengishga intilar edi. (M. Muhamedov, “Gavhar”).

Ammamning buzog‘i - Ushbu frazema o‘smir qizlar nutqida uchraydigan iboralardan hisoblanib, landavur, lapashang degan ma’nolarni anglatadi [3].

- Xay, menga qara, agar men hukumat bo‘lsam, sendaqa “ammamning buzog‘i” raisning orqasiga bir tepib.... (Saidahmad “Kuyov”).

Bir qoshiq suv bilan yutguday - beqiyos go‘zal, nihoyatda dilrabo;

Ushbu iborani keksa yoshdagi buvijonlarning tilidan aytilgani qulog‘imizga chalingan, albatta.

- Ha, o‘ziyam o‘n besh kunlik oyday, “bir qoshiq suv bilan yutguday”! (“O‘qitvchi”).

- Gulsanam “bir qoshiq suv bilan yutgudek” ajoyib bir kelinchak bo‘ldi. (Oydin, “Gulsanam”).

Daqyonusdan qolgan;daqqiyunusdan qolgan; doqiyunsdan qolgan - juda eski, qadimgi degan ma’noviy birliklarni o‘zida saqlagan ushbu frazema ham asosan keksa yoshdagi xotinlar qo‘llaydigan ibora hisoblanadi.[4].

Daqqiyunusdan qolgan - tillaqosh, sochpopuk, qatichalarni ham boshqatdan artib-surtib,... (Mirmuhsin, “Jamila”).

Gulnor “doqiyunusdan qolgan” kavushni kiyib, chirik paranjiga o‘ralib, Yo‘lchi bilan jo‘nadi (“Qutlug‘ qon”)

Ilonning yog‘ini yalagan - juda ayyor, mug‘ombir, quv ma’nolarini ifodalaydi. Bu iborani xalqimiz orasida qo‘llanish darajasi yuqori ekanligini bilamiz. Ayniqsa, o‘rta yosh darajasidagi ayollar nutqida erkaklarga nisbatan ko‘proq qo‘llanilishi bilan ajralib turadi.

- Ey, qanaqa go‘l odamsan o‘zing. Bektemirov “ilonning yog‘ini yalagan” odam. Kaltak yeb indamay ketaveradi deb o‘ylaysanmi?! (“Hukm”).

- Ko‘p ishni ko‘rgan bu Zunnunov, “Ilonning yog‘ini yalagan”. Juda nozik joyini topibdi. (“Ixlos”). [5].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, frazemalar nutqimizning ajralmas qismiga aylanib ketgan muhim bir bo‘lagi sanaladi. Ko‘p insonlar iboralarning qanday ma`no anglatishi haqida tushunchaga ega bo‘lmay turib uni qo‘llash holatlariga ham guvoh bo‘lganimiz tabiiy. Birgina so‘zni o‘rnida qo‘llamaslik gap mazmunining noto‘g‘ri talqin qilinishi uchun asos bo‘lishi turgan gap. Ushbu taqdqiqot ham ayni shu holatlarni jamiyatimizda uchramasligi uchun va odamlarning o‘zlari nutqiy jarayonda foydalanayotgan gap-so‘zlari qanchalar muhim ahamiyat kasb etishi haqida ilmiy jihatdan asoslab berish maqsadida olib borilgan. Frazeologiya bo‘limi bitmas-tuganmas ma`nolar xazinasiga ega va uni o‘rganish esa bu xazinadan yangi ma`lumotlarni kashf etish uchun imkon bo‘ladi. Frazemalarning mazmun va miqdor jihatdan ko‘p bo‘lishi qo‘llanish davrining tarixiga ham bog‘liq bo‘ladi. Albatta, har bir tilning frazeologik qatlami o‘sha til egasi bo‘lmish xalqning milliy urf-odatlari, qadriyatlari dunyoqarashini aks ettiradi. Bundan tashqari, mazmundor, ta’sirchan va bo‘yoqdor frazemalar nutqimiz ko‘rki va tilimizning boyligini ko‘rsatib beruvchi asosiy omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. Rahmatullayev “O‘zbek tilining qisqacha frazeologik lug‘ati” “Fan” nashriyoti T.: -1964.
2. Rahmatullayev Sh., O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari, T.: -1966;
3. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati, T.: -1978.
4. Mirtojiyev M. O‘zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi, T.: -2000.
5. Ne`matov H, Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari, T.: -1995.

ANTONIMLARNING TILDAGI MUAMMOLARI

Adhamova Maftuna Muzaffar qizi
FarDU talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada antonimlar, ya’ni qarama-qarshi so‘zlar, tilshunoslikdagi o‘rni va ularning muammolari, til o‘rganish jarayonida bunday muammolarni hal qilish uchun yangi yondashuvlar haqida so‘z yuritiladi.

Abstract. This article discusses antonyms, i.e. opposite words, their place in linguistics and their problems, new approaches to solve such problems in the process of language learning.

Kalit so‘zlar. Antonim, paradigmatik munosabat, kontekstual ta’sirlar, metaforik ma’no, madaniy omillar, semantik farqlar.

Key words. Antonym, paradigmatic relation, contextual effects, metaphorical meaning, cultural factors, semantic differences.

Til kishilarning aloqa almashinuv quroli bo‘lish bilan birga estetik zavq beruvchi, imkoniyatlarini oshiruvchi qudratli ta’sir kuchiga ega bo‘lgan ijtimoiy-ruhiy aloqa vositasidir. Til imkoniyatlarini anglash ko‘lami kengayib, darajasi ortayotganligi tilning bor ahamiyatini ko‘rsatib o‘tadi. Tilimizda mavjud bo‘lgan sinonim, antonim, paronim, omonim kabi so‘zlarning shakl va ma’noviy jihatdan turlari ona tilimizning ifoda imkoniyatlari yanada boyligidan dalolat beradi. Antonim so‘zlar nutqning ifodaliligi, ta’sirchanligi va shuningdek, ekspressivligini ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. "Antonimlar (zid ma’noli so‘zlar) grekcha *anti*-“*zid*", "*qarama-qarshi*" onoma yoki onyma “nom” degani bo‘lib, qarama-qarshi tushunchalarni ifodalaydigan so‘zlarga nisbatan ishlatiladi, ya’ni ma’no jihatdan bir-biriga zid bo‘lgan so‘zlar antonim deyiladi. Antonimik juft hosil bo‘lishi uchun ikkita mustaqil tushuncha ma’no jihatdan o‘zaro qarama-qarshi bo‘lishi kerak. Fe’llardagi bo‘lishli-bo‘lishsizlik xususiyati antonimlikni vujudga keltirmaydi."[1,417] Demak, antonimlar biri ikkinchisini rad etuvchi qarama-qarshi so‘zlar, ushbu inkor yangi tushunchalar bilan bog‘liq bo‘ladi va ular o‘rtasida nisbiy aloqadorlik mavjudligini anglatadi. Misol uchun, chiroylining aksi xunuk, katta borligi uchun kichikning mavjudligi, tor borligi uchun keng borligi antonimlikni hosil qiladi.

Antonimlar bir-biriga qarama-qarshi ma’no bildiruvchi so‘zlar bo‘lib, zidlik ma’nosini paradigmatic munosabatlar yordamida ifodalaydi. O‘zaro bir sathga mansub bo‘lgan, tildagi qimmati jihatdan bir xil birliklarning bir umumiy belgi

asosida o‘zaro bir guruhga, ya’ni uyaga birlashuvi tilshunoslikda paradigmatic munosabat deb yuritiladi. Bunday birliklar uchun o‘zaro umumiy belgi sifatida ushbu til birliklarining shakli ham, ma’nosi ham asos bo‘lishi mumkin.) Antonimlik tilga xos bo‘lgan juda qiziq hodisa sanaladi, aslida u ongimizda zid ma’noli juftlik sifatida mavjud bo‘ladi. Bu antonimik juftlikdan birini aytganimizda uning zid ma’noli jufti xayolimizga keladi. Bu juftliklarni topa olish o‘quvchilarning so‘z boyligi darajasini aniqlab berish bilan birga ularning fikrlash qobiliyatini o‘stirishga ham xizmat qiladi.

Antonimlar fikrni lo‘nda, aniq va ta’sirli ifodalashda, badiiy tasvirda turli usullarni qo‘llashda muhim uslubiy vositadir. Ular so‘zlashuv, badiiy va publitsistik uslubda keng qo‘llanadi, rasmiy ish va ilmiy uslubda esa kam ishlatiladi.

Antonimlarning uslubiy xususiyatlari quyidagicha:

a) narsa-hodisalarni umumlashtiradi, jamlaydi (juft holda), bu juftlik ifodalagan mazmun-tushunchani boshqa so‘z, ibora, gap bilan berish mutlaqo mumkin emas. Majlisga katta-yu kichik to‘plandi. Mana shu umumlashtirish orqali fikr kuchli, ta’sirli va obrazli ifodalanadi;

b) antonimik juftlikdan foydalanib, birining ma’nosi kuchaytiriladi, alohida ta’kidlanadi, tinglovchiga ta’sir etiladi. Kuchaytirish ko‘pincha keyingisiga nisbatan bo‘ladi: yuraging yumshoq, irodang qattiq;

v) real voqelikni tasviriy ifodalashga xizmat qiladi: Saida goh boshqalardan oldin, goh boshqalardan keyin boychechak aytar edi.

g) ma’noni bo‘rttiradi, vaziyatning oxirgi chegara-imkoniyat darajasida ekanini ko‘rsatadi: Qalandarov kechani kecha, kunduzni kunduz demay, o‘z ishiga juda qattiq yopishdi. Antonimlarning bunday xususiyatlari tilning ta’sirchanligini oshiradi.

Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, tildagi hamma so‘zlar ham antonimik juftlikka ega bo‘lavermaydi, chunki har bir tushuncha boshqa turdosh va qarama-qarshi tushunchaga ega emas. Masalan, aniq predmetlarning nomlari: *qo‘l, yuz, burun, stul, stol* va shunga o‘xshash so‘zlar o‘z antonimlariga ega emas. Lekin ba’zi holatlarda til va nutqda kontekstual antonimlar ishlatiladi. Kontekstual antonim — bu o‘zaro qarama-qarshi ma’nolarni ifodalovchi leksik birliklardir. Ular leksik ma’nolari jihatidan antonim bo‘lmasalar-da, matn kontekstida qarama-qarshi ma’nolarni ifodalaydilar. Tilimizdagi ko‘pgina so‘zlar to‘g‘ri ma’nosi bilan ham, ko‘chma ma’nosi bilan ham antonim bo‘la olmaganlari holda, ular nutqda bir-birlari bilan mazmunan zid tushunchalarni anglatib kelishi, qarama-qarshi ma’nolarda qo‘llanishi mumkin. Masalan, *faxr-qahr,o‘tkir-past* so‘zlari o‘zaro to‘g‘ri va ko‘chma ma’nolari bilan o‘zaro antonim bo‘la olmaydi yoki antonimik juftlik yasay olmaydi.

Antonimlarning tildagi ahamiyati katta bo‘lgani bilan birga, ularning ham til o‘rganish jarayonida bir qancha muammolari mavjud.

Antonimlarning asosiy muammolaridan biri ularning ma’nolaridagi farqlardir. Ko‘plab antonimlar kontekstga qarab turlicha talqin qilinishi mumkin. Masalan,

"*yengil*" so‘zi "*og‘ir emas*" va "*qorong‘i emas*" ma’nolarini anglatishi mumkin, bu esa ba’zi iboralarda noaniqlik keltirib chiqaradi [2,43]. Ushbu noaniqliklarni tushunish samarali muloqot va anglash uchun zarurdir.

Bundan tashqari, antonimlarni o‘rganishda kontekstual ta’sirlar ham o‘z o‘rniga ega. Kontekst antonimlarning ma’nosini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Bir so‘z bir kontekstda antonim sifatida ishlatilishi mumkin, lekin boshqa bir kontekstda emas. Masalan, "*issiq*" va "*sovuq"* so‘zlari haroratni tasvirlashda ishlatilishi mumkin, ammo ular metaforik ma’noda ham qo‘llanilishi mumkin, masalan, tendentsiyalar yoki hissiyotlar haqida gapirganda. Antonimlarning turli kontekstlarda o‘zgaruvchanligi ularning qo‘llanilishini murakkablashtiradi [3,65].

Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, tilshunoslikda madaniy omillar til ko‘lamini oshirishga yordam beradi. Madaniy farqlar antonimlarni qanday tushunish va ishlatishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zi antonimlar ba’zi tillarda mavjud bo‘lmasligi yoki turlicha konnotatsiyalarga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, "*muvaffaqiyat*" tushunchasi madaniy qadriyatlarga qarab turlicha antonimlarga ega bo‘lishi mumkin—ba’zi madaniyatlarda *"muvaffaqiyatsizlik*" keng tarqalgan bo‘lsa, boshqalarda "*o‘rtachalik*" kabi atamalar ishlatilishi mumkin [4,32]. Ushbu madaniy nuqtai nazar antonimlarni o‘rganishda hisobga olinishi kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, antonimlar bilan bog‘liq muammolar til ifodasining murakkabligini ko‘rsatadi. Semantik farqlar, kontekstual ta’sirlar va madaniy omillar antonimlarni samarali tushunish va qo‘llashdagi qiyinchiliklarga hissa qo‘shadi. Kelajakdagi tadqiqotlar bu masalalarni yaxshiroq tushunish uchun tillararo o‘rganishlarga e’tibor qaratishi lozim. Tilimizda antonim birliklardan foydalanish borasida juda ko‘p imkoniyatlar mavjud. Ulardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish nutq boyligini oshirishda eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Madalov, N. E. Linguopsychological changes in an adult when learning a foreign language. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (90), 2020 y, 417-420 p.

2. Kruze, D. A. "Tilning ma’nosi: semantika va pragmatikaga kirish". Oksford Universiteti Noshirligi, 2000 y, 43-47 p.

3. Lyons, J. "Semantika". Kembrij Universiteti Noshirligi, 1977 y, 65-66

4. Lakoff, G., Johnson, M. "Biz Yashayotgan Metaforalar". Chikago Universiteti Noshirligi, 1980 y, 32-38 p.

5.Sh. Rahmatullayev va boshqalar. O‘zbek tili antonımlarining izohli lug‘ati T.: O‘qituvchi, 1984y, 122 p.

ABDULLA QAHHORNING “KAMPIRLAR SIM QOQDI” HIKOYASIDAGI AYRIM SO‘ZLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Davlatova Hilola Dilshodjon qizi
FarDU talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy matnni tahlil qilish, matndagi sintaktik qurilmalar va ularning qo‘llanilishi, fe’llarning lingvopoetik xususiyatlari, ularning badiiy matn mazmuniga aloqasi hamda ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: lingvopoetika, tahlil, badiiy matn, ko‘chma ma’no, tilshunoslar fikri, hikoyalar, fe’llar.

Annotation. This article shows the analysis of the literature text, the syntactic devices in the text and their use, the linguopoetic properties of the verbs, their relation to the content of the literary text, and their significance.

Key words: linguopoetics, analysis, artistic text, figurative meaning, opinion of linguists, stories, verbs.

Globallashuv jarayonida ilm-fan dolzarb masalalarni o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Endilikda badiiy matnni har tomonlama chuqur tadqiq qilish, undagi lingvistik, stilistik va semantik qirralarni o‘rganish asosiy masalalardan biri bo‘ldi. Avvalo, lingvopoetika nima?-degan savolga javob berish kerak. Mazkur savolga tilshunos Z.Sh.Ashurova shunday javob beradi: “Bu soha badiiy matnni til sathlari negizida tadqiq qiladi. Lingvopoetik tahlil usuli shundan iboratki, badiiy matndagi ijodkorning individual uslubiga xos qirralarini kashf etish bilan birgalikda so‘z va gap ma’nolarining o‘zaro yaxlitligi, birikuvini tadqiq qilishni nazarda tutadi”.[1]

A.A.Kasimov va S.O.Tursunova kabi tilshunoslar esa lingvopoetika borasida shunday fikrlarni ilgari suradilar: “Lingvopoetika lingvistik poetikaning qisqargan shakli bo‘lib, badiiy asarlarda qo‘llaniladigan lisoniy birliklarning (fonetik, morfemik, leksik va boshq.) badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ (ko‘chma) ma’nosini o‘rganadi”.[2]

Til va adabiyot doimo bir-birini to‘ldirib, uyg‘unlikda taraqqiy etib kelgan. Rus tilshunosi V.V.Vinogradovning fikricha, lingvopoetikaning asosiy vazifasi badiiy asarda til birliklarining estetik vazifasini tadqiq etishdan iborat. Shu fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, tilshunoslik va adabiyotshunoslikning kesishgan nuqtasida filologiyaning yangi yo‘nalishi, lingvopoetika, ya’ni shoir yoki yozuvchining badiiy to‘qimalarini til vositalari yordamida ifodalash imkoniyatlarini ochib beruvchi tilshunoslik va adabiyotshunoslikning uyg‘unlikdagi yo‘nalishi paydo bo‘ldi, deb hisoblaydi olim.

Bizning fikrimizcha ham, lingvopoetika tilshunoslikka ham, adabiyotshunoslikka ham tegishli sohadir. Uni bir tomonlama o‘rganish asarni tushunmay yakunlashday gap desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ta’kidlashimiz joizki, badiiy asar tilini o‘rganish bo‘yicha tilshunoslikda talaygina ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bu tadqiqotlarning negizida har bir adibning badiiy asar yaratishdagi

o‘ziga xos uslubi, so‘z qo‘llash mahorati, tilning boyligini va go‘zalligini ochib berish kabi maqsadlar yotadi.

Har qanday badiiy matn asosida sodda va murakkab tuzilishga ega sintaktik birliklar yotar ekan, ushbu maqolamizda adabiyotimizning sevimli vakillaridan biri bo‘lgan Abdulla Qahhorning hikoyalari misolida so‘zning badiiy matnda qanday ahamiyatga ega ekanligi xususida to‘xtalmoqchimiz.

Abdulla Qahhor so‘z qo‘llash mahorati bo‘yicha yuqori pog‘onalardan joy olgan adibdir. Ijodkorning asarlarida, ayniqsa, hikoyalaridagi so‘zlarning sodda va xalqonaligi, o‘quvchiga tez yetib borishi va tushunishda muammo tug‘dirmasligi yozuvchining badiiy mahoratidan darakdir.

Ushbu maqolada adibning “Kampirlar sim qoqdi” hikoyasidagi ba’zi so‘zlarning lingvopoetik tahlilini ko‘rib chiqamiz.

-Hoy, Nazirbuvi, shu bo‘ladigan ishmi, yoki raisning qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldirib jo‘natdikmi?

-Voy, To‘xtabuvi, nega bo‘lmas ekan? Majlisga soldik-a, majlis uvol emasmi? [3]

Yuqoridagi parchadagi “solmoq” fe’lining asardagi qanday ma’no anglatayotganini lingvopoetik tahlil qilamiz. Solmoq fe’lining “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagi izohlari berilgan:

1. Biror narsa ichiga yoki ustiga joylamoq, qo‘ymoq, tashlamoq. *–Chol “xo‘p” deb bo‘rini qopga solib, ustiga poxol yopib berkitib qo‘yibdi.*

2. O‘rnatmoq, qo‘ymoq. *–Mansur aka mashinangizga solib bir aylantirib keling.*

3. Bermoq, tashlamoq(hayvonlarga beriladigan ovqat haqida) *–Toshtemir quduqdan bir necha marta suv chiqarib, otlarni sug‘ordi, oxurlarga beda soldi.*

Izohli lug‘atda berilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, bu o‘rinda “solmoq” fe’li uchinchi ma’noga (tashlamoq) ma’nosiga mos keladi. Bilamizki, majlisda muammolar, ko‘rilayotgan masalalar o‘rtaga tashlanadi. Adib ham “majlisga tashladik” ma’nosini o‘quvchiga yana ham tushunarli bo‘lishi uchun “majlisga soldik” deya qo‘llagan. O‘quvchining ko‘z oldida “tashladik” fe’lidan ko‘ra “soldik” fe’li orqali obrazli tasvir ko‘proq gavdalanadi, yana ham tushunarliroq bo‘ladi. Bilamizki, yosh kitobxonlarning ko‘p qismi so‘zlarni oson tushunilishi tarafdorlaridir. Adib shuning uchun ham barcha qatlamning darajasini hisobga olgan holda “tashlamoq” fe’lining sinonimini qo‘llagan.

Parchadagi “Qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldirmoq” iborasi parchaning emotsionalligini oshirishga xizmat qilgan. Bilamizki, iboralar tilimizdagi tayyor birliklar hisoblanib, ma’nosi bir so‘zga teng keladigan gap yoki so‘z birikmalaridir. Iboralar har doim ko‘chma ma’noda ishlatiladi. Iboralar gap tarkibida uning bir bo‘lagi vazifasida keladi. “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” da ushbu iboraning “yolg‘on va’dalar bilan aldamoq”, “bergan so‘zining ustidan chiqmaslik” kabi ma’nolari izohlab o‘tilgan. Parchamizda esa iboramiz gapning ikkinchi darajali bo‘lagi, ya’ni hol vazifasida kelib, “yolg‘on gapirmoq” ma’nosini ifodalanib kelmoqda.

Abdulla Qahhor o‘z asarlarida nafaqat so‘zlarning sinonimlarini badiiy matnga olib kirgan, balki iboralarni ham o‘z o‘rnida qo‘llay olgan ijodkor hisoblanadi. Bu bilan adib o‘z uslubini yaratgan desak ham adashmaymiz.

Badiiy matnning til xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida undagi makon va zamon birligi tushunchasiga ham e’tibor berish kerak. Chunki, har qanday asar davr va makon bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Makon va zamon degan tushuncha faqat badiiy asargagina tegishli emas. U har qanday matn ko‘rinishiga taaluqlidir. Buni quyidagi parchada ko‘zdan kechiramiz:

Shunday qilib, uyma-uy yurib qilingan majlisda kampilar zvenosi to‘rt quti qurt tutishga qaror qildi va ertalab kolxoz idorasiga chopar yubordi. [4]

Parchadagi “Звено” so‘zi rus tilidan olingan bo‘lib, “qator’, ‘halqa’, “tarkibiy qism’ degan ma’nolarni anglatadi.

Adib “kampirlar jamoasi”, “kampirlardan tashkil topgan tarkibiy qism” birikmasi o‘rniga “kampirlar zvenosi” birikmasini ishlatgan. Bilamizki, xalqimiz ma’lum bir vaqt ruslar bosimi ostida yashagan. Adib yashagan va ijod qilgan davr ham shu vaqtlarga to‘g‘ri kelgan. Bu davrda tilimizdagi so‘zlarning aksariyati rus tilida talaffuz qilinishi tabiiy hol edi. Shunday bo‘lishiga qaramay, ijodkorimiz o‘z asarlarida so‘zlarni shu darajada xalqona va sinonimlariga almashtirgan holda o‘z o‘rnida qo‘llaydiki, asarlarida “Abdulla Qahhor uslubi” shunday sezilib turadi va bu adibning iqtidori desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Hikoyadagi yana bir parchani lingvopoetik jihatdan tahlilga tortamiz.

Rais o‘sha kuni, tumanda birinchi bo‘lib, yigirma besh kilo pilla topshirdi va kampirlarga bergan va’dasiga muvofiq Toshkentga “sim qoqdi”. [5]

Bilamizki, oldingi vaqtlarda telefonlarnig simli turlari ishlatilgan. Kolxoz, tuman rahbarlarining xonasida maxsus simli telefonlar bo‘lgan. Hikoyadagi “sim qoqmoq” birikmasi hozirgi paytdagi telefon qilmoq, telefon orqali gaplashmoq birikmalariga muvofiq kelishi haqida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham qisqacha axborot aytib o‘tilgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, lingvopoetik tahlil badiiy matn ichiga yana ham chuqurroq kirishga yordam beradi. Tahlilga tortilgan namunalardan ko‘rinadiki, Abdulla Qahhor o‘z asarlarida voqea va hodisalarni obrazli tasvirlab, iboralar va tushunilishi qiyin bo‘lmagan so‘zlar orqali ifodalab o‘quvchiga estetik zavq ham ulashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Qahhor. Muhabbat qissasi. 2019-yil, 29-30-betlar.
2. Z.Sh.Ashurova. “Badiiy asar lingvopoetikasining nazariy masalalari”.
3. A.A.Kasimov, S.O.Tursunova “Zamonaviy tilshunoslikda lingvopoetika tadqiqi”.
4. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 5jildli “S” harfi, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. T. 2020-yil.
5. “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”. “Q” harfi, T-2016.
6. M. Yo‘ldoshev. “Badiiy matn lingvopoetikasi”-Toshkent, Fan, 2008-yil.

O‘TKIR HOSHIMOVNING “IKKI ESHIK ORASI” ROMANINING LINGVOPOETIK TAHLILI

Davlatova Hilola Dilshodjon qizi
FarDU talabasi

Annotatsiya. Maqolada personaj nutqlari lingvopoetik jihatdan tahlilga tortiladi. Ularning asardagi mavqeyi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: asar talqini, lingvopoetika nazariyasi, uslubiyat, so‘zlashuv uslubi, dialektlar, frazeologizmlar.

Annotation. In the article, character speeches are analyzed from a linguopoetic point of view. Their position in the work is discussed.

Key words: interpretation of the work, theory of linguopoetics, methodology, dialects, phraseology.

“Ikki eshik orasi” asari O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub bo‘lib, qirq yetti yillik davrni o‘z ichiga ushbu asar bir necha taqdir egalari misolida xalqning urush sababli qancha qiyinchiliklar ko‘rganini, insonlar taqdiri va inson umrining murakkabligini o‘zgacha mahorat bilan tasvirlab bergan. Romanda o‘z davrining muammosi hisoblangan ikkinchi jahon urushining og‘irliklarini yelkasida ko‘targan xalq obrazi gavdalantiriladi. Ayniqsa, urush har bir ota-onaning qalbini jarohatlagani, ko‘ngillariga ozor yetkazganini romanning umuminsoniy pafosini tashkil etadi. Qahramonlarning hayotini zo‘r mahorat bilan tasvirlash orqali yozuvchi o‘quvchini chuqur o‘ylar og‘ushiga tortadi. Qalamga olgan obrazlari oddiy odamlarning fazilatlari-mardligi, matonati, vatanparvarligi va sabr-bardoshi haqida so‘zlaydi. Yeti qism, qirq yetti bob, o‘nlab katta-kichik hikoyalar va to‘qqizta personaj orqali yozuvchi nafaqat asarning mohiyatini ochib beradi, balki boshqa asarlardan farqli tomonlarini yoritadi.

Badiiy matnni tahlil qilishning bir necha usullari mavjud bo‘lib, ulardan lisoniy va badiiy tahlil turlari ajralib turadi. Lingvopoetik tahlil jarayoni yozuvchining tili va uslubiyati bilan chegaralanmaydi, balki asar tilining o‘ziga xosligi, yozuvchining so‘z boyligi, til vositalarining ifodalanish usullarini ham tahlil qiladi.

Har bir adib o‘z uslubiga ega bo‘ladi. Xalqning sevimli adiblaridan hisoblangan O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani ham o‘z uslubiga ega asardir. Asarning sodda, jo‘n va ko‘proq so‘zlashuv uslubida yozilganligi o‘quvchini charchatmaydi, balki qayta-qayta o‘qishga chorlaydi.

Bilamizki, so‘zlashuv uslubi kundalik hayotda, ko‘cha-ko‘yda fikr almashish jarayonida qo‘llaniladigan nutq uslubi. Uning ikki turi mavjud bo‘lib, adib asarda adabiy til me’yorlariga doimo amal qilavermaydigan turidan, ya’ni oddiy so‘zlashuv usulidan foydalangan. Bu esa asarning sodda va xalqona yozilishida o‘z foydasini bergan. Quyida keltiriladigan misol orqali buning isbotini ko‘rishimiz mumkin:

-Suv opkelaymi?-dedi jildini jiyda shoxiga ilib. Hansirab nafas olar, terlab ketgan edi.[1]

Yuqorida keltirilgan “opkelaymi” fe’li qo‘shma fe’l(olib kelmoq) hisoblanib, asarda bola tilidan keltirilayotgani sababli oddiy so‘zlashuv uslubida aytila qolgan. Adib gaplar zanjirini tuzayotganda yosh nuqtayi nazarini ham hisobga olishi asar yorqinligini oshirgan.

Yozuvchi asarda shevaga xos so‘z(dialekt)lardan ham juda faol foydalangan. Faqat ma’lum bir hudud doirasidagina qo‘llanilib, boshqa hududda yashovchi o‘zbek tili vakillari uchun xos bo‘lmagan so‘zlar hududiy chegaralangan so‘zlar yoki dialektizmlar deyiladi.[2]

Adib Toshkent shahrida tavallud topgan bo‘lishiga qaramay, asarning sodda tilda bo‘lishi uchun go‘zal Chimyon qishlog‘i shevasini ham hissador qilgan. Buni quyida keltiriladigan parcha orqali ham kuzatishimiz mumkin.

-Robi opam sizminan yotmasin!-dedim injiqlik qilib.-Men bilan yotasiz. Men bilan.[3]

Tilshunosligimizda odatda ko‘makchilar so‘zdan ajratib yoziladi. Yuqorida keltirilgan gapda bilan ko‘makchisi o‘zidan avval kelgan olmoshga shevaga xos tarzda qo‘shilib yozilishi va talaffuz etilishi yuqorida keltirilgan izohlarga misol bo‘ladi.

O‘zbek xalqining nutqini frazeologizmlar(ibora)siz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ayniqsa, yoshi ulug‘ insonlar nutqida frazeologizmlar faol qo‘llaniladi.

Ma’no yaxlitligiga ega bo‘lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so‘zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko‘chma ma’nodagi barqaror birikmalarga frazeologizmlar deyiladi.[4]

Frazeologiya nazariyasiga dastlab fransuz tilshunosi Sh.Balli asos solgan. Frazeologiyalarning grammatik, semantik, funksional-uslubiy jihatlarini rus tilshunoslarining tadqiqotlarida ham ko‘rishimiz mumkin.[5] V.Vinogrodov iboralarni ma’no guruhlarga ko‘ra tasniflaydi, V.Jukov frazeologizmlarning kategoriya va ma’nolarini aniqlagan.[6]

Adib ham o‘z asarida frazeologizmlardan faol foydalangan. “Og‘zi qulog‘iga yetmoq”, “rangi quv o‘chgan muzdek”, “podadan oldin chang ko‘tarmoq”, “berdisini aytguncha urib o‘ldirmoq” kabi bir qancha iboralar asarning yana ham xalqona chiqishi, o‘sha davr insonlarini ko‘z oldimizda yaqqolroq gavdalanishi uchun xizmat qilgan.

“Podadan oldin chang ko‘tarma, g‘unchaday xotiningni tashlab urush qilishni kim qo‘yibdi senga,-debdi”. Ushbu keltirilgan parchadagi iboraning ma’nosi “shoshqaloqlik qilmoq” birikmasiga teng keladi va hali bo‘lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan fikr yuritmoq ma’nosini ifodalaydi. Ushbu ibora “to‘ydan oldin nog‘ora qoqmoq” iborasiga sinonim bo‘la oladi.

Kechqurun og‘zim qulog‘imga yetgudek bo‘lib bir do‘ppi yong‘oq ko‘tarib keldim. Ushbu gapda keltirilgan ibora “behad sevinmoq” ma’nosini ifodalaydi va asardagi obrazning nutqini ko‘tarinki ruhda ekanligidan darak beradi. Ushbu ibora “boshi ko‘kka yetmoq”, “og‘zining tanobi qochmoq”, “terisiga sig‘may ketmoq” kabi iboralarning sinonimi hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, tilshunosligimizda frazeologizmlarning o‘rni alohida ahamiyatga ega ekanligini yuqoridagi tahlillardan ham bilib olishimiz mumkin. Frazeologizmlarni ko‘p qo‘llash til bilimi va nutqiy salohiyat yuqoriligidan dalolat beradi. Adibimiz o‘z asarida iboralarni qo‘llash orqali o‘z mahoratini yana bir bor isbotlagan desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1 .O‘. Hoshimov. “Ikki eshik orasi”. T-2021. 215-bet
2. N.Erkaboyeva. T-2021. 170-bet
3. O‘.Hoshimov. “Ikki eshik orasi”. T-2021.
4. N.Erkaboyeva. T-2021. 144-bet.
5. Sh.Balli. “Французкая литература”. 1961.Стр.89-90
6. В.Виноградов. “Граматической русского языка”.
R.Sayfullayeva, B.Mengliyev va boshqalar. H.O.T. T-2009. 416-bet

O‘ZBEK VA NEMIS XALQLARINING DINIY BAYRAM BILAN BOG‘LIQ LEKSIK BIRLIKLAR TADQIQI

Yunusaliyeva Nozima
FarDU talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek va nemis xalqlari diniy bayramlari bilan bog‘liq leksik birliklarning o‘ziga xos hususiyatlari, o‘xshash va farqli tomonlari haqida atroflicha fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ramazon hayiti, qurbon hayiti, hayitlik, ro‘za, ziyofat, Pasxa (bayrami), Nikolaustag (Nikolaus Kuni), Merri Fisih, shirinliklar, mo‘ri.

Ma’lumki, bayramlar insoniyat bosib o‘tgan yo‘lini teran anglashga, ertangi kun uchun rejalar tuzishga, kelajakka umid bog‘lashga yordam beradi. Shu boisdan ham bayram arafasida kishilar bir birlarini tabriklashadi, yaxshi istaklar bildirishadi. Bayramlar vaqtning monotonligini (birxilligini) buzib, unda muayyan “shodlik sur’ati”ni baxsh etadi. Shu sababli, qadimdan bayramlar vaqtning o‘ziga xos o‘lchovi hisoblanadi va har bir xalqning o‘ziga yarasha bayram, urf -odat, ananalari mavjud.

O‘zbek xalqiga xos diniy bayramlar, etiqodlar ayrim xollarda irim-sirimlar natijasida shakllangan. Diniy bayramlar sifatida musulmon xalqlari jumladan, o‘zbeklar ham Xayit(iyd) bayramini nishollaydilar.

Bu bayram mustaqillikka erishganimizdan so‘ng yurtimizda ham keng ko‘lamda, umumxalq bayrami sifatida nishollanib kelinmoqda.

Biz hayit bayrami deb atayotgan bayram arab tilida ,,iyd” ya’ni,, takror kelish" ma’nolarini anglatadi. Bu bayram qayta qayta kelgani uchun mazkur nom bilan atalgan. Ba’zi ulamolar bu bayram insonlarga ularning qiyinchilik va g‘am tashvishlarga qaramasdan har yili ularga xursandchilik va shodlik bilan qayta qayta kelgani uchun,, iyd” deb nomlangan deb tushuntiradilar. [1. 78.]

Mazkur bayram yilda ikki marta o‘tkaziladi.

1.Qurbon hayiti.

2.Ramazon hayiti.

Har ikkala bayram ham O‘zbekistonda rasmiy bayram sifatida belgilangan. “O‘zbek xalqi bayramlari kitobida” ro‘za hayiti marosimi haqida, jumladan, shunday fikr beriladi: “Ramazon yakunida islomning kata bayramlaridan biri – Ro‘za hayiti boshlanadi. Bu hayit ramazon oyi so‘ngida ro‘za tutish tamom bo‘lganidan so‘ng 10- shavval oyining dastlabki 3 kuni ichida nishollanadi.[2,134]

Shunga ko‘ra bu bayramlar bilan bog‘liq turlicha tadbirlar ham mavjud. Xayit bayrami bilan bog‘liq tushunchalar tarkibiga arafa, xayit, namoz, xayriya, sadaqa, xayitlik, yo‘qlov, yasanish, kelinsalom, lug‘aviy birliklari kiradi. Yuqorida takidlaganidek, ushbu birliklar dastlabki atash manosi orqali ko‘zga tashlanishi bilan birga, ushbu guruh doirasida “bayram”, “diniy” semalarga ega bo‘ladi. Masalan, arafa leksemasi “vaqt”, “avval”, semalari orqali keyin, oldin, bugun leksemalari bilan bir paradigmani tashkil etsa, “diniy”, “kun” semalari orqali bayram, xayit leksemalari bilan bir qatorda turadi.

Bundan tashqari, Ramazon (ro‘za) xayiti bilan bog‘liq ayrim marosimlar mavjud. Bularning aksariyati ramazon oyida o‘tkaziladi. Iftorlik, ramazon aytish, fitr sadaqa, Laylatur-qadr, Tarovih namozi kabilar.

Iftorlik lug‘aviy birligi “marosim”, “yig‘in”, “diniy”, “ehson”, “ziyofat”, “kechki” semalariga ega. Mazkur birlikni fitr-sadaqa ifodasi bilan qiyos etamiz.

Ushbu lug‘aviy birliklar “diniy”, “ehson” semalari bilan umumiy bo‘lsa, “marosim”, “yig‘in”, “ziyofat”, “kechki” (iftorlik) hamda “o‘lchov”(fitr-sadaqa) seamalari bilan o‘zaro zidlanadi. Chunki, odatda, “fitr-sadaqaning o‘lchovi 2,5kg bug‘doy yoki shu miqdordagi qiymatga ega bo‘lgan pul bilan belgilanadi.[3,135]

Muqaddas dinimizda uchta ulug‘ bayram mavjud:

1. Iyd ul-fitr. Bu bayram har yili shavvol oyining birinchi kuni nishollanadi.

2. Iyd ul-azho. Bu bayram har yili Zulhijja oyining o‘ninchi kuni nishollanadi.

3. Haftalik bayram. Har haftaning Juma kuni musulmonlar uchun bayram hisoblanadi.

Ikki Hayit bayrami kunlari haqida hadisi sharifda shunday deyilgan.

Anas roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasullulloh sollallohu alahyi vasallam Madinaga keldilar. Ularning (Madinaliklarning) o‘ynab hordiq chiqaradigan ikki kunlari bor edi. U zot alayhissalom: ,,Bu ikki kun qanday kun”, dedilar. Madinaliklar: ,,Biz johiliyatda bu ikki kunda o‘ynab hordiq chiqarar edik”, deyishdi. Shunda Rasullulloh alayhi vasallam: ,,Albatta Alloh taollo sizlarni bu ikkisidan yaxshiroq kunlarga almashtirdi, iydul azho va iydul fitr " , dedilar. (Imom Abu Dovud rivoyat qildilar)[4.76]

Nemis xalqi diniy bayramlarining tarixiga nazar solsak, Pasxa (ivritcha – o‘tmoq) - yaxudiylar va xristianlarning bahor bayramidir. Qadimdan ko‘chmanchi semit qabilalari pasxani chorva mollarning bahorgi bolalash vaqtida bayram qilganlar. Bu qabilalarning o‘troqlashishi va dehqonchilik bilan shug‘ullanishi natijasida pasxa o‘rim-yig‘im bayramiga aylangan. Pasxa yaxudiylarning yillik bayramlari ichida eng e’tiborlisi bo‘lgan. Bu bayram xristianlarning Pasxasidan

farqli o‘laroq, yahudiylarning Misrdagi Fir’avn qulligidan qutilib chiqqanlari (taxminan miloddan avvalgi Vlll asr) munosabati bilan nishollanadi. Xristianlikda bu bayram Isoning tug‘ilishi to‘g‘risidagi rivoyat bilan bog‘liq bo‘lib pravoslablarning asosiy bayrami hisoblanadi. Bayram kunlari sanasini hisoblab chiqish uchun jadvallar (pasxaliya) tuzilgan. Pasxa pravoslab cherkovida Yuliy taqvimi bo‘yicha (eski hisobda) 22 - martdan 23 - aprelgacha bo‘lgan davr; g‘arbiy xrsitianlarda - Gregoriy taqvimi bo‘yicha 26- martdan 23- aprelgacha bo‘lgan davrga to‘g‘ri keladi.

Pasxa haqiqatan ham yilning eng uzun dam olish kunlarimi yoki issiq janubda dam olish uchun yetarlimi degan savollar doimo berib kelingan. Rojdestvo bezaklarining yulduzlarini olib tashlash va ularni gullaydigan shoxlardagi chiroyli dekorativ tuxumlar bilan almashtirish uchun sabab bo‘ladi. Pasxa eng muhim xristian bayrami hisoblanadi. Dunyo bo‘ylab 2,2 milliard masihiylar ushbu kunni nishollaydilar.

Pasxa tug‘ilishni, yangi hayotning boshlanishini anglatib kelgan..

“Ostern”(Pasxa) bayrami uchun tuxumlardan maxsus uyda rangli bezatilgan daraxtlar Fisih daraxtlari deb ataladi.

Fisih Jumasi (Karfreitag) juma kuni boshlanadi. Bundan tashqari, juma kuni bo‘lgani kabi, “sokin Juma”(Karfreitag) ham deyiladi.

Kechqurun shanba kuni Fisih shanbasida qishning oxirgi timsoli bo‘lgan olovlar yondiriladi. Ushbu olovda barcha salbiy hislar yoqilganligiga ishonib kelganlar.

Masihning yakshanba kuni Germaniyaning barcha aholisi bayramona oilaviy nonushta uchun yeg‘iladilar. Va undan keyin bolalar bo‘yalgan tuxumlar va kichik sovg‘alar (Kinder surprise) izlaydilar. Ularni ota-onalari bir kun avval yashirgan bo‘ladilar.

“Zafaronlar” Germaniyada Pasxaning ramzlaridan biri. Pasxa quyoni va tuxum bayramning asosiy ramzi hisoblanadi. Germaniyda o‘sha kuni “Masih tirildi” deb aytish odat emas. U yerda ular “Merri Fisih” so‘zlari orqali bir - birlari bilan salomlashishlari odat tusini olgan. [5,76]

Nemis xalqining yana bir diniy bayrami Nikolas kuni hisoblanadi. Sank Nikolaus haqiqatdan ham yashagan va Rojdestvo avliyosiga aylandi. U 6-dekabrda vafot etdi va 1222 yil aynan shu kuni uni xotirlab eslashadi. Unda ko‘p yaxshi amallar va hatto mo‘jizalar borligi aytiladi.

Kunlarning birida bir qop tillani bir kambag‘al qizning uyiga mo‘ri orqali tashlab ketadi. Bazi tillalar kamin oldida turgan poyabzalga tushadi. Afsonalarga qaraganda: Nikolaus har yili bolalarga mo‘ri orqali tushib kamin oldiga yoki eshikda osig‘liq turgan paypoqqa sovg‘alar tashlab ketgan.

Ushbu diniy bayram bilan bog‘liq lesik birliklarni quyidagilar tashkil qiladi.

“Tür”(eshik), “Schuhe”(oyoq kiyim), “Süssigkeiten”(shirinliklar), “Socken”(paypoqlar), “Schornstein”(mo‘ri).[6,19/20]

Til har bir millatning ko‘zgusi, uning haqiqiy sarchashmasidir. Til bor ekan millat barhayotdir. Abdulla Avloniy aytganidek : “ Har bir millatning dunyodagi

borlig‘ini ko‘rstadurg‘on oynai hayoti tili va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdir. ”O‘zbek va nemis xalqlarining an’analari va urf-odatlari, jumaladan bayramlari va ular bilan bog‘liq leksik birliklarni tadbiq etish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qoraboyev.U O‘zbek xalqi bayramlari. Toshkent: Sharq, 2002.-134-bet.
2. Yangi O‘zbekiston gazetasi.2021-yil, 91-son.
3. Feilhauer A.. Feste feiern in Deutschland-Zurich,2000.-76-bet
4. Юудина Н. А. Deutsche Feste und Brauche. Ekaterinburg.2011.

2-SHO‘BA:
ONA TILI VA ADABIYOT O‘QITISHNING AMALIY MASALALARI

ДУХОВНОЕ РАЗВИТИЕУЧАЩИХСЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ

Алимсаидова Сайёра Амидьеевна,
доктор педагогических наук, профессор
кафедры методики русского языка и литературы,
Кокандский госпединститут имени Мукими
Коканд, Узбекистан

Аннотация. В статье рассматриваются место и роль духовного развития учащихся в структуре и содержании коммуникативных упражнений в обучении русскому языку**.**

Ключевые слова: компетенция, коммуникативная компетенция, социокультурная компетенция, коммуникация**.**

Мы живем сегодня в глобальном посткризисном мире. Это объективная реальность, данность. А в глобальном мире более всего ценится интеллектуальный потенциал общества как ключевое условие обеспечения стабильного развития любого государства, экономического благосостояния и военной безопасности.

Ставка на реализацию антикризисной программы и динамизм общества в XXI веке обусловливают необходимость мировых образовательных систем быть адекватными современным реалиям. Эти реалии доказывают, что в современном мире роль интеллектуалов, творческих личностей уникальна. В условиях необходимости решения человечеством в XXI веке новых глобальных проблем (экологических, энергетических, социальных, борьбы с международным терроризмом и наркобизнесом и др.) ***именно высокий уровень образования*** рассматривается как основа свободного демократического общества, технологического могущества и материального благосостояния.

Следовательно, одной из главных линий в концепции политики повышения качества образования, философии качества в сфере образования является интеллектуальное воспитание обучающихся, развитие их когнитивно-творческих способностей как формы подготовки к вызовам XXI века. «Умственное воспитание, – писал выдающийся узбекский просветитель Абдулла Авлони, – с древнейших времён считается самым важным и необходимым. Мысль, идея становятся условием благородства человека, его энергичности и деловитости. Знание, наука – подспорье человека, его наставники, его оружие и мощь» (из книги «Цветущий край и мораль»). Вот почему перед современным обществом стоит ключевая задача – создать перспективную систему образования, способную *подготовить обучающегося к жизни в новых условиях цивилизации*, а именно умеющих думать и работать

специалистов-аналитиков высокого класса, специалистов-генераторов новых идей во всех сферах деятельности, во всех отраслях хозяйства.

Современная концепция общего непрерывного образования базируется на системном развитии с опорой на национально-культурные традиции и предопределяет тенденцию на одновременное изучение не только родного языка и культуры, но и взаимосвязанного с ними аналогичного процесса изучения неродного (русского) языка и культуры. Именно такое «содружество» формирует полноценное искусство общения, которое приобрело в наши дни глобальное значение – на этой основе держатся взаимоотношения, взаимопонимание и взаимодействие как отдельных людей, так и целых народов и государств.

Взаимосвязанное изучение языка и культуры способствует более эффективному овладению языком. Знание культуры также расширяет кругозор обучаемых, обостряет их любознательность и соответственно углубляет интерес к изучаемому и родному языкам. Поэтому соизучение языка и культуры мы рассматриваем как необходимый фактор гармоничного воспитания личности, *интеллектуального развития* «человека культуры», повышения общей гуманитарной подготовки и усиления мотивации в процессе изучения языков.

В современных условиях межгосударственных и межнациональных отношений *русский язык продолжает оставаться языком общения в полиэтнической среде не только в нашей республике, но и за её пределами.*

Сегодня профессионально значимые качества личности основываются не столько на критериях объема и полноты конкретного знания, сколько *на способности самостоятельно пополнять их, ставить и решать профессиональные задачи*. Самое существенное для *человеческого интеллекта* состоит в том, что он позволяет отражать закономерные связи и отношения предметов и явлений окружающего мира, тем самым *предоставляет возможность творческого преобразования действительности, окружающего мира, перестраивания среды под себя*.

Традиционные (знания суммирующие, репродуктивные) технологии обучения в основе своей не могут обеспечить решение стратегических целей и задач, поставленных в Национальной программе по подготовке кадров, особенно в плане формирования современной личности обучающихся с новым сознанием, личности духовно богатой, социально активной, творчески развитой.Личностно-ориентированное, развивающее обучение приводит к новообразованиям в личности учащегося, которые вызывают внутренний рост всех духовных сил и способностей, что выражается, в частности, в потребности задавать *проблемные вопросы.*

ЛИТЕРАТУРА:

1. Андриянова В.И. Теория и практика обучения узбекских школьников устноречевому общению на русском языке: Дис. на. д-ра пед.наук. - Т., 1997. – 350 с.

2. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс. -В двух книгах. Книга 1. Общие основы процессов обучения. - М.: Владос, 2003. – 574 с.

3. Педагогика: Учебник для педагогических учебных заведений. / Под ред. П.И.Пидкасистого. Педагогическое общество России. -М., 2002. – 604 с.

UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA ADABIYOT VA TASVIRIY SAN’AT DARSLARINI UYG‘UNLIKDA O‘TISH USLUBIYOTI

M.Jamoliddinov
Qo‘qon DPI dotsenti
M.G‘iyosiddinova
Qo‘qon DPI o‘qituvchisi

Annotatsiya. Muallif maqolada adabiyot darslarini tasviriy san’at darslari bilan bog‘lab uyg‘unlikda o‘tishning uslubiyoti haqida so‘z yuritgan.

Kalit so‘zlar: portret, peyzaj, obraz, integratsiya, syujet, kompozitsiya.

Annotation: In the article, the author talked about the methodology of combining literature lessons with visual art lessons.

Key words: portrait, landscape, image, inner experience, skill.

Bugungi uzluksiz ta’lim tizimini bosqichlarida o‘qitishda innovatsiyalar (yangilik,o‘zgartirish) ni qo‘llash hamda fanlararo intagratsiyadan foydalanib darsni tashkil etish zamonaviy darslarni talabi hisoblanadi. Integratsiya atamasi lotincha integration so‘zidan olingan bo‘lib qo‘shilish, birlashish ma’nolarini anglatadi.

Adabiyot va tasviriy san’atda bir biri bilan mushtarak ilmiy atamalar mavjud. Buni har bir o‘quvchi bilishi lozim:

1. Asar mavzusi: yozuvchi va rassom tomonidan tanlab olingan va yoritilgan(chizilgan)turmush hodisasi.
2. Badiiy asar g‘oyasi: g‘oya yozuvchi, rassom yaratgan obraz orqali ifodalangan hodisalar to‘g‘risidagi asosiy fikr.

Kompozitsiya- asar qismlarining o‘zaro aloqasi va joylanishi. Kompozitsiya rassom g‘oyasini to‘liq tasvirlovchi asar

3. Portret – bu inson siymosi tasviri. Unda ko‘pincha yuz ifodalari, tana holati va boshqa individual xususiyatlarini aks ettiradi portret san’ati, shuningdek,shaxsning xarakterini, hissiyotlarini va ijtimoiy pozitsiyasini ham ifodalaydi
4. Peyzaj- bu tasviriy san’atda tabiiy manzaralar,masalan tog‘lar, daryolar, o‘simliklar va osmonni ifodalovchi asarlar.peyzaj san’ati san’atkorlar tomonidan tabiatning xilma xilligini aks ettirish maqsadida yaratiladi.
5. Asar syujeti:kompozitsiyaning elementi. Izchillikda asarda berilgan voqealar birligi.

Ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘layotgan, tabiat, hayvonot dunyosi, bepayon osmon, oy, yulduz, quyosh boringki barcha inson sezayotgan borliq odamni

tafakkur qilishga, undan huzurlanishga, mo‘jiza sifatida uning yaratilishidan hayratlanish, lazzatlanish, fikr qilishiga undaydi.

Ayniqsa, shoir, adib, rassom bu ne’matlarni ko‘rib o‘zgacha tafakkur, mushohada qiladi. Hatto, o‘zi bilan birga yashayotgan odamlarni yurish – turishi, xatti – xarakatlaridan ham ilhomlanib obraz yaratadi. Obrazlilik, oddiy so‘zlarga ham libos kiydiradi. Badiiy libos esa so‘zlarga ko‘rk bag‘ishlaydi va asarning yashash sharti hisoblanadi.[1]

Shunday ekan, biz uzluksiz ta’lim tizimida o‘quvchini tabiatdan ilhomlanishiga, badiiy asarlarni o‘qish jarayonida asar qahramonlari obrazlaridan ta’sirlanish, hayratlanish hissini uyg‘otishimiz lozim. Badiiy asarlar qa’riga yashiringan so‘z sehridan ilhomlanishiga o‘rgatishimiz kerak. Bu o‘quvchilarda fanlararo aloqa, adabiyot va tasviriy san’at orqali shakillanadi, rivojlanadi. Adabiyot darsining samaradorligiga tasviriy san’atdan foydalanish orqali erishiladi.

Buning uchun o‘quvchilarga 5-sinflardan boshlab tasviriy san’at hamda adabiyot fanida mavjud bo‘lgan zarur ilmiy-nazariy tushunchalarni o‘rgatish lozim. Xususan, portret, peyzaj, detal, obraz, ichki kechinma, tashqi kechinma va boshqalar. Hamda bularning badiiy asarlaridagi ta’siri, tasviriy san’atdagi ko‘rinishini solishtirish, taqqoslash, ko‘rsatish, tushuntirish qoidalari asosida o‘quvchiga yetkazish lozim. 7-sinf adabiyot darsligidan o‘rin olgan asarlar turli rang tasvirlarda berilgan oq va qora ranglar kam ishlatilgan . Shu sababli kitob o‘quvchini o‘qishga qiziqtiradi, o‘ziga jalb etadi. O‘quvchi rassomlardan estetik zavq oladi. Darslikda Alisher Navoiyni turli rassomlar tomonidan ishlangan portretlari berilgan. Unda shoirni o‘smirlik, yigitlik, qarilik paytlari aks etgan. Jumladan,Vladimir Kaydalov ishlagan oq, qora rangdagi rasm, Alisher Aliqulov ishlagan shohona kiyimdagi rangli sur’at hamda Georgiy Nikitin ishlagan qarilikni aks ettirgan rangli portretlari berilgan.

Bu asarlarda Navoiyni turli davrdagi xayoti ranglar jilosida o‘z aksini topgan. Demak, tasviriy san’atda portret yaratishda insonning ichki kechinmalari tashqi qiyofasi, siymosi, harakteri uning kayfiyati, yoshi ranglar chizgisi orqali kashf etiladi. Bunday obrazlarni yaratish rassomning mahoratiga bog‘liq. Bu jihatdan olganda o‘zbek rassomchiligida Ural Tansiqboyev ishlagan “Alisher Navoiy” portreti ham yuqori saviyaga ega.

Dars musavvir V.Kaydalov tomonidan ishlangan “Alisher Navoiy” portreti ustidagi suhbat bilan boshlanadi. O‘qituvchi uni tanlashga alohida e’tibor bergan. Asarda yozuvchi ijodkorning balog‘at davridagi xarakterining asosiy belgilarini yorqin aks ettirgan va bu ijod namunasiga oid suhbat hamma mashg‘ulotlar davomida yozuvchining qiyofasini o‘quvchilar tasavvurida qayta tiklashga yordam berishi hisobga olingan.

Dastlab,o‘quvchilar suhbatga jalb etiladi. Bunda ular diqqqatini, asosan, shoirning tashqi ko‘rinishi, shoir atrofidagi narsalarning tasviriga qaratiladi. Bu vaqt ichida o‘quvchilarning diqqati bir markazga – portretga – shoirning harakterini ochishga qaratiladi. Shundan so‘ng o‘qituvchi portretni izohlaydi:

“Mana ulug‘ shoir Alisher Navoiy. O‘z honasida ijod bilan mashg‘ul. Uning egnida odmi shohi to‘n, ustida yalang qo‘ng‘ir movut chakmon, boshida uchli ko‘k taqyaga silliq o‘ralgan ko‘rkamgina salla. Nuroniy yuz, qora va qisqa soqolli, xushbichim miyiqlar tekis va silliq. Shoir chuqur o‘yga botgan holda ko‘rpachada o‘tiribdi. Bir qo‘lida savag‘ichi qalam(ruchka), chap qo‘lida so‘zlar yozilgan oq qog‘oz, tirsagi bolish(yostiq)ga qo‘yilgan. Yostiqni oldida dutor va muqovasi qalin kitoblar, oldida bo‘yli xontaxta, uning ustida qalamdon, qalamdon, dovot, kitob va oq qog‘ozlar tartibli qo‘yilgan. Shoirning chap yonidagi gul idishlarida gul, orqa tomondagi devorga go‘zal naqshlar ishlangan. Derazadan ko‘xna Xirot qal’asi ko‘rinib turibdi. Qal’a ichida g‘ishtdan ishlangan uylar, minoralar…” [2]

Shunday ekan, rassom bo‘yoqlar orqali obraz yaratadi. Adib esa asarlardagi qahramonlar, personajlar obrazini so‘zlar orqali yaratadi. Yozuvchining mahorati esa uning so‘z sehriga bog‘liq. Masalan, Oybekning “Navoiy “ (1944) romanidagi quyidagi portretga e’tiborni qarataylik. Boshida uchli ko‘k taqyaga silliq o‘ralgan ko‘rkamgina salla. Egnida odmi shohi to‘n, ustida yalang qo‘ng‘ir movut chakmon… Navoiy o‘ttizdan oshmagan bo‘lsa ha, yoshi ulug‘rog‘dek ko‘rinardi.[2]

Demak, so‘z orqali yozuvchi yaratgan portret Navoiyni qaysi davrini o‘zida tasvirlaydi? Navoiy yuzida qanday holat aks etgan? Nima uchun? savoli bilan o‘quvchilarga murojaat qilish mumkin.

O‘quvchilar quyidagicha javob beradi. Navoiy 30 yoshlardagi yigitlik davri aks etgan. Hamda xursand, mag‘rur turibdi. Bosh vazir lavozimiga tayinlangan davri aks etgan.

Xullas bugungi ta’lim tizimida ortga qaytmas islohatlar amalga oshayotgan davrda ta’limda adabiyot darslarini tasviriy san’at darslari bilan bog‘lab o‘rganish o‘quvchini tafakkur doirasini kengaytiradi. Badiiy asarlarni o‘zlashtirishida maqsadga erishiladi.

Umumta’lim maktablarining 10-sinf dasturiga Cho‘lponning hayoti va ijodini o‘rganishga 2 soat vaqt ajratilgan. Bugun siz bilan jadidchilik davri qurbonlaridan biri - shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon, ajoyib inson, o‘zbek xalqining buyuk ziyolisi A.Cho‘lpon ijodi bilan tanisha boshlaymiz. Shundan so‘ng doskaga rassom A.Mamatovning “Sharq yulduzi” oynomasining 1989 yil 8-sonida e’lon qilingan A.Cho‘lpon portreti ustida suxbat bilan yangi mavzuni organishga kirishiladi:

“ -Mana ulug‘ shoir Cho‘lpon yirik gavdali, to‘ladan kelgan, yuzlari och – sariq, qora sochli, istarasi issiq holatda, qoramtir ko‘zlarini bizga tik boqib turibdi. Cho‘lpon qiyofasini ko‘rgan kishi uni musulmon, o‘zbek millatiga mansub ziyoli kishi deydi. Chunki, uning egnida sharq ayollari qo‘li bilan tikilgan jiyakli banoras to‘n, bu milliy to‘nni Andijon chevarlari tikkanga o‘xshaydi. Boshida esa baxmal do‘ppi – bu menimcha shoirning Toshkentda yashagan davridan dalolat beradi. To‘n ichida ovro‘pacha oq ko‘ylak, galustuk taqqan. Bundan dunyoviy bilimlarni ham egallagan qo‘lidagi jadidlik romanini ko‘rib, uning sardorlaridan biri deydi. Albatta, qo‘lida esa, qadimiy oq nozik gardishlik ko‘zoynak ushlab, oydin kechada

ona-Turkistonning kelajagi to‘g‘risida xayol surayotgandek. Bu kechada unga osmondagi oy va yorug‘ yulduzlar qadrdon do‘stlaridek yuzlariga o‘zining yorug‘ shulalarini taratmoqda. Go‘yo u, xayolidan millatini kishan iskanjasiga olgan shovinizm, millatfurush, munofik, ikkiyuzlamachi, byurokrat do‘stlaridan nafratlangandek. Ammo uning yuzida mag‘rurlik bor … qachonlardir mustaqillikka, ozodlikka chiqishimizga ishonch uchqunlari emasmikan… Zero, u xalq qudratiga ishonadi. Shuning uchun ham :

Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir,
Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o‘chdir.
Xalq qo‘zg‘alsa kuch yo‘qdirkim, to‘xtatsun,
Quvvat yo‘qkim, xalq istagin yo‘q etsin.

Kabi satrlarni shu oydin kechada yozgan emasmikin….

Xullas, bugungi ta’lim tizimida ortga qaytmasislohotlar amalga oshayotgan davrda ta’limda adabiyot darslarini tasviriy san’at bilan bog‘lab o‘rganish o‘quvchini tafakkur doirasini kengaytiradi. Badiiy asarlarni o‘zlashtirishida maqsadga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oybek Navoiy romani 19 tomlik O‘zbekiston “Fan” nashr 36 bet.
2. Komiljon Abdullayev “Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rganish jarayonida fanlararo integratsiyalardan foydalanish” “Nodirabegim” nashriyoti.Toshkent- 2021
3. Safo Matjon Kitob o‘qishni bilasizmi? T.”O‘qituvchi.
4. Z.Mirzayeva, K.Jalilov Adabiyot darsligi, 7-sinf. T.”Yangi nashr”2022y 214 bet.
5. A.Zununov vaboshqalar. T.”O‘qituvchi” 1992 y.

O‘QUVCHILARNING BILIM, KO‘NIKMA, MALAKALARINI INNOVASION YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Abdurahmonova B.
Qo‘qon DPI dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakasini rivojlantirishda innovatsion usullarning afzalliklari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘z: Ta’lim,tarbiya, innovatsiya, afzallik, rivojlantirish

Bugungi tezkor davr ta’lim oluvchilar, shu jumladan, o‘quvchilar uchun ham ham qisqa muddatda va asosli ma’lumotlar bilan qurollanish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o‘zlashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda. Axboriy xabarlar mediamaydoni kuchaygan bugungi zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda shaxsni rivojlantirish, ularda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarni tarbiyalash talab qilinmoqda hamda innovatsion faoliyatga tayyorlash zaruriy ehtiyojga aylanmoqda.

Innovasion faoliyatga tayyorlashdan maqsad - o‘qituvchining yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o‘z ustida ishlash ko‘nikmasi va malakasini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalar, zamonaviy metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni o‘tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat.«Innovasion faoliyat o‘qituvchining o‘z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi. U o‘qituvchi tomonidan u yoki bu pedagogik vazifani hal qilishda qandaydir to‘siqqa duch kelinib, uni muvaffaqiyatli hal etishga intilish asosida yuzaga keladi». Innovasion faoliyat yangi g‘oyani izlashdan boshlanadi[269].Innovasion texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta’limning zaruriy qismidir. Bugun zamonaviy ona tili va adabiyot darslarini innovasion texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

“Innovatsiya – ta’lim samaradorligini oshirish vositasidir. Yangilik – yangilik kiritish, ya’ni undan ta’lim va tarbiyada foydalanish, o‘qituvchi va o‘quvchining kommunikativ faoliyati demakdir[270].” Yuqori sinflarda interfaol usullardan foydalanilganda o‘quv jarayonida barcha o‘quvchilarning bir-birlari bilan ijobiy o‘zaro munosabatlari faollashadi. Bunday sharoitda o‘quv jarayonini tashkil etishda guruhda o‘zaro hamkorlik muhiti yaratiladi

“Interfaol ta’lim texnologiyalari yakuniy rejalashtirilgan natijani, jarayonni rag‘batlantiruvchi, qiziqish uyg‘otuvchi va aqliy imkoniyatlarni faollashtiruvchi turli interfaol metodlarni ko‘zda tutadi. Innovasion ta’limning har qanday shakli yuqori kommunikativ qobiliyat va o‘quvchilarni o‘quv faoliyatiga faol jalb etish, so‘zlash va tinglash bilim va ko‘nikmalarining salohiyatini faollashtirish va oshirish, kommunikativ kompetentlik ko‘nikmalarining rivojlantiradi. Ular zamonaviy sharoitlarga moslashishga yordam beradi. Har qanday innovatsiya faoliyatining markazida ijodkorlik mavjud. Ijodiy faoliyat shaxsning hissiy va aqliy sohalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Bu zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biridir[271].”

Interfaol mashg‘ulotlarni tashkil etish turli didaktik va rolli o‘yinlardan foydalanish, hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, muammoli vaziyatlar yaratishni o‘z ichiga oladi. Interfaol texnologiyalarning afzalligi shundaki, individual vazifalar guruhli bo‘lib rivojlanganda jamoaviy o‘qitish tashkil etiladi. Jamoaviy (guruhiy) faoliyat – umumiy o‘quv maqsadiga ega bo‘lgan kichik guruhlarda ishlash shakli bo‘lib, uni amalga oshirish shu guruhdagi har bir ishtirokchiga bog‘liq. Guruh ishining har bir ishtirokchisi yuqori sinf bo‘lishgani uchun o‘zida katta mas’uliyatni seza oladi, chunki har bir bog‘lanish natijasi, har bir ishtirokchi topshiriqlarni bajarishi umumiy natijasiga ta’sir qilishini anglaydi. Natijada har bir ishtirokchi o‘z o‘rtog‘ini ranjitmaslikka harakat qiladi, kuchsiz tengdoshlarga yordam berishdan xursand bo‘ladi. Bu ish turi o‘quvchilarni yanada birlashtiradi,

---

[269] Ишмуҳамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар /Таълим муассасалари педагог ўқитувчилари учун амалий тавсиялар. – Т.: “Истеъдод” жамғармаси, 2008. – 180 б.

[270] Жуманов Л.С., Тоимбаева Б.М., Тулегенова М.К. Ўқитиш, тил ўқитишда инновацион технологиялар. Ёш олим - 2017, №19.

[271] Isaqova G.O ‘quvchilar savodxonligini oshirishda interfaol metodlar.Namangan.-2021

darsdan tashqari soatlarda nafaqat sinfda, balki undan tashqarida ham hamkorlikda ishlash do‘stlikka aylanadi.

Maktabda ona tili va adabiyot fanini o‘rgatishdan maqsad o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutq va muloqotni rivojlantirishdan iborat. O‘qituvchining asosiy vazifasi har bir o‘quvchining o‘quv jarayonidagi nutqiy faoliyatini faollashtirish, ularning ijodiy faoliyati uchun vaziyatlar yaratishdan iborat.Biroq maktab yoshidagi o‘quvchilar o‘rtasida shunday bir muammo borki, ular o ‘z fikrlarini to‘g‘ri va to‘liq ifodalab bera olmaydilar. Bu ularning mediamaydondagi xabarlarga “o‘chligi” bilan ham izohlanadi. Bu qusurni oldini olishning yo‘llaridan biri innovasion yondashuv asosida pedagogik texnologiyaning yangi metod va vositalarini qo‘llashdir.”Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga etkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash katta pedagogik mahorat va ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi”[272].

Ba’zan ota-onalarning o‘z farzandining “o‘zbekcha bilmasligi”ni aytib maqtanayotganiga guvoh bo‘lamiz. To‘g‘ri, yoshlarimiz qancha ko‘p til o‘rgansa, shuncha yaxshi. Ammo bu ona tilimizni bilmaslik yoki unutish hisobiga bo‘lmasligi kerak. Yoki yoshlarning bir-birlari bilan telefon orqali qilgan yozishmalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, holat nihoyatda achinarli tomonga qarab ketayotganini anglaymiz. Biroq, ta’lim oluvchilarga muntazam ravishda tazyiq o‘tkazilsa, asosiy e’tibor uning kamchiliklariga qaratilsa, o‘quvchida o‘ziga bo‘lgan ishonch yo‘qolib boradi va boshqa shu kabi kamchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi,-deydi tadqiqotchi G.Isaqova.

Shunday xulosa qilish mumkuni,dars jarayonida bolaga shaxs sifatida baho berish, muntazam ravishda unga e’tiborni kuchaytirish, ko‘pchilik oldida vaqti-vaqti bilan qilinadigan maqtovlar, uni hurmatlash, uning fazilatlarini ta’kidlab turish ham innovatsiyaning bir ko‘rinishi sifatida o‘quvchida o‘ziga bo‘lgan ishonchning yanada ortishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Замонавий ўқитиш масалалари. Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат Ўзбек тили ва адабиёти университетида ўтказилган республика илмий-назарий конференция материаллари тўплами. 2017 йил 10 май.

2. Ишмуҳамедов Р, Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. – Тошкент, 2013. – Б. 277.

3. Саъдуллаев Б. Б. Ўйинлар воситасида ўқувчиларда дўстона муносабатларг асосланган ижтимоий ҳамкорлик кўникмаларини ривожлантириш тизими. Пед. фан. бўй. фал. док. (PhD) дисс. – Самарқанд: 2019.

[272] Зиёдуллаева Г. Коммуникатив компетенцияни шакллантиришда қоидалар тизимидан фойдаланиш: муаммо ва ечимлар. Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2019. 7-сон. – Б. 15-16.

TOG‘AY MUROD HIKOYALARIDA REALISTIK TASVIR

Xidirova Munavara Rustamovna
Jizzah davlat pedagogika instituti (PhD)

Annotatsiya: Ijodiy faoliyatini hikoyalardan boshlagan, hali katta hayotiy tajribaga ega bo‘lmagan Tog‘ay Murodning ilk hikoyalari ham, avvalo, chuqur milliy ruhi, hayotiy mazmuni va haqqoniy tasvirlari bilan ajralib turadi. Bu ilk hikoyalar adibning bo‘lg‘usi yetuk qissalari va romanlari uchun o‘ziga xos g‘oyaviy-badiiy tayyorgarlik bosqichi bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘z: realistik tasvir, hikoya, milliy ruh, “Ku-ku-ku”, “Bobosi va nevarasi”, “Er-xotin”, hayotiy detal.

Annotation: The first stories of Togay Murad, who started his creative career with stories and did not yet have a lot of life experience, are distinguished by their deep national spirit, life content and truthful images. These early stories serve as a kind of ideological and artistic preparation stage for the writer’s future mature stories and novels.

Key word: realistic image, story, national spirit, "Ku-ku-ku", "Grandfather and grandson", "Couple", life details.

Jahon adabiyotining yirik namoyandalari kabi Tog‘ay Murod ham o‘z ijodiy faoliyatini hikoya va publitsistik maqolalardan boshlagan. Ya’ni yozuvchi o‘zining mashhur qissalarini yaratishdan oldin “Bobosi bilan nevarasi” (ba’zi manbalarda “Bobo va nevara”), “Ku-ku-ku”, “Kuzning bir kunida” “Er-xotin” kabi hikoyalari bilan kitobxonlar e’tiborini tortadi. Endigina 18-19 yoshga kirgan, hali katta hayotiy tajriba va ijodiy malakaga ega bo‘lmagan qalamkashning ilk hikoyalari ham, avvalo, chuqur milliy ruhda yozilgani, hayotiy mazmuni va haqqoniy tasvirlari bilan ajralib turadi. Bu ilk hikoyalar adibning bo‘lg‘usi etuk qissalari va romanlari uchun o‘ziga xos g‘oyaviy-badiiy tayyorgarlik bosqichi bo‘lib xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, ular yozuvchining yirik asarlari uchun ijodiy mashq, ya’ni bamisoli mohir rassomlarning eskizlari rolini bajargan deyish mumkin.

“Bobosi bilan nevarasi” hikoyasida hayotda ko‘p uchraydigan tabiiy bir voqea-lavha tasvirlangan. Lekin hikoyaning asosiy g‘oya-mazmuni o‘quvchini jiddiy mushohada qilishga undaydi, undagi bobo bilan nevara ramziy ma’noga ega [1,420]. Bobo go‘yo kechagi kun, o‘tmish, ya’ni hayot intihosi, nevara esa bugungi kun va kelajak ramziday taassurot uyg‘otadi. Ayniqsa, bu hayotiy g‘oya hikoya yakunida o‘zining obrazli talqinini topadi: “Jajjigina nevara tokda osilib turgan uzumlarga qaraydi. O‘z qo‘llari bilan olib emoqchi bo‘ladi...” Ammo hali qo‘li etmaydi. Bu oddiy, ammo realistik tasvirda hayot va avlodlar davomiyligi o‘z ifodasini topgandek. Bobo nevaraning peshonasi va tiniq yuziga boqib, uning kelajagiga umid bog‘laydi. Bu tuyg‘ular hikoyada tavsif etilmagan, ammo adibning g‘oyaviy-badiiy niyati orqali ularni tuyish, anglash mumkin va oz so‘z bilan ko‘p fikr ayta olish va iliq hissiyot uyg‘ota bilish iqtidoriga amin bo‘lamiz. Nazarimizda, ushbu hikoyada adibning “Yulduzlar mangu yonadi” nomli ilk qissasining bosh qahramoni Bo‘ri polvon va o‘g‘lining dastlabki chizgilarini payqashi mumkin. Bunday g‘oyaviy-badiiy tasvir va talqinlarning mantiqiy

davomiyligi ham ijod jarayonining an’anaviy bir tamoyili ekanligini ta’kidlash lozim.

Tog‘ay Murodning ilk ijodiy mashqlaridan yana biri - “Kuzning bir kunida” nomli hikoyasida ham adibning “Otamdan qolgan dalalar” romaniga taalluqli dastlabki lavha va hayotiy detallarni uchratish mumkin. Hikoyada tasvirlangan paxta terimi mavsumidagi yomg‘irli kunlardagi tund ob-havolar bilan bog‘liq ezgin kayfiyat va qahramonlar ruhiyatidagi o‘y-kechinmalar adib xayoli va tafakkurini talabalik paytlaridanoq band etib kelganini tasavvur kilish mumkin. Hikoyaning “**jafokash dehqon kuzining oltin bir kuni tugayotgan edi...”** jumlasida ham yosh yozuvchining teran o‘y-mushohadasi va xalqimiz, xususan, paxtakorlarimizning mahzun hayoti va qismati haqidagi armonli hamdardlik tuyg‘ulari ham aks etib turganligini sezgandek bo‘lamiz. Bu ham ijodiy evolyusiyaga xos muhim xususiyatdir. Kichik epik janr-hikoyadan qissa va romanigacha muallif ongi va badiiy tafakkurini ifodlash shakllari ham o‘zgarishi kuzatiladi. Yozuvchi ongi badiiy tafakkur shakliga aylangunga qadar bosib o‘tilgan ijodiy bosqich muallif uslubi va mahoratida ko‘proq namoyon bo‘ladi. Bu hikoya 1969 yil chiqqan bo‘lsa-da, unda muallif ong-tafakkuri modifikatsiyasi keyinchalik adib romanlarida keng rakursda qayta mushohada qilinadi va chuqurlashadi. Bu bog‘lanish ilk hikoyadan romanga qadar boyitilib, voqelikni ifodalashda ongosti qatlamlarida qayta talqin qilinib, janriy-kompozitsion yaxlitlik sintezlashuvi jarayonlari tasavvur etiladi.

Hikoyada xalq dardi - tashvishidan yiroq bo‘lgan va tengqurlaridan o‘zini juda baland deb biluvchi shaharlik “oqbilak” talabaning tipik bir obrazi o‘ziga xos jonli tarzda yaratilgan. Shaharlik munofiq talaba Akromjonning xudbinligi uning individuallashgan nutqi va xatti-harakati bilan oshkor bo‘ladi*:”Biza endi, domlajon, paxta terib ko‘rmaganmiz-de...” “Ja-a vahima qilib yozibsiz, kasal desayiz ham bo‘livurardi...mashina yuboring. Samarqand avtostansiyasi bor-ku, o‘shatga kelib tursin...”[2,52]* Shu ikki og‘iz so‘zlaridan uning shevasi ham, olifta, erka-arzandaligi ham sezilib turadi. Onasi o‘lgan odam “chumoliga tikilib o‘tirishi” holatlari adibning “Momo-er qo‘shig‘i” qissasidagi Pahlavon Daholarga o‘xshab ketishi ham ijodkorning o‘z asarlarida hayot manzaralarini mumkin qadar keng va chuqur yoritishga intilishi o‘ziga xos bir ijodiy mezon ekanligidan guvohlik beradi.

Hikoyada ancha yorqin tasvirlangan, hayotda katta tajribaga ega va keng fikrli o‘qituvchi tabiatni onaga mengzashida ham Tog‘ay Murodning inson va tabiatning yaxlit bir olam ekanligi xususidagi chuqur falsafiy mushohadalarining badiiy bir talqini ifodalangan deb qaralishi to‘g‘ri bo‘ladi. Adib ijodida asosiy o‘rin tutuvchi bu umuminsoniy g‘oya uning deyarli barcha asarlarida, jumladan, “Ku-ku-ku” hikoyasida ham mahorat bilan aks ettirilganini yosh yozuvchining ijodiy yutuqlaridan biri deyish mumkin.

“Ku-ku-ku” hikoyasi qahramoni istirohat bog‘i direktori muovini, tabiat va go‘zallik shaydosi, solih inson. U qushlarni sevganidan, ularga in yasatib, istirohat bog‘idagi daraxtlarga qoqdiradi. Musichalar “ku-ku-ku” deganda, o‘zida yo‘q

quvonadi. Lekin ko‘p o‘tmay direktor kurortdan kelgach, unga dakki beradi: “Bu madaniyat bog‘i! Bu erda parrandalar emas, xalq hordiq chiqarishi kerak! ...Siz rahbarmi yo kaptarbozmi? Marhamat, yozing ariza. U ariza yozayotganda yuragi yomonlashadi, qandaydir ichki nido bilan musichalarini ko‘rgisi keladi. Direktorga: “Musichalarimni ko‘rmadingiz mi?” - dedi. - Ana hovlida. O‘zlaridan ko‘rsin, haydadim, ketmadi - dedi direktor” U hovliga chiqqanda, musichalar chiqindilar qutisida boshlari orqasiga qayrilib yotardi.” Bu manzaradan kitobxonning ham yuragi muzlab ketadi.

Hikoyada musichalar ezgulik va tabiatning bir mo‘’jizasiday tasvirlanadi. Johil direktorning xatti-harakati yovuzlik timsoli bo‘lib, u hukmron tuzum - totalitar siyosatning ham ramziy bir ifodasiday o‘quvchida kuchli nafrat uyg‘otadi. Direktor o‘rinbosari va musichalar esa zo‘ravonlik siyosati va mafkurasidan yurak oldirib qo‘ygan, haq-huquqdan mahrum erksiz halqning ramziy timsoliga o‘xshaydi. Mashhur shoirimiz Erkin Vohidov aytganidek, shunday zo‘ravonlik va yovuzlik oqibatida uning “yuragida qo‘rquv” hukmron. Hikoya voqealari zamiridagi muhim fikr-g‘oyalari bilan ham kitob xonlarda chuqur va mahzun bir taassurot qoldiradi. (H.Karimov)

“Er-xotin” hikoyasida ham hayot haqiqati o‘z badiiy in’kosini topgan. Hikoya adabiyotda ancha keng tarqalib, quyma bir shablonga aylanib ketgan “sayyor” syujetli asarlarga nisbatan kinoyadan boshlanadi: “Yo‘q, ular anhor bo‘yida uchrashmadi. Uchrashuvda o‘ziniki qilib aytish uchun kitoblardan she’rlar ko‘chirib olmadi. O, men seni sevaman, sensiz yashay olmayman qabilidagi mavsumiy so‘zlarni so‘zlashmadi. Yo‘q, yigit bezorilardan qutqar ib qolmadi...”[3,23] Hikoyaning noan’anaviy muqaddimasi ham Tog‘ay Murodning ijodda o‘z yo‘li va uslubini izlayotgan bir ijodkor sifatida ulg‘ayib, shakllanib kelayotganidan nishona berib turadi.

“Shoir O‘rolboy yoshi o‘ttizga kirganda hayotning asosi haqida o‘ylab qoldi, ya’ni oila haqida. O‘ziga munosibini topdi. U oddiy tikuvchi Barchinoy edi... Hech bir millat o‘z milliy kiyimidan voz kechmagan holda bizning millat kechdi. Bu hol o‘z qadrini bilgan odamning qalbini o‘rtaydi, albatta. O‘rolboy shunaqa odam.(Ta’kid bizniki.-M.X.) Er-xotin o‘rtasida munoqasha bo‘ladi: - Siz doim shunaqasiz. Topgan gapingiz - o‘zbek atlasiga butun jahon xaridor. Samarqanddagi tarixiy binolar jahonda yo‘q. Unaqa-bunaqa...” Voqea keskinlashadi. O‘rolboy ayol zotiga birinchi marta qo‘l ko‘tardi. Barchinoy bo‘lsa vaziyatni o‘ylab ko‘rmadi. Hamma aybni erining zimmasiga qo‘ydi. Chap yonog‘i ko‘kargan edi. U alamidan labini burib yig‘ladi.

Kutilmaganda O‘rolboyning qishloqdagi tog‘asi bilan ikki notanish erkak kelib qolishadi. Shunda o‘zbekning qon-qoniga singib ketgan udumi ustun kelib, Barchinoy mehmonlarni jilmayib kutib oldi. Hech narsa bo‘lmaganday elib-yugurib dasturxon yozdi, darrov ovqatga urindi. Shu payt tog‘aning ko‘kargan yonoqqa ko‘zi tushdi. “E, yuzga nima bo‘ldi, kelin? – dedi. O‘rolboyning yuragi shuv etdi. Yo‘q, Barchinoy ... erini noqulay vaziyatdan qutqardi. ”Yosh ayolining bunday nozikfahmliligidan O‘rolboynig qalbi tog‘day ko‘tarildi, go‘yo qalbidagi

mehr bulog‘ining ko‘zi ochilganday bo‘ldi... Demak, haqiqiy insoniy tuyg‘uni hissiyotgina emas, aql bilan yo‘g‘rilgan mehr yuzaga keltiradi. Hikoya shu hayotiy haqiqatni ifodalashi bilan ham qimmatlidir.

Tog‘ay Murod ilk hikoyalaridagi tabiat bilan bog‘liq lavhalar ham bo‘lajak ijodkorning san’atga qiziqish-hayrat tuyg‘ulari uning tabiatida, qonida bo‘lganligiga dalildir. Adibning “Ku-ku-ku” hikoyasidagi quyidagi parchani ko‘zdan kechiraylik: “Uyida jurnallardagi rasmlarni, Rembrandt, Rafael, Bottichellining nodir asarlarini tomosha qilib o‘tiradi. Ayniqsa, Shishkinning “Bug‘doyzor”iga uzoq tikilib qoladi. U ikki toifa odamlarga achinadi. Biri - Shishkinning rasmlari oldidan beparvo o‘tgan odamga, ikkinchisi qushlar sayrayotganda so‘zlashgan odamga. Shu payt daraxt shohlar ida qo‘nib turgan qushlarning turli nag‘madagi sayrashlari eshitiladi. U "Munojot"ni tinglayotganday boshini ma’yus egib, eshitadi. Yuzlariga tabassum yuguradi. O‘rnidan turib, qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yadi-da, qushlarga ta’zim qiladi: - Ofarin, birodar, ofarin. Qulluq!...” Ushbu realistik tasvir zamirida tug‘ma iste’dodi va ijodkor shaxsi shakllanib kelayotgan yosh adibning adabiyot va san’atga munosabati va intel lektual salohiyati o‘ziga xos va umuminsoniy mazmunga ega ekanligi yaqqol seziladi. Bizningcha, Tog‘ay Murod va boshqa adiblarimizning asarlarida G‘arb va Evropa adabiyoti va san’atiga taalluqli reminissensiyalari tilga olinsa-da, ularni rus va evropalik ijodkorlar ta’siri bilangina izohlash etarli bo‘lmaydi. Chunki mumtoz adabiyotimiz va ayniqsa, Kamoliddin Behzod kabi buyuk musavvirlarimiz yaratgan qadimiy miniatyura san’ati Sharq va O‘rta Osiyo xalqlari madaniyatida ham rivojlangani tarixdan ham ma’lum. Adabiyot va ijodni o‘zining qismati deb bilgan barcha iste’dodli adiblar singari Tog‘ay Murod ham o‘z ijodini boshlar ekan, eng avvalo, adabiyotning vazifasini, san’atkorning jamiyat, xalq oldidagi yuksak burch-mas’uliyatini to‘g‘ri tushunib etadi, hamisha ularga sodiq qoladi. Masalan, u bolalik davridan boshlab yuritgan Kundaliklarida, “Men” deb atalgan hasbi holida, shuningdek, ayrim hikoya va qissalarida ham o‘zining adabiyot, badiiy ijod hamda ijodkor shaxsi haqidagi muhim hayotiy kuzatishlarini bayon etadi. Adabiyotni va ijodni g‘oyat mas’uliyatli, muqaddas soha deb bilgan adibning fikrlari teranligi bilan jahon adabiyotshunosligiga munosib hissa bo‘lib qo‘shiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov H.Adabiy portretlar. – Toshkent:Yangi nashr, 2017. – B. 420.
2. Tog‘ay Murod . Tanlangan asarlar. 3-jild. Hikoyalar,maqolalar,kundalik daftardan. –Toshkent: Sharq, 2019. – B. 52

---

3. Tog‘ay Murod . Tanlangan asarlar. 3-jild. Hikoyalar,maqolalar,kundalik daftardan. –Toshkent: Sharq, 2019. – B. 23

2-SINF “ONA TILI” DARSLIGIDA BO‘G‘INGA OID BILIMLARNING BERILISHI

Gulchiroyxon Abdurahimova
Bag‘dod tumani, 6-maktab o‘qituvchisi
Zokirjon Isaqov
Qo‘qon DPI dotsenti

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga fonetik bilimlar berish orqali ularning imloviy savodxonligini oshirish, fonetik ma’lumotlar darslar o‘tkazishning ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati, bunday darslarni tashkillash metodikasi haqida fikr yuritiladi. Bo‘g‘in, bo‘g‘inga ajratish, bo‘g‘inga ko‘chirish mashg‘ulotlarini tashkil etish yuzasidan amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: fonetika, fonema, tovush, unli tovush, undosh tovush, bo‘g‘in, bo‘g‘inga ajratish, bo‘g‘inga ko‘chirish, imlo qoidasi, “So‘zlar zanjiri” o‘yini, “O‘yna, o‘yla, top!” o‘yini.

Annotation. The article examines the moral and educational significance of phonetic lessons, the methodology for organizing such lessons, and improving spelling literacy by providing phonetic knowledge to primary school students. Practical recommendations are given for organizing joint work, joint subdivision, and joint training.

Key words: phonetics, phoneme, sound, vowel sound, consonant sound, syllable, hyphenation, hyphenation, spelling rules, game “Word chain”, “Play, think, find!” game.

Fonetikaning asosiy birliklaridan biri bo‘g‘in tushunchasidir. Bir nafas zarbi bilan aytiladigan bir yoki bir necha tovush bo‘g‘in deyiladi[3,25] – Bo‘g‘in – bir havo zarbi bilan aytiluvchi tovush yoki tovushlar yig‘indisidir[1,24]. Bo‘g‘in murakkab tushuncha bo‘lgani uchun boshlang‘ich sinflarda uning qoidasi berilmaydi. Dasturga ko‘ra, o‘quvchilarda so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lish ko‘nikmasini shakllantirish vazifasi savod o‘rgatish davridanoq talab etiladi. O‘quvchilar so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lishda so‘zda nechta unli bo‘lsa, shuncha bo‘g‘in bo‘ladi, degan tushunchaga asoslanadilar. Bu tushunchani ular savod o‘rgatish davridayoq hosil qiladilar. Bolalar yozilgan so‘zdan dastlab unli harfni topadilar, keyin so‘zda nechta unli bo‘lsa, uni shuncha qism (bo‘g‘in)ga bo‘ladilar[2,214].

O‘zbek tili bilimlaridan savod o‘rgatishning asosini bo‘g‘inga doir malakalarni hosil qilish tashkil qiladi. Bola ikkinchi harfni o‘rganayotganda birinchi o‘rgangan harfini qo‘shib bo‘g‘in hosil qiladi. Asta-sekin bo‘g‘inlardan so‘zlar hosil qiladi, shu tarzda savodi chiqa boshlaydi. O‘quvchilar “So‘zlar bir yo‘ldan ikkinchi yo‘lga bo‘g‘inlab ko‘chiriladi" va “Bir harfdan iborat bo‘g‘inni oldingi yo‘lda qoldirib yoki keyingi yo‘lga ko‘chirib bo‘lmaydi” degan asosiy bo‘g‘in ko‘chirish qoidalarini 1-sinfdayoq nazariy o‘rganadilar.

2-sinfda o‘quvchilar bo‘g‘inga bo‘lishni o‘rganib olgan bo‘lsalarda, satrdan satrga bo‘g‘in ko‘chirganda ancha-muncha qiyinchiliklarga duch keladilar.

2-sinf “Ona tili” darsligidagi[1] bo‘g‘inga oid qoidalar va mashqlar tahliliga to‘xtalib o‘tsak. Darslikda grammatik qoidalar asosiy o‘rinni egallaydi. “Bo‘g‘in

haqida bilimlarimizni mustahkamlaymiz” nomli qismda bunday qoidalardan bir qanchasi berib o‘tilgan.

Dastlabki qoida bo‘g‘inning tuzilishi haqida. Unda aytiladiki, “Bo‘g‘in bir unli va bir nechta undoshdan tuziladi: mak-tab, sinf, dars-lik. Bo‘g‘in bir unli va bir undosh tovushdan tuziladi: bo-la, lo-la, ol-ma. Bo‘g‘in bir unli tovushdan tuziladi: o-na, a-ka, sa-o-dat. Qoida amaliy tarzda bo‘g‘inga bo‘lishga oid mashqlar orqali mustahkamlangan. Jumladan, 5-mashqda[1,27] matn ichidan bir unli tovushdan iborat bo‘g‘inlarni topib, tagiga chizish topshirilgan. Mashqdagi bunday so‘zlarni avval og‘zaki tarzda bo‘g‘inga ajratib, barcha o‘quvchilarga to‘laqonli tushuntirib o‘tish muhim sanaladi.

3-mashqda[1,25] bo‘g‘inlarni yig‘ib, imkon qadar ko‘proq so‘z tuzishga doir sintetik mashq berilgan. Unda bo, ki, o, la, bosh, ta, lo, tob, yosh, qu, lam, na, bol, bog‘, qa, da bo‘g‘inlari rangli shakllar ichiga joylangan va hosil bo‘lishi kutilayotgan so‘zlarning rasmi ham berilgan. Bu topshiriq orqali o‘quvchilarda bo‘g‘inlarni qo‘shib, so‘z hosil qilish ko‘nikmalari shakllanadi va shu qatorda bir bo‘g‘in bir necha so‘z tarkibida kela olishini tushunib yetadilar.

“Har bir bo‘g‘inda unli tovush qatnashadi[1,26]. So‘zda nechta unli tovush bo‘lsa, shuncha bo‘g‘in hosil bo‘ladi: uy, o‘-quv-chi” deya bo‘g‘inning asosiy qoidalaridan biri berib o‘tilgan. O‘quvchilarning bo‘g‘in borasidagi bilimlari shu tarzda mustahkamlangan. Keyingi o‘rinda “Bo‘g‘in ko‘chirishni o‘rganamiz” nomli qism berilgan. Ushbu mavzuni o‘tish davomida o‘quvchilarga bo‘g‘inga bo‘lish va bo‘g‘in ko‘chirish ayni bir hodisa emasligi, chunki bo‘g‘inga ajratiladigan so‘z doim ham bo‘g‘inga ko‘chirilmasligi mumkinligi ham tushuntirib o‘tiladi. Mavzu doirasida bir necha qoidalar ham berilgan. Ulardan ayrimlarini ko‘rib chiqamiz:

1-qoida: so‘z bir qatordan ikkinchi qatorga bo‘g‘inlab ko‘chiriladi: da-raxt, ol-cha, va’-da, san’-at [Mana shu qoidaga asoslanib, garchi tutuq belgili so‘zlarni bo‘g‘inga ko‘chirish haqida so‘z ketmagan bo‘lsa-da, o‘quvchilarga tutuq belgi hamisha oldingi bo‘g‘inda qolib, ko‘chirilmasligini tushuntirib o‘tishimiz darkor].

“So‘z boshida bo‘g‘in hosil qilgan bir harfni oldingi qatorda qoldirib bo‘lmaydi: o-najon emas, ona-jon. So‘z oxirida bo‘g‘in hosil qilgan bir harfni keyingi qatorga ko‘chirib bo‘lmaydi: voqe-a emas, vo-qea”[1,35].

2-qoida: Bir bo‘g‘inli so‘zlar qatordan qatorga ko‘chirish uchun bo‘g‘inlarga bo‘linmaydi: do‘st, dars, fasl, kuz... Bunday ikki bo‘g‘inli so‘zlar ham qatordan qatorga ko‘chirishda bo‘g‘inlarga bo‘linmaydi: ona, ota, o‘rik...

3-qoida: Bir tovushni ifodalovchi harflar birikmasi [sh, ch, ng] keyingi qatorga birgalikda ko‘chiriladi: gulc-hi emas, gul-chi; os-hpaz emas, osh-paz.

Mavzu tarkibidagi 5- va 8- mashqlarda[1,25-26] matndagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga ko‘ra bo‘lib, chiziqcha bilan ajratib yozish sharti qo‘yilgan. Bu mashqlarni bajarishda o‘quvchilarga yuqoridagi qoidalar yordamga keladi. 6-mashqda esa bo‘g‘inlarga bo‘lib ko‘chirilmaydigan so‘zlarni aniqlash va yozish topshiriq qilib berilgan. Shu o‘rinda, eslatma sifatida bunday

so‘zlarga bir bo‘g‘inli so‘zlar va bir unli bo‘g‘in hosil qilgan so‘zlar kirishini aytib o‘tish maqsadga muvofiq.

Darslikdagi 7-mashqda[1,27] “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi” nomli matn berilgan. Bu mashqda bo‘g‘inga oid topshiriq berilmagan bo‘lsa-da, mavzu yuzasidan savollar berib, mustahkamlab ketishimiz mumkin. Masalan, “konstitutsiya” so‘zida nechta bo‘g‘in mavjud ekanligini so‘rashimiz yoki bu so‘zning bo‘g‘inga ko‘chirilishi borasida ham tushuncha berib o‘tishimiz mumkin. Bu so‘zni kons-titutsiya deb noto‘g‘ri talqinda bo‘g‘in ko‘chirish holati ham uchrab turadi, aslida esa kon-stitutsiya tarzida ko‘chiriladi. Imlo qoidasi bo‘yicha o‘zlashma so‘zlarda ketma-ket kelgan uch undoshdan biri oldingi satrda qolib, qolgan ikkitasi keyingi satrga ko‘chiriladi [4,77-modda, 2-band].

Bunday mavzularni o‘quvchi yodida yaxshi saqlanib qolishi uchun zamonaviy interfaol metodlardan, turli xil enerjayzerlardan foydalanish eng samarali usuldir. Bu kabi o‘yinlardan bir nechtasini misol tariqasida keltiramiz:

“So‘zlar zanjiri” o‘yini. O‘yin sharti: O‘qituvchi bolalarga bitta so‘z aytadi. Bolalar aytilgan so‘zning oxirigi bo‘g‘ini bilan boshlanuvchi so‘zni topib yozadilar va yozgan so‘zlarining oxirigi bo‘g‘iniga so‘z topib yana o‘yinni davom ettiradilar. Bunda birinchi aytilgan so‘zning oxirgi bo‘g‘ini keyingi so‘zning birinchi bo‘g‘iniga to‘g‘ri kelishi kerak bo‘ladi. Masalan, maktab – tabriknoma – masala... Shu tariqa o‘yin davom etadi. Eng ko‘p so‘z topib yozgan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.

Bu o‘yin ham bo‘g‘inlar orqali so‘z hosil qilishga mo‘ljallangan sintetik mashqlar sirasidandir. Sinfda zanjir usulida olib boriladi. Bu yerda o‘yinning e’tibor beriladigan jihati shundaki, birinchi so‘zning oxirgi bo‘g‘ini ikkinchi so‘zning birinchi bo‘g‘ini bo‘la olishi kerak.

“3 bo‘g‘inli so‘z” enerjayzeri. Ushbu enerjayzerdan o‘quvchilar toliqib, dars tinglashga xohishlari sustlashgan vaqtlarda foydalansak, ayni muddao bo‘ladi. O‘yinda sinfdan bir o‘quvchi tashqariga biroz muddatga chiqariladi. Qolgan o‘quvchilar qator bo‘ylab uch guruhga bo‘linadilar. Uch bo‘g‘indan iborat so‘z tanlanadi va birinchi bo‘g‘in birinchi guruhga, ikkinchi bo‘g‘in ikkinchi guruhga, uchinchi bo‘g‘in uchinchi guruhga bo‘lib beriladi. Keyin tashqariga chiqarilgan o‘quvchi chaqiriladi hamda uchala guruh o‘ziga berilgan bo‘g‘inni bir paytda aytishadi. O‘quvchi bu qaysi so‘z ekanligini topishi kerak bo‘ladi. Bu o‘quvchidan kuchli diqqat va topqirlikni talab etadi. Birinchi urinishda topolmasa, ikki-uch qayta ayttirish mumkin. Bu o‘yinni dam olish daqiqasi sifatida istalgan darsda qo‘llashimiz ham mumkin.

“O‘yna, o‘yla, top!” o‘yini. Bu o‘yin uchun bizga kubik kerak bo‘ladi. Kubikning ikkitadan tomoniga 1, 2 va 3 raqamlari yoziladi. O‘quvchilar kubikni tashlaydilar, qaysi raqam yuqoriga qarasa, o‘shancha bo‘g‘inli so‘zga misol aytadilar, o‘yinlar o‘quvchilardan tezkorlik, bilimdonlik, topqirlikni talab qiladi.

Demak, o‘quvchi so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lish, bo‘g‘indagi har bir tovushning o‘rnini, tartibini aniq ko‘z oldiga keltirib, bo‘g‘inlab aytish ko‘nikmasiga ega bo‘lsa, so‘zdagi harflarni tushirib qoldirmay, o‘rnini almashtirmay yoza oladi. Shuning uchun bo‘g‘in ustida ishlashga so‘zni bo‘g‘inlab ko‘chirib yozish.

bo‘g‘inlab diktovka bilan yozish (bo‘g‘inlab izohlab yozish) mashqlarini ham kiritish lozim. Ikkinchidan, so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lish ko‘nikmasi o‘quvchilar uchun so‘zning oldingi qatorga sig‘may qolgan qismini keyingi qatorga bo‘g‘inlab to‘g‘ri ko‘chirish uchun zarur.

Xulosa qilish mumkinki, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga bo‘g‘inga oid bilimlarni berish, so‘zlarni bo‘g‘inga to‘g‘ri bo‘lish va to‘g‘ri ko‘chira olish ko‘nikmalari bilan qurollantirish orqali, eng avvalo, ularning imloviy savodxonligini o‘stirishga erishamiz. Imlo masalasi esa boshlang‘ich ta’lim, qo‘ying-chi, bugun ona tilini o‘qitishning oldida turgan dolzarb vazifalardan biri, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kuranov S. Ona tili. 2-sinf. 2-qism.– Toshkent: Novda Edutainment, 2023. – 88 b.

2. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh,. Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, – 2009. – 352 b.

3. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 399 b.

4. O‘zbek tilining imlo lug‘ati/A.Madvaliyev, E.Begmatov. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 528 b.

BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA RASM ASOSIDA HIKOYA QILISH MASHQLARI KREATIVLIKNI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Umidaxon Niyozmatova
O‘zbekiston tumani, 67-maktab o‘qituvchisi
Zokirjon Isaqov
Qo‘qon DPI dotsenti

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf “Ona tili” darsliklarining zamonaviy talablar asosida yaratilganligi tahlil qilinadi. Ona tili darslarida rasm asosida hikoya qilish mashqlarini bajarish orqali mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning kreativligini oshirishning dolzarb metodlari yuzasidan amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: 4K tamoyili, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash, bayon, ijodiy bayon, kreativlik.

Annotation. The article analyzes the creation of textbooks "Native Language" for primary school taking into account modern requirements. Practical recommendations are given on current methods of increasing students’ creative activity in the classroom by performing exercises on telling stories from pictures in native language classes.

Key words: 4K principle, cooperation, communication, creative thinking, critical thinking, expression, creative expression, creativity.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimining 4K tamoyiliga asoslanganligi hech kimga sir emas, albatta. Bu degani ta’lim faqat maktab, imtihonlar va yoki fan-texnika rivoji uchun emas, balki, inson uchun, uning

hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ham xizmat qilishini anglatadi[5,201]. Quruq yodlash, o‘qib-yozish, bir so‘z bilan aytganda, olingan bilimlarning faqat nazariyada qolib ketishi “o‘zini oqlamagan” tizim sifatida bugungi ta’lim lug‘atidan chiqib ketayotgan tushunchalardir.

PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallagan davlatlar ta’limida o‘quvchilarda “4K” modelini o‘z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko‘nikmalarga alohida urg‘u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti.

Mamlakatimizda maktab o‘quvchilari uchun 4K tamoyiliga asoslangan yangi avlod darsliklarining amaliyotga kiritilishi ham xuddi shu maqsadlarni ko‘zlagan bo‘lib, bunda asosiy e’tibor har bir o‘quvchi uchun maktabda olingan bilimlarning hayot maktabida ham o‘rni va manfaati bo‘lishiga qaratilgan. Qolaversa, har bir o‘rganilgan material o‘quvchilar dunyoqarashini oshirishga, kreativ va mantiqiy fikrlash ko‘lamini kengayishiga asos bo‘lishi kerak.

Avvalo, 4K tamoyili mohiyatini ochiqlab olsak. 4K yondashuvi o‘z nomi bilan 4 ta tamoyilni o‘z ichiga oladi:

Kollaboratsiya: Darsliklar o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o‘quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi.

Kommunikativlik: O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o‘rganadi.

Kreativ fikrlash: O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o‘rganadi, mantiqiy fikrlash nuqtayi nazarini shakllantiradi.

“4K” modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda qo‘llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqot ko‘nikmasi esa savol-javoblar va mashg‘ulotlar orqali rivojlanadi.

Shuningdek, zamonaviy ta’limdan kutilayotgan eng asosiy natija bu bolalardagi yangilik yaratish va ijodkorlik sifatlarini qo‘llab-quvvatlash orqali kreativ fikrlash qobiliyatlarini oshirishdan iborat. Bu natijaga erishishda esa, boshlang‘ich sinf ona tili darsliklarida berilgan rasm asosida hikoya qilish mashqlari alohida ahamiyatga ega.

Rasm asosida hikoya tuzish nafaqat bugungi kunda balki, o‘tgan asrlarda ham pedagoglar tomonidan eng ko‘p murojaat qilingan metodlar toifasiga kirgan. Buni biz 1990-yil nashr etilgan Fred Ligon, Elizabet Tannenbaum va Carol Richardson Rodgers tomonidan yaratilgan “Picture stories” kitobi[8] orqali ham bilishimiz

mumkin. Bu kitob ingliz tilini bilmaydigan yoki endi o‘rganuvchilar uchun ham manfaatli bo‘lib, unda rasm asosida hikoya qilish orqali o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish va ularda kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish asosiy maqsad qilib olingan. Bundan tashqari, Stiv Boukett tomonidan yaratilgan “Developing literacy and creative writing through storymaking” kitobida[9] ham bolalarda savodxonlik va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rasm asosida hikoya tuzish orqali oshirish yo‘llari belgilab berilgan.

Darslik va o‘quv qo‘llanmalardan tashqari siz bu haqida turli ijtimoiy tarmoq saytlaridan ham kerakli ma’lumotlarni topishingiz mumkin. Birgina www.pinterest.co.uk sayti[10]ga 2024-yil yarmiga qadar 740 ta rasm asosida hikoya tuzishga mo‘ljallangan suratlar joylangan bo‘lib, bu ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari tomonidan eng ko‘p yuklangan ma’lumot sifatida qabul qilingan.

O‘zbekistonda ham rasm asosida hikoya qilishning metodologik asoslari chuqur bo‘lmasa-da, ko‘p o‘rganilgan sohalar qatoriga kiradi. Jumladan, JDPI katta o‘qituvchisi, (PhD) Shohida Siddiqovaning “Boshlang‘ich sinflarda rasm asosida matn tuzish[7]” mavzusi bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borganini ko‘rishimiz mumkin.

Rasm asosida matn yaratish mashqlari maktabgacha yoshdan boshlanadi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar hali o‘qish-yozishni bilmasdan turib, rasm asosida tarbiyachi yordamida og‘zaki hikoyalar tuzadi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad – bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishdir.

Maktab miqyosida esa bu metod nisbatan kam ishlatiladigan metod bo‘lib, ko‘pgina yangilanishlarga muhtoj. Agar ushbu mashq turlaridan katta yoshli o‘quvchilar o‘rtasida ham amalda ko‘proq foydalanilsa, bolalarning umumiy rivojlanishi uchun ayni muddao bo‘lardi.

Quyida rasm asosida hikoya tuzishga oid topshiriqlar mazmun-mohiyati, amalga oshirish bosqichlari va amaliy ahamiyati haqida so‘z yuritamiz.

Bolalarni hikoya qilishga o‘rgatish uchun narsa-buyumlarni tasvirlovchi predmetli rasmlardan, sujetli rasmlardan, reproduksiyalardan, peysaj va naturmort, etud rasmlardan foydalaniladi. M.M.Konina bolalarni rasmlarga qarab hikoya qilishga o‘rgatishning quyidagi mashg‘ulot turlarini ajratib ko‘rsatadi[6]:

1) narsa-buyumlarlarni tasvirlovchi rasmlar bo‘yicha tasviriy hikoya tuzish;

2) voqeaband rasmlar bo‘yicha tasviriy hikoya tuzish;

3) voqealar ketma-ket keladigan rasmlar to‘plami asosida hikoya tuzish;

4) peyzajli (manzarali), naturmort rasmlar bo‘yicha tasviriy hikoya tuzish.

Rasm asosida hikoya qilishda oltin qoida – bu “Nima? Qachon? Qayerda? Nima uchun?” kabi savollariga javob topish.

Rasmga asoslanib, hikoya qilish bu kreativ jarayon bo‘lib, unda o‘quvchi tasvirga o‘z so‘zlari orqali jon kiritadi. Ushbu jarayonda o‘quvchilar quyidagilarga e’tibor qaratishi talab etiladi:

Rasmni diqqat bilan kuzatish. Har bir detal, qahramon, makon va zamon elementlari va rasmdan anglashilib turgan hissiyotni o‘rganing.

Asosiy g‘oya, qarama-qarshilik va rasm yetkazmoqchi bo‘lgan xabarni aniqlash. Bu sizga umumiy syujet va yo‘nalishni shakllantirishga yordam beradi.

Obrazlarni jonlantirish. Rasmda berilgan shaxslar yoki jonzotlar shaxsiyati, kayfiyati va tarixi haqida tasavvur hosil qiling. Ularni qog‘ozda jonlantiring.

Voqea sodir bo‘layotgan joy, vaqt va atrof-muhitga oid holatni tasvirlang.

Hodisalar ketma-ketligini tartiblash. Rasmga bog‘liq holda hikoyaning kirish, o‘rta va tugallanish qismlarini ishlab chiqing.

Hissiy tafsilotlarni qo‘shish. Tovush, hid va boshqa hissiy tafsilotlar orqali o‘quvchini hikoya olamiga olib kirish yanada osonlashadi.

Aytma, ko‘rsat! O‘quvchiga nima bo‘layotganini birma-bir aytmasdan ko‘rsating.

Rasmli ma’lumotni yozma yoki og‘zaki asarga samarali aylantirganingizga ishonch hosil qilish uchun qayta ko‘rib chiqing, kerakli joylarini qayta tahrirlang.

Kitob o‘qish yoki televizor ko‘rish imkoniyati berilgan har bir bola, albatta, ko‘rish orqali o‘rganishni tanlaydi. Sahifalardagi so‘z qudrati cheksiz, albatta, lekin kichik yoshdagi bolalar uchun visual ma’lumotlar tasavvurlarini boyitishga ko‘proq xizmat qiladi. Bir rasm o‘zida minglab so‘zlarni aks ettira oladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun 2023-yil “Novda” nashriyoti tomonidan nashr etilgan umumta’lim maktablari uchun darsliklar[1;2;3;4] jahon standartlariga to‘la mos ravishda “4K” modeliga asoslangan holda yaratilgan bo‘lib, undagi mavzular doirasi avvalgi darsliklardan tubdan farq qiladi. Xususan, boshlang‘ich sinf ona tili darsliklarida nafaqat o‘quvchilar tilshunoslik tushunchalarini balki, yoshiga mos ravishda mavzuga yaqin yondosh mavzularni integratsiyalashgan tizim orqali ham o‘rganib boradi. Bu boshlang‘ich sinflarda berilayotgan bilimlarning tartibli, izchil, yaxlit bo‘lishiga va o‘quvchi tasavvurida bir butunlik kasb etishi bilan ahamiyatlidir.

Qolaversa, ona tili darsliklarida 4K tamoyili asosida rasmga oid matn yaratish mashqlarining ko‘pligi o‘quvchilar nutq madaniyatini oshirishda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, 1-sinf ona tili darsliklarining har ikkala qismi bo‘yicha rasm asosida matn yaratish mashqlari 15 tani tashkil etadi. Sinf darsliklaridagi rasm asosida matn tuzish topshiriq quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Sinfi	1-qism	2-qism	3-qism	4-qism	Jami:
1-sinf	6	9	-	-	15
2-sinf	7	6	6	10	29
3-sinf	9	7	6	7	29
4-sinf	6	7	6	3	22
Jami:					95

Rasm asosida yozma matn tuzish mashqlari 1-sinf ona tili darslaridan boshlangan bo‘lib, bu savod o‘rgatishdan keying davrga to‘gri keladi. Savod o‘rgatish darslarida ham bu mashq turidan unumli foydalanish mumkin. Lekin bunda o‘quvchilar matnni faqat og‘zaki ravishda tuza oladi. Matn tuzish topshiriqlari 2 xil usulda berilishi mumkin: 1) bir rasm asosida; 2) voqealar ketma-ketligini ifodalovchi bir nechta rasm asosida.

Bir rasm asosida matn tuzish mashqlari ona tili kitobining ilk darslarida berilgan. Shartida aynan matn tuzing, deyilmagan bo‘lsa-da, “Rasmni ta’riflang”, “Rasm asosida gaplar tuzing” kabi jumlalardan foydalanilgan.

1-sinf 1-qism ona tili darsligining “Matn tuzish” bo‘limi[1]da esa voqealar ketma-ketligiga asoslangan 4 ta mavzuda seriyali rasmlar berilgan bo‘lib, bunda o‘quvchilar matn tuzish bilan birga unga sarlavha topish va reja asosida matn yaratish haqida tushunchaga ega bo‘ladi.

Ona tili darsligining 2-sinf 4-qism[2] 79-sahifasida berilgan 13-mashq boshqa darsliklardagi topshiriqlardan ajralib turadi. Bu mashqning o‘ziga xosligi shundaki, o‘quvchilardan matn tuzish talab qilingan ushbu rasm oddiy emas, mashhur rassom Karavajoning “Mevalar solingan savatcha” nomli kartinasidir. Bu kabi san’at namunalarining darslikda berilishi va uni ta’riflash topshirig‘i bolalarda haqiqiy san’at asarlari namunalaridan bahramand bo‘lish va ularni tushunish imkonini beradi.

Bu mashq turlari barcha yoshdagi o‘quvchilar uchun mos keladi. Chunki u miyada yangiliklar yaratishga javob beruvchi qismlarni harakatga keltiradi. Misol uchun, agar darslikda biror ertak, hikoya yoki biror ilmiy-ommabop matn berilgan bo‘lsin. O‘quvchi u ma’lumotni tayyor holda qabul qiladi. Talab etilsa, o‘qiydi, yozadi hamda unga oid topshiriqlarni bajaradi. Izlanish va qayta ishlash talab etilmasdan olingan ma’lumot miyaning xotira qismidan vaqtinchaga joy oladi. Biroq shu matn yoki asarga oid rasm, voqealar ketma-ketligini aks ettiruvchi rasmlar seriyasi berilsa-chi? Bunda bir hikoyaning o‘quvchilar nutqi va tasavvurida turli xil variantlari yaratiladi. O‘quvchi rasmni izohlash va kerakli so‘zlarni grammatik va mantiqiy to‘g‘ri bog‘lab matn holiga keltirish uchun izlanadi, fikr yuritadi. Bir so‘z bilan aytganda, o‘quvchi o‘ziga kerakli bilimga “mehnat qilib” erishadi.

Psixologlarning ta’kidlashicha, inson tafakkuri biror bir to‘siqqa duch kelsagina ishlaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchiga beriladigan barcha bilimlar, ma’lumotlar tayyor holda bo‘lmasdan, o‘quvchini fikrlashga, yaratuvchanlikka undaydigan topshiriqlar orqali berilishi maqsadga muvofiqdir.

Xalqaro miqyosda o‘tkazilgan tajribalardan birida mutaxassislar o‘quvchilar qo‘liga bir tasvir berib uni sharxlashni so‘raydi. U surat qop-qora qog‘oz va o‘rtasida bitta oq nuqtadan iborat tasvir edi. Tajriba so‘nggida shu ayon bo‘ldiki, mutaxasislar qo‘lida ushbu eksperimentda nechta o‘quvchi qatnashgan bo‘lsa, mazkur rasm yuzasidan shuncha xil fikrlarga to‘la javob varaqalari paydo bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarimizdan ba’zi rivojlangan davlatlar bolalari kabi kreativ fikrlash, kashfiyotlar yaratishini kutishdan oldin, o‘quv dasturimiz, darsliklarimiz va metodlarimiz safiga manashunday mustaqil fikrlashni talab qiladigan mashq turlarini ko‘proq kiritishimiz, ularni to‘g‘ri fikrlashga emas, avvalo, fikrlashga o‘rgatishimiz kerak!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yuldasheva D.Sh. Ona tili. 1-sinf. I-IV qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023.

2. Kuranov S. Ona tili. 2-sinf. I-IV qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023.
3. Toirova M.E. Ona tili. 3-sinf. I-IV qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023.
4. Baynazarova D.D., Toirova M.E. Ona tili. 4-sinf. I-IV qism. – Toshkent: Novda Edutainment, 2023.
5. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh,. Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, – 2009. – 352 b.
6. https://cyberleninka.ru/article/n/nutq-va-uning-psixologik-jihatlati
7. https://jdpu.uz/mavzu-boshlangich-sinflarda-rasm-asosida-matn-tuzish/
8.https://www.ala.org/sites/default/files/advocacy/content/diversity/AmericanDreamBibliography.pdf
9.https://www.google.ru/search?newwindow=1&sca_esv=4dbd1c17396be272&sxsrf=ADLYWIK6LTmEGQ87poTF-kRaNt3uKmgD-A:1728540387944&q
10. www.pinterest.co.uk

АКТУАЛЬНЫЕ ТЕМЫ СОВРЕМЕННОГО ЯЗЫКОЗНАНИЯ

Закирова Дилрабо Хайдаровна
старший преподаватель кафедры теории
русского языка и литературы Кокандского ГПИ, (PhD)

Аннотация. В данной статье автором рассмотрены тавтология и плеоназм как стилистические фигуры. Даётся определение этим понятиям, их особенности и подходы в изучении. Определена роль тавтологии и плеоназма как в литературном, так и в разговорной речи. Рассмотрены их стилистические особенности.

Ключевые слова: тавтология, плеоназм, повтор, избыточные слова, стилистическая фигура, норма, литературный язык, разговорный язык.

Сегодня все более возрастает интерес учёных и исследователей к проблеме языковой культуры молодёжи, которая выражается в появлении ряда работ, представляющих изучение лексических уровней языка. В последние годы языковая картина мира стала одной из наиболее актуальных тем современного языкознания.

В Законе об образовании Республики Узбекистан особо отмечено: «Перестройка системы образования в Узбекистане нацеливает молодежь на овладение прочными знаниями во имя расцвета страны [1, 7]. На новом этапе развития Узбекистана молодёжи отведено особое место», - подчёркивает Президент Республики Узбекистан Ш. М. Мирзиёев в своём выступлении «О мерах по повышению эффективности государственной молодёжной политики и поддержке деятельности Союза молодёжи Узбекистана». Одной из таких задач является расширение, сложность и совершенствование техники коммуникации молодёжи на русском языке приводят к необходимости поиска, как в теоретическом, так и практическом планах

новых научно-педагогических решений и по проблеме живой коммуникации и культуры общения и речи.

В Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан приоритетными задачами является «…повышение качества и эффективности деятельности высших учебных заведений, содействие научно-исследовательской и инновационной деятельности на основе внедрения международных стандартов оценки качества образования и обучения…» [2, 5]. При этом, важно отметить, что коммуникация есть не просто взаимодействие двух субъектов, но их приобщение к интерсубъективной реальности бытия.

Настоящее исследование посвящено рассмотрению тавтологических и плеонастических выражений с позиции стилистических фигур.

Изучение тавтологий и плеоназмов имеет достаточно длительную историю. В логике данные выражения рассматривались как неинформативные и ошибочные определения концепта. В лингвистике в большинстве исследований признается факт их смысловой значимости, и предлагаются различные модели их информативной интерпретации. В каждом исследовании предлагается свое определение явления тавтологии и плеоназма. Явно прослеживается существование нескольких подходов к изучению анализируемых высказываний: стилистического, синтаксического, формально-грамматического, фразеологического, лексикографического, семантического, прагматического.

Комплексный анализ семантических и прагматических особенностей тавтологий и плеоназмов невозможен без привлечения знаний из других областей лингвистики (фразеологии, семантического и структурного синтаксиса, стилистики декодирования, лингвистики текста и др.), а также смежных с лингвистикой наук (психологии, философии и др.).

Выбранный в работе подход к анализу тавтологий и плеоназмов определил объект исследования: в работе рассматриваются типы тавтологий и плеоназмов с точки зрения стилистических фигур. На основании принятого определения тавтологий и плеоназмов М. В. Никитина, проводится разграничение тавтологий и плеоназмов и схожих с ними структурно, функционально и по семантическому показателю выражений: повтора и перифраза, фразеологических единиц (ФЕ), семантического согласования, предложений номинации и идентификации.

Тавтология и плеоназм – две стилистические фигуры, которые встречаются в русском языке. Они оба относятся к группе лишнего слова, но имеют различные характеристики и применяются в разных контекстах.

Тавтология – это повторение одного и того же слова или идеи в одном предложении. Это может быть сделано для усиления высказывания, но часто приводит к излишней длинности и неэффективности текста. Примеры тавтологии: "белый снег", "мокрый дождь", "горячий огонь".

Плеоназм – это использование избыточных слов или фраз, которые не несут дополнительной информации. Они могут использоваться для усиления эмоциональности высказывания, но часто приводят к бесполезной длинности и затрудняют понимание текста. Примеры плеоназма: "бесплатный подарок", "круглый круг", "новая инновация".

Хотя тавтология и плеоназм могут быть использованы для усиления эффекта в тексте, они часто считаются ошибками стиля. Использование излишних слов может привести к утомлению читателя и ухудшить качество текста.

Чтобы избежать тавтологии и плеоназма, необходимо внимательно относиться к выбору слов и фраз в тексте. Нужно избегать повторения одного и того же слова или идеи в предложении и не использовать избыточные слова или фразы, которые не несут дополнительной информации.

Однако изучение тавтологии как стилистического приема является одной из важных задач в литературоведении и стилистике. Тавтология может использоваться как в прозе, так и в поэзии.

Существует несколько подходов к изучению тавтологии. Один из них – анализ текстов, в которых используется этот прием. Это позволяет выявить особенности его использования, а также определить, какие цели преследует автор, повторяя слова или выражения.

Другой подход – сравнение тавтологии с другими стилистическими приемами. Например, с ономатопеей, которая также используется для усиления выразительности текста. Сравнение позволяет понять, какие отличия между этими приемами и как они могут использоваться вместе.

Третий подход – изучение истории использования тавтологии. Этот прием был широко распространен в классической литературе, но с течением времени его использование стало менее популярным. Изучение этого процесса позволяет понять, как менялось восприятие тавтологии со временем и какие факторы на это влияли.

Четвертый подход – изучение эффектов, которые создает тавтология. Это может быть усиление эмоциональной составляющей текста, создание ритма или просто подчеркивание определенной мысли. Изучение этих эффектов помогает понять, как использовать тавтологию для достижения нужного эффекта.

В целом, изучение тавтологии как стилистического приема является важным элементом литературоведения и стилистики. Различные подходы к этому приему помогают лучше понимать его использование и эффекты, которые он создает в тексте.

В свою очередь изучение плеоназма как стилистического приема представляет собой важный аспект лингвистических исследований. Плеоназм – это явление, когда в тексте повторяются слова или выражения, имеющие одинаковое значение. Такой прием может использоваться как для усиления

эмоциональной окраски текста, так и для достижения логической ясности и точности выражения мысли.

Одним из примеров плеоназма может служить выражение "белый снег". В данном случае слово "белый" является излишним, так как снег всегда имеет белый цвет. Однако, такой прием может использоваться для усиления образности текста и создания определенной атмосферы.

Изучение плеоназма как стилистического приема позволяет лучше понимать механизмы языковой выразительности и использования языка для достижения определенных целей. Кроме того, анализ плеоназма может помочь избежать излишнего словесного напряжения в тексте и достичь более точного и ясного выражения мысли.

Стоит отметить, что плеоназм может быть использован не только в литературном тексте, но и в разговорной речи. В таком случае, это может быть проявлением индивидуального стиля говорящего или же использоваться для усиления эмоциональной выразительности.

Таким образом, изучение плеоназма как стилистического приема имеет важное значение для понимания механизмов языковой выразительности и использования языка для достижения определенных целей. Анализ плеоназма помогает избежать излишней словесной нагрузки в тексте и достичь более точного и ясного выражения мысли.

Изучение тавтологии и плеоназма включает в себя анализ текстов, выявление повторяющихся конструкций и слов, а также поиск альтернативных выражений или синонимов. Для этого необходимо обладать хорошим словарным запасом и знанием различных стилистических приемов. Кроме того, важно уметь анализировать контекст и цель коммуникации, чтобы выбирать наиболее подходящие выражения.

Изучение тавтологии и плеоназма имеет практическую значимость для различных областей деятельности, связанных с языком и коммуникацией. Например, в научных работах или деловой переписке важно использовать точные и краткие формулировки, чтобы не утомлять читателя излишними повторами. В литературных произведениях или рекламных текстах, наоборот, может быть полезным использование тавтологии или плеоназма для создания эффекта убедительности или эмоциональной окраски.

В заключение, изучение тавтологии и плеоназма является важным аспектом развития языковых навыков и стилистической компетенции. Оно помогает улучшить точность и эффективность выражения мысли, а также развивает способность анализировать тексты и выбирать наиболее подходящие языковые средства. Поэтому рекомендуется уделять достаточное внимание этому аспекту при изучении русского языка и развитии коммуникативных навыков.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Закон Республики Узбекистан об образовании. – Ташкент, 1997.

2. Постановление «О Стратегии развития Нового Узбекистана. – Ташкент, 2022.

3. Войлова К. А. Тавтологические единицы как средство выразительности в художественном тексте: (По произведениям Ф. Абрамова) // Семантическая структура слова и высказывания: Межвуз. сб. науч. тр. -М.: Моск. пед. ин-т, 1993. 194 с.

4. Кахарова, Н. Н. (2023). К Вопросу Об Изучении Плеоназмов И

5. Тавтологий С Исторической Точки Зрения. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(9), 120-124.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК НАУЧНАЯ ДИСЦИПЛИНА

Исраилова Гулнара Мамаджановна
преподаватель Кокандского
Государственного педагогического института

Аннотация. В этой статье рассказывается,о том,что методика — это межотраслевая дисциплина, находящаяся на стыке педагогики, психологии, философии и специальной дисциплины; для методики преподавания русского языка это лингвистика. Методы обучения включают помимо собственно методов обучения разработку и изучение организационных форм и средств обучения.

Abstract. This article tells us that methodology is an interdisciplinary discipline located at the intersection of pedagogy, psychology, philosophy and a special discipline; for the methodology of teaching Russian, this is linguistics. Teaching methods include, in addition to the teaching methods themselves, the development and study of organizational forms and means of teaching.

Ключевые слова: педагогики, психологии, философии, специальной дисциплины, лингвистика,педагогических дисциплин, определение воспитательной, познавательной и практической , системе образования

Keywords: pedagogy, psychology, philosophy, special discipline, linguistics, pedagogical disciplines, definition of educational, cognitive and practical, education system

Методика — это межотраслевая дисциплина, находящаяся на стыке педагогики, психологии, философии и специальной дисциплины; для методики преподавания русского языка это лингвистика.

Предметом методики является процесс обучения. Поскольку предмет методики совпадает с предметом других педагогических дисциплин, методику обычно относят к разряду педагогических наук. Задачи методики преподавания русского языка состоят в определении целей, содержания и методов процесса обучения русскому языку как учебному предмету.

Цели обучения — это определение воспитательной, познавательной и практической цели учебного предмета, то есть его места в системе образования (на сегодняшний день с учетом разных типов учебных

заведений). В понятие содержания обучения входят — выбор определенной научной концепции, — отбор необходимого и достаточного понятийного и терминологического аппарата, — определение тех знаний, умений и навыков, которыми должен овладеть учащийся при изучении учебного предмета.

Методы обучения включают помимо собственно методов обучения разработку и изучение организационных форм и средств обучения. Таким образом, методика призвана ответить на вопросы, зачем, чему и как учить. При ответе на последний вопрос встает дополнительно проблема того, как контролировать результаты обучения.

Методика преподавания русского языка связана с философией, психологией, педагогикой, лингвистикой. Связь методики с философией состоит в том, что методика опирается на выводы философии о связи языка и мышления, взаимосвязи общества и отдельного человека, сущности человеческой деятельности. Эти положения лежат в основе разработки таких методических выводов, как целесообразность коллективных форм обучения, обучение речи как деятельности. Связь методики с психологией состоит в использовании в методике выводов, касающихся психологии восприятия: анализ и синтез, конкретизация и др.

Методика учитывает выводы социальной психологии о целях обучения, формах работы, дифференцированном подходе к учащимся, использует психологические исследования об этапах учебных действий, возрастных возможностях усвоения знаний учащимися, пиках и спадах концентрации внимания.

Связь методики с педагогикой и ее прикладным аспектом — дидактикой (общей теорией обучения) особенно тесна: в методике используются общедидактические принципы преподавания, разработанные педагогикой методы обучения и контроля, формы обучения, критерии оценки знаний, умений и навыков. Связь методики с лингвистикой заключается в определении частнодидактических принципов обучения и содержания обучения русскому языку как учебному предмету.

Общие методы научного познания Методы научного познания принято делить на общие и специальные. Большинство специальных научных проблем и даже отдельные этапы исследования требуют применения специальных методов решения. Разумеется, такие методы имеют весьма специфический характер. Они никогда не бывают произвольными, т. к. определяются характером исследуемого объекта. Помимо специальных методов, характерных для определенных областей научного знания, существуют общие методы научного познания, которые в отличие от специальных используются на всем протяжении исследовательского процесса и в самых различных по предмету науках.

Общие методы научного познания обычно делят на две большие группы:

• методы эмпирического исследования (наблюдение, сравнение, измерение, эксперимент);

• методы теоретического исследования (абстрагирование, анализ и синтез, идеализация, индукция и дедукция, мысленное моделирование, восхождение от абстрактного к конкретному и др.).

Методы эмпирического исследования

• наблюдение,

• сравнение,

• измерение,

• эксперимент

материальное моделирование

Наблюдение.Оно представляет собой активный познавательный процесс, опирающийся, прежде всего, на работу органов чувств человека и его предметную материальную деятельность, преднамеренное и целенаправленное восприятие явлений внешнего мира с целью изучения и отыскания смысла в явлениях. Суть его состоит в том, что изучаемый объект не должен подвергаться воздействию со стороны наблюдателя, то есть юбъект должен находится в обычных, естественных условиях. Это наиболее простой метод, выступающий, как правило, в качестве одного из элементов в составе других эмпирических методов. Различают наблюдение прямое (визуальное), когда информацию получают без помощи приборов и наблюдение косвенное - информация получается при помощи приборов или автоматически при помощи регистрирующей аппаратуры. Наблюдение как средство познания дает в форме совокупности эмпирических утверждений первичную информацию о мире. В повседневности и в науке наблюдения должны приводить к результатам, которые не зависят от воли, чувств и желаний субъектов. Чтобы стать основой последующих теоретических и практических действий, эти наблюдения должны информировать нас об объективных свойствах и отношениях реально существующих предметов и явлений. Для того чтобы быть плодотворным методом познания, наблюдение должно удовлетворять ряд требований, важнейшими из которых являются:

• планомерность;

• целенаправленность;

• активность;

• систематичность.

Сравнение Один из наиболее распространенных методов познания. Недаром говорится, что «все познается в сравнении». Оно позволяет установить сходство и различие между предметами и явлениями. Для того чтобы сравнение было плодотворным, оно должно удовлетворять двум основным требованиям. сравниваться должны лишь такие явления, между которыми может существовать определенная объективная общность. для познания объектов их сравнение должно осуществляться по наиболее важным, существенным (в плане конкретной познавательной задачи)

признакам. С помощью сравнения информация об объекте может быть получена двумя различными путями.

Вопервых, она может выступать в качестве непосредственного результата сравнения. Во-вторых, очень часто получение первичной информации не выступает в качестве главной цели сравнения, этой целью является получение вторичной, или производной информации, являющейся результатом обработки первичных данных. Наиболее распространенным и важным способом такой обработки является умозаключение по аналогии. Измерение В отличие от сравнения является более точным познавательным средством. Измерение есть процедура определения численного значения некоторой величины посредством единицы измерения. Ценность этой процедуры в том, что она дает точные, количественно определенные сведения об окружающей действительности. Важнейшим показателем качества измерения, его научной ценности является точность, которая зависит от усердия ученого, от применяемых им методов, но главным образом — от имеющихся измерительных приборов. В числе эмпирических методов научного познания измерение занимает примерно такое же место, как наблюдение и сравнение.

Эксперимент. Частным случаем наблюдения является эксперимент. Эксперимент предполагает вмешательство в естественные условия существования предметов и явлений или воспроизведение их определенных сторон в специально созданных условиях. Экспериментальное изучение объектов по сравнению с наблюдением имеет ряд преимуществ:

1) в процессе эксперимента становится возможным изучение того или иного явления в «чистом виде»;

2) эксперимент позволяет исследовать свойства объектов действительности в экстремальных условиях;

3) важнейшим достоинством эксперимента является его повторяемость. Любой эксперимент может осуществляться как непосредственно с объектом, так и с «заместителем» этого объекта — моделью. Использование моделей позволяет применять экспериментальный метод исследования к таким объектам, непосредственное оперирование с которыми затруднительно или даже невозможно. Поэтому моделирование является особым методом и широко распространено в науке.

Материальное моделирование. Моделирование - метод изучения объектов на моделях, позволяющий получать знания при помощи заменителей (моделей) реальных объектов. Модель - мысленная или материально реализованная система, замещающая другую систему, с которой она находится в состоянии сходства. Модель заменяет объект исследования и имеет некоторые общие свойства с изучаемым объектом. Материальные модели выполняются из вещественныз материалов.

ЛИТЕРАТУРА:

4. Бордовская Н.В., Реан А.А. Педагогика: Учеб. для вузов. - Сб.Питер, 2000.
5. Педагогика/Под ред.П.И. Пидкасистого. - М.,1996.
6. Харламов И.Ф. Педагогика: Учеб. Мн.: Университетское, 2000.

4. (OAK) PEDAGOGICAL PRACTICE IS THE MAIN AND IMPORTANT STAGE IN THE LIFE OF A TEACHER Israilova Gulnora Mamadjonovna *Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi–2023-yil_11-son*

5.Педагогическая практика основной и важный этап жизни педагога Г.М.Исраилова Quqon DPI ilmiy xabarlar2023 OAK)

МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ

Исраилова Гулнара Мамаджановна
преподаватель Кокандского Государственного педагогического института и студентки Шерматова Роза, Саминова Рухшона, Саминова Камола

Аннотация. В этой статье рассказывается, о том, что методика — это межотраслевая дисциплина, находящаяся на стыке педагогики, психологии, философии и специальной дисциплины; для методики преподавания русского языка это лингвистика. Существенной составляющей педагогических технологий являются **методы обучения** — способы упорядоченной взаимосвязанной деятельности преподавателя и учащихся.

Abstract. This article tells us that methodology is an interdisciplinary discipline located at the intersection of pedagogy, psychology, philosophy and a special discipline; for the methodology of teaching Russian, this is linguistics. An essential component of pedagogical technologies are teaching methods - ways of orderly, interconnected activity of the teacher and students.

Ключевые слова: методы обучения, педагогики, психологии, философии, специальной дисциплины, лингвистика, педагогических дисциплин, о

Key words: teaching methods, pedagogy, psychology, philosophy, special discipline, linguistics, pedagogical disciplines, definition of educational.

«Методы обучения-это способы взаимосвязанной деятельности учителя и учеников, направленные на решение комплекса задач учебного процесса» (Ю.К.Бабанский);

«Под методами понимают совокупность путей и способов достижения целей, решения задач образования».

Метод отражает внутренние закономерности развития той деятельности, в которой он применяется, обнаруживает присущие данному процессу существенные особенности (Ф.Ф.Королев, В.Е.Гмурман);

Метод - это правила действия, которые стандартны и однозначны. Нет стандарта и однозначности - нет правила, а значит, и нет метода (П.В.Копнин);

«Метод обучения – это опробованная и систематически функционирующая структура деятельности учителей и учащихся, сознательно реализуемая с целью осуществления запрограммированных изменений в личности учащихся» (В.Оконь).

Методы обучения - это, с одной стороны, методы преподавания, а с другой - учения (В. И.Андреев). Методу обучения можно дать и такое определение: это способ упорядоченной деятельности субъекта и объекта учебного процесса, направленный на достижение поставленных целей обучения, развития, воспитания.

Существенной составляющей педагогических технологий являются ***методы обучения*** — способы упорядоченной взаимосвязанной деятельности преподавателя и учащихся. Различат следующие классификации методов обучения, наиболее распространенными из которых являются:

- ***по внешним признакам деятельности преподавателя и учащихся:***
- лекция;
- беседа;
- рассказ;
- инструктаж;
- демонстрация;
- упражнения;
- решение задач;
- работа с книгой;
- ***по источнику получения знаний:***
- словесные;
- наглядные:
- демонстрация плакатов, схем, таблиц, диаграмм, моделей;
- использование технических средств;
- просмотр кино- и телепрограмм;
- практические:
- практические задания;
- тренинги;
- деловые игры;
- анализ и решение конфликтных ситуаций и т.д.;
- ***по степени активности познавательной деятельности учащихся:***
- объяснительный;
- иллюстративный;
- проблемный;
- частично-поисковый;
- исследовательский;

- ***по логичности подхода:***
- индуктивный;
- дедуктивный;
- аналитический;
- синтетический.

Близко к этой классификации примыкает классификация методов обучения, составленная по критерию степени самостоятельности и творчества в деятельности обучаемых. Поскольку же успех обучения в решающей степени зависит от направленности и внутренней активности обучаемых, от характера их деятельности, то именно характер деятельности, степень самостоятельности и творчества и должны служить важным критерием выбора метода. В этой классификации предложено выделить пять методов обучения:

- объяснительно-иллюстративный метод;
- репродуктивный метод;
- метод проблемного изложения;
- частично-поисковый, или эвристический, метод;
- исследовательский метод.

В каждом из последующих методов степень активности и самостоятельности в деятельности обучаемых нарастает.

Объяснительно-иллюстративный метод обучения — метод, при котором учащиеся получают знания на лекции, из учебной или методической литературы, через экранное пособие в «готовом» виде. Воспринимая и осмысливая факты, оценки, выводы, учащиеся остаются в рамках репродуктивного (воспроизводящего) мышления. Данный метод находит самое широкое применение для передачи большого массива информации.

Репродуктивный метод обучения — метод, где применение изученного осуществляется на основе образца или правила. Здесь деятельность обучаемых носит алгоритмический характер, т.е. выполняется по инструкциям, предписаниям, правилам в аналогичных, сходных с показанным образцом ситуациях.

Метод проблемного изложения в обучении — метод, при котором, используя самые различные источники и средства, педагог, прежде чем излагать материал, ставит проблему, формулирует познавательную задачу, а затем, раскрывая систему доказательств, сравнивая точки зрения, различные подходы, показывает способ решения поставленной задачи. Учащиеся как бы становятся свидетелями и соучастниками научного поиска. И в прошлом, и в настоящем такой подход широко используется.

Частично-поисковый, или ***эвристический, метод обучения*** заключается в организации активного поиска решения выдвинутых в обучении (или самостоятельно сформулированных) познавательных задач либо под руководством педагога, либо на основе эвристических программ и указаний. Процесс мышления приобретает продуктивный характер, но при

этом поэтапно направляется и контролируется педагогом или самими учащимися на основе работы над программами (в том числе и компьютерными) и учебными пособиями.

Исследовательский метод обучения — метод, в котором после анализа материала, постановки проблем и задач и краткого устного или письменного инструктажа обучаемые самостоятельно изучают литературу, источники, ведут наблюдения и измерения и выполняют другие действия поискового характера. Инициатива, самостоятельность, творческий поиск проявляются в исследовательской деятельности наиболее полно. Методы учебной работы непосредственно перерастают в методы научного исследования.

Приемы и средства обучения

В процессе обучения метод выступает как упорядоченный способ взаимосвязанной деятельности педагога и учащихся по достижению определенных образовательных целей, как способ организации учебно-познавательной деятельности учащихся. Применение каждого метода обучения обычно сопровождается приемами и средствами. При этом ***прием обучения*** выступает лишь элементом, составной частью метода обучения, а ***средствами обучения (педагогические средства)*** являются все те материалы, с помощью которых преподаватель осуществляет обучающее воздействие (учебный процесс).

Педагогические средства далеко не сразу стали обязательным компонентом педагогического процесса. Долгое время традиционные методы обучения базировались на слове, но «эпоха мела и разговора кончилась», в связи с ростом информации, технологизации общества возникает необходимость использовать другие средства обучения, например технические. К педагогическим средствам относятся:

- учебно-лабораторное оборудование;
- учебно-производственное оборудование;
- дидактическая техника;
- учебно-наглядные пособия;
- компьютерные классы;
- технические средства обучения и автоматизированные системы обучения;
- использование цифровых ресурсов;
- организационно-педагогические средства (учебные планы, экзаменационные билеты, карточки-задания, учебные пособия и т.п.).

Любое общение с другим человеком – это воспитание. Мы отдаем другому человеку энергию и заботу и должны требовать от него того же. Мало быть альтруистом и проявлять жертвенность, мы должны воспитывать это и в других. Когда вы просто ждете, что у человека проснется совесть, вы этим отказываетесь от воспитания, от отдачи энергии, а значит и от любви. А воспитание – это в первую очередь любовь, а потом поощрение и наказание, поддержка и ограничение.

ЛИТЕРАТУРА:

1.Бордовская Н.В., Реан А.А. Педагогика: Учеб. для вузов. - Сб.Питер, 2000.

2.Педагогика/Под ред.П.И. Пидкасистого. - М.,1996.

3.Харламов И.Ф. Педагогика: Учеб. Мн.: Университетское, 2000.

4. (OAK) PEDAGOGICAL PRACTICE IS THE MAIN AND IMPORTANT STAGE IN THE LIFE OF A TEACHER Israilova Gulnora Mamadjonovna *Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi–2023-yil_11-son*

5.Педагогическая практика основной и важный этап жизни педагога Г.М.Исраилова Quqon DPI ilmiy xabarlar2023 (OAK)

6. РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ В РАМКАХ ИЗУЧЕНИЯ УЧЕБНОЙ ДИСЦИПЛИНЫ « РУССКИЙ ЯЗЫК» *Исраилова Гулнара Мамаджановна Эргашева Масума,Ботирова Гулафруз,Хайитова Шарифа 2023г. (Междун.кон.)* NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI “GLOBALLASHUV DAVRIDA TURLI TIZIMLI TILLAR MUNOSABATI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA M A T E R I A L L A R I 2- KITOB Navoiy-2023

7. How to bring order to your speech? Israilova Gulnara Mamajanovnastudents Khaitova Sharifa, Muhammadaminova Madina Published 2023-11-25 Issue Vol. 1 No. 8 (2023): THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD Section Articles https://academicsresearch.ru/index.php/trsimw/article/view/2657 Меж.нар

JAHON ADABIYOTINI O‘ZLASHTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Gulnoza Bobonazarova,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Bugungi kunda jahon adabiyoti namunalarini o‘rganish va o‘rgatish har doimgidan ko‘ra kattaroq ahamiyat kasb etib bormoqda. Quyidagi maqolada talabalarning faolliklarini ta’minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag‘batlantirish hamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g‘oyalarni to‘plashga xizmat qiladigan metodlar borasida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: jahon adabiyoti, badiiy asar, tahlil, ta’lim, badiiy kompetensiya, innovatsion texnologiya, metod.

Annotation. Today, the study and teaching of samples of world literature is gaining greater importance than ever before. The following article deals with methods that serve to ensure the activity of students, to encourage them to think freely, and to free them from the inertia of the same thinking, to collect colorful ideas on a particular topic.

Key words: world literature, fiction, analysis, education, artistic competence, innovative technology, method.

Talabalarda jahon adabiyoti namunalari asosida badiiy kompetensiyalarni rivojlantirishda, asosan, metodlarning bir nechta turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, “Mening fikrim” metodi talabaning mashg‘ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta’minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag‘batlantirish hamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g‘oyalarni to‘plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo‘lgan fikrlarni yengishga o‘rgatish uchun xizmat qiladi.

“Mening fikrim” metodi – biror muammo bo‘yicha talabalar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan usuldir. “Mening fikrim” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida o‘qituvchi tomonidan berilgan savolga talabalarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Talabalar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga talabalar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga mahkamlanadi.

“Mening fikrim” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi. “Mening fikrim” usulidan foydalanilganda talabalarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi. Shu jumladan, talabalarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Talabalarda o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi.

“Muloqot” texnologiyasi talabalarning dars jarayonida mustaqil fikrlashiga, o‘z fikrlarini bayon etishga hamda ularda bahslashish, og‘zaki muloqot madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, odatda bunday mashg‘ulot talabalarni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘tkaziladi. Texnologiyaning maqsadi tanlangan mavzu, muammo asosida talabalarning fikrlarini hamda ushbu mavzuga bo‘lgan munosabatlarini aniqlash, mustaqil holda fikrlash va xulosa chiqarishlariga yordam berish, erkin holda bahslashishlariga sharoit yaratish, muloqotga kirishish va muloqot qila olishga o‘rgatishdan iborat.

Mashg‘ulot davomida asar qahramonlarini eslab qolish maqsadida *“Davom ettiraman”* so‘z o‘yinini qo‘llash talabalarni ijodkorlikka, og‘zaki nutqini rivojlantirishga yordam beradi. Asarni o‘rganishda savollarni odatda o‘qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, asar qahramonlarining xulq-atvorini ochish yuzasidan talabalarga ham savollar tuzdirish mumkin. Bu usul talabalarga yoqadi va asar mazmunini yaxshi tushunish, o‘z fikrini izchil bayon qilish, asar mazmunini yaxshi tushunish, talabaning og‘zaki nutqini o‘stirishda yordam beradi. Asar yuzasidan o‘zining shaxsiy qarashlarini bildirib o‘tadi, tahlil qiladi.

“FAKT” texnologiyasidan foydalanishda talabalar FAKT texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog‘oz varaqlarini to‘ldiradi.

F – asarda fakt nima edi?

A – faktingiz bayoniga sabab ko‘rsating.

K – ko‘rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring.

T – bu harakatlar to‘g‘rimi, noto‘g‘rimi?

Yakka tartibdagi ish tugagach, talabalar kichik guruhlarga ajratiladi va kichik guruhlar FAKT texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog‘ozlarni tarqatadi. Kichik guruhlarga har birlari yozgan qog‘ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda 4 bosqich bo‘yicha yozishlarini taklif etiladi. Kichik guruhlarning yozgan fikrlari jamoa o‘rtasida o‘qib eshittiriladi. Mashg‘ulot davomida bildirilgan fikrlar umumlashtirish bilan yakunlanadi.

“Ijod qilaman” metodi – talabalarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish. Ushbu metod qo‘llanilganda talaba kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir biridan o‘rganishga va turli nuqtai nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Ko‘z aloqasi” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan talabalar tomonidan o‘z fikr mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir. “ko‘z aloqasi” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir talabaning bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Og‘zaki ko‘z aloqasida o‘qituvchi mavzuni boshlab beradi va talabalardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa talabalarning mustaqil fikrlashiga va talabalarning nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

“Muammoli vaziyat” metodi – talabalarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metoddir. “Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi talabalarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, talabalarning qiziqishlari so‘nishiga, aniq va maqbul yechimni topish o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. Bunda talabalarga mavzu yuzasidan muammoli savol tashlanadi. Turli fikrlar tinglanadi. Fikr-g‘oyalar to‘planadi. Tahlil qilinadi. “Muammoli vaziyat” metodi qo‘llanilganda talabalar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘qituvchi har bir asarni tushuntirish jarayonida talabaning mustaqil fikrini tinglashga e’tibor qaratish lozim. Bunda talabada bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanib boradi. Talabalarning barchasida ijtimoiy vaziyatlarda hech bo‘lmaganda o‘z haq-huquqini himoya qila olishni, o‘z fikri bilan tinglovchisini jalb qila oladi, o‘z fikriga ega bo‘ladi, jamiyatning kerakli insoni ekanligini his qiladi. Demak, talabalar o‘quv faoliyatida badiiy kompetensiyalarini rivojlantirishda badiiy asar o‘qish jarayoni qiziqish va

izlanishlar uyg‘unligi hayot sinovlarida o‘zini oqlagan muhit jihat ekanligi bilan bevosita bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. 2019-yil 8-oktyabr.

2. Abduqodirov A.A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008. – 180 b.

3. Abduvalitov N. B. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jahon adabiyoti namunalarini o‘qitish metodikasi. metodik qo‘llanma. – Toshkent: “Nodirabegim” nashriyoti, 2021. – 234b.

4. Adilova S.A. O‘zbek tili mashg‘ulotlarini kompyuter texnologiyalar vositasida tashkil etish: ped. fan. nom. ... dis. – Toshkent, 2004. – 160 b.

5. Alimuxammedov A. Chet el adabiyoti (Antik adabiyot tarixi). O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2007.

6. Lohman X. C. & Finkelstein M. Sozdaniye grupp v problemnom obuchenii dlya razvitiya navikov resheniya problem i samostoyatelnosti. //Uchebnaya nauka (SSHA, Pensilvaniya). 2000. №28. – C. 291–300.

7. Xalimova F.R. Poetik matnning lingvofonetik xususiyatlari va tarjimaning pragmatik muammolari. Filol.fan.dok. (PhD). – Samarqand. 2019. – 138 b.

АЛИШЕР НАВОИ И МИРОВАЯ КУЛЬТУРА

Ибрагимов Фарход Базарбаевич
преподаватель Кокандского Государственного педагогического института

Аннотация. В статье говорится, о том,что деятельность и творчество великого узбекского поэта и мыслителя Алишера Навои — уникальный образец служения народу, стране, человечеству и просветительству. Его произведения переведены на многие языки и издаются во многих странах.

Ключевые слова: зарубежные, исследователи, экземпляр,дивана-сборника, составлен, наследие, поэт, использовалось.

К творческому наследию выдающегося мастера слова проявляют интерес зарубежные исследователи. В частности, оно глубоко изучается учеными Ирана, Афганистана, Индии, Пакистана, Бангладеш. В этих странах созданы научные произведения, повести, романы, художественные фильмы о нашем великом предке, действуют музеи.

Вышедшие недавно в свет творения поэта на китайском языке, его диван на русском языке, ставшие афоризмами высказывания на персидском, английском, немецком, французском, испанском, японском и других языках, изданное в Иране интернациональным издательством «Алхудо» на пяти языках произведение Алишера Навои «Назмул жавохир», опубликованное подарочное издание на украинском языке «Фархад и Ширин» — яркий

пример неугасаемого интереса к наследию Навои, творчество которого является духовным кладезем всего человечества.

Наблюдения показали, что среди переводов произведений Алишера Навои самым распространенным является произведение «Мажолис ун-нафоис». Оно неоднократно переводилось на персидский язык. Переводы принадлежат Султону Мухаммаду Фахри (1521 год, Герат), Мухаммаду Казвини (1532 год, Стамбул), Шохали Абдулле (1598 год, Нишапур). Это произведение поэта переводилось и в Индии.

Переводом занимался Абдулбоки Шариф Вафо. Он пользовался редким экземпляром рукописи, переписанной в 1491 году, и успешно перевел произведение на персидский язык.

В фонде исследовательского центра Кома Мумбая выявлены экземпляры дивана-сборника Алишера Навои, составленного в качестве школьного учебника, в соответствии с чем можно предположить, что наследие поэта использовалось в школах в качестве пособия. В Государственной библиотеке восточных рукописей Мадраса хранится рукопись произведения «Мажолис ун-нафоис» на персидском языке, в библиотеке университета Усмония Хайдарабада находится переписанная в Индии рукопись произведения «Гаройиб ус-сигар», комментарии к произведению «Садди Искандарий», написанные на персидском языке Мухийиддином под названием «Фавойиди Алишерий». Все это свидетельствует о широкой распространенности переводов произведений Навои.

На основе дастана Навои «Сабъаи сайёр» в XVII веке грузинский поэт Нодар Цициашвили создал свое произведение «Барамгуриани». Изучив дастан нашего великого предка в сравнении с произведениями Низами и Хосрова Дехлеви, поэт использовал его в качестве основы собственного произведения. Даже при поверхностном ознакомлении с творением Нодара Цициашвили становится очевидным, насколько оно созвучно с произведением «Сабъаи сайёр».

Богатое наследие Алишера Навои вызывало интерес не только у ученых Востока, но и Запада. В конце XVI и в начале XVII века произведения Навои четыре раза издавались на итальянском языке, пять раз — на немецком. При этом уместно отметить переводы на немецкий язык «Мухокаматул лугатайн», «Махбубул кулуб», «Фархад и Ширин». Последнее произведение, переведенное Альфредом Куреллой, по мнению ученых, имеет высокий художественный уровень.

С XIX века наследием Навои особо стали интересоваться и французские востоковеды. Изучением жизни и творчества поэта занимались С. де Саси, Э. Катремер, Ф. Белен. Особенно глубоко изучал эти вопросы Луи Арагон, который отмечал, что литературное наследие Алишера Навои будет жить в веках в памяти народа.

Как нам известно, к изданию готовится произведение Алишера Навои «Лисон ут-тайр» на английском языке, что свидетельствует о начале нового

этапа изучения произведений Навои на Западе. С чувством гордости можно отметить, что народы Европы тоже смогут ознакомиться с богатым, имеющим мировое значение наследием великого предка узбекского народа.

Ученые отмечают, что в популяризации творчества Алишера Навои среди зарубежных читателей большую роль играет журнал «Леттр» («Литература»), издаваемый на английском, французском, испанском, польском, венгерском, чеш-ском, словацком языках.

Навои — писатель-гений, искусно воспевший идеи гуманизма, просветительства, миролюбия, сумевший вывести язык и литературу тюркских народов на мировую арену. Своими творениями он занял достойное место в ряду таких ярких представителей мировой литературы, как Гомер и Данте, Рудаки и Фирдауси, Низами и Саади, Шекспир и Бальзак. Великий азербайджанский поэт Фузули, высоко оценивая творчество Алишера Навои, считал его «Султони салотини шуъаро». И не без основания словами «нет человека, подобного Алишербеку. Никто, подобно ему, не знал столь основательно тюркского языка и так не слагал стихи» возвеличивал Алишера Навои Захириддин Мухаммад Бабур.

Его богатое наследие созвучно со всеми эпохами истории человечества. А произведения являются высшим пилотажем литературного мастерства.

Язык поэта отличается от языка созданных до него тюркских произведений своим богатством и разнообразием. Он заложил основу эволюции тюркского языка и последующего его прогресса. Также внес весомый теоретический вклад в развитие языка. Его научный труд «Мухокаматул лугатайн» необходимо изучать не только с точки зрения узбекского языка, но и с точки зрения общего языкознания. В этом произведении вопросы языка и теории языка проанализированы на уровне современных требований.

Известно, что в последние годы жизни Алишер Навои распределил все свои поэтические творения на четыре дивана под названием «Хазойин ул-маоний». В XV веке они были широко известны не только в Мовароуннахре и Хорасане, но и в Турции, Иране, Азербайджане, Индии, Восточном Туркестане и других краях.

Поэзия Навои — это сборник об образе жизни человека. Практически во всех его поэтических произведениях воспеваются благородство, щедрость, справедливость, терпеливость, умение противостоять трудностям. Он осуждает вражду, зависть, ненависть, зло, скупость, жадность, ложь и другие отрицательные человеческие качества. Призывает стремиться к совершенству, жить благими делами, отмечает, что человека нужно оценивать не по национальной, половой или религиозной принадлежности, а по его человеческим качествам. Потому и в произведениях его воспеты герои разных наций и вероисповеданий, представители многих народов.

Прошло более пяти веков, а занявшие достойное место в сокровищнице мировой культуры произведения великого мыслителя, в которых

сконцентрированы энциклопедические знания, служат новым и новым поколениям. Так и будет впредь, ведь в творениях поэта воспеты светлые идеи, близкие человечеству во все времена.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Свидина Е. Д. Алишер Навои. Биобиблиография (1917—1966). — Ташкент, 1968.

2. Хайитметов А. Творческий метод Навои. — Ташкент, 1965.

3. Навои А. Возлюбленная сердец. — Ташкент: Изд-во лит. и искусства, 1983.

4. International Journal of Economy and Innovation Volume 32 /2023 ISSN:2545-0573 EVALUATIVE VOCABULARY AND MEANSITSMANIFESTATIONS Israilova Gulnora

5. International Journal of Economy and Innovation Volume 32 /2023 ISSN:2545-0573 STATEMENT OF THE LEARNING TASK AS A MEANS OF LANGUAGE DEVELOPMENT OF A YOUNGER STUDENT IN THE RUSSIAN LANGUAGE LESSONS Israilova Gulnora

6. Preparing for The Final Interview in Russian in high School: Tips for Teachers, Students and Parents

Journal of Advanced Zoology ISSN: 0253-7214 Volume 44 Issue 05 Year 2023 Page 97:101 Scopus Israilova Gulnara Mamajanovna

7. 29 INTERESTING FACTS ABOUT THE RUSSIAN LANGUAGE Israilova Gulnara Mamajanovna Analysis of world scientific views International Scientific Journal 2023 Vol1 Issue 7 IF(Impact Factor)8.2 / 2023

8. The Main and Important Stage in the Life of a Teacher is Teaching Practice Israilova Gulnara Mamajanovna International Interdisciplinary Research Journal Volume 2 Issue 10, Year 2023 ISSN: 2835-3013 https://univerpubl.com/index.php/synergy

9. (UAC) PEDAGOGICAL PRACTICE IS THE MAIN AND IMPORTANT STAGE IN THE LIFE OF A TEACHER Israilova Gulnora Mamadjonovna Scientific Bulletin of NamSU-Scientific Bulletin of NamSU-NamDU ilmiy axborotnomasi–2023-yil_11-son

10. Pedagogical practice is the main and important stage in the life of teacher G.M. Israilov Quqon DPI ilmiy xabarlar2023 (OAK)

11. DEVELOPMENT OF STUDENTS' SPEECH ACTIVITY WITHIN THE FRAMEWORK OF STUDYING THE ACADEMIC DISCIPLINE "RUSSIAN LANGUAGE" Israilova Gulnara Mamajanovna Ergasheva Masuma, Botirova Gulafruz, Khaitova Sharifa 2023 (International con.) NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI "GLOBALLASHUV DAVRIDA TURLI TIZIMLI TILLAR MUNOSABATI" MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIY A M A T E R I A L L A R I 2- KITOB Navoiy-2023

12. How to bring order to your speech? Israilova Gulnara Mamajanovna students Khaitova Sharifa, Muhammadaminova Madina Published 2023-11-25 Issue Vol. 1 No. 8 (2023): THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD Section Articles https://academicsresearch.ru/index.php/trsimw/article/view/2657

13. Artistic style: definition, substyles, genres Israilova Gulnara Mamajanovna students Rakhmonova Nargiza, Laziza Olimova Kurbanova Maryam Published 2023-11-25 Issue Vol. 1 No. 8 (2023): THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD Section Articles https://academicsresearch.ru/index.php/trsimw/article/view/2661

TIL TA'LIMIDA ORFAGRAFIK VA PUNKTUATSION XATOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISHDA DIDKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI

G.Abdiraimova
Qarshi xalqaro universiteti katta o'qituvchisi
Qiyomova Durdona
Qarshi xalqaro universiteti talabasi

Annotatsiya. Orfagrafik va punktuatsion xatolar til ta'limida keng tarqalgan muammolardan bo'lib, o'quvchilarning yozma nutqida samarali muloqot qilishiga to'sqinlik qiladi. Ushbu xatolar ko'pincha murakkab qoidalarni qayta ishlashda asosiy tushunchaning etishmasligi, amaliyotning etarli emasligi yoki kognitiv ortiqcha yuk tufayli yuzaga keladi. Ushbu xatolarni tuzatishning an'anaviy usullari, masalan, eslatmalardan o'rganish va takroriy mashqlar rivojlanishning cheklanishiga olib kelishi mumkin. Ushbu maqola imlo va tinish belgilaridagi xatolarni bartaraf etishda didaktik o'yinlarning rolini o'rganadi, bu interfaol yondashuvlar ta'lim natijalarini sezilarli darajada oshirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Ishtirok etish, motivatsiya va samarali pedagogikani birlashtirgan holda, didaktik o'yinlar xatolarni bartaraf etishning innovatsion usulini ta'minlaydi. Maqolada imlo va tinish belgilarini tuzatish uchun mo'ljallangan turli didaktik o'yinlar ko'rib chiqiladi va ularning til o'rganish muhitida samaradorligi bo'yicha tadqiqot natijalari taqdim etiladi. Amaliy misollar va empirik ma'lumotlar orqali ko'rsatilishicha, o'yin shaklida o'qitish nafaqat o'quvchilarning aniqligini oshirishi, balki til qoidalarini uzoq muddatli saqlashga yordam beradi, o'rganishni qiziqarli va ta'sirli qiladi.

Kalit so'zlar: imlo xatolari, tinish belgilaridagi xatolar, til ta'limi, didaktik o'yinlar, xatoni tuzatish, gamifikatsiyalangan o'rganish, ta'limga jalb qilish, til o'zlashtirish, didaktik o'yinlari.

Abstract. Spelling and punctuation errors are common issues in language education, which hinder students' ability to communicate effectively in writing. These errors often arise from a lack of foundational understanding, insufficient practice, or cognitive overload when processing complex rules. Traditional methods for correcting these mistakes, such as rote learning and repetitive exercises, can lead to disengagement and limited progress. This article explores the

role of didactic games in addressing spelling and punctuation errors, highlighting how these interactive approaches can significantly enhance learning outcomes. By combining engagement, motivation, and effective pedagogy, didactic games provide an innovative method for error elimination. The article reviews various didactic games designed for spelling and punctuation correction and presents research findings on their effectiveness in language learning environments. Through practical examples and empirical data, it is demonstrated that gamified learning not only improves students' accuracy but also fosters long-term retention of language rules, making learning enjoyable and impactful.

Keywords: spelling mistakes, punctuation mistakes, language education, didactic games, error correction, gamified learning, engagement in learning, language acquisition, educational games

Til ta'limi savodxonlikning ko‘plab jihatlarini, jumladan, imlo va tinish belgilarini egallashni o‘z ichiga oladi. To‘g‘ri imlo va tinish belgilari yozma va og‘zaki muloqotda aniqlik uchun juda muhimdir. Biroq ko‘pchilik o‘quvchilar ona tilidan qat'i nazar, til qoidalarining murakkabligi va ko‘plab tillarda uchraydigan nomuvofiqliklar tufayli bu jihatlar bilan kurashadilar. Xususan, ko‘pgina tillarda alifbo, imlo va tinish belgilaridagi istisnolar va qoidabuzarliklar ko‘p uchraydi.

Ushbu xatolarni bartaraf etish muhimligi aniq: doimiy xatolar ma'noni yashirishi va o‘quvchilarning yozishga bo‘lgan ishonchini susaytirishi mumkin.

Tarixiy jihatdan imlo va tinish belgilaridagi xatolarni tuzatish usullari asosan yodlash, ish varaqlari va mashqlarga tayangan. Ushbu strategiyalar samarali bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, ular ko‘pincha zerikishga, aloqani yo‘qotishga va faqat qisqa muddatli yaxshilanishga olib keladi. Zamonaviy ta'lim nazariyalari faol, qiziqarli va tajribali o‘rganish ko‘nikmalarni egallash uchun, ayniqsa, til ta'limida samaraliroq ekanligini ko‘rsatadi. Bu didaktik o‘yinlarning tildan to‘g‘ri foydalanishni mustahkamlash vositasi sifatida joriy etilishiga olib keldi.

Imlo va tinish belgilaridagi xatolar: sabab va oqibatlar. Imlo xatolari. Imlo xatolari turli omillar, jumladan, so‘z tuzilmalarini yaxshi bilmaslik, fonetik tushunmovchiliklar va turli lug‘atlarga ta'sir etmaslik natijasida yuzaga keladi. Misol uchun, ingliz tilida ko‘p so‘zlar o‘z ovozi kabi yozilmaydi, bu tez-tez xatolarga olib keladi. Yangi tilni o‘rganayotgan talabalar uchun bu qiyinchiliklar ona tilining fonetik tizimining aralashuvi bilan kuchayadi.

Tinish belgilaridagi xatolar. Tinish belgilaridagi xatolar esa ko‘pincha gap tuzilishi, grammatika qoidalari va turli tinish belgilarining vazifasini noto‘g‘ri tushunishdan kelib chiqadi. Tinish belgilari o‘qishni tushunish va yozma matnlarda ma'noni etkazish uchun zarurdir . Tinish belgilaridagi xatolar gapning ohangini yoki ma'nosini o‘zgartirishi mumkin, ba'zida chalkashlik yoki noaniqlikka olib keladi.

Imlo va tinish belgilaridagi xatolarning oqibatlari. Imlo va tinish belgilaridagi izchil xatolarning ta'siri akademik ko‘rsatkichlardan tashqariga chiqadi. Ular o‘quvchilarning ham, o‘qituvchilarning ham hafsalasi pir bo‘lib, o‘quvchilarning o‘z til qobiliyatiga bo‘lgan ishonchini susaytirishi mumkin. Professional

sharoitlarda bunday xatolar shaxsning ishonchliligiga ta’sir qilishi, muloqotning ravshanligini kamaytirishi va tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

Xatolarni bartaraf etishda didaktik o‘yinlarning o‘rni. Didaktik o‘yinlar nima? **Didaktik o‘yinlar** - bu aniq ta’lim natijalarini hisobga olgan holda tuzilgan o‘quv o‘yinlari. Ular o‘yin faoliyatini pedagogika bilan birlashtirib, o‘quvchilarga o‘zaro ta’sir va o‘yin orqali o‘rganish imkonini beradi. An’anaviy o‘yinlardan farqli o‘laroq, didaktik o‘yinlar imlo qoidalari yoki tinish belgilaridan foydalanish kabi aniq tushunchalarni tuzilgan va qiziqarli tarzda mustahkamlashga qaratilgan.

Didaktik o‘yinlar imlo va tinish belgilaridagi xatolarni qanday hal qiladi? Ishtirok etish: Didaktik o‘yinlar o‘quvchilar e’tiborini o‘ziga tortadi, bu esa o‘qishni mashaqqatli emas, balki zavqli qiladi. Ushbu faollikning ortishi taqdim etilayotgan materialga yaxshiroq e’tibor qaratishga olib keladi.

Variantlar bilan takrorlash: O‘quv o‘yinlari ko‘pincha takroriy amaliyotni o‘z ichiga oladi, bu imlo va tinish belgilarini o‘zlashtirish uchun zarurdir. Biroq, o‘zgaruvchanlik va qiyinchiliklarni kiritish orqali o‘yinlar bu takrorlanishning monoton bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Darhol fikr-mulohaza: O‘yinlar o‘quvchilarga xatolarini tushunishga va ularni real vaqt rejimida tuzatishga yordam beradigan tezkor fikr-mulohazalarni taqdim etadi. Bu tilni o‘zlashtirish uchun juda muhim, chunki u tezda sozlashni rag‘batlantiradi va tildan to‘g‘ri foydalanishni kuchaytiradi.

Hamkorlik va raqobat: Ko‘pgina didaktik o‘yinlar hamkorlikni yoki sog‘lom raqobatni rag‘batlantiradi, talabalar o‘z faoliyatini yaxshilashga intilib, bir-biridan o‘rganishlari mumkin bo‘lgan muhitni rivojlantiradi.

Xotira va saqlash: o‘yinlardan foydalanish xotirani saqlashni kuchaytiradigan kognitiv jarayonlarga ta’sir qiladi. O‘rganish qiziqarli va interaktiv bo‘lsa, o‘quvchilar qoidalarni eslab qolishlari va kelgusida yozma topshiriqlarda ularni to‘g‘ri qo‘llashlari mumkin.

Imlo va tinish belgilari uchun didaktik o‘yinlarning turlari. “Scrabble”- ushbu o‘yin o‘quvchilarga berilgan harflardan so‘zlarni shakllantirish orqali imloni mustahkamlashga yordam beradi. Bu strategik fikrlash va ijodkorlikni rag‘batlantiradi, o‘quvchilarga yangi lug‘atni o‘rganishga yordam beradi.

“Harflarni joyla” - so‘z tuzilishi va harflarni joylashtirishni mustahkamlash uchun oddiy, ammo samarali o‘yin, talabalarga imloni qiziqarli tarzda mashq qilish imkonini beradi.

Tinish belgilari o‘yinlari.“Bingo tinish belgilari”-talabalar bingo kartasidagi bo‘sh joylarni jumlalar ichidagi to‘g‘ri joylarga tinish belgilarini qo‘yish orqali to‘ldiradigan o‘yin.

“Jumlalar poygasi” jamoalar tinish belgilarining qoidalarini tez sur’atda ko‘rib chiqishga yordam berib, eng qisqa vaqt ichida jumlalarni to‘g‘ri belgilash uchun raqobatlashadilar.

“Tinish belgilari”- jumla tuzilishi va tinish belgilaridan foydalanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlovchi, o‘quvchilarni parchani to‘g‘ri belgilashga undaydigan jumboq uslubidagi o‘yinlar.

Didaktik o‘yinlarning samaradorligini o‘rganish.Bir qator tadqiqotlar tilni o‘qitishda didaktik o‘yinlardan foydalanishni qo‘llab-quvvatlaydi. Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, imlo o‘yinlarida qatnashgan talabalar an’anaviy o‘rganish usullaridan foydalanganlarga qaraganda olti hafta davomida imlo aniqligi 30% ga yaxshilangan. Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan yana bir izlanish shuni ko‘rsatdiki, punktuatsion o‘yinlaridan foydalanish o‘quvchilarning tinish belgilaridan to‘g‘ri foydalanish qobiliyatini 25% ga oshirdi, ishtirokchilar keyingi baholashlarda bu ko‘nikmalarni yanada samarali saqlab qolishdi.

Bundan tashqari, didaktik o‘yinlar ichki motivatsiyani rivojlantiradi, bu esa o‘quvchilarni xatolarni tuzatish bilan shug‘ullanishga tayyorlaydi. An’anaviy usullardan farqli o‘laroq, o‘yinlar o‘quvchilarning xatolarini rasmiy baholash bosimisiz tuzatishlari mumkin bo‘lgan foydali o‘quv muhitini taklif qiladi.

Xulosa

Imlo va tinish belgilarining xatolari til ta’limida doimiy muammolardir, ammo an’anaviy usullar bu muammolarni to‘liq hal qilish uchun etarli bo‘lmasligi mumkin. Didaktik o‘yinlar xatolarni tuzatishni qiziqarli, interaktiv va rag‘batlantiruvchi jarayonga aylantirish orqali jozibali yechimni ta’minlaydi. Tadqiqot va amaliyot orqali ko‘rsatilgandek, bu o‘yinlar nafaqat o‘quvchilarning aniqligini oshiribgina qolmay, balki til qoidalarini uzoq muddatli saqlashga ham yordam beradi. Didaktik o‘yinlarni til o‘quv dasturlariga kiritish o‘quvchilarning o‘rganish tajribasini sezilarli darajada oshirishi va muloqot ko‘nikmalarini oshirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Назаров Карим. Ўзбек тили пунктуацияси.- Т.: Ўқитувчи, 1976.-Б.-35. Яна шу муаллиф: Тиниш белгилари ва ёзма нутқ.- Т.: ФАН, 1974. — Б. 8-9.
2. Абдураҳмонов Ғ. , Мамажонов С. Ўзбек тили ва адабиёти.—Т. : Ўзбекистон, 1995. — б . 44-45.
3. Фахри Камол. Ўзбек орфографияси ҳақида . — Т.: Ўқув. Пед. Дав. нашр, 1957. — б.58-62.
4. Иномов Р. Лотин алифбеси учун кураш.// Маориф ва ўқитувчи.- 1926.- № 3.-б. 5-7.
5. Графема" термини фанга И.А.Бодуэн де Куртенэ томонидан киритилган. Қаранг: Бодуэн де
6. Куртенэ И.А. Об отношении русского письма к русскому языку.- СПб., 1912,-С. 27.
7. Gee, JP (2003). Video o‘yinlar bizga o‘rganish va savodxonlik haqida nimani o‘rgatishi kerak. Palgrave Makmillan.
8. OBrayen, C. (2015). Sinfdagi didaktik o‘yinlar: o‘quvchilarni jalb qilish va eslab qolishni kuchaytirish. O‘qitish usullarini ko‘rib chiqish, 29(3), 198-209.
9. Swan, M. (2005). Amaliy ingliz tilidan foydalanish (3-nashr). Oksford universiteti matbuoti.

OBRAZLI IFODALAR HOSIL QILISHDA EPITET

Normurodova Zarifa Ruziqulovna
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ma’lumki, matnda epitet majoziy ifodalar hosil qilishda, ko‘chma ma’nolarning yuzaga kelishida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Badiiy asarlarda epitet turli vazifalarni bajaradi. Ana shunday xususiyatlardan biri obrazli ifoda hosil qilishdir. Ushbu maqolamizda bu xususda fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: obraz, epitet, majoziy ifoda, baho, ibora, stilistik figuralar,sema, konnatativ ma’no, trop.

Abstract. It is known that in the text the epithet acquires special significance in the formation of figurative expressions, the emergence of figurative meanings. In works of art, the epithet performs various functions. One of these characteristics is figurative expression. This article discusses this aspect.

Keywords: image, epithet, figurative expression, assessment, phrase, stylistic figures, theme, connotative meaning, trope.

Obraz (timsol) tushunchasining keng va tor tushunchalari mavjud. Keng ma’nodagi obraz tushunchasi ijodkorning fikr-tuyg‘ulari singdirilgan hayot manzarasini anglatadi. Tor ma’noda esa badiiy asarda aks ettirilgan inson siymosini ifodalaydi. Obrazda obyektiv anglash bilan subyektiv ijodiy tafakkur qorishib ketadi. Obrazlilik barcha san’at asarlari uchun muhim hisoblanadi. Badiiy asarlarda voqea- hodisalarni obrazli ifodalashda troplar va stilistik figuralardan foydalaniladi.

Bu esa, o‘quvchilarda asardagi voqealar, qahramonlarning his- tuyg‘ularini jonli, ta’sirchan, manzarali idrok qilishda yordam beradi. Ko‘chma ma’nolar nutq tarkibida boshqa so‘zlar bilan bog‘langanda namoyon bo‘ladi, nutq tarkibidan ajratilganda esa to‘g‘ri ma’nosi asosiy ma’no bo‘lib qoladi. M: tosh so‘zi nutq qurshovidan ajratib olinsa, ”qattiq jism” ma’nosini anglatadi . Ammo tosh yurak epitetli birikmada tosh so‘zi ko‘chma ma’no hosil qilgan bo‘lib, beshavqat,mehrsiz kabi konnatativ ma’no ifodalayapti. Demak, o‘z va ko‘chma ma’no birikib, ko‘p ma’noli so‘zni hosil qiladi. So‘zning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi nutqning jozibali, ta’sirchan, fikrning ifodali bo‘lishini ta’minlaydi. Mavhum tushunchadan farqli ravishda obraz ko‘rgazmalilik xususiyatini namoyon etadi, u voqealarni mavhum mulohazalar bilan emas, balki hissiy yaxlit, bir butun takrorlanmas tarzda aks ettiradi. Obrazning badiiyligi mavjud voqelikni aks ettirish va uni anglash xususiyati bilan belgilanmaydi, balki badiiylik obrazning misli ko‘rilmagan, yangi o‘ylab chiqarilgan dunyo yarata olish imkoniyatida yuzaga chiqadi. Obrazda obyektiv mavjud va muhim jihatlar bilan birga, bo‘lishi mumkin bo‘lgan, mo‘ljaldagi, xohishdagi, ya’ni turmushning emotsional-irodaviy tomonlariga munosabat, uning ko‘rinmas, ichki imkoniyatlari bilan bog‘liq xususiyatlar ham muxrlangan bo‘ladi. Shuningdek, badiiy obrazda xayolot, bo‘yoq, tovush, so ‘z va boshqa tushunchalarni ijodiy ishlash yo‘li bilan san’at asari yaratiladi. Badiiy obrazlar orqali yashirin ma’nolarni berish va shu orqali

o‘quvchining o‘ylash, fikrlash kabi qobiliyatlarini ham rivojlantirish mumkin. Tilshunos olim B. Umurqulov fikrlariga ko‘ra, badiiy nutqda qo‘llaniladigan barcha so‘zlar u yoki bu darajada tasviriylikni vujudga keltiradi. Chunki har qanday so‘z matnda o‘ziga xos ma’no ifodalaydi, voqea-hodisaning tasvirini yaratadi. Shuningdek, tilda tasviriylikni vujudga keltiruvchi maxsus vositalar ham mavjud bo‘lib, ular fikrni obrazli ifodalash asosida badiiy ta’sirchanlikni kuchaytiradi[273]. Olimning fikrlariga tayangan holda, epitet tilning nutqiy hodisasi sifatida nafaqat, obrazli fikrlashni,balki, tasviriylikni hosil qilishiga misollar keltiramiz.

Yaproqlar shitirlar oyoq ostida
Oltin kuz va bayram bir-biriga ko‘rk.

(A. Muxtor. “Toshkentliklar”).

Ushbu misolda oltin kuz birikmasidagi oltin so‘zi epitet. Bu yerda oltin madan ma’nosini emas, rang semasini bildirganli bilan ham xarakterlidir. Bu yashirin ma’nosi bilan matnda ta’sirchanlikni, tasviriylikni, bo‘yoqdorlikni oshirishga xizmat qilgan. Obrzali fikrlashga imkon yaratgan. Kuz fasli kelganda tabiatning o‘zgacha manzarasi, uning ayricha jozibasini his qilish, yaproqlarning sarg‘ayishi, oltin tusga kirishi sabab o‘quvchida olam haqidagi obrazli fikrlash ko‘nikmasini paydo qiladi. . Badiiy asarlarda o‘quvchining diqqatini tortishda, estetik dunyoqarashini shakllantirishda badiiy didini rivojlantirishda tasviriy vositalar alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, poetik asarlarda troplarning qo‘llanishi matnda o‘ziga xos jozibadorlikni ta’minlaydi. Bu kabi stilistik formulalar orasida epitet badiiy mavqega ega. Voqelikni oddiy emas, jimjimador ta’riflash, olamni go‘zal idrok etishda badiiy matnda epitet o‘ziga xos uslubiy vazifa bajaradi[274].

Ba’zan paydo bo‘layotgan tasavvur shu tasavvurga yaqin turgan boshqa tasavvurni eslab qiyos etish tufayli yorqinlashadi. Masalan, kumush qish epitetli birikmasidagi kumush qorning oqligiga qiyosan ma’noni ko‘chirish orqali hosil qilgan bo‘lib, madan ma’nosidan rang ma’nosiga ko‘chmoqda. Tilshunos olim M. Mukarramov epitetning boshqa troplardan farqli jihatlarini o‘rganib, beshta asosiy farqlarini ko‘rsatib o‘tgan[275]. Biz ifodalamoqchi bo‘lgan narsa va hodisalarning xususiyati obraz orqali ifodalansa, epitet obrazli tasviriy vositaga aylangan bo‘ladi. Xalq tilida obrazli epitetlar ko‘plab uchraydi. M: ayiq yurish, echki soqol, ukki ko‘z, g‘uncha lab, bodom qovoq.

Ko‘chim badiiy obraz yaratish bilan birga matnda tasviriylik, ekspressivlik, emotsionallik kabi ma’nolarni yuzaga chiqarib, shuning bilan birgalikda baho munosabati hosil bo‘lishiga ham sharoit yaratadi.

Topolmayin yurur yorning o‘zini,
To‘tiyo qiladi shakar so‘zini. (Shirin va Shakar dostoni)

---

[273] Б.Умуркулов .Ўзбек бадиий насрининг лингво-услубий шаклланиш асослари . Филология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация.Т:- 2020. 238-б

[274] Z. Normurodova . Badiiy nutqda epitetlar vositasida ekspressivlik va tasviriylikning ta’minlanishi. Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. Termiz. 2023/ № 8/9. 46-b.

[275] Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Б. 15-16.

Koʻrinadiki, shakar soʻz eitetli birikma tarkibidagi shakar soʻzi koʻchma maʼnoda qoʻllanilib, xushmuomala, kishiga yoqadigan, yoqimli maʼnolari boʻlib, ijobiy bahoga ega.

Oʻychan kecha, tun ichra tanho. (R. Parfi). Misolda oʻychan koʻchma maʼno hosil qilib, sokin, tich kabi maʼnolarni ifodalayapti. Obrazli epitetlar faqat predmetni belgisini taʼkidlab qolmasdan, balki bu belgi orqali badiiy obraz hosil sabab boʻladi[276].

Epitet orqali obraz hosil qilinar ekan, uning hosila maʼnosi insonning xarakteri, tafakkuri, dunyoqarashi, his-tuygʻularini ham ochib berishga xizmat qiladi.

M: Endi uning oʻktam gaplari,qisqa, muayyan buyruqlaridan mamnun edi. Oʻktam soʻzi epitet vazifasida qoʻllanilgan boʻlib, Oʻzbek tilining izohli lugʻatida unga quyidagicha taʼrif beriladi: boshqalarga oʻz soʻzini oʻtkazadigan, shijoatli, oʻtkir[277]. Misolda oʻziga ishongan, tetik, viqorli kabi maʼnolar bilan reallashyapti.

Yuqoridagi misollarda koʻrinadiki, boshqa koʻchim turlari kabi epitet ham badiiy matnlarda badiiy, uslubiy, maʼnoviy vazifalar bajaradi.

Avji saratonda hansirab, yonib,

Qovrilib olovli yoʻllar taftida (A. Oripov).

Olov soʻzi epitet hosil qilib, haroratli, energiya, issiq kabi maʼnolar berib, fikrning obrazli, tasviriy, voqea – hodisani taʼsirchan tasvirlab berish imkonini beradi.

Xullas oʻrnida shuni aytishimiz mumkinki, epitet nutqning jozibali, betakror, taʼsirchan, ifodali boʻlishiga, obrazli tafakkur hosil qilishga yordam beradi. Bu kabi tilning tasviriy vositalarni oʻrganish ona tilimizning naqadar boy, maʼnodor ekanligini, milliy qadriyatlarimizni, maʼnaviyatimizni, mentalitetimizni kengroq talqin etishga, asoslashga koʻmak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Б.Умуркулов .Ўзбек бадиий насрининг лингво-услубий шаклланиш асослари . Филология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация.Т:- 2020. 238-б
2. Z. Normurodova . Badiiy nutqda epitetlar vositasida ekspressivlik va tasviriylikning taʼminlanishi. Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, taʼlim. Termiz. 2023/ № 8/9. 46-b.
3. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Б. 15-16.
4. Т. Расулов . Бадиий образ ва образли тасвирий воситалар, «Ўзбек тили ва адабиёти», 1965. 5-сон. 11-б
5. OʻTIL. T-2023. VI jild. 404-bet.

[276] Т. Расулов . Бадиий образ ва образли тасвирий воситалар, «Ўзбек тили ва адабиёти», 1965. 5-сон. 11-б
[277] OʻTIL. T-2023. VI jild. 404-bet.

O‘ZBEK TILINING NAZARIY VA AMALIY MASALALARINI TAHLIL QILISH

Ganiyeva Malikaxon Sadikjanovna
FarDU o‘qituvchisi

Annotatsiya. ushbu ilmiy maqola “O‘zbek tilshunosligining nazariy-metodologik muammolari” modulini o‘qitish o‘quv rejasidagi filologik ta’limda ilg‘or xorijiy tajribalar, filologik tadqiqotlarda tizimli tahlil, antropotsentrik tilshunoslik yo‘nalishlari, zamonaviy o‘zbek leksikografiyasi va terminologiyasi modullari bilan bog‘liqlikda va uzviylikda olib borish muhimligini ta’kidlaydi. Maqolada ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni belgilovchi ma’naviy omil va millat mavjudligining dastlabki sharti bo‘lgan tilning tabiati, tilni tashkil qiluvchi birliklar tizimi, til birliklari o‘rtasidagi munosabat, tilshunoslik nazariyasiga oid masalalar, nazariy qarashlar, lingvistik ta’limotlarning uzviy taraqqiyot tizimini har tomonlama tahlil qilingan.

Absract. this scientific article includes advanced foreign experiences in philological education, systematic analysis in philological research, directions of anthropocentric linguistics, modules of modern Uzbek lexicography and terminology in the curriculum of the module "Theoretical-methodological problems of Uzbek linguistics" emphasizes the importance of carrying out in connection with and coherence. In the article, the nature of the language, which is a spiritual factor that determines the socio-economic development and the initial condition for the existence of the nation, the system of units that make up the language, the relationship between the language units, issues related to the theory of linguistics, theoretical views, the organic development system of linguistic teachings side analysis.

Kalit so‘zlar: antropotsentrik tilshunoslik, zamonaviy o‘zbek leksikografiyasi, til birliklari, lingvistik ta’limotlar, tilning tabiati.

Keywords: anthropocentric linguistics, modern Uzbek lexicography, language units, linguistic teachings, nature of language.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 26- sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 278-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12- iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-son, 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF4797-son, 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 2909-son Qarori yo‘nalishlari mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining

mazmunini takomillashtirish hamda Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi. [278]

O‘tgan asrning 90-yillariga kelib mavjud ona tili ta’limining yaroqsiz holga kelib qolganligi, uni tubdan isloh qilish lozimligi, ta’lim maqsadi, mazmuni va usulini yangilash zarurati ayon bo‘lib qolgan edi. Chunki O‘zbekiston taraqqiyotning ijtimoiy himoyaga asoslangan bozor iqtisodiyoti yo‘lini tanladi. Mulkchilik munosabatlari qaror topib, jamiyat a’zolari ongida boqimandalik kayfiyati, fikriy tanballik hissi o‘rnini iqtisodiy tafakkur, tadbirkorlik, yo‘qdan bor qilish, ichki imkoniyatlarni ishga solish istagi egallashi, aql-idrokka qudratli yaratuvchi kuch sifatida qarash, chetdan madad kutmaslik tuyg‘usi shakllanishi zarur edi.Yangidavr bilimli shaxsgagina emas, balki bilim olish yo‘llarini puxta o‘zlashtirgan, mustaqil idrok qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan ongli fuqaroga ehtiyoj sezdi. Natijadamamlakatimiz istiqlolining ilk yillaridayoq ta’limning umumiy maqsadi negiziga mustaqil ijodiy fikrlovchi hamda yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalash mo‘ljali qo‘yildi. Ta’limning umumiy maqsadi esa har bir fan o‘z maqsad va vazifalarini belgilab olishni taqozo etadiki, bu, xususan, umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturida berilgan ona tili ta’limi maqsadida o‘zining yaqqol ifodasini topdi.Ta’lim o‘quvchining ongli va faol ravishda o‘z malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishiga, ta’lim usuli, mazmuni hamda ta’lim vositalari ana shu vazifalarning aniq va puxta bajarilishiga yo‘naltirildi. Biroq yangi davr talablari asosida ta’limda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullarga ustuvorlik berilishiga qaramasdan, til qurilishi haqida ko‘p hollarda amaliy tatbiqdan yiroq, kam samarali lingvistik bilimlar berishdan iborat eski va chayir an’ana hanuz saqlanib qolmoqda. Mubolag‘asiz ravishda aytish mumkinki, bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda deysizmi, tayanch sinflar yoki akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida deysizmi, til qurilishi bo‘yicha beriladigan bilimlar hissasiona tilidan amaliy foydalanish kompetensiyasidan ancha ustunlik qiladi. Ahvol shu darajaga yetdiki, chuqurroq e’tibor berilsa, ona tili ta’limi maqsadi ijodiy tafakkur sohibi va til imkoniyatini egallagan shaxsni tarbiyalash emas, balki tilshunos olimni yetishtirishga o‘xshab qoldi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni belgilovchi ma’naviy omil va millat mavjudligining dastlabki sharti bo‘lgan tilning tabiati, tilni tashkil qiluvchi birliklar tizimi, til birliklari o‘rtasidagi munosabat, tilshunoslik nazariyasiga oid masalalar, nazariy qarashlar, lingvistik ta’limotlarning uzviy taraqqiyot tizimini anglash mutaxassislar nazariy qarashlari uchun muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, “O‘zbek tilshunosligining nazariy-metodologik muammolari” modulini o‘qitish o‘quv rejasidagi filologik ta’limda ilg‘or xorijiy tajribalar, filologik tadqiqotlarda tizimli tahlil, antropotsentrik tilshunoslik yo‘nalishlari, zamonaviy o‘zbek leksikografiyasi va terminologiyasi modullari bilan bog‘liqlikda va uzviylikda olib boriladi.

[278] https://lib.bimm.uz/items/download/8377

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: “Mumtoz so‘z”, 2017. – 176 б. 17.

2. Маҳмудов Н. Зиддият ва жуфт сўзлар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2014. – № 5. – Б. 3-9.

3. Маҳмудов Н. Зиддият ва маъно тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2014. – № 3. – Б. 18-25. 19.

4. Неъматов Н., Менглиев Б. Тилшуносликнинг фалсафий масалалари. – Тошкент, 2015. 20.

5. Игнатова Н.Ю. Образование в цифровую эпоху: монография. М-во образования и науки

6. РФ. – Нижний Тагил: НТИ (филиал) УрФУ, 2017. – 128 с.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA PUBLITSISTIK USLUBNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Axmadjonova Shahnoza Tolibjon qizi
FarDU o‘qituvchisi

Annotatsiya. Publitsistik uslubning umumiy maqsadi – jamoatchilik fikriga ta’sir o‘tkazish, o‘quvchi yoki tinglovchini nutq, insho yoki maqolada yozuvchi yoki ma’ruzachi tomonidan berilgan talqin faqat mantiqiy munozaralar orqali emas, balki hissiy jozibadorlik yo‘li bilan amalga oshirilishiga ishontirishdan iborat. Maqolada publitsistik uslubning ingliz va o‘zbek tillaridagi qiyosiy tahlili haqida umumiy ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: funksional uslub, stilistika, publitsistik uslub, badiiy til uslubi, jarayon, hodisalar, aniqlik, izchillik

Annotation. The general aim of the publicist style is to exert influence on public opinion, to convince the reader or the listener that the interpretation given by the writer or the speaker in the speech, essay or article not merely by logical argumentation, but by emotional appeal as well. The article provides an overview of the comparative analysis of the publicist style in the English and Uzbek languages.

Key words: functional style, stylistics, publicistic style, artistic language style, process, phenomena, clarity, coherence.

Publitsistik uslub jamiyat faol a’zosining ijtimoiy-siyosiy hayotga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Har qanday jamiyatning u yoki bu a’zosi o‘zi yashab turgan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-madaniy hayotiga befarq qaramaydi, ularga o‘z munosabatini bildiradi. Ana shunday munosabatni ifodalashni ta’minlash uchun xizmat qiladigan nutq ko‘rinishlari publitsistik uslub hisoblanadi.[1]

Publitsistik uslub – ijtimoiy-siyosiy muloqot sohasi bilan bog‘liq bo‘lgan funksional uslub hisoblanadi. U siyosiy va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan maqolalarda, notiqlik nutqlarida amalga oshiriladi.

Publitsistik uslub zamonaviylik yilnomasi deb ataladi, chunki u hozirgi tarixni to‘liq aks ettiradi, jamiyatning dolzarb muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maishiy, falsafiy va boshqalarni hal qiladi. Publitsistik (ommabop) nutq uslubi gazeta va jurnallar sahifalarida, radio va televidenie jurnalistikasida, ommaviy ma‘ruzalarda, parlamentda notiqlarning nutqlarida, qurultoylarda, yig‘ilishlarda, mitinglarda va hokazolarda namoyon bo‘ladi.

Ushbu uslubga oid matnlar turli mavzular va til uslubi bilan ajralib turadi. Bir tomondan, huddi shu janr, masalan, reportaj janri gazetada, radio va televideniyeda sezilarli darajada farqlanadi. Biroq, boshqa tomondan, gazeta reportaji boshqa gazeta janrlaridan - axborot, insho, felyeton va boshqalardan sezilarli darajada farq qiladi.

Biroq, ommabop uslubning barcha janrlari ko‘plab umumiy xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni bir butunlikka birlashtirish imkonini beradi. Va bu umumiy xususiyatlar ular umumiy funktsiyaga ega bo‘lganligi bilan bog‘liq. Ommabop uslubning matnlari doimo ommaga qaratilgan bo‘lib, har doim axborot bilan bir qatorda ta‘sir qiluvchi funktsiyani ham bajaradi. Ta‘sir o‘tkazishning vazifasi bevosita va ochiq bo‘lishi mumkin. Masalan, mitingda so‘zga chiqqanlar ommani hukumatning, u yoki bu notiqning, siyosatchining u yoki bu qarorini qo‘llab-quvvatlashga yoki rad etishga ochiq chaqiradilar.

Ta’sir etishning ko‘rinishi har xil bo‘lishi mumkin, go‘yo dalillarning tashqi obyektiv taqdimoti orqasida yashiringan. Biroq, faktlarning tanlanishi, ularni ozmi-ko‘pmi batafsil ko‘rib chiqish, materialni taqdim etish xarakteri ham ommaga ma‘lum ta’sir ko‘rsatadi. Omaabop uslub o‘z mohiyatiga ko‘ra hayotga faol aralashishga, jamoatchilik fikrini shakllantirishga chaqiriladi.

Publitsistik uslubning o‘ziga xos xususiyati ham shundaki, u bir shaxsga emas, balki ommaga, butun jamiyatga va uning alohida ijtimoiy guruhlariga ta’sir qiladi. Ommabop uslubda muallifning individualligi ilmiy, rasmiy uslubiga qaraganda ancha kuchliroq namoyon bo‘ladi. Biroq, bunda muallif o‘zini faqat konkret shaxs (o‘ziga xos o‘ziga xos xususiyatlarga ega) sifatidagina emas, balki jamiyat vakili, ma’lum ijtimoiy g‘oyalar, manfaatlar namoyandasi va boshqalar sifatida ham namoyon qiladi.

Demak, ommabop uslubning asosiy xususiyati ijtimoiy baholovchilik bo‘lib, u faktlarni tanlashda, ularga e’tibor darajasida ham, ekspressiv lingvistik vositalardan foydalanishda ham namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, publitsistik uslub ifoda va mezonning doimiy almashinishi, ekspressiv vositalarning me’yorga doimiy o‘zgarishi va yangi ifoda vositalarini izlash bilan tavsiflanadi.

Masalan, *“sovuq urush”, “Temir parda”, “qayta qurish”, “turg‘unlik”, “erish”* metaforalari deyarli bir zumda standart tarzda qo‘llaniladigan ijtimoiy va siyosiy atamalarga aylandi.

Ommabop uslub ijtimoiy-siyosiy atamalarni o‘zida majassam etishi (xabar, ma’ruzalar, turli chiqishlar, raportlar, tabriknomalar, qarorlar) bilan rasmiy ish qog‘ozlari uslubiga yaqinlashgndek bo‘ladi. Rasmiy ish qog‘ozlari usulbiga xos

so‘z va atamalar publitsistik uslubda ham uchrab turadi, ba’zilari esa faol qo‘llanishi ham mumkin.

O‘zbek tilshunosligida filologiya fanlar nomzodi T.Qurbonovning kuzatishicha, sifatdosh oborotlar fe’llarning shart mayli shakllarining almashinib ishlatilishi, ritorik so‘roq, ritorik murojaat, undov, bir bosh bo‘lakli gaplarning faolligi bu uslubga xos xususiyatlar sanaladi.[2]

Turli metaforik turg‘un birikmalar *vital issues, growing concern, informed sources, it is reported that, overwhelming majority, amid stormy applause,davr talabi, do‘stona suhbat, yuqori hosil uchun kurash, intensive rivojlanish yo‘li, yaratuvchilik ishlari* singarilarni faol qo‘llash ham ommabop uslub tabiatiga mosdir.

Ommabop uslubning xarakterli belgilaridan biri nutqning ko‘pincha I shaxs nomidan ifodalanishidir. Ma’lumki, badiiy uslubda hikoya yoki bayon qilish III shaxs tomonidan bajariladi, ya’ni bayonning III shaxs tomonidan ifodalanishi muallifning pozitsion imkoniyatini ancha kengaytiradi.

Ushbu uslubda, odatda, faqat birgina muallifning nutqiy bayoni mavjud bo‘ladi. Agar, ba’zi hollarda, ko‘chirma gap qo‘llanilsada (intervyu va reportajlarda), u muallif nutqi bilan aralashtirilmaydi.

O‘zbek tilida ommabop uslub morfologik va sintaktik xususiyatlari bilan ham boshqa uslublardan ajralib turadi. Morfologik xususiyatlaridan biri so‘z yasalishda ko‘zga tashlanadi. Bu uslubda so‘z yasalishi, asosan, ikki yo‘l bilan: a) rus tilidan qabul qilingan so‘zlar tarkibidagi qo‘shimchalar o‘zbek tilidagi qo‘shimchalar bilan almashtirilishi yoki moslashtirib olinishi (samosa + chi, separat + chi, monopoliya + chi, militarist + larcha, reygan + cha); ichki imkoniyat yordamida, ya’ni yangi so‘z yasalishi (davlat + xona, dil + dosh, paxta + chi, omilkor + lik) tufayli hosil bo‘lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Xalilova. O‘zbek tili stilistikasi asoslari//O‘quv qo‘llanma. –Farg‘ona, 2009, 104-b. 55-б.

2. Курбанов Т.И. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Автореф.дис...канд.филол.наук. –Самарканд, СамДУ нашриёти, 1987.

3. А.Шомақсудов, И.Расулов, Р.Қўнғуров, Х.Рустамов. Ўзбек тили стилистикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1983.

4. Суюн Каримов. Ўзбек тили функционал стилистикаси. Монография. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2010.

5. Абдусаидов А.А. Язык газеты и литервтурная норма: Автореф.дис...канд.филол.наук. – Ташкент, 1988.

6. Muzaffarovna, A. N., & Qizi, A. S. T. (2020). Characteristic features of word formation of a newspaper article in English and Uzbek languages. Проблемы современной науки и образования, (2 (147)), 41-43.

7. Hoshimova, N. A. (2020). Ingliz va o‘zbek tillarining funktsional uslublari. Молодой ученый, (19), 584-585.

8. MAMAJONOV, A., & Teshaboyev, D. (2018). Some thoughts about semantics of the complex sentencies. Scientific journal of the Fergana State University, 1(3), 76-78.

9. Mamajonov, A. (2022). ALLEGORIYA HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR. ALLEGORIK VOSITALAR DUNYO TILSHUNOSLARI TALQINIDA. YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY TARAQQIYOT VA INNOVASIYALAR, 124-126.

“O‘G‘RI” HIKOYASIDAGI AMALDORLAR NUTQIY XARAKTERISTKASI

Sevara Abdusalomova
Toshloq tumani 21-o‘rta maktabning
ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada A.Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasidagi qahramonlar-amaldorlarning nutqi orqali ularning ichki dunyosi,insonlarga munosabati chirkin illatlari ochib berilgani talqin etiladi.Amaldorlarning o‘ziga xos nutqiy xarakteristkasi ifodasi tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Personajlar nutqi, muallif nutqi, nutqiy xarakteristkasi, axborot, qahramonlar ruhiy holati

Badiiy adabiyot chin ma’noda so‘z san’atidir. Bu san’at turi “insonshunoslik[279]”deya atalishi ham bejis emas, albatta. Yaratilgan badiiy asarlar insonning u yoki bu hayotiy muammolari, u duch kelgan munosabatlar asosiga qurilgan bo‘ladi. Unda turli xil obrazlar,xarakterlar va munosabatlar o‘rtasida kurash beradi. Bu holat, asosan, ularning nutqida namoyon bo‘ladi.

Tabiiyki, har qanday nutqda bo‘lganidek, badiiy asardagi muallif nutqi, dastavval axborot xarakteriga egadir. Muallif nitqi xarakterning ishidan yoki uning boshqa xarakterlar bilan munosabatida o‘z ichki dunyosida nimalar bo‘layotganidan o‘quvchiga axborot beradi:[280]

-Kampir tong qorong‘isida xamir qilgani turib ho‘kizidan xabar oldi.O!...Ho‘kiz yo‘q, og‘il ko‘cha tomonidan teshilgan…Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin.

Shu bilan birga,muallif nutqi personajlarning hayotida ro‘y bergan,hatto ularning o‘zlari ham izhor etib berolmaydigan ruhiy holatlarini tasvirlaydi:

-Qobilbobo yalanbosh,yalangoyoq,yaktanchan og‘il eshigi oldida turib dag‘-dag‘ titraydi,tizzalari bukilib-bukilib ketadi,ko‘zlari javdiraydi,hammaga qaraydi,ammo hech kimni ko‘rmaydi…

Asarda tasvirlanayotgan kishilarning o‘zaro suhbatlari,yolg‘izlikdagi o‘ylari personaj nutqi sanaladi.Bu nutq jamiyatdagi xilma-xil tabaqa vakillarining obrazlarini yaratishga yordam beradi.[281]

[279]Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”
[280] Izzat Sulton.Adabiyot nazariyasi.”O`qituvchi”-Toshkent-1980
[281] Izzat Sulton.Adabiyot nazariyasi.”O`qituvchi”-Toshkent-1980

A.Qahhor hikoyalarida ,ko‘pincha, 2 xil tabaqa vakillari personaj sifatida tanlanadi.Jumladan,”O‘g‘ri”hikoyasi qahramonlari bir qancha amaldorlar.Yozuvchi bu xalq vakillarining manfaatgo‘y,molparast,o‘z foydasini ko‘zlab ish tutishdek qiyofalari,ularga xos illatlar ularning nutqi orqali yorqin ochib bergan.E’tibor bersak,hikoyadagi amaldor-ellikboshi asar boshida Qobilboboni sensirab,hikoya so‘ngida esa sizlab munosabat qiladi.Bu ellikboshining yoshi ulug‘ kishilarga qanchalar sovuq, past nazar bilan qarashi,doimo o‘z foydasini ko‘zlab ish ko‘rishi kabi razil qiyofasini namoyon etadi.

Asar qahramonlari xarakterining ularning kishilarga bo‘lgan muomalasi,odamlarga aytgan gaplari orqali ochib berilishi-nutqiy xarakteristikadir.Asar qahramonlarining gapi –ularning xarakteristikasi bo‘lib xizmat qiladi.[282]

Hikoya boshida:

-Ho‘kizing hech qayoqqa ketmaydi,topiladi.

Hikoya so‘ngida esa:

-Ey,yosh bolamisiz!Nega yig‘laysiz?Men qaynatamga aytayin sizga bitta ho‘kiz bersin.

Bu ikki nutqda ikki xil munosabat:boshiga kulfat tushgan kishining ustidan kulgandek,topiladi deya mavhum javob berib sensiragan holda munosabat egasi manfaat yo‘lida sizlashga o‘tadi,bu personaj haqiqiy ikkiyuzlamachilik illatini o‘zida mujassam etgan, desak o‘rinli bo‘lardi.”Kambag‘alni tuyani ustida ham it qopibdi”qabilidagi ellikboshining bu gapi ,aslida,o‘z manfaati yo‘lidagi “muloyim”nutqi edi.

Shuningdek,hikoyadagi amin,pristav kabi amaldorlar ham Qobil bobo boshiga tushgan ishdan unga yordam qolini cho‘zish o‘rniga o‘z foydalarini ko‘zlaydilar:

Amin og‘zini ochmasdan qattiq kekirdi,keyin bag‘baqasini osiltirib kuldi: “Ha, sigir yo‘qoldimi?...

-Yo‘qolmasdan oldin bormidi? Qanaqa ho‘kiz edi?

-O‘zi qaytib kelmasmikin!.. Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo‘yilmagan ekan-da !Nega yig‘lanadi?A? Yig‘lanmasin!”

Aminning bu gaplari kesatiq,kinoya birovning kulfati ustidan kulish kabi kabi yaramas illatlar o‘sha davr amaldorlarining ichki dunyosi xarakterini yaqqol ochib bergan.Ko‘rinadiki,aksariyat nutqlarida fe’llar majhul nisbat shaklida ifodalangan.Vaholanki, Qobil bobo mavhum shaxs emas,asarda qo‘yilgan muammoga duch kelgan aniq qahramon sifatida munosabat qilmaydilar.Aslida, majhul nisbat shakli bajaruvchisi noma’lum shaxsga nisbatan qo‘llanadi.Bu bilan Qobil boboning kulfati arimasligiga ishora qilingan hikoya davomida.

Adibning bu mahorati adabiyotda ijtimoiy muhitni o‘quvchi ko‘z oldida aniq tasavvur qilishga yordam beradi,qahramonlar holati,personajlar o‘rtasidagi munosabatni yorqin ifodasini tasvirlashda muhim rol o‘ynaydi.

[282] Adabiyotshunoslik terminlari lug’ati.H.Xomidiy va boshqalar.”O`qituvchi”nashriyoti –Toshkent-1967

Adabiy asarlar tahlilida shu va shu kabi tadqiq qilinishi zarur bo‘lgan jihatlar talaygina.Bu esa bugungi kun tadqiqotchisidan mana shu tomonlarga alohida e’tibor qaratishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.Sulton.Adabiyot nazariyasi.”O‘qituvchi”-Toshkent-1980

2. Q.Yo‘ldoshev va boshqalar Adabiyot Umimiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinf uchun darslik-majmua”Sharq”nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Toshkent-2015

3.Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati.H.Xomidiy va boshqalar. ”O‘qituvchi”nashriyoti –Toshkent-1967

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDA ANTITEZA

Yulduz Soatovna Soatova
Surxondaryo viloyati Termiz tumani
29-umumta’lim maktabi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur “Devoni” tarkibiga kiruvchi lirik asarlarida antonim so‘zlar , leksik-semantik birliklar, tasdiq inkor so‘zlar, qo‘shma gaplar orqali yuzga kelgan antiteza hodisasi tahlilga tortilgan

Abstract. In this article, the phenomenon of antithesis that occurs through antonyms, lexical-semantic units, affirmative-negative words, and conjunctions in the lyrical works of Zahiriddin Muhammad Babur, which are part of “Devon”is analyzed.

Kalit so‘zlar: antonim, antisemiya,tasdiq va inkor formali sozlar, qo‘shma gaplar, shart-payt, qiyoslash-zidlash.

Key words: antonym, antisemy, affirmative and negative words, conjunctions, conditional, comparison.

Ma’lumki, badiiy adabiyotning ish quroli so‘zdir. Ya’ni har qanday fikrning ifodasida lingvistik vositalar yordamga keladi. Mumtoz asarlarimizning o‘z davri va bugungi kundagi zalvorini, albatta, mohir ijodkorlarning lingvitik vositlardan umumli foydalangani bilan baholash mumkin. Xususan, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi ham buni yaqqol isboti bo‘la oladi. Ijodkorning badiiy maqsadini ro‘yobga chiqarishda antiteza hodisasi ham yetakchi badiiy tasvir vositasi bo‘la olgan.

Antitezaga A.Hojiyev quyidagicha ta’rif beradi: “Antiteza – (yun. antithesis – qarama-qarshi qo‘yish) qiyoslanuvchi fikr, tushuncha kabilarni qarama-qarshi qo‘yishdan iborat uslubiy qo‘llanishdir”[283]. O‘zbek tilshunosligida antiteza hodisasi G.Keldiyorova[284], M.Yo‘ldoshev[285], A.Mamajonov[286], S.Karimov[287] tomonidan tadqiq etilgan. Antiteza hodisasini yuzaga chiqaruvchi vositalar: **antonimlar, antisemiya, tasdiq va inkor formali so‘zlar, qo‘shma gaplarning**

[283] A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati. – Toshkent. 16-b.
[284] Келдиёрова.Г.С. Ўзбек бадиий нутқида антитеза:Филол.Фан.Номз….дис. – Тошкент, 2000.
[285] Йўлдошев.М.М.Чўлпоннинг бадиий маҳорати:Филол.фан.номз.автореф. – Тошкент, 2009.
[286] Мамажонов.А. Қўшма гапларда антитеза// ўзбек тили ва адабиёти, 1990.
[287] Каримов.С. Ўзбек тилининг бадиий услуби:Филол.фан.д-ри…дис. – Самарқанд, 1993.

har uchala turlaridir. Matnda ikki qarama-qarshi tushunchani qo‘llash orqali fikrni ifodadliligi, emotsional-ekspressivligi, ta’sirchaniligi orttiriladi.

Qarama-qarshi ma’noli leksemalarni yonma-yon qo‘llash natijasida belgilar, holatlar, obrazlar, tushunchalar, harakatlar zidlantiriladi. Matniy antonimlar badiiy matnda aktuallashib, tasvirning ta’sirchanligini oshiradi. Antonimlarni har ikkala turi lug‘aviy va muayyan matn qurshovida qarama-qarshi ma’nolarni keltirib chiqaruvchi (nutqiy) antonimlar orqali ham yuzga keladi.

G.Keldiyorova antitezani yuzaga keltiruvchi barcha qarama-qarshi so‘zlarni antonim deb hisoblaydi va lug‘aviy va kontekstual antonimlar orqali yuzaga kelgan antitezalarni sof va matniy antiteza hisoblab, boshqa vositalar orqali yuzga keluvchi hodisalarni e’tibordan chetda qoldirgan[288].

D.A.Abdullayeva[289] ishlarida G.L.Keldiyorovaning fikrlaridan farqli ravishda antitezani yuzaga chiqaruvchi vositalardan biri antisemiyani tilga oladi va antisemiyaning ikki xil turkum doirasida yuzaga keluvchi qarama-qarshilik ekanligi ko‘rishimi mumkin.

Gohida sevinib, gohi g‘amdadir,

Ish uzra yozardim men erkin qanot. (A.Oripov)

Bobur ijodida go‘zallik tasviri uchun qo‘llangan so‘zlarni tahlil qilish jarayonida shunga guvoh bo‘ldikki, oshiq va mashuq uchun qilingan tashbehlar ham bir-biriga o‘zaro zid doirada bo‘ladi va bu qarama-qarshilik antiteza hodisasining yuzaga keltiruvchi asosiy hodisadir.

Antiteza hosil qiluvchi vositalardan biri bo‘lgan atonimlarni faqat bir turkum doirasida hosil qilgan so‘zlar o‘rtasidagina hosil qila oladi degan xulosaga keldik. Turkumlari boshqa-boshqa bo‘lgan so‘zlar o‘rtasida kelib chiqqan qarama-qarshilikni biz antisemiya orqali yuzaga kelgan antiteza hodisasi deb hisobladik.

Bobur she’rlarida antitezani yuzga kelturuvchi vositalarni tahlilga tortdik:

1. Antonim so‘zlar:

a) to‘liq antonimlar:

*Yarar bu xasta ko‘ngul **dardig‘a** o‘qin yarasi,*

*Magarki har yarasi yorning **davoedur**.* (“Baloi ishqki, har dam manga jafoedur” g‘azali)

To‘liq antonimlar juftligi juda ko‘p uchragan: *dard-davo, raqib-rafiq, yoruq qorong‘u ,yoshurmoq-olam ahli bilmoq, zahr-darmon,zavoli-bezavol, hajr-vasl, mehr-u vafo-javr-u jafo, begona-oshno, firoq-vasl ,eshigingda bosh urmoq-ketmoq, qotil jonbaxsh, yoq turur-bordur,zor-bezor, ko‘rmagay-ko‘rinur, mushkil-oson, rost yolg‘on, g‘animat-boqiy, osondur-mushkuldur/dushvordur, ruh topmoq-jon bermak, yopqon-ochqon, visol/vasl--firoq/hajr, gado-shah, ittiqfoq-nifoq, davron-g‘ussa.* Antitezani yuzga keltiruvchi bu kabi to‘liq antonimlar oshiq va ma’shuqaning holati va xarakteri, oshiqqa bo‘lgan munosabatidan o‘rtasidagi ziddiyatdan kelib chiqqan.

b) nutqiy antonimlar:

[288] Келдиёрова.Г.С. Ўзбек бадиий нутқида антитеза:Филол.Фан.Номз….дис. – Тошкент, 2000.
[289] Абдуллаева. Д.Д. Ўзбек тилида антисемия. Филол.фан.дис – Тошкент, 2010. – 110 б.

ochuldi, o‘ldi, dard-u g‘am-ishtiyoq, banda-shoh, sarv-xas, xazon-gul.

2. Antisemiya: Antitezali qo‘shma gaplarning ba’zi turlari matn talabi bilan ma’nosi biri-biriga zid bo‘ladigan, har xil so‘z turkumiga mansub so‘zlardan hosil bo‘ladi: *har qachon-gohi,uyqu-bedor etmadim/uyg‘otmoq*

*Agarchi dahr alamidin **to‘kuldi** seli sirishkim,*

*Valek shah karamidin umidim asru **to‘lodur.*** (“Chu dod berdi manga shoh …” g‘azali)

Sifat va fe’l o‘rtasida antisemiya: *to‘kuldi, to‘lodur.*

*Oshiqi **men**, ul qilur **ag‘yorg‘a** maxbubluq,*

*Dardmandi **men**, vale ul **o‘zgaga** darmon berur.* (“Mendin o‘zga xastalarg‘a…” g‘azali)

Olmosh va ot; *olmosh,sifat: men,ag‘yor; men,o‘zga.*

3. Tasdiq va inkor formali so‘zlar. Antitezali gaplarda tasdiq va inkor formali so‘zlar antiteza matireali bo‘lib kelishi mumkin:

*Jahonda har kishiga **bor** murode,*

*Mening **yo‘qtur** murodim sendin ayru.* (“Bayaknogah ko‘zumga uchrab o‘tru” g‘azali)

“Antiteza hodisasi qo‘shma gaplarning har uch turi orqali yuzga kelishi mumkin. Antiteza usuli yordamida qo‘shma gaplarning murakkablashgan turlari hosil qilinganda, sintaktik qurilma qismlarining har biri qo‘shma gapning biror turidan iborat bo‘lib, ular orqali ifodalangan fikrlar o‘zaro qiyoslanadi va farqi ochiladi. Antiteza usuli qo‘shma gaplarning shart-payt, qiyoslash-zidlash munosabatini ifodalovchi turlarini hosil qilishda yetakchi usul hisoblanadi. Shuning uchun ham antitezaning qo‘shma gap tuzishda ishtirik etuvchi sintaktik-stilistik figuralardan biri sifatida izohlanishi maqsadga muvofiqdir.

Antitezali qo‘shma gaplar nutq uslublaridan asosan ikkitasida: so‘zlashuv va badiiy uslublarda keng qo‘llaniladi. Antiteza usuli kitobxonga nutqda qarama-qarshi qo‘yilgan voqea-hodisa, predmetlar o‘rtasidagi aloqani konkret izlashga yordam beradi. Alohida olinganda bir-biriga zid bo‘lmagan predmetlar, tushunchalar badiiy asarda kontekst talabi bilan o‘zaro qarama-qarshi qo‘yilishi mumkin”[290]. Zahririddin Muhammad Bobur qo‘shma gaplar vositasida antitezani hosil qilgan:

1. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar:

Yangi oy yor yuzi birla ko‘rub el shodu xurramlar,

Manga yuzu qoshingdin ayru bayram oyida g‘amlar. (“Yangi oy yor yuzi…”)

2. Bog‘langan qo‘shma gaplar:

Ko‘nglumki, erur quyosh kibi yuzungo,

Yil o‘tdi-yu, kelmadi bu sori ul moh

Til birla ko‘ngul ishq aro bir qildimu bas,

Yor og‘ritti g‘amin ko‘ngulni ammo. (Ruboiy)

3. Ergash gapli qo‘shma gap:

[290] To‘ychiyeva Z. Zulfiya she’rlarida sintaktik-stilistik vositalarning qo‘llanilishi. Filologiyaning dolzarb masalalar. – Qo‘qon, 2023 – B. 238-239.

Ey ko‘ngul, yuz pora qilsa yor tig‘i, g‘am yema,
Lutf etib, gar bog‘lar o‘lsa yog‘lig‘ini yor anga. (“Yog‘lig‘ingkim…” g‘azali)

Antiteza hodisasi tushunchalar o‘rtasidagi quyidagi munosabatlar orqali yuzaga chiqadi:

1. Shaxs sifati:

Ey ko‘ngul, gar g‘ayr so‘zi zahri qotildur, ne g‘am,
Lablaridin sharbati yuhyil-izoming borida. (“Ne ko‘ray to‘boni…” g‘azali)

2. Predmet belgisi:

Bir chamandur saxnikim, bo‘lg‘ay binafsha sarbasar,
Tegrasi gulzordurkim, bo‘lmag‘ay bir xor anga. (“Yog‘lig‘ingkim…” g‘azali)

3. Shaxs yoki predmet harakat-holati:

Sarv qadding borida o‘z qaddini chun qildi vasf,
O‘tqa yoqti bog‘bon sarvi sixisin sindurub. (“Eshikingga bosh urarmen…” g‘azali)

Tahlillar orqali antiteza uslubiy vosita sifatida Boburning lirik asarlarida juda ko‘p qo‘llanilishiga guvoh bo‘ldik. Antisemiylar,antonimlar leksik-semantik birliklar, qarama-qarshi predikativ birliklar antitezani yuzaga chiqaruvchi birliklardir. Har xil turkum doirasiga mansub zidlik yuzaga chiqaruvchi so‘zlarni antisemiya orqali yuzaga kelgan antiteza deb hisobladik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. –Toshkent,1985 – B.16
2. To‘ychiyeva Z. Zulfiya she’rlarida sintaktik-stilistik vositalarning qo‘llanilishi. // Filologiyaning dolzarb masalalar. – Qo‘qon, 2023 – B. 238-239
3. Абдуллаева Д.Д. Ўзбек тилида антисемия. Филол.фан.дис – Тошкент, 2010 – Б.110
4. Йўлдошев. М.Чўлпоннинг бадиий маҳорати: Филол.фан.номз.автореф. – Тошкент, 2009 – Б.45
5. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби:Филол.фан.д-ри…дис. – Самарқанд, 1993 – Б.63
6. Келдиёрова. Г.С Ўзбек бадиий нутқида антитеза: Филол.фан.номз ….дис. – Тошкент, 2000 – Б.33
7. Мамажонов А. Қўшма гапларда антитеза// ўзбек тили ва адабиёти, 1990 – Б.55

О ПРИЧИНАХ СОЗДАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДИК В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ

Мирзаюнусова З.И
Преподаватель кафедры узбекской и русской филологии
Кокандский государственный педагогический институт

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы перехода к новым методам обучения в современной школе. Рассматривается парадигма обучения учеников-инофонов русскому языку. Предлагаются практические

задания, направленные для повышения коммуникативной компетенции учеников.

Ключевые слова: инновации, мотивация, задача, современные программы, грамотная речь.

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zga tilli bolalarga rus tili o‘qitishning sifatini yaxshilash masalalari ko‘rib chiqilgan. O‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini shfkllantirishga xizmat qiladigan amaliy usullar tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: innovatsiyalar, motivatsiya, vazifalar, zamonaviy dasturlar,chiroyli nutq.

Модернизация образования в Узбекистане предполагает воспитание личности, стремящейся к максимальной реализации своих возможностей, открытой для восприятия нового опыта, способной на осознанный и ответственный выбор в жизненных различных ситуациях. Необходимо прежде всего научить школьника решать языковыми средствами те или иные коммуникативные задачи в разных сферах и ситуациях общения, то есть сформировать у него коммуникативную компетенцию. Сегодня идет поиск парадигмы обучения, соответствующий новым условиям в изменяющемся мире. Речь идет об инновациях.

Необходимость в создании инновационных методик развития речи на уроках русского языка в средней школе определяется следующими причинами.

1. Существующая методика не направлена на формирование коммуникативной потребности у учащихся, мотивации к овладению и пользованию разнообразными речевыми средствами.

2. Используемая в настоящее время методика направлена на ознакомление учеников с разнообразными средствами речи (типами, стилями речи и пр.), но не на практическое овладение ими: немотивированность детей, небольшое количество учебных часов, отводимых на развитие речи, недостаточный тренинг умений и навыков приводят к тому, что учащиеся обычно знают о возможностях речи, но не умеют ими пользоваться.

3. Работа по развитию речи отделена от других видов учебной работы на уроках русского языка, среди которых преобладают тренинги, направленные на выработку орфографических и пунктуационных навыков, а также изучение научной лингвистики, и именно такая работа воспринимается как учителями, так и учениками как основная; соответственно, развитие речи понимается как второстепенная задача.

4. Уроки развития речи не направлены на развитие умения мыслить с помощью языка, фактически существующая методика понимает речь не как высшую психическую функцию, не как творческую деятельность, а как чисто технический навык.

5. Развитие речи в существующей методике понимается как развитие только письменной речи, хотя в жизни все мы пользуемся, главным образом, устной речью.

6. Речь изначально диалогична, возникает в диалоге, в общении двух людей, а уже затем человек приобретает способность к монологической речи, – однако используемая сейчас методика стремится развивать только монологическую речь, искусственно игнорируя то, что речевая деятельность включает в себя умение слушать и слышать собеседника, которое также необходимо развивать.

На сегодняшний день учителя-практики ощущают неудовлетворительность состояния преподавания русского языка в школе. Причины этого видятся в преимущественном внимании к языку в ущерб речи, слабой связи учебных занятий с реальной речевой ситуацией, речевым опытом школьников, преобладании задач на опознание языковых фактов и их разбор над задачами порождения текстов и языковых наблюдений.

Современные программы обучения стремятся преодолеть эти недостатки, смягчить их губительность для языкового сознания учащихся.

В соответствии с этим внедряемые в последнее время методики включают следующие виды работ на уроках по развитию коммуникативных умений:

1. Работа со зрительной опорой. Как правило, в качестве зрительной опоры используются картины, фотографии и т.п. Изображения должны быть тематически разнообразны, включать самые разные – наиболее распространенные в жизни – темы и сюжеты.

Предлагаемые виды работ:

А. Устный диалог, в котором каждый участвующий играет роль одного из персонажей картинки. При этом работа может оцениваться в соответствии со следующими критериями: сумел ли ученик индивидуализировать речь героя, показать речевыми средствами его характер; являются ли его реплики психологически достоверными: может ли человек так мыслить и говорить в подобной ситуации; насколько хорошо ученик слышит реплики своих визави, являются ли его реплики действительно ответами на то, что он слышит, или они содержательно не связаны с услышанным; насколько интересно, ярко, остроумно, лаконично он говорит; насколько разнообразную лексику использует; литературную, грамотную речь.

Б. Устный рассказ. Это монологическая работа, поэтому она должна следовать за устным диалогом: кто-то из детей рассказывает (но не читает), остальные слушают его рассказ.

Первый этап, выделенный в работе с устным диалогом (совместное рассматривание), исключается: каждый сам придумывает свой рассказ, рассматривая рисунки самостоятельно. Третий этап здесь тот же, что и в работе с устным диалогом.

2. Творческие работы (сочинения) на основе личных впечатлений.

Ученик не должен писать и говорить о том, чего он не пережил лично, что не стало фактом его жизни, что он не пропустил через свою душу. Когда у

ребенка есть личные впечатления, личные переживания, ему всегда есть что сказать. Личные впечатления могут быть разными:

1. Музыкальные впечатления. Дети прослушивают в классе небольшой музыкальный фрагмент, например, из произведения «Зима» А.Вивальди, «Времена года» П.И. Чайковского, а затем пишут сочинение или устно высказываются на тему: «Какое состояние природы я представил себе, слушая музыку?».

2. Читательские впечатления. Это можно делать только по произведению, которое прочитано в классе и большинству детей понравилось. Читаются произведения на уроках литературы, но работа по развитию речи может происходить и на уроке литературы, и на уроке русского языка.

3. Жизненные впечатления. Например, темой устного или письменного сочинения может быть: «Моя дорога в школу», «В школе» и т.п.

4. Фантазийные впечатления. Дети любят мечтать, и их мечты также могут стать темой устных и письменных рассказов.

Очень важным принципом этого вида работы является внимание и интерес к внутреннему миру каждого ребенка. Учитель стремится создать такую обстановку в классе, когда все, что связано с индивидуальностью каждого ребенка, его отличием от других, воспринимается положительно и с интересом.

4. Устные дискуссии. Основная цель этого вида работы – научить слушать и слышать, формулировать свои мысли и аргументировать их. Темы дискуссий должны быть интересны и в то же время хорошо знакомы детям, это может быть, например, то художественное произведение, которое они вместе читали, или какое-то волнующее их событие.

5. Устная и (или) письменная газета. Дети делают сообщения о том, что происходит в школе, в классе, в городе, где они живут. Сообщение должно быть в определенном стиле, точным, информативным, интересным. Основная задача – выбрать интересный материал и грамотно его оформить.

6. Языковые игры. Можно использовать как всем известные «На одну букву», «Одним словом», «Поле чудес…», так и игры, придуманные методистами. Их использование позволяет сделать уроки живыми, веселыми, отдохнуть от тяжелых для детей видов работы.

7. Лингвистическая работа с опорой (опорным сигналом или опорным конспектом). Опорный конспект (например, «Имя числительное») вывешивается перед классом или рисуется на доске, затем учитель читает его, на следующем уроке читают желающие дети, затем все остальные. Класс задает вопросы, делает замечания, предлагает примеры и просит их объяснить, затем оценивает ответы (непосредственно после каждого ответа).

В данном случае от ребенка требуется не импровизация, а точность, ясность речи, в том числе умение правильно употреблять термины, объяснять

их, формулировать абстрактные положения, подкрепляя их конкретными примерами.

8. Доклады и сообщения. Это обычная форма работы в школе, однако ее, как правило, не рассматривают как работу по развитию речи. Если ученик может готовить какие-то доклады и сообщения на любом уроке, то учитель-филолог обязан научить ребенка готовить и оформлять сообщение, то есть отделять главное от второстепенного, абстрактное от конкретного, структурировать, строить сообщение так, чтобы заинтересовать слушателей.

9. Пересказ художественного текста от имени героя.

10. Издание литературно-публицистического альманаха.

Все эти виды работ могут использоваться на каждом уроке русского языка наряду с обычным тренингом орфографических и пунктуационных навыков и лингвистической работой, однако развитие речи не должно восприниматься детьми только как довесок к обычной работе и не должно отделяться от других видов учебной работы [Ладыженская, 2004].

То, что в существующей методике понимается как главное содержание уроков развития речи: накопление словарного запаса, умение структурировать речь (строить свое высказывание в соответствии с планом и пр.) – современной методикой не отрицается и не исключается, но входит в большинство видов работы. Не следует учить детей составлять план текста, пока они сами не поняли, зачем это нужно и какие дает преимущества в реальных коммуникативных ситуациях. Накопление словарного запаса может осуществляться теми же средствами (ведение словарей), какие используются обычно, но начинать использовать их можно только тогда, когда дети уже сами хотят узнать как можно больше слов и сами стремятся записывать их – в этот момент учитель должен научить детей вести словари; но ситуация, когда учащиеся ведут словари лишь потому, что это посоветовал им сделать учитель, не допустимо.

Таким образом, несомненное достоинство таких программ в коммуникативной направленности, ориентированном в обучении при помощи текста, в интенсивности и последовательности использования языка современной семантики, таких понятий, как субъект, объект и другие участники события, авторизация, оценка и подобное, вполне доступных ученикам и помогающим им в работе над анализом и созданием текстов.

ЛИТЕРАТУРА:

1.Ладыженская, Т.А. Методика развития речи на уроках русского языка. – М., 1991. – 166 с.

2.Ладыженская, Т.А. Модернизация образования и риторики // Русская словесность. – 2005. - №3. – С. 12 – 15.

3.Ладыженская, Т.А., Ладыженская, Н.В. Риторика и обновление школьного образования // Педагогика. – 2003. - №2. – С. 5-8.

4. Abdumazhidova, F., Abdurazzakova, G., Zafarova, M., & Mirzayunusova, Z. (2023, December). APPLICATION OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL

TECHNOLOGIES IN MODERN CONDITIONS. In *Международная конференция академических наук* (Vol. 2, No. 12, pp. 103-107).

SAN’AT SOHASI TALABALARINING NUTQIY KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA IDIOMLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Sadikova Mukaddam Islamovna,
O‘zDSMI katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Idiomalar bizga asosiy muloqot doirasidan tashqaridagi til haqida tushuncha beradi: ular madaniyat va tarixni birlashtiradi va ko‘pincha ma’lum bir jamiyat uchun kod hikmatli so‘z sifatida qo‘llaniladi. Idiomatik iboralarni o‘rganish til o‘rganuvchilarga tilni chuqur tushunish sharoitini yaratadi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini oshirish uchun idiomalardan foydalanishning ahamiati haqida tushuncha beriladi. Idiomalarni o‘rganish va ulardan foydalanish orqali talabalar o‘zlarining kommunikativ qobiliyatlarini oshirishlari va yaxshilashlari yaxshigina imkon beradi.

Kalit so‘zlar: idiomalar, ma’no, kommunikativ, qobiliyat, suhbat, integratsiya, o‘quv jarayoni, tushuncha, amaliyot.

Abstract. Idioms offer us an insight into language that goes beyond basic communication: they combine culture and history and create words that often work as a type of code or understanding for those that exist within a certain community. Learning idiomatic expressions gives language learners a nuanced understanding of the language. This article has as main purpose to share the importance of the usage of idioms in order to improve students’ communicative skill. By learning and using idioms the learners are able to increase and improve their com–municative skill.

Key words: idioms, meaning, communicative skill, conversation, integration, learning process, concept, pracrice.

Аннотация. Идиомы предлагают нам понимание языка, выходящее за рамки базового общения: они объединяют культуру и историю и создают слова, которые часто работают как своего рода код или понимание для тех, кто существует в определенном сообществе. Изучение идиоматических выражений дает изучающим язык тонкое понимание языка, и часто в нем есть больше, чем то, что кажется на первый взгляд. Основная цель этой статьи – рассказать о важности использования идиом для улучшения коммуникативных навыков сстудентов. Изучая и используя идиомы, студенты могут повысить и улучшить свои коммуникативные навыки.

Ключевые слова: идиомы, значение, коммуникативные навыки, разговор, интеграция, процесс обучения, концепция, практика.

Kundalik hayotimizda biz suhbatlarimiz davomida tez-tez ishlatadigan turli xil iboralarga duch kelamiz. Bu iboralar va idiomalar suhbatimizni yanada qiziqarli qiladi. San’at haqidagi turli iboralar va idiomalar o‘quvchilarga o‘zlarini namoyon etishning turli usullarini ko‘rsatadi va ularni ravon ingliz tilida

so‘zlashuvchilarga yordam beradi. Idiomalar va iboralar dastlab murakkab bo‘lib tuyulishi mumkin, ammo ularni o‘rganish ancha yoqimli bo‘lishi mumkin. Til o‘rganuvchilar ularni ko‘pincha og‘zaki yoki yozma suhbatlarda uchratadi. Idiomalar va iboralar har kimga suhbatlashish qobiliyatini yaxshilashga yordam beradi. To‘g‘ri foydalanish mintaqaviy ma’ruzachilar va tinglovchilarga idiomalar yoki iboralar ortidagi ijtimoiy ma’no tushunishlarini ta`minlaydi. Idiomalardan foydalanish yoki hech bo‘lmaganda iboralarni san’at orqali tushunish odamlarga ingliz tilida so‘zlash vaqtida ularni qanchalik ko‘p mashq qilishlari bilan suhbatlashish qobiliyatini yanada qulay va ishonchli namoyish qilishlariga yordam beradi. Ingliz tilini o‘qitish va o‘rganish jarayonida idiomalarning integratsiyasi juda muhim, ayniqsa mashg‘ulot vaqtida idio-malarni kiritishning samarali usullarini amalga oshiriladi. Dars paytidagi va tashqaridagi idiomalar o‘qituvchilar va talabalarga innovatsion muloqot muhitini targ‘ib qilishda yordam beradi. Biroq, ta’lim berish hamda tahsil olish jarayonida idiomalarning integratsiyalashuvi ba’zi talabalar yoki o‘qituvchilar uchun qiyin yoki samarasiz bo‘lishi mumkin, chunki bu ta’lim maqsadlarini amalga oshirish uchun tegishli grammatik kategoriyalar kabi zarur emasdek tuyuladi.

Bundan tashqari, o‘qituvchilar nuqtai nazaridan, idiomalarga asoslangan turli xil mashqlar talablarni qondirishi va talabalarning o‘quv jarayonini oy-dinlashtirishga yordam beradi. Faoliyat turlari va ularning to‘g‘ri tuzilganligi, ayniqsa, auditoriya va undan tashqarida idiomalardan muvaffaqiyatli foy-dalanishga, o‘quvchilarning nutqini boyitishga yordam beradigan eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Idiomalardan foydalanish chet tilini o‘rganish jarayoniga katta ta’sir ko‘rsatadi, chunki bu talabalarning kundalik darsda kommunikativ ko‘nikmalarini yaxshilash uchun sharoit yaratishi mumkin. Bulardan tashqari, ingliz tilida so‘zlashuvchilar uchun kundalik nutqda idiomalarning umumiy qo‘llanilishi talabalarning raqobatbardosh bo‘lishiga, so‘z boyligini oshirishga va nutqning norasmiy usuliga yordam beradi.S infda va undan tashqarida ushbu vositadan foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi. Ingliz tili ayniqsa idiomalarga boy tildir - bu tilga (yoki dialektga) xos bo‘lgan ifodalash usullari ko‘pincha mantiqiy va grammatik qoidalarga zid keladi. Idiomalarsiz ingliz tili nutqda ham, yozishda ham o‘zining xilma-xilligi va qiziqarligini yo‘qotadi. Aksariyat idiomalarning xususiyati va etimologik kelib chiqishi tushunarsiz.

Ammo bu etimologiya va tarixi ma’lum bo‘lgan holatlarni yanada qiziqarli qiladi. “Dunyo bo‘ylab ingliz tili" ning ba’zi idiomalari birinchi marta Shekspir, Valter Skott, Lyuis Kerroll kabi yozuvchilarning asarlarida yoki hatto zamonaviy romanchilarning qog‘oz muqovasida ko‘rilgan. Shekspir iqtibosiga misolni quyidagi jumladan topish mumkin: "Ijtimoiy ishchi sifatida siz hayotning nozik tomonlarini ko‘rasiz,”. San’at atamalari, texnik atamalar, yuridik atamalar, harbiy jaranglar va hatto dengiz iboralari ingliz tilidan kundalik foydalanishga yo‘l topdi. Yuqoridagi gaplarga asoslanib, o‘z ona tilida so‘zlashuvchilar doimo idiomalardan foydalanishini bilish juda muhimdir.

Talabalar, agar o‘rganayotgan idiomalarni tushuna olmasalar, ko‘pincha xijolat va umidsizlikka tushishadi. Idiomalarni yaxshi bilish talabalarga yaxshi ma’ruzachi bo‘lishga yordam beradi. Idiomalarning ko‘pligi va ularning nutqda ko‘p qo‘llanilish ularni lug‘atning muhim jihatiga aylantiradi.

Og‘zaki va yozma nutqda idiomatik iboralar tez-tez uchrab turadiganligi sababli, bu masala til dasturlarida talabalarning kommunikativ mahoratini oshirishga yordam berishdan tashqari tilga alohida e’tibor berishni talab qiladi. Ingliz tili kursida bir nechta komponentlar mavjud: grammatika, mutolaa qilish, gapirish, tinglash va idiomalardan foydalanish orqali yozish. Kursning boshida talabalar ingliz tilini chet tili sifatida o‘rganish jarayonida idiomalarni qanday tushunish va to‘g‘ri ishlatishni bilmasligi mumkin. Bundan tashqari, ba’zan ular idiomalarning ahamiyati va afzalliklarini bilishmaydi. Talabalar muayyan idiomalardan foydalanishni bilmay turib, ularning ahamiyatni bilishmaydi. Shunday qilib, ingliz tili o‘qituvchisi talabalarni raqobatbardosh bo‘lishiga olib borishi kerak. Ko‘pincha talabalar o‘quv dasturida idiomalarni o‘rganish imkoniga ega emaslar, ikkinchisi esa, agar ular chet elga sayohat qilgan bo‘lsa, ba’zi idiomalar bo‘yicha bilimga ega bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, talabalar idiomalarga noto‘g‘ri ma’no berishlari mumkin. Ushbu vaziyatni hal qilish uchun talabalarga ingliz tilidagi idiomalarni o‘rganish va kundalik nutqlarida qo‘llash va kommunikativ qobiliyatlarini oshirishga yordam beradigan ba’zi tadbirlarni ishlab chiqilishi kerak.

Dars jarayoni kommunikativ ko‘nikmalarni oshirish uchun talabalarni dialog va kundalik suhbatlarda muayyan idiomalardan foydalanishga yo‘naltirishga asoslangan bo‘lishi kerak. Shu sababli quyidagi tushunchalarni hisobga olish zarur. Idiomaning ta’rifi, uning tuzilishi, kommunikativ mahorati.

Idiomalar haqida turli xil ta’riflar mavjud. Keling, ulardan ba’zilarini tahlil qilaylik. Flowlerning so‘zlariga ko‘ra, idioma - bu so‘zlar birgalikda alohida so‘zlarning lug‘at ta’riflaridan farq qiladigan ma’noga ega bo‘lgan iboradir, bu ESL (ingliz tili ikkinchi til sifatida) talabalari va o‘quvchilari uchun idiomalarni tushunishni qiyinlashtirishi mumkin. Idioma - bu alohida so‘zlarning o‘z ma’nolaridan farq qiladigan ma’noga ega bo‘lgan so‘zlarning birikmasidir. U bir vaziyatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri, boshqa holatda esa boshqa idiomatik ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Bu har doim ham oddiy ma’no va grammatik qoidalariga rioya qilmaydigan iboradir. Misol uchun, “Devorda o‘tirish” to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘siqda o‘tirganini anglatishi mumkin “Men panjara ustida o‘tirdim va o‘yinni tomosha qildim”. Biroq, “panjarada o‘tirish” so‘zining idiomatik ma’nosi shundaki, odam biron bir masala bo‘yicha aniq tanlov qilmayapti. Siyosatchi panjara ustida o‘tirdi va soliq masalasi bo‘yicha o‘z fikrini bildirmadi.

Ko‘pgina idiomalar boshqa tillardagi iboralarga o‘xshaydi va talaba uchun oson tushunilishi mumkin. Boshqa idiomalar vaqt o‘tishi bilan o‘zgargan qadimgi iboralardan kelib chiqqan. Masalan, “Otlarini ushlab turish” kimnidir yoki biror narsani sabr bilan kutishni anglatadi. Bu odamlar otga minib, kimnidir yoki nimanidir kutayotganda otlarini ushlab turishlari kerak bo‘lgan davrdan kelib

chiqadi: “Otlaringizni ushlab turing”, dedim do‘stim do‘kondan chiqa boshlaganida. Boshqa idiomalar Buyuk Britaniya yoki Qo‘shma Shtatlarda keng tarqalgan sport kabilardan kelib chiqqan va ularni osongina tushunish uchun ba’zi maxsus madaniy bilimlarni talab qilishi mumkin.

“O‘zining barcha asoslarini qamrab olish” vaziyatga puxta tayyorgarlik ko‘rish yoki uni hal qilishni anglatadi. Bu Amerika beysbol o‘yinidan kelib chiqadi, bu erda bazalarni qoplash yoki himoya qilish kerak. Ish suhbatiga borganimda barcha asoslarimni qamrab olishga harakat qildim. Aksariyat idiomalar o‘zining grammatik tuzilishiga ko‘ra o‘ziga xos va qat’iydir. Devorga o‘tirish iborasi to‘siqda o‘tirish yoki panjara ustida o‘tirishga aylanmaydi. Biroq, idiomaga ko‘p o‘zgartirishlar kiritish mumkin. Ushbu o‘zgarishlarning ba’zilari grammatik tuzilmaning o‘zgarishiga olib keladi, bu odatda noto‘g‘ri deb hisoblanadi.

“Buzilgan bo‘lish” tom ma’noda biror narsa buzilganligini anglatadi. Chiroq singan, shuning uchun kitobimni osongina o‘qiy olmayman. “Buzilgan” so‘zi grammatik jihatdan noto‘g‘ri, lekin u pul yo‘q degan idiomatik ma’noga ega. “Men singanman va bugun kechqurun kinoga borolmayman”. Ot, olmosh yoki fe’l zamonlarida ham o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Men panjara ustiga o‘tirdim va o‘z fikrimni bildirmadim. Ko‘p odamlar panjara ustida o‘tirib, o‘z fikrini bildirishni xohlamaydilar.

Idiomatik iboraga sifatdosh va qo‘shimchalar ham qo‘shilishi mumkin. Siyosatchi saylovdan beri panjara o‘rtasida to‘g‘rilab o‘tiribdi. Aynan shu sabablarga ko‘ra, ba’zan haqiqiy idiomatik iborani ajratib olish va keyin uni idiomalar lug‘atidan topish qiyin. Umid qilamizki, ushbu badiiy iboralar va iboralar sizga turli xil san’at ifodalarini o‘rganishga yordam beradi. Bu badiiy idiomalar nafaqat san’at bilan bog‘liq vaziyatlarga, balki umumiy hayot bilan bog‘liq vaziyatlarga ham tegishli. San’at haqidagi iboralar va idiomalardan foydalanish talabalarning suhbatini yanada qiziqarli va jozibali qilishda sizga yordam beradi. O‘qituvchilar va talabalar uchun idiomalar bilan mos muhitda shug‘ullanish kerak, bu erda idioma ta’rifi yoki o‘qitish metodikasi kabi masalalar hal qilinadi. Shunday qilib, ingliz tilini o‘qitish jarayoni, shuningdek, talabalar va o‘qituvchilar kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish bilan bog‘liq afzalliklarga ega bo‘ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Flowler, H. Dictionary of Modern English Usage. (without source). Gillett, A. 2004.
2. The Idiom book 1010 idioms. (without source). Nunan, D. 2003 http://www.usingenglish.com/reference/idioms.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA REFLEKSIV QOBILIYAT - KASBIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSI

Bomurodova Gulhayo Jumayevna
Nizomiy nomidagi TDPU o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada refleksiv qobiliyatlarning ta’lim sohasida, xususan o‘qituvchilarning professional rivojlanishidagi ahamiyati yoritib berilgan. Refleksiv qobiliyatlar muammolarni chuqur tahlil qilish va mantiqiy yechim topishda yordam bersa, refleksiv qobiliyatlar o‘z tajribalarini tahlil qilib, amaliyotni yaxshilashga imkon beradi. Maqola ta’lim jarayonida refleksiv qobiliyatlarni kasbiy qobiliyatni rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar va ulardan amaliy foydalanish yo‘llarini ko‘rsatadi.

Abstract. This article highlights the importance of reflexive skills in the field of education, especially in the professional development of teachers. Reflexive skills help in deep analysis of problems and finding logical solutions, while reflexive skills allow you to analyze your own experiences and improve your practice. The article shows recommendations aimed at developing reflexive abilities in the educational process and ways of their practical use.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, analitik qobiliyat, refleksiv qobiliyat, kasbiy qobiliyat, texnologiya, kasbiy rivojlanish,tahliliy fikrlash

Keywords: Primary education, analytical ability, reflexive ability, professional ability, technology, professional development, analytical thinking

Refleksiv qobiliyat boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy qobiliyatini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. O‘qituvchi o‘zining ta’lim jarayonida qanday yondashuvlar va uslublarni qo‘llayotganini, talabalarning reaksiyalari va natijalarini baholash orqali o‘z kasbiy faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilishi kerak. Bu tahlil, o‘qituvchining o‘z ishiga tanqidiy yondashib, o‘zgarishlarni kiritishi va shu orqali kasbiy mahoratini oshirishi , ayniqsa bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun muhimdir. Refleksiv qobiliyatni rivojlantirish orqali o‘qituvchi o‘quvchilarning ehtiyojlarini yaxshiroq tushunadi, samarali ta’lim usullarini qo‘llashni o‘rganadi va darslarda yanada ijodkor bo‘lishga intiladi. Shu tariqa, o‘qituvchi o‘z pedagogik faoliyatida yangi yondashuvlar va metodlarni kashf etib, ularni tajriba orqali o‘rganib boradi. Bu jarayon esa kasbiy rivojlanishning uzviy qismi bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining professional o‘sishiga xizmat qiladi, chunki u o‘qituvchiga o‘z pedagogik faoliyatini muntazam ravishda kuzatish, tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash imkonini beradi. Bu qobiliyatni rivojlantirish boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun ayniqsa zarurdir, chunki bu davrda o‘quvchilarning rivojlanishi juda sezgir va o‘qituvchining ta’siri beqiyosdir.

Refleksiv qobiliyatni chuqurroq tushunish uchun quyidagi jihatlarni keltirish mumkin:

1.O‘zi haqida tahliliy fikrlash

Refleksiv qobiliyatga ega o‘qituvchi o‘z darslarini, ta’lim uslublarini va o‘quvchilarga qanday ta’sir ko‘rsatishini kuzatadi. Masalan, dars berishdan so‘ng o‘qituvchi o‘ziga quyidagi savollarni berishi mumkin:

• Darsda qanday metodlardan foydalandim va ular qanchalik samarali bo‘ldi?

• O‘quvchilar qanday javob berishdi, ularning qiziqishi va ishtiroki qanday edi?

• Qanday qiyinchiliklarga duch keldim va ulardan qanday xulosalar chiqardim?

Bu savollarga javob berish orqali o‘qituvchi o‘z faoliyatini doimiy ravishda yaxshilab borishi mumkin. Shuningdek, o‘qituvchi o‘z bilimlari va tajribalarini qanday kengaytirish kerakligi haqida ham o‘ylaydi, bu esa kasbiy rivojlanishning uzviy qismidir.

2. O‘z-o‘zini tanqid qilish

Refleksiv qobiliyat o‘qituvchiga o‘zining kamchiliklarini tan olish va ularni tuzatish uchun imkon beradi. Bu esa o‘qituvchiga o‘z metodlarini yangilash va ta’lim jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi. Masalan, agar biror metodik yondashuv natija bermasa, refleksiv qobiliyatga ega o‘qituvchi bu metodni qayta ko‘rib chiqib, yangi va samarali yondashuvlarni izlashga harakat qiladi. O‘qituvchi o‘zining muvaffaqiyatlarini ham, xatolarini ham tan olib, ulardan o‘rganadi.

3. Talabalarning ehtiyojlariga moslashish

Refleksiv qobiliyat o‘qituvchiga o‘quvchilarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Har bir o‘quvchining o‘ziga xos qobiliyatlari, ehtiyojlari va qiyinchiliklari bor, va ularni tushunish o‘qituvchining ta’lim jarayonini individualizatsiya qilish qobiliyatini oshiradi. Refleksiv qobiliyat bu jarayonda yordam beradi, chunki o‘qituvchi dars davomida har bir o‘quvchining reaksiyasini kuzatib, ularga mos yondashuvlarni izlaydi.

4. Ijodiy yondashuvni rivojlantirish

O‘qituvchilar darslarda yangilik va ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlashlari kerak. Refleksiv qobiliyat o‘qituvchini yangi pedagogik metodlarni izlashga, ijodiy yondashuvlarni sinashga rag‘batlantiradi. Bu esa o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. O‘z tajribasini chuqur tahlil qiladigan o‘qituvchi, qanday yangi yondashuvlar samarali bo‘lishi mumkinligini aniqlay oladi.

5. Kasbiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash

Refleksiv qobiliyat o‘qituvchini kasbiy jihatdan doimiy rivojlanishga undaydi. Bu shuni anglatadiki, o‘qituvchi nafaqat o‘quvchilarga bilim beradi, balki o‘zini ham rivojlantirish uchun muntazam ravishda yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘rganadi. O‘qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, usullar va yondashuvlarni o‘zlashtiradi, bu esa ta’lim sifatini yanada oshiradi.

Umuman olganda, refleksiv qobiliyat o‘qituvchi uchun o‘z kasbiy mahoratini yanada chuqurroq rivojlantirishning kaliti hisoblanadi. Bu qobiliyat orqali o‘qituvchi nafaqat o‘quvchilarga samarali ta’lim bera oladi, balki o‘z kasbiy

faoliyatini ham doimiy ravishda yangilab, rivojlantirib boradi.Refleksiv qobiliyat o‘qituvchining kasbiy rivojlanishida juda muhim vosita hisoblanadi, chunki u o‘qituvchiga o‘z pedagogik faoliyatini muntazam ravishda kuzatish, tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash imkonini beradi. Refleksiv qobiliyat – bu shaxsning o‘z harakatlarini, fikrlarini, his-tuyg‘ularini, xatti-harakatlari va qarorlarini tahlil qilish, baholash va o‘zini anglash qobiliyatidir. Bu qobiliyat insonga o‘z tajribalaridan o‘rganish, o‘zini o‘zi yaxshilash va kelajakdagi qarorlar uchun xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Bu qobiliyatni rivojlantirish boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun ayniqsa zarurdir, chunki bu davrda o‘quvchilarning rivojlanishi juda sezgir va o‘qituvchining ta’siri beqiyosdir.

Refleksiv qobiliyatni chuqurroq tushunish uchun quyidagi jihatlarni keltirish mumkin:

1. O‘zi haqida tahliliy fikrlash

Refleksiv qobiliyatga ega o‘qituvchi o‘z darslarini, ta’lim uslublarini va o‘quvchilarga qanday ta’sir ko‘rsatishini kuzatadi. Masalan, dars berishdan so‘ng o‘qituvchi o‘ziga quyidagi savollarni berishi mumkin:

• Darsda qanday metodlardan foydalandim va ular qanchalik samarali bo‘ldi?

• O‘quvchilar qanday javob berishdi, ularning qiziqishi va ishtiroki qanday edi?

• Qanday qiyinchiliklarga duch keldim va ulardan qanday xulosalar chiqardim?

Bu savollarga javob berish orqali o‘qituvchi o‘z faoliyatini doimiy ravishda yaxshilab borishi mumkin. Shuningdek, o‘qituvchi o‘z bilimlari va tajribalarini qanday kengaytirish kerakligi haqida ham o‘ylaydi, bu esa kasbiy rivojlanishning uzviy qismidir.

2. O‘z-o‘zini tanqid qilish

Refleksiv qobiliyat o‘qituvchiga o‘zining kamchiliklarini tan olish va ularni tuzatish uchun imkon beradi. Bu esa o‘qituvchiga o‘z metodlarini yangilash va ta’lim jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi. Masalan, agar biror metodik yondashuv natija bermasa, refleksiv qobiliyatga ega o‘qituvchi bu metodni qayta ko‘rib chiqib, yangi va samarali yondashuvlarni izlashga harakat qiladi. O‘qituvchi o‘zining muvaffaqiyatlarini ham, xatolarini ham tan olib, ulardan o‘rganadi.

3. Talabalarning ehtiyojlariga moslashish

Refleksiv qobiliyat o‘qituvchiga o‘quvchilarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Har bir o‘quvchining o‘ziga xos qobiliyatlari, ehtiyojlari va qiyinchiliklari bor, va ularni tushunish o‘qituvchining ta’lim jarayonini individualizatsiya qilish qobiliyatini oshiradi. Refleksiv qobiliyat bu jarayonda yordam beradi, chunki o‘qituvchi dars davomida har bir o‘quvchining reaksiyasini kuzatib, ularga mos yondashuvlarni izlaydi.

4. Ijodiy yondashuvni rivojlantirish

O‘qituvchilar darslarda yangilik va ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlashlari kerak. Refleksiv qobiliyat o‘qituvchini yangi pedagogik metodlarni izlashga, ijodiy yondashuvlarni sinashga rag‘batlantiradi. Bu esa o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. O‘z tajribasini chuqur tahlil qiladigan o‘qituvchi, qanday yangi yondashuvlar samarali bo‘lishi mumkinligini aniqlay oladi.

5. Kasbiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash

Refleksiv qobiliyat o‘qituvchini kasbiy jihatdan doimiy rivojlanishga undaydi. Bu shuni anglatadiki, o‘qituvchi nafaqat o‘quvchilarga bilim beradi, balki o‘zini ham rivojlantirish uchun muntazam ravishda yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘rganadi. O‘qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, usullar va yondashuvlarni o‘zlashtiradi, bu esa ta’lim sifatini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik sohada refleksiv qobiliyat o‘qituvchining kasbiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi, chunki o‘qituvchi o‘z darslari, o‘quvchilarga qanday ta’sir qilayotgani, qaysi usullar muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo‘lganini muntazam tahlil qilib borishi kerak. Shu tariqa, u o‘z pedagogik tajribasini yaxshilab, o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashib, yanada samarali o‘qituvchi bo‘lishga intiladi.O‘qituvchi sifatida refleksiv qobiliyatni rivojlantirish – kasbiy mahoratni oshirish va o‘quvchilarga yanada samarali ta’lim berish uchun muhim omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. M. Mirziyoyev. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent: “O‘zbekiston”- 2017.

2. Boud, D., Keough, R. and Walker, D. (1985). "Ko‘zgu: tajribani o‘rganishga aylantirish".

3. Kogan sahifasi. Dewey, J. (2007). "Biz qanday fikrdamiz". Digireads.com

4. Erkinovna, A. D. (2023, november). Pirls xalqaro baholash dasturining topshiriq namunalari va ularni bajarishga o‘rgatish shakl va vositalari. In e conference world (no. 2, pp. 62-69).

BO’LAJAK SAN’AT VA MADANIYAT XODIMLARIGA TIL VA ADABIYOT O’QITISHNING AHAMIYATI

Dadabayeva Farog‘at Zarifovna,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti o‘qituvchisi

Hozirgi paytda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim muassasalari oldiga nihoyatda muhim vazifalar qo’yildi. Xususan, uning ta’biri bilan aytganda, “Adabiyot va san’atning naqadar qudratli kuchga ega ekani haqida sizdek zukko insonlar huzurida so‘z yuritishga, ochig‘ini aytsam, men biroz tortinaman”[1]. Prezidentimiz ushbu gaplari bilan adabiyotning(jumladan tilning) qudratli kuch ekanligini ta’kidladi. Ayniqsa til va adabiyot fanlarini o’qitish orqali savodxonlik darajasini ko’tarish ana shunday dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Negaki, ayniqsa, yoshlarimizni kitob o’qishi masalasi juda ham achinarli holga

tushib qolgan edi. Bu masalani hal qilish yuzasidan hozirgi paytda juda katta tadbirlar qo'llanyapti. Ayniqsa respublika miqyosida yosh kitobxonlar tanlovlarini o'tkazilayotganligi, tabiiyki, yoshlarni kitob o'qishga bo'lgan rag'batini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu tashabbusni institut miqyosida ham davom ettirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Savodxonlik masalasini hal qilishda barcha oliy o'quv yurtlari qatori bizning institutimizda ham til va adabiyot darslariga alohida e'tibor berish zarur bo'ladi. Albatta bo'lajak san'atkorlarning og'zaki nutqini o'stirishga e'tibor berilmoqda. Xususan, adabiyot darslarida talabalar shoir va yozuvchilar ijodi va asarlari haqida og'zaki so'zlaydi va tahlil qiladi. Sahna nutqi darslarida tovushlar va so'zlar talaffuzi ustida ishlanadi. Bular, albatta, og'zaki nutqni o'stirishga qaratilgan ijobiy holat hisoblanadi va buni yanada rivojlantirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Lekin yozma nutq masalasiga kelganda hali bajarishimiz lozim bo'lgan masalalar benihoya ko'p ekanligi ma'lum bo'ladi. Shu yil boshlarida institut ma'muriyati tashabbusi bilan professor-o'qituvchilarimiz "Madaniyat deganda nimani tushunasiz?" mavzusida insho yozdilar. Albatta, insholarni o'rganish jarayonida ayrim professor-o'qituvchilarimiz o'z fikrlarini ravon bayon qilish bilan birga yozma mantiqiy fikrlay olishlarini namoyon qilganlar. Lekin ko'pchilik professor-o'qituvchilarimizning insholari til va adabiyot sohalaridagi bilimlari juda zaif ekanligini ko'rsatib qo'ydi. O'zbek tilida gap tuzishni tuzukroq o'rganishlari zarur. So'z qo'llash sohasida ham oqsash seziladi. Tinish belgilari qoidalariga ko'p ham rioya qilinmagan, orfografiya masalalariga e'tibor berilmagan.

Institutimizda chop etilayotgan gazeta va jurnal haqida ham yuqoridagi fikrlarni aytish mumkin. Ayniqsa, gazetaga berilayotgan ba'zi maqolalarni gazeta xodimlari jiddiy ishlayotganini ko'p kuzatamiz. Ularni o'qishliroq qilish uchun xodimlar ko'p ter to'kmoqda. Ba'zi mualliflarning xom-xatala she'rlari va maqolalari ko'p e'tiroz uyg'otadi. Yuqorida aytilgandek, bunday "ijodiy" ishlarga doimiy ravishda ishlov berish talab qilinyapti.

Institutimizda O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan jurnal nashr qilinadi. Shu sababli unda chop etilayotgan maqolalarga yuqori talablar qo'yiladi. Eng avvalo ular ilmiylik talablariga javob berishi kerak. Ilmiylik esa faqat ilmiy atamalarnigina keltirish bilan hosil bo'lib qolmaydi, bunda ham, tabiiyki, savodxonlik masalasi birinchi o'ringa chiqaveradi. Albatta, yetakchi olimlarimiz qalamiga mansub maqolalarga e'tiroz bo'lishi mumkin emas. Shunga qaramay, institutimizning obro'li jurnaliga ham pishib yetilmagan maqolalarni kelib tushayotganligi achinarli holdir. Ba'zi mualliflar borki, o'z maqolasini qanday "pishirishni" ham bilmaydi. Bularning barchasida yana til va adabiyot masalalariga e'tibor berish bilan bog'liq vazifalar ko'ndalang bo'laveradi.

Eng avvalo, o'zbek tilimiz faqat bizning millatimizga berilgan ne'mat hisoblanadi. Uni hech bir millat o'zimizchalik qadrlamaydi. Uni sizu biz qadrlashga nihoyatda burchlimiz.

Buning uchun eng avvalo biz barchamiz o'z tilimizning chuqur tarixga ega ekanligini bilishimiz, uni nihoyatda qadrlashimiz zarur. Dastlab ilk o'rta asrlarda

turkiy tilda ijod qilgan bir qator shoir–allomalarimiz bu tilda ajoyib didaktik asarlar yaratib, uni qonuniy ravishda hayotimizdan o'rin egallashi mumkinligini isbotlab qo'ydilar. Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul haqoyiq" va Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asarlari turkiy tilning boyligi va go'zalligining amaliy ifodasi bo'lib qoldi. Ayniqsa, xazrat Alisher Navoiy o'z asarlari bilan o'zbek tilining dunyoda teng huquqli tillar qatorida ekanligini isbotlab berdi. Shu ma'noda Birinchi Prezidentimiz shunday yozadi: "Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizda eng avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli qurolga ega bo'lamiz" [2, 48]. Ko'rinadiki, ona tiliga muhabbat, uning buyukligini anglash tuyg'usini o'z tilimizda chiroyli gapirishga, yozishga, o'zbek tilida o'z fikrini ifodalashda turli noqis xatolarga yo'l qo'yib, uni haqorat qilmaslikka, o'z tilimizni rivojlantirishga burchli ekanligimizni ta'kidlab turadi. Demak tarix saboqlari kelajakni yaratishdagi baquvvat poydevor bo'lib qoladi. Har gal o'zbek tilida yozganda, gapirganda xato qilishdan uyalish va bunday xatolar tilimizni haqorat qilish bilan barobar ekanligini ich–ichimizdan sezib turishimiz, ya'ni javobgarlik hissi bo'lishi kerak.

Adabiyotni o'rganishninig ahamiyati haqida ham yuqoridagi fikrlarni aytish mumkin. Eng avvalo adabiyotimiz teran tarixga, boy an'anaga ega ekanligini tushunib olishimiz lozim. Avvalambor Alisher Navoiyning o'zbek adabiyoti va o'zbek adabiy tilini vujudga kelishi va taraqqiyoti yo'lidagi xizmatlarini yodda saqlashimiz va qadrlashimiz zarur. "Biz uning mo'tabar nomi, ijodiy merosining boyligi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib so'z yuritamiz" [2, 47]. Mana shu fikrlarni chuqur yuragimizdan o'tkazgandagina, bu buyuk ajdodimiz "Inson qalbini quvonchu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyotida kamdan–kam topilishi"ni [2, 48] anglaymiz va unga va o'zbek adabiyotiga bo'lgan chuqur ehtiromimiz tobora chuqur ildiz otaveradi.

Talaba til va adabiyot darslarida so'zni o'rganadi."Adabiyot – so'z san'ati, insoniyat dahosi yaratgan sirli va sehrli mo'jiza". [3, 3] Adabiyot o'qimagan odam ana shu mo'jizadan bebahra qoladi va bu bilan u nodonlikni ixtiyor etadi. Adabiyot insonni fikrlashga o'rgatadi, fikrlay olmaydigan insonni esa kesakdan farqi bo'lmaydi. Fikrlash qobiliyati bo'lajak san'atkor va madaniyat xodimlari uchun suv va havodek zarur.

Umuman olganda til va adabiyot darslari talabalarni mustaqil fikrlashga va o'z fikrini bexato qog'ozga tushirishga o'rgatadi. O'z fikrini to'mtoq, bema'no ifodalash va noto'g'ri yozish til va adabiyotimizni haqoratlash bilan barobar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2017-yil 4-avgust.

2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat”, 2008.

3. Matchanov S. , Sariyev Sh. Adabiyot. Darslik. – Toshkent: “Sharq”, 2012.

TOHIR MALIKNING ETALON QO‘LLASH MAHORATI

Turakulova Umidaxon Anvarovna
Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Tohir Malik asarlarida qo‘llangan o‘xshatishlar, ularga tanlangan etalonlar, etalonlarning tuzilishi, adibning kengaygan birikmali etalonlardan foydalanish mahorati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: o‘xshatishlar, etalon, asos, sifatlovchili, qaratqichli etalonlar va ularda ifodalanadigan semalar.

Annotation. This article discusses the similes used in Tohir Malik's works, the standards (etalons) chosen for them, the structure of these standards, and the author's skill in using expanded compound standards.

Keywords: similes, standard, basis, standards with attributes, standards with possessive cases, and the semes expressed in them.

Insoniyat olamni anglar ekan, o‘xshatish-qiyoslashning o‘rni juda kattadir. O‘xshatish esa kuzatish, taqqoslash kabi jarayonlar bilan uzviy bog‘liq. Ammo duch kelgan narsa va hodisalardan o‘xshatish izlash ham o‘rinsiz. O‘xshatish shunday hodisaki, biror predmet, voqea, shaxs yoki holat kuzatilganida boshqa bir narsani beixtiyor yodga soladi. Ana shu holat o‘xshatishning tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Nizomiddin Mahmudov “Til tilsimi tadqiqi” ilmiy risolasida o‘xshatishlarga: “…qiyoslash bilangina narsa-xususiyat vositasida bilinmagan narsa-xususiyatni osonlik bilan bilish imkoniyatini beradi”[291], – deya ta’rif beradi. Masalan, she’riyatda labni g‘unchaga, qoshni kamonga, yuzni oyga qiyoslash keng tarqalgan, chunki oy, quyosh, kamon kabi predmetlarni tanish uchun alohida bilim talab qilinmaydi. Shuning uchun ham ilk o‘xshatish namunalari shu kabilar bo‘lgan bo‘lsa, ajab emas, hatto shu darajada ko‘p qo‘llanganidan paremiologik birliklar singari turg‘unlashish darajasiga yetgan. O‘ylab qaralsa, bu o‘xshatishlar ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan emas. Labni ta’riflashdan avval g‘unchani, qoshni ta’riflashdan avval kamonni, yuzni ta’riflashdan avval oyni yaxshiroq tanish ilmiga ega bo‘lingan. Bugungi kun adabiyotida ham o‘xshatishlar rang-barang tarzda qo‘llanmoqdaki, bu hol o‘quvchini tasavvurini oshirib, zavqlantiradi, o‘z o‘rnida yozuvchi yoki shoirning mahoratini belgilaydi. O‘xshatishlarning hosil qilinishida o‘xshatish etalonlari muhim ahamiyatga ega. “Etalonlar milliy dunyoqarashni aks ettiradi, chunki ular dunyodagi hodisalarning o‘z milliy-odatiy o‘lchovi

[291]Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. – Toshkent, Mumtoz so’z. 2017. –B. 160.

natijasidir”[292]. “Etalon ijtimoiy-psixologik miqyosda jamiyat, tabiat, hodisalari, inson haqidagi me'yoriy tasavvurlar ko‘rinishida aks etadi”.[293] Ular orqali shaxs, narsa-buyum, hodisalar, ob’yektlarning xususiyatlarini va sifatini o‘lchash yoki tasavvur qilish mumkin. Shu xususiyati bilan bilinmagan yoki bilinishi qiyin bo‘lgan o‘rinlarda etalonlar juda ham katta ahamiyatli sanaladi.

“Bu unsur o‘xshatishning markazini, mag‘zini tashkil etadi, boshqa unsurlar (o‘xshatish sub’ekti, o‘xshatish asosi) ayni shu etalon atrofida birlashadi. Ayni paytda boshqa unsurlar implitsit ifodalana bilgani holda o‘xshatish etaloni faqat eksplitsit ifodalanmog‘i shart, ya’ni o‘xshatish etaloni bevosita lisoniy ifodaga ega bo‘lmasa, o‘xshatish mazmunidagi ibora shakllana olmaydi. Eng muhimi shuki, xalqning dunyoni ko‘rishi va anglashidagi o‘ziga xoslik, ya’ni milliy-madaniy va milliy-konnotativ ma’lumot bevosita ayni shu o‘xshatish etalonida o‘z tajassumini topadi. Xalqning milliy obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida turg‘unlashgan, etalonlashgan obrazlar milliy idrokni aks ettiradi”[294]. Ayni muammo tadqiqi bilan jiddiy shug‘ullangan M.Yo‘ldoshevning fikri ham asosligi bilan e’tiborga loyiq: “Har qanday o‘xshatishning lingvopoetik asosini bevosita o‘xshatish etaloni tashkil etadi. Tasviriy vosita sifatidagi o‘xshatishning poetik qimmati, estetik salmog‘ini ham xuddi shu o‘xshatish etaloni belgilaydi. O‘xshatishning originalligi ayni o‘xshatish etalonining originalligiga ko‘ra yuzaga keladi”.[295]

Tadqiqotchilarning ko‘rsatishlaricha, har qanday o‘xshatish munosabati tilda ifodalanar ekan, albatta, to‘rt unsur (uzv) ko‘zda tutiladi, ya’ni, 1) o‘xshatish sub’ekti, 2) o‘xshatish etaloni, 3) o‘xshatish asosi, 4) o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi. Tohir Malik qissalarini o‘qish davomida o‘lchov birliklari semali bir qator rang-barang o‘xshatishlarga duch keldik. Yozuvchi bu kabi o‘xshatishlarni shunday mahorat bilan qo‘llaganki, arzimas va eng kichik bo‘lib ko‘ringan detallarni ham o‘xshatishlar yordamida o‘quvchiga aniq va konkret tarzda yetkazib berishga harakat qilgan. Adibning har bir qo‘llagan o‘xshatishlari o‘quvchini o‘ylashga, tasavvur qilishga undaydi. Bu esa, o‘z o‘rnida, asarning o‘qishliligini va o‘qiguvchilarining salmog‘ini ham oshishiga xizmat qiladi. Adib qalamiga mansub bo‘lgan ”Shaytanat”, “Devona”, “Ov”, “Ozod inson haqida qo‘shiq”, “Falak”, “Eng kichik jinoyat”, “Charxpalak”, “Murdalar gapirmaydilar”, “Savohil”, “So‘nggi o‘q” kabi bir qator qissalarida bunday o‘xshatishlarni ko‘plab uchratish mumkin.

O‘xshatishlar tarkibidagi to‘rt unsurning eng asosiysi etalondir. Etalon o‘xshatilayotgan ikki predmet o‘rtasidagi o‘xshashlik aloqasini o‘rnata oluvchi, o‘xshatish hodisasidagi go‘zallikni ta’minlaydigan asosiy vositadir. U orqali xalqning milliy obrazli tafakkurini, xalq tasavvuridagi olamning lisoniy

[292]Ашуров Д. Ўхшатишларнинг ҳосил қилинишида эталоннинг ўрни (“Алпомиш” достони мисолида). “Uchinchi renessansda ilmiy-amaliy tadqiqotlarning dolzarb muammolari” respublika konferensiyasi. – Тошкент, 2022. – Б.58-61.

[293] Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – Б. 21.

[294]Маҳмудов Н. Ўхшатишларда миллий менталлик жозибаси. // Тил ва адабиёт таълими. 2019. – № 2. – Б. 6.

[295]Йўлдошев М.Чўлпон сўзининг сирлари. – Т.: Маънавият, 2002. - 58-б.

manzarasini oson anglash mumkin. Undan tashqari, kuzatishlar davomida shunga amin bo‘lindiki, ma’lum bir xalq uchun yaqindan tanish bo‘lgan, hamma xususiyatlari ayon bo‘lgan predmet, shaxs yoki voqea-hodisa etalon uchun xizmat qila oladi. Jumladan, o‘zbek xalqida *zebradek yuvosh* o‘xashtishi uchramaydi, sababi o‘zbek xalqi uchun zebra degan hayvon (haqiqatan, yuvosh bo‘lsa ham)ning xususiyatlari ma’lum emas. Etalonning vazifasi biror holat yoki predmetni tinglovchiga oson anglatishdir. Agar, notanish narsa etalon sifatida qo‘llansa, nutqni tushunish ancha qiyinlashadi.

Etalonlar shunchaki tanlanmaydi. Etalonga olinayotgan predmet, shaxs, voqea-hodisalarning etalon bo‘lishga loyiq xususiyatlari o‘zining turdoshlaridan ancha ustun bo‘lishi kerak. Masalan, gulni etalon qilish uchun undagi go‘zallik asos qilib olinadi, chunki undagi go‘zallik boshqa o‘simliklardagidan ustun, asalni etalon qilish uchun uning shirin ta’mi asos qilib olinadi, chunki shakar va novvotdagi shirin ta’m asalnikidan kam.

Tohir Malik asarlarida qo‘llangan etalonlar bo‘yoqdorligi, kutilmaganligi va originalligi bilan alohida ahamiyatga egadir. Sababi yozuvchi etalon tanlashda doimiy bir xillikdan voz kechadi. Shunday etalonlarni tanlaydiki, beixtiyor kitobxonning tasavvurini uyg‘otadi va xayratga soladi. U qo‘llagan etalonlar, asosan, kengaygan birikmali ko‘rinishda bo‘lib, etalonning alohida tomonlarini ochib berishga qaratilgan. Masalan, *qo‘l qovushtirgan mulozimday, suvga qaytib tushgan baliqday* (“Ov”); *pichirlab she’r o‘qiyotganday, sovuq suv ostiga yalong‘och tushib olganday* (“Devona”); *muz ustiga yalangoyoq tushganday, yarasini tirnab tuz sepganday* (“Eng kichik jinoyat”) kabi. Adib qo‘llagan bunday etalonlar o‘ziga qarashli sifatlovchisiz kela olmaydi. Chunki, adib ko‘zlagan maqsad kitobxonning aynan ko‘z o‘ngida gavdalanishi uchun, uni to‘la anglashi, his qilishi uchun ham ular kengaygan holatda qo‘llangan. Undan tashqari, adib etalon tanlashda bir predmetga xos bo‘lgan ko‘plab qirralarni misol sifatida keltiradiki, bir qarashda ular bir xil etalonga ega o‘xshatishlarga o‘xshasa-da, etalonga tanlangan sifatlovchi, yoki qaratqichli aniqlovchi etalonga yangilik baxsh etadi. Masalan, “Shaytanat” qissasining o‘zida 63 o‘rinda *odam* so‘zi etalon sifatida qo‘llangan. Ammo unga tanlangan sifatlovchilar bu etalonning har gal yangi sema uchun xizmat qilishini ta’minlagan. Masalan, begona odam, baxtli odam, laqma odam, soqov odam, go‘l odam, merov odam, bezgakka uchragan odam, askiya eshitgan odam kabi rang-baranglik yuzaga kelgan. Bundan tashqari, *bola, qush, musht, xotin, it* kabi etalonlar ham ana shunday har xil semalar uchun xizmat qilgan. Ayniqsa, adib *it* etalonidan shunday foydalanganki, unda o‘zbek xalqi mentaliteti, uning qarashlari, itga bo‘lgan munosabati kabilar yorqin ochib berilgan. Adib o‘lchov bilan bog‘liq o‘rinlarda ham aniq, konkret predmetlarni etalon sifatida keltiradiki, bu uning qay darajada yuksak mahorat egasi, kuzatuvchan, sinchkov shaxs ekanligini ham ochib beradi. Masalan, *pashshadek ingichka, tuyadek gunoh, yeti yashar bolaning belidek, bir oylik chaqaloqning mushtidek* kabi. Aytish joiz bo‘lsa, adib asarlarida etalon tanlashda hech qaysi soha chetda qolmagan. Hayvonot dunyosi, tabiiy hodisalar, ro‘zg‘or ashyolari, udumlar,

diniy shaxs va makonlar, hasharotlar, o‘simliklar hatto ilmiy terminlar ham bir talay uchraydi. Adib asarlarini o‘rganish jarayonida etalon bilan bog‘liq yana bir o‘ziga xoslikni kuzatish mumkin. Bu o‘ziga xoslik etalonning, asosan, fe’l so‘z turkumida bo‘lishidir. Yozuvchi etalon tanlashda fe’l so‘z turkumiga ko‘p murojaat etadi, hatto o‘xshatish asosi ham ko‘pincha fe’l so‘z turkumi bilan ifodalanadi. Shuni hisobga olgan holda, uning ijodiga mansub bo‘lgan etalonlarni 2 turga bo‘lish mumkin. Sodda etalonlar (bir asosdan tashkil topgan, *boladek*), kengaygan etalonlar (o‘ziga qarashli qaratqich yoki sifatlovchisiga ega bo‘lgan, *ko‘pirtirib maqtanayotgan boladay*).

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, har qanday badiiy asar o‘z tarkibidagi o‘xshatishlar bilan bayon qilinayotgan fikrning turli ma’no nozikliklarini ifodalashda alohida ahamiyatga ega. Badiiy matnda o‘xshatishlarning alohida o‘rni bo‘lib, ularsiz har qanday matn jo‘n va odatdagi ifodalardan iborat sintaktik birlikka aylanib qoladi va matnning badiiyligiga putur yetishi mumkin. Yuqorida turli misollar yordamida o‘xshatishlarning badiiy asardagi mavqeyi qay darajada ekanligini dalillashga harakat qildik. Qiyoslash jarayonida o‘xshatish qo‘llangan va qo‘llanmagan o‘rinlardagi farq sezilarli darajada ko‘zga tashlanganiga guvoh bo‘lindi. Aytmoqchi bo‘lganimiz shuki, o‘xshatishlar badiiy asardagi badiiylik bo‘yog‘ini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan xususiyatlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. – Toshkent, Mumtoz so‘z. 2017. –B. 160.

2. Ашуров Д. Ўхшатишларнинг ҳосил қилинишида эталоннинг ўрни (“Алпомиш” достони мисолида). “Uchinchi renessansda ilmiy-amaliy tadqiqotlarning dolzarb muammolari” respublika konferensiyasi. – Тошкент, 2022. – Б.58-61.

3. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. – Toshkent: Turonzamin ziyo, 2015. –B. 21.

4. Yo‘ldoshev M. Cho‘lpon so‘zining sirlari. – T.: Ma’naviyat, 2002. – 58-b.

Маҳмудов Н. Ўхшатишларда миллий менталлик жозибаси. // Тил ва адабиёт таълими. 2019. – № 2. – Б. 6.

XORIJIY TILNI O‘QITISHDA SO‘Z BOYLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK TADQIQI

Axmadjanova Malika Maxmudjon qizi
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqola xorijiy tilni o‘qitishda so‘z boyligini rivojlantirishning ahamiyatini batafsil ko‘rib chiqadi. So‘z boyligi tilni o‘zlashtirish jarayonida muhim rol o‘ynab, o‘quvchilarning tushunish qobiliyatini, muloqotdagi erkinlikni va o‘rganish motivatsiyasini oshirishda yordam beradi. Maqolada, keng so‘z boyligining madaniyatni tushunish va professional rivojlanishdagi ahamiyati ta’kidlangan. Talabalar yangi so‘zlarni o‘rganish orqali, nafaqat muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradilar, balki kognitiv qobiliyatlarini ham

kuchaytiradilar. Maqolada turli metodik yondashuvlar, jumladan, o‘yinlar, kontekstda o‘rganish, leksik kartochalar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish usullari keltirilgan. Ushbu metodlar orqali o‘qituvchilar talabalarni qiziqtirgan holda tilni o‘rganishga jalb etishlari mumkin. Umumiy xulosa shuki, so‘z boyligini rivojlantirish nafaqat tilni o‘zlashtirish, balki shaxsiy va professional muvaffaqiyat uchun ham zarurdir. Maqola, o‘qituvchilarga innovatsion yondashuvlarni qo‘llash orqali talabalar bilan samarali ishlashda ko‘mak berishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: word bingo, charades, duolingo, memrise, pictionary, kartochkachalar, tasvirlar, konteks.

Annotation. This article examines in detail the importance of vocabulary development in foreign language teaching. Vocabulary plays an important role in the process of language acquisition and helps to increase students’ comprehension, freedom of communication and motivation to learn. The article emphasizes the importance of a wide vocabulary in understanding culture and professional development. By learning new words, students not only develop communication skills, but also strengthen their cognitive skills. The article presents various methodological approaches, including games, learning in context, lexical cards, and methods of using modern technologies. Through these methods, teachers can make students interested in language learning. The general conclusion is that vocabulary development is necessary not only for language acquisition, but also for personal and professional success. The article aims to help teachers to work effectively with students by using innovative approaches.

Keywords: Word Bingo, Charades, Duolingo, Memrise, Pictionary, flashcards, images, context.

Kirish

Xorijiy tilni o‘rganish jarayoni, o‘quvchilarning lingvistik va kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. So‘z boyligi, tilni o‘rganish jarayonida muhim ahamiyatga ega, chunki u o‘quvchilarning muloqotda erkin va samimiy ishtirok etishlari uchun zarurdir. Ushbu maqola, xorijiy tilni o‘qitishda so‘z boyligini rivojlantirish uchun samarali metodlar va usullarni ko‘rib chiqadi. Ushbu maqola xorijiy tilni o‘qitish jarayonida so‘z boyligini rivojlantirishning muhimligini va buni amalga oshirish usullarini batafsil ko‘rsatadi. O‘qituvchilar uchun metodlarni tanlash va ularni amaliyotga tadbiq etish, talabalar uchun til o‘rganishni yanada samarali va qiziqarli qilish imkonini beradi. Har bir o‘qituvchi, o‘z sinfida o‘ziga xos metodlarni qo‘llash orqali talabalarning o‘qish va o‘rganish jarayonlarini yanada boyitishi mumkin.

So‘z boyligi, xorijiy tilni o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Bu nafaqat tilni yaxshi bilish, balki muloqotda samarali ishtirok etish imkoniyatini ham taqdim etadi.Muloqot faoliyatidan lug‘at yodlash va muzokaralarni batafsil o‘rganishda, Nyuton faoliyatiga yozma kiritishda sodir bo‘lishini va so‘zlarning ma’nosini muhokama qilish ularni o‘rganishga sezilarli hissa qo‘shishini aniqladi. Reyting kabi muloqot faoliyatida (o‘quvchilarga berilgan varoqlar) yozma kirish

muammosini hal qilish – bu mashg‘ulot davomida o‘quvchilarning qaysi lug‘atga alohida e’tibor berishini aniqlash vositasi. Bu foydalanilgan varoqlar ehtiyotkorlik bilan ishlab chiqilishi kerak va ular o‘z ichiga olgan yangi lug‘atni foydalanish uchun o‘quvchilarga eng zo‘r imkoniyat berish uchun ularning ta’sirlari kuzatilgan. Agar ba’zi o‘quvchilar faoliyatlarida ko‘p qatnashishni istamasa o‘qituvchi ortiqcha tashvishlanmasliklari kerak. Nyuton shuni aniqladiki, muloqotlarni kuzatgan o‘quvchilar ham muloqotni amalga oshirganlar kabi o‘rganadilar. Muloqot faoliyati bilvosita lug‘at yodlash orqali rivojlanadigan qobilyat hisoblanadi. Nation [1] ga ko‘ra o‘qituvchilar uchun lug‘at o‘qitish va lug‘at komponentini rivojlantirish uchun asos bo‘la oladigan ‘‘Lug‘at o‘qitish’’ (Teaching Vocabulary) kitobida lug‘at o‘rgatish uchun alohida quyidagi bo‘limlarga ajratilgan:

Birinchi marta yangi lug‘atni uchratish;

Oldingi uchratgan lug‘atni mustahkamlash;

Oldingi uchratgan lug‘atni boyitish;

Lug‘atni strategiyasini rivojlantirish;

Bilgan lug‘at bilan ravonlikni rivojlantirish;

Lug‘at o‘rganish orqali o‘rganuvchilar nafaqat gaipirish ko‘nikmasini shakllantira oladilar, balki eshitish, o‘qish va yozish kabi qobilyatlarini ham rivojlantira oladilar. Hunt va Beglarning fikriga ko‘ra lug‘at o‘qitish va o‘rganishning uchta yondashuvlari mavjud [2]:

1. Tasodifiy o‘rganish(Incidential learning)
2. Aniq ko‘rsatma (Explicit instruction)
3. Mustaqil strategiya rivojlantirish (Independent strategy development)

Tasodifiy o‘rganish yondashuviga ko‘ra so‘z o‘zlashtirish uzoq vaqtni talab qiladi va ona tili shuningdek xorijiy tildagi deyarli ko‘p so‘zlarni keng qamrovli o‘qish va eshitish orqali o‘zlashtiriladi.Bir nechta o‘tkazilgan tadqiqotlarga asosan ikkinchi til so‘zlarini o‘qitish ushbu yondashuv asosida amalga oshirishili o‘z tasdig‘ini topgan.

Lug‘at o‘rganishda explicit (aniq) yondashuv, asosan, so‘zlar va ularning ma’nolarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rganishga qaratilgan. Bu yondashuvda o‘quvchilar so‘zlarning aniq ma’nolari, qo‘llanishlari va grammatik shakllarini bilishga harakat qiladilar. Quyidagi jihatlar bu yondashuvning asosiy xususiyatlarini ochib beradi:

1. Ma’lumotning to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqdimoti

- O‘quvchilar so‘zlar, iboralar va ularning ma’nolarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rganadilar. Bu, masalan, lug‘atlar, ro‘yxatlar yoki onlayn platformalarda ko‘rsatilgan ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

2. Qo‘llanishga e’tibor

- So‘zlarning qanday vaziyatlarda ishlatilishini, kontekstda qanday o‘zgarishini o‘rganish muhim. O‘quvchilar har bir so‘zning sinonimlari, antonimlari va frazeologik ifodalarini ham o‘zlashtirishadi.

3.Grammatik qoidalar

- So‘zlar bilan bog‘liq grammatik qoidalar ham aniq yondashuvda ko‘rib chiqiladi. Masalan, qanday fe’llar bilan ishlatilishi yoki qanday qo‘shimchalar qo‘llanilishi kerakligi haqida ma’lumot beriladi.

4.Praktik mashqlar

- O‘rganilgan so‘zlarni amaliy mashqlar orqali mustahkamlash. Bu, yozma va og‘zaki mashqlar, testlar yoki rol o‘yinlari orqali amalga oshiriladi.

5.Qayta takrorlash

- O‘quvchilarga o‘rgangan so‘zlarini qayta ko‘rib chiqish va takrorlash imkoniyatlari beriladi. Bu, yodlash jarayonini mustahkamlash uchun juda muhim.

6.O‘z-o‘zini baholash

- O‘quvchilar o‘z bilimlarini baholashlari uchun turli xil testlar va savollardan foydalanishadi. Bu, o‘z-o‘zini tekshirish va o‘rganilgan materialni yanada chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Foydalari va kamchiliklari

-Foydalari: Aniq yondashuv o‘z-o‘zini nazorat qilishni, tizimli o‘rganishni va ma’lumotni yaxshi qabul qilishni ta’minlaydi.

- Kamchiliklari: Biroq, bu yondashuv ko‘pincha nazariy bilimlarni ko‘p talab qiladi va amaliy kontekstlardan yiroqlashishi mumkin.Umuman olganda, explicit yondashuv lug‘at o‘rganishda muhim o‘rin tutadi va uni boshqa yondashuvlar bilan birgalikda qo‘llash samarali natijalar berishi mumkin.

Independent strategy yondashuvi, asosan, o‘quvchilarga o‘z-o‘zini boshqarish va mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu yondashuvda o‘quvchilar o‘zlarining o‘quv jarayonlarini rejalashtirish, maqsadlar qo‘yish va o‘zlarini baholashga o‘rgatiladi. Asosiy jihatlar:

1.Ma’lumotni qidirish

- O‘quvchilar mustaqil ravishda yangi ma’lumotlarni qidirib topishadi va o‘rganish manbalarini tanlaydilar.

2.O‘z-o‘zini boshqarish

- O‘quvchilar o‘z vaqtlarini samarali boshqarish va o‘z maqsadlariga erishish uchun strategiyalar ishlab chiqadilar.

3.Kengaytirilgan faoliyatlar

- Mustaqil o‘rganish jarayonida o‘quvchilar turli loyihalar, izlanishlar va topshiriqlar orqali bilimlarini kengaytiradilar.

4. Qayta aloqa

- O‘quvchilar o‘z o‘rganish jarayonlarini tahlil qilish va o‘zlarini baholash imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

5.Motivatsiya

- O‘z-o‘zini boshqarish va o‘z maqsadlariga erishish motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

Keling, so‘z boyligini rivojlantirishning ahamiyatini bir nechta asosiy jihatlari bilan ko‘rib chiqamiz.

1. Tushunish qobiliyati

Talabalar tilni o‘rganish jarayonida yangi so‘zlar va iboralarni o‘zlashtirishlari kerak. So‘z boyligini kengaytirish, o‘quvchilarning matnlarni va suhbatlarni yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi. Tushunish qobiliyati, tilni o‘rganish jarayonining asosi hisoblanadi. So‘z boyligi kuchli bo‘lgan o‘quvchilar, murakkab matnlarni va nazariyalarni osonroq qabul qilishadi.[3]

2. Muloqotda ishtirok etish

Keng so‘z boyligi yordamida talabalar o‘z fikrlarini aniq va ravon ifoda etishlari mumkin. Bu jarayon, tilni amalda qo‘llash imkoniyatini oshiradi. O‘qituvchilar, o‘quvchilarni muntazam ravishda muloqotga jalb qilish orqali ularning so‘z boyligini rivojlantirishlari mumkin.[4].

3. Tilga qiziqishni oshirish

So‘z boyligini o‘rganish jarayoni, talabalarni tilga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Har bir yangi so‘z yoki ibora, o‘quvchilar uchun yangi imkoniyatlarni ochadi. Ularning qiziqishi va motivatsiyasi yuqori bo‘lishi, o‘rganish jarayonini yanada samaraliroq qiladi.[5]

Metodik tadqiqotlar

1. O‘yin usullari

O‘yinlar orqali so‘z boyligini o‘rganish samarali usullardan biridir. Masalan:

- ‘‘Word Bingo‘[6] o‘quvchilarga bingo kartalari tarqatiladi. O‘qituvchi tasodifiy ravishda so‘zlar aytadi, o‘quvchilar esa o‘sha so‘zlarni kartalarda belgilaydi. Bu usul, so‘zlarni eslab qolish uchun qulay va qiziqarli hisoblanadi.

- ‘‘Charades’’[7] talabalar berilgan so‘zni mimika va harakatlar orqali ifodalashadi. Bu, so‘zlarning ma’nosini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

2. Kontekstda o‘rganish

Kontekstda o‘rganish metodikasi talabalarni yangi so‘zlar va iboralarni real vaziyatlarda qo‘llashga undaydi. O‘qituvchilar:

- ‘‘Matnlarni tanlang‘’ O‘quvchilarga qiziqarli va mos keladigan matnlar taqdim etish orqali yangi so‘zlar o‘rganishga yordam berishlari mumkin.[8]

- ‘‘Vaziyatlar yarating‘’ o‘quvchilarga real hayotdagi vaziyatlarni tasvirlab berish va ularga yangi so‘zlar bilan munosabatda bo‘lish imkoniyatini berish.[9]

3. Leksik kartochkalar

Leksik kartochkalar yordamida o‘quvchilar yangi so‘zlarni tez o‘zlashtiradilar. Ushbu metod quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ‘‘So‘z va uning tarjimasi’’ Har bir kartochkada so‘z va uning tarjimasi bo‘lishi kerak.

- ‘‘Tasvirlar’’ So‘zlarni yanada yaxshiroq eslab qolish uchun kartochkalarda tasvirlar yoki illyustratsiyalar qo‘shish.

4. Texnologiyalar

Mobil ilovalar va onlayn platformalardan foydalanish xorijiy tilni o‘qitishda yanada samarali bo‘ladi:

- ‘‘Duolingo‘’ Talabalarga qiziqarli o‘yinlar va vazifalar orqali so‘z boyligini rivojlantirish imkonini beradi.

- ‘‘Memrise’’ Ushbu platforma o‘quvchilarga interaktiv tarzda so‘zlarni o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

5. Qo‘shma faoliyatlar

Qo‘shma faoliyatlar, talabalarni o‘zaro muhokama qilish va yangi so‘zlardan foydalanishga undaydi:

- ‘‘Muloqotli faoliyatlar’’ O‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib, berilgan mavzu bo‘yicha munozara olib borishga jalb etish.

- ‘‘Yozma ishlanmalar’’ O‘quvchilarga maqolalar yoki insho yozish vazifasini berish, bu orqali ular yangi so‘zlarni amalda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Amaliy misollar: o‘yinlar yordamida so‘z boyligini rivojlantirish

‘‘Pictionary’’ O‘quvchilar guruhga bo‘lingan holda berilgan so‘zlarni chizish orqali ifodalashadi. Bu jarayon so‘zning ma’nosini vizual tarzda tushunishga yordam beradi.

Kontekstda o‘rganish

O‘quvchilarga hikoya yoki maqola berib, ularning ichidagi yangi so‘zlarni ajratish va o‘z fikrlarini ifodalashlari so‘raladi. Bu jarayon talabalar uchun qiziqarli bo‘lishi mumkin.

Mobil ilovalar yordamida o‘rganish

O‘quvchilarga ‘‘Duolingo‘‘ yoki ‘‘Memrise’’ kabi ilovalar orqali so‘z boyligini mustaqil ravishda rivojlantirishlari tavsiya etiladi. Ushbu platformalar o‘quvchilarga turli xil qiziqarli vazifalar orqali o‘rganish imkoniyatini beradi.

Xulosa

Xorijiy tilni o‘qitishda so‘z boyligini rivojlantirish, talabalarning tilni o‘zlashtirish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi. Turli metodlarni qo‘llash orqali o‘qituvchilar talabalarni qiziqtirgan holda tilni o‘rganishga yordam bera oladilar. O‘quv jarayonida innovatsion yondashuvlar va texnologiyalardan foydalanish, talabalarning so‘z boyligini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘qituvchilar uchun muhim vazifa — bu metodlarni uyg‘unlashtirib, talabalar uchun eng qiziqarli va foydali bo‘lgan usullarni tanlashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nation, N. New Ways In Teaching Vocabulary. 1994. P. 5-9.

2. Nunan, D. Teaching Vocabulary. Routledge nashriyotida nashr etilgan. 1999. P. 255-268.

3. Schmitt, N. Vocabulary in Language Teaching. Cambridge University Press. 2000.

4. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. 2007.

5. Nunan, D. Practical English Language Teaching. 2003.

6. Thornbury, S. How to Teach Vocabulary// Pearson Education. 2002.

7. Miller, G.A. The Magical Number Seven, Plus or Minus Two: Some Limits on Our Capacity for Processing Information // Psychological Review. 1996.

8. Richards, J.C., & Schmidt, R. Longman Dictionary of Language // Teaching and Applied Linguistics. 2010.

9. Nation, I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge University Press. 2001.

GRAMMATIK MINIMUMNI BELGILASH BO‘YICHA XALQARO TAJRIBALAR

Axmadjanova Madina Maxmudjon qizi
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Grammatik minimum tilni o‘rgatish jarayonida eng muhim deb qaralgan qoidalar va grammatik birliklarni qamrab oluvchi o‘quv dasturi qismlaridan biridir. Grammatik minimumni belgilash, til o‘rganuvchilarga qiyinchiliklarni kamaytirish, o‘quv jarayonini soddalashtirish va o‘rganuvchilarni muvaffaqiyatga erishishga yetaklash uchun qo‘llaniladi. Har bir tilni o‘rganish darajasi uchun tegishli grammatik minimumni belgilash zamonaviy ta’lim tizimlarining asosiy qismiga aylandi.

Grammatik minimumni belgilash bo‘yicha xalqaro tajribalar turli mamlakatlarda o‘ziga xos metodologiyaga asoslangan bo‘lib, Evropa mamlakatlari, AQSh va Kanada, shuningdek, Osiyo mamlakatlarida o‘quv dasturlari orqali amalga oshiriladi. Ushbu tajribalar zamonaviy lingvistik va didaktik yondashuvlarga asoslangan bo‘lib, turli o‘quv metodikalariga va o‘quvchilarning qobiliyatlariga mos keladi.

Kalit so‘zlar: Grammatik minimum, til o‘rganish, o‘quv dasturi, kommunikativ yondashuv, CEFR (Common European Framework of Reference for Languages), Input Hypothesis, minimalizm, didaktik yondashuv, yaponiyaning Eiken tizimi, til ko‘nikmalari, amaliyot, interaktiv darslar, lingvistik minimalizm, grammatika ta’limi, o‘quvchilar, lingvistik bilimlar.

Annotation. The grammatical minimum is one of the most important components of the curriculum that encompasses the essential rules and grammatical units in the language teaching process. Defining the grammatical minimum is applied to reduce difficulties for language learners, simplify the learning process, and guide learners toward success. Establishing an appropriate grammatical minimum for each level of language acquisition has become a fundamental part of modern educational systems.

International experiences in defining the grammatical minimum are based on unique methodologies across various countries, including European nations, the USA, Canada, and Asian countries, and are implemented through educational programs. These experiences are founded on contemporary linguistic and didactic approaches, tailored to different teaching methods and the abilities of learners.

Keywords: Grammatical minimum, language acquisition, curriculum, communicative approach, CEFR (Common European Framework of Reference for Languages), Input Hypothesis, minimalism, didactic approaches, Japan’s Eiken system, language skills, practice, interactive lessons, linguistic minimalism, grammar teaching, learners, linguistic knowledge.

Grammatik minimum, til o‘qitish tizimida muhim ahamiyat kasb etuvchi o‘quv vositasidir. Bu konsepsiya o‘qituvchilarga o‘quvchilar tilni o‘rganishda eng kerakli bo‘lgan grammatik qoidalarni tanlash va taqdim etish imkonini beradi. Canale va Swain [1] tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ yondashuv, grammatikani bilish va amaliyotda qo‘llashni uyg‘unlashtirishni ta’minlashga qaratilgan. Ushbu yondashuvning maqsadi o‘quvchilarning lingvistik ko‘nikmalarini kengaytirish va ularni kundalik hayotda qo‘llash imkoniyatlarini taqdim etishdir.

Grammatik minimum o‘quvchilarning tilni o‘rganish jarayonida asosiy yo‘l xaritasini taqdim etadi. Bu minimum, o‘quvchilar qanday grammatika qoidalariga ko‘proq e’tibor berishlari kerakligini belgilab beradi. Til o‘rgatuvchi dasturlarda o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun minimal grammatika qoidalarini ajratish talab etiladi. Masalan, Lightbown va Spada [2] o‘z tadqiqotlarida grammatika o‘rganishni samarali va aniq maqsadga yo‘naltirilgan deb hisoblashadi. Bu o‘rganish modeli, ayniqsa, boshida til o‘rganayotgan o‘quvchilar uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, grammatik qoidalarni amaliy hayotda qanday ishlatish kerakligini o‘rgatadi.

Grammatik minimumning o‘quv jarayonida tutgan o‘rni juda muhimdir. O‘quvchilar uchun grammatik minimum asosiy bilim va ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi, bu esa ularning tilni o‘rganish jarayonida qiyinchiliklarni kamaytiradi. Grammatik minimumga muvofiq ravishda o‘qituvchi o‘quvchilarni har bir darajadagi grammatik qoidalar bilan tanishtirishi kerak, bu esa o‘qitish jarayonini yanada samarali qiladi.

Shuni inobatga olish kerakki, grammatika qoidalari orasida qiyin va murakkablar mavjud, shuning uchun o‘qituvchilar ularni o‘quvchilarga tushunarli va amaliy yo‘llar bilan taqdim etishlari zarur. Buning uchun zamonaviy ta’lim uslublari va metodlarini qo‘llash lozim. Masalan, amaliy mashg‘ulotlar, interaktiv o‘yinlar va guruhli ishlar orqali grammatikani o‘rganish jarayonini qiziqarli qilish mumkin.

Evropa mamlakatlarida grammatik minimumni belgilash asosan Common European Framework of Reference for Languages (CEFR) tizimi asosida amalga oshiriladi. Ushbu model turli darajadagi o‘quvchilar uchun til o‘rganish jarayonini aniq belgilangan qoidalar va standartlar asosida boshqaradi. CEFR tizimi A1 dan C2 gacha bo‘lgan bosqichlar uchun grammatik bilimlarning aniq hajmini belgilaydi. Masalan, A1 darajasida oddiy fe’l va tuzilmalar (masalan, "to be" fe’li) asosiy o‘rinni egallasa, C1 darajasida murakkab tuzilmalar va infinitivlar o‘rganiladi [3].

Evropa mamlakatlarida CEFR tizimi o‘quvchilar tilni nafaqat grammatik jihatdan o‘rganishlari, balki uni kundalik hayotda qanday qo‘llashlari kerakligini o‘rgatadi. Ellis [4] CEFR tizimida grammatik minimumning o‘rni va uning o‘quvchilarga ta’sirini o‘rgangan. Ellisning tadqiqotiga ko‘ra, CEFR modeli o‘quvchilarga amaliy til ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi, bu esa ularning kommunikativ ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

AQSh va Kanadada grammatik minimumni belgilash asosan kommunikativ yondashuvga asoslangan bo‘lib, Krashen [5] tomonidan taklif qilingan "Input Hypothesis" modeli bu tizimning asosi hisoblanadi. Ushbu model o‘quvchilarga grammatikani bilishdan ko‘ra, ularni amaliy hayotda qo‘llashni muhim deb hisoblaydi.

Krashenning nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilar tilni grammatika orqali emas, balki lingvistik "input" orqali o‘rganadilar. Bu esa grammatik minimumni sezilarli darajada qisqartiradi, chunki o‘quvchilar grammatikani amaliyotda o‘zlari o‘zlashtirib oladilar. Masalan, AQShda ESOL dasturlari (English for Speakers of Other Languages) grammatik minimumni interaktiv darslar va amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘rgatadi.

Ushbu yondashuv, o‘quvchilarga amaliy til ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Interaktiv darslar va real hayotiy vaziyatlarda tilni o‘rganish, o‘quvchilarga grammatika qoidalarini osonroq o‘zlashtirish imkoniyatini beradi.

Osiyo mamlakatlarida, xususan, Yaponiya va Janubiy Koreyada grammatik minimumni belgilashda texnologik yutuqlardan keng foydalaniladi. Yaponiyaning Eiken tizimi CEFR ga o‘xshash bo‘lib, o‘quvchilarning turli darajadagi grammatika bilimlarini baholaydi va ularning til o‘rganish jarayonini soddalashtiradi [6]. Bu tizim o‘quvchilarning faqat grammatik bilimlarni emas, balki amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga qaratilgan.

Yaponiyada o‘quvchilar til o‘rganish uchun multimediya vositalaridan foydalanadilar, bu esa grammatika qoidalarini o‘rganishni sezilarli darajada yengillashtiradi. Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology (MEXT) Japan [7] ma’lumotlariga ko‘ra, Eiken tizimi tilni amaliy jihatdan o‘rganish va grammatik minimumni real hayotiy vaziyatlarga moslashtirishga qaratilgan.

Osiyo davlatlarida til o‘rganish jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish, o‘quvchilarga grammatik qoidalarni ko‘rish va amaliyotda qo‘llash imkoniyatini beradi. Ushbu yondashuv, o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonini yanada samarali qiladi.

Grammatik minimumni belgilashda turli mamlakatlardagi o‘qitish tizimlari va metodologiyalarida bir qator kamchiliklar mavjud. O‘quvchilarning individual qobiliyatlari, o‘qituvchilarning malakasi va o‘qitish metodlarining samaradorligi bu jarayonga ta’sir qiladi.

Bundan tashqari, ko‘plab o‘qituvchilar grammatika qoidalarini o‘qitishda bitta yondashuvga asoslanib, o‘quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olmaydi. Misol uchun, Harmer [8] o‘z tadqiqotlarida, o‘quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olmasdan, bitta yondashuvni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning motivatsiyasi pasayishini ko‘rsatadi. Bu esa, grammatika o‘rganishda muammolarni keltirib chiqaradi.

Grammatik minimumni belgilashda kelgusidagi yo‘nalishlar sifatida o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish, zamonaviy ta’lim metodlarini qo‘llash va texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

O‘quv dasturlarini ishlab chiqishda, o‘quvchilarning qobiliyatlarini va ularning ehtiyojlarini hisobga olish, ta’lim jarayonini yanada samarali qiladi.

Shuningdek, o‘qituvchilarni tayyorlashda zamonaviy pedagogik metodlar, interaktiv yondashuvlar va texnologiyalarni o‘z ichiga olgan dasturlarni joriy etish lozim. Ularning malakasini oshirish, o‘quvchilarning lingvistik ko‘nikmalarini yanada samarali rivojlantirish imkonini beradi.

Grammatik minimumni belgilash til o‘rganish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Xalqaro tajribalar ko‘rsatganidek, har bir mamlakatda o‘ziga xos yondashuvlar va metodlar mavjud. Evropa mamlakatlaridagi CEFR modeli, AQSh va Kanadadagi kommunikativ yondashuv hamda Osiyo mamlakatlaridagi multimedia asosida grammatik minimumni belgilashning o‘ziga xos usullari mavjud.

Ushbu tajribalar orqali olingan natijalar grammatik minimumni belgilashda kelgusidagi yo‘nalishlarni belgilab beradi. O‘quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olish, zamonaviy ta’lim metodlarini qo‘llash va o‘qituvchilarning malakasini oshirish orqali grammatik minimumni belgilash jarayonini yanada samarali qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Canale, M., & Swain, M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. – Applied Linguistics, 1980. – 1-47 p.

2. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. – Cambridge University Press, 2001. –21-30 p.

3. Ellis, R. The study of second language acquisition. – Oxford University Press, 2002. –145-171 p.

4. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. – Pearson Longman, 2007. –120-130 p.

5. Krashen, S. D. The Input Hypothesis: Issues and Implications. – Longman, 1985. –1-15 p.

6. Lightbown, P. M., & Spada, N. How Languages Are Learned. – Oxford University Press, 2013. – 98-105 p.

7. Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology (MEXT) Japan. The Eiken Test in Practical English Proficiency. – Retrieved from https://www.eiken.or.jp/eiken/en/, 2013. –10-20 p.

8. The Japan Foundation. Japanese Language Proficiency Test (JLPT). – Retrieved from https://www.jlpt.jp/e/index.html, 2010. – 45-55 p.

ИНТЕРЕСНЫЕ ФАКТЫ ОБ АЛЕКСАНДРЕ СЕРГЕЕВИЧЕ ПУШКИНЕ

Исраилова Гулнара Мамаджановна
преподаватель Кокандского Государственного педагогического института и студентки Халилова Нигина, Каюмова Саида, Очилова Камола

Аннотация. В статье рассказывается о том, что об интересных фактах Александре Сергеевиче Пушкине, он был не только «солнцем русской поэзии» (хотя так его назвали уже после смерти) и великим прозаиком, но и очень темпераментным, увлекающимся и колоритным персонажем с причудливыми привычками и фобиями. Расскажем о некоторых из них подробнее.

Ключевые слова: великим прозаиком, темпераментным, увлекающимся, причудливыми привычками, описаниям очевидцев, барышня, взбешенный любовной неудачей, солнцем русской поэзии.

Abstract. The article talks about interesting facts about Alexander Sergeevich Pushkin, he was not only the “sun of Russian poetry” (although he was called that after his death) and a great prose writer, but also a very temperamental, enthusiastic and colorful character with bizarre habits and phobias. Let’s talk about some of them in more detail.

Key words: great prose writer, temperamental, keen, bizarre habits, descriptions of eyewitnesses, young lady, enraged by love failure, the sun of Russian poetry.

Александр Сергеевич Пушкин был не только «солнцем русской поэзии» (хотя так его назвали уже после смерти) и великим прозаиком, но и очень темпераментным, увлекающимся и колоритным персонажем с причудливыми привычками и фобиями. Расскажем о некоторых из них подробнее.

- О.А.Кипренский Портрет А.С.Пушкина,1827 год.

- Пушкин не писал произведений для детей. Даже его сказки были адресованы взрослому читателю.

- Поэт никогда не был за границей.

- Пушкина называют первым профессиональным писателем в России. Это значит, что он первым стал зарабатывать, продавая свои произведения.

- Прадед Пушкина по материнской линии, Абрам Петрович Ганнибал, был рабом из Камеруна, которого выкупил из плена у турок Петр Первый.

- Отец Пушкина был вспыльчивым, но отходчивым, а мать была обидчивой и могла не разговаривать с Сашей месяцами.

- На многих рукописях Пушкина есть его собственные рисунки к произведениям.

- В лицее Пушкин учился плохо ему было скучно, он не старался если предмет ему не нравился.

- В 1999 году к 200-летию со дня рождения А.С.Пушкина была выпущена серия памятных монет.

- Поэт отрастил очень длинный ноготь на мизинце

Во многих воспоминаниях современников подробно рассказывается о том, как Пушкин берег свой длинный чудо-ноготь (накладных ногтей тогда еще не было) и боялся его сломать. Поэтому, чтобы этого не случилось, Александр Сергеевич надевал на длинный ноготь золотой наперсток-чехольчик и так ходил в гости и на приемы.

- Пушкин хотел драться на дуэли с родным дядей

Юный поэт, которому тогда было всего лишь 17 лет, решил вызвать на дуэль не кого-нибудь, а родного дядю! За что же? Павел Ганнибал стал ухаживать за одной из барышень, на которую сам Александр Сергеевич (к тому времени ничем не прославившийся и пока неизвестный!) положил глаз. Причем, судя по описаниям очевидцев, сама барышня была вовсе не красавица и даже не умница. Но взбешенный любовной неудачей юный Пушкин собирался вызвать Павла Ганнибала на дуэль! И вызвал! Но дуэль не состоялась – возможно, дядя и его приятели сумели объяснить будущему поэту всю рискованность его затеи.

- Пушкин был масоном

Но надо понимать, что масонами в то время были многие, в том числе родные самого Александра Сергеевича, его отец и брат, а также – многие приятели и знакомые, хотя в последние годы правления Александра I масонские ложи были официально запрещены. Существует так и не подтвержденная архивными документами версия, что именно масоны приложили руку к последней роковой дуэли Пушкина, а Жорж Дантес являлся их тайным оружием.

- Пушкин сделал известной Надежду Дурову

Принявшая участие в войне с Наполеоном Надежда Дурова, переодевшаяся в офицерский мундир «кавалерист-девица», прославившаяся своей храбростью, после выхода в отставку села сочинять мемуары, которые отправила Пушкину – как издателю. Александру Сергеевичу автобиография, написанная Дуровой, очень понравилась, он отправил ей – как автору – одобрительное письмо. После того, как мемуары Дуровой были изданы и стали пользоваться успехом, об уже позабытой было «кавалерист-девице» вспомнили в высшем свете и отечественном обществе в целом. И книгу мемуаров Дуровой переиздают до сих пор! Более того, Пушкин высоко оценивал и ее художественную прозу.

Поведение Пушкина вызывало ревность его жены

Александр Сергеевич ухаживал как за великосветскими дамами, так и за своими крепостными крестьянками. Одна из них, Ольга Калашникова, получила от Пушкина «вольную» и большую сумму денег, на которую смогла купить дом. Но вот ее маленький сын, рожденный от поэта, не выжил.

Наталья Гончарова, став женой Пушкина, не раз мучилась ревностью, наблюдая и узнавая от знакомых, что Александр Сергеевич опять кем-то увлекся. Однажды она не стерпела и после бала, на котором муж слишком много внимания уделял другой женщине, влепила ему пощечину, о чем Пушкин, смеясь, написал одному из своих друзей.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Абрамович С.Л. Пушкин в 1836 году: Предыстория последней дуэли. - Л., 1984. - 205 с.

2. Александр Пушкин: Исторические заметки, историческая проза. - Л., 1984. - 527 с.

3. Ахматова А. О Пушкине: Статьи и заметки. - Горький, 1984. - 350 с.

4. ASTA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIE ISSN: 319-2836 ИМПАКТ-ФАКТОР: 7.603 Том 11, выпуск 11, 2022 г. Исроилова Г.М. МЕХАНИЗМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В ПРЕДМЕТЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ.

5.НАУКА И ИННОВАЦИИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ Международная научно-онлайн конференция «ПРЕПОДАВАНИЕ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ЗАНЯТИЯХ С БОЛЬШИМ НАПОЛНЕНИЕМ» ИТАЛИЯ 2023 05.05 Исраилова Гульнара Мамаджановна

6. Научный вестник Наманганского государственного университета ISSN:2181-0437 Journal.namdu.uz 3-son.2023 стр.548 «История формирования и функционирования родственных терминов» Гульнара Исраилова Мамаджановна

7. Preparing for The Final Interview in Russian in high School: Tips for Teachers, Students and Parents Journal of Advanced Zoology ISSN: 0253-7214 Volume 44 Issue 05 Year 2023 Page 97:101 Scopus Israilova Gulnara Mamajanovna

8. ИНТЕРЕСНЫХ ФАКТОВ О РУССКОМ ЯЗЫКЕ Исраилова Гулнара Мамаджановна Analysis of world scientific views International Scientific Journal 2023 Vol1 Issue 7 IF (Impact Factor)8.2 / 2023

ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI BADIIY VA G‘OYAVIY XUSUSIYATLARI

Fazildinova Sevara Nematovna
FarDU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni “Xamsa” dostonlari ichida badiiy tasvir ifodaliligi va idealistik mavzularning boy ekanligini o‘zida mujassam etgan muhim asardir. Ehtirosli va qat’iyatli qahramon Farhod cheksiz sadoqat idealini ifodalasa, Shirin go‘zallik va nafosatni timsol qilib, muhabbatga intilishning oliy darajasini ifodalaydi. Ushbu maqolada Alisher Navoiyninmg “Farhod va Shirin” dostonining tuzilishi, Nizomiy, Dehlaviy, va

Ashraf Marog‘iylar dostonlaridagi obrazlar farqi va o‘xshahsliklari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: g‘azal, she’rlar, doston, bayt, qahramonlar

Abstract. Alisher Navoi’s epic “Farhad and Shirin” is an important work that embodies the expressiveness of the artistic image and the richness of idealistic themes in the epic “Khamsa”. At its core, the epic highlights the characteristics of its protagonists, Farhad and Shirin, embodying the tension between earthly desires and spiritual fulfillment. Farhad, a passionate and determined hero, represents the ideal of unwavering devotion, while Shirin epitomizes beauty and grace, symbolizing the ultimate aspiration of love. Their relationship serves as a canvas for exploring themes of loyalty, the transformative power of love, and the pursuit of artistic ideals. This article examines the structure of Alisher Navoi’s epic “Farhad and Shirin”, the differences and similarities of the characters in the epics of Nizami, Deglavi and Ashraf Marogi.

Key words: ghazal, poems, epic, verse, heroes

Sharq adabiyotida ishq muhabbat to‘g‘risida ko‘plab g‘azal-u she’rlar, badiiy asarlar hamda dostonlar yaratilgan. Ushbu dostonlar yillar davomida ajdodlardan avlodlarga yetib kelib, hali hanuz o‘z mavqeini saqlab kelmoqda. Shunday mavqega ega ishqni tarannum etuvchi dostonlardan biri – “Farhod va Shirin” dostoni bo‘lib, Alisher Navoiy uni 1484 yilda yozib tugallagan. Navoiygacha bu mavzu “Xusrav va Shirin” shaklida mashhur edi.

Alisher Navoiy bu mavzudagi dostoni uchun avvalgi dostonlarda ikkinchi darajali timsol tarzida talqin qilingan Farhodni bosh qahramon qilib oladi. Aslida Farhodning bosh qahramon qilib olinishi adabiyotda ilk bor XIV asrda Ozarbayjonda yashab faoliyat yuritgan Orif Ardabiliyning “Farhodnoma” (1369) nomli fors-tojik tilida yozilgan dostoni bilan boshlanadi. Lekin unda tasvirlangan voqealar Navoiy dostonidan butunlay farq qiladi. Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida bu mavzuda qalam tebratgan ijodkorlar sifatida Nizomiy, Dehlaviy, Ashraf Marog‘iylarni eslab o‘tar ekan, yana bir noma’lum ijodkorga ham ishora qilib o‘tadi:

Yana bolg‘on ekan bu noma marqum,
Vale roqim emastur yaxshi ma’lum.

Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni 54 bob, 5782 baytdan iborat. Shundan muqaddima 11 bobni o‘z ichiga oladi. Doston an’anaviy hamd – Allohning maqtovi bilan boshlanadi. Dostonda ikkita hamd mavjud. Birinchi hamdda Alisher Navoiy yaratuvchining qudratini ta’riflab, uning irodasi bilan qalamga olmoqchi bo‘lgan g‘oyaviy niyati haqida so‘z yuritar ekan, birinchi misrani arabcha kalima bilan boshlaydi:

Bihamdik fath abvob ul maoniy,
Nasib et ko‘ngluma fath o‘lmak oni.

Ya’ni: Ma’nolar eshiklarining ochilishi sening maqtoving bilan va ko‘nglumga ularni zabt etishni nasib qil.

Keyingi baytlarda Navoiy ma’nolar xazinasi qulfiga qo‘lining kalit bo‘lishini, shu vosita bilan barcha umidlariga yetishishni tilaydi, ana shu ma’nolar xazinasidan olam ahlini bahramand qilishni umid qiladi.

Ikkinchi hamdda shoir yozishga kirishayotgani “Farhod va Shirin” dostonining umumiy talqini, undagi qahramonlarning muxtasar tavsifini beradi, “dard bog‘i” deb ta’riflangan ishq bilan aloqador barcha hayajon va iztiroblar haqida yozadi. Shoir Xoliq maqtoviga kirishar ekan, eng avvalo, u inson ko‘nglini ishq gulshani, bu gulshanda esa ishqni xazinaga aylantirganligini madh etadi:

Ki inson ko‘nglin etti gulshani ishq,
Bu gulshanning harimin maxzani ishq.

A.Rustamovning “Navoiyning badiiy mahorati” kitobida yozilishicha, Navoiy qazoni Farhodga, osmonni Farhodga aloqador Besutun tog‘iga, aqlni Chin xoqonining vaziri Mulkoroga va donishmand Suqrotga, tunni Xusrav Parvezning oti Shabdezga, qadarni Farhodning do‘sti Shopurga, ajalni otasini o‘ldirgan Parvezning o‘g‘li Sheruyaga, zamonni Parvezning sozandasi Nigisoga o‘xshatgan holda “shirin”, “tilism” so‘zlarini, Besutun, Xusrav va uning ashulachisi Borbad nomlarini tilga olib, muqaddimani dostonning mundarijasiga uyg‘unlashtirgan. Shu bilan birga bu o‘xshatishlar zamirida shoir doston mundarijasida qahramon va timsollar faoliyati qaysi ko‘lamda kechishi, ular dostonda qanday rol’ o‘ynashi bilan ham kitobxonni tanishtiradi.

Munojot (3-bob)da Alisher Navoiy insonning yo‘qlikdagi holati, dunyoga kelishi, go‘dakligi, hayoti to‘g‘risida bayon qiladi. “Lavhi mahfuz” (kishilarning yaxshi va yomon amallari, taqdiri azaldan bitib qo‘yilgan taxta) haqida fikr yuritar ekan, inson azaliy qismat ijrochisi ekan, bunga uni gunohkor qilishni qanday izohlash mumkin degan fikrlarni aytadi:

Va gar ul lavh uza bo‘lsa muharrar,
Azal taqsimidin bo‘ldi muqarrar.
Ne dersen bas bu jam’i benavog‘a,
Gunohe qilmayin qolg‘on balog‘a?

Keyingi baytlardayoq Navoiy bu fikrlarni behuda da’vo deb hisoblab, ruju’ san’ati vositasida bu da’voni inkor qiladi va Allohdan unga marhamat qilishini so‘raydi:

Junundin so‘zga bir dam bo‘lmay ogoh,
Gar ortuq so‘z dedim, astag‘firulloh.
Ilohiy, boqmag‘il majnunlug‘umg‘a,
Karamdin chora qil mahzunlug‘umg‘a.

Dostonning to‘rtinchi bobi Muhammad payg‘ambar (s.a.v) madhiga bag‘ishlangan. Bob payg‘ambarning muborak chehrasi tavsifi bilan boshlanib, uning o‘qish va yozish bilan shug‘ullanmaganligi ajoyib badiiy san’atlar vositasida bayon qilib beriladi. Xususan, qalam payg‘ambar unga mayl ko‘rsatmaganidan, ya’ni uni qo‘lida tutmaganligidan keyin yoqasini chok qilib, ko‘z yoshlarini to‘kib, afg‘on qilganligi, uning qo‘lini o‘payin deb qancha og‘zini ochmasin, uning orzusi amalga oshmaganligi husni ta’lil san’ati asosida keltirilganligini ko‘ramiz:

Necha choki giribon qildi xoma,
To‘kub ashkini afg‘on qildi xoma.
Ochib og‘zin qilay deb dastbo‘si,
Muyassar bo‘lmayin bu orzusi.

Bobda “insonlar payg‘ambar belgilab bergan shariat qoidalari asosida yashasalargina, haqiqiy saodatga erishadilar” degan g‘oya ilgari suriladi.

5-bob me’roj tuni ta’rifiga bag‘ishlangan bo‘lib, payg‘ambarning Buroq oti yordamida Alloh huzuriga yo‘l olishi tasviri beriladi. Bunda payg‘ambarning 12 burj va 7 sayyoralarni oshib o‘tib, Lomakonga ko‘tarilganligi, “qoba qavsayn” (ikki yoy oralig‘i) darajasida Allohga yaqinlashgani va foniy bo‘lganligi haqidagi fikrlar bayon qilinadi.

Anga bu surma bo‘lg‘och qurratul ayn,
Nasib o‘ldi maqomi “qoba qavsayn”.
O‘zin gum aylabon, lekin topib haq,
Ko‘rinmay kimsa haqdin ayru mutlaq.

Dostonning 6-bobi qalam ta’rifi hamda ulug‘ salaflar Nizomiy va Dehlaviylar madhini o‘z ichiga oladi. Navoiy dastlab qalamga ta’rif berar ekan, uni Xusrav Parvezning tez uchar qora oti Shabdezga, qalamni tutuvchi barmoqlarni shu ot ustidagi chavandozga, barmoq bo‘g‘inlarini chavandozning belbog‘iga, tirnoqlarni esa uning yuziga o‘xshatadi:

Qalamkim, rahnavardi teztakdur,
Azaldin manzili favqul falakdur.
Magar vahm adhamidur tez raftor,
Ne adham, jardai Shabdez raftor.
Chiqib ustiga barmoq shahsuvori,
Bo‘g‘un belbog‘iyu tirnoq uzori.

Hazrat Navoiy Nizomiyni xazinadorga, uning ma’nolarga to‘la asarlarini xazinalarga o‘xshatib ta’riflaydi. Xusrav Dehlaviyni u yashagan Hindiston bilan bog‘liq holda hindu, to‘ti, bulbul, qaqnus, mushk hidli bulutga o‘xshatadi. “Xamsa” yozish an’anasini kurash maydoniga o‘xshatib, o‘zining bugungi kunda nihoyatda mashhur baytlarini yozadi:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasig‘a panja urmoq.

Aynan shu bobdan boshlab 2-3 baytli soqiynomalar berib boriladi. Ko‘pincha bu soqiynomalarda shoir keyingi bobda qalamga olinadigan voqea yoki masalalarga ishora qilinadi:

Kel ey soqiyki, tushmish jonima jo‘sh,
Ketur bu ikki yodi birla bir qo‘sh.
Alar ishqida no‘sh aylab iki jom,
Tutay Jomiy mayi madhin saranjom.

7-bob “Hazrati shayxu-l-islomiy mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy” madhidadir. Alisher Navoiy Nizomiy va Dehlaviyni ikkita filga o‘xshatgani holda, Jomiyni yuz filga o‘xshatadi. So‘z o‘yini vositasida uni XI-XII asrlarda yashagan

mashhur so‘fiy Zindapili Jomiyga qiyoslaydi, “fano timsoli”, “jahoni begaron” (cheksiz jahon), “olami kubro” (ulug‘ olam) deb ataydi. Bob Jomiy qo‘lidan bir jom ichish umidi bilan yakunlanadi:

Keturgil, soqiy ul jomi kiromiy
Ki, tutsun rindlar sarxayli Jomiy.

Navbatdagi bob dostonning yozilish sababi haqida. Bu bobda shoir dostonni yaratish orzusi paydo bo‘lgach, bepoyon durru gavharlar dengiziga cho‘mganligini, ya’ni ko‘p mutolaa qilganligini, tinmay o‘ylaganligini aytadi. Dostonni yozishga undagan sabablardan biri o‘zining muhabbati, bu ishqning alam va iztiroblari ekangligini aytib, u tufayli o‘ziga yetishgan azobu uqubatlarni bayon qiladi. Shunda unga g‘oyibdan nido kelib, hotif (g‘oyibdan oq fotiha beruvchi) uni yangi bir asarni yozishga ilhomlantirganini, keyin Jomiyning oldiga borganida u ham shoirni duo qilib, bu ishda unga oq yo‘l tilaganini yozadi.

Farhod yoshi ulg‘aygani sari hazin va xastadil bo‘lib bo‘lib boradi. Xoqon Farhodning ko‘nglini ochish, hazin kayfiyatini ko‘tarish uchun yilning to‘rt fasliga moslab to‘rt qasr qurdiradi. Shu asnoda Farhod Qorandan tosh yo‘nish, Boniydan me’morlik, Moniydan naqqoshlik sirlarini o‘rganadi. Lekin u egallagan bilimlar, o‘rgangan hunarlar zohiriy (dunyoviy) bilimlar bo‘lib, ilohiy siru asrorni ochishga kifoya qilmaydi. Endi u piri komil ta’limini olishi kerak edi.

Doston xotimasi ikki bob (53-54) dan iborat bo‘lib, 53-bob Sulton Husayn Boyqaroning o‘g‘li shahzoda Abulfavoris Shohg‘arib Mirzo madhi va unga bag‘ishlangan bir necha nasihatni o‘z ichiga oladi. Navoiy Shohg‘arib Mirzoga kamolotga erishish yo‘llari haqida gapirar ekan, shahzodaga Iskandar Zulqarnayn, Mirzo Ulug‘bek kabi hukmdorlarni ibrat qilib ko‘rsatadi. Eng muhim ilmlar sifatida fiqh, hadis va tafsirni egallash zarurligini uqtiradi, shuningdek tibbiyot va hikmat ilmini ham o‘rganishni tavsiya etadi:

Yakuniy bobda Navoiy Farhod timsolini o‘z zamonasidagi barcha shahzodalarga ibrat hamda o‘rnak qilib ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Навоий. Мукаммал асарлар тўплами 16-том. Муҳокамат ул-луғатайн. – Тошкент: Фан, 2000. – 95 б.

2. Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. Т.13. – Тошкент: Фан, 1979. – 512 б.

3. Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Тошкент: Ўзбекистон. 2011. – 240 б.

4. Қаюмов А. Дилкушо такрорлар ва руҳафзо ашҳорлар. – Тошкент: Шарқ. 2014. – 271 б.

5. Рустамов А. Адиблар одобидан адаблар. – Тошкент: Маҳнавият. 2003. – 112 б.

6. Шайхзода М. Асарлар. Т.4. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – 372 б.

7. Ҳаққулов И. Камол эт касбким... – Тошкент: Чўлпон. 1991. – 240 б.

XORAZM DOSTONLARDAGI FORSIY ASOSLI AYOL NOMLARI

Yo‘ldashova Rayxon Baxtiyor qizi

Annotatsiya. Mazkur maqolada forsiy asosli ayollar nomlari,ayniqsa, og‘uz shevasidagi ba’zi so‘zlarimiz eroniy ekanligi va ularning til hodisalari orqali sezilmas holga kelgani ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: antroponim, onomastik birlik, forsiy elementli nomlar, *gul* komponentli nomlar, arxaiklashish.

Annotation. In this article, it is shown that women’s names with Persian roots, especially some of our words in Oghuz dialect, are Iranian, and they have become invisible through linguistic phenomena.

Keywords: anthroponym, onomastic unit, names with Persian elements, names with floral components, archaicization.

Turkiy xalqlar tili juda qadim davrlardan buyon O‘rta Osiyoda azaldan yashab kelgan eroniy tillar bilan aloqada bo‘lib kelgan. Manbalarda ta’kidlanishicha, O‘rta Osiyo, xususan, hozirgi O‘zbekiston hududida turkiy tilda gaplashuvchi aholi ham qadimdan yashagan. So‘nggi davr tadqiqotlarida “o‘zbeklar ikki xil tilda so‘zlashuvchi – sharqiy eroniy va turkiy qabila va elatlarning qorishuvidan tarkib topgan etnosdir”, – deya ta’kidlanadi[296]. Shunday ekan, hozirgi turkiy tillar va o‘zbek tilida uchrovchi so‘g‘d, xorazmiy tillari elementlari qadimiy davrlarda yuz bergan tillararo aloqalar natijasi deb qaralmog‘i kerak.

Eroniy tillarning izlari, ayniqsa, Xorazm shevalari leksikasida juda sezilarlidir. Prof. O.Madrahimovning qayd qilishicha, “eroniy tillar o‘zagiga aloqador bo‘lgan leksik qatlam Xorazmdagi o‘g‘uz shevalari leksikasining organik qismiga aylanib ketgan. Ular kundalik hayotda ko‘p ishlatiladigan zarur va muhim tushunchalarni ifodalovchi so‘zlardir”[297].

Bunday so‘zlar sheva vakillari tiliga shu darajada singib ketganki, hatto, bu elementlar boshqa til oilasiga mansub ekanligini payqash ham ancha mushkul. Buning asosiy sababi, Sh.Shoabdurahmonov qayd qilganidek, “forsiy so‘zlar o‘zbek tili va shevalariga adabiyot orqali kirmadi, balki xalqlarning asrlar davomida birga, hamkor hayot kechirgani, bevosita munosabatida o‘zaro bo‘lgan zarurat tufayli kirgan”[298].

Og‘zaki dostonlar tili ko‘proq so‘zlashuv tiliga yaqin bo‘lganligi sababli, ularda ham shevaga xos xususiyatlar to‘la saqlangan. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, onomastik birliklar ham garchi boshqa tillardan o‘tgan bo‘lsa-da, mavjud sheva vakillari tiliga to‘liq moslashgan. Quyida dostonlar onomastik tizimida uchraydigan eroniy tillarga xos nomlar haqida to‘xtalamiz.

Gul. Ushbu forsiy tillarga mansub onomastik birlik mustaqil antroponimning asosi yoki komponenti sifatida kishi nomlari hosil qilishda juda ham faol bo‘lib, dostonlar onomastik tizimidagi ko‘plagan nomlar tarkibida uchraydi: ***Gulasal*** (“Yusuf va Ahmad” dostoni, 23-bet), ***Gulrux, Gulruxpari, Gulruxsor*** (“Avaz

[296] Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. –Toshkent: Universitet, 2007. – B.235.
[297] Madrahimov O. O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi leksikasi. Toshkent, “Fan”, 1973. – B. 49.
[298]Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari. Toshkent, “Fan”, 1962. – B.222.

uylangan” dostoni, 99, 101-betlar), ***Gulandom*** (“Go‘ro‘g‘li” dostoni, 31-bet), ***Gulshirin*** (“Arab tang‘an” dostoni, 143-bet), ***Gulixiromon*** (“Xirmondali” dostoni, 273-bet), ***Gulshan*** (“Xirmondali” dostoni, 310-bet), ***Guljon, Gulqiz, Gulnoz*** (“Gulqizoy” dostoni, 144-bet), ***Guljamila*** (“Hurliqo va Hamro” dostoni, 107-bet), ***Gulsarvi*** (“Edigo” dostoni, 243-bet), ***Gulchehra*** (“Oshiq Alband” dostoni, 147-bet), ***Gulchaman*** (“Oshiq Najab” dostoni, 95-bet), ***Gulsutun*** (“Shahriyor” dostoni, 343-bet) va boshqalar.

O‘rta Osiyo xalqlarining deyarli barcha tillarida uchraydigan ushbu element nomning asosi bo‘lib kelishi, shuningdek, ismga qo‘shilib ham kelishi mumkin: ***Donogul*** (“Donogul”), ***Ko‘kgul*** (“Edigo”), ***Lolagul*** (“Gul va Sanobar”), ***Novgul*** (“Sayyod va Hamro”), ***Oygul*** (“Avaz”), ***Oqchagul*** (“Yunus va Misqol”), ***Olmagul*** (“Zulfizar”), ***Sarvigul*** (“Xandon botir”), ***To‘tigul*** (“Go‘ro‘g‘li”) va boshqalar.

Gul elementi nomlar tarkibida “*chechak, chiroyli, xushro‘y*” kabi ma’nolarni anglatadi. Qiyos qiling:

Gulandom – gulga o‘xshash bo‘y, gulday kabi qomat;
Guloro – gullar bilan bezangan;
Gulasal – gulning asali (gulday go‘zal, asalday shirin);
Guljamol – gulday ochilgan, go‘zal yuz, mukammal;
Guljahon – dunyoning guli, go‘zallikda dunyoda yagona;
Gulizar – gul yuzli (gul + “i” forsiy izofa + arabcha zar “yuz, oraz”);
Gulniso – ayollarning go‘zali;
Gulnigor – gul yuzli, gulchehra;
Gulnor – anor guli;
Gulnoz – nozli gul va shu kabilar.

Gul elementli nomlar bugungi o‘zbek antroponimikasida ham o‘ziga xos mavqega ega. Bu haqda o‘zbek antroponimikasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan olimlarning ishlarida yetarlicha ma’lumotlar berib o‘tilgan. Jumladan, *Gulbahor, Hayitgul, Jumagul, Anorgul, Mohigul, Norgul, Oygul* kabi nomlar zamonaviy o‘zbek ayollarga xos nomlari orasida o‘z faolligini yo‘qotmagan[299].

Eroniy tillarga aloqador *gul* elementli nomlar o‘zbek tarixiy antroponimikasi fondida ham ancha faol bo‘lganligini Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z qizining nomini *Gulbadanbegim* deb qo‘yganligining o‘zi ham ko‘rsatib berishi mumkin. Mazkur onomastik birlik hozirgi kunda, asosan, ayollar ismiga qo‘shilib kelishi haqida aytilgan edi. Bu xususiyat uning gender jihatdan muayyan darajada xususiylashganligini bildiradi. Ammo, “Edigo” dostonida ***Ko‘kgul*** shaklida erkak kishining ismi tarkibida ham qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin: *“...Ammo, Ko‘kgul degan bola tamomi o‘g‘lonlarning ushoqlarini utdi...”*[300].

Xorazm shevalari antroponimik tizimini kuzatar ekanmiz, forsiy *gul* komponentli nomlar hozir ham *Gulmon, Gulimmat, Gulmirza* kabi erkak kishilarning ismlari tarkibida qo‘llanilayotganini uchratamiz. Demak, bu element bir vaqtlar erkak ismlarini yasashda ham qatnashgan.

[299] Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. –Toshkent: Fan, 2013. –B.119.
[300] Oshiqnoma. 1-kitob. Mas’ul muharrir S.Ro‘zimboyev. –Urganch: Xorazm nashriyoti, 2006. – B.198.

Tekshirilayotgan *gul* forsiy elementli nomlar zamonaviy o‘zbek ismlari tarkibida ayrim hollarda laqablarning paydo bo‘lishiga ham xizmat qilganligini ko‘ramiz. Masalan, *Nabigul* ismi “o‘z ashulasi va cholg‘usi bilan qiziqchilik qilib, o‘tirish va suhbatlarni gullatgani uchun “gul” laqabini olgan” – deya keltiriladi”[301].

Ushbu element ononmastikaning boshqa ko‘lamlari uchun ham nom hosil qiluvchi element sifatida ishtirok etishi mumkin. Jumladan, ba’zi hollarda toponimlar hosil qilishda ham ishtirok etganini kuzatamiz.

Masalan, *Guliston* – Sirdaryo viloyati tarkibidagi shahar, *Arshangul* – Qaraqalpog‘iston Respublikasi Chimboy tumanidagi ovul, *Gulbog‘* – Samarqand viloyatining Samarqand tumaniga qarashli joy nomi, Namangan viloyatining Uychi tumanidagi qishloqlardan birining nomi, *Gulg‘uncha* – Xorazm viloyati Xonqa tumanidagi mahalla nomlaridan biri, *Gulzor* – Buxoro viloyatining Vobkent tumanidagi qishloq nomi va boshqalar[302].

Tekshirilayotgan *gul* elementi ayrim nomlar tarkibida gender ifodalash funksiyasiga to‘liq moslashgan holatni namoyon qilishini kuzatishimiz mumkin. Ya’ni, nomga mazkur element qo‘shilishi uni ayollarga xos nomga aylatirishini ko‘ramiz.

Masalan,

Erkak kishi nomi	Ayol kishi nomi
Safarboy	Safargul
Bozorboy	Bozorgul
Jumaboy//Jumavoy	Jumagul
Yaxshimurod	Yaxshigul

Bonu. Ushbu eroniy tillarga xos bo‘lgan onomastik birlik dastlab grammatik ma’no ifodalagan. Ma’lumki, eroniy tillarda turkiy tillardagi kabi jins ifodalovchi grammatik ko‘rsatkich yo‘q. Shu sababli, jins ma’nosi leksik usulda, ya’ni so‘zlar yordamida ifodalangan. Jumladan, qadimgi Eronda davlat boshqaruvchi, hukmdor *xshatradora* so‘zi bilan yuritilgan. *Xshatra* qadimgi fors tilida “davlat, hokimiyat” degan ma’noni bildirgan.(yangi fors tilidagi shaxr “shahar” so‘zi ham ushbu o‘zak bilan bog‘liq). *Dora* (yangi fors tilida – “dor”) “egallovchi” (rus. obladatel) demakdir.

Shunday ekan, *xshatradora* “hokimiyat egasi” degan ma’noni anglatadi. Keyinchalik, hozirgi fors tilida *shahriyor* shakliga kelgan, bu so‘z ayni vaqtda unvon ma’nosida ham qo‘llangan. “*Shahriyor*”ning xotini esa “*Shahribonu”* maqomini olgan. Qishloq hokimi *katxudo* deb yuritilsa, uning xotini *katbonu* yoki *kadbonu*, ya’ni “*qishloq bekasi*” (aynan, uy bekasi) deb atalgan.

Umuman, dastlab *bonu* elementi mustaqil qo‘llanmagan, u ayollar ismini hosil qilish uchun xizmat qilgan. Masalan, eroniylarda *Gavhar* ismi erkak kishilar nomi sifatida mavjud bo‘lgan, unga *bonu* komponenti qo‘shilgach ayol nomi

[301] Begmatov E. Keltirilgan manba, 64-bet.
[302] O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. Tuzuvchilar: R.Xudayberganov va b. –T.: Donishman ziyosi, 2022.

Gavharbonu hosil bo‘lgan. Dastlab *bonu* elementi yuqori tabaqa ayollari ismigagina qo‘shilgan, keyinchalik barcha toifa vakillari nomiga qo‘shib ishlatish odat tusiga kirgan.

Ushbu komponent Xorazm dostonlarida ayol nomlari hosil qilishda ham qo‘llanilgan. O‘rni kelganda, yakka holda ayol nomi bo‘lib kelgan holatlar ham kuzatiladi. “Xiromon pari”, “Sayodxon va Hamro” dostonlarida *Bonu* so‘zi mustaqil holda nom sifatida qo‘llangan: *...Ammo qizlarning ichinda ikki kaniz bor erdi, birining oti* ***Bonu****, yana birining oti Lizon erdi...*[303].

Mazkur forsiy element “Malikayi Zavriyo” dostonida *Shahribonu* nomi tarkibida nomning tarkibiy qismi sifatida qo‘llanilgan: ...*So‘najonning bir kanizi bor erdi. Otig‘a* ***Shahribonu*** *der erdilar...*[304].

Xorazm o‘guz shevalarida ***Shahribonu*** nomining fonetik tarkibi o‘zgarib, ma’lum darajada yaxlitlashib “Sharvon” shakliga kelib qolganligini ham qayd qilib qo‘yish lozim. Bunday holatga kelishiga nom tarkibidagi bo‘g‘iz undoshi “h”ning lahjalarda talaffuz qilinmasligi hamda bonu elementi tarkibidagi “b” fonemasining lahjaga mansub shevalarda “v”ga aylanib talaffuz etilishi sabab bo‘lgan. Bunday hol shevalarda faol kuzatiladigan hodisa sifatida qayd etilgan. Masalan, *shahar//shaar; mehmon//memon*; yoki: *o‘ba//ova; yobon//yovon* va boshqalar.

Shuni ham e’tiborda tutish kerakki, ***Shahribonu*** kabi antroponimlar bugungi kunga kelib ma’lum darajada arxaiklashish jarayonini boshidan kechirmoqda.

Umuman, eroniy asosli nomlar haqida so‘z borar ekan, ular dostonlar onomastikasida uchraydigan eng qadimgi nomlar sifatida qayd qilinishi lozim deb hisoblaymiz. Bunday nomlarning ayrimlari Avesto yodgorligi matnlarida, Firdavsiyning “Shohnoma” asari kabi qadim eroniy manbalarda ham uchraydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F.Abdurahmonov D. Bektemirov H. O‘zbek xalq dostonlari onomastikasi. Toshkent. Fan. 1967. 180-bet.

2. Andaniyazova D. Onomastik birliklarning lingvopoetik tadqiqi. Toshkent: Turon zamin ziyo. 2016. –B.98.

3. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent. 1985y.

4. Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. –Toshkent: Fan, 2013. –B.163.

5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. www.ziyouz.com kutubxomasi. O harfi. –B.99.

6. Olloyorov Q. Xorazm dostonlari onomastikasi. PhD.diss.avtoref. –Samarqand: 2018;

7. Olloyorov Q. Xorazm dostonlaridagi gender xususiyatli universal nomlar va affiksoidlar. Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. –Xiva: 2019. Maxsus son. –B.102; Olloyorov Q. Xorazm dostonlari onomastikasi. –Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2017.-B.74.

[303] Oshiqnoma. 2-kitob. Mas’ul muharrir S.Ro‘zimboyev. –Urganch: Xorazm nashriyoti, 2006. – B.318.
[304] Oshiqnoma. 1-kitob. Mas’ul muharrir S.Ro‘zimboyev. –Urganch: Xorazm nashriyoti, 2006. – B.301.

ONA TILI DARSLARI: SINONIM SO‘Z MA’NOSINI O‘ZLASHTIRISHDA VALENTLIK METODIDAN FOYDALANISH

Toshmirzayeva Sharofat Mirbabayevna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada valentlik tushunchasi nazariy jihatdan izohlanadi, valentlik nazariyasini ta’lim jarayoniga olib kirishning muhim jihatlari ochib beriladi, dars jarayonida o‘quvchiga bilim va ko‘nikma berishda valentlik nazariyasidan foydalanish uchum ma’lum ko‘rsatmalar tavsiya qilinadi.

Kalit so‘zlar: valentlik, semantik valentlik, sintaktik valentlik, fe’l, sinonim, mutlaq sinonim, sinonimik qator.

Annotation. In this article, the concept of valence is theoretically explained, the important aspects of introducing the theory of valence into the educational process are revealed, certain instructions are recommended for the use of the theory of valence in imparting knowledge and skills to the student during the lesson.

Key words: valence, semantic valence, syntactic valence, verb, synonym, absolute synonym, synonymous line.

Valentlik so‘zlarning anglatadigan ma’nosidan kelib chiqib boshqa so‘zlarni biriktirish qobiliyatidir. Shunga ko‘ra valentlikning semantik va sintaktik valentlik kabi tiplari o‘zaro farqlanadi. Semantik valentlik so‘z semantikasidagi mantiqiy semalarga asoslanadi. Mazkur so‘z birika oladigan so‘zda ham muayyan so‘zga mantiqan mos keladigan semalar mavjud bo‘ladi. Ularning o‘zaro bog‘lanib, so‘z birikmasi hosil qilishi, gap bo‘laklariga aylanishi semantik valentlikning sintaktik valentlik orqali reallashuvidir.


O‘zbek tilida, asosan, fe’llarning valentligi o‘rganilgan. Ko‘plab tadqiqotlar fe’llarning boshqa turkum so‘zlar bilan birikib, nutqda voqelanishi masalalariga bag‘ishlangan. Biroq tilshunos olim M.Mirtojiyev ta’kidlaganidek, “Valentlik faqat fe’l turkumi doirasida emas, boshqa turkumlar va hatto yordamchi so‘z turkumlari doirasida ham tadqiq etila boshlandi. Buni nemis tilshunosligida ham, rus tilshunosligida ham va hatto, o‘zbek tilshunosligida ham kuzatish mumkin”[305].

Sinonimlarning tilda mavjud bo‘lishi, yashab qolishi masalasi ham valentlik nazariyasi bilan aloqador hodisadir. Quyidagi sinonimik qatorga e’tibor qilaylik:

Aylanmoq, sayr etmoq, kezmoq. Bu so‘zlar “tomosha, hordiq uchun kezmoq” ma’nosidagi sinonimlar hisoblanadi. Bular orasida *sayr etmoq* birligi ko‘proq badiiy uslubga xosdir.

Ushbu so‘zlarni obyekt ifodalovchi biror so‘z bilan bog‘lab ko‘raylik:

[305] Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – В. 19.



Ushbu so‘z birikmalaridan *bozorni aylanmoq* shakli so‘zlashuv uslubida ko‘p qo‘llanadi. *Bozorni kezmoq, bozorni sayr etmoq* birliklari deyarli uchramaydi. (*Bozorda kezdim* shakli uchrasa-da, *bozorda sayr etdim* birikmasining qo‘llanishi badiiy uslub uchun u qadar mos emas). Bozor obyekti hordiq uchun sayr qilinadigan joy ma’nosini bildirmagani uchun *sayr etmoq* qo‘shma so‘zining valenti bo‘la olmaydi.

Avvalgi, oldingi, ilgarigi, burungi, qadimgi, sobiq. Bosh so‘zi *avvalgi* bo‘lgan ushbu sinonimik qatorda voqea-hodisaning so‘zlovchi nutqidan oldin sodir bo‘lganligi ifodalanadi. Sifat turkumiga oid bu so‘zlarning zamon bildiruvchi so‘z bilan bog‘lanishini ko‘rib chiqaylik:



Hosil bo‘lgan juftliklarda *zamonda* so‘zining qatordagi deyarli barcha so‘zlar bilan birika olishini, birikmalar ma’nosida biroz farqlar kuzatilishini ko‘ramiz. Biroq *sobiq* so‘zi bilan bog‘lana olmasligining ham guvohi bo‘lamiz. *Sobiq hokim, sobiq rais* kabi birikmalarda *sobiq* so‘zi *avvalgi, oldingi, ilgarigi* so‘zlari bilan ma’nodoshlik hosil qiladi va almashtirib qo‘llasa bo‘ladi (*burungi, qadimgi* so‘zlari bundan mustasno). *Sobiq* so‘zining valentlari payt ma’nosini bildiruvchi so‘zlar emas, shaxs, muassasa, o‘rin-joy ma’nosini bildiruvchi so‘zlar bo‘lishi mumkin.


Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, so‘z ma’nosi – nozik masala. So‘zning ma’nosini to‘liq anglamay turib ularni o‘zaro bog‘lab, birikma hosil qilish mumkin emasligini dars jarayonida o‘quvchilarga ta’kidlash zarur.

M.Mirtojiyev rus tilshunoslari Y.Apresyan va V.Zveginsevlarning fikrlariga tayangan holda “So’zlarning nutqda o’zaro bog‘lanishi hech mahal erkin emas. Ular o’z semantik imkoniyatiga ko’ra chegaralangan bo’ladi. So’z o’z leksik ma’nosi yo’l qo’ygan imkoniyatdan kelib chiqib ayrim so’zlar bilan birika ol”ishini ta’kidlaydi[306]. Demak, so‘zlarni o‘zaro bog‘lashda ularning imkoniyati

[306] Миртожиев, М.М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – В. 9.

chegaralanganini hisobga olish, har qanday ikki so‘zni o‘zaro bog‘lagan holda birikma hosil qilish mantiqqa mos kelmasligini tushunib yetish, har bir so‘zning valentligi, ya’ni ma’no jihatdan bog‘lana olish imkoniyati mavjudligiga diqqat qaratish lozim.

Biz mutlaq (absolyut) sinonimlar deb atayotgan so‘zlari bir-birining o‘rnini to‘liq qoplashi mumkin bo‘lgan so‘zlardir (Azim Hojiyev ta’kidlaganidek, garchi ular “vaqtinchalik hodisa” bo‘lsa ham). Masalan, *O‘zbekiston Respublikasi parlamenti – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi*[307]. Ushbu sinonimlardan so‘z birikmalari hosil qilib ko ‘raylik:



Birinchi (*parlament – Oliy Majlis binosi*), ikkinchi (*parlament – Oliy Majlis spikeri*) birikmalarda mutlaq sinonimlar hokim so‘zlar bilan birday bog‘langan. Uchinchi bog‘lanishda – *parlament – Oliy Majlis voizlari* birikmasida *voiz* so‘zida bir qadar ko‘hnalik elementi bo‘lgani sababli *parlament* so‘zi bilan bog‘lanishda uslubiy g‘alizlik ko‘zga tashlanadi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarga muayyan so‘zlardan birikmalar tuzish, so‘ng gaplar hosil qilish topshirig‘i berilganda, albatta, sinonimlarni aynan bir so‘z bilan bog‘lash shartini ham qo‘yish kerak. Bunday mashq orqali o‘quvchilarda so‘zlardagi nozik ma’no qirralarini farqlash ko‘nikmasi shakllantiriladi. Jumladan:

1. *Aniq, ochiq, yaqqol, ravshan, yorqin, oydin, ayon.* Ushbu so‘zlarni

a) *tushunish* so‘zi bilan;

b) *ifoda* so‘zi bilan bog‘lang.

2. *Balog‘at, voya, kamol, kamolot, yetuklik.* Bu sinonimlarni *yetmoq* fe’li bilan bog‘lab, so‘z birikmasi hosil qiling.

3. *Qovoq* (poliz ekini) so‘zini *barg, yaproq* sinonimlari bilan bog‘lab birikma, so‘ng gaplar tuzing.

1-topshiriqda o‘quvchi *aniq, yaqqol, ravshan* so‘zlari *tushunmoq* so‘zi bilan valentlik hosil qila olishini, *yorqin, oydin, ayon* so‘zlari esa *tushunmoq* so‘zi bilan emas, *ifoda* so‘zi bilan erkin bog‘lanishini aniqlaydi. 2-topshiriqda sinonimik qatordagi *yetuklik* so‘zi *yetmoq* so‘zi bilan tobe-hokimlik munosabatiga kirisha

[307] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. 3-jild. –B. 224.

olmasligini, 3-topshiriqda *qovoqning bargi* birikmasini yasash mumkin, biroq *qovoqning yaprog‘i* shaklini hosil qilib bo‘lmasligini anglaydi.

Ona tili darslarida so‘z ma’nosining valentligiga, ya’ni so‘zning ma’no jihatdan boshqa so‘z bilan bog‘lana olish imkoniyatiga ko‘proq diqqat qaratish lozim. Ayniqsa, sinonimik qatordagi so‘zlarni o‘zaro almashtirib qo‘llash jarayonida o‘quvchi e’tiborini sinonimlarning ma’no jihatdan farqlari, muayyan so‘zlar bilan bog‘lana olish xususiyatiga qaratish kerak bo‘ladi.

6-sinf Ona tili darsligining 27-betida Ibn Sino haqida “Amir” nomli matn berilgan va 29-betdagi mashqda shu matnda uchragan ba’zi so‘zlarning sinonimlarini topish, nuqtalar o‘rniga eng munosibini qo‘yish vazifasi topshirilgan[308].

1. ... (Ganj, Boylik, Xazina) ning boshi – sog‘lik.

2. Kasal – bitta, ... (shifo, davo, dori)si – mingta.

3. Kasalga ... (bol, asal) ham bemaza tuyular.

4. Chiniqqanga gard yuqmas, Tiniqqanga – ... (balo, ofat, dard).

5. Qorning ochmasdan ovqat ... (iste’mol qil, ye, tanovul qil), qorning to‘ymasdan qo‘l artgin.

Qavs ichida tavsiya qilingan sinonimlar, ma’nosi yaqin so‘zlar ot va fe’l turkumlariga oid. Birinchi gapda nuqtalar o‘rniga *boylik* so‘zini qo‘ygan o‘quvchi to‘g‘ri qaror qilgan bo‘ladi. Maqollarning she’riy shaklda yoki saj (qofiyalangan nasr)da yozilishini hisobga olasak, badiiy uslub talabiga ko‘ra *sog‘lik* so‘ziga qofiyadosh so‘z *boylik* bo‘ladi. *Boylik* va *bosh* so‘zlari alliteratsiya hosil qiladi, mantiqan boylikning boshlanish nuqtasi bo‘ladi, *ganj, xazina* so‘zlari bosh agensi semasi bilan mantiqan birikma hosil qila olmaydi. Ikkinchi misolda *shifo, davo, dori* so‘zlari *mingta* so‘zi bilan bog‘lanishi kerak. Bu o‘rinda har uchala so‘z ham kontekstga mos keladi: *shifosi mingta//davosi mingta// dorisi mingta*. Singarmonizm hodisasining badiiy uslub uchun xosligini hisobga olsak, *kasal, bitta, mingta* so‘zlarida uchragan *“a”* tovushi *davo* so‘zida kuzatilgani sabab shu so‘zni tanlash eng maqbul variant bo‘lardi. Uchinchi gapda *“Kasalga .... (bol, asal) ham bemaza tuyular”* maqoli berilgan. Mazkur gapda nuqtalar o‘rniga ikkala so‘zni qo‘yish badiiy uslub talabiga mos keladi, biroq o‘quvchi mukammal qofiya *(kasal//asal*) hosil qiladigan *asal* so‘zini tanlasa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. To‘rtinchi gapda *balo, ofat, dard* so‘zlari *yuqmas* so‘zi bilan erkin bog‘lana oladi, ammo qofiya *(gard//dard)* talabiga ko‘ra *dard* so‘zini nuqtalar o‘rniga qo‘yish to‘g‘ri tanlov bo‘lishini o‘quvchi anglashi va tushuntirib bera olishi zarur. Beshinchi misolga qaraymiz: *Qorning ochmasdan ovqat ... (iste’mol qil, ye, tanovul qil), qorning to‘ymasdan qo‘l artgin*. Maqolda ko‘roq so‘zlashuv uslubi ustunroq ekanligini hisobga olsak (*qorning, ochmasdan, ovqat, to‘ymasdan, artgin*) va *iste’mol qil, tanovul qil* birliklarida badiiy uslubga xos emotiv valentlik mavjudligini nazarda tutsak, *ovqat ye* birikmasini tanlagan o‘quvchining javobini rag‘batlantirish o‘rinli bo‘ladi. Albatta, bunda o‘quvchi o‘z javobini izohlay olsa,

[308] Ona tili 6-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova va boshq. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – B. 29.

so‘zning nozik qirralarini his qila olish qobiliyati o‘sadi, lug‘at boyligi oshib boradi.

Xulosa sifatida shun aytish mumkinki, o‘quvchi lug‘at zaxirasini boyitish ona tili darslarining asosiy maqsadi bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, o‘quvchi o‘zi qo‘llaydigan so‘zlarga tegishli ma’nolar miqdorini bilishi, amalda to‘g‘ri qo‘llay olishi kerak. Bu uchun o‘qituvchi valentlik nazariyasini inobatga olgan holda darslarni tashkil qilsa, topshiriqlar va mashqlar orqali ularda bu ko‘nikmalarni shakllantirsa, o‘z maqsadiga erishadi. Zero A.Hojiyev ta’kidlaganidek: “So‘z semantik strukturasi taraqqiyoti deganda, so‘zning ma’nolar miqdori va ma’no ottenkalari jihatidan boyishini nazarda tutish kerak bo‘ladi. Ma’nolar miqdorining kamayishi va qo‘shimcha ottenkalarning yo‘qolish hodisasini taraqqiyot deb bo‘lmaydi”[309].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Миртожиев, М.М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – В. 19.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. 3-jild. –B. 224.
3. Ona tili 6-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova va boshq. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – B. 29.
4. Ҳожиев А. Сўз семантик структураси тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти.1979, – № 4, –Б. 23.
5. Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. –Тошкент: Фан, 1977. – Б. 73.
6. R.Rasulov., Valentlik nazariyasi. Maqola. (Internet manba) URL: https://cyberleninka.ru/article/n/valentlik-nazariyasi/viewer 12.2022. (Murojaat qilingan sana: 13.10.2024)
7. Muhamedova S. O‘zbek tilida harakat fe’llarining semantikasi va valentligi. – Toshkent: Fan, 2013.

THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AND ADVANCED METHODOLOGICAL APPROACHES IN THE FORMATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS AS BLINGISTS

G.M.Axmadjonova
FarDU doktoranti

Abstract. In this article, effective pedagogical methods for bilingual education of elementary school students, methodological recommendations for the development of blingism, and innovative technologies that serve to increase the intellectual potential of students are discussed.

Key words: thematic field, noun, pedagogical environment, bilingualism, method, cognitive ability, educational technology.

[309] Ҳожиев А. Сўз семантик структураси тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти.1979, – № 4, –Б. 23.

INTRODUCTION

Today, globalization is a process that includes all spheres of human activity. If the language, which is a means of communication, was not so important in this process, the effectiveness of this process would not be so high. In our rapidly developing world, we live in a time when borders, including linguistic borders, are expanding and sometimes disappearing. More than half of the world's population speaks two or more languages on a daily basis. By the way, we are talking about a foreign language, because it is well known that most of the information on the Internet, as well as all international legal, regulatory, technical and other types of documents, are presented in a foreign language. A foreign language gives us the key to many opportunities.Oreign languages(english,russian,french,german...) are taught as a second language in educational institutions.Bilingualism is a Latin word, "bi" means two, and "lingua" means language, that is, bilingualism. Bilinguals are people who know and can speak a second language as well as their mother tongue. People who have been able to communicate in two languages since childhood are also called bilinguals.In fact, the term refers more to bilingualism, which is formed as a result of living in a bilingual environment. The Russian language is widely used as a second language in our country. This is due to several historical changes, that is, the fact that the Russian language was the state language before the years of independence, and the process of globalization. Today, the mother tongue is considered the state language, and Russian is taught in Uzbek schools. it is taught as a second language (foreign language). Learning the Russian language is considered a complex process, and young people are lagging behind in learning a second language because Uzbek families do not have a sufficient social environment for learning the language. Solving this problem it is necessary to rely on many new pedagogical methods that can be used for students. In his research work, he has based many methods of language learning from a practical point of view. As there are two sides of a coin, bilingualism can lead to both positive and negative aspects of a child's development. Bilingualism can improve cognitive skills such as multitasking, problem solving, and critical thinking. It also opens up new cultural and social experiences and can enhance career opportunities in a globalized world. However, bilingualism can lead to language confusion, delayed language development, learning difficulties, reduced cognitive development, and social and emotional difficulties.

There are different forms of bilingual education, including separate instruction in two or more languages or a combination of them, and all of these are specific stages of bilingual education. According to Baker, bilingual education is two languages in more than one language. According to modern estimates, approximately 60-70 percent of the world's population speaks two languages, and bilingual education is a common approach to education around the world. It is necessary to develop and put into practice several components of bilingual education. In this regard, in order to successfully improve the language learning skills of elementary school students, it is necessary to use game types of work in

the lesson, because young children For students, the game is the main form of learning about the world around them. The ability to acquire two languages at the same time lasts until about 7-8 years of age, and then, after mastering the written basics of speech, the ability to acquire the language in natural communication is common for the first time. language acquisition, declines. People who are bilingual from birth say that they are the first to acquire two languages. In addition to the game-based methods, we will try to use the Russian language as an example of working on the basis of the concept of "Thematic Area".

MATERIALS AND METHODS

Thematic area is a whole that summarizes words that are close to each other in meaning, form, function, and type and belong to the same group. They are similar to Atov words. this word creates a field around itself.

Atov word+field

Adverb: Spring

Field: the bride of the seasons, March, April, May, flower, warm weather, spring.

I think that using this pedagogical technology, that is, learning words by dividing them into groups, will greatly contribute to the increase of vocabulary. Because it is easier to remember words with similar meanings.

For example: Fish, wild animals, clothes, dishes.

Themed poles

Birds.

Sparrow(s), crow(s), rook(s), rook(s), rook(s), starling(s), ga'lka(s), magpie(s), la'stochka(s), woodpecker(s), crane(s), tit(s), bluebird, nightingale, swan(s), wild birds, quail(s), capercaillie(s), black grouse(s), heron, eagle;

Pets:

Cow, bull, calf, calves, sheep, ram, lambs, goat, dog, puppy, puppies, cat, kitten, kitten;

herd of cows, flock of sheep, herd of horses, pasture, shepherd, shepherd;

milk, butter, sour cream, cottage cheese, cheese,meat,wool, fluff;

beef, lamb, horse meat, pork;

Wild animals:

Bear, little bear,cubs,wolf,she-wolf,cub,wolf cubs,

Fox, hare, bunnies, squirrel, baby squirrel, hedgehog, elk, moose.

Fish.

Pike, carp, crucian carp, opkun, sand, catfish, shark, bream, ukha, fish, u'daughter, turnip, pond, scales', worm;

Winter.

December January February, snow, snowflakes, cold, frost, air, temperature, day, night, Spring.

March, April, May, sun, day, night, streams, grass, nature;

People Earth.

Rodina, region, fatherland, Uzbekistan, Ural, Ufa', Agidel, Moscow',

Kremlin, flag, coat of arms, anthem, city, village, village, capital, globe,

I am human.

I, arm(s), palm(s), leg(s), head, nose, eye(s), look, face, forehead, lips, mouth, teeth, neck, ear(s), eyebrow(s), veiko(s), hair

My friend is the computer.

Computer, monitor, keyboard, mouse, processor, printer, scanner, photocopier, laptop, file, website, Internet, space bar, personal disk, floppy disk, flash drive, computer science, projector, small, powerful, pocket, digital,

liquid crystal, plasma, new, old,print, play, enter, freeze, read information, copy, save, delete, exit, load, reload, turn on, view, turn off.

The following thematic area and the words around it have a common meaning, so they remain well in the student's memory and facilitate the process of language acquisition. The student's vocabulary increases. He can express his thoughts in a wide and comprehensive way even when he is searching. Oral speech is well formed. It is possible to organize didactic games using the thematic area.

For example:

The teacher says a word that reflects the thematic field. The student fills in this field.

Teacher: Мой друг компьютер.

Pupil: монитор,клавиатура,мышка,процессор,

принтер,сканер,ноутбук,файл,сайт,интернет,пробел.


In this way,it will be more appropriate if it is expressed verbally or using drawings.

Мой друг компьютер.



День рождения

Подготовка, уборка, праздник, сервировка, стол, скатерть, День рождения, накухне, друзья, торт, пирожное, ва’фли, варенье, конфеты, мороженое, чай, кофе; встречать, приветствовать, поздравлять, петь, танцевать, веселиться.



RESULTS AND DISCUSSION

Learning a second language is difficult for a child who grows up speaking one language from a young age. We can learn about this from the research of psychologist Ellen Bialystok. According to the results of the research, the vocabulary of children who speak one language is better than those who speak two languages, and also monolingual children also performed better on language tasks. But when the study was repeated a few years later among adults, bilinguals fared better than monolinguals. The fact is that although children lag behind their monolingual peers in the process of acquiring two languages, over the years this delay can be replaced by an advance.

I believe that the method of the thematic area reflected above will be effective as a pedagogical tool that contributes to the development of a Blimgvist. In fact, being bilingual always brings a number of conveniences. you can do it not only at school, but at home, paying more attention to your child. As an uncomfortable and interesting situation that occurs not only in bilingual people, but in general, in all foreign language learners, a word "turns around" at the tip of the tongue at the right time. If we fully understand the capabilities of a bilingual person, the desire to educate our children as bilingual in the future will certainly be born today. What needs to be done to implement this process.

-Growing up in a bilingual family. This is the most effective way to deal with your children.

-Moving to study, work, live in foreign countries with a language different from your mother tongue. In this situation, not only you, but also your children can develop bilingualism.

-The existence of a personal desire to learn a second language. Language learning is not just a fun process, it is a cognitive process that requires special

attention and effort. For those who are interested in intellectual work, language learning can be a truly enjoyable endeavor.

- Because of the religious motive. For many centuries, the process of learning a second language to receive religious education has been taking place. In this case, learning a second language can be done first in the family, and then according to a person's own desire.

Studies show that bilingualism can indeed offer cognitive advantages. Canadian scientist and psychologist Ellen Bialystok's research on "Bilingualism: Implications for Mind and Brain" shows that bilingual children often have better executive functions. These functions include attentional control, problem-solving skills, and task-switching skills. Imagine your child having the ability to focus and manage tasks - sounds like a pretty smart advantage, doesn't it?

Let's put the hype aside and nurture our children's interest in the second language. Although it may seem like they are taking a little longer to develop their language skills, they are building a strong foundation in both languages. They are like linguistic athletes. and their brains are getting a lot of exercise. Don't be upset if your bilingual child's first words seem to be coming a little later. Research shows that bilingual children may actually start speaking a little later than their monolingual peers. However, this delay is temporary and often evens out as they grow. They are learning two languages at the same time, which may require a little more time for their linguistic mechanisms to synchronize.

CONCLUSION

In conclusion, raising bilingual children has many cognitive benefits. Not only are they learning two languages, but they are developing advanced executive functions, problem-solving skills, and flexibility. Although they may begin to speak a little later, their linguistic journey equips them with lifelong cognitive skills. The positive effects of bilingualism are not limited to childhood; it can affect academic performance and even contribute to your strengths in subjects like math. So if you're thinking about taking your child on a bilingual trip, remember that you're not just teaching them languages, you're giving them the gift of cognitive excellence that will serve them well throughout their lives. It's time to embrace the wonderful world of bilingualism and watch your child's cognitive abilities flourish,'' said researcher Ellen Bialystok. Undoubtedly, a child who is brought up by adults who speak only one language will develop into bilingual by himself.

All of the processes listed above do not correspond to our social living environment. It is definitely limited materially and spiritually for some people.

Our hope as educators is as follows:

- improving the education system,
-creating new pedagogical methods,
- enriching the school library with literature related to language learning,
- being able to make students interested in the lesson
- always work on yourself

- to create an environment for learning a second language as a mother tongue at school

Parents are required not to be indifferent to their child's future.

REFERENCES

1. American Speech-Language-Hearing Association

2. Bialystok, Ellen, and Janet F. Werker. "The systematic effects of bilingualism on children's development." *Developmental science* 20.1 (2017).

3. Cromdal, J. (1999). Childhood bilingualism and metalinguistic skills: Analysis and control in young Swedish–English bilinguals. *Applied Psycholinguistics*, 20, 1–20.

4. Dijkstra, T. (2005). Bilingual visualword recognition and lexical access. In Kroll & de Groot (eds.), pp. 179–201.

5. ДАВЛЕТБАЕВА РАИСА ГУБАЙДУЛЛОВНА, МЕТОДИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ФОРМИРОВАНИЯ БИЛИНГВАЛЬНОИ ЛИЧНОСТИ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНИКА" Уфа-2010ю

6. Elen Bialystok Bilingualism in development Cambridge University Press **Online publication date:** December 2009

7. Elen Bialystok BILINGUALISM IN DEVELOPMENTCambridge University Press 2001

8. Samarova, S. 2018. Forming Creative Vision of Person as Universal Method Enhancing Creativity. Eastern European Scientific Journal, 6.

9. Samarova, S. R. 2019. Methods and technologies for the development of creative thinking of pupils. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 710, 37-43.

10. Величковский Б.М. Психология познания и кибернетика // Кибернетика живого: человек в разных аспектах. - М.: Наука, 1985.-С. 92-106.

11. Padilla A.M. & Liebman E. Language Acquisition in the bilingual children // The Bilingual Review / La Revista Bilingue. - 1975. — Vol. 2. - Pp. 34-55.

ZAVQIY IJODIDA DAVR NEOLOGIZMLARI

Gulbahor Qushaqova

Qo'qon DPI tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ma'lumki, har bir davrda adabiy tilga o'sha davr xususiyatlarini aks ettiruvchi yangi so'zlar – neologizmlar kirib keladi. Ayniqsa, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy yangilanish va o'zgarishlar, fan-texnika taraqqiyoti natijasida mazkur jarayon yanada tezlashadi. Bu esa o'z navbatida badiiy matnda yaqqol ko'zga tashlanadi. Yozuvchi va shoirlarning badiiy asarlari ular yashab o'tgan davr neologizmlarini o'z ichiga oladi. Shu jihatdan olib qaraganda, Zavqiy ijodida davr neologizmlari alohida o'ringa ega. Ushbu maqolada shoir ijodida keng qo'llanilgan neologizmlarning badiiy maqsadni ifoda etishdagi ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqotchining fikr-mulohazalari misollar orqali dalillangan.

Abstract. It is known that in every era, new words - neologisms reflecting the characteristics of that era enter the literary language. Especially as a result of

socio-political, cultural renewal and changes in the society, as well as scientific and technical progress, this process will accelerate even more. This, in turn, is clearly visible in the artistic text. The artistic works of writers and poets contain neologisms of the time they lived in. From this point of view, period neologisms have a special place in Zavqi's work. This article reveals the importance of new words widely used in the poet's work in expressing the artistic goal. The researcher's opinions are proved by examples.

Kalit so‘zlar: badiiy matn, XIX asrning ikkinchi yarmi adabiy tili, neologizmlar, veksel, poyiz, vagun, kalaska.

Key words: artistic text, literary language of the second half of the 19th century, neologisms, bill, train, wagon, carriage.

Neologizmlar “yangi narsa, tushunchalarni ifodalash uchun hosil qilingan, hali odatdagi lug‘aviy birlikka aylanib ketmagan so‘z yoki iboralar”[310], “yangi narsa-hodisa va tushunchalarni ifodalash uchun hosil qilingan leksemalar”[311] bo‘lib, tilning lug‘at boyligini boyitishga xizmat qiladi.

Neologizmlarning umumiy tilga yoki yakka shaxs nutqiga xosligi alohida baholanadi va umumtil va individual neologizmlar sifatida tadqiq etiladi. Badiiy asarda, asosan, individual neologizmlar faol qo‘llanilib, u asarning badiiy-estetik qimmatini oshirishga xizmat qiladi. Biroq “badiiy asar tilidagi neologizmlar nominativ funksiyadan tashqari ifodalilik vositasi sifatida qo‘llangandagina, ekspressiv manbai bo‘lgandagina badiiy til nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Demak, badiiy tildagi neologizmlar baholanganda, ularning qanday maqsad bilan yasalganligi muhimdir”[312]. Ijodkorning so‘z qo‘llashdagi mahoratini bildiruvchi yangi so‘zlar shoir poetik nutqi uslubiga bog‘liq. Bu esa o‘z navbatida davr adabiyoti tiliga, badiiy asarlar matni leksikasiga salmoqli ta’sir ko‘rsatadi.

J.Lapasov “Badiiy matn va lisoniy tahlil” kitobida badiiy adabiyotda neologizmlarning ichki va tashqi omillar yordamida yuzaga kelishini tahlil qilib beradi. Ichki omillar so‘zlarni, asosan, kalkalash, ya’ni aynan tarjima qilish orqali (masalan, detskaya sad – *bolalar bog‘chasi*, jeleznaya doroga – *temir yo‘l* singari) va tashqi omillar rus tili va u orqali boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar yordamida yuzaga kelishi (masalan, institut – lotincha, auditoriya – grekcha, samovar – ruscha kabi)ni izohlaydi[313]. Aytish kerakki, o‘zbek tiliga neologizmlarning badiiy matnlar orqali kirib kelishi g‘oyat sermahsuldir. Ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmi adabiy tilida bu yaqqol ko‘zga tashlana boshlagan.

Qo‘qon adabiy muhitining yirik vakillaridan biri Ubaydulloh Solih o‘g‘li Zavqiy ijodi zamondoshlari Furqat, Muqimiy ijodi kabi XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi davr tili neologizmlari, shuningdek, individual neologizmlarning faol va samarali qo‘llanilgani bilan e’tiborga molikdir.

---

[310]Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, – Б.69.
[311]Қурбонова М., Йўлдошев М. Мат тилшунослиги. – Тошкент, 2014. – Б.62.
[312]Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент, 1981. – Б.30.
[313]Бу ҳақда қаранг. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент, 1995. – Б.15-16.

Ta’kidlash kerakki, Zavqiy yashab, ijod etgan davrda xalqimiz ijtimoiy-ma’naviy, siyosiy hayotida ko‘plab o‘zgarishlar, yangiliklar ro‘y bergan. Bu esa o‘z navbatida o‘zbek adabiy tili ham muayyan o‘zgarishlarni boshidan kechirishiga sabab bo‘lgan. Ayni shu davrda Muqimiy, Furqat, Avaz O‘tar kabi ma’rifatparvarlar safida Zavqiy ham o‘zbek adabiy tilini yangi so‘zlar, shuningdek, arab, fors-tojik va rus tillarining grammatik shakllari, leksik elementlari bilan boyitishga munosib ulush qo‘shgan.

Ma’lumki, ijodkorning so‘z qo‘llashdagi mahoratini bildiruvchi yangi so‘zlar shoir poetik nutqi uslubiga bog‘liq. Bu esa o‘z navbatida davr adabiyoti tiliga, badiiy asarlar matni leksikasiga salmoqli ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan olib qaraganda, badiiy tilning neologizmlar bilan boyitilishi eng samarali an’analardan bo‘lib, mazkur leksik vositalar badiiy matnda ma’lum maqsad va mazmunni ifoda etishga xizmat qiladi. Badiiy asarlarga yangilik bo‘yog‘i beruvchi “yangi so‘zlar”ning olib kirilishi nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki o‘zbek adabiy tili rivojiga munosib ulush bo‘ladi.

Aytish kerakki, o‘zbek tiliga neologizmlarning badiiy matnlar orqali kirib kelishi g‘oyat samaralidir. Ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmi adabiy tilida bu yaqqol ko‘zga tashlanadi, deb ayta olamiz. Neologizmlar, avvalo, ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar, fan-texnikadagi yangiliklar orqali yuzaga keladi. Zavqiy ijodi shoir yashagan davr yangilanishlarini poetik tilda aks etishida alohida ahamiyatga ega.

Zavqiy ijodi neologizmlarini tahlil qilganda, uning asarlarida, ayniqsa, hajviy she’rlarida *veksel, poyiz, vagun, kalaska, jurnal, tilgrom, banka, bo‘lis, siyoz (syezd), pristup, bolshevik* kabi rus va rus tili orqali kirgan neologizmlar qayd qilinadi.

Zavqiy rus tilidan yuqoridagi kabi faqat otlarni emas, balki sifat va so‘z birikmalarni ham stilistik talab asosida qo‘llagan:

Ko‘r bo‘lmasa pul oqib kelurmu,
Bu badshakl, **slepoy durak**ka,
yoki
O‘ruscha maktasa Zavqiy: **xorosho,**
Juvon, pir, mardu zan monandi ishdur (Ajab zamona, 106. 6 bayt).

Ma’lumki, poeziya tilida uchraydigan ko‘pgina leksik vositalar turli davrlarda fonetik va morfologik jihatdan o‘zgarib, hozirgi adabiy til normativligiga asoslangan, fonetik va morfologik jihatdan adabiy til qonuniyatiga bo‘ysunadigan ko‘rinishga ega bo‘lgan. Til taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda hozirgi o‘zbek poeziyasi tili o‘zbek mumtoz poeziyasi tilidan farq qiladi. Eski o‘zbek tilida qo‘llanilgan ayrim so‘zlar vaqtlar o‘tib, iste’moldan chiqib ketgan. Sababi mumtoz badiiy matnlarda arab, tojik-fors tillarining ta’siri kuchli bo‘lgan.

Mumtoz adabiyotimizning yirik vakillaridan biri Ubaydulloh Zavqiy ijodi ham XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi davr tili neologizmlari, shuningdek, shoir poetik nutqiga xos individual neologizmlarning faol va samarali

qo‘llanilgani bilan alohida e’tiborga molik. Shoir ijodi matnida mumtoz adabiy so‘zlar, o‘z navbatida zamonaviy o‘zbek adabiy tili elementlaridan birday faollikda foydalanilgan. Eng e’tiborlisi, Zavqiy o‘zi yashagan davr imkoniyatlaridan kelib chiqib, barcha janrdagi asarlarida neologizmlar, shuningdek, chet tili unsurlarini unumli qo‘llaydi.

Masalan, Zavqiy yashagan davrda *telegram, prujina, royal, vistavka, gimnaziya, kredit* kabi yangi so‘zlar xalq tiliga kirib kelgan va o‘z navbatida badiiy tilga o‘zlashgan. Bunday leksik birliklarni Zavqiy ijodida, xususan, uning davr badkirdorliklari, kishilar illati ustidan kuluvchi hajviy she’rlarida faol qo‘llanilgan.

Prujinalik kolyaska jon rohati olisga,

Ziynat **telegram**din topur yangi zamonlar.

-deb yozadi shoir o‘zining “Quloq soling, yoronlar” (Ajab zamona, 107) she’rida.

Shoir davr imkoniyatlari, texnika rivoji odamlarga manfaatli bo‘layotganini bayon etish niyatida *prujinalik kolyaska, telegram* leksemalarini qo‘llaydi.

Shuningdek, shoir ijodida *so‘lkavoy* atamasi ham qo‘llaniladiki, bu so‘z *soliqchi* ma’nosini anglatib, muallifning o‘zi bu tushunchani yangi lisoniy birlik bilan ifoda etadi. Biroq so‘lkavoy neologizmi shoir badiiy merosidan xalq tiliga biroz ko‘chgan bo‘lsa-da, adabiy tilga kirmagan, shoir ijodiga xos birlik sifatida saqlanib qolgan.

Aytish kerakki, shoirning ayrim hajviy she’rlarida davr neologizmlarining yangi ko‘rinishda bayon etish holatlari ko‘p uchraydi.

Masalan, shoirning “Iltimos” (Ajab zamona, 114) deb nomlangan hajviy she’rida *kridit, uchut – uchyot, frason – protsent, frotis – protest (e’tiroz), chisla* kabi leksik birliklar uchraydi:

Kridit qaniyu, uchut qani, **frason** qani, qani so‘lkavoy?

Frotis bo‘lub, ushalib, sinib, qani emdi karru far, iltimos?

tarzida.

Bu faloni **bonka poviskasi**, mana **chisla**sini ko‘ring”, desa,

Yuzi sarg‘ayib, ko‘zi termulub, ana vahmalik xabar, iltimos?

baytida Zavqiy davr tiliga xos neologizmlarni faol qo‘llaganini ko‘rish mumkin. Bu orqali shoir badiiy matnga zamon ruhiyati, ijtimoiy jarayonlarga xos holatlar, айниқса, ifodasini singdirishga, badiiy maqsadini aniq yoritib berishga erishgan.

Shoir

Kamenskiy kanto‘ri bachchag‘ar nega muncha axchani oladur?

Bu ne nag‘ma, ne taronadurki, sinuq naqorani choladur (Ajab zamona, 105)

misrasida *Kamenskiy kanto‘ri* birikmasini qo‘llaydi. Mazkur tushuncha orqali chorizm mustamlakasi davrida Qo‘qonda faoliyat ko‘rsatgan aka-uka Kamenskiylar savdo kontorasi nazarda tutilmoqda. Uning faoliyati oddiy xalqning “aqcha”sini quritgani, ayniqsa, kontora dastidan bozordagi oddiy kosibdan tortib, hammolgacha aziyat chekkanini kuyikib yozadi shoir. Qolaversa, shoir o‘z she’ri orqali mazkur kontoraning barcha qilmishlarini ochib beradi.

Ushbu she’rda nomi tilga olingan real shaxsga nisbatan *bachchag‘ar* so‘zining yonma-yon qo‘llanilishi shoirning bunday kishilarga nisbatan o‘ta salbiy munosabatda ekanligini ko‘rsatadi. Ularning shundoq ham og‘ir bo‘lgan oddiy xalq turmushini yanada og‘irlashtirib borayotgani, sodda, mehnatkash odamlar esa aldov qurboni bo‘layotganligidan qattiq og‘rinadi. Bu haqida shoirning “Ajab zamona” kitobiga kiritilgan “Izohlar”[314]da qayd etilgan. She’rda umumiy badiiy maqsadni to‘la ifodalash maqsadida *bonka, foiz, so‘lkaboy, axcha* kabi xalq iste’moliga kirib kelgan ruscha so‘zlar qo‘llaniladiki, bu she’rning yanada hayotiyligi, real turmush tarzini haqqoniy ifodalab berishini ta’minlaydi.

Zavqiyning “Ta’rifi kalish” hajviy she’rida nafaqat neologizmlar, balki ruscha o‘zlashmalar o‘rinli qo‘llanadi, eng muhimi, shoir ularga badiiy maqsad yuklay oladi, yangi so‘zlarni o‘zbek adabiy tiliga hamohanglashtirib, ifoda etadi:

Nishoni ushbudur: tumor tamg‘a,
Triugolnigin ma’lum bilishdur (Ajab zamona, 106. 2 bayt)

Shoir ushbu bayt orqali o‘zi yashagan davrdagi idorayu, qozixonalardagi adolatsizlik, sansolarlikka ishora qilmoqda. Ayniqsa, o‘ruscha bilmaslik oddiy xalq uchun yer bilan birlik deb, baholanganidan yozg‘irar ekan, istab istamay “o‘ruscha”laydi:

O‘ruscha maktasa Zavqiy: **xorosho**,
Juvon, pir, mardu zan monandi ishdur (Ajab zamona, 106. 6 bayt)

Zavqiyning “Quloq soling, yoronlar” she’rida texnikaviy yangiliklar va davr imkoniyatlarini o‘zida aks ettiruvchi yangi so‘zlardan unumli foydalanilganini ko‘rish mumkin:

Prujinalik kolyaska jon rohati olisga,
Ziynat telegramdin topur yangi zamonlar (Ajab zamona, 107).

Shoirning ayrim she’rlarida to‘laqonli neologizmlar uyg‘unligi yaqqol ko‘rinadi. Ularda shoir ijtimoiy muhit tasvirini yanada aniqlashtirish maqsadida *bonkaxona, bonk, veksil, froson* kabi birliklarni qo‘llaydi va badiiy maqsadini oydinlashtiradi. “Ajab zamonadur, ahbob, bosh qotub qoldi” misrasi bilan boshlanuvchi muxammasining

Yesa tomurlaringiz **bonka** qurti, ham, so‘lmang,
Kim uxlasa, **froson bonki** uyg‘otib koldi. (Ajab zamona, 140. 2 banddan).
Jahonni siymu zarin yutti ajdaho **bonka,**
Kim uchrasa, anga ofat tegar, vabo **bonka** (3 banddan)
Bu **bonkaxona**g‘a band o‘ldi pashshadin to pil,
Na korgar anga baxt-u, egmagiga qolu qil,
Nechuk zamonaki, naxsiyat ila oyu yil,
Na qozi koldi, na a’lam, na mufti va na vakil,
Bir iltimos-la **veksil** olub, chotub koldi (4 band)

kabi misralarida mazkur neologizmlarni o‘rinli qo‘llanilganini ko‘rish mumkin. Bunda shoir bonka (bank)ni qozidan tortib, oddiy xalq vakiligacha foyda

[314] Завқий. Ажаб замона. –Тошкент: Шарқ, 2003. – Б.172.

keltirmay, ularni aldab, boy pulini yutadigan ajdarhoga o‘xshatadi. Agar qarzdor uxlamoqchi bo‘lgan taqdirda ham froson, ya’ni bank bergan qarz protsenti uni na uxlashga, na tinch yashashga qo‘yishini iddao qilmoqda. Veksel esa boylar, bankirlar pul qarz berganlarida qarzdordan olinadigan rasmiy hujjat bo‘lib, u qarzdor qo‘lidagi kishan kabi izohlanadi.

Shoir, shuningdek, **o‘rus** leksemasining o‘zini ham juda ko‘p o‘rinlarda qo‘llaydi. Bundan maqsad, shoir davr qiyofasini o‘ruslar va ularning mezonlarisiz tasavvur qilish qiyin ekanligini badiiy ijod orqali bildirishdir:

Xudoyor qochdi-ketdi, julus **o‘rus**g‘a yetdi,
Hukmin ravona etdi to Shoshu Andijonlar (Ajab zamona, 107).

Ushbu baytda Xudoyorxon Qo‘qon xonligi taxtidan ketgach, boshqaruv ruslar qo‘liga o‘tgani, ularning hukmronligi Shoshdan Andijonga qarab yoyilganini bayon etmoqda.

Umuman olganda, Zavqiy yashab, ijod etgan davr ruhiga mos yangi so‘zlar va shoirning individual neologizmlari uning ijodidan keng o‘rin olib, shoirning badiiy maqsadini ochib berish, badiiy matn ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент, 1981. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002.
2. Завқий. Ажаб замона. –Тошкент: Шарқ, 2003.
3. Қурбонова М., Йўлдошев М. Мат тилшунослиги. – Тошкент, 2014.

SAVODXONLIK KOMPETENTLIGI

Chehroza Suvanova
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti talabasi

Annotatsiya. O‘zbek tiliga “Davlat tili” maqomi berilganiga chorak asrdan ko‘proq vaqt o‘tib qoldi. O‘zbek tiliga bo‘lgan munosabatimiz aynan yozma va og‘zaki savodxonligimizda ko‘rinadi. Ushbu maqolada savodxonlik va savodxonlik kompetentligi haqida so‘z yuritildi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, adabiyot, “Davlat tili”, savodxonlik, kompetentlik, yozma, og‘zaki.

Abstract. More than a quarter of a century has passed since the Uzbek language was granted the status of "State language". Our relationship to the Uzbek language is reflected in our written and oral literacy. This article discusses literacy and literacy competence.

Key words: Uzbek language, literature, "State language", literacy, competence, written, oral.

Bugungi kunda savodxonlik eng muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bunga o‘quv muassasalarida til va adabiyot fanlari haminqadar o‘qitilayotganligi sabab bo‘lmoqda. Savodxonlik masalasiga e’tibor berish turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, televideniyening “Madaniyat” kanalida tilni o‘rganish va uni amalda qo‘llash masalalariga bag‘ishlab turkum ko‘rsatuvlar

tashkil qilinayapti. Bunday ko‘rsatuvlar va eshittirishlarni ko‘paytirishga ehtiyoj seziladi.

Har yili 21-oktabrda ona tilimizga “Davlat tili” maqomi berilishi munosabati bilan ommaviy axborot vositalari, televideniye, radioeshittirishlarda til va talaffuz bilan bog‘liq masalalarga alohida to‘xtalinmoqda. Ayniqsa, shu sohada mehnat qilayotganlarning nutqlarini tuzatish zarurati borligi ko‘p bora ta’kidlanmoqda. Lekin hanuzgacha bu borada oldinga qarab siljish deyarli kuzatilmayapti.

Sahna va ekran san’ati til va nutq bilan bog‘liq bo‘lgan eng ommaviy san’atlar hisoblanadi. Ularda ham til va nutq masalalariga yuqoridagi kabi panja orasidan qarash yaqqol sezilib turadi. Eng yomoni, tomoshabinlar va tinglovchilar ana shu sahna va ekranda chiqish qilayotgan (ularning aksariyati rol o‘ynamay, faqat chiqish qilayotgandek yoki o‘z vazifasini vaqtinchalik bajarayotgandek tuyuladi) aktyorlarning nutqidan andaza oladi. Ana shu jihatlarga e’tibor berishlari zarur. Buning uchun spektakl va filmlardagi ovozlashtirish jarayonidan keyin kompetentli mutaxassislarga ko‘rsatib olinsa faqat foyda keltiradi.

Barcha mutaxassisliklar 2-kurs magistratura talabalariga “Nutq madaniyati” fani kiritilgani ayni muddao bo‘ldi. Negaki magistraturani tamomlagan aksariyat mutaxassislar o‘quv muassasalarida dars beradilar. Ularning nutqini yaxshilash zarur. Negaki ularning bo‘lajak talabalari aynan o‘shalardan nutq madaniyati o‘rganadi, ular qanday gapirsa, o‘quvchi uchun bu andaza bo‘lib qoladi. Shu masalada ba’zi til va adabiyot o‘qituvchilarining savodxonligi ham jiddiy e’tirozga sabab bo‘lmoqda. Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslariga ham til va adabiyot darslari kiritilsa, nutq madaniyatini oshirishga faqatgina foyda keltirar edi.

Savodxonlik kompetentligi quyidagilarda ko‘rinadi:

Leksika – so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash, olinma so‘zlarni qo‘llashda meyorni bilish, sheva so‘zlariga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish;

Fonetika – tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, bo‘g‘in va urg‘ularga e’tibor berish;

Morfologiya – so‘z tarkibiga e’tibor berish, yasama so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, so‘z turkumlarini yaxshi bilish;

Sintaksis – so‘z birikmalari xususiyatlarini yaxshi bilish, gap tuzish qoidalariga amal qilish, boshqa tillardagi gap tuzishni qorishtirib yubormaslik;

Stilistika – uslublarni ajrata olish, ularni bir-biriga aralashtirib yubormaslik va boshqalar.

Umuman olganda hozirgi paytda savodxonlik masalasiga davlat darajasida e’tibor berilayotganligi bejiz emas. Negaki o‘zbek tiliga bo‘lgan munosabatimiz aynan yozma va og‘zaki savodxonligimizda ko‘rinadi. O‘zbek tiliga “Davlat tili” maqomi berilganligiga chorak asrdan ko‘proq vaqt o‘tib qoldi. Shuning uchun tilimizga bo‘lgan munosabat vaqtlar o‘tgan sayin tobora ijobiy tomonga qarab siljib borishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ”O‘zbek tilining Davlat tili sifati nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent. “O‘zbekiston ovozi” gazetasi, 2019-yil oktabr.
2. Hozirgi zamon o‘zbek tili. – Toshkent: Fan, 1957.
3. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1966.

O‘QISH SAVODXONLIGINING HAYOTIMIZDAGI O‘RNI VA TARIXI

Abdiraimova Xusnobod Samat qizi
ToshDO‘TAU doktoranti

Annotatsiya. O‘qish savodxonligi insonning matnlarni anglash, ularni tahlil qilish va ulardan ma’lumot olish qobiliyatidir. Tarixan, savodxonlik darajasi jamiyatning rivojlanishi, iqtisodiy holati va madaniy an’analariga bog‘liq bo‘lgan ko‘plab omillar ta’sirida o‘zgarib borgan. Ushbu maqolada o‘qish savodxonligining tarixi, uning ijtimoiy va madaniy ta’sirlari, zamonaviy talqinlari va mualliflarning fikrlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘z: O‘qish, matn, tushunish, o‘qish savoxonligi, savodxonlik tarixi.

Abstract. Reading literacy is the ability of an individual to comprehend, analyze, and extract information from texts. Historically, the level of literacy has changed under the influence of various factors related to the development of society, economic conditions, and cultural traditions. This thesis analyzes the history of reading literacy, its social and cultural impacts, modern interpretations, and the opinions of various authors.

Key words: Reading, text,comprehension, reading literacy, history of literacy.

Insonyat yaratilibdiki til ham mavjud. Insonlar bir-birlari bilan til orqali axborot almashadi.Til cheksiz. U lug‘atlar va grammatikadangina iborat emas. Har bir xalqda va har bir insonda boshqa-boshqa ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Avvaliga og‘zaki til, so‘ngra esa, insonlar ehtiyojiga qarab yozma til paydo bo‘ldi. Aynan yozma til taraqqiyot poydevori bo‘lib xizmat qildi.

O‘qish va yozishning dastlabki shakllari miloddan avvalgi 3500-yillarda qadimiy Misr va Mesopotamiya madaniyatlarida paydo bo‘lgan. Iyerogliflar dastlabki yozuv tizimlaridan bo‘lib, asosan hisob-kitob va diniy matnlar uchun ishlatilgan .[315] Ushbu davrlarda yozuv va o‘qish savodxonligi ijtimoiy hayotning muhim qismi bo‘lib, ilmiy va ma’naviy rivojlanishga xizmat qilgan. O‘qish tarixi esa, yozuv ixtirosi bilan bog‘liq ravishda boshlangan. O‘qish va yozish parallel ravishda bir-biriga bog‘liq holda rivojlangan. Ilmiy ma’lumotlarga ko‘ra o‘qish tarixi qadimgi antik davrga borib taqaladi. “O’qish” atamasini birinchi marta XI-asrda yashagan Ibn al-Haysam ilmiy ravishda tavsiflangan.U ko‘z-miya, ko‘rish-tushunish va miya bilan til o‘rtasidagi bog‘lanishni izohlagan. O‘rta asrlarda savodxonlik asosan monastir jamoalarida saqlanib qoldi, u yerda monaxlar

[315] Gelb, I. J. “A Study of Writing”. University of Chicago Press. 1963

matnlarni qo‘l bilan ko‘paytirishdi. Cherkov savodxonlikda muhim rol o‘ynab, lotin matnlari ilmiy maydonda ustunlik qildi[316]. O‘qish savodxonligida matbaaning roli katta. 1447-yilda bir nemis ixtirochisi Yohan Guttenbergning bosma matbaasi o‘qish savodxonligini inqilobiy o‘zgartirdi.[317]Kitoblar arzonlashdi, kitoblar soni ko‘payib, keng tarqaldi va insonlarga bilim olishda qulayliklar yaratildi. Bu esa Yevropada savodxonlik darajasini oshirishga olib keldi.

XVII-XVIII asrlarda ta’lim islohotlari o‘qishni fuqarolik mas’uliyati uchun zarur deb hisoblagan. Jon Lok singari shaxslar savodxonlikni ma’rifat va axloqiy rivojlanish uchun muhim deb ta’kidlagan.[318] XIX asrga kelib ommaviy ta’lim tizimlari o‘rnatilib, savodxonlik universal huquqqa aylana boshladi. AQShda barcha bolalarning o‘qish imkoniyatini ta’minlashga qaratilgan tashabbuslar amalga oshirildi[319]. XIX asrda, savodxonlik darajasi butun dunyo bo‘ylab oshdi. Ta’lim tizimlari rivojlanib, maktablar va universitetlar ko‘paydi. John Deweyning ta’lim nazariyasi o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgan. Ushbu davrda o‘qish savodxonligi jamoatchilikning barcha qatlamlariga ta’sir ko‘rsatdi. XX asrda esa, ayniqsa ikkinchi jahon urushidan keyin, global savodxonlik davri boshlandi. UNESCO dunyo bo‘ylab savodsizlik darajasini kamaytirishga e’tibor qaratadi[320]. XX asrda texnologiyalarning rivojlanishi o‘qish savodxonligining yangi shakllarini paydo qildi. Internet va raqamli texnologiyalar orqali axborotga kirish imkoniyati yaratildi. Hozirgi kunda o‘qish savodxonligi nafaqat an’anaviy kitob o‘qish, balki raqamli kontentni tahlil qilish, ijtimoiy tarmoqlarda axborotni filtr qilish kabi ko‘nikmalarni ham o‘z ichiga oladi. Bu jarayon, xususan, yoshlar o‘rtasida tez sur’atlarda amalga oshmoqda.

Savodli bo‘lishning asosi o‘qish ko‘nikmasidir. O‘qish jarayoni ko‘zdan boshlanadi. Biz eshitgan matndan ko‘ra ko‘rgan matnni yaxshiroq eslab qolamiz. Sitseron shunday yozgan edi: “Bizning eng kuchli sezgimiz ko‘rishdir”. Harflar ko‘z orqali qabul qilinadi. Ammo bu harflarni ma’noli so‘zlarga aylantiradigan nima, matnga duch kelganimizda ongimizda nima sodir bo‘ladi, obyektlar, harflar, shakllar va ranglar qanday o‘qilishi mumkin? Darhaqiqat, biz o‘qish deb ataydigan bu harakat nima? O‘qish, yozma matndagi so‘zlarni tanib, ularni tushunishdir. Bu ko‘plab insonlarning o‘ylagandek oddiy harakat emas. Avval ko‘rish, keyin esga olish, so‘ng tushunish kabi bosqichlarga ega murakkab bir harakatdir. Bu harakat keng qamrovli dasturga o‘xshaydi. O‘qishda qo‘llaniladigan tizimlar murakkab tuzilishga ega. Agar murakkab tuzilmalardan biri ishlamay qolsa, bu jarayonning salbiy yakunlanishiga olib kelishi mumkin. O‘qish, fikrni rivojlantiruvchi, o‘stiruvchi manbalardan biridir. O‘qish shuningdek, tushunish qobiliyatini va chiroyli gapirish mahoratini kuchaytiradi. O‘qish uchun avvalo bir matn kerak. Matn ko‘z yordamida o‘qiladi va inson ongida bir tasvir paydo bo‘ladi.

---

[316] Lindquist, J.“Education and Literacy in the Middle Ages”. Greenwood Press. 1997

[317] Eisenstein, E. L. “The Printing Revolution in Early Modern Europe”.Cambridge University Press. 1979

[318] Locke, J. “Some Thoughts Concerning Education”. 1693

[319] Rury, J. L. “Education and Social Change: Themes in the History of American Schooling”. Lawrence Erlbaum Associates. 2002

[320]UNESCO. “Literacy for Life: Education for All Global Monitoring Report 2006”

Insonlarni boshqa jonivorlardan ajratib turadigan qobiliyatlardan biri, hatto eng muhimi, o‘qish va anglashdir. Bir ma’lumot, bir fikr, bir tuyg‘u yoki bir niyatning dastlabki yoki yetuk ko‘rsatkichlar tizimi orqali bir ongdan boshqasiga yoki bir joydan boshqa joyga yetkazilishidir. Bir rasmga, bir karikaturaga qaraladi, lekin yozuv o‘qiladi. Aslida, ikkalasi o‘rtasida farq yo‘q. Ko‘z shakllarni ko‘radi, miya ularni baholaydi. O‘rganish jarayonida o‘qishning ahamiyati juda katta. Yozma matnlar orqali insonlar har bir muhitda va har bir joyda ma’lumot olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘qish bilan dunyoga qarash ufqi kengayadi. O‘qish darajasi jamiyatlarning rivojlanish darajasini belgilaydi.

Xulosa qilganda, o‘qish savodxonligi tarixi uzun va murakkab jarayonni o‘z ichiga oladi. U jamiyatning rivojlanish darajasini, madaniyatini va ta’lim tizimini aks ettiradi. O‘qish savodxonligini oshirish uchun zamonaviy tadqiqotlar va metodlardan foydalanish, o‘qituvchilarni tayyorlash zarur. Ushbu sohada yurtimizda keng ko‘lamli dasturlar va loyihalar amalga oshirilishi kerak. Dunyo bo‘ylab savodxonlik darajasi o‘zgarib bormoqda. UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yil holatiga ko‘ra, global savodxonlik darajasi 86% ni tashkil qiladi, ammo bu ko‘rsatkich rivojlanayotgan mamlakatlarda pasayishi kuzatilmoqda. Ushbu statistik ma’lumotlar orqali savodxonlik darajasidagi o‘zgarishlarni tahlil qilish va kelajakda uni oshirish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqish mumkin. Bu jarayonni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish uchun davlat, ta’lim muassasalari va jamoatchilik birgalikda harakat qilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Eisenstein, E. L. “The Printing Revolution in Early Modern Europe”. Cambridge University Press. 1979.

2. Gelb, I. J. “A Study of Writing”. University of Chicago Press. 1963.

3. Lindquist, J. (). *Education and Literacy in the Middle Ages*. Greenwood Press. 1997

4. Locke, J. “Some Thoughts Concerning Education”.1693.

5. Rury, J. L. “Education and Social Change: Themes in the History of American Schooling”. Lawrence Erlbaum Associates. 2002.

6. UNESCO.“Literacy for Life: Education for All Global Monitoring Report 2006”.

THE IMPORTANCE OF TEACHING READING AND LISTENING SKILLS IN ENGLISH LESSONS

Nizomova Nargiza Aliyevna
Fergana State University Foreign languages Faculty
Assistant of the Department English practical course

Abstract. In this article talks about almost significance of educating perusing and tuning in abilities in English lessons, as well as, the positive impacts to understudy who talk more than one dialect have progressed memory, problem-solving and critical-thinking ability, upgraded concentration, capacity to multitask and superior tuning in and perusing abilities.

Annotsiya. Ushbu maqolada asosan ingliz tili darslarida o‘qish va tinglash ko‘nikmalarini o‘rgatishning ahamiyati haqida so‘z yuritilgan, shuningdek, bir nechta tilni gapira oladigan talabalarning rivojlangan xotira, muammoni hal qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyati, yaxshilangan diqqat, bir vaqtda bir nechta ishni bajarish qobiliyati va yuqori darajadagi tinglash hamda o‘qish ko‘nikmalariga ega ekanligi haqida ijobiy ta’sirlari ham ta’kidlangan.

Key words: Reading and listening skills, English lessons, writing, student, teaching, memory, time management, communication

Kalit so‘zlar: O‘qish va tinglash ko‘nikmalari, ingliz tili darslari, yozish, talaba, o‘qitish, xotira, vaqtni boshqarish, muloqot

Intoduction

In an increasingly interconnected world, English has become a vital medium for communication across cultures and borders. As such, teaching reading and listening skills in English lessons is crucial for fostering effective communication and comprehension among learners. This article explores the significance of these skills and their impact on students’ overall language proficiency and cognitive development. English is one of the broadly utilized dialects within the world. So, you need to be a familiar English speaker and to know the world as much as you’ll be able. To form objectives in your desire for learning English you ought to take a few counsel:

There are four abilities in learning English which are perusing, tuning in, talking, and composing.

And which of them is the primary? The foremost imperative thing you must bear in intellect is that perusing and tuning in are inputs though talking and composing are yields. In other words, in the event that you want to make strides your talking and composing aptitudes you ought to to begin with ace the aptitudes of perusing and tuning in. There are a few ways that you just. can do so, which I will attempt to summarize. Reading and listening are fundamental skills that underpin the ability to comprehend and communicate effectively in any language. In English lessons, reading helps students to engage with various texts, from literature to informational articles. This engagement not only broadens their vocabulary but also enhances their understanding of different writing styles and contexts. When students read diverse materials, they learn to infer meaning, recognize tone, and analyze arguments, which are essential skills for critical thinking.

1) Perusing

Perusing is an important way of picking up data in dialect learning and it is fundamental aptitudes for a dialect learner. There a part of perusing works out. But all these readings must be exhausted constrained time. You ought to perused express by express. Examined as much as you’ll . But your perusing must be dynamic. It implies merely must think almost the structure, new words and others as you perused. There is no require that you simply adhere to a few complicated linguistic use structures or try to understand all the new words you come over, but

the fact that you just see them for the primary time and recognize them at whatever point you see them for example in other expressions or books is sufficient. It would be better to prepare yourself a note pad so you can type in down the imperative words or structures in it. This can be the exceptionally valuable strategies of learning dialect. To start perusing, I suggest the simple reading books step by step. They classified by level of trouble.

2) Listening on the other hand, are equally important as they enable students to understand spoken English in real-world contexts. Listening to native speakers—whether through conversations, podcasts, or multimedia resources—helps learners become familiar with different accents, intonations, and colloquial expressions. This exposure is essential for improving pronunciation, enhancing listening comprehension, and boosting overall fluency.

As for tuning in, there are two choices:

• Aside from perusing, you'll tune in each day for about 30 minutes.

• You'll be able only concentrate on your reading and ended up apt at your reading, at that point you'll capture up on your tuning in.

Tuning in, one of the implies of dialect communication is utilized most broadly in people's every day lives. In expansion, a parcel of tuning in exercises may be a great way of broadening your lexicon. On the other hand, it moreover makes a difference you to make strides your tuning in comprehension. When you are skillful and native-like at perusing, your tuning in expertise develops naturally. Since you have got lots of inputs in your intellect, you can easily guess what the speaker is going to say. This never implies that you simply should not hone tuning in. Practice is important. Only through the hone you'll be able improve your tuning in. For tuning in, I suggest cartoons, moves, songs and radio program. Once more, the thing to remember is being dynamic in tuning in and ideally taking a few notes.

In an increasingly interconnected world, English has become a vital medium for communication across cultures and borders. As such, teaching reading and listening skills in English lessons is crucial for fostering effective communication and comprehension among learners. This article explores the significance of these skills and their impact on students' overall language proficiency and cognitive development.

Reading and listening are fundamental skills that underpin the ability to comprehend and communicate effectively in any language. In English lessons, reading helps students to engage with various texts, from literature to informational articles. This engagement not only broadens their vocabulary but also enhances their understanding of different writing styles and contexts. When students read diverse materials, they learn to infer meaning, recognize tone, and analyze arguments, which are essential skills for critical thinking.

Listening skills, on the other hand, are equally important as they enable students to understand spoken English in real-world contexts. Listening to native speakers—whether through conversations, podcasts, or multimedia resources—helps learners become familiar with different accents, intonations, and colloquial

expressions. This exposure is essential for improving pronunciation, enhancing listening comprehension, and boosting overall fluency.

Teaching reading and listening skills goes beyond language acquisition; it also supports cognitive development. Research has shown that bilingual or multilingual individuals often exhibit enhanced memory, improved problem-solving abilities, and stronger critical thinking skills. When students are trained to read and listen actively, they are encouraged to analyze information, draw connections, and reflect on their understanding. These cognitive processes foster deeper learning and retention of knowledge.

Additionally, the ability to manage time effectively is often enhanced through reading and listening exercises. For instance, when students engage in timed reading or listen to audio materials with specific questions to answer, they learn to prioritize information and focus on key points. This skill is invaluable not only in academic settings but also in professional and everyday life.

In case you take after these pieces of advice, along with your perusing and tuning in aptitudes your talking and composing will be improved automatically, and you'll be able be beyond any doubt that with a small exertion they will ended up culminate. The importance of teaching reading and listening skills in English lessons cannot be overstated. These skills are fundamental to effective communication, cognitive development, and cultural awareness. By prioritizing reading and listening in the curriculum, educators can equip students with the necessary tools to navigate the complexities of the English language and succeed in a diverse, globalized world. As students become proficient in these skills, they not only enhance their language abilities but also prepare themselves for lifelong learning and meaningful engagement with others.

REFERENCES:

- THE IMPORTANCE OF THE DIDACTIC SYSTEM IN TEACHING ENGLISH IN NON-PHYLOLOGICAL DIRECTION Makhsetova Zuhra Turebaevna Almalyk Branch of Tashkent State Technical University Named After Islam Karimov, English Language Teacher EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Volume 1 Issue 9, December 2021
- PHRASEOLOGICAL UNITS IN TRANSLATION Makhsetova Z.T. Master's Student Chirchik Pedagogical Institute Tashkent Region "Экономика И Социум" №7(74) 2020
- Nizomova, N, A. J. (2024). CHET TILIDA NUTQNI TINGLAB TUSHUNISH VA UNDA FRAZEOLOGIZMLARNING O'RNI. *YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS*, *1*(7), 66-71.
- Shokhsanam, D., & Makhmudova, M. (2022). BENEFITS OF DAILY READING. *INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE*, *1*(8), 28-32.

• Dushatova, S., & Burgutova, G. (2022). CHET TILLARINI BILISHNING FOYDALARI. *INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE*, *1*(8), 40-45.
• qizi Dushatova, S. B., & qizi Qodiraliyeva, N. I. (2022). EFFECTIVE METHODS OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES. *International Academic Research Journal Impact Factor 7.4*, *1*(5), 63-67.
• ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 1 | ISSUE 3 | 2020 Zuxra Makhsetova ACADEMIC SUBJECT INTEGRATION IN TEACHING PEDAGOGY IN DIFFERENT ESTABLISHMENT

VALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF USING VARIOUS TEXTBOOKS OF THE RUSSIAN LANGUAGE AS A FOREIGN LANGUAGE

Aripova Dilnozakhon Vakhobjon kizi
Lecturer at the Kokand State Pedagogical Institute

Abstract. This article analyzes the teaching of Russian as a foreign language, the features and importance of learning foreign languages, as well as the importance of textbooks in teaching using interesting games and activities. The importance of learning a language for every person in the modern world is also emphasized.

Annotatsiya. ushbu maqolada rus tilini chet tili sifatida o‘qitish, chet tillarini o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari va ahamiyati, shuningdek, qiziqarli o‘yinlar va darsliklardan foydalangan holda darsliklarning ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy dunyoda har bir inson uchun til o‘rganishning ahamiyati ham ta’kidlangan

Keywords: lesson, effectiveness, characteristics, training, teaching, learning.

Currently, the study of foreign languages is becoming important, therefore languages are taught not only in higher educational institutions and schools, but also in pre-school educational institutions. If classes are not conducted using unique methods and interesting techniques, it can become quite a difficult task to involve students in the lesson. If you switch from traditional methods to more interesting ones in the lessons, this will not only ensure the quality of the lesson, but also prevent boredom, involving even passive students in classes.

There are many interesting games in the process of learning Russian. It should be noted that when teaching children a language, it is necessary to use such games in which all students can participate and receive innovations in the lesson (for example, they can memorize new words, and if this process is repeated every day, the student’s vocabulary will increase significantly). It is not advisable to start a lesson with grammatical concepts, especially for younger grades, as this can quickly cause boredom. As a result, interest in the lesson may fade.. Even the greeting process should be started in an unconventional way, for example, starting the lesson with some English song related to the greeting when the teacher enters the classroom (this is mainly a motivational method for elementary school

students). Thus, the lesson continues, and the students do not lose attention to the tasks. They can even look forward to English lessons. Of course, all this should be organized by the teacher, and this lies on the shoulders of the teacher. Thus, in order to make learning a foreign language interesting, we can cite some types of games.

The use of technology in teaching Russian is another effective teaching method. Teachers can use a variety of audiovisual materials such as videos, audio recordings, interactive games and quizzes. They can supplement their lessons with online resources such as dictionaries, grammar reference books, and language learning apps.

Another method of teaching Russian is the grammatical method. This method involves learning grammatical rules and translating texts from Russian into the students' native language. However, this method has become less popular and is considered less effective compared to the above methods.

Russian Russian is taught as a foreign language, especially when teaching Russian grammar, textbooks are of great importance. Textbooks help to make the lesson process meaningful through exercises, new words and grammatical rules.

It is impossible to imagine language learning without textbooks, which play an important role in this process. For example, electronic textbooks are the main tool in teaching the Russian language.

In recent years, there has been a tendency to increase the volume and complexity of educational materials in both secondary and higher educational institutions. This is related to the acute problem of the shortage of highly qualified teaching staff in many educational institutions. There are often significant difficulties in the preparation, development and dissemination of various types of textbooks. These factors lead to a decrease in the quality of training. In this regard, special attention is paid to the creation of developing teaching methods, including the introduction of computing technologies. This will improve the quality and efficiency of the educational process. Electronic textbooks are one of the promising tools for improving learning efficiency.

Electronic textbooks allow you to solve the following key pedagogical tasks: - Initial acquaintance with the essence of the subject, the basic concepts; - Assessment and control of knowledge; - Development of abilities in specific activities; - Restoration of knowledge and intellectual abilities. Electronic textbooks can be used at all stages of education: in schools, colleges, technical schools, institutes and universities, as well as in advanced training institutes. That is why electronic textbooks are being developed in many countries.

The main requirement for a modern foreign language textbook is the following: it should not contribute to the development of students' interest in learning a foreign language, communicative motivation of the educational process, in other words, such a student should solve the problem of motivation to learn a foreign language. Interest in the problems of motivation and motivation of the educational process has now increased both among methodologists and among

practical teachers. It is motivation that is associated with the search for internal conditions for improving the effectiveness of educational activities. At the same time, motivation is subject to changes depending on the social, socio-cultural, and economic situation, which makes this side of the issue always relevant[321].

We have expressed here general considerations about the status of the textbook in the modern educational process. However, these considerations are aimed at arguing the fact that in certain conditions of countries where Russian is studied as a foreign language.

REFERENCES:

1. Baryshnikova E.N., Egor Sarr. The role of the textbook of Russian as a foreign language in the educational system of Senegal.

2. Shabanov D. Methods of teaching a foreign language and modern technologies. Tashkent, 2009

3. Aripova, D. V. K. (2023). LINGUISTIC FIELD THEORY IN THE LIGHT OF LINGUOCULTUROLOGY: THE FIELD PRINCIPLE OF THE STRUCTURE OF THE LANGUAGE SYSTEM. Oriental Art and Culture, 4(6), 522-527.

4. Aripova, D. V. (2022, March). SEMANTIC FIELD "FAMILY" IN RUSSIAN AND UZBEK IDIOMS. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 21-23).

UMUMIY O‘RTA TA’LIMDA TIL O‘QITISHNING UMUMIY ASOSLARI

Saminova Mukarramoy Ikromjon qizi
Qo‘qon DPI magistranti

Annotatsiya. Chet tili o‘qitishdan asosiy maqsad chet tilini amalda qo‘llash hisoblanadi. Ushbu maqolada chet tilini o‘qitishning umumiy qoidalari, shuningdek, bugungi kun talablaridan kelib chiqib chet tilini o‘qitishdagi individual usullardan foydalanish haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: chet tili, dars maqsadi, o‘qitish mazmuni, metod, kommunikatsiya, usul, prinsp, ko‘nikma, malaka.

Abstract. The main goal of teaching a foreign language is to use it in practice. This article talks about the general rules of teaching a foreign language, as well as the use of individual methods of teaching a foreign language based on today’s requirements.

Key words: foreign language, lesson goal, teaching content, method, communication, method, principle, skill, skill.

Umumta’lim maktabining ishini, maqsadini jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi, sharoiti, siyosati belgilab beradi. Chet tillarini o‘qitishning maqsadlari, jamiyat taraqqiyotiga, rivojlanishiga qarab o‘zgarib turadi. Maktablarda chet tillarini o‘qitishning maqsadlari mavjud bo‘lib, ular chet tili o‘qitish metodikasi kursini ishlab chiqarishga ta’sir qiladi. XX asrning 40-50 yillarda maktablarda

[321] Shabanov D. Methods of teaching a foreign language and modern technologies. Tashkent, 2009

tinglab tushunishni o‘rgatish maqsadi etakchi bo‘lib, og‘zaki nutq esa faqat shakllantirilar edi. Bugungi kunimizga kelib esa ular davr, jamiyat talabiga binoan o‘zgardi. Chet tilllarini o‘qitish maqsadlari hozirda o‘z xususiyatiga ega bo‘lib, ular o‘qitish mazmuni, vositasi, metodlari va printsiplarini belgilab bermoqda.

Chet tili o‘qitishdan asosiy maqsadi chet tilini amalda qo‘llash hisoblanadi. I.V.Raxmanov L.V.Sherbaning fikrlarini rivojlantirib o‘zining “O‘rta maktablarda chet tili o‘qitishning ba’zi bir masalalari” maqolasida til o‘qitishning asosiy maqsadini belgilaydi. Uning fikriga ko‘ra, chet tili o‘qitishning maqsadlari umumta’lim, tarbiya berish va kommunikatsiya hosil qilish va hosil qilingan ko‘nikma, malakalarni o‘zga maqsadlarda foydalanishdan iborat [1.B. 54] deydi. Bu kommunikatsiya hosil qilish, kommunikativ o‘qitish maqsadlaridan farq qiladi. Chet tilini o‘qitish maqsadlaridan dastlabkisi amaliy maqsad hisoblanadi. Boshqa fanlar metodikasida ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantruvchi maqsadlar bor, amaliy maqsad ya’ni kommunikatsiya faqat chet tillariga xos hodisadir.

Chet tillarni o‘qitish o‘z oldiga quyidagi maqsadlarni qo‘yadi: 1) amaliy yoki kommunikativ, 2) umumta’lim berish, 3) tarbiyalash, 4) rivojlantiruvchi maqsad. Umumta’lim, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlar kommunikativ maqsadni amalga oshirishda sodir bo‘ladi. [2.B.191]

1. Kommunikativ (amaliy) maqsadda o‘quvchilarda chet tili materiallari yuzasidan ko‘nikma, malaka hosil qilinadi. O‘quvchilar leksika, grammatikani, talaffuz materiallarini o‘zlari mustaqil qo‘llay olishlari lozim. Chet tilida og‘zaki nutq, o‘qish, yozuv malakalari hosil qilinadi.

2. Umumta’lim berish maqsadi orqali o‘quvchilar tafakkurini yanada o‘stirish, chet tilida ma’lumot berish, o‘rganilayotgan tilni yanada chukurroq anglab olish, ushbu til haqidagi yangi bilimlar hamda tili o‘rganilayotgan mamlakat xalqining tarixi, adabiyoti va madaniyati to‘g‘risida tushuncha va ma’lumotlar olish hisobiga o‘quvchilar dunyoqarashini kengaytirish tushuniladi. O‘quvchilarning anglash, fikrlashini rivojlantirish, dunyoqarashni kengaytirish, chet tili i hisobiga yoki chet tilida bo‘ladi. [3.B.90-91]

3. Tarbiyaviy maqsadda chet tili darsida baynalminal, axloq va estetik tarbiya berish va mehnatga munosabatini tariyalashni ko‘zda tutadi.

4. Rivojlantiruvchi maqsad o‘quvchilarni shaxsan bilimga o‘rganish, o‘rgatish metodikasini belgilab beradi. U til faktlari tahlil qilish, umumlashtirish, mustaqil xulosa chiqarish, tinglash, nutq harakat malakalarini o‘stiradi. U tasavvur qilish, nutq vaziyati tuzish orqali o‘rgatishni, nutqda mantiqiy bog‘liklik bo‘lishini, mustaqil fikrlashni, so‘zlar ma’nosini fahmlab ta’limni, lug‘at, qo‘llanmalar bilan mustaqil ishlashni hamda fakultativ mashg‘ulotlarga tayyorlanishni, chet tilida sinfdan tashqari mustaqil tayyorgarlikni, ularni o‘tkazishni rivojlantiradi. Yuqoridagi to‘rtta maqsad doimo bir-birini to‘ldirib turadi. [4.B.75]

Chet tillar o‘qitish maqsadlari yuzasidan 1947-yilda L.V.Sherba, 1950-yilda A.N.Monigetti, 1958- yilda I.V.Raxmanov, 1970-yilda V.S.TSetlin, 1971-yilda O.I.Moskalskaya o‘z qo‘llanma va maqolalarida atroflicha ma’lumotlar bergan.

5-6-7 sinflarda chet tili nutq faoliyati og‘zaki nutq, o‘qish, yozuv ketma-ketligida o‘qitiladi. 8-9-10-11 sinflarda esa o‘qish, og‘zaki nutq, yozuv ketma-ketligida o‘qitiladi, rivojlantiriladi Hozirgi maktablarda chet tili o‘qitishda ongli amaliy, ongli taqqoslash, ongli kommunikativ metodlar qo‘llanilmoqda.[5.B.31] Ongli amaliy metod bo‘yicha yaratilgan chet tili darsliklari rus maktablarida keng qo‘llanilayapti. O‘zbek maktablari uchun yaratilgan darsliklari ongli - taqqoslash metodi bo‘yicha ishlab chiqilgan. Chet tili o‘qitish metod va printsipidagi tashqari, yo‘l usullari ham mavjud. Yo‘l bu kichik metodik ish bo‘lib, aniq topshiriq vazifani hal qilishga qaratilgandir. O‘quvchi va o‘qituvchi faoliyati ketma-ket aniq maqsad bilan yo‘nalgan yo‘llardan iborat.

O‘rta maktabda chet tili o‘qitish maqsadlariga mashqlarning moslik mezoniga ko‘ra usullarni quyidagi asosiy turlarga ajratish mumkin.

1. Haqiqiy (tabiiy) kommunikativ.
2. Shartli (o‘quv) kommunikativ.
3. Kommunikativ bo‘lmagan mashqlar.

Mashq - nutq yoki tilga tegishli bir yoki bir necha marta maxsus tashkil qilingan o‘quv sharoitida bajarilishini tushunamiz. Kommunikativ mashqlar orqali nutq faoliyati turlari ona tilidagidek qo‘llashga o‘rgatiladi. Bu mashqlar asosiy ta’limiy mashqlardir. ular kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish va o‘stirishga mo‘ljallangan.

Xulosa qilib aytganda, zamonga mos ravishda o‘qituvchi ijodiy mehnat qilishi, shu bilan birga fan yutuqlaridan, ilg‘or o‘qituvchilarning tajribalaridan unumli foydalanibgina qolmay, mustaqil izlanishlar olib borishi kerak. Yurtimizda o‘qitiladigan hamma G‘arbiy Evropa tillari (ingliz, frantsuz, nemis) umumiy chet tillarini o‘rgatish jarayoni qoidalariga bo‘ysunadi. Ammo o‘qituvchi ma’lum bir tilning o‘ziga xos xususiyatlariga tayansa, barcha chet tillarini o‘rgatishning umumiy qonuniyligi yetarli emas. Shuning bois u shaxsiy ta’lim usulidan foydalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jalolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi. - T. 1996

2.T.Madumarov, M.Kamoldinov “ Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari va uni ta’lim - tarbiya jarayonida qullash.” T- 2012.

3. Siddikova I.A. Metodika prepodovaniya angliyskogo yazıka. T. 2002

4. Saydaliev S. CHet til o‘qitish metodikasidan ocherklar. - N. 2004

5. Prakticheskiy kurs metodiki prepodavaniya inostrannıx yazıkov. - Mn: Tetra Sistems, 2005.

TIL O‘RGATISHDA YOSH XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH

Bobojonova Xurshida Komiljonqizi
Qo‘qon DPI magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada chet tilini muvaffaqiyatli o‘rganishning yosh davriga bog‘liq xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Muallif ularning o‘zaro bog‘liqligi

va chet tilini o‘rganish jarayoniga ta’sirini ko‘rsatadi. Maqolada chet tilini o‘rganishning uslubiy va psixologik jihatlari muhokama qilinadi

Kalit so‘zlar: xorijiy til, muloqot, suhbatdosh, yosh guruhi, lug‘at boyligi, nutq, axborot

Abstract. This article examines age-related characteristics of successful foreign language learning. The author shows their interdependence and influence on the process of learning a foreign language. The article discusses methodological and psychological aspects of learning a foreign language

Key words: foreign language, communication, interlocutor, age group, vocabulary, speech, information

Inson ulg‘ayar ekan hayoti davomida mana shu yashab turgan mamlakatning bir bo‘lagi ekanini unutmasligi va uni rivojlanishi uchun bir oz bo‘lsada o‘z hissasini qo‘shishi lozim. Ayni vaqtda uning o‘z vatani taraqqiyoti uchun hissa qo‘shishi butun dunyoda ro‘y berayotgan yangiliklardan xabardor bo‘lishini talab etadi va mana shu turdagi resurslardan foydalanish jarayonida chet tillarini bilish biz uchun eng muhim vosita hisoblanadi. Zamon taraqqiy etib borgani sayin insoniyat ham mukammallikka, komillikka, bilim zahirasini yanada ko‘proq boyitishga harakat qiladi, dunyo ko‘rishga intiladi.

Dunyoni kezish, u yerda bo‘layotgan yangiliklardan boxabar bo‘lishi uchun tabiiyki, o‘sha yurtning ona tilisini bilish, tushunish talab etiladi. Bugungi kunda til bilish zamon talabi ekanligi hammamizga ma’lum.

Ommalashib borayotgan jahon tillarini o‘rganish bilan biz bir qancha afzalliklarga ega bo‘lamiz qisqa qilib aytganda jahon madaniyati yutuqlaridan va axborot resurslaridan bahramand bo‘lish, dunyo miqyosidagi muloqot qilish va xalqaro hamkorliklar olib borishga erishamiz. Ushbu tilni yoshlikdanoq o‘rganish har kim uchun eng qulay payt desak xato qilmagan bo‘lamiz.

Ingliz tilini o‘rganish va o‘rgatishning eng yaxshi usulini aniqlash juda qiyin, chunki u o‘quvchilarning yoshi va malaka darajasi, shuningdek, o‘qitilayotgan mazmun kabi omillarga bog‘liq. Ko‘pgina o‘qituvchilarning fikriga ko‘ra, kommunikativ yondashuv, audio-lingual yondashuv va vazifaga asoslangan o‘qitishning kombinatsiyasi ko‘p hollarda ijobiy natijalarberadi. [1. 45] Til o‘rganishning turli usullari, shu jumladan Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish usullari bilan tanish bo‘lish o‘qituvchilarga o‘zlarining ta’lim usullarini turli vaziyatlarga moslashuvchan tarzda moslashtirish imkonini beradi.Komunikativ yondashuv til ta’limida hozirda til o‘rgatishning eng mashhur usullaridan biri hisoblanadi. Bu ikkinchi tilni samarali o‘rgatish uchun o‘zaro ta’sir va muloqotga urg‘u beradi. Talabalar tanishish suhbatlari, takliflar berish, taklifnomalar berish, shikoyatlar bildirish yoki vaqt va joyni muhokama qilish kabi maqsadli tilda duch kelishi mumkin bo‘lgan kundalik vaziyatlarda qatnashadilar. O‘qituvchilari faqat grammatik o‘zlashtirishga e’tibor qaratishdan ko‘ra, talabalarning maqsadli tilda muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan fasilitator sifatida ishlaydi. Rol o‘yinlari, suhbatlar, guruhda ishlash, fikr almashish va kommunikativ o‘yinlar

odatda birlashtirilgan faoliyatdir.[1. 46]Ma’lumki, xorijiy tillarni o‘rganishda yoshga bog‘liq xususiyatlar muhim hisoblanadi .

Turli yosh guruhlariga mansub bo‘lgan til o‘rganuvchilar o‘zlari o‘rganayotgan tildan turlicha foydalanadilar. Misol uchun, ingliz tilini o‘rganayotgan maktab o‘quvchisi uchun shu tilda gaplashuvchi mamlakatlar, ularning urf-odatlari va bayramlari qiziq bo‘lsa ingliz tilini mukammal o‘rganmoqchi bo‘lgan talabalar va yoshi katta o‘rganuvchilar uchun uning imkoniyatlari va globalligi muhim ahamiyatga ega.[2.21]Shunday ekan,agar biz til foydlanuvchilarini kuzatsak va chuqur tahlil qiladigan bo‘lsak ularning tilni ishlatish jarayonida har bir yosh doira vakili turli xildagi bir biriga o‘xshamaga so‘zlardan foydalanadi yani ularning qiziqishi, maqsadi bir biridan farq qiladi.

Masalan bolalarning nutqi asosan turli xildagi bo‘yoqdor va aytish uchun oson ya’ni sodda so‘zlardan tashkil topgan, yoshlar esa koproq jargonlar va qisqartirilgan so‘zlarni afazal biladi, lekin yoshi qattalar muloqtda asosan maqollar va ibratli so‘zlarni ko‘p qo‘llashadi.

E’tiborimizni yoshlarning muloqotiga qaratadigan bo‘lsak, ular asosan o‘zlari uchun qulay bo‘lgan va o‘z tengqurlari orasida tushunilishi oson bo‘lgan lug‘atlardan foydalanishadi.Har bir guruh yangi so‘zlardan o‘zining ruhiyati, yoshi va temperamentiga yaqin bo‘lgan so‘zni tez eslab qoladi va ko‘proq qo‘llaydi. Misol uchun: “chiroyli ” so‘zini bolalar “beautiful ” so‘zi bilan ta’riflashsa, yoshlar “lovely” so‘zi bilan, kattalar “alluring” so‘zi bilan ta’riflashlari mumkin. Hatto bir so‘z talaffuzi ham har bir guruhda turlicha bo‘lishi mumkin. Kim qaysi yoshdaligidan qat’iy nazar har bir yosh davr vakili o‘z ona tilisini yaxshi bilishi kerak. Chunki o‘z tilini mukammal bilmagan va hali til tuyg‘usi shakllanmagan o‘rganuvchilar yangi tilni o‘rganish davomida bir qancha to‘siqlarga duch kelishi mumkin. Shuni ma’lum qilish joizki o‘smirlik paytda o‘rganilgan so‘zlar ya’ni lug‘at boyligi kelgusi davrlarini ham o‘zida qarab oladi ushbu holda o‘rta yoshida ham avval o‘rganganlari yodidan chiqmaydi. Til o‘rganish va undan foydalanish jarayonining qay darajada o‘tishi va qanday saviyada olib borilishi suhbatdoshlarning muomala madaniyati va jinsiga ham bog‘liq bo‘ladi. Agarda kommunikantlardan biri ayol kishi bo‘lsa, uning nutqi, tovushlar ifodasi, so‘zlarni qo‘llash jihati bilan ma’lum ma’noda erkak suhbatdosh nutqidan farq qilishini kuzatamiz. Erkaklar nutqi bosiq, qat’iyligi bilan ajralib turishiga guvoh bo‘lamiz. [3. 34]

Yuqorida aytib o‘tganimizdek o‘smirlar o‘z nutqida turli so‘zlardan foydalanish jarayonida ushbu davrda mana shu yangi bir tilni o‘rganish ham har bir yosh da har xil kechadi. Misol uchun o‘tish davrida qizlarning ikkinchi yoki uchinchi tilni o‘rganishi oo‘g‘i bolalarga qaraganda ancha tez va aktivharakarda bo‘ladi, chunki qizlar psixologik tarafdan yangi atmosfera va muhitga oson moslashuvchan bo‘ladi. Ammo, bu ayollar aqlliroq yoki chet tili materiallarini o‘zlashtirishga layoqatliroq degani emas, ammo faylasuf Duglas D.Bermanning o‘tkazgan tadqiqotiga ko‘ra aynan ikkinchi yoki uchinchi tilni o‘rganishda qizlar miyasining ikkala qismi ham teng ishlasa, o‘g‘il bolalar miyasining asosan chap

yarimshari aktiv holatda bo‘ladi. Bu jarayon esa aynan o‘smirlik davrida yaqqol seziladi. [4. 37]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, inson yoshmi, yoshi ulug‘mi, o‘zini ilmga, dunyo bilimlarinio‘rganishga bag‘ishladimi uning qalbi, albatta, ziyoga to‘ladi. U insonning kamchiliklari esa aasta-seki yo‘qolib boradi, o‘zi yuksaklik sari olg‘a intiladi. “Insonlar o‘qishdan to‘xtashlari bilan fikrlashdan ham to‘xtar ekan”. Demak, ilm bizni inson bo‘lib, insonligimizcha qolishimizda ahamiyati katta ekan.

“Beshikdan to qabrgacha ilm izla”. Bu iborani barchamio‘zimizga shior qilib olishimiz, iizlanishlarda to‘xtamasligimiz darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. J.Xasanboyev va boshqalar.Pedagogika. Toshkent.2011 y.
2. J.Jalolov. “ Chet tili o‘qitish metodikasi” O‘qituvchi.Toshkent.1996y
3. Chet tillarini o‘rganishda yosh davri psixologiyasi. www.ziyonet.uz
4. Kabardov M.K. On the diagnosisof linguistic abilities. P.176.
5. Kudysheva. A.A. Psychology of teaching foreign languages. 2010.

CHET TILLARINI O‘QITISHNING MAZMUNI VA TAMOYILLARI

Zaripova Ruxsora Mirzali qizi
Qo‘qon DPI magistranti
Ilmiy rahbar: PhD, dotsent M.Rahimova

Annotatsiya. “Chet tilini o‘qitish metodikasi” kursida bo‘lajak o‘qituvchi ushbu fanni o‘qitish metodini bilishi mumkin. Ushbu fanning paydo bo‘lish sabablari va kelib chiqish tarixi. Chet tilini mukammal darajada o‘qitish uchun zarur metod va nazariyalarning o‘rganilishi

Kalit so‘zlar: metod, chet tillarini o‘qitish, ilmiy uslubiy adabiyotlar, Interpretatsiya, individual usul.

Abstract. In the course “Methodolgy of teaching foreign languages “ , a future teacher can learn the method of teaching this subject .The reasons for the emergence of this science and the history of its origin . Study of the methods and theories necessary for perfect teaching of aforeign language.

Key words: method, teaching foreign languages, scientific methodical literature, Interpretation, individual method.

Ilm-fan va ta’lim mamlakatlar milliy iqtisodiyotidan ham oldinda bo‘lishi kerak. Zamonaviy didaktikaning muhim vazifasi - umumiy ta’lim va xususan, chet tillarini o‘qitish samaradorligini oshirishdir.Bugungi kunda globallashuv tushunchasi keng tarqalgan. Bu chet el kompaniyalarida ishlashni xohlovchilarni o‘ziga jalb qiladi va ular chet tilini o‘rganishga majbur bo‘lishlariga olib keladi Ta’lim olish va ish topish iqtisodiyot uchun ham muhim rol o‘ynaydi. Ba’zan bu muammo, chunki turli mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish notekis. Odamlar o‘zlariga mos keladigan ish topish yoki ta’lim olish uchun ba’zan boshqa davlatlarga ko‘chib o‘tishlariga to‘gri keladi. Bu odamlarning chet tillarini, boshqa mamlakatlar madaniyati va tarixini o‘rganishiga yana bir sababdir. Transmilliy korporatsiyalar va muvozanatsiz iqtisodiyot odamlarni xalqaro ta’lim olishga va

kasbiy migratsiyasiya qilishlariga olib keladi.21-asrning boshlaridan boshlab O‘zbekistonda chet tillarini o‘rganishning ijtimoiy-madaniy konteksti sezilarli darajada o‘zgardi. Ularning maktablarda va universitetlarda.o‘rgatilishi va mustaqil o‘rganish roli, shuningdek, umumiy mehnat bozoridagi kasbiy ahamiyati.sezilarli darajada oshdi. Bu esa o‘z navbatida chet tillarini o‘rganish motivatsiyasining oshishiga olib keldi. Chet tillarni o‘qitish metodikasi va nazariyasi XXI asrda, chet tili qo‘llanila boshlanganidan buyon jamiyat, iqtisodiyot va sanoat rivojlanishining hozirgi tendentsiyalariga muvofiq takomillashtirilishi va rivojlanishi kerak.[2.135]

Chet til – bu xorijiy mamlakat tilidir. Respublikamizda G‘arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, faransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o‘qitilib kelinmoqda. Bu tillar ta’lim muassalarining o‘quv rejalaridan o‘rin olgan. Uchala tilni o‘qitish jarayoni turlicha kechadi. Ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun’iy muhitda o‘rganiladi. Chet tildagi muloqot, asosan,darsda muallim rahbarligida kechadi. Uchala til orasida chet tilni o‘rganish va o‘rgatish muayyan jihatlari bilan keskin farq qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, tegishli chet til o‘qitish texnologiyasini qo‘llashni taqozo etadi. Chet til muallimi metodikafani yutuqlarini puxta o‘zlashtirish orqali o‘quvchi-talabaning to‘plagan til tajribasi me’yorini aniq bilishga va uni yanada takomillashtrishga erishadi. Chet tillarni samarali o‘rgatish uning metodikasini bilishni taqozo etadi. [3.36]

Ammo, jamiyat rivoji ko‘proq foydali bo‘lgan metodlar va texnikalarni qo‘llashni talab qilmoqda.Bir nechta tillarni bilish hayot normasi bo‘lmoqda. Chet tilida muloqot qilish darajasidagi muhim muammolarni hal qila oladigan mutaxassisni shakllantirish uchun, chet tillarini tez va samarali o‘rganish uchun innovatsion usullar kerak. Multinatsional kompaniyalar ishini innovatsion, aloqa va axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish mushkul. Yana bir muvafaqqiyatli yondashuvlardan biri bu loyiha metodi. Yevropa tillariga ‘‘loyiha’’ so‘zi Lotin tilidan o‘zlashtirilgan bo‘lib, ‘‘projectus’’ “atrofga otib yuborilgan”, “birovning ko‘ziga zarba bermoq” degan ma’nolarni bildiradi. Xorijiy til darslariga ishora qilgan holda, loyihalar aynan o‘qituvchilar tomonidan tayyorlanadi va mustaqil ravishda studentlarning kompleks harakati bilan olib boriladi va ijodiy mahsulot yaratilishi bilan tugatiladi. Shunday qilib, loyihalar usuli - bu talabalarning mustaqil harakatlari natijasida natijalarni majburiy ravishda taqdim etish orqali u yoki bu muammoni hal qilishga imkon beradigan o‘quv va kognitiv usullar to‘plami. Loyiha usullari bir nechta vazifalarni hal qilishga yordam beradi: o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytirish, o‘rganilgan leksik va grammatik materialni rivojlantirish. Loyihalar guruhlarda va individual ravishda amalga oshirilishi mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, loyihalar usuli talabalarga jamoada ishlashga tayyor bo‘lish, tanlov uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish, jamoa a’zolari bilan mas’uliyatni bo‘lishish, natijalarni tahlil qilish faoliyati, umumiy til topa olish, jamoada va individual ravishda muammolarni hal qila olish kabi qobilyatlarni rivojlantirishga yordam beradi [5.110]. Chet tilini o‘rgatish maqsadi talabalarning kommunikativ faoliyati, ya’ni amaliy chet tilini bilishidir. O‘qituvchining vazifasi - faoliyatini faollashtirish, har bir o‘quvchining o‘quv

jarayonida ijodiy faoliyati uchun vaziyatlar yaratish. Yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, nafaqat o‘quv jarayonini jonlantiradi va diversifikatsiya qiladi, balki ta’lim bazasini kengaytirish uchun katta imkoniyatlarni ochib beradi, shubhasiz, ulkan motivatsion salohiyatga ega va ta’limni individuallashtirish tamoyillariga yordam beradi. Loyiha faoliyati talabalarga muallif, ijodkor sifatida harakat qilish imkonini beradi, ijodkorlikni oshiradi, nafaqat umumiy dunyoqarashni kengaytiradi, balki til bilimlarini kengaytirishga ham hissa qo‘shadi.

Shubhasiz, davr taraqqiyoti, globallashuv jarayoni yoshlardan bir necha xorijiy tillarni bilishni talab qilmoqda. Uzluksiz ta’lim tizimining bosh va asosiy maqsadi yuksak ma’naviyatli, raqobatbardosh, intellektual salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlashdir. Bugungi kunda ilmiy texnik taraqqiyot har sohada, jumladan, ta’limtarbiya sohasida ham yangi-yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan talab ayni paytda ehtiyojga aylandi., til o‘qitishning zamonaviy metodlarini izlab topish va ta’lim jarayoniga tatbiq qilishga talab kuchaydi. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘zlariga berilgan bilimni yodlab olib aytishga emas, balki ta’lim va tarbiya jarayoniga amaliy ishlar

Dars jarayonlarida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati beqiyosdir. Jumladan, slaydlar orqali darsni tashkil qilish, o‘quvchilarni xorijiy til darsi boshlanishiga o‘ziga jalb qiluvchi usullar (warm-up activities)dan foydalanish,turli xil rangdagi ko‘rgazmalardan foydalanish orqali darsni mazmunli tashkil qilishga hamda o‘quvchilarning mavzuni to‘liq o‘zlashtirishiga erishish mumkin.Shuningdek, maktablarda dars jarayonlarini interfaol o‘yinlar orqali tashkil qilish ham juda katta ijobiy natijalar berishi isbotlangan. Ma’lumki, darsning turli xil o‘yinlar asosida o‘tilishi o‘quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlash imkoniyatlarini kashf etibgina qolmay, balkiularning diqqatni jamlash, muammoli vaziyatlardan chiqish yo‘llarni izlashko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Chunki, o‘yinlardan foydalanishning asosini o‘quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta’kidlashlaricha, o‘yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, hayotda barqaror o‘rnini topish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o‘yin zamirida umumiy qabul qilingan ta’lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O‘quv o‘yinlariga o‘quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O‘yinlar jarayonida o‘quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg‘ulotga qiziqibroq yondashadi va o‘zini erkinroq tutadi. Bu ayniqsa tabiatan uyatchang va jamoaga tez qo‘shila olmaydigan o‘quvchilar bilan ishlashni osonlashtiradi. Ularning kirishimlilik qobiliyatlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’kidlash lozimki, o‘yin eng avallo, o‘qitishning bir usulidir. O‘quvchilar o‘yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g‘alaba qozonishga intiladilar, pirovardida bilim va ko‘nikmalarini ham boyitib boradilar. Masalan o‘quvchi ingliz tilidagi o‘yinda qatnashish jarayonida o‘ziga bo‘lgan ishonchni

mustahkamlaydi, men bu tilda gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb motivatsiya oladi.[5.80]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, til o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari mavjud va til o‘qitishda zarur bo‘lgan metod va nazariyalarga har doim ham talab yuqori bo‘lgan. Chet tili maktablarda tegishli darajada o‘qitilishi va bugungi jamiyat talablariga javob berishi uchun bo‘lajak o‘qituvchi “Chet tillarini o‘qitish metodikasi“ fanining nazariy kursini juda yaxshi o‘zlashtirishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bim I.L. Chet tillarni o‘qitish metodikasi masalasi to‘g‘risida. // IYaSh.-1974

2.Maxmudov Q., Shayxislamov N. (2020). O‘zbek va xorijiy tillarda antonimlar tavsifi, o‘rni va ularnig turli jihatdan tasniflanishi. Science and Education, 1(Special Issue 3).

3. Juraboyev, B. B. (2020). Nemis tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuv. Science and Education, 7(7), 215-220.

4. Joraboyev, B. B. (2021). Using authentic materials on english lessons. Academic research in educational sciences, 2(2).

5. Shamahmudova, A. F. (2020). Interrogative Forms as an agent of Politeness Strategy. JournalNX, 6(06), 170-175.

6. Шамахмудова, А. (2017). Замонавий тилшуносликда билвоситалик ва имплицитлик тушунчалари. Иностранная филология: язык, литература.

ONA TILI VA IKKINCHI TILNI O‘QITISHDAGI O‘ZIGA XOS FARQLI JIHATLAR

Akramova Shahnoza Shavkatjon qizi
Qo‘qon DPI magistranti
Ilmiy rahbar: Phd, dotsent M.Rahimova

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili va ikkinchi tilni o‘qitishdagi o‘ziga xos farqli jihatlar, o‘z ona tilimizning o‘rganilishidagi ustuvor jihatlar va qulayliklar, ikkinchi tilni o‘qitishning qulay usullari xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ko‘p tillilik, amaliy tilshunoslik, ikki tillilik, uch tillilik, ongosti, grammatik kategoriyalar.

Abstract. This article talks about the specific differences between mother tongue and second language teaching, priorities and conveniences in learning our mother tongue, and convenient methods of teaching a second language.

Key words: multilingualism, applied linguistics, bilingualism, trilingualism, ongosti, grammatical categories.

Til o‘rganish kishilik jamiyatida bag‘oyat muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo‘lmish tilni tabiiy muhitda ya’ni, oila davrasida jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o‘rgatiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish , ayniqsa ko‘p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda tahsil oladigan o‘quvchi va talabalar odatda uch tilni o‘rganadilar. Ushbu tillar

maxsus nomlar bilan yuritiladi. Bular quyidagilar: ona tili, ikkinchi til va chet tili. Ona tili tafakkur shakillanishida alohida xizmat o‘taydigan birinchi til hisoblanadi. ikkinchi til haqida so‘z yuritilganda , unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo‘shnilar tili sifatida qaraladi.

Ikkinchi tilni o‘zlashtirish (inglizcha : Second lenguage acquisition o‘zlashtirish) ingliz tilida so‘zlashadigan mamlakatlarda amaliy tilshunoslik doirasida shaxsning ikkinchi tilni o‘zlashtirish jarayonini o‘rganadigan mustaqil fan sifatida qaraladi. Ikkinchi til insonning ona tilini o‘zlashtirgandan keyin tabiiy yo‘l bilan yoki maxsus tayyorgarlik yordamida o‘rganadigan til. " Ikkinchi tilni o‘rganish" atamasi uchinchi, to‘rtinchi va boshqa tillarni o‘rganish uchun ham qo‘llanilishi mumkin, chunki keyingi tillarni o‘rganish xuddi shu yo‘ldan boradi.[1.25]

XX asrning birinchi o‘n yilliklarida ikkinchi tilni o‘zlashtirish ko‘plab tilshunoslik fanlarining qiziqish mavzusi bo‘lgan. Shuning uchun bugungi kunda turli nuqtayi nazarlardan o‘rganilmoqda .

Ona tili bu biz bolalikdan gapira boshlagan tilimizdir. Ona tilini o‘rganish chet tilini o‘rganishdan ancha oson. Negaki ushbu jarayon bolalikda , hali inson aqlini tanimaganda ro‘y beradi. Barcha axborot avtomatik tarzda ongostiga ko‘chib, hozircha biz tushunmaydigan neyrolingvistik mexanizmlar negizida tizim holiga keladi, buning natijasida bola hech qanday maxsus tayyorgarliksiz shu tilda to‘ppa- to‘g‘ri gapira boshlaydi.[2.16]

Bu usul chet tilini o‘rganishning odatiy mexanizmidan (grammatikani o‘rganish, lug‘at yodlash , amaliyot qilish , testlar ishlash , matnlar o‘qish , film-videolar tomosha qilish va hokazo) anchagina oson va tez kechadi. Natija esa har doim yuz foiz bo‘ladi. Faqat uning bir salbiy tomoni bor bu mexanizm odam aqlini tanishidan oldingina ishlaydi. Aql tanilgach, tilni rasionalizasiya qilishga ehtiyoj tug‘iladi , ya’ni axborot bevosita ongostiga ko‘chmaydi, har bir yangi axborotni tahlil qilib , u nega bunday? bu nega bunaqa? deb tushinishga uriniladi, qonuniyatlar izlanadi, ahiyri axborotning o‘zidan tashqari qonuniyatlarni ham o‘zlashtirishga to‘g‘ri keladi. Bu esa til o‘zlashtirishni qiyinlashtiradi.

Buni payqagan odamlar qadimdan yoshlarga bittadan ortiq tilni oson o‘rgatish uchun ona tili mexanizmidan foydalanib kelishgan. ya’ni aqlini tanimagan bolalarga bira to‘la ikki yoki uch tilda gapirishgan. Buning natijasida ikki va undan ortiq tilni ona tili darajasida biladiganlar ikki tillilar va uch tillilar paydo bo‘lgan.

Agar bolangiz ko‘proq tilni bilishini istasangiz , ona tili metodidan foydalanish ko‘proq samara beradi. Bolalarga ikki-. uch tilda gapirib borish juda yaxshi natijaga olib keladi. Bu esa maktabda rus yoki ingliz tilini o‘zlashtirishga vaqt hamda kuch sarflashining oldini oladi. Jarayonni bolaning tili chiqmasidan avval boshlash juda muhim. O‘zbekchada tili chiqqan bolaga uch yoki to‘rt yoshida ruscha gapira boshlasangiz, yoshi kattalardan osonroq o‘zlashtiradi, ammo baribir qo‘shimchalarda va grammatik kategoriyalarda xato qiladi (masalan, jinslarni (rodlarni) chalkashtiradi, zamonlarni tushunishga qiynaladi). faqatgina maktabga borgach bu kamchiliklar uning nutqidan chiqib ketadi. Shuning uchun

bola hali gapirishni o‘rganmasidan unga navbatma-navbat o‘zbekcha, ruscha va iloji boricha inglizcha gapirish lozim (aralashtirib yubormaslik kerak, aks holda bola barchasini bitta til sifatida qabul qiladi), natijada uchta tilda ham bexato gapirib tili chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Second Language Learning and Language Teaching. London: Arnold, 2008.
2. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O‘zbek tili (Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun). Toshkent. "Sharq" nashriyot-matbaa konserni. 2022.
3. Maxmudov Q., Shayxislamov N. O‘zbek va xorijiy tillarda antonimlar tavsifi, o ‘mi va ularnig turli jihatdan tasniflanishi. Science and Education, 1(Special Issue 3), 2022

O‘ZBEKISTONDA ONA TILINI O‘QITISH MAZMUNINING TADRIJIY TARAQQIYOTI

Sobirova Muzayyana Ilhomjon qizi
Qo‘qon DPI magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda ona tilini o‘qitish mazmunining tadrijiy taraqqiyoti va uning asosiy bosqichlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Mo‘g‘ullar imperiyasi, xaldey, Innovatsion yondashuv, Interaktiv metodlar

Abstract. This article describes the gradual development of the content of teaching the mother tongue in Uzbekistan and its main stages.

Key words: Mongol Empire, Chaldean, Innovative approach, Interactive methods

Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi haqida ko‘p gapirilgan. Shubhasizki, tilning paydo bo‘lishi, o‘zlashtirilishi va taraqqiyotiday murakkab jarayonlarni jamiyatdan ayro holda aslo tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu murakkab jarayonda ijtimoiy muhitning, kishilik jamoasining hal qiluvchi omil ekanligidan iborat haqiqatni inson aqli hazm qilib ulgurguncha, ne-ne asrlar to‘zoni ichra abadga qo‘nim topgan.

Eramizdan oldin ham, bizning eramizda ham dunyoning turli burchaklarida ana shu haqiqatni izlab, turli-tuman tajribalar o‘tkazilgan. Jumladan, “Mo‘g‘ullar imperiyasining umumiy tarixi” (Parij, 1705) nomli kitobda XVI asrda Akbarshoh tomonidan o‘tkazilgan bir g‘aroyib tajriba haqida batafsil yozilgan. Ulug‘ shoh “Biron-bir tilga o‘rgatilmagan odamning tabiiy tili yahudiy tili bo‘ladi”, degan g‘ayriilmiy gapni eshitib qoladi. Shunda Akbarshoh bolaga hech qanday til ataylab o‘rgatilmasa, u, chindan ham, qaysi tilda gapiradigan bo‘lishini bilishni istaydi. Ana shu maqsadda shoh o‘n ikkita emizikli bolani ajratib olib, Agradan olti mil uzoqlikdagi qal’aga joylashtiradi, ularni tarbiyalashni o‘n ikki soqov enagaga topshiradi. Tilsiz qorovulga qal’a darvozasini ochish qat’iyan taqiqlanadi. Bolalar o‘n ikki yoshga yetganda, shoh ularni huzuriga keltirishni buyuradi va saroyga

barcha tillarni biladigan donishmandlarni ham taklif etadi. Agrada yashaydigan bir yahudiy bolalar, chindan ham, yahudiycha gapirish yoki gapirmasliklariga hakamlik qilishi kerak edi. Agrada arablar va xaldey (somiylardan bo‘lgan qadimiy xalq)lar bisyor edi. Hind faylasuflari bu bolalarning tili sanskrit (qadimgi hind tili)cha bo‘lib chiqadi deb hisoblardi. Ammo bolalar shoh huzuriga keltirilganda, barcha hayratdan tosh qotib qoladi, chunki ular hech bir tilda gapirmas edi. Bechoralar o‘z enagalaridan fikrlarini faqat turli imo-ishoralar bilan ifodalab, hech qanday tilsiz muomala qilishni o‘rgangandi. [2: B.1] Ular bu notanish, begona jamoadan qo‘rqib-hurkib turardi, ochilmay tugilgan bu tillarning tugunini yechmoq tamoman mushkul, ularga nutq tovushlarini ayttirmoq zamoni o‘tib bo‘lgan edi.

Qilni qirq yorgan aksariyat dunyo tilshunoslarining ta’kidlashlaricha, nafaqat tilni o‘zlashtirish, balki tilning ibtidodan paydo bo‘lishi ham muayyan jamoada birovning boshqasiga nimanidir aytish, nimagadir undash, o‘zining muayyan hissiy holatini bildirish kabi ehtiyoji mahsulidir. Qisqacha aytganda, jamoa-jamiyat bilan bog‘liqdir. Aytish joizki, tilning takomilu taraqqiyotini ham, uning shaxs ma’naviy-madaniy tashakkuli va ajdodu avlodning zamonlar osha vorisiyligidagi qiyossiz o‘rnini ham jamiyatsiz anglash mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun ham jamiyat hamda xalq taraqqiyoti, tinchligi va farovonligini, ularning milliy manfaatlarini ta’minlashday oliy maqsadni birlamchi burchi deb bilgan davlat o‘z hududida milliy tilni davlat tili maqomiga ko‘tarishi, uning tirikligi muhofazasi hamda har taraflama kamoloti uchun qayg‘urishi qonuniy va haqqoniy zaruriyatdir. Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi tarixiy farmonida behad o‘rinli ta’kidlanganidek, “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”. [1: B.4]

O‘zbekistonda ona tilini o‘qitish mazmuni tarixi davomida bir qancha muhim o‘zgarishlar va taraqqiyotlarni boshidan kechirdi. Ona tili o‘qitish jarayoni nafaqat til bilimini shakllantirish, balki milliy madaniyatni, tarixni va insoniyatning umumiy qadriyatlarini o‘z ichiga olgan keng qamrovli jarayon hisoblanadi.

I. Tarixiy asoslar

O‘zbekistonda ona tilini o‘qitish jarayoni 20-asr boshlaridan boshlangan. Shuningdek, ona tilining o‘qitilishi va rivojlanishi asosan quyidagi tarixiy davrlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Sovet davri (1924-1991)**:

- Bu davrda ona tili o‘qitilishi maktab ta’limida muhim o‘rin egalladi. O‘zbek tilidagi darsliklar, o‘qitish metodikalari va ta’lim dasturlari ishlab chiqildi.
- 1930-yillarda O‘zbek tilining yozuvi lotin alifbosidan kirill alifbosiga o‘tkazildi, bu esa tilni o‘qitish jarayonida yangi muammolarni keltirib chiqardi.

2. **Mustaqillik davri (1991-yildan hozirgacha)**:

- 1991-yilda O‘zbekiston mustaqil bo‘lgach, ona tilining maqomi yanada oshdi. O‘zbek tili davlat tili sifatida tasdiqlandi va o‘qitish jarayoni yangilandi.
- Ta’lim tizimida milliy qadriyatlarni, madaniyatni va tarixni o‘z ichiga oluvchi yangi darsliklar va o‘quv dasturlari ishlab chiqildi.

II. O‘qitish mazmunining asosiy bosqichlari

Ona tilini o‘qitish mazmuni taraqqiyotida bir necha asosiy bosqichlar mavjud:

1. **O‘qitish metodologiyasi**:
- O‘zbek tilini o‘qitish metodikalarida innovatsion yondashuvlar joriy etildi. Interaktiv metodlar, loyiha asosidagi o‘qitish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish keng tarqaldi.

2. **Darsliklar va resurslar**:
- O‘zbek tili bo‘yicha yangi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari ishlab chiqildi. Bular milliy va global kontekstni hisobga olgan holda yozilgan.
- O‘quv resurslarida o‘zbek tilining grammatik qoidalari, leksikasi va madaniyati haqida keng ma’lumotlar berilgan.

3. **Ta’lim standartlari**:
- Ta’limning barcha bosqichlarida ona tilini o‘qitish uchun standartlar belgilandi. Bu standartlar orqali o‘quvchilarning til bilimini baholash va rivojlantirish mexanizmlari ishlab chiqildi.

4. **Kadrlar tayyorlash**:
- Ona tilini o‘qitish sohasida malakali o‘qituvchilarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratildi. Pedagogik ta’lim va metodologik tayyorgarlik kurslari tashkil etildi.

III. Hozirgi zamonda o‘qitish

Bugungi kunda O‘zbekistonda ona tilini o‘qitish jarayoni:

- **Milliy o‘ziga xoslik**: O‘zbek tilining o‘ziga xos jihatlari va madaniyatni ta’lim jarayoniga kiritish.
- **Ko‘p tilli ta’lim**: O‘zbek tili bilan birga boshqa tillarni (rus, ingliz) o‘rganish imkoniyatlari.
- **Yangi texnologiyalar**: O‘qitishda raqamli texnologiyalar va elektron darsliklardan keng foydalanish.

IV. Muammolar va kelajakdagi o‘sish

O‘zbekistonda ona tilini o‘qitish jarayonida hali ham bir qancha muammolar mavjud:

1. **Ta’lim resurslari yetishmovchiligi**: Yana ko‘proq sifatli darsliklar va o‘quv materiallari zarur.
2. **O‘qituvchi malakasi**: O‘qituvchilarni doimiy ravishda malaka oshirish va yangiliklardan xabardor qilish muhimdir.
3. **Ijodiy yondashuvlar**: O‘qitish jarayonida ijodiy yondashuvlarni yanada rivojlantirish zarur.

Xulosa

O‘zbekistonda ona tilini o‘qitish mazmunining tadrijiy taraqqiyoti bir qancha tarixiy bosqichlardan o‘tgan. Bugungi kunda ona tili o‘qitilishi zamonaviy metodlar, darsliklar va ta’lim standartlari asosida amalga oshirilmoqda. Kelajakda esa, ta’lim jarayonida muammolarni hal etish va yangi imkoniyatlarni yaratish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu jarayon, nafaqat til bilimini shakllantirish, balki milliy qadriyatlarni saqlab qolish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://hozir.org/tilshunoslik-va-til-haqida.html?page=4
2. https://zarnews.uz/uz/post

ADABIYOT O‘QITISH METODIKASIDA BOQIJON TO‘XLIEVNING O‘RNI

Axmedova O‘g‘iloy Muxiddinovna
Qo‘qon DPI magistranti
Ilmiy rahbar: Abdurahmonova Barnoxon
Qo‘qon DPI dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiyotshunos, filologiya fanlari doktori, professor Boqijon To‘xliyevning adabiyotshunoslik, xususan, adabiyot o‘qitish metodikasidagi ilmiy izlanishlari, tajribalarda sinalgan ilmiy-adabiy qarashlari, pedogogik fikrlarini yoritishga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Adabiyot, metodika, fan, zamonaviy, ijodiy, tarbiyaviy, o‘quvchi, uslub, ifodali o‘qish.

Annotation. In this article, attention is focused on illuminating scientific researches, scientific-literary views tested in experiments, pedagogical opinions of literary critic, doctor of philological sciences, professor Baqijon Tokhliev in literary studies, in particular, literature teaching methodology.

Key words: literature, methodology, science, modern, creative, educational, puple, method, expressive reading.

Adabiyotshunos, filologiya fanlari doktori, professor Boqijon To‘xliyev (1954-y, Tojikiston)ning faoliyati haqida gapirar ekanmiz, uning adabiyotshunos, manbashunos, matnshunos, pedagog olim ekanligini e’tirof etishimiz joiz. Olim nafaqat adabiyotshunos, balki adabiyot ta’limini yanada rivojlantirish va zamonaviy metodlarni joriy etish borasida katta hissaga ega bo‘lgan taniqli pedagog hamdir. Uning ilmiy-tadqiqot ishlari va metodik tavsiyalari maktab va oliy ta’lim dargohlarida adabiyot fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boqijon To‘xliyevning adabiyot o‘qitish sohasidagi tadqiqotlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, u o‘quvchilarga badiiy asarlarni chuqur tahlil qilish va ularni to‘g‘ri anglash bo‘yicha ko‘plab ilmiy asarlar yaratgan. U o‘z asarlarida milliy adabiyotning ahamiyati va uning ta’lim jarayonidagi roli haqida chuqur fikr yuritadi. Ayniqsa, o‘zbek adabiyoti namunalarining o‘quvchilarga yetkazilishi va ularning mazmunini tushunishga yordam beradigan o‘qitish metodlarini ishlab chiqishda katta hissa qo‘shgan. Olim “Adabiyot o‘qitish metodikasi” kitobida

shunday deydi: “Adabiyot o‘qitish metodikasi fani o‘z nomiga munosib ravishda o‘quvchilarga badiiy adabiyot bilan yaqinlashish, oshno bo‘lish va ularni tahlil qilish yo‘llarini ko‘rsatishga yo‘naltirgan. Ayni paytda u kitob ustida ishlashni, bdiiy o‘qishni tashkil etishni, o‘quvchilarning adabiyotga bo‘lgan qiziqishlarining shakllanish va rivojlanish yo‘llarini ko‘rsatish bilan ham e’tiborlidir. Ayni shu fan adabiyot darslarini tashkil qilish, bu darslarda qo‘llanadigan metod va usullar, o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma nutqlarini shakllantirish va rivojlantirish haqida tasavvur uyg‘otadi. Mana shular zamirida esa o‘quvchilarga jamoaviy, guruh-guruh yoki individual yondashishning yo‘l-yo‘riqlarini beradi.

Xitoy maqollarining birida shunday deyiladi: “Insonning qo‘liga bir dona baliq ber – u bir kun to‘q bo‘ladi, unga baliq tutishni o‘rgat – u butun umri davomida to‘q yuradi”. Demak, bir ish qilish uchun shu ishni qanday qilib yaxshiroq va natijaliroq tarzda amalga oshirish mumkin degan savolga javob izlash maqsadga muvofiq bo‘ladi”.

Shuningdek, adabiyotshunos fikrlarini davom ettirar ekan, adabiyot o‘qitishda faqat asarlarni o‘qib chiqish bilan cheklanib qolmaslik kerakligini, balki o‘quvchilarni asarlar orqali tarbiyalash, ularga hayotiy ma’lumotlar berish va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish kerakligini ta’kidlaydi. Uning metodikasida o‘quvchilar bilan erkin suhbatlar, bahs-munozaralar orqali adabiy asarlarni tahlil qilishga alohida e’tibor qaratilgan.

O‘quvchilarni fikrlashga undash metodi. Boqijon To‘xliyev o‘z uslubida o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga undashga katta ahamiyat beradi. U badiiy asarlarni faqat o‘qib chiqish emas, balki ular haqida kengroq mulohaza yuritish, asarlar orasidagi bog‘liqliklarni tushunish va ularni hayotiy voqealar bilan qiyoslashni o‘rgatish zarurligini ta’kidlagan. To‘xliyev o‘quvchilarga faqat ma’lumot beruvchi emas, balki ularda o‘quv jarayonida faol ishtirok etish, munozara va muloqotga kirishish imkonini beradigan metodlarni targ‘ib qilgan. Ayniqsa, maktab adabiyot darslarida qo‘llanadigan interfaol metodlar, badiiy asarni rolli o‘yinlar orqali tahlil qilish yoki mushohada qilish usullari uning metodikasida yetakchi o‘rin egallaydi.

Olimning dars tizimlari adabiyot faniga qiziquvchi o‘quvchilarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. U o‘z metodikasida badiiy asarlarning mazmunini o‘quvchilarga qiziqarli va chuqur tushuntirish, asarlar asosida tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun samarali texnikalar ishlab chiqqan. O‘quvchilarning tahlil qobiliyatlarini rivojlantirish uchun u mashhur asarlar misolida ma’lum bir mavzularni chuqur o‘rganishni taklif qiladi. Masalan, Alisher Navoiy va Abdulla Qodiriy ijodiga bag‘ishlangan darslarda ularning ijodiy merosini tahlil qilish orqali o‘quvchilarni milliy madaniyatga bo‘lgan hurmatni kuchaytiradi.

Shuningdek, ko‘pchilik o‘qituvchilar kam e’tibor beradigan jihat: ifodali o‘qishni “san’at” deb ataydi olim. “Ifodali o‘qish” kitobida olim Ifodali o‘qishning kishidagi nutqiy ko‘nikma va malakalar bilan bog‘liq holda rivojlanib borishini, hech kim tug‘ma notiq bo‘lib tug‘ilmasligini, ayrim talablarni bajarib, ifodali o‘qishga hamma ham o‘rganishi mumkinligini ta’kidlaydi. Xo‘sh, ifodali o‘qish

nima uchun kerak? Olimning fikricha, ifodali o‘qish orqali muallif ko‘zda tutgan maqsad, ruhiyat va kayfiyatni to‘la darajada anglash imkoni paydo bo‘ladi. Uning vositasida asar qahramonlarining ruhiyati, kechinmalari ham to‘laroq namoyon bo‘ladi. Xursand yoki xafa bo‘lgan, shod yoki qayg‘urayotgan odamning o‘ziga xos tuyg‘ularini ifodali o‘qish vositasida nozik darajada ilg‘ash mumkin.

Ushbu metodik qo‘llanmasida olim har bir janr uchun alohida ifodali o‘qish uchun mashq va metodlar tavsiya etadi, bu esa o‘rgatuvchi uchun ham, o‘rganuvchi uchun ham katta qulaylik yaratadi.

To‘xliyevning eng muhim tamoyillaridan yana biri – adabiyotning nafaqat badiiy asar sifatida o‘rganilishi, balki tarbiyaviy vosita sifatida qo‘llanilishi lozimligidir. U o‘quvchilar uchun asarlarni qiziqarli tarzda tahlil qilish imkonini beruvchi interfaol metodlar ishlab chiqqan. Uning dars berish metodikasi o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undash va adabiyot orqali estetik tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan. Masalan, “5-sinf “Adabiyot” fanidan dars ishlanma namunalari” kitobida “Maqollar” mavzusida maqol va topishmoqni qiyoslab, o‘quvchidan bu hususda o‘z fikri so‘raladi. Ya’ni o‘quvchi xohlasa bu fikrga qo‘shilishi yoki qo‘shilmasligi mumkin, faqat fikrini yoshiga munosib tarzda isbotlab bera olishi kerak. Bu ham yoquvchini ijodiy va tanqidiy fikrlashga undaydi. U o‘z uslubida faqat badiiy asarlarni o‘rganish bilan cheklanib qolmay, o‘quvchilarni bu asarlar orqali hayotiy saboqlar olishga, kengroq mushohada yuritishga o‘rgatgan. Bu o‘quvchilarni faqat kitob bilimlariga asoslangan emas, balki hayotiy tushunchalarga ega, ijodiy shaxslar qilib yetishtirishga qaratilgan yondashuvdir. To‘xliyevning metodikasida badiiy asarlar ustida erkin suhbatlar, rolli o‘yinlar, mushohadalar muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilarning asarlar haqida o‘z fikrlarini bildirishi, qahramonlar harakatlarini tahlil qilishi va o‘zlarining shaxsiy tajribalarini ulashish orqali adabiyotning o‘zini o‘qishdan ko‘ra ko‘proq narsa olishiga yordam beradi. U badiiy asarlarni o‘qitishda asar mazmunini kengroq tushuntirib berishga qaratilgan tizimni joriy qilgan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Boqijon To‘xliyevning eng katta hissa qo‘shgan yo‘nalishlaridan biri bu o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodikasidir. U asarlarni o‘rganishda quruq ma’lumot berish bilan cheklanmaslikni, balki o‘quvchilarni ijodiy yondashuvlarga yo‘naltirish kerakligini ta’kidlaydi. Masalan, badiiy asarlar ustida muhokamalar, ijodiy yozuv mashqlari va dramatik sahnalashtirishlar orqali o‘quvchilarni asarlarni chuqurroq anglashga undaydi. Shuningdek, o‘quvchilarda badiiy asarlar orqali hayotiy vaziyatlarga nisbatan estetik hissiyotlar uyg‘otish va asarlardan hayotiy saboqlar olish ko‘nikmalarini rivojlantirish To‘xliyev uslubining markaziy nuqtasidir. U asarlarning tahliliga ko‘proq ijodiy yondashuv kiritish, qahramonlar bilan “muloqot qilish” texnikalarini keng qo‘llab, o‘quvchilarning badiiy asarlarni o‘z shaxsiy tajribalari bilan bog‘lashlariga imkon yaratgan. Boqijon To‘xliyevning ta’lim metodikasi hozirgi zamon ta’lim tizimiga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Uning ishlab chiqqan metodlari adabiyot o‘qitish jarayonida interfaol yondashuvlarning rivojlanishiga asos bo‘ldi. Xususan, “I-OT2019-7 “Umumiy o‘rta maktablar uchun mo‘ljallangan

3D-tizimli interaktiv o‘quv-metodik qo‘llanmalarni yaratish va joriy qilish (5-sinf “Adabiyot” fani uchun)” mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida chop etilgan “5-sinf “Adabiyot” fanidan dars ishlanma namunalari” kitobi ilm-fanga, xossatan, adabiyot ilmiga zamonaviy yondashuvning namunasi bo‘la oladi. Unda keltirilgan metodlar o‘quvchilarni asarlarni tahlil qilish, munozara qilish va mustaqil fikrlashga o‘rgatishda asosiy ahamiyat kasb etadi. To‘xliyevning interfaol metodlari bugungi kunda ham keng qo‘llanilib kelmoqda va adabiyot o‘qitish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga yordam bermoqda.

Boqijon To‘xliyevning adabiyot o‘qitish metodikasidagi o‘rni beqiyosdir. U o‘zining ijodiy yondashuvlari va pedagogik tamoyillari orqali adabiyot darslarini samarali tashkil qilishga katta hissa qo‘shdi. Uning uslublari o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, asarlarni chuqur tahlil qilish va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishda katta yordam beradi. To‘xliyevning ilmiy va pedagogik merosi bugungi kunda ham o‘qituvchilar va talabalarga qimmatli manba bo‘lib qolmoqda. U maktab ta’limida adabiyot fani o‘quvchilarni ijodiy rivojlantiruvchi vosita ekanini isbotlab berdi. Boqijon To‘xliyev tomonidan ishlab chiqilgan adabiyot o‘qitish uslublari o‘qituvchilar uchun eng yaxshi qo‘llanmalar sifatida xizmat qiladi. U adabiyot darslarini yanada qiziqarli qilish, o‘quvchilarda adabiyotga qiziqish uyg‘otish uchun samarali metodlarni ishlab chiqqan. Ayniqsa, uning adabiyot fanini texnologik va ilmiy jihatdan tahlil qilish usullari ta’lim tizimida keng qo‘llanilib kelmoqda. To‘xliyevning adabiyot o‘qitish bo‘yicha yozgan qo‘llanmalari hozirgi zamon pedagoglari tomonidan ham yuqori baholanadi va ularning ilmiy-amaliy ahamiyati davom etmoqda. U o‘qituvchilar uchun amaliy maslahatlar, dars jarayonini tashkil etish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalarni taklif qilgan. To‘xliyevning yondashuvi milliy adabiyotni chuqur anglash, milliy qadriyatlarni ulug‘lash va asarlar orqali yoshlarni tarbiyalashning eng samarali yo‘li sifatida namoyon bo‘ldi. Uning ijodi va pedagogik faoliyati nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilar uchun ham qimmatli darslik va tajriba manbai hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To‘xliev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010y.

2. To‘xliev B. Ifodali o‘qish. Metodik qo‘llanma. – “Bayoz” nashriyoti Toshkent-2015.

3. To‘xliev B. 5-sinf “Adabiyot” fanidan dars ishlanma namunalari. - “Bayoz” nashriyoti Toshkent-2019.

NAJMIDDIN ERMATOV SHE’RLARIDAGI BADIIY SAN’ATLAR VA OBRAZLAR TAHLILI

Saodatxon Sulaymonova
FarDU talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonamizning yosh, lekin qalami o‘tkir, o‘z o‘rniga ega bo‘lgan vakillaridan biri Najmiddin Ermatovning she’rlari tahlil

qilindi. Asosan, she’rlaridagi badiiy san’atlar, tasvir va obrazlarga alohida e’tibor berildi, ulardagi ichki kechinmalar, xulosalar tabdil qilindi

Kalit so‘zlar: Qalami o‘tkir, personaj, obraz, tashbeh, mubolag‘a, tasvir, tashxis, detal, misra, band.

Abstract. In this article, the poems of Najmiddin Yermatov, one of the representatives of our time, who is young, but has a sharp pen, and has earned his place, were analyzed. Mainly, special attention was paid to the artistic arts, images and images in his poems, and their inner experiences and conclusions were expressed.

Key words: Sharp pencil, character, image, allegory, exaggeration, image, diagnosis, detail, verse, paragraph.

Inson yaralibdiki, har narsadan mo‘jiza go‘zallik qidirishga harakat qiladi. Bu esa, albatta, uning dunyoqarashi, psixologiyasi bilan bog‘liq. Agar u ijodkor bo‘lsa, nur ustiga a’lo nur, ya’ni ijodkor zarradek har narsadan go‘zallikni qidiradi va topa oladi. Ayniqsa, shoir bo‘lsa, uning har misrasidagi har bir so‘zida, o‘xshatishlarida go‘zallik akslanadi. O‘zining she’rlarida mana shunday go‘zallikni akslantira olgan, zamonamizning yosh bo‘lishiga qaramasdan qalami o‘tkir bo‘lgan vakillaridan biri Najmiddin Ermatovdir. Uning she’rlarida asosiy personaj—o‘zi, ya’ni qalbi. Bundan tashqari, qo‘shimcha obrazlar ham bor: tabiat, Vatan, ozodlik, erk kabi. Jumladan, yuragini asosiy qahramon deb bilgan quyidagi misralarini keltirishimiz mumkin:

Ko‘nglimni so‘raysan,
Ha, ko‘nglim bordir—
Dunyoni sig‘dirgan,
Seni sig‘dirgan,
Boshdan oyoqqacha bus-butun yurak.
Mening topinganim o‘sha-ku axir,
Endi bu dunyolar menga ne kerak...

Yaratganning buyuk ne’matlaridan biri tabiat shoirlarni, yozuvchilarni, umuman olganda, ijod ahlini har zamonda, hamisha ilhomlantirgan, ruhlantirgan. Bu hayratdan esa ajoyib jumlalar yaralgan va yaralib kelmoqda. Shoirimizning ham mana shunday hodisalar sabab yaratgan ko‘plab she’rlari mavjud. Ularda har bir so‘z, tashbeh, mubolag‘a, tasvir hamda detallar o‘z o‘rni va maromida qo‘llangan:

Sentabr tig‘ urdi avgust ortidan,
Yaproqlarga sachrab ketdi qon.
Holsizlangan quyoshni sudrab,
Ketib borar edi saraton.

Kuyib kuylar edi xotima kuyin,
Atirgul shoxidan ketolmagan qush.
Navodek havoga ketolmam singib,

Uyog‘i xayol va u tomoni tush.

Qayta kelaverar armonlar yodga,
O‘tmishga intilib tasavvur halak.
Tiyramoh tig‘iga urar o‘zini,
Saraton qoniga belangan yurak.

She’rda ijodkor tabiatni mohirona jonlantiradi, ya’ni tashxisdan foydalanadi. Ayniqsa, yoz ketib, kuzning kelishini quyidagi bandda tashbeh bilan ham ajoyib tasvirlaydi:

Sentabr tig‘ urdi avgust ortidan,
Yaproqlarga sachrab ketdi qon.
Holsizlangan quyoshni sudrab,
Ketib borar edi saraton.

Misralardagi "sentabr oyining avgust ortidan tig‘ urishi", "holsizlangan quyosh" va mana shu "quyoshni sudrab ketayotgan saraton" tashxis bo‘lsa, yaproqlarga enlagan rangni qonga o‘xshatishi tashbehni yuzaga keltirgan. Bunda asosiy urg‘u endi kirib kelgan kuz fasliga qaratiladi. Shoir navbatdagi bandda qisman, so‘nggi bandda esa to‘liq o‘zining fasl almashgandan keyingi holatini bayon etadi:

Kuyib kuylar edi xotima kuyin,
Atirgul shoxidan ketolmagan qush.
Navodek havoga ketolmam singib,
Uyog‘i xayol va u tomoni tush.

Ya’ni bu misralarda muallif fasl almashinishi sabab qush ham atirgul shoxida so‘nggi kuyini kuyib kuylayotganini, ammo, qahramon—muallif ushbu navodek havoga singib ketolmay, xayollar ichra, tush ko‘rayotganday holatdda ekanini ta’kidlaydi.

Qayta kelaverar armonlar yodga,
O‘tmishga intilib tasavvur halak.
Tiyramoh tig‘iga urar o‘zini,
Saraton qoniga belangan yurak.

Yuqoridagi so‘nggi bandda ijodkor ichki kechinmalari, yodiga kelayotgan armonlari bilan tasavvuri halak ekanligini, saratonning xotiralari—qoniga belangan yuragi esa ushbu holatlar tufayli o‘zini tiyramoh, ya’ni qoraoy—kechaning tig‘iga urayotganini go‘zal misralar ila namoyon etadi. Bu misralarda lirik qahramon o‘zining bedor—uyqusiz holatiga ham urg‘u bermoqda.

Shoirning bisotida bu dunyoning matohlari kam bo‘lishi, yoki, umuman, bo‘lmasligi ham mumkin, lekin she’rlarida tesha tegmagan o‘xshatishlar va barchaning yodidan ko‘tarilgan urf-odatlar, mavzular, kechinmalar, albatta, bo‘ladi:

Yana keldim qoshingga, momo,
Ertak aytib bergin birgina.
Men o‘zgacha o‘ylagan dunyo,
Ertaklarga ketganmikin-a?

Aytganlaring unitolmadim,
Kattalikka koʻnikolmadim,
Parilar yoʻq, yoʻq ekan Rustam,
Yo ajdarho yutganmikin-a?

Xulosa tariqasida aytadigan boʻlsak, shoir—ijodkordagi har bir jumla, har bir satr, har bir mavzu oʻz oʻrniga ega va eng muhimi ularning hammasidan koʻzlangan maqsad, yana bir asosiy jihati, gʻoya hamda tugal bir xulosa bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Oʻzbek tilining izohli lugʻati".Toshkent, "Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.B.212

2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004.B.187

3-SHO‘BA:
O‘ZBEK TILINING IJTIMOIY MUNOSABATLARDA TUTGAN O‘RNI

O‘ZBEK TILIDA QO‘SHMA GAPLARDA PARADIGMATIK MUNOSABATLAR

Saodat Muxamedova
Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti unversiteti professori filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada qo‘shma gap ichki tizimlari va tagtizimlari (qavatlari) bilan bog‘liq bunday munosabatlarni bir model doirasidagi paradigmalar va ularning aloqalari deyish mumkin. Qo‘shma gapning qaysi tagtizimi (qavati) bo‘lishidan qat’iy nazar, uning birliklari oziga xos paradigmatik bosqichlarda parchalana olishi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Sintaktik, qo‘shma gap, tizim, model, paradigma, aloqa, sodda gap, sxema.

Annotation. In this article, such relations related to the internal systems and substructures (layers) of the compound sentence can be called paradigms and their connections within the framework of one model. Regardless of the sub-system (layer) of a compound sentence, it is revealed that its units can be decomposed into specific paradigmatic stages.

Key words: Syntactic, conjunction, system, model, paradigm, communication, simple sentence, scheme.

Sintaktik paradigmatika, xususan, gap paradigmatikasi bo‘yicha aytilgan yuqoridagi fikrlar asosan sodda gaplar sathi hodisalari paradigmatikasiga dahldor edi. Sintaktik paradigma qo‘shma gaplar sathi hodisalari uchun ham xosdir. Sodda gaplar sathiga xos paradigmatik tizimda bo‘lgani kabi, qo‘shma gaplar sathiga xos paradigmatik tizimda ham qo‘shma gaplarning paradigmatik aloqalari sintaktik paradigmatikaning T.P.Lomtev tomonidan paradigmatik seriya va paradigmatik qator deya e’tirof etilgan tushunchalar doirasida amalga oshadi. Qo‘shma gaplar paradigmatikasi paradigmatik seriyalar nuqtayi nazaridan qaralganda, qo‘shma gaplar struktur sxemasi(modeli)ning turg‘un elementlari mushtarakligi belgisi asosga olinadi. Bunday paradigmalar qatorida ishtirok etgan paradigmatik juftlarning, ya’ni qo‘shma gaplar struktur sxemasining o‘zgaruvchan elementlari har xil bo‘ladi. Qo‘shma gap struktur sxemalarining turg‘un elementlari umumiy prinsipga ko‘ra sodda gaplar struktur sxemalari(modellari)ning turg‘un elementlari bilan bir xil bo‘lsa-da, ular, xarakteriga ko‘ra, sodda gaplar struktur sxemasi turg‘un elementlaridan farq qiladi. Sodda gaplarda sintaktik va semantik aktantlar (gap bo‘laklari) pozisiyasi ular modelining turg‘un elementlari vazifasini bajarsa, qo‘shma gaplarda predikativ xarakterdagi funksional-vazifaviy qismlarning xarakteri, ularning sintaktik aloqasi, bu aloqalarning shakliy-grammatik markerlari(bog‘lovchi va bog‘lovchi vositalari), funksional qismlarning joylashish

tartibi kabi bir qator grammatik xususiyatlar ular struktur sxemasi—modelining turg‘un elementlari maqomida ish ko‘radi. Qo‘shma gaplar struktur sxemasining o‘zgaruvchan elementlari vazifasini esa, sodda gaplar strukturasida bo‘lganidek, funksional, ya’ni predikativ qismlarning konkret lug‘aviy tarkibi bajaradi. *Bahor keldi va dala ishlari boshlandi – O‘qituvchi keldi va dars boshlandi – Qushlar uchib keldi va zararkunanda hashoratlar qirila boshladi* polipredikativ gaplarining o‘zaro paradigmatik aloqasi paradigmatik seriyaga to‘g‘ri keladi. Bu seriyada o‘zaro paradigmatik munosabatga kirishgan polipredikativ birliklarning modellari bir xil turg‘un elementlardan tarkib topgan. Ular modelining o‘zgaruvchan elementlari o‘zaro farqli, ya’ni har xil lug‘aviy birliklardan iborat.

Kimki halol ishlasa, u e’tibor qozonadi – Kimki halol ishlar ekan, u e’tibor qozonadi – Har kimsa halol ishlarkan, o‘sha e’tiborli bo‘ladi – Kishi halol ishlasa, u e’tibor qozonadi singari bog‘lanishlarda ham uch ega ergash gapli qo‘shma gap bir paradigmatik uyani tashkil qilgan. Bu paradigmatik uyada o‘zaro munosabatdosh qo‘shma gaplar modelining o‘zgaruvchan elementlari bir xil, lekin ular modelining turg‘un elementlari har xil. Shuning uchun bunday to‘dalarlarda ularning qarama-qarshi, muqobil, a’zolari eshelonsimon tartibdagi paradigma tarkibida birlashgan.

Qo‘shma gaplar dastlab sintaktik aloqaning xarakteriga ko‘ra paradigmalar hosil qiladi va bu paradigmalarning binar a’zolari sifatida parataktik(bog‘langan) va gipotaktik(ergash gapli) qo‘shma gaplar ajratiladi. Masalan, *Havo sovudi va yerlar muzladi – Havo sovugach, yerlar muzladi* qo‘shma gaplari tashkil qilgan paradigmada bu xususiyat mavjud. Keltirilgan qo‘shma gaplar paradigmasida uning (paradigmaning) birinchi a’zosi – bog‘langan qo‘shma gap, «*predikativ qism+predikativ qism*» modeliga ega; ikkinchi a’zosi—ergash gapli qo‘shma gap, u *«ergash gap*-gach+ *bosh gap*» modeliga ega. Ko‘rinadiki, qo‘shma gaplar sathining dastlabki bosqich paradigmasida paradigma a’zolari tavsifidagi muqobil birliklarning turg‘un elementlari har xil, o‘zgaruvchan elementlari esa, bir xildir. Shuningdek, bu bosqich paradigmada har xil noo‘xshash modelli birliklar o‘zaro lisoniy munosabatda bo‘lgan. Bunday bog‘lanishni qo‘shma gaplarning modellariaro bog‘lanish, ularning modellariaro paradigmasi deyish mumkin.

Qo‘shma gaplar paradigmatik tizimining keyingi bosqichlari bir model doirasida, ya’ni yo paradigmatik, yo gipotaktik xarakterdagi mikrotizimlarning ichki qavatlarida vujudga keladi. Masalan, parataktik mikrotizimdagi qo‘shma gaplarning va, ham, hamda; ammo, lekin, biroq bog‘lovchilariga ko‘ra farqlanuvchi ko‘rinishlari va ular struktur sxemasi-modelining paradigmatik bog‘lanishlari qo‘shma gaplarning ayni bir modeli doirasidagi ko‘rinishlaridir.: *Havo sovudi va yerlar muzladi – Havo sovudi hamda yerlar muzladi; Qish keldi, ammo havo sovuq emas—Qish keldi, lekin havo sovuq emas – Qish keldi, biroq havo sovuq emas* (parataktik—bog‘langan qo‘shma gaplarning ichki paradigmasi); *Har kim halol ishlasa, u e’tiborli bo‘ladi – Kimda-kim halol ishlar ekan, o‘sha e’tiborli bo‘ladi* (gipotaktik4—ergash gapli qoshma gaplar ichki paradigmasi).

Qo‘shma gap ichki tizimlari va tagtizimlari (qavatlari) bilan bog‘liq bunday munosabatlarni bir model doirasidagi paradigmalar va ularning aloqalari deyish mumkin. Qo‘shma gapning qaysi tagtizimi (qavati) bo‘lishidan qat’iy nazar, uning birliklari o‘ziga xos paradigmatik bosqichlarda parchalana oladi. Masalan, parataktik tizimda qo‘shma gapning struktur tipiga ko‘ra yopiq qurilishli(konstruksiyali) va ochiq qurilishli (konstruksiyali) bog‘langan qo‘shma gaplar paradigmasi shu tagtizimning dastlabki bosqichi sanaladi. Keyingi etap paradigmatik parchalanish har ikki mikrotizimning ichki doirasida vujudga keladi. Gipotaktik tizimda ham paradigmatik bog‘lanishlarning o‘ziga xos bosqichlari mavjud. Mazkur tizimda ham dastlabki bosqich paradigmatik munosabatlar qo‘shma gap struktur tipiga ko‘ra vujudga keladi: sintetik tip va analitik tip deb ajratiluvchi ko‘rinishlar o‘zaro, biri boshqasiga nisbatan, paradigmatik munosabatda bo‘ladi. Qo‘shma gaplarning parataktik tizimida bo‘lgani kabi, gipotaktik tizimning keyingi etap paradigmatik munosabatlari har bir tipning ichki doirasida yana tegishli bosqichlarda davom etadi.

Polipredikativ xarakterdagi murakkab sintaktik qurilmalar ham, matn (tekst) xarakteridagi yaxlit kommunikativ butunliklar ham o‘z paradigmatik tizimlari qamrovida yashaydi. Bulardan shunday xulosalarga kelish mumkinki, til sintaktik sathi, uning to‘liq mundarijasi o‘ziga xos paradigmalar mikrotizimi va ularning tagtizimlari majmuasidan iborat bo‘ladi. Shuning uchun ham gap sintaktik paradigmatikasida kommunikativ maqsad, tasdiq-inkor, mazmunning voqelikka munosabati, his-hayajonning ishtiroki, predikativlik kategoriyalari doirasidagina qarash gap sintaktik paradigmatikasining to‘liq va baqamti xarakteristikasini aks ettira olmaydi. Negaki sintaksis mohiyatan paradigmalar tizimidir. Shu o‘rinda paradigma va klassifikatsiya (tasnif) tushunchalari o‘zaro tutashadi, uyg‘unlashadi: paradigma va klassifikatsiya atamalari sinonimik xarakter kasb etadi. Darhaqiqat, paradigma atamasi klassifikatsiya atamasi ifoda etgan tushuncha sifatida qaralsa, tildagi, shu jumladan, sintaktik tizimdagi har bir hodisa o‘z tasnifi, klassifikatsiyasi, asosiga ega bo‘ladi. Chunki sintaksis qamrovidagi har bir birlik o‘z mikrotizimidan iborat. Mikrotizim o‘z navbatida o‘ziga xos sistema hamdir. Sistemani mushtarak belgi-xususiyatlari bilan uyg‘unlashib, ma’lum bir farqli qirralari bilan chegaralanuvchi hodisalar summasisiz tasavvur etish qiyin. Lisoniy hodisalarning umumiy va farqli tomonlari ularni o‘ziga xos muayyan paradigmalar doirasida tutashtiradi.

Ayrim olingan konkret gapning struktur sxemasi—modeli ayni o‘rinda bir necha paradigmalar ixtiyorida bo‘ladi. Masalan, *Yaqinda o‘quvchilar yozgi ta’tilga chiqadi* gapi kommunikativ maqsadga ko‘ra (darak gap, muqobili: so‘roq gap, buyruq gap); mazmunning voqelikka munosabatiga ko‘ra (real gap, muqobili: noreal, irreal, gap); modalliik xususiyatiga ko‘ra (tasdiq gap, muqobili: inkor gap); his-hayajonning ishtirokiga ko‘ra (his-hayajonsiz-emosional bo‘lmagan gap, muqobili: his-hayajon-emosional gap); grammatik asosiga ko‘ra (sodda gap, muqobili: qo‘shma gap); bosh bo‘laklarining ishtirokiga ko‘ra (ikki bosh bo‘lakli gap, muqobili: bir bosh bo‘lakli gap); ikkinchi darajali bo‘laklarining ishtirokiga

ko‘ra (yoyiq gap, muqobili: yig‘iq gap); kesimlik xususiyatiga ko‘ra (fe’lli gap, muqobili: otli gap); zarur bo‘lagining mavjud-mavjud emasligiga ko‘ra (to‘liq gap, muqobili: to‘liqsiz gap); fikr qamroviga ko‘ra (murakkablashmagan sodda gap, muqobili: murakkablashgan sodda gap); funksional qismlarga ajralish-ajralmaslik xususiyatiga ko‘ra (funksional qismlarga-gap bo‘laklariga ajraladigan gap, muqobili: funksional qismlarga,gap bo‘laklariga, ajralmaydigan gap) singari paradigmatik qatorlarda ularning qonuniy lisoniy muqobil a’zosi sifatida ishtirok etadi. Shu gap ishtirok etgan boshqa paradigmalar paradigmatik tizimning yirik bosqichlari sanaladi. Har bir bosqich paradigmaning yana ichki tagtizimlari—qavatlari ham borki, yuqorida keltirilgan gap ana shu paradigmalar tarkibida ham ularning munosib rasmiy muqobil a’zosi sifatida ishtirok etadi. Bu lisoniy holat Ye.A. Sedelnikovning «*har qanday gap bir necha paradigmatik qatorlar a’zosidir»* degan yuqoridagi xulosasining to‘g‘ri va asosli ekanligini o‘zbek tili lisoniy ashyolari misolida ham tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

8. Sedelnikov Ye.A. Struktura prostogo predlojeniya s tochki zreniya sintagmaticheskix i paradigmaticheskix otnosheniy // NDVSH FN, 1961. № 3.
9. Strukturniy sintaksis angliyskogo yazika, -B. 29.
10. Yurchenko Yu.S. Predlojeniye, yego osnovnoy tip i paradigma…-B. 80.
11. Shutova Ye.I. O‘sha asar. –B. 70.
12. Shutova Ye.I.O‘sha asar. –B. 90.
13. Martinov V.V. O‘sha asar. –B.53-56
14. Martinov V.V. O‘sha asar. –B.54.
15. Berdialiyev A. Koordinativ aloqa va uning xususiyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti. 1984, № 3. –B. 20-24.
16. Shutova Ye.I. O‘sha asr. –B. 91.
17. Shutova Ye.I. O‘sha asar. –B.70.
18. Berdialiyev A. Ergash gapli qo‘shma gap konstruksiyalarida semantik-signifikativ paradigmatika. Toshkent: Fan, 1989. –B.15

O‘ZBEK TILINING NOLISONIY OMILLAR ASOSIDA BOYISHI

Hasanova Dilfuza Odilovna
Qo‘qon DPI dotsenti (DSc)

Annotatsiya. Ushbu maqolada til leksikasi va so‘z yasalishi o‘zaro zich bog‘liq bo‘lgan sathlar ekanlig, chunki tildagi mavjud leksemalar yangi so‘z yasash uchun manba (asos) bo‘lib xizmat qilsa, o‘z navbatida, yangi hosil qilingan so‘zlar til lug‘aviy tizimini yangi leksemalar hisobiga boyitadi. Shu sababli so‘z yasalishi, nominatsiya masalalari haqida gap borganda, albatta, tilning lug‘aviy imkoniyatlari ham ko‘zda tutilishi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Lison, omil, asos, so‘z yasalishi, nolisoniy, omil, boyish, tahlil.

Annotation. In this article, the language lexicon and word formation are closely related levels, because the existing lexemes in the language serve as a source (basis) for the formation of new words, and in turn, newly formed ones

words enrich the lexical system of the language with new lexemes. For this reason, it is revealed that when it comes to the issues of word formation and nomination, the lexical possibilities of the language are also taken into account.

Key words: Language, factor, basis, word formation, non-linguistic, factor, enrichment, analysis.

O‘zbek tilshunosligi o‘zbek milliy tilining lisoniy tabiati, boyish va rivojlanish xususiyatlarini tadqiq qilish bo‘yicha ulkan yutuqlarga erishdi. O‘zbek tilining deyarli barcha sathlari ma’lum darajada tadqiq qilingan. Bu tilning ikki muhim sathi: lug‘aviy boyligi va so‘z yasalishi sohasida olib borilgan tadqiqotlarda ham o‘z ifodasini topgan.

Til leksikasi va so‘z yasalishi o‘zaro zich bog‘liq bo‘lgan sathlardir. Chunki tildagi mavjud leksemalar yangi so‘z yasash uchun manba (asos) bo‘lib xizmat qilsa, o‘z navbatida, yangi hosil qilingan so‘zlar til lug‘aviy tizimini yangi leksemalar hisobiga boyitadi. Shu sababli so‘z yasalishi, nominatsiya masalalari haqida gap borganda, albatta, tilning lug‘aviy imkoniyatlari ham ko‘zda tutiladi. Quyida o‘zbek tili leksikasi va so‘z yasalishiga oid asosiy ishlarni qisqacha tahlil qilishni lozim topamiz.

Ma’lumki, o‘zbek tili leksikasi o‘tmish davrlarda ham tadqiq qilingan, ammo ularning aksariyati leksikografik xarakterda[322], ya’ni bir tilli izohli lug‘atlar, ikki tilli lug‘atlarni tuzish xarakterida edi. O‘zbek tili leksikasini mana shu yo‘nalishda tadqiq qilishda Mahmud Koshg‘ariy[323], buyuk adib Alisher Navoiy[324], shuningdek, Ya’qub Chingizning[325] xizmatlari tahsinga loyiqdir. Bular qatoriga muallifi noma’lum bo‘lgan “Attuhfatuz zakiyatu fillug‘ati turkiya”ni ham qo‘shish mumkin[326]. Bulardan tashqari, bir qator lug‘atlar ham tuzilgan. Bular yuzasidan A.K.Borovkov[327], E.Umarovlar[328] tadqiqotlar olib borgan yoki ayrim manbalar bo‘yicha lug‘atlar tuzgan[329]. Ushbu lug‘atlar o‘zbek tili tarixiy leksikasining muhim va ishonchli manbalaridir. Shunga qaramasdan, o‘zbek adabiy tili leksikasini ilmiy asoslarda o‘rganish, asosan, XX asrning 20-30-yillaridan boshlandi. Bu yillar yangi o‘zbek adabiy tilining shakllana boshlagan davri bo‘lib, yangi tilning ko‘pgina noaniq tomonlarini ilmiy tadqiq qilish va aniqlash talab qilinar edi. Bularning eng muhimlari yangi adabiy tilning eski o‘zbek tiliga munosabatini belgilash, adabiy tilning dialektal bazasini – tanyach lahjasini belgilash, adabiy til ilmiy terminologiyasining lug‘aviy manbalarini aniqlash,

---

[322] Умаров Э., Ҳамидов Т. Луғатшунослик тарихи ва қўлёзма луғатлар (XV-XVII аср қўлёзма луғатлари таснифи). – Тошкент: Адолат, 2004. – Б. 34.

[323] Кошғарий Маҳмуд. Девону луғатит турк. I, II, III жилдлар. – Тошкент: ЎзФА, 1960-1963.

[324] Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. – Тошкент: Фан, 2000. – 336 б.

[325] Мухаммад Якуб Чинги. Келур-наме. – Тошкент: Фан, 1982. – Б. 3-77; Ибрагимов А. Исследование “Келурнаме” Мухаммада Якуба Чинги: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1976. – 32 с.

[326] Аттуҳфатуз закияту филлуғати туркия. – Тошкент: Фан, 1968. – 278 б.

[327] Боровков А.К. “Бадаи ал-лугат. Словарь Тали Имани Гератского к сочинениям Алишера Навои. – М., 1961. – 263 с.

[328] Умаров Э. “Бадаи-ал-луғат”, “Санглах” как лексикографические памятники и источники изучения староузбекского языка XV-XVII вв.: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1989. – 46 с.; Ўша муаллиф. Эски ўзбек луғатлари. – Тошкент: 1992. – 35 б.

[329] Боровков А.К. Лексика Среднеазиатского тефсира XII-XIII вв. – М.: ИВЛ, 1963. – 367 с.

terminologiyani shunga mos ravishda muayyan me’yorlarga keltirish, o‘zbek tili alifbosi va imlosining asosiy tomonlarini tadqiq qilish, eski o‘zbek tili, ayniqsa, o‘zbek mumtoz adabiyotida an’ana bo‘lib kelgan o‘zlashma so‘zlarga munosabat bildirish kabi masalalar edi.

Ushbu masalalar ham nazariy, ham amaliy muammo sifatida ko‘ndalang bo‘lib turardi. Bu davrda yangi o‘zbek tilining leksik me’yorlarini belgilash masalasida xilma-xil nuqtai nazar, puristik, kosmopolitizm va millatchilik ruhi bilan sug‘orilgan qarashlar oldinga surilar edi. Bu hol esa adabiy til leksikasining lug‘aviy tarkibi va undagi rivojlanish an’analarini aniqlashni talab qilar edi. Ushbu masalaga dastlab qo‘l urgan tilshunos V.V.Reshetov bo‘ldi. U “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1934-yil 4-soni sahifalarida uchraydigan so‘zlarni genetik jihatdan qaysi tilga mansubligini hisoblab chiqdi va undagi so‘zlarning 59,3 foizini o‘zbekcha so‘zlar, 21,3 foizini arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar, 4,9 foizini tojikcha o‘zlashmalar, 12 foizini esa ruscha va rus tili orqali kirgan so‘zlar tashkil etishini belgiladi[330]. Mana shunday hisob-kitoblar qilish keyinchalik odat tusiga kirdi. Ushbu usul A.K.Borovkovning izlanishlarida qo‘llanildi[331]. Mana shu kabi statistik tadqiqlar o‘zbek tilshunosligida F.Abdullayev, I.Rasulov, M.Mirzayev, G.Muhammadjonova, N.G‘ulomova, A.Mahmudovlar tomonidan ham olib borilgan. Aslini olganda, ushbu usul sho‘rolarning til siyosati manfaatini ko‘zlar edi va, asosan, baynalmilal deb yuritiluvchi o‘zlashma qatlamning o‘zbek tilidagi funksional mavqeini belgilash, o‘z qatlam so‘zlari, ayniqsa, arabcha, forscha o‘zlashmalarning faollashib ketishining oldini olishni ko‘zlar edi. Bunday hisob-kitoblar asosan matbuot tili materiallari asosida olib borilgan bo‘lib, o‘rganilayotgan matnning uslubiy, janriy xususiyati, matnning mavzui hisobga olinmasdi. Ushbu usulning metodikasi, ilmiy tamoyillari yetarli darajada aniq bo‘lmagan. Shu sababli E.Begmatov mazkur hisoblashlarni ishonchli va izchil usul emas deb baholaganda haqli deb o‘ylaymiz[332].

Ushbu ishlardagi ilmiy fikrlar va tahlillar keyinchalik “Hozirgi o‘zbek tili”[333], “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”[334] nomli asarlarga kiritildi. Faxri Kamolning ushbu ishlarida o‘zlashma leksikaning o‘zbek tilida yangi leksemalar hosil qilishdagi ahamiyati alohida ta’kidlanadi[335].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umarov E., Hamidov T. Lug‘atshunoslik tarixi va qo‘lyozma lug‘atlar (XV-XVII asr qo‘lyozma lug‘atlari tasnifi). – Toshkent: Adolat, 2004. – B. 34.
2. Koshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘atit turk. I, II, III jildlar. – Toshkent: O‘zFA, 1960-1963.

[330] Решетов В.В. Лексический состав современной узбекской прессы // Проблемы языка.– Ташкент, 1934. Вып. I. – С. 41-42.

[331] Боровков А.К. Изменение в области узбекской лексики и новый алфавит // Известия узбекского филиала АН СССР. – Ташкент: УзФАН, 1940. - №7. – С. 18-37.

[332] Бегматов Э. Матн луғавий таркибини ўрганишнинг бир усули ҳақида // Ўзбек журналистикаси ва филологияси масалалари. – Самарқанд: Сўғдиёна, 1998. – Б. 44-45.

[333] Ҳозирги замон ўзбек тили. – Тошкент: ЎзФА, 1957. – Б. 89-105.

[334] Ҳозирги ўзбек адабий тили. I. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 159-178.

[335] Фахри Камол. Ўзбек тили лексикаси. – Ташкент: Фан, 1953. – Б. 5-16.

3. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn. – Toshkent: Fan, 2000. – 336 b.
4. Muxammad Yakub Chingi. Kelur-name. – Toshkent: Fan, 1982. – B. 3-77
5. Ibragimov A. Issledovaniye “Kelurname” Muxammada Yakuba Chingi: Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. – Tashkent, 1976. – 32 s.
6. Attuhfatuz zakiyatu fillug‘ati turkiya. – Toshkent: Fan, 1968. – 278 b.
7. Borovkov A.K. “Badai al-lugat. Slovar Tali Imani Geratskogo k sochineniyam Alishera Navoi. – M., 1961. – 263 s.
8. Umarov E. “Badai-al-lug‘at”, “Sanglax” kak leksikograficheskiye pamyatniki i istochniki izucheniya starouzbekskogo yazыka XV-XVII vv.: Avtoref. diss. ... d-ra filol. nauk. – Tashkent, 1989. – 46 s.; O‘sha muallif. Eski o‘zbek lug‘atlari. – Toshkent: 1992. – 35 b.
9. Reshetov V.V. Leksicheskiy sostav sovremennoy uzbekskoy pressы // Problemы yazыka.– Tashkent, 1934. Vыp. I. – C. 41-42.
10. Borovkov A.K. Izmeneniye v oblasti uzbekskoy leksiki i novыy alfavit // Izvestiya uzbekskogo filiala AN SSSR. – Tashkent: UzFAN, 1940. - №7. – S. 18-37.

ВЗАИМОСВЯЗАННОЕ ИЗУЧЕНИЕ ЯЗЫКА И КУЛЬТУРЫ

Алимсаидова Сайёра Амидьеевна,
доктор педагогических наук,
Кокандский госпединститут

Аннотация. В данной статье раскрываются вопросы взаимосвязанного изучения языка и культуры при использовании коммуникативного принципа обучения.

Ключевые слова: принципы**,** компетенция, современные методические принципы, коммуникативный подход, неродной язык.

Духовно-культурная составляющая восприятия окружающей действительности – это продукт духовно-культурного освоения мира носителями данного языка (М.М.Маковский, В.И.Постовалова и др.). И этот продукт транслируется, прежде всего, через язык. Являясь неотъемлемой частью культуры, развиваясь и функционируя как форма многих видов искусства, язык способствует обогащению национальных культур. Вот почему язык и культура неразрывно и многосторонне связаны друг с другом. Знание культуры также расширяет кругозор обучаемых, обостряет их любознательность и соответственно углубляет интерес к изучаемому и родному языкам. Поэтому *взаимосвязанное изучение языка и культуры мы рассматриваем как необходимый фактор гармоничного воспитания личности, интеллектуального развития «человека культуры», повышения общей гуманитарной подготовки и усиления мотивации в процессе изучения языков.*

Вопрос о взаимосвязанном изучении языка и культуры является наиболее актуальным в исследованиях последних десятилетий и является методической основой социолингвистической компетенции. Желание объединить язык и культуру при обучении неродному языку было различными способами отражено в работах ученых. Данный вопрос привлекал к себе внимание таких известных учёных (Ю.Д.Апресян, Г.Х.Бакиева, М.Д.Джусупов, Р.П.Мильруд, E.D.Hirsch, D.Hymes и др.)

Язык является одним из основных путей, с помощью которого можно получить информацию о внешнем мире. Знание любого неродного языка расширяет сферу деятельности личности, помогает ей более глубоко понять родной язык, который остаётся незыблемым фундаментом овладения любым другим языком. Личность, не владеющая, кроме родного (узбекского), другим языком, остаётся замкнутой исключительно в одной культуре. Важным является и то, что культура современного языка в любом государстве – это зеркало его социальной и духовной жизни.

Изучение культуры - это не только понимание культурных знаний, но и знаний, в число которых входит принцип приоритета общечеловеческих ценностей и национальная культура основы образования, национальные, исторические и культурные традиции, нравственный опыт узбекского народа и представителей других народов, проживающих на территории республики, которые осуществляются при помощи имеющихся языковых средств. Помимо этого неродной (русский) язык изучается условиях родной (узбекистанской) культуры обучающихся, что обеспечивает в учебном процессе диалог культур, помогающий пониманию и стремлению лучше узнать друг друга.

Положительный результат обучения неродному (русскому) языку иноязычных школьников определяется особенностями другого языка и культуры, а также умением сотрудничать с представителями страны обучения. Иными словами, правильное владение неродным (русским) языком не представляется возможным без изучения культуры.

Мы предлагаем наиболее известные модели взаимосвязанного изучения языка и культуры, предложенные российскими и иностранными учёными.

Модель взаимосвязанного изучения языка и культуры Е. Хирша (Hirsch E.D.) [4] является отражением идеи «культурной грамотности» (Cultural Literacy), данная концепция была показана в словаре-справочнике для повышения уровня культуры американской молодежи. Для учащихся школ очень важно тематическое содержание данного словаря-справочника, который помогает общению на неродном языке. Учащихся можно поделить на несколько групп для облегчения социализации. Формируется культурное моделирование любой ситуации, как социально-бытового общения, так и профессионального. Мы рекомендуем следующее з***адание.*** Напишите небольшой рассказ, используя изучаемые конструкции (6-7 предложений), опираясь на следующую ситуацию: *Газета «Молодёжь Узбекистана»*

проводит конкурс на лучший рассказ. Тема рассказа – «Человек, общение с которым оставило в моей жизни глубокий след». О ком бы вы хотели рассказать и почему? Каждая группа описывает разных людей.

Модель взаимосвязанного изучения языка и культуры В.В.Воробьева. [2] Основным отличительным качеством данной модели обучения является наличие артефактов, системное описание культуры и современные данные о стране обучения (лингвострановедение). Ценность для воспитания обучающихся по данной модели составляет тематическое наполнение социокультурной лексики, ориентированной на данную культуру. При этом тематическая системность обеспечивается посредством единственной сквозной культурологической темы.

В.В.Воробьев главную цель обучения неродному языку видит в овладении обучающимися национальной культурой. Особо нужно отметить, что модель взаимосвязанного изучения языка и культуры В.В.Воробьева легла в основу лингвокультурологического подхода к обучению неродному (иностранному) языку. К данной модели обучения мы предлагаем следующее ***задание*:** По данной теме *«Русские и узбекские праздники, история, традиции»* проведите сопоставление. Опишите понравившийся вам праздник узбекского и русского народа. В чём эти праздники похожи и в чём их отличие. В рассказе используйте специальную страноведческую лексику и грамматические средства выражения сравнения и сопоставления в русском и узбекском языках.

Таким образом, рассмотренные нами *теоретические подходы к взаимосвязанному изучению языка и культуры* являются структурой социолингвистического компонента и позволяет сделать вывод о том, что при обучении неродному (русскому) языку на этапе школьного образования, необходимо уделять особое внимание пониманию и учету различий окружающей действительности между представителями разных лингвокультур, так как диалог культур является одним из основных принципов взаимосвязанного изучения языку и культуре, направленное на формирование и развитие поликультурной языковой личности школьника.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Русский язык (Библиотека русского языка как иностранного), 1990.

2. Воробьев В.В. Лингвокультурологические принципы презентации учебного материала (проблема концентризма). М.:ИРЯ им. Пушкина, 1993.

3. Хаймс, Д. (1974). Основы социолингвистики: этнографический подход. Филадельфия: Университет Пенсильвании Press.

4. Культурная грамотность - то, что нужно знать каждому американцу, Эд Хирш-младший, Houghton & Mifflin, Бостон, 1987

O‘ZBEK TILINING DAVLAT TILI SIFATIDAGI FAOLLIGINING ILMIY MANBALARI VA TA’LIM JARAYONI

O.Y.To‘xtasinova
Qo‘qon DPI dotsenti
H.T.Ahmedova
Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi
Kortabayeva Guljamal
Qozog‘iston milliy universiteti dotsenti

Fikrimizcha, o‘zbek tilining davlat tili sifatida amalda qo‘llanilishi tarixiy zaruriyat bo‘lib, uning davlat tili sifatidagi faolligining quyidagi ilmiy manbalari mavjud:

1. O‘zbek xalqining qadimiy davlatchiligi, milliy va ma’naviy qadriyatlar.
2. O‘zbek tilining qadimiy ildizlari va taraqqiyot bosqichlari.
3. «Davlat tili haqida»gi Qonun va O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishuvi.
4. O‘zbek tilini rivojlantirish va mustaqil O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat tilida ish yuritishining zaruriyligi.

Temuriylar imperiyasi, Boburshoh imperiyasi kabi 16 ta imperiyani qurgan va jahon tarixining ming-ming yillik sahifalarini yaratgan, jamiyat fan-madaniyati taraqqiyotining tamal toshlarini qo‘yganlar bizlarning ajdodlarimizdir.

Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo‘lga kiritgach, o‘z taqdirining, o‘z ona tilisining chinakam egasi, o‘z taqdirining ijodkori, o‘ziga xos milliy madaniyatning sohibiga aylandi.

O‘zbek tilining qadimiy ildizlaridan biri qadimiy bitiklar yoki O‘rxun-Enasoy bitiklari bo‘lib, turk hoqonligi davriga tegashli yodgorliklardir. Bu bitiklariing yaratilishi VI-VIII asrlarga to‘g‘ri kelib, bir qismi o‘zbek tilida bosilib chiqilgan.

Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» (XI asr) kitobidagi qo‘shiqlar va she’rlarni hozirgi o‘zbek, uyg‘ur, qirg‘iz, qozoq va turkiy tillarda so‘zlashuvchi boshqa xalqlarning ota-bobolari yaratgan.

Turon renessansining Amir Temur va temuriylar faoliyati bilan bog‘liq davri ijtimoiy-siyosiy jihatdan mo‘g‘ul bosqinchiligining tugatilishi va yangi ulkan turkiy davlat barpo etilishi bilan xarakterlanadi. Temuriylar davri o‘zbek mumtoz adabiyoti eski o‘zbek adabiy tili uchun muhim va alohida bir taraqqiyot bosqichi vazifasini o‘tadi. XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrning boshlarida o‘zbek tili adabiy til sifatida shakllandi, sayqallandi, jahon tillari qatoridan mustahkam o‘rin egalladi.

Chorizmning istilosidan so‘ng Turkiston o‘lkasida rus tili asosiy ish yuritiladigan tilga aylangan edi. Qullik-qaramlik davrida ona tilimiz ko‘p aziyat chekdi. Mustamlakachi ma’murlar har qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham milliy taraqqiyotni bo‘g‘ishga, xalqimizni qullik kishanlariga abadiy muhrlab qo‘yishga intildilar. «Biz 50 yil tub joy aholisini taraqqiyotdan jilovladik, maktablar va rus hayotidan chetda tutdik», deb bejiz kerilmagan edi Turkiston general-gubernatori

A.N.Kuropatkin. «O‘lkani ruslashtirish rejasini amalga oshirishda rus tili va maktablar katta ahamiyat kasb etishi lozim»,-degan edi general Rozenberg.

Turkiston o‘lkasida boshlangan milliy ozodlik harakati, bu kurashda xalqning barcha qatlamining yakdil bo‘lib maydonga chiqqani chorizmni yangicha siyosat yuritishga majbur qildi. Rus millatga mansub barcha ko‘chirib keltirgan mutaxassislarga tub millat tilini o‘rganish majburiyati yuklandi. «Turkiston o‘lkasida yashovchi rus jamoasining bolalari mahalliy tilni va yozuvni bilishlari shart. Rus-tuzem maktablarida o‘qiyotgan rus bolalarining o‘qituvchilar rahbarligida mahalliy bolalar bilan birga o‘qitilishi ularning tili va yozuvini o‘rganishlarini yengillashtiradi va bu iihoyatda foydalidir». Turkistoi general-gubernatoriniig buyrug‘ida barcha chinovniklar va xizmatchilar o‘zbek tili va yozuvini o‘rganishning bir yillik kursini tugallashlari majburiydir, deb ta’kidlab o‘tiladi.

O‘zbek tili boy tildir. Abdurauf Fitratning 1919-yilda bosilgan «Tilimiz» nomli maqolasida "Dunyoning eng boy tili turkchadir, eng baxtsiz til yana turkchadir", - deydi. O‘zbek tilining boyligi so‘zlarning ko‘pligi, fikrni bayon qilish imkoniyatining kengligi, so‘zlarning serqirra, serma’no va serjiloliga bilan ifodalanadi.

Tilimiz o‘z-o‘zidan ayanchli holga tushib qolgani yo‘q. Bu sobiq ma’muriy-buyruqbozlik tizimida tuturuqsiz va soxta nazariyalarning yaratilishi hamda amaliyotga tatbiqi natijasidir. «....Kelib chiqqan va avj olib ketgan soxta nazariyaning, ya’ni bora-bora millatlar tugab, milliy tillar yo‘qolib ketadi, yagona xalq, birgina til qoladi degan asossiz ta’limotning ona tilimiz rivojiga keltirgan zarari» benihoyadir.

Ona tilimiz nafaqat davlat ishlarida, ish yuritishda, balki o‘zaro muloqotda ham kam qo‘llana boshladi. 80-yillardan boshlab ommaviy nashrlarda ushbu muammoga takror-takror murojaat qilindi, uning yechimini topish yo‘llari axtarildi. Nafaqat ilmiy muassasalar, boshqaruv apparatlarida, texnikaviy, qurilish, sudlov va ma’muriy sohalarda, hatto ishlab chiqarish sohalarida ham rus tili ish yuritish va muloqot tiliga aylangan edi. O‘zbek xalqining madaniy merosini his qilishdan, xalqimizning qadimiyligi va buyukligini his etishdan ham yiroqdirlar, o‘zbek tilining go‘zalligi, betakrorligini anglashdan benasib deb ta’kidlagan edi.

O‘z ona tilining bilimdoni bo‘lgan barkamol yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, o‘z sohasining bilimdoni bo‘lgan yetuk mutaxassislarni yetishtirish - taraqqiy etgan har bir davlatning maqsadidir. 1989-yil 21-oktabrda O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida «O‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining davlat tilidir» (Bu mazmun O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonunining 1-moddasida ham aynan shu ko‘rinishda keltirilgan) deb bayon etilgan. Zero, ona tilimizga davlat tili maqomi berilgach, unda ish yuritishni bilish va hujjatlarni rasmiylashtirish zarur vazifaga aylandi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi «Davlat tili haqida»gi Qonunning 7-moddasida «O‘zbekiston Respublikasida muassasalar, korxonalar, tashkilotlar va

birlashmalarda ish respublika davlat tilida yuritiladi» deb qayd etilgan. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonunining 4-moddasida: «O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari rahbarlari o‘z xizmat vazifalarini bajarish uchun respublika davlat tilini yetarli darajada bilishlari shart. O‘z faoliyatiga ko‘ra aholiga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq shaxslar xizmat vazifasini bajarish uchun davlat tilini zarur bo‘lgan darajada bilishlari lozim. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarga davlat tilini bepul o‘rgatish va o‘qitishni ta’minlaydi», deb ta’kidlangan.

Barkamol shaxsni tarbiyalab yetishtirishda davlat tilini o‘rgatish muhim o‘rin tutadi. Chunki, til ma’naviy komillik omilidir. Ta’lim tizimining rivojlanishida, jamiyat ma’naviyatini mustahkamlashda, komil insonlarni ruhan tetik, jismonan bardam, ma’nan yetuk va e’tiqodli qilib tarbiyalashda, mutaxassislikni chuqur va puxta egallashda til ta’limining xizmati nihoyatda ulug‘dir.

Mamlakatimizda mustaqillikka erishilgach, o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘rgatishga katta ahamiyat berila boshlandi va ta’lim jarayoni ikki yo‘nalishda olib borildi:

1. Boshqa millat vakillari bo‘lgan mamlakatimiz fuqarolarini davlat tilida so‘zlash va yozishga o‘rgatish.

2. Xorijiy mamlakat fuqarolarini o‘zbek tilida ish yuritishga o‘rgatish.

Davlat tilini o‘rgatishni izchil, mukammal yo‘lga solish, o‘rgatish metodikasini yaratish juda ham muhim va dolzarbligiga qaramay, bu muammo hozircha o‘z yechimini topgan emas.

O‘zbek tilini boshqa millat vakillariga davlat tili sifatida o‘rgatish o‘qituvchining oldiga qat’iy lisoniy talablarni qo‘yadi: «O‘rganilayotgan material nazariy jihatdan o‘rganib chiqilgan va shunday tizimlashtirilgan bo‘lishi kerakki, til o‘rganuvchilarning maqsadga yetishiga qisqa, tejamli va unumli yo‘lni belgilab bersin. Ta’lim amaliyoti va nazariyasining vazifalari turlicha bo‘lgani holda obyekt, material va manfaatlar umumiydir». Biz takror ta’kidlaymizki, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rgatish ta’limining asosiy maqsadi o‘zbek tilini, ya’ni o‘zbek tilida so‘zlash, yozish va ish yuritishni o‘rgatishdir.

Bizning umumpedagogik, ilmiy-pedagogik va maxsus kuzatishlarimiz, amaliyot umumta’lim maktablari va litseylarda, hatto universitetlar va pedagogika oliy o‘quv yurtlarida ham o‘zbek tilini o‘rgatish darajasining yetarli emasligini ko‘rsatdi. Bizningcha, o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘rgatish hozirga paytdagadek emas, uzluksiz va tizimli bo‘lishi shart. Shu sababli o‘zbek tili ta’limi bosqichli, ta’lim bosqichlariga mutanosib ravishda va yaxlit dastur asosida olib borilishi hamda bir- birining davomi sifatida uzviy bog‘liqlikda shakllantirilishi zarur.

Xorijiy mamlakatlarda sinovdan o‘tgan til o‘rgatish metodi dastavval yangi so‘zlarni o‘rgatish, shuningdek, lug‘at asosida tuzilgan matn orqali til o‘rganuvchining so‘z boyligini mustahkamlash, so‘ngra yangi so‘zlar ishtirokidagi suhbatlar asosida ularni muloqotda qo‘llay olish malakasini hosil qilish va yangi so‘zlarni savodli yozishni egallashga yo‘naltirilgan mashqlarni bajarishni talab

etadi. Grammatikani o‘rgatish o‘quvchilarning og‘zaki nutqi bilan doimo bog‘liqlikda olib borilmog‘i lozim. Chunki grammatikaning o‘zi hech qachon u yoki bu tilda yozish va so‘zlashni o‘rgatmaydi.

Oliy ta’lim tizimida yanga o‘quv dasturi asosida o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘rgatish jarayonlari boshlandi. Til o‘qitish emas, balki til o‘rgatish metodikasi dadillik bilan amaliyotga olib kirildi va uning batafsil bayoni berildi. Bizningcha, o‘zbek tili ta’limi doimiy takomillashtirishga muhtojdir. Bu muhtojlik ta’lim jarayoniga yangicha yondoshuvga olib keladi. Yetuk olimlar, izlanuvchilarning bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarining natijalari,erishilgan yutuqlari ta’lim jarayonida inobatga olinib, umumlashtirilib borilishi kerak.

Fikrimizcha, o‘zbek tilini o‘rgatishdaa quyidagi ilmiy, tarbiyaviy, ta’limiy maqsadlar hamda vazifalar o‘z ifodasini topishi zarur:

- til o‘rganuvchilarning 10 000 dan ortiq so‘zdan iborat so‘z boyligini shakllantirish;
- til o‘rganuvchilarning o‘zbek tili tovushlari, so‘zlari va iboralarini to‘gri talaffuz qilishni egallashlariga erishish;
- til o‘rganuvchilarning o‘zbek tilida ish yuritish qog‘ozlarini tuza olish malakasini hosil qilish;
- til o‘rganuvchilarning suhbat mavzularida, og‘zaki muloqotda o‘z fikrini o‘zbek tilida bayon qila bilishiga, erkin so‘zlasha olishiga erishish;
- til o‘rganuvchilargi o‘zbek xalqining o‘ziga xosligi, urf-odatlari va bayramlari haqida ma’lumot berish;
- til o‘rganuvchilarning badiiy matnlar va she’rlarni ifodali o‘qiy olishiga erishish;
- til o‘rganuvchilarning o‘z kasbi hamda mutaxassisligi haqida ma’lumot olishini, ixtisoslik tilini egallashini ta’minlash;
- til o‘rganuvchilarning o‘zbekcha matnlarni rus tiliga va ruscha matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qila olish malakasini hosil qilish;
- til o‘rganuvchilarning til metodlarini egallashiga, o‘zbek tilida taqrizlar, ma’ruzalar va maqolalar yozishni o‘rganishiga erishish;
- til o‘rganuvchilarning savodli, ya’ni imloviy va uslubiy xatolarsiz yoza olishiga erishish.

Shuningdek, til o‘rgatishni induktiv-deduktiv metod asosda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayon nazariy ma’lumot berish va qator amaliy ishlarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Bu maqsadga o‘rgatishning ta’lim-tarbiya ishlari bilan uyg‘unligi asosidagina erishiladi.

O‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘rgatish metodikasining asosiy vazifasi tilni qanday o‘rgatish va nimalarni o‘rgatish, til o‘rgatish jarayonini qanday tartibda olib borish masalasini hal etishdan iboratdir. O‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘rgatish metodikasi til o‘rgatish jarayonini ijtimoiy hodisa sifatida o‘ziga xosligini, til materiallarini saralash, uni joriy etishdagi izchillik, o‘rganish metodikasi, tamoyillari va usullarini belgalab beradi.

O‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘rgatish metodikasini shakllantirishda dolzarb muammolardan biri til o‘rgatishga xizmat qiladigan o‘quv materiallarini ta’lim maqsadiga moslash, minimumlashtirish masalasidir. Zero, til o‘rgatish metodikasi oldida nafaqat o‘rganuvchining lug‘at boyligini shakllantirish, suhbat, fikrini og‘zaki ravon ifodalay olishi, savodli yozishiga erishish, balki til o‘rgatishda yordamchi vosita bo‘lgan leksik, frazeologik, grammatik minimumlarni yaratish muammolari ham turadi. Bu muammolarning hal etilishi o‘zbek tilini o‘rgatish metodikasini shakllantirish, til o‘rganuvchilar uchun sifatli darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarni yaratish, o‘rganuvchilarning til o‘rganish layoqati va ko‘nikmalarini baholash kabi vazifalarning yechimini topish imkonini beradi.

O‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘rgatish metodikasida dolzarb muammolardan biri til o‘rgatish jarayonini milliy va ma’naviy qadriyatlar haqida ma’lumot berish bilan uzviy bog‘liqlikda olib borishdir.

Til o‘rgatishda ko‘rgazmalilik tamoyili bilimlarni qabul qilish va o‘zlashtirish jarayonida barcha sezgi a’zolarining faoliyatini to‘g‘ri uyushtirishni ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Til o‘rganishda sezga a’zolari qanchalik ko‘p ishtirok qilsa, bilish shunchalik osonlashadi. Bu qonuniyat Y.A.Kamenskiy kabi buyuk nedagoglar tomonidan asoslab berilgan edi.

Agar til o‘rganuvchiga 5 ta no‘malum so‘zni o‘rgatsangiz, u bu so‘zlarni bilib olguncha uzoq vaqt ketadi va behuda bosh qotiradi. Lekin suratlar vositasida o‘rgatilgan 20 ta so‘zni til o‘rganuvchi hash-pash deguncha bilib oladi.

Yanga so‘zlarning mohiyatini anglash, uni ongli va puxta o‘zlashtirish ko‘rgazmalilikni taqozo etadi. Til o‘rganuvchi ko‘rish orqali narsa hamda uning tildaga ifodasi haqida aniq tushunchaga ega bo‘ladi. Ko‘rgazmalilik tamoyili ta’lim jarayonida kuzatishdan aniq tasavvur hosil qilishga, undan grammatik tushunchalarni atroflicha o‘zlashtirishga qarab boradi. Til o‘rgatish jarayonida buyumlar, jadval, rasm va boshqa tasviriy vositalardan, diafilm, kinofilm va teleeshittirishlardan foydalaniladi.

Til o‘rganuvchilarni imlo qoidalariga rioya qilish va ishorat belgilarini xatosiz yozishga o‘rgatishda yozma ishlar juda katta ahamiyatga ega. Til o‘rgatish jarayonida yozma ishlarning barcha turlaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiqtsir. Lug‘aviy diktait, nazorat diktanti va bayon hamda inshodan imkoniyat darajasida foydalanish til o‘rgatishning samarali bo‘lishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Til o‘rgatishda nazariyaning o‘rni, muhimliga shundan iboratki, nazariyani o‘rganmay turib, so‘zlarning o‘zaro munosabatlarga kirishuvi, so‘zlarning va gapning yasalishi haqida muayyan tushuncha hosil qilib bo‘lmaydi. Til o‘rgatishda nazariya alohida holda emas, balki suhbat va hikoya matnlarini sharhlash orqali talabalarga yetkazilishi zarur.

O‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘rgatishda tarjimaning ham o‘ziga xos o‘rni mavjud. Rus tilidan o‘zbek tiliga va o‘zbek tilidan rus tiliga tarjima qilish, lug‘at bilan bevosita ishlash talabalarning olgan bilimlarini mukammallashtirish vositalaridir. Tarjima qilish uchun taqdim etiladigan matnlar va mashqlar talabaning tanlagan ixtisosliga bilan bevosita bog‘lanishi lozim.

A.G‘ulomov to‘g‘ri deb hisoblagan o‘qituvchi faoliyatiga bog‘liq: bilimlarni tayyor holda(1), suhbat vositasida(2), muammoli yo‘l bilan(3) bayon qilish metodlari o‘qituvchi faoliyatini o‘zida to‘la qamrab ololmaydi, balki uning yangi mavzuni o‘quvchilarga yetkazish jarayoninigina aks ettiradi, xolos. Ayni paytda suhbat vositasida yoki muammoli yo‘l bilan bayon qilish metodlari tayyor bilim yetkazishga yo‘naltirilganligi sababli bilimlarni tayyor holda bayon qilish metodini (1) yo‘qqa chiqaradi.

Xuulosa qilib aytganda, biz ona tilini o‘rgatish metodini tasniflashda erishilgan yutuqlardan foydalangan holda o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘rgatish metodlarining quyidagi tasnifini tavsiya qilamiz:

1. O‘zbek tili so‘z boyligini egallash metodi.
2. Tovushlar va so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatish metodi.
3. Suhbat metodi.
4. O‘zbek tilida imlo va ishorat qoidalarini to‘g‘ri qo‘llash, gap va so‘z birikmalarini tuzish ko‘nikmasini hosil qilish metodi.
5. Matnni o‘zbek tilidan til o‘rganuvchining ona tiliga va aksincha tarjima qilish malakasini hosil qilish metodi.
6. Til o‘rgatishda ko‘rgazmalilik, yangi texnologiyalar (axborot uzatish)dan foydalanish metodi.
7. Til o‘rgatishda talabalarning faolligani oshirish(mustaqil ish) va nazorat ishlarini olib borish metodi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo‘rayev M., Z.Hamidov. Nofilologik oliy o‘quv yurtlarining milliy guruhlari talabalariga «O‘zbek tili va adabiyoti» fanini o‘qitishning metodik jihatlari. T.: 1995.-30 b.
2. Jo‘rayev M., Bozorov E. Rus tilida ta’lim oladigan guruhlarda milliy va ma’naviy qadriyatlarni o‘rganish. T.: 1994.-128 b.
3. Jo‘rayev M. o‘zbek tilini chet tili sifatida o‘rgatishda kompyuterdan va boshqa texnik vositalardan foydalanishning ba’zi bir jihatlari // Tillarni parallel o‘rgatish jarayonida studentlarning kasb- hunar mutaxassisligani tarkib toptirishning aktual muammolariga doir: Xalqaro konf. ma’ruz. tezis. - Toshkent,1993.
4. Rasulov R., Jo‘rayev M. o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘rgatish yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalash omilidir. // J. Pedagogik ta’lim. -2004.-№2.-B.73-76.

MUSTAQILLIK VA O‘ZBEK TILI

Usmonova S. A.
Qo‘qon DPI dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqillik yillari milliy mafkuraga mos holda toponimik obyektlarning nomlanishi davlat ahamiyatiga molik masala ekanligi, nomlarga bo‘lgan munosabat, tarixiy nomlarning tiklanishi, ularning ko‘rsatkich nom sifatidagi imlosiga doir mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar: til, toponimik obyektlar, tarixiy nomlar, tiklangan nomlar.

Til insoniyat kamolotida muhim o‘rin tutadigan va uning har tomonlama takomili uchun xizmat qiladigan bebaho boyligi ekanligini juda ko‘p olimu fuzalolar tomonidan ta’kidlanib kelinishi bejiz emas, albatta.

Darvoqe, professor N.Mahmudov “Nomlar – benazir milliy yodgorliklar” nomli maqolasida **“Til xalqning bebaho mulki, nodir va nozik boyligidir. Unda xalqning dunyoqarashi, ruhiyati, takomil tadriji, asrlarni qaritgan tarixi, qo‘yingki, millatning butun bo‘y-bastiyu aqliy-ma’naviy olami qatrada quyosh aks etganiday o‘z tajassumini topadi”[1], - deb ta’kidlaganlari ham fikrimizni yana bir bor tasdiqlaydi.**

Bebaho boyligimiz bo‘lgan ona tilimizga e’tiborning samarasi o‘laroq, mamlakatimiz erishgan Istiqlolning ilk damlarida amalga oshirilgan Davlat tili to‘g‘risidagi Qonun, uning tadrijiy davomi va mustahkamlanishi borasidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 21-oktyabr kuni qabul qilingan “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni tilimiz va millatimiz jonkuyarlari, ziyolilarini yana bir bor quvontirdi. Farmonda Davlat tilini rivojlantirish departamentiga “ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarni iste’molga kiritish, zamonaviy atamalarning o‘zbekona muqobillarini yaratish va bir xilda qo‘llanishini ta’minlash, geografik va boshqa toponimik obyektlarga qonun hujjatlariga muvofiq nom berilishi borasidagi faoliyatni monitoring qilish va muvofiqlashtirish” masalasi asosiy vazifalardan biri sifatida belgilab berilishi tilimiz taraqqiyoti va nufuzini ta’minlashdek faoliyatni yanada takomillashtirilishiga tomon qo‘yilgan yana bir katta qadam bo‘ldi.

Bu masala toponimik obyektlar va ularga qo‘yiladigan nomlarning milliy mafkuramiz va mentalitetimizga muvofiqligini ta’minlash borasidagi sa’y-harakatlarning barqaror ta’minlanishiga xizmat qilishi bilan, ayniqsa, xarakterlidir. Chunki nomlar ko‘p o‘rinlarda chuqur ma’no, o‘ziga xos ezgu tarix, muayyan tilsim va hayratni o‘zida jo etuvchi manba hamdir. Zero, joy nomlari xalqning tarixi, madaniyati, urf-odati, udum va an’analari, tegishli hududning geografik va iqlim xususiyatlari haqida ishonchli ma’lumotlar bera oladi.

Respublikamiz Mustaqilligi tufayli ko‘plab joy nomlari xalqimiz, millatimiz manfaatlarini e’tiborga olgan holda o‘zgartirildi. Ularni ilmiy asosda o‘rganish, ma’nosini anglash, toponimik xaritalarni tuzish, takroriy (adash) nomlar paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, to‘g‘ri yozish, ko‘rsatkichlar bilan ta’minlash, kelajak avlodlar uchun asrab qolishga qaratilgan jarayon yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasining 1996-yili 30-avgustda qabul qilingan "O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalarini hal etish to‘g‘risida”, 2011-yil 4-martda qabul qilingan “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risidagi” qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma’muriy-hududiy tuzilishini

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PK-120-sonli qarorlari joylar va ularning nomlash masalani davlat siyosati darajasiga ko‘tardi.

1996-yil 10-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalarini hal etish tartibi to‘g‘risida”gi Qonunning X bobi “Aholi punktlarining tarkibiy qismlariga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fizik-jo‘g‘rofiy, geologik va boshqa obyektlarga odamlarning nomini berish” deb nomlanib, u 28-va 29-moddalarni qamrab olgan, jumladan:

28-modda. Mahallalar, ko‘chalar, maydonlar, xiyobonlar, bog‘lar va aholi punktlarining boshqa tarkibiy qismlariga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga, fizik-jo‘g‘rofiy, geologik, tabiati muhofaza etiladigan va boshqa obyektlarga davlat, jamoat arboblarining, siyosiy arboblarning, vatan himoyachilari, mehnat qahramonlari, fan, madaniyat arboblari va boshqa xizmat ko‘rsatgan odamlarning nomini berish faqat ularning vafotidan so‘ng amalga oshirilishi mumkin” [2].

Antroponimlar unvon, martaba, lavozim, biron bir mavqe ifodalash uchun qo‘llanilgan. Buesa ularningbevosita ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog‘liqligidan dalolat beradi [3.73].

Qo‘qon shahridagi 1880-yillarda Xudoyorxon nomi bilan atalgan ko‘cha, ruslar bosqinidan so‘ng yangi binolar barpo etilgach, “Komitetskaya” deb nomlangan, keyingi davrlarda rus adabiyotshunosi va tanqidchisi Chernishevskiy nomi bilan o‘zgargan. Istiqlolning dastlabki yillarida 1991-yildan “Joy nomlari Hay’ati” qarori bilan tarixiy Xudoyorxon nomi tiklandi.

Kishi ismlari bilan bog‘liq ayrim ko‘chalarni nomlashda qisqartirib yozilishi, garchi imlo qoidalariga muvofiq bo‘lsa-da, bugungi kun ijodkorlari nomlari bilan chalkashlik kelib chiqishiga sabab bo‘ladi, deb o‘ylaymiz. Qo‘qon shahrida Islom Mirzo yashagan ko‘chaga (Qo‘qon xonligidagi davlat arboblaridan biri, ma’rifatparvar olim) I.Mirzo deb yozilishi, Akbar Islomov (1918-1919-yillarda musulmon mehnatkashlar uyushmasi raisi, Moskvada o‘qib O‘zbekiston plan komissiyasi raisi, O‘zbekiston moliya xalq komissari, hukumat raisi o‘rinbosari lavozimlarida ishlagan, 1937-yilda qatag‘on qurboni bo‘lgan) [4, 54-55] nomidagi ko‘cha A.Islomov shaklida yozilishiga qo‘shilib bo‘lmaydi. Bunday misollar boshqa hududlarda ham kuzatiladi.

Qo‘qonlik ma’rifatparvarlar XX asrning so‘nggi choragida Qo‘qon shahar hokimi lavozimida ishlagan marhum Xojiqul Mavlonqulovning joylarga nom berish masalasiga mas’uliyat bilan qaraganlarini eslaydilar.“Devonbegi” ko‘chasini tiklash payti shu lavozim egasining to‘liq ismi, sharifini topib, oldidan qo‘shib yozishni talab qilgach, Muhammad Razzoq Devonbegi ekanligi aniqlangan. Muhammad Razzoq Devonbegi Xudoyorxonning birinchi xonligi davrida Devonbegi (xon devoni boshlig‘i) lavozimida ishlagan shaxs yashagan ko‘cha nomi. Qo‘qon shahri janubiy tomonidagi “Qatag‘on” qabristoni 2015-yilda O‘zbekiston tumani ma’naviyat-ma’rifat markazi rahbarlari “Qatag‘on” MFY raisiga shu nomni o‘zgartirish masalasini qo‘ygan. Ularning nazarida Qatag‘on

1930-yillardagi qirg‘in ma’nosida tushunilgan, aslida bu hududga Qo‘qon xonligi davrida qatag‘onlar kelib joylashgan. Vaqtlar o‘tib ularning eng katta rahbari shu yerga dafn etiladi. Shu tufayli bu maskan “Qatag‘on buva” qabristoni deb yuritilgan, biroq yillar o‘tib tildagi iqtisod qonuniga asosan kantaminatsiyaga uchrab, buva so‘zi tushirilib qoldirilgan. Bu esa qabristonga qo‘yilgan nom ma’nosining o‘zgacha tushunilishiga sabab bo‘lgan.O‘zbekiston tumani rahbarlarining talablari qondirilib, qabristonning bir chetida eshonlar dafn etilgan “Bog‘i Rahmat” nomiga o‘zgartirildi (Bu hududlar 2023-yildan Qo‘qon shahri hududiga o‘tgan).

Tilimiz tilsimlarga, sir-sinoatlar, o‘ziga xos ma’no qirralariga boy. Ammo bu tilsimlarni o‘z tarixi va yuqorida ustozlarimiz ta’biri bilan aytganda, o‘zining asl “bo‘y-basti” bilan avlodlarga yetkazish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘zligimizning qaytishi, o‘z ona tilimiz nufuzining oshirilishi borasidagi bugun tilimizdagi, mavjud so‘zlarimizdagi asl mohiyatga bo‘lgan e’tibor, uning taraqqiyoti sari dadil qadamlar bosish barchamizda mas’uliyat hissini uyg‘otishi zarur, deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.1996-yil 10-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalarini hal etish tartibi to‘g‘risida”gi Qonun.

2.Mamajonov M. Antroponimlar diskurs relevanti sifatida. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. –Farg‘ona, 2020.

3. Dadaboyev M. Y. Xo‘qandi latif mahallalari va ko‘chalarining nomlanish tarixi. – Farg‘ona: “Farg‘ona”, 2007.

4. http://uza.uz/oz/society/nomlar-benazir-millii-edgorliklar-12.03.2013.

YOSHLAR NUTQIDA SLENGLARNING QO‘LLANILISHI

M.Rahimova
Qo‘qon DPI dotsenti (PhD)
D.Abdumannonova
Qo‘qon DPI talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada slenglarning paydo bòlishi va ularning yoshlar nutqida keng qamrovga ega bòlganlari haqida. Jumladan, yozma nutqda kamdan-kam hollarda ishlatilsa ham, og‘zaki so‘zlashuv nutqida faol qo‘llanishda bo‘lgan slenglarning ilmiy tadqiqi masalasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar : sleng, jargon, argon, nutq , til.

Nutq uslublari ichida so‘zlashuv usubi o‘ziga xos “erkaligi” bilan ajralib turadi. Chunki aynan shu uslubda “me’yor” tushunchasi o‘zining mavqeini yo‘qotadi. Zero, so‘zlashuv uslubi boshqa uslublarda uchramaydigan bir qancha xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi.

Adabiy bo‘lmagan nutqning ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan slenglar ingliz tilidagi «Slang»lar yoki o‘zbek tilidagi «jargon» va «argo» so‘zlari kabidir. Ular o‘smirlar, yoshlar hamda ma’lum bir guruh, soha vakillari orasida tushunarli bo‘ladi. Shunday qilib, slenglar zamonaviy tilda yashovchi so‘zlar bo‘lib, adabiy tilda foydalanish uchun nomaqbul deb hisoblanadi. Shuningdek, slenglarning ko‘p so‘zlari va iboralari keng ommaga tushunarsiz bo‘ladi. Chunki, aksariyat slenglar ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi va ular ko‘pincha chet tillaridan, ularning dialekt va jargonlaridan o‘zlashtirilgan bo‘ladi.

Slenglarning paydo bo‘lishi bir qancha omillarga bog‘liq:

- **Ijtimoiy guruhlar:** Slenglar ko‘pincha ma’lum ijtimoiy guruhlar, masalan, yoshlardan, sportchilar yoki san’atkorlardan kelib chiqadi. Har bir guruh o‘ziga xos so‘zlashuv uslubini yaratadi.
- **Madaniy ta’sir:** Film, musiqa va internet kabi madaniy fenomenlar slenglarning paydo bo‘lishiga yordam beradi. Misol uchun, mashhur qo‘shiqlarda yoki seriallarda ishlatilgan so‘zlar tezda keng tarqalishi mumkin.
- **Tez o‘zgaruvchanlik:** Yoshlar dunyosi doimo o‘zgarib turadi. Yangiliklar va trendlar slenglarni tez-tez yangilanishiga olib keladi. ***Masalan:*** Sizda ***do‘stlar*** (**do‘stla**r)ham keladi, shov-shuvli bo‘ladi; Muhimi, "***соображения"(mulohaza)*** yetkazib berish.
- **Qisqartirishlar**: Ular vaqtni tejash va muloqotni osonlashtirish maqsadida ishlatiladi. O‘zaro tez aloqa uchun qisqartmalar va maxsus iboralar yaratiladi.

Yoshlar nutqida slenglarni misollar orqali ifodalashishimiz mumkin:

Rosayam ketvorgan narsa ekanmi?; takoy kiyingan; qizlarni crashi; rus patok da o‘qiyman kabi. Bu kabi iboralar bugun leksikamizga shu qadar o‘rnashib qolganki, ularni o‘zbekcha variantini izlashning hojati yo‘q, shundoq ham ular barchaga tushunarli bo‘lib ulgurgan.

Bizga ma’lum bo‘lgan ayrim zamonaviy terminlarga izoh:

Stukach-chaqimchi;
Paxan-harip;
Sirkach-masxaraboz;
Daxshat-o‘ta darajada;
Sindirding-qoyil qilib bajarding;
G‘isht-xunuk (qizlar orasidagi)
Uxlatdi-aldadi;
User-foydalanuvchi.
Yedirdi - qoyillatdi , bopladi;
Kobra – jahldor o‘qituvchi;
Echki – sho‘x qiz;
Stalba – gapni kechroq fahmlaydigan;
Sigir – qizlarga ko‘p pul sarflaydigan yigitlar;
Kiydirdi – aldab ketdi, tushirib ketdi;
AUF - qoyil qolish vaziyatiga xos.

Xulosa qilib aytganda, slenglarning kelib chiqishi turli manbalarda turlicha izohlanadi. Ba’zi slenglar boshqa tillardan olingan, boshqalari esa ko‘chma ma’no yoki mavjud so‘zlarni aralashtirish orqali yaratiladi. Slenglar ko‘pincha ijtimoiy me’yorlarga qarshi yoki guruh ichida eksklyuziv til yaratish usuli natijasida paydo bo‘ladi. Ular muloqotda samaradorlik va qisqalikka erishish maqsadida foydalaniladi. Ba’zi slenglar noadabiy leksikaning ajralmas qismi bo‘lib, nutqqa rang-baranglik bag‘ishlaydi. Ma’nosini tushunish ba’zan qiyin bo‘lsa-da, ular til va jamiyatning doimiy o‘zgaruvchan tabiatini aks ettiradi, turli ijtimoiy guruhlarning qadriyatlari va tajribalari haqida ma’lumot beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R Sayfullayeva. Hozirgi o‘zbek adabiy tili
2. B.O‘rinboev. Hozirgi o‘zbek tilining so‘zlashuv uslub.
3. I.Bekmurodova Slenglarning òziga xos xususiyatlari.

“O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA DINIY QARASHLAR BILAN BOG‘LIQ VAQT IFODALOVCHILARNING QO‘LLANILISHI

Dilmurod Ahmadaliyevich Ashurov
University of Business and Science
nodavlat oily ta’lim muassasasi dotsenti (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada “O‘tkan kunlar” romani materiallari asosida diniy qarashlar bilan bog‘liq vaqt ifodalovchilar haqida so‘z boradi. Matn asosida namoz vaqtlarini bildiruvchi birliklar lingvokulturologik tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: til birligi, vaqt tushunchasi, madaniy sema, diniy talqin, zamon kategoriyasi.

Annotation. This article examines time expressions related to religious perspectives based on the materials of the novel “Days gone by.” A linguocultural analysis of units indicating prayer times is conducted on the basis of the text.

Keywords: linguistic units, time perception, cultural perception, religions interpretation, category of time

Zamon tushunchasi o‘zbek xalqining milliy-madaniy belgilarini aniqlashtirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini o‘rganish jarayonida vaqtga bo‘lgan munosabat millat va uning madaniy odatlariga chambarchas bog‘liq ekanligi ko‘zga tashlanadi. “O‘tkan kunlar” romanida o‘zbek madaniyatining asosiy muhim nuqtalari o‘z ifodasini topgan. Jumladan, romanda diniy qarashlar bilan bog‘liq vaqt ifodalovchilar faol qo‘llangan. Romanda vaqt tushunchasining ifodalanishi diniy qadriyat va tushunchalar bilan uzviy bog‘lanib ketgan. Adibning sutka qismlarini ifodalashda diniy qarashlarga ham murojaat etganligini bir necha o‘rinlarda ko‘rishimiz mumkin.

Professor Sh.Sultonova o‘z ishida namoz vaqtini bildiruvchi bomdod, peshin, asr, shom, xufton kabi leksemalarni ish-harakat sodir bo‘lish paytiga ishora

qiluvchi so‘zlar sifatida ko‘rsatadi[336]. Haqiqatan ham qadimdan diniy amallar o‘tkaziladigan vaqt nomlari kishilar nutqida namoz vaqtini bildirishidan tashqari, kunning ma’lum bir qismiga ishora qiluvchi vaqt birligi sifatida qo‘llanilib kelingan. Bu xilda vaqt birliklarini nomlash chorvador, dehqon, hunarmand, savdogarlar uchun qulaylik tug‘diradi.

Bilamizki, namoz vaqti quyosh harakatiga bog‘liq holda turli soatlarga to‘g‘ri keladi. Shundan kelib chiqib, qadimdan mana shunday vaqt birliklari orqali ishlarni rejalashtirish qulay bo‘lgan. Xalq qarashlarida bomdod – kunning boshlanishi, peshin – quyoshning yerga tik tushgan payti, kunning o‘rtasi, shom – ishlarning tugash vaqti sifatida o‘rnashgan.

“…Subh azoni aytilib, sekin-sekin tong yorib bordi, mahalla masjididan ham azon tovshi kelgach, ul tahorat olmoq uchun qo‘zg‘aldi”[337]. Bu parchadan anlashiladiki, tongning otishi bilan musurmon dunyosida bomdod namoziga aytiladigan azon va u orqali yangi kunning boshlanishi ko‘z oldimizga keladi. Yangi kunda qilinadigan yumushlar bomdod namozidan keyin boshlangan. Shu bilan birga, yuqoridagi parcha orqali kishilarning faol jismoniy faoliyati boshlanishi bomdod vaqti bilan bog‘liq ekanligi anglashiladi. Xalqimiz madaniyatida tongda hovli darvozalarini ochib qo‘yish, ko‘cha va hovlini supurib-sidirish, nonushta qilib, erta tongdan yumushga kirishish kabi an’analar bor. Asarning juda ko‘p o‘rinlarida bomdod nomozi o‘qilgach, ertalabdan ish boshlanishi haqida qaydlar uchraydi: *“Sahar paytida turib choy ichdilar. Subh namozini o‘qub, arava qo‘shildi”(355-b.). “– Albatta, shaharning darbozasi ertalab ochilib, shom bilan yopiladir, gumonimcha ertalab Qo‘qondan chiqsa, asr vaqtlarida Marg‘ilong‘a kiradir, – dedi va so‘z oxirida orada so‘zlanib o‘tilgan shartni yana ta’kidladi” (182-b.).*

Asarda, xattoki, urush ham kechga kirib tugashi va yana ertasi kun ertalabdan davom etganligi aytiladi: *“Eski miskarlikda ikki taraf ham tong otdirdilar.Ertalab yana qonli urushlar boshlandi (108-b.).*

Har bir namoz o‘qilishidan oldin muazzin tomonidan azon aytiladi. Bomdod namoziga aytilgan azon vaqtida tabiat uyquda, atrof jim-jit bo‘lganligi uchun uzoq-uzoqlarga ham azon ovozi eshitiladi. Shuning uchun xalq mana shu ovozdan uyg‘onib, yangi kunni boshlashadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da azon “tong yorishish, g‘ira-shira payti; erta tong” ma’nosida ham kelishi aytiladi[338]. Asarda adib mana shu so‘zdan mohirlik bilan foydalanadi: “*Otabek ertagi namozga turg‘anda ko‘zi Shamshodbekning bazmidan azonda qaytib kelib, dong qotib uxlab yotqan Sayfiga tushdi. O‘n besh yoshlar chamasida bo‘lg‘an bu yigit o‘zining o‘tkur husni bilan Saodatdan xabar berar edi (204-b.).*

[336]Султонова Ш.М. Муқаддас матнларда замон категориясининг лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – Б. 15.
[337]Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. – Toshkent:Sharq, 2004. – B. 372. (Keyingi shu kitobdan olingan o’rinlarda kitob sahifasi berish bilan cheklaniladi).
[338] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 1-ж. – Б. 50.

Xalqimizda choshgoh vaqti kunning bir qismi sifatida “quyoshning nayza bo‘yi ko‘tarilishi” vaqtini bildiradi. Bu vaqtda o‘qiladigan namoz “zuho” deb ataladi. Uning tabiiy tasviri “kun yoyilib” birikmasi orqali berilgan. Kunning yarmi o‘tgan payti[339], quyosh qiyomdan og‘a boshlashidan boshlab peshin namozi vaqti hisoblanadi.

Xalq nutqida peshin bilan bog‘liq vaqt ifodalovchilar faol qo‘llangan. Asarda ham uchraydi: *“Bu kun peshinda Toshkand jo‘nab ketdi” (263-b.).* Demak, qahramonning Toshkentga jo‘nab ketish vaqti kunning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri kelmoqda.

Vaqtning so‘zlovchilar tomonidan nutq ijrosi vaqtiga bog‘liq holda belgilanishi nutqiy vaziyat real vaqtni talab qilayotganini ko‘rsatadi. Shu tufayli shoshilinch, tez hal qilinishi lozim bo‘lgan ishlarga real vaqtni bildiruvchi sonlardan yoki ravishlardan foydalanish ko‘p kuzatiladi. *“... Bu kun soat o‘n ikkida Otabek ila qutidorning isyonchiliq gunohi bilan dorg‘a osilishlarini jarchi shaharga xabarlab yurar va xalq og‘zida Otabeklarning emish-memish hikoyalari edi*” *(89-b.).*“*Marg‘ilondan tez jo‘namasaq men ham ishdan chiqadirg‘an o‘xshayman...” (24-b.).* Biroq romanda aniq soatlardan ko‘ra nomoz vaqtlari orqali vaqtni ifodalash ko‘proq qo‘llangan.

– Yo‘l bo‘lsin, Shokirbek?

Otabek yo‘lak yonidan javob berdi:

Shaharni bir aylanib kelmakchiman.

– Juda yaxshi, – dedi usta va: – ammo peshindan kechka qolmang, men oshni damlab sizni kutib olturaman, tuzikmi? (219-b.).

Romanda vaqtni ifodalovchi birliklar sirasida vaqtni belgilashda muayyan so‘zlar ko‘p ishlatiladiki, bu so‘zlar milliy va tarixiy asoslarga ega, degan xulosaga kelish imkonini beradi. Romanda muayyan tadbirni amalga oshirishda ham raqamlarga ma’lum tizimda yondashish kuzatiladi. Jumladan, Qur’oni karimni xatm qilib ehson qilish ma’lum bir muddat bilan amalga oshirilgan: *“Yettinchi kun xatmi qur’on qilinib xalqg‘a osh berildi va shu munosabat bilan chaqaloqqa “Yodgorbek” deb ism qo‘yildi”(377-b.).* Misolda Qur’onni xatm qilib tugatish muddati, shuningdek, Qur’on xatm qilish bilan bog‘liq marosimni o‘tkazish muddati bir hafta deb belgilangan. Bu o‘rinda Qur’on xatm qilish uning to‘liq qiroati emas, balki o‘tgan aziz va avliyolarga, ota-bobolariga duo bag‘ishlash, marosim qilib, ehson ulashish bilan bog‘liq urf-odat ekanligi ko‘zga tashlanadi. Xatm haftaning muayyan kunlari amalga oshirilgan bo‘lishi ham mumkin.

Namozgar – shom namozi o‘qiladigan vaqt, tunning kirish vaqti kundalik mashg‘ulotlarning tinish vaqti ekanligiga asarda ham ishora qilib o‘tiladi: *“Nihoyat qutidor ham kundagi vaqtda bozordan qaytib uyiga kirdi. Vaqt shomg‘a yaqinlashib qolg‘anliqdan bitta-yarimta do‘konlar ham yopilib, o‘tkunchilar ham siyraksib qoldilar” (182-b.).*

[339] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 3-ж. – Б. 251.

Xalqimizda shom vaqtida mehmonga kirish, biror yumush bilan mashg‘ul bo‘lish xosiyatsiz hisoblangan. Shuning uchun barcha ishlarni shu vaqtgacha qilib, shom paytida o‘z uyida bo‘lishga harakat qilingan. *“Shomga yaqin mehmonlar tarqalishdilar. Mehmonxonada hoji, qutidor, Hasanali va Otabek qolg‘an edilar” (327-b.).*

Xalq qarashlarida shom vaqti g‘ayritabiiy kuchlar – jinlar qo‘zg‘aladigan payt sifatida o‘rnashganligi Abdulla Qodiriyning “Jinlar bazmi” hikoyasida ham tasvirlab berilgan.

Tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki, Yevropa xalqlariga nisbatan o‘zbek xalqida aniq vaqt masalasiga qat’iy e’tibor qaratilmagan. Qadimdan quyoshning chiqishi ishlarning boshlanishi, uning botishi esa ishlarning yakunlanishi sifatida qaralgan. O‘troq aholi, asosan, dehqonchilik, chorvachilik hamda hunarmandchilik bilan shug‘ullanganligi uchun kun bilan bog‘liq vaqt asosiy mezon sifatida tushunilgan. Islom dinining yoyilishi bilan namoz vaqtlariga qat’iy amal qilinishi tufayli vaqtni nomlash o‘zgardi. Shuning uchun Islom dini keng yoyilgan hududlarda vaqt namoz o‘qiladigan paytga bog‘liq ravishda qabul qilinishiga olib keldi. Bu belgilanish barcha uchun tushunarli bo‘lganligi sababli din bilan bog‘liq vaqt birliklarini qo‘llash faol hisoblanadi.

Xullas, millat ongi va madaniyatida mavjud vaqt tushunchasini ifodalovchi yuqorida ko‘rib o‘tilgan lingvokulturologik birliklar til va madaniyatning aloqasini aks ettiruvchi vositalar sifatida ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 372.

2. Султонова Ш.М. Муқаддас матнларда замон категориясининг лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – Б. 15.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 1-ж. – Б. 50.

4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 3-ж. – Б. 251.

ADIBLAR IJODIDA O‘ZBEK TILINING IJTIMOIY MUNOSABATI
(Nosir Fozilovning “Malchik amaki” hikoyasi misolida)

Fozilova Odina Nabiyevna
FarDU dotsenti (PhD)

Annotatsiya. Maqolada Nosir Fozilovning bolalarga atalgan “Malchik amaki” hikoyasi qahramoni misolida sho‘ro davri, davr talabi ya’ni o‘z tilini unutayotgan, ikkiyuzlamachilar, manfaatparastlar inson qiyofasi tahlil etilgan. Yozuvchi mahorati davr talqini orqali o‘zbek tiliga bo‘lgan munosabatni ifodalagan.

Annotation. The article analyzes the characters of Nasir Fazilov’s children’s story “Uncle Boy” in the Shura era, the demands of the time, that is, hypocrites,

selfish people who forget their language. The writer's skill expressed his attitude towards the Uzbek language through the interpretation of the period.

Kalit so'zlar: janr, hikoya, badiiy mahorat, yozuvchi dunyoqarashi, bolalar adabiyoti, yumir, tasvir uslubi.

Key words: genre, story, artistic skill, author's outlook, children's literature, humor, image style.

O'zbek bolalar hikoyachiligining badiiyati til xususiyatlariga, nutq turlaridan foydalanish mahoratiga, tasviriy vosita va ifodalarni samarali qo'llay olishga, obraz yaratish omillariga, davrning dolzarb masalalarini hamda milliy qiyofalarni yarata bilish mahoratiga bog'liq bo'ladi. Ushbu o'rinda professor U.To'ychievning "Badiiy til badiiy adabiyotning tili, u adabiy tilga mansub va asosan radio, matbuot, televidenieda ishlatiladigan tildan tafovut qiladi. Hayotni jonli tasvirlarda, muayyan ijodiy metod va muayyan estetik ideal orqali jilvalantiradi va gavdalantiradi: obrazli, ilg'or tafakkur hamda serbo'yoq, emotsional-hissiy nutqqa tayangan adabiyotning she'riy va nasriy shakllariga ega; lirik, epik va dramatik qahramonlar xarakterini yaratuvchi, bunday qahramonlar va avtor tilida rang-barang turlanuvchi, umumxalq tiliga suyangan va muayyan normaga tushgan, biron g'oyaviy maqsad asosida tanlangan so'zlar sistemasi badiiy til deb yuritiladi"[340] degan so'zlari xarakterlidir.

Nosir Fozilov hikoyalari qahramonlari o'z davrining farzandi. Shuningdek, yozuvchi o'zining ko'rgan-kechirganlarini, yashagan davri voqeligini, odamlar qiyofasini bola nigohi bilan tasvirlaydi. M.Baxtin badiiy asarda zamon va makon munosabatini tahlil etar ekan, yozadi: "Badiiy xronotop qat'iy janriy mohiyatga ega. Aytish mumkinki, janr va janrga xos xususiyatlar aynan xronotop vositasida yuzaga chiqadi. Shuningdek, badiiy xronotopning yetakchi xususiyati zamonda ko'rinadi. Xronotop shakliy-mazmuniy kategoriya sifatida adabiyotda inson obrazi mohiyatini ham belgilaydi. Chunki badiiy obraz doimo xronotop negizida ma'no kasb etadi"[341]. N.Fozilovning bolalarga atalgan hikoyalarida ham ijodkorlar o'z uslublari asosida til boyliklaridan samarali foydalandilar. N.Fozilov davr manzarasi, kishilar qiyofalari talqinida obraz va personajlarni talqin etishda til boyliklarimizdan o'rinli foydalandilar. Ma'lumki, "Milliy o'ziga xoslikda tipik sharoit, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maishiy va tabiiy sharoit o'zini ko'rsatadi, zamon va makon ham shu siraga kiradi ham falsafiy ma'noga ega"[342]. N.Fozilov hikoyalari qahramonlari o'z davrining farzandlari sifatida milliy qiyofalarni namoyon etadilar. Tabiiyki, "Xalqning hayoti bilan chambarchas bog'langan adabiyot uning o'ziga xos urf-odatlarini, psixikasini, turmush va yashash tarzini yorqin aks ettiradi. Har bir xalqning o'ziga xos milliyligini vujudga keltiradi"[343]. Shuningdek, Sh.Rizaevning "Mohiyatan umuminsoniy qadriyatlar, insoniy tuyg'u

[340] Tuychiyev U. O'zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. –B.183.
[341]Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. –Toshkent:Akademnashr, 2015. –B.44.
[342]O'sha asar. –B.453.
[343]Shukurov N., Xotamov N.,Xolmatov Sh.,Mahmudov M. Adabiyotshunoslikka kirish. –Toshkent:O'qituvchi,1979. –B.64–65.

va kechinmalar bilan omuxtalashib keta olmaydigan asarni hech qachon milliy deb hisoblay olmayman”[344] degan so‘zlari xarakterlidir. Shu ma’noda milliylik umuminsoniylikni ham taqozo etadi. Darhaqiqat, bolalar uchun yaratiladigan asarning ishonarli, ta’sirchan bo‘lishida milliylikning o‘rni beqiyosdir.

Nosir Fozilovning bolalarga atalgan hikoyalaridan ham ana shu jihatlarni uchratish mumkin. Uning “Malchik amaki” hikoyasida voqealar Mirzacho‘lda bo‘lib o‘tadi. Hikoya qahramoni – Musa ismli o‘spirin. U qo‘zi-uloq boqishni yaxshi ko‘radi. Yoshi o‘n beshda. Uning ukasi Vali esa o‘n uch yoshda bo‘lib, tunov kuni zirqiratib quvgani uchun raisning itini yomon ko‘rsa, Musa Salim shayton bilan Malchik amakini yomon ko‘radi. Hikoyada yozuvchi bolalarbop tarzda voqealarni tugundan boshlaydi. O‘quvchida voqelikka qiziqish orttiradi. Hikoya qahramonlari Salim shayton va Malchik amaki bilan yaqindan tanishtiradi. Yozuvchi Salim shaytonning portretidan tortib, o‘tmishi bilan bog‘liq voqealarni batafsil bayon etar ekan, qahramonning ichki va tashqi qiyofasini ko‘z oldimizda namoyon qiladi: “Salim shayton deganimiz qishloqqa yaqinda ko‘chib kelgan odam. Xotinidan boshqa hech kimi yo‘q. Aftidan oltmish besh, yetmishlarni urib qo‘ygan, umri bino bo‘lib, beli og‘rib mehnat qilmagan kishi. Soqol-mo‘ylovli, xipchadan kelgan chol. Ilgari shaharda oldi-sotdi ishlar bilan shug‘ullanib yurarkan. Keyingi paytlarda savdoni mazasi qochipti. Bir gal qo‘shnisiga pamildoriniki deb sotgan urug‘i rediska chiqib qopti. Shunaqa voqealar takrorlanavergandan keyin unga mahalla-ko‘ydagi, bozor-o‘chardagi odamlar “Salim shayton” degan laqab qo‘yib yuborishibdi. So‘ngra, unga shahar torlik qilib, odamlarning ta’na-tazyiqlaridan qutulish chorasini izlab kengroq joyga – Mirzacho‘lning hozirgi Musalar yashab turgan “Bo‘ston” kolxoziga ko‘chib kelibdi”[345]. Ana shu tariqa u yangi joyga ko‘chib kelgach, eskichadan oz-moz savodi borligi bois “Mulla Salim”ga aylangan. Quyuqroq tutun, shirinroq hid chiqqan joydan quruq qolmaydi.

Hikoyada Nosir Fozilov uslubi uchun xos jihat – qahramon xarakteri, portreti, o‘tmishi bilan bog‘liq voqealarni uyg‘unlikda aks ettirish orqali qahramonni yaxlit gavdalantirish ko‘zga tashlanadi. Ushbu jihat hikoyadagi Malchik amaki tasviri uchun ham begona emas: “Malchik amaki ham juda qiziq odam-da. Bo‘yi Musanikidan sal cho‘ziqroq, kolxozda tabelchi bo‘lib ishlaydi. Uni yer o‘lchayotganda tomosha qilsangiz, yer o‘lchaydigan gaz tayoqqa bo‘yi yetmay osilib yugurib yuradi. Kichkina qizil yuziga ingichka qayrilma mo‘ylovi yarashib tushgan. Doimo olifta kiyinib yuradi. O‘zini bilimdon ko‘rsatib, ikki so‘zning birida ruscha so‘z qo‘shib gapiradi. Qishloqdagilar uni shu jussasi, mana shu odati uchun “Malchik” deb, mo‘ylovini hurmat qilib bo‘lsa kerak, “amaki”ni ham qo‘shib aytishadi. Bo‘lmasa, o‘zini G‘aynulla degan tuppa-tuzuk oti bor”[346]. Yozuvchi hikoya qahramonining sho‘ro davriga mos bo‘lgan qiyofasini berar ekan, davrning o‘z tilini unutayotgan, ikkiyuzlamachilar, manfaatparastlar toifasini

[344]Rizaev Sh. Dunyoda umid o‘lmasin ekan // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. –1992 yil, 16 oktyabr.
[345]Fozilov N. Kichkina demang bizni... Qissa va hikoyalar. –B.108.
[346] Fozilov N. Kichkina demang bizni... Qissa va hikoyalar. –B. 108–109.

yetishtirgan, ana shundaylarning “oshig‘ini olchi” qilgan siyosatini ham fosh etadi: “Uning (Malchik amaki nazarda tutilmoqda - F.O) yana bir yomon odati bor: bordi-yu ikki kishi munozara qilib turganda ustiga kelib qolsa, qaysi tomondan naf chiqishini mo‘ljallab o‘sha odamning tarozisiga posangi bo‘ladi. Salim shayton uni yaxshi ko‘rishining sababi: u Salim shaytonning dilini yaxshi tushunadi. Odamlar o‘rtasida aytgan diniy va’zlarini davrga moslab aytib beradi. O‘zining fikrini isbotlash uchun “partiyamiz ham bu fikrga protiv emas!” deydi”[347].

Hikoyada Malchik amaki Musaning qo‘zichoqlaridan birini olib ketib, so‘ymoqchi bo‘ladi. Sababi, cho‘lda suv otilib chiqqani bois Salim shayton xudoyi qilishni tayinlagan. Salim shayton ushbu holni shunday izohlaydi: “Tunov kuni bir mol so‘yib, xudoyi qilgan edik. Bu o‘shaning sharofati, taqsirlar, ha, o‘shaning sharofati. Xudo yo‘liga bersang, aslo qaytmay qolmaydi. Mana o‘zlaring shohidsanlar... Oh-oh-oh, obi zam-zam-a, obi zam-zam... ”[348]. Lekin ko‘p o‘tmasdan, “vodoprovod trubasi” yorilib ketgani ma’lum bo‘ladi. Yo‘lovchilar bu holdan kulishadi:

“Mayli, xafa bo‘lmang, Salim aka, – dedi nihoyat Malchik amaki, uning joniga ora kirmoqchi bo‘lib. – Xudoning o‘zi bilib oladi, kim prav, kim neprav!...”[349] Bir qarashda dahriylik siyosati avj olgan, diniy qarashlar ustidan kulish, kamsitish hukmron bo‘lgan davr g‘oyasi hikoyada aks etgandek taassurot uyg‘otadi. Yozuvchi Malchik amaki nutqi orqali o‘z tili va odatlarini unutgan, “siyosiylashgan” shaxs qiyofasini yengil yumor bilan tasvirlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz joyizki, yozuvchi Malchik amaki nutqi orqali uning o‘zini fosh etadi. U – bir tomondan din targ‘ibotchisi, ikkinchi tomondan ana shu diniy qarashlarni inkor etuvchi partiyaga o‘z muhabbatini bildirib turuvchi shaxs. Muallif mahorati shundaki, ana shu shaxslarning kulgili qiyofasini aks ettirish uchun ular nutqida “xudoyi, xudo yo‘li, obi zam-zam, prav, neprav” kabi so‘zlarni yonma-yon qo‘llash orqali yuzaga chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yoqubov O. Bolalik adib qalamida // Qarang: Fozilov N.Kichkina demang bizni... –Toshkent: ”Yosh gvardiya”, 1977.–B.2-3

2.Fozilov N. Kichkina demang bizni... Qissa va hikoyalari. –Toshkent: ”Yosh gvardiya”, 1977. –B.14. (Bundan keyin shu kitobdan olingan ko‘chirmalar sahifasi ko‘chirmadan so‘ng qavs ichida berib boriladi.)

3. Juraev U. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. –Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot–m...ijodiy uyi, 2015. –B.320

4. Abduqodirov K. Hojimuqon. –Toshkent: “Yosh gvardiya”, 1971. –B.118.

5. Sabirdinov A. Oybek she’riyatida so‘z va obraz. –Toshkent: “Akademnash”, 2010. –B.15.

[347]O‘sha asar. –B. –B. 109.
[348]O‘sha asar. –B. 110.
[349] Fozilov N. Kichkina demang bizni... Qissa va hikoyalar. –B. 11

TIL VA ADABIYOT TARAQQIYOTI – YURT VA MILLAT TARAQQIYOTI

Xamdamjon Ismoilov
O‘zDSMI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilining o‘zbek adabiyoti shakllanishi va rivoji davomida mashhur adiblar va olimlarning izlanishlari tufayli taraqqiy etish jarayonlari haqida so‘z yuritildi. Tilning taraqqiyoti adabiyot taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq ekanligi ta’kidlandi.

Kalit so‘zlar: jarayon, tarix, ona, iymon-e’tiqod, kelajak, ulkan, toshbitik.

Abstract. This article talks about the processes of development of the Uzbek language due to the researches of famous writers and scientists during the formation and development of Uzbek literature. It was noted that the development of the language is inextricably linked with the development of literature.

Key words: process, history, mother, faith, future, giant, petroglyph.

Prezidentimiz ona tilimiz haqida quyidagilarni ta’kidlagan edilar: “Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo‘lgan o‘zbek tilining tarixi xalqimizning ko‘p asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dardu armonlari, zafarlari va g‘alabalari bilan chambarchas bog‘liqdir”. Su ma’noda o‘zbek xalqi qadimgi davrlarda yashagan turkiy xalqlarning bir bo‘g‘ini hisoblangan. O‘zbek tili ham turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lgan va xalqimiz tarixiy taraqqiyoti yo‘lida qanday tarixiy jarayonlarni boshidan kechirgan bo‘lsa, tilimiz ham ana shu jarayonlardan o‘tib keldi.

O‘zbek tili eng avvalo xalq og‘zaki ijodida vujudga keldi. Onalar allasi xalq og‘zaki ijodining bosh bo‘g‘ini va kishilik hayotiy taraqqiyotining eng avvali hisoblanadi. Shu sababli onalar allasi orqali ona tili go‘dakning qulog‘iga kirib uning ongiga singib boraveradi. Natijada kishi ulg‘aygan sayin ona tili haqidagi tuyg‘u tobora mustahkamlanib iymon-e’tiqodiga sodiq kishigina o‘zbek tilimizni e’zozlaydi, asrab-avaylaydi, hozirgi davrimizga qanday yetib kelgan bo‘lsa tilimizga hiyonat qilmay kelajak avlodga yetkazib beradi.

Qadimdan turkiy til fidoyilari tufayli tilimiz toshbitiklarda o‘z aksini topdi. Xususan, O‘rxun-Enasoy toshbitiklarida qadimgi turkiy tilda o‘zlarining qimmatli pand-nasihatlarini o‘qib-o‘rganib kelinmoqda. Bular dastlabki turkiy til sohiblarining tilimizga bo‘lgan e’zozlaridan qalbimizni g‘ururga to‘ldiradi.

Prezidentimizning nutqida shunday so‘zlar keltiriladi: “Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o‘z so‘zini aytib kelganlar, Shu tilda buyuk madaniyat namunalarini, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratgan”. Shu tufayli Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Al Xorazmiy kabi buyuk olimu fuzalolar avlodlarga bebaho ma’naviy va ilmiy meros qoldirdilar. Garchi ularning asarlari o‘sha davrlar taomiliga ko‘ra arab tilida yaratilgan bo‘lsada, ular turkiy til sohiblari tomonidan yaratilganligi cheksiz faxr-g‘urur bag‘shilaydi. Negaki ularning asarlari butun jahonda o‘qib o‘rganilyapti, oliy o‘quv yurtlaridagi dars jarayonlarida foydalanilyapti. Yuqorida nomlari keltirilgan turkiy olimlarning turli sohalardagi faoliyati tufayli jahonda

matematika, fizika, geometriya, astronimiya, meditsina, mexanika fanlari rivojlanib, hozirgi kunlargacha takomillashgan holda yetib keldi.

Vatanparvar, elparvar ajdodlarimiz o‘z yurti, ona tilini himoya qilib zarur bo‘lganda shu yo‘lda o‘z jonini ham ayamaganlar. Shu ma’noda Prezidentimizning quyidagi so‘zlari ibratlidir: “O‘tmishda o‘lkamizni bosib olgan turli yovuz kuchlar bizni avvalo o‘z tilimizdan, tariximiz va madaniyatimizdan, dinu diyonatimizdan judo qilishga urindilar, ular el-yurtimiz boshiga qanday azob-uqubatlar, kulfat va musibatlar solgani tarixdan yaxshi ma’lum”. Darhaqiqat, yurtimizning qadim tarixida ma’lum va mashhur bo‘lgan elparvar, ozodlikparvar To‘maris va Shiroq haqida afsonalar yuradi. Ular ham qadimgi turkiy tilda muloqot qilishgan va ish yuritishgan. Xususan To‘maris momo o‘z tilida qonxo‘r bosqinchi Kirni qonga to‘yg‘azishga ont ichadi. Bu qasamini o‘z xalqi, o‘z tili haqqi ado etadi. O‘z ona tilida bu ona yurtiga rahna solgan har qanday bosqinchi dushmanni Kirning taqdiri kutishini va ana shunday fojiaviy ahvolga tushishini e’lon qiladi. Shiroq ham o‘z ona tilida yurtiga bostirib kelgan bosqinchilardan qasos olishga ont ichadi. Oddiy cho‘pon, lekin aqli raso inson sifatida o‘z ona tilida bergan ontini bajaradi. Bir o‘zi dushmanning butun askarlarini yengganini ona tilida ma’lum qiladi. Ona tilidagi kalomi bilan halok bo‘ladi.

Ana shu afsonaviy ajdodlarimizning ona tilida ichgan qasamini keyingi davrlarda yashagan buyuk kishilar davom ettirdilar. Xususan, buyuk sarkarda Amir Temur o‘z yurti, o‘z tilini saqlab qolish uchun ulug‘vor ishlarni amalga oshirdi. O‘z tilida ulug‘vor bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish yuzasidan farmoyishlar berdi. O‘z tili, o‘z yurtini yanada qudratli qilish maqsadida ulkan imperiyaga asos soldi va tarqoq turkiy xalqlarni tili va dilini birlashtirdi.

Dastlabki o‘rta asrlardayoq turkiy tilda ilmiy va badiy, diniy asarlar vujudga keldi. Xususan, o‘lkamizda birinchi bo‘lib Maxmud Qoshg‘ariy “Devonu lug‘otut turk” asarini yaratdi. Og‘ir mehnatlar evaziga lug‘atshunos olim turkiy tilning naqadar boyligi, rang-barangligini ko‘rsatib qo‘ydi va ilmiy jihatdan asosladi. Yusuf Xos Xojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida turkiy tilda ilmning naqadar qudratli kuch ekanligini isbotladi va xalqni, yosh avlodni ilm olishga va unga sodiq bo‘lishga chorladi. Bilim kishining o‘ziga va uning avlodlariga ham saodat keltirishi, tilini burro, o‘zini dono qilishini ta’kidladi. Ahmad Yugnakiy o‘zining turkiy tilda yozilgan “Hibbatul haqoyiq” asarida ham tarixiy tilimizning naqadar tashbehlarga boyligini namoyon qildi. Xazrat Ahmad Yassaviy “Devoni hikmat” asarida Islom dini arkonlarini turkiy tilda badiiy jihatdan talqin etdi. Dunyoning o‘tkinchiligi, berilgan qisqa sinov vaqtida ko‘p savob ishlarni amalga oshirish kerakligi badiiy ifodalab berildi.

Turkiy tilni ulug‘lash navbati Alisher Navoiygacha 14-asrda yashab o‘tgan shoirlar Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Durbek kabi shoirlar zimmasiga tushdi. Ular o‘z ash’orlarida, qasidalarida turkiy til ham forsiy tildan qolishmaydigan adabiyot tili ekanligini ko‘rsatib berdilar. Turkiy til nozik qochirimlarga, tag ma’nolarga boy badiiy til ekanligiga ishora qildilar va bu fikrni o‘z asarlari bilan amalda isbotladilar. Ular o‘z ijodi bilan buyuk shoir, davlat arbobi Alisher Navoiy davri

ijodiyotiga zamin yaratdilar. Shuning uchun ham Navoiy “Majolis un-nafois” asarida ana shu shoirlarning hayoti va ijodiga batafsil to‘xtaladi va turkiy tilda yozilgan asarlariga yuksak baho beradi.

O‘zbek tili va, ayniqsa, o‘zbek adabiy tilining shakllanishi Alisher Navoiy nomi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi. Ayniqsa, Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari bilan o‘zbek (turk) tilining buyuk bilimdoni va homiysi bo‘lib maydonga chiqdi. Bu tilning boshqa tillardan mutlaqo qolishmasligini amalda isbot qilib bergan shoir mazkur asarida bu muhim xulosasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab ko‘rsatdi. Navoiy o‘z ijodiy faoliyati davomida “Sab’ati abhur” (“Yetti dengiz”) nomli lug‘atshunoslikka oid asarini yozib tilimizni lug‘aviy jihatdan yanada boyitdi. Shunga ko‘ra Navoiy o‘zbek adabiy tiliga asos solib, uni amalda nihoyatda boyitgan tilshunos sifatida tarixga kirdi.

Tilimizning keyingi davrlardagi ravnaqi shoir, shoh, sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi bilan bog‘liq bo‘ldi. Boburning tili hozirgi tilimizga yanada yaqinlashdi. Bobur o‘z asarlarida qo‘llagan tashbihlari, badiiy unsurlari bilan tilimizni yanada boyitdi, tilimizga yangi so‘zlar olib kirdi.

XVIII – XIX asrlarda ijod qilgan Munis Xorazmiy, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira, Muqimiy, Zavqiy, Furqat kabi shoirlarham o‘z ijodlari bilan o‘zbek tilining yanada boyishiga xizmat qildilar, o‘zbek tilidagi so‘zlarning keng imkoniyatini ochib berdilar. Ayniqsa bu paytlarda adabiyotga yangi janrlarni kirib kelishi, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar tufayli o‘zbek tiliga anchagina so‘zlar o‘zlashdi va tilimiz anchagina boyidi.

XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi o‘zbek tili tarixi jadidlar ijodi bilan bog‘liq. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zbek tilida o‘sha davrgacha mavjud bo‘lmagan drama janrida asar yozdi. Bu bilan o‘zbek tilida nasriy janrdagi asarlar yaratish mumkinligini isbotladi. Yana bir e’tiborli tomoni shundaki, adib o‘zining ushbu asari bilan tilimizni sahnada jaranglashiga erishdi. Shu asnoda Behbudiy o‘zbek dramaturgiyasiga asos solib XX asr boshlarida o‘zbek madaniyatida yangi voqelikka asos soldi. Nashr ishlarini tashkil etib, o‘zbek publitsistikasini boshlab berdi.

Abdurauf Fitrat XX asr boshlaridagi o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotining jarchisi va asoschilaridan biri, o‘zbek milliy she’riyati, prozasi, adabiyotshunosligi, tilshunosligi, maorifi, jamiyatshunosligi singari o‘nlab sohalarning oyoqqa turishiga, rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. Fitrat ona tilini mukammal egallashida onasining hizmati katta bo‘ldi. Shu sababli butun umri davomida ona tili rivojiga katta hissa qo‘shdi. O‘zbek adabiyoti tarixida birinchi bo‘lib o‘zbek tilida “Abulfayzxon” fojia sahna asarini yozdi. 1918-yili Toshkentda tashkil etilgan, Turkistonda til, adabiyot, san’at masalalari bilan ilk bor tashkiliy ravishda shug‘ullandi. 1921-yili mart oyida Fitratning bevosita ishtirokida Buxoro jumhuriyatida turk(o‘zbek)tili davlat tili deb e’lon qilindi. Umuman olganda Fitrat o‘zbek tili rivojiga ulkan hissa qo‘shdi.

Mashhur yozuvchi Abdulla Qodiriy o‘zbek tilini nihoyatda qadrladi. Uning imkoniyatlari ulkan, so‘zlarga boy, badiiy tasvirlari keng ekanligini o‘zining epik

asarlarida ko‘rsatib qo‘ydi. Uning romanlari va hikoyalarining tili shirali, sermazmun, qochirimlarga va milliy unsurlarga boy ekanligidan o‘zbek kitobxonlarining bir necha avlodlari ularni hamon sevib o‘qib kelmoqda. A.Qodiriy o‘z tarjimalari bilan ham o‘zbek tili badiiy ifodaviy tasvirda boshqa tillardan qolishmasligini isbotladi. U milliy tilini o‘z millatidek e’zozladi, qadrladi.

Taniqli yozuvchi va tarjimon Abdulhamid Cho‘lpon haqida gap ketganda uning o‘zbek tili bilimdoni ekanligi ta’kidlanadi. Bu holatni uning ham nazm, ham nasr asarlarida kuzatish mumkin. U o‘zbek tilidagi publitsistika rivojiga alohida hissa qo‘shdi va ona tilining matbuotdagi keng imkoniyatlarini ko‘rsatdi. Rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima asarlari uning ijodida salmoqli o‘rin egalladi. O‘zbek tilining tarjima jarayonidagi imkoniyatlarini shu yo‘sinda namoyon bo‘ldi.

O‘zbek tili taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan adiblardan biri G‘ofur G‘ulom hisoblanadi. U O‘zining da’vatkor she’rlari bilan o‘zbek tiliga o‘zgacha ruh bag‘ishladi. Asarlaridagi sifatlash, jonlashtirishlari bilan ba’zi so‘zlarning ma’no nozikliklarini ochib berdi.

Hamid Olimjon Oybekni “Oybek prozada shoiru, poeziyada prozaikdir”, degan edi. O‘zining ana shunday mahorati bilan ona tilimizni sezilarli boyishiga va sayqallanishiga xizmat qildi.

Abdulla Qahhor lo‘nda, qisqa tasvirlari bilan o‘zbek tilidagi so‘zlar serma’no ekanligini ko‘rsatib qo‘ydi. O‘z asarlarida o‘zbek tilidagi so‘zlarni shamolga uchirmaslik, ularga asrab-avaylab munosabatda bo‘lishga chaqirdi.

O‘tgan asrning o‘rtalaridan o‘zbek tilining nazariy asoslari o‘rganilib, tilimizning mavqei ilmiy jihatdan mustahkamlana boshladi. Bu xayrli ishga yetuk tilshunos olimlar Faxri Kamol, Ulug‘ Tursunov, Zokir Ma’rufov, Tursun Ibragimov, Tesha Salimov, Said Usmonov, G‘ani Abdurahmonov, Fattoh Abdullayev, Sobirjon Ibrohimov, Otaqo‘zi Azizov, Mazluma Asqarova, Ayub G‘ulomov, Viktor Vasilyevich Reshetov, Yevgeniy Dmitriyevich Polivanov, Iristoy Qo‘chqortoyev, Karim Nazarov, Shamsiddin Shukurov, Yormat Tojiyev, Nizomiddin Mahmudov kabilar o‘zlarining ulkan xissalarini qo‘shdilar. Ular o‘zbek tili fonetikasi, leksikasi, morfologiyasi, sintaksisi, stilistikasi sohalarini alohida-alohida tadqiq etdilar. Tadqiqotlar asosida monografiyalar yaratish bilan birga o‘zbek tilidan maktablar, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari uchun darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari yozdilar. Ulardan hozirgi kunimizgacha o‘quv yurtlaridagi dars jarayonlarida foydalanilib kelinmoqda. Oliy o‘quv yurtlarida yuqoridagi olimlar o‘zlari yaratgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari asosida dars berib. Bo‘lajak o‘zbek tili mutaxassislarini tayyorlashga katta hissa qo‘shdilar. Shu bilan yoshlarda ona tilimizga bo‘lgan ulkan muhabbat uyg‘otdilar. Ularning shogirdlari hozirgi paytda yetakchi olimlardan bo‘lib, o‘z navbatida ular ham o‘zbek tili bo‘yicha mutaxassislar tayyorlab dastlabki tilshunos olimlarning an’analarini davom ettirmoqda.

Ko‘rinadiki, XX asr o‘zbek tilining yuksak taraqqiyot davri bo‘lib qoldi. Tilimiz ham nazariy, ham amaliy jihatdan o‘sdi va mustahkamlandi. Lekin o‘tgan asrda shunday davrlar ham bo‘ldiki, o‘zbek tiliga mensimay, kamsitib munosatda

bo‘lindi. Shunga qaramay, yuqorida ta’kidlanganidek, har qanday to‘siqlarga qaramasdan milliy adabiyotimiz tufayli milliy tilimiz ham uzviy ravishda taraqqiy etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ”O‘zbek tilining Davlat tili sifati nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent. “O‘zbekiston ovozi” gazetasi, 2019-yil oktabr.
2. Hozirgi zamon o‘zbek tili. – Toshkent: Fan, 1957.
3. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1966.
4. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
5. O‘zbek tili grammatikasi. 1-tom. – Toshkent: Fan,1975.

TIL VA MADANIYAT MUSHTARAKLIGI

Umurqulov Zafar Bekpo‘latovich,
Termiz davlat universiteti dotsenti (PhD)

Annotatsiya. Qiyosiy ifodalar orqali xalqning ma’naviyati, madaniyati va til subyekti olamni qanday idrok etishi haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Maqolada qiyoslash til, madaniyat va ijtimoiy voqelikni o‘zida aks ettiruvchi vosita sifatida olam manzarasini tasvirlash, shuningdek, xalq mintalitetiga xos bo‘lgan, jamiyat a’zolari tomonidan qabul qilingan odat, an’ana, va turli rasm-rusmlarni o‘zida namoyon etadigan vosita ekanligi haqida fikr-mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: til, madaniyat, tafakkur, inson, qiyoslash, o‘xshatish.

Annotation. Through comparative expressions, one can get an idea of the spirituality, culture, and language of the people, as well as how the subject perceives the world. The article argues that comparison is a means of depicting the worldview as a means of reflecting language, culture, and social reality, as well as a means of reflecting customs, traditions, and various customs inherent in the mentality of the people, adopted by members of society.

Key words: language, culture, thinking, human, comparison, simile.

Til ijtimoiy hodisa sifatida insoniyat tarixidagi eng katta kashfiyotlardan biri hisoblanadi. Tilning paydo bo‘lishi, o‘ziga xos xususiyatlari, rivojlanish jarayoni doim olimlar e’tiborida bo‘lgan. Til va tafakkur, til va madaniyat kabi hodisalar asrlar osha o‘z dolzarbligini yo‘qotmay kelmoqda.

XXI asrda tilshunoslikda yana bir yo‘nalish voyaga yetmoqdaki, unda til faqatgina aloqa vositasi emas, balki millatning o‘zligini aks ettiruvchi vosita sifatida bo‘y ko‘rsatdi. Bu yo‘nalishning ilk ildizlari V.Humdoldt va A.A.Potebnya ishlariga borib taqaladi. V.Humboldt “millatim tilining sarhadlari dunyoqarashim chegaralaridir” degan fikri bu yo‘nalishning shakllanishidagi metodologik ahamiyatga molikdir. V.Humboldt til va madaniyat munosabati, o‘zaro ta’siri haqida fikr yuritar ekan, asosiy qoidalar sifatida quyidagilarni e’tirof etadi: 1) moddiy va ma’naviy madaniyat tilda gavdalanadi; 2) har bir madaniyat milliydir, uning milliy xususiyati dunyoga alohida qarash orqali ifodalanadi, har bir xalqqa

xos ichki shakl bilan tavsiflanadi; 3) tilning milliy ruhi, uning madaniyati ifodasidir; 4) til inson va uning atrofidagi dunyo orasidagi vositachi bo‘g‘indir[4,59]. Keyinchalik esa V.Humboldtning bu konsepsiyasi A.A.Potebnya, Bodeyen de Kurtene, R.O.Yakobson va boshqa tadqiqotchilar asarlarida o‘ziga xos talqin oldi.

Tilshunos N.Mahmudov tilni inson shaxsini yaratuvchi bosh omil hisoblaydi, bu bilan insonning inson bo‘lishida tilning ta’siri beqiyos ekanligiga ishora qiladi va ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq antropotsentrik paradigmada inson asosiy o‘ringa chiqishini ta’kidlaydi[2,6]. Tilni va nutqiy faoliyatni atroflicha, turli jihatlari asosida tadqiq qilish tilshunoslikning turli sohalarini vujudga kelishiga olib keladi.

Til va inson omilidagi muhim jihat, shubhasiz, nutqiy faoliyat va uning idroki bilan bog‘liq. Nutqning idrok etilishining ham turli holatlari mavjud. Nutqning idrok etilishi so‘zlovchi shaxs yonida ikkinchi bir shaxs, tinglovchi shaxsi bo‘lishini talab qiladi. Matnni idrok etilishida bu ikkala shaxs birligi muhimdir. Chunki matnda, avvalo, matn yaratuvchisining shaxsi: uning kimligi, qaysi kasb egasi ekanligi, saviyasi, qaysi mazmundagi, qanday shakldagi matn tuzayotgani, til birliklarining nutqiy jarayoniga mosini qo‘llashi, ma’naviy-ma’rifiy qarashlari, tafakkur tarzi, tushunchalari, olamni idroki o‘z ifodasini topadi. Bunday matn uni tuzuvchi bilan saviyasi, tafakkur olami bir xil bo‘lmagan shaxsga ham qaratilgan bo‘lishi mumkin. Bu holatda uning idrok etilishi til va shaxs munosabatlaridagi muhim omil sanaladi. Shu bois, matn tahliliga turli jihatlardan yondoshgan holda tahlil qilish lozim. D.Xudoyberganova matn va uni idrok etuvchi shaxs omilini o‘rganishda tadqiq obyektiga semantik, psixologik, pragmatik, kognitiv va lingvokulturologik nuqtai nazardan yondashish lozimligini qayd etadi va mazkur tadqiqotda shaxsni ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri sifatida kognitiv talqinni e’tirof etadi[6,12]. Ma’lumki, kognitiv faoliyat insonni dunyoni bilishdagi muhim faoliyat. Kognitologiyadagi muhim omillardan biri dunyoni anglash uni mavjudligicha tavsiflash va ta’riflab berishdir. Tadqiqotchi kognitiv tilshunoslikning asosiy omillardan biri sifatida matn yaratilishini e’tirof etar ekan, matn yaratish nafaqat semantik va grammatik qonuniyatlarga, balki axborotni bayon qilishning qoidalariga ham bo‘ysunishini ko‘rsatib o‘tadi[6,16-17].

Tilni madaniyat bilan bog‘liq va o‘zaro aloqadorlikda o‘rganilishi V.N.Teliyaning lingvokulturologiya markazida madaniyat fenomeni mavjud bo‘lgan inson haqidagi antropologik paradigma[5,122] to‘g‘risidagi qarashlari ham tilni antropotsentrik nuqtai nazardan o‘rganishni yanada kuchaytirdi. V.N.Teliyaning fikricha, lingvokulturologiya insonga mo‘ljallangan bo‘lib, madaniy faktor tilga, til faktori esa insonga. Bu shuni ko‘rsatadiki, antropotsentrik paradigma inson haqidagi fan bo‘lib, markazida madaniyat fenomeni mavjud [5,222]. Maslovaga ko‘ra madaniyatni inson yaratadi va shu madaniyatda yashaydi. Aynan insonda insonning ijtimoiy tabiati birinchi o‘ringa chiqadi va shaxsning o‘zi sotsial-madaniy hayotning subyekti sifatida faoliyat yuritadi[4,117].

O‘zbek tilshunosligida til va madaniyat masalalarini atroflicha yoritib bergan olim, professor N.Mahmudov bu hodisalarning mohiyati haqida quyidagilarni bayon etadi: “Til va madaniyat deganda, ko‘pincha, “nutq madaniyati” deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o‘rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko‘rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to‘g‘risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o‘rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo‘lsak, lingvokulturologiyada madaniyatning ma’nosi “aqliy-ma’naviy yoki xo‘jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati) emas, balki “kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmuasi (madaniyat tarixi, o‘zbek madaniyati” demakdir”[2,10]. Olim til inson hayotidagi bezak ekanligini ta’kidlab, unga ehtirom ko‘rsatish kerakligini quyidagicha izohlaydi: “Til benihoya muqaddas va mo‘tabar ne’mat, u odam degan mavjudotga shakllantirilgan, qavmlar o‘laroq birlashtirgan, taraqqiyot bosqichlariga olib chiqqan, ruhiy takomiliga boshlagan, tafakkur gulshanining darvozalarini ochgan bemisl bir robitadir. Shuning uchun ham tilgan nopisandlik insoniyatning o‘zligiga nopisandlik demakdir. Tilga ehtirom va e’tibor esa bu dunyoda inson bolasi muhtaramligining e’tirofidir”[3,3].

Ma’lumki, o‘zbek tili tilning tasviriy ifoda vositalari boydir. Bu ifoda vositalari badiiy uslubning nozik qirralarini ko‘rsata oladigan, shu orqali tilimizning cheksiz imkoniyatlarga ega, go‘zal va nafis namoyon etadigan xazinadir.

Badiiy matn lingvistik jihatdan keng qamrovli, chegaralanmas, cheksiz uslubiy imkoniyatlarga ega. Turli tasviriy ifodalar, ko‘chimlar singari qiyos ham til, madaniyat va ijtimoiy voqelikni o‘zida aks ettiruvchi vosita sifatida olam manzarasini tasvirlash, shuningdek, xalq mintalitetiga xos bo‘lgan, jamiyat a’zolari tomonidan qabul qilingan odat, an’ana, va turli rasm-rusmlarni o‘zida namoyon eta oladigan vositadir.

Shoir Erkin Vohidov “So‘z latofati” asarida *Mehmon otangdan aziz, ustoz otangdan ulug‘* kabi hikmatlarni tahlil qilar ekan, avvalo, bu hikmatlarning ijod namunasi ekanligini, ijodning badiiyatsiz, badiiy mubolag‘asiz bo‘lmasligini izohlaydi va aslida *otadan aziz inson* bo‘lmasligini, shunday ekan, bu ifoda xalqimizning milliy qadriyatlari bilan bog‘liq holda vujudga kelganligini ta’kidlaydi. O‘zbek xalqining mehmonnavozlik va mehmon kutib olishi azaldan oliyjanob xulqlardan bo‘lib, xalqimiz bu odatga azal-azaldan amal qilib keladi. O‘zbek xalqi mehmondo‘stligi bilan dong taratgan. Shu bois *“Mehmon – otangdan ulug‘”, “Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kelar teshikdan”, “Mehmon oldida hatto mushugini pisht dema”* kabi maqol va hikmatli so‘zlar bejizga aytilmaydi. Shuningdek, dono xalqimiz *“Ustoz otadek ulug‘”, “Ustoz otangdan ulug‘”* deb aytishida ham ko‘p pur hikmat yashiringan. Bu hikmatlar xalqimizning uzoq yillik tajribalari evaziga muomalaga kiritilgan. Ajdodlarimiz ustoz va muallimlarning haqqini yaxshi bilganlar, ularning mashaqqatli mehnatlarini nechog‘li og‘ir ekanini teran anglaganlar va shunga ko‘ra ustozga hurmat ko‘rsatishgan.

E.Vohidov *-dan* va *-dek* qo‘shimchalarini *qamishdan* va *qamishdek* so‘zlarining qo‘llanilishi orqali farqlaydi. Xalqimizda mavjud *qamishdan bel bog‘lab* iborasi aslida *qamishdek bel bog‘lab* ekanligini tahlil qilib, avvalo, qamishdan bel bog‘lanmasligini ta’kidlaydi. Qamish necha bo‘g‘inli bo‘lsa, har bir bo‘g‘iniga mos beli bog‘langanligini, qamishning ichi bo‘shligini yemay-ichmay xizmat qilishga, shamolda tebranishining yelib-yugurib xizmat qilishga qiyoslash asosida bu iboraning aslida qamishdek bel bog‘lab ekanligiga ta’kidlaydi[1,27].

Qadimdan sharq mutafakkirlari tafakkur va didaktika ilmiy tarixida til va nutq odobi, so‘z odobi haqida talab ibratli o‘gitlarni aytib o‘tishgan. XI asrning mashhur tilshunosi Mahmud Qashg‘ariy “Devon”ini o‘qish chog‘ida undagi til vositalarining til odobi, nutq odobiga jiddiy e’tibor qaratganligiga guvoh bo‘lamiz. Devonda keltirilgan xalq maqollaridan birida *“Bulg‘oq o‘gush bo‘lsa, qachon bilging otar, yangshak tilim sayrab ani tamgak katar”* ma’nosi xalqda fitna ko‘paysa, aql ozayadi va to‘g‘ri yo‘ldan adashadi. Behuda so‘zlar ko‘payib ketsa, og‘iz qurib, jag‘ qiyshayadi. Bu maqol o‘ylab so‘zlashga undab aytilgan.

Umuman olganda, xalq maqollarida qiyoslash katta ahamiyatga ega. Maqollarda qiyoslash orqali xalq donoligi, millatning ruhiyatini, uning madaniyatini ko‘rsatish imkoniyati yuqoridir. Yuqorida keltirilgan maqolda ham ijtimoiy hayotda so‘zning ahamiyati o‘tkir qiyosda ifoda topgan. Maqolda fitna, g‘arazning aralashuvi el orasida to‘g‘ri yo‘lning yo‘qolishiga, aqlning kamayishiga olib kelishi haqidagi mulohaza katta ijtimoiy ma’no ifodalagan. Bu ma’no nutq odobi bilan bog‘liq keyingi ma’nosi uchun qiyoslashga asos bo‘lgan.

Qiyoslash asosida hosil bo‘lgan xalq maqollarida xalqning asrlar davomida to‘plagan tajriba va ajdodlarimizning urf-odatlari, an’analarini aks etadi. Maqollarda xalqning asriy hayoti, dunyoqarashi singib ketgan bo‘ladi. Masalan, *Mehnat bilan yer ko‘rar. Duo bilan – el. (maqol)* O‘zbek xalqi duogo‘y, oliyjanob, mehmondo‘st xalqdir. Shu bois yurtimiz ting, xonadonlarimiz obod. Xonadonlarimizda bobo va momolarimiz, ota va onalarimiz duolari bilan rizqqa to‘ladi, azaldan bizning xalqimiz duogo‘y sifatida nom taratgan. Bu o‘zbek xalqining mintalitetiga singib ketgan. *Oltin olma – duo ol, Duo oltin emasmi. Olqish olgan omondir, Qarg‘ish olgan yomondir. Ota-ona duosi, O‘tga-suvga botirmas.* (maqol) kabi maqollar zamirida ham o‘zbek xalqining asrlar davomida to‘plagan ma’naviy-axloqiy tajribasi, falsafasini, donishmandligini, milliy-madaniy qarashlarini ifoda etgan. Xalqimizga xos bo‘lgan bu xislat tilimizda, hikmatlarimizda singib ketganligini ko‘rsatadi.

Xalqning o‘z millatiga, uning tiliga bo‘lgan muhabbati tabiiy va mantiqiydir. Tariximizda vataniga, tiliga, madaniyatiga, urf-odatlariga cheksiz muhabbat tuyg‘usini boshidan kechirmagan odam bo‘lmasa kerak?! Bu his-tuyg‘ular uning tilida juda aniq ifodalanadi. Keyingi yillarda milliy madaniyatimizga alohida e’tibor qaratilayotgani, milliy g‘oya, milliy mafkura, milliy ong muhim masala va xalqning yaxlitligi sifatida baholanayotgan bir vaqtda ona tili va til madaniyatini mushtarakligini lingvistik muammo sifatida o‘rganish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Shu bois xalqqa xos bo‘lgan milliy-madaniy tasvirni o‘zida to‘la va mukammal darajada ifodalaydigan, badiiy matnda milliy-madaniy qiymatga ega bo‘lgan qiyos ifodalarni o‘rganish, til va madaniyat mushtarakligini mohiyatini ochishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Эркин Воҳидов. Сўз латофати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018.
2. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012, №5.
3. Маҳмудов Н. Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1998.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва, Издательский центр, 2001.
5. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М, 1996.
6. Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2015.

USMON NOSIR YODI

Dilnoza Jumayeva

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbek she’riyatining yorqin yulduzi, erk kuychisi nomini olgan mashhur shoir Usmon Nosir hayoti va ijodiga bag‘ishlanadi. Unda shoir ijodidan namunalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: erk kuychisi, otashqalb, Vatan ishqi, qalam, poeziya, “Nil va Rim”.

Abstract. This article is dedicated to the life and work of the famous poet Usmon Nasir, known as the bright star of Uzbek poetry, the singer of freedom. It contains examples of the poet's work.

Keywords: freedom singer, fire, love of country, pen, poetry, "Nile and Rome".

O‘zbek she’riyatining yorqin yulduzi, erk kuychisi nomini olgan mashhur shoir Usmon Nosir serma’no maftunkor she’rlari bilan xalqning hurmatiga sazovor bo‘lgan ijodkordir. U 1912-yil 13-noyabrda Namangan shahrida dunyoga keldi. Uning she’riyati XX asr o‘zbek poeziyasining ko‘plar yetolmagan cho‘qqilarini zabt etdi. Bo‘lajak shoir to‘rt yoshida otasidan ayrildi. Avval tog‘asi qo‘lida, 9 yoshidan esa o‘gay ota qo‘lida tarbiyalandi. Shoirning hayot yo‘lini kuzatar ekansiz, u hech bir joyda muqim yashamaganini, hattoki oliy ma’lumotni ham tugata ololmaganini ko‘ramiz. Qo‘qon shahridagi o‘rta maktabda sakkiz yillik ta’limdan so‘ng Moskvadagi Kinemotografiya institutida bir yil, Samarqanddagi Pedagogika akademiyasi (hozirgi SamDU)da bir yil tahsil oldi. “Yosh leninchi” gazetasida boshlangan mehnat faoliyati esa 1933-yildan 1934-yilgacha cho‘zildi.

“Hayotga, she’riyatga bo‘lgan beqiyos muhabbat uning qo‘llariga qalam tutdi, qalbini hayajon va shodlikka to‘ldirdi. Yuragiga buyuk bir otash soldi!..

Go‘zallikka tashna bo‘lgan o‘tli ko‘zlariga butun olam, tabiat she’riyat bo‘lib ko‘rindi” - ushbu jumlalar “Diydor” gazetasining 2002-yil 16-noyabr sonida chop ettirgan muallif Moxira Ibrohim qizining “Shoir boqiy yashaydi” degan maqolasida aks etgan. Uning ilk she’ri 15 yoshida, ilk dostoni 19 yoshida, dastlabki she’riy to‘plami esa 20 yoshida nashr qilindi. Yigirma to‘rt yoshigacha Usmon Nosir “Naxshon”, “Traktrobod”, “Yurak”, “Mehrim” kabi she’riy to‘plamlarini chiqarib ulgurgandi. Bu to‘plamlarda inson ruhining ozod parvozi, tabiat va muhabbatdan to‘lqinlangan qalbning otashin sadosi ko‘rinib turardi. Shoir she’riyati chaqmoqdek keskir, olovdek yorqin, buloq suvidek tiniqdir. Bu tiniqlik uning yuragini, qalbining odam va olam haqidagi tasavvurlarining tiniqligidan darak beradi. Uning tuyg‘ulari ham pokiza edi. Shoir o‘z qalbiga sira hiyonat qilmadi. Usmon Nosir butun hayoti davomida tanlagan yo‘lidan ketdi. Butun umr yurakni, shoir yuragini kuylab o‘tdi.

Mana, oradan 110 yil o‘tibdiki, bu yurakdan chiqqan sohir, mungli, gohida esa hayotbaxsh, goh achchiq satrlar vaqt va sarhad chegaralarini yorib, hozirgacha she’riyat shaydolarining ma’naviy kamoloti yo‘lida xizmat qilmoqda. Shoir asarlarining yutug‘ini ta’minlagan omillardan biri xudo bergan iste’dodi bo‘lsa, ikkinchisi Sharq va G‘arb adabiyoti tajribalarini ijodiy o‘zlashtira borganidir. “Usmon she’riyatimizga shamolday kirib keldi. Balki bo‘ronday! U shunday to‘polon va to‘lqin bilan keldiki, uncha-muncha she’riy uslub va ijodni to‘s-to‘s qilib yubordi. Uni o‘zimizda “O‘zbekning Lermontovi”, Moskva gazetalarida “Sharqda Pushkin paydo bo‘ldi”- deb yozishdi, degandi unga zamondosh shoir Turob To‘la. Ushbu so‘zlar “Jahon adabiyoti” jurnalining 2012-yilning 11-sonida aks etgan. Usmon Nosir kecha-yu kunduz she’r ishqi bilan yashadi, mehnatni sevdi. “Bemehnat sevmayman tirik tilimni” deganida bor haqiqatni aytgan edi. Qalbi shodlik nimaligini bilmay o‘tgan odamlarga achindi, iztiroblariga sherik bo‘ldi. U ozodlikni, yorqin kelajakni zo‘r ishonch, ko‘tarinki ruh shavqu-zavq bilan tarannum etdi. “Shoir Vatan ishqi bilan yondi. Vatanim, elim, yurtim deb yonib yashadi. Unda hissiyot zo‘r edi. Shoir shu qaynoq hissiyot bilan o‘z taassurotini yurak orqali bayon qilar edi. Yurakka murojaat qilishi, yurak orqali ijod qilishi tufayli u yurak shoiri bo‘lib tanildi. Usmon Nosir hayotga, she’riyat olamiga bulbul bo‘lib kelgan edi. Afsuski o‘sha paytdagi mustabid tuzum uni qiynadi, xo‘rladi”- ushbu jumlalarni I. Hasanovaning “Zamondosh” gazetasi 2002-yil №26 sonida chop etilgan “Isyonkor shoir nidosi” maqolasida o‘qishingiz mumkin. U el, yurt xizmatiga doim shay turdi. Shoir o‘zining ona Vataniga bo‘lgan muhabbatini “Yurak” she’rida juda chiroyli ifoda qilgan:

“Itoat et,
Agar sendan Vatan rozi emas bo‘lsa
Yoril, chaqmoqqa aylan sen.
Yoril, mayli, tamom o‘lsam!”

Usmon Nosir ko‘p qirrali ijodkor edi. Muhabbat va sadoqat haqida lirik she’rlardan tashqari pyesa, epik dostonlar ham yozdi. O‘z mahoratini tarjima sohasida ham namoyon etdi. Pushkinning “Boqchasaroy fontani”, Lermontovning

“Demon”i Usmon Nosirning mohirona tarjimasi bilan o‘zbek adabiyoti xazinasiga yana bir gavhar bo‘lib qo‘shildi. Usmon Nosirning tabiat manzaralarini, turfa xil go‘zalliklarni, odamlarning ruhiy kechinmalarini chuqur ifodalagan she’rlarini o‘qir ekanmiz, uning o‘ta nafis, teran fikrli “rassom” ekaniga ham amin bo‘lamiz. “Usmon Nosir … - deb yozadi O‘tkir Rashid, - bu nom 20-yillarning oxirida quloqqa issiqqina chalinib, 30-yillar boshida quloqdan tillarga va dillarga ko‘chdi. Usmon asarlarini kitobxonlar, qalamkashlar intiqlik bilan kutadigan shoirga aylandi”. “Iste’dod shunday bir gavharki, u dengiz tubida, sadaf ichida ham gavhar; iste’dod shunday bir zilol irmoqki, uning har qatrasida daryolarning qudrati, ummonlarning teranligi bor; iste’dod shunday bir gulki, uning har bir ochilmagan g‘unchasida chamanlarning bo‘yi, tarovati bor. Usmon Nosir iste’dodi ana shunday gavhar, ana shunday irmoq, ana shunday g‘uncha edi” - deb yozadi shoir haqida zamondoshimiz Erkin Vohidov. U kamtarlik bilan “Hozirga qadar yozganlarim bir mashq, shuning uchun ham nuqsonlari ko‘p bo‘lishi mumkin” deb yozgandi. Usmon Nosir 1937-yilda xalq dushmani sifatida hibsga olinib, Magadangan yuborilgunga qadar erkin ijod bilan shug‘ullandi. Chaqmoq umriday hayot kechirgan shoir butun qalbini muqaddas Vatanimizga, uning ezgu xizmatlariga bag‘ishladi. Begunoh shoir temir panjaralar ortida ham ijodini davom ettirdi. Uning “Yurak tug‘yoni” va “Tutqun bulbulcha” she’rlari fikrimiz dalilidir. U o‘z she’rlarida go‘zallikni tarannum etish bilan birga erkni, mustaqillikni, ozodlikni kuyladi. Mustaqillik, adolat oftobining nurlaridan bahramand bo‘lishni orziqib kutdi. Shoirning “Nil va Rim” she’rini erk madhiyasi deb atashimiz mumkin:

Mana menman, u isyonning o‘lmas avlodi,
Mana menman, u qullarning hech so‘nmas yodi.

Bu satrlar shoir yuragining tub-tubidan otilib chiqqan, misralardagi jozibadorlik, ohangdorlik kishini o‘ziga jalb qiladi. Ushbu hayqiriqli nidolar har qanday shoirning ham ijodida uchrayvermaydi. Darhaqiqat, Usmon Nosir buyuk iste’dod sohibi, isyonkor shoir. Uning har bir ijod mahsuli kishini o‘ziga rom qiladi. Hayotga bo‘lgan muhabbatini yanada oshiradi. Shoirning she’rlarida mustaqillik nafasi, Vatan ishqi kabi ulug‘vor hislar yaqqol sezilib turadi. “Yosh olima Marg‘uba Mirqosimovaning ta’biricha, Usmon Nosir ijodining mavzui, yaratgan obrazlari g‘oyat xilma-xil. Inson qalbining sirli tuyg‘ularini tasvirlovchi lirik she’rlarida shoir siymosi gavdalansa, tabiatning turfa ranglarini singdirgan she’rlarida nozik qalbli, ehtirosli lirik qahramon kechinmalari tasvirlanadi” - degan fikrlarini “Til va adabiyot” jurnalining 1992-yil 5-6-sonida o‘qishingiz mumkin. Shoir shunchaki ermak yoki havas bilan qo‘liga qalam tutmadi. Unga o‘zining borlig‘ini baxshida etdi, jonini bag‘ishladi.

She’rim, Yana o‘zing yaxshisan,
Boqqa kirsang, gullar sharmanda.
Bir men emas, hayot shaxsisan,
Jonim kabi yashaysan menda.

Go‘zallikning umri hamisha ham uzun, bo‘lavermaydi. Aksar go‘zal shoirlarning umri esa undan-da qisqaroq bo‘lgan. Pushkin, Lermontov, Yesenin, Cho‘lponlar qismati misol. Shoir 1944-yilda o‘z yurtidan ancha olisda Kemerovo turmalarida vafot etdi. Shoir o‘lmadi, toki she’riyat, adabiyot bor ekan, uning otashin misralari yashashda davom etadi. Olovqalb, jo‘shqin shoir Usmon Nosirni adabiyotimiz, Vatanimiz va xalqimiz hech qachon unutmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Yo‘lchiman, manzilim ufqdan nari // Jahon adabiyoti. – 2012. №11, 176-177, 2b.

2. Ibrohim qizi M.Shoir boqiy yashaydi // Diydor. – 2002. 3-b.

3. Matjon S. Chaqmoq umrli shoir // Til vaadabiyot ta’limi. – 1992. – №5-6. 13-14b.

4. Hasanova I. Isyonkor shoir nidosi // Zamondosh. – 2002. 4 b.

O‘ZBEK TILIDAGI SOTSIOLOGIK OMILLAR VA O‘ZGARISHLAR

Valiyeva Nargizaxon Zamir qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ilmiy maqolada sotsiolingvistik omillarning hozirgi o‘zbek tiliga ta’siri har tomonlama o‘rganilgan. Maqolada zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlar ta’sirida o‘zbek tilidagi leksik, grammatik va fonetik o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilining lug‘at tarkibi, jumladan, boshqa tillardan so‘z va iboralarni o‘zlashtirishda jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Tilning zamonaviy til talablariga moslashuvini aks ettiruvchi grammatik xususiyatlar va tuzilmalar ham rivojlanadi.

Kalit so‘zlar: sotsiolingvistika, leksik o‘zgarishlar, grammatik o‘zgarishlar, fonetik o‘zgarishlar, sotsiolingvistik omillar, sotsiomadaniy o‘zgarishlar, til dinamikasi.

Abstarct. The impact of sociolinguistic factors on the current Uzbek language is comprehensively studied in the scientific article. The article analyzes lexical, grammatical and phonetic changes in the Uzbek language under the influence of modern socio-cultural processes. The research shows that serious changes are taking place in the vocabulary of the Uzbek language, including the acquisition of words and phrases from other languages. Grammatical features and structures also develop, reflecting the adaptation of the language to modern language requirements.

Keywords: sociolinguistics, lexical changes, grammatical changes, phonetic changes, sociolinguistic factors, sociocultural changes, language dynamics.

Kirish. Ijtimoiy lingvistika tilshunoslikning bir tarmog‘i sifatida til va jamiyat o‘rtasidagi yaqin aloqalarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Markaziy Osiyodagi asosiy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili sharoitida uning rivojlanishi va o‘zgarishida sotsiolingvistik omillar alohida ahamiyatga ega. O‘tgan o‘n yilliklar davomida o‘zbek jamiyati qator o‘zgarishlarni, jumladan, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy

o‘zgarishlarni boshidan kechirdi. Bu o‘zgarishlar o‘zbek tilining til me’yorlari, tuzilishi va qo‘llanilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistondagi zamonaviy o‘zgarishlar va uning xalqaro munosabatlari nuqtai nazaridan o‘zbek tilidagi sotsiolingvistik omillar va o‘zgarishlarni o‘rganish dolzarb bo‘lib bormoqda. Ushbu tadqiqot o‘zbek tilidagi lingvistik o‘zgarishlarga qanday sotsiolingvistik omillar ta’sir ko‘rsatishi va hozirgi o‘zbek nutqida qanday lingvistik yo‘nalishlar namoyon bo‘layotganini tahlil qilishga qaratilgan.

Maqolaning maqsadi o‘zbek tilidagi o‘zgarishlarga ta’sir etuvchi sotsiolingvistik omillarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat. Biz ijtimoiy holat, ommaviy axborot vositalari, til muhiti va boshqa jihatlar til dinamikasiga qanday ta’sir qilishini tushunishni maqsad qilganmiz. Asosiy tadqiqot maqsadlariga quyidagilar kiradi:

- o‘zbek tilini o‘zgartiruvchi asosiy sotsiolingvistik omillarni aniqlash.
- sotsiolingvistik omillar ta’sirida yuz beradigan o‘ziga xos til o‘zgarishlarini tahlil qilish.
- o‘zbek tilining turli mintaqa va muhitdagi farqlarini o‘rganish.

Sotsiolingvistika til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganuvchi fan sohasidir. U ijtimoiy maqom, yosh, jins, ma’lumot va madaniyat kabi ijtimoiy omillarning til xulq-atvori va til o‘zgarishiga qanday ta’sir qilishiga qaratilgan. Sotsiolingvistlar til ma’lumotlarini tahlil qilish uchun turli xil usullar va vositalardan, jumladan so‘rovlar, intervyular, korpus tadqiqotlari va statistik tahlillardan foydalanadilar. Sotsiolingvistikaning asosiy tushunchalari orasida quyidagilarni ta’kidlash kerak:

Ijtimoiy dialekt: ijtimoiy sinflar yoki professional jamoalar kabi ijtimoiy guruhlar bilan bog‘liq til o‘zgarishlari.

Dala ishi: turli xil ijtimoiy-madaniy muhitda bevosita kuzatish va ma’lumotlar to‘plashni o‘z ichiga olgan tadqiqot usuli.

Ijtimoiy lingvistik so‘rov: ma’lum bir ijtimoiy guruhda til afzalliklari va foydalanish bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash vositasi.

Til dinamikasini tushunishda sotsiolingvistik tadqiqotlar muhim rol o‘ynaydi. Ular tildagi o‘zgarishlarga qanday ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy omillar ta’sir qilishini va bu o‘zgarishlar jamiyatda qanday taqsimlanishini aniqlashga yordam beradi. Sotsiolingvistik omillarni tushunish kelajakdagi til o‘zgarishlari haqida to‘g‘ri bashorat qilish va samarali til siyosatini ishlab chiqish uchun kalit hisoblanadi.

O‘zbek tili kontekstida uning o‘zgarishida sotsiolingvistik omillar katta rol o‘ynaydi. Ijtimoiy maqom, ma’lumot darajasi, dialekt farqlari va boshqa ko‘plab sotsiolingvistik o‘zgaruvchilar o‘zbek nutqida so‘z, ibora va hatto talaffuzni tanlashga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu omillarni tushunish o‘zbek tilining qanday va nima sababdan taraqqiy etishini tushuntirish, tilning madaniy meros boyligini saqlab qolgan holda, istalmagan o‘zgarishlardan ogohlantirish imkonini beradi.

Metodolar. Sotsiolingvistik omillar va o‘zbek tilidagi o‘zgarishlar bo‘yicha tadqiqotimiz maqsadlariga erishish uchun ko‘p qirrali yondashuv, jumladan,

ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilishning turli usullari tanlandi. Birinchi usul O‘zbekistonning turli hududlarida o‘tkazilgan sotsiolingvistik so‘rovlar edi. So‘rovnomalar tilning afzalliklari, ijtimoiy mavqei, ommaviy axborot vositalari, kundalik nutqda turli lingvistik elementlardan foydalanish chastotasi kabi savollarni o‘z ichiga olgan. Bu usul bizga O‘zbekiston fuqarolarining lingvistik xulq-atvori bo‘yicha sifat va miqdoriy ma’lumotlarni olishga yordam berdi.

Bundan tashqari, biz turli manbalardan, jumladan matnlar, nutq yozuvlari va ijtimoiy tarmoqlardan to‘plangan korpus ma’lumotlarini tahlil qildik. Bu usul o‘zbek tilida sodir bo‘layotgan leksik va sintaktik o‘zgarishlar kabi o‘ziga xos lingvistik o‘zgarishlarni aniqlash imkonini berdi.

Bizning namunamiz O‘zbekistonning turli mintaqalaridan, turli yoshdagi va ijtimoiy maqomdagi ishtirokchilarni o‘z ichiga oldi. Biz mamlakatdagi til amaliyoti va ongining xilma-xilligini hisobga olish uchun vakillik namunasini olishga harakat qildik. Tadqiqot shuningdek, o‘smirlardan tortib, keksalargacha bo‘lgan turli yosh guruhlarini qamrab oldi. Bu bizga til o‘zgarishidagi mumkin bo‘lgan avlod farqlarini aniqlash imkonini berdi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Biz birinchi navbatda sotsiolingvistik omillar va til o‘zgarishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun so‘rov ma’lumotlarining statistik tahlilini o‘tkazdik. Keyinchalik ma’lum lingvistik naqsh va tendentsiyalarni aniqlash uchun ushbu ma’lumotlarni korpus ma’lumotlarini tahlil qilish bilan taqqosladik. Ma’lumotlarning talqini sotsiolingvistikaning nazariy asoslarini va sotsiolingvistik omillar bo‘yicha oldingi tadqiqotlarni hisobga olgan holda amalga oshirildi. Bu bosqich o‘zbek tilidagi o‘zgarishlarga qanday ijtimoiy lingvistik omillar ta’sir etishini va bu o‘zgarishlar hozirgi o‘zbek jamiyatida til dinamikasini qanday shakllantirayotganini tushuntirish imkonini berdi.

Natijalar. Ijtimoiy maqom o‘zbek jamiyatida tilga bo‘lgan qiziqish va xulq-atvorni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotimiz shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy mavqe til resurslarini tanlashga kuchli ta’sir qiladi. Masalan, oliy ma’lumotli, ijtimoiy mavqei yuqori bo‘lgan odamlar rasmiy o‘zbek tilini rasmiy vaziyatlarda, ommaviy axborot vositalarida ko‘proq qo‘llashadi. Boshqa tomondan, ijtimoiy mavqening pastligi dialektal shakllarga yoki hatto nutqda rus tilidan foydalanishga olib kelishi mumkin.

Zamonaviy ommaviy axborot vositalari va kommunikatsiyalar o‘zbek tiliga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi bilan o‘zbek tili yangi lingvistik ta’sirlarga duchor bo‘lmoqda. Ushbu raqamli muhitda o‘zbeklarning yosh avlodi o‘zbek tilida faol muloqot qilish bilan birga, boshqa til va madaniyatlardan lingvistik elementlarni ham o‘zlashtirmoqda. Masalan, o‘zbek yoshlari nutqida inglizcha so‘z va iboralar ko‘payganini aniqladik, bu esa ingliz tilidagi ommaviy axborot vositalari va internet-kontentning ommabopligi bilan bog‘liq. Bu jarayon ommaviy axborot vositalari va kommunikatsiyalar tildagi lingvistik o‘zgarishlarni qanday rag‘batlantirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Shaxs joylashgan lisoniy muhit uning lingvistik xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, shahar va qishloq muhiti o‘zbek tilini qo‘llashda o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Qishloqlarda o‘zbek nutqining ko‘proq an’anaviy shakllari va dialektal xususiyatlari saqlanib qolgan bo‘lsa, shaharlarda aralash va ta’sirchan til muhiti mavjud.

Ta’lim - til xulq-atvoriga ta’sir qiluvchi asosiy omillardan biri. Oliy ma’lumotli odamlar ko‘proq ikki tilli bo‘lib, o‘zbek va rus tilini osongina almashtira oladilar. Bu ikki tillilik rus tilidan o‘zbek nutqiga lingvistik elementlarning o‘zlashtirilishiga olib kelishi mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘zbek tilida sotsiolingvistik omillar ta’sirida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar har doim ham bir ma’noli ijobiy yoki salbiy bo‘lavermaydi. Ular til va jamiyat o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirni aks ettirishi mumkin va ularning madaniy meros va til o‘ziga xosligini saqlashga ta’siri va oqibatlarini tushunish uchun chuqurroq tadqiqotlarni talab qilishi mumkin.

Munozara. O‘zbek tilidagi hozirgi zamon o‘zgarishlari qatori lug‘aviy o‘zgarishlar va boshqa tillardan o‘zlashtirilgan o‘zgarishlarni ham o‘z ichiga oladi. Tadqiqotlarimiz natijasida ingliz va rus tillaridagi so‘z va iboralar o‘zbek nutqida, ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar va madaniy ta’sirlar sharoitida tobora keng tarqalganligini aniqladik. Bunday lug‘atni olish har doim ham to‘sqinliksiz o‘tmaydi. Ayrim hollarda yangi so‘z va iboralar o‘zbek tilining fonetik va grammatik tizimiga moslashuvga uchraydi, bu esa o‘ziga xos til shakllarining paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu lug‘aviy o‘zgarishlar jahon madaniyati va muloqotining o‘zbek tiliga ta’sirini aks ettiradi.

O‘zbek tilidagi grammatik o‘zgarishlardan sintaktik tuzilish va grammatik shakllarning qo‘llanishidagi o‘zgarishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Masalan, boshqa tillar ta’sirida yoki o‘zbek tili taraqqiyoti natijasi bo‘lishi mumkin bo‘lgan murakkabroq sintaktik konstruksiyalarning qo‘llanishi ko‘payganini aniqladik. Sintaktik o‘zgarishlarni jamiyatdagi o‘zgarishlar va ijtimoiy munosabatlar tuzilishi bilan ham bog‘lash mumkin. Masalan, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot almashinuvining kuchayishi yangi sintaktik tuzilmalar va lingvistik iboralarni keltirib chiqarishi mumkin.

O‘zbek tili fonetik tizimidagi o‘zgarishlar ham tadqiqotimiz ob’ektiga aylandi. Biz tovushlar, intonatsiya va urg‘u talaffuzidagi o‘zgarishlarga e’tibor qaratdik. Bu o‘zgarishlar boshqa tillarning ta’siri, aholi migratsiyasi yoki hatto o‘zbek shevasi muhitining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Fonetik o‘zgarishlarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega, chunki talaffuz tilni tushunish va muloqotda asosiy rol o‘ynaydi. Bu o‘zgarishlarni anglash o‘zbek tilining zamonaviy til talablariga qanday moslashishi va uning fonetik tizimiga qaysi omillar ko‘proq ta’sir ko‘rsatishini baholash imkonini beradi.

O‘zbekiston ko‘p millatli va ko‘p mintaqali davlat sifatida til amaliyotining xilma-xilligi va til xulq-atvorining mintaqaviy o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Tadqiqotlarimiz o‘zbek tilidagi xatti-harakatlarda mamlakatning turli hududlarida sezilarli farqlarni aniqladi. Qishloq joylarida an’anaviy o‘zbek nutqi

yanada aniqroq sheva xususiyatlari va konservativ lingvistik shakllardan foydalangan holda saqlanib qolgan. Shahar joylarida, ayniqsa, poytaxt Toshkentda zamonaviy ommaviy axborot vositalari va global madaniyatning ta’siri ko‘proq bo‘lsa-da, bu ko‘proq rang-barang va o‘ziga xos til xatti-harakatlariga olib keladi.

Ommaviy axborot vositalari, internet, ta’lim va migratsiya kabi zamonaviy ijtimoiy-lingvistik omillar O‘zbekistonning turli hududlariga turlicha ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, Internet va ommaviy axborot vositalariga kirish imkoniyati yuqori bo‘lgan shaharlarda boshqa tillar va madaniyatlardan lug‘at va iboralarni jadal o‘zlashtirish kuzatilmoqda. Ozchiliklar yashaydigan yoki rus yoki tojik kabi boshqa tillar bilan ikki tillilik mavjud hududlarda bu tillarning o‘zbek nutqiga ta’sirini kuzatish mumkin. Bu omillar mamlakatning turli hududlaridagi rang-barang ijtimoiy lingvistik landshaftlarni shakllantiradi va o‘zbek tilidagi o‘zgarishlarni o‘rganishda mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish muhimligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Biz ushbu maqolada sotsiolingvistik omillar va ularning o‘zbek tilidagi o‘zgarishlarga ta’sirini keng tadqiq qildik. Tadqiqotlarimiz o‘zbek tilining ijtimoiy mavqei, ommaviy axborot vositalari, ta’lim va hududiy xususiyatlar kabi turli sotsiolingvistik omillar ta’sirida jiddiy o‘zgarishlarga duchor bo‘lishini tasdiqlaydi.

Biz lug‘aviy o‘zgarishlar va boshqa tillardan o‘zlashtirishlar ko‘payib borayotganini aniqladik, bu esa jahon madaniyatining o‘zbek tiliga ta’siridan dalolat beradi. Grammatik o‘zgarishlar, sintaktik xususiyatlar ham tilning zamonaviy til talablariga moslashuvini ko‘rsatadi. Fonetik o‘zgarishlar va talaffuzdagi o‘zgarishlar o‘zbek fonetik tizimining rivojlanishidan dalolat beradi.

O‘zbek tilidagi sotsiolingvistik o‘zgarishlarni tushunish tilning o‘zi uchun ham, butun jamiyat uchun ham amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu o‘zgarishlar til siyosati, ta’lim va madaniy jihatlarga ta’sir qilishi mumkin. O‘zbek tilining milliy o‘zlikni shakllantirishdagi o‘rnini hisobga olib, uning rivojlanishi va saqlanishini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotlarimiz kelgusida o‘zbek tili ijtimoiy lingvistikasi sohasidagi tadqiqotlar uchun ko‘plab istiqbollarni ochib beradi. Keyingi tadqiqotlar O‘zbekistondagi mintaqaviy xususiyatlar va dialektlarni batafsilroq tahlil qilishga, shuningdek, til o‘zgarishlarining zamonaviy jamiyatdagi ta’lim va muloqotga ta’sirini o‘rganishga qaratilishi mumkin. Til siyosatini samarali rejalashtirish va mamlakat madaniy merosini asrab-avaylash uchun sotsiolingvistik o‘zgarishlarni kuzatish ham muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Labov, W. (2006). Sociolinguistic patterns (Vol. 4). University of Pennsylvania Press.
2. Trudgill, P. (2010). Sociolinguistics: An introduction to language and society. Penguin UK.
3. Milroy, L. (2001). Sociolinguistic variation and change. Wiley-Blackwell.

4. Holmes, J., & Wilson, N. C. (2017). An Introduction to Sociolinguistics. Routledge.
5. Eckert, P. (2000). Linguistic Variation as Social Practice: The Linguistic Construction of Identity in Belten High. Wiley-Blackwell.
6. Preston, D. R. (1989). Perceptual Dialectology: Nonlinguists' views of AAVE. Linguistics.
7. Eckert, P. (2012). Three waves of variation study: The emergence of meaning in the study of sociolinguistic variation. Annual Review of Anthropology
8. Wardhaugh, R. (2006). An Introduction to Sociolinguistics. Wiley-Blackwell.

O‘ZBEK TILIGA E’TIBOR HAR BIR O‘ZBEK UCHUNDIR

Ilmiy rahbar: Ahmedova Hikmatxon
Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi,
Ahliddinova Kamola
Qo‘qon DPI talabasi

Til-shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma’qul bo‘lib chiqsa - tilning ofatidir. (Alisher Navoiy)

Ona tiliga e’tibor deganda, eng avvalo ona tilining me’yorlarini, qoidalarini mukammal bilish, unga rioya qilish tushuniladi. Ona tiliga bo‘lgan muhabbat bu - onamizga bo‘lgan muhabbatdir. Shu o‘rinda aytish joizki, ona tili bu bir davlatning asl ko‘zgusi hisoblanadi. Davlatda tilga e’tibor qanchalik ekanligini xalqning tilga bo‘lgan muhabbatidan bilsa bo‘ladi. Lekin oxirgi vaqtlarda davlatimizda ona tilimizga bo‘lgan e’tibor ancha achinarli holatda, chunki shahar ko‘chalarida, turli xil restoranlar va do‘konlarni nomlanishidagi xatoliklar, xorijiy tillarda yozilgan g‘aliz jumlalar, peshlavhalardagi tushunarsiz holatlar bundan tashqari xalq so‘zlashuvidagi so‘zlarni sal kam 50% chet tili so‘zlaridan iborat bo‘lgani yaqqol namoyon bo‘la oladi.

Bunday dolzarb muammoli masalalarni bartaraf etish uchun Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev boshchiligida yangidan yangi qonunlar ishlab chiqilmoqda, ijro etilmoqda.

Respublikamizda jami 10600 dan ziyod tashqi reklamalar osadigan qurilmalar bor. Shulardan 7134 tasi poytaxtimizda joylashgan bo‘lib, Toshkent shahridagi tashqi reklamalar konstruksiyalarining 45 foizida kamchiliklar aniqlangan. Buning natijasida ona tilimizga bo‘lgan e’tiborning kamayib borayotganini anglashimiz mumkin.

Ona tilimizni tarixiga nazar tashlasak:

Bizning hozirgi sof o‘zbek adabiy tilimiz avvallari turkiy til deyilgan. O‘zbek adabiy tili milloddan oldingi davrlardan to X asrlargacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrdagi til fanda qadimgi turkiy til deb yuritiladi. Qadimgi xalq og‘zaki ijod namunalari, O‘rxun-Enasoy yodgorliklari (Vl-Vll asrlar) shu tilda yaratilgan. Xl-XlV asrlarda amalda bo‘lgan til eski turkiy til deb ataladi. Mahmud Qoshg‘ariyning "Devon-u lug‘atit-turk" (Turk tillari devoni), Yusuf Xos Hojibning

"Qutadg‘u bilig" (Saodatga yo‘llovchi bilim) kabi asarlar shu tilda yaratilgan. Qadimgi turkiy til kelib chiqishi va rivojlanishi jihatidan oltoy va xun tili bilan bog‘langan. Bu davr tili haqida B.Vladimirsov quyidagi fikrlarni bayon qiladi: "mo‘g‘ul tili turk va tungus tillari bilan birga o‘zlarining bir umumiy ajdodiga ega bo‘lganki, uni shartli ravishda oltoy tili deb atash mumkin”. Oltoy tilining rivojlanish jarayonida tashkil topgan mo‘g‘ul, turk va tungus tillari ma’lum mutaxassislarning fikricha, qadimgi davrlardan milodiy V asrgacha bo‘lgan muddat "Eng qadimgi turkiy tili" deb yuritiladi. Adabiyotlarda bu davr oltoy va xun bosqichlariga ajratiladi.

Oltoy davrining xarakteri bu davrda yashagan xalqlar va ularning tili haqida aniq ma’lumotlar beruvchi tarixiy yodgorliklar yo‘q. Bu davr tilining ayrim xususiyatlari o‘lik tillarning eng qadimgi belgilari bilan hozirgi jonli tillarning tarixiy -qiyosiy usullari asosida o‘rganish orqali taxminiy ravishda aniqlanishi mumkin. O‘zbek tilining paydo bo‘lishi va rivojlanishi tarixi uning ona tilida so‘zlashuvchilarning tarixi bilan chambarchas bog‘liq.

O‘zbek tilining rivojlanish tarixini uch bosqichga bo‘lish mumkin: qadimgi turkiy, qadimgi o‘zbek, zamonaviy o‘zbek.

Qadimgi turkiy tili:

Ushbu bosqich V-Xl asrlarga tegishli. Turklar Sirdaryo, Amudaryo va Zarafshon qirg‘oqlari bo‘ylab hind-eron qabilalari aholisini asta-sekin chiqarib yuborishgan. Aloqa vositasi qadimgi turkiy til bo‘lib uning asosida keyinchalik ko‘plab Osiyo tillari paydo bo‘lgan. Bugungi kunda qadimgi turkiy yozuvning faqat o‘sha davrga tegishli madaniy yodgorliklarda tasvirlangan qismlari mavjud.

Qadimgi o‘zbek tili:

Ikkinchi bosqich Xl-XlX asrlarga to‘g‘ri keladi. vaqt ichida o‘zbek tili ko‘plab qo‘shni tillar ta’sirida rivojlandi. Tilning shakllanishiga birlashgan va rivojlangan adabiy tilni yaratgan shoir Alisher Navoiy ulkan hissa qo‘shdi. Bu shaklda u 19-asrning oxirigacha o‘zgarishsiz ishlatilgan.

Hozirgi o‘zbek tili:

XX asrda zamonaviy o‘zbek tilining shakllanishi boshlandi. Butun o‘zbek aholisi tomonidan tan olingan. Farg‘ona lahjasi uning asosini tashkil etadi. Butun rivojlanish tarixi davomida o‘zbek tilida uch xil yozuv mavjud edi. O‘tgan asrning 20-yillari oxirigacha o‘zbeklarning etnik guruhi arab alifbosiga asoslangan edi. Sovet hokimyati paydo bo‘lgandan so‘ng yozuv bir qator islohotlarga duch keldi. So‘ng 1938-yilgacha lotin alifbosi ishlatilgan keyin esa krill alifbosiga o‘tilgan. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng 1993-yilda yana lotin alifbosiga qaytarildi. Bugungi kunda o‘zbeklar arab, lotin va krill yozuvidagi harflarni parallel ravishda qo‘llamoqdala. Katta yoshdagi insonlar krill grafikasini afzal ko‘radi, chet elda yashaydigan o‘zbeklar esa arab harflariga o‘rganishgan. Yosh va or’ta yoshlilar lotin yozuvidan foydalanadilar. Shuning uchun o‘quvchilar Sovet davrida nashr etilgan kitoblarni o‘qishda juda qiyinladilar.

O‘zbek tili fors tilidan olingan so‘zlarga ham boy. XX asr lug‘atchiligi rus tilidagi so‘zlar bilan jadal ravishda to‘ldirilgan. Davlat dasturiga muvofiq o‘zbek

tilini boshqa tillardan olingan so‘zlardan tozalash boshlangan. Bularning barchasi shubhasiz, o‘zbek tilini va tarjimalarini o‘rganishda ba’zi bir qiyinchiliklarga olib keladi, ammo uni o‘ziga xos va yana qiziqarli qiladi. Hozirgi kunda olingan ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 24 millionga yaqin, Avg‘onistonda 3million, Tojikistonda taxminan 1 millionga, Qozog‘istonda 500 ming, Turkmanistonda 350 ming, Rossiyada 300 ming o‘zbek tilida so‘zlashar ekan.

Yozuvlar:

Tarixda o‘zbek xalqi tilini yozish uchun ko‘p alifbolardan qo‘llanilgan. 1928-yilgacha savodli kishilar o‘zbek tilini arab yozuvida yozishgan. 1928-yildan 1940-yilgacha o‘zbek tilini lotin yozuvida yozilgan. 1940-yil Losif Stalinning buyrug‘i bilan majburan krill yozuviga o‘tilgan. 1993-yilda rasman O‘zbekistonda lotin yozuviga o‘tilgan.

O‘zbekistonda 1929-yilgacha arab yozuvida yozilgan. 1929-yildan lotin yozuviga o‘tilgan va 1940-yilgacha bu yozuvdan foydalanilgan. 1940-yildan krill yozuviga o‘tilgan. Shu yildan boshlab kirll yozuvi asosidagi alifboda yozilgan.

1989-yilning 21-oktabr sanasida o‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining davlat tili sifatida qabul qilindi va shu kundan boshlab har yili 21-oktabr o‘zbek tili bayrami sifatida nishollanib kelinmoqda. Hozirgi kunda esa o‘zbek tili uchun lotin grafikasiga asoslangan o‘zbek alifbosi joriy etilgan.

O‘ZBEK TILINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Ganiyeva Malikaxon Sadikjanovna
FarDU o‘qituvchisi

Annotatsiya. ushbu ilmiy maqola o‘zbek tilining O‘zbekistonning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ta’lim taraqqiyotida tutgan o‘rni turli jihatlari tahlil qilingan. Ta’lim tizimida o‘zbek tiliga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatdagi aksariyat maktab va universitetlarda ta’lim o‘zbek tili hisoblanadi. Maqolada O‘zbekistonda jamiyatning turli sohalarda rivojlanishida o‘zbek tilining ahamiyati ta’kidlangan.

Abstract. this scientific article analyzes various aspects of the role of the Uzbek language in the social, political, economic and educational development of Uzbekistan. Special attention is paid to the Uzbek language in the educational system. Uzbek is the language of instruction in most schools and universities in the country. The article emphasizes the importance of the Uzbek language in the development of society in various fields in Uzbekistan.

Kalit so‘zlar: madaniy hodisa, dialektik aloqador, til birliklari, etnik guruhlar agglyutinativ til, grammatik elementlar.

Keywords : cultural phenomenon, dialectical relation, language units, ethnic groups, agglutinative language, grammatical elements.

O‘zbek tili o‘zbek jamiyati taraqqiyotida muhim va ko‘p qirrali o‘rin tutadi. Bu nafaqat O‘zbekistonning rasmiy tillaridan biri, balki o‘zbek xalqining madaniy va o‘ziga xoslik tarbiyasining o‘zagi hisoblanadi. O‘zbek tili xalqning o‘z tarixi

bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan boy tarixga ega. Ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jadal o‘zgarishlar ro‘y berayotgan zamonaviy jamiyat sharoitida o‘zbek tilining o‘rni ayniqsa dolzarb va ahamiyatli bo‘lib bormoqda. Til - madaniy hodisa, har bir davlatning merosi uning tiliga bog‘liq. Ma’lumki, zamonaviy tillar xalqaro muloqot tilidir; ular hayotimizning barcha jabhalariga kirib boradi va til siyosiy va iqtisodiy masalalarni hal qilishni osonlashtiradi, desak xato bo‘lmaydi. Har bir davlat o‘z tilini saqlab qolishga harakat qilishi kerak, chunki bu til uni noyob qiladi va uni boshqa mamlakatlardan ajratib turadi. Ko‘p tilli dunyoni saqlab qolish kerak, chunki biz o‘rgangan har bir til bilan biz yangi bilimlarga ega bo‘lamiz. Millat, davlat va jamiyat taraqqiyotida o‘z milliy tilini bilish juda muhim, zarur va dolzarbdir. Zero, bu tushunchalar dialektik aloqador va o‘zaro bog‘liq tushunchalardir. Xalq, davlat va jamiyat rivojlanadi, uning tili va tilshunosligi rivojlanadi. Davlat va jamiyatdagi o‘zgarishlar, eng avvalo, tilda, xususan, uning lug‘at boyligi – lug‘at boyligida namoyon bo‘ladi. Til ijtimoiy xususiyatga ega ekan, ijtimoiy hayotdagi taraqqiyot til taraqqiyotini belgilaydi. Buning dalili bugun dunyoda – jamiyatda tinchlik va farovonlik hukm surayotgan, tili va tilshunosligi rivojlanayotgan har qanday davlatda, aksincha, til va tilshunoslik rivoji haqida fikr yuritib bo‘lmaydi. Qolaversa, til, eng avvalo, millatni birlashtiruvchi vosita, millat ko‘zgusidir. Zero, tilimiz qiyofamizni, ma’naviyatimizni aks ettiradi; til millat vakilining ma’naviyatini ko‘rsatadi. Mustaqillik davrining eng katta imkoniyat va imtiyozlaridan biri shundaki, o‘zbek tili o‘z zaminida obro‘ va e’tibor qozonib, davlat tili maqomiga ega bo‘ldi. Bugungi kunda o‘zbek tili milliy mafkuramizning tarkibiy qismlaridan biri, mustaqilligimizning bosh timsollaridan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbek tilining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati:

O‘zbek tili O‘zbekiston madaniy merosining ajralmas qismidir. U adabiyot, she’riyat, musiqa va san’atning boshqa sohalarida xalq an’analari va qadriyatlarini asrab-avaylash va yetkazishda qo‘llaniladi. Adabiy til bu tilning eng maqbul va sof variantidir. Bu odatda aholining ko‘pchiligi gapiradigan til emas, chunki odamlar doimo uning turli shakllarini kashf etadilar, lekin standart tilning afzalligi shundaki, u hujjatlashtiradi, boshqacha qilib aytganda, dialekt bir avlod tomonidan qo‘llanilganda va uni unutib qo‘yganida. boshqasi, standart til omon qoladi. Dialektlar mahalliy aholiga xos bo‘lib, yozma shaklda saqlanib qolishi o‘rniga og‘zaki tarzda uzatiladi.

O‘zbek tili O‘zbekistonda ta’lim va fanning rasmiy tili hisoblanadi. Ona tilida ta’lim bilimlarni samarali o‘zlashtirishga, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi madaniy va tarixiy merosni saqlash. Bugun yer yuzida olti mingga yaqin til va shevalar mavjud bo‘lsa-da, ulardan yuzga yaqinigina davlat tili maqomiga ega.

O‘zbek tili O‘zbekistondagi turli etnik guruhlar uchun muloqot va ijtimoiy integratsiya vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Milliy birdamlikni shakllantirishga, millatlararo munosabatlarni mustahkamlashga hissa qo‘shadi. Biz o‘zbek tili ulardan biri ekanidan xursand va faxrlanadilar. 1989-yilning 21-oktabrida, avvalgi

tuzum hali mavjud bo‘lgan davrda “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi o‘zligimizni anglashda katta jasorat bo‘ldi. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi huquqiy maqomi aniq belgilab berildi. Shu tariqa o‘zbek tili mustaqil davlatimizning qonun bilan himoyalangan, bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turgan muqaddas ramzlaridan biriga aylandi.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga 30 yil to‘ldi. O‘zbek tilshunosligi fani XXI asr o‘zgarishlarini yoritish va tahlil qilish talabidan kelib chiqib, doimo o‘zgarib, rivojlanib borishi kerak edi. Zero, barcha davrlarda adabiy tilning shakllanish, rivojlanish va takomillashuv yo‘llari, unda amal qilayotgan qonuniyatlari, sabab va imkoniyatlarini tahlil qilish, tadqiq etish o‘zbek tilshunosligining asosiy vazifasi bo‘lgan. Jahon xalqlarining, ayniqsa, XX asr tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularning ko‘pchiligi o‘z milliy mustaqilligi uchun kurashni o‘z ona tiliga davlat tili maqomi berish kurashidan boshlaganligi ajablanarli. Xususan, Angliya, Afrikada Fransiya, Amerikada Ispaniya, Hindiston, Pokiston, Bangladesh kabi mustamlaka davlatlarida mustaqillik uchun dastlabki kurashlar ona tiliga davlat tili maqomi berish kurashidan boshlandi. Lekin, afsuski, ularning hammasi ham hali o‘z maqsadiga erishgani yo‘q. Hozir ham ingliz, ispan, frantsuz va portugal tillari ayrim mamlakatlarda rasmiy til hisoblanadi. O‘zbek tili oddiy til emas, u agglyutinativ tillardan biri bo‘lib, turli xil odob shakllariga ega. Bu tilda bor boshqa tillarda uchramaydigan grammatik elementlar. Shuning uchun bu tilni o‘rganuvchilar turli qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Chunki uni o‘zlashtirish jarayonida ular nutqning mutlaqo yangi qirralariga duch keladilar. Biroq, bu ularni xafa qilmasligi kerak, ular istalgan tilni o‘rganishi mumkin, o‘zbek tilini o‘rganish esa yangi qiziqarli madaniyat bilan tanishish va boy so‘z boyligini o‘rganish demakdir.

Keyingi yillarda O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalari kengaymoqda. Yurtimizda sarmoya kiritish uchun yaratilgan shart-sharoitlar, ishbilarmonlar, bankirlar va jahon sayyohlari uchun eng qiziqarli mamlakatlardan biriga aylanib bormoqda.

O‘zbek tili dunyo xalqlari orasida keng tarqalishi mumkin. Yaponiya, Xitoy, Koreya yoshlari o‘zbek tiliga qiziqish va salohiyati yuqori, sof o‘zbek tilida so‘zlashish imkoniyatiga ega. AQSH va Yevropa yoshlari, slavyan xalqlari vakillari o‘zbek tiliga xos bo‘lgan o‘ziga xos tovushlarni to‘liq va to‘g‘ri talaffuz qila olmasalar ham, ularda ham o‘zbek tilini o‘rganish zarurati tug‘iladi. Ularning ko‘pchiligi O‘zbekistonga kelib o‘qishi mumkin, ammo buning uchun O‘zbekistonda oliy ta’limni rivojlantirishimiz kerak. Shuningdek, AQSh, Koreya, Xitoy, Yaponiya, Turkiya, Ukraina, Rossiya, Ozarbayjon kabi o‘ndan ortiq xorijiy universitetlarda o‘zbek tili “Sharq tillari” kafedrasi fanlari orasida fan sifatida o‘qitiladi. O‘zbek olimlari mazkur ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qilib, o‘zbek tilida darslik va o‘quv qo‘llanmalar yozishni yo‘lga qo‘yishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.G‘afurova N.T.“Oliy ta’lim taraqqiyotida tilning o‘rni” NJ. "Arxivchi" № 7

2. Murtazaeva R.X. O‘zbekiston – millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik zamini // O‘zbekiston – tinchlik va totuvlik mamlakati: Sat. konferentsiya materiallari. Toshkent: O‘zbekiston, 2017. 343-bet.

3. Inoyatova D.M. “Zamonaviy O‘zbekistonda til siyosati” https://cyberleninka.ru/article/n/yazykovaya-politika-v-sovremennom- uzbekistane

4. https://abdatravel.uz/ru/novosti/

MADANIYATLARARO MULOQOT VA O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI

Maksumova Umida Sadikjanovna
FarDU o‘qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda rivojlanib borayotgan chet tillarini o‘rganish va boshqa madaniyat vakillari bilan bo‘lgan muloqot yoritilgan. Shu bilan bir qatorda o‘zbek tili taraqqiyotining yangi davri va ijtimoiy muammolari haqida ma’lumot berib o‘tilgan.

Abstract. This article describes the current development of learning foreign languages and communication with other cultures. In addition, information was given about the new era of Uzbek language development and social problems.

Kalit so‘zlar: jamiyat, kommunikatsiya, chet tili, globallashuv, davlat tili, sotsiolingvistika, milliy til.

Key words: society, communication, foreign language, globalization, state language, sociolinguistics, national language.

Muloqot – bu ikki yoki undan ortiq tilda so‘zlashuvchilarning o‘zaro ma’lumotni uzatish, olish va almashish maqsadida, ya’ni o‘rganish uchun zarur bo‘lgan muloqotga ta’sir ko‘rsatish jarayoni deb hisoblanadi. Madaniyatlararo muloqot” tushunchasi birinchi marta 1954 yilda T. Treyger va E. Xola “Madaniyat va muloqot. Tahlil modeli” ishida shakillantirilgan. Madaniyatlararomuloqot -bu turli madaniyatlarga tegishli shaxs va guruhlar o‘rtasidagi turli hil munosabatlar va muloqotlar shakllarning majmui. Madaniyatlararo muloqot mikro va makroviy bo‘lishi mumkin. Xitoy tilshunosi Li Tyanchenning fikricha, madaniyatlararo muloqot –bu madaniy kelib chiqishi bir xil bo‘lgan odamlar va guruhlar o‘rtasida muloqot qilish bilan bog‘liq juda keng tushuncha. Ma’lumotni yuboruvchi va qabul qiluvchilar turli millat va mamlakatlardan yoki bir madaniyat va bir sub-madaniyatga va boshqa sub-madaniyat tegishli odamlar bo‘lishi mumkin. Til madaniyatning tashuvchi vositasidir. Asarni tarjima qilish jarayonida bir tildan boshqa tilga madaniy ma’lumotlarni tarjima qilish, madaniy tarjima tizimiga kiradi. Ushbu jarayonda madaniy farqlarning mavjudligi ko‘plab madaniyatlararo muloqot muammolarini vujudga keltirdi. Ushbu muammolar asosan ikkta aspektlarni o‘z ichiga oladi va bular: tushunish va ifodalashdir**.**

Tushunish nuqtai nazaridan, asarlar yozilgan tilda madaniy ma’lumotlar keng qamrovli bo‘ladi. Individual tarjimon sifatida, uning bilimlari ko‘pincha cheklangan bo‘lishi mumkin, shuning uchun asl matnda keltirilgan madaniy

ma’lumotlarning ba’zilarini tushunmaslik tabiiy jarayon hisoblanadi. Madaniy farqlar va shuningdek turli urf-odatlar ham odamlarni noto‘g ‘ri tushunchaga olib kelishi mumkin. Agar ushbu farqlarni to‘g‘ri tushunilmasa, va tegishli ma’lumotnomalar va ekspertlarga murojaat qilnmasa ayan shunday hollarda noto‘g‘ri tarjimalar va kommunikatsion to‘siqlar paydo bo‘ladi. Linvistik odatlarga ko‘ra Xitoy va O‘zbek tillari o‘rtasida koplab farqlar mavjud. Bir xil tarjimaga (ma’no) ega so‘zlar, turlitillarda har xil konnotatsiyada kelishi mumkin. Misol uchun, “ajdaho” O‘zbek mifologiyasidagi dahshatli hayvon timsolida keltirilishini ko‘rishimiz mumkin. U yovuzlik va buzg‘unchilik ramzi hisoblanadi. Shunday qilib, O‘zbek afsonalarda qahramonlar va ajdaholar o‘rtasida kurashlar ko‘p uchraydi. Ammo Xitoyda vaziyat boshqacha. Qadimgi Xitoyda faqatgina imperatorlar ajdaho tasviri tushirilgan kiyim kiyishlari mumkin bo‘lgan. Ajdaho sharaf va huquqni anglatadi. Xitoyliklar ko‘pincha “Biz ajdaho avlodimiz” deyishadi.“Narsist” so‘zi nafaqat nargiz gullariga, balki bir toifadagi odamlarga ham tegishli. Narcissus -bu faqat oziga e’tibor qaratadigan va faqatgina o‘zini sevadigan odam. Boshqa odamlarni predmet sifatida qabul qiluvchi va muloqot jarayonida ularniqadirsizlantirish orqali o‘zini mavqeini oshiruvchi shaxsga nisbattan qo‘llaniladi. Xitoy tilida esa bu so‘zlar bir xil assotsiatsiyani hosil qilmaydi. Bundan tashqari, Xitoy tilida ham o‘zbeklar tushunaolmaydigan ko‘plab o‘ziga xos so‘zlar bor. Masalan, Xitoy tilida “skalp yer” ko‘pincha mehnatkash, tirishqoq va xalqga sadoqat bilan xizmat qiluvchi inson; “quduq tubidagi qurbaqa”, yani ko‘rish qobiliyati past inson” tasvirlanadi; qarag‘ay daraxti” esa uzoq umr ko‘rishni anglatadi.O‘zbek tilida yuqorida sanab o‘tilgan atamalar ushbu alohida ma’nolarga ega emas. Bundan tashqari, O‘zbek va Xitoy so‘zlari, maqollari va alyuziyalari boy madaniy rangga ega bo‘lib, turli mamlakatlar etnik guruhlarining madaniy tafovutlarini aks ettiradi. Masalan, dasturxon yoyish va choy ichish o‘zbeklar uchun mehmondo‘stlik ramzlari hisoblanadi. Tarixiy va madaniy sabablarga ko‘ra ikki xalq o‘rtasidagi salomlashish usullaridaham farqlar mavjud. Misol uchun , xitoyliklar tez-tez salomlashadilar: “«Nín chīle ma?” (Siz tushlik qildingizmi?) Lekin bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinmaydi. Chunki Xitoy tilida bu gap oddiy salomlashish ma’nosini anglatadi. Xuddi o‘zbek tilidagi “Salom” so‘zi boshqa ma’noga ega bo‘lmagan “salom” so‘zidek.

Lekin o‘zbek tilida bu gap quydagicha ma’noga ega: “Sizni tushlikka taklif qila olamanmi?” O‘zbeklar quydagicha javob berishlari mumkin: “Yo‘q, men hali tushlik qilmayman”. Demak, meni kechki ovqatga taklif qilishingiz mumkin. Lekin xitoyliklar aslida buni nazarda tutishmaydi, bu shunchaki xushmuomilalik, shuning uchun bu uchrashuv baxtsizlik bilan yakunlanishi mumkin, chunki savol to‘g‘ri talqin qilinmagan. Tildan tashqari, odamlaro‘z fikrlarini ifoda etish va ma’lumotni uzatish uchun ko‘z, imo-ishora, kiyim, vaqt va makon haqidagi tasavvurlar kabi boshqa aloqa vositalaridan foydalanadilar. Muloqotning ta’sirini o‘zgartiradigan bu omillar og‘zaki bo‘lmagan muloqot deb ataladi [4]. Kundalik muloqotda odamlar ko‘proq noverbal (so‘zsiz) muloqotga

tayanadi: statistik ma’lumotlarga ko‘ra, inson ma’lumotlarining 70 foizdan ortig‘ini so‘zsiz muloqot orqali oladi. Ko‘rinib turibdiki, og‘zaki bo‘lmagan muloqot insonlar o‘rtasidagi muloqotda juda muhim rol o‘ynaydi.O‘zbek va Ingliz madaniyati o‘rtasida tana tilidagi farq juda katta. Masalan, O‘zbek madaniyatida suhbat paytida o‘zidan katta odamlarning ko‘zlarga tik qarash odobsizlik deb hisoblanadi, Inglizlarda esa, siz gapirayotganingizda yoki tinglayotganingizda, ko‘zlarga qarab suhbatdoshingizga munosabatingizni ko‘rsatishingiz kerak bu suhbatdoshingizga bo‘lgan qiziqish va hurmatni bildiradi.Garchi ingliz va o‘zbek madaniyatlarida ba’zi tana tillari keskin farq qilsa-da, muloqotda ular bir xil ma’noda ifodalanadi. Misol uchun, ingliz filmida aktyor erkaklar bilan uchrashganda, shlyapaga qo‘l tekkazib qo‘yadigan detal bor. Bu qadimgi ziyolilar orasida keng tarqalgan salomlashish usuli. O‘zbek madaniyatida, erkaklar o‘rtasida salomlashish uchun ko‘ksiga qo‘lini qo‘yish orqali namoyon bo‘ladigan tana tili hisoblanadi. Bu ikki harakat bir-biridan juda farq qiladi, lekin ular muloqotda bir xil ma’noga ega. Bundan tashqari, o‘zbeklar to‘ygani uchun qo‘llarini bo‘yniga yoki ko‘ksiga qoyishsa, xitoylar esa qorniga urib qo‘yish orqali, to‘yganini va endi kuchlari qolmaganini bildirishadi. Ko‘pincha ifodaning to‘sqinligi madaniy bo‘shliqlar tufayli teng kelmaydigan so‘zlarni tog‘ri ifodalash qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Masalan, “ziyoli” so‘zi ko‘pincha xitoy tiliga“Zhīshì fēnzǐ” deb tarjima qilinadi.Aslida “ziyoli” va “Zhīshì fēnzǐ” bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi. Xitoy tilida “Zhīshì fēnzǐ” degan atama ko‘plab odamlarga taalluqlidir.“Zhīshì fēnzǐ”-bu o‘rta ma’lumotli va aqliy mehnat bilan shug‘ullanadigan har qanday kishi uchun qollanadigan iboradir. Bu tushuncha axloqiy ahamiyatga ega emas. Biroq, O‘zbek madaniyatida “intellectual” ma’nosi nafaqat akademiklarni, balki o‘qish yoki akademiyaga asoslangan olimlarni ham o‘z ichiga oladi, balki ma’naviyatni ham o‘z ichiga oladi, ya’ni ijtimoiy javobgarlik va olijanob axloqiy fazilatlarni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun, agar ziyolilar “bilim molekuli” deb tarjima qilsalar, bu madaniy ma’lumotni yo‘qotishga olib keladi.[350]

Xulosa sifatida aytish mumkinki o‘zbek adabiy tili ijtimoiy vazifasini to‘la bajarishi uchun xalqimizning barcha vakilida milliy ruhni uyg‘otish, shu asosda “ona tilimizning qo‘llanish doirasini yanada kengaytirish, ayniqsa, uning ishlab chiqarish, fundamental fan, tibbiyot, harbiy ish, yurisprudentsiya, axborot texnologiyalari va boshqa yo‘nalishlarda faol istifoda etilishini ta’minlash” zarur. Bu davlat va hukumat rahbarlari, tilshunos, adabiyotshunos va boshqa soha olimlari, shoir, yozuvchi, til muallimi oldida turgan dolzarb vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. VasilikM. A. Osnovy teorii kommunikatsii M.: Gardariki, 2003.

2. Tsyu Shi. Problemy peredachi stilisticheskikh osobennostey khudozhestvennykh tekstov pri perevode s russkogo na kitayskiy yazyk.MGU.2017

[350] https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/2369/2166

3. Grishayeva, L. I., Tsurikova, L. V. Vvedeniye v teoriyu mezhkul’turnoy kommunikatsii. Uchebnoye posobiye. 2-ye izd., dop. –Voronezh: Voronezhskiy gosudarstvennyy universitet, 2004. –424 s.

4. Komissarov, V. N. Obshchaya teoriya perevoda. Problemy perevodovedenii v osveshchenii zarubezhnykh uchenykh. Uchebnoye posobiye./V.N. Komissarov. –M.: CheRo, 1999. –134 s.

O‘ZBEK TILINING IJTIMOIY MUNOSABATLARDA TUTGAN O‘RNI

Xudoyorova Nigora Nuriddinovna
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada "O‘zbek tilining ijtimoiy munosabatlarda tutgan o‘rni"mavzusida fikr boradi. O‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili sifatida ijtimoiy munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etadi. U mamlakatning siyosiy-iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy hayotida faol qo‘llanilib, milliy o‘zlikni anglash, madaniy merosni saqlash va rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbek tilining ijtimoiy munosabatlardagi o‘rni, shuningdek, uning xalqaro muloqotlar, ta’lim, ilm-fan va ommaviy axborot vositalaridagi ahamiyati bilan ham belgilanadi. Mazkur mavzuda o‘zbek tilining milliy birligini mustahkamlashdagi o‘rni, uning Davlat tili sifatida joriy etilishi hamda ijtimoiy hayotda keng qo‘llanilishi xususida so‘z yuritiladi. Shu bilan birga, o‘zbek tilini rivojlantirish va uni xalqaro miqyosda ommalashtirish zaruriyati ham ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbek tili, ijtimoiy munosabatlar, davlat tili, madaniy meros, milliy o‘zlik, xalqaro muloqot, ta’lim, ilm-fan, ommaviy axborot vositalari, milliy birlik.

Abstract. This article discusses the topic "The role of the Uzbek language in social relations". The Uzbek language, as the state language of the Republic of Uzbekistan, is of great importance in social relations. It is actively used in the political, economic, cultural and social life of the country and plays a decisive role in the realization of national identity, preservation and development of cultural heritage. The place of the Uzbek language in social relations is also determined by its importance in international communication, education, science and mass media. In this topic, the role of the Uzbek language in strengthening national unity, its introduction as a state language, and its wide use in social life are discussed. At the same time, the need to develop the Uzbek language and popularize it at the international level is also indicated.

Key words: Uzbek language, social relations, state language, cultural heritage, national identity, international communication, education, science, mass media, national unity.

O‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili bo‘lib, millatning o‘zligini ifodalashda va uning madaniy merosini saqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu til nafaqat davlat boshqaruvida va qonuniy munosabatlarda, balki

kundalik hayotda, ijtimoiy munosabatlarda, ta’lim, ilm-fan, madaniyat va ommaviy axborot vositalarida ham keng foydalaniladi. Ijtimoiy munosabatlar tizimi doirasida o‘zbek tilining tutgan o‘rni bir necha muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi, xususan uning milliy birlik, madaniy taraqqiyot, xalqaro maydonda o‘zini namoyon qilish kabi jihatlar bilan bog‘liqligi katta ahamiyatga ega.

O‘zbek tili O‘zbekiston milliy o‘zligining muhim qismi bo‘lib, xalqning tarixiy merosi va an’analarini ifoda etadi. Til jamiyatning birlashuvi va birlikni mustahkamlashida asosiy vosita hisoblanadi. Milliy birlikning asosi bo‘lgan til, xalqni yagona davlat siyosati va madaniy tamoyillar atrofida birlashtiradi. O‘zbekistonda Davlat tili sifatida o‘zbek tilining joriy etilishi 1989-yilda amalga oshirilgan bo‘lib, bu tilga bo‘lgan ijtimoiy va siyosiy e’tiborning kuchayishiga olib keldi. Shundan beri o‘zbek tili O‘zbekistonning siyosiy va huquqiy hayotida, davlat idoralarida, ta’limda va boshqa ijtimoiy sohalarda ustuvorlik qilmoqda.

O‘zbek tilining ijtimoiy munosabatlarda tutgan o‘rni, uning madaniy merosni saqlashdagi va rivojlantirishdagi roli bilan bog‘liqdir. Til orqali milliy adabiyot, tarix, xalq og‘zaki ijodiyoti va san’at asarlari avloddan-avlodga yetkaziladi. Bu jarayonda til nafaqat madaniy va ilmiy merosni asrash, balki uni rivojlantirish va ommalashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tilida ijod qilgan mutafakkirlar va yozuvchilar, tilni nafaqat madaniy merosni saqlash, balki uni kelajak avlodlarga o‘zgacha ma’no va ruh bilan yetkazishda ishlatishgan.

O‘zbek tilining ijtimoiy munosabatlardagi muhim tomonlaridan biri — ta’lim va ilm-fandagi ahamiyatidir. O‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasida ta’limning asosiy vositasi hisoblanadi. Maktablarda va oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tili o‘quv jarayonlarining asosiy qismi bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, ilmiy izlanishlar, ilmiy maqolalar va kitoblar o‘zbek tilida yaratilmoqda, bu esa tilning ilmiy sohadagi rivojiga katta hissa qo‘shadi. O‘zbek tili ilm-fanda xalqaro miqyosda keng tarqalgan bo‘lmasa ham, milliy ilmiy tadqiqotlar va nashrlarda faol qo‘llanilib kelmoqda. Ommaviy axborot vositalari orqali o‘zbek tili xalqning kundalik hayotiga chuqur singib borgan. O‘zbekiston televideniyesi, radio va matbuot asosan o‘zbek tilida efirga uzatiladi va chop etiladi. Ommaviy axborot vositalari orqali milliy va xalqaro yangiliklar, siyosiy voqealar, madaniy tadbirlar o‘zbek tilida keng ommaga taqdim etiladi. Bu esa tilning jamiyatdagi roli va ahamiyatini oshiradi. Shu bilan birga, o‘zbek tilining internetdagi mavjudligi ham yil sayin ortib bormoqda. Bloglar, veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek tilida yozish va gaplashish ko‘payib, bu tilning zamonaviy kommunikatsiya vositalarida mustahkamlanishiga hissa qo‘shmoqda.

O‘zbek tili xalqaro miqyosda ham o‘z ahamiyatini ko‘rsatmoqda. Xalqaro tadbirlarda va konferensiyalarda o‘zbek tili ishlatilayotgani, mamlakatning diplomatik aloqalarida ham o‘zbek tilining tutgan o‘rnini oshirib bormoqda. O‘zbek tilining xorijiy mamlakatlarda ham o‘rganilishi tilning xalqaro maydondagi mavqeyini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, diaspora va xorijiy o‘zbeklar o‘z ona tillarini asrash uchun qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda.

Bugungi kunda o‘zbek tilining ijtimoiy munosabatlardagi ahamiyati kengayib, tilni rivojlantirish va uni saqlash masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Davlat tomonidan qabul qilingan bir qator qonunlar va hujjatlar o‘zbek tilining yanada rivojlanishi va uning har bir sohada to‘laqonli ishlatilishi uchun zarur sharoitlar yaratishni ko‘zda tutadi. Shu bilan birga, yosh avlodga o‘zbek tilini o‘rgatish va uni qadrlash masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbek tilining zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashishi, raqamli va axborot jamiyati bilan integratsiyalashuvi tilning kelajakdagi rivoji uchun muhim omil hisoblanadi.

O‘zbek tili O‘zbekistonning ijtimoiy munosabatlarida beqiyos o‘ringa ega bo‘lib, milliy o‘zlikni anglash, madaniy merosni saqlash va xalqaro maydonda o‘z o‘rnini topishda muhim rol o‘ynaydi. Davlat va jamiyat hayotida, ta’lim va ilm-fan, ommaviy axborot vositalari hamda xalqaro aloqalarda o‘zbek tilining keng qo‘llanilishi uning ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga hissa qo‘shmoqda. Shu bilan birga, o‘zbek tilining xalqaro miqyosda kengroq tan olinishini ta’minlash va uni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan integratsiya qilish orqali tilni saqlash va rivojlantirish zaruriyati dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

O‘zbek tili o‘zining boy madaniy va tarixiy ildizlari bilan xalqaro miqyosda o‘z o‘rniga ega. Ijtimoiy munosabatlar jarayonida tilning tutgan o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi, chunki til odamlar orasidagi muloqotning asosiy vositasi hisoblanadi. Ushbu maqola O‘zbek tilining ijtimoiy munosabatlardagi o‘rni va ahamiyati haqida ilmiy dalillarga asoslangan tahlilni o‘z ichiga oladi.

Mazkur maqolada tilshunoslik, ijtimoiy fanlar va madaniyatshunoslik yo‘nalishidagi ilmiy manbalardan foydalanilgan. Asosiy yondashuv sifatida analitik va statistik metodlardan foydalanib, O‘zbek tilining ijtimoiy munosabatlardagi roliga oid nazariy va amaliy misollar keltirildi. So‘rov va intervyular orqali o‘zbek tilining turli sohalardagi tutgan o‘rniga oid ma’lumotlar jamlandi. O‘zbek tili jamiyatdagi barcha sohalarda — ta’lim, davlat boshqaruvi, madaniyat, siyosat, va ommaviy axborot vositalarida — asosiy muloqot vositasi sifatida o‘z o‘rnini mustahkamlagan. So‘rov natijalariga ko‘ra, jamiyat a’zolarining 85%i O‘zbek tilini kundalik hayotida faol qo‘llaydi. Bundan tashqari, O‘zbek tilining davlat tili maqomiga ega bo‘lgani va huquqiy jihatdan himoyalangani uning ijtimoiy hayotdagi ta’sirini yanada oshirmoqda.

Tilning ijtimoiy munosabatlardagi ahamiyati juda keng qamrovli. O‘zbek tilining rivojlanishi milliy o‘zlikni saqlashda va mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Tilning ommalashuvi va rasmiy idoralarda, ta’lim tizimida keng qo‘llanilishi milliy identifikatsiya jarayoniga hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, tilda milliy g‘ururni oshirish, axloqiy va madaniy qadriyatlarni tarbiyalash imkoniyatlari ham katta ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tili nafaqat aloqa vositasi, balki milliy o‘zlik va ijtimoiy munosabatlar tizimida muhim o‘rin egallagan til sifatida jamiyatning turli sohalarida muhim ahamiyatga ega. Uning ijtimoiy hayotdagi tutgan o‘rnini yanada mustahkamlash, ayniqsa, ta’lim va ilm-fan sohalarida kengroq qo‘llash zaruriyati mavjud. O‘zbek tilining nufuzi oshishi mamlakat madaniy va ma’naviy rivojlanishida ham katta rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Абдуллаев Ш., Ҳасанов У. А., Шодмонов С. Ўзбек тилининг ижтимоий ҳаётдаги ўрни. – Тошкент: Ўқитувчи, 2002. – 120 б.
- Каримов И.А. Ўзбекистоннинг келажаги – буюк давлат. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – 256 б.
- Юнусов М. Ўзбек тилининг ривожи ва унинг ижтимоий муносабатлар соҳасидаги аҳамияти // Маънавият журнали. – 2015. – №2. – Б. 45–52.
- Тўраев А. Ўзбек тили: давлат тили сифатидаги ўрни ва ривожи. – Тошкент: Маърифат, 2010. – 208 б.
- Саъдуллаев У. Ўзбек тилининг ижтимоий муносабатлардаги аҳамияти. – Тошкент: Ёзувчи, 2018. – 176 б.
- Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Қонунчилиги. Ўзбек тилини давлат тили сифатида ривожлантириш тўғрисидаги қонун. – Тошкент, 1989.
- Абдуллаева Ф. Ўзбек тили ва ижтимоий маданият. – Тошкент: Фан, 2012. – 132 б.
- Қурбонова Д. Ўзбек тилининг жамиятдаги ўрни: илмий назарий таҳлил. – Тошкент: Истиқбол, 2019. – 190 б.

TIL – MILLAT QIYOFASINING AJRALMAS IN’IKOSI

G.Abdiraimova
Qarshi xalqaro universiteti katta o‘qituvchisi
Qurbonova Husnora
Qarshi xalqaro universiteti talabasi

Annotatsiya. Til xalq qiyofasining, uning ma’naviy boyligining bir qismidir. Til nafaqat muloqot vositasi, balki xalqning madaniyati, urf-odatlari, turmush tarzi, tarixidir. Turli xalqlar tillariga hurmat, o‘z navbatida, o‘zaro tushunish va muloqotga yordam beradi. Maqolada til va millat, ularning o‘zaro aloqadorligi, tilning milliy xususiyatlarini ifodalashdagi roli, lingvistik va madaniy uzviylikning ahamiyati, tildan milliy o‘ziga xoslikni idrok etishda foydalanish yo‘llari yoritiladi. Tilning leksik-semantik, grammatik va fonetik jihatlaridagi milliy xususiyatlar, shuningdek, ularni tahlil etish orqali millat tafakkuri, mentaliteti, dunyoqarashini tushunish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Til, millat, taraqqiyot, yuksalish, lingvistik va madaniy uzviylik, milliy o‘ziga xoslik, millat tafakkuri, mentaliteti, dunyoqarashi, leksika, semantika, grammatika va fonetika,orfografika, millatshunoslik, milliy til

Abstract. Language is a part of the image of the nation, its spiritual wealth. Language is not only a means of communication, but also the culture, traditions, lifestyle, and history of the people. Respect for the languages of different nations, in turn, helps mutual understanding and communication. The article describes language and nation, their interrelationship, the role of language in expressing national characteristics, the importance of linguistic and cultural integrity, ways of using language in the perception of national identity. National characteristics in the lexical-semantic, grammatical and phonetic aspects of the language, as well as the

issues of understanding the nation’s thinking, mentality, worldview are analyzed by analyzing them.

Keywords: Language, nation, development, development, linguistic and cultural integrity, national identity, national thinking, mentality, worldview, lexicon, semantics, grammar and phonetics, orthography, ethnology, national language

Til va millat o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan tushunchalardir. Til millat hayotining ajralmas qismi, uning qiyofasi va xarakteristikasining bir bo‘lagidir. Tilsiz millat, milliylik tushunchasini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Til millat ma’naviy hayotining asosiy vositasidir. Til millat madaniyatining yuksalishi, uning barqarorligi va rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Til davlat, mulk timsoli hamdir. Tilni asrab-avaylash va rivojlantirish millatning yuksalishi demakdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi qonuniy mustahkamlangan. Ya’ni, ona tilimiz mustaqil davlatimizning bayrog‘i, gerbi va madhiyasi bilan bir qatorda qonun bilan himoyalangan muqaddas davlat ramzidir. Til insonlar bilan muloqot qilish vositasi va Yaratganning insonga bergan bebaho ne’matidir. Xalqlarni millatlardan ajratib turadigan asosiy xususiyatlardan biri bu tildir.

Dunyodagi har bir xalqning tili uning bebaho xazinasi, faxri va najot timsolidir. Hikmatli so‘zlar, she’rlar, dostonlar, qo‘shiqlar avvalo xalqning ona tilida tug‘iladi. Xalq bor ekan, tili ham barhayot, tili yashar ekan, boshqa xalqlar orasida o‘z nufuziga ega bo‘ladi. Har bir xalqning o‘z tili bor. Til millat hayotining ajralmas qismi sifatida uning qiyofasi va xarakteristikasida mujassam bo‘ladi. Millat xarakteri, urf-odatlari, an’analari, mafkurasi, turmush tarzi, axloqi va boshqa ijtimoiy-madaniy xossalari tilning leksik, grammatik, fonetik, so‘z yasalishi, frazeologik xususiyatlarida, unda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun til millat qiyofasi, uning ma’naviy-axloqiy xususiyatlarining yuksak ifodasidir.

Tilda namoyon bo‘luvchi milliy o‘ziga xoslik. *Leksik-semantik o‘ziga xoslik*-til millat ma’naviy-madaniy hayotining asosiy vositasi sifatida leksik-semantik tizimida uning o‘ziga xos milliy xususiyatlari ifodalanadi. Shu bilan birga, frazeologik birliklar, paremiyalar (maqollar, matallar) ham millatshunoslik ma’lumotlarini yuzaga chiqaradi. Grammatik qoliplar- tilning grammatik tuzilishi ham millat xarakterini aks ettiradi. Masalan, ma’lum bir tilning erkin, qat’iy yoki oraliqdagi odam-predmet munosabatlarini ifodalash o‘ziga xos grammatik vositalar yordamida namoyon bo‘ladi.

Fonetik jihatlar - har bir tilning o‘ziga xos fonetik tizimi ham millat xarakterini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, shovqinli yoki uvulofaringal undoshlarning ustunligi, so‘zlarning aksentua-tsiya modellari millat tafakkuri va ruhiyatini aks ettiradi.

Tilning milliy xarakterini belgilovchi omillari. Tarixiy omillar -tilning milliy xarakteri uning tarixiy rivojlanish jarayonlarida shakllanadi. Xalqning o‘tmishi, uning madaniy-ma’naviy an’analari, yashash tarzi va turmush tarzida namoyon bo‘ladi. Geografik omillar- Muayyan orol, yarim orol yoki hudud chegaralari

doirasida shakllanuvchi til o‘sha hudud aholisining milliy-madaniy an’analari, xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq.

Ijtimoiy-psixologik omillar- xalq mentaliteti, tafakkur tarzi, dunyoqarashi, milliy-ma’naviy qadriyatlari tilning milliy xarakterida ifodalanadi. Bu omillar tilning leksik-semantik tizimida, frazeologik boyligida, so‘z yasalish xususiyatlarida aks etadi.

Lingvistik va madaniy uzviylikning ahamiyati. Til va madaniyat o‘zaro chambarchas bog‘liq tushunchalardir. Til orqali millat ma’naviy-madaniy qadriyatlari, an’analari, dunyoqarashi ifodalanadi va avlodlarga yetkaziladi. Shu bilan birga, til madaniy jarayonlarni shakllantiradi, ularni rivojlantirib boradi. Tilning milliy xususiyatlarini idrok etish orqali millatning o‘ziga xos ruhiyati, mentaliteti, dunyoqarashi, turmush tarzi va boshqa xususiyatlarini tushunish mumkin.

Xalq, davlat, jamiyat qanday rivojlansa, uning tili, tilshunosligi ham rivojlanadi. Davlat va jamiyatdagi o‘zgarishlar, avvalo, tilda, xususan, uning lug‘at tarkibi – lug‘at boyligida o‘z ifodasini topadi. Til ijtimoiy xususiyatga ega ekan, ijtimoiy hayotdagi taraqqiyot til taraqqiyotini belgilaydi. O‘z navbatida, til va tilshunoslik fanining rivojlanishi jamiyat, davlat taraqqiyotiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Buning isbotini bugungi dunyoqarash – qaysi davlatda – jamiyatda tinchlik va farovonlik bor, bu yerda til va tilshunoslik rivojlanayotgan mamlakatlarda va aksincha, til va tilshunoslikning rivojlanishi haqida fikr yuritish qiyin. Qolaversa, til, eng avvalo, millatni birlashtiruvchi vosita, u millat ko‘zgusidir. Zero, tilimiz qiyofamizni, ma’naviyatimizni, tilimiz millat vakilining ma’naviyatini aks ettiradi. O‘zbek tilining rivojlanishi tarixi murakkab va boy bo‘lib, ko‘plab bosqichlardan o‘tgan. Quyida O‘zbek tilining rivojlanish tarixiga oid asosiy jihatlar keltirilgan:

– **Davlatlar va qabilalar davri (VII asrga qadar**– o‘zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub. O‘zbek tilining asosiy kelib chiqishi turkiy qabilalar va xalqlar, xususan, Og‘uz va Qarluq qabilalaridan kelib chiqadi.

– **O‘rta asrlar (VIII–XIV asrlar)** – bu davrda O‘zbekistonda turkiy tillar, jumladan, O‘zbek tili rivojlanmoqda. Arablar tomonidan kirib kelgan islom dini va madaniyati, shuningdek, arab yozuvi tilga kiritildi. Bu davrda al-Xorazmiy, Farobiy, al-Buxoriy kabi olimlar turkiy tillarda ilmiy asarlarni yaratishdi.

– **Oltin davr (XIV–XVI asrlar)** –Temuriylar davrida O‘zbek tili, xususan, adabiy til sifatida yanada rivojlandi. Bu davrda o‘zbek adabiyoti shakllanib, Xoja Ahror, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi shoirlar va yozuvchilar asarlarini yaratdilar. O‘zbek tili o‘z o‘rnini mustahkamladi.

– **O‘rta asrlar oxiri (XVII–XIX asrlar)** – bu davrda O‘zbek tili rivojlanishda davom etdi, ammo mintaqadagi turli siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar tilga ta’sir qildi. O‘zbek tilining leksikasi va grammatikasi ko‘plab o‘zgarishlarga uchradi, boshqa tillar bilan aloqalar kuchaydi.

– XX asrning boshlarida –O‘zbek tili o‘z mustaqilligini va jamiyatdagi ahamiyatini qayta tiklash jarayonida muhim rol o‘ynadi. 1920-yillarda O‘zbekiston sovet davlatiga aylanishi bilan O‘zbek tili rasmiy til sifatida e’tirof etila boshlandi.

– Yozuv tizimi o‘zgarishlari–O‘zbek tili dastlab arab yozuvida yozilgan.

1928 yilda lotin yozuviga o‘tildi, so‘ngra 1940 yilda kiril yozuvi joriy etildi. 1990-yillarda mustaqil O‘zbekistonning tiklanishi bilan yana lotin yozuviga o‘tildi.

– Mustaqillik davri (1991–hozirgi kunga qadar) **–**O‘zbekiston mustaqil bo‘lgach, O‘zbek tili yanada rivojlanmoqda. Hozirgi kunda davlat tili sifatida o‘zbek tili rasmiy va ma’naviy hayotda muhim ahamiyatga ega. Ta’lim, madaniyat va ilm-fan sohalarida o‘zbek tilini rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Xususan davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev birlashgan Millatlar Tashkilotidagi Sammitda O‘zbek tilida nutq so‘zladi va tilimizning obro‘sini yana bir yuqori cho‘qqilarga chiqardi.

O‘zbek tilining rivojlanishi tarixi boy va xilma-xildir. U ko‘plab madaniy va tarixiy ta’sirlarga duch kelgan va hozirda o‘z milliy identifikatsiyasini saqlab qolishda davom etmoqda. O‘zbek tilini rivojlantirish va saqlab qolish jarayoni davom etmoqda.

O‘zbek millatiningning hayoti, turmush tarzi, aqliy dunyosi, ma’naviy va madaniy imkoniyatlari, o‘ziga xos ko‘zgulari yoki aksi milliy til orqali shakllanib bormoqda.

Til muloqot va axborot almashish vositasi sifatida xizmat qilishdan tashqari, jamiyatda o‘tmishdagi avlodlarning bilimlarini hozirgi avlodlarga o‘qitish, o‘qitish va etkazish uchun ishlatiladigan asosiy vositadir. O‘zbek tili yangi davrda butun jamiyat va oldingi avlodlar tajribasiga ta’sir ko‘rsatuvchi safarbarlik, axborot almashish, muloqot va ta’lim vositasi sifatida maydonga chiqdi. Vaqt o‘tib, mustaqillik yillarida yo‘qolgan yoki e’tibordan chetda qolgan g‘oyalarimiz, milliy xotiramiz, tarixiy ongimiz qayta tiklana boshladi. Qadr-qimmat, o‘zlikni anglash, milliy va davlat o‘zligini anglash tuyg‘ulari tobora mustahkamlanib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sodiqov A, Abduazizov A, Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish -T., 1981 y.

2. P. Shermatov A Choriev B, “Umumiy tilshunoslik” kursidan mustaqil ish – T .: O‘qtuvchi, 1989 y.

3. Kuchkortoyev I, Quchkortaeva R. Tilshunoslikka kirish - T., 1975 y.

4. Xojiyev A. Tilshunoslik atamalarining lug‘ati - T .: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002 y.

5. Z.Xolmonova. “Tilshunoslik nazariyasi” Toshkent 2020

6. N Uluqov. “Tilshunoslik nazariyasi” Toshkent 2016

TIL – MILLAT KO‘ZGUSI

Nizomiddinova Dildora Nosirovna
Qo‘qonDPI katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili – millatning ruhi ekanligi, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgani va ona tili bo‘lmish o‘zbek tilining tarixi, rivojlanish jarayonlari va uni o‘qitishning afzalliklari yoritib berilgan.

Abstract. This article highlights the fact that the mother tongue is the soul of the nation, the status of the Uzbek language as a state language, and the history, development processes, and advantages of teaching the Uzbek language as a mother tongue.

Kalit so‘zlar: ona tili, til, dastur, mustaqil davlat, turkum, adabiy til, og‘zaki ijod, qadimgi xalq, o‘zbekcha so‘zlar, alifbo, til bayrami.

Key words: mother tongue, language, program, independent state, series, literary language, oral creativity, ancient people, Uzbek words, alphabet, language festival.

“Hozirgi kunda Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan ezgu intilish va harakatlarimiz hal qiluvchi bosqichga ko‘tarilmoqda. Bu yo‘lda milliy o‘zligimiz, g‘urur-iftixorimiz timsoli bo‘lgan ona tilimiz, hech shubhasiz, beqiyos kuch-qudrat va ilhom manbayi bo‘lib xizmat qiladi”.

Sh.Mirziyoyev.

Til – davlat timsoli, mulki, ruhi, millatning madaniy va ma’naviy boyligi, xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir. Til insonlarning o‘zaro aloqa vositasi bo‘lib, yaratuvchining insonga bergan bebaho ne’matidir. Dunyoda har bir xalqning o‘z ona tili uning bebaho boyligi, iftixori hisoblanadi. Hikmatli so‘zlar, she’ru dostonlar, qo‘shiqlar, avvalo millatning ona tilida dunyoga keladi. Millat bor ekan, uning tili ham yashaydi, tili yashar ekan u millat boshqa millatlar orasida o‘z nufuzi, obro‘siga ega bo‘ladi 1989 yilning 21- oktyabr kuni Vatanimizda davlat tilining huquqiy asoslarini belgilash bo‘yicha “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinib, unga ko‘ra O‘zbek tiliga - Davlat tili maqomi berildi. Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo‘lgan ona tilimiz o‘zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo‘ldi. O‘zbek tili – O‘zbekiston Respublikasi aholisining mutlaq ko‘pchiligi bo‘lmish o‘zbek xalqining ona tilidir. U O‘zbekiston birligi va yaxlitligi, jamiyat jipsligining muhim omili ham hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 150 ta milliy madaniy markaz ish yuritayotgani, o‘zbek tili bilan birga, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman tillarida ommaviy axborot vositalari faoliyat ko‘rsatayotgani, maktablarimizda ta’lim-tarbiya jarayoni 7 ta tilda olib borilayotgani dunyo amaliyotidagi noyob tajriba ekanini ta’kidlash o‘rinlidir. Yurtimizda chet tillarga ixtisoslashgan hamda o‘quv mashg‘ulotlari xorijiy tillarda o‘tiladigan ta’lim maskanlari soni ortib borayotgani ham shu sohadagi muhim o‘zgarishlar natijasidir. Ma’lumki, davlat tili siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda xalqni birlashtiruvchi qudratli vosita sanaladi. Ona tilimiz so‘zlashuvchilar soni ko‘pligiga ko‘ra, sayyoramizda eng keng tarqalgan 40 ta tildan biri ekani ham

quvonarlidir. Hozirgi vaqtda yer yuzida o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar soni qariyb 50 million kishini tashkil etishi esa uning dunyodagi yirik tillardan biriga aylanib borayotganidan dalolat beradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda barcha soha va tarmoqlar kabi ona tilimiz qadri va nufuzini yanada oshirish borasidagi siyosat va amaliy ishlar ham yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Buni o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi va obro‘-e’tiborini tubdan oshirish bo‘yicha qabul qilingan tarixiy farmon va qarorlar samaralari yaqqol tasdiqlaydi. “Davlat tili haqida”gi qonun ona tilimizning bor go‘zalligi va jozibasini to‘la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalarga oid ensiklopediya va lug‘atlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari chop etildi. Mumtoz adabiyotimiz namunalari, fan, texnika, sanoat, madaniyat va boshqa sohalarga oid atamalarni, shevalarda qo‘llaniladigan so‘zlarni o‘z ichiga olgan besh jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” yaratildi.

Til insonning birlamchi ehtiyoji, anglash, bilish, so‘zlash, aloqa-munosabat vositasi bo‘lgani bois hamisha jamiyat ravnaqining asosiy mezonlaridan biri bo‘lib kelgan. Jumladan, o‘zbek tili o‘zbek millatining uzoq tarixiy ildizlariga, o‘z siyosiy-huquqiy asoslariga ega muqaddas qadriyati, ulkan ma’naviy yutug‘idir. Bugungi kunga qadar shonli va sharafli yo‘llarni bosib, keskin va shiddatli to‘fonlarni yengib kelayotgan milliy tilimiz davlat maqomida yanada ulug‘vor va ustuvorligini namoyon qilib kelmoqda. Chunki tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demakdir. Til – millat qiyofasining bir bo‘lagi, aynan til tufayli xalq va elatlarning madaniyati, urf-odatlari saqlanib qoladi, sayyoramizda yashayotgan xalqlarning o‘tmishi va madaniyati hurmat qilinadi.

Shu o‘rinda Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning «Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin» degan so‘zlaridan shuni anglab yetishimiz kerakki, til har bir millat madaniyatining o‘zagi, u xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydigan, birlashtiradigan, tarbiyalaydigan, o‘qitadigan, urf-odat, ananalarini saqlaydigan asosiy vosita ekanligini har birimiz chuqur anglab, ona tilimizning xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini yuksaltirishda, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo‘shishda chuqur hurmat bilan yondashishimiz kerak. Bu bizning kelajak oldidagi vazifamiz va burchimizdir. Chunki tilsiz hech bir millat to‘laqonli xalq bo‘la olmaydi. Usiz Vatanning erki yo‘q. Go‘zal va jozibador ona tilimizning bebaho qadriyat ekanligini kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish katta avlod uchun ham farz, ham qarzdir. Milliy tilimizning mavqeyi va sofligini saqlash, e’zozlash, o‘zbek tilining davlat tili sifatida, eng avvalo, mamlakatimizda, qolaversa, dunyo miqyosida nufuzi, obro‘yini oshirish xalq vakillarining xolis niyatiga bog‘liq. Bugungi haqiqatga bir nazar tashlang. Endigina savodi chiqqan bolalarimiz ko‘chada yurganda turli savdo do‘konlari, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlari peshlavhalari,

reklamalarini o‘qib-o‘qiyolmay, ma’nosiga tushunolmay o‘zimizni bir necha marta savolga tutgani aniq.

Mamlakatimizda nom berish (neyming) faoliyati bilan ayrim xususiy marketing va reklama agentliklari xorijiy tilda yoki davlat tili qoida-me’yorlariga, milliy qadriyatlarga zid bo‘lgan nom va logotip yaratish bilan shug‘ullanib kelyapti. Natijada savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlariga ma’nosiga e’tibor qaratmasdan xorijiy tillarda nom berish urfga kirib bormoqda. Vaholanki, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonunining

20-moddasida “Lavhalar, e’lonlar, narxnomalar va boshqa ko‘rgazmali hamda og‘zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e’lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimasi berilishi mumkin”; 22-moddasida “Respublikaning ma’muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko‘chalar va geografik obyektlarning nomlari davlat tilida aks ettiriladi”, — deb qayd etilgan.

Lekin Qonunga qay darajada amal qilinyapti? Bu savolga yurtimiz shahar va tumanlarida qad rostlab turgan binolar peshlavhalari va reklamalardagi nom hamda yozuvlarni ko‘rgan kishi o‘z xulosasi va javobini beradi. Endilikda ikkita alifbodan bitta alifboga o‘tish fursati yetgan bo‘lsada, hanuzgacha hokimliklar, ayrim tashkilotlar rahbarlarida ikkilanish, ijro intizomiga befarqlik mavjud. Ana shu befarqlik jiddiy xatolarni kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Darhaqiqat, mamlakatimizdagi jadal iqtisodiy islohotlar tufayli **marketing, menejment, menejer, bloger, broker, innovatsiya, versal, kasting** singari ko‘plab xorijiy so‘zlar o‘zbek adabiy tilining lug‘atidan; **pitsa, hotdog, lavash, shaurma, millinium, dostavka, мы otkrыlis** kabi so‘zlar xalqimiz nutqidan joy olib ulgurdi. Zero, “Tilimizning lug‘at xazinasini boyitish va tozaligini ta’minlash, leksik me’yorlarning muntazamligiga erishishda eng ma’qul yo‘l o‘zbek tilining o‘z ichki imkoniyatlariga tayanishdir. O‘zbek tilining o‘z qonuniyatlari asosida yangi so‘zlar yasash, u yoki bu sababga ko‘ra iste’moldan chiqqan qadimgi va eski turkiy so‘zlarni tiklash, tilimizning teran tomirlari bo‘lmish shevalardan so‘z olish maqsadga muvofiq. Masalan, “raport” so‘zining o‘zbekcha muqobili sifatida “bildirgi” so‘zi yasaldi va adabiy tildan joy oldi. Yoki “rayon” so‘zi avval “nohiya” so‘zi bilan almashtirildi, ammo leksik me’yor maqomini olmadi. Keyinroq eski o‘zbek tilidagi “tuman” so‘zi iste’molga kiritildi, u faol lug‘atimizda o‘z o‘rnini topdi”.

Aytish joizki, o‘zbek tili dunyodagi rivojlangan tillardan biri sifatida nihoyatda boy leksik xazinaga ega. Shu bois, so‘z qo‘llash, nom tanlash masalalarida o‘zbek tilining izohli lug‘atlar majmuasiga tayanib, konseptual yondashish maqsadga muvofiq. Til va yozuvning sivilizatsiyasida millat ruhi, Vatan tuyg‘usini his etgan, avlodlar kelajagini o‘ylagan har bir inson jonbozlik ko‘rsatadi, avvalo, o‘z xalqining milliy tili va madaniyatini asrab-avaylashga, rivojlantirishga intiladi. Endilikda ikkita alifbodan bitta alifboga o‘tish fursati yetgan bo‘lsada, hanuzgacha hokimliklar, ayrim tashkilotlar rahbarlarida ikkilanish, ijro intizomiga befarqlik mavjud. Ana shu befarqlik jiddiy xatolarni kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

“Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2020-yil 20-oktyabr) PF-6084-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash, shuningdek, savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlariga nom berishni takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlariga nom berishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2021-yil 16-mart) 144-sonli Qarori qabul qilindi. Bu o‘z vaqtida va oqilona qabul qilingan qaror bo‘lib, o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini mustahkamlash yo‘lida yana bir muhim qadam bo‘ladi. Ushbu qarorda O‘zbekistonda savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlariga nom berish (neyming) xizmatini tizimli yo‘lga qo‘yilishi ko‘zda tutilgan. Davlat tili qoida va me’yorlariga muvofiq keladigan, milliy qadriyatlarga mos hamda obyektlarga qo‘yish tavsiya etiladigan nomlarni, tashqi yozuv, peshlavha, reklama va e’lonlar matnini lingvistik ekspertizadan o‘tkazish nazoratini kuchaytirish va ekspertizadan o‘tgan matnlar, nomlarni havola etishga ruxsat berish lozim.

Demak, til millatning ma’naviy-ruhiy boyligi, mulki, timsoli ekan, uni e’zozlash, yuksalishi, sofligi, boyligi yo‘lida kurashish, milliy qadriyat darajasiga ko‘tarish barchamizning oliy burchimizdir. Shunday ekan, til oriyati uchun kurashaylik! Uni poymol bo‘lishiga aslo yo‘l qo‘ymaylik. O‘zbek yozuvining qadrini ko‘taraylik! Davlatimiz rahbarining e’tibori, bu qutlug‘ sanani eng yuksak darajada nishonlash bo‘yicha bergan ko‘rsatmalari o‘zbek tilining nufuzini, uning ahamiyatini yanada oshiradi, deb o‘ylaymiz. Hammamizga millatimizning qutlug‘ o‘zbek tili bayrami muborak bo‘lsin!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G‘ulomov. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari. – T, “O‘qituvchi”, 1992.

2. Abduazizov A.Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010

3.Bushuy A.M., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. —Toshkent: Fan, 2007.

4.Ne’matov H., Bozorov O. Til va nutq. —Toshkent, 1993.

5.Nurmonov A., Yo‘ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. —Toshkent, 2001.

6.Akbarov S. Lug‘at – til xazinasi. —Toshkent. 1977.

7.Akbarov S. Nutq madaniyati va normativ lug‘at. —Toshkent.1977.

QUYI ZARAFSHON VOHASI ETNOTOPONIMLARINING AREAL-XRONOLOGIK TAHLILI
(Navoiy viloyati Qiziltepa tumani misolida)

G‘aniyev Nurbek O‘ktamovich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti
Rahmatova Madina
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qiziltepa tumani toponimlari va ayrim onomastic birliklarning etimologik tahlili doirasida olib borilgan tadqiqotlar natijalari va ilmiy xulosalar asosida joy nomlarining tahlili muhokamaga tortilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zqatlam, o‘zlashma qatlam, toponim, etimologiya, onomastic etimologiya, onomastik leksika, etimologik tahlil.

Abstract. This article discusses the analysis of place names based on the results of research and scientific conclusions carried out with intheframe work of etymological analysis of toponyms and certainon omastic units of the Qiziltepa district.

Keywords: native layer, borrowed layer, toponym, etymology, onomastic etymology, onomastic lexicon, etymological analysis.

Mamlakatimizda “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiy”[351] bo‘lgan hozirgi bir sharoitda o‘zbek onomastikasi sohasini ilmiy nazariy va amaliy yo‘nalishlarda jiddiy rivojlantirishni ham talab etadi. Shu kabi talab va ehtiyojlar natijasida o‘zbek tilshunosligida xalq tarixi, qadriyati, an’ana va urf-odatlarini o‘zida to‘liq ifodalovchi lisoniy birliklar – toponimlarni muayyan hudud misolida lingvistik tadqiq etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa ularning ma’naviy meros, milliy madaniy boylik va ko‘hna tarixiy yodgorliklar majmuining alohida muhim bir elementligini ko‘rsatadi.

Tumandagi etnotoponimlar areal-xronologik va genetik shakllanish jihatlariga ko‘ra, jahon tilshunosligi tadqiqotlariga tayanilib, tahlil qilingan. Ma’lumki, o‘zbek va fors-tojik etnonimiyasi turkiy-forsiy etnonimlarning ajralmas tarkibiy qismidir. O‘zbek va tojik (eroniy) urug‘-qabilalari va ularning tarmoqlari bilan bog‘liq nomlar turkiy xalqlar etnik tarkibida ko‘p hollarda uchrashi, tabiiy. Muayyan urug‘ va qabila nomlarining tarqalishini areal-lingvistik jihatdan o‘rganish o‘zbek etnonim va etnotoponimlarini tadqiq qilishda ahamiyatli bo‘lgan tarixiy, tadrijiy va subordinativ asoslanishi xususiyatiga ko‘ra etnotoponimlar quyidagicha tavsiflandi:

Qadimiy davr. Bu davr muayyan hududlarda davlatchilikning yuzaga kelishi hamda mavjud joy nomlarining ilk holati va paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Tarixiy manbalarda o‘sha davrlarga oid bo‘lgan tarixiy nomlarning hozirgi

[351]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni // www. Lex/uz.

holatida, ya’ni Qiziltepa, Tavoyis, Vang‘ozi toponimlari mazmun-mohiyati negizida qadim ming yilliklarda o‘rganilgan tuman hududida yashab kelgan sak, andi kabi turkiy urug‘ qabilalarining hayot tarzi, urf-odatlari hamda etnik tarkibining yashirinib yotganligi ayrim tarixiy manbalar hamda keksa kishilar tomonidan taqdim etilgan afsona va rivoyatlar asosida to‘liq aniqlangan. Mana shu davrda paydo bo‘lgan nomlar etimon termini asosida talqin etiladi. Etimologik tahlil qilishda etimon tushunchasini A.Beletskiy so‘zning birinchi shakli va ilk ma’nosi sifatida sharhlagan bo‘lsa, N.Podolskaya nomning ilk shakli hamda ma’nosi deb talqin etgan. O‘zbek toponimist olimi T.Enazarov esa hozirda tilimizda mavjud so‘z yoki morfemaning kelib chiqishiga asos bo‘lgan so‘z yoki morfema deb ta’riflaydi.

Turkiy tillar onomastikasining tadqiqi manbalaridan biri bo‘lgan turkiy so‘zlarni arab leksikografiyasi talablari asosida arabcha izohlab bera olgan va shu o‘rinda yigirmadan ortiq turkiy qabilalar yashagan hududlarning joy nomlarini yo‘lma-yo‘lakay o‘rganib, ba’zi bir toponimlarning o‘sha vaqtdagi ma’no nozikliklarini mavjud manbalar asosida talqin qilgan M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asariga borib taqaladi. Bu asar A.N.Kononovning fikricha, “XI asr turkiy xalqlarining hayoti, turmush tarzi, ... etnonimlar va toponimlar. ... qavm-qarindoshlik atamalari,.... geografik nomlar va atamalar, ... turli tarixiy, mifologik qahramonlarning nomlari, diniy, etnik atamalar va boshqalar haqida ma’lumot beruvchi yagona manbadir”[352]. Shuni qayd etib o‘tish kerakki, bu asarda turkiy tillarning ulkan onomastik sathi o‘z aksini topgan.

Qiziltepaning eng qadimgi davrlarini tavsif etishda hududdagi eng qadimiy sug‘orish inshootlari – gidronimlarning ayrim lisoniy-kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari tavsifiga yondashish tadqiqot doirasida lozim topildi. Tuman hududining qadimiyligi hamda arxeologik yodgorliklarning, madaniy qatlamlarning birmuncha ko‘pligini hisobga olib, mazkur hududni diaxron planda tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilishiga yetarli ilmiy nazariy asos bor deb hisoblaymiz. Tadqiqot jarayonida Qiziltepada aniqlangan mavjud 72 nomdagi tarixiy-arxeologik hamda arxitektura obyektlarning nomlari o‘rganildi. Ularning ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganilish natijasi tarixiy-arxeologik obyektlar, tadqiqot toponimik obyekti sifatida ro‘yxatga kiritildi. Ularning izohlari keltirilgan ro‘yxat quyidagicha shakllantirildi.

Qiziltepa tumani gidronimlariga aloqador quyidagi sug‘orish tizimlarining mavjudligi hududning qadimgi davrdan hozirgacha dehqonchilik, chorvachilik va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanganligidan dalolat beradi. Zarafshon daryosi Buxoro vohasining, jumladan, Qiziltepa tumani (Komi Abu Muslim) obi-hayot manbai hisoblangan.

[352]Наханова Л.А.Историко-семантическая интерпретация топонимов в Орхоно-Енисейскихпамятниках. Диссертация на соискание ученой степени(PhD) доктора философии. - Астана, 2014. -С.13; Кононов А.Н. Махмуд Кашгарский и его «Дивану лугат-ит турк».//Советская Тюркология. – 1972. №1. –С.3-17.

XVII asrda yashagan balxlik alloma Mahmud ibn Valining “Sirlar dengizi” asarida yozilishicha, qadimgi Buxoro vohasi 10 ta tuman yoki rustoqqa (qishloq xo‘jaligi hududlariga) bo‘lingan. Ularning nomlari esa shohariqlar nomi bilan yuritilgan. Ular orasida Komi Abu Muslim rustoqi ham bo‘lgan. Komi Abu Muslim birligidagi “kam”, “kom”, “kon” morfemasi qadimgi so‘g‘d so‘zlaridan olingan bo‘lib, “qazimoq”, “ariq”, “suv bilan to‘ldirilgan joy” ma’nosini bildiradi. Abu Muslim komining avvalgi nomi Burg‘ozi bo‘lgan.

Yunon olimlari Zarafshon daryosi nomini o‘z tillarida “Politimet” – “yuksak qadrli”, “yuqori qadrli”, deb ataganlar. Yunon geografi va tarixchisi Strabon (mil.avv. 64-24-yy.) qalamiga mansub 17 kitobdan iborat “Geografiya” asarida Politimet (Zarafshon) daryosi haqida muhim ma’lumotlar bor[353].

Hazora daryosi quyisida Raskuy deb ataladigan joydan Zarafshon daryosining o‘ng qirg‘og‘idan Abu Muslim kanali o‘zani boshlanib, Malikcho‘l sarhadi orqali tuman markazidan 5 km.gacha janubi-g‘arbga oqadi. Abu Muslim o‘zanining nomi, uning boshlanish havzasidagi qadimiy-tarixiy yodgorlik nomi bilan bog‘liq. Bu yodgorlik Abu Muslim qal’asi (Abu Muslimtepa) nomi bilan hozirgi kunga qadar yuritiladi. Abu Muslim arig‘i, Abu Muslim qabristoni hamda bu qabristonda Abu Muslim sag‘anasi bor. Bu qadimiy yodgorlik haqida H.Hasanov “O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan” asarida “Abu Muslimtepa – Zarafshon vodiysi bo‘yida, Qiziltepa stansiyasidan shimolroqda, qadimiy qal’a vayronalari”dir, deb izoh berib o‘tgan.

Zarafshon daryosidan suv oladigan Qiziltepa hududida quyidagi kanallar mavjudligi gidronim sifatida toponimik obyektlarni tashkil etadi: Abu Muslim, Zarmitan, Emakti, Varozun, Revartun, Afg‘onon, So‘fiyon, Nimkob, Navgandi, O‘ba, Uzbor, Po‘stxo‘r,Mug‘jin, Tojikon, Objuvoz, Gumbaz, Uzilishkent kabi anhorlar hozir ham saqlanib qolgan. Kampirak (Kanpirak) istehkom devori va u bilan bog‘liq onomasiologik-etimologik, onomastik-nominatsion xususiyatlar tavsifida ham Qiziltepa hududida muhim tarixiy ildizlar mavjudligi qayd etiladi.

Voha mudofaa devori sifatidagi Kampirak devorining sharqiy qismi Karmanadan Hazoraga, Hazoradan Ganchtepa, Abu Muslimtepa, Shahrivayron, Qiziltepa, Oqsochtepa, Ajvanditepa, Lavondoqtepa orqali hozirgi Kogon tumani sharqiy janubigacha cho‘zilganligi tarixdan ma’lum. Buxoro hududining asosiy qismini o‘rab olgan mazkur arxeologik-tarixiy yodgorlikning chegaralanishi quyidagicha: g‘arbiy qismi Karmanadan, Toshrabot, G‘ijduvon, Romitan, Jondor orqali, Qorako‘l tumani hududigacha borgan[354].

Arablar davri. Fan nuqtayi nazaridan olib qaraladigan bo‘lsa, har qanday etnik aloqalar, shuningdek, etnomadaniyat xususiyatlari, birlamchi, tilda o‘z ifodasini topadi. Arab etnik qatlamining (arablarning) O‘rta Osiyo mintaqasiga, shu qatorida o‘rganilgan tuman hududiga kirib kelishi, uzoq davom etgan etnik-migratssion jarayonlarni boshlab berdi. Natijada mazkur hudud aholisining etnik shakllanishining yanada murakkablashishiga olib keldi. Tilimizga arab tiliga xos

[353] Maqsudov R., Rajabov Q. Qiziltepa tarixi. - Toshkent., 2016. – B.15.
[354]Maqsudov R., Rajabov Q. O‘sha asar– B.34-287.

so‘zlarning o‘zlashganligi, joy nomlarida arab etnonimining birmuncha ko‘p uchrashi buning yaqqol dalilidir. Arab etnonimi bilan bog‘liq nomlar Qiziltepa hududining sezilarli (asosan, bir qancha arealida) darajada uchraydi. Masalan: Arabon, Arabxona, Arabo,Arabqishloq, Arab, Qushayr, Arab to‘pi kabilar.

VII asrda bostirib kirgan Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi qo‘shin 709-yilda Tavoyisni ham egallaydi. Arab qo‘shinlariga qarshi so‘g‘diylar va turkiylar kurash olib boradi. Qutayba makr ishlatib, ularni bir-biridan ajratib engadi, islomlashtirish uchun so‘g‘d va boshqa aholini qirib tashlaydi, zardushtiylar ma’naviy-ma’rifiy yodgorliklarining kulini ko‘kka sovuradi.

Mo‘g‘ullar davri. O‘zbekistonning qadim hududiga mo‘g‘ullarning bostirib kirishi va ularning istilosi oqibatida etnonim hamda etnotoponimlarning rivoji uchun yangi davrni boshlab berdi.

Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida mahalliy urug‘lar, qabilalarning mavqeyi mo‘g‘ullarga qay daraja aloqadorligiga qarab belgilana boshladi. Tarixchi olimlarning fikriga ko‘ra, “Mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng XIII asr oxiri, XVI asr boshlarida Zarafshon vodiysining sharqidagi yirik strategik shahar va muhim savdo markazlarining mavqeyi ko‘tarila borgan”[355]. Qiziltepa tumani hududidan qadimdan savdo karvon yo‘lining o‘tganligi, bu hududning qanday darajadagi mavqega ega ekanligidan dalolat beradi. Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida bunday hududlarga katta ahamiyat berilgan. Mo‘g‘ullar chorvador xalq bo‘lganligi bois, hududning sersuv, sero‘t yaylovlariga muqim o‘rnashganlar. Nayman, Naymancha, Uyrot, Arg‘un, Ayronchi kabi toponimik nomlar mo‘g‘ul urug‘larining ko‘lami kengayganligini ko‘rsatadi. Bu kabi mo‘g‘ul urug‘lari Qiziltepa tumani hududida ham miqdor jihatdan juda ko‘p sonni tashkil etadi. Bu tarixiy jarayonlar tuman hududi joy nomlari tavsifiga asoslanib, mo‘g‘ul urug‘larining joylashishi mavjud bo‘lganligini isbotlamoqda. Keyinchalik mahalliy xalq bilan aralashib, ularning tarkibiga singib ketganlar. Nayman, Do‘rman, Arg‘in, Axtachi, Darxon, Qatag‘on, Kenagas, Saroy kabi etnotoponimlar paydo bo‘lgan. Bu kabi etnotoponimlar Qiziltepa hududida keragidan ortiq miqdorda mavjud. Demak, Qiziltepa etnotoponimlarini o‘rganish mazkur hudud tarixini o‘rganishga ilmiy-nazariy asos bo‘ladi degan xulosani beramiz.

Qipchoqlar davri. Qipchoq urug‘i qadimiy turkiy tilli qabilalarning eng yirik va nufuzlisi hisoblanib, uzoq tarixiy davrlar davomida etnoslar aralashuvi jarayonlarida ishtiroki natijasi sifatida o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz kabi turkiy tilda so‘zlovchi xalqlarning millat bo‘lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan hamda ularning etnik tarkibiga singib ketgan urug‘lardan sanaladi. Qipchoq urug‘ining tarmoqlariga asoslangan etnotoponimlar Qiziltepa hududida ozchilikni tashkil etadi: Qirg‘iz, Qozoqovul, Ko‘saovul, Oqsoch kabilar[356].

Sho‘rolar davri. Chor Rossiyasining istilochilik harakatlari hamda sho‘ro siyosati mafkurasining noto‘g‘ri siyosati oqibatida millat tarixining turli davrlarida

[355] Maqsudov R., Rajabov Q. Qiziltepa tarixi. – Toshkent, 2016. - 94 b.
[356]Maqsudov R., Rajabov Q. Qiziltepa tarixi. – Toshkent, 2016. - 94 b.

xalq turmush tarzi, e’tiqodi asosida paydo bo‘lgan etnonimlar hamda toponimlarga bog‘liq tasavvur, tushunchalarga nisbatan eskilik sarqiti tamg‘asining yopishtirilishi oqibatida ko‘plab nomlar yo‘q qilindi. Natijada kommunistik mafkurani ifoda etuvchi milliy mentalitetimizga yot nomlar yuzaga keldi. Jumladan, Qiziltepa tumanida qadimdan mavjud etnotoponimlar o‘rnida Leninizm, Moskva, Marks, Kalinin, Ittifoq, Qizil Yulduz, Telman, Leningrad kabi sun’iy nomlar qo‘llanila boshlandi. O‘sha davrda bosqinchi inqilobchilarning nomini abadiylashtirish uchun joy nomlari o‘zgartirilib, ularning nomlari berilgan. Bu holat, nafaqat, Qiziltepa tumani hududida, balki butun O‘zbekistonda bunday holatni kuzatish mumkin edi. Masalan, tuman hududida Lenin (Gadoylar va Mayta qishlog‘ida), Sotsializm (Baland G‘ardiyon), Qizil O‘zbekiston (Past G‘ardiyonda), Stalin (Sarmozor va Qusharti qishloqlarida), Yangi turmush (Kulolon va Elobod qishloqlarida), Guliston (Totiyon qishlog‘ida) nomli jamoa xo‘jaliklarining tashkil etilishi buning yaqqol dalilidir. Shuningdek, tuman markazi hududi bilan chegaradosh G‘ijduvon tumanida ham Leninizm, Marks, Engels, Kommunizm, Kalinin, Frunze kabi ko‘plab turli obyektlar nomlarida ham milliyligimizga xos bo‘lmagan nomlarni ko‘plab uchratish mumkin edi.

Tuman ahli sho‘rolar tuzumi davrida o‘zining qadim avlodlardan qolgan boshqa milliy va diniy qadriyatlari qatori hunarmandchilik an’analarini ham yo‘qotgan. Xususiy mulkchilikning tag-tomiri bilan yo‘qotilishi, jamoalashtirish siyosati oqibatida qishloq odamlari oddiy dehqonga – dala mehnatchisiga aylanib qolgan. Shuning uchun ham odamlar, asosan, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanadigan bo‘lib qolgan.

Demak, Sho‘ro hukumati davri Qiziltepa toponimlari (aniqrog‘i antropotoponimlari)ni o‘rganish o‘sha mustabid tuzum tarixiga bir nazar desak ham bo‘laveradi. Ular bu bilan chegaralanmasdan, 1937-1938-yillarda o‘zlarining ayblarini bostirish uchun Qiziltepa hududida ham 60 foiz joy nomlari o‘shalar nomiga o‘zgartirilgan. Hozirda bu joy nomlarining aksariyat barchasi yangilandi.

Mustaqillik davri. Jamiyat taraqqiyoti to‘xtovsiz davom etar ekan, mamlakatlarning xalqaro darajadagi turli xil aloqalari rivojlanib boradi. Yangi-yangi aloqalarning vujudga kelishi, ishlab chiqarishning rivojlanishi, xalqlarning siyosiy qarashlarining o‘zgarishi, bularning hammasi joy nomlarida ham o‘z aksini topadi. Masalan, o‘tgan XX asrda avvaliga inqilob namoyondalari ism-familiyalari bilan bog‘liq joy nomlari, keyinroq Zarbdor, Yoshlarobod, Ilg‘or, Yangiro‘zg‘or, Yangiobod, Mustaqillik kabi toponimlar vujudga keldi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin tarixiy joy nomlari qayta tiklandi, shuningdek, yangi joy nomlari paydo bo‘la boshladi. Mustaqillik maydoni, Istiqlol, Erkinlik, Bunyodkor va boshqalar. Istiqlol yillarida mamlakatimizda aholi punktlarini qayta nomlashda, milliy ruhga yo‘g‘rilgan nomlar asosida nomlash keng yo‘lga qo‘yildi. Natijada, mustaqillik yillarida tilimiz, hayotimizga begona bo‘lgan nomlar o‘rniga yangi, millatimizning tarixiy an’analari, qadriyatlariga xos va mos nomlar qo‘yila boshlandi.

Neotoponimlar–yangi turkum joy nomlari bo‘lib,zamonaviy birliklarning paydo bo‘lishi asosida vujudga keladi. Bunday o‘zgartirilgan yangi joy nomlari respublikamizda bo‘lgani kabi, Qiziltepa mikrotoponimiyasida ham vujudga kelgan. Masalan, “Quyimozor” korxonasi, “Navoiy Gulbog‘ servis” MCHJ, “Amriddin Ashur”, “Gulshan Durdona”, “Demas zar zamin”, “Sulton Mahmud Bo‘stoni”, “Bobomurodov Akmal Ziyodullayevich”, “Chorbog‘ g‘allakori” fermer xo‘jaliklari, “Sharof Bozor sohibkor” ta’mirlash ustaxonasi “Zarina”, “Asilbek ziyonur”, “Yuqsuntuz” xususiy korxonalari, “Quyoshjon” maktabgacha ta’lim tashkiloti, “Vang‘ozi agroeksport” korxonasi va boshqalar.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, “respublika hududidagi joy nomlarini tartibga solish, o‘zgartirish va qayta nomlash”[357] bo‘yicha bosqichma-bosqich ishlar amalga oshirildi. Birinchi navbatda, mustaqillikning ilk yillarida totalitar tuzum mafkurasini ifoda etuvchi nomlarni bartaraf qilish maqsadida tuman ma’muriyatining o‘zboshimchalik asosida joy nomlariga nisbatan munosabati yuzaga keldi (shaxs nomlarining toponimik nom sifatida qo‘llanilishi). Bu holatni to‘g‘ri anglagan va baholay olgan hukumatimiz tomonidan qonun va qarorlar chiqarilib, hech bir asossiz o‘zgartirilgan, unutilishga yuz tutgan tarixiy nomlar tiklandi, “joy nomlariga milliy, tarixiy-an’anaviy, o‘zbekona ruh berish”[358] asosida keng qamrovli ishlar tashkillashtirildi hamda amalga oshirildi. Bu holat ham Qiziltepa tumani toponimikasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Jumladan, genetik shakllanish jihatlariga ko‘ra tarixiy etnotoponimlar quyidagichatavsiflandi:

Mahalliy turkiy urug‘lari bilan bog‘liq etnotoponimlarningtarqalish areali.

Turkiy qabilalar o‘zbek xalqi etnik tarkibidagi asosiy 7 qatlamdan biri hisoblanadi. Ular O‘rta Osiyo, xususan, Zarafshon vodiysi hududida doimiy ravishda turg‘unlashib, mahalliy xalqlar bilan etnogenetik va madaniy aloqalarda bo‘lib kelganlar. Ularga ilmiy adabiyotlarda O‘rta Osiyo hududiga Shayboniylardan avval kelib o‘rnashgan turkiy, turk-mo‘g‘ul qabilalarining avlodlari sifatida qaraladi. Hozirda Qiziltepa tumanining o‘zlarini turkiy elat vakili hisoblovchi aholining katta qismi fors-tojik qavmlar bilan birga inoq yashaydilar.

Tadqiqotimiz natijasida keltirilgan hududda barqut, urganji, turkman, qirg‘iz, qoraqalpoq, qozoq, mirzalar, o‘ba, olato‘pi, mirzato‘pi, ayronchi, qo‘lba, mergan, saribosh, saroy, qutchi kabi mayda qavmlarning avlodlari yashayotganligi aniqlandi[359]. Muhimi shundaki, ushbu etnoslar yordamida tilimizda muayyan etnotoponimlar vujudga kelganligini ko‘rishimiz mumkin: Xo‘jato‘pi, Urganji,

[357]O‘zbekiston Respublikasining «Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida»gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y., 41-son 448-modda) va Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi «Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik ob’ektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida»gi 295-sonli qarori(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 41-42-son 483-modda) ijrosini ta’minlash, shuningdek, geografik ob’ektlarni nomlash sohasidagi davlat siyosatini samarali amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 9-son, 320-modda).

[358]Rajabov Q., Maqsudov R. Qiziltepa tumani: kecha va bugun. – Toshkent: SAHHOF, 2021. – 408 b.

[359]Maqsudov R., Rajabov Q. Qiziltepa tarixi. – Toshkent, 2016. - B. 3-90.

Qirg‘izon, O‘ba, Ayronchi, Qo‘lba, Mergan, Saribosh, Mang‘it, Naymancha, Saroy, Qozoqovul kabilar.

Qirg‘izlar bilan bog‘liq etnotoponimlarning tarqalishareali. Zarafshon vodiysida o‘zbeklar bilan yonma-yon, hatto aralashib yashabkelayotgan qirg‘iz xalqining etnomadaniy aloqalari qadim davrlarga boradi.

Qozoqlar bilan bog‘liq etnotoponimlarning tarqalish areali. Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, turli etnik qatlamlarga mansub urug‘ va qabilalarning uzoq murakkab tarixiy jarayonlarda o‘zaro aralashuvi natijasida turli turkiy millatlar qatorida o‘zbek millati ham shakllanganligini ko‘ramiz.

Tadqiqot natijasida aniqlanishicha, qozoqlar, asosan, Qiziltepahududida quyidagi manzillarda yashashi aniqlangan, ushbu hududlarda Qozoqovul, Ko‘saovul kabi aholi maskanlarining mavjudligi buning yaqqol dalilidir.

Fors-tojik xalqlari bilan bog‘liq etnotoponimlarningtarqalish areali. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asari, asosan, turkiy urug‘lar va qabilalar hamda arab tillarini o‘rganishda eng muhim manba sanalib, unda etnografiyaga, tarixga, geografiyaga hamda folklorga doir qimmatli ma’lumotlarni topishimiz mumkin. Professor H.Dadaboyevning fikricha, “U turkiy tillarning fonetik va grammatik xususiyatlarini turk, o‘g‘uz, qipchoq shevalari materiallari asosida qiyoslaydi”[360]. Mahmud Koshg‘ariyning fikricha, “Ular ikki tilda, ko‘pincha, turkiy va so‘g‘dcha yoki forsiyda so‘zlashuvchilardir. Ularning har birlarining tillarini o‘z o‘rnida so‘zlayman”, deydi[361]. Ko‘rinadiki, Koshg‘ariy o‘z asarida turkiy va eroniy (so‘g‘d, fors) tillarning o‘zaro ta’sirini nazarda tutadi.

Fors-tojik xalqlari O‘rta Osiyo, jumladan, Zarafshonvohasining qadimgi etnoslaridan biridir. Ular, asosan, vohaning g‘arbiyva shimoliy-g‘arbiy qismida joylashgan.Hozir Qiziltepa tumanida tojik etnonimi asosida quyidagi joy nomlariuchraydi: Kattatojik, Tojikmahalla, Tojikon, Tojik qishloq kabilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli «O‘zbek tiliningdavlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni // www. Lex/uz.

2.Наханова Л.А.Историко-семантическая интерпретация топонимов в Орхоно-Енисейскихпамятниках. Диссертация на соискание ученой степени(PhD) доктора философии. - Астана, 2014. -С.13; Кононов А.Н. Махмуд Кашгарский и его «Дивану лугат-ит турк».// Советская Тюркология. – 1972. №1. –С.3-17.

3.Maqsudov R., Rajabov Q. Qiziltepa tarixi. -Toshkent., 2016. -B.15., 34-287.

4.Rajabov Q., Maqsudov R. Qiziltepa tumani: kecha va bugun. – Toshkent: SAHHOF, 2021. – 408 b.

5.Dadaboyev H. «Devonu lug‘otit turk»ning til xususiyatlari. – Toshkent, 2017. –B. 6-40.

[360]Dadaboyev H. «Devonu lug‘otit turk»ning til xususiyatlari. – Toshkent, 2017. –B. 6-40.
[361]Mahmud Koshg‘ariy. “Devonu-lug‘otit turk, 1- tom. –Toshkent: Fan, 1960. -B. 65.

6.Mahmud Koshg‘ariy. “Devonu-lug‘otit turk, 1-tom. –Toshkent: Fan, 1960. - B. 65.

O‘ZBEK TILIDA LISONIY BELGI GRADATSIYASINING TIL BIRLIKLARINI SHAKLLANTIRISHI

Azimova Dilobarxon Berdiali qizi
Qo‘qon DPI tayanch doktoranti

Annotatsiya. O‘zbek tili, boshqa turkiy tillar singari, lisoniy belgilar va ularning gradatsiyasi orqali so‘zlar va gaplar o‘rtasidagi semantik va sintaktik aloqalarni belgilaydi. Lisoniy belgi gradatsiyasi til birliklarining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tezisda biz O‘zbek tilidagi lisoniy belgilar gradatsiyasining til birliklariga ta’siri va ularni shakllantirish jarayonini tahlil qilamiz.

Kalit so‘zlar: lisoniy belgi, fonologik asos, morfologik asos, so‘z strukturasi, belgi gradatsiyasi

Abstract. The Uzbek language, like other Turkic languages, defines semantic and syntactic relations between words and sentences through linguistic signs and their gradation. Linguistic sign gradation plays an important role in the formation of language units. In this thesis, we analyze the influence of the gradation of linguistic signs in the Uzbek language on language units and the process of their formation.

Key words: linguistic sign, phonological basis, morphological basis, word structure, sign gradation

O‘zbek tilshunosligi so‘nggi davrlarda katta yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Tilshunoslik nazariyasiga bag‘ishlangan bir qator asarlar maydonga keldi. Bu asarlarda o‘zbek tili tuzilishini sistemaviy tadqiq qilish muammolari, tilda umumiylik-xususiylik dialektikasini namoyon bo‘lishi, til va nutq dialektikasi, til tuzilishining darajali xususiyati, til sathlari va sathlararo munosabat kabi masalalar ma’lum darajada yoritildi. O‘zbek tilshunosligining qo‘lga kiritgan bunday yutuqlari bilan oliy o‘quv yurtlari filologiya fakul’teti talabalarini tanishtirish ularda ilmiy dunyoqarashni, mavjud adabiyotlarga tanqidiy va ijodiy yondasha olish ko‘nikmasini shakllantirishda, o‘quv dasturi asosida olgan bilimlarini chuqurlashtirishda katta ahamiyatga ega. Motivlanmagan belgilar ichida lingvistik belgi alohida o‘rin egalaydi. Lingvistik belgilar konventsionalligi bilan motivlanmagan barcha belgilar bilan umumiylikni hosil qilsa ham, ammo axborot tashish imkoniyatining kengligi, diskretligi, akustikligi, ko‘psathliligi va bu sath birliklari o‘rtasida pog‘onali (darajali) munosabatning mavjudligi bilan boshqa motivlanmagan belgilardan farq qiladi. SHuning uchun ham lingvistik belgi alohida tipdagi belgidir.

XX asrning so‘ngida lingvistik kategoriya sifatida graduallik kategoriyasimasalasini o‘rganishda sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan. Graduallik falsafa, mantiq, psixologiyaga asoslanib, insonning ongi, dunyoqarashi, faoliyati, atrof-olamga nisbatan bo‘lgan munosabatlarining ko‘proq/kamroq namoyon

bo‘lishi bilan birqatorda gradual shkala shaklida ifodalanadi. Bu holatda graduallik markazida to‘liq darajalanish, uning atrofida qisman darajalanish kuzatiladi. Graduallik deganda, gradatsiya, gradual munosabatlar, graduallashish ham tushuniladi. Gradatsiya darajasi (belgi intensivligi darajasi) gradual shkala tushunchasining tadbiq etilishiga sabab bo‘ladi. Gradual shkala – belgi darajasining ortib/kamayib borish sifatida ko‘p/kam/teng nisbiy graduatorlar birliklarining tartibga solinishi bo‘lib, shkalada belgilangan nuqtalar subyektiv xususiyatga egadir: uning asosini individning idrok etishi hamda baholashi tashkil etadi. Belgi gradatsiyasi ma’lum qoidalarga ko‘ra modellashtiriladi. Shu bilan birga belgini ifodalashda gradual shkala gorizontal va vertikal ko‘rinishlarda amalga oshiriladi.

Lisoniy belgilar va ularning gradatsiyasi. Lisoniy belgilar – bu til birligining mazmunini ifodalovchi elementi bo‘lib, ular semantik, sintaktik va leksik darajada muhimdir. Gradatsiya esa belgilar orasidagi kuch va zaiflik darajasi, ularning muayyan kontekstdagi foiz va ta’sirini ko‘rsatadi. Zinder (1979) bildirganidek, “lisoniy belgilarning kuch-zayifligi ular o‘rtasida semantik, sintaktik aloqalarni muvozanatlashadi” (Zinder, 1979).

Lisoniy belgi gradatsiyasining tahlili. Gradatsiya fenomeni O‘zbek tilida kichik va katta, kuchli va zaif, uzun va qisqa, yumshoq va qattiq lisoniy belgilarni ajratish uchun ishlatiladi. Masalan, "ko‘z" so‘zidagi "o‘" unli tovushi kuchli bo‘lsa, "a" unli tovushi zaif, ya’ni, kuchsiz, o‘sha so‘zning ma’no shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Mirtojiev (2013) bu borada quyidagilarni ta’kidlaydi: “Lisoniy belgilar o‘zaro bog‘liqlikda har xil darajada kuchga ega bo‘lib, ularning semantik qiymati ham shunga muvofiq ravishda o‘zgaradi" (Mirtojiev, 2013). Bu, ayniqsa, suzlar hosil qilish jarayonida e’tiborga olinadi: kuchli so‘zlar kuchli kontekstdaligini ifodalasa, zaif so‘zlar esa boshqalar ichida ma’nosini yo‘qotadi. O‘zbek tilida lisoniy belgilarni shakllantirish. O‘zbek tilida gradatsiyaga bog‘liq belgilar ko‘pincha so‘z yasashda, sintaktik tuzilmalarda va stilistik vositalarda ifodalanadi. Misol uchun, “chiroy” so‘zi, uning kuchli ifodasi orqali ko‘rilgan holda, sifat sifatida ishlanganda, “chiroyli” so‘zini hosil qilish uchun kuchli kontekstni talab qiladi. Boshqa tomondan, “yomon” so‘zining ifodasi O‘zbek tilida kuchsiz, yoki zaif shaklda ko‘rsatiladi.

Bozorov (1995) ta’kidlaganidek, “O‘zbek tili gramatik tuzilishi va leksik boyligi bilan birgalikda, lisoniy belgilar gradatsiyasini yaratish imkoniyatini kengaytiradi” (Bozorov, 1995). Bu, so‘zlar va shakllarni birikmasidan kelib chiqadigan semantika va sintaktikaning chuqur aloqalarini ko‘rsatadi. Har qanday lingvistik belgi akustik xossaga ega. Uning akustik xossasi, kishilar xotirasida saqlanadi va nutq jarayonida ma’lum chiziqlikdagi tovush to‘lqini sifatida namoyon bo‘ladi. Uning moddiy mavjudligi tovush to‘lqinining cho‘ziqligiga teng. Kipshlar xotirasida mavjud bo‘lgan u yoki bu belgidan foydalanish jarayonida har qaysi belgi so‘zlovchi tomonidan xar safar yangidan hosil qilinadi. So‘zlovchi

xotirasida ma’lum belgi akustik xossasi haqida oldindan ma’lumotning mavjudligi va so‘zlovchi uni talaffuz qilish ko‘nikmasita ega bo‘lishi bu belgining xar safar hosil qilish imkoniyatini yaratadi, shuning uchun ham har bir belgi bir necha “nusxa”da namoyon bo‘lish xususiyatiga ega. Til belgisining “ko‘p nusxaliligi” alohida "nusxalar"ni (konkret belgilami) shu belgining variantlari deb qarashga imkon beradi. Bu belgining umumlashgan obrazi har qaysi variantlarda, albatta, takrorlanadigan umumiy xususiyatlami aks ettiruvchi invariant sifatida gavdalanadi. Lingvistik belgi invarianti ideal predmet, "aqliy narsa", mohiyatidir. U shu belgining mavhum shakli hisoblanishi mumkin. Masalan, o‘zbek tilida q-a-

|-M-m tovush qatori yozish quroli haqida ma’lumot beruvchi belgidir. Bu belgi turli shaxslar tomonidan nutq tempi va balandligi, so‘zlovchi nutq limitining o‘ziga xosligiga ko‘ra turli sharoitda talaffus qilinganda, uning tovush qiyofasi muayyan chegaragacha turli darajada o‘zgarishga uchraydi. Lekin so‘zlashuvchilar talaffuzning har qaysi holatida ham ularning bir belgi ekanligini anglaydilar. Buning sababi so‘zlovchilarda shu belgining umumlashgan obrazi haqida oldindan ko‘nikmaning mavjud bo‘lishidir.

Fonologik va morfologik asoslar. O‘zbek tilida lisoniy belgi gradatsiyalari nafaqat leksik darajada, balki fonologik va morfologik darajada ham sezilarli ahamiyatga ega. Fonological belgilar kuchli va zaif o‘zgarishlarga ko‘ra o‘zgaradi, bu esa so‘z strukturasida muhim rol o‘ynaydi. Masalan, “kitob” so‘zida “i” unlisining kuchliligi so‘zni tashiydigan kuchni ifodalaydi. Mirtojiev (2013) bu holatni quyidagicha tushuntiradi: “Fonologik strukturadagi kuch va zaiflik, so‘zning morfologik tuzilishini, uning semantikasini va qiyofasini shakllantiradi” (Mirtojiev, 2013). Shu sababli, O‘zbek tilidagi lisoniy belgilar gradatsiyasi morfologik shaklanish jarayonida muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek tilida lisoniy belgi gradatsiyasi, lisoniy birliklar shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Belgilar o‘rtasidagi kuch-zayiflik, uzun-qisqa, yumshoq-qattiq munosabatlari tilning murakkab tuzilishini ifodalaydi va uning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon tilda semantik aloqalar yaratadi va O‘zbek tilida boy leksik va sintaktik imkoniyatlarni ochadi.

Ushbu tezis O‘zbek tilida lisoniy belgi gradatsiyasining til birliklari shakllanishidagi o‘rni haqida batafsil tahlilni taqdim etadi. Grammer va fonologik xususiyatlar o‘rtasidagi murakkab aloqalarni anglash, kelgusidagi lisoniy tadqiqotlar uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduazizov, A. (1992). Phonology and morphonology of the Uzbek language. Tashkent: Teacher.

2. Bozorov, O. (1995). Graduonomy in Uzbek. Tashkent: Science.

3. Mirtojiev, M.M. (2013). Phonetics of the Uzbek language. Tashkent: Science.

4. Nurmonov, A.N. (1990). Phonology and morphonology of the Uzbek language. Tashkent: Teacher.

5. Shcherba, L.V. (1958). Selected works on linguistics and phonetics. L., Nauka.

6. Zinder, L.R. (1979). General phonetics. M. 286 p.

O‘ZBEK BADIIY ASAR TILIDA SAN’AT TERMINLARINING AKSIOLOGIK O‘RNI

Qodirova Munisa Erkinjon qizi
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek badiiy asar tilida san’at terminlarining aksiologik o‘rni tahlil qilinadi. San’at terminlari nafaqat badiiy ifodalarni boyitishi, balki madaniy qadriyatlarni aks ettirishi nazariy asoslangan. Maqolada mazkur soha terminlari asar muallifining fikr va his-tuyg‘ularini o‘quvchiga yetkazishda muhim ahamiyatga egaligi hamda estetik va ma’naviy rivojlanishga xizmat qiladi deb xulosalangan.

Kalit so‘zlar: *san’at terminlari, aksiologik o‘rin, badiiy asar tili, estetik qadriyatlar, qadriyatlar verbalizatsiyasi*.

Abstract. This article analyzes the axiological role of art terms in the Uzbek artistic language. Art terms not only enrich artistic expressions but also reflect cultural values based on theoretical foundations. The article concludes that these terms are significant in conveying the author’s thoughts and emotions to the reader, as well as serving aesthetic and spiritual development.

Keywords: *art terms, axiological role, artistic work language, aesthetic values, verbalization of values*.

Har qanday tilning boyligi va o‘ziga xosligi, uning badiiy asarlarida aks ettirilgan madaniy va estetik qiymatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zbek adabiyotida san’atga oid terminlar faqatgina aniq ma’noni ifodalovchi vosita sifatida emas, balki ijtimoiy, madaniy va estetik jihatdan ham o‘ziga xos qiymatga ega bo‘lgan til birliklari sifatida qaraladi [1: 11]. Ushbu terminlar badiiy asar tilining boyligini oshirish bilan birga, o‘quvchi dunyoqarashi va hissiyotlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu terminlar asarda qahramonlar ruhiy holatini ifodalash, estetik muhitni yaratish va asarning umumiy qiymatini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Maqolaning maqsadi – o‘zbek badiiy asarlarida ishlatilgan san’at terminlarining aksiologik o‘rnini aniqlash va ularning madaniy-estetik vazifalarini tahlil qilishdan iborat. Maqolada o‘zbek tili badiiy asarlarida san’at terminlarining aksiologik o‘rnini aniqlash uchun quyidagi metodologik yondashuvlar qo‘llanildi: 1) *Diskursiv tahlil*dan, yani badiiy asar matnlarida san’at terminlarining qo‘llanilishi diskursiv nuqtai nazardan o‘rganildi. Bu usul orqali terminlarning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi aksiyologik vazifalari aniqlanadi. 2) *Semantik tahlil*dan, yani san’at terminlarining ma’no jihatidan tadqiq qilinishi uchun qo‘llanildi. Ushbu yondashuv orqali terminlarning asosiy va ikkilamchi ma’nolari, ularning konnotatsion va denotatsion xususiyatlari aniqlandi. 3) *Aksiologik tahlil*dan, yani bu yondashuv orqali terminlarning qimmat yaratishdagi roli va

badiiy matn tarkibidagi hissiy-estetik ta’siri aniqlanadi. 4) *Tarixiy-madaniy tahlil*dan, yani san’at terminlarining aksiyologik ahamiyatini aniqlashda ularning tarixiy va madaniy rivojlanish jarayonlari ham inobatga olindi. Bu yondashuv san’at terminlarining kelib chiqishi, ularning tarixiy jarayonlarda qanday o‘zgarishlarga uchraganligi va madaniy kontekstdagi o‘rni tahlil qilishga yordam beradi.

O‘zbek tili badiiy asarlarida san’at terminlarining aksiologik o‘rni chuqur tahlil qilish natijalariga ko‘ra, san’at terminlari badiiy matnda nafaqat ma’no ifodalash vositasi, balki qimmat yaratish, estetik va madaniy qiymatni aks ettirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi va quyidagi natijalar olinadi:

San’at terminlarining aksiyologik qiymati: o‘zbek tili badiiy asarlarida san’at terminlari nafaqat aniq bir san’at turini tasvirlashda, balki asar voqealari va qahramonlari ma’naviy-estetik mazmunini boyitishda aksiyologik jihatdan muhim o‘rin egallaydi (mas.: *go‘zallik, ma’naviyat, estetika, ijodkorlik, hissiyot, madaniyat, ilhom, hunar*). Ular asarda milliy qadriyatlar, madaniy meros va san’atning ijtimoiy ahamiyatini aks ettiruvchi vositalar sifatida xizmat qiladi.

Terminlarning semantik boyligi va o‘zgaruvchanligi: san’at terminlarining badiiy matnda keng ko‘lamli semantik imkoniyatlarga ega [4: 13] ekanligi aniqlandi (*navo, surat, sahna, ijod, tasvir, chizma, libos, qo‘shiq, parcha, kuy* va b.). Terminlar kontekstga qarab turli konnotatsiyalarni ifodalashi, ular orqali muallifning san’atga bo‘lgan shaxsiy qarashlari va o‘quvchiga etkazmoqchi bo‘lgan hissiy-estetik ta’siri ifodalanganligi kuzatildi [2];

Terminlarning estetik vazifasi: san’at terminlari badiiy asarlarda estetik vazifani bajarish bilan birga, matnning hissiy-estetik ta’sirini kuchaytiradi (mas.: *nazokat, tafakkur, ilhom, sehr, maftunkor, mo‘jiza, nafosat, ravonlik, joziba, zavq*). Bu terminlar yordamida muallif asarda tasvirlanayotgan holatlarning go‘zalligini, san’atning inson hayotidagi ahamiyatini [6: 79] va uning ma’naviy qiymatini o‘quvchiga ta’sirchan tarzda yetkazishga erishadi.

Badiiy til va aksiologik bog‘liqlik: san’at terminlari badiiy matnning umumiy aksiologik tizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, asarda ko‘tarilgan g‘oyalar va qadriyatlarni ifodalashda (*ashula, maqom, navro‘z, folklor, terma, qo‘shiq, rubob, kuy, lapar, doira*) xizmat qiladi. Ular badiiy obrazlar orqali san’at va madaniyatni estetik jihatdan namoyon etish bilan birga, o‘quvchida san’atning qimmatini chuqurroq anglashga turtki beradi.

Shuningdek, san’atga oid terminlar tadqiqi o‘zbek tili badiiy matnlarida terminlarning leksik ma’nolari, ularning milliy madaniyatdagi estetik va aksiologik ahamiyatini ochib berish bilan birgalikda, har bir termin o‘zbek xalqining ma’naviy dunyosini, tarixiy va madaniy merosini ifodalashda muhim o‘rin tutadi. Fikrimiz dalili sifatida quyida badiiy asarlar tahlili natijasida aniqlangan ba’zi san’at (musiqa)ga oid terminlarining aksiologik, lingvistik hamda etimologik xususiyatlarini ko‘rsatadigan jadval taqdim etmoqchimiz:

Termin	Aksiologik xususiyati	Leksik ma’nosi (lingvistik xususiyat)	Etimologiyasi
Navo	Estetik qadriyat, musiqaning go‘zalligini aks ettiradi	Melodiya, ohang, musiqiy tovushlar yig‘indisi	Fors tilidan kelib chiqqan: "nawa" – ohang, tovush
Rubob	Milliy qadriyat, xalq musiqasida o‘ziga xos mavqega ega	Cholg‘u asbobi, torli musiqa asbobi	Arab tilidan kelib chiqqan: “rabab” – torli cholg‘u
Qo‘shiq	Madaniy meros, xalq qo‘shiqlari orqali milliy ruhni ifodalaydi	Og‘zaki ijodda ashula shaklida ifodalanadigan musiqiy asar	Turkcha: "qosh" – qo‘shish, birlashish ma’nosidan kelib chiqqan
Ashula	Folklorik san’atning qadriyatlaridan biri, milliy o‘zlikni ifodalaydi	Kuy va so‘zlar orqali ijro etiladigan musiqa janri	O‘zbek tilidagi so‘z, mahalliy o‘zbekchalashtirilgan
Lapar	Madaniy qadriyat, xalq musiqasida ko‘p qo‘llaniladigan janr	Ikki kishi o‘rtasidagi qo‘shiqbozlik	O‘zbekcha: xalq tilida qabul qilingan
Surnay	Milliy marosimlarning musiqiy ifodasi, bayramlarni bezaydi	Nafasli cholg‘u asbobi, marosim va tantanalarda ishlatiladi	Forscha: “sunray” – nafasli cholg‘u asbobi

Ushbu jadvalda keltirilgan musiqaga oid terminlarning lingvistik, aksiologik va etimologik tahlillari misollar bilanquyidagicha izohlanadi.

1. ***Navo*** – o‘zbek tilida *ohang*, *kuy* yoki *melodiya* degan ma’nolarni anglatadi. Ushbu termin ko‘pincha musiqada tovushlar yig‘indisini ifodalash uchun ishlatiladi. “Navo” estetik qadriyatlarni ifodalaydi. Masalan, “*Yurakdan urilgan **navo** ko‘ngillarni yashnatdi*” iborasi musiqaning ma’naviy va hissiy ta’sirini tasvirlaydi. Navo fors tilidan olingan bo‘lib, “*nawa*” (نوا) *ohang*, *kuy* ma’nosini anglatadi. Bu o‘zbek madaniyatida musiqiy asarlar, ayniqsa, klassik mumtoz kuylarda keng qo‘llaniladi. Masalan: “*Navo madhiya kuylari osmonda yangraganida, har bir yurak uni his qildi*”.

2. ***Qo‘shiq*** – u musiqiy asar bo‘lib, asosan so‘zlar va musiqaning birlashmasidan iborat. Qo‘shiq so‘zi turkiy tilidagi “*qosh*” (qo‘shish, birlashish) so‘zidan kelib chiqqan [3]. U og‘zaki xalq ijodi mahsuli sifatida keng qo‘llaniladi: “*To‘y marosimida ijro etilgan **xalq qo‘shig‘i** ishtirokchilarni birlashtirdi va milliy ruhni uyg‘otdi*”. Qo‘shiq milliy madaniyatni ifodalovchi san’at shakli bo‘lib,

xalqning ma’naviy dunyosini aks ettiradi. Masalan: *Milliy **qo‘shiq**lar orqali o‘zbek xalqining tarixiy va madaniy qadriyatlari namoyon bo‘ladi*.

3. ***Rubob*** – u torli musiqa cholg‘usi bo‘lib, ko‘pincha o‘zbek xalq musiqasida ishlatiladi. Bu cholg‘u asbobi o‘ziga xos tovushi bilan ajralib turadi. Rubob o‘zbek xalqining madaniy merosi sifatida estetik va musiqa san’atida muhim rol o‘ynaydi. Uning tovushi ko‘pincha xalq musiqasida lirizm va chuqur his-tuyg‘ularni ifodalaydi. Arab tilidan kelib chiqqan “*rabab*” so‘zi torli cholg‘u asbobini anglatadi [5]. Bu asbob qadimiy bo‘lib, O‘rta Osiyo madaniyatida keng tarqalgan: “***Rubob**ning mayin tovushi yuraklarni eritdi, ko‘ngilni tarbiyaladi*”.

4. ***Ashula*** – bu so‘z o‘zbek tilida qo‘shiq yoki musiqiy asar ma’nosida ishlatiladi. Bu janr ko‘pincha xalq musiqasi, baxshilik yoki mumtoz kuylarda uchraydi. Ashula o‘zbek madaniyatining milliy o‘zligini ifodalaydi. Bu janrda ijro etiladigan asarlar xalqning tarixini, an’analarini va ma’naviy merosini ifodalaydi. Ashula so‘zi o‘zbek tilida maxsus musiqiy janrni ifodalash uchun qabul qilingan bo‘lib, mahalliy leksikaga xosdir: “*Baxshining yurakdan kuylagan **ashulasi** majlisni yoritib yubordi*”.

5. ***Lapar*** – u ikki yoki undan ortiq kishining qo‘shiq aytishida ishlatiladigan janr bo‘lib, dialog shaklida ijro etiladi. Lapar xalq ijodining madaniy va estetik qadriyatlarini aks ettiradi. Bu janrda ijro etiladigan asarlar ko‘pincha marosimlarda, tantanalarda va xalq bazmlarida ijro etiladi. Lapar so‘zi o‘zbek tilidagi xalq ijodida qabul qilingan bo‘lib, o‘zbek milliy cholg‘ulari va an’anaviy musiqada keng tarqalgan: “*To‘y bazmidagi **lapar**larning bir-biriga aytilishi hamma uchun quvonch keltirdi*”.

6. ***Surnay*** – u nafasli musiqa cholg‘usi bo‘lib, ayniqsa, tantanali marosimlarda keng ishlatiladi. Surnay xalq marosimlari va tantanalarining ajralmas qismi bo‘lib, o‘zbek xalqining bayramona kayfiyatini ifodalaydi. U bayramlar, to‘ylar va boshqa muhim voqealarda ijro etiladi. Fors tilidan kelib chiqqan “*sunray*” (سورنا) so‘zi nafasli cholg‘u asbobini ifodalaydi. Bu asbob tarixan ko‘plab O‘rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan: “***Surnay**ning tantanali tovushi to‘y marosimini boshladi*”.

Ushbu tahlil o‘zbek tili badiiy matnlarida musiqaga oid terminlarning leksik ma’nolari, ularning milliy madaniyatdagi estetik va aksiologik ahamiyatini ochib beradi. Har bir termin o‘zbek xalqining ma’naviy dunyosini, tarixiy va madaniy merosini ifodalashda muhim o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Азизов, С.А. Лексико-грамматическое изыскание музыкальной терминологии узбекского языка: автореф. дис. ... канд. филол. наук: 10.02.02 / Сами Азизович Азизов. - Ташкент, 1981. - 23 с.

2. Вицинская, И.А. Лингводинамические протекания в современной немецкой музыкальной терминологии: автореф. дис. ... канд. филол. наук: 10.02.04 / Ирина Александровна Вицинская. - М., 2009. - 24 с.

3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.

4. Сагеева, Г.Х. Традиционная терминология татарской музыкальной культуры: Семантическая реконструкция: автореф. дис. ... канд. искусств. наук: 17.00.02/Гульнара Ханифовна Сагеева. - Казань, 2007. - 25с.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 608 б.

6. Эшматова, И.С. Семантическая и функциональная классификация музыкальной терминологии русского и таджикского языков: дис. ... канд. филол. наук: 10.02.20 /Илмия Сахобидиновна Эшматова. - Душанбе, 2013. - 152с.

“DEVONU LUG‘OTIT TURK” LEKSIKASINING HOZIRGI O‘ZBEK TILIGA MUNOSABATI (JUFT SO‘ZLAR VA “SAYYOH” SO‘ZLAR MISOLIDA)

Lobar Akbarovna Aralova
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Turkiy tillar dunyodagi barcha tillar singari eng qadimgi tillardandir. Hozirgi o‘zbek tilida bo‘lgani kabi qadimgi turkiy tilda ham juft so‘zlar mavjud bo‘lib, ular qo‘llanishi jihatidan hozirgidan biroz farq qilgan. Mazkur maqolada mana shunday so‘zlar tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada boshqa til materiali sifatida ko‘rsatilayotgan sof turkiy so‘zlar “Devonu lug‘otit turk” asari asosida izohlangan.

Kalit so‘zlar: o‘g‘uz, juft so‘z, “sayyoh” so‘zlar, leksika, rus tiliga o‘zlashgan so‘zlar, eski turkiy til.

Annotation. Turkic languages are among the oldest languages in the world. As in the modern Uzbek language, there were pairs of words in the ancient Turkic language, which were slightly different in terms of their usage. This article analyzes such words. Also, the purely Turkish words presented in the article as material of another language are explained on the basis of the work "Devonu lugotit turk".

Key words: Oghuz, couplets, "tourist" words, lexicon, words assimilated into the Russian language, old Turkic language.

Eski turkiy tilda hozirgi o‘zbek tilidagidek juft so‘zlar mavjud bo‘lgan. Ularning qo‘llanishida ham ma’lum qonuniyatlar amal qilgan. Ma’lumki, hozirgi o‘zbek tilida har ikkala qismi mustaqil ma’noga ega bo‘lgan juft so‘zlar bilan birga, bir komponenti va har ikkala qismi mustaqil ma’noga ega bo‘lmagan juft so‘zlar ham bir muncha keng uchraydi. Shunisi ham borki, mustaqil ma’noga ega bo‘lmagan bu xil so‘zlar, asosan, juft so‘zlarning ikkinchi qismida, ba’zan birinchi komponentida qo‘llanadi. Mustaqil ma’noda qo‘llanmaydigan bunday so‘zlar ilgari o‘z leksik ma’nosiga ega bo‘lgan, ammo keyinchalik bu leksik ma’no unutilgan. Hozirda esa ular yo ayrim turkiy tillarda mustaqil ma’nosini saqlagan holda qo‘llanadi yoki ayrim sheva vakillari nutqida uchraydi yoxud ma’lum bir maqol va matal tipidagi gaplar tarkibidagina ishlatiladi [Раҳмонов, 2011: 42]. Masalan, XI

asr yodnomasi bo‘lgan “Devonu lug‘otit turk”da **qošnï-qonum** [Koshg‘ariy, 1960: I, 94] holatida qo‘llangan juft so‘z hozirgi kunga kelib qo‘ni-qo‘shni tarzida istifoda etiladi. Ko‘rinib turibdiki, qadimda qo‘shni so‘zi juft so‘zning birinchi komponenti sifatida ishlatilgan. Mazkur so‘zning qo‘llanishi xususida olim quyidagi fikrni aytib o‘tgan: **qošnï**-qo‘shni. O‘g‘uzlar ن **n** harfini ش **sh** harfidan oldin qo‘yib قُنش **qonšï** deydilar. Har ikkisi ham qoidaga mos va to‘g‘ridir [Koshg‘ariy, 1960: I, 408]. Hozirgi o‘zbek tilidagi turli-tuman, oriq-tiriq, yig‘i-sig‘i kabi juft so‘zlar tarkibidagi ikkinchi komponentlar eski turkiy tilda birinchi komponent anglatgan ma’noni ifodalagan. Jumladan, “Devon”da **sïğït** [Koshg‘ariy, 1960: I, 338] leksemasi “yig‘i” ma’nosida kelgan. Navoiy siqtamoq so‘zini “haddan ortiq, qattiq yig‘lamoq” ma’nosida beradi:

Ul oyki kula-kula yig‘latdi meni,

Yig‘latdi meni demayki, siqtatdi meni (Muhokamatul lug‘atayn, 47-bet) [Koshg‘ariy, 1960: I, 338].

Shuningdek, **tümän** [Koshg‘ariy, 1960: I, 382] so‘zi lug‘atda “har narsaning ko‘pi”, **turïq** so‘zi “har narsaning orig‘i” [Koshg‘ariy, 1960: I, 361] deya izohlanadi. Demak, biz hozirgi o‘zbek tilida ma’no anglatmaydi, deb hisoblaydigan juft so‘zlarning ikkinchi komponenti eski turkiy tilda asosiy ma’no anglatuvchi qism bo‘lgan.

Mahmud Koshg‘ariy juft so‘zlarning ishlatilishi haqida quyidagicha fikrlarni aytib o‘tgan: “O‘g‘uzlarning tili nozikdir. Juft holda qo‘llanadigan so‘zlardan ot va fe’llarning biri asosiy so‘z, ikkinchisi ergashma so‘z bo‘ladi. O‘g‘uzlar boshqa turklarda ayrim holda ishlatilmaydigan ergashma so‘zning o‘zini ishlata beradilar. Masalan, bir narsa bir narsaga aralashsa, turklar **qattï qardï** – aralash-quralash bo‘ldi deydilar. Bu yerda **qattï** so‘zi asos va asli bo‘lib, **qardï** so‘zi ergashmadir. O‘g‘uzlar shu ma’noda qardï so‘zining o‘zinigina qo‘llab, asosiy so‘zni tashlaydilar. Shuningdek, turklar “yaxshi” ma’nosini anglatish uchun juft holda **ɵzgü jawlaq** deb qo ‘llaydilar. O‘g‘uzlar ularni yolg‘iz holda ishlatadilar” [Koshg‘ariy, 1960: I, 406].

Tillar rivojlanar ekan, albatta, o‘zaro bir-biriga ta’sir o‘tkazadi. Natijada, tillarning lug‘at tarkibi ham boyib boradi. “Xalqlar orasidagi iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalar natijasida bir til qurilishiga xos birliklar (asosan, lug‘aviy birliklar, qismangina fonetik va grammatik birliklar) ikkinchi tilga o‘tadi, shu tilga singib, uning boyligiga aylanadi” [Раҳматуллаев, 2010: 115]. Turkiy tillar, xususan, o‘zbek tilining ko‘p vaqtlar mobaynida arab, fors-tojik tillari, rus tili orqali Yevropa tillaridan so‘z o‘zlashtirib, rivojlangani bunga misol bo‘la oladi. Lekin shunday so‘zlar borki, ular asli turkiy bo‘lib, boshqa tillarga o‘zlashgan va keyinchalik ayrim fonetik o‘zgarishlar bilan yana tilimizga qaytgan. Bunday leksik birliklarga nisbatan “sayyoh so‘zlar” termini qo‘llanadi. “Devon”da qo‘llangan ko‘plab so‘zlar sayyoh so‘zlardir.

“Devon”dagi leksemalarga oid tahlillar jarayonida asl turkiy so‘zlar lug‘atlarda boshqa til materiali sifatida berilayotgan holatlarga ham duch kelindi. Masalan, turkiy **kerpič** [Koshg‘ariy, 1960: I,424] devonda ”kirpich, g‘isht; bïšïγ

kerpič – pishiq g‘isht” sifatida izohlangan. Bu leksema rus tiliga ham xuddi shu tarzda o‘zlashgan. Turkiy so‘z bo‘lgan kirpichni hozirgi kunga qadar Xorazm viloyati ahli “g‘isht” ma’nosida qo‘llab keladi. Afsuski, biz forslardan o‘zlashgan ushbu so‘zdan foydalanamiz.

Alibek Rustamovning “So‘z xususida so‘z” kitobida ta’kidlanishicha, **“жир”** so‘zi tilimizda “yog‘`”, “moy” ma’nosini anglatadi. Ozg‘in kishiga nisbatan “Bunga hech jir bitmayabdi” yoki “Buning hech jiri yo‘q” degan iboralar shu mazmundan kelib chiqqan (O‘zbek tilidagi “jir”da “jurnal” so‘zidagi kabi “ж” talaffuz qilinadi) [Shukurov, 2018]. Shunisi qiziqki, rus tilidagi “жир” so‘zi asli bizning tilimizdagi ayni shu “jir” so‘zining o‘zidir. Chunki “jir” so‘zining turkiy so‘z ekanligi Mahmud Koshg‘ariyning lug‘atida qayd etilgan: *ashichta jir yo‘q* – qozonda yog‘ yo‘q [Koshg‘ariy, 1960: I, 313].

Наждак bu ham aslida turkiy so‘z bo‘lib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da najdak-mayda va yupqa, donador kristallardan iborat tog‘ jinsi deb izohlangan. “Devoni lug‘otit turk” asarida bu so‘zning *nïjdäγ* shakli uchrab, “qayraq tosh” ma’nosini beradi [Koshg‘ariy, 1960: I, 432].

Turkiy surqach – luk deyilgan daraxtning siqib olingan shirasiga nisbat berib ishlatilgan. U bilan qilich, xanjar va katta pichoqlarning dastalari biriktiriladi [Koshg‘ariy, 1960: I, 423]. Rus tilida **сургуч** – surguch; запечатать сургучом – surguchlamoq, surguch bilan pechatlamoq.

“Matodan qurilgan kapa; palatka” ma’nosidagi **шатер** leksekasi ruslarda faol ishlatiladigan so‘zlardan biri sanaladi. “Devoni lug‘atit turk” asarida chodir *čätïr* hamda *čäčïr* shakllarida keladi va muallif bu so‘zni Kujo tilidagi varianti şätïr ekanligini qayd etgan [Koshg‘ariy, 1960: I, 385]. Navoiy asarlarida bu so‘z devondagicha chatir, chatr va chotma shaklida ham uchraydi:

Chotma dema hajr qaro shomi de,

Zulmu tab uylarining domi de [Koshg‘ariy, 1960: I, 385].

Shuningdek, Navoiy ijodida chodir shaklini ham uchratamiz, u “chodir, kappa, xayma” ma’nolarini beradi: Bahrom Go‘r zamonig‘acha Rumda erdi va Shopur chodir ichkida erdikim, qattiq yel qo‘pub, chodirni aning boshig‘a yiqti [АНАТИЛ, III, 473].

Teva qo‘shin yuklab ko‘chsa bo‘lmas va chodir qanoti ochib uchsa bo‘lmas [АНАТИЛ, III, 473].

Ruslarda “yengil oq rangli ayollar bosh qoplagichi, bosh kiyimi, kalta ipak ro‘mol yoki ro‘molcha”ga nisbatan **“фата”** termini ishlatiladi. Shimoli-sharqda yashovchi rus xalqi ayollar boshiga o‘raydigan katta ipak ro‘molni “fata” desalar, Rossiyaning jabuniy hududida yashovchi aholisi junli yubkaga nisbatan bu atamani qo‘llaydi. Shipova olimlarning kitoblariga tayanib, bu so‘zning bir qancha fonetik variantdoshlarini ko‘rsatadi: fota, futa, fytka. Fasmer bu termin ruslarga turklardagi “fartuk – yo‘l-yo‘l matodan tikilgan libos”dan o‘zlashganligini aytadi [Фасмер, 4, 187].

“Odatda kiyimni iflos qilmaslik uchun uning ustidan kiyiladigan yoki ish paytida belga bo‘lab olinadigan ish kiyimi, peshband” semasini beruvchi **фартук**

so‘zining turk tilidan rus tiliga o‘zlashganligini ba’zi rus olimlari aytib o‘tishgan. Bu so‘z dastlab Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk”asarida *“partu”* shaklida qo‘llanilgan bo‘lib, devonda “yaxtak, bir qavatli ustki to‘n, partuq” deya izohlangan [Koshg‘ariy, 1960: I, 393]. “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da esa fartuk so‘zi ifodalagan semani bera oladigan bir so‘zga duch keldik. Alisher Navoiy ijodida qo‘llanilgan bu so‘z *“fo‘ta//futa”* so‘zi bo‘lib, u ikki xil ma’noda keladi, lekin har ikkalasi ham kiyim vositasi sifatida talqin qilingan: I. Belbog‘, belga aylantirib o‘raladigan mato; ipak o‘rama belbog‘:

Belingmudurki, anga qizil fo‘ta bog‘lading,

Yo rishtanki o‘tkarilibdur aqiqdin [АНАТИЛ, III, 364].

…muqarrar fo‘ta boisi ul bo‘ldikim, qulluqqa belimni ikki yerda bog‘laymen [АНАТИЛ, III, 364).

II. Hammomda belga bog‘lanadigan lungi. Alisher Navoiy “Xamsa” si tarkibidagi “Sab’ai sayyor” dostonida “futa/fo‘ta” so‘zi xuddi shu ma’noda kelgan.

Futalar mushku anbar og‘ushta,

Tortilib ip yerida zar rishta [АНАТИЛ, III, 364).

Bog‘labon belga sandal fo‘ta,

Urdi chun havz aro kirib g‘o‘ta [АНАТИЛ, III, 364).

Yodnoma tili bilan hozirgi o‘zbek tilidagi so‘zlarning qiyosiy tahlilini olib borganimizda, shu narsa aniq bo‘ldiki, o‘rtada X asr o‘tsa-da, so‘z anglatgan ma’no butunlay yo‘qolib ketmagan, hozirgi kunda ba’zi so‘zlar tarkibida ishlatib kelinmoqda. Shuningdek, biz rus tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan so‘zlar, deb kelgan leksemalar aslida sof turkiycha so‘z ekanligi ham “Devon”da ko‘rsatib o‘tilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Shukurov E. Bobo so‘z izidan. – Toshkent: Mashhur-press, 2018. –B.312.

2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I-IV. –Тошкент: ФАН, 1983-1985.

3.Муталлибов С.М. Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони /Девону луғотит турк/. Таржимон ва нашрга тайёрловчи Муталлибов С.М. –Т.1. –Тошкент: ЎзССР ФА, 1960. –Б. 499.

4. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1- китоб. –Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2010. –Б.115

5. Раҳмонов М. Сўзлар оламига саёҳат. –Тошкент: Фан, 2011. –Б.42.

6. Фасмер М. Этимологический словарь русского языка. М.: Прогресс, 1973.Т.4.

DAVLAT TILINING XALQIMIZ HAYOTIDAGI O‘RNI

Akmal Tursunov Raxmatullayevich
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti
Xaitova Charos gafur qizi
Ibragimova Samiya Tahirovna
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti talabalari

“Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin”.

Sh.Mirziyoyev

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi milliy mustaqillik g‘oyasi yo‘lidagi muhim strategik qadam sifatida tahlil etilgan. Davlat tilini ijtimoiy hayotga faol singdirib borish siyosatini amalga oshirish jarayoni yoritilgan. Bundan tashqari, davlat tili siyosatini amalga oshirish mustamlakachilik oqibatlari bilan samarali kurashishning zaruriy sharti ekanligi asoslab berilgan.

Abstract: This article analyzes the granting of Uzbek the status of the state language as an important strategic step towards the idea of national independence. The process of implementing the policy of active integration of the state language into public life is covered. In addition, it was argued that the implementation of state language policy is a necessary condition for an effective fight against the consequences of colonialism.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, davlat tili, til siyosati, suverinitet, konstitutsiya, qonun, yangi tahrir, o‘zbek tili bayrami kuni.

Key words: Uzbek language, state language, language policy, sovereignty, Constitution, law, new edition, Uzbek language holiday.

KIRISH. O‘zbekiston Respublikasida Davlat tilining ahamiyati va uning xalqimiz hayotidagi o‘rni benihoya kattadir. 1989-yil 21-oktabrda O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi - xalqimizning milliy mustaqillikga erishish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘lib, ona tilimizning bor go‘zalligi va jozibasini to‘la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosida rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Bu ham boshqa davlatlardan tashrif buyuruvchilarga qulaylik va ularning tillariga nisbatan hurmatni bildiradi.

ASOSIY QISM. Ma’lumki, “O‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu millatning ruhidir”. Shunday ekan, ma’naviyatning ko‘zgusi bo‘lgan ona tiliga bo‘lgan munosabat shaxsning ma’naviyatga bo‘lgan munosabatini ham belgilaydi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Kamol topayotgan yosh avlodga ona tiliga e’tibor va ehtirom, unga davlat tili

sifatida qarashning ma’suliyati kabi tuyg‘ularni singdirish va mustahkamlab borish dolzarb muammolardandir.

Mustaqillik O‘zbekiston Respublikasining, **birinchidan,** jahondagi rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin egallashiga, **ikkinchidan,** bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etilishiga, **uchinchidan**, xalqimiz salohiyatini mustahkamlashga imkon yaratdi. Natijada, milliy dunyoqarashda yangicha tafakkur shakllandi. Bu jarayonda o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi milliy mustaqillik g‘oyasi yo‘lidagi muhim strategik qadam bo‘ldi. U suveren davlat konsepsiyasining asosiga aylandi.

O‘ttizga yaqin tildan Iborat turkiy tillar oilasiga mansub va so‘zlashuvchilar soni jihatidan turk tili va Ozarbayjon tilidan so‘ng, uchinchi o‘rinda turuvchi o‘zbek tili jahondagi eng boy va rivojlangan tillardan biridir.

Milliy ziyolilar orasida ona tilini bilmaydigan, rus tilida so‘zlashuvchi qatlam vujudga keldi. O‘zbekistonda o‘zbek tilini qonun chiqarish, ijroiya va sud hokimiyatlarida ish yuritish uchun rasmiy belgilangan til – davlat tiliga aylantirishga mutlaqo yo‘l qo‘yilmadi. O‘zbek tilining ijtimoiy hayotda qo‘llanilishi tobora cheklanib bordi. Biroq ziyolilar, talabalar va yoshlarning faol harakati natijasida 1989-yil 21-oktabrda yurtimizda «O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida»gi Qonun qabul qilindi [1]. Ushbu qonun o‘zbek xalqi milliy ongining rivojlanishida, mamlakat mustaqilligi mustahkamlanishida, madaniy merosning tiklanishida muhim o‘rin tutdi.
O‘zbekistonning mustaqillik sari qo‘ygan birinchi dadil qadami bo‘ldi. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, davlat tili masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etdi. Ayni shu jarayonda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari tub aholisining anchagina qismi davlat tilini qabul qilishga tayyor emasligi, muayyan qismi esa umuman rus tilini afzal ko‘rishi, ko‘p milliy tillar davr talablaridan orqada qolganligi ma’lum bo‘ldi. Shu sababli O‘zbekistonda davlat tilining nufuzini oshirish bo‘yicha konseptual xarakterdagi chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Yurtimizda davlat tilini ijtimoiy hayotga faol singdirib borish siyosatini amalga oshirishga kirishildi. Bu esa mamlakat aholisida davlat tiliga munosabatni o‘zgartirish, ommada o‘z milliy tiliga nisbatan hurmat va qiziqish tuyg‘usini uyg‘otish hamda mustahkamlash vazifalari ijrosini talab etadi. Shu bois, davlat tili haqidagi qonun qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida mustahkamlab qo‘yildi. Natijada 1995-yil 22-dekabrda «O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida»gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi [2]. O‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu qonun va boshqa qonunlar bilan belgilanadi.

O‘zbek tilining jamiyatdagi mavqeyini oshirish maqsadida keyingi yillarda ham bir qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ular orasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016- yil 13-maydagi farmoniga asosan tashkil etilgan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabr kuni imzolangan «O‘zbek tilining davlat tili

sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni soha rivojidagi yangi bosqichni boshlab berdi [3].

Farmonda o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘ e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug‘ ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlash maqsadida bir qancha amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi.

O‘zbek tili O‘zbekistonda davlat tilidir. Bu tilda so‘zlashuvchilarning umumiy soni 35 milliondan ortiq bo‘lib, ularning asosiy qismini O‘zbekistonda va unga chegaradosh bo‘lgan mustaqil davlatlarda istiqomat qilib turgan o‘zbek tilida so‘zlashuvchi va o‘zini o‘zbek deb biluvchi aholi tashkil qiladi. O‘zbek tili jahondagi eng boy va rivojlangan tillardan biri. Bu tilning shakllanishida, ayniqsa, Alisher Navoiyning xizmati katta. Buni uning ushbu misralarida ham bilish mumkin:

Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

Ha, o‘zbek tili rivoji yo‘lida bugungi kunda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar ham Hazrat Navoiyning til rivojidagi amallarining mantiqiy davomidir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning Birlashgan millatlar tashkilotining 72-sessiyasida o‘zbek tilida ma’ruza qilgani ham buning yaqqol isbotidir.

Jumladan, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun 21-oktabr sanasi «O‘zbek tili bayrami kuni» deb e’lon qilindi [4], Vazirlar Mahkamasi qoshida Davlat tilini rivojlantirish departamenti, Atamalar komissiyasini tashkil etish belgilandi. Bundan tashqari, tegishli tashkilotlarga «Davlat tili haqida»gi Qonunni bugungi kun talablari nuqtayi nazaridan takomillashtirgan holda uning yangi tahrirdagi loyihasini, shuningdek, 2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi va davlat dasturi loyihalarini ishlab chiqish vazifalari yuklatildi [6]. O‘zbek tilining takomillashish jarayoni to‘rt asosiy manbaning ishtirokida amalga oshgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, XX asrning 30-yillarigacha o‘zbek tili yangi zamon o‘zbek millatining tili sifatida shakllandi, o‘z taraqqiyot yo‘llarini aniqlab, rivojlana boshladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilining davlat tili maqomiga ega bo‘lishi O‘zbekistonning davlat mustaqilligi tomon tashlangan birinchi dadil qadami bo‘ldi. O‘z davlat tiliga ega bo‘lgan O‘zbekiston oradan ikki yil o‘tib, davlат mustaqilligiga erishdi. Yurtimiz mustaqilligi aynan o‘zbek tilida jahonga e’lon qilindi. Она тилимизнинг халқимиз ижтимоий ҳаётида ва халқаро миқёсдаги обрў-эътиборини тубдан ошириш, ёш авлодни ватанпарварлик, миллий анъана ва қадриятларга садоқат руҳида тарбиялаш, давлат тилини ҳаётга тўлақонли татбиқ этиш барчамизнинг фуқаролик бурчимиздир.

Hozirgi kunda Taraqqiyot strategiyasi doirasida Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan ezgu intilish va harakatlarimiz hal qiluvchi bosqichga

ko‘tarilmoqda. Bu yo‘lda milliy o‘zligimiz, g‘urur-iftixorimiz timsoli bo‘lgan ona tilimiz, hech shubhasiz, beqiyos kuch-qudrat va ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 21-oktabr sanasi yurtimizda «O‘zbek tili bayrami kuni» deb belgilanishi soha rivojini yangi bosqichga ko‘tardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qarang: “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun. 1989- yil 21- oktabr // https://lex.uz/docs/ 109394.

2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 1992-yil 8-dekabr // https://lex.uz/docs/ 20596.

3. Qarang: “«O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida»gi Qonunga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun. 1995- yil 21- dekabr // https://lex.uz/docs/ 121051.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida” Farmoni. 2016- yil 13- may // Xalq so‘zi. 2016- yil 14- may, № 94 (6529).

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida” qarori. 2019- yil 4- oktabr // https://lex.uz/docs/ 4664611.

6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2019- yil 21- oktabr // Xalq so‘zi. 2019 -yil 22- oktabr, № 218 (7448)

SAID AHMADNING “JIMJITLIK” ROMANIDA DIALEKTAL SO‘ZLARNING IFODALANISHI

Usmonova Sofiyaxon Alimovna
Qo‘qon DPI dotsenti
Sotiboldiyev Dilhayot Qobuljon o‘g‘li
Qo‘qon DPI talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Said Ahmadning “Jimjitlik” romanida qo‘llanilgan fonetik dialektizm, morfologik dialektizm, leksik dialektizmlarning turlari bo‘yicha misollar keltirilgan hamda dialektizmlarning qisqacha izohlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Said Ahmad, dialektologiya, fonetik dialektizm, morfologik dialektizm, leksik dialektizmlar, lug‘atlar.

Abstract. This article provides examples of the types of phonetic dialectism, morphological dialectism, and lexical dialectisms used in the novel "Silence" by Said Ahmed, as well as brief explanations of dialectisms.

Key words: Said Ahmad, dialectology, phonetic dialecticism, morphological dialecticism, lexical dialecticisms, dictionaries.

Badiiy adabiyotda shevaga oid fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarning aks etishi dialektizm deyiladi[1, 76]. O‘zbek xalq shevalarini o‘rganish badiiy

asarlar tilini to‘liq va keng o‘zlashtirish uchun katta ahamiyatga ega. Yozuvchilar o‘z asarlarini yaratar ekanlar, shevalarda mavjud bo‘lgan shakl va atamalardan keng foydalanadilar. Bu esa asar qahramonlari uchun o‘ziga xos xarakter va til yaratish, ularning ichki tabiatini ochib berishda salmoqli va asosiy o‘rin tutadi. Ba’zi vaqtlarda mualliflaring o‘z nutqida ham sheva materiallari uchraydi. Bu bejiz emas. Chunki ma’lum bir zaminda yashovchi aholining turmushi, urf-odati, mashg‘uloti tabiat manzarasi, yer sathi kabilarni izohlashda muallif mahalliy kishilarning nutqi uchun xos bo‘lgan so‘z va iboralardan foydalanmasdan iloji yo‘q. [7, 36-37] Mahalliy lahja va shevalar xususiyatlarini yaxshi bilgan shoir, dramaturg va yozuvchilar asar qahramonining bilim saviyasi, madaniyat darajasi, uning adabiy tilda yaxshi gaplasha bilishi yoki uni yetarli bilmasligi, qaysi shevada gapirishi, mashg‘uloti kabilar to‘g‘risida uzundan-uzoq tushuntirishlar va izohlar berish yo‘li bilan tavirlab o‘tirmasdan, shu umumiy xususiyatlarning hammasini bir xususiyat orqali, ya’ni personaj tilida qo‘llaniladigan sheva orqali ochib berishi mumkin. [7, 37]

Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar”, J.Sharipovning “Xorazm”, Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning “Oltin vodiydan shabadalar”, Iqbol Mirzoning “Bonu” asarlarida, Matnazar Abdulhakim, Eshqobil Shukurlarning go‘zal she’rlarida dialektizmlarning ko‘plar namunalarini uchratishimiz mumkin. Shu qatorga Said Ahmadning “Jimjitlik” romani ham qo‘shilsa, shubhasiz, o‘rinsiz bo‘lmaydi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad o‘zining rang-barang hikoyalari, publitsistik maqolalari, qissa-yu romanlari, xushchaqchaq komediyalari bilan hozirgi o‘zbek adabiyotida munosib o‘rin egallaydi. U, ayniqsa, hajv ustasi sifatida mashhur. Said Ahmad Husanxo‘jayev 1920- yilning 10- iyunida Toshkent shahrida ziyoli oilasida tug‘ildi. [2, 310] Said Ahmad “Jiimjitlik” romanida 80- yillarning birinchi yarmidagi hayot haqiqati Mirvali Rixsiyev direktorlik qilayotgan qishloq misolida ochib berilgan. Adib qishloq hayotini Respublika hayoti, xalqimizning kundalik turmushi, mehnati, dardi, muammolari, orzu-istaklari zamirida aks ettirgan. Yozuvchi yuzaki qaraganda bir me’yorda, sokinlik va jimjitlik bilan o‘z yo‘lidan beozor taraqqiy etib borayotganday tuyuluvchi hayotimizdagi har xil illatlarni, keskin ziddiyatlarni, alg‘ov-dalg‘ovliklarni dadillik bilan yaqqol ko‘rsatgan. [2, 318]

Said Ahmadning “Jimjitlik” romanida qo‘llanilgan dialektizmlarning har bir turi bo‘yicha tadqiq qilishga harakat qilamiz.

M.Yo‘ldoshev shevaga xos so‘zlarning uch turini: **sof leksik, etnografik va semantik dialektizmlarni** farqlaydi. [5, 122] Romanda dialektizmlarning har uchala turi ham mahalliy koloritni yaratish, qahramonlar nutqini individuallashtirish kabi uslubiy maqsadlar bilan qo‘llanilgan. [6, 32]

Sof leksik dialektizmlarning adabiy tilda ma’nodoshi mavjud bo‘ladi. Bunday dialektizmlar tasvirda mahalliy ruhni yorqin tasavvur qilishga xizmat qiladi. [5, 122] O‘zbek tilining izohli lug‘atidan o‘rin olgan sof dialektizmlar: - Nima qilib turibsanlar, **ayangni** chaqirmaysanlarmi? [8, 6] Aya – ona. O‘TILda aya

so‘ziga shunday izoh berilgan: aya shv. 1 Ona, oyi; 2 Tarbiyachi ayol, murabbiya; 3 Hurmat yuzasidan ayollar nomiga qo‘shib aytiladi yoki ayollar nomining tarkibiy qismini tashkil etadi; 4 O‘zidan katta ayollarga hurmat bilan murojaat qilishda ishlatiladi. [1- jild, 2020: 125]. M: Biriga Kavkazcha **beshmet** kiydirib, birining yelkasiga yog‘ochdan yasalgan beshotarni osib qo‘yib suratga oladi. [8, 98] O‘TILda: beshmet [f. peshband, fartuk] shv. Beli xipcha qavima ust kiyimi. [1- jild, 2020: 246] M: Poyteshada tik turgancha **bolor** chopaverib, hassaga o‘xshab ketgandirsan. [8, 222] O‘TILda bolor so‘zi – shv, imorat tomiga ko‘ndalangiga tashlanadigan yog‘och, to‘sin. [1- jild, 2020: 309]. M: -Kampir ena, bu yaramas kuniga ikkita **kirpining** sho‘rvasini ichadi. [8, 225]. O‘TILda kirpi so‘zi – shv, tipratikan. [2- jild, 2020: 375]. M: -Kitob o‘qigan odamlarni sadag‘asi ketay, o‘qib-o‘qib **so‘g‘in** nachayli bo‘lishgan. [8, 230] O‘TILda so‘g‘in – shv, so‘ng, keyin, so‘ngra. [3- jild, 2020: 622]. M: Hu, tog‘ va tosh ustida **dirgizlab** yotgan paytida ham bilagida xuddi shunaqa chiqillab turgandi. [8, 240]. O‘TILda dirgizlamoq so‘zi – shv, sovuqda titrab qaqshamoq, tishi tishiga tegmay qaltiramoq. [1- jild, 2020: 625]. M: Sedona choy ko‘tarib kirdi. Mirvali, **chalob** qilmadingizmi, deb so‘radi? [8, 264] O‘TILda chalob so‘zi – shv, suzma yoki qatiqdan tayyorlangan chanqovbosdi ichimlik. [4- jild, 2020: 451]. M: Uni ikki yigit **zambarda** opchiqib ketayotganda Habiba dedi. [8, 329]. O‘TILda zambar so‘zi – shv, zambil. Zambil so‘zining o‘ziga esa O‘TILda shunday ta’rif beriladi: zambil – g‘isht, tuproq, tosh va sh.k. yuklarni tashish uchun ishlatiladigan, ikki parallel dastaga tol yoki tut novdalaridan o‘rtasini chuqurroq qilib to‘qilgan ish quroli (keyinchalik esa dastalarga ko‘ndalangiga yupqa taxtalar, shuningdek, tunuka qoqilgan). [2- jild, 2020: 126] M: Boshiga **tumoq,** egniga po‘stin kiygan otliq uning yoniga kelib, jilovini tortdi. [8, 412]. O‘TILda tumoq so‘zi – shv, quloqli issiq qalpoq; quloqchin. [4- jild, 2020: 188].

O‘zbek xalq shevalari lug‘atida uchraydigan sof leksik dialektizmlar:

M: -Sharshara bu yoqda-ku, - dedi ajablanib Mirvali. -Bilmasakansiz-ku, tog‘a, **Shovva** bu yoqda. [8, 21] **шэввә//шэлдърәмә**шоввa//шолдирама (Андижон) // **шэлдърмэқ**шолдирмоқ (Найманча) шаршарак “водопад”. [10, 313].

M: **Charmandani** chertib qo‘shiq boshlaganda o‘ynagan ham o‘ynardi, o‘ynamagan ham. [8, 143] **чирмәндә**чирманда (Сайрам) гардиш «обод (бубна, сита, решета)» [10, 301]

M: Birpasdan keyin Ravshanbek tog‘am devor nahrasidan qarab, jiyan, **shattan** birov tushmadimi, deb so‘radilar. [8, 64] **шәт**шат (Қўқон) шуер «тут» [10, 312]

M: **Boyaqish** qarib, o‘rnidan turolmaydigan bo‘lib qolgan ekan. [8, 176] Бэйәқъшбояқиш (Тошкент) шўрлик, бечора «бедняга, бедняжка»: бэйәқъш ҳәртўгул қутълъптъ. [10, 48]

Etnografik dialektizmlar muayyan sheva tarqalgan hududda yashovchi kishilarning o‘ziga xos bo‘lgan urf-odatlarining nomlari sifatidagi so‘zlardir. Albatta, badiiy asarda mahalliy-milliy voqea hodisalar tasvirlanar ekan, bunday

so‘zlarsiz ish bitmaydi. Bunday so‘zlar tasvirning realligini ta’minlaydi, ayni paytda matnga mahalliy rang ham beradi. [6, 34] Biroq asarda bunday dialektizmlar ko‘p emas: M: Senga Xudo berib qopti. Hozir o‘tirib hisoblasam, meni hisobimda sen bu yil oltmish ikkiga kirarkansan. Kelasi yili payg‘ambar yoshiga kirasan. **Movlud o‘qitasanmi?** [8, 223]

Semantik dialektizmlar ham badiiy nutq uchun alohida qimmatga ega. Biror so‘z adabiy tilda ham, shevada ham mavjud bo‘lib, shevada adabiy tilda bo‘lmagan ma’nosi bilan ham qo‘llana olsa, ana shu shevadagi ma’no dialektal ma’no yoki semantik dialektizm sifatida badiiy nutqda o‘ziga xos uslubiy tasviriylikni yuzaga keltiradi. [6, 34]. M: Kuyov kampirni ko‘tarib olib keldi-da, **so‘riga** o‘tqazdi. [8, 8] O‘TILda so‘ri so‘ziga berilgan ta’rif: So‘ri [a. karavot, koyka] 1 Tok, qovoq va sh.k. chirmashuvchi o‘simliklarni o‘stirish, ko‘tarib qo‘yish uchun shiypon shaklida, tik yoki qiya qilib ko‘tarilgan moslama, qurilma; 2 Narsa qo‘yish, yoyish uchun qurilgan, to‘rt oyoqqa o‘rnatilgan taxta supa; 3 shv. Katta taxta karavot. [3-jild, 2020: 618]. Matndagi ma’nosidan kelib chiqib so‘ri so‘zi ham haqiqiy sheva ma’nosida qo‘llanilgan. M: -Katta **ena,** tog‘am keldilar, Mirvali tog‘am keldilar! [8, 18] O‘TILda ena so‘zi – shv. Ona. [5- jild, 2020: 38] Quyidagi gaplarda so‘ri so‘zi “karavot” ma’nosi bilan, ena so‘zi “buvi” ma’nosi bilan semantik dialektizm sifatida qatnashgan.

Asarning o‘zida ham sheva bo‘yicha ma’lumot berib o‘tiladi: “-Aksiyada farg‘onaliklarni ham qochirasiz, Mirvalijon! – dedi Hojimurod. Samarqanddan to Boysunning Sayrobigacha bu yerliklar askiyani “aksiya”, kinoni “kno” deb aytardi. [8, 245]

Dialektizmlarning adabiy tilga singib ketish jarayoni dastlab qiyin kichadi, lekin badiiy adabiyotning ta’sirchan kuchi orqali bir asarda qo‘llangan dialektizm keyingi asarlarga o‘tadi va shu tariqa umumxalq mulkiga aylanadi va adabiy tilda o‘zlashib ketishi mumkin. [1, 78] Biz izlanishlarimiz natijasida, xuddi shu jarayonni, Said Ahmadning “Jimjitlik” asarida qo‘llanilgan “bolor”, “kirpi”, “so‘ri” kabi sof leksik dialektizmlar va semantik dialektizmlar, Iqbol Mirzoning “Bonu” asarida qo‘llanilganligi bilan izohlashimiz mumkin. M: Onam akamning yuzini avaylab yuvib, sochiq bosib, **so‘riga** baliqday yotqizib qo‘ydi. [3, 55] Hamma qadrdonlarim – o‘chog‘u **bolorgacha** birma-bir xayrlashib keldim. [3, 75] Qurib ketgur hubobday nozik ko‘ngilchamga **kirpining** tikoniday nishdor so‘zlar tegib ketmaydimi? [3, 209].

Ma’lumki, “fonetik dialektizmlarda emotsional bo‘yoq kuchli bo‘lmaydi. Bundan tashqari shevaga xos bo‘lgan tovushlar sistemasini transkripsiya orqaligina berish mumkin” (Fayzullayev.B “O‘zbek tili va adabiyoti”, 1975, №3.) [6, 30] Ammo shunga qaramasdan, shevadagi fonetik o‘zgachalikdan badiiy maqsadda foydalaniladi, chunki, bunday o‘zgachalik, avvalo, nutqqa jonlilik baxsh etadi, qolaversa, hududiy mansublikni ta’kidlaydi, qahramon nutqining individualligini ta’minlaydi. **Fonetik dialektizmlarning** hosil bo‘lishi fonetik jarayonlar: tovush o‘zgarishi, tushishi, orttirilishi, ikkilanish hodisalari bilan yuzaga chiqadi. [4, 190]

1. So‘z boshidagi f tovushi p tovushiga almashadi: farishtalikkina-parishtalikkina. Xotining rahmatli halimdakkina, **parishtalikkina** edi. [8, 220]

2. So‘z boshida unli tovushning orttirilishi: stol-ustal. M: Choy **ustalda**, sochiqqa o‘rab qo‘yganman. [8, 338]

3. So‘z oxiridagi n undoshi z undoshiga almashadi: bizni-bizzi. M: E, enasi tushmagur-a, **bizzi** xotin yoshligida bir gapga o‘nni qo‘ndirsa, qariganda o‘ttizni qo‘ndiradi. [8, 221]

Asarda qipchoq lahjasi so‘zlashuviga doir namunalar, misollar keltirilgan bo‘lib, fonetik dialektizmlarning yaqqol namoyon bo‘lishi kuzatiladi:

1. So‘z o‘rtasida va oxirida ғ ~ γ, қ ~ q, к ~ k undoshlari v ga o‘tadi: tog‘ ~ мав ~ tav. [1, 62] M: Shunga **tovga** mumiyo qidirib chiqqan edim. [8, 175]

2. So‘z boshida й ~ j undoshi дж ~ ž undoshiga o‘tadi. [1, 62] Misol uchun: yuribsan-juribsan, yo‘q-jo‘q, yo‘qolmaydi-jo‘qolmaydi. M: Bu taraflarda shir yalang‘och nima qilib **juribsan,** shirog‘im? Biz taraflarda qaraqshi **jo‘q** edi-ku. Bu tovlarda igna ham **jo‘qolmaydi**. [8, 76-77]

Morfologik dialektizm badiiy asarda shevaga xos morfologik elementlarning qo‘llanishidir. [1, 76] Asarda morfologik dialektizmlarning ham ishlatilganligini ko‘rishimiz mumkin. Kepqolgandi-kelib qolgan edi. M: Qizing **kepqolgandi.** [8, 219] Bo‘pti-bo‘libdi. M: Binoyi **bo‘pti.** [8, 220] O‘tkazib yuborgan-o‘tkazvorgan. M: Ja jonimdan **o‘tkazvorganda,** tiling kesilsin, devorgan paytlarim bo‘lgandi. [8, 221] Olib qochib kelgan edi-opqochib kelgandi. M: -Ha, balli, - deydi kampir. – o‘sha momongni bobong maktabdan **opqochib kelgandi.** [8, 221]

Yozuvchi o‘z asarida “dialogik nutqda qahramonning muayyan sheva vakili ekanligini ko‘rsatish, mahalliy koloritni berish maqsadida” [1, 76] dialektizmlardan foydalanadi. Said Ahmadning ko‘rib o‘tganimiz “Jimjitlik” romanida ham, asosan, personajlar nutqida uchrovchi: fonetik, morfologik va leksik dialektizmlar, asarning xalqonaligini ta’minlashga, asarning ta’sirchanligini kuchaytirishga xizmat qilgan. Said Ahmadning “Jimjitlik” romani, nafaqat, o‘zbek adabiyotida, adabiyotshunoslikda, balki, sheva so‘zlarining qo‘llanilganligi bilan o‘zbek tilshunosligida ham alohida o‘rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev Samixon “O‘zbek dialektologiyasi” “Navro‘z” nashriyoti Toshkent – 2016. B: 76.

2. Mirzayev Saydulla. “XX asr o‘zbek adabiyoti”. T: “Yangi asr avlodi”. 2005- yil. B: 310, 318.

3. Tursunova Sanobar Najmiddinovna “Judolik diyori” romanida dialektal so‘zlarning ifodalanishi. “O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv” mavzusidagi ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. Toshkent – 2024. B:190.

4. Usmonova Sofiya, Sotiboldiyev Dilhayot “Bonu” asarida qo‘llanilgan dialektizmlar. “O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv” mavzusidagi ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. Toshkent – 2024.

5. Қосимова Маърифат Бадритдиновна “Бадиий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлар (Тоғай Мурод асарлари асосида)” (10.02.02 - ўзбек тили филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент – 2007. Б: 122.

6. Маъруфжон Йўлдошев “Чўлпон сўзининг сирлари” Тошкент «Маънавият» 2002. Б: 32.

7. Ражабов Н. “Ўзбек шевашунослиги”. Т: “Ўқитувчи”. 1996. Б: 36, 37.

8. Саид Аҳмад “Жимжитлик” роман. “Sano-standart” nashriyoti. T: 2018.

9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий енциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. Тошкент – 2020. 1, 2, 3, 4, 5 жилдлар.

10. Ўзбек халқ шевалари луғати. “Ўзбекистон Фан нашриёти” Тошкент – 1971.

TILNING QADRIYATLAR VA INSONLAR O‘RTASIDA MUNOSABATLAR SHAKLLANISHINING YAXLIT NAMUNASIDIR

Bozorov Muhammad Alijon o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘z ona tilimizga beriladigan etibor, barkamol avlodni tarbiyalashda tilning beqiyos ahamiyati, yoshlarning vatan oldida o‘z dahildorligini oshirish qadimdan tili va madaniyati bilan chambarchas bog‘liqligi haqida.

Kalit so‘zlar: O‘zbek tili, Mustaqil davlat, insonparvarlik, Qo‘shg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, chig‘atoy tili Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat, , barkamol avlod tarbiyasida tilning o‘rni.

Mustaqillik tufayli o‘z taqdirini o‘zi belgilash baxtini qo‘lga kiritgan O‘zbekiston Respublikasi o‘zining istiqboldagi ijtimoiy taraqqiyot yo‘lini tanladi. Bu yo‘lda birinchi qadam ham o‘z tilining muhim ahamiyat kasb etishini bilgan holda davlatning olimlari, siyosatchilari, amaldorlari birgalikda hammaslahat bo‘lib ilk odimni otishda o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi bo‘ldi.

Dunyo arenasida o‘z o‘rniga ega o‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi mavqeyi va nufuzi ortib borgan sari,barcha sohalarda bo‘lgani kabi madaniy sohada ham chet davlatlar bilan aloqalari kengayib takomillashib bormoqda. Mazkur jarayonlar, xususan madaniyat, san’at, adabiyot, kino, sport, moda singari sohalar qatorida o‘zbek tiliga qaratilgan e’tiborda ham o‘z aksini topmoqda. Bugungi kunda butun dunyoda o‘zbek tilini o‘rganishga alohida ahamiyat berilmoqda. Xorijlik yoshlarning o‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqi, havasi kuchli. o‘zbekistonda turli sohalarda, jumladan san’at, ta’lim, tadbirkorlik, siyosat bobida o‘z faoliyatini olib boorish istagida bo‘lgan xorijliklar davlat tilini mukammal bilishga intilmoqdalar. Bugungi kunda o‘zbekistonning qator oliy ta’lim muassasalarida, o‘zbek tilini intenstiv o‘qitish borasida uzoq yillik tajribalarga asoslanishib yangicha metodlar orqali yoshlarga tilni avvalo sevdirish, so‘ngra o‘qitishni yo‘lga qo‘yishyapti.

Insoniyat tarixida tilga doimo katta e’tibor berib kelingan. XX asr oxirida tilga ijtimoiy hodisa sifatida qarash g‘oyasi keng yoyildi. Bu bejiz emas. Chunki jahondagi ko‘pgina mamlakatlar o‘z mustaqilligiga erishib, milliy tillar davlat tili yoki rasmiy til maqomiga ega bo‘ldi. Aytish joiz, dunyodagi 200 til bugun davlat tili maqomiga erishgan. Shular orasida o‘zbek tili ham bor. Bu har birimizning qalbimizda faxr-iftixor tuyg‘ularini uyg‘otib, tilimiz sofligini saqlashda zimmamizga mas’uliyat ham yuklaydi. Yosh avlodni ana shu ruhda tarbiyalash esa biz pedagoglar, qolaversa, keng jamoatchilikning vazifasi, burchi hisoblanadi. Boisi til - davlat timsoli, mulki. Tilning egasi xalq, ammo xalqning bitta vakili loqayd bo‘lsa ham tilning sofligiga putur yetadi. Til madaniyatiga amal qilinmasa, milliy madaniyatga dog‘ tushadi. Shu ma’noda har bir O‘zbekiston fuqarosi davlat tilida so‘zlay olish va hurmat qilish, uning qonun-qoidalariga rioya etishi shart.

O‘zbek tilining shakllanishiga nazar solar ekanmiz uning ko‘plab bosqichlardan o‘tganligiga guvoh bo‘lamiz, buladan biri IX-XI asrlarga taalluqli. Bu xalqimizning shakllanish jarayoni tugalligiga, kamoliga erishgan davrdir. Bunda Mahmud Qoshg‘ariy “Devoni lug‘otit turk” asarini yozdi. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asari bilan turkiy til nafosatini namoyon etdi. Keyinchalik Oltin O‘rdaning rasmiy va adabiy tili turk tilining Chig‘atoy lahjasi, ya’ni o‘zbek mumtoz adabiy tili bo‘lgan. Taniqli rus tarixchisi A.P.Grigoriyev: “O‘sha paytda (XIII-XIV asrlar) Oltin O‘rdada so‘zlashuv va yozuv tili sifatida qipchoq lahjasi qo‘llanilgan bo‘lsada, rasmiy yozishmalar va adabiy matnlarda Chig‘atoy lahjasi, ya’ni eski o‘zbek tili qo‘llanilgan”, - deb ta’kidlab o‘tgan.Keyingi yuksalish davri — Temuriylar davri. Bu saltanatning shukuhi, kuch-qudrati, jahon siyosatidagi beqiyos mavqei turkiy tilning taqdiriga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Davlatning ona tilini qo‘llab-quvvatlovchi siyosati tufayli jahon madaniyati maydonida buyuk olim, ma’rifatparvar, valiy, davlat amaldori va shoir Alisher Navoiy paydo bo‘ldi. Mir Navoiy o‘zigacha mavjud bo‘lgan turkiy tili rivojlanishini yangi kengliklarga olib chiqdi, adabiy tilimizning asoslarini belgilab berdi.

Til ham siyosat: Alisher Navoiy nomi bizning tafakkurimizda avval-boshlab til, turkiy til tushunchalari bilan yondosh turadi. Bunda ikki jihatni farqlash kerakdek. Dastlabkisi shuki, shoir tilning faqat insongagina ato etilgan “guhari sharif”, so‘zning qudratli qurol ekanini urg‘ulaydi. Ta’sir kuchiga shubha qilmaganidan, mangulikka daxldor yuksak insoniy ideallarini ham badiiy so‘z libosiga o‘rab taqdim etadi.

Ikkinchi tarafdan esa mutafakkir turkiy til mavqeini o‘z o‘rniga qaytarib qo‘ydi. U davrda ulkan hududdagi ko‘p sonli aholi o‘zaro turkiyda so‘zlashar, idoraviy va badiiy til – fors-tojikcha, ilmiy asarlar esa ko‘proq arabiyda bitilgan. Navoiy savqi tabiiy ila turkiy til imkoniyatlarini ko‘rsatish va darajasini ko‘tarish zauriyatini anglardi, shu anglamga ko‘ra badiiy asarlarida ona tilining qudratini amalda, “Muhokamatul-lug‘atayn”da esa nazariy jihatdan asoslaydi. Ta’bir joiz bo‘lsa, Nuh payg‘ambar zamonidan buyon, asosan oddiy xalqning kundalik muloqoti orqali bo‘lsa-da, yashab kelgan til ijtimoiy hayotning yuksak jabhalarida qo‘llashga ham yaroqli va munosib ekanini isbotlaydi.

“Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir? Bilasizmi? Turkcha!” Abdurauf Fitratning mashhur “Tilimiz” maqolasi shunday boshlanadi. Ajabo! Eng boy va lekin eng baxtsiz... Fitrat bu g‘aroyib aksilmuvozanatning sirini ochib ham bergan. Uningcha, o‘sha davrda “turkcha” atalgan bugungi o‘zbek tilining boy ekani uch asosga ko‘radir: lug‘at, so‘z yasash imkoniyatining ko‘lamdorligi hamda lisoniy qoidalar mukammalligi. Baxtsizligi esa – boshqa tillar, jumladan, arab-fors bosimi ostida qolganidadir. Jadid bobomiz davom etib yozadiki, fors tili ham necha zamonlar “arab bo‘g‘uvi”da bo‘lgan, ammo bir silkinish bilan o‘zini qutqargan. Bu silkinish – olamshumul “Shohnoma” muallifining maydonga chiqishi edi. Fitrat o‘kinadiki, turkchamiz bora-bora forsiy tepkulari ostida ezilmish...

Bizning chin Firdavsiyimiz bo‘lmish Alisher Navoiy jadidlardan besh asr ilgari turkiy til himoyasiga chiqqan, uning imkoniyatlarini “Muhokamatul-lug‘atayn”da nazariy asoslab, badiiy asarlari bilan amalda ko‘rsatib bergan. Shoiri zamonni ona tilida ijod qilishga ham, ikki til muhokamasiga ham undagan sabab, shubhasiz, turkiyning o‘z mavqeini boshqa lisonlarga berib qo‘ygani edi.

Tarix shahodatiga ishonsak, turkiy til miloddan ilgari ham mavjud bo‘lgan. Rivoyatlar esa uning ibtidosini “Odami soniy” atalgan Nuh alayhissalomning o‘g‘li Yofas – Abutturk nomi bilan bog‘laydi. Demak, bizning bobotilimiz yoshi insoniyatning jahon to‘fonidan keyin boshlangan yangi tarixi bilan teng. Kechmish asrlarda u tabg‘ach balosiga dosh berdi, arab-u fors haybati qarshisida qoyim tura oldi, o‘ris zug‘umidan omon chiqdi. Yo‘qolib-yitib ketmay, bizning zabonimizda-da sanduvoch kabi sayrab turibdi. Lekin xavotir negadir zamonlar bo‘yi u bilan yonma-yon yashab keldi.

Tarixdagi turfa balolar tilimizni butkul mahv eta olmadi. Qanday yaxshi! Buning sababi ne, deymiz va yana Fitratdan o‘qiymiz: “Negakim boydir”. Faqat shuginami? Dunyodan boxabar bo‘lish osonlashgan bizning asrda bu javob bir oz qoniqtirmaydigandek odamni. Chunki ayrim faktlar til boy bo‘lgani uchungina yashab qolishi mumkinligini shubha ostiga qo‘yadi. Bir misol: nufusi 100 mingga yetar-yetmas eskimoslar bilan til boyligi borasida hatto jahonshumul ingliz-u fransuzlar ham raqobatlasha olmas; kamsonli bu elatda, deylik, faqat qorni ifodalaydigan yigirmadan ortiq so‘z bor ekan. Shu nodirligi bilan eskimos tili bugun yo‘qolish xavfi ostida turibdi. Demak, boshqa sabablar ham bor.

Asli, ibtidosi bo‘lgan har bir narsa-hodisaning intihosi bor – har ne mavjudot-u maxluqot shu qonuniyat hukmidadir. Odam, hayvonot, nabotot tug‘iladi va o‘ladi; tog‘lar yemirilib tekislikka aylanadi; dengizlar quriydi. Insoniy tuyg‘ular ham shunday. Kuni kelib yulduzlar va quyosh ham osmondan sidirib olinadi... Binobarin, tillar ham tug‘iladi va o‘ladi. Tilshunoslikdagi “o‘lik tillar” degan atama shundan dalolat. Insoniyat Yerda yashay boshlagandan beri qancha til o‘lib ketgan!

Xo‘sh, til barhayotligining aniq mezoni, sabablari bormi? Olimlar fikricha, bular – eng avval milliy mustaqillik va davlat tili maqomidir. Deylik, jahon xaritasida Isroil davlati paydo bo‘lishi bilan o‘lik tillar safiga o‘tib ketgan ivrit tili qayta tirildi. Kuzatuvlarga ko‘ra, mustaqil davlati bo‘lmagan xalqlarda (masalan, tatar va uyg‘urlar) til ham, millat ham yo‘qolib ketishi ehtimoli katta. Shukrki, bu

tarafdan koʻnglimiz toʻq. Til yashovchanligi boshqa yana qaysi omilga, foydalanuvchilar soniga ham bogʻliqmi? Bir jihatdan, ha. Chunki til avvalo aloqa-aralashuv, muloqot vositasidir. Soʻzlovchilar soni qancha koʻp boʻlsa, tilning yashab qolish ehtimoli shuncha oshadi. Mutaxassislarga koʻra, kelajakda xitoy va hind tillari eng keng tarqalgan tillarga aylanadi. Bu oʻsha xalqlar nufusiga bogʻliq emas, deb koʻring-chi! Hindlarning koʻpchiligi oʻqish-yozishni bilmaydi – bu ma'lumot ogʻzaki soʻzlashuv ham tilning yashab qolib, keng tarqalishiga sabab boʻla olishini koʻrsatadi. Shukrki, oʻnta, yuzta, mingta foydalanuvchisi boʻlgan tillar dunyosida oʻzbek tilida 50 milyonga yaqin kishi soʻzlaydi.

Odamlarni til bobida – yurtdami, tashqaridami, farqi yoʻq – "sevasan", "gapirasan", "bexato yozasan" qabilida majburlab boʻladimi? Bu usul-uslub natija beradimi?

Toʻgʻri, teskari holat ham bor: Oʻzbekiston bugun geosiyosiy oʻrni, tabiiy boyliklari bilan, qolaversa, katta bozor sifatida dunyoni oʻziga jalb qilayotir. Milliy mustaqillik, xususan, soʻnggi siyosiy-ijtimoiy oʻzgarishlar bois poytaxt-u viloyatlarimizda xorijiy investorlar, firma-korxonalar soni oshmoqda. Lekin oʻsha kordonlar biz bilan qaysi tilda soʻzlashyapti? Aniq raqam keltirolmasman, lekin koʻrgan-bilganlarimga koʻra aytishim mumkin: biz ular bilgan tilda yoki tarjimon vositasida muloqot qilyapmiz. "Bu qanaqasi, boshqa mamlakatlarga borsak, biz ularning tilini oʻrganamiz, oʻshalarning tilida gapiramiz-ku", deya koʻnglimiz ogʻrishi aniq. Lekin gap kimning kimga hojatmandligida – tan olamizmi-olmaymizmi, haqiqat shu!

Tilimizni umrboqiy etmoq, mamlakat va dunyo miqyosida mavqeini koʻtarmoq faqat tilshunos olim-u shoir-yozuvchilar yoki hukumatninggina vazifasi emas. Tilimiz izzat-e'tibori har bir fuqaroning shaxsiy manfaatni umum manfaatning bir qismi oʻlaroq anglashi, xoʻjakoʻrsinchilikdan voz kechib, vijdonan faoliyat yuritishi bilan-da chambarchas bogʻliq. Ziyolilarimiz davlat tili bilan bogʻliq tarixiy hodisadagi xizmatlarini pisanda qilish, oʻrin-daraja talashishni toʻxtatib, avvalo muhimni nomuhimdan ajratib olmogʻi, yoshlarni ham, butun xalqni ham oʻz atrofida birlashtirmogʻi lozim. Anglamaganlarga til qaygʻusi butun elning umumiy qaygʻusi ekanini anglatib, ishontirish ham oʻshalarning zimmasidadir.

O'ZBEK TILINING RAQAMLI OLAMDAGI IMKONIYATLARINING KENGAYISHI

G'ulomov Akbarjon
Qo'qon DPI talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oʻzbek tilidan foydalanishda raqamli texnologiyalar yaratadigan imkoniyatlar va ularning kengayishi uchun asosiy bosqichlar haqida soʻz yuritiladi.

Kalit so'zlar: raqamli olam, axborot texnologiyalari, elektron resurslar, tarjima dasturlari.

Abstract. This article discusses the opportunities created by digital technologies in the use of the Uzbek language and the key steps for their expansion.

Key words: digital world, information technology, electronic resources, translation programs.

Hozirgi kunda har qanday ma’lumotni olish uchun raqamli olamga murojaat qilish eng tezkor yo‘l hisoblanadi. Internetga saqlanadigan informatsiyalarni sarhati yo‘q. Raqamli texnologiyalar orqali insoniyat taraqqiyotidagi eng yuksak yutuqlarga tez fursatlarda yetishib kelyabmiz. Bu texnologiyalarning bor imkoniyatidan foydalanish uchun albatta biz tilga murojaat qilamiz.

O‘zbekiston Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli farmoniga muvofiq, mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va uning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu dastur davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash, o‘zbek tili uchun elektron lug‘at va dasturiy texnologik vositalarni rivojlantirish hamda o‘zbek tilining milliy korpusini shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, mazkur chora-tadbirlar, o‘zbek tilining raqamli olamda keng miqyosda qo‘llanilishini ham oshirishga qaratilgan.

So‘nggi yillarda o‘zbek tilidagi resurslarning elektron formatda nashr etilishi sezilarli darajada oshdi, bu esa veb-qidiruv tizimlari orqali o‘zbek tilidagi ma’lumotlarga kirishni osonlashtirdi. Ayniqsa imlo.uz, izoh.uz va sinonim.uz kabi loyihalarning rivojlanishi o‘zbek tilining to‘g‘ri va izchil qo‘llanilishini ta’minlashga katta hissa qo‘shmoqda. Ushbu platformalar foydalanuvchilarga nafaqat tilning to‘g‘ri ishlatilishiga, balki vaqtni tejashga ham yordam beradi.

O‘zbek tilining raqamli olamdagi imkoniyatlarini yanada kengaytirish uchun amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan chora-tadbirlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Ko‘proq resurslarni o‘zbek tiliga tarjima qilib nashr etish — Mavjud ilmiy, texnik va badiiy resurslarning O‘zbek tiliga tarjima qilish va elektron formatda nashr etish. Bu harakatlar onlayn mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish uchun to‘g‘ri shaklda joylashtirish — Elektron ma’lumotlarning tahlil qilinishini osonlashtirish uchun to‘g‘ri shaklda joylashtirilishi kerak. Bundagi asosiy omillar elektron resurslarni skaner formatda emas balki dasturlar o‘qiy oladigan, yozma tekst shaklida nashr etish hamda ularni hozirgi kunning deyarli barcha qurilmalari ocha oladigan fayl formatlarda (.pdf, .docx, .txt) saqlashdan iborat.

O‘zbek tilini tarjima qiluvchi dasturiy ta’minotlarni takomillashtirish — O‘zbek tilini o‘z ichiga olgan tarjimon dasturlarni rivojlantirish tilni yanada raqamli olamga moslashtiradi.

Bu texnologiyalarning rivojlanishi o‘zbek tilida gapira oladigan aholi uchun ko‘plab foydali imkoniyatlarni ochadi:

• Qisqa vaqt ichida istalgan ma’lumotni topish va tahlil qilish;

• Mustaqil ta’lim olishdagi iqtisodiy tejamkorlik, bepul resurslar;

• Ko‘plab onlayn faoliyatlarda o‘zbek tili bilan qiyinchiliksiz ishlash.

Tilning raqamli olamdagi rivojlanishi va kengayishi bugungi kunda jahon axborot tizimlarida muhim sanaladi. Prezident farmoni asosida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash va elektron resurslarni rivojlantirish orqali o‘zbek tilining raqamli olamdagi imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Ko‘proq o‘zbek tilidagi elektron resurslarni yaratish hamda tarjima dasturlarini takomillashtirish hozirgi kundagi ta’lim sifatini yaxshilaydi. O‘zbek tilini raqamli olamdagi imkoniyatlarini kengaytirilishi hozirgi davrda til uchun muhim bo‘lgan harakatlardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-6084, 2020.

2. UNESCO‘s Reports on Linguistic Diversity in Cyberspace, “Keystones to Foster Inclusive Knowledge Societies” 2015.

3. Rehm, Georg, and Hans Uszkoreit (Eds.). “The Role of Language Technologies in Ensuring Multilingualism in the Digital Age.” Springer, 2012.

4. Imlo.uz. (2014). Imlo tekshiruvchi. https://imlo.uz

5. Izoh.uz. (2014). Izohli lug‘at. https://izoh.uz

6. Sinonim.uz. (2023). Sinonimlar lug‘ati. https://sinonim.uz

O‘ZBEK TILINING IJTIMOIY HAYOTIMIZDAGI O‘RNI VA ROLI

Ergasheva Zebo Odiljon qizi

Termiz Davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola tilimizning ijtimoiy hayotimizda tutgan o‘rni va roli haqida. Til nima, biz nega aynan bir tilni Davlat tili sifatida bilamiz? Ijtimoiy munosabatlarda tilning roli qay darajada? Shu kabi savollarga bu maqola orqali javob berishga harakat qildim. Tilimizdan biz nafaqat kundalik balki, ijtimoiy munosabatlarda ham deyarli har kuni, har soat foydalanamiz. Har bir davlatning ona tili bu millati va milliyligi belgisidir. Turmush tarzini boshqadir turuvchi mayoqlardan biridir.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, milliy ruh, madaniy identitet, til va madaniyat, til ijtimoiy munosabat kaliti, milliy mentalitet, til so‘zlashuv vositasi, og‘zaki va yozma nutq.

Abstract. This article is about the place and role of our language in our social life. What is a language, why do we know exactly one language as the State language? What is the role of language in social relations? I tried to answer such questions through this article. We use our language not only daily, but also in social relations almost every day, every hour. The mother tongue of every country is a symbol of its nation and nationality. It is one of the beacons that make the lifestyle different.

Key words: Uzbek language, national spirit, cultural identity, language and culture, language is the key of social relations, national mentality, language means of communication, oral and written speech.

O‘zbek tili O‘zbekistonda davlat tilidir. 1989-yil 21-oktabrda O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi - xalqimizning milliy mustaqillikga erishish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘lib, ona tilimizning bor go‘zalligi va jozibasini to‘la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. O‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu millatning ruhidir. O‘zbekiston Respublikasida Davlat tilining ahamiyati va uning xalqimiz hayotidagi o‘rni benihoya kattadir. Bu tilda so‘zlashuvchilarning umumiy soni 35 milliondan ortiq bo‘lib, ularning asosiy qismini O‘zbekistonda va unga chegaradosh bo‘lgan mustaqil davlatlarda istiqomat qilib turgan o‘zbek tilida so‘zlashuvchi va o‘zini o‘zbek deb biluvchi aholi tashkil qiladi. O‘zbek tili jahondagi eng boy va rivojlangan tillardan biri. Bu tilning shakllanishida, ayniqsa, Alisher Navoiyning xizmati katta. Buni uning ushbu misralarida ham bilish mumkin:

Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

O‘zbek tilining ijtimoiy munosabatlarda tutgan o‘rniga e’tibor qaratadigan bo‘lsak bugungi kunda bu juda katta ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbek tili ijtimoiy munosabatlarda muhim rol o‘ynaydi. U milliy identitetni shakllantiradi, odamlar orasida aloqalarni mustahkamlaydi va madaniy merosni saqlashda xizmat qiladi. Tilda muloqot qilish orqali odamlar fikrlarini, his-tuyg‘ularini va g‘oyalarini ifodalaydilar, bu esa jamiyatda birlashishga yordam beradi. O‘zbek tilini ta’lim, san’at va ommaviy axborot vositalarida ishlatilishi ijtimoiy faoliyat va madaniy hayotni boyitadi. Shuningdek, til ijtimoiy qatlamlar o‘rtasida muvofiqlikni va anglashuvni ta’minlaydi.

Madaniy identitet:

O‘zbek tili xalqning madaniyati va urf-odatlarini ifodalaydi. Bu til orqali xalq o‘z tarixini va an’analarini avlodlarga yetkazadi.

Ta’lim:

O‘zbek tilida ta’lim olish, yosh avlodni tarbiyalash va bilim berishda muhim. O‘zbek tilidagi maktablar, universitetlar va ilmiy muassasalar tilda bilim olishni va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantiradi.

Kommunikatsiya:

O‘zbek tili ijtimoiy hayotda odamlar o‘rtasida muloqotni ta’minlaydi. Yuzma-yuz suhbatlar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa kommunikatsiya vositalarida tilni qo‘llash aloqalarni mustahkamlaydi.

Ommaviy axborot vositalari:

O‘zbek tilida gazeta, televideniye, radio va internet saytlari ijtimoiy masalalar, siyosat, iqtisodiyot va madaniyat haqida axborot tarqatadi. Bu, aholi o‘rtasida ongni oshiradi va ijtimoiy muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Siyosiy va ijtimoiy faoliyat:

O‘zbek tili siyosiy muhokamalar, ijtimoiy tadbirlar va xalqaro aloqalarda ishlatiladi. Bu, O‘zbekistonning global maydondagi o‘rnini mustahkamlashga yordam beradi.

Ijtimoiy muloqot:

Tilda muayyan so‘zlar, iboralar va o‘ziga xos uslub ijtimoiy qatlamlar va guruhlar o‘rtasida aloqalarni belgilaydi. Bu, ijtimoiy toifalarning bir-birini anglashiga va birlashishiga yordam beradi.

Til va madaniyat:

O‘zbek tili xalqning madaniy merosi va an’analari bilan chambarchas bog‘liq. Mahalliy hikoyalar, she’riyat va musiqalar til orqali avlodlarga o‘tkaziladi.

Ijtimoiy tarmoqlar:

O‘zbek tilida faoliyat yurituvchi ijtimoiy tarmoqlar, forumlar va bloglar muloqotni kengaytiradi va odamlar o‘rtasida g‘oyalarni almashish imkonini beradi.

Oila va jamiyat:

Oila ichidagi muloqot va farzandlar tarbiyasi jarayonida o‘zbek tili asosiy vosita sifatida xizmat qiladi, bu esa oilaning birligini mustahkamlaydi.

Siyosiy ovoz:

O‘zbek tili siyosiy partiyalar va harakatlar orqali xalqning fikrini ifoda etishda muhim rol o‘ynaydi. Tilda yuritilgan kampaniyalar va saylovlar jamiyatda aktivlikni oshiradi.

Iqtisodiy rivojlanish:

O‘zbek tilida iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishga yordam beradigan muhim hujjatlar, qonunlar va biznes so‘zlashuvlar amalga oshiriladi. Bu, iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi.

Tashqi aloqalar:

O‘zbek tili xalqaro aloqalarda ham muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonning boshqa davlatlar bilan madaniy va iqtisodiy aloqalari, shuningdek, diplomatik munosabatlari o‘zbek tilida olib borilishi mumkin.

Tilning rivoji:

O‘zbek tili doimiy ravishda rivojlanmoqda. Yangi so‘zlar va iboralar kirishi, shuningdek, zamonaviy tadqiqotlar va texnologiyalar sohasida tilni boyitmoqda.

Muloqotdagi rivojlanish:

O‘zbek tilidagi muloqot qoidalari va uslublari jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni belgilaydi. Bu, ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlaydi.

Madaniy o‘ziga xoslik:

O‘zbek tili xalqning an’analari va urf-odatlarini saqlab qolishga yordam beradi. Masalan, bayramlar va marosimlarda til orqali milliy qiyofani namoyon etish mumkin.

Raqamli muomala:

Internet va raqamli kommunikatsiyalar orqali o‘zbek tilida kontent yaratish va tarqatish, yoshlarga yangi imkoniyatlar taqdim etadi. Bu tilni global maydonda tanitadi.

Ijtimoiy masalalar:

O‘zbek tili orqali jamiyatdagi muammolar, masalan, gender tengligi yoki ekologik masalalar kabi mavzularda muhokamalar olib boriladi. Bu, ijtimoiy ongni oshiradi.

Ommaviy axborot vositalarida:

O‘zbek tilidagi televideniye, radio va matbuot ijtimoiy fikrni shakllantirishda, aholini yangiliklar bilan tanishtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Til va ijtimoiy integratsiya:

O‘zbek tili milliy birlikni ta’minlashda va turli etnik guruhlar o‘rtasida muvofiqlikni o‘rnatishda yordam beradi. Bu, ijtimoiy barqarorlikni kuchaytiradi.

Ijtimoiy tashabbuslar:

O‘zbek tilida ijtimoiy tashabbuslarni amalga oshirish, jamiyatda faoliyat yuritish va ijtimoiy muammolarni hal qilishda qo‘llaniladi.

Uslubiy rivojlanish:

O‘zbek tilida adabiyot, san’at va teatr kabi sohalarda yaratilgan asarlar ijtimoiy fikr va his-tuyg‘ularni ifodalaydi. Bu, tilning estetik jihatini rivojlantiradi.

Global muvofiqlik:

O‘zbek tili o‘zini global kontekstdagi boshqa tillar bilan aloqalar o‘rnatishda ko‘prik vazifasini o‘ynaydi. Bu, xalqaro muhokamalar va hamkorliklar uchun zamin yaratadi.

Tadqiqot va ilmiy faoliyat:

O‘zbek tilida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar va anjumanlar, tilni rivojlantirish va uni global miqyosda tanitishga xizmat qiladi.

O‘zbek tili ijtimoiy hayotda ko‘p qirrali rol o‘ynaydi, shuningdek, millatni birlashtiruvchi kuch sifatida xizmat qiladi. O‘zbek tilining ijtimoiy munosabatlardagi roli, xalqning o‘zligini anglashida, madaniyatini saqlashda va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu til orqali jamiyat o‘zaro tushunishni, muvofiqlikni va birlashishni ta’minlaydi. Bu jihatlar O‘zbek tilining nafaqat ijtimoiy munosabatlardagi ahamiyatini, balki xalqning madaniy va ma’naviy rivojlanishidagi rolini ham ko‘rsatadi. O‘zbek tili jamiyatni birlashtiruvchi, anglashuv va hamkorlikni rivojlantiruvchi asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Mana o‘zbek tilining ijtimoiy munosabatda tutgan o‘rni shu darajadaki, bu davlatning eng asosiy ustunlaridan biridir. Tilimizni xalqaro munosabatlarda o‘rnini yanada mustahlashimiz kerak, bu uchun biz tilimizni kompyuter tiliga aylantirmog‘imiz lozim. Tillarni yo‘qolib ketmasligini ta’minlash uchun ularni kompyuter tiliga aylantirsak, bu til gullagandan gullab yashnaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sayfulayeva R, Mnengliyev B, Boqiyeva G VA BOSHQALAR. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”- T: FTM, 2009

2. G‘ulomov A, Asqarova M- Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T: O‘qituvchi, 1987

3. O‘zbek tili grammatikasi. T.II.Sintaksis.-T.Fan, 1976

3. Nurmonov A, Mahmudov N, Ahmedov A, Solixo‘jayeva S- O‘zbek tilining mazmuniy sintaksis-T: Fan, 1992

4. Mahmudov N, Nurmonov A-O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. (Sintaksis)- T: O‘qituvchi 1995

O‘ZBEK TILINING RIVOJLANISHIDA QONUN VA QARORLARNING O‘RNI

Xamidova Zulfizar Akmaljon qizi
Toshkent kimyo xalqaro universiteti
Namangan filiali talabasi

Annotatsiya. Bugungi taraqqiy topib borayotgan jamiyatimizda, o‘zbek tilining rivojlanishida qonun va qarorlarning ahamiyati katta. Davlat tili haqidagi qonun qabul qillinganiga 35 yil bo‘ldi. Avvaliga qadamlar dadil tashlandi, keyinchalik esa qonun qayta-qayta tahrirlanadigan, vazifalar ortga suriladigan, sal o‘tmay amalga oshmaydigan bo‘lib qoldi. Mazkur maqola tasdiqlangan qonunlarning vazifalari va o‘zgartirilgandagi holati haqida ma’lumot beradi.

Kalit so‘zlar: til, o‘zbek tili, qonun, davlat tili, sheva, xorijiy terminlar, ommaviy axborot vositalari.

Abstract: In today’s progressive society, laws and decisions are of great importance in the development of the uzbek language. It has been 35 years since the adoption of the law on the state language. At first, steps were taken boldly, but later the law was repeatedly revised, tasks were postponed, and soon became unfulfilled. This article provides information on the functions of the approved laws and their status as amended.

Key words: language, uzbek language, law, state language, dialect, foreign terms, mass media.

Til – muqaddas va e’zozlangan tushuncha, har bir inson uchun o‘z onasi kabi aziz va mo‘tabar . Ona tilimiz - o‘zbek tiliga 1989-yil 21-oktyabrda davlat tili maqomi berildi, bayram sifatida keng nishonlanadigan bo‘ldi. Qator qonunlar qabul qilindi va 1995-yil 21-dekabrda qayta ishlandi. Shunda so‘ng esa tilga bo‘lgan e’tibor biroz susaygandek bo‘ldi. Ammo so‘nggi yillarda davlat tilining ijtimoiy hayotda tutgan mavqeini yanada mustahkamlash maqsadida bir qator ishlar olib borilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparatining tarkibiy bo‘linmasi hisoblangan Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil qilindi. Bundan ko‘zlangan maqsad, davlat tilini yanada isloh qilish, davlat tilining amal qilishi bilan bog‘liq muammolarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha takliflar tayyorlash, o‘zbek tilining yozma matni me’yor va qoidalarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Bilamizki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 4-moddasida davlat tili o‘zbek tilidir,[1;6] deb talqin qilingan. Shu tariqa o‘zbek tili davlatimizning, ya’ni bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, konstitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramziga aylandi. Lekin biz jar solib nishonlaymiz degan til bayramimiz jamiyatda, mamlakatda o‘zbek tilining mavqei

bayram qiladigan, xursandchilik bilan qarshi oladigan darajadami? Shu o‘rinda qonunlar o‘z kuchini ko‘rsatyaptimi yoki ularni biroz sayqallash kerakmi, degan savollar o‘z-o‘zidan vujudga keladi.

Til to‘g‘risida ko‘plab qonun va qarorlar qabul qilingan. Ikki yil davomida mamlakatni ko‘zga ko‘ringan olimlari, ziyolilar davlat tili to‘g‘risidagi qonunning yangi tahriri ustida jiddiy ishlashdi. Qonun loyihasi ishlab chiqilib, mazkur qonunning yangi tahriri parlamentni Vazirlar mahkamasidan o‘tdi, Oliy Majlisdan tasdiqlab, keyinchalik esa bu qaror Prezidentga yuborildi. Lekin o‘rtada aynan mana shu qonun biror xabarsiz, hech qanday ma’lumotsiz, izsiz yo‘q bo‘lib qoldi, nazarimda. Bu ishlardan so‘ng biz tilshunoslarda savol paydo bo‘ldi. Ko‘pchilik tomonidan: “Mazkur qarorning ijrosi nega kechikyapti?”, - degan savol o‘rtaga tashlandi. Ushbu savolga qiziqqan kun.uz muxbiri, jurnalist Ilyos Safarov Ma’naviyat va davlat tili masalalarini rivojlantirish deportamenti mas’ul hodimi G‘ofur Hamro, tilshunoslikning yetuk ziyolilari bilan intervyu uyushtirdi. Bu savolga javobni G‘afur Hamrodan so‘rashganida u biroz o‘ylanish bilan davlat tili haqidagi qonunning yangi tahrirdagi o‘rinlarning muhokamasida ham, keyingi bosqichlarda ham qizg‘in bahs-munozaralar olib borilgani haqida aytib, aniq bir ma’lumot bermagan. Xo‘sh, bu javobdan so‘ng nima deb fikr yuritish mumkin?

Ayrim bu sohadan yiroq insonlar ,,Aslida bu qonunlar nega tahrirlanishi kerak?’’ yoki bo‘lmasam “Nega o‘zgartirish kerak?’’ deyishlari mumkin. Bunga “Davlat tili haqida’’gi qonunning bir qator normalari deklarativ va umumiy xarakterga ega bo‘lganligi sababli ko‘zlangan maqsadlariga to‘la erishish imkonini bermayapti. Xususan, “Davlat tili haqidagi’’ qonunning 8-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv orginlarining boshqa tillarida ham e’lon qilinadi’’, [2;7] deb belgilangan bo‘lsa-da, ayrim shu sohadagi davlat idoralarida hujjatlarni davlat tilida qabul qilish yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagan. Bu esa ayrim hollarda jismoniy va yurdik shaxslarga noqulaylik keltirib chiqarmoqda. Shuningdek qonunning 10-moddasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning ko‘pchiligi o‘zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkinligi belgilanganligiga qaramasdan, ayrim sohalarda statistika va moliya hujjatlari, shartnomalar talab darajasida davlat tilida yo‘lga qo‘yilmagan. Ayniqsa, ayrim xizmat ko‘rsatish sohalari ya’ni, “kommunal’’, “internet xizmatlari’’ va boshqalari tomonidan shartnoma, dalolatnoma, ogohlantirish xati kabi hujjatlarmi xorijiy tilda rasmiylashtirish holatlarini ko‘rish mumkin. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining hujjatlarida o‘zbek tilida o‘rindosh mavjud bo‘lgan so‘zlardan foydalanmasdan xorijiy atamalar “termin’’, “shtat’’, “komissiya’’ va boshqa shu kabi qo‘llash holatlarini ham uchratish mumkin. Har yili davlatimizdagi ko‘plab partiyalar tomonidan tanlovlar o‘tkaziladi. Ana shulardan biri o‘tgan yili xuddi shu chog‘larda “MILLIY TIKLANISH’’ partiyasi tomonidan xotin-qizlar va uy bekalari, maktab o‘quvchilari, oliy ta’lim talabalari ishtirokida savodlilik darajasini tekshirish uchun

diktantlar tanlovi bo‘lib o‘tgan edi. Mingga yaqin ishtirokchilar qatnashgan, biroq birortasi ham xatosiz yozib bera olmagan ekan. [3] Xo‘sh, bu o‘z tilini yaxshi bilmasiligidanmi yoki maktabda savodxonlikni o‘rgatish darajasi pastligidanmi yoki tiliga yetarlicha e’tibor berilmaganligidanmi?

Hammasiga javob esa ommaviy axborot vositalarida o‘zlashma so‘zlardan foydalanishning kuchayishi, qolaversa, so‘zlashayotganimizda shevaga urg‘u berishimiz, xorijiy so‘zlarni aralashtirib gapirishimiz sabab bo‘lyapti. Ommaviy axborat vostilari: planshet, telefon, kompyuter bularni foydali tomonlari biz uchun ko‘p, albatta. Ammo bulardan me’yoridan ortiq foydalanishimiz biz yoshlarni dangasa qilib qo‘yayotgani aniq. Jamiyatda savodxonlik darajasini tushishiga olib kelib qo‘yadigan omillardan biri ham deyishimiz mumkin. Bunga yechim qilib uyali aloqalardan cheklanish deyishimiz mumkin, lekin buni iloji yo‘qligi siz-u bizga ma’lum. Yechim qilib, biz kitobni ko‘proq mutolaa qilishni aytishimiz mumkin. O‘qiganda so‘zlashishdagi nutqimiz ravon bo‘ladi, qolaversa, adabiyotlarga qarab so‘zlarning imlo qoidalarini ham o‘rganib olamiz. Ko‘p o‘qigan yaxshi yozadi, ko‘p tinglagan yaxshi gapiradi. Endi shevalarga urg‘u berish, xorijiy so‘zlardan foydalanish haqida ham to‘xtalsak. Bu jarayonning omma orasida keng tarqalishiga ko‘proq o‘zbek kinolari sabab bo‘lyapti, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Kinodagi aktyor va aktirisalar gapiryapganda sahna madaniyati, tilni hurmati tushunchasini umuman unutib qo‘yishyapti. Uch kunlar oldin chamasi onam serial ko‘rib o‘tirgan edilar. “Qizim” nomli ushbu serialning bosh qahramoni Diyoraning deyarli hamma gapi shevada yoki qandaydir chet el so‘zlaridan iborat terminlar bilan “boyigan”. Faqat u emas hamma yangi chiqqan aktyor va aktrisalarda bu holni ko‘p kuzatyapmiz. Shularni kuzatib: “Xorijiy so‘zni ishlatib nima qilarkin shevasi-ku mayli”, - dedim. Bu gapimdan onam kulib yubordilar va: “Ha qizim, shu orqali odamlarni kinoga qiziqishini oshirishadi-da”, - dedilar. Bu biz uchun eng katta xato, chunki bunaqa “sheva va xorijiy terminlarga boy” filmlarni tomosha qilayotganlar orasida faqat kattalar emas, balki yoshlar ham bor. Ular ham shundan o‘rganadi, oldiniga nutqida qo‘llaydi, keyinchalik esa yozayotganda ham shunday yozadi… Chet el so‘zlari nega kerak aytingchi, o‘zi shundoq ham so‘zga boy mustaqil ona tilimiz bor bo‘lsa. Rejissyorlar bunga jiddiy e’tibor berishlari kerak, albatta. Qayerda ko‘rdingiz biror bir chet el kinosida o‘zbek so‘zlaridan foydalanganini? Hatto shunday tillar borki, o‘z tillarining sofligini saqlab qolish maqsadida hozirgi kunda dunyo tiliga aylangan rus, ingliz tillaridan ham foydalanishmaydi. Oldingi kinolarimizda umuman chet el so‘zlari tugul shevadan ham foydalanishmagan. Shu paytda ishlagan O‘zbekiston xalq artistlari, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan aktyor va aktirisalar sof adabiy tilda gapirishadi. Lekin bu kinolarimiz saviyasini pasayishiga xizmat qilmayapti-ku? Shunday ekan ular orasidagi ustoz-shogird aloqalarida aynan shu adabiy nutq masalasiga jiddiy qarashlari lozimligini ta’kidlashimiz lozim. Aynan yuqorida sanab o‘tilgan mana shunday sabablar uchun ham qonunlarni mustahkamlashimiz, tilimizni asrab-avaylashimiz uchun zaruriy yangi qarorlarni qabul qilishimiz va ularning ijrosini qat’iy kuzatishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:
1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Toshkent, 1992, 6-b.
2. “Davlat tili haqidagi” qonun, Toshkent, 1989.
3. https://uz.wikipedia.org/wike/O‘zbek tili

O‘ZBEK TILINING IJTIMOIY MUNOSABATLARDA TUTGAN O‘RNI

Ergasheva Jasminabonu Azizjon qizi
Qo‘qon DPI talabasi
Ilmiy rahbar: Jo‘rayeva R.A.
Qo‘qon DPI dotsenti (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida o‘zbek tilining ijtimoiy munosabatlarda tutgan o‘rni, davlat idoralari va ta’lim tizimidagi roli, madaniyat hamda kundalik hayotda qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Shu bilan birga o‘zbek tilining ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va globalizatsiya jarayonidagi holati o‘rganiladi. Rus va ingliz tillarining ta’siri, til siyosati va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Abstract. This article analyzes the role of the Uzbek language in social relations, its role in state institutions and the education system, as well as its use in culture and everyday life in the Republic of Uzbekistan. At the same time, the situation of the Uzbek language in mass media, social networks and the process of globalization is studied. Information about the influence of Russian and English languages, language policy and measures implemented by the state is also presented.

Kalit so‘zlar: O‘zbek tili, ijtimoiy munosabatlar, davlat tili, ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, til siyosati, globalizatsiya, ko‘p tillilik.

Key words: Uzbek language, social relations, state language, education system, mass media, social networks, language policy, globalization, multilingualism.

O‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining davlat tili sifatida milliy o‘zlikni anglash, madaniy merosni saqlash va rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Til nafaqat davlat boshqaruvi va ta’lim tizimida, balki kundalik hayotda, madaniyatda va ijtimoiy munosabatlarda ham muhim kommunikatsiya vositasi hisoblanadi. O‘zbek tiliga 1989-yilda davlat tili maqomining berilishi milliy o‘zlik va madaniy merosni mustahkamlashga xizmat qilgan. Shu bilan birga, til siyosatida o‘zbek tilining mavqeyini oshirish va saqlab qolish yo‘lida davlat tomonidan ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Maqolada o‘zbek tilining ijtimoiy munosabatlardagi rolini o‘rganishda turli tahliliy manbalardan foydalanildi. Statistik ma’lumotlar, qonunchilik hujjatlari, sotsiologik so‘rovlar va ommaviy axborot vositalaridan olingan ma’lumotlar asosida o‘zbek tilining jamiyatdagi o‘rni tahlil qilindi.

Tilning asosiy va muhim xususiyati shundan iboratki, til kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan bo‘lib, eng muhim aloqa vositasi sifatida xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir. Tilning ijtimoiy tabiati uning ayrim shaxsda emas, balki jamiyatda mavjudligini taqozo etadi. Til jamiyat tomonidan yaratilgan bo‘lib, uning taqdiri ham jamiyat taqdiri bilan chambarchas bog‘liqdir. Insonning butun hayoti til bilan bog‘liq bo‘lib, til yordamida kishilar obyektiv borliqni o‘rganadilar, o‘zaro fikr almashadilar, jamoa bo‘lib birlashadilar va mehnat qiladilar. Til ijtimoiy hodisa sifatida tabiiy hodisalardan ajralib turadi.

1. Davlat idoralari va ta’lim tizimidagi roli. O‘zbek tili davlat boshqaruvi va hujjat yuritish jarayonlarida asosiy aloqa vositasi sifatida qo‘llaniladi. O‘zbekistonning maktab va oliy o‘quv yurtlarida ta’lim asosan o‘zbek tilida olib boriladi. 1989-yilda qabul qilingan "Davlat tili to‘g‘risida"gi qonun tilning davlat miqyosida rasmiylashtirilishi va ta’lim sohasidagi ahamiyatini kuchaytirishga turtki bo‘ldi. Hozirda maktab va universitetlar o‘quv dasturlarida o‘zbek tilining keng qo‘llanilishi tilning saqlanishi va kelajak avlodlarga yetkazilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Madaniyat va kundalik hayotdagi o‘rni. O‘zbek tili madaniy hayotda yetakchi rol o‘ynaydi. Teatr, kino, adabiyot va musiqa sohalarida tilning keng qo‘llanilishi uni milliy merosning ajralmas qismiga aylantirgan. O‘zbek tilida yaratilgan badiiy asarlar, xalq og‘zaki ijodi va zamonaviy madaniy loyihalar tilning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlaydi. Kundalik hayotda, oilaviy va mahalla muloqotlarida ham o‘zbek tili asosiy aloqa vositasi sifatida keng tarqalgan.

3. Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalaridagi roli. Zamonaviy texnologiyalar davrida o‘zbek tilining internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng qo‘llanilishi tilning zamonaviy avlodlar orasida rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek tilida muloqot qilish, bloglar va ommaviy axborot vositalarida bu tilning faol ishlatilishi uning keng ommalashuviga turtki bo‘lmoqda. Milliy telekanallar, radio va nashrlar hamda internet-resurslar tilning ommaviy hayotda muhim o‘rin egallashida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

4. Globalizatsiya va ko‘p tillilikning o‘zbek tiliga ta’siri. Globalizatsiya jarayonlari ko‘plab milliy tillarga bo‘lgani kabi o‘zbek tiliga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, rus va ingliz tillarining ta’siri sezilarli darajada oshgan. Ingliz tilining xalqaro aloqalar va ta’lim sohasidagi o‘rni kuchayib borayotgan bir paytda, rus tili ko‘p yillik an’analar natijasida ba’zi davlat idoralarida va muayyan ijtimoiy qatlamlarda faol qo‘llanmoqda. Biroq o‘zbek tilining davlat va jamiyatdagi mavqeyini saqlab qolish uchun davlat tomonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar ushbu xavflarni bartaraf etishga qaratilgan.

5. Xalqaro miqyosdagi o‘rni. O‘zbek tili nafaqat mamlakat ichida, balki xorijdagi o‘zbek jamoalari orasida ham keng tarqalgan. Xorijdagi o‘zbek diasporalari tilni saqlash va rivojlantirish maqsadida turli dasturlarni amalga oshirmoqda. Shu bilan birga, xalqaro universitetlar va til markazlarida o‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Bu milliy tilning xalqaro miqyosda ham e’tirof etilishini ta’minlamoqda.

6. Tilni modernizatsiya qilish va rivojlantirish yo‘nalishlari: O‘zbek tilini zamonaviy talablar va texnologiyalar asosida rivojlantirish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Yangi texnologiyalar va lingvistik uslublarga mos yangi so‘zlar va atamalar yaratilmoqda. Texnologiya, fan va texnika sohalaridagi yangi tushunchalar o‘zbek tiliga kirib kelmoqda, bu esa tilni yanada boyitmoqda. Bunda o‘zbek tilining milliy xususiyatlarini saqlash bilan birga, zamonaviy talablarga moslashtirish ham dolzarbdir.

7. O‘zbek tilini o‘rganish tashabbuslari va davlat dasturlari : O‘zbekiston hukumati o‘zbek tilini o‘rganish va rivojlantirish bo‘yicha turli dasturlar ishlab chiqmoqda. Xususan, ta’lim tizimida o‘zbek tilini o‘rgatishga oid maxsus kurslar, o‘quv qo‘llanmalari va darsliklar yaratilmoqda. Bundan tashqari, xorijdagi o‘zbek jamoalari uchun onlayn ta’lim platformalari va resurslari orqali o‘zbek tilini o‘rganish imkoniyatlari kengaymoqda. Ushbu tashabbuslar tilni xalqaro miqyosda saqlash va rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbek tilining ijtimoiy munosabatlarda tutgan o‘rni va uni rivojlantirish yo‘lida muammolar ham mavjud. Ba’zi davlat idoralarida rus tilining ustunligi va ingliz tiliga talabning oshishi, ba’zi hollarda, o‘zbek tilining kamroq qo‘llanilishiga olib kelishi mumkin. Ammo davlat tomonidan tilni saqlash va rivojlantirish uchun ko‘rilayotgan chora-tadbirlar bu kabi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan. O‘zbek tilini xalqaro darajada rivojlantirish va zamonaviylashtirish istiqbollari ham muhim yo‘nalish sifatida ko‘rilmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o‘zbek tili O‘zbekiston jamiyatida ijtimoiy munosabatlarning muhim vositasi bo‘lib qolmoqda. Tilning davlat idoralari, ta’lim, madaniyat va kundalik hayotda faol qo‘llanilishi, uni mustahkamlaydi. Shunday ekan, til jamiyatda qanday muhim ijtimoiy hodisa bo‘lsa o‘zbek tili va uning taraqqiyoti ham ham shunday dolzarb ahamiyatga ega. Negaki o‘zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, hozirgi kunda ushbu til yer yuzi aholisining qariyb 50 million aholisi uchun asosiy muloqot vositasidir.

Shunday ekan, tilimizning mavqeyiga qaratiladigan e’tibor ertangi avlodning kelajagi haqida qayg‘urishimizning muhim asosi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyi va nufuzini oshirish, jamiyatning barcha sohalarida faol qo‘llanilishiga erishish, yosh avlodni ona tilimizga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Zero, til har bir millatning eng qadrli boyligi, uning ma’naviy qiyofasi, madaniyati, ichki dunyosini aks ettiruvchi muhim vositadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonuni. 1989-yil 21-oktabr.

2. Asqarov, A. “O‘zbek tilining ijtimoiy-madaniy roli va uning rivoji”.
–Toshkent: 2020.

3. Karimov, I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: 1993.

4. Qosimova, Z. Globalizatsiya jarayonida o‘zbek tilining o‘rni va ahamiyati.

–Toshkent. 2018.

5. Xudoyberdiyev, S. Ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek tilining qo‘llanilishi: zamonaviy tendensiyalar. –Toshkent: Fan va texnologiyalar. 2019.

6. Mansurov, O. Ko‘p tillilik va o‘zbek tili: Milliy o‘zlikni saqlash yo‘llari. –Toshkent. 2022.

MUNDARIJA:

1-SHO‘BA: TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI			
1.	***Xodjayeva Dilnoza Shavkatovna*** ***Qo‘qon DPI rektori***	**RASMIY MINNATDORCHILIK BILDIRISH EPIDEYKTIK NUTQIY JANR SIFATIDA**	**3**
2.	***Ziyayev Avazjon*** ***Qo‘qon DPI professori, filologiya fanlari doktori*** ***Ziyayeva Niluzarxon*** ***Qo‘qon DPI talabasi***	**TILSHUNOSLIKDA KONTSEPT, TUSHUNCHA VA MA’NO ATAMALARI XUSUSIDA**	**5**
3.	***Saodat Muxamedova*** ***Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti unversiteti professori filologiya fanlari doktori***	**O‘ZBEK TILIDA QO‘SHMA GAPLARDA PARADIGMATIK MUNOSABATLAR**	**8**
4.	***D.A.Nabiyeva*** ***Andijon davlat universiteti professori*** ***Pirnazarova Dilbarxon*** ***Qo‘qon DPI tayanch doktoranti***	**MATN KOGNITIV STRUKTURA SIFATIDA**	**12**
5.	***Алимсаидова Сайёра Амидьеевна,*** ***доктор педагогических наук,*** ***профессор,*** ***Кокандский госпединститут***	**ПРИМЕНЕНИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ УПРАЖНЕНИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА**	**20**
6.	***Uralov Azamat Begnarovich*** ***Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi*** ***filologiya fanlari doktori (DSc)***	**MORFOLOGIK SHAKLLARDA DUALIZM BILAN BOG‘LIQ NOMUTANOSIBLIKLAR**	**22**
7.	***G.N.Isakova,*** ***O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti dotsenti, filologiya fanlari doktori***	**MAQOLLAR VA ULARNING QO‘LLANILISHI BORASIDA**	**27**
8.	***Dusmatov Xikmatullo Xaitboyevich*** ***FarDU dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)*** ***Komilova Shaxrizoda Sherzod qizi*** ***FarDU magistranti***	**SO‘Z O‘YINLARI VA ULARNING TADQIQIGA DOIR**	**30**
9.	***Usmonova Huriniso Sharapovna*** ***Namangan davlat universiteti professori*** ***Iminjonova Husnida*** ***Qo‘qon DPI tayanch doktoranti***	**GAP BO‘LAKLARINING SINTAKTIK POZITSIYASI**	**36**
10.	***O. To‘xtasinova*** ***Qo‘qon DPI dotsenti*** ***M. Xrojiddinova*** ***Qo‘qon DPI o‘qituvchisi (PhD)***	**“SAB’AI SAYYOR” DOSTONIDA RANGLAR JILOSI**	**39**
11.	***Shukurjon Akramov*** ***Qo‘qon DPI dotsenti*** ***Hasanov Akbarjon*** ***Qo‘qon DPI dotsenti***	**SINTAKTIK ALOQA VA SINTAKTIK ZANJIR**	**43**
12.	***Shukurjon Akramov*** ***Qo‘qon DPI dotsenti***	**GAPNI KOMPLEKS TAHLIL QILISHGA O‘RGATISH**	**47**
13.	***Umidjon Yigitaliyev*** ***Qo‘qon DPI dotsenti,*** ***Xumoyunbek Umidjonov*** ***Qo‘qon universiteti talabasi***	**LEKSIK- SEMANTIK SATHNING FUNKSIONAL TOMONIDA “SHAXS” LINGVISTIK ZARRASINING IFODALANISH KO‘LAMLARI**	**52**
14.	***Shoiraxon Toshxujayeva*** ***Qo‘qonDPI dotsenti***	**FONETIK VOSITALARNING BADIIY-ESTETIK VAZIFALARI**	**54**
15.	***Turdimurodov Sirojiddin***	**SINTAKTIK SATHDA EVFEMIK SO‘Z**	**56**

	Eshqobilovich ***Termiz davlat universiteti dotsenti (PhD)***	**BIRIKMALARINING O‘RNI**	
16.	***Akmal Tursunov Raxmatullayevich*** ***Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti***	**TILSHUNOSLIK NAZARIYASI. TILNING MUHIM KOMMUNIKATIV VAZIFASI**	**62**
17.	***Fayzullayeva Dilnoza Narimovna*** ***Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti (PhD)***	**PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI**	**66**
18.	***Fayzullayeva Dilnoza Narimovna*** ***Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsent (PhD)***	**SODDA VA MURAKKAB PAREMIOLOGIK BIRLIKLAR TASNIFI**	**71**
19.	***Xidirov Otabek Jo‘raboyevich*** ***Jizzah davlat pedagogika universiteti dotsenti (PhD)***	**TIL KORPUSIDA SINTAKTIK IZOHLASH NAZARIYALARI**	**75**
20.	***Расулова Матлуба Хамзаевна*** ***Доцент Кокандского государственного педагогического института***	**ВОЗМОЖНОСТИ УЧЕБНОГО ПЕРЕВОДА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ СОЧЕТАНИЙ**	**78**
21.	***Расулов Илхом Инамович*** ***Кокандский государственный педагогический институт***	**К ВОПРОСУ ЧАСТЕРЕЧНОЙ СООТНЕСЁННОСТИ НАРЕЧНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ**	**81**
22.	***Fayzullayeva Dilnoza Narimovna*** ***Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti (PhD)***	**KIYIM-KECHAK NOMLARINI BILDIRUVCHI LINGVOMADANIY BIRLIKLAR**	**85**
23.	***Muqimova Zohida Rasulovna*** ***O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti xodimi (PhD)***	**ANTROPOMORF LINGVOMADANIY KODLAR (o‘zbek tili barqaror birliklari misolida)**	**92**
24.	***Qodirova Mukaddas Tog‘ayevna*** ***Termiz davlat universiteti dotsenti (PhD)***	**BIZNES DISKURSDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING AKTUALLASHUVI**	**97**
25.	***Sabohatxon A’zamjonovna Yusupova*** ***FarDU Ingliz filologiyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi, (PhD)***	**HURMAT VA SHARAFNI ANGLATUVCHI UNVON HAMDA RASMIY IFODALARNING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI**	**101**
26.	***Feruza Abduraximova Boxadirovna*** ***FarDU Ingliz tili va adabiyoti fakulteti katta o‘qituvchisi (PhD)*** ***Ne’matjonova Munavvarxon Hamidullo qizi*** ***FarDU talabasi***	**LEKSIKOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNDA SO‘ZNING MOHIYATI**	**104**
27.	***Xolmuradova Mushtariy*** ***Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti***	**“QUTADG‘U BILIG” ASARIDAGI KASB-HUNARGA OID LEKSIKA**	**107**
28.	***Feruza Abduraximova Boxadirovna*** ***FarDU Ingliz tili va adabiyoti fakulteti katta o‘qituvchisi (PhD)*** ***Nuriddinova Gulnoza Ro‘zali qizi*** ***FarDU talabasi***	**INGLIZ TILI MORFOLOGIYASINING O‘ZBEK TILI MORFOLOGIYASI BILAN QIYOSIY TAHLILI**	**111**
29.	***Gafurova Nodira*** ***Associated professor of FerSU (PhD)***	**ENHANCING LANGUAGE PROFICIENCY: THE POWER OF ROLE-PLAYING IN DEVELOPING SPEAKING SKILLS**	**113**
30.	***Najmeddinov Ahmad Rahmatovich*** ***Qo‘qon DPI dotsenti (PhD)*** ***Nuraliyeva Sevara Mirzoxid qizi*** ***Qo‘qon DPI talabasi***	**TILSHUNOSLIK NAZARIYASIDA SEMANTIKA VA PRAGMATIKANING ROLI VA AMALIY QO‘LLANISHI**	**117**
31.	***Najmeddinov Ahmad Rahmatovich***	**KOMMUNIKATIV INTENSIYA**	**121**

	Qo‘qon DPI dotsenti (PhD)	**IFODALANISHINING LINGVISTIK IMKONIYATLARI VA PRAGMATIK JIHATLARI**	
32.	***Sabohatxon A’zamjonovna Yusupova FarDU ingliz filologiyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD)***	**TURLI TIZIMDAGI TILLARDA HURMAT KONSEPTINING GRAMMATIK IFODALANISHI QIYOSIY TAHLILI**	**124**
33.	***Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna FarDU Ingliz tili amaliy kursi kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD)***	**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA VIZUAL KOGNITIV FE’LLARINING QIYOSIY TAHLILI**	**127**
34.	***N.A.Xoshimova FarDU dotsenti (PhD) M.Yusupova FarDU doktoranti***	**MAQOL VA MATALLARDA EVFEMIZMLAR TADQIQI**	**131**
35.	***N.A.Xoshimova FarDU dotsenti (PhD)***	**GENDER TILI TADQIQIDA TAMOYILLAR TA’RIFI**	**134**
36.	***Adamboyeva Nafisa Qodirberganovna FarDU katta o‘qituvchisi (PhD)***	**TURLI TIZIMLI TILLARDA NUTQDA ISHLATILADIGAN PRONOMINAL XUSUSIYATLARNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI**	**137**
37.	***Azimova Sayyora Xusanboyevna FarDU katta o‘qituvchisi (PhD)***	**FUNDAMENTALS OF A PRAGMATIC APPROACH TO TEXT ANALYSIS**	**140**
38.	***Maxmudova Nargiza Ravshanovna FarDU katta o‘qituvchisi (PhD)***	**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI ORNITONIMLARNING SHE’RIY MATNLARDA QO‘LLANIISHI**	**142**
39.	***Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna FarDU katta o‘qituvchisi (PhD)***	**KAUZATIVLIK VA UNING TILSHUNOSLIKDA O‘RGANILISHI**	**146**
40.	***Rajabov Feruz Umarqulovich Qarshi MII akademik litseyi dotsenti, (PhD)***	**O‘ZBEK TILIDA OMONIMLARNING LEKSIKOGRAFIK TALQINI**	**151**
41.	***Feruza Abduraximova Boxadirovna FarDU Ingliz tili va adabiyoti fakulteti katta o‘qituvchisi (PhD) To‘xtasinova Mubina Aziz qizi FarDU talabasi***	**AVSTRALIYA VA KANADA INGLIZ TILISI O‘RTASIDAGI FARQLAR**	**157**
42.	***Feruza Abduraximova Bahodirovna FarDU Ingliz tili va adabiyoti fakulteti katta o‘qituvchisi (PhD) Mahmudova Mohira Qobiljon qizi FarDU talabasi***	**ANTONIM VA SINONIMLARNING TASNIFI**	**160**
43.	***Turdaliyeva Dilfuzaxon Qo‘qon DPI doktoranti (PhD)***	**TILNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARINI YORITISHDA XALQ MAQOLLARINING PRAGMATIK TALQINI**	**163**
44.	***Feruza Abduraximova Boxadirovna FarDU katta o‘qituvchisi (PhD) Muhammedova Inobatxon Shavkatjon qizi FarDU talabasi***	**INGLIZ TILIDA SO‘Z YASASH XUSUSIDA**	**165**
45.	***Azimova Sayyora Xusanboyevna FarDU katta o‘qituvchisi (PhD) Ubaydullayeva Nilufarxon Xayrullo qizi FarDU magistranti***	**NUTQ AKTLARI: PRAGMATIK NAZARIYADAGI ILTIMOSLAR VA TAKLIFLAR**	**168**
46.	***Axmadjonov Nurbek Zokirjon o‘g‘li FarDU katta o‘qituvchisi (PhD***	**NUTQIY AKTLAR TIPOLOGIYASI VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI**	**172**
47.	***Abdishukur Musayevich Shofqorov O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti***	**TAKRORIY SO‘Z VA BADIIY TAKROR**	**178**
48.	***Feruza Abduraximova Boxadirovna***	**LEKSIKOLOGIYADA SO‘ZLARNING**	**181**

	FarDU katta o‘qituvchisi(PhD) Maqsudova Mubinaxon FarDU talabasi	**MOHIYATI XUSUSIDA**	
49.	***Ergashova Muhayyo Valijonovna Qo‘qon DPI dotsenti***	**TIL SATHLARIDA LOKAL IFODALANISHLAR**	**186**
50.	***M.Saminjonov FarDU o‘qituvchisi***	**QASAMYODLARNING MILLIY-MADANIY XOSLANISHI XUSUSIDA**	**191**
51.	***Mahmudova Nilufarxon To‘lqinjon qizi Qo‘qon DPI katta o'qituvchisi***	**DUNYO TILSHUNOSLIGIDA TOPISHMOQLARNING O‘RGANILISHI**	**194**
52.	***Rahmonov Husanboy Abjalil o‘g‘li Qo‘qon DPI o‘qituvchisi (PhD) Mahmudova Sevaraxon Abdurashidova Nilufar Qo‘qon DPI talabalari***	**OLAMNING BADIIY MANZARASI VA UNDA ASSOTSIATIV BIRLIKLARNING O‘RNI**	**197**
53.	***Feruza Abdurahimova FarDU katta o‘qituvchisi(PhD) Xolbekova Soliha Jahongir qizi FarDu talabasi***	**INGLIZ TILIDA IFODALAR ROLI**	**200**
54.	***Kamola Xamidova Mamirovna Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi (PhD)***	**FARG‘ONA VODIYSI TOPONIMIYASINING MANBALARI VA TARIXIY VARIANTLARI TADQIQI**	**204**
55.	***Qo‘ldasheva Dilnavoz Xatamovna FarDU katta o‘qituvchisi (PhD)***	**FURQAT IJODIDA JONLANTIRISHNING BADIIY-LISONIY AKTUALLASHUVI**	**208**
56.	***Toshpo‘latova Mahbuba Ikromovna The senior teacher of Fergana Branch of Tashkent University of Information Technologies***	**CONCEPTUAL AND COGNITIVE CHARACTERISTICS OF PERSONALITY**	**212**
57.	***Feruza Abduraximova Boxadirovna FarDU katta o‘qituvchisi (PhD) Zuhra Olimova Odiljon qizi FarDU talabasi***	**INGLIZ TILI VA O‘ZBEK TILIDA OLD QO‘SHIMCHALARNING AHAMIYATI**	**216**
58.	***Maxmudova Nargiza Ravshanovna FarDU katta o‘qituvchisi (PhD)***	**BADIIY ASARLARDA O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI ORNITONIMLARNING QO‘LLANIISHI**	**220**
59.	***Ergasheva Zilola Saydullayevna O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti o‘qituvchisi***	**MERONIMIYA HODISASI VA UNING LINGVISTIKADAGI O‘RNI**	**224**
60.	***Ergashova A. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti katta o‘qituvchisi***	**MIKROTOPONIMLARNING MORFOLOGIK TAHLILI XUSUSIDA**	**226**
61.	***Valiyeva Muxayyo Salimovna, Qo‘qon DPI o‘qituvchisi***	**ONOMASIOLOGIYA NOMLANISH JARAYONINI O‘RGANUVCHI FAN**	**230**
62.	***Abdujalilova Feruza Shodiyarovna Jizzah davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi***	**FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA MILLIY MADANIYATNING AKS ETISHI**	**235**
63.	***Abdujalilova Feruza Shodiyarovna Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi***	**NUTQIMIZ KO‘RKI: IBORALAR VA ULARNING TURLARI**	**239**
64.	***Muslimjon Nasirov Qo‘qon DPI o‘qituvchisi Malikaxon Nasirova Qo‘qon DPI talabasi***	**TERMINLARNING TUZILISHIGA KO‘RA TURLARI MASALASI**	**243**
65.	***Xolmurotova Gulnora Sattorovna Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi***	**“INTERYER-DIZAYN” SOHA TERMINLARIDA IJTIMOIY QADRIYATLARNING IFODALANISHI**	**247**
66.	***Karimova Shaxloza Boyquzi qizi FarDU o‘qituvchisi***	**O‘ZBEK VA INGLIZ FRAZEOLOGIZMLARIDA BIR SONI**	**250**

		KOMPONENTINING PARADOKSLARI	
67.	***Ernazarova Hilola*** ***Teacher in KSPI***	**HISTORY AND ASPECTS OF THE STUDY OF PLUG-IN STRUCTURES**	**254**
68.	***Karimova Shaxloza Boyqo‘zi qizi*** ***FarDU o‘qituvchisi***	**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI SON KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARDA KVANTITATIVLIK IFODASI**	**258**
69.	***Egamnazarova Zaynab Xolmurod qizi*** ***Termiz davlat pedagogika instituti***	**ELEKTRON LUG‘ATLAR VA ULARDA TERMINLARNING BERILISHI**	**261**
70.	***Xaitova Gulhayo Tovasharovna*** ***Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi***	**TILSHUNOSLIKDA “YAQIN-UZOQ” OPPOZITSIYALARINING UMUMIY TUSHUNCHASI**	**265**
71.	***Meliboyeva Marhabo Sharipovna*** ***Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi*** ***Muhammadqodirova Feruzabonu Otabek qizi*** ***Qo‘qon DPI talabasi***	**KO‘MAKCHILAR PRESUPPOZITSIYASI**	**268**
72.	***Jo‘rayeva Nilufar Sobirjon qizi*** ***Termiz davlat pedagogika instituti***	**TUSHUNCHALAR DUNYONING MILLIY MANZARASINING FRAGMENTI SIFATIDA**	**272**
73.	***Ubaydullayeva Orzigul Abdixakimovna*** ***Qarshi MII akademik litseyi o‘qituvchisi***	**POETONIMLARNING MANBALARDA TASNIFLANISHI**	**275**
74.	***Adamboyeva Nafisa Qodirberganovna*** ***FarDU katta o‘qituvchisi (PhD)***	**NOQARDOSH TILLARDA NOMINAL MUROJAATLARNING GRAMMATIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATI**	**279**
75.	***Ezoza Kilichova*** ***Navoi Innovations University***	**DIFFERENCES IN SYSTEM STRUCTURE BETWEEN UZBEK AND ENGLISH PHYSICS TERMS**	**281**
76.	***Majidova Shahnoza Komilovna*** ***Termiz davlat pedagogika institute katta o‘qituvchisi***	**O‘ZBEK TILI GIDRONIMLARNING O‘RGANILISHI**	**284**
77.	***Axmadjonova Shahnoza Tolibjon qizi*** ***FarDU o‘qituvchisi***	**O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA PUBLITSISTIK (OMMABOP) USLUBNING LEKSIK XUSUSIYATLARI**	**288**
78.	***Азимова Сайёра Хусанбоевна*** ***Ферганский Государственный Университет*** ***старший преподаватель***	**ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ТЕОРИИ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ ПРАГМАТИКИ В ЛИНГВИСТИКЕ**	**292**
79.	***Мирзаюнусова З.И*** ***Преподаватель Кокандский государственный педагогический институт***	**ФОРМИРОВАНИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ – ИНОФОНОВ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ**	**295**
80.	***Ziyamova Shahlo Odiljanovna*** ***Namangan viloyati Chortoq tumani 53-sonli DIUM oliy toifali ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi***	**GRAMMATIK MA’NO**	**298**
81.	***Usmonov Yorqinbek Muxtorjon o‘g‘li*** ***Qo‘qon davlat pedagogika instituti***	**MO‘TADILLASHISH JARAYONIDA ZIDLANISHLARNING HOSIL BO‘LISH USULLARI**	**302**
82.	***Maxmudova Lazokat Toirjon qizi*** ***Qo‘qon DPI o‘qituvchisi***	**TILSHUNOSLIKDA SPORT TERMINLARINING QO‘LLANILISHI**	**305**
83.	***Basoat Nabiyevna Kimsanboyeva*** ***FarDU tadqiqotchisi***	**“DEVONU LUG‘OTI-T-TURK”DA MIQDORNING GRAMMATIK MORFEMALAR ORQALI IFODALANISHI**	**307**
84.	***Mamarasulov Ahmadjon Anvarjon***	**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA**	**310**

	o‘g‘li *University of Business and Science* *o‘qituvchisi*	**NORASMIY NUTQ UNSURLARINING IFODALANISHI**	
85.	*Murodova Firuza Jalolovna* *Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi*	**O‘ZBEK TILIDA HARBIY VATANPARVARLIK NUTQI LEKSIKASI HAQIDA**	**316**
86.	*Qoravoyeva Shoira Zafarjon qizi* *Toshkent tibbiyot akademiyasi Chirchiq filiali o‘qituvchisi*	**STYLISTIC PROBLEMS OF TRANSLATION OF PHRASEOLOGICAL UNIT**	**319**
87.	*Feruza Abduraximova Boxadirovna* *FarDU katta o‘qituvchisi (PhD)* *Mamajonova Muhlisaxon Muzaffarovna* *FarDU talabasi*	**POLISEMIYA VA MONOSEMIYANING QIYOSIY TAHLILI**	**325**
88.	*Dushatova Shohsanam Baxtiyor qizi* *FarDU o‘qituvchisi*	**OMADSIZLIKNI IFODALOVCHI EVFEMIZMLARNING TEMATIK TASNIFI**	**328**
89.	*Toshqulova Zebiniso* *Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi* *Namozov Komil,* *Abdujabborov Shahzod* *Termiz davlat pedagogika instituti talabalari*	**SIFAT SO‘Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI**	**331**
90.	*M.N.Mamadjanova* *Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi* *Kortabayeva Guljamal* *Qozog‘iston milliy universiteti dotsenti*	**MIQDOR KATEGORIYASI TALQINI**	**335**
91.	*M.N.Mamadjanova* *Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi* *O.Najmiddinova* *Qo‘qon DPI talabasi*	**MIQDOR MA’NOSI KO‘RSATKICHLARI**	**339**
92.	*Jurayeva Muqaddam Abdug‘ofur qizi* *TATU Farg‘ona filiali*	**REKLAMA MATNLARI VA REKLAMA MATNLARI PRESUPPOSITSIYASI**	**342**
93.	*Xudoyberdiyeva Oyjamol Muzaffarovna* *Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi*	**METAFORIZATSIYA JARAYONI RAQS TERMINOLOGIYASIDA**	**345**
94.	*Usmanova Xumora Ahmadjonovna* *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti katta o‘qituvchisi*	**O‘ZBEK SHE’RIYATIDAGI RAMZLARNING LINGVOSEMIOTIK TASNIFI**	**348**
95.	*Turdimatova Madinaxon Ravshanbek qizi* *FarDU o‘qituvchisi*	**DUNYO TILSHUNOSLIGIDA KINOYANING IFODA VOSITALARI TADQIQI**	**352**
96.	*Saydaliyeva Mahliyo.* *Qo‘qon DPI tayanch doktoranti*	**KOGNITIV STILISTIKANING ASOSIY TERMINLARI**	**357**
97.	*Sodiqova Baxtigul Ibodullaevna* *Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti*	**FAULZ IJODINING ADABIY-FALSAFIY ASOSLARI**	**362**
98.	*Sayidov Shukrullo Xailjonovich* *TATU FF tadqiqotchisi*	**SOTSIOLINGVISTIKANING SHAKLLANISH TARIXI**	**367**
99.	*Meliqo‘ziyev Azimjon Latifjon o‘g‘li* *tadqiqotchi*	**KO‘Z VA QOSH MIMIKASI**	**370**
100.	*Ro‘zimatova Dilnoza Murodovna* *O‘zRFA, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti*	**IJTIMOIY MAQOMNI IFODALASHDA NOVERBAL VOSITALARNING O‘RNI**	**372**
101.	*Obilov Muzaffar Odiljon o‘g‘li* *Ahmadjanov Tursunpulat Ahmadjon o‘g‘li* *University of Business and Science*	**DICHOTOMY OF THE MEANINGS OF OBJECTIVE AND SUBJECTIVE MODALITY**	**376**

102.	***Raxmonova Marjona Jinaydullo qizi*** ***Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti izlanuvchisi***	**NEYROLINGVISTIK KASALLIKLAR BILAN OG‘RIGAN BEMORLARDA ICHKI NUTQ**	**382**
103.	***Bobozaripova Malohat*** ***Navoiy DPI doktaranti***	**TEZAURUS LUG‘ATLARNING SHAKILLANISHI VA UNING NAZARIY ASOSLARI**	**386**
104.	***Rajabov Elshod Erkinovich*** ***NavDPI doktoranti,*** ***Qiyomova Nigora Bahodir qizi*** ***Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani 34-umumiy o‘rta ta’lim maktabi oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi***	**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA “OTA-ONA” FREYMI PRAGMA-SEMANTIK XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI**	**390**
105.	***Mustafayev Elyor Odil o‘g‘li*** ***Toshkent amaliy fanlar universiteti mustaqil izlanuvchisi***	**INGLIZ VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FRAZEOLOGIK IBORALARNING O‘RGANILISHI**	**401**
106.	***Raximova Feruzaxon Toxirjon qizi*** ***FarDU tayanch doktoranti***	**NUTQIY AKTLARNI VOQEALANTIRUVCHI FONETIK BIRLIKLAR**	**405**
107.	***Rajapova Nafisa*** ***Xurramova Barno*** ***Toshqulova Zebiniso*** ***Termiz davlat pedagogika instituti***	**O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SIFAT SO‘Z TURKUMIGA OID UMUMIY TADQIQOTLAR**	**409**
108.	***Gulnoza Zaynutdinova*** ***FarDU mustaqil tadqiqotchisi***	**SHUHRAT ORIF IJODIDA METAFORA VA UNING BADIIY-LISONIY O‘RNI**	**413**
109.	***Qodirova Mohinur Saydullo qizi*** ***Qo‘qon DPI tayanch doktoranti***	**TILSHUNOSLIKDA PARANTEZ BIRLIKLARNING O‘RGANILISHI**	**418**
110.	***Abdurahmon Latipov*** ***FarDU tayanch doktoranti***	**“NAZMI AQOID” ASARIDA SHAKLDOSH SO‘ZLARNING QO‘LLANILISHI**	**421**
111.	***Boyboboyev Hayotjon Abdujabborovich*** ***FarDU mustaqil izlanuvchisi*** ***Ilmiy rahbar: Mo‘minov Siddiqjon Mirsobirovich,*** ***filologiya fanlari doktori, professor***	**TAHLIL VA TAHRIR TALQINI**	**426**
112.	***Ra’noxon Ubaydullayeva*** ***Qo‘qon DPI mustaqil tadqiqotchisi***	**RANGLAR ASSOTSIATSIYASINI ANIQLASHNING TAJRIBAGA ASOSLANGAN AMALIYOTI**	**429**
113.	***Nizomova Zarifa Kamoliddin qizi*** ***Nam DU mustaqil izlanuvchisi***	**SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA KINESIKANING AHAMIYATI**	**433**
114.	***Xalilova Nilufar*** ***Qo‘qon DPI tayanch doktoranti***	**TARIXIY LAQABLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI**	**438**
115.	***Bozorboyeva Shahnoza Alisher qizi*** ***GulDU magistranti***	**SIFAT SO‘Z TURKUMIDAGI BIRIKUVCHANLIKNING LEKSIKOGRAFIK TALQINI**	**443**
116.	***Komilova Shaxrizoda Sherzod qizi*** ***FarDU magistranti***	**NUTQNING LINGVOSTILISTIK ASPEKTIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR**	**447**
117.	***Anastasiya Aleksandrovna Shikina*** ***FarDU magistranti*** ***Nargiza Kabilovna Abbasova*** ***FarDU dotsenti***	**THEORETICAL PROBLEMS OF LINGUISTICS**	**451**
118.	***Vaisova Muhayyo Akbarovna*** ***UrDU magistranti***	**O‘ZBEK TILI MATNLARIDAGI KALIT SO‘ZLARNI AVTOMATIK ANIQLASH**	**458**
119.	***Tursunova Odinaxon O‘ktamjon qizi*** ***Qo‘qon DPI magistranti*** ***Ilmiy rahbar: Toshxujayeva Sh.*** ***O‘zbek tili kafedrasi dotsenti***	**PROFESSOR ODILJON BOZOROV ILMIY MEROSINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI**	**460**

120.	***Saidov Muslimbek Otabekovich Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti***	**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MODALLIK KATEGORIYASI**	**463**
121.	***Sohiba Otaxonova Urganch davlat universiteti magistranti Ilmiy rahbar: D.T.Yuldashev filologiya fanlari doktori (DSc)***	**ZAMONAVIY NOM-TAXALLUSLAR (NICKNAME) HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR**	**467**
122.	***Esonov Rustam Raxmonali o‘g‘li Qo‘qon DPI doktoranti***	**ERTAK MATNINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**	**473**
123.	***Qarshiboyeva Yulduz Baxtiyor qizi Guliston davlat universiteti magistranti***	**UMUMISTE’MOL SO‘ZLARI VA MAXSUS LEKSIKADA OMONIMLIK MUNOSABATI**	**475**
124.	***Shoxruhbek Umidjonov O‘zMU magistranti***	**LEKSIK SINONIMIYA VA SO‘Z MA’NOVIY MUQOBILI LISONIY ATAMALARINING TAHLILI XUSUSIDA**	**478**
125.	***Qo‘shmurodova Dilafro‘z Ikromjon qizi O‘zMU magistranti***	**JAHON REKLAMA MATNLARINING TILSHUNOSLIKDA O‘RGANILISHI**	**481**
126.	***Yunusova Sayyoraxon Mo‘minjon qizi ADU magistranti***	**TILSHUNOSLIKDA “ONALIK” KONSEPTINING O‘RGANILISHI**	**485**
127.	***Nurmatova Surayyo To‘lqinjon qizi FarDU magistranti***	**SIROJIDDIN SAYYID SHE’RLARIDA JONLANTIRISHNING IFODALANISHI**	**488**
128.	***Rayhon Sobirjon qizi Malikova Qo‘qon DPI magistranti***	**O‘ZBEK TILIDA “QUVONCH” KONSEPTINING IFODALANISHI**	**490**
129.	***Abduvaliyeva Kumush Zafarjon qizi TDSHU magistranti***	**TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIKDA POLISEMIYA**	**493**
130.	***Ibraximova Iroda Bobir qizi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti***	**KO‘P TILLILIK VA LISONIY IDENTIKLIK MUNOSABATINI TADQIQ QILISHDA QO‘LLANILUVCHI METODLAR TAVSIFI**	**496**
131.	***Zaylobiddinova Mohtoba Sherzod qizi O‘zMU magistranti***	**PRAGMATIKADA NUTQIY AKT NAZARIYASI**	**502**
132.	***Shahzoda Sog‘inboyeva NamDU talabasi Ilmiy rahbar: Umidjon Qo‘ziyev Namangan davlat universiteti***	**FRAZEOLOGIZMLAR VA BOSHQA PAREMIOLOGIK BIRLIKLAR SEMANTIKASI YUZASIDAN AYRIM FIKRLAR**	**506**
133.	***Sodiqova Maftuna Xamdam qizi FarDU talabasi***	**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI SO‘Z YASOVCHI QO‘SHIMCHALARNING FARQLI VA O‘XSHASH JIHATLARI**	**510**
134.	***Omoniddinova Durdonaxon Janobiddin qizi FerSU, student***	**STRATEGIES FOR EFFECTIVE DATA COLLECTION**	**512**
135.	***Marjona Orifova SamDU talabasi Ilmiy rahbar: dots. U.Rashidova***	**KIYIM-KECHAK NOMLARI ASOSIDA SHAKLLANGAN FRAZEMALARNING BADIIY MATNDA QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI**	**517**
136.	***Xoshimov Muhammadiso Baxodir o‘g‘li Qo‘qon DPI talabasi Ilmiy rahbar: Najmiddinov Ahmad Rahmatovich (PhD)***	**THEORETICAL ISSUES OF LINGUISTICS**	**521**
137.	***Akramova Ismigul Ilhomjon qizi talaba***	**O‘ZBEK VA INGLIZ TILIDA SO‘Z YASALISHI**	**526**
138.	***Nazokatxon Boqijonova Qo‘qon DPI, talaba Ilmiy rahbar: M.Rahimova Qo‘qon DPI dotsenti***	**O‘ZBEK TILIGA ARAB TILIDAN O‘ZLASHGAN SO‘ZLAR SEMANTIKASINING TADRIJIY TARAQQIYOTI**	**530**

139.	***Ominaxon Hosilova*** ***Qo‘qon DPI talabasi***	**FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING BADIIY ADABIYOTDA O‘ZARO GENDER MUNOSABATLARI**	**533**
140.	***Adhamova Maftuna Muzaffar qizi*** ***FarDU talabasi***	**ANTONIMLARNING TILDAGI MUAMMOLARI**	**536**
141.	***Davlatova Hilola Dilshodjon qizi*** ***FarDU talabasi***	**ABDULLA QAHHORNING “KAMPIRLAR SIM QOQDI” HIKOYASIDAGI AYRIM SO‘ZLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI**	**539**
142.	***Davlatova Hilola Dilshodjon qizi*** ***FarDU talabasi***	**O‘TKIR HOSHIMOVNING “IKKI ESHIK ORASI” ROMANINING LINGVOPOETIK TAHLILI**	**542**
143.	***Yunusaliyeva Nozima*** ***FarDU talabasi***	**O‘ZBEK VA NEMIS XALQLARINING DINIY BAYRAM BILAN BOG‘LIQ LEKSIK BIRLIKLAR TADQIQI**	**544**
2-SHO‘BA: **ONA TILI VA ADABIYOT O‘QITISHNING AMALIY MASALALARI**			
1.	***Алимсаидова Сайёра Амидьеевна*** ***доктор педагогических наук,*** ***профессор Кокандский*** ***госпединститут***	**ДУХОВНОЕ РАЗВИТИЕУЧАЩИХСЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ**	**548**
2.	***M.Jamoliddinov*** ***Qo‘qon DPI dotsenti*** ***M.G‘iyosiddinova*** ***Qo‘qon DPI o‘qituvchisi***	**UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA ADABIYOT VA TASVIRIY SAN’AT DARSLARINI UYG‘UNLIKDA O‘TISH USLUBIYOTI**	**550**
3.	***Abdurahmonova B.*** ***Qo‘qon DPI dotsenti***	**O‘QUVCHILARNING BILIM, KO‘NIKMA, MALAKALARINI INNOVASION YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**	**553**
4.	***Xidirova Munavara Rustamovna*** ***Jizzah davlat pedagogika instituti (PhD)***	**TOG‘AY MUROD HIKOYALARIDA REALISTIK TASVIR**	**556**
5.	***Gulchiroyxon Abdurahimova*** ***Bag‘dod tumani, 6-maktab o‘qituvchisi*** ***Zokirjon Isaqov*** ***Qo‘qon DPI dotsenti***	**2-SINF “ONA TILI” DARSLIGIDA BO‘G‘INGA OID BILIMLARNING BERILISHI**	**560**
6.	***Umidaxon Niyozmatova*** ***O‘zbekiston tumani, 67-maktab o‘qituvchisi*** ***Zokirjon Isaqov*** ***Qo‘qon DPI dotsenti***	**BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA RASM ASOSIDA HIKOYA QILISH MASHQLARI KREATIVLIKNI OSHIRISH OMILI SIFATIDA**	**563**
7.	***Закирова Дилрабо Хайдаровна*** ***старший преподаватель*** ***Кокандского ГПИ, (PhD)***	**АКТУАЛЬНЫЕ ТЕМЫ СОВРЕМЕННОГО ЯЗЫКОЗНАНИЯ**	**568**
8.	***Исраилова Гулнара Мамаджановна*** ***преподаватель Кокандского Государственного педагогического института***	**МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК НАУЧНАЯ ДИСЦИПЛИНА**	**572**
9.	***Исраилова Гулнара Мамаджановна*** ***преподаватель Кокандского Государственного педагогического института и студентки*** ***Шерматова Роза,*** ***Саминова Рухшона, Саминова Камола***	**МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ**	**576**
10.	***Gulnoza Bobonazarova*** ***O‘zbekiston davlat san’at va***	**JAHON ADABIYOTINI O‘ZLASHTIRISHDA INTERFAOL**	**580**

	madaniyat instituti o‘qituvchisi	**METODLARDAN FOYDALANISH**	
11.	***Ибрагимов Фарход Базарбаевич преподаватель Кокандского Государственного педагогического института***	**АЛИШЕР НАВОИ И МИРОВАЯ КУЛЬТУРА**	**583**
12.	***G.Abdiraimova Qarshi xalqaro universiteti katta o‘qituvchisi Qiyomova Durdona Qarshi xalqaro universiteti talabasi***	**TIL TA’LIMIDA ORFAGRAFIK VA PUNKTUATSION XATOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISHDA DIDKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI**	**587**
13.	***Normurodova Zarifa Ruziqulovna Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi***	**OBRAZLI IFODALAR HOSIL QILISHDA EPITET**	**591**
14.	***Ganiyeva Malikaxon Sadikjanovna FarDU o‘qituvchisi***	**O‘ZBEK TILINING NAZARIY VA AMALIY MASALALARINI TAHLIL QILISH**	**594**
15.	***Axmadjonova Shahnoza Tolibjon qizi FarDU o‘qituvchisi***	**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA PUBLITSISTIK USLUBNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**	**596**
16.	***Sevara Abdusalomova Toshloq tumani 21-o‘rta maktabning ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi***	**“O‘G‘RI” HIKOYASIDAGI AMALDORLAR NUTQIY XARAKTERISTKASI**	**599**
17.	***Yulduz Soatovna Soatova Surxondaryo viloyati Termiz tumani 29-umumta’lim maktabi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi***	**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR IJODIDA ANTITEZA**	**601**
18.	***Мирзаюнусова З.И Преподаватель кафедры узбекской и русской филологии Кокандский государственный педагогический институт***	**О ПРИЧИНАХ СОЗДАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДИК В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ**	**604**
19.	***Sadikova Mukaddam Islamovna, O‘zDSMI katta o‘qituvchisi***	**SAN’AT SOHASI TALABALARINING NUTQIY KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA IDIOMLARDAN SAMARALI FOYDALANISH**	**609**
20.	***Bomurodova Gulhayo Jumayevna Nizomiy nomidagi TDPU o‘qituvchisi***	**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA REFLEKSIV QOBILIYAT - KASBIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSI**	**613**
21.	***Dadabayeva Farog‘at Zarifovna O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti o‘qituvchisi***	**BO’LAJAK SAN’AT VA MADANIYAT XODIMLARIGA TIL VA ADABIYOT O’QITISHNING AHAMIYATI**	**616**
22.	***Turakulova Umidaxon Anvarovna Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi***	**TOHIR MALIKNING ETALON QO‘LLASH MAHORATI**	**619**
23.	***Axmadjanova Malika Maxmudjon qizi Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti***	**XORIJIY TILNI O‘QITISHDA SO‘Z BOYLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK TADQIQI**	**622**
24.	***Axmadjanova Madina Maxmudjon qizi Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti***	**GRAMMATIK MINIMUMNI BELGILASH BO‘YICHA XALQARO TAJRIBALAR**	**628**
25.	***Исраилова Гулнара Мамаджановна преподаватель Кокандского Государственного педагогического института и студентки Халилова Нигина, Каюмова Саида, Очилова Камола***	**ИНТЕРЕСНЫЕ ФАКТЫ ОБ АЛЕКСАНДРЕ СЕРГЕЕВИЧЕ ПУШКИНЕ**	**632**
26.	***Fazildinova Sevara Nematovna***	**ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA**	**634**

	FarDU mustaqil izlanuvchisi	**SHIRIN” DOSTONI BADIIY VA G‘OYAVIY XUSUSIYATLARI**	
27.	*Yo‘ldashova Rayxon Baxtiyor qizi*	**XORAZM DOSTONLARDAGI FORSIY ASOSLI AYOL NOMLARI**	**639**
28.	*Toshmirzayeva Sharofat Mirbabayevna Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti erkin tadqiqotchisi*	**ONA TILI DARSLARI: SINONIM SO‘Z MA’NOSINI O‘ZLASHTIRISHDA VALENTLIK METODIDAN FOYDALANISH**	**643**
29.	*G.M.Axmadjonova FarDU doktoranti*	**THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AND ADVANCED METHODOLOGICAL APPROACHES IN THE FORMATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS AS BLINGISTS**	**647**
30.	*Gulbahor Qushaqova Qo‘qon DPI tayanch doktoranti*	**ZAVQIY IJODIDA DAVR NEOLOGIZMLARI**	**653**
31.	*Chehroza Suvanova O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti talabasi*	**SAVODXONLIK KOMPETENTLIGI**	**658**
32.	*Abdiraimova Xusnobod Samat qizi ToshDO‘TAU doktoranti*	**O‘QISH SAVODXONLIGINING HAYOTIMIZDAGI O‘RNI VA TARIXI**	**660**
33.	*Nizomova Nargiza Aliyevna Assistant of the Fergana State University*	**THE IMPORTANCE OF TEACHING READING AND LISTENING SKILLS IN ENGLISH LESSONS**	**662**
34.	*Aripova Dilnozakhon Vakhobjon kizi Lecturer at the Kokand State Pedagogical Institute*	**VALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF USING VARIOUS TEXTBOOKS OF THE RUSSIAN LANGUAGE AS A FOREIGN LANGUAGE**	**666**
35.	*Saminova Mukarramoy Ikromjon qizi Qo‘qon DPI magistranti*	**UMUMIY O‘RTA TA’LIMDA TIL O‘QITISHNING UMUMIY ASOSLARI**	**668**
36.	*Bobojonova Xurshida Komiljon qizi Qo‘qon DPI magistranti*	**TIL O‘RGATISHDA YOSH XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH**	**670**
37.	*Zaripova Ruxsora Mirzali qizi Qo‘qon DPI magistranti Ilmiy rahbar: PhD, dotsent M.Rahimova*	**CHET TILLARINI O‘QITISHNING MAZMUNI VA TAMOYILLARI**	**673**
38.	*Akramova Shahnoza Shavkatjon qizi Qo‘qon DPI magistranti Ilmiy rahbar: Phd, dotsent M.Rahimova*	**ONA TILI VA IKKINCHI TILNI O‘QITISHDAGI O‘ZIGA XOS FARQLI JIHATLAR**	**676**
39.	*Sobirova Muzayyana Ilhomjon qizi Qo‘qon DPI magistranti*	**O‘ZBEKISTONDA ONA TILINI O‘QITISH MAZMUNINING TADRIJIY TARAQQIYOTI**	**678**
40.	*Axmedova O‘g‘iloy Muxiddinovna Qo‘qon DPI magistranti Ilmiy rahbar: Abdurahmonova Barnoxon Qo‘qon DPI dotsenti*	**ADABIYOT O‘QITISH METODIKASIDA BOQIJON TO‘XLIEVNING O‘RNI**	**681**
41.	*Saodatxon Sulaymonova FarDU talabasi*	**NAJMIDDIN ERMATOV SHE’RLARIDAGI BADIIY SAN’ATLAR VA OBRAZLAR TAHLILI**	**684**
3-SHO‘BA O‘ZBEK TILINING IJTIMOIY MUNOSABATLARDA TUTGAN O‘RNI			
1.	*Saodat Muxamedova Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti unversiteti professori filologiya fanlari doktori*	**O‘ZBEK TILIDA QO‘SHMA GAPLARDA PARADIGMATIK MUNOSABATLAR**	**688**

2.	***Hasanova Dilfuza Odilovna*** ***Qo‘qon DPI dotsenti (DSc)***	**O‘ZBEK TILINING NOLISONIY OMILLAR ASOSIDA BOYISHI**	**691**
3.	***Алимсаидова Сайёра Амидьеевна*** ***доктор педагогических наук, профессор Кокандский госпединститут***	**ВЗАИМОСВЯЗАННОЕ ИЗУЧЕНИЕ ЯЗЫКА И КУЛЬТУРЫ**	**694**
4.	***O.Y.To‘xtasinova*** ***Qo‘qon DPI dotsenti*** ***H.T.Ahmedova*** ***Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi*** ***Kortabayeva Guljamal*** ***Qozog‘iston milliy universiteti dotsenti***	**O‘ZBEK TILINING DAVLAT TILI SIFATIDAGI FAOLLIGINING ILMIY MANBALARI VA TA’LIM JARAYONI**	**697**
5.	***Usmonova S. A.*** ***Qo‘qon DPI dotsenti***	**MUSTAQILLIK VA O‘ZBEK TILI**	**702**
6.	***M.Rahimova*** ***Qo‘qon DPI dotsenti (PhD)*** ***D.Abdumannonova*** ***Qo‘qon DPI talabasi***	**YOSHLAR NUTQIDA SLENGLARNING QO‘LLANILISHI**	**705**
7.	***Dilmurod Ahmadaliyevich Ashurov*** ***University of Business and Science nodavlat oily ta’lim muassasasi dotsenti (PhD)***	**“O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA DINIY QARASHLAR BILAN BOG‘LIQ VAQT IFODALOVCHILARNING QO‘LLANILISHI**	**707**
8.	***Fozilova Odina Nabiyevna*** ***FarDU dotsenti (PhD)***	**ADIBLAR IJODIDA O‘ZBEK TILINING IJTIMOIY MUNOSABATI (Nosir Fozilovning “Malchik amaki” hikoyasi misolida)**	**710**
9.	***Xamdamjon Ismoilov*** ***O‘zDSMI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi***	**TIL VA ADABIYOT TARAQQIYOTI – YURT VA MILLAT TARAQQIYOTI**	**714**
10.	***Umurqulov Zafar Bekpo‘latovich,*** ***Termiz davlat universiteti dotsenti (PhD)***	**TIL VA MADANIYAT MUSHTARAKLIGI**	**718**
11.	***Dilnoza Jumayeva*** ***O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti dotsenti***	**USMON NOSIR YODI**	**722**
12.	***Valiyeva Nargizaxon Zamir qizi*** ***O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi***	**O‘ZBEK TILIDAGI SOTSIOLOGIK OMILLAR VA O‘ZGARISHLAR**	**725**
13.	***Ilmiy rahbar: Ahmedova Hikmatxon*** ***Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi*** ***Ahliddinova Kamola*** ***Qo‘qon DPI talabasi***	**O‘ZBEK TILIGA E’TIBOR HAR BIR O‘ZBEK UCHUNDIR**	**730**
14.	***Ganiyeva Malikaxon Sadikjanovna*** ***FarDU o‘qituvchisi***	**O‘ZBEK TILINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI**	**732**
15.	***Maksumova Umida Sadikjanovna*** ***FarDU o‘qituvchi***	**MADANIYATLARARO MULOQOT VA O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI**	**735**
16.	***Xudoyorova Nigora Nuriddinovna*** ***Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o‘qituvchisi***	**O‘ZBEK TILINING IJTIMOIY MUNOSABATLARDA TUTGAN O‘RNI**	**738**
17.	***G.Abdiraimova*** ***Qarshi xalqaro universiteti katta o‘qituvchisi*** ***Qurbonova Husnora*** ***Qarshi xalqaro universiteti talabasi***	**TIL – MILLAT QIYOFASINING AJRALMAS IN’IKOSI**	**741**
18.	***Nizomiddinova Dildora Nosirovna*** ***Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi***	**TIL – MILLAT KO‘ZGUSI**	**745**
19.	***G‘aniyev Nurbek O‘ktamovich*** ***Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti***	**QUYI ZARAFSHON VOHASI ETNOTOPONIMLARINING AREAL-XRONOLOGIK TAHLILI (Navoiy viloyati**	**749**

	Rahmatova Madina ***Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti talabasi***	**Qiziltepa tumani misolida)**	
20.	***Azimova Dilobarxon Berdiali qizi*** ***Qo‘qon DPI tayanch doktoranti***	**O‘ZBEK TILIDA LISONIY BELGI GRADATSIYASINING TIL BIRLIKLARINI SHAKLLANTIRISHI**	**756**
21.	***Qodirova Munisa Erkinjon qizi*** ***Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti***	**O‘ZBEK BADIIY ASAR TILIDA SAN’AT TERMINLARINING AKSIOLOGIK O‘RNI**	**759**
22.	***Lobar Akbarovna Aralova*** ***Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti***	**“DEVONU LUG‘OTIT TURK” LEKSIKASINING HOZIRGI O‘ZBEK TILIGA MUNOSABATI (JUFT SO‘ZLAR VA “SAYYOH” SO‘ZLAR MISOLIDA)**	**763**
23.	***Akmal Tursunov Raxmatullayevich*** ***Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti*** ***Xaitova Charos Gafur qizi*** ***Ibragimova Samiya Tahirovna*** ***Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti talabalari***	**DAVLAT TILINING XALQIMIZ HAYOTIDAGI O‘RNI**	**767**
24.	***Usmonova Sofiyaxon Alimovna*** ***Qo‘qon DPI dotsenti*** ***Sotiboldiyev Dilhayot Qobuljon o‘g‘li*** ***Qo‘qon DPI talabasi***	**SAID AHMADNING “JIMJITLIK” ROMANIDA DIALEKTAL SO‘ZLARNING IFODALANISHI**	**770**
25.	***Bozorov Muhammad Alijon o‘g‘li*** ***O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti***	**TILNING QADRIYATLAR VA INSONLAR O‘RTASIDA MUNOSABATLAR SHAKLLANISHINING YAXLIT NAMUNASIDIR**	**775**
26.	***G‘ulomov Akbarjon*** ***Qo‘qon DPI talabasi***	**O‘ZBEK TILINING RAQAMLI OLAMDAGI IMKONIYATLARINING KENGAYISHI**	**778**
27.	***Ergasheva Zebo Odiljon qizi*** ***Termiz Davlat pedagogika instituti talabasi***	**O‘ZBEK TILINING IJTIMOIY HAYOTIMIZDAGI O‘RNI VA ROLI**	**780**
28.	***Xamidova Zulfizar Akmaljon qizi*** ***Toshkent kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali talabasi***	**O‘ZBEK TILINING RIVOJLANISHIDA QONUN VA QARORLARNING O‘RNI**	**784**
29.	***Ergasheva Jasminabonu Azizjon qizi*** ***Qo‘qon DPI talabasi*** ***Ilmiy rahbar: R.A.Jo‘rayeva*** ***Qo‘qon DPI dotsenti (PhD)***	**O‘ZBEK TILINING IJTIMOIY MUNOSABATLARDA TUTGAN O‘RNI**	**787**